Энеолит даврида, тахминан мил. авв. IV минг йилликнинг ўрталаридан бошлаб Ҳиндиқуш ёнбағирларида Амударё – Панж ҳавзасидаги Кўкча, Қундуз, Дарё Банги ва Шеровон дарёлари воҳалари Балужистон – Ҳинд водийсидан кўчиб келган аҳоли гуруҳлари томонидан босқичма-босқич эгаллаб олинган[4].

Бу ҳудудлар (шимоли-шарқий Афғонистон) қадимги Бақтриянинг шарқий қисмини ташкил этган. Унинг тоғли жойларида ноёб минераллар ложувард ва металл (кумуш, олтин) конлари мавжуд бўлган[5]. Шу боис бу давр миграцияларнинг асосий сабабларидан бири тоғ конларини ўзлаштириш мақсадидан келиб чиққан.

Зарафшон воҳасида энеолит ва илк бронза даврида Саразм манзилгоҳи шаклланади; юқори даражада ривожланган маданий-хўжалик ҳудудлар (Балужистон, Жанубий Туркманистон)дан кўчиб келган қабилалар унга асос солади[6]. Бунда Зарафшон дарёсининг юқори ва қуйи оқимлари ҳамда Қизилқумда фойдали қазилмалар, мис ва қалай, олтин ва кумуш конлари мавжудлигини инобатга олиш лозим[7].

Саразм ўзига хос меъморчилик анъаналари – уй-жойлар, ибодатхоналар ва ҳунармандчилик соҳалари, металлдан ишланган қуроллар, буюмлар ҳамда ложувард, оникс, агат каби нодир тошлардан ясалган тақинчоқлар, маржонлар билан ажралиб туради[8].

Саразм аҳоли томонидан аввал ўзлаштирилмаган ҳудудда пайдо бўлган. Кўчиб келган Балужистон ва Жанубий Туркманистоннинг Геоксур воҳаси аҳоли гуруҳлари дастлаб бир-бирлари билан аралашиб, қоришиб кетмаган. Иккита миграция марказлари маданиятларига хос сопол идишларнинг ишлаб чиқарилиши, алоҳида гузарларни ташкил этган уй-жойларнинг жойлашиши шундан далолат беради. Бироқ илк бронза даврига келиб, Саразм моддий маданиятининг қиёфаси, қурилиш техникаси ва меъморчиликнинг хусусиятлари Ўрта Осиё жануби, Афғонистон ва Эроннинг шимоли-шарқий вилоятлари бронза даври маданиятларига ўхшаб кетади[9].

Умуман олганда, Панж ҳавзаси ва юқори Зарафшон воҳасининг энеолит даврида ўзлаштирилиши кенг миқёсдаги узоқ масофада амалга оширилган миграцияларнинг намунали босқичи ҳисобланади. Уларнинг сабаблари иқтисодий омиллар билан белгиланган эди.

Бронза давридан бошлаб Қадимги Шарқда – Миср, Иккидарё оралиғи (Месопотамия), Эрон, Ҳиндистон ва Ўрта Осиёни қамраб олган кенг ҳудудий миқёсда қимматбаҳо тош – ложувард ташқи савдо-сотиқ тизимида катта ўрин эгаллайди[10]. Шу боис Шўртўқай атрофидаги Ҳиндиқуш тоғлари конларидан қазиб чиқарилган ложувард нафақат Ҳинд водийсига, балки Эрон ва Элам орқали Миср ва Олд Осиё мамлакатларига ҳам етказиб берилган. “Ложувард йўли”нинг шаклланиши Қадимги Шарқ алоқа-савдо йўллари тизимида янги тармоқларини вужудга келтирган[11]. Улардан миграцияларнинг янги босқичларида фойдаланилган.

Юқорида миграцияларнинг иқтисодий сабаблари ҳақида сўз юритилди. Шунингдек, Қадимги Шарқ тарихи мисолида демографик омиллар таъсирида, яъни аҳолининг кўпайиши туфайли янги ўзлаштирилмаган ерларни эгаллаш мақсадида ҳам миграциялар амалга оширилган.

Адабиётларда мавжуд маълумотларга кўра, мил. авв. IV минг йилликнинг охирларида Жанубий Месопотамия – Шумерда аҳоли сонининг кескин ўсиб бориши натижасида Эроннинг жанубий-ғарбидаги Элам ҳудуди ўзлаштирилади ва кейинги даврларда бу ердан аҳоли гуруҳларининг Эроннинг шимоли-шарқи сари Ўрта Осиё ҳудудий чегараларига кўчиши бошланган[12].

Миграцияларнинг навбатдаги босқичи мил. авв. III минг йилликнинг охирлари – II минг йиллик бошларига тўғри келади. Улар қуйи Мурғоб дарёси (Марғиёна) ва Бақтрия ерларининг кенг миқёсда эгаллаб олиниши жараёнлари билан боғлиқ эди. В.И.Сарианидининг ёзишича, мил. авв. III минг йилликнинг иккинчи ярмида Яқин Шарқ ҳудудларида иқлимнинг исиб кетиши (аридизация) аҳолининг оммавий миграцияларига сабаб бўлган. Бу даврда ёмғирлар

миқдори кескин камая бориб, қурғоқчилик бошланган. Бундай шароитда аҳоли ўз яшаш жойларини ташлаб кетишга мажбур эди[13].

Подшоҳ Нарамсин (мил. авв. 2236-2200 й.) ҳукмронлиги даврида Месопотамияга ғарбдан кўчманчи дашт қабилаларининг бостириб кириши маҳаллий аҳоли миграциясининг ошиб кетишига олиб келган. Аккад, Шумер ва Элам қабилалари Шарқий Эрон ва Жанубий Туркманистон ерлари сари йўл олишган[14]. Кўчиб келишнинг оммавий хусусияти ҳақида Марғиёна ерларида аниқланган 100 дан ортиқ бронза даври археологик ёдгорликлари – манзилгоҳлар гувоҳлик беради. Мигрантларнинг ҳаракатлари Мурғоб воҳасини ўзлаштириш жараёни билан чекланмаган. Улар ўз мулки ва чорва подалари билан қўшни Бақтрия ҳудудига кириб келганлар. Марғиёна ва Бақтрияда шаклланган маданият археология фанида Гонур, Даштли-Сополли маданияти ёки Окс цивилизацияси деб аталади.

Демак, Марғиёна ва Бақтрия ҳудудлари ривожланган илғор Шарқ цивилизациялари марказларидан бошланган миграциялар натижасида ўзлаштирилади. Бу цивилизациялар вакиллари зироаткор-чорвадорлар, ҳунармандлар ҳамда меъморчилик тузилиш усулларини, мураккаб мудофаа тизими, уй-жойлар ва катта бинолар бунёд этиш техникасини билган бинокорлар эди. Улар ўз юртларидаги давлат ва бошқарув тизими таъсирида шаклланган илғор, уюшган жамият вакиллари бўлган[15]. Марғиёна ва Бақтрияда топиб текширилган йирик сарой ва ибодатхоналар, хўжалик мажмуалари шундан далолат беради[16]. Келгиндилар ўз моддий ва маънавий маданияти анъаналарини сақлаб қолган ҳолда, Шарқда маълум цивилизациянинг ҳудудий доирасини кенгайтиришга хизмат қилишган. Мазкур миграция тури Марғиёна – Бақтрия бронза даври археологиясида ўз аксини топган ва бошқа ҳудудларда аниқланган археологик белгиларга кўра маълум[17].

Энеолит ва бронза даврида Туркманистоннинг жанубий-ғарбидаги Копетдоғ ёнбағирларида сунъий суғоришга асосланган деҳқончилик маданияти ривожланган. Намозгоҳ ва Олтинтепа каби йирик археологик ёдгорликлар “қадимги деҳқонларнинг пойтахтлари” ёки “Олтинтепа цивилизациясининг шаҳарлари” деб аталган, шунингдек, мазкур цивилизациянинг Месопотамия ва қадимий ҳинд Хараппа цивилизацияси билан иқтисодий-маданий алоқалари мавжудлиги қайд этиб ўтилган[18].

Мил. авв. III минг йилликнинг охирларига келиб, бу йирик марказлар аста-секин таназзулга учрайди. В.М.Массоннинг ёзишича, аҳоли ўз турар жойларини тарк этиб, хусусий мулки, рўзғор буюмлари ва чорва подалари билан шарқий йўналишдаги қуйи Мурғоб воҳасига кўчишни бошлайдилар[19].

Миграциянинг асосий сабаблари қаторида кичик тоғ сойлари сувларидан сунъий суғориш – ирригацияга асосланган деҳқончиликда фойдаланиш имкониятларининг чекланиши, атрофдаги далаларга 2500 йил давомида ишлов бериш ва уларнинг суғорилиши натижасида тупроқнинг шўрланиши ҳамда иқлимнинг исиб кетиши каби омиллар уқтириб ўтилган[20].

Бундан кўриниб турибдики, Марғиёна – Бақтрия цивилизациясининг шаклланишига нафақат узоқ юртлардан кўчиб келган қабилалар, балки яқин жойлашган ўзга ҳудудларнинг аҳолиси ҳам катта ҳисса қўшган. Тадқиқотчилар томонидан Олтинтепа ва Окс цивилизацияларининг меъморчилик, ҳунармандчилик ва моддий маданиятининг асосий жиҳатлари таққосланган. Натижада йирик (монументал) меъморчилик, катта ибодатхоналар ва уй-жойлар қурилиши, аравалар ҳаракатига мўлжалланган кенг кўчаларнинг мавжудлиги, ҳунармандчилик соҳаларида (кулолчилик, металлсозлик, тошга ишлов бериш) яқин белгилар аниқланган[21].

Бронза даври Марғиёна – Бақтрия цивилизацияси меъморчилиги ва қурилиш техникаси, тасвирий санъат ва умуман, бадиий маданият намуналари ўзига хос хусусиятлари билан ажралиб туради. Мисол тариқасида, Гонур, Даштли-Сополли маданиятининг бинокорлиги режаси тамойиллари тўғрибурчак, доира ва тўртбурчак каби аниқ геометрик шаклларга асосланган, мудофаа деворларида тўғрибурчак ва айлана кўринишдаги буржлар ҳамда шинаклар мавжуд[22].

Тош, сопол ва бронзадан ясалган Марғиёна – Бақтрия муҳр, туморлари тасвирларида (аждаҳо, илонлар, қушлар, мифологик манзаралар) ҳамда ҳайкалтарошлик намуналарида ва олтин, кумушдан ишланган идишлар тасвирларида Қадимги Шарқ цивилизацияси марказларининг маданий таъсири аниқланган[23]. Моддий ва маънавий маданият обидаларидаги бундай яқин ўхшашликлар Марғиёна – Бақтрия цивилизациясининг шаклланишида илғор маданий тараққиёт даражасига эга бўлган кенг ҳудудий миқёсдаги аҳоли вакилларининг иштирок этганлигидан дарак беради. Шу фикрга қўшимча сифатида таъкидлаш жоизки, қуйи Мурғоб ва Амударё бўйларидаги воҳаларга етиб келган мигрантлар деҳқончилик мақсадида аввал фойдаланилмаган бўз, ҳосилдор ерларни ўзлаштирганлар. Улар янги ўлкаларда рақибларга дуч келмаган бўлсалар керак. Аммо келгиндилар уларга ҳали кўп жиҳатлардан нотаниш заминда ўз тураржойлари, сарой ва ибодатхоналарини мудофаа деворлари билан ўраб олганлар. Бу борада улар олдин тўпланган билимлар, кўникмалар ва бинокорлик тажрибаларидан фойдаланишган.

Шундай қилиб, энеолит ва илк бронза даврларида Ўрта Осиёга амалга оширилган миграцияларни қуйидаги босқичларга ажратиш мумкин:

1) Мил. авв. IV минг йиллик ва III минг йилликнинг бошлари. Панж дарёсининг сўл соҳили ҳавзаси – Шарқий Бақтрия воҳаларининг ўзлаштирилиши. Миграция юзага келган таянч маркази – Балужистон, Ҳинд водийси.

2) Мил. авв. IV минг йилликнинг иккинчи ярми. Юқори Зарафшон воҳасининг ўзлаштирилиши. Кўчиб келишнинг бошланғич ҳудуди – Балужистон, Жанубий Туркманистон.

3) Мил. авв. III минг йиллик ўрталари. Панж дарёсининг сўл соҳили ҳавзасига амалга оширилган миграция. Унинг келиб чиқиш нуқтаси – Ҳинд водийси, Хараппа цивилизацияси.

4) Мил. авв. III минг йиллик охирлари – II минг йилликнинг бошлари Марғиёна ва Бақтрия воҳаларининг ўзлаштирилиши. Миграция бошланган дастлабки ҳудудлар – Олд Осиё, Иккидарё оралиғи, Эроннинг жанубий-ғарби ва шимолий-шарқи, Туркманистоннинг жанубий-ғарби.

Жанубий Туркманистон ва Балужистон илк деҳқончилик жамоалари маданиятига оид инновациялар Юқори Зарафшон Саразм манзилгоҳида акс этиши кузатилади[24]. Энеолит даврида, тахминан мил. авв. IV минг йилликнинг ўрталарида, Балужистон илк деҳқончилик маданияти вакиллари ҳамда кейинчалик бронза дарида Ҳинд цивилизацияси жамоаларининг миграциялари натижасида Панж ҳавзасида янги ўтроқ манзилгоҳлар шаклланган[25]. Шимоли-шарқий Афғонистон ҳудудидаги мил. авв. III минг йилликнинг ўрталарига оид савдо маскани ҳисобланган Шўртўқай факторияси Ҳинд цивилизациясининг маркази бўлган Мохенжо-Дародан 1100 км дан ортиқ узоқликда жойлашган[26]. Бу йўналишда мигрантлар баланд Ҳиндикуш тоғларининг довонларидан кесиб ўтган. Аниқланган сопол буюмлар, муҳрлар ва бошқа археологик топилмалар Шўртўқайга Ҳинд цивилизацияси вакиллари томонидан асос солинганлигидан дарак беради[27]. У тоғ-кон қазилма маҳсулотларини ишлаб чиқариш жойларидаги савдо факторияси сифатида вужудга келган. Мазкур ҳудуд Бақтриянинг шарқий қисмига тегишли бўлиб, бу тоғли ерлар камёб минерал ва металл ресурслари (лазурит-ложувард, кумуш, олтин) билан машҳур. Металлургия ва ҳунармандчилик учун зарур бўлган ашёлар узоқ ҳудудлар билан олиб бориладиган савдо алоқалари ривожини таъминлади.

Миграцияларнинг кейинги босқичи мил. авв. III минг йиллик охири – II минг йилликнинг бошлари билан белгиланади. Бу давр кенг миқёсда Мурғоб (Марғиёна) дарёси қуйи ҳудудларини, Афғонистоннинг шимоли-шарқий вилоятлари ва жанубий Ўзбекистон ерлари (Бақтрия) ўзлаштирилиши билан боғланган[28]. Маданият жиҳатдан юқори даражада ривожлаган аҳоли гуруҳларининг келгунига қадар қуйи Мурғоб ерларида ва Бақтриянинг тоғ олди ҳудудларида деҳқончилик у қадар ривожланмаган эди. Шу сабабли кўп сонли келгинди аҳоли томонидан ҳали ўзлаштирилмаган кенг ҳудудларда ўнлаб манзилгоҳлар бунёд этилди. Аҳоли кўпайиши босқичма-босқич ривожланаётган бир шароитда, ер-сув ресурслари мўллиги

сабаб улар учун рақобат йўқдек эди. Шунга қарамай улар қалъалар (Гонур, Даштли, Сополли) ҳамда мудофаа деворлар билан ўралган саройлар ва ибодатхоналар барпо этдилар.

Хараппа бинокорлик анъаналарига кўра манзилгоҳларнинг аксарияти тўртбурчак тархга эга бўлган ҳамда мудофаа деворлари буржлар билан кучайтирилган. Шу намуна асосида марғиёналик қурувчилар бунёд этган қалъалар ҳам тўртбурчак шаклда бўлиб, буржлар билан ҳимояланган[29]. Лекин, Марғиёна – Бақтриянинг бронза даври маданиятини келиб чиқиши масаласидаги бошқа назариялар қуйида таъкидлаб ўтилади.

Қадимги миграцияларнинг асосий сабаблари экологик, иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий омиллардан келиб чиққан. Булар қурғоқчилик, тупроқнинг шўрланиши ва чўлланиш жараёнлари ёки аҳоли сонининг ортиши ва зич жойлашиши, ишлов беришга яроқли ерларни, сув манбалари ва яйловларнинг чегараланганлиги, металлургия ривожи учун хом ашё ресурсларининг етарли эмаслиги (ёки мавжуд бўлмаганлиги) ва ниҳоят Месопотамия цивилизацияси мисолида оладиган бўлсак, шаҳар – давлатлар ўртасидаги янги ерларни ва савдо йўлларини эгаллаш борасидаги рақобат ҳамда ўзаро урушларда намоён бўлади[30]. Тадқиқотчиларнинг Шимоли-ғарбий ва Жануби-ғарбий Эронда Шумер моддий маданиятининг ёйилишини шумерликлар миграциялари натижаси билан боғлаш борасидаги келтирган далиллари бежиз эмас[31].

Марғиёна ва Бақтриянинг кўп сонли бронза даври деҳқончилик маданияти манзилгоҳлари миграцияларнинг кенг хусусиятларидан дарак беради. Мил. авв. III минг йиллик охири – II минг йиллик бошларида Олд Осиёдаги ҳарбий таҳдид авж олиши, урушлар ва айрим жамоаларга тўсатдан ҳужумлар натижасида, шунингдек, миграциянинг экологик ва ижтимоий-иқтисодий омилларини эътиборга олган ҳолда, аҳоли ўзлари яшаган ҳудудларни ташлаб, Эроннинг шарқий ва Туркманистоннинг жануби-ғарбий ҳудудларига ўрнашдилар. Бу ердан миграциялар шарқий йўналишда давом этган[32]. Келгиндилар – деҳқонлар, ҳунармандлар ва бинокорлар, Марғиёна ва Бақтрияга ўз мол-мулклари билан кўчиб, турли иншоотлар, мураккаб мудофаа тизими, шунингдек, катта бинолар (сарой ва ибодатхоналар) қуришда мураккаб геометрик тизимлардан фойдаланувчилардан иборат эди. Улар юқори даражада ривожланган ташкилий-ижтимоий ва маъмурий бошқарувга эга жамоалар бўлиб, Марғиёна ва Бақтриядаги сарой ва ибодатхона хўжаликларининг мавжудлиги ҳам буни асослайди. Бундай хўжаликлар аввал Шумер шаҳар-давлатлари ва Эламда вужудга келган.

Гонур, Даштли – Сополли маданиятлари соҳиблари дастлабки ўзлаштирилган ҳудудлар билан чекланиб қолмаганлар. Улар Кўҳитанг, Бойсун ва Жанубий Тожикистон тоғ олди воҳаларини ўзлаштирганлар. Шўртўқай савдо факториясида Хараппа цивилизацияси Бақтрия маданий инновацияси билан ўзгартирилди[33]. Бу ердан Ҳиндикуш орқали улар Ҳинд водийсигача етиб бордилар[34]. Даштли – Сополли моддий маданият намуналари Зарафшоннинг юқори қисмидаги Зарча Халифа[35], Шарқий Фарғонада (Шагим қабристони, Қирғизистон) аниқланган[36]. Фарғона водийсидан миграция Тарим ҳавзасигача (Шарқий Туркистон) давом этган[37]. Жанубий Тожикистон, Зарафшон воҳаси ва Шарқий Фарғонадан Гонур ва Жарқўтон типидаги илк шаҳарлар аниқланмаган. Меъморчилик, турар жойлар қурилиши хусусиятлари табиий-географик шарт-шароит ҳамда хўжалик фаолиятининг асосий йўналиши билан боғлиқ бўлган.

Бронза даври қабристонлари тадқиқ этилган Вахш ва Қизилсу (Жанубий Тожикистон) воҳалари майда шохли чорвани боқиш учун яроқли бўлган[38]. Афтидан, яйловларни мавсумий алмаштириш (қишлиқ-яйлов-қишлиқ) усулидаги чорвачилик хўжалиги жараёнидаги тез-тез содир бўлиб турган кўчишлар турар жойларнинг характерига таъсир кўрсатган. Хўжаликнинг бундай шакли, ўтроқ турмуш тарзига оид узоқ муддатли фойдаланишга мўлжалланган уй-жойлар қуришни талаб қилмайди. Табиий шароитнинг хусусиятлари ва хўжалик юритиш усули бу ерда илғор қурилиш-меъморчилик анъаналарини жорий этишга имкон бермаган.

Бронза даврида савдо алоқаларининг жадал ривожланиб бориши миграция жараёнларида ҳам муҳим аҳамият касб этди. Бу борада оссурияликлар савдо карвонлари мил. авв. II минг йиллик бошларида қалай учун узоқ масофада жойлашган конларга борганлиги

ҳақидаги хулосалар диққатга сазовордир ва бу конлар Афғонистоннинг тоғли ўлкаларида жойлашган деб ҳисобланади[39]. Шўртўқайдан топилган ложуварддан ишланган қадимий буюмлар бу минералнинг Бадахшондан қазиб олингани ҳамда уларни Ҳиндистон, шунингдек, Месопотамия ва Мисргача етказиб берилганидан гувоҳлик беради[40].

Саразм металлургия хом ашёсига эҳтиёж бўлган аҳоли томонидан ўзлаштирилган бўлиб, бир манзилгоҳда кўчиб келган қабилалар маҳаллий аҳоли билан бирга яшаганлигини истисносиз айтиш мумкин. Шу ўринда Бақтрия-Марғиёна археологик комплексини Бухоро воҳасидаги Замонбобо маданиятига таъсирини қайд этиш мумкин. Бу ерда жанубий вилоятлар (Бақтрия-Марғиёна) аҳолиси алоҳида гуруҳлари вакилларининг жойлашиши Қизилқумда тоғ-кон хомашёси қайта ишлашнинг бошланиши даврига тўғри келади. Бухоро воҳасида узоқ муддатга мўлжалланган пахса ва хом ғиштдан ишланган бронза даври турар жойларининг учрамаслиги ишлаб чиқариш фаолияти ва табиий шароитларнинг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ.

Фарғонадаги Хак ва Афғонистондаги Фуллол хазиналари топилмалари узоқ мамлакатлар билан савдо алоқаларини кўрсатувчи намуна ҳисобланади. Иккинчи хазинанинг кумуш ва олтин идишларини тайёрлаш ва нақш бериш усуллари Месопотамия ҳунармандчилик маҳсулотлари билан ўхшаш[41]. Маълумки, оссуриялик савдогарлар сотиб олган товарлар эвазига олтин ва кумушни айирбошлаганлар.

Шундай қилиб, мил. авв. III минг йиллик охири – II минг йиллик бошларида миграция жараёнлари Олд Осиёдан Ҳиндистон ва Марказий Осиёгача, шунингдек, Уралгача бўлган кенг ҳудудларни қамраб олган. Икки ғилдиракли жанг араваси (Синташта) ва тўрт ғилдиракли аравaнинг (Гонур) пайдо бўлиши ҳамда отларнинг қурбонлик қилиш маросимлари билан боғланган ҳолда дафн қилиниши, бронза даври Синташта-Аркаим маданиятининг айланасимон манзилгоҳлари ва Даштли 3 доира шаклдаги ибодатхонасида намоён бўлиши диққатга сазовор.

Мил. авв. II минг йиллик ўрталари ва иккинчи ярми турлича иқтисодий асосларга эга бўлган қабилаларнинг миграция ва ўзаро маданий алоқаларининг янги босқичи сифатида тавсифланиб, бу даврда зироаткор ва чорвадорлар катта ҳудудларни ўзлаштирганлар.

Мил. авв. II минг йилликнинг ўрталари ва иккинчи ярмида Ўрта Осиёда амалга оширилган миграция жараёнларида жанубий зироаткор аҳоли гуруҳлари қаторида, Жанубий Урал, Марказий Қозоғистон ва Ғарбий Сибирь даштларидан келиб чиққан дашт чорвадорлари, Андроново маданиятига оид қабилалар фаол иштирок этишган.

Дашт қабилаларнинг Ўрта Осиёда ёйилиши ва ёдгорликлар картографияси турли давр адабиётларида ўз аксини топган[42]. Шунингдек, бу ёдгорликларни Андроново-Тозабоғёб тарихий-маданий бирлиги сифатида таърифлаш ва уларни алоҳида ҳудудий вариантларга ажратиш масаласи илгари сурилган. Булар Зарафшон, Фарғона, Тяньшан-Еттисув ва Тошкент воҳаси каби гуруҳлардир[43]. Дашт қабилаларининг маконлари Узбой ўзани соҳиллари ва Туркманистоннинг жануби-ғарбида, қуйи Мурғоб воҳаси ва Калиф Узбойи қирғоқларида, Сурхон воҳаси, Жанубий Тожикистон ва Шимолий Афғонистон ҳудудларида ҳам топилган[44]. Бугунги кунга келиб Зарафшон воҳасида аниқланган бронза даври чорвадорлар маданиятига оид 30 та ёдгорлик Андроново тарихий-маданий бирлигининг Зарафшон вариантига бирлаштирилган[45].

Е.Е.Кузьминанинг фикрига кўра, чорвадор қабилаларнинг Ўрта Осиёга миграцияси, тахминан, мил. авв. XVI асрдан босқичма-босқич амалга оширилган. Унинг бошланғич нуқталари Волгабўйи, Жанубий Урал, Қозоғистоннинг шимолий-ғарби ва Ғарбий Сибирь даштларида жойлашган. Бу ерлардан чорвадор қабилалар Жанубий Оролбўйи, Шарқий Каспийбўйи, Туркманистоннинг жанубий-ғарби, Қуйи Мурғоб, Зарафшон ва Тошкент воҳалари ҳамда Фарғона водийси ва Жанубий Тожикистон ҳудудларига келиб ўрнашган[46].

Дашт чорвадор қабилалари ёдгорликларининг Тяньшан, Помир тоғлари ёнбағирлари ва йирик дарёлар (Панж, Вахш, Амударё, Зарафшон, Норин) воҳаларида ёйилиши миграциялар оммавий хусусиятга эга бўлганидан гувоҳлик беради[47]. Дашт қабилаларининг шимолдан жанубга силжиши сабабларидан бири бу чорвачиликнинг жадал ривожланиши, чорва

подаларининг кўпайиб бориши суръатининг кучайиши ва янги яйловлар ҳамда сув манбаига бой жойларни ўзлаштириш зарурати билан боғланади[48]. Шу сабаблар билан бир қаторда, бронза даврида тоғ-кон хўжалигининг ривожланиши, Марказий Қозоғистон, Қизилқум, Зарафшон воҳаси ва Помир-Ҳиндиқуш тоғларидаги табиий мис, қўрғошин, қалай конлари билан биргаликда олтин, кумуш каби нодир металлар ҳамда қимматбаҳо ложувард ва феруза тошларидан фойдаланиш катта аҳамиятга эга бўлган. Хомашё, металл ёмби ва ложувард савдоси қабилаларнинг ўзаро иқтисодий муносабатларида муҳим ўрин тутган[49].

Н.М.Виноградова ва Е.Е.Кузьминанинг ёзишича, мил. авв. II минг йилликнинг иккинчи ярмида жанубий Ўрта Осиё деҳқончилик қабилалари шимолий ҳудудларга кириб ўрнашмаганлар ва даштли қабилаларнинг маданий ривожланишига муҳим таъсир кўрсатмаганлар. Чунки ўтроқ турмуш тарзи ва деҳқончилик хўжалиги уларни воҳаларга боғлаб қўйган[50]. Мазкур хулоса тарихий ҳақиқатга тўғри келмайди, Зарафшон воҳаси ва Шарқий Фарғона ёдгорликларидан топилган Даштли-Сополли маданиятига оид бронза буюмлар ва сопол идишлар ўтроқ зироаткорларнинг жанубдан шимолий ва шарқий вилоятларга кўчиши, дарё воҳалари ва тоғолди ҳудудларига келиб жойлашишидан далолат беради[51]. Шунинг учун миграциялар жанубдан шимолга ва шимолдан жанубга бир-биридан мустақил равишда амалга оширилган.

Айрим ҳудудларда зироаткор қабилалар табиий шароитга мослашиб, чорвачилик хўжалиги ва тоғ-кон ишлари билан шуғулланишган. Жанубий Тожикистон ва Зарафшон воҳасида яйловларнинг сероблиги кўпроқ майда чорвани боқишга имкон яратган[52]. Шимолдан кўчиб келган дашт қабилалари улар билан ёнма-ён яшаган. Ўзаро муносабатлар осойишта хусусиятга эга бўлиб, эҳтимол, жанубий ва шимолий қабилалар рақобатчиликка дуч келмаганлар, негаки бундай вазият иқтисодий алоқалар ва айирбошлашга интилишдан келиб чиқиши мумкин эди. Мисол тариқасида, Ўрта Зарафшон воҳасидаги Тўқайли манзилгоҳида ҳамда Жанубий Тожикистоннинг Қизилсу воҳасида Даштли-Сополли ва Андроново маданиятларига оид сопол идишлар топилганлигини қайд этиш мумкин[53].

Ҳудудий жиҳатдан бу маданиятлар вакиллари дастлаб алоҳида жойлашганлар. Аммо ҳудудий қўшничилик, кўп вақт давомида ўзаро иқтисодий муносабатлар у ёки бу даражада турли қабилаларнинг турмуш тарзи ва урф-одатларига таъсир қилган, деб хулоса чиқариш мумкин.

Миграция жараёнларини тадқиқотчилар, одатда, янги маданият, тил ва этноснинг ёйилиш жараёни билан боғлиқ ҳолда ёритадилар. Ўрта Осиёга амалга оширилган миграцияларнинг бошланғич ҳудудий марказларини (Олд Осиё, Элам, Ҳинд воҳаси) инобатга олиб, минтақада турли тилларнинг (хуррит, эламий, дравид) тарқалишини фараз қилиш мумкин. Шунингдек, Андроново маданияти дашт чорвадорлари кўпроқ эроний тилли қабилалар билан боғланадилар. Бу масалани илк бор XIX асрда Европа шарқшунослари илгари сурганлар[54], шунингдек, андроноволиклар туркий тилли бўлиши ҳам эҳтимолдан холи эмас. Бундай ёндашув ўз тарафдорларига эга. Аммо бизнинг вазифамиз бу борадаги баҳс-мунозараларга ойдинлик киритишдан иборат эмас.

Этномаданий масалалар йўналишида Ўрта Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши, этник географияси ва картографияси муаммоларини ўрганиш долзарб вазифадир. Айниқса, ижтимоий-иқтисодий, маданий ва этник жараёнларнинг кўпхиллилигини аниқлаш катта аҳамиятга эга[55].

Қадимги маданиятларнинг маҳаллий илдизлари ва миграциялар оқибатида турли географик шароитда тарихий-маданий ривожланишнинг ўзига хос хусусиятлари ҳамда Ўрта Осиёда хўжалик-маданий типларининг асосий белгиларини очиб бериш муҳим масаладир.

Даставвал Андроново маданияти қабилалари деҳқончилик воҳалари чегарасида жойлашган эди. Кейинчалик улар зироаткорлар манзилгоҳларида (Гонур, Жарқўтон) аҳоли томонидан ташлаб кетилган турар жойлар деворлари орасида ярим ертўла уйлар барпо этиб ўрнашдилар. Чорвадор қабилаларнинг деҳқончилик воҳаларини ўзлаштириши этномаданий ассимиляция жараёнлари, маънавий ва моддий маданиятни ўзгаришига олиб келди. Шу асосда мил. авв. II минг йиллик охири – I минг йиллик бошларида Марғиёна ва Бақтрияда турли

кўринишдаги инновациялар (қўлда ясалган сопол идишлар ва бронза буюмлар) билан бир қаторда, маҳаллий маданий анъаналарни акс эттирган (пахса ва хом ғиштдан қурилган уйлар, кулолчилик чархининг ишлатилиши) Ёз I маданияти шаклланди.

Ёз I даврида Марғиёна ва Бақтрия аҳолиси гуруҳлари Амударёнинг ўрта қисмидаги ерларни, ҳамда Қашқадарё ва Зарафшон воҳаларини ўзлаштирганлар. Ушбу даврда бронза металлургиясининг жадал ривожланиши оқибатида жанубий мигрантлар металл рудаси макони ҳисобланган Қизилқум ҳудудларига кириб кела бошладилар. Муаммони бундай изоҳлаш Сирдарё қуйи оқимидаги чорвадор қабилалар йўлбошчилари дафн этилган катта иншоотлар – Тагискен мақбараларининг (мил. авв. IX – VII асрлар) келиб чиқиши масаласи билан боғлиқ. Шубҳасиз мазкур мақбаралар пахса ва хом ғиштдан қурилиш борасидаги амалий кўникмаларига эга ва меъморчилик – режалаштириш усулларидан яхши хабардор бўлган усталар томонидан бунёд этилган. Шарқий ва Жанубий Оролбўйи ҳудудларида яшаган қабилалар (Амиробод маданияти) оддий турар жойлар, яъни синч – устунли тузилишига мансуб ярим ертўлали уйлар барпо этиш кўникмаларига эга бўлиб, улар қурилишида хом ғиштдан фойдаланишмаган.

Тагискен мақбаралари дашт чўпонлари томонидан қурилмаган. Негаки, улар махсус бинокорлик усуллари ва меъморчилик тузилишига доир билимларга эга бўлмаганлар. Тагискен иншоотлари Бақтриядан кўчиб келган аҳоли вакиллари (ёки асирликка олинган бинокорлар) томонидан бунёд этилишининг эҳтимоли юқори[56].

Бу масалага тегишли бошқа бир далил шундаки, ўрта Амударёнинг сўл соҳилида мил. авв. X – VIII асрлар ва мил. авв. VII –IV асрларга оид бақтрияликларнинг Одойтепа қалъаси харобалари топиб текширилган[57]. Одойтепа Амударёнинг ўнг қирғоқларидаги Қуйи Зарафшоннинг даштлари рўпарасига қурилган. Бу жойдан Марказий Қизилқум ва Қуйи Сирдарё ҳудудлари томон йўллар бошланган .

Хоразм воҳасида пахса ва хом ғишт бинокорлигининг пайдо бўлиши, Марғиёна ва Бақтриядан мил. авв. VII асрда қуйи Амударёга йўналган миграциялар билан боғлиқ бўлган. Бу узоқ масофаларга қарамай, дастлаб маданий инновациялар вужудга келган ҳудудлардан, меъморчилик – қурилиш, технологик ва иқтисодий ютуқларнинг бир вилоятдан бошқаларига ёйилиши кўрсаткичидир.

Демак, Марказий Осиёнинг бронза даври тарихи миграциялар, турли қабилалар ассимиляцияси ва ўзаро маданий алоқалари билан тавсифланади. Қадимги этник тарихнинг ривожланиши қуйидагича йўналишда намоён бўлган: автохтон (туб жойли) анъаналар – миграциялар – этномаданий синтез (қоришув) – янгиланиш. Шу асосда Марказий Осиёнинг қадимги халқлари – бақтрияликлар, суғдийлар, хорасмийлар ва бошқалар шаклланган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Этнические проблемы Центральной Азии в древности. – М.: Наука, 1981; Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986; Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. – Алма-Ата: Наука, 1987.
2. Массон В.М. Алтын-депе // Тр. ЮТАКЭ. Т. XVIII. – Л.: Наука, 1981. –С. 129-130.
3. Массон В.М. Алтын-депе… С. 131.
4. Gardin J. – C., Lyonnet B. La prospection arxéologique de la Bactriane Orientale (1974-1978): premiers résultats // Mesopotamia. 1978-1979. Vol. XIII – XIV. – P. 99-154.
5. Сагдуллаев А.С., Тогаев Ж.Э. Миграции эпохи бронзы в Центральной Азии // Проблемы истории, археологии и этнологии Центральной Азии. – Ташкент, 2018. – С. 89.
6. Исаков А.И. Саразм: новый раннеземледельческий памятник Средней Азии // СА. – М., 1986. – №1. – С. 152-157; ўша муаллиф. Sarazm: an agricultural center of ancient Sogdiana // Bulletin of the Asia Institute, 1996. Vol. 8. – P. 1-12.
7. Буряков Ю.Ф. Состояние металлургического производство в период возникновения Авесты // O’zbekiston tarixi, 2001. – №1. – С. 17-21.
8. Исаков А.И. Саразм. Горизонты древней цивилизации // Наука и жизнь. – М., 1986. – С. 78-81.

9. Раззаков А., Курбанов Ш. Исследования Саразмского отряда в 2003 гг. // Археологические работы в Таджикистане. – Душанбе, 2004. Вып. 29. – С. 174-192.

10. Herrman G. Lapis lazuli: the early phases of its trade // Iraq. 1968. Vol. 30. – P. 21-57; Сарианиди В.И. О великом лазуритовом пути на древнем Востоке // КСИА. – М., 1968. Вып. 114. – С. 3-9.

11. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008. – Б. 56-57.

12. Ламберг – Карловски К.Х. Контуры древнейшей истории… – С. 168-170.

13. Сарианиди В.И. Задолго до Заратуштры. – М.: Старый сад, 2010. – С. 16.

14. Сарианиди В.И. Задолго до Заратуштры... – С. 17-18.

15. Сагдуллаев А.С., Тогаев Ж.Э. Миграции эпохи бронзы в Центральной Азии ... – С. 90.

16. Сарианиди В.И. Археологические доказательства протозороастризма в Бактрии и Маргиане // Тр. Маргианской археологической экспедиции. – М., 2008. Т. 2. – С. 9-27; Хуф Д., Шайдуллаев Ш. Некоторые результаты работ узбекско-германской экспедиции на городище Джаркутан // ИМКУ. – Самарканд, 1999. Вып. 30. – С. 19-26.

17. Кузьмина Е.Е. Происхождение индоиранцев в свете новейших археологических данных // Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности. – М.: Наука, 1981. – С. 103.

18. Массон В.М. Расцвет и упадок земледельцев юго-запада // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: Наука, 1966. – С. 151-156; ўша муаллиф. Алтын-Депе // Тр. ЮТАКЭ. – Л.: Наука, 1981. Т. XVIII. – С. 129.

19. Массон В.М. Алтын-Депе… – С. 129.

20. Массон В.М. Алтын-Депе… – С. 129-130.

21. Боқиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. – Тошкент: Yanginashr, 2015. – Б. 78-79.

22. Мамедов М. Древняя архитектура Бактрии и Маргианы. – Ашхабад, 2003. – С. 116-117.

23. Сарианиди В.И. Змеи и драконы в глиптике Бактрии и Маргианы // Восточный Туркестан и Средняя Азия в системе культур древнего и средневекового Востока. – М.: Наука, 1986. – С. 66-71; ўша муаллиф. Сиро-хеттское поисхождение Бактрийско-маргианской глиптики // ВДИ. – М., 1999. – № 1. – С. 53-73; Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданиятининг глиптикаси ва сфрагистикаси: Тарих фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент: ЎзФА Археология тадқиқотлар институти, 2018. – Б. 6-7.

24. Исаков А.П. Изучение древнеземледельческого поселения Саразм в долине Зарафшана // Древнейшие культуры Бактрии. – Душанбе: Дониш, 1982.

25. Gardin J. -C., Lyonnet B. La prospection arhéologique de la Bactriane orientale (1974-1978): premiers résultats // Mesopotamia. 1978-1979, XIII-XIV. –P. 99-154.

26. Frankfort H.-P. Tradition harappéene et innovation bactrienne a`Shortughai // L`archélogique de la Bactriane ancienne. – Paris, 1985. –P. 95-104.

27. Frankfort H.-P., Pottier M.-H. Sondage préliminaire sur L`établissement protohistorique harappéen de Shortughai // Arts Asiatiques. 1978. XXXIV. 40. –P. 29-86.

28. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977; Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – М.: Наука, 1977; Масимов И.С. Новые исследования памятников эпохи бронзы на Мургабе // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986.

29. Массон В.М. Фортификация Средней Азии в бронзовом веке // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. –С. 33.

30. Йоффи Н. Сферы взаимодействия в Месопотамии // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986. –С. 120.

31. Ламберг-Карловски К.К. Контуры древнейшей истории Иранского плато // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986. –С. 167-168.

32. Сарианиди В.И. Задолго до Заратуштры. – М.: Старый сад, 2010. –С. 18-20.
33. Frankfort H.-P., Pottier M.-H. Sondage préliminaire sur L`établissement protohistorique harappéen de Shortughai // Arts Asiatiques. 1978. XXXIV. 40.
34. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуш. – Ашхабад, 1990. –С. 99-101.
35. Бобомуллаев С.Б. Верховья Зарафшана во II тыс. до н.э. – Душанбе, 1998.
36. Аманбаева Б.Э., Рогожинский А.Э., Мэрфи Д. Шагым – новый памятник эпохи бронзы Восточной Ферганы // Археологические исследования в Узбекистане. 2004-2005 гг. – Ташкент, 2016. –С. 256-264.
37. Сарианиди В.И. Задолго до Заратуштры. – М.: Старый сад, 2010. –С. 117-118.
38. Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1989. –С. 134.
39. Ламберг – Карловски К.К. Контуры древнейшей истории Иранского плато // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986. –С. 167-168.
40. Hermann G. Lapis lazuli: the early phases of its trade // Iraq, 1968. V. 30. –P.21-57; Сарианиди В.И. О великом лазуритовом пути на древнем Востоке // КСИА, 1968. Вып. 114. – С. 3-9.
41. Tosi M., Wardak R. The fullol Hoard: a new Find from Bronze Age Afghanistan // East and West, 1972. V. 22. –P. 17-19.
42. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 215-219, рис. 56; Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: Наука, 1966. – С. 213-220.
43. Джуракулов М.Д., Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1983. – С. 47.
44. Литвинский Б.А., Соловьев В.С. Стоянка степной бронзы в Южном Таджикистане // Успехи среднеазиатской археологии. – Л.: Наука, 1972. Вып. 1. – С. 41-47; Сарианиди В.И. Степные племена эпохи бронзы в Маргиане // СА. – М., 1975. – № 2. – С. 20-28; Рахманов У.В., Шайдуллаев Ш.Б. О влиянии культур степной бронзы на керамические комплексы Сапаллинской культуры // ОНУ. – Ташкент, 1985. – № 11. – С. 58-63.
45. Аванесова Н.А. Зарафшанский вариант Андроновской историко-культурной общности // Археология Узбекистана в годы независимости: достижения и перспективы. – Самарканд, 2016. – С. 34-37.
46. Кузьмина Е.Е. О южных пределах распространения степных культур эпохи бронзы в Средней Азии // Памятники каменного и бронзового века Евразии. – М.: Наука, 1964. – С. 121-140.
47. Виноградова Н.М., Кузьмина Е.Е. Контакты земледельческих и степных племен в эпоху бронзы // Восточный Туркестан и Средняя Азия в системе культур древнего и средневекового Востока. – М.: Наука, 1986. – С. 128, рис. 1. карта.
48. Виноградова Н.М., Кузьмина Е.Е. Контакты земледельческих... – С. 148.
49. Аванесова Н.А. Степи Севера и оазисы Юга: проблема культурных взаимодействий в эпоху бронзы // Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. – Алма-Ата, 1987. – С. 53-55.
50. Виноградова Н.М., Кузьмина Е.Е. Кўрсатилган асар. – С. 129, 148.
51. Аванесова Н.А. Ранние Андроновские комплексы Средней Азии // Палеоэкология и проблемы первобытной археологии Центральной Азии. – Самарканд, 1992. – С. 51-53.
52. Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1989.– С. 133. Виноградова Н.М., Гётцельт Т., Пьянкова Л.Т. Археологическая разведка в бассейне реки Кызылсу (Южный Таджикистан) // Российская археология. – М., 2003. – № 1. – С. 103-116.
53. Аванесова Н.А. Ранние андроновские комплексы …; Виноградова Н.М., Гётцельт Т., Пьянкова Л.Т. Археологическая разведка в бассейне реки Кызылсу (Южный Таджикистан) // Российская археология. – М., 2003. – № 1. – С. 103-116.

54. Литвинский Б.А. Проблемы этнической истории Средней Азии во II тысячелетии до н.э. (Среднеазиатский аспект арийской проблемы) // Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности. – М.: Наука, 1981. – С. 154.

55. Сагдуллаев А.С. Актуальные проблемы древней истории Центральной Азии // Формирование историко-культурных областей в Центральной Азии и проблемы этнической географии. – Ташкент, 2018. – С. 8.

56. Сагдуллаев А.С., Матякубов Х. К проблеме происхождения глинобитно – сырцовой архитектуры в Хорезме // Вестник Национального университета Узбекистана. Спец. выпуск. – Ташкент, 2013. – С. 59-60.

57. Пилипко В.Н. Древнее городище Одей-депе на среднем течении Амударьи // Каракумские древности. Вып. VIII. – Ашхабад, 1979. – С. 27-28.

ЖЕНЩИНЫ В РАННЕЙ ДИПЛОМАТИИ НАРОДОВ УЗБЕКИСТАНА

Кобзева О.П.
д.и.н.,профессор
НУУз Мирзо Улугбека

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с становлением ранних форм дипломатии в государственных образованиях на территории Узбекистана и роли в них женщин - правительниц -Семирамиды, Зарины и Томирис.

Ключевые слова: дипломатия Авесты, первые государства, Нин, Шамураммат, саки, массагеты, мидийцы, Зарина, первый договор, дипломатия глашатаев, Ахемениды, Томирис, дипломатия дарообмена. дипломати золота.

Annotation. The article discusses issues related to the formation of early forms of diplomacy in state entities on the territory of Uzbekistan and the role of female rulers in them - Semiramis, Zarina and Tomiris.

Keywords: Avesta diplomacy, first states, Nin, Shammuramat, Saki, Massagets, Medes, Sarina, first treaty, herald diplomacy, Achaemenids, Tomiris, gift exchange diplomacy. diplomats of gold.

История дипломатии Узбекистана – составная часть Всемирной истории дипломатии, – подтверждающая единство всемирно-исторического процесса, взаимодействие народов и культур в их историческом прошлом и при всем этом наличие специфики в развитии узбекской дипломатии.

Уже в Авесте, созданной, вероятнее всего, в первой половине I тыс. до н.э., содержатся данные о зарождении ранних форм дипломатических отношений. Причем основным гарантом заключения межплеменных соглашений и улаживания споров и военных конфликтов в ней выступает Митра как божество договора о соглашении[1].

Именно на принципах уважения к договору, к чужой жизни и имуществу строится ключевое в Авесте понятие - власть.

В Фаргардах священной книги подробно освещаются принципы заключения договора и наказания в случае их нарушения [2].

В Авесте имеются и другие сведения о заключении межплеменных договоров под эгидой бога Митры[3].

В начале-середине I тыс. до н.э. на территории Узбекистана формируются первые государственные объединения: Древняя Бактрия (Сурхандаринская обл.), древний Согд занимал долину Зеравшана, а затем территорию Кашкадарьинской и Бухарской областей и Древний Хорезм. Их города, представляющие крупные поселения, достигали более сотни гектаров площади и были обнесены мощными стенами[4].

Античные авторы II-I вв. до н.э. сохранили легендарные сведения о завоевании Древнебактрийского царства ассирийскими войсками во главе с царем Нином (конец IX в. до н.э.) и царицей Семирамидой.

Причем некоторые указывали на бактрийское происхождение Семирамиды (Шаммурамат), а другие (Ктесий, Диодор) писали, что она наряду с мужем участвовала в захвате Бактр.

Так Диодор в своей «Библиотеке» писал: «Нин сделал сатрапом Мидии одного из своих друзей и сам отправился покорять племена Азии.… Что касается до Бактрианы, трудно доступной и заселенной очень воинственными людьми, то он, после нескольких бесплодных попыток, отложил войну с ней.… Основав Ниневию, Нин с большой армией вошел в Бактриану, где женился на Семирамиде.…[5].

Некоторые античные авторы даже высказывали версию о том, что одно из «семи чудес света» - Висячие сады Вавилона были разбиты (VI в. до н.э.) для Царицы Семирамиды, чтобы напоминать о прекрасных садах её родины - Бактрии.

Помпей Трог в «Филиппинской истории» писал: «Последнюю войну Нин вел с Зароастром, царем бактрийским, который первый, как говорят изобрел магическое искусство и изучал сущность мира и движение звезд».

У того же Диодора находим: «Семирамида вернулась со своим войском в Бактрию и решила начать войну с Индией. Она послала вестников во все страны, предписывая начальникам составить войско из лучшей молодежи и определила число, смотря по величине племен. Все должны были через три года собраться в Бактру.

Она также позвала кораблестроителей из Сирии, Финикии и Кипра. Так как на Инде не ожидали найти строевого материала, то надо было доставлять суда из Бактрии»

[5].

В «Военных хитростях» Полиена (II в. н.э.) приведена надпись Семирамиды: «Природа создала меня женщиной, но я сравняла себя подвигами с храбрейшими из мужей. Царством Нина правила я от реки Гипама на востоке, до саков и согдов на севере»[5].

Конечно, можно и должно подвергать рассказы греческих историков древности сомнению, однако неоспоримо одно царица Семирамида (имевшая возможно бактрийское происхождение) занимала в истории Ассирии исключительное положение, так как привнесла в неё представление о более высокой цивилизации и культуре.

В Передней Азии первым на историческую арену выходит Мидийское царство, основателем которого был некий Дейок, но подлинного своего могущества оно достигает при царе Киаксаре (625-585 гг. до н.э.) [6]. Этим царем, в частности, были завоеваны Ассирия, Северная Месопотамия, Гиркания, Парфия, Арейя и, возможно, часть Согда, т.е. южная область Средней Азии. По данным Ктесия Книдского, Киаксар также, якобы, покорил Бактрию, что весьма сомнительно. Более вероятно, что границы Мидийского царства ограничивались с северо-востока Амударьей, где мидяне столкнулись с сакскими племенами.

В то время огромные пространства севера Средней Азии были заняты очень воинственными кочевыми племенами, среди которых выделялись саки, массагеты, даи, исседоны, астаки, румники, хорезмии, гиркане, дербики, эглы. Наиболее влиятельными из них и оставившими заметный след в истории были саки и массагеты.

Саки были прекрасными стрелками из лука. О них греческий путешественник Дионисий Периэгит писал: «За Согдианой, по течению Яксарта обитают саки, стрелами бьющиеся, из всех стрелков в мире самые искусные, непускающие стрел наудачу. Военная тактика саков: обычай сражаться, как – будто, отступая, и в тоже время стрелять на скаку из луков, обернувшись назад совершенно без промаха, давал им большое преимущество» [5].

Геродот поясняет, что персы скифов звали саками, они участвовали в войнах Ксеркса против Греции. Саки (490 г. до н.э.) входили в состав Дариевых войск, сражавшихся при Марафоне.

В клинописях находится запись придворного врача Ахеменидов, историка Ктесия Книдского: «Саки появились на исторической арене ранее Кира, еще при мидийских царях»[7]. Клинописные тексты говорят, что саки подразделялись на саков-парадарайа (за Каспием), саки-хаомаварга (изготовляющие хаому), саки-тиграхауда (носящие остроконечные шапки), саки за Согдом, а также дахи (дай). Саки-тиграхауда проживали в долинах рек Сыр-Дарьи, Таласа, Чу, Каратал. По Страбону, севернее массагетов, выше Меотиды находились племена дай. В царствование мидийского Астибара парфяне, дотоле покорные мидийцами, перешли добровольно под власть саков, вследствие чего разгорелась война между саками и мидянами.

Античные источники повествуют о любви сакской царицы Зарины (приблизительно 558 -518 гг. до н.э.) и мидийского царевича Стриангея [8].

Легенда повествует, что Зарина была дочерью сакского правителя и женой полководца Мермера. Она была царицей города Роксанаки. Этот город находился на берегу Сырдарьи, неподалеку от Сыгнака. Зарина имела армию, состоящую из девушек, которая называлась «армией красавиц». По сакским законам, когда девушке исполнялось 13 лет, ее учили военному искусству: стрелять из лука, кидать копья и т.д. Если девушка состояла в «армии красавиц», но не проявила себя в бою, она не могла выйти замуж. Кочевым народам приходилось не легко, поэтому их девушки и женщины должны были уметь защитить свою честь и достоинство. Во времена войн, охотясь, они снабжали армию мясом.

«Армия красавиц» во главе с Зариной решила поохотиться. Поблизости того города не было никакого зверья, оно было истреблено во время предыдущих войн. Потому пришлось девушкам уйти далеко от населенного пункта. Дойдя до местности Устюрт, они, встретив куланов, начали охоту. Зарина в погоне за куланом ушла слишком далеко от остальных девушек. И там натолкнулась на большой вражеский отряд. Началась погоня за Зариной, которая была одета как батыр саков. Она была ранена стрелой в ногу. Быстрый конь вождя Мидии догнал сакскую царевну. Захватив батыра, принц решил отрубить ему голову. Когда батыр поднялся, головной убор слетел с головы, и спину покрыли красивые, длинные волосы. Увидев, что это женщина, мидиец не посмел отрубить её голову и отказался от своего намерения. Это был принц Мидии, Стриангей. Сюда он пришел также на охоту, да и армия решила прогуляться. Он влюбился в сакскую царицу. И Зарина полюбила широкоплечего красивого принца. Они договорились и впредь встречаться на охоте. Дружба и глубокая любовь между Зариной и принцем Стриангеем способствовали миру между государствами. Влюбленные дали клятву, что всячески будут сохранять этот мир. Власть военного полководца саков распространялась не только на армию и военную добычу, но в том числе и на пленных. Устав от мира, да и узнав об отношениях между Зариной и Стриангеем, Мермер решил захватить его. Когда в очередной раз тот пришел на встречу с Зариной к границе сакского государства, Мермер захватил его и привел в Роксанаки. При этом Стриангей оставил свою армию, сдержав данную Зарине клятву. Узнав о том, что Стриангей приказал своей армии возвращаться назад, на родину, Зарина попросила своего мужа отпустить его, так как он предотвратил войну между народами. Но муж Зарины твердил, что это – его добыча и он сам знает, что делать. Миру он предпочитал прибыльную войну. Теперь она не просила, как жена, а приказывала, как царица. Приказала прекратить все действия, говоря, что мир превыше всего, и она не допустит того, чтобы ради прихоти одного человека вновь проливалась кровь саков. Но Мермер ослушался приказа царицы и поднял свою саблю на Стриангея. В это время Зарина приказала страже остановить его. Продолжая сопротивляться, Мермер поранился и скончался от потери крови. Тогда Зарина обратилась к народу: «Чем будут умирать сотни, тысячи людей, пусть умрет один несдержанный полководец. Он мой муж, но для меня дороже моя страна. Освободите принца Мидии». Стриангея освободили. Он находился у саков, пока окончательно не оправился. Уезжая, принц предложил Зарине руку и сердце, и совместное правление народами. Она понимала, что выйти замуж за принца Мидии означало объединить

государства, и предложила поговорить об этом через год. Когда Зарина и Стриангей, сопровождаемые войсками, встретились через год на границе, она сказала, что свобода ее народа превыше всего. Но чистая любовь, которая зародилась между ними стала символом дружбы между Сакией и Мидией. Зарина пожертвовала своим мужем ради любимого и отказалась от любимого ради своей страны.

Ктесий Книдский повествовал об этом так: «Во время правления мидийского царя Астибара (как отца Астиага, его отождествляют с геродотовым Киаксаром) парфяне восстали против мидийцев и призвали саков, что вызвало длительную войну саков и мидян. В это время саки находились под властью царицы («женщины по имени Зарина»). Смелые женщины саков разделяли со своими мужьями тяготы войн. Зарина покорила соседние варварские народы, которые угрожали сакам, основала ряд новых городов и сделала жизнь своих людей более счастливой [7].

Разбив мидийцев Зарина и другие сакские вожди переселили их пленных к Танаиду (Сыр-Дарья). Соотечественники в память о её благодеяниях и достоинствах возвели на её погребении высотой в стадию пирамиду, длина каждой стороны 3 стадии, на вершине они поставили колоссальную позолоченную статую и воздали ей героические почести». И.В. Пьянков сопоставляет эти сведения с известными данными о могильниках саков и указывает, что Ктесий называет Зарину женой Кидрея, которая после его смерти вышла за муж за Мермера (полководца? вождя саков? Представителя Парфянская династия?) [7].

Таким образом, Зарина заключила договор о дружбе с мидийским царем, передав ему в управление область Парфиены.

Это был первый в истории Средней Азии дипломатический договор конца VII - начала VI в. до н.э. Из этого следует, что какие-то формы дипломатических отношений в виде мирных договоров существовали в Средней Азии уже в доахеменидское время.

Во второй половине VI в. до н.э. ранние государственные образования Средней Азии Древняя Бактрия, «Большой Хорезм» вошли в состав Ахеменидской империи [4]. Завоевание Бактрии, Согдианы, Маргианы, Хорезма было осуществлено основателем этой империи Киром (559-530 гг. до н.э.) в процессе его ранних походов[3]. Продвижение Ахеменидов на северо-восток неизбежно привело к столкновению их с могущественной сако-массагетской конфедерацией племен. Поэтому для обеспечения безопасности границ Ахеменидского государства Кир предпринял военный поход против саков-массагетов, занимавших в этой время территорию между низовьями Сырдарьи и Амударьи.

Геродот писал, что в это время «у массагетов после смерти мужа царствовала женщина. Имя ее Томарис. Персидский царь Кир для виду отправил к ней послов вести переговоры о сватовстве.

Но Томарис, понимая, что сватал он не ее, а царство массагетов, отклонила брачное предложение». После этого многотысячная армия Кира двинулась к берегам Амударьи. Узнав об этом, царица Томарис послала ему грозное предупреждение: «Алчущий крови Кир, … уходи из этой страны безнаказанно… если ты не сделаешь этого, клянусь тебе Солнцем, владыкой массагетов, я напою тебя досыта кровью, хоть ты и ненасытен». Словам этого обращения Кир не придал никакого значения и началась ожесточенная и кровопролитная битва[9].

Геродот писал: «Я полагаю, что из всех битв, бывших среди варваров, эта была жесточайшей….

И, лишь, спустя много лет потомок Кира Ксеркс сумел получить останки царя Кира и захоронить их в гробнице в древней столице Персии Пасаргадах[5].

Ктесий иначе повествует о Кире, чем Геродот: «Он (Кир) воевал против бактрийцев, и борьба шла с переменным успехом. Но в прочем они перешли на сторону Кира и его матери Амитиды и предались ему. Кир воевал с саками и взял в плен царя Аморга, мужа Сфаретры; тогда она собрала войско и бросилась на Кира, ведя с собою 300 000 мужчин и 200 000

женщин; она взяла в плен много знатных персов. Тогда, чтобы их освободить, освободили и Аморга.

Массагетами в это время управляла женщина, по имени Томариса, ставшая царицей по смерти своего мужа. К ней Кир послал послов с льстивыми речами, желая взять ее в жены. Томариса же, понимая, что ему нужна не она, а царство массагетов, не приняла послов. Тогда Кир, не добившись ничего хитростью, двинулся в Араксу и, обнаружив свои замыслы против массагетов, принялся строить через реку мост из плотов, чтобы перевести свое войско и башни на плотах, для употребления их в пути.

Пока он был занят этим, Томариса послала к нему вестника со следующими словами: «Прекрати, о царь мидян, свои приготовления, ибо ты не знаешь, на пользу ли тебе будут твои замыслы. Успокойся и царствуй над своей страной и оставь нас править нашей. Но ты не захочешь послушаться этого совета, так как хочется встретить массагетов, но оставь ненужную работу по возведению моста. Дай нам удалиться на три дня пути от берегов реки и тогда двинься на нас. Или, если ты хочешь встретиться с нами на вашем берегу, сделай то же». Послание было передано через глашатая, который выступил в роли посла массагетов.

Имом Насафий ўз китобида фиқҳий масалаларнинг тафсирида Фахр ул-ислом Абул Йуср Баздавийнинг (ваф. 1089) “Усул ал-Баздавий” ҳам Абул Баракот Насафий ўзининг “ал-Кофи” ва “Кашф ал-асрор фи шарҳ ал-Манор” асарларига мурожаат қилган.

Тафсирнинг яна бир муҳим жиҳати бу оятларнинг филологик таҳлили усталик билан амалга оширилгани, Куръоннинг балоғат ва фасоҳати моҳирона очиб берилганидир. Бу аллома наҳв илмининг етук олимлари Имом Сибавайх, Имом Фарроларнинг фикрларидан кенг фойдаланган ва бир неча жойларида далил сифатида келтирган. Бундан ташқари, ўқувчи оятларни ҳар томонлама тушуниши учун 7 хил қироатдан истифода килинган. Юқоридагилар сабаб бўлса керак, у илм аҳли орасида кўп мутолаа қилинади.

“Тафсири Насафий”нинг кўлёзма нусхалари Тошкент, Лондон, Қоҳира, Исломобод, Истанбул ва бошқа кўплаб шаҳарларнинг қўлёзма фондларида сакланади. Жумладан, ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида жам 14 та қўлёзма нусхалари мавжуд. Шу билан бирга, “Британия кутубхонаси”да, Қоҳирада, Ҳалабнинг Аҳмадия мадрасасида, Покистоннинг Баҳалавпур шаҳридаги Марказий кутубхонада, Исломободнинг “Миллий обидалар” кутубхонасида унинг ўнлаб қўлёзма нусхалари мавжуд.

Ушбу тафсир китоби Байрутда 1982, 1988, 1995, 1999 йилларда, Бомбейда 1863 йилда, Қоҳирада 1889, 1908 йилларда, Истанбулда 1984 йилда эса қайта-қайта чоп этилгани ҳам унга бўлган улкан қизиқишдан далолатдир. Энг асосий жиҳатларидан бири тафсирнинг ҳанафия мазҳаби ва мотуридия таълимоти асосида ёзилганидир. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, олим ҳанафийликни қўллаб-қувватлар экан, бунда илмийликни устун қўяди. Шунингдек, асарда турли оқимларнинг ботил иддаоларига оятлар, ақлий ва нақлий далиллар асосида раддиялар берилган. Табиийки, Ислом дини кенг ёйилган ўлкаларда илоҳий каломнинг асл маъносини талқин этувчи мукаммал мафсирларга эҳтиёж сезилган эди. Имом Насафийнинг “Тафсири Насафий” китобидан Покистон, Ҳиндистон, Мисрдаги олийгоҳларда дарс берилади.

“Тафсири Насафий” асари “Тафсири Байзовий”, “Тафсири Жалолайн”, “Тафсири Ибн Касир” китоблари қаторида дарслик сифатида лойиқ топилиб, мадараса таълимида асосий тафсир китобларидан бири ҳисобланади.

Куръон маънолари таржимонларидан Шайх Абдулазиз Мансур ҳам ўзининг таржимасида асосий манба сифатида мазкур тафсирдан кенг фойдаланган. Шунингдек, мустақиллий йилларида мамлакатимизда мазкур асарни ўрганиш ва нашрга тайёрлаш ишлари амалга оширилди. Бунда айниқса илмошунос олим Давронбек Махсудовнинг хизматлари катта ҳисобланади. У кишининг ҳаракатлари билан ушбу асарнинг тадқиқи амалга оширилган.

Хуллас, Ислом дини ривожи ва тафсир илмининг юксак поғонага кўтарилишига Насаф воҳаси алломалари ўзларининг беминнат заҳматли меҳнатлари билан катта ҳисса қўшганлар. Уларни бу йўналишда яратган асарлари бугунги кунда ҳам ўз долзарблини сақлаб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Муратов А. Абу Ҳафс Насафий “Тайсир фи-т-тафсир” асарининг манбашунослик тадқиқи.: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 41 бет.

2. Муҳаммадаминов С. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Матлаъ ан-нужум ва мажмаъ ал-улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожида тутган ўрни (XI аср охири – XII аср ўрталари).: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2012. 103-бет.

3. Махсудов Д. Абу-л-Баракот ан-Насафининг тафсир илмида тутган ўрни.: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2008. 77-бет.

4. Ислом энциклопедияси. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёти, 2020. 431 – 434-бетлар. (496 бет)

5. Аллоқулов А. Абу Ҳафс Насафийнинг “Ақоид” асари ва унинг шарҳлари таҳлили.: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2018. 37 – 38-бетлар.

6. Абу Ҳафс Насафий. Тафсири Насафий. Ба тасхихи дуктур Азизуллоҳ Жувайний. Интишорот жунайд фарханги Эрон. 2 жилдли. – Теҳрон, 1998. 1356 бет.

7. Уватов У. Самарқанд уламолари // Донолардан сабоқлар. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. 64-бет

8. Ўрта аср Шарқ алломалари ва мутафиккирларининг тарихий – фалсафий мероси энциклопедияси. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2016. 256 – 260бетлар. (612 бет)

Ўрта аср Шарқ алломалари ва мутафиккирларининг тарихий – фалсафий мероси энциклопедияси. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2016. 289-бет. (612 бет)

9. Оқилов С. Абу-л-Муъийн ан-Насафий ва унинг иотуридиййа таълимоти ривожига қўшган ҳиссаси (Табсиратул-л-адилла асари асосида).: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: Тошкент ислом университети, 2003. – 28 бет.

10. Абдуллаев А. Абу Лайс Самарқандийнинг Мовароуннаҳр тафсиршунослигида тутган ўрни.: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2007. 38-бет.

11. Муҳаммадаминов С. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Матлаъ ан-нужум ва мажмаъ ал-улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожида тутган ўрни (XI аср охири – XII аср ўрталари).: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2012. 44-бет.

12. Насафдаги машҳур “Қаллос” деган хонадонга нисбат берилган. У Мовароуннаҳрда илм аҳлининг маркази сифатида машҳур бўлган шаҳарча ҳам эди.

13. Ўрта Осиё олимлари қомуси. Тузувчи Абдуллоҳ Абдулҳамид Саад. – Т.: Имом Бухорий республика илмий-маърифий маркази нашриёти, 2007. 287-бет.

АМИР ТЕМУР ДАВРИДА БУНЁДКОРЛИК ИШЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Юлдашев Ғанишер Маматжанович
Қарши шаҳридаги 22-сонли умумий
ўрта таълим мактаби директор ўринбосари
Дўстматов Набижаҳон Гулмурадович
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти талабаси.

Аннотация: Буюк саркарда ва давлат арбоби Амир Темур даврининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги юксак ўрнини баҳолашда унинг фаолиятидаги бунёдкорлик ишлари, айниқса, меъморчилик ва шаҳарсозлик санъати алоҳида ўрин тутади. Соҳибқироннинг бунёдкорлик фаолиятида шаҳар атрофида жаннатмакон боғлар яратиш ва улар таркибида улкан кўшк-саройлар бунёд этиш Шарқ боғ тузиш санъатида алоҳида босқич бўлди. Оврупо иқлим шароитларида яратиладиган парк-боғ санъатидан фарқли равишда кескин континентал иқлим шароитида, суғориладиган қуруқ, иссиқ ҳудудда сўлим боғлар ва чорбоғлар яратиш амалиёти катта маҳорат билан амалга оширилди.

Калит сўзлар: бунёдкорлик, илм-фан, *ҳунармандлар, меъморлар, санъаткорлар,* миллий истиқлол, нотиқлик санъати, сўз санъати, адолатпарвар, эҳтиёткор, қатъиятли арбоблар

Annotation: The great statesman amir temur in the history of the world of valor and the period of tsivilizasiyasi a high place in his assessment of activities in creative work, especially, holds a special place in the art of architecture and urban planning. The content of one's creative activity in and around the city and they create a huge ko'shk jannatmakon gardens-the palace built to the east of the garden is a special stage in the art of drafting. Typically, the climate is created in which the conditions of park-garden art from unlike the harsh continental climate in the context of irrigated and dry in a hot area with great skill to create beautiful gardens and chorbog'lar practice was carried out.

Key words: creativity, science, artisans, architects, artists, national independence, the art of public speaking, the art of speech, justice, caution, determination,

Дунёнинг турли мамлакатларида таниқли давлат ва жамоат арбоблари, олимлар ва адиблар ўз ижтимоий-сиёсий, илмий ва ижодий фаолияти давомида буюк аждодларимиз, хусусан, Соҳибқирон Амир Темурнинг жаҳон цивилизацияси ва маданияти ривожига қўшган муносиб улушини юксак эътироф этиб келади.

Президент Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек,- “Илм-фани, маърифат ва маданияти ривожланмаган давлатнинг ривожланиш стратегияси ҳам муваффақиятсиздир. Зеро, инсоният тарихини, шахс онтогенезини билиш, илм олиш жараёнисиз тасаввур қила олмаганимиздек, шиддат билан ривожланаётган, дунё маданиятлари, технологиялари, илм-фанлари чуқур интеграциялашаётган, яъни глобаллашув жараёнларининг жадаллашуви контекстида мамлакатимиздаги ислоҳотларни амалга оширилишини, аср тараққиётига адекват тарзда тараққий этишни илм ва маърифат ривожисиз тасаввур қилолмаймиз. Тарбия, таълим, илм-фан инсон ҳаёти фаолиятининг энг зарур, энг муҳим омилларидан бўлиб, уларсиз мамлакат ва жамиятнинг барқарор ўсишини амалга ошириб бўлмайди. Уларни иқтисодиётнинг барча соҳалари учун зарур бўлган малакали мутахассисларни тайёрлашдек мураккаб бир масаланинг ечими, ислоҳотларни самарали амалга оширишнинг муҳим бир омили сифатида ривожланиш стратегиямизнинг устувор йўналишлари қаторидаги энг олд позицияларга чиқариш – жуда доно ечим, десак муболаға бўлмайди.” .*[1]*

Шўролар даврида Амир Темур тўғрисида илиқ сўз айтиш айб, ҳатто жиноят ҳисобланган бир пайтда, яъни 1987 йил 22 мартда Парижда «Темурийлар даври тарихи ва санъатини ўрганиш ва француз-ўзбек маданий ҳамкорлиги» уюшмаси тузилган. Уюшма Амир Темур ва темурийлар даври тарихи ва маданиятини тарғиб қилиш борасида дунёда биринчи тузилган ташкилотдир. Унинг асосий мақсади Амир Темур ва темурийлар маданияти, санъати, шунингдек, Буюк ипак йўлининг муҳим қисми, Шарқ ва Ғарб маданиятларининг чорраҳаси бўлмиш Марказий Осиё тарихи ва унинг жаҳон цивилизациясига қўшган улкан ҳиссаси билан кенг француз оммасини таништиришдан иборат. Бунинг яққол далили сифатида улар Самарқанду Шаҳрисабз, Бухоро-ю Ҳирот, Балху Шимолий Ҳиндистондаги тенгсиз Шарқ меъморчилик дурдоналарини мисол қилиб кўрсатадилар. Шу мақсадда уюшма турли темурхонлик кечалари, илмий анжуманлар, кўргазмалар ўтказиб туради. Темурийларнинг хақиқий ихлосманди бўлмиш уюшма аъзолари французларни машҳур тарихий «Самарқанд йўли»дан боришга, Амир Темур салтанати пойтахти мовий гумбазларига маҳлиё бўлишга, Шарқ уйғониш даври маданияти ва санъатидан завқланишга чорлайди. *[2]*

Буюк саркарда ва давлат арбоби Амир Темур даврининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги юксак ўрнини баҳолашда унинг фаолиятидаги бунёдкорлик ишлари, айниқса, меъморчилик ва шаҳарсозлик санъати алоҳида ўрин тутади. Мамлакатимиз ҳудудида мавжуд бўлган тўрт мингдан зиёд моддий-маънавий обида, жумладан, Шаҳрисабз ва Самарқанддаги тарихий ёдгорликлар умумжаҳон меросининг ноёб намунаси сифатида ЮНЕСКО рўйхатига киритилиши соҳибқирон бобомиз қурдирган иншоотлар юксак меъморий қадриятлар тимсоли эканидан далолатдир. *[3]*.

Амир Темур Мовароуннаҳр тахтини эгаллагандан кейинги дастлабки даврдаёқ бунёдкорлик ишларига катта эътибор беради, яъни, асосан шаҳарлар тизимида мустаҳкам

истеҳкомлар яратишга киришади. Шу сабабли, у давлат тизимини кучайтиришдан ташқари ҳар бир шаҳарни ҳимоя воситалари билан таъминлаш, карвон йўлларида ҳимоя қўрғонларини яратиш бўйича жуда катта ҳажмдаги қурилиш ишларини амалга оширди. Салтанатнинг йирик шаҳарлари Шаҳрисабз, Қарши, Самарқанд ва Тошкентда мудофаа деворлари, мустаҳкам дарвозахоналар бунёд эттирди. Карвон йўлларида дунёда биринчи бор почта хизматига доир иншоот-бекатлар қурдирди.

Амир Темур Самарқандни Афросиёбдан жанубда, мўғиллар давридан олдинги ташқи шаҳар ўрнида шакллантирди. 1371 йили Соҳибқироннинг буйруғи билан майдоннинг ҳаммаси қалъа девори билан ўраб олинди ва бу жой ҳисор деб аталди, унинг ғарбий қисмида арк-қалъа барпо этилди. Амир Темурнинг Самарқанддаги қалъаси пойтахтнинг мустаҳкам маъмурий маркази эди. Унда Кўксарой қароргоҳи, Бўстонсарой, қурол-яроғ устахоналари, омборлар, девонхона жойлашган. Алоҳида майдончада кўк тошли супа-тахт бўлиб, тахтга чиқариш маросими ана шу ерда ўтказилган. Амир Темур яна бир улкан шаҳарсозлик ва меъморий ғояни, яъни Самарқандни ер юзидаги энг катта ва гўзал шаҳарга айлантиришдек мақсадни амалга ошириш учун бутун куч-қудратини ишга солди. Шаҳар атрофидаги масканлар эса ўша давр машҳур шаҳарларига монанд йўлдош шаҳарларга айланишини ният қилди. Самарқанднинг теварак-атрофида Қоҳира, Дамашқ, Бағдод, Султония ва Шероз номли кўплаб қишлоқ-масканларнинг пайдо бўлиши бежиз эмас. Шаҳарда Амир Темур қурдирган қаср-қалъа қаршисида Регистон мажмуасининг шаклланишига асос солинди. Амир Темур жомеъ масжиди ва унинг қаршисидаги “қўш иншоот” усулида қурилган улкан мадрасадан ташкил топган мажмуалар шулар жумласидан. Шаҳар ҳисори ташқарисида, кейинчалик Гўри Амир номини олган мажмуа, Афросиёб тепалигида Шоҳизинда меъморий мажмуасининг бунёд этилиши ҳам XV аср шаҳарсозлигининг Темур даври йўналишини намоён этади.

Меъморий ансамбллар “қўш” усулда, яъни бир-бирига бош кўриниши билан рўбарў, пештоқи ғоятда баланд ва улуғвор кўринишга эга бўлган иншоотлар мажмуаси тарзида қурилган. Самарқанддаги Жомеъ масжиди билан Бибихоним мадрасаси бу шаҳарсозлик усулига намунали мисол бўла олади. Қадимий Афросиёбнинг Шаҳристон харобаларида қолган ўрта аср иншоотларининг айримлари, яъни Ҳазрати Хизр ва Чўпон ота мажмуалари Соҳибқирон эътиборидан четда қолмаган. *[4. 5-бет]*.

Улуғ бобомиз марказлашган йирик давлатни шакллантириш билан бирга Марказий Осиёда шаҳарсозлик санъатининг қайта тикланишига, унинг янада ривожланишига йўл очди, яъни Самарқанд ва Мовароуннаҳрнинг бошқа шаҳарларини тиклашга катта эътибор берди. Кўп йиллик юришлар даврида ҳам қўшин бир неча муддат дам олган ҳудудларида Соҳибқирон бунёдкорлик ишларини олиб борган. Қарши шаҳри қалъасининг мустаҳкамланиши, Тошкент яқинидаги Зангиота ва Туркистондаги Хўжа Аҳмад Яссавий мақбаралари қурилиши бунга мисол бўлади. Соҳибқирон Амир Темур даврида илм-фан, адабиёт ва санъат, ҳунармандлик ва меъморчилик равнақ топди. Темур томонидан турли мамлакатлардан юз мингга якин олимлар, ҳунармандлар, меъморлар, санъаткорлар Самаркандга олдириб келтирилган.[5. стр. 136- 245, 282-283].

Шаҳарсозлик ва меъморий мажмуалар яратишга йўналтирилган ишлар асосан пойтахт шаҳарлар Самарқанд ва Шаҳрисабзда олиб борилган. Қадимий Кеш шаҳри ва салтанат пойтахти Самарқандда олиб борилган шаҳарсозлик тадбирлари бу соҳанинг кейинги асрлардаги йўналишини белгилаб берди. Амир Темур ва Темурийлар даврида шаҳарларнинг асосий қисми “ҳисор” деб аталган тизимда шаклланди. Бу атама мўғилларгача бўлган шаҳарларнинг “Шаҳристон” атамасидан фарқ қилади. “Ҳисор” шаҳарнинг асосий қурилмалари, ҳунармандчилик-савдо жойлари, маҳаллаларни, шоҳ кўча ва мажмуаларни бутунлай ўз ичига олган ёки умуман янги жойда пайдо бўлган тизимдир.

Ўша давр бунёдкорлик ишларида исломий фалсафа, охират учун хайрли ишлар, мақбаралар қуриш ғояси ҳам ҳукм сурган. Севимли фарзанди Жаҳонгир ўлимидан сўнг Соҳибқиронда Шаҳрисабзда ўхшаши йўқ йирик хилхона-некропол қуриб, у ерга ўз

авлодларини дафн қилиш фикри туғилади. Шаҳрисабз ҳисорининг жануби-шарқида ана шу мажмуага тамал тоши қўйилади. Кейинчалик бу ерда Дорут-тиловот ва Доруссиёдат мажмуалари пайдо бўлиб, янги қурилишлар бир неча асрлар давомида босқичма-босқич давом эттирилган.

Ўша давр меъморчилигининг шоҳ асарлари — маҳобатли кўшк саройларнинг кўплаб қурилиши қадимий боғ тузиш санъатида янгича йўналиш пайдо қилди. Боғлар агрономик-бадиий вазифалардан кўра, кўпроқ монументал меъморчиликка яқин эҳтиёжларга ҳам жавоб бера бошлади. Давлат миқёсида қабуллар ўтказиладиган маъмурий, шунингдек маиший тадбирлар ўтказиладиган саройлар боғлар билан ҳамоҳанг тарзда бунёд этилиши ўз навбатида янгича меъморий ечимдаги боғ-сарой турларини намоён этди.

Замонавий Ўзбекистон меъморчилигида Соҳибқирон даҳоси билан яратилган меъморий ғоялар мужассам бўлган бой меросдан оқилона фойдаланиш бугунги меъмор ва қурувчи усталар олдидаги масъулиятли вазифалардан бири бўлиб қолди. Амир Темур даври меъморчилиги анъаналарига хос равишда бунёд этилган мустақиллик иншоотларидан Тошкентдаги Темурийлар тарихи давлат музейи, Самарқанд яқинидаги Имом ал-Бухорий ёдгорлик мажмуаси каби бинолардаги меъморий ечимлар бу вазифани бажаришга сидқидилдан киришилганидан далолатдир.

Ўз замонасида жаҳонни ҳайратга бу ноёб маданият ва унинг бетакрор намуналари умуминсоний ва умумбашарий мазмун, моҳият касб этганлигидан, улар бугун ҳам миннатдо авлодлар томонидан эътироф этиб тараққийпарвар инсоният манфаатлари ва ҳаётий эҳтиёжларига ҳамон хизмат қилиб келмоқда.

Адабиётлар

1. Ш. Мирзиёев. Ўзбекистон Республикасини 2020 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишлари тўғрисидаги масалаларда давлатимиз раҳбари бугун, 2020 йил 24 январь. [1].
2. Академик Акмал Саидов.”Француз олими Амир Темурнинг сиёсий заковатига, дипломатик маҳорати ва бунёдкорлигига тан берган.” Маданият. 3.10. 2018 й. [2].
3. А. Яҳёев Соҳибқироннинг меъморий мероси.. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетасининг 2013 йил 15-сони. [3].
4. Ш.А.Ахадов. Т.С.Эгамов Амир Темур ва Темурийлар даврининг интеллектуал салоҳияти, ўқув қўлланма. Самарқанд – 2004. [4. 5-бет].
5. Рюн Конзалес де Клавихо. “Жизнь и деяния великого Тамерлана”; дневник путешествия по двору Тимура в Самарканде 1403\1406, стр. [5. стр. 136- 245, 282-283].

TEMUR TUZUKLARI VA HOZIRGI ZAMON

Jalolitdinova Iroda Jamshidovna
Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: O‘zbekiston qadim - qadimdan o’zining yuksak ilmiy salohiyati, moddiy va ma’naviy durdonalari bilan jahon ahlining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda muxtaram prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan tariximizni o‘rganishga, boy madaniy merosimizni, ananalarimizni asrab avaylashga katta e’tibor qaratilib, bu borada ko‘pgina samarali ishlar amalga ohirilmoqda. Ayniqsa buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temurning beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan “Temur tuzuklari”ni o‘rganish yuksak marralarni ko‘zlagan shijoatli, mard, jasur, ilmga chanqoq yoshlarimiz uchun ibrat namunasidir. Bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston balki butun jahonda Amir Temurning “Temur tuzuklari”ga bo‘lgan e’tibor va qiziqish yanada oshib bormoqda.

“Temur tuzuklari” Sohibqironning o‘zi his qilgan va boshidan kechirganlari hamda avlodlarga pand - nasihat tarzida yozilgan bitiklarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlari: Amir Temur, tuzuklar, Vatan, Sarkarda, Sohibqiron, Shahrisabz, Jahon tarixi, Beklik.

Abstract: Uzbekistan has been in the center of attention of the people of the world with its high scientific potential, material and spiritual masterpieces since ancient times. Today, our honorable president Sh. Mirziyoyev paid great attention to studying our history, preserving our rich cultural heritage and traditions, and many effective works are being carried out in this regard. Studying the incomparably important "Tuzuklari Temur" of the great world-lover Amir Temur is an example for our young people who are ambitious, courageous, brave and thirst for knowledge. Today, attention and interest in Amir Temur's "Tuzuklari Temur" is increasing not only in Uzbekistan, but also in the whole world. "Temur Tuzuklari" contains the Sahibqiran's own experiences and experiences, as well as his writings written in the form of admonitions to the generations.

Key words: Amir Temur, tuzuklar, Vatan, Sarkarda, Sahibqiron, Shahrisabz, World history, Beklik.

Jahon tarixida barcha ulug‘ qahramonliklar yurt boshiga ish tushganda ona Vatanni bosqinchilardan ozod qilishda sinovli kunlarda yaqqol namayon bo‘ladi. Vatanimizni bir yarim asr davom etgan chingiziylar imperiyasining jabru zulmidan ozod etishda qahramonona kurash olib borogan o‘z aqlu zakovati va kuch qudrati bilan butun dunyoni hayratga solgan buyuk sarkarda davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur qoldirgan “Temur tuzuklari”kabi buyuk me’rosi bugungi kunda ham har sohada bizning yo’llarimizni mashala kabi yoritib kelmoqda. Birinchi prezidentimiz I.Karimov millatimiz ma’naviy olamining ilmi-fan, madaniyat, bunyodkorlik rivojiga tengsiz azmu shijoati, mardligi, jasurligi bilan hissa qo‘shgan, markazlashgan saltanat barpo etgan siymo Amir Temur merosi xususida quydagicha yozadi:[1] “Shaxsan men “Temur tuzuklari”ni har gal o’qir ekanman, xuddiki o’zimga qandaydir ruhiy kuch quvvat topgandek bo’laman. O’z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo’ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bora ishonch hosil qilganman”. Tajribamdan ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor,mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir.[2]

“Temur tuzuklari”- podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir. Asar ikki qisimdan iborat. Birinchi qismda jahon tarixida mashhur fotih, sarkarda va iste’dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning yeti Yoshi (1342) dan to vafotiga (1405 yil, 18 fevral) qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, aniqroq qilib aytganda, uning Movarounnahda markaziy hokimyatni qo‘lga kiritish, feadal tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo’shni yurt va mamlakatlarni,masalan, Eron hamda Afg‘anistonni tasarrufiga kiritish, Oltin O‘rda hukumdori To‘xtamishxon (1376-1395), Butun Yevropaga qo‘rquv va dahshat sologan Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389-1402) ga qarshi va nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism jahongirning nomidan aytilgan va uning toju taxt vorislariga atalgan o‘ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. Temur do‘stlikinsoniylikning eng oliy ko‘rinishi, eng oliy insoniy tuyg’u, unga erishish uchun kishi yetuk madaniyatli ,bo‘lishi kerak, deb qaraydi. Do‘st haqda “Temur tuzuklari”da ham ko’rishimiz mumkin.[3] “…o‘z tajribamdan ko‘rdimki, sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stning dushmanini o‘z dushmani deb biladi. Agar kerak bo‘lsa,do‘sti uchun jonini ham ayamaydi.” Vafosiz nodon do‘stlar haqida “..o‘z tajribamdan ko‘rdimki, aqilli dushman, johilu nodon do‘stdan yaxshiroq ekan.” Sohibqiron 1336 yilning 9 aprelida Qashqadaryo vohasining Shahrisabz Bekligiga qarashli Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida barlos Tarag‘ay xonadonida tavallud topgan. Temur yoshligidan yaxshi ta’lim va tarbiya oladi. Bo‘lajak Sohibiron o‘n olti yoshigacha faqat diniy emas balki dunyoviy fanlar – tarix, falsafa, geografiya, hisob va boshqa ilmlardan ham habardor bo‘lgan.[4]

Sohibqiron Amir Temur tarixan o'ta murakkab vaziyatda, XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga chiqadi. Amir Temur Buyuk saltanat barpo qilish bobidagi sa'y-harakatini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 1370-1388 yillarni o'z ichiga olsa, ikkinchi davr 1388-1405 yillardir.

Sohibqiron Amir Temurda insonparvarlik fazilatlarining barchasi mujassam bo'lib, bular davlatni adolat bilan boshqarishda yordam bergan. U insonparvarlikni keng ma'noda tushinib, insonga, xalqqa foydasi tegaligan har qanday ish insonparvarlikning belgisidir, deb ta'kidlaydi. Amir Temur har bir qilayotgan sahovatli ishlarini, atrofdagilarga bo'lgan muomalasini xudoning xoxishi deb biladi. Uning o'zi bu haqda shunday deb yozgan edi: "Xech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va xech bir tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb".

"Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi-deyiladi, "Temur tuzuklari"da Chunki bu insonlar mamlakat rivojida ustundirlar". Shu bilan bir qatorda Sohibqiron dehqonlar, kasb-hunar egalari, savdogarlarga o'z ishlarini yuritish uchun urug', asbob, sarmoya berib, sharoit yaratishga e'tibor ko'rsatgan.

Sohibqironning mamlakatda qat'iy tartib o'rnatishga erishganini, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta'lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirilganini, bu qonun – qoidalarni esa saltanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog'lab tuzganini ta'kidlab o'tish zarur.Bu haqda "Temur tuzuklari"da quydagi so'zlar bitilgan: "Saltanatim qonun-qoidalarini ham ana shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim".

Amir Temur davrida ilm-fanning gullab yashnashiga ta'sir etgan omillardan yana biri qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro diplomatik aloqalarning o'rnatilishi ilm-fan taraqqiyoti uchun yaxshi sharoit yaratgan. Sohibqiron ilm-fan bilan bir qatorda madaniyat, san'at, me'morchilik, din va diniy bilimlar rivojiga ham katta e'tibor qaratadi. Bu borada "Temur tuzuklari"da "Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari, islom dini ilmlari, tasnif, fiqxdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim", deyiladi. Amir Temur "Temur tuzuklari"da dehqonchilik qilish, yer va suvga munosabat, olingan hosildan undirilgan soliqlar haqida quydagilarni yozadi: "Yana buyruq berdimki, har bir mamlakat fath etilgach, turli ko'ngilsiz hodisalardan amnu omonlikda bolsin, uning hosil va daromadlarini hisobga olib ish tutsinlar. Agar yerli fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda xirojni tuzukka muvofiq yig'sinlar. Bulardan tashqari kuzgi, bahorgi, qishki va yozgi dehqonchilikdan olingan hosil raiyatning o'ziga bo'lsin. Lalmiokor yerlarni esa jariblarga bo'lsinkar, hisobga olingan bu yerlardan (soliq olishda)uchdan bir va to'rtdan bir qoidasiga amal qilsinlar. Har shahar va har yerdan olinadigan jon solig'i, kasbhunardan hamda o'tloq va suvloqdan olinadigan soliqni to'lashda qadimdan kelgan tartib qoidaga amal qilsinlar, bordiyu bunga raiyat rozi bo'lmasa, bori o'lganicha ish tutsinlar".

Amir Temur davlat boshqaruvidadaolat bilan bir qatorda mehmondo'stlik, kamtarlik, kechirimlilik kabi yuksak insoniy fazilatlar ham o'rin olgan. " Yana amr qildimki, uzoq yaqindan biron kishi kelib, mening majlisimga kirar ekan, qaysi toifadan bo'lsa ham, davlatim dasturxonidan uni quruq qaytarmasinlar".

"Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo'lsa ham, uni kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh qilgudek bolsa, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar".

Xulosa qilib aytganda Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" Butun Movarounnahr qolaversa Amir Temur asos slogan markazlashgan davlatni har tomonlama o'rganishda muhim manba shu bilan birga bugungi kun avlodlar uchun ibrat va qimmatil boy meroslarimizdan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. B.45

2. B.Ahmedov. Temur tuzuklari. T., G’ofur G’ulom nashriyot matbaa birlashmasi, 1991.B 6
3. Temur tuzuklari // Forschadan A. Sog’uniy va H. Karomatov tarj; B. Ahmedov tahrir ostida / . – T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi,1991.B 90
4. Sh. Karimov, R. Shamsutdinov. Vatan tarixi. T.,B 365

СУҒД МУЛКЛАРИ – КЕШ ВА НАСАФНИНГ ИЛК ЎРТА АСРЛАРДАГИ ТАРИХИЙ ЎРНИ

Отахўжаев Азимхўжа Музаффарович
тарих фанлари доктори,
мустақил тадқиқотчи

Аннотация: Мазкур мақолада минтақа тарихида ва давлатчилик бошқарувининг ривожида муҳим ўрин тутган Кеш ва Насаф мулкликларининг илк ўрта асрлардаги тарихий ўрни таҳлил этилган. Суғд конфедерацияси таркибидаги бу мулкликларнинг бир муддат мустақил фаолияти, марказ Самарқанд билан муносабати, Турк хоқонликлари давридаги бошқаруви амалиёти ва Араб халифалиги истилоси давридаги жараёнларда иштироки кўрсатиб ўтилган. Шу билан бирга илк ўрта асрлар даври сиёсий ва ижтимоийиқтисодий жараёнларида Кеш ва Насаф муҳим стратегик аҳамият касб этгани эътироф этилган.

Калит сўзлар: Суғд, конфедерация, Самарқанд, Кеш, Насаф, Турк хоқонлиги, Буюк ипак йўли, Араб халифалиги, мулкликлар.

Abstract: This article analyzes the historical role of Sogdian possessions of Kesh and Nasaf, which played an important role in the history of the region and the development of state administration since the early Middle Ages.

It shows the independent activity of these possessions as part of the Sogdian confederation, their connection with the center - Samarkand, the practice of their administration in the period of the Turkic Kaganate, as well as the participation of Kesh and Nasaf in the process of struggle against the conquest of the region by the Arab Caliphate. At the same time, it has been proven that Kesh and Nasaf acquired an important strategic significance in the political and socio-economic processes of the early Middle Ages.

Keywords: Sogd, confederation, Samarkand, Kesh, Nasaf, Turkic Kaganate, Great Silk Road, Arab Caliphate, possessions.

Ўзбекистон тарихининг антик даври (милоддан олдинги IV а. – милодий III–IV асрлар)дан илк ўрта асрлар (V–VIII аср биринчи ярми) даврига ўтиш босқичи ўзига хос, янги ижтимоий-иқтисодий тарихий жараёнлари билан аҳамиятлидир. III–IV асрларга келиб рўй берган Кушон ва Қанғ каби давлатларининг таназзули, улар ўрнига сиёсий жиҳатдан мустақил ва маҳаллий маъмурий бошқарувига эга давлатлар (Африғийлар, Чоч ва Фарғона) ва давлат уюшмалари (Суғд ва Тохаристон конфедерациялар)нинг вужудга келишига замин яратди [15. 7-8].

Илк ўрта асрларда вужудга келган Биринчи Турк хоқонлиги, сўнгра Ғарбий Турк хоқонлиги ва Суғд конфедерацияси ўртасидаги муносабатлар нафақат ўзбек давлатчилиги, балки минтақадаги давлатчилик эволюциясида ҳам ўзига хос бир босқич эди [26. 70-75]. Минтақада етакчи бўлган Суғд конфедерацияси нафақат сиёсий муносабатларда, балки ижтимоий-иқтисодий муносабатларда ҳам етакчи эди. Бу конфедрация давлат бошқарувининг ўзига хос жиҳати унинг Турк хоқонлиги, хусусан Ғарбий Турк хоқонлиги давлат бошқарувига мослашиб, туркий сулолаларнинг ҳокимият бошқарувини ўз қўлларига олишида эди [7. 238-252].

Шарқ ва Ғарб халқлари ҳаётида муҳим ўрин тутган “Ипак йўли” учун Хитой, Эрон, Византия ва Турк хоқонликлари ўртасида рақобат мавжуд эди. Деярли 10 минг чақиримли йўлнинг Амударёдан то Хитойнинг Хэси дарёси ғарбидаги Гансу ўлкасида жойлашган Хэси йўлагигача бўлган ҳудудида марказийосиёликлар умумий “ғарбликлар – хулар” номи остида етакчилик қилиб келдилар [23. 66-70; 13. 88-91]. Антик давр ва илк ўрта асрлар даври хитой манбаларига кўра, прототурк (қадим турк) саклар ва суғдийлар умумий ном билан “ху шанг” (“хўр савдогарлари”) деб аталган [22. 40-43; 14. 304].

Турк хоқонлигиги тасарруфига ўтганига қадар Суғд маъмурий жиҳатдан бевосита Кушон ва Қанғ давлатларининг асосчилари юэчжи – рузиелар томонидан бошқарилган. Улар ўзларини “чжоуву” деб аташган. Чжоуву (чжао-у)ларнинг Кан хонадони вакилларидан Самарқанд ихшидлари сулоласи, Бухоро, Хоразм, Кушония, Марв каби мулкларнинг ҳукмдорлари етишиб чиққан. Бу сулола Бухоро, Самарқанд, Кушония, Иштихон, Кеш, Нахшаб, шунингдек Уструшона, Чоч, Хоразм, Фарғона мулкларини бошқарган. “Кан хонадони” “Бэй ши”, “Суй шу”, “Тан шу” солномаларига кўра, Ғарбий Турк хоқонлиги сулолалари билан қариндош бўлган. Айнан Кан давлатига Ши (*Кеш*) ва Нашебо (*Насаф*) мулкликлари ҳам тобе бўлган [19. 23-27].

Суғд конфедерациясининг жанубидаги Кеш ва Насаф мулкликлари нафақат Суғд учун балки, бутун минтақа учун муҳим бўлган жараёнларнинг бевосита иштирокчилари эди. Бу икки мулликк ўзининг Суғд конфедрацияси таркибидаги ўрнига кўра, Суғд ва Тохаристон конфедерациялари чегарасида жойлашаган эди. Хусусан, Суғд ва Тоҳаристон мулклиги Чағониён ўртасида дипломатик муносабатларда муҳим ҳудуд ҳисобланган. VII аср иккинчи ярмига оид Самарқанд Афросиёби саройидаги деворий тасвирларида Суғд ихшиди Вархуман (Аварҳуман) ҳузурига Чағониённинг туркий ҳукмдори Туронтош номидан сарой дапирпати – мирзоси Букарзатнинг ташрифи ҳам буни тасдиқлайди [2. 55].

Кеш ва Насаф мулкликларидан ўтган савдо йўллари шимолдаги Самарқанд ва Бухорони жанубдаги Тоҳаристон, Эрон, Қобулистон ва Ҳиндистон билан Субоҳ, Хузор, Темур Қапуғ (Бузғола) орқали Термизга чиқиш йўналишида боғлаган [13.134]. Йўл Амударёдан ўтиб, Ҳиндистонга чиққан [8. 161-162].

Суғд жанубидаги Кеш ва Насаф мулкликларининг илк ўрта асрлар сиёсий жараёнларидаги ўрнини Биринчи Турк хоқонлиги қўшинларининг бу ҳудуддаги довонни чегара сифатида эътироф этгани орқали ҳам исботланади. Хусусан, 558 йилда Мухан хоқон қўшинлари Суғдга кириб келиб, унинг жанубий чегараси Темир Қапуғ – Бузғола довонига етиб борадилар. Бу ҳақда Култегин битиги 2-3 қаторларида: “Шарқда Қодиркан водийси қадар, ғарбда Темир Дарвозагача манзил қилдирганлар”, - деган жумлалар тасдиқлайди [1. 89].

Дастлаб Кеш, сўнгра Самарқанд атрофида марказлашган Суғд мулкликлари Ғарбий Турк хоқони Тўн ябғу даври (618-630 йиллар)да маъмурий бошқарув жиҳатдан такомиллаштирилди. Суғд конфедерацияси ва Ғарбий Турк хоқонлиги доирасида Марказий ҳокимият ва маҳаллий ҳокимликлар ўртасидаги муносабатларда Суғд мулкликлари хвабу – ҳокимлари, йирик заминдорлари, бой савдогарлари ва шаҳарлик аслзодалари томонидан тузилган Оқсоқоллар Кенгаши ҳал қилувчи ўрин туган. Ихшидлар – подшолар эса бу Кенгаш олдида ҳисобот берувчи чекланган ҳокимиятга эга эди. Ҳар бир мулкнинг ҳарбий саркардалари қўл остида жанговар ҳаракатга лаёқатли чокарлари бўлган [17. 12-18]. Бу махсус гвардия нафақат тан қўриқчи, балки деҳқон ва савдогарларнинг мулклари ва савдо карвонларининг ҳимоячилари ҳам бўлишган.

Умуман олганда, Суғд учун прототуркий ёки туркий маъмурий бошқарув юэчжилар, хионийлар, кидарийлар ва эфталийлар давридан маълум эди. Қолаверса, Суғд Кешдан бошқарилган даврда ихшид Шишпирнинг тахминан 640/642-655 йиллардаги фаолияти даврида Турк хоқонлари Суғднинг ички маъмурий бошқарувига кўп ҳам аралашмаганлигини кузатиш мумкин. Чунки бу даврда Шишпир ўз номидан тангалар зарб қилдириб, 642 йилда Хитойга элчиларини ҳам юбора олганган эди [15. 65-69].

Ғарбий Турк ҳоқонлиги заифлашиб, 699 йиллар атрофида Ужили (туркча Юзлик) бошқчилигидаги Туркаш хоқонлиг сиёсий майдонга чиқди. Бу даврда Араб халифалиги қўшинларининг Марказий Осиёга кириб кела бошлаб, уларга қарши курашиш учун сиёсий марказ йўқ эди. Ўз мулкликларининг ҳокимлари бўлган маҳаллий зодагонлар ва туркий аслзодалар Ғарбий ёки Шарқий Турк хоқонлиги, Туркаш хоқонлиги жуда бўлмаса, Самарқанд, Бухоро ва Кеш атрофида бирлашиш имконини қўлдан бой бераётган эдилар. Натижаси Араб халифалигининг Мовароуннаҳрга юришларини тезлашди. Ўз муаммолари билан банд бўлган ябғу-хоқонлар араб истилосининг дастлабки вақтлар (654-676 йиллар)да унга қарши жиддий чоралар кўролмадилар [16. 15-17].

Натижада 712 йили Араб халифалигининг Хуросондаги ноиби Қутайба ибн Муслим (706-715) билан Суғд ихшиди Ғурак ўртасида “Самарқанд шартномаси” имзоланди. Ғурак Суғд подшоси сифатида “расмийлаштирилди” [11. 63-64]. Нафақат Самарқанд ва унинг атрофидаги мулкликлар, балки Кеш ва Насаф ҳам Ғурак тасарруфижа эканлиги эътироф этилди. 722 йилда Суғд тахтига даъвогар Панч ҳокими Девештич ўлдирилгач, Суғд бошқаруви Араб халифалигининг Хуросондаги ноиблари назоратидаги Ғурак ихтиёрига ўтди. Тарихчилари Ғуракни, арабларга ён босишда айбласа-да, у ўзини “турк хоқонининг қулларидан бири” деб билган [12. 63-68]. Суғд тақдири, хусусан Кеш ва Насафнинг ягона Суғд таркибида қолиши учун қайғурганлигини кузатамиз.

“Самарқанд шартномаси”дан олдин ҳам, ундан кейин ҳам Суғд конфедерациясидаги икки мулки Кеш ва Нахшаб алоҳида ўрин тутиб келган. Хусусан, Кеш воҳанинг минтақанинг муҳим сиёсий, иқтисодий ва маданий марказларидан бири эди. Бир муддат Суғднинг Кешдан бошқарилиши ҳам бежиз бўлмаган. Айрим сиёсий жараёнлар боис, марказ Самарқанддаги ҳокимият парокандаликка учраган даврда Кешнинг Суғд пойтахтига айланиши бу мулклик ва шаҳарнинг мавқеи Суғд конфедерациясида Самарқанддан кейинги ўринда бўлганлигини исботлайди. Айни пойтахтлик даврида Кеш ҳукмдорлари ўнг юзасига подшо, орқасига ҳукмдорнинг қилич билан шерсимон маҳлуқни даф этаётганлигини акс эттирувчи тасвирли тангалар зарб эттирганлар [10. 137-142]. Тарихан VII асрдан Кешнинг Суғдга пойтахтлик даъвоси янада кучайиб борган. Шишпир (642-655) ҳукмронлиги даври Кеш учун аҳамиятли бўлган [5. 66]. Бу даврида Кешнинг пойтахтлик мақоми учун кураши нафақат сиёсий, балки иқтисодий асосларга ҳам таянган кўринади. Чунки Шишпир томонидан зарб этилган “ихрид Шишпир” битикли тангаларнинг Панжикентдан топилиши, VII аср ўрталаригача Суғдда Кешнинг мавқеини кўрсатади [20. 62-63]. Гарчи Кеш пойтахтликка даъвогар бўлса-да, Самарқанд Суғднинг тарихий пойтахти сифатидаги ўз ўрни учун курашган. Шу боис бўлса керак, ўша давр муаллифи хитойлик роҳиб ва сайёҳ Сюань Цзан ўз хотираларида Суғд маркази Самарқанд, деб келтиради [3. 316; 27. 146; 19. 36-37]. Шу боис, Ғурак ва Қутайба ўртасидаги 712 йилги “Самарқанд шартномаси”да ҳам Суғд ҳудудига Кешнинг киритилганлиги шундан далолат беради [28. 390-393]. Бу жараён эҳтимол, 650-655 йилларда Самарқанд ва Кеш ҳукмдорлари ўртасидаги кураш, Шишпирнинг тахтдан четлатилиши ҳамда Кешга туркий сулола вакили Шиагйе (Che-aho)нинг келиши билан якунланган бўлиши мумкин. Қолаверса, “Тарихи Табарий” ва Хитой манбаларига кўра, 720-760 йилларда Кешни: Вик (720-727), Ахубидо (Ахурпат)

(727-730/731), Йантун / Йандун (731/732-738), Йандуннинг ўғли Хубо (738-739), алАшканд (хитойча Сицзиньти ёки Сигинти) (740-746/747), ал-Ихрид (747-752) ва Таран (752-760) кабилар бошқаргани қайд этилади [9. 348; 4. 119-129]. Манбалардаги Кеш билан боғлиқ кўплаб маълумотлар бу мулкнинг илк ўрта асрларда сиёсий ва иқтисодий мавқеи баланд бўлганлигини кўрсатади.

Кеш мулкини бошқарган ҳукмдорлар орасида маҳаллий суғдийлар ва туркийлар кўп бўлган. Қолверса, Кешга қарашли Хузор мулкининг ҳокими Субуғро ҳам туркийлардан эди [9. 190; 19. 40]. Бу мулклик анча иқтисодий тараққий этган бўлиб, ҳунармандлари олтин, кумуш буюмлар ва қимматбаҳо тошлардан ясалган зебузийнатларни ишлаб чиқарган. 624, 724,

726, 727, 744, 750 йилларда Суғддан Хитойга юборилган зотдор от уюрлари орасида Кеш отлари ҳам бўлган. Четга рангли тузлар, олтин ва ношвадил, қимматбаҳо тошлардан ясалган буюмлар чиқарилганлиги [29. 117] Кешнинг иқтисодий тараққиётидан далолат беради.

Кеш савдо аҳли суғдийларнинг Марказий Осиё бўйлаб кечган колониал ҳаракатида фаол иштирок этган. Жумладан, Дуньхуандаги Цунхуасен қишлоғида Ши (Кеш) лик 22 киши яшаган бўлиб, рўйхатда уларнинг 6 таси зикр этилган [24. 149]. Агар рўйхатда фақат эркаклар қайд этилганини эътиборга олсак, улар оила бошлиқлари бўлган эди, дейиш мумкин.

Кешлик иқтидорли санъаткорлар Суғд ва Чочнинг раққос ва раққосалари қаторида Хитой саройида ўз маҳоратларини намойиш қилишган [18. 85-88].

Жанубий Суғднинг иккинчи бир мулки Насаф – Нахшаб ҳам ўзига хос тараққиёт босқичини бошидан кечирган. Бу ҳудудда мавжуд бўлган мил. авв. I минг йилликнинг иккинчи ярми ва мил. I минг йилликнинг биринчи ярмига оид Ерқўрғон харобалари, ўрта асрлардаги Насаф ва ҳозирги Қарши шаҳарларининг 2700 йиллик тарихини белгилади [21. 5; 25. 266]. Бу шаҳар “Буюк ипак йўли”даги муҳим стратегик марказ бўлиб, Суғдни Бузғола (Темур Қопуғ) орқали Бақтрия ва Ҳиндистон билан боғловчи жанубий йўналишида жойлашган эди. Агар Кеш орқали юрган карвонлар Самарқандга чиқса, Насаф орқали юрган карвонлар Бухоро билан боғланган.

V–VI асрларда Насаф Суғдда ўз мавқеига кўра, Самарқанд, Бухоро ва Кешдан сўнг тўртинчи ўринда турган. Хитой манбаларида у Самарқанд Суғди тасарруфидаги мулклардан бири Нашебо (Насаф) деб, зикр этилади. VII асрда Суғд конфедерациясида ярим мустақил мақомга эга бўлган Нахшаб “Тан шу”га кўра, Ши (Кеш) таркибидаги мулк

- “Кичик Ши”, деб аталган ва марказ Самарқандга бўйсунувчи ҳокимликка айланган.

Нахшаб мулкининг туркий ҳукмдорларидан бири Ашканд (740-746/747)– Сигинти (тегин) Кешни ҳам ўзига бўйсундирган [19. 180; 6. 135-139].

Хулоса қилиб айтганда Суғд конфедрацияси таркибидаги Кеш ва Насаф мулкдиклари илк ўрта асрлардаги давлатчиликнинг сиёсий тарихида, минтақа иқтисодий ҳаётида ўзига хос ўрин тутган бўлиб, ўзбек давлатчилиги тарихининг ажралмас қисми сифатида эътироф этилади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
2. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975. – с. 55.).
3. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М. –Л.: Изд. АН СССР. –том II. – 1950.
4. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Суғд // Шарқшунослик. – 2002. – № 11.
5. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Кеш // Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. –Тошкент: Фан, 2002.
6. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Нахшаб (бошқарув тизими) // Қарши шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент – Қарши: Фан, 2006.
7. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент: Yangi nasr, 2018.
8. Буряков Ю.Ф. К вопросу о связях Согда и Индии в древности и раннем средневековье // Индия и Центральная Азия (доисламский период). – Ташкент, 2000.
9. История ат-Табари / Пер. с араб. В.И. Беляева с допол. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987.
10. Кабанов С.К. Кешские монеты V-VI вв. // Вестник древней истории. – 1961. – № 1.
11. Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. –Ташкент: Фан, 1965.

12. Камолиддин Ш.С. Новые данные о потомках царя Согда Гурака // Общественные науки Узбекистана. – 2003. – № 3.

13. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008.

14. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: тексты и исследование. – Новосибирск, 1989.

15. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: Art flex, 2010.

16. Отахўжаев А. Суғд подшоси Тархуннинг Араб истилосига қарши курашдаги фаолияти таҳлили // Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт: трасформацион жараёнлар. Республика илмий ажумани илмий мақолалар тўплами. – Термиз, 2013.

17. Отахўжаев А. Суғд маъмурий бошқарув тизимида Оқсоқоллар кенгаши, даргоҳ ва девон масалалари // Ўзбек давлатчилиги тизимида даргоҳ ва девонлар. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Akademnashr, 2019.

18. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент, 2005.

19. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – Москва: Наука, 1970.

20. Смирнова О.И. Каталог монет городища Пенджикента. – М.: Наука, 1963.

21. Сулейманов Р.Х. Ранные этапы развития городской культуры Каршинского оазиса // Қадимий Қарши Ўрта Осиё шаҳарсозлиги ва маданияти тарихи. – Қарши: Насаф, 1999.

22. Хўжаев А. Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши // Мозийдан садо. – 2002. – № 2 (14).

23. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007.

24. Чугуевский Л.И. Новые материалы к истории согдийской колонии в районе Дуньхуана // Страны и народы Востока. – М.: Наука, 1971. – Вып. X.

25. Қарши шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Қарши шаҳрининг 2700 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент – Қарши: Фан, 2006.

26. Ғойибов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, 2020.

27. Chavannes Ed. Documents sur les T’ou-kiue (Turcs) occidentaux. // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Выпуск 6. – Санкт-Петербург, 1903.

28. Kurat A.H. Kuteybe bin Müslim’in Hvarizm ve Semerkend’I zebti (higri 93-94miladi 712) / Ankara Universitesi Dil va Tarih – Gôgrafiya dergisi. –Cilt VI. – № 4.

29. Schefer Ed. The golden peaches of Samarkand: A study of Tang exotics. – Berkley and Los Angeles, 1963..

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ТИЗИМИДА ЎРТА АСРЛАР ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИ: ҲУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Давлатова Саодат Тиловбердиевна
тарих фанлари доктори,
Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузуридаги миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамалакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси
Маркази раҳбари
saodatdavlatova70@gmail.com
Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация: Мақолада Марказий Осиё цивилизацияси тизимида ўрта асрларда давлатчилик тарихида анъанавий ҳунармандчиликнинг ривожланишига оид тарихий ва

этнографик маълумотлар ёритилган. Шунингдек, ўрта асрларда мавжуд давлатлар ва уларда ҳунармандчиликнинг ўзига хос турлари тараққиёти масалалари таҳлилга тортилган.

Калит сўзлар: Марказий Осиё, ҳунармандчилик, ўрта асрлар, ўзбек давлатчилиги, рисола, ҳунармандчилик уюшмалари.

Аннотация: В статье освещаются историко-этнографические сведения о развитии традиционных ремесел в истории государственности в средние века в системе среднеазиатской цивилизации. Также анализируются вопросы развития государств, существовавших в средние века и конкретных видов ремесел в них.

Ключевые слова: Цетральная Азия, ремесла, Средние века, узбекская государственность, рисаля-брошюра, ремесленные объединения.

Annotation: The article highlights historical and ethnographic information about the development of traditional crafts in the history of statehood in the Middle Ages in the system of Central Asian civilization. It also analyzes the issues of the development of states that existed in the Middle Ages, and specific types of crafts in them.

Key words: Central Asia, crafts, Middle Ages, Uzbek statehood, brochure, craft associations.

Марказий Осиё қадимдан Шарқ ва Ғарбни, Шимол ва Жанубни боғлайдиган йўлларнинг кесишувида жойлашган бўлиб, минтақа ҳақидаги дастлабки маълумотлар қадимги юнон тарихчилари ва географларининг асарларида учрайди.

Араб халифалиги даврида европаликлар Марказий Осиёнинг олимларидан Фарғоний, Форобий, Хоразмий, Ибн Сино, Беруний ва бошқалар ҳақида маълумотга эга бўлганлар. XIV – XV асрларда Европанинг баъзи ҳукмдорлари Амир Темур ва Темурийлар сулоласига мансуб ҳукмдорлар билан дипломатик муносабатларни йўлга қўйганлар. XVI – XVIII асрларда европалик картографлар ва саёҳатчилар Марказий Осиёнинг тасвири ва таърифи туширилган кўплаб хариталар тузганлиги ушбу минтақа ҳақида тасаввурларни бойитишга ёрдам беради. Айниқса, ўрта асрлар Шарқ алломаларининг умумбашарий тамаддун тараққиётига қўшган улкан ҳиссаси Ғарбу Шарқ маданиятларининг олий синтезини вужудга келтириб, миллий-маданий меросни қайта тиклаш, уни янада ривожлантириш имконини берди.

Ҳунармандчилик маданияти ўзига хос қадимий анъаналарга эга бўлиб, бугунги кунда мамлакатимизнинг иқтисодий-ижтимоий ҳаётида салмоқли ўрин эгаллайди. Марказий Осиё цивилизацияси тизимида ўрта асрлар тарихи ва унда анъанавий ҳунармандчиликнинг ривожланиши ўзига хос тарзда кечган бўлиб, ҳозирги кунда миллий ҳунармандчилик тараққиётида муҳим аҳамият касб этган десак муболаға бўлмайди. Қолаверса, Ўрта асрлар Шарқнинг тараққиёти унинг дунё тамаддунидаги муносиб ўрнини белгилаб берувчи оламшумул сиёсий, иқтисодий ва маданий-гуманитар соҳаларидаги ўзгаришлар, трансформация жараёнлари уйғунлиги билан ажралиб туради. Ҳозирги кунда жаҳон халқларининг интеграциялашуви, глобаллашув жараёнлари жадал кечаётган бир пайтда Ўзбекистонда этник ва маданий ўзликни англаш, локал этноҳудудий маданиятлар ва миллий қадриятларни сақлаб қолиш, уларни ривожланиши тарихини илмий асосда тадқиқ қилиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистон ҳудудда неолит давридаёқ ҳунармандчиликнинг дастлабки муҳим тармоғи ҳисобланган сопол буюмлар ишлаб чиқарилган ва тўқимачилик вужудга келган. Милоддан аввалги II асрдан бошлаб ҳунармандчилик маҳсулотлари савдосида *Буюк ипак йўли* муҳим аҳамиятга эга бўлган. Ўрта асрларда Шарқ мамлакатларида ишлаб чиқарилган маҳсулотлар Европа бозорларида жуда қадрланган.

Ҳунармандчилик тарихини ўрганишдаги ёндашувларга кўра, *ҳунармандчилик, ҳунар, уй ҳунармандчилиги* ва *ҳунармандчилик ишлаб чиқариши* тушунчалари бир хил маънога эга бўлиб, давлатчилик тараққиёти ва сулолалар тарихида давлат, жамият ва шаҳарнинг иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва маданий муҳитида ўзига хос кўринишларда намоён бўлади. Бундан ташқари, ҳунармандчилик ижтимоий тизимда инсон (ҳунарманд)фаолиятининг турли

кўринишлари ва таркибий жиҳатларини намоён қилади ҳамда уларнинг мувофиқлигини сақлаб туради.

Дастлаб ўзбек давлатчилиги тарихида ҳунармандчилик тарихини энг кадимий тарихий даврлардан бошлаб ёритишда биз аввало археологик қазишмалар натижалари, маҳаллий ёзма адабиёт намуналари (*масалан, «Авесто», кўҳна эроний битиклар, юнонлик, хитойлик, ҳиндистонлик* ва бошка ерлик муаллифлар ёзиб қолдирган манбалардан фойдаланиш имконини беради. Маълумки, ҳунармандчилик инсониятнинг ишлаб чиқариш фаолияти билан боғлиқ ҳолда вужудга келган бўлиб, у деҳқончилик ва чорвачилик хўжалигидан ажралиб чиққан ҳамда ўз тараққиёти давомида такомиллашиб, дастлаб тўқувчилик, кулолчилик, темирчилик, тоштарошлик, заргарлик, дурадгорлик, зардўзлик, кўнчилик, ўймакорлик каби турли ихтисосликларга ажралган.

Ҳунармандчилик ҳамма жойда бир текисда ривожланмаган, дастлаб фаолият олиб бориш учун зарур бўлган табиий ресурсларнинг мавжудлигига қараб, маълум бир ҳудудлардагина ривожланган, масалан, сифатли тупроқ бор жойда кулолчилик, жун ва тери кўп жойда тўқимачилик ва кўнчилик, дарё бўйларида кемасозлик ривожланган.

Ҳунармандчилик тараққиётидаги кейинги ўзгаришлар турли омиллар таъсирида бўлиб, биринчи навбатда инсоннинг хўжалик фаолияти, шунингдек, табиий ва ижтимоий ҳаётдаги турли кескин ўзгаришлар (катаклизм) ҳам унинг трансформациясига сабаб бўлган. Масалан, табиий- географик муҳит туфайли юзага келган ёки илдиз отган турлар, маҳаллий фойдали қазилмалар, ландшафт, қадимдан ўтроқ маданият ва кўчиб келганлар таъсири, жалб этиш ёки ўзига қаратиш (“тарқалиш”), ҳунармандларни бир жойда узоқ вақт биргаликда қолиб кетиши, ҳунармандлар ҳаёт тарзига муаллифи аниқ бўлмаган янги кўриниш (мода)нинг кириб келиши дан иборат.

Ижтимоий тараққиётнинг ҳар бир тарихий даври ўзгариши билан меҳнат қуроллари, ашёлар, тураржой ва иншоатлар йўқ қилиб ташланмайди, балки улар янги ижтимоий давр учун хизмат қилаверади. Чунки, ҳунармандчилик кишилар ўртасида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий муносабатлардан иборат бўлиб, улар жамоавий тарзда ишлаб чиқариш қуролларини яратганлар. Ҳунармандчиликнинг ривожи шу муносабатларнинг ўсиши ва такомиллашиши шаклида бўлиб, ўзига турли даврлардаги маданий ўзгаришларни ҳам қамраб олади.

Жамият тараққиёти босқичлари ва давлатчилик тарихида меҳнат тақсимоти билан алоқадор ҳолатда ҳунармандчиликнинг *уй ҳунармандчилиги*, *буюртма асосида маҳсулот тайёрлайдиган ҳунармандчилик* ва *бозор учун маҳсулот тайёрлайдиган ҳунармандчилик* каби турлари шаклланган бўлиб, ўрта асрлар учун ҳам аҳамиятлидир.

Ўрта асрларда ҳунармандчиликнинг ривожланиши олиб қарайдиган бўлсак, уни илк ўрта асрлар (*милодий V асрдан то VIII аср охирига қадар*); ривожланган ўрта асрлар (*IX – XV асрлар*) ва сўнгги ўрта асрлар (*XVI-XIX аср ўрталаригача*) босқичларида ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Масалан, ривожланган ўрта асрларда жумладан, IX-X асрларда Ўрта Осиёда йирик ҳунармандчилик марказлари пайдо бўлган. Ип, мато, гилам тайёрлаш бўйича Урганч, Шош, шойи тайёрлашда Марв, мис ва темирдан қуроласлаҳалар, пичоқлар тайёрлашда – Фарғона, шойи матолар, шиша маҳсулотлар тайёрлашда Бухоро, Самарқанд, кулолчиликда Риштон, Шеробод ва бошқалар айниқса, шуҳрат қозонганлигини кўриш мумкин.

IX-XIII асрларда ҳунармандчиликнинг ривожланиши бир қадар тараққий этган бўлиб, Сомонийлар даврида ҳунармандчиликнинг пахта, ипак, жундан турли хил матолар, тайёр кийимлар тайёрланиб, ўлка ва қўшни ҳудудлар аҳолиси талаби қондирилиб келинганлигини кўриш мумкин. Қоғоз ишлаб чиқаришда Ўрта ва Якин Шарқ ҳамда Европа мамлакатлари орасида биринчи бўлиб, ўзига хос ноёб маҳсулотлар билан таъминлаб келганлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

«Самарқанд қоғози каби қоғозни, — деб ёзганди X аср тарихчиси Истахрий, — (дунёнинг) ҳеч бир ерида учратмайсиз». Шунингдек, шишасозлик (*ранг-баранг шиша*

идишлар, безаклар, дераза учун ойна ишлаб чиқариш), кулолчилик (*айниқса, сопол идиш, буюмларни сирлаш борасида катта тажрибага эга бўлинган*), кўнчилик, гилам тўқиш, мисгарлик, қуролсозлик, темирчилик, кунжут, чигит, зиғир ва каноп дан мой олиш каби ўнлаб соҳалар фаолият кўрсатиб, жамият иқтисодий ҳаётини яхшилашда муҳим ўрин тутган.

Сомонийлар даврида кончиликка ҳам катга эътибор берилган. Айниқса, Фарғона водийсининг Ахсикат, Навқотда олтин, кумуш, юқори Нисода тошпахта (*астбест*), қатрон, кумуш, олтин, феруза, темир, мис, қўрғошин, Исфара тоғларида тошкўмир, қора, қизил, сариқ ранглардаги талк (*слюда)*, Сўх яқинида симоб ва Ўзгандда новшадил конлари ишлаб турган. Шунингдек, Фарғонада бу даврда туз, нефть каби қимматли хом ашёлар билан бирга асосан, кумуш, қўрғошин қазиб олишга ҳам кўп эътибор берилган. Бундан ташқари, мазкур водий тоғларида гилвата, ўтга чидамли оқ лой (*каолин*), аччиқтош, феруза, офит (*серпантин*), аметист каби қазилма бойликлари ҳам бўлган. Темир, олтин, мис, кумуш, навшадил, купорос, ақиқнинг йўл-йўл тури, туз конлари Уструшонада (*Шош, Фарғона, Чағониён, Самарқанд вилоятлари*) ҳам ишлаб турган. Минтақанинг бошка ҳудудларида (*Хуросон, Бадахшон ва ҳк*) ҳам ёқут, заҳармуҳра, олтин, кумуш, лаъл, туз, тошпахта, феруза, мармар, олтингугурт, маргимуш ва агат конлари мавжуд бўлган. Археологик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кончилик технологияси ўз даври учун анча юқори даражада бўлган.

Қорахонийлар даврида кончиликдаги ривожланиш сусаймаган бўлиб, Оҳангарон атрофида (Қорамозор) мис, кумуш, қўрғошин конлари, Фарғонада олтин, симоб, кумуш, темир, мис, феруза, навшадил, нефть, кўпорос, қатрон, Нурота тоғларида олтин, мис, қўрғошин, симоб, мармар, Бухоро, Усрушонада олтин, нефть, феруза ва темир конларининг ишлаб туриши ҳунармандчиликнинг ривож топишига олиб келганлиги табиий ҳолатдир. Шу боис темирчилик, кулолчилик, шишасозлик (*ойнасозлик*), заргарлик, тўқимачилик, кўнчилик каби 30 дан ҳунармандчилик соҳалари ривожланган. Масалан, шишасозликда шишадан ишланган буюмларга (*ошхона буюмлари, жиҳозлари, безактақинчоқлар, сиёҳдон, тувак ва бошқалар*) турли рангда жило бериш айниқса, урф бўлган. Бундан ташқари, иморатларни безаш, жиҳозлашда шишасозликнинг имкониятларидан кенгрок фойдаланишга ҳам ҳаракат килинган. Иморат ойналарининг рангли ва рангсизларини ҳам учрайди. Ҳатто, панжаралар орасига турли рангдаги шишалар ўрнатилганлиги иморатга кўрк бағишлаган.

Тўқимачилик Бухоро, Самарқанд вилоятларида ривожланган бўлиб, пахтадан тўқилган турли хилдаги газламалар нафақат минтақада, балки хорижий ўлкаларда ҳам машҳур бўлган. Кўнчилик маҳсулотларидан олмахон, собол ва бошқа ҳайвонлар терисидан пўстин (ичук), чармдан ишланган оёқ кийимлари (излик), туя ёки қўй юнгидан тўқилган иссик кийим (каре), гулдор наматлар ва бошқалар тайёрланган. Биргина кўнчиликда энг нозик ишлардан ҳисобланмиш ҳайвон мўйини тўктиришда *арзутал* номли аралашмадан фойдаланилганини Махмуд Қошғарий асарида учрайди.

Таъкидлаш жоизки, деҳқончилик, ҳунармандчиликдаги бир текис равнақ савдосотик ишларини жадаллаштириб боришда муҳим аҳамият касб этган.

Қорахонийлар даврига келиб Шарқий Туркистондан Хоразмгача бўлган катта ҳудуднинг сиёсий жиҳатдан бирлашиши савдо-сотиқ ишларида минтақанинг шарқий вилоятлари имкониятларини юзага чиқариш шароит яратди. Чунки, биз бугун Буюк ипак йўли деб номланадиган савдо йўли тўғридан-тўғри Шарқий Туркистонни араб ўлкалари билан туташтириб турган. Ўз даврида шимолий ва жанубий йўналишларга эга бўлган ушбу йўлнинг бир томони Хитойдан бошланиб, Шаркий Туркистон, Фарғона, Тошкент, Зарафшон водийси, Бухоро орқали шимолда Волга бўйлари воситасида Шарқий Европага, жанубда эса Ўрта Шарқ орқали Ўрта денгизгача чўзилиб борган.

Ғазнавийлар даврида қурилиш, маърифий ишларга ҳам катга эътибор берилгани маълум. Ғазна, Балх, Нишопур, Шимолий Ҳиндистон шаҳарларида мадрасалар, масжидлар, хонақоҳлар, саройлар кўплаб кўрилгани манбаларда ўз аксини топган.

Салжуқийлар даври иқтисодий муносабатлар аҳволига келадиган бўлсак, ёзма манбалар, археологик изланишлар натижаларига кўра, тўқимачилик (*ип газлама, ипак, зиғирпоя толасидан тайёрланган матолар ишлаб чиқариш*), кулолчилик (*коса, хум, кўза, пиёла ва бошқа маҳсулотлар тайёрлаш*), гиламчилик, заргарлик, ойнасозлик, темирчилик ва кўнчилик каби қатор соҳалар ички ва ташқи талаб ҳамда эҳтиёжларни қондириш мақсадида тараққий этиб борган. Қолаверса, бу орқали савдо-сотиқнинг ривожланишида ҳунармандчилик ишлаб чиқариш билан бир қаторда катта иқтисодий-савдо маконининг мавжудлиги ҳам муҳим ўрин тутганлигини тархий маълумотлар ҳам кўрсатади.

Мамлакатда ишлаб чиқарилган турли хилдаги газламалар, заргарлик буюмлари, кийим-кечаклар, гилам, поёндоз, тери, жун, ёғ-мой, совун, қурол-аслаҳа, эгар-жабдуқлар, ипак ва ипак маҳсулотлари, жавоҳирлар ва бошка кўплаб маҳсулотлар ички ва ташқи бозорда харидоргир бўлган.

XIII асрда мўғулларнинг бостириб кириши ҳунармандчилик ривожига катта салбий таъсир кўрсатди. Аммо, Темурийлар давлатининг вужудга келиши ҳунармандчилик ривожига катта ижобий таъсир кўрсатганлигини айтиб ўтиш мумкин. Масалан, Амир Темур чет эл юришларидан кейин Самарқандга 150.000 дан зиёд ҳунармандларни олиб келиб, улар учун шаҳарларда ва ҳатто айрим қишлоқларда ҳунармандлар маҳаллалари ташкил қилинганлиги борасида маълумотлар учрайди.

Таъкидлаш жоизки, Амир Темур мамлакатни бутун дунё сиёсий, иқтисодий ва маданий марказига айлантиришни ўзига бош мақсад килиб қўйган эди. Ҳунармандчилик ишлаб чиқаришига келсак, ип, ипак, жундан турли туман газламалар, матолар тўқилган, кийим-кечаклар тикилган. Қуролсозлик, ойнасозлик, дурадгорлик, тош йўнувчилик, заргарлик, кўнчилик ва кулолчилик каби қатор бошка соҳалар юқори савияда ривожланган. Айниқса, испаниялик элчини лол колдирган соҳалардан бири зардўзлик бўлиб, у қимматбахо матоларни заррин иплар билан безаш, оловдек ёниб турган гиламларга заррин нақшлар ила жило бериш ҳунари нафис санъат даражасига етказилганлигига тан берган.

Хуллас, Амир Темур ва Темурийлар даврида савдо-сотиқнинг ривожи учун бор имкониятлар ишга солинган бўлиб, натижада шаҳар ва қишлоқ бозорларига Хитой, Ҳиндистон, Хуросон, Эрон, араб давлатлари, Рим, Миср ва Европадан маҳсулотлар олиб келинган. Масалан, Хитойдан асосан ипак, ипак матолар, чинни, мушк, олмос, лаъл, марварид ва Европадан газлама, пичоқлар, шимолий юртлардан эса мум, мўйна, тери, араб мамлакатларидан тайёр кийимлар ва шиша буюмлар кўп келтирилган. Мамлакатан асосан тўқимачилик маҳсулотлари, ип газламалар, ипакли кийимлар, қоғоз, пахта, гуруч, мева ва қуруқ мевалар каби ҳунармандчилик маҳсулотлари четга чиқарилган. Масалан, Клавихонинг маълумотларига кўра, Самарқандда йилнинг фақат июнь ойида Хитойдан 800 туя мол олиб келинган экан. Савдо-сотиқнинг мана шундай гавжумлиги Табриз, Султония, Шероз, Исфахон, Кермон, Хуросон Шимолий Ҳиндистон, Ирок, Сурия каби шаҳар ва ўлкаларида ҳам кўриш мумкин эди.

Ўзбек давлатчилигининг Россия босқинидан аввалги сўнгги босқичи, бизнингча, XVI асрдан, яъни ҳокимият шайбонийлар қўлига ўтишидан бошланади. Зеро, айнан мазкур асрдан бошлаб давлат бошқарувида то шу вақтгача шаклланиб келган анъаналардан чекиниш холати кўзга ташланади. Бунга сабаб шайбонийларнинг ва уларнинг ҳарбий-сиёсий қатламлар ҳам кўчманчи муҳит вакиллари бўлганликларидан бўлса ажаб эмас.

Суғориш ишларининг йўлга қўйилгани табиий равишда ғаллачилик, пахтачилик, полизчилик, боғдорчилик, узумчилик, ипакчилик каби соҳаларнинг ривожланиб боришига йўл очиб берган. Ишлаб чиқаришга келсак, шайбонийлар замонида ҳам тикувчилик (*пахта, ипак матолар*), кулолчилик, темирчилик, қуролсозлик, заргарлик, дурадгорлик, қоғоз, қурилиш ашёлари ишлаб чиқариш каби қатор соҳалар фаолият кўрсатиб, ички ва ташқи бозорда сучун турли турдаги маҳсулотлар тайёрланган. Масалан, ушбу маҳсулотлар (*ипак жун, ип газламалар, пилла, гилам, қуруқ мевалар, ширинликлар, қоракўл ва бошқалар*) билан

савдогарлар Эрон, Ҳиндистон, араб ўлкалари, Хитой, Аштархон, Нўғой, Қозон хонликлари, сўнгги уч хонлик Россия томонидан босиб олингач (XVI асрнинг 50-йиллари), Россия каби ўлкаларга қатнаганлар. Ички савдо орқали аҳоли турмушини яхшилаш ниятида пул ислоҳотлари ҳам ўтказилган. Хусусан, 1507—1509 йиллари Муҳаммад Шайбонийхоннинг турли ўлчов ва оғирликдаги кумуш ва мис (оғирлик ўлчови 5,2 г) тангаларни жорий этади.

Шайбонийлар меъморчилик ишларида ҳам катта муваффақиятлар қозонган бўлиб, Самарқанддаги Муҳаммад Шайбонийхон қурдирган Хония, шунингдек, АБу Саъид, Кўлбобо Кўкалдош номли мадрасалар; Бухорода шаҳар деворининг таъмирланиши, Мир Араб, Абдуллахон, Модарихон (Абдуллахон онасига аталган), Гавкушон, Жўйбор, Фатҳулла қушбеги, Муҳаммадхўжа Порсо, Марокан, Кўлбобо Кўкалдош мадрасалари, Калон, Хўжа Зайниддин, Баланд, Абдуллахон, Чор Бакр (*хонақоси билан*) масжидлари, Заргарлар, Саррофлар, Телпакфурушлар, ўқчилар, унфурушлар тоқлари, Абдуллахон тими; Тошкентда Кўкалдош мадрасаси, Каффоли Шощий мақбараси, Бароқхон мадрасаси; Туркистонда (Йасси) Муҳаммад Шайбонийхон масжиди; Карманада Қосим шайх масжиди; Балхда қалъа деворининг таъмири (узунлиги тахминан 14 км), Абдуллахон, Кўлбобо Кўкалдош мадрасалари, Кўкалдош масжиди ва работи, бир қатор чорбоғлар; Хиротдаги Кўкалдош мадрасаси; турли шаҳарларда қурилган кўплаб карвонсаройлар, ҳаммомлар, бозорлар ва бошқа қатор қурилиш, таъмирлаш ишларини кўрсатиб ўтиш мумкин.

Аштархонийлар даври ижтимоий-иқтисодий ҳаёт масаласига келсак, ҳунармандчиликда ҳам илгаригидек анъанавий йуналишлардан тукувчилик, темирчилик, куролсозлик, дурадгорлик, заргарлик ва кулолчилик каби турлар мавжуд бўлган. Тайёр маҳсулотлар (*ипак ва ипак кийимлар; ип газлама; қоғоз; тақинчоқлар; қиммматбахо тошлар*) ички ва ташқи бозорда сотилган.

XVIII—XIX асрларда (то Россия босқинига қадар), анъанавий ҳунармандчиликнинг тўқимачилик, тикувчилик, кўнчилик, кончилик, мисгарлик, заргарлик, ёғочсозлик, темирчилик, кулолчилик, қоғоз ишлаб чиқариш кабиларни кўрсатиш мумкин. Маллахон даврида Қўқонда тўп ишлаб чиқарувчи «артиллерия» корхонаси қурилган. Бухоро шаҳрининг ўзида XIX аср ўрталарида, яъни Россия босқинидан олдин, 38 карвонсарой, 9 савдо тими, 16 ҳаммом ва 45 бозор бўлганлиги тарихий маълумотлардан маълум. Хивада эса сунъий суғориш ишлари, қурилишдан тортиб деҳқончилик, ҳунармандчилик, фан ва маданиятгача, ички савдодан ташқи иқтисодий алоқаларгача (*Эрон, Афгонистон, Ҳиндистон, Хитой, Россия ва бошқалар*) оид маълумотлар XVIII—XIX асрларда дунёнинг кўпгина халқлари ва мамлакатларидан орқада бўлмаганлигини кўрсатади.

Умуман олганда, ўрта асрларда Ўрта Осиёда ҳунармандчиликнинг барча турлари XX асрнинг 20 –йилларигача сақланганлигини кўриш мумкин. Бухоро, Самарқанд, Қўқон, Хива, Тошкент каби шаҳарларнинг ишлаб чиқариш муносабатларида ҳунармандчилик катта ўрин тутган. Айниқса, бу йўналишда илмий-назарий услубда тадқиқотлар олиб бориш масаланинг долзарблигини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги ўзига хос тарихга эга бўлиб, унинг ривожланиши ва тараққий этишида шаҳар ҳудудларининг ўзига хос ўрни ва тарихий-этник ривожланиш шароитларида ўзининг локал хусусиятларига эга бўлиб, бир қатор ўзига хос мактаб-марказларнинг вужудга келишига олиб келган. Жумладан, қадим савдо йўлларида жойлашган Самарқанд, Бухоро, Қарши, Хива, Термиз, Урганч, Шаҳрисабз, Тошкент, Қўқон, Марғилон ва бошқа шаҳарлар алоҳида ўрин тутади. Айниқса, улар ўртасидаги ўзаро савдо ва маданий алоқалар ҳунармандчилик турларининг ривожланишида муҳим аҳамият касб этган. Шунингдек, узоқ асрлар давомида шаклланган ва ўзига хос тараққиёт босқичларини босиб ўтган қадимий ҳунармандчилик соҳалари, амалий санъат ютуқларидан замонавий миллий ишлаб чиқаришни замонавийлаштириш (модернизация қилиш)да фойдаланиш ҳам катта аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: «Шарқ», 2001. – 368 б.
2. Беленецкий А.М. Организация ремесла в Самарканде в XV–XVI вв. // КСИИМК. Вып. XVI. – М.-Л., 1940. – С. 43–47.
3. Гарбузова В.С. Эвлия Челеби о стамбульских ювелирах XVII в // Труды отдела истории культуры и искусства Востока. – Л., 1940. Т. III. – С. 314-324.
4. Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент: PRINT-S, 2005. – 208 с.
5. Давлатова С.Т. Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги трансформацион жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида XIX аср иккинчи ярми – XXI аср бошлари). – Ташкент: “Yangi nashr”, 2018. – 368 с.
6. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX века). –

М.: Восточная литература, 1958. – 248 с.

7. Исомиддинов М.Ҳ., Яркулов А.А. Нахшаб ҳунармандчилиги тарихи (V – IX асрлардаги кулолчилик, темирчилик ва шишасозлик материаллари). – Тошкент: Yangi nashr, 2014. – 60 б.
8. Камолиддин Ш. Марказий Осиё тарихи тарихшунослигининг долзарб муаммолари// ўқув қўлланма. 2-нашр. – Тошкент, 2019. –Б.6.
9. Мукминова Р.Г. К характеристике Самаркандских тканей конца XV – XVI века // Общественные науки в Узбекистане. – 1970. – № 9. – С. 100-102.
10. Мукминова Р.Г. Костюм народов Средней Азии по письменным источникам XVI в. // Костюм народов Средней Азии. – М., 1979. – С.70-76.
11. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XIУ веке. – Ташкент, 1979. – 234 с.
12. Мукминова Р.Г. Социальная дифференциация населения городов Узбекистана конец XV – XVI в. – Ташкент: Фан, 1985. – 185 с.
13. Томина Т.Н. Ткани в одежде кочевых и полукочевых народов Средней Азии // Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1989. – 253 с.

СОҲИБҚИРОННИНГ ЯРАТУВЧИЛИК САЛОҲИЯТИ

Қосимова Феруза Шовкатовна,
“ТИҚХММИ” МУ Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти

Аннотация. Мақолада буюк бунёдкор шахс, мамлакатлар ва халқларни мўғуллар зулмидан озод қилган, уларни ўз байроғи остида бирлаштириб, марказлашган кучли давлатга асос солган Амир Темурнинг саркардалик фаолияти, юрт бошқаришдаги ўзига хос ёндашувлари, яратувчилик салоҳияти ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар. Минтақалараро муносабатлар, инсонпарварлик, жамият, ободончилик, шаҳарсозлик, давлат

Annotation. The article talks about the great creative person, Amir Temur, who freed countries and peoples from the tyranny of the Mongols, united them under his banner and founded a strong centralized state, his unique approaches to managing the country, and his creative potential.

Keywords. Interregional relations, humanitarianism, society, beautification, urban planning, state

Ҳар бир халқнинг буюк шахслари, алломалари бўладики, келажак авлод улар билан фахрланиб, ғурурланиб, ана шундай аждодларга муносиб ворис бўлишга интилиб яшайди. Оллоҳ назари тушган юртимиз тарихида ўтган бундай улуғ инсонлар ҳақида кўп ва хўп гапириш мумкин. Буюк бунёдкор шахс, мамлакатлар ва халқларни мўғуллар зулмидан озод қилган, уларни ўз байроғи остида бирлаштириб, марказлашган кучли давлатга асос солган Соҳибқирон Амир Темур ана шундай шахслардан бири. Унинг саркардалик фаолияти, юрт бошқаришдаги ўзига хос ёндашувлари, яратувчилик салоҳияти ҳақидаги маълумотларнинг ҳар бири алоҳида бир китоб бўлишга арзийди.

Беқиёс тарихий хизматлари, ўзининг ақл-заковати, салоҳияти билан жаҳонни ҳайратга солган Амир Темур шахсини, ҳаёти ва фаолиятини ўргани, мана, йиллар, асрлар ўтган бўлсада, ҳануз давом этмоқда. Бу бежизга эмас. Ўз даврининг теран фикрли, илғор шахсларидан бўлган Соҳибқирон XIV асрдаёқ мамлакатлараро ва минтақалараро муносабатлар инсоният тараққиётини жадаллаштиришини тушуниб етган эди. Шу боис, у Европа ва Осиё давлатларини ягона иқтисодий маконга бирлаштиришга ҳаракат қилган, Буюк ипак йўли ўтган мамлакатлар ўртасида маданиятлар алмашинувига тамал тошини қўйган.

Эътиборлиси, Амир Темурнинг давлатчилик бошқаруви борасида қолдирган буюк мероси, тажрибаси бугунги кун учун ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган. Зеро, у сиёсатда инсонпарварлик, жамиятда адолат тантана қилиши учун курашни, эркинлик ва инсоннинг яшаш ҳуқуқи сингари ноёб қадриятларни, юксак мақомга кўтарди ва уни янги мазмун билан бойитди. Бу ҳақда “Темур тузуклари”да шундай ёзади:

“- Азму жазм билан иш тутдим. Бирон ишни қилишга қасд қилган бўлсам, бутун зеҳним, вужудим билан боғланиб, битирагунимча ундан қўлимни тортмадим.

- Яхшиларга яхшилик қилдим, ёмонларни эса ўз ёмонликларига топширдим. Ким менга дўстлик қилган бўлса, дўстлиги қадрини унутмадим ва унга мурувват, эҳсон, иззатикром кўрсатдим.

- Ҳар бир шаҳарда масжидлар, мадрасалар, хонақолар қуришни, мусофир йўловчилар учун йўл устида работлар бино қилишни, дарёлар устига кўприклар қуришни буюрдим.

- Ҳеч кимдан ўч олиш пайида бўлмадим. Тузимни тотиб, менга ёмонлик қилганларни парвардигори оламга топширдим. Софдил кишилар, саййидлар, олимлар ва фозилларга даргоҳим доим очиқ эди. Нафси ёмон ҳимматсизларни, кўнгли бузуқ кўрқоқларни мажлисимдан қувиб юбордим”.

Амир Темурнинг олижаноб сиёсати эл-улусни бирлаштиришда, юртни босқинчилардан озод қилишда, давлат арбоби ва саркардалик фаолиятида ёрқин намоён бўлади. Шу билан бирга Темур ва темурийлар ҳукмронлик қилган даврда шаҳарсозлик, меъморчилик ва бунёдкорлик ишларига юксак эътибор қаратилиши, мамлакатда боғроғлар барпо этилиши ҳам тарихий ҳақиқат.

Испаниянинг Темур саройидаги элчиси Рюи Гонзалес де Клавихонинг кундалик дафтарида, ўша давр солномачиси Али Яздий ва бошқа муаррихларнинг асарларида қайд этилганидек, темурийлар даврида Мовароуннаҳр шаҳарларида, хусусан, Самарқандда қадимий халқ меъморчилиги ривожланди. Чингизхон ҳужумларидан сўнг вайрон бўлган шаҳарлар қайта тикланди. Самарқанд, Кеш, Тошкент, Бухоро ва Қарши каби кентлар соҳибқирон бошчилигида қайтадан мустаҳкамланиб, обод қилинди, жаҳонга кўз-кўз қилишга арзигулик шаҳарларга айланди.

“Самарқанд лойдан қурилган эди, ҳазрат соҳибқирон уни тошдан тиклади”, деб ёзади замондош тарихчи Ҳофизи Абру. Дарҳақиқат, 1372 йилнинг иккинчи ярмида шаҳарнинг кунботар тарафида, баланд тепалик ёнбағрида Арки олий деб аталган мустаҳкам қалъа барпо этилди. Шаҳар девори мустаҳкамланиб, олтита -Оҳанин, Феруза, Сўзангарон, Гозургоҳ, Бухоро ва Чорраҳа дарвозалари тикланди. Шаҳар арки ичида тўрт ашёнлик иккита улкан

сарой: Кўксарой ва Бўстонсарой қад кўтарди. Бу ердаги кўчаларнинг баъзилари ва бозор қайта қурилиб, обод қилинди.

1404 йили Самарқандда бўлган Испания элчиси Клавихо ўз "Эсдаликлари"да: "Самарқанд шаҳарида ҳар йили Хитой, Ҳиндистон, Татаристон (Олтин Ўрда) ва бошқа мамлакатлардан, шунингдек ниҳоятда бой бўлган Самарқанд салтанатининг ўзидан келтирилган мол ва матолар сотилади. Илгари шаҳарга олиб келинган мол ва матоларни бир ерда тартиб билан жойлаштириб сотадиган жой йўқ эди. Подшоҳнинг амри билан шаҳарда икки тарафида қатор дўконлар қўйилган шоҳкўча, бозорларда расталар қурилди", деб ёзган эди.

Амир Темур Самарқандда ҳар бир мўмин-мусулмон учун муқаддас ҳисобланган зиёратгоҳларни обод қилишга алоҳида эътибор берди, кўплаб катта масжид, мадраса ва хонақолар қурдирди, янги бозорлар. Карвонсаройлар, ҳаммомлар ва бошқа жамоат биноларини бунёд эттирди. Самарқандда қад ростлаган энг катта зиёратгоҳларидан бири Афросиёб тепалигининг жанубий ёнбағрида жойлашган Шоҳизинда бўлди.

Пойтахт шаҳарнинг яна бир олий зиёратгоҳи темурийлар хилхонаси бўлди. Бу олий иморат ичида Темурийнинг суюкли набираси ва тахт вориси мирзо Султон Муҳаммад (1403 йилда Боязид Йилдиримга қарши олиб борилган уруш пайтида Туркияда вафот этган), соҳибқироннинг ўзи ва ўғиллари Умаршайх, Мироншоҳ ва Шоҳруҳ, набираси Улуғбек, Темурнинг бош тарафида унинг пирларидан Мир Саид Бараканинг сағанаси жойлашган.

Бибихоним жомеъ масжиди ҳам соҳибқирон даврида ўзининг шахсан бошчилигида Самарқандда қурилган олий бинолардан бири ҳисобланади. Шу даврда шаҳар теварагида бир талай чиройли шаҳарчалар ҳам қурилди ва уларга Миср, Дамашқ, Бағдод, Шероз, Султония деб ном берди. Бобокалонимизнинг бу ғояси замирида катта мақсад ва сиёсат ётганлиги шубҳасиз эди. У Самарқандни жаҳоннинг ёруғ юлдузи, теварагидаги шаҳарчаларни эса унинг атрофида айланиб турган йўлдош сайёраларга қиёс этган.

Шаҳарнинг теварак-атрофида 1378-1404 йиллар оралиғида Боғи нав, Боғи жаҳоннумо, Боғи тахти қорача, Боғи Давлатобод, Боғи дилкушо бўлди, Боғи шамол, Боғи чинор, Боғи нақши жаҳон, Боғи баланд, Боғи амирзода Шоҳруҳ, Боғи майдон деб номланган ўн иккита катта ва хушманзара чорбоғлар бунёд этилди. Чорбоғларнинг баланд ерларида муҳташам қаср, унинг олдида эса фавворалар ва гулзорлар қурилди. Икки қаватли қасрларнинг устунлари мармар тошлар билан қопланган, деворлари рангли кошинлар, ички деворлари турли мазмундаги суратлар билан безатилган эди.

Ибн Арабшоҳ шундай ёзади: "Ҳазрат соҳибқирон қасрларнинг қайбирига ўз мажлисларини... ўзи қилган жангларнинг тасвирларини, расмий тантаналардаги суратларни, подшоҳлар, амирлар, саййидлар, уламо ва улуғ кишилар билан қурган мажлислари тасвирини чиздирган".

Амир Темур ота макони Кеш(Шаҳрисабз)ни ҳам обод қилди. Ҳокимият тепасига келган дастлабки йилларда унинг бошчилигида шаҳарнинг бузилиб ётган девори ва мудофаа иншоотлари қайта тикланди. Кўплаб жамоат бинолари қурилди. Жумладан, Дорут-тиловат (Қуръон тиловат қилинадиган уй) қурилиб, дастлаб бу ерга Темур отасининг пири Шамсуддин Кулол дафн этилган.

1374 йили Амир Темур қабр устига гумбазли мақбара қурдирди ва унга отасининг ҳокини ҳам олиб келиб қўйдирди. Дор-ут-тиловат Мирзо Улуғбек замонида яна таъмирланди.

Ана шундай мақбаралардан яна бири Дор-ус-саёдат(саййидлар уйи)дир. Мазкур мақбара 865 йили вафот этган муҳаддис (ҳадис олими) Абу Муҳаммад Абдаа ибн Наср алКешийнинг қабри устига қурилган ва иккита мақбара, бир нечта ҳужра ва хонақодан иборат бўлган. Манбаларда ёзилишича, мақбарада ҳазрат соҳибқирон ўзи учун ҳам бир даҳма қурдирган. Аммо, унга 1376 йили тўсатдан вафот этган тўнғич ўғли Жаҳонгир мирзо дафн этилган.

Соҳибқирон 1380-1404 йилларда қурдирган Оқсарой Кешдаги энг катта ва машҳур бино ҳисобланади. Тарихий манбаларда ёзилишича Оқсарой нафақат олий ҳукмдор ва унинг оиласи истиқомат қиладиган, балки давлат муассасалари ҳам фаолият кўрсатадиган жой бўлган.

Ҳазрат соҳибқирон она юрти Бухоройи шарифни ҳам обод қилиб, унинг гўзал ва бетакрор бир масканга айлантирди. Унинг саъй-ҳаракатлари билан пайғамбарлар, азизавлиёларнинг вайрон бўлган қабрлари қайта таъмирланиб, асл ҳолига келтирилди.

Қадимий Ясси (ҳозирги Туркистон)да машҳур тариқат етакчиси Аҳмад Яссавийнинг қабри устига қурилган икки гумбазли баланд мақбара ики йил давомида қурилди. Сирдарёнинг ўнг соҳилида Оҳангарон сойининг мазкур дарёга келиб қўшиладиган ерида Эски Тошкент - Бинкат жойлашган эди. Шаҳар Чингизхон ҳуружи пайтида вайронага айланган, ер билан яксон этилган эди. Амир Темур шаҳарни 1392 йили қайтадан мустаҳкам қилиб тиклатди ва унга кенжа ўғли Шоҳруҳ (1377-1447) шарафига Шоҳруҳий деб ном берди.

Амир Темур ва темурийлар даврида нафақат Мовароуннаҳр, балки бўйсундирилган мамлакатларда ҳам ободончилик, бунёдкорлик ишлари олиб борилди. Боғдод, Дарбанд тикланди, мўғуллар даврида бузиб ташланган жанубий Озарбайжон, Урмия кўли бўйида жойлашган Бойлақон шаҳри тошдан қайта тикланди, Қорабоғ ва Муғон даштига сув келтирди.

“Зафарнома” муаллифи Шарофиддин Али Яздийнинг сўзларига қараганда, ҳазрат соҳибқиронн ўзидан ёдгор бўлиб қолсин деб, ихтиёрига кирган ҳар бир мамлакат ва шаҳарда бир олий иморат бино қилдирган. Амир Темур теран ақл-фаросат, зийраклик ва ўткир идрок соҳиби эди. Бу фазилатлар унинг бунёдкорлик фаолиятида ҳам ўз аксини топган. Унинг “Кимки бизнинг қудратимизни билмоқчи бўлса, биз қурган иморатларни келиб кўрсин” деган сўзлари ўша даврдаги шаҳарсозлик, меъморчилик ҳамда бунёдкорлик ишлари ўзига хос дастуриламал бўлиб хизмат қилганлиги, шубҳасиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома.Тошкент. “Чўлпон”, 1991.
2.Бўрибой Аҳмедов. Амир Темур дарслари.Тошкент. “Шарқ” 2001
3.А.Иброҳимов, Х.Султонов, Н.Жўраев. Тошкент “Ўзбекистон” 1996.

НАСАФ ВОҲАСИ АЛЛОМАЛАРИ МЕРОСИ

Хасанов А.
Қар ДУ., т.ф.д.

Аннотация: Ушбу мақолада Насаф воҳасидан етишиб чиққан алломаларнинг Шарқ оламида тутган ўрни, уларнинг нисбалари, бебаҳо мероси, Насаф шаҳрининг буюк аллломаларидан Абул Аббос ал-Мустағфирий, Абул Ҳарас ал-Варсиний, Абдулҳамид алКашший, Абул Ҳасан ал-Паздавийларнинг ҳаёти ва маънавиятимиз хазинасига қўшган ҳиссаси кўрсатиб берилган.

Таянч сўзлар: Шарқ, илм-фан ва маданият, Мовароуннаҳр, Қашқадарё, Насаф, Нахшаб, жомеъ масжид, “Тарихи Насаф вал-Кашш”, “Ал-Ансоб”, “Насаф ва Кеш тарихи”, “Тарихи Самарқанд”

Annotation: In this article, the place of scholars who emerged from the oasis of Nasaf in the Eastern world, their nisbans, priceless heritage, the life and spiritual treasure of the great scholars of the city of Nasaf, Abul Abbas al-Mustagfiri, Abul Haras al-Varsini, Abdulhamid alKashshi, Abul Hasan al-Pazdawi. contribution is indicated.

Key words: East, science and culture, Movarounnahr, Kashqadarya, Nasaf, Nakhab, mosque, "History of Nasaf wal-Kashsh", "Al-Ansab", "History of Nasaf and Kesh", "History of Samarkand"

Ўзбекистоннинг энг қадимий шаҳарларидан бири Насаф (Қарши) шаҳридир. Шарқнинг йирик илм-фан ва маданият марказларидан бири сифатида Насаф шаҳри азалдан маълум ва машҳур. Қадимий ёзма манбаларда ан-Насафий нисбаси билан бир неча юзлаб олиму уламолар, буюк мутафаккир донишмандларнинг табаррук номлари зикр қилинган. Таассуф билан айтиш керакки, бу алломаларнинг ҳаёти ва қолдирган бой илмий- маънавий мероси советлар ҳукмронлиги даврида деярли ўрганилмади. Афсуски, бу улуғ зотларнинг номларини, уларнинг бебаҳо меросини ҳали кўпчилик билмайди. Қашқадарё воҳасида камол топган мана шундай улуғ аждодларимизнинг тарихини, фаолиятини, маънавиятимиз хазинасига қўшган ҳиссасини ҳар тараф- лама ўрганиш, тарғиб ташвиқ қилиш олимларимиз, биринчи галда, қашқадарёлик зиёлиларнинг бурчидирдир[1]. Шу жиҳатларни ҳисобга олган ҳолда ушбу мақолада Қашқадарё воҳасидан етишиб чиққан кўп сонли алломалардан айримлари ҳақида маълумот бермоқчимиз.

Абул Аббос ал-Мустағфирий X асрнинг охири XI асрнинг биринчи ярмида Насафда фаолият кўрсатган таниқли тарихчи, адиб, фақиҳ ва муҳаддис олим Абул Аббос Жаъфар ибн Муҳаммад ал-Мустағфирий ан-Насафий 961 йилда туғилиб 1041 йили шу шаҳарда вафот этган. У дастлабки билимни Насафда олиб, сўнгра яна илм излаб узоқ йиллар давомида Мовароуннаҳр ва Хуросоннинг қатор шаҳарларида бўлган. Жумладан, у Марв, Сарахс, Нишопур, Бухоро ва Самарқанд каби шаҳарларда ўқиб, кўп таниқли олимлардан сабоқ олган. Мана шу саъй-ҳаракатлар натижаси ўлароқ, ал-Мустағфирий ўз даврининг машҳур фикҳ олими, муҳаддиси, муаррихи ва филологи сифатида шуҳрат қозонган. У ҳанафия мазҳаби бўйича таниқли фақиҳ сифатида танилиб, жуда кўп ҳадисларни тўплаган ва уларни ёд билган. Бир нечта муаррихлар ал-Мустағфирий яшаган давр[1] (X аср охири – XI аср ярми)да "Мовароуннаҳрда унга тенг келадиган олим бўлмаган», деб унинг илмий салоҳиятини юқори баҳолаганлар. Ал-Мустағфирий 27 ёшидан бошлаб Насаф шаҳридаги жомеъ масжидида маърузалар қилган. Умрининг охирларида эса Насаф шаҳрининг бош хатиби лавозимида фаолият кўрсатган. У ҳақда маълумот берган тарихнависларнинг аксарияти ал-Мустағфирийнинг "соҳиб ат-тасониф ал-касира" ("кўпдан-кўп асарларнинг муаллифи") деб алоҳида таъкидлаган бўлсалар-да, биз ҳозирча аллома қаламига мансуб ўнга яқин асарларини биламиз холос. Унинг муҳим асарларидан бири "Тарихи Насаф вал-Кашш" ("Насаф ва Кеш тарихи")дир. Икки йирик жилдан иборат бўлган бу тарихий асар ўрта асрларда Насаф, Кешда ва Мовароуннаҳр минтақасида яшаб фаолият кўрсатган кўплаб олимлар ва донишмандларга бағишланган[2:123]. Муаллиф ўзининг ушбу асарида зикр қилган олимлар ва арбобларни саксон тоифага бўлиб таърифлаган.

Афсуски, ҳозирги маълумотларга кўра, ал-Мустағфирийнинг бу қимматли асари бизнинг давримизгача етиб келмаган ҳисобланади. Лекин ал-Мустағфирийдан кейин яшаган бир қанча олимлар унинг бу асаридаги маълумотлардан ўз ижодларида самарали фойдаланганлар. Жумладан, бу китоб ал-Мустағфирийдан бир аср кейин яшаган на- сафлик бошқа бир йирик олим Нажмиддин Умар Абу Ҳафс ан-Насафийнинг (1068—1142) "Китоб ал-қанд фи зикри уламои Самарқанд" ("Самарқанд олимлари ҳақида қанддек (ширин) китоб") номли машҳур асари учун асосий манбалардан бири бўлиб хизмат қилган. "Тарихи Насаф вал-Кашш"дан унумли фойдаланган олимлардан яна бири Абу Саъад Абдул Карим ас-Самъоний (1113-1167) бўлиб, у ўзининг "Ал-Ансоб"[4] номли улкан асарида келтирилган элликка яқин мовароуннаҳрлик олимларнинг таржимаи ҳолларини бевосита ал-Мустағфирийнинг мазкур асаридан олган. Унинг қимматли асарларидан яна бири "Тарихи Самарқанд" ("Самарқанд тарихи") бўлиб[3], минг афсуски, ушбу асар ҳам бизнинг давримизгача етиб келмаган.

Ал-Мустағфирий яшаган даврда ислом динининг турли масалаларини теран идрок этиб, илмий асосда тўғри талқин қилиш алоҳида аҳамият касб этган. Шу боисдан ҳам, кенг

халқ оммаси орасида ҳақиқий исломий тафаккурни шакллантиришда илм аҳлларининг ўрни беқиёс бўлган. Шу ақидадан келиб чиқиб, аллома ал-Мустағфирий ҳам мазкур мавзуга оид бир канча асарлар яратган. Шулар жумласидан, унинг “Китоб фазоил ал-Қурьон” (“Қуръон” нинг фазилатлари ҳақида китоб”) асари алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, бу асар ушбу мавзуга тааллуқли дастлабки асарлардан бири сифатида ҳам ғоятда қадрланади. Ёки бўлмаса, олимнинг пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссаломнинг ибратли ҳаёт йўллари ва кўрсатган мўъжизаларига бағишланган “Далоил ан-нубуввати” (“Пайғамбарлик аломатлари”), “Китоб ал-хутаб ан-набави” (“Пайғамбарнинг хутбалари ҳақида китоб”), “Китоб ад-даъвот” (“Даъватлар китоби”), “Китоб аш-шамоил” (“Пайғамбарнинг шакл-шамоиллари ҳақида китоб”) кабиларни кўрсатиш мумкин. Булардан ташқари, манбаларда келтирилишича, ал-Мустағфирийнинг қаламига мансуб асарлардан “Китоб ал-маномат” (“Тушлар ҳақида китоб”), “Китоб маърифат ас-саҳоба” (“Саҳобаларни билиш хақидаги китоб”) ва соф адабиётшуносликка оид[3] бўлган “Китоб аш-шеър ваш-шуаро (“Шеър ва шоирлар ҳақида китоб”) каби асарлари ҳам зикр қилинади. Бу асарлардан айримлари бизнинг давримизгача етиб келган бўлсада, кўплари ҳақида ҳозирча йўқолиб кетган деган фикрлар мавжуд. Лекин халқимизда “ноумид шайтон” деган азалий бир ҳикмат ҳам бор. Шунга кўра кўп буюк аждодларимиз каби алМустағфирий яратган асарларнинг қўлёзма нусхалари хорижий (айниқса, Миср, Сурия, Туркия, Эрон, Англия, Германия) мамлакатлар кутубхоналарида сақланиши эҳтимоллиги ҳам эътибордан четда қолмаслиги керак. Шу билан бирга, анча-мунча қўлёзма асарлар юртдошларимизнинг қўлларида сақланаётган бўлиб, уларнинг тегишли илмий муассасалар томонидан тўпланиб, илмий асосда чуқур ўрганилиши билан Абул Аббос алМустағфирий каби беназир аллома- ларимизнинг ҳаёти ва улар қолдирган бой илмиймаънавий мерос ҳақида тўлиқ тасаввурга эга бўламиз.

X асрда Насафда самарали фаолият кўрсатган йирик тарихчи ва муҳаддис Абул Ҳарас ал-Варсинийнинг[6] тўлиқ исми Абул Ҳарас Асад ибн Ҳамдувайҳ ал-Варсиний анНасафий бўлиб, у ҳижрий 315 милодий 927 йилда вафот этган. Насаф вилоятига қарашли Варсин қишлоғидан илм-фаннинг турли соҳалари бўйича бир қанча олимлар етишиб чиққанлиги ҳақида ёзма манбаларда аниқ маълумотлар келтирилади. Абул Ҳарас алВарсиний улардан энг таниқлиси бўлиб, Насаф за Мовароуннаҳрнинг турли шаҳарларида унинг кўпдан-кўп шогирдлари фаолият кўрсатганлар. Ал-Варсинийнинг қаламига мансуб асарлардан тўрттаси ҳақида зикр этилган бўлиб, улардан энг муҳими шубҳасиз “Китоб муфахарат аҳл Насаф ва Кашш” (Насаф ва Кеш аҳлидан энг фаҳрли (олим)лар ҳақида китоб”) ҳисобланади. Афсуски, бизгача етиб келмаган бу асарда, номидан ҳам кўриниб турганидек, Қашқа воҳасининг қадимий шаҳарлари Насаф ва Кешдан чиққан улуғ зотларнинг ҳаёти ва асарлари ҳақида қимматли маълумотлар жам бўлгани шубҳасиздир. ас-Самъоний ўзининг “ал-Ансоб” номли йирик асарини ёзишда ал-Варсинийнинг ушбу асаридан кенг кўламда фойдаланган ва ундан катта-катта парчалар келтирган. Абул Ҳарас ал-Варсинийнинг бошқа асарларидан филология масалаларига бағишланган “Китоб аннассоб”[4] (“Нисбаларнинг ўрганувчи олимлар ҳақида китоб”), шунингдек, “Китоб ал ажойиб ва ахбор ал-Ҳасан вал-Ҳусайни” (“Ҳасан ва Ҳусайн ҳақидаги хабарлар ва ажойиботлар китоби”) кабиларни кўрсатиш мумкин.

Абдулҳамид ал-Кашшийнинг тўлиқ исми Абу Муҳаммад Абдулҳамид ибн Ҳумайд ал-Кашший бўлиб, у Қуръони Каримнинг йирик муфассири, таниқли ҳадисшунос, филолог, ханафиййа мазҳаби бўйича беназир фақиҳ сифатида шуҳрат қозонган. Унинг таваллуд санаси ҳозирча номаълум бўлиб, вафоти ҳижрий 249 (милодий 863) йилга тўғри келади. У фиқҳшунослик соҳасида ўз мактабини яратган олим сифатида танилиши билан бирга ҳадис илмида олтин давр ҳисобланган X асрда самарали фаолият кўрсатган улуғ муҳаддислардан бири саналади. Маълумки, ҳадис илмининг султони, буюк ватандошимиз имом ал-Бухорий IX асрда фаолият кўрсатиб, оламшумул аҳамиятга молик асарларини яратган[6]. Юртимизнинг қатор шаҳарлари каби Насафда йирик ҳадисшунослик маркази бўлиб, шаҳарда кўплаб муҳаддислар ижод қилганлар. Турли манбаларда келтирилишича, имом ал-Бухорий бир неча

муддат Насаф ва Кешда яшаб, бу шаҳарлардаги муҳаддислар билан яқин мулоқотда бўлган. Жумладан, Шарафуддин Али Яздий имом ал-Бухорийнинг Кешда бўлганлиги ҳақида аниқ маълумотлар келтиради. Эҳтимолдан ҳоли эмаски, деярли бир вақтда фаолият кўрсатган имом ал-Бухорий ва Абдулҳамид ал-Кашший ўртасида Шаҳрисабзда қизғин илмий мулоқотлар бўлиб ўтган. Машҳур тарихчи ас-Самъонийнинг ёзишича, Имом ал-Бухорий бир қанча муддат Насаф шаҳридаги Баён маҳалласида яшаб, шу жойдаги жомеъ масжидга қатнаб, беш вақт намозларини бажо келтирган ва ўз илмий фаолиятларини давом эттирган. Айнан шу Насафда яшаган пайтида буюк муҳаддиснинг илмий ишларига ёрдам берган Офурон қишлоғилик ёш ҳадисшунос Жибрийл ибн Авн алОфуроний бўлганлиги ҳам эътиборга моликдир. Нима бўлганда ҳам Имом ал-Бухорийдек буюк муҳаддиснинг Насаф ва Кешга қадам ранжида қилганлари ўша даврда бу шаҳарларда ҳадис илми нақадар юксак поғоналарга кўтарилганлигига далолатдир.

Ўз даврининг йирик олими даражасига етишган Абдулҳамид ал-Кашшийнинг шогирдлари ҳам кўп бўлиб, исломий илмларнинг турли масалаларига оид еттита асар ёзганлиги ҳақида манбаларда зикр қилинади. Мана шу асарлардан энг муҳими пайғамбар алайҳиссаломнинг ҳадисларига бағишланган “Муснад ал-имом” номли асарини кўрсатиш мумкин.

Абул Ҳасан ал-Паздавийнинг тўлиқ исми Абул Ҳасан Али ибн Мухаммад ибн алҲусайн ибн Абдулкарим ибн Мусо ибн Исо ибн Мужоҳид ал-Паздавий бўлиб, у ҳижрий 400 (милодий 1010) йилда Қашқадарё вилоятининг Касби тумани ҳудудидаги Пазда (Кўҳна Фазли) қўрғонида таваллуд топган. Ўз даврида Мовароуннаҳрнинг кўп шаҳарлари каби Насаф ва Паздани ҳам[7] зиёрат қилган. Машҳур араб сайёҳи Ёқут ал-Ҳамавий (1178-1229) ўзининг “Муъжам ал-булдон” (“Мамлакатлар қомуси”) номли йирик асарида “Пазда Насафдан олти фарсах узоқликдаги мустаҳкам бир қалъа (қўрғон) бўлиб, ундан етишиб чиққан алломалардан бири Абул Ҳасан Али ибн Муҳаммад ал-Паздавийдир”, деб ёзган. Афсуски, унинг ёшлик йиллари ҳақида манбаларда аниқ маълумотлар келтирилмаган. У фиқҳ соҳасидаги дастлабки билимни ўз отасидан олган, сўнгра ўша даврда илм-фан ва маданият тараққий қилган йирик шаҳарлардан бири Насафда ўз билимини оширган. Ҳар ҳолда у ёшлигидан юқори илмий-маънавий муҳитда улғайиб, ўз замонасининг машҳур олимларидан бири сифатида танилган, айниқса, “фиқҳ-ислом ҳуқуқшунослигининг барча масалалари бўйича ўз даврининг имоми” деган юксак нисбага муяссар бўлган. Таниқли араб тарихчиси Шамсуддин аз-Заҳабий (1274 1347) ўзининг “Сийар аълом ан-нубало” (“Олижаноб алломалар сийратлари”) номли қимматли асарида “Абул Ҳасан ал-Паздавий Имом Аъзам Абу Ҳанифа мазҳабида ўз тариқатига эга бўлган аллома”, деб ёзган бўлса, тарихчи Абу Саъад ас-Самъоний эса “Абул Хасан ал-Паздавий ҳанафийа мазҳабининг Мовароуннахрдаги шайхи бўлган”, деб таъкидлаган. Ҳақиқатдан ҳам аллома юртимизда амал қилинган ҳанафийа мазҳабини мукаммал ва беғубор ҳолда муҳофаза этиш борасидаги беқиёс хизматлари туфайли[6] барчанинг алоҳида ҳурматини қозониб, ҳатто “Фахр ул-ислом”(“Исломнинг фахри”) деган ўта шарафли лақабга ҳам сазовор бўлган. У узоқ йиллар Самарқанд мадра- саларида мударрислик қилган. Сўнгра Кеш (Шаҳрисабзда яшаган ва 1089 йилда вафот этган. Баъзи манбаларда ёзилишича, вафотидан кейин жасади Самарқандга келтирилиб, дафн этилган.

Абул Ҳасан ал-Паздавий қаламига мансуб асарлар исломий илмларнинг турли соҳаларига бағишланган бўлсада, унинг меросида фиқҳий асарлари алоҳида ўрин эгаллайди.Жумладан, ҳанафийа мазҳабининг турли масалаларига оид ўн бир жилдлик “Ал-Мабсут”, шу мазҳаб асосчиси имом Абу Ҳанифанинг “Ал-Фиқҳ ал-акбар” номли асарига ёзган шарҳи Куръони Карим тафсирига бағишланган “Кашф ал-астор” номли 120 қисмлик асари, бу тафсирнинг ҳар бир қисми улкан китобдан иборат бўлган, “Шарҳ алжомиъ ал-кабир ли-Шайбоний”, “Шарқ ал жоми ас-сағир ли-Шайбоний”, буюк муҳаддис имом ал-Бухорийнинг “Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ” асарига ёзган шарҳи, фиқҳ илмига оид “Фанаъ ал-фуқаҳо”, “Сийрат ал-мазҳаб фи сифат ал-адаб”, “Рисола фи қироат алмусаллий”, “Китоб ал-муяссар фи-ал-калом”,

“Заллат ал-қорий”, “Усул ал-Паздавий”, “Ал-Амолий” кабиларни кўрсатиш мумкин. Шу билан бирга Фаҳр ал-Ислом алПаздавийнинг илмий маънавий меросида “Усул ал- Паздавий” асари алоҳида ўрин эгаллаб, у тўлиғича “Канз ал-вусул ила маърифат ал- усул” номи билан аталади. Асарда фиқфий масалалар батафсил ҳолатда шарҳланганлиги боис ўз даврида бу асар жуда кўпчилик фақиҳлар томонидан бир дастурий қўлланма сифатида юксак баҳоланган[3]. АлПаздавийдан кейин фаолият кўрсатган кўп олимлар унга таяниб асарлар ҳам яратганлар. Мисол тариқасида ал-Паздавийдан саккиз йил кейин вафот қилган машҳур олим Шамс улаимма ас-Сарахсийнинг “Усул ал-фику” асарини кўрсатиш мумкин. Фиқҳ илмида мислсиз аҳамиятга молик бўлган бу асарга бағишланиб кўплаб шарҳлар ҳам битилган. Улардан Солим ибн Аҳмад ас-Санадий, Ҳусайн ибн Али ас-Самъоний, Муҳаммад ибн Маҳмуд алБобиртий, Садр аш-шарийъа ал- Маҳбубий, Бадриддин Муҳаммад ибн Шамсиддин, Амир

Котиб ибн Амир Умар ал-Форобий, ал-Жавонфурий, Алоуддин Абдулазиз ибн Аҳмад алБухорий каби олимлар ёзган шарҳлар машҳурдир. Ушбу шарҳлардан, шубҳасиз, Алоуддин ал-Бухорийнинг “Кашф ул-асрор” номли шарҳи энг қимматлиси ҳисобланади. Шу боис ҳам мазкур шарҳ кейинги йилларда Байрутда тўрт йирик жилдда икки марта (1994, 1997 йиллар) нашр этилди. Муҳим манба сифатида ал-Паздавий асарининг қўлёзмалари ҳам жаҳоннинг турли мамлакатларида сақланади. Олмон шарқшуноси Карл Броккелман “Канз ул-вусул”ининг қўлёзма нусхалари Берлин, Лондон, Париж, Деҳли, Санкт-Петербург, Пешовар, Қоҳира, Тунис, Истанбул каби шаҳарларда сақланиши ҳақида маълумотлар келтиради.

Хуллас, ўрта аср Шарқ оламининг таниқли олимларининг Насаф шаҳрига келишиб, бу ерда маълум вақт ичида истиқомат қилишиб, ижод қилишлари ҳам бу шаҳарнинг юксак салоҳиятга эга эканлигини кўрсатади. Нахшаб- Қарши шаҳрида илм фан ва маданият анча ривож топиб,Марказий Осиёдагина эмас, балки Шарқ оламида ҳам ўз салоҳиятига эга эканлиги билан алоҳида ажралиб турган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Уватов У. Насаф воҳасининг алломалари. Мулоқот//. №5-6. 2006.
2. Ўзбекистон буюк алломалар юрти. Т.: “Маънавият”, 2010. Б. 123,273.
3. Буюк юрт алломалари. Т.: “Маънавият”, 2015.
4. Саъмоний. Китоб ал-Ансоб. Т.
5. Исломов Н. Бўриев О. Қарши-Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри. Қарши. “Насаф”., 2006.
6. Оқилов С. Абу-л-Муин ан-Насафий ва унинг мотуридия таълимоти ривожига қўшган ҳиссаси (“Табсирату-л-адилла” асари асосида): Тар. фан. ном.. дисс. Т.: ТИУ, 2005.
7. Махсудов Давронбек. Қадим Насаф ва унинг буюк алломалари. Соҳибқирон юлдузи. 2017 йил.

SOHIBQIRON TEMURNING UCH ABUBAKR ISMLI ZURRIYODI TARIXI

Jo‘raboev Nosir,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Abstract: This article talks about the history of Sahibqiron Temur's descendants named Uch Abubakr. Relying on historical data, the author studied and analyzed specific aspects of the history of Sahibqiron Temur's descendants named Uch Abubakr on the basis of available scientific literature.

Key words: Sahibqiron, Uch Abubakr, Timur dynasty.

Tarixda Sohibqiron Temur sulolasiga mansub uch Abubakr Mirzo yashab o‘tgan. Ne baxtki, bu uchala shahzodaning taqdiri bir-biriga o‘xshab ketadi. Ularning birinchisi, Mironshoh Mirzo Ko‘ragonning to‘ng‘ich o‘g‘li sarkarda **Abubakr Mirzo** (1382-1417)dir. Shahzoda haqida Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da alohida to‘xtalgan: *“Abubakr nabira bo‘lur. Bahodirlig‘i va qilichi zarbi Chig‘atoy ulusida mashhurdir. Chun tab’ida nazm choshnisi bor ermish”.* Mironshoh Ko‘ragonning mo‘g‘il malikasi O‘rinsultonxonika bintu Suyurg‘atmishxondan tug‘ilgan farzandi, bor-yo‘g‘i 36 yil umr ko‘rgan Abubakr tug‘ishgan ukasi Umar Mirzo bilan doimiy ixtilofda bo‘lgan. Abubakr *“1399 yilda Sohibqiron tomonidan otasi Mironshoh Mirzo tasarrufidagi viloyatlarga hokim etib tayinlangan. Biroq Mirzo otasi Mironshohga bo‘lgan hurmati yuzasidan bobosining taklifini qabul qilmagan. Sohibqiron Abubakr Mirzoni ko‘ngilchanlikda ayblab, hokimiyatni Mironshohning ikkinchi o‘g‘li Umar Mirzoga bergan. (Biroq, Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”sida Sohibqiron Ozarbayjon mulkini Mironshohning o‘g‘li amirzoda Abubakrga topshirgani va otasini ham unga buysindirganini yozgan: “(Shunday qilib) saltanat amirzoda Abubakr qo‘lida qaror topdi, podshohlik nomi ham maxfiy tarzda otasi qo‘lida bo‘ldi. Aslida, hokimiyat to‘lig‘icha Abubakr Mirzoning tasarrufida edi. Mironshoh Ko‘ragon shu tarzda bir necha yil kun kechirdi va 1406 (Hijriy 809) yili Qora Yusuf turkman tomonidan o‘ldirildi. Mironshoh Mirzo to‘qqiz yil Xurosonda va o‘n bir yil Ozarbayjonda hukmronlik qildi.) 1405 yilning aprelida nisbatan pinhoniy g‘animlik ruhida bo‘lgan Umar Mirzo tomonidan Sultoniyada bandi qilinadi, unga tegishli haram va mol-mulk musodara etiladi. Shu yilning 25 iyulida Abubakr Mirzo uni qatl qilish uchun kelgan Odil xazinachi, Iso qo‘rchi va Shayxhojilarni o‘ldirib, askarlari bilan Sultoniyaga boradi, u yerdagi xazinani qo‘lga kiritib, Ray orqali Xurosonga qarab yo‘lga chiqadi. Sultoniyani egallagach, ukasiga tegishli beklarning aksariyati Abubakr Mirzo xizmatiga kiradi. Abubakr otasi Mironshohni tantanali ravishda taxtga o‘tqazadi. Lekin ukasi Umar Mirzoning dushmanligi haddan oshavergach, arkoni davlat Abubakr Mirzoning o‘zini taxtga o‘tkazishni lozim topadilar. Abubakr Mirzo taxtga chiqqach, To‘kal O‘rusbug‘aning qizini nikohiga oladi. Ushbu yilning 22 dekabrida Abubakr Mirzo Tabrizni qo‘l ostiga kiritadi. 1406 yil 14 oktyabr kuni Ars daryosi bo‘yida Qaro Yusuf turkman bilan kechgan to‘qnashuvda yengiladi. Ayni yilning qishini Ray shahrida o‘tkazgan va Shahriyor qal’asida isyon ko‘targan Bayon qavchin va uning bir qancha amirlarini qatl etadi. 1408 yilning 21 aprelida Ozarbayjonning Sardrud mavzesida Qaro Yusuf turkmanning yigirma ming kishilik lashkariga qarshi kechgan jangda padari buzrukvori Mironshoh Mirzo bilan mag‘lubiyatga uchraydi. Shundan keyin Kermon hokimi Sulton Uvays ibn Idiku Barlos huzuriga, u yerdan Seyiston hokimi Shoh Qutbuddin qoshiga keladi. Abubakr Mirzo 1417 yilda vafot etgan”.* Ammo, ayrim tarixiy manbalarda shahzodaning 1409 yilda noma’lum sabablarga ko‘ra, umri yakuniga yetganligi yozilgan.

Bobosi Amir Temur tarbiyasida yirik sarkarda bo‘lib shakllangan Abubakr Mirzo atrofida shoirlar bo‘lib, uning huzurida she’riyat majlislari tashkil etilgan. Ammo uning saroy shoirlari haqida ma’lumotga ega emasmiz. Shunisi aniqki, she’riyatga mehr qo‘ygan boshqa temuriylar kabi Abubakr atrofidagi olimlar, shoirlar va fozillar davrasida o‘z she’rlarini o‘qigan: ***Er kerak o‘rtansa yonsa yolina, Yora yeb yotsa otining yolina.***

It o‘lumi birla o‘lsa yaxshiroq,

Er otonib dushmanig‘a yolina.

Holbuki, ushbu tuyuq Alisher Navoiy: Qomusiy lug‘atining birinchi jildida Sulton Abusaidning o‘g‘li Abubakr Mirzoga nisbat berilgan.

Ikkinchi Abubakr Mirzo esa Muhammad Jo‘ki Mirzo ibn Shohrux Mirzoning farzandidir. Faxriy Hiraviy Jo‘ki Mirzoning o‘g‘li **Abubakr Mirzo** (1427-1449) she’r yozganligi to‘g‘risida shunday yozgan*: “Abubakr Mirzo binni Jo‘ki Mirzo Shohrux Mirzoning nabirasidir. Husni jamol, faslu kamolda tengi yo‘q edi. Va Amir Davlatshoh Samarqandiy o‘zining “Tazkirat ushshuaro”sida yozgan: davlatxohlar tarafdorlari ra’iyati va zarradek ko‘p sipohi shahriyorlik osmonining quyoshi bo‘lganlarida Ulug‘bek Mirzo saltanat ishlaridan andisha qildi va qattiq va keskin ahd va qasamga ko‘ra aldab uni qo‘lga oldi. Va keyin uni uqbo saroyiga jo‘natish (qatl etish) uchun Samarqand hisoridagi Ko‘ksaroyga yubordi. Va u (Abu Bakr Mirzo) ushbu ruboiyni aytib, Ulug‘bek Mirzoga*

jo‘natdi. Ruboiy: ***Avvalki, maro badomi xesh ovardi, Sad guna vafo va noz pesh ovardi. Chun donist ki dil giriftori tu shod, Begonagii tamom pesh ovardi.***

(Mazmuni: Oldin meni o‘z domingga ilintirib, Yuz xil vafo va nozni ko‘rsatding. Dil sening giriftoring ekanligini bilgandan keyin, Barcha begonaliklarni ilgari surding.)

Shundan keyin uning zulmkorligi tamom bo‘ldi. Ulug‘bek pushaymon bo‘ldi va hamisha hasrat barmog‘ini nadomat tishlari bilan tishlab, mana bu baytni o‘qir edi. Bayt: ***Vaqti daryob bahri hol ki sudi nakunad, Nushdori ki pas az marg ba Suhrob dihand.***

(Mazmuni: Suhrob o‘lganidan keyin zaharga qarshi dori berganlaridek, Qutqarish vaqtida hech narsa foyda qilmaydi.)

Yanada tushunarliroq qilib aytganda, “*Har jihatdan mukammal bo‘lgan Abubakr Xuttalon, Arxang, Solisaroyni boshqargan. Balxni egallab, harbiy qudratini yanada mustahkamlaydi. Ulug‘bek Mirzo kuyov qilish niyatida huzuriga chorlaydi. G‘alamislar aralashib, fitna chiqaradilar va Ko‘ksaroyda qatl etishadi.”*

Uchinchi Abubakr Mirzo (1455-1479) esa Abusaid Ko‘ragon va Badaxshon malikasining farzandi. U boshqa otdoshlari kabi shijoatli, jasur, himmatli bo‘lgan. Faxriy Hiraviyning yozishicha, *“...Onasi Badaxshon shohlarining oilasidan edi. Uning bahodirligi va shamshirining zarbi Chig‘atoy jangchilarining orasida ma’lumdir. Dilovarlik bilan birga husnu jamolda naziri yo‘q edi.* ***Va tab’i turkiy va forsiy nazmda bag‘oyat yaxshi edi.*** *Aytishlaricha, o‘z og‘ainilaridan ranjib, Movarounnahrdan Xurosonga kelgan. Va mag‘fur Sulton Husayn Mirzo uni farzandlaridan ortiqroq ko‘rib, saltanat bo‘stonidan bir gulga unashtirib, kuyovlikka muqarrar qildi. Lekin u bir kuni kechasi ijozatsiz Movarounnahrga qaytdi. Ammo tole’sizligidan u yerda otasining e’tiborli amirlaridan biri bo‘lgan Said Mazid Arg‘unni qatlga yetkazdi. Va shunday qilib, yana Xurosonga keldi va Sulton G‘oziyning mulozamatiga musharraf bo‘ldi. Va ul hazrat uning gunohidan o‘tib, e’tibor bilan munosabatda bo‘ldi va Termiz mulkini unga inoyat qildi. Ozgina fursatdan keyin asli turkman bo‘lgan ikkita fitnaangiz amir Samarqanddan qochib (kelib), unga qo‘shildilar. Va uni mag‘fur hazrat xoqon (Husayn Boyqaro)ga muxolif qildilar va oxir ul-amr, o‘sha fitnada onhazrat qo‘lida qatl bo‘ldi”.* Xondamir ham Abubakr Mirzo voqeasini “Habib us-siyar”da batafsil yoritgan: “*U Sulton Abusaid Mirzo o‘g‘illari ichida eng shijoatlisi edi va otasi hayot paytida Badaxshon mamlakatida farmon beruvchilik ishida mansub turdi. Ul hazrat shahid bo‘lgach, dastlab Sulton Husayn Mirzoga nisbatan ixlosmandlik yo‘lini tutib yurdi, keyinchalik esa qarshilik bayrog‘ini hilpiratib, bir necha vaqt hujum va qochish ishlarini amalga oshirib turdi. 884 yilning Rajab oyi oxirida (Milodiy 1479 yil 17 oktyabr) Astrabod hududida qo‘lga tushib, siyosat qo‘li uning hayoti ko‘ch-ko‘ronini yig‘ishtirdi.”* Darhaqiqat, otasi vafotidan so‘ng Sulton Husayn Boyqaro iltifotiga intilgan. Alisher Navoiy uni Hirotga olib keladi. Xondamir “Habib us-siyar”da yozishicha, *“Sulton Abusaid Mirzo ahvoli bayoni asnosida ma’lum bo‘lganidek, dovyurak va baland himmatli shahzoda Abubakr Mirzo ulug‘vor otasi davlati ayyomida Badaxshon mamlakatida hukumat yurgizardi. Qorabog‘ voqeasidan keyin Amir Jaloliddin Mazid Arg‘un Badaxshonga ketib, mazkur shahzodaga bo‘ysunish zanjirini yelkasiga tashladi va shuning vositasida bu shaharda amirlar va lashkar ahlidan anchasini yig‘ib, natijada Abubakr Mirzo ishlari o‘nglanib ketdi. Chakmon mavzeida dushmanni yenguvchi podshoh (Sulton Husayn Boyqaro) Alloh taolo inoyati bilan Sulton Mahmud Mirzo ustidan g‘alaba qozongach va g‘alaba oyatli bayroq oychasi nurlari ul hudud mamlakatlari yon-atrofiga sochilgach, Abubakr Mirzo mansur xoqon (Sulton Husayn Boyqaro) bilan ixlos va muhabbat rishtasini bog‘lashni ko‘ngliga tugib, kelishuv va birdamlik borasida gapirarkan, podshohlik xonadonidan bir karimani o‘z nikohiga kiritish fikriga tushdi va shu qaror bilan Badaxshondan Jayhun daryosi bo‘yiga kelib, a’lo taxt poyiga elchi yubordi va nurli yuragida yashiringan niyatidan bir bo‘lagini olampanoh dargoh egasiga ayttirdi.*

Mansur xoqonning aql nurlari bu ma’no sari tushgach, g‘oyatda xursand va shod bo‘ldi. Maslahat va ruxsatdan so‘ng hazrat sultonning eng yaqin kishisi Amir Nizomiddin Alisher (Navoiy) shahzoda huzuriga borishi va uni xoqonlikning cheksiz inoyatidan umidvor qilib, qanday bo‘lmasin

shahzodaning sidrat-il-muntaho martabali dargoh (Hirot saroyi)ga kelishiga erishishi lozimligi borasidagi qarorga kelindi.

Amir Alisher (Navoiy) farmonga binoan oliy makonli shahzoda dargohiga borib, ul janobning tasavvur qilingan darajadagi farosat yetukligi va aql barkamolligi tufayli elchilik rasmini ado etib, ul olam sultonlari boshlig'ining yaxshi xulqi va maqtovli atvori borasida to'laqonli tarzda so'zlab bergach, shahzoda Amir Jaloliddin Mazid Arg'un bilan birgalikda qutlug' muloqotga oshiqdi va Jayhun daryosidan kechib o'tib, Qozi qishlog'ida uchrashuv sharafini topdi.

Mansur xoqon (Sulton Husayn Boyqaro) Abubakr Mirzoni mo'l-ko'l tortiq va in'omlar, mehribonlik va mushfiqlik bilan siylab, bir necha kun davomida to'y tantanasini o'tkazdi va aysh ziyofatlarini yasab, iffatu hayo va hashamat pardasi xonanishini Sultonbegimni shahzodaga unashtirib, sharif ko'nglini quvonchga to'ldirib shodu xurram qildi." Yuqorida aytib o'tilganidek, Sulton Husaynga qarshi chiqqan shahzoda keyinchalik qatl etiladi. Biroq biz uchun eng e'tiborli dalil – bu shahzoda Abubakrning shoirlar sultoni Alisher Navoiy nazariga tushganligidir. Demak, Amudaryo (Jayhun) bo'yiga shahzodani kutib olishga chiqqan, Sohibqiron Temur avlodiga nisbatan cheksiz hurmatda bo'lgan Alisher Navoiy to hukmdor huzuriga boshlab kelguncha, bir necha kun mobaynida Abubakr bilan suhbatlashish va unga o'z bahosini berish imkoniga ega bo'lgan. Yana shunisi qiziqki, Navoiy hurmat qilgan La'liy taxallusi bilan she'rlar yozgan Badaxshon shohi shahzoda Abubakrning ona tomondan bobosi bo'lgan. Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonida shahzoda Abubakrga bag'ishlangan qit'a mavjud:

Shohi sipehrqadr Abubakr ul shahe,

Kim ko'k ravoqi dargahi qadrig'a toq erur. Bu charxi lojuvard uzra xurshid, go'yiyo Ko'kbo'z takovarig'a muzahhab janoq erur. Bir pora lojuvard sari go'yi angladi, Kim bu zaifi xastag'a ko'p ishtiyoq erur. Hukm etti bir qulig'aki, taslim aylasun, Go'yo vusuli ul kishi ollinda shoq erur.

Yerdin desa qazib chiqaray, yer erur qatiq, Ko'k konidin desaki, olay, ko'k yiroq erur.

Taqdirning o'xshashligini qarangki, uchala shahzoda ham yoshligida shahid bo'lgan. Uch Abobakr ham tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, nihoyatda bahodir, jasur va mard bo'lishgan. Jang maydonida qilichbozlikda ularning oldiga tushadigan jangchi topilmagan. Shuningdek, uchala dono Abobakr ham she'riyatga oshno bo'lishgan. Adabiy yig'ilishlarda she'r aytib turishgan. Ammo, ularning birlashtirgan eng muhim jihat shuki, qirq yoshga ham kirmay xazon bo'lgan uchala temuriyzoda ham toju-taxt talashib halok bo'lganligidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. T. G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012.-B.412.
2. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni ("Tazkirat ush-shuaro"dan). T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1981.-B.129-130.
3. Hamidulla Dadaboev. Amir Temur davrdoshlari. T.: Navoiy universiteti, 2018.-B.11.
4. Ko'rsatilgan asar.-B.412.
5. Alisher Navoiy: Qomusiy lug'at. Birinchi jild. T.: Sharq NMAK BT, 2016.-B.44.
6. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. T.: Mumtoz so'z, 2014.-B.54.
7. Sattoriy H. Oltin silsila. T.: Sharq NMAK BT, 2006.-B.96.
8. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. T.: Mumtoz so'z, 2014.-B.45.
9. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. T.: O'zbekiston, 2013.-B.648.
10. Ko'rsatilgan asar.-B.745-747.
11. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. Xazoyin ul-maoniy. TAT.O'n jildlik. Birinchi jild. T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012.-B.718.

АШТАРХОНИЙЛАР СУЛОЛСИНИНГ ҚОЗОҚ ХОНЛИГИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАРИГА НАЗАР

Маматқобулов Тўлқин Эшқулович
Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси
Тарих институти таянч докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада Аштархонийлар сулолсининг Қозоқ хонлиги билан муносабатлари ҳақида сўз боради. Муаллиф тарихий маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Аштархонийлар сулолсининг Қозоқ хонлиги билан муносабатлари ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Аштархонийлар, қозоқ хонлиги, ўзаро алоқалар, қўшничилик.

Abstract: This article talks about the relations of the Ashtarkhanid dynasty with the Kazakh Khanate. Relying on historical data, the author studied and analyzed the specific aspects of the relations of the Ashtarkhanid dynasty with the Kazakh khanate on the basis of available scientific literature.

Key words: Ashtarkhanids, Kazakh khanate, mutual relations, neighborhood.

Ўзбекистон Республикаси жаҳон ҳамжамиятида ўзининг муносиб ўрнига эга бўлаётган, жаҳоннинг йирик давлатлари билан кенг кўламли ҳамкорлик олиб бораётган бир даврда аждодларимиз қўшни халқлар ва давлатлар билан олиб бораётган ўзаро сиёсий, иқтисодий, ижтимоий алоқалар тарихини ўрганиш ва эришилган бой тажрибалардан тегишли хулоса чиқариш бугун учун долзарб натижадир.

Қардош ўзбек ва қозоқ халқлари кўп асрлик дўстлик ришталари билан чамбарчас боғлангандир. Бу икки халқни умумий тарих, маданий ва маънавий қадриятлар, анъана ва урф-одатлар бирлаштириб туради. Қозоғистон Ўзбекистон учун энг яқин, ишончли ва давр синовидан ўтган ҳамкордир.

Ўзбек давлатчили тарихида 1601-йилдан 1753-йилгача ҳукмронлик қилган аштархонийлар сулоласи ҳам ички, ҳам ташқи сиёсий жараёнларда фаол сулолалардан бири бўлган. Улар ташқи сиёсат борасида Сафавийлар, Бобурийлар, Усмонли турк империяси, Қозоқ хонликлари билан фаол алоқалар олиб борганлар. Юқоридаги жараённи очиб беришда бирламчи манбалар муҳим аҳамият кабс этади.

Қуйдаги манбаларда икки хонлик ўртасида содир бўлган сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий муносабатлар кўрсатиб ўтилади. Мирзо Мухаммад Хайдар “Тарихи Рашидий”, Ҳофиз таниш Бухорийнинг “Абулланома”, Искандарбек Туркмоннинг “Тарихи оламаройи Аббоси” (“Оламни безовчи “Аббос” тарихи”), Маҳмуд ибн Валининг “Баҳр ал-асрор фи манакиб ал-аҳёр” (“Буюкларниг жасорати ҳақидаги сирлар денгизи”), Муҳаммадёр ибн Араб Катағоннинг “Мусаххир-ал-билод” (“Мамлакатлар фатҳчиси”), Абул-Аббос Муҳаммад толибниг “Матлаб ат-толибин” (Изловчилар интилишлари), Муҳаммад Юсуф Муншийнинг “Тарихи Муқимхоний”, Муҳаммадамин ибн Муҳаммад Замоний Бухорий Суфиёнийнинг “Муҳит ат-таворих” (“Салномалар уммони”), Мир Муҳаммад Амин Бухорий “Убайдулланома”, АбдарРаҳмон Толиънинг “Тарихи Абулфайзхон” (“Абулфайзхон тарихи”), Хожамқулибек Балхий “Тарихи Қипчоқхоний” (“Қипчоқхон тарихи”), Хожа Муҳаммад Бараъ (Самандар-Хожа), “Дастур ал-мулук” (“Ҳукмдорларга кўрсатма”), Муҳаммад Козимнинг “Таърихи оламаройи Нодирий” (“Нодирнинг дунёни обод қиссаси”).

Шунингдек, шарқшунос ва манбашунос олимларнинг илмий ишарида ҳам хонликлар ўртасидаги муносабаларга доир илмий ишлар мавжуд: Хусусан, Б, Ҳ. Зияйев, Азамат Зиё, Г. Агзамова, Г. Султонова, Н Аллаева, А. Замонов, Ж. М. Тулебайева, Т. Султанов, Н. Атигайев, Еркинай Маухара, Шейда Думан, Т. Нежефли, О. Буртон, А. Иванов, А Алексеев.

Бухоро хонлигига шимолий томондан чегарадош булган Козок хонлиги, Днепр дарёсидан то Волгагача чузилган жанубий рус ерлари ва Сирдарёнинг шимолий киргоғидан то Сибиргача булган худудни ўз ичига олган Дашти Кипчокнинг жанубишарқий кисмида жойлашган.

Козок хонлигига XV аср охирларида козок султонлари Жонибек ва Кирейлар томонидан асос солинган. Демак, қозоқ хонлиги 1456-йилда ташкил топган деб кўрсатилади. Лекин қозоқ тадқиқотчиси Н. Атигайев ўз тадқиқотларида рус манбалари асосида қозоқ хонлиги Керехон бошчилигида 1465-1466 йилларда ташкил топган деб ёзади. XV аср ўрталарида ташкил топган қозоқ хонлиги 1822-йилда тугатилади.

XVI аср давомида аштархонийлар ва қозоқ хонлиги ўртасида ўзаро муносабатлар сиёсий жараёнлар ва ҳукмдорларнинг ҳолатига қараб ўзгариб борган.

Қуйида ҳукмдорлар кесимида ўзаро сиёсий муносабатларга аниқлик киритилади. Демак, 1601 йилда Бухоро хонлигига Шайбонийлар сулоласи ўрнига Аштархонийлар (Тўқай-темурийлар) сулоласи келган. Хонликнинг биринчи хони Боқи Муҳаммад ҳисобланади. 1601 йили тахтга ўтирган Боқи Муҳаммад давлат чегараларини мустаҳкамлашга асосий эътиборини қаратади. Давлат чегаралари шимолдан қозоқ жузлари билан чегарадош бўлган ва Тошкент, Туркистон ва Сирдоё бўйлари Бухоро хонлиги ва Қозоқ хонликлари учун доимо баҳсли ҳудуд бўлиб келган. Боқи Муҳаммадхоннинг қисқа ҳукмронлиги даврида мамлакатни яхлит ҳолатда ушлаб туришга ҳаракат қилган. 1603 йил Қундуз шаҳрини босиб олган хон Тошкентга юриш қилади. Аммо шаҳарни қўлга кирита олмасдан Самарқандга чекинади. Самарқандга ҳужум қилаётган қозоқ хони Келдимуҳаммадхон Тошкент шаҳарни эгаллашга уринган, Қозоқ хони Келдимуҳаммадхон Самарқандни қамал қилади. Ҳал қилувчи жанг Самарқанд яқинидаги Айғиржар деган жойда бўлади. Мағлубиятга учраган қозоқ қўшини Тошкентга чекинади. Келди Муҳаммадхонни ҳам мамлакатдан ҳайдагунча вақт ўтиб 1605 йили у ўз ажали билан вафот этади. Олий тахтга валиаҳд Вали Муҳаммадхон (1605-1611) чиқади. Боқи Муҳаммадханинг вафоти ҳақидаги хабарни олган қозоқ хони Есимхон Аштархонийларга қарши юриш қилди, аммо бу юриш унинг учун муваффақиятсиз тугади. 1606-йилда қозоқлар Тауекелхоннинг яна бир укаси Султон Абилай бошчилигида яна Самарқандга бостириб киришади. Аштархонийлар Абилайни қайтариш учун катта куч сарфлашларига тўғри келди. 1607 йилда Вали Муҳаммадхоннинг Муҳаммад Боқибий қалмоқ мудофааси Тошкентни эгаллашга муваффақ боўлди. Бироқ унга узоқ вақт шаҳарни бошқаришга рухсат берилмади, уни Есимхон қўшинлари шаҳардан ҳайдаб чиқардилар. Шундан сўнг аштархонийлар билан қозоқ ҳукмдорлари ўртасида келишув тузилиб, унга кўра Тошкентдаги ҳокимият қозоқ султонининг ўғли Турсун-Муҳаммад Шоҳ-Саид қўлига ўтади, 1609 йилда Абилай Султон Самарқандни эгаллашга яна бир уриниш қилди. Ялантуш-баҳодир ва Муҳаммад-Боқибий Қалмоқ қўшинлари унга қарши чиқдилар, у қозоқ қўшинларини Самарқанддан ҳайдаб чиқаришга муваффақ бўлди. Абилай Султон Сиғноқга кетишга мажбур бўлди. Шундай Вали Муаҳммадхон даврида мамлакат шимоли нисбатан тинч ушлаб турилишга ҳаракат қилинди. Аммо унинг даври Бухоро хонлигининг ҳарбий сиёсий, ижтимоий жиҳатдан пасайиш даври бўлди. Унинг жиянлари олиб борган курашлари ва маҳаллий бекликларнинг норозиликлари сиёсий обросига путур етказди. 1611 йил октябрда Имомқулихон билан Самарқанд атрофидаги навбатдаги тўқнашувда ҳалок бўлади. Бу жангда Аштархонийларнинг ўзаро курашида қозоқ хонлиги фаол иштирок этган, хусусан, 1611 йилда хонликдаги фитна натижасида Вали Муҳаммадхон тахтдан четлаштирилди ва тахтга Боқи Муҳаммадхоннинг ўғли Имомқулихон ўтирди. Бироқ Вали Муҳаммадхон Сафавийлардан мадад олиб, тахт учун курашни давом эттирди. Қозоқ бошлиқлари бу ҳолатлардан унумли фойдаланишга қарор қилдилар. 1611 йилда Вали Муҳаммадхонга қарши курашда Есимхон, султонлар Абилай, Кучик ва Есимхоннинг ўғли Жанибек Имомқулихон тарафини олдилар. Вали Муҳаммадхон тарафида қозоқ султони Абу Саид бўлиб, Искандарбек Муншийнинг ёзишича, у ҳам энг ҳал қилувчи вақтда Имомқулихон тарафига ўтган. Натижада Вали Муҳаммадхон мағлубиятга

учраган. Бунинг эвазига Имомқулихон Есимхоннинг Тошкент ва Туркистоннинг айрим шаҳарларига бўлган ҳуқуқини тан олган. Султон Жанибекнинг ўғли ўша даврдаги анъанага кўра, ёшлигиданоқ қозоқ зодагонларидан бўлган дўстлари билан бирга ўзининг ботирлар отряди билан қўшни давлатлар урушларида қатнашган. 1611 йилда ҳарбий хизматлари учун Бухоро хони томонидан унга Сагарж вилояти берилган ва у ўз хоҳишига кўра бу ҳудудни бошқарган. Бу воқеалар узоқ вақт давом этмаганлигини 1612 йилда Имомқулихон Тошкентни қайтадан эгаллаганлигидан маълум. Шундай қилиб мамлакат тахтига Имомқулихон (1611—1642) ўтиради. Имомқулихон даври нисбат осойишта ва равнақ топган давр сифатида тарихда қолди. Шундай бўлсада, унинг даврида қўшни давлатлар билан ҳарбий тўқнашувлар бўлиб турган хусусан, ҳукмронлигининг дастлабки йилларида шимолда қозоқлар билан кўп тўқнаш келган қозоқлар Тошкент ва Туркистонга тез-тез ҳужум қилиб турди. У Самарқанд ва унинг атрофидаги савдогарларнинг молларига ҳужум қилган қозоқларни жазолаш ва уларни Тошкентдан қувиб чиқариш учун чора кўради. 1613 йили Имомқулихон Туркистоннинг чегараларидан тортиб Ашпара ва Қоратовнинг чекка ҳудудларигача қувиб қозоқ, жунғор ва қалмоқларни тақиб этиб этиб уларга зарба беради . Тошкентни эгаллаб ўғли Искандар Султонни у жойга ҳоким этиб тайинлайди. 1621 йилда хон Турсун бошчилигидаги қозоқ аскарларига қарши аштархонийлар саркардаси Ялангтўш Баҳодирхон бошчилигидаги катта қўшин юборади. 1621-йилда қозоқлар Тошкент халқи билан биргаликда ҳаракат қилиб, қўзголон кўтарганларида Имомқулихон ҳам шаҳар аҳолисини, ҳам қозоқларни қаттиқ жазолади. Шундай қилиб, шимоли-шарқий вилоятлар масаласи Имомқулихонга узоқ вақт муаммо туғдирди.

1623 йилда Турсун Султон Моваруннаҳрга қарши юриш бошлайди ва Шоҳрухия асирга олинади. Самарқанд ва Менкол вилоятлари қозоқлар томонидан талон-тарож қилинди. Имомқулихон вазиятнинг мураккаблигини инобатга олиб, тинч сулҳ тузишга қарор қилади. Шу мақсадда Жўйбор хўжаларидан Ҳошимхўжа Жўйбўрини ТурсунСултонга юборади. Сулҳга кўра, хонлик чегараси Шоҳруҳиядан ўтади. Шундан кейин Бухоро Шоҳруҳия шимолидаги ҳудудга даъво қила олмайди. Кейинчалик 1626-1627 йиллардаги Эшимхон билан Турсун султонлари ўртасидаги жангдан сўнг Турсун Султон ўлдирилди ва Бухоро хонлиги чегаралари аввалги ҳудудгача кенгайди. 1628-йилда Имом Қулихоннинг буйруғи билан Ялангтўш қозоқ хони Абулай-Султонни Тошкент остонасида енгиб, уни Қашғаргача қувиб етиб боради. XVII асрнинг 30-йилларидан бошлаб қозоқ хонлигининг шарқий чегарасида вазият ўзгаради. Қозоқ хонлигини босиб олишни мақсад қилган кучли душман пайдо бўлади. Улар қалмоқлар (Ойратлар) эди. Қозоқ хонлари қалмоқларга қарши курашда Имомқулихондан ёрдам сўраган чунки, чунки бу йилларда уларнинг кўчманчи қароргоҳларини эгаллашга киришган қалмоқларга қарши курашда уларга қуролли ташқи иттифоқчи зарур эди. Есимхоннинг Аштархонийлар билан иттифоқ шартномасини тузишга қалмоқлар ҳужуми ва қозоқ султонларининг марказга бўйсунмаганлиги асосий сабабдир. Имомқулихон даврида Бухоро ташқи сиёсатида кенг кўламда ва мақсадга мувофиқ равишда сиёсий-ҳарбий ҳаракат қилинган.

Имомқулихондан кейин тахтга келган Надр (Назр) Муҳаммад (1642-1645) даврида акаси даваридагидек осойишта кечмади. Лекин бу даврда қозоқ хонликлари билан нисбатан турғунлик сиёсати амалга оширилди. Бу пайтда қозоқ хонлигига ҳам шимолдан жунғорлар ҳужуми бўлиб турган эди. Қозоқ хонлиги Есимхоннинг ўғли Жангирхон даврида қозоқ-ўзбек муносабатлари яхшиланди. Умуман олганда, янги қозоқ хони Аштархонийлар билан тинч-тотув, ҳатто иттифоқчилик муносабатларида бўлишга интилди, чунки унинг ташқи сиёсатининг асосий йўналиши ўша даврга келиб уни ўзига бўйсундирган Ботур-хунтайжи бошчилигидаги Жунғор хонлигининг тажовузига қарши кураш эди. Жунғор хони Ботур-хунтайжи 1643 йилда 50 минглик қўшин билан қозоқ хонлигига қарши катта юриш қилганида, айнан Аштархонийлар Жангирхонга катта ёрдам кўрсатган. Надр Муҳаммадхон қозоқ хонлигига жунғорларга қарши курашишда ёрдам берган. Хусусан, Ялангтўш Баҳодир

бошчилига Самарқанддан 20 минг қўшин ёрдамга боради. Жанг натижасида жунғор қўшини йирик мағлубиятга учрайди.

Кейинги ҳукмдор Абдулазиз ибн Надр Муҳаммад (1645-1681) бўлиб, унинг ташқи сиёсатдаги асосий мумаммоси Хива хонлиги бўлиб қолган. Хиванинг доимий ҳужумлари Абдулазизхонни анча толиқтирган.

Бу пайтда қозоқ хонлигида ҳам сиёсий жараёнлр кечаётган давр бўлган. Эсимхоннинг ўғли Жаҳонгирхон (1645-1652) тахтга келган давр эди. Қозоқ хонлигидаги ички заифлашувдан фойдаланган Ойротлар хонлик ҳудудига ҳужумлар уюштира бошлаган эди. Абдулазизхон 1645-1647 йилларда Балх ҳудуди учун Бобурий шаҳзодаларга қарши жанг қилади. Абд ал-Азизхон яқинда унинг қайнотасига айланган қозоқ хони Жангирдан ёрдам умид қилган эди. Унга ёрдам учун қозоқхонлигидан ҳам 2 лак (200,000) қўшин ёрдамга келган.

Маълумки, қозоқ хонларининг Бухоро аштархонийлари билан иттифоқи сулолавий никоҳлар билан ҳамбтаъминланган. Жангирхоннинг қизи Аштархоний Абдулазиз султонга турмушга берилганлиги бунга далолатдир.

Субҳонқулихон ибн Надр Муҳаммад (1681-1702) даврида қозоқ хонлиги билан яхши қўшничилик сиёсатини олиб боришга ҳаракат қилган. Сабаби унинг асосий муаммолари бу Балх ва Хива хонллигининг хужуми эди. Шу туфайли шимолдаги қўшнилари билан муаммоли вазиятга боришга хожат қолмаган. Айни бу даврда қозоқ хонлигида ҳам ҳукмдор алмашинуви содир бўлди. Жаҳонгирхон ўрнига тахтга Таваккалхон (Тавке) келади. Қозоқ хонлигининг “Олтин даври” Таввакалхон даврига тўғри келади. Унинг даврида Аштархонийлар билан алоқалар турғун ҳолатда бўлган. Таваккалхон аштархонийлар билан ҳарбий-сиёсий ҳамкорлик қилишдан ташқари иқтисодий ва савдо алоқалрини ҳам амалга оширган. Бу даврда қозоқлар билан Аштархонийлар хонлиги ўртасида Сирдарёга яқин шаҳарлар учун бир қанча кичик жанглар боўлганлигини, лекин икки давлат ўртасида катта уруш бўлмаганлигини таъкидлайдилар. 1687 йилда Таукехон Бухородан Субхонқулихондан 10 минг кишилик қоўшин қабул қилиб, у билан Галдан Бошоқтухоннинг жунгорларига қарши юриш қилган 1688 йилда Бухородан қозоқ хонлигига Хушикабий оталиқ элчи бўлиб борган. Натижада, икки ўртада дипломатис муносабатлар янада яхшиланади.

Муҳаммад Юсуф, Солиҳ Хўжа ҳукмдор бўлган пайтда Балхга яқинлашган Субхонқулихоннинг 200 минглик қўшини таркибида “қозоқлар, қорақалпоқлар ва (бошқа) ёт қабилалар”ҳам борлигини қайд этади. бухороликлардан.

Бухорода хонлик тахтига Убайдуллахон (1702-1711) келади. Унинг даврида ички зиддиятлар кучаяши натижасида ташқи алоқаларга катта эътибор берилмади. Унинг деярли бутун умри жанг жаддаллар билан кечди. Охирида ўз укаси Абулфайхзон томонидан фитна йўли билан қатл қилинди. Шундай бўлсада, Убайдуллахон даврида ёзилган “Убайдулланома” асарида давлатнинг қозоқ хонликлари билан бўлган айрим муносабатлари ёртиб берилади. 1706 йилда Қалмоқлар қозоқ хонликлари ҳудудига бостириб кера бошлайди. Бундай вазиятда Бухоро хони қўшинининг бир қисмини Тошкент томон сафарбар қилади. Ўзуйларини ташлаб кеган қозоқларга Тошкентда жой берилади. Убайдуллахон даврида давлат инқирозга юз тута бошлаган эди. Маҳаллий амирларнинг обрси давлат Девонига таъсир ўтказа бошлаган. Буни 1711 йилдаги суиқасдда ҳам кўринади. Хоннинг укасе Абулфайзхон тахт учун акасини ўлдиртириб, ўзи амирлар қўлида қўғирчоққа айланди. Абулфайзхон тарихи жуда муаммоларга тўла ва шунинг билан биргаликда жуда таҳликали давр бўлган. Айрим бекликлар мустақиллик учун ҳаракатни бошлаб юборган. Ҳатто 1722 йили кенагас Имроҳимбий Самарқандда куёви Ражаб Султонни хон деб эълон қиллдиради. 1723 йилда Ражабхон Бухорога юриш қилиб, мағлубиятга учради. Кейинги йили Ражабхон 30 минг кишилик қўшин тўплаб, яна Бухорога бостириб кирди. 1724 йилда Ражабхон қозоқ жузлари султонларига ёрдам сўраб мурожаат қилиб, уларга босиб олинган ҳудудларда бой ўлжа ваъда қилади. Уларнинг ёрдами билан Бухорони ўраб олди ва уни уч кунлик талон-тарож қилишга буйруқ берди. 1725 йил ёзида

Вобкент вилоятида Абулфайзхон ва Ражабхон қўшинлари ўртасида ҳал қилувчи жанг бўлиб, у Ражабхоннинг мағлубияти билан якунланади.

Бироқ қозоқ қабилалари Мовароуннаҳрда қолиб, етти йил давомида Самарқанд, Бухоро, Шаҳрисабз ва Қарши вилоятларини вайрон қилиб, Ҳисор ва Кўлобга етиб борди. Кўпчилик қозоқлар янги ерларга жойлашдилар.

Қозоқ хонлиги ҳам Таваккалхондан кейин анча заифлаша боради. Бу аср бошларида Қозоқ хонлиги ташқи сиёсий алоқаларининг ёмонлашуви сабабли ночор ҳолатга тушиб қолдилар. Қозоқ халқи учун энг катта хавф, бу – шарқ томондан кучли ва ёвуз душман, ҳарбий феудал Жунғор хонлиги эди. Қозоқ ва Жунғор хонликлари ўртасидаги кураш юз йилдан ортиқ давом этиб келган. Икки ўртадаги асосий муаммо, биринчидан, яйловлар учун кураш, чунки кўчманчи чорвачилик шароитида янги-янги яйловларга доимий равишда эҳтиёжнинг мавжудлиги кўчманчи чорвачилик билан шуғулланувчи халқларнинг бир-бирига душманлик кайфиятининг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Чорва сони кескин ошиб кетган йиллари яйловлар етишмай, қўшнилар бирбирларининг яйловларини зўравонлик билан тортиб олишга одатланишган. Иккинчидан – жунғор қўшинларининг яйловларни қўлга киритиш режаси фақат ғарб томонга ёʻналтирилган. Чунки, шарқ томондаги қўшин – Син империяси улардан анча қудратли эди.

Жунғор истилоси қозоқ халқи ҳаётида беқиёс зарба бўлди, у халқ хотирасида яқин вақтгача сақланиб қолган. Бу, шунингдек, алоҳида қозоқ қўшинлари ичида иқтисодий инқирознинг кучайишига ва ҳукмрон зодагонлар ўртасида сиёсий қарамақаршиликларнинг кучайишига ёрдам берди.

Шунингдек бу пайтга келиб, Пётр И Россия ташқи сиёсатининг янги контсептсияси ишлаб чиқаан эди. 1714–1731 йиллар - хонлик ҳокимияти билан Россия фуқаролигини ихтиёрий қабул қилиш бўйича музокаралар, қозоқ хомашё базаларини тортиб олиш режаларини мавжуд бўлган. Жунғор хонлиги доимий ҳужумлари билан қозоқларни заифлаштирди. Бу 1731 йилда улар томонидан Россия фуқаролигини “ихтиёрий” қабул қилиш жараёнларининг бошланишига олиб келди.

Бухоро хонилигининг Аштархониялар даври давомида жуда хилма хил жараёнлар амалга оширилди. Гоҳ ривожланди гоҳида эса аксинча таназзулга қараб кетди. Уларнинг ташқи сиёсати гарчи шайбонийлар давридагидек бўлмаган бўлсада, ўзига яраша пағонага эришди

Аштархонийлар ва Қозоқ хонлиги ўртасидаги дипламатик алоқалар муайян сиёсий мақсадларни кўзлаган бўлсада, икки ҳудуд ўртасидаги иқтисодий алоқалар давом этилган. Бу алоқалар ривожига уни ривожланишига ҳурмат қилган ёки издан чиқаришга олиб келган ҳолатлар ҳам юзага келган.

Хулоса қилиб айтганда, Аштархонийлар билан Қозоқ хонлиги ҳудуд лидерлиги учун доимо кураш олиб борган. Учинчи давлатнинг босқини уларни иттифоқдош бўлишга зарурат туғдирган. Буни қалмоқлар, жунғорлар, бобурийлар ёки сафавийлар мисолида кўриш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Audrey Burton. The Bukharans A. Dynastic, Diplomatic and Commercial History 1550-1702. First published 1997 by Curzon Press.
2. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Алексеев. А.К. полетическая история Тукай-Тимуридов. – С.- Петербурге. 2006.
4. Аллайева Н.Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. (XVI-XIX аср). – Т.: 2019.
5. Атыгаев Нурлан. Казахское ханство: очерки внешнеполитической истории XVXVII веков. Алматы 2023.
6. Аҳмедов. Б Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. -Тошкент: Ўқитувчи, 2001.

7. Nəcəfli Tofiq. Azərbaycan Səfəvi imperiyasının Türküstan xanlıqları ilə siyasi əlaqələri. Bakı. 2021.
8. Султанов Т.И. Правители первого казахского государства (1470-1718). Астана, 1993.
9. Султонова Г. Н. XVI аср иккинчи ярмида Бухоро хонлигининг Козок ва Ёркент хонликлари билан алокалари: Тарих фан. номзоди. дисс. — Т.: УзР ФА Тарих института, 2005.
10. Тулибаева Ж. М. История казахстана в аштарханидских источниках. 12.06.2013 г.
11. Замонов.А. Субҳонов.Ф. Аштархоний ҳукмдорлар. – Т.: 2021.
12. Şeyda Duman Buhara hanliği'nda İmamkuluhan dönemi (1611-1641): Doktora Tezi Danışman: 2023.
13. Yerkinay Maukhara. Siyasî ve kültürel açidan Kazak hanliği (1456-1731). KONYA2011.

СЕЛУНГУР ҒОР МАКОНИДАН ТОПИЛГАН ПАЛЕОАНТРОПОЛОГИК ТОПИЛМАЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИГА ДОИР

Омонов Анварбек Муродович
Миллий археология маркази, кичик илмий ходими.

Аннотация. Ушбу мақолада илк палеолит даврига оид - Селунгур ғор маконидан топилган палеоантропологик топилмаларнинг таҳлили янги маълумотлар асосида ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Илк палеолит, Убайдия, тўртламчи давр, ашел, тош индустрия, палеоантропология.

Abstract. In this state, based on new data, an analysis of paleoanthropological finds found at the early Paleolithic cave - Selungur is presented.

Index Terms: Early Paleolithic, Ubeidiya, pleistocene, acheul, stone industry, paleoanthropology.

Ҳозирга қадар Ўрта Осиё ҳудудидан 30 га яқин илк палеолит даври манзиллари очиб ўрганилган ва уларнинг илмий талқинига бағишланган юзлаб илмий адабиётлар нашр этилган. Улар орасида Селунгур ғор макони алоҳида ўрин эгаллайди. Селунгур ғори Ўзбекистон билан Қирғизистон чегарасида, Фарғона шахридан 100 км жануби-ғарбда, Сўх дарёси водийсида, Хайдаркон қишлоғининг ғарбий чеккасида (Ош вилояти) жойлашган [10, С. 28; 11, С. 38; 3, С. 18]. Ёдгорлик 1955 йилда А.П. Окладников томонидан очиб ўрганилган, 1964 йилда эса М.Р. Қосимов ғорда қисқа тадқиқотлар олиб борган [10, С. 28]. А.П. Окладников ва М.Р. Қосимовлар тадқиқотлари оралиғида ёдгорлик А. Пошка томонидан ҳам ўрганилган [11, С. 38; 3, С. 18]. Аммо Селунгурни тизимли ўрганиш ишлари 1980 йилда Ў.И. Исломов томонидан бошланган ва ушбу мутахассис раҳбарлигида 1980-1990 йилларда ёдгорликда комплекс тадқиқотлар олиб борилган. Мазкур даврда амалга оширилган тадқиқот натижалари қатор илмий мақолалар ва рисолаларда ўз аксини топган [3, С. 18; 4, С. 38-49; 5, С.115-126]. Ёдгорликни ўрганган тадқиқотчилар томонидан ғорда унча катта булмаган 9 та қазишмалар утқазилган, натижада ёдгорликдан 5 та маданий қатлам аниқланган ва бу ердаги 3-қатлам эса яна 3 та микроқатламчаларга ажратилган. Ушбу қатламларнинг қалинлиги 20-40 см дан 0,3-1 м оралиғида бўлиб, маданий ётқизиқларнинг чуқурлиги 8,5 м га етган. Қазишмалар натижасида Селунгур ғор маконидан 1000 дан зиёд тош буюмлар, шунингдек палеофлора, палеофауна ва палеоантропологик материаллар қўлга киритилган [8, С. 220]. Маданий жиҳатдан Селунгур ғори материаллари жанубий ашел маданиятига киритилган [8, С. 220; 9, С. 113-118]. Ҳозирда Селунгур Осиёча ашел маданиятига киритилган Ўрта Осиёдаги ягона ёдгорлик бўлиб қолмоқда. Аналогия сифатида Олд Осиёдаги Убайдия ёдгорлиги келтирилади.

Селунгурнинг маданий қатламларидан олинган намуналарнинг ион-уран услуби бўйича абсолют санаси 1,1-750 минг йилликларни берган [8, С. 220; 9, С. 113-118]. Шу жиҳатдан Селунгур Марказий Осиё ҳудудидаги энг қадимги ёдгорлик, деб талқин қилинган.

Селунгур ғор макони Ўрта Осиёда илк палеолит даври ёдгорликлари орасида ягона стариграфиялашган (маданий қатламга эга) ва энг қадимги манзилгоҳ бўлса-да, бироқ ҳанузга қадар Селунгурнинг маданий-даврий хусусиятлари борасида (ёдгорликнинг санаси, маданий хослиги ва хк.) бир хулосага келинмаган. Ёдгорликнинг айниқса санаси борасида тадқиқотчилар ўртасида ҳанузгача бахс-мунозаралар давом этмоқда, баъзи тадқиқотчилар ёдгорлик ўрта плейстоценнинг (тўртламчи давр) биринчи ярмига оидлигини, айрим тадқиқотчилар эса манзилгоҳ ўрта плейстоцен даврининг иккинчи ярмида қадимги одамлар томонидан ўзлаштирилганлигини илмий адабиётларда қайд этишган [1, С. 399-415; 12, С. 112-121; 13, С. 72-85]. Фикримизча, бунинг сабаби ёдгорликдан топилган ашёлар (тош буюмлар, қадимги одам суяк қолдиқлари ва хк.) етарли дарадажада ўрганилмаган, дунёнинг илғор илмий марказларида апробациядан ўтказилмасдан қолиб кетган, аниқ ва табиий фанларнинг замонавий усуллари ёрдамида саналаш учун ёдгорлик маданий қатламларидан таҳлиллар учун намуналар (органик ашёлар, тупроқ ва хк.) олинмаган ва яна бир қатор сабабларни келтиришимиз мумкин. Ёдгорликдан қадимги одам суяк қолдиқлари топилган, лекин ушбу ашёлар ҳам турли тадқиқотчилар томонидан турлича талқин қилинган. Масалан, тадқиқотчиларнинг айримлари ёдгорликдан топилган тишларни одамники эмас, балки айиқ ёки бошқа бирор хайвонга тегишлилигини таъкидлашган. Баъзи бир тадқиқотчилар эса, бунинг акси яъни тишлар қадимги одамга таълуқли бироқ таксономик ҳолатининг (гоминиднинг бирор тури) номаълумлигига урғу беришган. Биз ушбу мақолада сўнгги илмий маълумотлар асосида Селунгурдан топилган қадимги одам суяк қолдиқлари орасида асосан одонтологик материаллар (тишлар) таҳлили ва сўнгги хулосаларга тўхталиб ўтамиз. Юқорида қайд эганимиздек, мазкур манзилгоҳдан илк палеолит даврига мансуб палеоантропологик (қадимги одам суяк қолдиқлари) материаллар ҳам топилган бўлиб, бундай топилмалар Ўрта Осиёнинг бошқа бирорта ҳам ёдгорликларида учрамайди. Селунгур ғорининг 2- ва 3-маданий горизонтлардан, аниқроғи 8-қазишманинг 2қатламидан одам бош чаноғининг фрагменти ва тишлари, 3-қатламдан эса алоҳида тишлар ҳамда елка суяги топилган [4, С. 38-49; 6, С. 143-163; 8, С. 220]. Тишлар ва елка суяги турли тадқиқотчилар томонидан ўрганилган. Селунгур ғоридан топилган тишлар антропологларнинг фикрича, яхши сақланганлиги, аммо морфологик таҳлилни мураккаблаштирадиган кучли даражада емирилганлиги билан ажралиб туради. Улар 2 та, 3 та ва эҳтимол, 4 та турли индивидларга тегишли бўлган [4, С. 38-49; 2, С. 235-243].

Коронкалари кучли емирилган ва томирлари узун иккита йирик юқори қозиқ тишлар 3540 ёшлардаги эркак кишига, калта томирли кичик юқори қозиқ тиш эса, афтидан, 40 ёшлардаги аёл кишига, учта пастки премоляр тишлар тилга олинган индивидларнинг бирига ёки бошқа бир алоҳида индивидга тегишли бўлган. Учинчи индивиднинг мавжуд бўлганлигидан премолярларнинг қозиқ тишларга нисбатан камроқ емирилганлиги гувоҳлик берган [4, С. 38-49; 2, С. 235-243]. Антрополог А.А. Зубов ва Т.К. Ходжаевларнинг фикрига кўра, Селунгур одамининг тишларида чириш (кариес) касаллиги умуман сезилмайди, аммо патологиянинг бошқа шакли – қозиқсимон дефект, мезиал ёриқда ёки дистал юзасининг бўйин қисмида узунчоқ чуқурча кенг тарқалган бўлиб, ушбу касалликнинг табиати ҳануз охиригача аниқланмаган бўлсада, қозиқсимон дефектларнинг Селунгур тишларидаги серияси илк гоминидлар популяцияларида пародонтоз касаллигининг кенг тарқалганлини кўрсатади [4, С. 38-49]. Антропологлар кучли емирилган ва кам маълумот берадиган – қозиқ ва премоляр тишлар асосида Селунгур одамининг таксономик холатини аниқлашга ҳаракат қилганлар. Премоляр тишлар морфологияси таҳлиллари Селунгур одамини бошқа гоминидлар билан қиёслаганда антропологик топилмаларнинг анча аниқ ва ишончли таксономик манзарасини берди.

А.Зубов Селунгур одамининг ўзига хос ҳолатини қуйдагича изоҳлайди: у оралиқ ҳолат яъни, Селунгур одами архантропдан ҳозирги одамгача бўлган тарихий тараққиёт йулида турмай, чамаси архантропнинг (энг қадимги одам) ихтисослашган маҳаллий туридир. Селунгур топилмаси архантропларнинг тарқалиш кўлами нечоғли кенглигини ва унинг махаллий турлари нақадар кўплигини яна бир бор намойиш этади [4, С. 38-49]. Умуман олганда, Тишлар устида олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатдики, тишларнинг биронтасида тиш чириш (кариес) касаллиги бўлмаган. Ушбу холат касалликнинг фавқулодда ҳодисаси сифатида қаралди. Мазкур соҳа билан шуғулланувчи америкалик тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, бу ҳол моддий маданиятга эга бўлган тик юрувчиларнинг барча вакилларида учрайди деган қарашлар хам йуқ эмас. Тишлар тузилишининг таҳлили Селунгур топилмаларининг бошқа худудлардаги қазилма одамлар билан муносабатларининг аниқ ва ишончли бўлган манзарасини намойиш этади. Бу топилмаларни қадимий одам тури вакиллари билан қиёслаш натижасида шу нарса маълум бўлдики, у палеоантроп ҳамда архантроплар ўртасидаги оралиқ ҳолатни эгаллаб, тарихий тараққиётнинг умумий йўналишидан анча четга чиқган. Бундан ташқари, Селунгурдан қазилма одам диафизнинг қуйи ярми ва пастки эпифизи ҳам топилган. Селунгур ғоридан топилган елка суяги қолдиғи 10 ёшли болага мансублиги аниқланди [4, С. 38-49; 6, С. 143163; 8, С. 220]. Ушбу топилма Тешиктош ғоридан топилган неандертал боланинг суяклари қолдиғи билан қиёсланиши натижасида Селунгур одами суяклари анча қадимий эканлиги маълум булган. Суяк-илик канали қалинлигининг диафиз диаметрига нисбатан минимал нисбат индекси (рентгенограммада) Тешик-тош боласиники 28 %, Синантропларда ҳам 28 %, Селунгур одамида эса – 15 % га тенг ва бу Селунгур одамининг ўта қадимийлигидан далолат берган [4, С. 38-49; 8, С. 220].

Селунгур ғоридан топилган ушбу палеоантропологик материалларнинг тадқиқи ва таҳлили ўтган асрнинг 90 йилларида олиб борилган илмий изланишлар асосида қайд этилди. Орадан анча вақт утиб, яъни 2009 йилда Россиялик антрополог, профессор А.А. Зубовнинг Селунгурдан топилган одонтологик материаллар (тишлар) хусусидаги илмий мақоласи нашр этилди ва бу Селунгур одами тўғрисидаги (тўлиқ тасаввурга эга) навбатдаги илмий (ёки якуний хуоса деб қабул қилинса ҳам, мақсадга мувофиқ) хулосага келинишига тўртки бўлди. Демак, Селунгур одами илк гоминидларнинг (Хомо хабилис, Хомо эректус ва б.) қайси жисмоний турига мансублиги борасидаги охирги илмий маълумотлар, А.А. Зубовнинг “Ещё раз о зубах из пещеры Сельунгур” номли мақоласида батафсил баён этилган [2, С. 235-243]. А.А. Зубов ушбу мақоласида ёдгорликдан топилган тишларнинг морфологик таҳлили асосида Селунгур одамининг таксономик холати бўйича ўзининг фикрлари ва якуний хулосаларини қайд этган. Қўйида Селунгурдан топилган гоминидларнинг тишлари бўйича А.А. Зубовнинг сўнгги хулосаларига тўхталиб ўтамиз:

- Селунгур ғор маконидан топилган тишлар одамнинг учта юқори қозиқ ва учта премоляр турига мансубдир. Бу тишлардан бештаси 35-40 ёшлардаги эркак индивидга ва биттаси афтидан, аёл кишига тегишли;
- Замонавий одам тишлари билан қиёсий таҳлилларнинг кўрсатишича, Селунгур тишларининг барча параметрлари (умумий узунлигидан ташқари) иккита юқори қозиқ тишлар ва премолярлардан бирининг вестибулолингвал коронкаси замонавий одамлар тишлари ҳажмининг ўзгарувчанлиги доирасига мос келади. Селунгур тишлари коллекциясини қазилма одамлар тишлари билан қиёсий таҳлиллар ғордан топилган тишларни қадимги гоминидларга авваломбор, Осиё хомо эректусларига ўхшашлигини кўрсатди. Ҳатто, Селунгур тишлари ҳажмининг йириклиги замонавий одамникига мос келмасада, бу холат синантроплар ва қисман неандерталлар учун нормал эканлиги маълум бўлди;
- Селунгур тишларининг таснифида замонавий одамнинг тишларидан сезиларли фарқ қилиши кузатилади. Премоляр тишларнинг массивлиги ва илдизларининг қалинлиги, шунингдек замонавий одамга хос бўлмаган вестибуляр контурининг дўғасимон қайрилганлиги, кўзга ташланади. Қиёсий таҳлилларда барча хусусиятларига кўра уларга

аналогиялар плейстоцен даври қазилма одамларида ва асосан, Осиё хомо эректусларида топилди;

- Морфологик тадқиқотларнинг кўрсатишича, Селунгурнинг одонтологик материалларини Хомо эмас, балки кийик ёки айиқ каби қандайдир ҳайвонларга тегишли дейиш асоссиздир [2, С. 235-243].

Ёдгорликдан топилган палеоантропологик материалларнинг сўнгги илмий хулосалари ва таҳлилига таяниб, хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, Селунгур одами, Шарқий ва Жануби-Шарқий Осиёда яшаган синантроплар ва питекантропларнинг аждодлари ҳисобланади. Ёдгорликда айнан, шарқий, яъни классик Хомо эректуслар жамоаси яшаган. Селунгур одамлари, палеоантропологик маълумотларга кўра, 35-40 йиллар умр кўришган. Бу ўша давр учун юқори умр кўрсатгичи ҳисобланади. Ёдгорликдан топилган ёш боланинг суягига кўра айтиш мумкинки, жамоада болалар ўлими ҳам юқори бўлган. Бу холат тош даври жамоалари учун тез-тез учраб турадиган ҳодисадир. Шунингдек, ёдгорлик тош индустриясининг техник-типологик характеристикасидан келиб чиқадиган бўлсак ҳам, Селунгур ғор макони Шарқий ва Жануби-Шарқий Осиё илк палеолит даври ёдгорликларига ўхшашлиги ва генезиси ҳам ушбу ҳудудларга боғлиқлигини кўрсатмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том 2. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии. Новосибирск, Изд-во ИАЭТ СО РАН 2017. - С. 399-415.
2. Зубов А.А. Еще раз о зубах из пещеры Сельунгур // Археология, этнография и антропология Евразии. Новосибирск, 2. (38). 2009. - С. 235-243.
3. Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып.19. 1984. - С. 18-27.
4. Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сельунгур // Вопросы антропологии 80. М., 1988. - С. 38-49.
5. Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сельунгур в Ферганской долине // СА. №2. 1990. - С. 115-126.
6. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сельунгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск, 1992. - С. 143-163.
7. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Древнепалеолитические отложения пещеры

Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. - С. 17.

8. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. – Ташкент: ФАН, 1995. - С. 220.
9. Исламов У.И., Халмухамедова Р.А., Крахмаль К.А. Исследования палеоэкологии антропогена Центральной Азии // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во ИАЭт СО РАН. Новосибирск, 2002. - С. 113-118.
10. Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып.7. Ташкент, 1966. - С. 28-35.
11. Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур // ВА. Вып.2. 1960. - С. 38.
12. Омонов А.М. Ўзбекистон палеолити хорижлик мутахассислар нигоҳида (мунозара ва танқидий қарашлар) // Ўзбекистон археологияси. №2, (19). 2019. 112-121бетлар.
13. Омонов А.М. Марказий Осиёнинг илк палеолит даври маданиятлари муаммолари (Селунгур ёдгорлиги мисолида) // Ўтмишга назар. №9, 4 жилд, 2021. 72-85бетлар.

ҚАДИМГИ КЕШ ВИЛОЯТИНИНГ ТАРИХИЙ ГЕОГРАФИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ТОҒ ТИЗМАЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ

Ҳазратов Нурали
Қарши ДУ мустақил тадқиқотчиси

Аннатация: Ушбу мақолада қадимги Кеш вилоятининг тарихий чегаралари тоғ тизмалари орқали баён этилади. Кеш вилояти Ўзбекистоннинг жанубида жойлашган ва у Қашқадарёнинг юқори қисмидаги худудларни эгаллайди. Унинг рельефи турлича, унинг шимолий қисми Зарафшан, Ҳиссор ва Бойсун тоғлари билан ўралган. Унинг шимолий қисмида Қақилқалья ва Қоратепа тоғлари, ғарбида Тахта Қорачор ноён девонидан бошланади.

Таянч сўзлар: Кеш, Зарафшан, Гиссар, Какилкала, Кишвар, Чакилкалон, климатология, геология, минералогия, геодезия, картография, этнография.

Annotation: This article describes the historical boundaries of the ancient Kesh region through mountain ranges. Kesh region is located in the south of Uzbekistan and it occupies the upper part of Kashkadarya. Its relief is varied, its northern part is surrounded by Zarafshan, Hissar and Boisun mountains. In its northern part, Qaqilkala and Karatepa mountains, and in the west, Takhta starts from Karachor Noyon devon.

Key words: Kesh, Zarafshan, Hissar, Qaqilkala, Kishwar, Chaqilkalon, climatology, geology, mineralogy, geodesy, cartography, ethnography.

Қашқадарё вилояти ҳудуди Ўрта Осиёнинг текислик ва тоғли қисмлари таркибида мураккаб палеогеографик тараққиётни босиб ўтган. Геоморфологияси, геологияси каъби табиий компонентлар ландшафтлар- нинг морфологик ҳолатини келиб чиқишида бирламчи компонентлар саналади. Айниқса антропоген таъсир эвазига баландлик минтақаларидаги геоэкологик вазиятнинг келиб чиқиши, ушбу вазиятни чуқурроқ ўрганиш- ни, аниқлашни тақозо этмоқда.[1]

Кеш вилояти Ўзбекистоннинг жанубида жойлашган ва у Қашқадарёнинг юқори қисмидаги худудларни эгаллайди. Унинг рельефи турлича, унинг шимолий қисми Зарафшан, Ҳиссор ва Бойсун тоғлари билан ўралган. Унинг шимолий қисмида Қақилқалья ва Қоратепа тоғлари,(денгиз сатхидан 2336 м. баланд), ғарбида Тахта Қорачор ноён девони (баландлиги денгиз сатхидан 1630 м)дан бошланади.

Китоб–Шахрисабз ботиғи ва унинг атрофидаги ҳудудлар асосан Китоб, Шахрисабз, Яккабоғ, Чироқчи туманларнинг ҳудудлари ва Ғузор ҳамда Қамаши туманларининг бир қисми, Қашкадарё ҳавзасининг шарқий тоғли қисмларини ўз ичига олади. КитобШахрисабз ботиғи тўғрисида анчагина маълумотлар мавжуд бўлсада, лекин, ботиқнинг чегаралари ва қайси худудлар айнан шу ботиққа кириши тўғрисида аниқ ҳамда асосланган фикр мулоҳазалар йўқ. «*Ботиқ*»-деб Ер юзасидаги барча томондан берк ёки бир томонда ёхуд оқиб ўтадиган дарё туфайли иккала ўзаро қарама қарши йўналишларда очиқ бўлган пастликга нисбатан айтилади . Китоб – Шахрисабз ботиғи шимолдан баландлиги 25003000 метр Қоратепа ва Чақиликалон, жанубдан Яккабоғ тизмаси, шарқдан Хисор тизмасининг асосий тармоқлари билан ўралган бўлиб, фақат ғарбдан Араб қишлоғи яқинида бепоён Қарши чўли билан туташиб кетади.

Ботиқнинг юзасидаги рельефнинг асосий шакллари қия текисликлар ва адирларни ташкил этади. Китоб-Шахрисабз ботиғининг мутлоқ баландлиги 480-500 м дан 800- 1000 метргача боради. Ботиқнинг ҳозирги қиёфаси доимий ва даврий оқимга эга бўлган дарёлар ва сойлар тоғлардан олиб келган дағал ва майда қумоқ жинслардан иборат. Ботиқнинг рельефи тоғ олди текисликлари, қайирлар ва қайир усти террасалари ҳамда адирлар туфайли анча мураккаб хусусиятга эга. Кеш ботиғи иқлим карталарида субтропик минтақанинг қуруқ чўл зонасига киритилади. Тоғ ёнбағирларидагига нисбатан иқлим қуруқ ва континентал.

Қадимги Кеш вилояти Суғдиёнанинг муҳим тарихий-географик воҳасидир. Кеш вилояти Ўзбекистоннинг жанубида жойлашган ва у Қашқадарёнинг юқори қисмидаги худудларни эгаллайди. Унинг рельефи турлича, унинг шимолий қисми Зарафшан, Ҳиссор ва Бойсун тоғлари билан ўралган. Унинг шимолий қисмида Қақилқалъа ва Қоратепа тоғлари,(денгиз сатхидан 2336 м. баланд), ғарбида Тахта Қорачор ноён девони (баландлиги денгиз сатхидан 1630 м)дан бошланади.

Геологик даврлар давомида тоғ жинси, рельеф, иқлим, ўсимлик ва ҳайвонот олами, микроорганизимлар шаклланган. Антропоген ландшафт- ларнинг кўлами ортиб бораркан геоэкологик мониторинг кўлами ҳам кенгайиши зарур. Бу эса табиий компонентларнинг маълум вақт давомида ўзгаришга учраши ва компонентлар орасидаги ўзаро алоқаларини таснифлаш аввало ландшафтлар қобиғининг “марказий ўқи”дан бошла- ниши лозим, аммо геохронологик даврларда ернинг ички кучларининг ҳам тараққиёти яъни тоғ жинслари ҳам рельефни ўзгартириб гоҳида асосий бирламчи компонентга айланади.

Ботиқнинг ҳозирги қиёфаси доимий ва даврий оқимга эга бўлган дарёлар ва сойлар тоғлардан олиб келган дағал ва майда қумоқ жинслардан иборат. Ботиқнинг рельефи тоғ олди текисликлари, қайирлар ва қайир усти террасалари ҳамда адирлар туфайли анча мураккаб хусусиятга эга. Кеш ботиғи иқлим карталарида субтропик минтақанинг қуруқ чўл зонасига киритилади. Тоғ ёнбағирларидагига нисбатан иқлим қуруқ ва континентал

Кеш тарихий шаҳар ҳисобланиб, араб манбаларида Кашш, Касс, Кисе номлари билан тилга олинган. Ҳозирги Қашқадарё вилоятининг шимолий-шарқий қисмини эгаллаган. Дастлаб Кеш Китоб ўрнида бўлган, кейин IX-X асрларда Шаҳрисабз ҳудудига кўчган. Кеш номининг хитойча транскрипцияси биринчи марта VII асрга оид хитой ёзма манбаларида Сюйша шаклида учрайди. Унинг суғд тилидаги номи эса VIII аср охири VIII аср бошларида ҳукмдорлик қилган Кеш ҳокими Ахурпат тангаларида ҳамда VIII аср ўрталарида Кешни идора 52 қилган ҳоким Ихриднинг дастлабки арабча фале (танга) ларида илк бор зикр этилган. “Кеш” атамасининг келиб чиқиши Қашқа-Қашқруд номи билан боғлиқ.

А.Муҳаммаджонов фикрга кўра, “Кеш” топониминиг маъноси илк бор уй, қишлоқ, шаҳар, пойтахт,вилоят, эл-юрт, диёр, ҳатто “Кишвар” шаклида эса мамлакат ва Ватан каби маъноларни англатган. Хитой ёзма манбаларида қайд этилишича, ҳоким Дигжа (Дичже) (VI аср охири VIII аср бошлари) Кешга асос солган бўлиб, ўша вақтда шаҳар айланаси 1 км га етган. Араб тарихчиси Яқубийнинг ёзишича, Кеш милодий VIII аср ўрталарида юксалиб, Суғднинг бош шаҳрига айланган.[2]

Кеш бу даврда ҳунармандчилик, савдо-сотиқ, маданият юксак ривожланган шаҳарга айланиб арк, ички ва ташқи шаҳардан иборат бўлган. Ички шаҳар мудофаа девори ва 4 дарвозага эга эди. VII асрда аркнинг ғарбий қисмида шаҳар ҳокими Дигжа томонидан янги қароргоҳга асос солинган. VII аср охири VIII асрнинг 1-ярмида Кешни араблар бир неча бор фатҳ этган. 751 - йилда Кеш ҳукмдори Ихрид Хуросон ноиби Абу Муслим буйруғи билан қатл қилинган бўлиб, ат-Табарийнинг гувоҳлик беришича, араблар Кешда катта ўлжани қўлга киритганлар. 775-776 - йилларда Кеш вилояти Муқанна қўзғолонининг асосий марказларидан бири бўлган. Сомонийлар даврида Кеш ҳудуди эни ва бўйига 1/3 фарсах (2 км га яқин) майдонини ташкил этган. Бу вақтда аҳоли Кешнинг кўҳандиз ва мадинасини тарк этган бўлиб, ҳаёт фақат унинг рабодида давом этаётганди. Аста-секин аҳоли рабодни ҳам тарк этиб, ҳозирги Шаҳрисабз ўрнида янги шаҳарга асос солган.[4]

Археологик текширувлар Китоб ўрнидаги Кешнинг айнан шу вақтда барҳам топганлигини исботлади. Кешнинг бундан кейинги тарихи Шаҳрисабз билан боғлиқ бўлиб, бу ном XIV асрда халқ онгига узилкесил ўрнашган.[3] Шундай бўлсада, шаҳарнинг қадимги номи талай вақт унинг янги номи билан бир қаторда айтилиб юрган. Шаҳарда илм-маърифат ривож топиши оқибатида “Коший, Кеший” тахаллуси билан машҳур олимфозиллар этишиб чиққанлиги туфайли Кеш шаҳри ,“Дилкаш”, Қуббатул илм вал-абад, яъни “Илм ва таълим гумбази” деган сифат билан шуҳрат топган.[4]

Н. А. Когай томонидан 1982 йилда тузилган Ўзбекистон худудини томонидан тузилган табиий географик раёнлаштириш схемасида Китоб-Шахрисабз ботиғи Қашқадарё округининг Қарши текислик раёнига киритилган. Аммо Н.А. Гвоздецкийнинг фикрича, барча тоғ оралиғи ботиқларини тоғли табиий-географик ўлкаларга киритиш лозим, чунки ботиқлар улар тоғли ўлкаларининг структуравий унсурларини ташкил этади.

Шу фикрни маъқуллаган ҳолда Китоб- Шахрисабз ботиғини нафақат геологикгеоморфологик жиҳатдан, балки табиий шароитларининг комплекслигига кўра ҳам тоғли худудига киритиш мақсадга мувофиқ. Тоғолди ботиқлари вужудга келишида ландшафтларининг ривожланиши ва ҳозирги ландшафт хусусиятларига кўра уларни ўраб турган тоғлар билан бевосита боғлиқ. Кеш ландшафтларнинг ўзаро боғлиқлик хусусиятлари ва унинг худудларини яхлит худуд сифатида мушохада қилиш мумкин.

Кешнинг мутлоқ баландлик 500 метрдан 4145 метргача ўзгаради. Бу худуднинг ўрта қисми баландлиги денгиз сатҳидан 500-700 метр бўлган текисликлар билан банд. Китоб – Шахрисабз ботиғи шарқга, шимолга ва жанубга томон кўтарилиб борган ҳолда ғарбга томон пасайган. Кешнинг адирлари 600 метрдан 1500 метргача бўлган мутлоқ баландликларда жойлашган бўлиб, геологик жиҳатдан мезозой, палеоген ва неоген ётқизиқларидан тузилган. Адирлар минтақасининг эни 8-18 км.

Қадимги Кеш худудига оид ландшафтлар, табиий шароитлар ва ресурсларнинг қулайлиги туфайли суғорма ва лалмикор дехқончиликда кенг фойдаланилган. Худуддаги Шаҳрисаьбз тумани, Чироқчи, ва Китоб туманларининг суғориш тизимлари атрофидаги барча майдонлар дехқончилик қилинадиган ерлардан иборат. Воҳанинг иқлими континентал. Қиши нисбатан юмшоқ, ёзи узоқ, иссиқ, қуруқ. Январнинг ўртача температураси 0,2° дан 1,9° гача, июлники 28°-29,5°. Энг юқори температура 45-50°. Энг паст температура -27°. Йилига текисликларда 290-300 мм,[5] адирларда 520-550 мм, тоғларда 550-650 мм ёғин тушади. Ёғин, асосан, баҳор ва қишда ёғади, ёзда гармсел эсади.

Тоғларда турғун қор қоплами мавжуд. Вегетация даври текисликларда 290-300 кунгача.[4]

Суғориладиган ерларнинг тупроғи, асосан, тўриқ ва оч бўз тупроқлар. Дарёлар бирбирларига яқин, Китоб-Шаҳрисабз сойлигида кўпроқ қумоқ тупроқлар мавжуд. Тоғларда баландлик минтақалари бўйлаб бўз тупроқлар тарқалган. Табиий флораси 1200 га яқин ўсимлик туридан иборат. Ўрмонларнинг асосий қисмини тоғли ҳудудларда арчани ташкил этади. Тоғ ён бағирлари ўнлаб турдаги турли хил ўсимликлари билан қопланган, шунингдек, бутазорлар ҳам бор. Тоғ ўрмонларида арчадан ташқари, бодом, писта, дўлана, жийдазорлар сероб. Тоғларда наъматак, зирк, чаканда, анзур пиёзи, қора зира ва бошқалар ўсади. Тоғли ва тоғолди ҳудудларидаги сойлар, ирмоқлар бўйларида ва текисликдаги суғориладиган майдонларда ўнлаб хил ва юзлаб турдаги мевали дарахтлар ўсади ва уларнинг мавжудлиги бу воҳада жуда қадимданоқ деҳқончилик ва боғдорчилик маданияти юксак даражада бўлганлигини кўрсатади.

Қашқадарё бир неча дарёлар ва ўнлаб катта-катта кичик сойларнинг қўшилишидан ҳосил бўлган. Улардан асосийлари Жиндарё, Оқсув, Танҳоз, Қизилдарё (Яккабоғдарё), Лангар ва Ғузордарё бўлиб, бу дарёларнинг барчаси Қашқадарёнинг сўл ирмоқлари сифатида унга сувларини қўшадилар. Табиат географик омиллар туфайли Қашқадарё воҳасига 8 та катта-кичик дарёлар қуйилади. Вилоятнинг энг катта, серсув ва узун дарёси қадимда Кешк руд деб аталган, кейинчалик Кеш дарёси. Тахминан XVI асрлардан бошлаб Қашқадарё деб аталган. У Зарафшон тизмаси ғарбий тармоғининг жанубий ён бағридан, денгиз сатхидан 3000 м. баландликдан бошланади. Шарқдан ғарби-шимолгача воҳани бошдан-оёқ кесиб ўтиб, Бухоронинг Пойканд этакларигача, Зарафшон ўзанигача етиб боради. Милоддан олдинги асрларда, Яккабоғ тоғидаги Ҳўкизбурун сув манбаи бекилмай туриб, Кашқадарёда сув мўл бўлган замонларда Кешкруд Зарафшон билан қўшилиб Каспий денгизига қуйилганлиги қайд этилади. Ўша пайтларда дарё ўзани 332 км.бўлган. Водийга, тоғлардан бошланган

Қашқадарёга Ҳисор тизмасининг шимоли-ғарбий тармоқларидан сув оладиган Жиннидарё, Танхоздарё, Оқсувдарё, Яккабоғдарё ва Ғузордарё қўшилади.

Танхоздарё, Яккабоғдарё, Гулдарасой ва Лангардарё ҳавзаларида анчагина кенг майдонларни эгаллаб ётган Яккабоғ адирлари тоғлар ва текисликлар орасида яққол ажралиб туради. Лангардарё дарёнинг тоғ водийсидан жануби-ғарб томонга йўналган қирлар Ғузор адирларини ҳосил қилади. Адирлар лёсс жинсларидан тузилган бўлиб, уларнинг юзаси яссиланган текис кўринишли. Лёсс қопламининг қалинлиги ғарбда 10-15 метр, шарқда тоғ этакларида 2-2,5 метргача боради.[6]

Зарафшон тизмасининг ғарбдаги давоми бўлган Чақилкалон ва Қоратепа тоғлари Китоб-Шахрисабз ботиғини шимолда ва қисман шимоли-шарқдан ўраб туради. Кенглик йўналишидаги Зарафшон тизмасининг Қашқадарёнинг юқори оқимидан то Тахтақорача довонигача бўлган қисмини Чақилкалон тоғлари ташкил этади. Чақилкалон тоғларининг жанубий ёнбағирлари анча тик бўлиб, девон, силур ва карбон даврларнинг оҳактош, гилтош, сланец ва улар орасида ёриб кирган магматик жинслардан таркиб топган. Чақилкалон тоғларининг ўртача мутлоқ баландлиги 1800-2300 метр бўлиб, энг баланд жойи (2336 м) Зебон чўққисидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1.Энциклопедический словарь географических терминов. М.,1968. 156с.

2.Когай Н. А. Туранская физико-географическая провинция. Науч.Тр.Т.: ТашГу, 1969. –С.357с.

3.Чариев А., Ачилов М. Кашкадарьинская область. – Т.: Фан, 1974, с.16.

4.Раимқулов А.А. Қашқадарё воҳаси ўрта асрлар даври шаҳарлари ва қишлоқлари тарихий топографияси(VIII-XIV асрлар ёзма а археологик манбалари асосида) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси С. 2019. -Б. 213.

5. Чариев А., Ачилов М. Кашкадарьинская область. – Т.: Фан, 1974, с.16.

6.Раимқулов А.А. Қашқадарё воҳаси ўрта асрлар даври шаҳарлари ва қишлоқлари тарихий топографияси(VIII-XIV асрлар ёзма а археологик манбалари асосида)... -Б. 213.

BUXORO HUKMDORI ABDULLAXON ADABIY KECHALARI TARIXI

(Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” hamda Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” tazkiralari ma’lumotlari asosida)

Qorayev Sherxon,
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,
dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro hukmdori Abdullaxon adabiy kechalari tarixi haqida so‘z boradi. Muallif tarixiy ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida Buxoro hukmdori Abdullaxon adabiy kechalari tarixi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, hukmdor, Abdullaxon, adabiy kechalar.

Abstract: This article talks about the history of the literary evenings of the ruler of Bukhara, Abdullah Khan. Based on historical data, the author studied and analyzed the unique aspects of the history of literary evenings of the ruler of Bukhara, Abdullah Khan, on the basis of available scientific literature.

Key words: Bukhara, ruler, Abdullah Khan, literary nights.

Shayboniy hukmdorlardan Abdullaxon II davri (bosh xonlik: 1581-1598)da ham Buxoroda ilm-fan, madaniyat, adabiyot rivojlanishda davom etdi. Xususan, Abdullaxon II saroyida adabiy majlislar o‘tkazilib, unda o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan shoirlari mushoiralar uyushtirgan. Tarixchi Sharafuddin Roqimiy son-sanoqsiz shoirlar, olimlar va fozillar Abdullaxonning atrofida bo‘lganini yozib qoldirgan. “Musaxxir al-bilod”da yozilishicha, “ (Abdullaxon) Oliy himmatli, to‘la shavkatli, Bahrom savlatli, No‘shirvon adolatli, karim xilqat, sog‘lom fitrat, mirrix razm, nohid bazm, Jamshid tug‘li, Iskandar panohli, yulduz hasham, Sulaymon sayr, kavokib sayohatli podshoh edi...

Behisht misol o‘yin kulgu o‘tirishlarni hur yuzli yoshlar bilan bezar, quvonch va shodlik majlislarini Eram bog‘i gulistoni singari ozor beruvchi tikanlardan toza tutardi.”

Chunonchi, Abdullaxon II iste’dodli shoir bo‘lib, “Xon” taxallusi bilan g‘azallar yozgan va mushoiralarda o‘z she’rlarini o‘qigan:

Hamisha orzuyi Xon hamin boshad ki dar olam, Ravad suyi mazori shohi gardad az g‘ulomonash.

(Mazmuni: Bu jahonda mudom Xonning orzusi shu bo‘lajakkim: Shoh mozoriga borsayu xizmatida tursa har on).

Qasidanavis shoir Mavlono Mushfiqiy (1525-1588) Abdullaxon saroyining “Malik-ushshuaro”si bo‘lgan: *“Mullo Mushfiqiy bir muddat Samarqand shahrida Sulton Sa’idxon vafotidan so‘ng bir umr Foxirai Buxoroga kelib, Sohibqiron Abdullaxon xizmatida izzat topdi. Xurshidjoh, anjumsipoh, sipehrjoygoh shoh madhiga ko‘tarinki qasidalar yozdi...Uning tasniflari, ta’liflari quyidagilardan iborat: Devoni g‘azal, sultonlar nomiga yozilgan qasidalar devoni va hajviyot, “Gulistoni Eram” nomli masnaviysi, “Husni dil” nazmi.”* Nisoriy (1516-1597) ham “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Mavlono Mushfiqiy o‘z zamonining mashhur shoirlaridan biri ekanini, Abdullaxon madhida “xo‘b qasidalar va marg‘ub she’rlar” yozganini aytib o‘tgan.

Naql qilishlaricha, bir kuni she’riy majlisda Abdullaxon Figoriy Samarqandiy devonidan o‘nga yaqin g‘azalni Mushfiqiyga o‘qib berdi va undan mullo Figoriyning she’rlariga baho berishini so‘radi.

Mavlono Mushfiqiy *“bu asrda, ya’ni ayni kunlarimizda hech kim mullo Figoriy kabi pokiza she’r yoza olmaydi”* dedi.

O‘z davrida xonning adabiy majlislari shayboniylar, boburiylar, safaviylar va usmoniylar saltanatlarida mashhur bo‘lgan. Xofiz Tanish al Buxoriy “Abdullanoma”da Abdullaxon huzuridagi majlisni shunday tasvirlagan: “*Hoqon hazratlari (Abdullaxon) huzurida majlis mutasaddiylari shohona bazm tartib berdilar: xusravona majlis tayyorladilar. Sulton janoblari(Isfandiyor sulton) o‘zi bilan doimo xos majlisdosh va anis, yo‘ldosh bo‘lib turganlar bilan bordi. Xushovoz nag‘machilar, ko‘ngil ko‘taradigan taronachilar va soz chaluvchilar dutor, setorlarga chang urib, shavq –zavq palosini Saraton burjiga yetkazdilar, rubob, ud navosini ko‘k rangli osmon cho‘qqisidan o‘tkazdilar”*. Ushbu majlislarda Xofiz Tanish al Buxoriy “soz chaluvchilarning” “hammasi xushovoz, xushgap, latifachi” va shoir ekanligidan yig‘in qiziqarli o‘tganligini yozib qoldirgan.

Shoir Mavlono Baqoiy va uning xotini shoira Bibi Otun Abdullaxon majlisida nadim (suhbatdosh) bo‘lib, she’riy kechalarni o‘z she’rlari bilan qizitishgan. Atoquli qissaxon esa “jannatmakon xoqon Abdullaxonning oldida katta izzatga ega bo‘lgan va mazkur podshohning jannat ko‘rinishli majlis va o‘tirishlarini shirin va rangin so‘zlar bilan bezab yurgan.” Zulmatiy Rumiy usmonli turklar saltanati elchilari safida Buxoroga kelganda, adabiy majlisda “Abdullaxon madhida bu qasidani aytgan:

Zihi, ba qomati tu rost xil’ati shohiy, Mo‘tei hukmi tu shoho, zi moh to mohi.

(Mazmuni: Qomatingga to‘g‘ri kelmish shohlik xil’ati, ey barakallo, Ey shoh, hukmingga mute erur oydan baliqqacha ahli dunyo.)

Shoir Mutribiy Xoja Husayn Marviy qasidasiga tatabbu’ yozib, Abdullaxonga bag‘ishlagan: *“Faqir (Mutribiy) ham mazkur qasidaga tatabbu’ qilib, uning matla’sida birdan to olti sonigacha*

bitganman va o‘ziga xos bir holat baxsh etib, qasidamni jannatmakon xoqon Abdullaxonning dovruqli nomiga muvashshah qilganman. Ikkita gushvora ruboiy va izhori muzmar va mezonni undan masnu’ yo‘li bilan chiqarib, a’lo hazrat (Abdullaxon) nazaridan o‘tkazganman”, - deydi shoir. U Abdullaxonning she’riy yig‘ilishida quyidagi she’rini o‘qigan:

Ey shoh, mudom shohi shohon boshi, Dar dahr ba aysh shodu xandon boshi. Dar mulk ba adlu dod xoni in dam,

Yo Rab, ki hamisha xoni davron boshi.

(Mazmuni:Ey shoh, mudom shohi shohon bo‘l, Olamda aysh-la shodu xandon bo‘l. Yurtda adolatli xonsen bu zamon, Tilagim hamisha xoni davron bo‘l.)

O‘z davrining “Malik ush-shuaro”laridan biri bo‘lgan Hasanxoja Nisoriy Buxoriy ham Abdullaxon majlislarida ishtirok etgan. U xon topshirig‘i bilan *“mutayyir, muaqqad, mushajjar, mudavvir, muzalla, muvashshah, masnui mumtana il-hayvoniy”* san’atlaridan iborat qasida yaratgan:

Tu on shahi ki xudovandigori hayyi g‘afur,

Zi chokaroni tu gardonad Qaysari Fag‘fur. Ba zilli rif’ati tu to Humoy kard makon, Namond po ba zamin u zi bodpoyi surur. Sariru johi tu Zilli Alloh a-r chi salnate ast, Ki omad az azal uro kamol to dami sur.

(Mazmuni: Sen ul shohkim, hayot beruvchi kechirimli xudo, qaysaru Fag‘furni sening xizmatkoring qilur. Buyukliging soyasida makon tutgach Humo qushi, Oyog‘ini bosmadi u sevinch otidan tushib yerga. Taxtu martabang Alloh soyasidagi saltanatdir, Ki kelmish azaldan unga kamol to qiyomatgacha.)

“Sultonlar va xoqonlar madhida yaxshi qasidalar” yozgan Aminiy Xiyoboniy ham Abdullaxon majlisida o‘z she’rlarini o‘qigan:

Skandar oyatu Isodamu kalim kalom, Xalil xulqu Sulaymon shukuhu Xizr liqo. Sari saroni salotini dahr Abdulloh, Ki charxi pir payyi pobusi ucht duto.

(Mazmuni: Iskandar sifat, Iso damli, Muso kalom, Ibrohim xulq, Sulaymon shavkat, Xizr siymo. Dahr sultonlarining boshining boshi Abdulloh, Keksa charx oyog‘in o‘pmoqqa belin etgan duto).

Muxtasar aytganda, shayboniy xonlarning barchasi ilmu ma’rifat va she’riyatga qiziqqan va shu bois shoirlarni to‘plab, adabiyot kechalarini tashkil etgan, nazm ahlini qo‘llabquvvatlagan. Adabiyot ravnaqini millat taqdiri bilan bog‘lagan shayboniy sultonlarning bu an’anasini davom ettirgan Abdullaxon II o‘z huzurida adabiy yig‘ilishlar tashkil etib, mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga xizmat qilgan. Eng qizig‘i, bu davrda hukmdor ham, hokim ham, shayxulislom ham, olim ham, xonanda ham, sozanda ham, hunarmand ham she’r aytgan. Bu esa shohlar shoiri Abdullaxonning adabiyotga bo‘lgan yuksak e’tibori hosilasidir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. T. Ma’naviyat, 1998.-B.132.
2. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod. T.: Yangi asr avlodi, 2009.B.227-228.
3. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T. Meros, 1993.-B.335.
4. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kotib. T.: “Sharq” NMK BT, 1999.B.341.
5. Faxriy Hiraviy. Javohir ul-ajoyib. T. Mumtoz so‘z, 2014.-B.172.
6. Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. T. Mumtoz so‘z, 2013.-B.99.

ҚЎҚОН ХОНИ МУҲАММАД АЛИХОН КЎРСАТМАСИ БИЛАН КИТОБАТ ҚИЛИНГАН ҚЎЛЁЗМАЛАР ХУСУСИДА

Абдуллаев Равшанжон Иномжон ўғли
ЎзР ФА Тарих институти
+998911529314

Аннотация: Ушбу мақолада Қўқон хони Муҳаммад Алихон кўрсатмаси билан китобат қилинган қўлёзмалар хусусида сўз боради. Муаллиф тарихий маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Қўқон хони Муҳаммад Алихон кўрсатмаси билан китобат қилинган қўлёзмалар хусусида ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Қўқон хони, Муҳаммад Алихон, китобат, қўлёзмалар.

Annotation: This article is about the manuscripts read under the instructions of Khan of Kokand Muhammad Alikhan. Based on historical data, the author studied and analyzed the unique aspects of the manuscripts read under the instructions of Khan of Kokand Muhammad Alikhan based on available scientific literature.

Key words: Kokan Khan, Muhammad Alikhan, book, manuscripts.

Қўқон хонлигини 1822-1842 йилларда бошқарган Муҳаммад Алихон томонидан хонликнинг маданий ҳаётида, хусусан китобларни кўпайтириш бўйича бир қатор муҳим тадбирлар амалга оширилади. Жумладан, 1254/1838-1839-йилда мазкур хон Алишер Навоийнинг “Чор девон”идан 300 нусха кўчириш бўйича фармон беради. Ушбу йирик тадбирга Муҳаммад Сиддиқ тунқатор масъул этилиб, 6 ой муддатда бу ишларнинг якунига етказиш топширилади.

Хон фармонидан англашиладики Муҳаммад Алихон Навоий ижодиётига кўпроқ эътибор қаратган, ҳатто кенг миқёсда тарғиб ҳам этган.

Белгиланган муддат ичида хонликнинг мохир хаттотлари томонидан “Чор девон” кўчирилиб, китоб шаклига келтирилади ва мамлакатнинг турли шаҳарларига юборилади.

Бугунги кунга қадар ушбу 300 нусхадаги “Чор девон”нинг ЎзР ФА ШИ фондида сақланиб қолган 5 та № 1709, 1230, 1261, 7409, 7864 нусхаси мавжуд бўлиб, ушбу қўлёзмалар хонлик даври китобат ишининг нодир наъмуналари саналади.

Мазкур китоблар йирик: 48х29 см, 53.5х31 см, 52х30.5 см хажмларда тайёрланган бўлиб, матни қўқон қоғозига настаълиқ хатида битилган. Ҳар бири 400-500 варақдан иборат. “Чор девон” нусхаларининг ички бадиий безаклари ҳам ўз даври китоб безаш санъатининг юқори даражада ривожланганлигини ифодалайди. Масалан, № 1709 рақамли нусхага лаввоҳ томонидан 5 та унвон ишланган бўлиб, дастлабки унвон дебоча учун, қолган унвонлар бўлса ҳар бир девоннинг бошланиш қисмига чизилган. Ушбу унвонлар бир-бирини такрорламайди, уларнинг ҳар бири ўзига хос тузилишга эга. Ранглар жилос, тасвир аниқлиги, ўсимлик ва гулар, геометрик нақшлар қўлёзма устида маҳоратли лаввоҳ иш олиб борилганлигини кўрсатади.

Сақланиб қолган барча нусхалар устида маҳоратли жадвалкашлар иш олиб борган бўлиб, матн атрофига бир неча йўллик, турли рангли жадваллар ишлаганлар. Музаҳҳиб томонидан уларга олтин суви берилиши натижасида зархал жадвал хосил қилинган.

Тайёрланган китобларни муқовалашда ҳам малакали саҳҳофлар хизматидан фойдаланилган бўлиб, “Чор девон”нинг №1709 рақамли нусхасига ишланган муқова 48х29 ўлчамда, ташқи томони чармдан, атрофи ўсимликсимон гуллар тасвирланган нафис кесма безаклар билан безатилган, марказда турунж ундан юқори ва қуйида 2 тадан сартурунжлар жой олган. Уларнинг барчаси зарҳалланган бўлиб, вақт ўтиши билан айримларининг холати ёмонлашган. Сартурунжда “амали Мулло Муҳаммад Амин саҳҳоф 1250” ёзуви битилган. Агар келтирилган сана муқова ясалган вақтни ифодаласа, Мулло Муҳаммад Амин саҳҳоф муқовани

“Чор девон” кўчирилишидан тўрт йил олдин тайёрлаган бўлади. Демак муқавасозлар ҳар доим ҳам хаттот танлаб олган қоғоз ўлчамига қараб иш тутмаганлар ва олдиндан муқоваларни тайёрлаб қўйишаверган. Хаттотларга кўчирилажак асар ва унга ишлатиладиган муқова ҳажми маълум қилиниб, маслаҳат билан китоб тайёрланган. Лавҳалари, ҳошиялари ишланиб тайёр бўлган китоб муқовасозга топширилган, у эса олдиндан тайёрлаб қўйган муқоваларидан олиб, китобни муқовалаган.

Хон фармони билан тайёрланган “Чор девон”нинг қолган № 7409, 1230, 1261 нусхаларининг муқовалари бир хунарманд Мулло Муҳаммад Юсуф саҳҳоф томонидан тайёрланган бўлиб, сартурунжларда унинг номи қайд этилган. Қолаверса, № 1230 ва № 7409 рақамли қўлёзмаларнинг муқоваси бир хил кўринишга эга бўлиб, картондан ясалган, ташқи томонига тўқ яшил рангли қоғоз ёпиштирилган, марказда йирикроқ турунж, ундан юқори ва қуйида сартурунжлар жойлашган. Қўш чизиқли, икки қатор тўғри чизиқлар билан хошияланган. Фақат, муқоваларнинг ички томонига ишлатилга матолари турлича кўринишда.

Мулло Муҳаммад Юсуф саҳҳоф яратган № 1261 рақамли қўлёзма муқоваси олдинги икки муқовадан фарқли равишда олд томони тўқ қизил рангда, марказда йирикроқ турунж, ундан юқори ва қуйида 2 тадан сартурунжлар жойлашган, энг юқори ва қуйи сартурунжларда саҳҳоф номи кўрсатилган.

Мулло Муҳаммад Амин ва Мулло Муҳаммад Юсуфлар хонликнинг энг мохир саҳҳофларидан бўлган, шу сабабдан ҳам улар яратган муқовалардан саройда кўчирилган асарларни муқовалашда фойдаланганлар.

Фикримизча “Чор девон”нинг қолган нусхалари ҳам булар каби йирик ва сифатли тарзда китобат этилган. Албатта, ушбу китобларни тайёрлаш хазинадан катта молиявий маблағни талаб этган. Шундай бўлсада хоннинг бу борадаги ташаббуси китоб кўчириш масаласига давлат миқиёсида катта эътибор берилганлигидан далолатдир.

Муҳаммад Алихон кўрсатмаси билан тайёрланган қўлёзмалардан яна бири “Девони Фузулий”дир. Мазкур девон машҳур хаттот Муҳаммад Шариф Дабир томонидан гўзал насталиқ хатида кўчирилган. Қўлёзма шу ҳажмдаги бошқа қўлёзмаларга қараганда анчайин оғир бўлиб, бунинг сабаби унга ишлатилган қоғознинг қалинлиги билан боғлиқ эди. Бунда 2 та бир хил рангли ва ўлчамли қоғоз бир-бирига ёпиштириш орқали ягона варақ хосил қилинган.

Девоннинг ички безаклари жуда ҳашамдор тарзда ишланган, 1 б ва 2 а бетларига олтин бўёқлар билан ўсимликлар ва гуллар тасвирланган фронтиспис ишланган. 2б, Заварақларда бўлса қўш унвон тасвири бор. Сахифаларига ишланган афшон бўлса хошияга тўлиғича тилла суви бериш билан хосил қилинган. Қўлёзма китоб 153 варақдан иборат бўлиб, унинг 2б-3а, 5а-23б, 42а-47б варақлари оралиғидаги сахифалар афшон қилинган, қолган саҳифалар хошиясига ишлов берилмаган. Айрим сахифалардаги матн орасига тилла суви билан афшон берилган. Муқоваси теридан ясалган, вақтлар ўтиб ташқи безаклари ўчиб кетган.

Муҳаммад Шариф Дабир кўчирганлиги тахмин қилинадиган Россия ФА СанктПетербург шарқ қўлёзмалари институти фондида сақланувчи D 400 рақамли Навоий, Фузулий ва Хон шеърларидан сайланма қилинган терма девонлар мажмуаси ҳам Муҳаммад Алихоннинг буйруғи билан яратилган эди.

Китоблар кўчиртиришнинг ташаббускори бўлган Муҳаммад Алихоннинг ўзи ҳам Қўқон хаттолик мактаби ривожига салмоқли ҳисса қўшган. Унинг қалами билан кўчирилган китоб ва қитъалар бизгача етиб келган бўлиб, Бухоролик хаттот Абдулғафур Раззоқ Бухорийнинг шахсий кутубхонасида Муҳаммад Алихон томонидан ёзилган 2 та мураққа сақланмоқда. Улардан бири 31х19 ўлчамли мураққадир, мураққа охирида “Камтарин Муҳаммад Алихон Ғозийнинг ёзуви” деб ёзилган. Бу – Муҳаммад Алихоннинг дастлабки хатларидан биридир. Бундан кейин ёзилган хатлари унинг машхур хаттот даражасига етганидан далолат беради. Иккинчи мураққа настаълиқ хатида 33х20 ўлчамда бўлиб, мураққа ўртасида хоннинг мухри бор ва қуйидаги сўзлар битилган: “Аллоҳнинг бандаларига меҳр-

шавқатда бўлиш улуғ давлатдир. Халойиққа тўғри сўз ва шавқатли бўл. Буни Муҳаммад Али ёзди”. Худди шу каби бир хил безак ва ёзувга эга бўлган мураққа намунаси Қўқон давлат музей қўриқхонасининг кўргазмалар залида намойишга қўйилган. Бундан ташқари Мадалихоннинг хаттот шогирдлари ҳам бўлган. Улардан бири Муҳаммадкомил Ҳисорий бўлиб, хон ҳузурида нафақат хаттотлик, балки қурол-аслаҳа ясаш, наққошлик, муҳр ясаш ва заргарликни ҳам икки йил давомида ўрганган экан.

Муҳаммад Алихон шеъриятда “Хон” тахаллуси билан ижод қилиб, ўзидан бой адабий мерос қолдирган. Унинг асарлари О.Жўрабоев томонидан тадқиқ этилган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар:

1. ЎзР ФА ШИ, қўлёзма, № 1709, 477 б-варақ.
2. ЎзР ФА ШИ, қўлёзма, № 1230, 443 а-варақ.
3. ЎзР ФА ШИ, қўлёзма, № 1709, 1б-варақ.
4. ЎзР ФА ШИ, қўлёзма, № 1709, 7б, 128б, 243б, 355б-варақлар.
5. ЎзР ФА ШИ, қўлёзма, № 150.
6. Жўрабоев О. Матннинг матн ости сирлари. – Тошкент: Тамаддун, 2017. – 73бет.
7. Аминов Х. Хоразмда китоб тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми – XX аср бошлари: ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди асосида): т.ф.н. ... дис. Тошкент, 2009. – 105бет.
8. Жўрабоев О. Хон адабий меросига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2017. – № 6. – Б. 124.
9. Шарқ хаттотлик ва миниатюра санъатидан намуналар (VII – XXI асрлар Мусанниф бисотидан). – Тошкент: O’zbekiston, 2011. – 212-213-бетлар.
10. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент: 2014. – 68-бет.
11. Жўрабоев О. Хон адабий меросига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2017. - № 6. Б. 124-127

2-SHU'BA. MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI TIZIMIDA ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI TARIXIGA OID MASALALAR

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEKISTONNING XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI. (XX ASRNING 60-80 YILLAR MISOLIDA)

Axmedov Sarvar Tulkinovich,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
Tel;90-867-10-81

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilm-fan sohasini rivojlantirishda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi (XX asrning 60-80 yillar misolida) xususida so'z boradi. Muallif arxiv ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida ilm-fan sohasini rivojlantirishda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi. (XX asrning 60-80 yillar misolida) bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, O'zbekiston, xorijiy mamlakatlar, hamkorlik.

Abstract: This article talks about the cooperation of Uzbekistan with foreign countries in the development of science (in the example of the 60-80s of the 20th century). Cooperation of Uzbekistan with foreign countries in the development of the field of science based on the author's archival data and existing studied and analyzed the specific aspects of scientific literature.

Key words: science, Uzbekistan, foreign countries, cooperation.

XX asrning 60-yillarga kelib O'zbekiston g'oyat kuchli, ilmiy potensialga ega bo'lib, bu narsa eng avvalo tabiiyot fanlari hamda ilmiy-texnikaviy sohalarga taalluqli bo'lgan. .

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tashkil etilganidan keyin Respublikada ilm-fan jadal sur'atlarda, izchillik bilan rivojlana boshladi.

Tabiiy fanlar sohasida ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy obro' qozongan Astronomiya observatoriyasi, Botanika bog'i, seysmik stansiya singari ilmiy muassasalar ish olib borgan. Shuningdek, Akademiya tarkibiga ekologiya, kimyo, botanika institutlari ham kiritildi. Bu institutlarning tegishli bo'limlaridan tashqari yana tuproqshunoslik. zoologiya hamda geotexnika laboratoriyasiga ega bo'lgan fizika va matematika sektorlari ham mavjud bo'lgan.

60-yillarning boshlarida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining 15 ta ilmiy-tadqiqot instituti xorijiy mamlakatlardagi ilmiy muassasalar bilan ijodiy hamkorlik o'rnatdganlar. Ular tomonidan 27 ta mavzu va muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borildi. Bu ishlarni o'simlik moddalari kimyosi instituti, yadro fizikasi, matematika, fizika-texnika, elektronika, kibernetika va boshqa institutlar, ayniqsa, samarali ravishda amalga oshirganlar. Chunonchi, Bioorganik kimyo instituti biologik fizika muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Bu ishda Bratislavadagi Slovakiya Fanlar Akademiyasining normal va patologik fiziologiya instituti, Vengriya Fanlar Akademiyasining Biologiya instituti, Belgraddagi Biologik tadqiqotlar instituti, Varshavadagi Biokimyo va biofizika instituti, Sofiya Tibbiyot Akademiyasi kimyo va bioximiya kafedrasining olimlari ishtirok etdilar.

Toshkentdagi eng keksa ilmiy muassasalardan hisoblangan. Astronomik observatoriya (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Astronomiya instituti) olimlari birinchilar qatorida xalqaro ilmiy aloqalar o'rnatishga kirishdi. Xususan, mazkur institutning Vaqt laboratoriyasi Vegmorning qit'alar harakati to'g'risidagi gipotezasini tekshirish maqsadida o'tkazilgan 2-va 3- xalqaro konferensiya ishida ishtirok etdi.

Shunigdek, O'zbekistonlik galaktikalar va yulduzlar tadqiqotchilari dunyoning astronomik ta'lim muassasalariga ega bo'lgan barcha davlatlar bilan aloqa olib borishgan. Toshkentlik astronomlar Amerikaning "Sakramento-Pi!!" rasadxonasidan tahsil olishgan.. Xalqaro geofizika

yilida (1957-1958) quyosh kuzatuvlari haqidagi film. U ko‘plab mamlakatlar olimlari, jumladan, yirik ilmiy markaz – Toshkent rasadxonasi xodimlari bilan birga olingan kadrlarni montaj qilgan.

1960-yilda O‘zSSR Fanlar akademiyasi Mintaqaviy va eksperimental tibbiyot instituti endemik bo‘qoq kasalligi laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari doktori Yahyo To‘raqulov Fransiyada bo‘ldi. Parijda biokimyogar Jan Rosh tomonidan olib borilgan qalqonsimon bez gormoni tadqiqotlari bilan tanishdi. Qalqonsimon bez kasalliklarini davolashda radioaktiv yod dozalarini aniqlashning O‘zbekistonda ishlab chiqilgan fransuz usuli fransuz olimlari uchun yangilik bo‘ldi.

Xorijiy biokimyogarlarga professor To‘raqulovning AQShda nashr etilgan, bo‘qoq va qalqonsimon bezning normal holatidagi bezlarning endokrinologiyasining muhim masalalaridan biriga bag‘ishlangan kitobi yaxshi ma’lum.

Yerning sun’iy yuldoshlarini kuzatish bo‘yicha xalqaro dasturini bajarish ishida ishtirok etadi. Kitob shahridagi, shuningdek Maydanak yasi tog‘idagi Xalqaro kenglik stansiyasi dunyodagi eng yaxshi kuzatish punktlari sifatida tan olingan. Kitob shahrida 1975-yilda Seysning ikki yoqlama astrografi o‘rnatildi. Astronomiya observatoriyasining ilmiy xodimlari xorijiy mamlakatlardagi kuzatish stansiyalariga ham safarga chiqishgan. Antarktik zonadagi Kergelen oroliga joylashgan kuzatish punkti ana shunday eng mashhur stansiyalardan biridir. Bu yerda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Astronomiya institutining ilmiy xodimi B.M.Ivanov bir yillar mobaynida kuzatishlar va ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi.

1976-1982 yillarda ilmiy adabiyotlar almashinuvi bilan jahondagi turli mamlakatlarga 500 ga yaqin kitob junatilgan. O‘zbekiston FA asosiy kutubxonasi orqali dunyodagi 40 dan ziyod mamlakatlarda joylashgan 325 ilmiy markaz bilan kitob almashib turish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Chunonchi, Fransiyada bo‘lib o‘tgan atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishga bag‘ishlangan I Xalqaro konferensiyada hamda ilmiy tadqiqotlarda radioaktiv izotoplardan foydalanish bo‘yicha jahon kongressi ishida, sanoatda katta nurlanish manbalaridan foydalanish masalalari bo‘yicha Polshada bo‘lib o‘tgan Xalqaro konferensiya ishida O'zFAning prezidenti U.O.Orifov ishtirok etdi. So'ngra u Daniyada bo‘lib o‘tgan fizik tadqiqotlarda radioizotoplardan foydalanish bo‘yicha Xalqaro konferensiyada ilmiy axborot bilan chiqdi.

Sovet O‘zbekistoning xalqaro ilmiy aloqalarini rivojlantirishda, dunyo olimlari va mutaxassislari bilan yaqindan ilmiy aloqa o‘rnatish, o‘zaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlashda O’zbekiston Fanlar akademiyasi alohida rol o‘ynagan.

1969-yilda O’zbekiston FA ilmiy tekshirish instituti va muassasalari kapitalistik va rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgan 76 delegatsiya 174 olim va mutaxassisni qabul qildi. Delegatsiya tarkibida GDR, Chexoslavakiya, AQSH, Yaponiya, Braziliya, Tunis, Kanada, Shrilanka va boshqa mamlakatlardan kelgan olimlar bo’lgan.

1970-yilda O‘zbekiston Fanlar akdemiyasi 135 nafar chet ellik olim va mutaxassis mehmon bo‘lib kelgan. Ular O‘zbekiston Fanlar akademiyasida olib borilayotgan ilmiy ishlar bilan, respublikamizning fan va texnika tarqqiyoti sohasida erishgan muvaffaqiyatlari bilan yaqindan tanishdilar. Chet ellik olim va mutaxassislar O’zbekistonda fan va texnikaning barq o‘rib rivojlanayotganligini, o‘zbek olimlarining jahon fani taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissalarini o‘z ko‘zlari bilna ko‘rib hayratda qolishgan. “Men, -dedi atom elektr energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik direktori Zigvard Eklund.–O‘zbekiston olimlarining ilmiy tekshirishlarini aniq metodlar asosida olib borayotganligidan hayratda qoldim. O‘zbekiston o‘zining ilmiy muassasalari bilan atomchi olimlarning xalqaro hamkorligini rivojlantirishda muhim rol o’ynashi mumkin”.

Ayni paytda, respublikamiz olim va mutaxassislari xalqaro ilmiy konferensiyalarda, simpoziumlarda ma’ruza o‘qishda, u yoki bu mamlakatga texnika yordam ko‘rsatishda, ilmiy tajribalarni chet ellik olimlar bilan o‘rtoqlashishda, fan va texnika rivojlanishida birgalashib hamkorlik qilishda faol ishtirok etishgan. Shu maqsadda 1969-yilda O’zbekiston FAning 42 olimi xorijiy mamalakatlarga yuborildi.

Masalan, O‘zbekistonda SSR FA akademigi F.I.Rusanov va O‘zbekiston SSR FA muxbir a’zosi I.R. Raykova Amerkada o‘tkazilgan XI Xalqaro botaniklar kongressida ishtirok etdi. 1970-

1972 yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 70 ga yaqin olim va mutaxassisi jumladan, SSSR FA akademigi, O‘zbekiston SSR FA Prezidenti O.S. Sodiqov, akademiklar – H. U Usmonov, F.A Mavlonov, B.K. Qabulov, S.A. Azimov, Yo. X. To‘raqulov, K.S. Ahmedov, S.X. Sirojiddinov, S. Yunusov va boshqa respublikamizning o‘nlab yirik olimlar Angliya, AQSH, Pokiston, Hindiston, Fransiya, Yaponiya, Chexoslavakiya, Ruminiya, Bolgariya, Shvetsiyada o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy kongresslarda, simpozimlarda katta taassurot qoldirdi.

Keyingi bir necha yil ichida 200 dan ortiq O‘zbekiston olimlari 40 dan ortiq xorijiy mamlakatlarda bo’lib, 50 dan ortiq ko‘proq ilmiy anjumanlarda, kengashlarda ishtirok etishdi va ma’ruzalar qilishdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston olimlarining ijtimoiy fanlar bo'yicha hamkorlik aloqalari taraqqiy etdi. Respublikamizning ko‘zga ko‘ringan faylasyflari, tarixchi, sharqshunos, til va adabiyotshunos olimlari bir necha mamlakatlarda chaqirilgan ilmiy kongresslarda ishtirok etishdi, ilmiy axborotlarning ko‘p qismi chet tillarda - ingliz, fransuz, nemis va boshqa xorijiy tillarda nashr etildi.

1972-yilda O‘zbekiston SSR FA muxbir a’zosi, tarix fanlari doktori R.H.Aminov Bolgariya Xalq Respublikasida O‘rta Osiyo respublikalarida fan taraqqiyoti to‘g’risida ma’ruza o‘qigan. O’zbekiston SSR FA Til va adabiyot instituti sektor mudiri, Sharq adabiyotiga doir materillar yig’ish uchun qo’shni Afg’onistonning qator shaharlarida bo‘lgani. O’zbekiston SSR FA muxbir a’zosi M.K. Nurmuhamedov Italiyada o‘tkazilgan lingvistlarning XI xalqaro Konressida qatnashdi va ilmiy ma’ruza qilgan.

1973-yilda O’zbekiston FA vitse-prezidenti, akad. I. M. Mo‘minov rahbarligida falsafa fanlari doktorlari M.Baratov, B. Ismoilov va fan nomzodi A. sharipov va boshqalar Bolgariyada chaqirilgan faylasuflarning xalqaro simpoziumida faol ishtirok etishgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining ijtimoiy fanlar bo‘yicha xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlantirishda Sovet Ittifoqida yirik sharqshunoslik markazlaridan biri bo‘lgan O’zbekiston SSR FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti katta rol o‘ynagan. Institutning chet el sharqshunoslari va sharqshunoslik ilmiy tekshirish markazlari bilan doimiy aloqlari tobora kengayib borgan. Respublikamiz sharqshunoslarining Sharq xalqlarining o‘tmish madaniyatini o’rganishda va hozirgi zamon Yaqin va O’rta Sharq xalqlarining tarixi, madaniyati va iqtisodiy taraqqiyotini o‘rganishda erishgan muvaffaqiyatlari chet el olimlari tomonidan yuqori baholangan.

Atoqli hind olimi Bombay universitetining professori A.R. Desay bu haqda shunday degan edi: “O‘zbekistonlik hamkasblarimni hindshunoslik sohasidagi ajoyib ishlar hind olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etmoqda. Men Toshkentda bo‘lgan vaqtimda sovet sharqshunolarning ilmiy ishlari keng ilmiy asosda, Sharqshunoslik institutining kutubxonasida saqlanayotgan unikal hujjatlar va boy qo’lyozma manbalar asosida olib borilayotganligiga ishonch hosil qildim”. O‘zbekiston SSR FA Sharqshunoslik instituti jahondagi qariyib barcha sharqshunoslik ilmiy markazlari bilan ilmiy aloqa o‘rnatgan. Institut olimlarning ko‘plab ilmiy mahsulotlari Afg’oniston, Hindiston va bosha xorijiy Sharq mamlakatlarining vaqtli matbuotida bosilib turadi.

1971-yilning o‘zida Sharqshunoslik institutiga 20 dan ortiq davlatdan, AQSH, Dogamiya, Gvineya Respublikasi, Yaman Arab Respublikasi, Eron, Quvayt, Yaponiya, Angliya, GDR, Afg'oniston va boshqa mamlakatlardan olim va jamiyat olimining ilmiy ishlari bilan tanishdi. Bundan tashqari institutga chet mamlakatlarning davlat va hukumat boshliqlari, jumladan Fransiya, Hindiston prezidentlari va boshqalar mehmon bo‘lib kelishgan. Sharqshunoslik institutining ko‘plab ko‘zga ko‘ringan sharqshunos olimlari, jumladan, tarix fanlari doktori S.A. Azimjonova, filologiya fanlari doktori U.I.Karimov, tarix fanlari nomzodi M.M. Xoshimov, filologiya fanlari nomzodi O. Usmonov va boshalar Hindiston, Eron, Afg’oniston, Fransiyada chaqirilgan sharqshunoslarning xalqaro Kongresslarida faol ishtirok etishdi va ilmiy ma’ruzalar bilan chiqishdi.

1971-yilda O’zbekiston SSR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi yo‘li bilan respublikamizning 114 olim mutaxassis va stajyorlari xorijiy mamlakatlarda tashrif buyirishgan. Bulardan 33 nafari sotsialistik mamlakatlarga, 12 kishi kapitalistik va 69 nafari rivojlangan davlatlarga bo‘lishgan.

O'zbekiston taraqqiy etgan va rivohlanayotgan Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan bo‘lgan fan, texnika aloqalarini rivojlantirishgan va mustahkamlangan Respublikamizning universiteti va boshqa oliy o‘quv yurtlari ham salmoqli hissa qo‘shdi. Respublikamiz qator oliy o‘quv yurtlari 1961-yildan boshlab Evropa, Amerika, Osiyo va Afrikada oliy o’quv yurtlari bilan mustahkam aloqa o‘rnatishgan.

Masalan, Toshkent Davlat universiteti Fransiya, Avstraliya, Birma, Hindiston, Marokash, Nepal, Indoneziya, MAR kabi mamlakatlar universitetlari bilan doimiy aloqada bo‘lib kelgan. O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarining o‘qituvchi va professorlari xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilayotgan turli xalqaro ilmiy kongresslarda, simpoziumlarda faol ishtirok etgan. Ular ilmiy komandirovkalar, ishlab chiqarish amaliyotlari, ilmiy stajirovka va ma’ruzalar o‘qish uchun chet mamlakatlarga tez-tez tashrig bo‘yirishgan. 1969-yilning o‘zida ana shu maqsadlar uchun respublikamiz oliy o‘quv yurtlarining dotsent va professorlaridan 42 kishi ilmiy komandirovka bilan chet mamlakatlarga yuborildi. Shulardan Toshkent chet tillar pedagogika institutining o‘qituvchilari A. Abduazizov, B. A. Xonxo'jaev, M. Abdurazzoqov, Samarqand Davlat universitetining nemis tili o’qituvchisi R. Mamatov va boshqalaring o‘zlarining til bilmini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish maqsadida AQSH Angliya, Fransiya, GDR va boshqa mamlakatlarga uzoq muddatga ilmiy xizmat safarlariga yuborilgan.

Toshkent Davlat universitetining dotsentlari Y Qo‘shmurodov, U. Musayev, U. Qoriyev, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining dotsenti R.G.Mahkamov ilmiy ish qilish maqsadia GDR, Vengriya, Misr Arab Respublikasi va AQSHga yuborildi. Toshkent rus tili va adabiyoti institutining kafedra mudiri prof A. Rustamov o’zbek tilshunosligi bo‘yicha ma’ruza o‘qish uchun Qohira universitetiga, ToshDU prof. S. Mirkomolova esa Katmandu (Nepal) universitetiga taklif qilindi. ToshDU Sharq fakultetining professor-o'qituvchilaridan prof. R. T. Aulova R. Muhammadjon va boshqalar Hindistonning Dehli universitetida ilmiy stajirovkani o‘tadilar.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish joyizki, O’zbekistonning ilm-fan sohasidagi xorijiy davlatlar bilan xalqaro hamkorligi XX asrning 60-yillaridan rivojlana boshlandi va bu aloqalar O‘zbekistonda fan sohasidagi oldinga siljishlarni boshlab berdi va ko‘plab olimlarning chet el mamlakatlari olimlarining ilm-fan sohasidagi ilmiy yutuqlaridan foydalanish, o‘rganish va amaliyoga joriy qilinishida o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalangan manba va adabiyotlar ro’yhati.

1.Mirzaqulov .A. O‘zbekistonning xalqaro aloqalari. (1960-1980 yillar). 1993. -B.22.

2.Маннонов Б, Нишонов М Ўзбекистон ССРнинг чет мамлакатлар билан иқтисодий ва маданий алоқалари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1964. -Б.40-45.

3.O‘z MA, R-2732-fond, 1-ro’yhat, 9-ish, 9-varaq

4.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining joriy arxivi.

5. Общественные науки в Узбекистане. – 1983. 11-15.Б.

O‘ZBEKISTON SANOATIDA AMALGA OSHIRILGAN TADBIRLAR VA ULARNING NATIJALARI (1925 – 1941 yy)

Mamatqulov Bekzod
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi,
Qarshi shahridagi Prezident maktabi
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada, O‘zbekistonda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning oqibatlari (1925 – 1941 yy) ni ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: og‘ir sanoat, trikotaj, kimyo sanoati, xalq xo‘jaligi, yalpi mahsulot, oziqovqat sanoati, fabrika.

Abstract: In this article, the implementation of the policy of industrialization in Uzbekistan and its consequences (1925-1941) were scientifically analyzed.

Key words: heavy industry, knitting, chemical industry, national economy, gross product, food industry, factory.

O‘zbekistonda 30-yillarda ham sanoat qurilishi sur’atlarini asossiz ravishda jadallashtirish tendensiya davom ettirildi. Respublika iqtisodiyotining mamlakatning asosiy paxta bazasi sifatida ixtisoslashuvchi yanada kuchaytirildi. Shuningdek, to‘qimachilik, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati, ipakchilik, uzumchilik va umuman qshloq xo‘jalik mahsulotlraini qayta ishlash korxonalarini ko‘paytirish vazifalari qo‘yildi. O‘zbekistondagi sanoat korxonalari asosan Markaz manfaatlariga muvofiq tashkil etilib, mintaqa aholisi uchun zarur bo‘lgan zavod va fabrikalar qurish masalasi hech kimni qiziqtirmadi.

Urushdan oldingi besh yilliklar davrida sanoatning xalq xo‘jaligida egallagan salmog‘i 1928 yildagi 43% dan 1940 yilda 70% ga yetdi. Ammo sanoat Markaz tasarrufida edi. Masalan, 30 yillarning o‘rtalarida O‘zbekistondagi korxonalarning 90% ittifoq tasarrufida bo‘ldi. Ammo sanoat korxonalari O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha joylashtirishda nomutanosibliklar mavjud edi.

Ko‘rilgan tadbirlar natijasida O‘zbekistonda 1937 yil yirik sanoat korxonalari soni 948 ta bo‘lsa, 1940 yil ular soni 1445 ta bo‘ldi. Bu yillarda sanoatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1487,7 mln rubldan 2189,9 mln rublga kupaydi.

O‘zbekistonda boy xom ashyo manbalari bo‘lishiga qaramay, XX asrning 30 yillariga qadar kimyo sanoati deyarli bo‘lmagan. Ohak kuydirish, o‘simlik buyog‘i olish, oltingugurt ishlab chiqarish, ishqoriy moddalar tayyorlash, sovdagarlik bilan shug‘ullangan bir qancha kichik korxonalra faoliyat olib borgan. Zamonaviy kimyo sanoatining vujudga kelishi Farg‘ona vodiysidagi Sho‘rsuv oltingugurt konining ishga tushirilishi bilan boshlanadi.

1932 yildan Chirchiq elektr kimyo kombinati qo‘rilishi boshlanib bu korxona 1940 yil oktabrdan mahsulot bera boshladi. Shu yili respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida kimyo sanoati hissasi 0,8% ga teng bo‘ladi, bu sanoat sohada band bo‘lgan ishchilar esa 1% ni tashkil etdi.

O‘zbekistonda sanoatning mashinasozlik sohasining asosan qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq tarmoqlarini rejalashtirishga e’tibor berildi. O‘rta Osiyodagi eng yirik sanoat korxonalaridan biri bo‘lgan. “Tashselmash” zavodi 1932 yil 1 mayda ishga tushirilib, 1934 yilda qurilishi montaj ishlari tugallandi va mazkur korxona ittifoqning og‘ir sanoat korxonalari ruyxatga kiritildi. Bu zavod O‘zbekiston mashinasozlik sanoatining to‘ng‘ich korxonasi edi. 1940 yil O‘zbekistonda mashinasozlik sohasida faqat qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq texnikalar ishlab chiqildi, ya’ni, 507 dona traktor seyalkasi 1903 dona traktor kultivatori, 5 dona paxta terish mashinasi ishlab chiqariladi.

Asosiy qurilish materialli hisobigan sement bu davrda asosan Toshkent va Farg‘ona ishlab chiqarildi. 1932 ming tonna, 1937 yil 138 ming tonna 1940 yil O‘zbekiston bo‘yicha 267,3 ming tonna sement ishlab chiqarildi. 1940 yil sementning 117,2 ming tonnasi Toshkent, 150,1 ming tonnasi Farg‘ona hissasi to‘g‘ri keldi.

Yana bir qurilish materiali, ya’ni pishiq g‘isht ishlab chiqarilishi viloyatlar bo‘yicha taqsimlaganda ham o‘rtadagi tafovut yaqqol namoyon bo‘ladi.

Masalan 1925-1926 yillarda O‘zbekistonda 12,9 mln dona g‘isht ishlab chiqarilib, uning 6,9 mln donasi Toshkent shahri, 2,6 mln donasi Samarqand, 1 mln donasi Andijon, 1,6 mln donasi Toshkent viloyati hisobiga to‘g‘ri keldi. Boshqa viloyatlarda 1940 yilda bu soha yo‘lga qo‘yilmagan. O‘zbekiston bo‘yicha 302,3 mln dona g‘isht ishlab chiqarilib, shuning 98,8 mln donasi toshkent viloyati 8,1 mln Toshkent shahri hisobiga to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rsatgich Buxoroda 9,6 mln dona, Qashqadaryoda 3,4 mln dona to‘g‘ri keldi. Xolbuki, 1939 yil aholi ruyxati bo‘yicha Toshkent viloyati aholisi 648 ming kishi Buxoro 481 ming kishi, Qashqadaryo viloyati 460 ming kishidan iborat edi.
Tirikotaj sanoati O‘zbekistonda 30-40 yillarda shakllandi.

1939 yil o‘rta Osiyoda eng yirik hisoblangan Qo‘qon paypoq fabrikasi ishga tushirildi. Urushgacha, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo‘qon, Urganch, Andijon tikuvchilik fabrikalari faoliyat olib bordi. Mazkur korxonalarda yillik ishlab chiqarish rejalari bajarilishi turlicha bo‘ladi.

Masalan, 1938 yil o‘zida tikuvchilik fabrikalarida reja 100,4% bajarildi. Ammo 3 ta tikuvchilik fabrikasi Buxoro tikuvchilik fabrikasi rejani 98,8% bajardi.

Fabrikada mehnatni to‘g‘ri tashkil etilmaganligi, xom ashyo ta’minotidagi kamchiligini rejasi bajarilmasligiga sabab bo‘ladi. Buxorodagi 2 tikuvchilik fabrikasi yillik dasturni boryo‘g‘i 37,2%ga bajardi. Bu korxonadagi eng asosiy muammo bu muhandis-texnik xodimlarning yetishmasligi bo‘ladi.

Yangi Urganch tikuvchilik fabrikasini yillik dasturini 89,4 % i bajardi. Bu fabrikalarda 98 ta har xil turdagi mahsulotlar ishlab chiqardi.

1937 yildan sun’iy ipakdan gazlamalar to‘qish boshlandiO‘zbekistonda qadimdan poyabzal tayyorlashning o‘ziga xos usullari va an’analari mavjud edi. Poyabzal tikuvchi kosiblar qulda aholining turli qatlamlari uchun har xil andozalarda etik, shaxsi, kavush tikkanlar. Birinchidan poyabzal fabrikasi 1927 yil Toshkent shahrida ochildi. 1935 yil shu shaharda ikkinchi poyabzal fabrikasi ishga tushirildi. Bu turdagi korxona 1938 yil Buxoroda, 1939 yil Samarqand, To‘rtko‘l, Termiz shaharlarda, 1940 yil Andijon, Qo‘qon, Chirchiq, Namangan shaharlarida kichik hajmdagi payabzal fabrikalari ishga tushirildi. Shu yili O‘zbekiston bo‘yicha 3823 ming dona payabzal ishlab chiqarilib, shundan 3025 minggi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelsa, Qashqadaryo 15 mingdona Surxondaryo 8 ming dona to‘g‘ri keldi. O‘zbekiston ittifoq tasarrufidagi sanoat korxonalariga nisbatan mahalliy sanoat korxonalariga kam mablag‘ ajratildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi aholi talabidan orqada edi. Mahalliy aholining ko‘pchiligining fabrikada tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyati cheklangan edi. Bu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini asosan shahar aholisi iste’mol qilib, qishloq aholiga esa o‘zlarin tayyorlagan mahsulotlarni iste’mol qilganlar.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari mahalliy xom ashyolar asosida mahsulot ishlab chiqardilar.

1936 yil Sovet davlatidagi eng yiriklardan biri bo‘lgan Kattaqo‘rg‘on yog‘-ekstraksiya zavodi ishga tushirildi.

1940 yil O‘zbekistonda 7 ta yirik un tortish korxonasi faoliyat olib bordi.. 1935-1940 yillarda G‘allaorol va Zarbdorda elevator quruldi.

Urushgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda konseryameve-sabzavot sanoati korxonalari asosan Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida joylashdi. 1938 yilda O‘zbekistonda 5,87 mln shsonili banka va 3,8 ming tonna quruq meva, 1940 esa 26,4 mln shsonili banka meva-sabzavot va 12,1 ming tonna quruq meva ishlab chiqarildi. Bu sohaga tegishli raqamlar tahlil etilganda. Viloyatlar o‘rtasidagi tafavut namayon bo‘ladi. Masalan, 1940 yil Toshkent viloyatda 23 ming shsonili banka konserva ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu qashqadaryo viloyatida 59 ming banka Qaroqalpog‘istonda 20 ming, Xorazmda 15 ming banka edi. Buxoro, Sirdaryo va Surxondaryo bu soha umuman yo‘lga qo‘yiladi.

O‘zbekistonda 30 yillarda sanoat qurilishi tarixi o‘rganilganda qo‘yidagi umumlashgan xulosalar chiqarish imkoni berdi:

Birinchidan, O‘zbekistonda urushdan oldingi yillarda ham sanoat sohasini jadallashtirish tendensiyasi davom ettirilib, respublika iqtisodiyotining sobiq ittifoqning asosiy paxta bazasi sifatidagi ixtisoslashuvi yanada avj oldirildi. Bu davrda O‘zbekiston xalq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarish salmog‘i yildan yilga oshib borgan bo‘lsada, ammo eng asosiy sanoat korxonalari ittifoq tasarrufida bo‘lib, u turdagi korxonalarning salmog‘i barcha sanoat korxonalarining 90% ni tashkil qildi.

Ikkinchidan, 30 yillarda O‘zbekistonda ko‘mirni sanoat usulida qazib olish, zamonaviy kimyo sanoati, trikataj sanoati, sun’iy ipakdan gazlama to‘qish kabi yangi sanoat tarmoqlari vujudga keltirildi.

Uchinchidan, urushdan avvalgi yillarda O‘zbekistonda besh yillik rejalarida tabiiy resurslarni qidirib topish yangi konlarni ishga tushirish eng asosiy vazifalar qatoridan joy oldi. Jumladan, O‘zbekistonda neft sanoatiga sarflangan. Mablag‘lar ko‘paytirilib, sohani boshqarish uchun yangi trestlar vujudga keltirildi. Xususan neft konlaridan Termiz foydalanishni kuchaytirish uchun neft tresti noyob metallarni qidirish topishdan va udan foydalanish muammalarini hal etish maqsadida “O‘zbeishchilsoniinoyob trest” tashkil etildi.

To‘rtinchidan, barpo etilayotgan sanoat korxonalri O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha joylashtirishda nomutanosibliklar mavjud bo‘ladi. respublikadagi sanoat korxonalarining 40% Toshkent, 31% Farg‘ona okruglari hissasiga to‘g‘ri keldi. Sanoat sohasini yo‘lga qo‘yish.masalan, Qashqadaryo, Surxondayo va Xorazm viloyatlarida sust edi. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sanoat koronalari ham asosan Toshkent va Farg‘ona viloyatlariga joylashtirildi.

Beshinchidan, bu davrda an’anaviy hunarmandlik soniyellari soni kamayib bordi. Xom ashyo defetsent bo‘lmagan hunarmandchilik tarmoqlari yo‘lga qo‘yilib, ular asosan qoldiq xom ashyolar hisobiga mahsulot ishlab chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2 jild. 342-bet.
2. Fayzulla Xo‘jayev Izb. Trudi V 3-x tomax T.2-T., 1972, s 247.
3. Неполнин В.Я.Исторический опыт строительства социализма в Узбекистане (1917-1937 гг.) Т., 1960, 275 с.
4. Народное хозяйство Узбекской ССр за 50 лет. 72-бет 5. Советской Узбекистан за 40 лет. Ст.сб. т., 1964, 67-бет.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, r -1624 jamg‘arma, 10-ruyxat, 131ish, 32-varaq

O‘ZBEKISTONDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA IJTIMOIY AHVOL VA SIL KASALLIGIGA QARSHI KURASHISH TADBIRLARI

Jomurodov Lazizbek Islomovich
Tadqiqotchi
Tel.nomeri:+998916360732
Jomurodovlaziz440@gmail.com

Annotatsiya: Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, sil kasalligi hozirda dunyodagi eng keng tarqalgan o‘lim sabablarining 10 tasidan biri hisoblanadi. Dunyo xalqlari barcha tarixiy davrlarda yuqumli kasalliklardan kuchli aziyat chekib kelgan. Bu turdagi kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishi bir qator omillar bilan bog‘liq bo‘lib, iqlim xususiyatlari, tabiiy sharoit, muayyan davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yechimi, xususan, davlat tamonidan sanitariya maorifi ishining yo‘lga qo‘yilishi, profilaktika tadbirlarining ahvoli, hududning ekologik holati, aholi yashash punkitlarining sanitariya holati, toza ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimining mavjudligi, yuqumli kasalliklarni davolash tadbirlarining uyushtirilishi shular jumlasidandir.

Kalit so‘zlari: Sil, Ijtimoiy kasallik, Epidemiya, Kitob, Urgut, Bulung‘ur, Palandara.

Annotation: According to the World Health Organization, tuberculosis is currently one of the 10 most common causes of death worldwide. Throughout history, people have suffered greatly from infectious diseases. The origin and spread of this type of disease are related to several factors,

such as climatic features, natural conditions, the solution of socio-economic issues in a particular country, especially the establishment of state sanitary education, the state of preventive measures, the ecological condition of the area, the sanitary condition of residential areas, the availability of clean drinking water and sewage systems, and the organization of measures to treat infectious diseases.

Keywords: Tuberculosis, Social disease, Epidemic, Kitab, Urgut, Bulung'ur, Palandara.

Bugungi kunda kurrai zaminda yuz berayotgan to‘fonlar, ekologik fojialar, qashshoqlik, ijtimoiy o‘zgarishlar sil kasalligining ko‘payib ketishiga va epidemiya holatiga aylanishiga olib kelmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining xabar berishicha, yer yuzida taxminan 2 milliarddan ko‘proq odam sil bilan zararlangan. Jahon ommaviy vositalarining ta’kidlashicha, silga qarshi kurashish olamshumul ahamiyatga ega. Insonlarning sil bilan kasallanishi qadim zamonlardan beri ma’lum. Inson umurtqa pog‘onasida sil kasalligi belgilari, bundan 5 ming yil oldin yashab o‘tgan odamlarda aniqlangan. Tibbiyot tarixida ko‘pgina mamlakatlarning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan qadimgi Misr tabobati alohida o‘rin tutadi. Qadimgi Misrda papiruslarda yozib qoldirilgan darmonni qurituvchi harorat, qon ketishi, nafas yo‘llarining kasalliklari haqida ma’lumotlar topilgan. Sil tayoqchasi aniqlanmasdan ancha avval, bu kasallikning yuqumli tabiatga ega ekanligi ma’lum bo‘lgan.

Bundan ming yil avval sil kasalligi yuqumli ekanligi, u kambag‘allar orasida og‘ir sharoitlarda yashovchilar orasida keng tarqalishi haqida dastlabki mukammal ma’lumotlarni buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino o‘z asarlarida keltirib o‘tgan. O‘rta asrlarda sil kasalligi juda keng tarqalgan bo‘lib, bu haqida tarixiy manbalarda ko‘p ma’lumotlar keltirilgan.

XX asrning 50-yillarigacha dunyo xalqlari orasida sil kasalligidan ko‘plab odamlar qirilib ketgan. Sog‘liqni saqlashning eng murakkab vazifalardan biri ijtimoiy kasalliklarga qarshi kurashdir. Sil kasalligi Ittifoq hududida keng tarqalgan kasalliklardan hisoblanib, hukumat tamonidan kasallikka qarshi kurash yuzasidan qator ishlar amalga oshirildi. Dispanserlar, davolash o‘rinlari hamda vrach-ftizatorlar soni o‘sib borishi bilan birga sil bilan kasallanganlar soni ham yildan-yilga ko‘payib bordi. Urushdan keying yillarda xalqning og‘ir mehnati, turar joy sharoitlarning yamonligi, ovqatlar sifatining pastligi, tibbiy xizmatning yamon yo‘lga quyilganligi, sanitariya maorifi ishidagi kamchiliklar sil kasalligining keng yoyilishiga sharoit yaratib berdi.

O‘zbekiston aholisining katta qismi qishloq joylarida istiqomat qilib, ularning uy joylaridagi yaratilgan sharoit talabga javob bermadi. Ayrim oilalarda tor uylarda o‘nlab kishilar yashashgan. Xonalar sanitariya qoidalariga javob bermadi. Urushdan keyingi og‘ir yillari respublika shahar va tumanlarida ijtimoiy-maishiy turmushning nochorligi sabab sil kasalligi keng tarqalib, epidemiya xarakterida bo‘lsa-da, davolash o‘rinlari tashkil etish ishi e’tibordan chetda qoldirildi. Masalan, 1945 yil oxirida Toshkent viloyatida sil kasalligini faqat 4 ta davolash o‘rni ishlab turdi.

Keyinchalik O‘zbekistonda sil kasalligini davolash muassasalari tarmog‘ini kengaytirishga bir qadar e’tibor qaratilib, ularning soni 1950 yil 78 tadan 1957 yil 184 taga ko‘paytirildi. 1950 yil O‘zbekiston viloyatlarining faqat yirik shaharlaridagina silga qarshi dispanserlar, tumanlarda esa sil kasalligi punktlari ish olib bordi. Sil kasalligi yuqumli dard bo‘lgani uchun ommasi o‘rtasida sanitariya maorifi faoliyatini kuchaytirib, uning oldini olishga erishish mumkin. Biroq qishloq aholisi orasida sanitariya maorifining yetishmasligi kasalliklarning tarqalishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bu haqda uzoq yillar Qashqadaryo viloyati sil kasalligiga qarshi kurash dispanserida bosh vrach vazifasida xizmat qilgan E.N.Gorelina quyidagilarni bayon qiladi: “Bizning ishimizda eng yetishmaydigan narsa sanitariya maorifidir. Aholining past madaniy saviyasi davolashprofilaktika ishlarini qiyinlashtirmoqda. Bemorlar kasalni o‘z vaqtidan ancha o‘tkazib, bizga murojaat qilishadi. Biroq vrachlar ularga vaqt o‘tgandan so‘ng yordam bera olmaydilar”.[7,7475-v.] Kasallanganlarning katta qismi qishloq aholisi hisobiga to‘g‘ri keldi. Ayniqsa Qashqadaryo viloyatining Kitob, Samarqand viloyatining Urgut tumanlari aholisi xotirasida sil kasalligi o‘zining fojiaviy izini qoldirdi. Ba’zi qishloqlarda aholining yoppasiga sil bilan kasallanish holatlari yuz berdi. Tuman rahbarlarining yuqori tashkilotlardan yordam so‘rab qilgan murojaatlari javobsiz qolib keldi.

Masalan, 1948 yil 13 mayda Kitob tumani partiya qo‘mitasining kotibi T.M.Husainov va tuman xalq deputatlar kengashining raisi A.T.Haitovlar O‘zbekiston KP Qashqadaryo viloyati qo‘mitasining kotibi B.Nosirov va viloyat ijroiya qo‘mitasining raisi S.Badalbaevga quyidagi mazmundagi xat yo‘llaydilar: “Kitob tumanidagi bir qator kolxozlarning mehnatkashlari bir necha yildan buyon sil kasalligi bilan og‘rib kelmoqda. Mazkur kasallik, bir tamondan, sog‘lam aholi uchun, ikkinchi tomondan, sil bilan kasallanganlar hayoti uchun ijtimoiy xavflidir tumanda sil kasalligini davolash uchun imkoniyat yo‘qligidan ko‘pchilik hayotdan ko‘z yummoqda. Sil bilan kasallanganlarni davolash va kasallik yoyilishining oldini olish maqsadida iltimos qilamiz: O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti orqali Respublika sog‘liqni saqlash ministrligiga zudlik bilan kolxozchilarni ommaviy tekshirishdan o‘tkazishni topshirish. Kitobda vaqtinchalik 50 o‘rinlik dispanserni moslashtirilgan binoda ochish va unga barcha zarur uskunalar, mutaxassislar bilan ta’minlanishini yo‘lga quyilishida yordam berishingizni so‘raymiz”. Biroq Kitob tumani aholisining talabi ko‘p yillar mobaynida yuqori tashkilotlar e’tiboridan chetda qolib keldi. 1951 yilning dastlabki 10 oyida Palandara qishloq kengashining o‘zida 208 kishi sil kasalligidan vafot etdi. 1951 yil dekabr oyiga kelib tumanning Palandara qishlog‘ida 25 o‘rinli sil kasalligi shifoxanasi tashkil qilindi.

Samarqand viloyati ham sil kasalligining asosiy o‘choqlaridan biri bo‘lib qoldi. 60-yillar o‘rtalarida har yili viloyatda 13000 kishi sil bilan ro‘yxatga olinib, har 10 ming kishiga kasallanish 80,7 tadan to‘g‘ri keldi. Kasallik ayniqsa, viloyatning Bulung‘ur tumani aholisi orasida keng tarqaldi. Mazkur tumanning “Lenin yo‘li”, “Leninobod”, “Kalinin” kolxozlari aholisi sildan kuchli zararlandi.[8,61-73-v.] Olib borilgan tadbirlar natijasida respublikada sil kasalligi ko‘rsatkichining bir qadar pasayishiga erishildi. Masalan, 1965 yil respublikada har 10 ming aholiga kasallanish 14,4 bo‘lsa, 1969 yil 8,5 ta bo‘ldi. Yillar davomida sil bilan kasallanish 21 foizga kamaydi. Aholining 60 foizi sil kasalligi bo‘yicha nazoratdan o‘tkazildi.

Xullas, O‘zbekiston sovet davrida qator ijtimoiy kasalliklarning asosiy o‘chog‘iga aylandi. Eng xavfli ijtimoiy kasalliklardan biri sil kasalligidan turli tarixiy davrlarda dunyo xalqlarining barchasi aziyat chekib, har yili jahonda sildan millonlab kishi vafot etgan. O‘zbekistonda silning keng yoyilishi asosan Ikkinchi jahon urushidan keying yillarga to‘g‘ri kelib, Qashqadaryo viloytining Kitob va Miroqi, Samardandning Urgut tumanlari kasallikning asosiy o‘choqlari bo‘ldi. O‘zbekistonda sovet davrida yuqumli kasalliklar keng tarqalib, vaqtivaqti bilan hududlarda epidemiyalar kelib chiqdi. Bunday holatning kelib chiqishiga avvalo, sanitariya maorifining sustligi, qishloq xo‘jaligida turli zaharli kimyoviy moddalarning talabdan ortiq darajada qo‘llanishi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash muammolarining keskinligi, ekologiyaning yomonlashganligi va boshqa shu kabi omillar sabab bo‘ldi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1.A.M.Ubaydullayev Sil kasalligi T-2009 (8-b.)

2.K.G‘.G‘aniyev Sil kasalligi T-1995 (5-b.)

3.Sh.E.Akbarova, R.A.Xakimova, D.K.Maxsumov Sil kasalligi va o‘pkaning boshqa nomaxsus kasalliklarida fitoterapiya A-2017 (10-b.)

4.G.E.Muminova O‘zbekistonda sovet davrida sog‘liqni saqlash tizimi tarixi(1917-1991 yillar) Dok.diss. T.-2018 (118,119,120-betlar)

5.Qashqadaryo viloyat Davlat arxivi, 193-fond,1-ro‘yxat, 80-yig‘ma jild (74-75 varaqlar)

6.O‘z.R.MDA. R-837-fond, 41-ro‘yxat, 316-yig‘ma jild. (61-73-varaqlar)

РОССИЯДАН АХОЛИНИ ТУРКИСТОН ЎЛКАСИНИНГ ЕТТИСУВГА КЎЧИРИШ МУНОСАБАТИ БИЛАН СОЛИҚ ТИЗИМИДА СОДИР БЎЛГАН ЎЗГАРИШЛАР

Ортиқов Умирилло Мамадиёрович
СамДЧТИ академик лицейи
тарих фани ўқитувчиси
тел: 90-503-17-25

Аннотация: Ушбу мақолада Россиядан ахолини Туркистон ўлкасининг Еттисувга кўчириш муносабати билан солиқ тизимида содир бўлган ўзгаришлар ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Россиядан ахолини Туркистон ўлкасининг Еттисувга кўчириш муносабати билан солиқ тизимида содир бўлган ўзгаришлар бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Россия, ахоли, Туркистон ўлкаси, Еттисув, солиқ тизими, ўзгаришлар.

Abstract: This article talks about the changes in the tax system due to the relocation of the population from Russia to Yettisuv, Turkestan region. Based on archival data, the author studied and analyzed the specific aspects of the changes in the tax system in connection with the migration of the population from Russia to Yettisuv, Turkestan, on the basis of available scientific literature.

Key words: Russia, population, Turkestan region, Yettisuv, tax system, changes

Европанинг мустамлакачи давлатларининг кўпчилигидан фарқли равишда Россия империяси ҳукумати босиб олинган ва олинаётган янги ҳудудларда кўчириб келтирилган русларнинг сонини кўпайтиришни у жойларни мустамлакага айлантиришнинг энг муҳим омилларидан бири, деб ҳисобларди. Россияга қарам бўлган Польша билан Финляндияда бунга деярли амал қилинмади, чунки чоризм, биринчидан, бу ҳудудларга рус фуқароларини жойлаштириш Европа давлатлари билан шусиз ҳам кескин муносабатларини янада оғирлаштириб юборишини; иккинчидан, Россиянинг мазкур мамлакатлар устидан ҳукмронлиги ғоят омонат бўлиб, узоқ давом этмаслигини тушунарди.

Туркистонда эса, гарчи XIX асрнинг ўрталарида бу ерда «экспансиянинг икки қарши оқими тўқнашган, Россия ҳам, Англия ҳам ҳужумкор сиёсатни ўтказиб келган, бунда ҳар иккиси ҳам бир-биридан чўчиб турган» бўлса-да, Россиянинг ҳарбий-сиёсий доиралари анчагина муҳим (босиб олинаётган ҳудудларнинг ёнма-ёнлиги, минтақадаги ўзаро ёвлашиб келган хонликлардан ҳарбий жиҳатидан устунлиги ва ҳоказо) устунликларга эга эди. Империя ҳукумати XIX асрнинг 60-йилларида, айниқса, крепостнойлик ҳуқуқ бекор қилингач, юз минглаб рус қишлоқ аҳолисини Ўрта Осиёга чиқариб юбориш йўли билан катта ҳаражатларсиз кўплаб ички губерниялар қишлоқларидаги ижтимоий-сиёсий кескинликни юмшатишга умид боғлаганди. Лекин муҳими, стратегик ташқи сиёсий мақсадлар билан бир қаторда, чоризмни бу минтақадаги катта мустамлакачилик режаларини амалга оширишга ундаган нарса бу ердаги моддий (табиий, ишлаб чиқариш) бойликларидан ҳамда меҳнат ресурсларидан метрополия манфаатлари йўлида фойдаланиш имкониятлари эди.

Кавказ, Волгабўйи, Сибирь сингари салоҳияти бой минтақаларни ривожлантиришга маблағ сарфлашни, ҳаракат қилишни истамаган, баъзан эса сарфлай ҳам олмаган Россия ҳукмрон доиралари Қўқон, Хива хонликлари ва Бухоро амирлигининг жуда қимматли моддий ва қишлоқ хўжалик хом ашёси манбаини (энг аввало пахта толаси ва ипакни) анча илгаридан мўлжаллаган эди. Гап яна шунда ҳам эдики, Россиянинг тўқимачилик яъни енгил саноати, асосан, АҚШдан келтириладиган пахта толасига қарам эди. Бироқ XIX аср ўрталарига келиб Россия-Америка алоқалари ёмонлашгач, Россия пахтани Европа мамлакатлари орқали сотиб олишга мажбур бўлди, бу эса жуда қимматга тушар эди.

Россиянинг ҳукмрон доиралари савдогарлар, сайёҳлар, табиатшунос олимлар ва бошқалар орқали ўлканинг моддий бойликларини, барча хўжалик, ҳарбий имкониятларини

пухта ўрганишди. Шу муносабат билан ўлкага ҳарбий юришлар бошламасдан аввал махсус экспедициялар уюштирилиб, Орол денгизи, тоғ массивлари, қишлоқ хўжалиги ва ҳунармандчилик ишлаб чиқариши, хонликлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар ўрганилди.

Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари, минерал хом ашё, нефть маҳсулотларини ишлаб чиқариш, уларни Россияга ташиб кетиш ҳамда метрополиядан Туркистонга қишлоқ хўжалик меҳнати қуроллари, хўжалик анжомлари, кийим-кечак, пойабзал, бошқа истеъмол молларини келтириш кўпайиб бораётган шароитда ўлка маъмурияти Россия буюмларига маҳаллий анъанавий ҳунармандлик ишлаб чиқаришининг рақобатини босиш учун кўп чоралар кўрди. Бу чоралар шаҳар ва қишлоқ ҳунармандларига солинадиган солиқни ошириш, ҳунармандлик буюмлари сотилишининг йирик ҳунармандлик устахоналари соҳиблари бўлган олибсотарлар қўлида жамланиши, Россия молларини вақтинча арзон нархда сотишдан иборат эди. Бундай мустамлакачилик тажрибаси ўн минглаб ҳунармандларнинг хонавайрон бўлишига, анъанавий ҳунарларнинг кўплаб турлари тугатилишига ҳамда туб аҳолига одатли бўлган арзон моллар ўрнига Россиянинг қимматроқ молларини сотиб олишга мажбур бўлишига олиб келди.

Рус аҳолисини Туркистонга кўчириб келтириб, туб аҳоли ҳисобидан ҳар томонлама жойлаштириш, шунингдек мустамлака сиёсати билан белгилаб берилган, маҳаллий халқларга ижтимоий, иқтисодий, миллий зулм ўтказиш, ўлка маъмуриятини жойлардаги бошқарув тузилмаларини, 50 минг кишилик армияни ва шаҳарларнинг янги, рус қисмларини туб аҳоли ҳисобидан таъминлашни кўзлагани мустамлакачиликнинг дастлабки давридаёқ солиқлар миқдори оширилиб, уларни йиғиш усулларининг кескинлашувига олиб келди.

Масалан, Туркистон области мавжуд бўлган даврдаёқ мустамлакачи маъмурият давлат ҳисобига ўтказилган бўлиб туб аҳолидан натурал солиқ тарзида олинган қишлоқ хўжалик маҳсулотларидан рус армиясини таъминлаш учун фойдаланганди. Туркистон генерал-губернаторлиги тузилиб, Тошкент, Авлиёота, Пишпак, Верний, Самарқанд, Хўжанд, Янги Бухоро, Чоржўй, Каттақўрғон, Ашхободда гарнизонлар қуриш, шунингдек қатор шаҳарларда рус қисмларини бунёд этиш зарурати туфайли мустамлака бошқарув тизими барпо этилгач, туб аҳолига янги солиқлар, бир йўла пул йиғимларини солиш, шу жумладан, илгари ҳеч качон солиқ ва ўлпонга тортилмаган вақф мулкларидан ҳам солиқ олиш бошланди.

Империя амалдорлари Туркистонни таъминлаш учун метрополия катта харажатлар қилаётгани ҳақида тез-тез гапириб, ҳатто 1868-1881 йилларда бу харажатлар мустамлакадан олинган даромадлардан 100 миллион сўмга ошиб кетганини ҳам таъкидлашганди. Ўлкани 1882 йилда тафтиш қилган сенатор Ф.К.Гирс Туркистонда кўрилган зиён йилига 85,5 миллион рублни ташкил этганини кўрсатиб, шу муносабат билан: “Бу пулларнинг катта қисми туб аҳоли томонидан эмас, руслар томонидан тўланган ва айни маҳалда, бу маблағ, шубҳасиз, Туркистон туб аҳолиси турмуш фаровонлигини оширган”, - деб ёзганди. Ф.Гирснинг бундай хулосаси у раҳбарлик қилган комиссия томонидан тафтиш жараёнида аниқланган қуйидаги фактлар билан асло қовушмайди: Тошкентнинг рус қисмини таъминлаш учун эски шаҳарда яшовчи ҳар бир оила 1879 йилда 31 тийиндан тўлаган. Гирснинг ўзи тасдиқлаганидек, “Янги Марғилон (Фарғона)дан 12 чақирим масофада жойлашган Эски Марғилонда истиқомат қилувчи, янги шаҳарга ҳеч қандай алоқаси бўлмаган аҳоли эса ҳар йили уни таъминлаш учун 9 минг рублгача тўлаган. Самарқанд эски шаҳар қисмининг даромади эса 4 минг сўмдан ошмасди, лекин Янги Самарқанднинг барча харажатлари унинг ҳисобидан қопланарди. Шаҳарлар харажатини қоплашнинг бундай йўли маҳаллий аҳолининг норозилигига сабаб бўлиб хизмат қилади. Бундай вазият икки халқни яқинлаштира олмайди”.

Сенатор Ф.Гирс, кейинчалик граф Н.Игнатьев комиссияси ҳам мустамлакачи маъмурият солиқлар соҳасида қилган янгиликлари адолатсизликдан иборатлигини тушунган ҳолда, илгари натурал тарзда мавжуд бўлган кўплаб солиқлар ўрнига туб ўтроқ қишлоқ аҳолисидан, кўчириб келтирилган руслардан эса улар ер бўлакларини олгач, беш йилдан кейин пул билан олинадиган ягона давлат ер солиғини жорий этиш тўғрисида таклиф киритишди. Бунда Туркистоннинг туб мусулмон аҳолиси, худди илгаридек, маҳаллий

маъмуриятни, қозиларни, бийларни таъминлаш учун закот, ўлпон тўлашда, шунингдек суғориш каналлари, ариқлари, тўғонлар, кўприкларни ва шу кабиларни тозалаш, тузатиш, қишлоқ маҳаллаларни ободонлаштириш ишларини мажбурият сифатида бажаришда давом этарди.

Мустамлакачи маъмурият ўлканинг кўчманчи, ярим кўчманчи аҳолисидан олинадиган солиқ ва ўлпонни қисқа муддатда ошириб юборди. Агар 1865-1867 йилларда ҳар бир ўтовдан олинадиган ўлпон йилига 1,5 рубль бўлган бўлса, 1868-1881 йилларда 2,75 рублга чиқди, 1882 йилдан эса 4 рубль миқдорида олина бошланди. Бундан ташқари кўчманчиларнинг ҳар бир оиласидан (аслида ягона оила бўлган катта ва кичик авлод оилаларини ажратган ҳолда) маҳаллий (земский) эҳтиёж учун (шу жумладан маъмурият маоши учун ҳам) 1,25 рубль ва кўпчилиги мутлақо алоқадор бўлмаган рус-тузем мактабларини таъминлаш учун 0,5 рублдан олинарди. Солиқ ва ўлпонлар тўлаш масаласида истисно йўқ эди.

Россия учун оғир бўлган даврларда (1891-1892 йиллардаги) ҳосилсизлик ва қурғоқчилик, Рус-япон уруши ҳамда Биринчи жаҳон урушидаги мағлубияти) Туркистон маъмурияти рус аҳолини ўлкага ёппасига жойлаштиришдан ташқари, рус армиясига ёрдам учун маҳаллий аҳолидан озиқ-овқат, арава, қўй, от, туяларни зўрлаб тортиб олиб, илгариги солиқлар миқдорини ошириб, янги солиқларни, яъни ҳарбий солиқни жорий этди. Мустамлакачилик йўли оғишмай амалга оширилганидан, юқорида келтирилган фактлардан ташқари, кейинги империя Вазирлар Кенгашининг Самарқанд, Сирдарё ва Фарғона областларида суғорма ерлардан олинадиган солиқни 100 фоиз, лалми ерлардан олинадиганини 50 фоиз ошириш тўғрисида чиқарган фармойиши ҳам далолат беради. Генерал-губернаторликнинг Каспийорти ва Еттисув областларига мазкур фармойиш таалуқли бўлмади, чунки у ерларда суғорма ва ишланма ерларнинг асосий қисми подшоликка, казакларга, мустамлака амалдорларига, армия зобитларига ҳамда кўчириб келтирилган русларга қарашли эди.

Хулоса сифатида шшуларни айтиш мумкинки қилиб, Россия аҳолисининг бир қисмини Туркистонга олиб келиш мезонларини ва ўлка туб аҳолисининг иқтисодиётини, шу аҳолини солиққа тортиш тизимидаги ўзгаришларни тадқиқ этиш қуйидаги асосий ходисаларга имкон беради:

-метрополиядан Туркистонга асосан рус, украин, белорус миллатларига, православ (насроний) динига мансуб Россия фуқароси бўлган сиёсий жиҳатдан ишончли, ўлкада мустамлакачилик манфаатини таъминлашда қатнашиш учун фуқаролик ва хўжалик қобилиятига эга бўлган, империя манфаатлари учун курашга тайёр турадиган кишилар кўчириб келтирилди;

-крепостнойлик ҳуқуқнинг бекор қилиниши Россиянинг кейинги ижтимоий, сиёсий ислоҳотлари сингари чала, империя ҳукмрон доиралари эса кучайиб бораётган ички, ташқи сиёсий муаммоларни ҳал қила олмасди. Шу боис мазкур мезонлардан баъзи чекинишларга йўл қўйилди. Бу чекинишлар, энг аввало, кўчириб келтирилганлар орасида қашшоқ рус деҳқонлари ҳамда шаҳар люмпенлари кўпчиликни ташкил қилганидан, шунингдек, Волгабўйи, Сибирь немислари, насроний айирмачилар (молоканлар, старообрядчилар)нинг ҳам кўчирилишига расман рухсат берилганидан ҳамда XX аср бошида айрим (асосан, Еттисув ва Сирдарё) областларга Болтиқбўйидан полякларнинг кўчирилишида намоён бўлди;

-50 минг кишилик рус армиясини сақлаб қолиш, ошкора мустамлакачи, буюкдавлатчилик-шовинистик ҳокимият тизимини яратиш, туб аҳоли юқори қатлами муайян қисмининг лоқайдлиги сабабли чоризм деярли 600 минг десятина суғорма ерни ҳамда деярли 2 миллион десятина ишланмайдиган лалми ерларни зўрлик билан тортиб олиб, бу ерларга ҳамда Туркистон шаҳарларига метрополиядан 800 мингга яқин рус деҳқонларини, казакларни ва шаҳар камбағалларни кўчириб келтириб жойлаштиришга эришди;

-Туркистонда Россия империясининг ҳарбий-сиёсий ҳукмронлигининг қарор топиши, Бухоро ва Хива устидан унинг протекторатини ўрнатилиши, маҳаллий савдосаноат доиралари

фаолиятининг чекланиши, қолаверса, Россия тадбиркорларини, банкларини қўллаб-қувватлаш сиёсати ўлка иқтисодиётини, айниқса, қишлоқ хўжалигини метрополия саноатининг тўқимачилик, енгил, металлургия, нефть ва бошқа тармоқлари тузилишини ўзгаришига ҳамда ихтисослашувига олиб келди. Туркистон, Бухоро амирлиги, Хива хонлиги ҳудудларининг катта қисмининг Россия билан темир йўл орқали боғланиши, областлар ичида ҳарбий аҳамиятга ҳам эга бўлган темир йўл шахобчаларидан ташқари, тармоқланган темир йўлнинг бунёд этилиши эса Туркистон ҳамда бошқа минтақаларни арзон қишлоқ хўжалик ва минерал хом ашёси сотиб олинадиган ҳамда Россия маҳсулотлари нисбатан қиммат сотиладиган бозор сифатида эксплуатация қилишнинг муҳим омилига айланишига хизмат қилди;

- империя ҳукмрон доираларининг мустамлакачилик, буюкдавлатчилик сиёсати Туркистоннинг туб аҳолисини кўп минг кишилик рус армияси, ҳокимият ва бошқарув органлари аппаратини, кўчириб келтирилган русларнинг имтиёзли ижтимоий аҳволини таъминлайдиган даражадаги ҳажмга, хусусиятга эга бўлган солиқ тизимига тортишда янада чуқурроқ намоён бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. История дипломатии. Т.2. – М. – Л., 1945, С. 26.
2. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского эмирата. – Ташкент, 1958. С. 106.
3. ЎзРМА., И-1-жамғарма, 11-рўйхат, 4476-иш, 186-варақ.
4. Гирс Ф. Отчет о состоянии Туркестанского края. – СПб., 1883. С. 306.
5. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной графом К.К.Паленом. Т.8.–
6. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период), С. 98.

SCIENTISTS AND STUDENTS DURING THE SECOND WORLD WAR IN UZBEKISTAN: THE GROWTH OF SCIENTIFIC AND LITERACY LEVEL

Salomov Ismoil
The teacher of Karshi Irrigation and Agrotechnologies Institute

Abstract: This article provides information about the changes in science in Uzbekistan during the war years, scientific innovations made by scientists of the Academy of Sciences of the USSR, researchers and professors of higher education institutions. In particular, efforts were made to cover innovations in agriculture, industry, including heavy industry, chemistry, geology, pharmaceuticals, meteorology and others. There was also information about the work done with the evacuated scientists.

Keywords: Science, scientific innovation, Academy of Sciences, chemistry, pharmaceuticals, geology, HPP, Higher education institutions, medicines, research institutes

The war exacerbated the problem of the interdependence of science and industry, and demanded a clear and rational coordination of efforts in the relevant branches of science. Special commissions have played an important role in coordinating the efforts of scientists to carry out defense tasks. They comprehensively and expeditiously solved complex and diverse problems facing the scientific community, involved specialists from various departments, and the plans drawn up by scientists were mobilized for scientific and technical assistance to the military economy and the front. “In those turbulent years, when the fate and future of mankind were being decided, Uzbekistan became a solid supply base for the front. During the terrible years of the war, our country has shown

its high humanistic qualities. He sheltered thousands of people of different nationalities brought to Uzbekistan, showed compassion and humanity, and shared his last bread with them. "Tashkent has once again proved in practice that it is a city of bread and Uzbekistan is a country of kindness."

During the war, science was to help develop social relations, create new jobs, and solve problems in various spheres of life. In order to meet the needs of the front in a short period of time, it was necessary to turn the country's scientific research into a military one. One of the most difficult and large-scale tasks is to transfer research to the military, and the Academy of Sciences of the USSR and its branches, in particular, the Academy of Sciences of the Uzbek SSR, played an important role in solving it. At the beginning of the war, the Central Asian republics had three branches and one base of the USSR Academy of Sciences, which were the headquarters of science throughout the country. In total, there are more than 130 research institutions in the region, which employ more than 4,000 researchers. In Uzbekistan, Tajikistan and Kyrgyzstan alone, 3,331 researchers worked. Of these, were doctors of sciences, candidates, professors and associate professors.

Reconstruction of research on the basis of militaryization also played an important role in the Uzbek SSR. 2512 scientists working in the Uzbek branch of the USSR Academy of Sciences and higher educational institutions of the republic, including 400 local scientists, 16 academicians, 5 of them Uzbek, 20 corresponding members of the USSR Academy of Sciences, including 3 Uzbeks, 510 professors, 627 associate professors, 395 assistants, 485 teachers, 176 senior researchers and 283 junior researchers. From the very beginning of the war, the thematic plans of scientific research were revised in order to provide the highest level of scientific and practical assistance in the formation of scientific institutions and their budgets in Uzbekistan, as well as to meet the needs of the country's defense. The Academy of Sciences of Uzbekistan and research institutes of the republic have played an important role in this. On July 1, 1941, a joint meeting of the Presidium of the Uzbek branch of the USSR Academy of Sciences and the party organization was held. The meeting discussed the issue of "scientific and practical assistance to the front." The meeting agreed to significantly increase spending in order to solve defense problems faster, to reduce budget expenditures that are not related to the country's defense. All this allowed to save 750 thousand soums and spend them on solving defense problems In the early days of the war, scientists of the Research Institute of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR developed "Cutting procedure and norms of manual control of the process", "Gate molded sand deposit", "Methods of cultivation and drying of sugar beet", "Coke extraction from local coals"","" Norms of design and construction of structures during the war "," Search for solid materials for fuel oil reservoirs "and other issues. Approved by the People's Commissariat of the USSR Glavneft. In the autumn of 1941, 1 Academy of Sciences of the Allied Republic, 31 universities and 7 military academies were relocated to Uzbekistan from the western regions of the country, 17 of which were located in Tashkent.

Academy of Sciences of the Byelorussian SSR, Moscow State Planning Institute, Odessa Institute of Water Transport, K.A. Moscow Agricultural Academy named after Timiryazev, USSR Academy of Sciences, Institute of Oriental Studies, History, World Literature, Economics and Law, Soil Science, Central Research Institute of Malaria and Medical Parasitology, Leningrad Polytechnic Institute, Kiev Industrial Institute, Kharkiv Railway l Institute of Transport Engineers, Moscow Institute of Architecture and Textile, Leningrad Conservatory and others. Scientists from the relocated institutes, together with Uzbek scientists, have done a great deal to study and develop the use of local raw materials and subsoil resources. In particular, the Faculty of Chemistry of the Central Asian State University has done a lot. In a very short time, a chemical laboratory was set up to produce special chemicals for 100 people to work in two shifts. He produced IK boxes for the Red Army. University management mobilized students into special productions with reduced working hours by grouping them together. As production managers, university staff G.V. Lazurevskiy, Z.M. Manulkin, and as laboratory director, V.I. Dulov was appointed. Employees of the Faculty of Chemistry became the initiators and organizers of the pharmaceutical industry. During the war, the laboratories of the Faculty of Chemistry produced about 50 drugs (caffeine, streptocide, sulfazole, comfort camphor

bromide, etc.) and special reagents. Prof. I.P. Under the leadership of Sukervanik, as a result of active research by S. L. Gusinskaya, the production of diesel fuel was launched at the oil refinery. For this work, I.P. Sukevanik was awarded a cash prize of 2,500 rubles. In addition, the Department of Organic Chemistry (Central Asian State University), headed by IP Sukervanik, played a major role. The team of scientists of the department developed a method for the formation of nicotinic acid from anabasine sulfate. At the university meeting on December 28, 1943, the assistance of chemists was discussed, mainly by the Department of Analytical Chemistry (Head of the Department I.T. Talipov) for "Podyomnik", "Elektrostanok" and other plants. It was noted that the production of steel, cast iron, various alloys and various materials was of great importance. In 1943 alone, more than 1,000 analyzes and experiments were conducted. Geologists of the Central Asian State University headed by Professor AS Uklonsky, BN Nasledov, VI Popov are active in the search for new types of raw materials for Tashselmas, Rostselmash and a number of similar plants, local materials, especially molded sand and the creation of ferrous metallurgy base in Uzbekistan. participated. For the evacuated carborundum plant in Tashkent, the Department of Mineralogy made proposals on the raw material base for carborundum production. Some employees of the university were hired on a special assignment from the People's Commissariat of Defense. By order of the head of the authorized state defense committee, the head of the department of petrography and lithology, prof. VI Popov was invited to study and search for special strategic raw materials for the North Karatag geological expedition.

Despite the war, geological theories were successfully developed at the Department of Petrography and Lithology, making the university one of the largest scientific and geological centers in the country. The scientific work of the Department of Higher Plants of the Central Asian State University was of great importance for providing the front and the national economy with the necessary things. Scientists of the department studied the problems of Central Asian vegetation, as well as the development of pasture and plant resources. Caffeine extraction from tea powder of Samarkand tea packaging factory has been developed. Based on this, caffeine was extracted from tea waste during the war. A method of separation of anabasine lupine mixture was developed, which was used to obtain sodium lupinate (a substance that has analgesic properties). This was one of the greatest achievements made for the front. Scientists of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR have completed a large-scale research work on the "Scientific basis of the electrification of the Uzbek SSR." On the recommendation of scientists and scientists, no wood was used in the construction of Farhod HPP, as the board was replaced with broken stone concrete. Along with blasting, the method of soaking the soil was also widely used. At the same time, the productivity of miners has increased by 10-15 times. The soil at the Lower Bozsuv HPP was removed by blasting. This saved 16,000 manpower. A doctoral program has been established at the Central Asian State University and the Academy of Agriculture to train scientific personnel on the basis of local and evacuated scientific institutions. Samarkand

Medical Institute named after KA Timiryazev, Moscow Zootechnical Institute resumed the training of graduate students. It should be noted that special attention was paid to the training of local staff. For example, the Tashkent State Pedagogical Institute had 36 graduate students, 20 of whom were Uzbeks. As of November 1, 1944, 117 graduate students were studying at the Central Asian State University, the largest scientific center of the republic, including 65 Uzbeks. The scientific advisers of the postgraduate students were mainly local scientists and well-known scientists and specialists from Moscow and Leningrad: Corresponding members of the USSR Academy of Sciences NK Piksanov, SB Bakhrushin, EZ Vertelye, VF Shishmaryov, literary critic Y. Chukovsky, Professors MO Eichengolts, DD Blagov, N.A. and others.

During the war, along with scientists from Moscow and Leningrad, there were also members of the Kiev FA. Well-known scientists such as academicians of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR, doctors of physical and mathematical sciences, professors TN QoriNiyazov and TA Sarimsakov, doctors of geological sciences, professors HM Abdullayev and AS Uklonsky continued

their scientific work as academicians of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. Representatives of the scientific community evacuated during the war made a significant contribution to the scientific and practical activities of the Central Asian State University. The evacuated scientists and leading scientists of the university carried out major research work. Through the organization of expeditions in the desert pastures, new territories were developed, pest research was successful, physics and geophysics, synoptic and dynamic meteorology (since November 1, 1943, Prof. V.A. Giorgio was appointed head of the newly established department of synoptic-meteorology), many achievements in the field of history, philology, archeology. At the same time, the Academy of Sciences of the USSR, scientists of higher educational institutions, researchers of research institutions have achieved such great success. Firstly, research has helped to solve problems in the national economy, agriculture, industry, society, education, and secondly, it has helped to raise science to a new level of development.

SOURCES AND LITERATURE:

1. Archive of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. Resolutions of the Central Asian State University (SAGU) of 1943
2. Abdurahmanov E. The contribution of scientists of the Central Asian republics to the front. “Fan”, T. 1990
3. Shomukhammedov M., Dan Z. Tashkent University - the founder of science in Central Asia. Tashkent, 1980.
4. Kalimbetov J. The Communist Party of Uzbekistan in the struggle for the development of industry and transport during the Second World War Essays on the history of Tashkent University T., Uzbekistan. 1980
5. Soviet intelligence of Uzbekistan. Book 2. Tashkent. 1979 "Truth of the East"
6. Suvonova, D. K. (2023). GENERAL OVERVIEW OF CONTENT-BASED INSTRUCTION APPROACH (CBI) IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. GOLDEN BRAIN, 1(17), 374–380. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4102
7. Mahmadaminov Mirqosim. (2023). Types of textbooks: Crossref Doi: https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-51. IQRO, 4(1), 227–232. Retrieved from https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/1665

ҚАРШИ ШАҲРИДАГИ ТАРИХИЙ-МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАРНИ ҚАЙТА ТИКЛАНИШИ ВА ТАЪМИРЛАНИШИ ТАРИХИДАН

Самаров Фахриддин
ҚарДу таянч докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада Қарши шаҳридаги тарихий-меъморий ёдгорликларни қайта тикланиши ва таъмирланиши тарихи ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Қарши шаҳридаги тарихиймеъморий ёдгорликларни қайта тикланиши ва таъмирланиши тарихи бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Таянч сўз ва иборалар: Қарши шаҳри, қадимий, масжид, ёдгорлик, мақбара, обида, миллий қадрият, маданий мерос, тарихий объект, таъмирлаш, қайта тиклаш, мустаҳкамлаш.

Abstract: This article talks about the history of restoration and repair of historicalarchitectural monuments in the city of Karshi. Based on archival data, the author studied and analyzed specific

aspects of the history of restoration and repair of historical and architectural monuments in the city of Karshi on the basis of available scientific literature.

Key words and concepts: Karshi city, ancient, mosque, monument, mausoleum, national value, cultural heritage, historical object, repair, restoration, strengthening.

Ўзбекистон мустақилликка эришган дастлабки кунлардан бошлаб ўз тарихимиз, маданиятимиз, урф-одат ҳамда анъаналаримиз, шунингдек, ўтмишда юртимиз ҳудудида яшаб ўтган кўплаб буюк аллома ҳамда авлиёларимизга тарихига бўлган алоҳида эҳтиром, қолаверса, минг йиллар илгари юртимиз ҳудудиларида барпо этилган кўплаб тарихиймеъморий ёдгорликлар ва кўҳна иншоотлар тарихини илмий жиҳитдан ўрганиш ҳамда уларни таъмирлаш ва қайта тиклаш ишлар кенг миқёсда амалга оширила бошланди.

Бугун Ўзбекистон ҳудудлари бўйлаб жойлашган, узоқ тарихдан бизнинг давримизга қадар етиб келган кўплаб тарихий-меъморий иншоотлар, масжид ва мадрасалар, зиёратгоҳлар, карвонсарой ҳамда миноралар сақланиб қолган. Хусусан, айни вақтда мамлакатимизда жами 8, 200 мингтадан ортиқ маданий мерос объектлари мавжуд бўлиб, улардан 209 таси тўртта музей шаҳарлар – Хива шаҳридаги Ичан қалъа, Бухоро ва Шаҳрисабз шаҳарларининг тарихий марказлари ҳамда Самарқанд шаҳри ҳудудида жойлашган кўҳна ёдгорликлар ЮНЕСКО халқаро ташкилотининг Бутунжаҳон мероси рўйхатига киритилган [1. 173].

Қашқадарё вилояти ҳудудида бугунги кунда 1468 та маданий мерос объектлари сақланиб қолган бўлиб, минг афсуски, ўтмиш мерос дурдоналари бўлмиш ушбу ёдгорликларнинг катта қисми собиқ шўролар тузуми давлати даврида етарлича муҳофаза қилинмаслиги ва ўз вақтида таъмирлаш, мустаҳкамлаш ишларининг бажарилмаслиги оқибатида ўзининг илк қиёфасини сақлаб қола олмаган. Ва айнан мазкур даврда нафақат воҳа ҳудудларидаги, балки республикамиздаги кўплаб археологик ёдгорликларнинг аксарият қисми йўқ бўлиб кетган.

ЎзФА Археология институтининг маълумотларига кўра, юртимиз ҳудудида 1960 йилларгача 30 мингтага яқин археологик манзилгоҳлар мавжуд бўлган бўлса, бузилиши, емирилиши ва экин майдонларига қўшиб юборилиши натижасида, XX асрнинг 80йиллари охирларида уларнинг сони 9 мингтага, 90-йиллар ўрталарида 5391 тани ташкил қилган[2. 6].

Юртимиз мустақиллигидан сўнг кўплаб соҳаларда бўлгани каби маданий мерос объектларини сақлаш ва муҳофаза қилиш борасида ҳам туб ислоҳотлар амалга оширилди. Энг аввало Бош қомусимиз ҳисобланмиш, Конституциямизнинг 49-моддасида кўҳна ва тарихий обида ҳамда ёдгорликларни муҳофаза қилини бўйича қуйидагилар белгилаб қўйилган: “Фуқаролар Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий меросини асраб-авайлаши шарт. Тарихий, маънавий, маданий илмий ва табиий мерос давлат томонидан муҳофаза қилинади” [3. 24]. Шунингдек, истиқлолнинг дастлабки кунларидан бошлаб республикамиз ҳудудида жойлашган маданий мерос ёдгорликларини сақлаш, муҳофаза қилиш бўйича соҳага оид бир қатор қонун ва қарорлар қабул қилинган. Шундай ҳужжатлардан бири, 1992 йил 9 март куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг тегишли Фармойиши, 1992 йил 27 апрелда эса Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги фаолиятини яхшилаш ва унинг ташкилий тизимини янада такомиллаштириш тадбирлари ҳақида”ги 207-сонли қарори кучга кирган[3].

Қашқадарё вилояти ҳудудида жойлашган тарихий-меъморий ёдгорликларни таъмирлаш ва қайта тиклаш ишлари ушбу минтақадаги тарихий шаҳарларнинг юбилей саналари ҳамда воҳада ёшаб ўтган буюк сиймолар, мутафаккирлар, шайх ва пирларнинг таваллуд саналарини нишонлаш муносабати билан амалга оширилган. Жумладан, 2004 йилнинг кузидан бошлаб кўҳна Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини нишонланиш муносабати билан мозийда ушбу қадимий шаҳар ҳудудида барпо этилган ва бугунги кунга қадар етиб келган бир нечта тарихий иншоотлар қайта тикланиб, уларни таъмирлаш ва мустаҳкамлаш ишлари амалга оширилди.

Жанубий Ўзбекистоннинг энг қадимий шаҳарларидан бири бўлмиш Қарши шаҳри ҳудудида бугунги кунга қадар бир нечта эски масжидлар сақланиб қолган бўлиб, улардан бири Кўкгумбаз жоме масжиди ҳисобланади. Ушбу обида Бухоро хони Абдуллахон II (1557-1598 йй) томонидан бунёд эттирилган бўлиб, иншоотнинг барпо этилиш тарихини қадимшунос олим М.Е.Массон ҳижрий 999 (милодий 1590-1591) йилларга оидлигини ўз асарларида қайд этиб ўтган. Намозгоҳ Қарши шаҳри ва атрофдаги қишлоқлар аҳолисига жоме масжид сифатида хизмат кўрсатган бўлиб, байрамларда халқ сайиллари ҳам айнан шу жойда ташкил этилган.

Узоқ тарихнинг қимматли ёдгорлиги саналган мазкур обидага узоқ йиллар давомида етарлича эътибор берилмаслиги сабабли минг афсуски, ўтган XX асрнинг 80-90 йилларида ниҳоятда аянчли аҳволга келиб қолган. Шу ўринда шуни ҳам таъкидлаш жоизки 1957, 1971, 1975 йиллар давомида ёдгорликда қисман таъмирлаш ишлари амалга оширилган бўлсада, бу амалиётлар фақатгина қисман мустаҳкамлаш ишларидан иборат бўлган. Шунингдек, тарихий масжидда амалга оширилган бу амалиётлар малакасиз усталар томонидан олиб борилган.

Мазкур кўҳна иморатнинг XX аср 90 йилларидаги ҳолати ҳақида журналист С. Боймуродова ҳамда музейшунос С. Пўлатов ўзларининг “Муқаддас қадамжоларга айланса” номли мақоласида қуйидагиларни ёзганлар: “Айни пайтда вилоятимиздаги 80 % меъморчилик обидалари таъмирга муҳтож. Қашқадарё кўпригининг равоқлари чўкиб бормоқда. Шунингдек, XVI асрга оид бўлган Қарши шаҳридаги Кўкгумбаз масжидининг орқа томони ёрилиб, ичига сув кетмоқда [4]. Ушбу қадимий ёдгорлик мустақиллик йилларида ўзининг асл қадр-қийматини топди. 1996 йилда юртимизда буюк саркарда Амир Темур бобомизнинг 660 йиллигини нишонланиш муносабати билан Қарши шаҳри ҳудудидаги кўплаб тарихий-меъморий ёдгорликлар қаторида Кўкгумбаз масжидида ҳам кенг кўламдаги таъмирлаш ва қайта тиклаш ишлари амалга оширилди.

Ушбу қадимий иншоотда Самарқанд вилоятидаги “Меъмор-96” таъмирлаш устахонасининг тажрибали меъмор усталари томонидан бир қатор таъмирлаш ишлари амалга оширилган бўлса, иморатни мустаҳкамлаш, тарихий кўриниши сақлаб қолиш амалиётларида Шаҳрисабз шаҳридаги “Мерос” МЧЖ томонидан ишлаб чиқарилган анъанавий мусулмон ғиштларидан кенг фойдаланилган. Қарши шаҳрининг 2700 йиллик юбилейи муносабити билан 2005-2006 йилларда Кўкгумбаз масжидида кенг миқёсдаги таъмирлаш ва мустаҳкамлаш ишлари амалга оширилиб, тарихий иншоот бугунги кўринишдаги қадимий қиёфасига келтирилди [5. 146].

2004-2005 йиллар давомида қайта тикланган ва таъмирланган ёдгорликлардан яна бири Қарши регистони ҳудудида жойлашган Одина масжиди ва унинг яқинидаги қадимий сардоба ҳисобланади. Мазкур обида Қарши регистони мажмуига кирган йирик меъморий иншоотлардан бири ҳисобланиб, тарихий иншоотнинг кўриниши, ўлчамлари ва бошқа диққатга сазовор жиҳатлари ҳақида ҳам муҳим тарихий маълумотлар сақланиб қолган. Масжид ичидаги ибодат жойлари кенг, баланд, тепаси кичик гумбазчали ҳар-ҳар жойида қалин қилиб терилган ғишт устунлари бир-бирига равоқлар орқали туташиб кетган. Регистон майдонидан етти зина кўтарилиб, иншоот олдидаги майдонга чиқилган.

Одина масжидини барпо этилиш тарихи ҳақида таниқли адабиётшунос олим П.Равшанов Қарши тарихи китобида қуйидагиларни қайд этиб ўтган: Соҳибқирон Амир Темур 1385-1386 йилларда Қаршида қишлаб, унинг марказида йирик масжид бунёд эттирган [6.500]. Академик Б.Аҳмедов эса ўзининг «Амир Темур» тарихий романида Одина жоме масжидини бунёд этилиши бўйича қуйидагиларни ёзган: “Севикли хотини Бибихонимдан Қарши шаҳридаги бозор билан карвонсарой ўртасида бир олий масжид бунёд этишга қарор берганини эшитгач, Амир Темурнинг чеҳраси фахр ва ғурурга тўлгани ҳолда, завжасининг бу хайрли ташаббусини маъқуллагани”ни алоҳида тасвирлаган [7.361-362].

1938 йилда ушбу муқаддас қадамжо собиқ Совет хукуматининг махсус қарори билан бир йилда 150 нафар маҳкумни қабул қила оладиган қамоқхонага айлантирилади. Бироз

кейинроқ яъни қамоқхона хукуматнинг 1939 йилги қарори билан эса «Жазони ижро этиш бўлимининг 5-сонли тергов ҳибсхонаси»га айлантирилиб, юқоридаги қарорда 150 нафар маҳкум қабул қилиши белгиланган бўлсада, амалда унга бир йилда 600 дан 800 нафаргача маҳкум сиғиш сиғмаслигидан қатъий назар жазони ўтайверган [8].

Мустақиллик шарофати билан юртимиздаги тарихий меъморий ёдгорликларга ва маданий мерос дурдоналарига бўлган эътибор тубдан ўзгарди. Мазкур қадимий объектларни таъмирлаш ва қайта тиклаш ишлари кенг кўламда амалга оширилди. Жумладан, Одина жоме масжидида ҳам Халқаро ЮНЕСКО ташкилоти ҳомийлигида, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 29 сентябрдаги «Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида»ги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 26 июлда «Қарши шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорлари асосида кенг қамровли бунёдкорлик ишлари амалга оширилди [9]. Одина масжиди ҳудудидаги қамоқхона 2004 йилнинг охирларида бошқа жойга кўчирилди ҳамда қисқа вақт давомида обиданинг асл меъморий кўриниши қайта тикланди ва атрофлари тўлиқ ободонлаштирилди. Қарши регистон майдонининг жанубида XVI асрда Абдуллахон II томонидан бунёд этилган қадимий сардоба ҳам қайта тикланди.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 31 августда “Шаҳидлар хотираси куни” муносабати билан ўтказилган тадбирда берган тавсияларига кўра, Абу Убайда ибн ал-Жарроҳ мажмуасида фаолият кўрсатаётган Қарши Ду қошидаги “Қатағон қурбонлари хотираси” музейи Одина мажмуасига кўчирилди. Шунингдек, бугунги кунда мазкур тарихий қадамжода Қарши давлат университети ҳузурида ташкил этилган Тарих фанлари бўйича илмий даражалар берувчи илмий кенгаш ҳамда илмий семинар ўз фаолиятини олиб бормоқда.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, бугун ёш авлодни ватанпарварлик ҳамда бунёдкорлик руҳида тарбиялашда тарихий-меъморий ёдгорликлар ва муқаддас қадамжоларнинг ўрни беқиёсдир. Янги Ўзбекистонда учинчи Ренессанс пойдеворини яратишда юртимизда зиёрат туризми соҳасини ривожлантиришда тарихий-маданий мерос объектларини аҳамияти ниҳоятда катта эканлиги ҳисобга олиб уларни асраш, қайта тиклаш, мустаҳкамлаш, таъмирлаш ва келажак авлодларга асл ҳолатида етказиш бугунги кунда давлат сиёсати даражасига кўтарилганлигини таъкидласак асло муболаға бўлмас.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 464 б.
2. Қурбонова Г. Мозийдан садо. Тошкент, “Шарқ”, 2002 йил 2(18) сон. – 50 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2023 б-24.
4. https://lex.uz/ru/docs/2329020
5. Боймуродова С, Пўлатов С. Муқаддас қадамжоларга айланса. “Қашқадарё ҳақиқати”. 1991 йил 87-сон (12281).
6. Насриддинов Қ. Қарши тарихининг ривожланиш босқичлари. -Қарши, “Intellekt”, 2022. -268 б.
7. П. Равшанов. Қарши тарихи Тошкент “Янги аср авлоди”, 2006. - 647 б.
8. Б. Аҳмедов. Амир Темур (тарихий роман) Тошкент “Халқ мероси”, 1995 йил 636 б
9. Интернет манба (Шомдан тонггача тарихий видео фильм). 10. Интернет манба (лех.уз)

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVRDA O'ZBEKISTONDA NEFT-GAZ SANOATI HOLATI

Sattorov Ulug`bek Abdurazzoq o`g`li

Annatatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda neft-gaz sanoatining holati va uning o'rganilish masalasining yoritilishi, shuningdek, O‘zbekistonning neft-gaz sanoati sohasida Ittifoqning asosiy markaziga aylanishi haqidagi tadqiqotlar tahliliga qaratilgan.

Kalit so‘z: Neft, gaz, Ikkinchi jahon urushi, Sho’rtepa, Sho’rchi, Karim, Xo’jaxayron, Qoraxitoy, Janubiy Muborak, Shimoliy Muborak

Annotation: this article focuses on the analysis of the situation of the oil and gas industry in Uzbekistan and the issue of its study, as well as the analysis of studies on the transformation of Uzbekistan into the main center of the Union in the field of the oil and gas industry.

Key word: Oil, gas, Second World War, Shortepa, Shorchi, Karim, Khojakhairan, Karakhitay, South Mubarak, North Mubarak

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ham urushning og'ir oqibatlari respublika hayotining barcha sohalarida, shuningdek, sanoatda ham sezilardi. O‘zbekistonda sanoatni tiklash, aholini sanoat va oziq-ovqat mollari bilan ta'minlash uchun elektr energiyasi, yoqilg’i, shuningdek, malakali muhandis-texnik va ishchi xodimlarga ehtiyoj sezilardi. Bu murakkab masalalarni hal etish uchun O‘zbekistonning geografik holati, milliy an'analari, xalq manfaatlarini hisobga olib, uning xalq xo’jaligini rivojlantirishning aniq dasturlarini ishlab chiqish zarur edi. Ammo bunday bo'lmadi. Markazning manfaatlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish rejalari tuzildi.

Markaz rejalarida O'zbekistonni faqat xomashyo yetkazib beruvchi chekka o'lka sifatida qaraydi. Bu narsa O'zbekiston iqtisodiyotining aslida bir tomonlama rivojlanib borishiga olib kelgan. Bunda xomashyoni qayta ishlash korxonalari juda oz bo'lib, bu narsa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga xalaqit berardi. O'zbekistonninig gaz sanoati mo'staqil tarmoq sifatida XX asr 50-yillarining oxiri va 60-yillarning boshida vujudga keldi.

Bu sanoatning vujudga kelishiga oqibatida Samarqand-Qarshi iqtisodiy rayonidagi qazilma boyliklar ham nafaqat respublika, balki mamlakat manfaatlariga xizmat qildi. Respublikaning janubiy-g’arbiy qismidan ayniqsa, Qashqadaryo viloyatida qator tabiiy gaz konlari topilib, ulardan foydalanish tizimi yo’lga qo’yildi. Natijada O’zbekiston Ittifoqning asosiy yoqilg’i bazasiga aylanib bordi. O’z navbatida geologiya – qidiruv ishlari ham jadallik bilan davom ettirilib, 1950 - yillar oxiri 1960 yillar boshida Qarshi – Muborak dashtlaridagi bir necha maydonlarda yangi neft-gaz qidiruv vishkalari o’rnatildi. “Sho’rtepa”, “Sho’rchi”, “Karim”, “Xo’jaxayron”, “Qoraxitoy”, “Janubiy Muborak”, “Shimoliy Muborak” singari bir necha neft - gaz konlari aniqlandi. Jumladan, gaz zahirasi 65 mlrd. kubga teng bo’lgan Janubiy Muborak va Shimoliy Muborak konlari eng katta konlardan bo’lib. U 1958-yilda topildi. “Qarshineftegazrazvedka” trestining Hisoroldi Ekspeditsiyasi 1962-yilda Odamtosh konini topib, Hisor tog’ining janubiy-g’arbiy tizmalarida neft va gazning ko’pligi haqidagi qarashlarni to'g'riligini ko‘rsatdi. 1968-yilda shu tumandan Gumbuloq koni ham topildi.

1969-yilda “Qarshineftegazrazvedka” trestida ishlab chiqarishga ratsionalizatorlik va ixtirochilik takliflarini joriy etish bilan 1.2 mln. rublda iqtisodiy foyda olindi. 1970 yilda “Qarshineftegazrazvedka” tresti bo’yicha tabiiy gaz zapaslarini qidirib topish besh yillik rejasi 102 foizga, neft zahiralarini ko’paytirish 109,7 foizga bajarildi. Shuningdek, 7 ta konda neft va gaz borligi aniqlandi, 3 ta kon foydalanishga topshirildi, 1 ta kon parmalashga hozirlab qo’yildi.

1972-yil avgust oyida O’zbekiston KP Qashqadaryo viloyat partiya komiteti “Qarshineftegazrazvedka” tresti jamoasining to’qqizinchi besh yillikdagi ijtimoiy – iqtisodiy va texnika taraqqiyoti bo’yicha kompleks rejani ko’rib chiqib, uni ma’qulladi. Unga ko’ra kundalik va kelajakdagi ish rejalarini amalga oshirish tavsiya etildi. 1974-yilda “Qarshineftegazrazvedka”, “Buxoroneftegazrazvedka”, “O’zbekneftegeofizika” trestlari va Qoraqalpog’iston chuqur parmalash

ekspeditsiyasi bazasida Qarshi shahrida “O’zbekneftegazrazvedka” birlashmasi tashkil etildi. Birlashma tarkibiga parmalash tashkilotlaridan tashqari geofiziklar kollektivlari, Buxoro remont – mexanika zavodi hamda neft va gaz konlarini qidirib topish instituti kollektivlari ham kiritildi. Natijada O’zbekistonda qidiruv va razvedka ishlarini yanada tezlashdi.

1964-yilning 1-yanvarida “Sho’rtepa” koni negizida, Muborak temir yo’l vokzali yaqinida, 1957-1959-yillarda ochilgan “Sharqiy neft-gaz razvedka” korxonasiga qarashli binolarning bir qismida “Kogonneftgaz” boshqarmasi hisobida “Muborak” neft gaz qazib chiqarish koni tashkil etildi. O’sha yilning o’zida “Sho’rtepa”da dastlabki beshta neft-gaz quduqlari ishga tushirildi. Keyingi yili 10-12 ta quduq foydalanishga topshirildi.

1966-yili “Janubiy Muborak” konidan ilk bor gaz qazib olinib, “Shimoliy Muborak”da bir necha quduqlar burg’alandi hamda mahsulot qazib chiqarish uchun tayyor holatga keltirildi. 1966 yilda yirik zahiraga ega bo’lgan bu konlar negizida “Qashqadaryogaz” gaz konlari boshqarmasi tuzildi. Ishlab chiqarishga tayyor holatga keltirilgan mazkur konlardan mamlakat Xalq xo’jaligi ehtiyojlarida foydalanish maqsadida Rossiyaning Saratov shahridan gaz sanoatiga qarashli loyihalash va ilmiy tadqiqot instituti xodimlari qurilishi rejalashtirilgan “Muborak - Zirabuloq - Toshkent - Chimkent - Frunze (Bishkek) - Olma-ota” magistral gazoprovodi loyihasini ishlab chiqdilar. Uzunligi 1300 km.dan ortiq bo’lgan bu gaz quvuri qurilishi 1964yilda boshlanib, 1966 yilning oktyabr oyida uning Toshkentgacha bo’lgan qismi qurib bitkazildi. Keyinchalik Qirg’iziston SSSR va Qozog’iston SSRning janubiy viloyatlari ham bu gaz quvuridan foydalana boshladilar.

Janubiy Muborak va Shimoliy Muborak konlari gazi tarkibidagi gaz konlaridan olingan xom ashyoda kam miqdorda bo’lsada oltingugurt vodorodi borligi sababli uni qayta ishlash ehtiyoji bor edi. Ayniqsa, O’rtabuloq koni gazidan olingan namunalar ilmiy - tadqiqot institutlarida tekshirilganida, mazkur gaz koni tarkibida 4-5 foizgacha oltingugurt vodorodi ilmiy asoslangach, dashtda gazni qayta ishlaydigan inshoot qurishni taqazo etdi.

SSSR Gaz sanoati vazirligi Qarshi cho’lidagi “Muborak” naslchilik xo’jalik markaziga yaqin joyda gazni oltingugurtdan tozalovchi yirik korxona qurish loyihasini tayyorlab, uni hukumatga tasdiqlashga taqdim etdi. Katta mablag’ talab qilganligi sababli bu masala ancha vaqtga qadar hal etilmadi. Mutaxassislar tomonidan korxona qurilishiga ketadigan harajat tezda qoplanishi hamda oltingugurtning o’zi kimyo va mudofaa sanoati uchun zarur xom ashyo ekanligini asoslab berilganidan so’ng zavod qurilishiga ruhsat berildi. Mamlakatda bunday zavodlar kam bo’lganligi bois, zavodni qurish loyihasi Saratov shahridagi “Vostokgiprogaz”, Moskva “Giprogazochistka” institutlari olimlari va injener-texnik xodimlari tomonidan tayyorlandi. O.Jo’raqulovning yozishicha, zavod qurilishiga 88 mln. rubldan ortiq mablag’ sarflanishi belgilanib, zavod ishga tushgach bu mablag` ikki yarim yilda to’la qoplanishi hisoblab chiqildi.

1966-yil oktyabrda SSSR Gaz sanoati vazirligi “VNIPI gazdobicha” ilmiy - tadqiqot va loyihalash instituti zavod qurilishi bo’yicha tayyorlangan loyihani tasdiqlash to’g’risida qaror qabul qildi. 1967-yil avgust oyida O’zbekiston hukumatiga Qashqadaryo viloyati hamda respublika qishloq xo’jaligi vazirligiga Muborak gaz-oltingugurt zavodi majmuasi uchun yer ajratib berish to'g'risida farmon chiqdi. Farmon qabul qilingach, zavodni qurish uchun dastlabki quruvchilar kela boshladi. Gaz sanoati inshootlarini qurish, uy-joylar bunyod etishda katta tajribaga ega bo’lgan V.M. Kondruchuk boshchiligidagi “Buxaragaz promstroy” tresti hamda Qarshi, Samarqand va boshqa joylardan ko’plab quruvchilar Muborakka keldi.

Zavod to’rtta yirik qurilish tashkilotlari – “Buxaragazprostroy”, “Sredazneftegazstroy”, “Samarkandtransstroy” trestlar hamda “Qarshistroy” boshqarmasi quruvchilari ishtirok etdilar. “Zavod uchun Yugoslaviya, Ruminiya, GDR va Chexoslovakiyadan murakkab asbob-uskunalar keltirildi. Oltingugurt saqlaydigan maydonchalar, omborlar qurilib, oltingugurtdan tozalangan gazni sanoat markazlariga jo’natish uchun quvurlar yotqizildi. Gazdan oltingugurtni ajratib olish jarayoni suv bilan bajarilganligi sababli Yakkabog’dan Muborakkagacha 158 km. masofada katta quvurlar yotqizildi. Ketma-ket belgilanayotgan rejalar gazni qazib olish ishlarini yanada jadallashtirishni talab qilganligi bois tozalangan gazni 15 mlrd. kub.ga yetkazish maqsadida 1977-1978-yillarda ikkinchi

gazni qayta ishlaydigan korxona qurish belgilandi. Besh yillikning oxirida yana bitta ana shunday korxona qurish rejalashtirildi. 1976-yilda gazni yetkazishni yana qo'shimcha 1,6 mlrd. kub.ga yetkazish maqsadida "Sredazneftegazmontaj" ning 9-sonli tresti iyul oyida korxonani ta'mirlash ishlarini boshladi. Texnologik kalonnalarni almashtirish, apparatlarni, quvurlarni ta'mirlash ishlarini 7 avgustda tugatishi bellgilandi.

Umuman olganda, mahalliy va mamlakatning turli mintaqalaridan kelgan soha mutaxassislari uzoq yillar gaz konlarini qidirish uchun Qizilqum sahrolari va Qarshi cho'llarini sinchiklab o'rgandilar. Natijada, Qashqadaryo viloyatida gaz va neft konlarining ko'pligi neft qazib olishga ixtisoslashtirilgan mustaqil korxonalarni tuzishni kun tartibiga quydi. 1971 yilda Qarshida SSSR neft sanoati ministrligiga qarashli neft va gaz ishlab chiqarish boshqarmasi "Qarshineft" tashkil etildi.

1972-1985-yillar oralig'ida dunyodagi eng yirik inshootlardan biri Orenburg gazni qayta ishlash zavodidan so'ng ikkinchi o'rinda turgan Muborak gazni qayta ishlash korxonasi barpo etildi. Muborak gazni qayta ishlash korxonasi 1972 yildan boshlab mahsulot bera boshlagan bo'lsa, uning so'nggi qurilmalari 1973 yilda foydalanishga topshirildi. Zavod ishga tushgach, 220 ming tonna oltingugurt yetkazib beradigan yirik kombinatga aylandi. Loyiha bo'yicha 5 mlrd. kub. gazni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan zavodning birinchi navbatida barpo etilgan oltingugurtdan tozalash inshootlari 1976 yilda ta'mirlanishi natijasida yiliga 6.2 mlrd. kub. tabiiy gazni qayta ishlash quvvatiga ega bo'ldi. 1980 yillarga kelib yiliga 21 mlrd. metr kub. gaz qayta ishlov berish bilan birga 554 ming tonna oltingugurt, 6 ming tonnadan ko'proq gaz kondensati ishlab chiqarildi.

Bu davrda Qashqadaryodan topilgan gaz va neft konlari 52 tadan ko'proq bo'lib, mavjud konlar yirik gaz kondensat zahirasiga ega bo'ldi. Viloyatdagi Hisoroldi neft gaz hududidan topilgan Gumbuloq, Pachkamar, Qorayli, Sho'rtan, Shimoliy Sho'rtan, Omonota, Ko'kdumaloq, Jarquduq, Janubiy Tandirchi va boshqa maydonlardan topilgan gaz hisobiga tashkil topgan Sho'rtan gaz kompleksi va Ko'kdumaloq konlari respublikada emas, balki butun Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonida ulkan konlardan biri bo'ldi.

Biroq, topilgan bu boyliklarni ishlatishda ko'plab muammolar ham chiqib turdi. Masalan, birgina "Qarshineft" boshqarmasida o'rnatilmagan uskunalar 1976-yilda 47338 tani, 1977-yilda 96355 tani tashkil etgan. Ayni paytda, sovet davlatining yer osti boyliklaridan izchil foydalanish siyosati, oxiriga yetib bo'lmaydigan oqibatlarni keltirib chiqardi. 1982 yildan boshlab Sho'rtan gazenergokimyo kompleksini qurish uchun turli qaror va loyihalar qabul qilinishiga qaramay, belgilangan vazifalar to'liq amalga oshirilmadi, gaz konlari ochilib, mamlakat manfatlariga xizmat qilsada, ekologiyaga katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Muborak gazni qayta ishlash zavodida har yili 136 ming tonnadan ziyod zaharli gazlarning chiqarilishi yoki yoqib yuborilishi oqibatida viloyatning ko'plab rayonlaridagi aholi jabr ko'rgan. Bu yerlarda mevali daraxtlarni qurishiga, uzumlarni pishar-pishmas qurib qolishiga sabab bo'lgan bo'lsa, zavoddan chiqarilgan oqava suvlar atrof-muhitga salbiy ta'sir o'tkazib kelgan edi.

Xulosa qilib aytganda, urushdan keyingi yillarda tabiiy boyliklarni o'rganish rejali ravishda amalga oshirib kelindi. Gaz sanoatini rivojlantirish mamlakat xalq xo'jaligida g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli butun kompleksni ishlarini jadallashtirish uchun barcha sharoitlar yaratildi. XX asrning 50-80-yillarida olib borilgan geologik-qidiruv ishlari natijasida O'zbekiston ittifoqda tabiiy gaz zahiralari bo'yicha yetakchi o'rinlardan biriga chiqdi. Natijada tabiiy gaz resurslari asosida yangi yosh sanoat tarmog'i – gaz sanoati (gazni qazib olish va qayta ishlash) barpo etildi va gaz sanoati tarmoqlari ichida eng yetakchi bo'lib qoldi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, tahlil etilayotgan yillarda yangi konlarning ochilishi va korxonalarning ishga tushirilishi natijasida ish o'rinlari yaratilgan. Biroq, ularning faoliyati davomida tabiat va atrof-muhitga katta zarar yetkazildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Jo'raqulov O. Qudratli energiya manbai. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – B. 102.
2. Qashqadaryo gazi: bugun va ertaga // Hayot va qonun. 1992, №5.– B.57.

3. Mirzaakbarova R., Aliyev T. O‘zbekiston tabiiy gazi (Gaz sanoati ekonomikasining ba’zi masalalari haqida). – Toshkent: O‘zbekiston, 1974. – B.8.
4. Omonov O. Muborak gazni qayta ishlash zavodi – 35 yoshda. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. –B.15.
5. Petrov V. Rekostruksiya idet po grafiku, no yeye mojno i nujno uskorit // Pravda Vostoka. – Moskva, 1976. – S.76.
6. O‘z MA, R-2762-fond, 1-ro‘yxat, 1340-yig‘ma jild, 33- varaq.
7. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 22 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.

XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ОБЛАСТИДА ҚЎРИҚЛАШ БЎЛИМИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН

Джумабоев Иқболжон Бурханиллавевич
Андижон давлат университети
Ўзбекистон тарихи кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада XX аср бошларида Фарғона областида қўриқлаш бўлими фаолияти тарихи ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида XX аср бошларида Фарғона областида қўриқлаш бўлими фаолияти тарихи бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: XX аср, Фарғона области, қўриқлаш бўлими.

Abstract: This article talks about the history of the security department in Fergana region at the beginning of the 20th century. Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the history of the activity of the security department in Fergana region at the beginning of the 20th century on the basis of available scientific literature.

Key words: 20th century, Fergana region, security department.

XX аср бошларида Туркистонда маъмурий ва давлат муассасалари тизимидаги ўзгаришлар билан бир қаторда ички хавфсизликни таъминлаш органларида ҳам жиддий ўзгаришлар юз берди. 1907 йил бошида Москва ва бошқа шаҳарларда декабр қуролли қўзғолони мағлубиятга учрагач, чоризм бутун мамлакат бўйлаб қатағонларни кучайтирди. Полиция ўзбошимчалик билан меҳнаткашларнинг ҳаётий манфаатларига ҳужум даври бошланди, бу тарихда Столийпин режими деб номланган.

1907 йил 15 декабрда Ички ишлар вазирлигининг милиция бўлимининг махсус бўлим фаромойишига биноан Туркистон туман қўриқлаш бўлими ташкил этилди.

Қўриқлаш бўлими бошлиғи махсус бўлимнинг собиқ бошлиғи подполковник Николай Антонович Василев тайинланди. Унинг ёрдамчиси этиб жандарм штабсросмистр Келлер тайинланди. Бўлим таркибига қуйидагилар кирган: Бўлим таркибига суриштирув ишларини олиб бориш учун 3 нафар офицер, топшириқлар учун икки нафар мансабдор шахс, хат ташувчилар ва эркин ёлланма хизматчилар кирган. Биринчисининг ташқи кузатувига раҳбарлик қилган жандарм полиция бўлими ходими коллеж регистратори Ваганов, филерлар ёки ташқи кузатув агентлари отрядига раҳбарлик қилган.

Туркистон округи қўриқлаш бошқармаси расмий равишда Туркистон генерал-губернаторлиги девонининг бир қисми бўлсада, ички ишлар вазирлигининг милиция бўлими органи бўлган мустақил муассасанинг барча ҳуқуқларини сақлаб қолган. Улар ўз ишларида ички ишлар бўлимининг циркулярлари ва кўрсатмаларига амал қилганлар.

Туркистон ўлкасида, жумладан Фарғона областида кучайиб бораётган инқилобий юксалиш ҳокимиятни “ҳукуматга қарши” ташкилотлар билан курашишнинг янги усулларини излашга мажбур қилди.

Туркистон ўлкасида сиёсий қидирув ишларини яхшилаш учун ички ишлар вазирининг ўринбосари генерал-маёр Курловнинг буйруғи билан 1909 йилда Ашхобод ва Верний шаҳарларида Туркистон округи хавфсизлик бошқармасига бевосита бўйсунувчи иккита қидирув пункти ташкил этилди.

Шундай қилиб, Бўлимнинг фаолияти Каспийбўйи, Самарқанд, Семереч, Сирдарё ва Фарғона вилоятлари, шунингдек, мухтор Бухоро амирлиги ва Хива хонликларини қамраб олди.

Сиёсий тергов бўйича асосий иш тўлдирувчи детективлар томонидан амалга оширилди. Улар нафақат Туркистон ўлкасида, балки бутун Россия бўйлаб инқилобчилар ва “сиёсий жиҳатдан ишончсиз” шахсларга “ҳамроҳ” бўлган.

Қўриқлаш бўлими махфий агентларга катта эътибор қаратди, уларнинг маълумотлари юқори баҳоланган.

Филерлар кузататувдагиларнинг ҳар бир қадамини кузатиб борди: у ким билан гаплашди, нима кийган, кимлар билан учрашди ва ҳоказо. Улар ўз кузатишларини ташқи кузатувнинг махсус кундаликларига ёзиб юрганлар.

Ҳар бир ташкилотнинг ўз агентлари бор эди. Хавфсизлик бўлимига разведка маълумотларини этказиб бериш. Баъзи махфий агентлар бир вақтнинг ўзида иккита партия учун ишлаган.

Полиция департаменти хавфсизлик бўлимлари бошлиқларига "огоҳликни таъминлашнинг ягона ва тўлиқ ишончли воситаси сифатида ички ва махфий агентларни олиш ва сақлаш" ҳақида махфий кўрсатмалар юборди.

Махфий агентлар нафақат ўзлари аъзо бўлган ташкилотлар тўғрисида яширин маълумотларни пассив йиғиш билан шуғулланишган. Хавфсизлик бўлими томонидан ёлланган провокатор агентлар сиёсий партиялар фаолиятида фаол иштирок этдилар, ташкилотдаги сафдошларига хиёнат қилдилар, инқилобчиларни ҳибсга олиш ва уларга қарши қатағон қилишга ёрдам беришди.

Қўриқлаш бўлимлари тўғрисидаги низом шаҳарлардаги қидирув пунктлари бошлиқларидан келиб чиққан. Тошкент ва Ўрта Осиё йўллари жандарм темир йўл бўлимлари бошлиқлари Ашхобод ва Верний ҳар ой Туркистон хавфсизлик бошқармаси бошлиғига озиқлантирувчилар ва махфий агентлар томонидан тўпланган разведка маълумотлари тўғрисидаги ҳисоботларни тақдим этардилар. Улар қуйидаги ташкилотлар томонидан тузилган:

1. Социал-демократик
2. Социалистик инқилобчилар
3. Анархистлар
4. Бутуниттифоқ темир йўл иттифоқи
5. Ҳарбий ташкилотлар томонидан
6. Қурол-яроғ, қурол ва ўқ-дориларни яширин равишда сотиб олиш ва сотиш тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олган турли хил маълумотлар, сиёсий хусусиятга эга бўлмаган майда маиший жиноятлар.

Бундан ташқари, панисломистик ҳаракат кенг ёритилди. Маҳаллий миллат вакиллари орасида маҳаллий аҳолининг кайфияти ва тартибсизликлари, унинг Туркия ва Афғонистон билан алоқалари ҳақида мунтазам равишда маълумот берадиган махфий агентлар бор эди.

Фарғона областида уездлар назорат остидаги шахслар тўғрисида доимий равишда Туркистон қўриқлаш бўлимига маълумот бериб борган ва берилган топшириқлар ижроси юзасидан хисоботлар тайёрланган.

Фарғона области Қўқон уездида инқилобий харакатлар содир этиш учун сақланаётган қурол аслаҳа ва империяга қарши адабиётлар тарқала бошлади. Филерлар томонидан 1909 йил 23 июнда Қўқон темир йўл вогзалида топилган айнан инқилобий адабиётлар ва қурол аслаҳалар бунга мисол бўла олади. Бунда 12 дона призматик бомба, 3 дона патрон, 526 дона рисоладаги милтиқ ва ноқонуний адабиётлар топилди. Адабиётлар асосан қуйидаги мазмунда эди: “Бизга қандай ер қонуни керак”, “Жандармнинг ўғли”, “Одамлар ва фикр”, “Бизнинг ҳуқуқларимиз”, “Нега биз камбағалмиз”, “Швецария Эркин Халқ Республикаси” каби 200 дан зиёд адабиётлар аниқланди.

Қўриқлаш бўлими Фарғона областида социал-демократик ташкилотлар фаолиятига катта эътибор берди. Хавфсизлик бошқармасининг молиявий ҳисоботларига кўра, маҳаллий социал-демократик ташкилотларга аъзо бўлган махфий ходимлар социалистикинқилобчи, анархистик ва бошқа ташкилотларни ёпган махфий агентларга қараганда уч баробар кўп маош олганини кўриш мумкин.

Сиёсий "ишончсиз шахслар" ни аниқлаш ишида Бўлим турли хил усуллар ва усуллардан фойдаланган.

Хатлар тизимли равишда ўрганилди, почта бўлимларига келиб тушган хатларни йиғиш ва кўриб чиқиш. Агар хатнинг мазмуни шубҳали бўлса, у ҳолда қабул қилувчи яширин назоратга олинган.

Бош почта бўлимида 2 та махфий ходим ишлаган, улар доимий равишда Хавфсизлик бўлими бошлиғига ёзишмаларни этказиб беришган.

Фотосуратлар сиёсий характердаги тадқиқотларда муҳим рол ўйнади. Хатлар ва ашёвий далилларни қидириш мақсадида тарқатиш учун суратга олинди. Ҳибсга олинганлар профилда ва тўлиқ юзида суратга олинган.

Фотосуратлардан ташқари антропометрия (бурун, қулоқ, кўзнинг шакли ва кўриниши) ҳамда бармоқ излари (бармоқ излари)нинг илмий хулосаларидан фойдаланган ҳолда махсус бланкаларда юз ва тананинг қисмлари диққат билан тасвирланган. "Оғзаки портрет" тизими кенг қўлланилган.

Бўлим чет эл мавзуларига алоҳида эътибор берди. Туркистон ўлкасига келган ҳар бир хорижлик очиқ ва яширин кузатув остида бўлган.

Биринчи империалистик уруш бошланиши билан Бўлим инқилобий ташкилотларга босимни бироз юмшатди. Улар асосан ҳарбий асирларни кузатиб, аҳолининг урушдан норозилиги ҳақида хабар беришган. Филерлар маҳаллий аҳолининг урушдаги муносабати ҳақида маълумот тўплашган.

Болшевиклар бу вазиятдан унумли фойдаланиб, аҳоли ўртасида фаол ташвиқот олиб бора бошладилар.

1917 йил 7 мартда муваққат ҳукумат қарори билан Туркистон округи хавфсизлик бошқармаси тугатилди. Туркистон тумани қўриқлаш бўлими архивларини назорат қилиш учун махсус комиссия тузилди. Бўлимнинг зобитлари, терговчилари, махфий агентлари ҳибсга олиниб, судга тортилди.

Адабиётлар рўйхати:

1. И- 461-фонд, 1- руйхат, 1-иш, 2-варок.
2. И-461-фонд, 1- руйхат, 1-иш, 3- варок.
3. И-461-фонд, 1- руйхат, 985-иш, 35-36 вароклар.
4. И-461-фонд, 1- руйхат, 1-иш, 5- варок.
5. И-461-фонд, 1- руйхат, 1-иш, 6- варок.
6. И 461-фонд, 1- руйхат, 466-иш, 3 - варок.
7. И 461-фонд, 1- руйхат, 466-иш, 10-11 - вароклар

БУХОРО ХОНЛИГИ: ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА ОИД АЙРИМ МАЪЛУМОТЛАР (XVIII - XIX АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ)

Агзамова Г.А.
т.ф.д., профессор

Аннотация: Ушбу мақолада Бухоро хонлиги: қишлоқ хўжалигига оид айрим маълумотлар (XVIII - XIX асрнинг ўрталари) ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Бухоро хонлиги: қишлоқ хўжалигига оид айрим маълумотлар (XVIII - XIX асрнинг ўрталари) бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Бухоро хонлиги, қишлоқ хўжалиги, деҳқончилик.

Abstract: This article deals with Bukhara khanate: some information about agriculture (XVIII - mid-XIX centuries). Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the Khanate of Bukhara: some information on agriculture (mid-18th - mid-19th centuries) on the basis of available scientific literature.

Key words: Bukhara Khanate, agriculture, farming.

Бухоро хонлигида мамлакат иқтисодиётининг асосий соҳаларидан бири қишлоқ хўжалиги эди. Амирликда қишлоқ хўжалигининг асосини бошқа Туркистон хонликларида кузатилгани каби суғорма (оби ёки тўғай) ва лалмикор деҳкончилик ташкил қилар эди. Сунъий суғориладиган ерларда олиб бориладиган деҳқончилик интенсив, лалмикор ерларда юритиладиган деҳқончилик экстенсив характерга эга эди.

Қишлоқ хўжалигининг асосий тармоғи суғорма деҳқончилик бўлиб, амирликда сунъий суғорма тизимига асосланган ишлов бериладиган ва деҳқончилик олиб боришга яроқли ерлар кўп эди. Бу ерлар «сувли ер» деб аталиб, улар эгаллаган майдон лалмикор ерларга нисбатан катта эди. Бундай ерлардан йилда икки марта - баҳор ва кузда ҳосил олинар эди. Одатда бундай ерларга кузда буғдой, арпа экилиб, улар «кузги экин» деб аталган. Баҳорда бу ерларга экиладиган якинлар «баҳори» деб аталган.

Кузда экилган буғдой ва арпа йиғиб олинганидан сўнг бу ерларнинг нисбатан кичик қисмига мош, кунжут, жўхори экилган. Ернинг қолган катта қисмини 2-3 марта ҳайдаб, унга ноябр ойининг охири ва декабрда яхоб суви берилган ва баҳоргача шу тарзда қолдирганлар. Баҳорда эса унга донли ўсимликлар экилган.

Деҳқончилик юритишга яроқли кўпгина ерлар баҳорда ишлов берилмасдан қолиб кетар эди. Бундай тоифадаги ерлар маълум шахсларга узил-кесил бириктирилмаган бўлиб, кўп ҳолларда эгалари томонидан ташлаб кетилганида уларга бошқа деҳқонлар томонидан ишлов берилган.

XVIII-XIX а. биринчи ярмида Бухоро хонлигида етиштирилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари Аштархонийлар ва Шайбонийлар даврида етиштирилган маҳсулотлар билан деярли бир хил эди. Уларнинг ичида дон маҳсулотлари биринчи ўринни эгаллар эди. Амирлик далаларида катта ҳажмларда буғдой, шоли, арпа ва тариқ етиштирилган. XVIII асрнинг 70 - йилларида Бухорода бўлган Ф.Ефремов бу ерда жуда кўп миқдорда буғдой, жўхори, шоли, тариқ, арпа етиштирилиши қайд этган эди.

Хонликда шоли етиштиришга алоҳида эътибор қаратганлар. Миёнқол ва Шаҳрисабзда етиштирилган шоли жуда харидоргир ҳисобланган. Мамлакат ҳудудида шолининг турли хилларидан юқори ҳосил олинган. Жумладан, Пойарикда деҳқончилик билан шуғулланган қипчоқлар апрел-май ойларида экиладиган кўк-шоли, пушти рангли, дони думалоқ қизил шоли, дони думалоқ, сарғиш рангдаги марғали шоли, дони анча катта ва узунчоқ бўлган арпа шолиларни экканлар.

Шоли етиштириш жуда катта меҳнатни талаб қилган. Бу ўсимлик тури экиладиган ерлар дастлаб кеч кузда икки марта ҳайдалган. Баҳорда эса бу ерлар 6 мартадан кам бўлмаган ишлов берилган. Сўнгра бу ерларга сув берилиб, у кичик участкаларга ажратилган ва уларга 4-5 кун сувда сақланган шоли экилган. Дастлаб шоли экилган майдонлар 6-7 кун сув остида сақланган ва шоли униб чиқиши билан сув оқизиб юборилган. Сўнг тўрт кун давомида ернинг қуриши ва иссиши учун шолизорларга сув берилмаган. Шундан сўнг шолизорларга сув берилиб, ҳосил пишгунича бу ерлар сувда ушлаб турилган. Умумий ҳисобда бундай ерларда сув 80-90 кун ушлаб турилган.

Хонликда катта ҳажмларда маккажўхори ҳам экилган. Унинг, молларни боқишда ишлатиладиган, июнда пишадиган тури – симохи, августда етиладиган – чормоҳи ва октябрда йиғиб олинадиган аъло тури – шошмохи навлари экилган. Жўхорининг бу навлари уч ойда, тўрт ойда ва олти ойда ҳосил берган. Уларнинг ичида жуда юқори ҳосил берадиган олти ойлик маккажўхори муҳим ўрин тутган. Бу маккажўхори нави, одатда, апрель ойида экилиб, ҳосили октябрь ойида йиғиб олинган. Олти ойлик маккажўхори ҳам ўз навбатида бир неча турларга бўлинган. Улар жумласига калта-поя, йўғон-поя ва узунпоя навларини киритиш мумкин. Маккажўхорининг пояси чорвани боқишда, дони эса аҳоли катта қисмининг асосий овқат турларидан бири вазифасини ўтаган. Деҳқонлар кунжут ҳам экишган. Ундан озиқ-овқат ишлаб чиқаришнинг турли соҳаларида, хусусан, ёғ ишлаб чиқаришда унумли фойдаланганлар. Деҳқонлар, шунингдек, каноп ҳам етиштиришган.

Донли ўсимликлар куз ва баҳорда экиладиган турларига қараб «оқ» ва «кўк» экинлар деб аталган. Жумладан кузда экиладиган буғдой, зиғир ва бошқа экинлар «оқ экин», баҳорда экиладиган – шоли, тариқ, мош, нўход ва жўхори «кўк экин» деб аталган.

1776 й. маълумотларга кўра, хонликда шоли (биринж), буғдой (гандум), ловия, мош, нўход, тариқ билан бир қаторда арқон эшишда ишлатиладиган каноп, оддий зиғир, зиғирнинг индав деб аталган нави, кунжут, тамаки, рўян, пахта экишга ҳам катта эътибор қаратилган.

Ҳунармандчиликда талаб катта бўлган хом-ашё пахта эди. Уни мамлакатнинг жуда катта ҳудудларида маҳаллий аҳоли ўз эхтиёжлари ва сотиш учун етиштиришга ҳаракат қилган. Пахта етиштиришга хонликнинг Бухоро, Шаҳрисабз, Каттақўрғон каби вилоятлари ихтисослашган эди. Бу ҳудудларда ғўзанинг икки тури оқ ва тоза нави ҳисобланган «ғўзаи сафид» ҳамда бироз қизғиш рангдаги ғўза етиштирилган. Ғўза очилганида ундаги пахта момиғи ғўза билан бирга териб олинган ва сўнгра ундаги пахта ажратиб олинган.

Хонликда катта миқдорда тамаки ҳам етиштирилган. Бу борада айниқса, Ургут, Каттақўрғон ва Қарши атрофи машҳур эди. Уларнинг ичида, айниқса, Қаршида етиштирилган тамаки жуда харидоргир ҳисобланган. Дарғомнинг чап қирғоғи бўйлаб Жумабозордан Ургутга йўналган йўл бўйида ҳам кўп миқдорда тамаки етиштирилган.

Деҳқонлар томонидан етиштириладиган асосий техник экинлар жумласига, турли бўёқлар олинадиган ўсимликларни етиштириш ҳам кирар эди. Хусусан, ҳунармандлар орасида хонликда етиштирилган матоларни бўяшда ишлатиладиган, рўян, писта дарахтидан олинадиган сарғиш кичкина уруғлар – бузғунч, сариққа бўяшда ишлатиладиган испарак, яшил рангга бўяшда ишлатиладиган пўкакка эҳтиёж катта эди. Бухорода етиштирилган бу ўсимликлардан тайёрланган бўёқларга ўзга юртларда ҳам талаб катта эди. XIX а. 30 й. муаллифи П.И.Демезоннинг кўрсатишича, бундай бўёқ турларидан бири бузғунч бўлиб, у Бухородан Ҳиротга ҳам олиб кетилган. Бундай экинлар хонликнинг катта ҳудудларида, хусусан, Самарқанд вилоятининг Ангор, Ширoз, Ургут ва Шовдор туманларида кўп миқдорда етиштирилган.

Хонликда ривожланган деҳқончиликнинг муҳим соҳаларидан бири полизчилик эди. Далаларда турли сабзавотлар ва полиз маҳсулотлари – пиёз, сабзи, шолғом, лавлаги, нўход, мош қовоқ, қовун ва тарвузлар етиштирилар эди. Полиз экинлари ичида қовоқ етиштириш алҳида ўринга эга эди. Қовоқнинг 9 тури олапучак, кадурзард, кадусафид, кадупургандим, дастор каду, чилим каду, сарахи, носкаду, чўп кадулар етиштирилган. Асосан, турли таомлар

тайёрлашда ишлатиладиган бу ўсимликнинг айрим турларидан маҳаллий аҳоли турли маҳсулотларни сақлаш учун идишлар ясаган. Хусусан, қовоқнинг сарахи туридан ёғ ва сиркани сақловчи идиш, носкадудан – носқовоқлар, чўп кадудан эса сув сақловчи идиш тайёрланган.

Полиз маҳсулотларининг орасида тарвуз ва қовунлар алоҳида ўрин тутган. Қовуннинг 10 тури етиштирилган. Уларнинг ичида кўкча, шерози, қашқари, бегзоди, шакар-пора, бўри калласи, қора-қиз кабилар жуда машҳур бўлган. Қовуннинг қишда истеъмол қилинадиган турлари – обиноввот, зар-митон, қора-қўтир, чоржўйи, қора-қиз, шакар-пора навларидан катта ҳосил олинган. Қовунларнинг айримлари жуда катта - 12 кг оғирликка эга бўлган. 1832 й. Бухорода бўлган инглиз А.Бёрнс Бухоро қовунлари ҳақида ёзар экан, «Ҳинд, Қобул ва форс» қовунларини улар билан қиёслаш мумкин эмаслиги, «ҳатто машҳур Исфахон қовунлари ҳам улар билан тенглаша олмасликлари»ни қайд этган эди.

Далаларда, шунингдек, турли кўкатлар – занжабил, кашнич, шивит, райхон, бодиён, зира кабилар ҳам етиштирилган.

Аҳоли турли гулларни ўстиришга алоҳида эътибор қаратган. XIX а. муаллифи Абу Тохирхожанинг кўрсатишича, масалан, Самарқанд ва унинг атрофларида – атиргул (гул-и сурх), гул-и настарин, тўқ қизил рангли атиргул (арғувон), лола, ҳаво ранг, қизил ва оқ бинафша, оқ, қизил ва кўк рангли қашғар гули, қизил ва оқ рангли хитой атиргули, гул-и раъно, гул-и зебо, гул-и ҳинди, гул-и тугма ва бошқалар ўстирилган.

Хонликда кўп йиллик ўтларни етиштириш, хусусан, чорвани боқиш учун турли емлар – ўтларни ўстириш ва уларни қишга ғамлаб қўйиш анъанаси ҳам мавжуд эди. Бу борада аҳоли орасида катта тажриба мавжуд бўлиб, йилига бундай ўтлардан 4-5 марта ҳосил олинган.

Аҳоли деҳқончилик билан бир қаторда боғдорчилик билан ҳам кенг шуғулланган. Хонлик ҳудудида бўлган шахслар бу ерда боғларнинг кўп бўлганлигидан шоҳидлик берадилар. Бундай боғлар ва узумзорларда олма, нок, беҳи, ўрик, олча, шафтоли, олхўри, бодом, анор, анжир ва бошқа турдаги мевалар етиштирилган. Катта ҳажмларда узумнинг турли навлари етиштирилиб, улардан шарбат, майизлар қилинган. Жумладан, узумнинг қуйидаги навлари – майда, қизил узум – халили, майда, кўк рангдаги халили сафид, ҳусайни, анча катта, кўк рангдаги шакар-ангур, кишмиш, ангури сафид, бехишти, соҳиби, тоифи, шибирғони, ангури сиёҳ етиштирилган. Айниқса, Кармана, Хатирчи, Шаҳрисабз, Ғузор, Чироқчи, Қарши, Каттақўрғон, Миёнқол, Қоракўл ва Бухоро ўзининг узумлари билан машҳур эди.

Ҳусайни, соҳиби каби узумларни узоқ сақламаганлар. Ширбурғони, сиёхи, кишмишдан майиз қилганлар.

Хонликда етиштирилган боғдорчилик маҳсулотларидан бири анор эди. Айниқса, анорнинг данаксиз тури «бедона» машҳур бўлиб, у, асосан, Шаҳрисабзда етиштирилар ва Бухоро бозорларига келтирилар эди. «Энг яхши» шафтолилар етиштириладиган марказ сифатида эса Самарқанд машҳур эди.

Шунингдек, хонлик боғларида ўрикнинг – хоссаки, шира-пайанд, махмури турларидан катта ҳосил олинган. Аҳоли томонидан боғларда олманинг саккиз тури - талх об, жой пойак, хожи ҳақи, рахш, сиби-турш, мох-тоби, мушкина-сиб, сиба-сурҳдан катта ҳосил олинган.

Аҳоли томонидан бодом ҳам кўплаб миқдорда етиштирилган. Бу дарахтнинг яхши ўсиши учун кўпроқ тошлоқ, тоғлиқ ерлар керак бўлган. Шундай ерлар мавжуд бўлган Шаҳрисабзда бу ўсимлик туридан катта миқдорда ҳосил олинган.

Тарихий манбаларнинг далолат беришича, нафақат вилоятлар, балки шаҳарлар аҳолиси ҳам кўп ҳолларда бу марказлар атрофида деҳқончилик қилиш учун далалар ва боғларга эга эдилар. Бундай далаларда улар ўз эҳтиёжлари ва аҳолининг турли қатламларии учун зарур бўлган қишлоқ ҳўжалик маҳсулотларини етиштирар эдилар. Хусусан, улар бундай далаларга буғдой, пахта, гуруч, беда, полиз экинлари, кунжут ва седана ҳамда турли ҳунармандчилик соҳаларида кенг ишлатиладиган хом-ашё вазифасини ўтовчи экин турларини

етиштирар эдилар. Одатда бундай дала ва боғларнинг атрофини тут дарахти кўчатлари билан ўраб кўярдилар. Шаҳар атрофидаги ерларда деҳқончилик қилган шахслар кўп ҳолларда шаҳардаги асосий ҳунар турлари – тўқувчилик, терини ошлаш, пахса уриш, кулолчилик, озиқ-овқат ишлаб чиқариш в ҳ.к. билан ҳам кенг шуғулланганлар.

Бухоро хонлигининг йирик савдо-иқтисодий марказларидан бўлмиш Самарқандда боғлар жуда кўп эди. XIX а. биринчи ярмида Самарқанд ва Бухорони кўрган, улар ўртасидаги фарқнинг бутун манзарасини ҳис эта олган Н. Ханыков, Самарқандда Бухорога нисбатан "боғлар анча кўп", – деб қайд этган эди.

Бухоро амирлиги боғларида мевали дарахтлар билан биргаликда турли гуллар, терак, тоғ терак, тол терак, мирза терак, самбит тол, тол экилиб, улардан ҳунармандчилик ва қурилиш ишларида кенг фойдаланилган. Жумладан, Самарқанд ва унинг атрофидаги боғларда, Туркистоннинг бошқа шаҳарлари мисолида кузатилгани каби, турли ҳунармандчилик соҳалари учун хом-ашё вазифасини ўтовчи кўплаб дарахтлар ўстирилар эди. Масалан, дурадгорлар ўз маҳсулотларини яратишда бу боғларда етиштирилган теракдан кенг фойдаланар, анча қимматбаҳо маҳсулотлар яратиш учун бу боғларда ўстирилган ёнғоқ, чинор, қайрағоч ва тут дарахтига эҳтиёж катта эди. Шу шаҳарга оид маълумотларнинг тасдиқлашича, кўп ҳолларда ҳунармандлар аҳолининг шаҳар атрофидаги боғларидан дарахтларни сотиб олар эдилар. Бу ҳолатни хонликнинг бошқа йирик марказлари мисолида ҳам кузатиш мумкин.

Ҳунармандчилик ва савдо кенг ривожланган ҳудудлар атрофида пилла етиштириш ишида жуда керак бўлган тут дарахтлари ўстиришга катта зарурат туғилган. Аҳоли бу дарахт меваларини истеъмол қилиш билан бирга, уларни қуритиб, майиз тайёрлаганлар, шунингдек, тутни қайнатиб шинни пиширганлар. Одатда, йўллар ва далалар четига экилган бу дарахт ҳақида XVIII асрнинг 70 й. ёзган Филипп Ефремов, унинг меваларини икки турда қора ва оқ бўлиши, оқ тут ширин, қора тут эса нордон бўлишини қайд этган ҳолда, уларнинг барглари билан олтин ва кумуш безакли йўл-йўл парча каби матолар ишлаб чиқариш учун керакли ипак етказиб берадиган ипак қуртлари боқилганлигини эслатиб ўтади. Шу боисдан тут кўчатларини етиштириш, ўстиришга алоҳида эътибор билан қараганлар. XIX а. Самарқандда турли дарахт кўчатлари, хусусан, тут дарахти кўчатлари билан савдо қилувчи бозорнинг бўлганлиги бу ўринда характерлидир.

Деҳқончилик ва боғдорчилик билан аҳолиси кенг шуғулланган Бухоро хонлиги марказларидан яна бири Қарши эди. XIX а. шаҳарда бўлган Н. Маев "Қарши атрофлари бутунлай ишлов берилган, боғлар, узумзор ва полизлар билан ўраб олинган", – деб ёзган эди. Шаҳарда бўлган Н. Петровский эса, у ҳақида ёзар экан, Қарши Тошкентни эслатишини кўрсатиб, шаҳар ўртасида "боғлар ва полизлар" борлигини қайд этган эди.

Бухоро хонлигининг нафақат қишлоқ, балки шаҳарлари аҳолисининг ҳам деҳқончилик ва боғдорчилик билан шуғулланганликларини этнографик маълумотлар ҳам тасдиқлайди. Хусусан, О.А. Сухареванинг Шаҳрисабз мисолида кўрсатишича, бу марказнинг Хўжа-гузар ва Эшон-гузарида истиқомат қилган хўжалар юбори табақа вакиллари бўлсаларда, уларнинг асосий кўпчилиги "ҳунармандчилик (хусусан, тўқувчилик) ёки деҳқончилик билан шуғулланганлар. Улар шаҳар атрофидаги қишлоқларда жойлашган ўз ерларига шахсан ишлов берганлар".

Хонликдаги боғлар, узумзорлар ва полизлар XIX а. биринчи ярмида мамлакатнинг анча каттагина қисмини эгаллаб, улар турли суғориш тизимлари бўйлаб чўзилиб кетган эди.

Мамлакатда деҳқончилик билан шуғулланувчи аҳоли ерга ишлов бериб, турли экинлардан унумли ҳосил олишга ҳаракат қилганлар. Бунда табиий ўгит гўнгдан кенг фойдаланганлар. Одатда гўнгни бутун қиш ва ёз давомида тўплаб қуритганлар ҳамда баҳор ва кузда далаларни улар билан ишлов берганлар. Деҳқонлар, шунингдек, ерга ишлов беришда эски пахсадан ҳам фойдаланганлар.

Ерга ишлов беришда турли меҳнат қуролларидан фойдаланилган. Улар жумласига омоч, мола, мола-поя, тиркин, занжир, ерни ҳайдашда асосий куч бўлган молларни ҳайдаш учун узун таёқ – гаврон-чўп, ва бошқаларни киритиш мумкин.

Бухоро хонлигининг ўтроқ аҳолиси чорвадор-кўчманчи бўлган қозоқларга асосий озиқ-овқат маҳсулоти бўлган дон ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириб берганлар. Бу маҳсулотлар эвазига улар чорва, тери ва жун каби хом-ашё, шунингдек, гўшт ва сут маҳсулотларини олганлар.

Мамлакатнинг чорвачиликка ихтисослашган ҳудудлари аҳли эса қўй, қорамол, туя ва отларни турли навларини етиштирганлар. Чорвадор аҳоли томонидан отнинг уч тури етиштирилган. Биринчи турни хонликнинг ғарбий ва жанубий қисмларида кўп миқдорда етиштирилган туркман отлари ёки арғумоқлар ташкил этган. Хонликнинг шимолий қисми ва Миёнқолда ўзбек отлари, Самарқанд ва ундан шарқдаги ҳудудларда эса қўқон отларини етиштириш кенг тус олган. Шунингдек, қозоқ отлари ва қорабайирлар ҳам етиштирилиб, уларнинг сони бошқа турдаги отларга нисбатан бироз камроқ эди.

Асосий транспорт воситаларидан бири ҳисобланган эшаклар етиштиришга ҳам алоҳида аҳамият берилган. Айниқса, хонликнинг шимолидаги ишлов берилган ҳудудларга чегарадош чўлларда катта ҳажмдаги эшаклар ушлаб турилиб, улар билан бозорларда катта савдо амалга оширилган. Айниқса, оқ эшаклар қимматли ҳисобланган.

Ҳўкиз, қўй, туялар ҳам етиштирилган. Н.Ханыков Бухорода қўйларни етиштириш билан асосан араблар шуғулланишини, Бухоро қўйлари қозоқ қўйлари билан бир хилда бўлсада, ўзининг серёғлиги билан ажралиб туришини қайд этган эди. Бухоро арабларининг қўй етиштириш борасидаги маҳорати ҳақида ёзган И.Георги 1776 й. бу қўйлар араби қўйлар деб аталгани, юнги юмшоқ бу қўй нави юқори нав ҳисобланиши ва бу навга мансуб икки ҳафталик қўзичоқлар терисидан қоракўл терилари тайёрланганлигини таъкидлаб ўтади. XIX а. муаллифи Е.К.Мейендорф эса хонлик қозоқлар етказиб берадиган қўй навини қўнғирот уруғи вакиллари ҳам етиштиришларини эслатиб ўтган эди.

Хонликда товуқ ва ўрдаклар боқишга ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Аҳоли, шунингдек, турли ҳайвонларни, хусусан, тустовуқ ва балиқ овлаш билан ҳам кенг шуғулланган. Улар билан Бухоро бозорларида катта савдо амалга оширилган. Жумладан, Амударё ва Қоракўлдан овланган балиқлар Бухоро бозорларида харидоргир ҳисобланган.

Қайд этилган маълумотлар, XVIII– XIX асрнинг ўрталарида Бухоро хонлигида қишлоқ хўжалигининг асосий соҳалари бўлган деҳқончилик, боғдорчилик, полиз экинларини етиштириш ва чорвачилик кенг кўламда ривожланганлиги, бу соҳаларда етиштирилган маҳсулотлар нафақат мамлакат аҳолисининг эхтиёжларини қондиришгагина қаратилган бўлиб қолмай, балки иқтисодиётининг муҳим соҳалари - ҳунармандчилик ва савдонинг тараққиётига катта ҳисса қўшганлиги ва улар узвий алоқадорликда ривожланиб борганлигини кўрсатади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Бродянский М. Заметки о земледелии в Самаркандском раёне // Туркестанский сборник. Т.57. С. 255.
2. Ефремов Филлип. Деятилетнее странствование / Под ред. Вступительная статья и примечания Э.Мурзаева. Издание пятое. М., 1952. С. 30.
3. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару М.: Наука, 1975. – С. 109.
4. Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. Т., 1974. - С. 169170.
5. Соболев Л.Н. Зарафшанский округ. Приложение 6. – С.9.
6. Георги И. Извлечения из «Описания всех в Российском государстве обитаюших народов, так же их житейских обрядов, вер, обыкновений, жилищ, одежд и прочих достопамятностей. Часть вторая. О народаъ Татарского племени. Переведено с Немецкого. Печатано в Санкт-Петербурге в 1776 года иждивенцем книготорговца К.В.Миллера. – С.188.

7. Гребенкин А. Узбеки.// Рус. Туркестан. – 1872. – Вып. II. – С. 101.
8. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. М., 1843. – С.144; Записки о Бухарском ханстве. М. 1985. – С. 76.
9. Записки о Бухарском ханстве... – С.80
10. Борнс А. Путешествие в Бухару, рассказ о плавании по Инду от моря с подарками Великобританского короля в отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию, предпринятом по предписанию высшего правительства Индии в 1831, 1831 и 1833 годах лейтенантом остиндской компанейской службы Александром Бернсом... Ч. III. М., 1849. – С.32.
11. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве XVI - первой половине XIX века. Т.II., Т. 1966. – С. 230.
12. Турсунов Н.О. Развитие городских и сельских поселений северного Таджикистана в XVIII-начале XX в. – Душанбе: Дониш, 1991. – С. 132.
13. Маев Н. От Шахрисабза до Бухары // Туркестанские ведомости. – 1875. – № 5-6.
14. Петровский Н. Моя поездка в Бухару. Путевые наблюдения и заметки. Ч. 2. – Т., 1872. – С. 227.

ҚАШҚАДАРЁ ОКРУГИДА ЖАМОАЛАШТИРИШ СИЁСАТИНИНГ БОРИШИ ВА УНИ АҲОЛИ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТИГА ТАЪСИРИ

Акмаматов О.Ё
ҚарМИИ доцент в.б.
Акмаматова М.Ё.
Муборак тумани 9-мактаб ўқитувчиси

Аннатация. Бу мақолада Қашқадарё воҳасида жамоалаштириш сиёсати ва унинг натижалари, аҳоли ижтимоий ҳаётига оид маълумотлар умумлаштирилди. Хусусан, қишлоқ аҳолиси турмуш шароитининг пасайиши, озиқ-овқат танқислиги масалалари ҳақида фикр-мулоҳазалар билдирилган.

Таянч сўзлар: Қашқадарё, округ, сиёсат, жамоалаштириш, қишлоқ, деҳқон, ер, хўжалик, таноб, солиқ, ислоҳот, маҳсулот, нон.

Abstract. This article summarizes the policy of collectivization and its results in the Kashkadarya oasis, as well as information on the social life of the population. In particular, opinions were expressed about the decline in the living conditions of the villagers and the issues of food shortage.

Keywords: Kashkadarya, district, politics, collectivization, kishlak, peasants, land, farms, tanap, tax, reform, products, bread.

Кириш қисм (Introduction):

Ўтган асрнинг 20-йилларида ўзбек қишлоқлари ижтимоий-иқтисодий аҳволида жиддий ўзгаришлар юз берди. Янги иқтисодий сиёсатга (НЭП) ўтилиши билан деҳқонлар бир оз эркин нафас олди. Озиқ-овқат развёрткасининг озиқ-овқат солиғи билан алмаштирилиши ва айрим бозор механизмларининг такланиши деҳқонларга ортиқча маҳсулотини сотиш ва қисман даромад олиш имконини берди.

Асосий қисм (Main part):

Ўзбекистонда бу масала тадқиқотчилар томонидан атрофлича ўрганилмоқда. Р.Аминова, А.А.Голованов, О.Р.Назаров, П.Равшанов, Р.Шамсутдинов, Ш.Каримов, Б.Расулов, М.Ф.Абдуллаевларнинг тадқиқотлари диққатга сазовордир. Аммо Қашқадарё

воҳасида амалга оширилган жамоалаштириш сиёсати ва унинг оқибатлари шу кунга қадар ўз ёчимини топмади. Бу ҳақида таниқли олим Поён Равшанов шундай ёзади; “Бутун Ўзбекистонда бўлгани каби Қашқадарёда қишлоқ ҳаётида ўзгаришлар бўлди. Қашқа воҳасида ўтказилган ер-сув ислоҳоти тўғрисида ҳозирга қадар кишини қониқтирадиган бирор манбанинг йўқлиги, изланиш ва тадқиқотлар олиб борилмаганлиги, нафақат Қашқадарё эли, Ўзбекистон ва унинг халқи яқин ўтмишда муҳим аҳамиятга молик бу босқич – советча зўровонликнинг, миллий ўлкалар аҳолисини эзиш ва талашнинг, таҳқирлашнинг, моддий бойликларини ўзлаштиришнинг тарихини илмий жиҳатдан ойдинлаштириш катта илмий-амалий қимматга эгадир”[1]. Шу боис тарихчилар томонидан ушбу мавзунинг ўрганилиши долзарб масалалардан биридир.

Қашқадарё воҳасида ер-сув ислоҳоти 1928 йилнинг 21 декабридан бошланди. Округ бўйича ер-сув ислоҳоти бошланиб, бойлар, руҳонийлар, собиқ амир амалдорлари, савдогарларнинг хўжаликларини тугатиш чора-тадбирлари олиб борилди. Қарийб бир йил давомида олиб борилган тайёргарлик ишлари ниҳоясига етказилиб, 1928 йил 21 декабрдан то 1929 йилнинг 21 февралига қадар давом этиши ва якунланиши режалаштирилган бу тадбирлар 1929 йилнинг январь ойи охирларидаёқ кутилганидан ортиқ натижа билан якунланди. 1929 йил 20 январда Қашқадарё округ фирқа қўмитасининг конференцияси ўтказилди. Унда асосан қишлоқ хўжалигидаги жамоалаштириш тадбирлари муҳокама этилди. Округ фирқа қўмитасининг маъсул котиби Йўлдош Ирисметов бу тадбирлар ҳақида шундай дейди: “Ер-сув ислоҳотини ўтказдик, батракларни ерли қилдик, бойлардан ва бизга ёт бўлган унсурлардан ерни тортиб олдик, энди бу ишларимизни мустаҳкмлашимиз, янгидан тузилган жамоа хўжаликларини қўллаб-қувватлашимиз керак”. Бу каби тадбирлар Ўзбекистоннинг барча вилоятларида, хусусан Қашқадарё вилоятида ҳам амалга оширилди. 1928-1929 йилларда амалга оширилган ер-сув ислоҳоти натижасида вилоятдаги Мозорли, Сувлик, Тўқмор, Жомбўз, Чувиллоқ, Жарқудуқ, Мойлижар, Қораёнтоқ каби қишлоқлардаги Бухоро амирлигига қарашли ҳосилдор ерлардан 30 минг десятинаси мусодара қилиниб камбағал деҳқонларга бўлиб берилди[2].

Воҳада амалга оширилган бу тадбирлар жуда мураккаб шароитларда олиб борилди. Ўзбекистонда 1925, 1926, 1927 йилларда юз берган қурғоқчилик сабабли кам ҳосил олинди. Округда 72923 таноб суғориладиган экин майдонлари бўлган бўлса, 1927 йилда бу 87783 танобни, 1928 йилда эса бу 95630 танобга етди. Округда лалмикор ерлар 1926 йили 60644 таноб, 1927 йили 82612 таноб, 1928 йили 112316 танобга кўпайди[3].

Қашқадарё округида дастлабки колхозларнинг ташкил этилиши 1928 йилга тўғри келади. 1929 йили вилоятнинг Косон туманида 8 та, Яккабоғ туманида 13 та, Китоб туманида 15 та, Шаҳрисабз туманида 15 та янги колхоз ташкил этилди.

Ўзбекистонда 1928 йилда 675 колхоз тузилган бўлса, 1929 йилда уларнинг сони 1516 тага етиб, ўсиш суръатлари 124% ни ташкил этди. Қашқадарё округида 1928 йили 24 та колхоз рўйхатга олинган бўлса, 1929 йили улар сони 94 тага етказилди[4].

Ўз ўрнида қишлоқдаги бу сиёсий жараёнлар аҳоли ижтимоий-иқтисодий ҳаётига ҳам таъсир кўрсатди. Ҳокимият органлари, аграр ислоҳотларнинг дастлабки босқичида бўлганидек, қишлоқни ижтимоий қайта қуришнинг тарихий жиҳатдан синалган иқтисодий воситаларини, “Капиталистик мамлакатлар”да деҳқонлар масаласини ҳал қилишнинг муҳим тажрибасини инкор этдилар. Коммунистик метрополиянинг большевик раҳбарлари марксизмнинг хаёлий ақидаларига таянган ҳолда ижтимоий-иқтисодий муносабатларини қайта қуришнинг асосий қуроли сифатида зўровонликни танлади.

Чунки янги иқтисодий сиёсат “ҳарбий коммунизм” даври учун хос бўлган усулларни бирмунча юмшатган бўлса-да, умумий стратегик йўл ўзгармасдан қолган эди[5].

Большевиклар раҳбариятининг мулоҳазаси бўйича ислоҳат ўзбек қишоқларининг социалистик ривожланиш йўлига қатъий тушиб олиши учун қулай шарт-шароитлар яратиши,

мафкура таъсирига олинган қишлоқ иқтисодиётининг таянч негизларини вужудга келтириши лозим эди.

1929-1930 хўжалик йилида халқ хўжалигининг деярли барча соҳаларида молиявий маблағларнинг етишмаслиги оқибатида аҳвол анча оғирлашди. Нон бозоридаги танқислик ўз ўрнида нон нархининг тез кўтарилишига сабаб бўлди. Аҳолига гўшт ва мева-сабзавот маҳсулотларини етказиб беришда ҳам қийинчиликлар келиб чиқди. Саноат маҳсулотлари бозорида ҳам инқирозли ҳолатлар кузатилади. Халқ истеъмол молларининг ассортименти бир хил бўлиб, аҳолига керакли товарлар йўқ эди. Бу даврда озиқ-овқат ва саноат маҳсулотларининг нархи кўтарилган бўлса, тижорат савдода нархларнинг тушиши кузатилади.

Натижалар ва муҳокамалар (Results and Discussions):

Оғир сиёсий вазият, иқтисодий инқироз туфайли қишлоқ хўжалиги ҳам таназзулга учраб, қурғоқчилик, қишлоқдаги сиёсий қарама-қаршиликлар экин майдонларини қайта ишлашга тўсқинлик қилди. Қолаверса, хонавайрон бўлган кўпчилик деҳқон хўжаликларида ерга қадаш учун уруғ, ишлаш учун чорва моллари йўқ эди. Бундай ҳолат вазиятни янада оғирлаштириб, солиқ сиёсатининг издан чиқишига олиб келди.

ВКП(б) МК Сиёсий бюросининг “Ёппасига жамоалаштириш районларида қулоқ хўжаликларини тугатиш тадбирлари тўғрисида”ги қарори ва ВКП(б) МКнинг Ўрта Осиё бюросининг 1930 йил 26 январдаги “Қулоқларни синф сифатида тугатиш билан боғлиқ тадбирлари тўғрисида”ги кўрсатмалари асосида Ўзбекистон КП МК нинг 1930 йил 17 февралда “Коллективлаштириш ва қулоқ хўжаликларини тугатиш тўғрисида” қарори қабул қилинди. Ҳукуматнинг бу каби тадбирлари ўз ўрнида солиқ тизими ишига ҳам жиддий таъсир кўрсатди. Масалан, 1928 йили “қулоқ” хўжаликларидан 306 рублдан солиқ олинган бўлса, бу 1931 йили 675 рублга кўтарилди. Оддий камбағал якка хўжаликлардан эса шу йилларга тааллуқли равишда 20,9 рубль ва 16,47 рубль солиқ йиғилди. 1928 йил жами қишлоқ хўжалиги солиғининг 13,5 фоизи “қулоқ” хўжаликларига тўғри келган бўлса, 1931 йили бу 66 фоизга кўтарилди[6]. Қишлоқ хўжалиги солиқларини йиғишда аниқ рўйхат асосида иш олиб борилмади. Ўрта ҳол деҳқонлар ва уларнинг хўжаликлари тўғрисида аниқ рўйхатнинг мавжуд эмаслиги, хўжаликларнинг даромад ва солиқларини ҳисоб-китоб қиладиган, юқори ташкилотларга бу ҳақида ҳисоботлар тайёрлайдиган ходим штатининг йўқлиги шулар жумласидандир.

Мураккаб ижтимоий-иқтисодий ҳодиса бўлган 1925-1929 йиллар аграр ислоҳоти ўз мазмуни ва пировард оқибатларига кўра зиддиятли тусда эди. Ислоҳот натижасида, бир томондан, ерсиз камбағал деҳқонларнинг бир қисми ерга эга бўлиб, ўзбек қишлоқларидаги ижтимоий аҳволни бир оз яхшилаган бўлса, иккинчи томондан, асрлар мобойнида ўзбек қишлоқларида шаклланган ижтимоий-психологик тартиб, миллий қадриятлар бузилишини бошлаб берди. Натижада ислоҳот ўзбек қишлоқларининг бутун ижтимоий-иқтисодий тузилишига ижобий таъсир кўрсатган бўлса-да, салбий таъсири ҳам бўлганлигини қайд этиш зарур[7].

Хуллас, Қашқадарё округида ҳам Ўзбекистоннинг бошқа ҳудудлари қатори жамоалаштириш сиёсати олиб борилиб, кичик хўжаликлар ўрнига йирик жамоа хўжаликлари тузилди. Бу жараёнлар ўз ўрнида қишлоқ аҳолисининг ижтимоий ҳаётига жиддий таъсир кўрсатди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Аминова Р.Осуществление коллективизация в Узбекистане. (1929-1932 гг.).–Т.: Фан, 1974;

2. Два года социалистического строительства а Узбекистане. Отчет правительства УзССР на IV съезд Советов Узбекистана, Самарканд, 1930. С.10-15.

3. Жуманов А.,Кўкдалабошоқлари. -Т.: Меҳнат, 1988. –Б.4.

4. ҚВҲА, 34-фонд, 1-рўйхат, 577-иш, 26-варақ..
5. Расулов Б. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатағонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929-1959 йиллар).– Тошкент, 2012. –368 б.
6. Шамсутдинов Рустамбек. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. -Т.: Шарқ, 2003.
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2жилд.–Тошкент, 2006. – Б. 326-339.

ЎЗБЕКИСТОНДА ХАЛҚ ТАЪЛИМИНИНГ СОВЕТЧА ТИЗИМИ: ТАРИХ САБОҚЛАРИ

Алимова Дилором
Тарих институти бош илмий ходими
Тарих фанлари доктори, профессор

Аннотация. Формирование советской системы образования в Узбекистане было сопряжено с социально-политическими процессами. Установление тоталитарной системы в 20-30-е годы, дальнейшая репрессивная политика советской власти оказали негативное влияние на ее развитие и стали фактором ее торможения со всеми многолетними последствиями. Несмотря на частые реформы и интенсивный рост количества школ, повышение интеллектуального уровня населения, появления большого количества национальных кадров учительства, многие вопросы школьного образования оставались нерешенными и в 50-80-ые годы. Особенно много провалов было в его материальном обеспечении. В 80-ые годы планы капитальных вложений на строительство школ ежегодно не выполнялись. Эти проблемы и засилье советской идеологии привели к серьезному кризису и понижению качества образования.

Опыт советской системы народного образования со всеми его продвижениями и недостатками должен быть неотъемлемой частью знаний по данной проблеме.

Ключевые слова: Система образования, Туркестанская АССР, Узбекистан, партия, школа, движение «Худжум», народное образование, просвишение, ученики, учителя, национальные кадры, тоталитарная система, репрессивная политика.

Annotation. The formation of the Soviet system of education in Uzbekistan was associated with socio-political processes. The establishment of a totalitarian system in the 2030s, the further repressive politics of the Soviet power had a negative impact on its development and became a factor in its deceleration with all the long-term consequences. Despite frequent set of reforms and an intensive growth in the number of schools, an increase in the intellectual level of the population, the emergence of a large number of national teaching staff, many issues of school education still remained unresolved in the 1950-80s. Especially there were many failures in its material supply. In the 1980-ies, capital investment plans for the construction of schools were not fulfilled every year. These problems and the dominance of the Soviet ideology led to a serious crisis and a decrease in the quality of education.

The experience of the Soviet system of public education, with all its achievements and shortcomings, should be an integral part of knowledge on this problem.

Key words: Education system, Turkestan ASSR, Uzbekistan, the party, school, “Khujum” movement, public education, enlightenment, students, teachers, national cadres, totalitarian system, repressive policy.

Ўзбекистон тарихининг совет даври ниҳоятда катта зиддиятлар билан кечган. Совет ҳокимиятининг то II жаҳон урушига қадар давом этган дастлабки ўн йилликларини, айниқса, маданият соҳасида илғор ва салбий хусусиятларнинг аралашиб кетиши билан характерлаш мумкин. Бу соҳада 1917 йил октябригача мавжуд бўлган ва ундан кейин 5-6 йил айрим белгилари сақланиб қолган интенсив демократик хусусиятлар, сўнг унинг ўрнини умумий, миқдор кўрсаткичлари билан ифодаланган, “маданий инқилоб” иллюзияни яратган экстенсив ва буйруқбозлик услублари эгаллаши аҳоли орасида таълим соҳасида улкан иштиёқнинг уйғониши билан бирга кечган. Ушбу шароитда кўп сонли янги зиёлилар пайдо бўлган, аммо эски кадрлар режали тарзда йўқ қилиб борилган, аҳолининг саводхонлик даражаси кескин ошган, лекин бюрократизм ва шаклбозлик тобора кўпроқ қарор топа борган, техника тараққиёти сари жадал илгарилаш юз берган, илмий муассасалар пайдо бўлган, илмий тадқиқотлар доираси кенгайган, шу билан бирга, улар, айниқса, ижтимоий фанлар соҳасида тараққиёт йўлидаги асосий ғовга айланган мафкуравий назорат остига тушиб қолган. Бу назорат Туркистон АССРнинг таълимга тегишли биринчи ҳужжатларидаёқ акс этган. XX асрнинг 20-йиллар охири – 30-йилларда тоталитар тузумнинг узил-кесил қарор топиши, унинг 30-йиллар – 50-йилларда қатағон сиёсатига йўл очиши халқ таълими соҳасига жиддий салбий таъсир кўрсатган. Большевиклар ҳукумати томонидан бошланган бошланғич таълим ислоҳоти мураккаб сиёсий шароитларда кечган, бу совет ҳокимиятининг 1918 – 1924 йилларда мухолифат ва озодлик кучларига қарши олиб борган кураши билан боғлиқ.

1920 йилнинг ўзидаёқ эски мактабларга қарши ҳукмат томонидан ҳаракатлар бошланган. “Қорихона ва эски мактаблар” ҳақидаги кўрсатмаларда барча таълим ва соғлиқни сақлаш ҳукмат ташкилотларига эски мактабларни ёздаги ўқишларини ман қилиш бўйича бўйруқ берилган. Бунинг сабаби қилиб фақат оғир иқлимий шароит кўрсатилган.

1921 йил ноябрида Туркистон АССР Халқ таълими комиссарлигининг саводхонликни тугатиш ҳақидаги декрети қабул қилинган, унга кўра республиканинг 8 ёшдан 40 ёшгача бўлган барча фуқаролари давлат мактабларида ёки саводхонликни тугатиш курсларида ўқишлари керак эди. Ўша йилиёқ Тошкентда 100 та саводсизликни тугатиш мактаби, республика бўйича эса 1000 та мактаб ва тўгараклар ташкил этилган. 1923 йилда Халқ маорифи комиссарлиги қошида махсус комиссия тузилган бўлиб, барча вилоятлар бошқармаларида унинг бошланғич мактабларни ташкил этиш билан шуғулланувчи бўлинмалари бўлган. Бу ишга мавжуд барча ўқитувчи кадрлар, ишчи факультетлари талабалари жалб қилинган. Натижада 1924 йилда мактаблар сони 1100 тага етган. Аммо бу мактабларнинг аҳволи жуда оғир бўлган, улар на жиҳозларга, на мувофиқлаштирилган биноларга, на ўқув анжомларига эга бўлишган.

Янги иқтисодий сиёсатнинг жорий этилиши билан қишлоқ мактаблари маҳаллий бюджетга ўтказилган, бу уларнинг аҳволини янада оғирлаштирган. Бу даврда аҳоли ўз фарзандларини эски мактабларга беришни давом этган, янги совет мактабларида ва ҳамон фаолият юритаётган янги усул мактабларида эски ўқитувчи кадрлар, маърифатпарваржадидлар ишлашган, улар ҳукумат ташаббусларини қўллаб-қувватлашган, мактаб ва таълимнинг ривожланиши учун бор кучларини сарфлашган. Масалан, Тошкентдаги Навоий номидаги техникумда Мунавварқори, Шорасул Зуннун, Қаюм Рамазон, Шоҳид Эсон, Маннон Рамз, Зиё Саид, Салимхон каби таниқли маърифатпарварлар фаолият юритишган.

Бироқ улар мафкуравий жиҳатдан ишончсиз кадрлар сифатида ишдан четлаштирилган ва кейинчалик қатағон тиғига тортилган.

1927 йилда “За партию” журналида сиёсий доиралар эски ва янги усул мактабларига қарши расмий курашни бошлаган мақола эълон қилинган. 20-йиллар охирига келиб улар бутунлай тугатилган. Дарсликлар ва ўқув қўлланмалари йўқлигига қарамай, жадидлар томонидан ёзилган дарсликлар тақиқланган. Эски ўқитувчилар ўрнини фақат бошланғич билим асосларини берган қисқа муддатли ўқитувчилар тайёрлаш курсларини тамомлаган ишчилар, деҳқонлар ва келиб чиқиши жамиятнинг қуйи табақаларига мансуб бўлган кишилар

эгаллаган. Мисол учун, Избоскан туманидаги мактабларни текшириш натижалари арифметика ўқитувчиси тўрт амалдан иборат бўлган масалаларни қийинчилик билан ечганини кўрсатган, Тошкент шаҳри Октябрь туманидаги мактаблардан бирининг математика фани ўқитувчиси математикани умуман тушунмаслигини ва бу лавозимни эгаллашга мажбурлашганини эътироф этган. Бошқа мактабда сотувчи одам арифметика ўқитувчиси этиб тайинланган.

Ўқитувчи кадрлар тайёрлашни жадаллаштириш мақсадида ҳукумат вакиллари 7 та билим юрти ташкил этишган, уларнинг бири аёллар учун, 2 таси педагогика билим юрти бўлган. Бир нечта қисқа муддатли курслар очилган. 1921 йилда Туркистонда бу каби курслар 850 та бўлган. 7 та институтда 1145 нафар талаба таҳсил олган. Йиллар ўтиб уларнинг сони ошган, бироқ талабаларнинг катта қисмини рус тиллилар ташкил этган. Дарсликлар билан таъминлаш масаласи ҳам жуда оғир аҳволда эди.

1918 йилда таниқли маърифатпарвар Мунавварқори Абдурашидхонов ташаббуси билан биринчи Халқ университетига асос солинган, аммо у тез орада большевиклар ҳукумати томонидан тугатилган. 1920 йилда Тошкентда Туркистон давлат университети (1923 йилдан Ўрта Осиё давлат университети) очилган.

Дастлабки ўн йилликлардаги қийинчиликларга қарамай, совет статистикаси маълумотларига кўра, 1925 – 1941 йилларда ўрта мактаблар сони мунтазам равишда ортиб борган. Масалан, агар 1924/1925 ўқув йилида Ўзбекистонда совет типидаги 160 та мактаб бўлган ва уларда 17209 нафар ўқувчи таҳсил олган бўлса, 1941 йилга келиб бундай мактаблар сони 5504 тага, ўқувчилар сони эса 1 млн 315 мингга етган. Бу сезиларли ютуқ эди. Аммо бу каби миқдор кўрсаткичларига қарамай, мактабларнинг моддий базаси пастлигича қолган. Йилдан йилга синфий кураш ғояси таълим соҳасида ҳам кучайиб борган. Ўзбекистон Миллий архивида сақланувчи "*Проводится ли классовая линия в работе НКПРОСа*" ("*Маориф ХК ишида синфий ёндошув олиб борилмоқдами*") номли ҳужжатда камбағаллар ва батракларни мактабга жалб этиш, ўрта мактабни ижтимоий таркибини ўзгариш, динга қарши тағибот, пионерлар ҳаракатини жонлантириш, ишчи районларга маданий хизмат кўрсатиш, кишлоқ хўжалигини жамолаштиришни тарғиб қилишда мактаблардан фойдаланиш, таълим ташкилотларида ижтимоий сиёсий тарбияни кучайтириш ва мактабларни ижтимоий аҳамиятини ошириш каби қатъий синфий вазифалар сифатида кўрсатилган.

империяси Ички ишлар вазирлиги Астрахань ва Каспий денгизи орқали Туркистонга йўл олган, қўлида рухсатномаси йўқларни ортга қайтарди. "Деҳқончилик ва давлат мулклари бошқармаси" расман кўчиришни тақиқлади. Генерал-губернатор Духовский эса 1898 йилга келиб кўчирилувчилар учун "бўш ерлар" қидиришга топшириқ берди. Ўша йили Туркистон солиқ идораси ҳузурида "Кўчириш комитети" тузилди.

1881 йилнинг 10 июлида қабул қилинган "Деҳқонларни бўш давлат ерларига кўчириш муваққат коидалари"га биноан ҳар бир хонадонга 9-10 десятина ер берилган бўлса, русийзабон кўчирилганлар сонини ўлкада кўпайтириш мақсадида ҳар бир кўчирилган аҳоли бошига 10 десятина, оилалар ҳисобига 20-30-40 десятинагача ер берилди. Ўз-ўзидан аёнки, ер фондларини яратишдаги қийинчиликлар кўчирувчилар учун ер танқислигини келтириб чиқарди ва 1903 йилнинг 10 июнидаги махсус ҳукумат қарори билан ҳар бир кўчирилганларга 3 десятинагача ер ажратилди. Бу ҳолатлар русийзабон кўчирилган аҳоли хўжалиги ҳаётига ўз таъсирини кўрсатди. Россия империяси пахтачиликни ривожлантириш, янги экин навларини жорий этиш, темир йўллар қуриш, техника соҳасидаги янгиликларни ёйиш каби тадбирлардан бирида ўлкага кўп микдорда кўчирилган аҳолини жойлаштириш мақсадини ҳам кўзлаганди. Кўчирилганларни 5 йил солиқдан озод этиш, улар 3 йил давомида солик ва мажбуриятларнинг ярмини тўлашини эълон қилиш , 15 йилгача ҳарбий хизматга бундайларни жалб этмаслик, уй-жой қуришларига субсидия ва кредитлар бериш, ўрмон махсулотлари (ёғоч, қамиш) бўлган кўрилиш материалларидан текинга ёрдам сифатида бериш, текин уруғлик ва кўчат тарқатиш каби кўпдан-кўп имтиёзлар келгиндиларни ўлкада муқим яшаб қолишларига қаратилган тадбирлар эди.

1900-йилларда Россия империясида аҳолининг ўртача йиллик ўсиши 2 млн. кишини ташкил этиб, 200 минг кишини кўчириш демографик вазиятни меъёрида ушлаб туриш мумкин бўлган кўрсаткич деб қараларди. XX аср бошларида Кавказ ва Туркистондаги газеталарда имтиёзли ва ўз ихтиёри билан кўчадиганлар учун ер захиралари тугаганлигини кўрсатувчи. "Бўш ерлар тугаган" мазмунидаги эълонлар тўлиб кетган. 1900 йилгача барча бўш ерлар давлатники бўлса, 1901 йилдан бошлаб ишланмай ташлаб кўйилган ерлар ҳам давлат тасарруфига ўтказилган. Бундан кўзланган мақсад кўчирилганларга имтиёз беришга қаратилган Низом ва қоидалар ижросини амалга тадбиқ қилиш эди. Давлат шу каби воситалар билан кўчириш жараёни назоратини ўз қўлида тутишга ҳаракат қилган.

Матбуотда "Туркистонда аҳоли сони борган сари ўсиб боряпти, 5 ойдан сўнг 12 миллионга етади (1901 йил-дисс.), “ерга очлик” кучаяди. Кўчиб келганлар. "Қайтиб кетмаймиз, ҳайдашмокчи бўлишса, қоқилган қозиқдек тураверамиз, қатъий туриб оламиз", дейишмоқда эди. Маъмурият эса: "Сиз ўз ихтиёрингиз билан келдингиз, Сизни хеч ким чақирган эмас! Аҳоли билан қандай ўз ихтиёримиз билан келамиз, бизни губернатор (генерал-губернатор) чақирди". "Сиз эгаллаган ер қирғизларники эди", "Йўқ! Бу ерлар подшолик ери, биз бу ер учун кон тўкдик", "Бизга ҳар бир жон бошига 0,5 десятина ер керак, ер Туркистонда кўп, ўлка бепоён, кўринг, кенг, кўзинг билан илғай олмайсан!" [16; 20; 4; 22] каби маъмурият билан кўчиб келганларнинг мунозаралари кўрсатилган мақолалар кўплаб нашр этилган.

1903 йилнинг 10 июнида Россия империяси марказий ҳукумати Сирдарё Фарғона ва Еттисув вилоятлари бўйлаб ўз ихтиёри билан кўчганлар учун қонунчилик асослари тартибини жорий қилди. Унда аввало кўчиш манзилгоҳлари яратилганидан сўнг аҳолини кўчириш амалиёти тартибини қатъийлаштириш зарурлиги илгари сурилди. Бироқ бу қонун кўчирилганлар манзилгоҳларини ташкил этиш принциплари ва қонуний йўлларини кўрсата олмади. Даврий матбуотда 1903-1910 йилларда русийзабон аҳолини Туркистон ўлкасига жойлаштириш билан боғлиқ битта ҳам қонун кабул қилинмаганлиги танқид остига олинади

Россия империяси парламенти ҳисобланган Давлат думасида империядаги Европа қисми аҳолисини Туркистонга кўчириш сиёсати ва уни тартибга солиш, ушбу жараённинг қонунчилик асосларини яратиш масаласида бир қатор баҳс ва тортишувлар бўлган.

Маълумотларда Дума депутатлари кўчириш сиёсати ва жараёнига мамлакатда аграр, демографик, хавфсизликни таьминлаш воситаси сифатида қараганлиги, кўчирилганлар янги ерлар очганлиги, қўриқ ерларни ўзлаштириб, саҳроларга сув чиқарганлиги, каналлар қазиб, ободончилик қилганликлари, мустамлака маъмурият манфаатларига мос келадиган яна кўплаб ишларни амалга оширганлигини баҳолаб, уни муҳим ижобий ҳолат сифатида маъқуллашган

Бироқ Думадаги мусулмон фракция аъзоларидан М.Тинишбаев ва А.Қорабоевларнинг маҳаллий миллат манфаатларини кўзлаб "Кўчиришда маҳаллий миллат вакиллари билан ҳисоблашилмаган. ҳар-ҳолда уни адолатли тадбир деб ҳисоблаш мумкин эмас. Чўл дашт ҳудудларидан "Деҳқончилик идоралари" қирғиз (қозоқ) деҳконларини ўз уйи ва еридан ҳайдашмокда, кўчманчилар туфайли улар ўз уйи ва еридан ажралмокда" [8; 5; 17] каби объектив фикрлари ҳам манбаларда келтириб ўтилганлиги эътиборга молик.

Даврий матбуотда босилган мақолалар таҳлил килинар экан, бу йўналишда мустамлака сиёсатининг моҳияти, мақсад ва вазифалари кўпроқ намоён бўлади. Уларда хитойликлар мўғул даштларини тезлик билан эгаллаб, Россия чегараларига яқинлашаётгани, кўчириш оркали қирғиз ва қозоқлар. сарт (ўзбек) ерларига тезкорлик билан кириб бориши, бу борада маблағни аямаслик тавсиялари берилади. Россия империяси Ўрта Қора денгиз губерняларида кўчиш учун ҳар бир киши бошига 2 рубль 77 коопейк, чўл ўлкаларида 3 рубль 44 коопейк, Туркистонда 3 рубль 52 копейк сарфлаётгани, аҳолидан олинадиган солиқ бошка губерняларда бир йилга 1 рубль 97 коопейк, Ўрта Осиёда ва чўл ўлкаларида 92 коопейкдан 85 коопейкгача эканлиги кўрсатилиб, бундай имтиёзлар кўпайтирилиши зарурлиги таъкидланади. [15] 1903 йилдан бошлаб кўчириш сиесати билан боглик махсус қонун ва Низом кабўл килинмаган бўлсада, "кушимча кўрсатма", "буйрук", "циркуляр" кабилар эълон килиб турилган " Асал ва кнем волийси" Туркистонга аҳолини кўчиришда воситалар кидирилганлигини манбалардаги маълумотлар тасдиклайди. Жумладан, 1906 йилда "Кўчирилганлар учун кушимча кўрсатма" ишлаб чикилиб, срсиз, ўз ихтиери билан кўчиб келганлар 20 десятинагача ерни еши, иктисодий холати ва жинсига қарамай маҳаллий аҳолидан 3 йил муддатга ижарага олиб ишлашлари учун рухсат этилди. Кўрсатмада келтирилишича:

- ижарачи ижарага олган ерини ўзи оиласи билан ишлаши керак эди, ижарага олинган ерни бошқаларга ижарага бериш таъқиқланган;
- ижара ҳужжати уезд бошлиғи ва овул оқсоқоли томонидан тасдиқланиши керак эди.
- ижара ҳақи 5-10 фоиздан ошмаслиги белгилаб қўйилганди;

Кўрсатмада ижарачига Давлат банкидан 5 фоизли имтиёзли кредит берилиши кераклиги ҳам кўрсатилган 1906 йил 10 июндан собиқ ҳарбийлар билан оддий фуқароларнинг қишлоқлари биргаликда барпо этилишига рухсат этилди. Бироқ 1906 йилдан жорий этилган ижара "Кўрсатма" ҳам ўзини оқламади.

- биринчидан, оз сонли уезд маьмурияти ҳар бир ижарачини назорат қилолмади;
- иккинчидан, ижарачиларнинг бир қисми ўз ерларини ташлаб кетди;
- учинчидан, хўжалик ишлари ижарага олинган ерларда тартибсиз юритилиб, бундай ерлардаги экинлардан кутилган маҳсулот олинмади;
- тўртинчидан, уездларнинг рахбарларн билан махаллий оқсоқоллар кўп масалаларда келиша олишмади. "Кўрсатма"ни амалга тадбиқ этишда банк, ер қурилиши ва деҳқончилик бошқармаси, кўчириш партияси, гидротехник комитет, техник комитет. тоғ ва ўрмон департаменти каби идоралар ўз фаолиятини мувофиқлаштира олмадилар. [14]

Маълумки, қуйи чиндаги ҳарбийлар ва солдат-казаклар истеъфога чиққанларидан кейин уларга ер фондлари ажратилиб, илк бор русийзабон аҳоли посёлка ва қишлоқлари ташкил этилганди. 1909 йил июнда бундайларга қаратилган алоҳида қоида ва қонун ишлаб чикилди. Ушбу қонунга кўра, энди истеьфога чиққан ҳарбийга ижобий ахлоқи ва меҳнатсеварлигини инобатга олган ҳолда, 300 рубль пул, 10 десятина ер берилиши белгилаб

куйилди. [1]. Кўп ҳарбийлар хўжалик соҳасидаги намунаси билан эмас, балки масъулиятсизлиги, ичкиликка берилганлиги, дайдилиги ва танбаллиги билан зарарли бўлаётганлиги инобатга олиниши керак эди. Мазкур қарорга кўра ҳарбий посёлкалар ташкил этилди. Уларда яшовчилар дехкончилик ва чорвачилик билан машғул бўлиб, бўш пайтларида эса оқсоқол назорати остида ҳарбий машғулот билан ҳам шуғулланганлар. Бу посёлкаларда ўқ-дори омбори, дон захираси сакланадиган махсус омбор ташкил этилди. Бу посёлкалардагиларга йиллик ҳарбий солиқ жорий этилиб, бир йиллик солик микдори 2 рублдан 4 рублгача қилиб белгиланди. "Ҳарбий посёлкалар"дагилар ҳарбий тактика, топографиядан хабардор бўлишлари керак эди. "Хитой-Еттисув, Фарғона-Хитой, Каспийорти-форс (Эрон) на Афғонистон Самарканд-Бухоро амирлиги, Хива-Россия чегараларила ташкил этилган "Ҳарбий посёлка" дагилар кўчириб келтирилган деҳқонлардан 100 баробар фойдали"-деб ёзилади - Туркистон тўплами” [6]

Кўчирилган аҳоли ва маҳаллий аҳоли ўртасида ер-сув муносабатларини тартибга солиши ҳам мустамлака маъмуриятини бу йўналишда қонунчилик асосларини ишлаб чиқишга мажбур қилди. Сунъий суғоришга асосланган дехқончилик маданиятидан йироқ бўлган Европа тилли аҳоли Шарқда леҳқончиликда сув ва ер бир хил ахамиятга эга эканлигини дастлаб тўла англаб этмади. Туркистон ўлкасининг биринчи генералгубернаторы П.А. Кауфман томонидан 1877 йилда эълон килинган сувдан фойдаланишга каратилган "Вактинча коида, бу борада биринчи кадам бўлли Ушбу хужжатда дарс ва каналлар суви давлат мулкига айлантирилиб, янги ўзлаштирилган ерларга маъмурият рухсати билан суп чикарилиши кўрсатилди. Бирок "вактинча конда" бор-йўги 4 йил амал килиб, 1882-1884 йилларда генерал-губернатор бўлган А.Черняев ирригация сохасида сув назорати шарт эмаслигини эълон қилди. сувдан фойдаланишнинг агъанавий одатлари янгидан тикланди. [19] 1888 йил 2 августа махсус "Сув ҳақида Низом" кабул килиниб, сувдан фойдаланиш ишлари уезд бошлиғи, мироб, арик ксоколи, махсус чиновник, ирригатор зиммасига юклатилди. Низомга кўра арик оқсоқоли зиммасига сувнинг кўпайиши ва камайиши юзасидан махсус дафтар юритиш, ариқ холатини сақлаш, хашар ишлари учун деҳқонларни жалб этиш кабилар юкланди. Ирригаторга гидротехник ишлар, канал сувидан рационал фойдаланиш жавобгарлиги юкланиб, унинг 2 та техник ёрдамчиси бўларди. Сув билан боглик можаролар "ер комиссияси" "сув оксоколи" хамда полиции томонидан хал килинадиган бўлди. 1896 йилдан бошлаб "Вилоят ирригация ишлари бошкарувчиси" лавозими жорий этилган “Сув ҳақидаги Низом" да Туркистон ўлкаси уездларида сув омборлари барпо этиш хамда экиладиган, сунъий суғоришга асосланган ер майдонлари учун сув захираларини яратиш кўрсатилган.

Хулоса килиб айтганда, Россия империясидан Туркистонга аҳолини кўчириш бир канча боскичларда олиб борилди. Хусусан, дастлабки даврларда кўчириш жараени маркизлаштирилган холда олиб борилган. Бунда кўчишни хоҳловчи аҳоли учун Туркистонда махсус жойлар ажратилган ҳамда ушбу ерларда хўжаликлар уй-жой қуриш имконига эга бўлган. Кейинчалик Россия империяси маъмуриятлари ўртасида аҳолини кўчириш туғрисида тортишувлар юзага кела бошлади. Бу асосан Туркистонда кўчиб келувчиларга ер ажратиш билан боғлиқ эди. Шундай бўлсада, айрим аҳоли вакиллари ўз ташаббуслари билан якка холда Туркистонга кўчишни давом эттирган. Мазкур жараёнларда муаммоли холатлар транспорт воситаси ва Туркистондаги ер танқислиги эди.

Шунингдек, Россия империяси ҳукумати ва Туркистон генерал губернатор томлигинидан кўчирилган аҳолининг фаолиятини тартибга солиш учун кабул қилинган қонун ва низомлар, коида ва кўрсатмалар

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Антонович Переселенческих задача //Туркестанский курьер. 1908 - 35
2. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Ленинград Издательство Академии наук СССР 1927 С 148 149.

3. Велецкий. Положение переселенческого дела и Семиречиньской области // Туркестанские ведомости 1907 N133;134
4. Голов Г Что говорить о Туркестане // Туркестанский кўрьер 1909 44.
5. Дингельштадт Н поземельного непаразумена " в Туркестан // Вестник Европы 1892 N6,
6. Земельный недостаток в Туркестанском крае // Туркестанский сборник Том 508 С.9
7. Колонизация в Туркестане // Туркестанский сборник Том 586 -С135.
8. Колпаковский Г.А. Переселение в Степной край и Туркестан // Туркестанский сборник. Том 428-156; с 157
9. Наша колонизация в Средней Азии Туркестанский сборник. Том. 429 С.335
10. Наша колонизация в Туркестан. // Туркестанский сборник. Том 586.-С.180
11. Николай Григориевич. Заметки нарезки переселенцам усадебной земли в Туркестанской области// Туркестанский сборник. Том 425.- С.164.
12. О-вч Справочная издания переселенческого управления // Туркестанский сборник -Том 523 с. 177
13. По поводу стопрочинных путьей Семиречье Туркестанские ведомости 1907. № 79.
14. Полон П С. Переселение кочевники // Туркестанский сборник Том 428 С.64
15. Принципы переселения // Туркестанский сборник. Том 499. С. 94
16. Рыбалов П. Переселение в Туркестан // Туркестанский курьер. 1908 - 44
17. Сиберо Сибирь и Туркестан // Ташкентский курьер. 1906 – N 40.
18. Сибирь и Туркестан // Ташкентской курьер. 1906 - № 40, Тилгаев К. Богарные земли // Туркестанский курьер, 1905. -№ 98.
19. Синельников В. Орошение Средней Азии //Туркестанский сборник. Том 496.С. 110-112.
20. Тилгаев К. Богарные земли / Туркестанский курьер 1909. -№98
21. Туркестанец. К вопросу о колонизации Туркестанского края // Туркестанский сборник. Том 472. – С.2-3
22. У регулированные поземельного податного дела в Туркестанском крае // Туркестанские ведомости 1908 N103
23. Ўз.Рес.М.А. 1-фонд, 1-рўйхат, 1319- йиғма жилд. 2-варақ, 1227 йиғма жилд, 910-11 варақлар

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ҚАРШИ ЧЎЛИНИ ЎЗЛАШТИРИШИДАГИ ДАСТЛАБКИ ЛОЙИҲАЛАРИ

Рахимов Асрор Эшонқулович,
Ахборот технологиялари ва менежмент университети.
Катта ўқитувчи.

Аннотация. Совет ҳукумати томонидан XX асрнинг иккинчи ярмида Қарши чўлини ўзлаштириш жараёнларининг дастлабки лойиҳалари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Сув, чўл, канал, лойиҳа.

Abstract. About the early projects of the processes of development of the Karshi desert by the Soviet authorities in the second half of the XX century.

Key words: Water, desert, canal, project.

Ўзбекистон Республикасининг саноати ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида сув таъминоти ва унинг сифати муаммоси, совет даврида ўзлаштирилган ерларда яшаётган аҳоли

хўжаликларининг тақдири, айнан, сув билан боғлиқ эканлиги, глобал иқлим ўзгаришлари жараёнида ўзининг долзарблиги билан янада аҳамиятлидир.

Ўзбекистонда суғориш ишлари бундан 3200-3000 йиллар аввал бошланган[1]. Академик Яҳё Ғуломов раҳбарлигидаги Мохондарё археологик гуруҳи томонидан Зарафшон дарёси ва Қашқадарёнинг қуйи оқимларида умумий майдони 600 минг гектар қадимги сув чиқарилган ва суғорилган ерлар мавжуд бўлганлиги аниқланган[2]. Зарафшон водийсининг қуйи қисмига туташган Қарши чўлининг шимоли-ғарбий ҳудудларида неолит ва бронза даври ёдгорликларининг учраши, Қашқадарёнинг суви Қарши чўлини ёриб ўтиб, Зарафшон томон оққанидан қулай, табиий шароит туфайли бу ҳудуд ҳозирги вақтдан, тахминан, 4 – 5 минг йил муқаддам аҳоли томонидан ўзлаштирилганлигидан далолат беради[3].

Қарши чўлини суғориш масаласини Россия империянинг ўлкадаги мутахассислари ҳам ўрганган. Масалан, 1880 йилда муҳандис Лессар канал орқали Амударё суви билан Қарши чўлини суғориш лойиҳасини тайёрлаган[4]. Аммо, воҳадаги сув ресурсларини ва ер фондини ўрганиш ишлари совет ҳокимияти ўрнатилгандан кейин, 1925 йилдан[5] батафсил ўрганила бошланган эди. Айнан шундай олимлардан бири Л.В.Дунин-Барковскийнинг асари[6]да Амударё ва Зарафшон дарёларининг суви билан Ўзбекистонда суғориш ишларини ривожлантириш мумкинлиги қайд этилади. Ҳукуматнинг Қарши чўлини ўзлаштиришдан мақсади “оқ олтин”дан юз минглаб тонна сифатли ҳосил олиш бўлган. Бу мақсадда Совет давлати воҳада пахтачиликни ривожлантириши учун қўшимча сув манбаларини қидириши зарур эди.

Масаланинг галдаги ечими сифатида Эски Анҳор каналини қайта тиклашга республика Сув хўжалиги министрлиги 1948 йилда[7] эътибор қаратди. Ўзбекистон сув хўжалиги соҳасининг мутахассисларидан бири Солижон Мамарасулов асари[8] да Эски Анҳор каналини эрамиздан аввалги биринчи асрда қазилганлигини қайд этади. Қадимда Манас[9] деб номланган Эски Анҳор каналининг ўтмишини ўрганишда археолог олимлардан 1946 йилда А. И. Тереножкин ва Л. И. Альбаумлар, 1954 йилда С. К. Кабанов[10] ва 1967 йилда Я.Ғуломов[11] раҳбарлигидаги археологлар гуруҳи самарали илмий тадқиқотлар олиб борган.

1952 йили “Средазгипроводхлопок” лойиҳалаштириш институти “Қашқадарё ирригация районининг ер ва сувдан фойдаланиш схемаси”ни тузди[12]. Эски Анҳор каналининг қурилиш лойиҳаси Қарши чўлини ўзлаштирилишида ўзига хос, дастлабки дебоча бўлган деб айтиш мумкин.

1953 йилда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети ва республика Министрлар Совети Эски Анҳор каналини қайта қуриш тўғрисида қарор қабул қилади[13]. Эски Анҳор каналини қайта тиклаш ишлари 1954 йилнинг январь ойида бошланган[14] бўлиб, 1955 йилда Зарафшон дарёсининг сувларини Қашқадарё дарёси сувларига қўшиш учун Эскианҳор канали қазилиб[15], шу йилнинг 27 апрелда канал фойдаланишга топширилди[16]. Бу канал орқали Қарши чўлига, Қарши ва Косон туманларига Зарафшон дарёсининг суви келтирилган. Аммо, Эски Анҳор канали суви билан Қарши чўлини самарали суғориш амалда мумкин эмас эди.

Дастлаб, Қарши чўлига сув чиқарадиган насос станцияларини энергия билан таъминлашда бир қатор лойиҳалар мавжуд бўлган. Масалан, Қарши магистрал канали насос станцияларини энг қулай ва арзон энергия Муборак ёнидаги газ бойлигидир. 130 километр узоқликдаги Муборак газ конидан пўлат турба орқали насос агрегатларига берилади. Насос станциялари электр энергия билан эмас, газнинг бевосита насос агрегатининг ичида ёниш асосида ишлайди[17]. Бу лойиҳа амалда имконсиз ва техник жиҳатдан мураккаб бўлган.

Н. С. Хрушчев КПСС Марказий Комитетининг 1961 йил январь Пленумида ерларни насос орқали суғоришни ёқлаган[18]. Бу эса ўз-ўзидан маълумки, Қарши чўлига ҳам тааллуқли эди.

Шунингдек, Ш. Рашидов КПСС Марказий Комитетининг 1962 йил март ойи Пленумида Қарши чўлини ўзлаштириш истиқболлари ҳақида гапириб бундай деган эди: “Қарши чўли бамисоли катта хазинадир. Маълумки, ғўзани ўсиши учун, асосан, икки муҳим

шарт: иссиқлик ва сув бўлиши керак. Қарши чўлида иссиқлик ҳам, сув ҳам республикамизнинг бошқа ҳар қандай районларига қараганда кўп[19]..”.

КПСС МК ва СССР Министрлар Советининг 1963 йил 7 февраль 160-сонли Қарори билан устувор ўзлаштириш зарур бўлган объектлардан бири сифатида Қарши чўлини суғориш ишларини амалга ошириш СССР Госстрой ҳузуридаги ирригация ва совхозлар қурилиши Бош Ўрта Осиё бошқармасига юклатилган[20].

СССР Давлат хўжалик кенгашининг 1962 йил 26 октябридаги 458-сонли “Қорақум канали, Қарши чўли ва Мирзачўл ҳудудида суғориш тизимларини қуриш ва янги суғориладиган ерларни ўзлаштиришнинг устуворлиги, капитал сармоялар ҳажми ва иқтисодий самарадорлиги масалалари экспертизаси тўғрисида”ги буйруғига мувофиқ, Давлат эксперт комиссияси Қорақум канали (Туркманистон) ҳудуди ва Қарши чўлининг суғориладиган ерлари бўйича мавжуд лойиҳа материаллари ва режалаштириш таклифларини кўриб чиққан[21]. Қарши чўлини ўзлаштириш расман 1963 йил 26 августдан бошланган[22] бўлиб, Қарши чўлини ўзлаштириш ва канал қурилиши лойиҳалари билан собиқ Иттифоқдаги 17 та илмий-тадқиқот институтлари шуғулланган[23].

Қарши чўли Бош лойиҳага кўра, уч босқичда ўзлаштирилиши қайд этилган бўлса, дастлабки босқич – 1966-1970 йилларни ўз ичига олган[24]. 1964 йилнинг 18 август кунида бульдозерчи Қулсаҳат Абдуллаев Қарши магистрал канали трассасида ишларни биринчи бўлиб бошлаб берди[25]. Натижада, Қарши чўлида, асосий ирригация иншооти узунлиги 162 километр бўлган Қарши магистрал канали, узунлиги 105,5 километр бўлган Миришкор (Ульянов) канали ва 1600 миллион $м^3$ сув сиғимига эга Таллимаржон сув омбори қурилган. Ички суғориш тармоқларининг узунлиги 2750 километрни ташкил этади. Бундан ташқари, Қарши чўлида янги ўзлаштирилган ерларда коллектор-дренаж тармоғи яратилган. Чўлнинг энг муҳим коллектори – 160 километр узунликдаги Жанубий коллектор ҳисобланади[26].

Совет ҳукуматининг Қарши магистрал каналини қуришидан ва чўлни ўзлаштиришдан кўзланган асосий мақсади пахта хом ашёсига бўлган эҳтиёж. Натижада, иқтисодий ресурсларнинг нотўғри тақсимланиши вилоят саноатининг бир томонлама ривожланишига олиб келган. Бу жараён, айниқса, Қарши чўлига кўчириб келтирилган аҳолининг ижтимоий-иқтисодий, маънавий ҳаётига жиддий таъсир этган.

Совет ҳокимиятининг минтақада юритган аграр сиёсатининг моҳиятидан узоқлашмаган, совет мафкураси таъсиридаги илмий-тадқиқот ишларида, илмий ва бадиий адабиётларида, ҳамда матбуотда Қарши чўлини ўзлаштириш масаласида нотўғри хулосалар чиқарилган. Совет ҳокимияти минтақадаги чўлларни ўзлаштириш масаласида Туркистондаги давлатчиликларнинг аграр сиёсатини қоралаб, ўзининг “буюк давлатчилик” мафкурасини халқ онгига сингдиришга ҳаракат қилинган. Шу сабабли, Қарши чўлини ўзлаштирилишининг ижобий ва салбий жиҳатларини объектив ўрганиш ва илмий жиҳатдан холис таҳлил қилиш Ўзбекистон тарихида ўрганилиши лозим бўлган мавзулардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Эгамбердиев. Р. Қадимий иншоотларга саёҳат. // “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журнали. № 3. Март, 1970. –Б. 60-61.

2. Муҳаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Тошкент: “Фан”, 1972. –Б. 6.

3. Муҳаммаджонов А. Р. Кўрсатилган асар. – Тошкент: “Фан”, 1972. –Б. 54.

4. Тошев Х. Қашқадарёда ирригация ишлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1976. Б. – 4.

5. Виноградов Г. Н. Ирригация в долине Кашкадарьи. – Ташкент: САННИИРИ, 1935. Б. – 7.

6. Дунин - Барковский А. В. Развитие орошения в Узбекистане водами Аму-Дарьи. – Ташкент: 1946.

7. Анорбоев С. Воҳанинг жон томири. // “Қашқадарё ҳақиқати” газетаси. №95. 16 май, 1974.
8. Мамарасулов С. М. Ўзбекистон ирригацияси . – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1964. – Б. 36.
9. Тошев Х. Дарёлар туташган диёр. – Қарши: “Насаф”, 2020. –Б. 8.
10. Анорбоев С. Кўрсатилган мақола. // “Қашқадарё ҳақиқати” газетаси. № 95. 16 май, 1974.
11. Анорбоев С. Воҳанинг жон томири. // “Фан ва турмуш” журнали. № 3. 1974. –Б. 18.
12. Тошев Х. Қашқадарёда ирригация ишлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1975. – Б. 5.
13. Анорбоев С. Кўрсатилган мақола. // “Қашқадарё ҳақиқати” газетаси. № 95. 16 май, 1974.
14. Таҳририят. Суғориш тизимларини тозалаш муҳим вазифа. // “Қашқадарё ҳақиқати” газетаси. № 11. 16 январь, 1955.
15. ЎзМА, 2743-жамғарма, 1-рўйхат, 136-йиғма жилд, 4-варақ.
16. Анорбоев С. Воҳанинг жон томири. // “Фан ва турмуш” журнали. № 3, 1974. – Б. 18.
17. Йўлчиев С. Бугун чўл, эртага бўстон. // “Фан ва турмуш”. № 9. Сентябрь, 1962. –Б. 10.
18. Йўлчиев С. Кўрсатилган мақола. // “Фан ва турмуш”. № 9. Сентябрь, 1962. –Б. 9.
19. Йўлчиев С. Бугун чўл, эртага бўстон. // “Фан ва турмуш”. № 9. Сентябрь, 1962. –Б. 10.
20. ЎзМА, 2743-жамғарма, 1-рўйхат, 44-йиғма жилд, 9-варақ.
21. ЎзМА, 2743-жамғарма, 1-рўйхат, 136-йиғма жилд, 1-варақ.
22. Ғоипова Т. Қарши чўлида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1984. –Б. 4.
23. Қурбонов Ш. Воҳамизнинг бебаҳо хазинаси. “Қашқадарё ҳақиқати” газетаси. № 200. 9 октябрь, 1974.
24. Сиддиқов. Ш. Кураш бошланди. // “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журнали. № 6. Июнь, 1966. -Б. 38-39.
25. Шоғазатов Х. Қарши даштининг ҳозирги куни ва истиқболи. // “Партия турмуши” журнали. №6. 1975. –Б. 42.
26. Салиев А., Файзуллаев М. Формирование природно-хозяйственных систем Каршинской степи. // “Çölleri özleşdirmegiň problemalary”. Ашхабад, 2010. – Л. 11.

XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН МИЛЛИЙ МАТБУОТИНИНГ ЎЛКА МАДАНИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ

Мустафаева Нодира Абдуллаевна,
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Ижтимоий-гуманитар фанлар бўлими раҳбари
nodiramus69@mail.ru

Аннотация: Мақолада XX аср бошларида Туркистон миллий матбуотида ўз даври учун долзарб бўлган мавзулар ёритилганлиги, халқнинг маданий тараққиёти ҳамда дунёқараши кенгайишига ҳисса қўшганлиги таҳлил этилган. Унда бу йилларда нашр этилган мақолаларда асосан Туркистон халқларининг сиёсий онгини ўстиришга йўналтирилган ижтимоий-сиёсий ҳамда миллатнинг маданий савиясини оширишга қаратилган илмий-маърифий мақолалар эканлигига урғу берилган.

Аннотация: В статье анализируется тот факт, что в начале XX века национальная пресса Туркестана освещала актуальные для своего времени темы, которые способствовали культурному развитию и расширению мировоззрения народа. Подчеркивается, что опубликованные в эти годы статьи представляют собой преимущественно общественно-политические и научно-просветительские содержания, направленные на повышение политического сознания народа Туркестана и культурного уровня нации.

Abstract: The article analyzes the fact that at the beginning of the 20th century, the national press of Turkestan covered topics that were relevant for their time, which contributed to the cultural development and expansion of the worldview of the people. It is emphasized that the articles published in these years are predominantly socio-political, scientific and educational content aimed at increasing the political consciousness of the people of Turkestan and the cultural level of the nation

Маълумки, ҳар қандай ижтимоий-сиёсий тузумдаги ҳурфикрлилик имкони ва даражаси ўша давр матбуоти орқали намоён бўлади. Уни синчиклаб ўрганиш ва таҳлил этиш билан ўша даврнинг ҳукмрон мафкураси ижтимоий, сиёсий, маънавий ҳаётга қай даражада таъсир этганлигини, шунингдек, жамият тараққиётидаги салбий ҳамда ижобий тарафларини аниқлаш имкони кенгаяди.

Шу ўринда Туркистонда XX аср бошлари, чунончи, 1906-1908 йилларда нашр этилган “Тараққий”, “Хуршид”, “Шуҳрат”, 1913-1915 йилларда чоп қилинган “Самарқанд”, “Садои Туркистон”, “Садои Фарғона”, “Ойна” каби вақтли матбуотнинг бу борадаги фаолиятларини алоҳида таъкидлаш даркор. Албатта, улар турли сабабларга кўра ўз фаолиятларини узоқ давом эттира олмаган бўлсаларда, Туркистон ижтимоий-сиёсий, илмий-маънавий ҳаётида муҳим ўрин эгаллай олдилар.

Ушбу нашр органлари ўз даври учун долзарб бўлган мавзуларни ёритиб, халқнинг тараққиёти ҳамда дунёқараши кенгайишига ҳисса қўшган. Улар, асосан, “миллий, туркий ва форсий ўрта шевада илм-фан, адабиёт, тижорат, ҳунар ва зироатдан, Русия аҳволи ва маданияти, хорижия мамлакатлари ҳолидан, олами ислом тириклигидан ёзувчи маданиятпарвар мусаввар жарида”[1], деган вазифаларга амал қилдилар ҳамда халқ орасида эътибор қозондилар.

Шу билан бирга, матбуотда ижод қилганлар аҳолини газета-журнал ўқишга, матбуотдан ўз турмушида фойдаланишга одатлантириш, унинг ижтимоий аҳамиятини тушунтириш мақсадида бир қатор фикрлар билдирганлар.

Обиджон Маҳмудов: “Газета бутун дунёдаги маданий миллатларнинг тириклик йўлида, оламдаги даражалари, инсоният тараққий ва толеси учун лозим бўлган саъй-ҳаракатлар тўғрисида бир-бирларига маслаҳат ва кенгаш учун воситадур”[2], деса, Ашурали Зоҳирий: “Газета ҳар миллатнинг тилидир, газетасиз миллат тилсиздир. Ҳар қавмнинг ҳаёти ва саодати учун ул миллатнинг матбуоти ва адабиёти бўлмоғи лозим”[3], деган фикрда эди.

Убайдулла Хўжаев “Садои Туркистон” газетасининг нашри муносабати билан “...биз, туркистонликлар ҳозирда на замонға қараб ҳаракат қилурмиз, на дин ва шариатимизга суянурмиз, на тарихимиздан ибрат олурмиз... Бизим шул қадар ғафлат ва жаҳолатимизни кўратуруб, янада сабр ва қаноат ила сукут этмак муқаддас ватанимиз ва меҳрибон онамиз бўлғон Туркистонға кўб оғир келди. Шул сабабли ул ўзининг дилдан чиққан хазин “садоси” ила ўз авлодларина насиҳат қилмоққа қарор берди. Мана бизим бу жаридамиз шул Ватан муқаддасимиз бўлғон Туркистоннинг ўз авлодларина сўйлаган сўзу, чиқарғон садоларининг таржумона бўладур”[4], – деб, миллий матбуотга нисбатан “миллатнинг умум дарсхонаси” деган таърифни қўллайди.

Миллий матбуотда нашр этилган мақолаларни шартли равишда икки йўналишга бўлиб таҳлил этиш мақсадга мувофиқ:

1. Туркистон халқларининг сиёсий онгини ўстиришга йўналтирилган ижтимоий-сиёсий мақолалар.
2. Миллатнинг маданий савиясини оширишга қаратилган илмий-маърифий нашрлар.

Биринчи йўналиш бўйича газеталарнинг ҳар бир сонида дунёда содир бўлаётган ижтимоий-сиёсий жараёнларга катта эътибор қаратилган.

Масалан, биргина “Самарқанд” газетаси ўзининг ҳар бир сонида дунёда содир бўлаётган ижтимоий-сиёсий жараёнларга алоҳида урғу бериб борди. Жумладан, 1913 йил ўрталарида Болқон минтақасидаги сиёсий воқеалар, хусусан, Болгария, Туркия, Руминия, Сербия, Македония, Греция давлат-лари орасидаги кескин муносабатлар натижаси ўлароқ бошланган II Болқон урушига[5] М.Беҳбудий ўзининг “Болқонму Вулқон?”[6], “Адарна”[7], “Болқонга бир назар”[8] номли мақолаларида холис ёндашувини намоён қилади. Бу урушдан нафақат Болқон мамлакатлари, балки Германия, Россия, Англия, Австро-Венгрия давлатларининг ҳам сиёсий манфаатлари ҳал этилаётган эди. Гарчи уруш якун топса-да, “Болқоннинг истиқболи ҳануз мазлумдур. Охири қўрқинчдир”, – деб ёзган эди М.Беҳбудий ва унинг ушбу фикрлари ҳақиқат эканлигини 1914 йилда бошланган Биринчи Жаҳон уруши тасдиқлайди.

Сиёсий мазмундаги материаллар жумласига, шунингдек, М.Беҳбудий қаламига мансуб “Қонуни Оврўпо” номли мақолани киритиш жоиз. Оддий халқ учун тушунарли ва содда ва равон тилда ёзилган ушбу мақола “қонунлар ҳар мамлакатнинг аҳволиға ва сиёсатиға мувофиқ ёзилур, халқ вакиллари тарафиндан таҳрир топилиб, мамлакатнинг подшосиға топширилур”[9],– деган мулоҳазалар билан бошланиб, Европа мамлакатларидаги ҳукумат бошқаруви таҳлил этилади. Улар учта, яъни монархия, парламент, республика турларига бўлиб ўрганилади. Муаллиф Россия Думасига сайланиши лозим бўлган туркистонлик муносиб номзоднинг йўқлигига ачиниш ҳисси билан қарар экан, ўлка манфаатини ҳимоя қилувчи вакиллар “Давлат Думасинда 400 нафар аъзо ва 50 қадар ҳукумат режали вазирлар ҳузуринда минбарға чиқиб, ўзидан ва миллати, ватан мамлакати бобинда ва ҳам судлар, валийлар, вазирлар амал қилатурган асл закунни тақвич қилмоқ ва ёйинки эътироз этмоқ”[9] лик хусусиятига эга бўлиши нақадар зарур эканлигини таъкидлайди. Бунинг учун халқнинг болаларини мактабларда ўқитиш масаласини биринчи ўринга қўяди.

“Самарқанд” газетасининг “Хорижия хабарлари” рукнида: “АҚШда ... кундалик газеталарнинг сони 2472та, ҳафталик газеталар 16269та, ўн беш кунлик ва ойлик журналлар 276та чоп этилади. Булардан 200 кундалик газета борки, буларнинг муштарийси 10 миллиён кишидир, беш журнал борки, беш миллиён муштарийга эга. Энг кам ўқиладигон газетанинг муштарийси 100000 кишидур”[10],– ёзилган эди. Табиийки, бу хабар газета муҳаррири М.Беҳбудийнинг юқори салоҳият соҳиби, кенг диапазонли дунёқарашга эга шахс эканлигини яна бир карра исботлайди.

Ушбу ҳолатга шарҳ бериб, у ўз Ватанидаги қолоқликка шундай баҳо беради: “Етмиш миллиён Америка халқи 22882 жарида ва мажалла ўқийди, биз Туркистон нуфуси онлардан саккиз баробар оз бўлса-да, илм борасида уч минг дафъа оздурмиз. Биз дунё аҳлидан биз Туркистонлилар беилм ва ваҳшийдурмиз”[10].

Ўз-ўзидан кўринадики, аксарият ижтимоий-сиёсий рукндаги мақолаларнинг хулосаси Туркистон халқларининг ўқитилиши ва маорифига эътибор қаратилиши кераклиги билан якун топади.

Миллатпарварлар аҳолининг ижтимоий-сиёсий фикр доирасини кенгайтириш, ушбу жараёнларга жалб этишда, энг аввало халқнинг дунёқарашида маданий-маърифий ўзгартиришлар ясашнинг муҳим омили сифатида мактаб ислоҳотини биринчи зарурият деб белгилаб олдилар.

Исҳоқхон Ибрат “Тарихи Фарғона” асарида ўлкадаги мавжуд ўқув тизими, мактабларнинг аҳволи, аҳолининг илмга муносабати, илмсизликнинг тараққиётга салбий таъсирини кўрса-тиб ўтган ҳолда, жадид мактабларининг заруриятини: “Аммоки, илмия тўғрисида бизни халқда чандон аҳамияти йўқ, таназзулда турур... Маданият учун ҳар қайси вақтдаги замона илмини, қайси бири ривожда бўлса, ани билмак зарурдир”[11], – деб ёзади.

Рауф Музаффарзода ўзининг “Янги йилдан эски тилаклар” номли мақоласида миллий матбуот қандай бўлиши ва қайси йўналишда ривожланиши ҳақида фикр билдирар экан, “эрларимиз ҳам, хотин-қизларимиз ҳам маишат, тарбия ва дунё ила таништурсун ва онларнинг фикрларини очуб аҳволи оламдин хабар берсун”[12], деб давр учун энг зарур бўлган

муаммоларни ёзишга даъват этади. Энг қувонарли жиҳати шундаки, ушбу мурожаатга жавобан аёл муаллифларнинг Туркистон хотин-қизлари ҳаёти, кундалик турмуши билан боғлиқ бўлган воқеаларни кенгроқ ёритган мақолалари вужудга келди.

Умуман, XX аср бошларидаги миллий матбуот саҳифаларида Туркистондаги маданий - маърифий жараёнлар жиддий таҳлил этилган, зарур ҳолларда муаллифлар бошқа миллатлар маорифи ва маданияти даражалари ҳолатига эътибор қаратиш ва улардан ўрнак олиш зарур, деб ҳисоблаган эдилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва изоҳлар

1. “Самарқанд” газетасининг ҳар бир сонида шу матн чоп қилинган. Бошқа миллий матбуот органлари ҳам шу маслакда иш юритганлар.

2. М а ҳ м у д о в О. Газета надир ва нечун лозим // Садои Фарғона. 1914 йил 10 апрель

3. З о ҳ и р и й А. Сўз боши // Садои Фарғона. 1914 йил 3 апрель.

4. У б а й д у л л а . Мақсад ва маслак // Садои Туркистон. 1914 йил 4 апрель.

5. Бу уруш 1913 йил 29 июнда болгар қўшинларининг серб армиясига қарши ҳарбий ҳаракати билан бошланган. Сербия, Греция, Руминия, Туркия коалицияси Болгарияга қарши урушган. Болгария мағлубитга учраб, 1913 йил 10 августда Бухарестда сулҳ шартномаси имзоланган эди. (*Изоҳ*: I Болқон уруши 1912 йил октябрда Туркияга қарши Болқон иттифоқи давлатлари (Сербия, Болгария, Греция, Черногория)лар томонидан бошланган ва унда Туркия мағлубиятга учраган эди).

6. Б е ҳ б у д и й М. Болқонму Вулқон? // Самарқанд. 1913 йил 30 апрель.

7. Б е ҳ б у д и й М. Адарна // Самарқанд. 1913 йил 16 июль.

8. Б е ҳ б у д и й М. Болқонга бир назар // Самарқанд. 1913йил 13 август.

9. Б е ҳ б у д и й М. Қонуни Оврўпо // Самарқанд. 1913йил 10 сентябрь.

10. Ахбори хорижия // Самарқанд.1913йил 16 июль.

11. В о ҳ и д о в а К.А. Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий илмий мероси. Тошкент, 2008. 21-бет.

1 2 . М у з а ф ф а р з о д а Р а у ф . Янги йилдан эски тилаклар // Садои Туркистон. 1914 йил 2 январь, 15 январь

BXSR YILLARIDA O‘ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARI TA’LIM TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR.

To‘raeva M.X.
T.f.n. dots.

Annotatsiya: Ushbu maqolada BXSR yillarida O‘zbekiston janubiy hududlari ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida so‘z boradi. Muallif arxiv ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida BXSR yillarida O‘zbekiston janubiy hududlari ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: BXSR, O‘zbekiston janubiy hududlari, ta’lim tizimi, o‘zgarishlar.

Abstract: This article talks about the changes in the education system of the southern regions of Uzbekistan during the years of the USSR. Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the changes in the education system of the southern regions of Uzbekistan in the years of the USSR.

Key words: SFSR, southern regions of Uzbekistan, education system, changes.

BXSR hukumati tomonidan ta’lim, madaniy-ma’rifiy ishlar faoliyatiga alohida e’tibor qaratildi. Datlabki kunlardan hukumat tarkibida Maorif xalq nozirligi tashkil etildi. 1920-1924

yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilgan ishlarda, Maorif noziri sifatida, Buxorodagi jadidchilik harakati va Yosh buxoroliklarning yetakchilaridan bo‘lgan Qori Yo‘ldosh Po‘latovning (18901965) xizmatlari katta bo‘ldi.

Inqilobiy qo‘mitaning 1920 yil 20 oktabrdagi qarorida BXSR hududida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan eski maktablar va madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy bilimlarni kengroq joriy etish masalasi ko‘rib chiqiladi. Jumladan bunday o‘zgarishlar BXSR tarkibida bo‘lgan Qashqadaryo va Surxandaryo hududlarida faoliyat ko‘rsatayotgan an’anaviy ta’lim tizimi muassasalariga ham tegishli edi.

1920-1924 yillarda janubiy hududlarning barcha shahar va yirik qishloqlarda ham an’anaviy ta’lim tizimidagi maktablar mavjud edi. Sovet davlati hukmronligining dastlabki yillarida milliy maktablarga bolsheviklar g‘oyasi bo‘yicha baho berilib, ularning asl mohiyati xalqdan yashirildi. O‘sha davrdan boshlab sovet olimlarining chop etilgan asarlarida O‘rta Osiyo milliy maktablarida asosan diniy ta’lim yo‘lga qo‘yilganligi ta’kidlanib, mazkur maktablar ta’lim va tarbiya maskani emas, balki din va xurofot o‘chog‘i sifatida talqin qilindi. Buni N.Raxmonov, A.Umaralievlarning asaridan keltirilgan quyidagi havola ham tasdiqlaydi: “Mahalliy aholi bolalari o‘qiydigan asosiy bilim yurti boshlang‘ich maktab bo‘lib, u ruhoniylar ta’sirida edi. Eski maktab o‘rta asrga xos sxolastik mazmun va o‘qitish metodlari bilan cheklangan bo‘lib, talabalarni dunyoviy bilimlar bilan deyarli tanishtirmas edi”. Sovet davri adabiyotlarida eski usul maktablariga berilgan bu kabi ta’riflarni tez-tez uchratish mumkin.

Sovet davlati tomonidan bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, avvalo mahalliy aholi orasidan chiqqan xalq ta’limi xodimlari, madaniyat arboblarining zo‘r berib ishlashi natijasida 20-yillarning birinchi yarmida O‘zbekiston hududida madaniy hayot xukmron mafkuraga xos yangi ko‘rinishda qaror topa borib, aholining butun hayotini qamrab ola boshladi.

Yangi sovet maktablarining quyidagi asoslari joriy qilindi: Sovet maktablari tizimi ikki bosqichli shaklda tasdiqlandi. Birinchi bosqichda 8 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar (besh yillik o‘qish), ikkinchi bosqichga 13 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalarni (to‘rt yillik o‘qish) o‘qitish mo‘ljallandi, ya’ni 17 yoshgacha bo‘lgan bolalarni majburiy umumiy va politexnik (nazariy va amaliy ishlab chiqarishning muhim tarmoqlari bilan tanishtiradigan) ta’limga jalb qilish zarurligi ta’kidlandi.

1920 yildan boshlab nashr etilgan gazeta va jurnallarning sahifalarida e’lon qilingan maqolalardan ma’lum bo‘lishicha, sho‘ro hukumati o‘rnatilgandan keyin, an’anaviy ta’lim tizimidagi kabi muammolar, yangi tashkil etilayotgan sovet maktablari faoliyatida ham mavjud edi. Jumladan, sovet maktablarini tashkil etish shoshma-shosharlik sharoitida olib borilayotganligi haqida matbuot sahifalarida bir nechta maqolalar chop etilgan. Ushbu fikrimizga Sh.Rahimiyning: “Maktablar har yerda, ko‘zga ko‘rinarli bino, o‘quvchi bo‘lsa bas, ochila berdi”, deb ta’kidlagani misol bo‘ladi. Sh.Rahimiy o‘sha davr sovet maktabi hayotini “to‘dachilik davri” deb baholab, hatto maktablarni turk zobitlari qo‘liga topshirilganligini, ular esa asosiy e’tiborni harbiycha yurish va topshiqlarni o‘rgatishga qaratganlarini kuyunib yozadi.

BXSR hududlarida 1920 yilning oxiri 1921 yilning boshlarida qo‘yidagi ta’lim shakllari faoliyat olib bordi: ibtidoiy (boshlang‘ich) va umumiy ta’lim beradigan maktablar, namuna maktablari, xotin-qizlar maktablari, hunar maktablari, musiqa, duxovoy orkestr maktablari, ustaxona maktablari, siyosiy maktablar, rus tili maktablari, 6 oylik kurslar, diniy ta’lim beradigan eski usul maktablari, shu sohada ta’lim beruvchi madrasalar, savodsizlikni tugatish maktablari, kechki kurslar va boshqalar. Shu yilning yanvar oyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hududida mavjud bo‘lgan maktablar, madrasalar, qorixonalar, Xalq Maorifi Komissarligi ixtiyoriga o‘tkazildi. Maktablardagi barcha ishlar uning rahbarligi va nazorati ostida tashkil qilina boshlandi.

BXSR hududidagi barcha ta’lim maskanlarida o‘quv yili 1 oktabrdan boshlanib, keyingi yil iyun oyi boshlariga qadar davom etgan. 1921 yilning o‘rtalarida Buxoro Xalq Respublikasi qaramog‘da bo‘lgan viloyat va tumanlarda, shu jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida ham maorif bo‘limlari tashkil etildi. 1921-1922 o‘quv yilida Qarshi viloyatida 12 ta boshlang‘ich va

umumta'lim maktablari bo‘lib, ularning 7 tasi Qarshi shahrining o‘zida joylashgan edi. 1922-1923 yillarda ularning soni 73 taga yetdi. Jumladan, Qarshida 10 ta, Termizda 3 ta va 1 ta rus, Shaxrisabzda 5 ta, G‘uzorda 5 ta maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mazkur maktablar oldida kechki savod kurslari ochilib, katta yoshli aholining savodini chiqarish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

BXSR Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Fayzulla Xo‘jaev va Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan turkiy (o‘zbek) tilini mamlakat hududida davlat tili deb e'lon qiladi. "Buxoro axbori" gazetasi sahifalarida maorif nazorati tomonidan boshlang‘ich maktablar uchun "Alifbo" kitobini yozish bo‘yicha konkurs e'lon qilinganligi haqida maqola nashr etiladi. Konkurs shartlarida qo‘yidagi shartlar bayon etiladi: kitob eng avvalo o‘zbek tilida bo‘lishi, harflar isloh qilingan arab imlosida yozilishi, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi, yot tillardagi so‘zlardan xoliligi shart qilib qo‘yilgan. Namunali deb topilgan "Alifbo" kitobi mualliflariga 500 ming so‘m miqdorida mukofat ham ta'sis etilganligi haqida ma'lumot berilgan.

1923 yilga kelib hozirgi O‘zbekiston hududida 11 ta maorif instituti mavjud bo‘lib, ularda 1900 talaba ta'lim oldi. Mazkur yilda Buxoro Xalq Sovet respublikasida ikkita o‘qituvchilar instituti, (Buxoro va Yangi Chorjuy shaharlarida ochilgan) bir nechta pedagogik kurslar mavjud edi. Shu yili Buxorodagi pedagogik kurslarni 70 nafar o‘qituvchi bitirib chiqdi, ulardan o‘zbeklar 43 kishi, tojiklar 45 kishi, turkmanlar 7 kishi va tatarlar 5 kishi edi.

Sobiq sovet davlati o‘z siyosatini amalga oshirish maqsadida zudlik bilan keng ta'lim tizimini yaratishga kirishganligi sababli, o‘qituvchi kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berdi va zarur tadbirlar ishlab chikdi. O‘sha og‘ir yillarda O‘zbekistonda pedagog kadrlar uchta manbadan, eski maktab xodimlari, ishchi va dehqonlar orasidan chiqqanlar va oliy o‘quv yurtlari hamda texnikumlar tarmog‘i yetishtirgan pedagogik yo‘nalishdagi kadrlar asosida shakllantirish amalga oshirildi.

O‘qituvchi kadrlar tayyorlash ishini tezda hal qilish maqsadida qisqa muddatli pedagogik kurslar ochildi va ularning soni oshib bordi. Bunday kurslar faqat shaharlarda emas, balki tuman markazlarida ham tashkil etildi.

Pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilgan dastlabki chora-tadbirlar natijasida respublikada o‘qituvchilarning umumiy soni 1922-1923 o‘quv yilida 1465 nafarni, 1924-1925 o‘quv yilida 2748 nafarni tashkil etdi. Mazkur yilda BXSR da yangi tipdagi maktablar soni 40 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1924 yilda 69 ta umumta'lim, 4 ta musiqa, 3 ta hunar maktablari, 13 internatlar faoliyat ko‘rsatdi. Sovet maktablari qamrab olgan olgan o‘quvchilar soni 5604 nafar bo‘lib, barcha maktab yoshidagi bolalarning 3,1 foiz tashkil etgan bo‘lsa, eski usul maktablarida o‘qiyotgan bolalar 12000 nafar bo‘lib, ular maktab yoshidagilarning 6,6 foiz tashkil qilardi. Keltirilgan bu dalillar 1924 yilda sovet maktablariga nisbatan, eski usul maktablarining mavqei yuqori bo‘lganligidan darak beradi. Mazkur yilda Qashqadaryo viloyatida 76 ta eski usul maktablarida 1523 nafar o‘quvchi ta'lim oldi. O‘sha vaqtda Surxondaryo viloyatida 205 ta eski usul maktablari faoliyat ko‘rsatmoqda edi. Mazkur yilda Buxoro Xalq Respublikasi hududida 8 ta madrasa qolgandi. Ulardan 82 nafar tinglovchisi bo‘lgan 3 ta madrasa, 60 kishi o‘qiydigan 4 ta qorixona Qashqadaryo hududida faoliyat ko‘rsatib kelayotgandi. Sovet davlati o‘z hukmronligini mustahkamlash uchun aynan 1924 yildan boshlab, eski usul maktablari va madrasalari faoliyatiga chek qo‘yish maqsadida ularga qarshi kurash boshlandi. Ular son jihatidan qisqarib bordi. Ammo ularga qarshi sovet maktablari sonini oshirish choralari amalga oshirildi.

1924 yilda Surxondaryo hududida birinchi bosqich maktablari soni 13 ta bo‘lib, ularda 733 o‘quvchi o‘qitildi. Mavjud maktablarning 11 tasi shahar va qo‘rg‘onlarda, 2 tasi qishloqlarda joylashgandi. O‘sha yili O‘zbekiston janubida ham ota-onasidan yetim qolgan yoki oilasida yetishmovchiligi bo‘lgan bolalar uchun internatlar tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, BXSR hukumati o‘zining to‘rt yillik tarixi davrida millatimizni zamonaviy taraqqiyot darajasiga ko‘tarish uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rdi. Hukumat tarkibida Maorif xalq nozirligi tashkil etildi. Nozirlik zimmasiga zamon talablariga mos bo‘lgan ta'lim-tarbiya tizimini yaratish vazifasi qo‘yildi. Hukumatning maxsus organi bo‘lgan "Buxoro axbori" gazetasi

sahifalarida respublikada maorif tizimini yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘yruq va qarorlar, dasturlar, qoidalar, farmonlar, sohaga oid maqolalar berib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati.

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. K 2. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent, Sharq, 2000.
2. Rahmonov N, Umaraliyev. A. Sovet O‘zbekistoni madaniyati tarixi ocherklari. Toshkent, 1984.
3. Mustafayeva N. “Ma’rifat durdonalarimi yoki”//Fan va turmush. 1999 yil. №5-6.
4. Viloyatlarda maorif ishlari. // “Buxoro axbori”, 1921 yil, 30 iyun.
5. O‘z MA, R-94-fond, 1-ro‘yxat, 221-yig‘ma jild, 142-varaq.
6. G‘ulomova O.M. O‘zbek ziyolilarining kamoloti. -Toshkent, O‘zbekiston, 1992.
7. Ishanov A.I. Buxarskaya Narodnaya Sovetskaya Respublika. -Tashkent, 1969.
8. Hasanov M. F.Xo‘jayev. -Toshkent, 1990.
9. G‘ulomova M.O. O‘zbek ziyolilarining kamoloti. -Toshkent, 1992.
10. Qashqadaryo VDA. 83-fond, 1-ro‘yxat, 143-yig‘ma jild, 108-109-varaqlar.
11. Xaliyarov X.i dr. Surxandarinskaya oblast. -Tashkent, 1974.
12. Raxmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi – matbuot sahifalarida (19201924 yillar). -Toshkent, 2012. – B. 91.

МИГРАЦИЯ ПОЛЯКОВ В УЗБЕКИСТАН В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.

Дорошенко Татьяна Ивановна
кандидат исторических наук, доцент
Исторического факультета Национального университета
Узбекистана имени М.Улугбека.
doctata@mail.ru Тел. +998946785485

Аннотация: Статья посвящена депортации и эвакуации поляков в Узбекистан в годы II мировой войны. В момент включения Западной Украины и Западной Белоруссии (1939 г.) в состав Союза его гражданами стали и поляки, проживавшие на данной территории. Депортации в первую очередь, подверглись, политически неблагонадежные и классово враждебные слои населения. Таковыми, по мнению советских властей, были осадники, полицейские, священники, бывшие военные и т.д. Депортированные лица расселялись, в основном, в северных районах СССР и Казахстане, часть оказалась в Узбекистане. Широкая миграция поляков в Узбекистан в основном проходила в 1941 и 1942 гг., в связи с формированием на территории республики армии генерала В.Андерса. В Узбекистан было эвакуировано также большое количество польских детей.

Цель статьи состоит в том, чтобы воссоздать целостную картину положения депортированных и эвакуированных поляков в Узбекистане в период второй мировой войны.

Актуальность проблемы связана, в первую очередь, с тем, что к настоящему времени проблема миграций в целом, беженства, в частности, обострилась. В XXI в., когда военные конфликты, как и прежде, являются одной из форм межгосударственных и межнациональных отношений, все сопутствующие им проблемы остаются.

Ключевые слова: поляки, депортация, эвакуация, дети, вторая мировая война, Узбекистан.

Abstract: The article is devoted to the deportation and evacuation of Poles to Uzbekistan during World War II. At the time of the incorporation of Western Ukraine and Western Belarus (1939)

into the Union, Poles who lived on this territory also became its citizens. First of all, politically unreliable and class-hostile segments of the population were subjected to deportation. Such, according to the Soviet authorities, were osadniks, policemen, priests, former military, etc. The deported persons settled mainly in the northern regions of the USSR and Kazakhstan, some ended up in Uzbekistan. The wide migration of Poles to Uzbekistan mainly took place in 1941 and 1942, in connection with the formation of the army of General V. Anders on the territory of the republic. A large number of Polish children were also evacuated to Uzbekistan.The purpose of the article is to recreate a holistic picture of the situation of deported and evacuated Poles in Uzbekistan during the Second World War.The object of the study was forced migrants of the Second World War, namely: deported and evacuated Poles.The urgency of the problem is primarily due to the fact that by now the problem of migration in general, and refugees in particular, has worsened. In the XXI century, when military conflicts, as before, are one of the forms of interstate and interethnic relations, all the problems associated with them remain.

Keywords: Poles, deportation, evacuation, refugees, World War II, Uzbekistan.

3. Nicklas Norling. Party Problems and Factionalism in Soviet Uzbekistan: Evidence from the Communist Party Archives. Central Asia-Caucasus Institute and Silk Road Studies Program,2017.
4. Ражабов. Қ. Таниқли арбоб (Усмон Юсупов ҳақида)// “Муҳофаза” Тошкент.,2019. N;2 Б-31.
5. Ўз Р-МА Р-837-жамғарма, 32-рўйхат, 1523-иш 2-варак.

6. Усман Юсупов. Избранные труды. Том - I. Ташкент, «Узбекистан», 1982. Юсупов У. Великая Отечественная война советского народа и наши задачи. Ташкент: Госиздат, 1941.

7. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945-1983 йй.)-масул муҳ. Ражабов.Қ- Тошкент.,2020.

8. Мухаммадиев Р. Ўзбекистон ССРдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий жараёнларда Усмон Юсуповни тутган ўрни. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Тошкент, 2022.

9.ТурдиевС. Улуг Ватан уруши йилларида Ўзбекистон мехнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги Тошкент: Фан, 1987.

10. http://www.e-tax.uz/maqolalar/437-son-yusipo.html.

11. http://docs.historyrussia.org/ru/nodes/320526#mode/inspect/page/1 РГАНИ. Ф. 631. Оп. 15. Д. 597. Л. 64-67.

12. ЎзР-МА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 3266-иш, 251-варақ.

13. ЎзР-МА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 3735-иш, 78-варақ.

14. Эрназаров Т.Э. Акбаров А.И. История печати Ўзбекистана. –Тошкент.: Ўқитувчи, 1977.

15. http://docs.historyrussia.org/ru/nodes/330485#mode/inspect/page/1 / АП РФ. Ф. 3. Оп. 58. Д. 212. Л. 211-212.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЮРИДИК ХИЗМАТНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ. (1917-1991 йиллар мисолида)

Худойберди Мейлиев,
Қарши муҳандислик ва иқтисодиёт институти тадқиқотчиси.

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистонда юридик хизматнинг ривожланиш тарихи (1917-1991 йиллар мисолида) ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Ўзбекистонда юридик хизматнинг ривожланиш тарихи (1917-1991 йиллар мисолида) бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, юридик хизмат, ривожланиш, тарих.

Abstract: This article talks about the history of the development of the legal service in Uzbekistan (in the case of 1917-1991). Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the history of the development of the legal service in Uzbekistan (in the case of 1917-1991) on the basis of available scientific literature.

Key words: Uzbekistan, legal service, development, history.

Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигига эришгандан сўнг, ўтган тарихан қисқа даврда жамиятнинг барча жабҳаларида туб ўзгаришлар рўй берди. Миллий истиқлол ҳаётимизнинг ҳеч бир истисносиз барча соҳаларида бўлгани каби юридик хизмат фаолияти ривожи учун ҳам кенг йўл очилди.

Ҳамма вақт ҳам юридик хизматга эхтиёж сезилган. Дастлаб уларга қадимги анъаналар ва удумлар асосида ва кейинчалик бугунги яратилган шарт-шароитлар мувофиқ хизмат кўрсатилган.

Чор подшо ҳукуматининг 1917 йилда ағдарилиши кўплаб халқлар қатори Ўрта Осиё халқлари ҳаётида туб бурилиш ясади. Жумладан Ўрта Осиёда миллий-худудий чегараланиш ўтказилиши натижасида Ўзбекистон ССР ташкил топган ва СССР таркибига кирган миллий республика (1917-1991йй) ҳисобланган.

Туркистон автоном совет социалистик республикаси, Бухоро халк совет республикаси ва Хоразм халк совет республикаси ҳудудларининг, асосан ўзбеклар ва қорақалпоқлар яшайдиган ерларида вужудга келган. Умумўзбек советларининг Бухорода бўлган 1-қурултойида, яъни 1925 йил (13-17 феврал)да «Ўзбекистон ССР ни ташкил этиш тўғрисида»ги декларация қабул қилинган. Қурултойда республиканинг олий органлари: Ўзбекистон ССР Марказий ижроия қўмитаси – Ўз.ССР МИК ва Ўзбекистон ССР Халқ комиссарлар совети – Ўз.ССР ХКС тузилган. Ўзбекистон ССР маъмурий жиҳатдан 1925 йилда дастлаб 8 та вилоят (Самарқанд,Тошкент, Фарғона, Хўжанд, Зарафшон, Сурхондарё, Қашқадарё, Хоразм) га бўлинган ва Тожикистон АССР (1929 йилгача) Ўзбекистон ССР таркибида бўлган ва 22 уезд, 241 волостга бўлинган. Ўзбекистон ССР Бутуниттифоқ Советларининг 111-съездида (1925 йил 13 майда) СССР таркибига киритилган. Дастлабки Конституциялар 1927 йил, 1937 йил ва 1978 йилларда кабул қилинган.

Ўзбек давлатчилиги тарихига назар солсак, ўзбек давлатчилигини шакллантиришда 4 та асосий босқич кўзга ташланади, булар Темурийлар даврида умумий полтэтносининг шаклланиши (Буюк Амир Темур бобомиз империяси), Туркистон ўлкаси мустамлака минтақасининг ташкил этилиши, Ўзбекистон СССРнинг социалистик суперэтноси таркибидан ажралиб чиқиши, Ўзбекистон Республикаси суверен мустақил давлатининг ташкил топиши.

Бу даврларнинг ўзига хос-хусусияти шундан иборатки, барча даврларда юридик хизмат ўзининг актуаллиги-долзарблигини йўқотмаган. Халқнинг ҳак-ҳуқуқларини ҳимоя қилган, тушунтиришлар олиб боришган. Қадимги Ўзбекистон тарихига назар ташласак, халқимиз ҳаётида юридик хизмат муҳим рол ўйнаган.

Биринчидан, бий (бой)лар суди. Махаммад Шайбонийхон бошлиқ кўчманчи ўзбеклар уруғ бошлиқлари бийлар(беклар) томонидан одат ҳуқуқи қоидалари асосида иш кўрилган. Асосан Чор Россияси ҳукумати даврида қозоқ ва қирғизлар яшайдиган жойларда вужудга келган низоларни ҳал килиш учун тузилган. Бийлар суди волост бошқармасига сайловлар ўтказилаётган вақтда уч йил муддатга сайланиб қўйилган. Мазкур суд қозилар судга тенглашган суд тоифасидан бўлиб, сайловдан ўтганларни губернатор тасдиқлаши лозим бўлган. Бийлар суди учта инстанциядан: а) судьянинг якка ўзи тартибида даъво қиймати 300 сўмгача бўлган ишларни кўрадиган судлар, б) даъво қиймати 500 сўмгача бўлган ишларни кўрадиган уезд бий судларининг съезди, в) бий судьяларининг волост кенгашлари томонидан чиқарилган қарорларга берилган имкониятларни кўрадиган фавқулодда съезди. Бийлар суди Туркистон ўлкасининг бошқариш тўғрисидаги 1886 йилги Низом асосида иш олиб бориб, жиноят ва гражданлик ишларини кўришда одат ҳуқуқига асосланган. Оила ва никоҳ ҳуқуқига оид ишларни кўришда эса шариат қоидаларига асосланган.

Иккинчидан, Бухоро амири Саййид Олимхон ҳукмронлигининг дастлабки кунлариданоқ халқнинг шикоятлари ва таклифларидан хабардор бўлиб бориш мақсадида Аркнинг кириш дарвозаси ёнида шикоятлар қўтиси ташкил қилган. Аммо бу етарлича натижа бермагач, ҳар жума куни Масжиди Колонга жума намозини ўқишга бориш ҳамда қайтиш пайтида халқнинг арзлари ёзилган хатларни шахсан қабул қилган. Хатларни бирма-бир кўриб чиқиб, унинг ижросини таъминлашни тегишли амалдорга йўналтирган .

Ўша даврларда қози ва қозиколонлар арз қилувчиларни арзларини қозихоналарда тинглашиб, бугунги юрисдикция ишларини бажарганлар.

Советлар даври (1917-1991йй.)да СССР Халқ комиссарлар советининг 1918 йил 27 июндаги « Корхоналарда ишчи ва хизматчиларга иш ҳаки тўлаш тўғрисида»ги Декретидан келиб чиқиб, дастлабки юрисконсультлар ҳакида сўз юритиш мумкин.

Декрет ҳамма совет ишчиларини ойлик маошларидан қатъи назар 4 гуруҳга бўлишни қараб чиққан. Гуруҳнинг ҳар бири ўз навбатида котегориялар (тоифаларга) бўлинган. Юрисконсультлар масъул ходимлар сифатида биринчи гуруҳнинг иккинчи котегориясига қарашли бўлиб, олий тоифали мутахассислар тоифасига киритилган.

Совет ҳокимиятининг биринчи йилларидан бошлабоқ юрисконсультлар фаолиятининг ташкилий масалалари ва назорат қилиш функциялари Халқ комиссарлари юстициясига юклатилган. Ҳозирда ҳам шундай. 1923 йилнинг 1-февралидан қонунчилик бўйича умумий назорат прокуратурага ўтказилган. Бу вазифалар халқ комиссарлари юстициясидан олиб берилган.

1925 йилнинг 17-22 майида юрисконсультларнинг биринчи умумиттифоқ йиғилиши (анжумани) ўтказилади. Йиғилиш (анжуман) якунига кўра, 1925 йил 27 июнда «Давлат ташкилотлари ва идоралари юрисконсультлар низоми ва 1925 йил 1-августда юрисконсультлар бюроси тўғрисидаги низом қабул қилинади. Иқтисоднинг маъмурий бошқариш методлари кенгая бошлагандан сўнг, юрисконсультлар ўртасида, уларнинг вазифа ва функциялари тўғрисида баҳслар кўпая бошлаган. Ўзбекистон ССР Халқ комиссарлар Советининг 1928 йил 9 июндаги «Давлат муассасалари, корхоналари ва кооператив ташкилотлари юрисконсультлари тўғрисида»ги 38-сонли қарорида юрисконсульт лавозимни эгалаш тартиби, уларнинг асосий вазифалари, жавобгарлиги, фаолияти устидан назорат қилиш ҳамда амалий ишларни бирлаштириш мақсадида маҳаллий прокурорлар ҳузурида ташкил қилинадиган кенгашлар тўғрисидаги нормалар белгиланган.

Юридик хизмат фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш асосларининг ривожланиш тарихи далолат беришича, юрисконсультларнинг вазифалари кенгайтирилиб, ҳуқуқий ҳолати эса такомиллаштирилиб борилган.

Ўзбекистон ССР Халқ Комиссарлар Советининг 1933 йил 11 октябрдаги 718сонли қарори билан «Умумлаштирилган сектордаги муассасалар, корхоналар ва ташкилотлар юрисконсультлари (ҳуқуқий масалалар бўйича маслаҳатчилар) тўғрисидаги Низом қабул қилинган. Мазкур Низом 12 банддан иборат бўлиб, унда юрисконсульт лавозимини эгаллаш тартиби, уларнинг асосий функциялари, жавобгарлиги, фаолияти устидан назорат қилиш, амалий ишларни бирлаштириш, малакасини ошириш мақсадида республика прокурори, жойларда шаҳар ва туман прокурорлари ҳузурида ташкил қилинадиган кенгашлар тўғрисидаги нормалар белгиланган. Шундай килиб, ушбу норматив-ҳуқуқий ҳужжат республикамизда юридик хизматнинг ҳуқуқий мақомини ўша даврларда тўлиқ белгилаб берган биринчи Низом ҳисобланади.

Иккинчи жаҳон уруши даврида асосий куч фронтга ва хўжаликларни қаттик марказлашувига қаратилиши корхоналарда юрисконсультлар хизматини сусайишига олиб келди ва баъзи корхоналарда юрисконсульт вазифаларининг қисқаришига сабаб бўлди. Урушдан кейин эса, хўжалик шартномаларига бўлган талаб, юрисконсультлар вазифаларини тиклашни тақозо этди. Собиқ иттифоқ министрлар советининг 1949 йил 21 апрелдаги «Хўжалик шартномалари тўғрисида»ги қарори юрисконсультлар тўғрисидаги урушдан кейинги биринчи норматив ҳужжат бўлди. Ушбу ҳужжатда иш юкламаларидан қатъий назар, мансабдор шахслар билан шартномалар тузувчи юрисконсультлар вазифалари кераклилиги тан олинди. Шартнома-юридик бўлими тузилди.

1957 йилги қайта қуришдан кейин, бир қатор собиқ иттифоқ республикалари министрлар совети томонидан юрисконсультлар тўғрисидаги янги низом тасдиқланган.Ўзбекистонда эса шунга ўхшаш низом бўлмаган, министрликлар ва идораларда локал норматив ҳужжатлардан фойдаланишган. Шу боис юристлар ишини ташкиллаштиришда жойларда бир қатор муаммолар вужудга келган. Кўплаб раҳбарлар юрисконсультлар ишини билмасликлари ва мазмун моҳиятини тушунмасликлари оқибатида адвокатларга мурожаат килишга мажбур бўлишган. Ишнинг бу тарзда ташкил этилиши, ўша даврдаги юристлар ва олимлар томонидан каттик танқидга олинган.

Ўзбекистон ССР Министлар советининг 1963 йилдаги 551-сонли қарори билан «Корхоналар, муассасалар, ташкилотлар юридик ходимлари (шартнома-юридик) бўлими (бюроси), бош (катта) юрисконсульти тўғрисидаги Намунавий низом » тасдиқланган. Мазкур қарорда Республика вазирлик ва идораларига, Қорақалпоғистон республикаси Министрлар

совети, Тошкент шаҳар ижроия қўмитасига мазкур Намунавий низом асосида ўзларига қарашли корхоналар, муассасалар ва ташкилотлар фаолиятининг ўзга хос хусусиятларни ҳисобга олиб, уларнинг юридик хизматлари тўғрисидаги Низомларни тасдиқлаш вазифаси юклатилган .

1970 йил 23 декабрда КПСС Марказий Комитети ва СССР Министрлар Советининг «Халқ хўжалигида ҳуқуқ ишларини такомиллаштириш тўғрисида»ги қўшма қарори қабул қилинди. Қарор билан бутуниттифок юрисконсультлар тўғрисидаги норматив ҳужжат қабул қилиниши суд, прокуратура, дастлабки суриштирувда ҳам муҳим рол ўйнади. Бу билан юристлар фаолиятига ҳуқуқий баҳо берилганди.

Ўзбекистон ССР Министрлар советининг1972 йил 16 июндаги «СССР Министрлар советининг 1972 йил 22 июндаги «Вазирликлар, идоралар меҳнаткашлар депутатлари Совети ижроия қўмиталари, ташкилотлар, муассасалар юридик бўлими (бюроси), бош (катта) юрисконсульти, юрисконсульти ҳақидаги Умумий низомни тасдиқлаш тўғрисидаги 467-сонли қарори ҳақида» 285-сон қарори ишлаб чиқилди. Ушбу умумий низом яқин-яқингача ҳам амалда бўлиб, ундан бир неча юрисконсультлар авлодлари фойдаланишган.Ўз даврда у жуда актуал норматив ҳужжат бўлган.

1978 йил 21 декабрда қабул қилинган «Ўзбекистон ССР Министрлар совети тўғрисида»ги қонуннинг 13-моддасига Министлар совети томонидан давлат бошқарув органлари, корхоналар, бирлашмалар ва бошка ташкилотлар ва муассасаларда ҳукукий ишларни ташкил қилишни таъминлаш вазифаси белгилаб берилган.

«Ўзбекистон ССР халқ депутатлари вилоят Совети тўғрисида»ги 1980 йил 12ноябрдаги қонуннинг 32-моддасида халқ депутатлари вилоят Совети ҳуқуқий ишларни такомиллаштириш чора-тадбирлари кўриши, вилоятга бўйсунувчи корхоналар, ташкилотлар ва муассасаларда бу ишларга раҳбарликни амалга ошириши, қонунчиликни тушунтириши, тарғибот қилиши ва аҳолига юридик ёрдам кўрсатишига оид нормалар белгиланган.

1983 йил 10-февралдаги Ўзбекистон ССР Министрлар Советининг 79-сонли қарори билан «Ўзбекистон ССР халқ депутатлари вилоят совети ижроия қўмитаси юридик бўлими (бюроси) тўғрисидаги низом тасдиқланган.

1985-1990 йилларда республикамизда юридик хизмат ва ҳуқуқий ишлар тўғрисида махсус норматив-ҳукукий ҳужжатлар қабул қилинмаган ва Давлат бошқарув органлари ва корхоналар илгариги НҲҲлар асосида фаолият кўрсатганлар.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, юридик фаолият билан нафақат юридик хизмат ходимлари, балки тегишли давлат органлари, нодавлат нотижорат ташкилотларнинг ходимлари шуғулланганлар. Аввало бундай ходимлар юрист малакасига эга бўлиши лозим бўлган.

Юрист касби цивилизация тарихида энг кадимги касблардан бири ҳисобланиб, у ҳуқуқ билан бирга пайдо бўлган ҳамда унинг роли қонунчиликнинг ривожланиши, жамият ҳаётини ҳуқуқий тартибга солиш аҳамияти кучайиши билан ошиб борган. Юрист касбининг муҳим ижтимоий роли мавжуд бўлиб, улар шахс манфаатлари, ҳуқуқлари, эркинликлари, мулки, жамият ва давлат манфаатларини жиноий ва бошка ҳуқуққа хилоф тажовузлардан ҳимоя қиладилар. Улар адолат, инсонпарварлик, қонунийлик, ҳуқуқтартибот учун кураш олиб борадилар. Юристнинг ижтимоий роли, айниқса юридик нормаларга риоя қилиш ва бажаришга катта аҳамият бериладиган ҳуқуқий давлатда кучаяди.

Юристлар нафақат ҳуқуқни кўллашда, балки қонунчиликни ривожлантиришга ҳам катта ҳисса қўшадилар. Улар қонунчиликни такомиллаштириш бўйича таклифлар тайёрлайдилар ва уларни ваколатли органларга юборадилар, қонунлар ва бошқа ҳуқуқий ҳужжатларни лойиҳаларини тайёрлайдилар, норматив-ҳукукий ҳужжатлар бўйича хулоса ва фикрлар берадилар.

Юрист касбига қайси йўналишда фаолият юритишидан қатъий назар қўйидаги умумий хусусиятлар хосдир: Инсонпарварлик ва адолат принципларини чуқур англаб етиш ва уларга

риоя қилиш; давлат ҳокимияти органлари фаолияти билан бевосита ва билвосита боғлиқлик ; психологик-педагогик маҳоратларга таяниш; ижодийтадқиқотчилик; қарор қабул қилишда мустақиллик, ташкилотчилик, расмийлик.

Юридик ишнинг мазмуни, уни қўллаш соҳаси, шакли ва услублари бўйича қўйидаги турларга бўлиш мумкин: Одил судлов, прокурор назорати, жиноятларни тергов қилиш, фуқаролар ва ташкилотларга юридик ёрдам кўрсатиш (адвокатлик хизмати), нотариал ҳаракатларни амалга ошириш.

Юридик ишларнинг бундай турларининг мавжудлиги юристларнинг ихтисослашувига олиб келган.Чунки бусиз у ёки бу турдаги ишларни малакали ва муваффақиятли бажариш имконияти камайган. Юқорида санаб ўтилган юридик ишларга қўйидаги юридик мутахассислар мувофиқ келади: судья, прокурор, суриштирувчи, терговчи, адвокат, нотаруис, суд ижрочиси, юрисконсульт.

Демак, юрисконсульт юридик мутахассислардан бири бўлиб, у давлат органлари, хўжалик юритувчи субъектлар (корхоналар, муассасалар, ташкилотлар)да ҳуқуқий ишларни амалга оширган.

Фойданилган адабиётлар

1.А.Асқаров.Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи.Т. « Ўзбекистон» 2019 йил.

2.Ф.Отахонов.Юридик хизматнинг назарий ҳуқуқий муаммолари.Т.2009 йил.

3.История организации юридической службы на предприятии .

4.Истории развитии юридической службы.

5.Систематическое собрание действующего законодательства Уз.ССР.1928г.№ 6.стр.118.

6.Систематическое собрание действующего закондательства Уз.ССР 1933г.№ 30.стр 320.

7.Собрание Постановление Правительства Уз.ССР. 1963г. №10.стр.74.

8.Ўзбек тилининг изоҳли луғати.

9.Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.

10.Энциклопедия юриста.

11.Постановление Совета Министров Уз.ССР.июль 1972г.стр.33-34.

12.Постановление Совета Министров Уз.ССР.феврал 1983г.стр.21-27.

13.Юридик атамалар қомусий луғати.Т.Шарқ Юлдузи.2003й.

14.А.П.Карнеев.В.К.Бобров.Введение в юридическую специальность.М-Щит-М 2003 г.Стр.10.

D.N. LOGOFET TURKISTONDAGI MAHALLIY QAYIQCHILIK VA RUS FLOTI HAQIDA (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI)

Xaitov Sh.A.
BuxDU "Jahon tarixi" kafedrasi,
tarix fanlari doktori, professor
Ahmadov A.A.
BuxDU "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrasi
katta o'qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharqshunos D.N. Logofet asarlari orqali Turkiston qayiqchiligi va mintaqada rus floti bilan ayrim masalalar tahlil etilgan.

Tayanch atamalar: yo'l, paroxod yo'li, chaqirim, qayiq, kema, barja, qayiqsozlik, motor, qayiq, pud, yuk, chegara, katta qayiq, temir qayiq, bug' dvigateli, passajir, narx-navo.

Abstract: In this article, orientalist D.N. Through the works of Logofet, Turkestan boating and some issues with the Russian fleet in the region were analyzed.

Key terms: road, steamship, mile, boat, ship, barge, boatbuilding, motor, boat, pud, cargo, frontier, big boat, iron boat, steam engine, passenger, fare.

Turkiston tarixini o'rganishda rus sharqshunoslarining asarlari manbaviy asoslardan biri bo'lib, bu yo'nalishda Rossiya imperiyasi armiyasining polkovnigi, imperiya rus geografiya jamiyatining haqiqiy a'zosi, Sharq xalqlari tarixi bilimdoni D.N. Logofet kitoblari ham katta ahamiyatga egadir.

D.N. Logofet kitoblarida Turkiston va Buxoro amirligi, Xiva xonligidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarga oid boy ma'lumotlar mavjud. Ayniqsa, Buxoro amirligi tarixi masalari sharqshunos izlanishlarida markaziy o'rin tutadi. Ushbu kichik tadqiqotda D.N. Logofet asarlariga tayangan holda mintaqada mahalliy qayiqsozlikning holati va Amudaryo floti faoliyati haqida bir qadar mulohaza bildirish maqsadi ko'zlandi. Ma'lumki, mintaqada okean va dengizlar bo'lmasada, Amudaryo, Sirdaryo Zarafshon daryolari orqali suv yo'llarida suv transporti qatnovi mavjud edi. Hunarmandchilikning qayiqsozlik va kema yasash tarmog'i orqali baliq tutish, yuk tashish maqsadida transport vositalari ishlab chiqargan.

D.N. Logofet Turkistonda hunarmandchilikning qayiqsozlik turi qadimdan mavjud bo'lib, yuzlab qayiq va kemalar Amudaryo o'zani bo'ylab suzganligini qayd etadi. Qayiqlar Buxoro, Xiva, turkman qayiqlariga bo'linib, asosan qayiqchilik bilan xivaliklar shug'ullangan.

Ularning qayiqlari 3 ming pudgacha yuk ko'targan.

Olimning ma'lumoticha, qayiqlar yuk ko'tarish quvvatiga ko'ra uch guruhga bo'lingan.

1) Katta qayiqlar, ular 2 ming puddan 5 ming pudgacha yuk ko'targan.
2) O'rtacha kattalikdagi qayiqlar, bunday qayiqlar 200 puddan 1000 pudgacha yuk bo'lgan suvda suzgan.
3) Kichik hajmdagi qayiqlar, ularning yuk ko'tarish quvvati 200 pudgacha edi.

Mahalliy qayiqsoz ustalar yasagan qayiqlar Chorjo'ydan Amudaryo orqali Panj va fayzobod qal'asigacha yetib borgan. Buxoro amirligida suv transporti masofasi XX asr boshida 402 chaqirim bo'lgan.

Mahalliy ustalar qayiqlardan tashqari yasama qayiq-gupsarlardan ham suv transporti sifatida foydalanilgan. Gupsar mol terisidan qilingan ichi havo bilan to'ldirilgan sharsimon holda bo'lib, ular ustiga 8 tadan 20 tagacha qalama yoxud jerda shaxtalar o'rnatilgan.Gupsarni 3-4 kishi boshqargan, gupsarga 30-40 pudgacha yuk yuklangan. Gupsar bilan qisqa masofaga suzib borilgan. Daryoning to'lqinsimon, tezoqar, tor o'zanli qismlarida gupsarlarni boshqarish qiyinchilik tug'dirar, ayrim hollarda ular halokatga uchrardi.

D.N. Logofet qayiqlarning hajmi haqida ham ma'lumotlar keltirgan. Katta qayiqlar – uzunligi (bo'yi) – 60 futdan 80 futgacha (1 fut-28-33 sm), eni 10 futgacha borti balandligi – 3, 3,5 futgacha, vazni 300-400 pud bo'lgan.

O'rta Buxoro qayiqlari – bo'yi 40 futdan 60 futgacha, eni 7 futdan 10 futgacha, bortining balandligi esa 3 futgacha edi.

Kichik qayiqlar turli o'lchamlarda bo'lgan. Uzunligi 5-6 arshin (1-arshin -72 sm) bo'lgan, 1000 pudgacha yuk ko'taradigan qayiq yog'ochdan yasalgan, biroq uni yog'och qismini suvdan himoya qilish uchun sirti shomir list bilan qoplangan. Bunday qayiqlar narxi 300 rubldan 500 rublgacha baholanib, xivalik ustalar yasagan ayrim qayiqlar 1000 – 800 rublgacha baholangan. XX asr boshlarida bitta qo'y narxi 6-8 rubl, qoramol (sog'in sigir) narxi 25-30 rubl bo'lgan bir paytda o'sha davr puli bilan katta va o'rtacha qayiqlar narxi qimmat edi. D.N. Logofet eshkak orqali suzadigan kema va qayiqlarni 4-6 kishi boshqarganligi, keyinchalik bug' dvigateli bilan ishlaydigan, tumshug'i ko'tarilgan motorli qayiqlar ruli navbat 2 ta matros tomonidan boshqarilganiga alohida urg'u beradi.

XX asr boshlarida Amudaryo Buxoro amirligiga qarashli 30 ta katta, 50 ta o'rta hajmdagi qayiqlar suzib, katta qayiqlarda 45.000 pud, o'rta va kichik qayiqlarda bir yilda o'rtacha 20.000 pud tashilgan Xiva xonligi hisobidan 50 ta katta qayiq, 100 ta o'rta qayiq suzib, katta qayiqlarda 100.000 pud, o'rta qayiqlarda 150.000 pud yuk manziliga yetkazilgan Katta va o'rta qayiqlardan tashqari 270-300 tacha kichik qayiqlarda bir yilda 172.000 pud tashilgan. Xullas, 1 yilda Amudaryoda suzgan qayiqlar 457500 ming pud yukni manzilga yetkazishgan.

D.N. Logofet qayiqlar qatnagan yo'nalishlar, ularda 1 pud (16 kg) yukni o'z manziliga yetkazish bahosi, har bir qayiq uchun 1 sutkada to'lanadigan to'lov, yo'nalishlarda umumiy yuk aylanmasi baholari haqida ham ma'lumot bergan.

Saroy-Termiz (214 chaqirim) – 1 pud yuk uchun to'lov, 15-20 kop. Termiz-Karki (200 chaqirim) – 1 pud uchun to'lov, 20-25 kop. Karki-Chorjo'y (200 chaqirim) – 1 pud yuk to'lovi, 20-25 kop. qayiqning 1 sutkalik to'lov narxi: - katta qayiqlarda – 12-14 rubl, o'rta qayiqlarda 1012 rubl, kichik qayiqlarda – 4-6 rubl qilib belgilangan.

XX asr dastlabki o'n yilligidan so'ng, qayiqlar narxi keskin ko'tarilib, katta qayiq – 1500 rubldan 1800 rublgacha, o'rta qayiq – 800 rubldan 1000 rublgacha kichik qayiqlar – 50-100 rubl miqdorida baholangan.

D.N. Logofet ayrim paytlarda suvga temir qayiqlar ham tushurilgani, biroq, ular tezda yaroqsiz holga kelib, qirg'oqlarda sart zaxirasini saqlab turgan. Umuman Turkistonda Amudaryo (oldin Orol floti 1889 yil) floti tuzilganga qadar, Xiva, Buxoro, turkman qayiqsoz ustalari tomonidan 3 tipdagi qayiqlar yasalgan, ayniqsa, xivalik ustalar yasagan qayiqlar mustahkam va chidamli bo'lgan.

Amudaryo flotiyasi 1887 yilda tashkil topib, Choyjo'yda uning markazi joylashgan, flot kemalari Petro-Aleksanrovsk-Chorjo'y-Karki-Termiz yo'nalishida (401 chaqirim) suzgan. Flotiliya 10 nafar shmabas va oberzobitlar , 4 nafar chinovnik, 60 nafar erkin yollangan xizmatchi (matros va michman)lardan iborat. Flotiliyaning dastlabki kemalari Amudaryoni loyqa va shokolad rang suvida suza boshladi" deb yozgandi, D.N. Logofet.

Amudaryo flotida suzgan poroxodlar, ularning suvga tushurilgan yillari, nomlari D.N. Logofet tomonidan aniq ko'rsatilgan. Amudaryo flotida "Char", "Charitsa",(1888); Chesarevich" (1895), Velikiy knyaz (1899) Великая Княгина Ольга (1901) Император Николай II (1903) kabi 6 ta poroxod suzgan. Bundan tashqari Amudaryo flotida 13 ta barja, 2 ta bug' bilan yuradigan kater, 2 ta neft tashuvchi qayiq, 2 ta temir barja, 2 ta temir qayiq xizmat qilgan.
Ularning umumiy bahosi 1 mln 500 ming rubl bo'lgan.

Poroxodlar 100 tagacha passajir, 700-1000 pud yuk olib, ularning ekipaj tarkibi kattakichikligiga qarab 24 kishidan 36 kishigacha bo'lgan.

Barshilar uch darajada bo'lib: "Peterburg", "Moskva" barjalari 12 ming pudgacha, "Neva", "Volga", "Dnepr", "Dvina", "Don" barjalari 5-6 ming pudgacha, "Osetr", "Ship", "Beluga" barjalari 3 ming pudgacha yuk olgan. Amudaryo flotiliyasida Orol flotiliyasidan meros qolgan "Kiev", "Odessa", "Toshkent" barjalari hamda bir necha o'ziga xos barjalar ham bo'lib, ular tezda yaroqsiz bo'lib qolgan.

D.N. Logofet Amudaryo floti faoliyatini o'rganish jarayonida flotiliya foydasiga emas, zarariga ishlaganini dalillar orqali isbotlaydi. Flotiliya passajir va yuk tashishdan olgan daromadi uning xarajatlarini qoplamagan. Poroxod, barja va qayiqlarni ta'mirlash, yoqilg'i bilan ta'minlash, matros va xizmatchilarga maosh to'lash xarajatlari qilingan daromaddan har yili yuqori bo'lib chiqqan. "Davlat 23 yil davomida (1887-1910 yy) flotiliyadan 10 mln rubl zarar ko'rdi. Bu ko'rilgan zarar har bir yilga 300 ming rublni tashkil etadi" deb yozgan D.N. Logofet. Uning e'tirof etishicha, flotiliya zarariga ishlagan bo'lsada, Turkistonda temir yo'l qurilishida, harbiylarni tegishli hududlarga yetkazishda ahamiyati katta bo'lgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том 1. –СПетербург-1911. –С.211, 226.

2. Логофет Д.Н. Награницах Средней Азии. Путевые очерки в 3-х книгах. Книга 1. Персидская браница. С-Петербург-1909 год. –С.113.

3. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии... Книга II –С.109.

4. D.N. Logofet asarlarini varaqlar ekanmiz, turkman baliqchilari yasagan pirogga o’xshagan qayiq – kulas deb atalgani, baliqchi aholi hayotida xullas muhim rol o’ynaganiga guvoh bo’linadi. Shuningdek, Rossiya chegara postiga xizmat qiladigan parusniy kema (kritser) “Chasavoy” 1897 yildaqurilgan va Boltiq dengizida suzgan keyin Kaspiy dengizigacha o’tkazilib Baku-Astrabod-Krasnovodsk yo’nalishida suzgan Kaspiyorti viloyatidagi Cheleken orolida turkman qayiqsoz ustalari qurgan qayiqlar janubiy va sharqiy Kaspiyortida suzgan.

СРЕДНЯЯ АЗИЯ В ИССЛЕДОВАНИИ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ

Исмаилова Ж.Х.
Директор государственного музея
истории Узбекистана
д.и.н., профессор

Аннотация. В данной статье повествуется о путешествиях послов, путешественников и предпринимателей, которые посещали территорию Средней Азии с различными целями. Излагаются подробности их путешествий в разные периоды, мнения о произведениях, написанных об истории, обычаях, коренном народе и культуре коренных народов Средней Азии.

Annotation. This article tells us about the travels of ambassadors, travelers and entrepreneurs who visited the territory of Central Asia for various purposes. Details of their travels in different periods, opinions about the works written about the history, customs, indigenous people and culture of the indigenous peoples of Central Asia are presented.

Богатая древняя история и культура Узбекистана на протяжении веков вызывала интерес и исследовалась со стороны многих ученых и путешественников. Конец XVначало XVI века вошли в историю как период Великих географических открытий. В этот период можно проследить значительное развитие взаимоотношений России и Средней Азии. В частности, городов Астрахань, а позже Оренбург, которые служили центрами дипломатических и торговых связей.[1].

Первые сведения о Средней Азии были известны через русских послов, путешественников и купцов. Естественно, для открытия новых рынков купеческие предприниматели стали интересоваться среднеазиатским регионом. Эти связи могли дать им возможность установить торговые отношения с Индией через Среднюю Азию и Иран. Не случайно в 1558-1559 годах в Бухару совершил путешествие Энтони Дженкинсон.

Энтони Дженкинсон (Anthony jenkinson) - английский дипломат и путешественник, неоднократно посещавший Россию. Он был послом Англии в России с 1557 по 1571 год. Он также одновременно выполнял функции представителя “московской компании” английских торгово-промышленных предприятий, основанной лондонскими купцами в 1555 году[2].

В апреле 1558 года он отправляется из Москвы с различными товарами в сопровождении Ричарда Джонсона, Роберта Джонсона и татарского переводчика, взяв с собой ярлыки русского царя на царей разных стран. 16 июля вступает в город Ургенч. При въезде

взимается налог с каждого человека и с каждого верблюда-лошади. Здесь они живут 1 месяц. Его принимает король страны Али Султан. Вручив хану ярлык русского царя, он отвечает на различные его вопросы. После этого им выдается охранный ярлык. Энтони Дженкинсон рассказывает несколько подробностей о городе Ургенч, его улицах, жизни местных жителей, еде и существах. Следующий маршрут это Бухара, куда они отправятся 26 ноября и прибудут в пункт назначения 23 декабря.

В 1558 **году** английский путешественник, торговый агент и дипломат Энтони Дженкинсон прибыл в Бухару с верительной грамотой русского царя Ивана IV Грозного. Ровно через восемь месяцев после того, как он с товарищами покинул Москву, перед его глазами предстали величественные стены Бухары.

"23 декабря мы прибыли в Бухару, бывшую Бактрию. Город окружен высокой стеной с многочисленными воротами. Большинство домов в этом большом городе построены из пахты, но есть также здания и памятники, построенные из камня и невероятно роскошно украшенные. Это были архитектурные шедевры, не имеющие себе равных в мире, строительство которых заняло очень много времени", – писал Дженкинсон в своих мемуарах.

Дженкинсон пишет, что " Бухара была окружена высокими рваными стенами и воротами, причем 3/2 города принадлежало царю, а часть-рынку и купцам. Город очень большой, основная часть домов построена из пахты.Также можно встретить дома, построенные из камня, роскошные здания с золотой водой, часовню и многое другое. В частности, он дал отдельную классификацию баням, построенным здесь, сказав, что они были построены с таким мастерством, что вы даже не найдете таких бань во всем мире. Дженкинсон попытался проиллюстрировать здесь, уделяя внимание каждому случаю. Например, чеканка серебряных и медных монет в Бухаре означала, что 1 серебряная монета соответствовала 12 английским пенсам, где употребление алкоголя было запрещено, а нарушители правил были жестоко наказаны перед законом[3].

26 декабря его приглашают к Бухарскому хану на завтрак. Бухарский хан с интересом расспрашивает его о своей стране, о порядке и правилах в ней.

Также Энтони Дженкинсон отмечает, что в Бухаре ежегодно проходит съезд купцов, на который съезжаются купцы из Индии, Ирана, Балха, России и других стран, а в прежние времена и из Китая. Торговцы в основном импортировали элегантную белую ткань из Индии, которую оборачивали вокруг головы как тюрбан, есть еще один вид белой ткани, которую местные жители использовали для пошива одежды. Иранцы же привозили в основном такие товары, как хлопчатобумажная ткань, бумага, цветной шелк, а отсюда вывозили сыромятную кожу, русские товары. А из России в Бухару привозили непривитые шкуры, овчину, шерстяные ткани, деревянную утварь, ткани, конскую утварь, различные сорта шелка. Атлас, мускус, камка, равоч и другие виды артефактов были импортированы в мирное время с китайских территорий[4].

Таким образом, Антони Дженкинсон завершил свое путешествие в Бухару 8 марта 1559 года, отправившись с караваном из 600 верблюдов и прибыв в Ургенч 25 марта. А 10 июня двинулся на Астрахань. Во время своего путешествия он записал много интересной информации.

Эти данные дают представление о среднеазиатских городах того времени, расстояниях между ними и безопасности караванных путей. В частности, Ричард Джонсон, который дружил с Энтони Дженкинсоном, сообщил, что поездка из Сарайчика в
Ургенч занимает 15 дней, из Ургенча в Бухару-15 дней, из Бухары в Кашгар-30 дней, а из Кашгара в Китай-30 дней. В Бухаре существовал рынок взаимопомощи с турецкими и другими странами. Здесь пошлина составляла 1/40 от общего объема товаров[5].

Но, как и другие современники и путешественники более позднего периода, они выражали свое отношение только к событиям и событиям, свидетелями которых они были. У каждого государства и народа есть свои традиции и история. Говоря о той или иной стране,

необходимо обязательно глубоко изучить уклад жизни, узнать ее историю и засвидетельствовать традиции. Это непременно, следует из выводов, которые занимают много времени и аналитических соображений. Но, несмотря на это, важны материалы, которые оставили нам путешественники и торговцы, которые общались с коренными народами, собирая ресурсы, насколько это возможно, в рамках своих интересов.

Как первый путешественник из Западной Европы, Дженкинсон записал свое видение побережья Каспийского моря и Средней Азии во время экспедиции 1558-1560 годов. Результатом наблюдений стали не только отчеты, но и карта России, Каспийского моря и Средней Азии, которую он опубликовал в Лондоне в 1562 году.

Британский путешественник и писатель 2-й половины XIX века Генри Лэнсдейл в 1882 году опубликовал книгу, основанную на его 179-дневном путешествии (Lansdell H. Russian Central Asia including Kulja. Bokhara, Khiva and Merv. V. 1, 2. London, 1885) печатался в Лондоне. Это путешествие проходило в Киргизии, Гульче, Ташкенте, Коканде, Карши, Бухаре, Хиве, где путешественник собрал ценную информацию в сочетании с уникальными фотографиями своих воспоминаний. В настоящее время книга и результаты исследований хранятся в библиотеке Висконсина, США.

Генри Лэнсдейл дает несколько интересных фактов о торговых делах в Ташкенте. В частности, в 1876 году из Ташкента в Россию, Бухару, Коканд и другие города выехали караваны на 2323 верблюдах. Много продуктов можно было увидеть на базарах и осенних ярмарках, которые проводились 2 раза в год.

Генри Лэнгделл покупает здесь кальян для Британского музея. В то же время наволочки, шатер(шатер), шелковые платки, скатерти, национальные костюмы как произведения искусства производят на него большое впечатление[6].

В Ташкенте проводились осенние и весенние ярмарки, и базары отличались большим разнообразием и выбором товаров. Ланселл, везде посещавший базары, повествует: «Там мы купили прекрасные фрукты. Но мы искали предметы древности, которые бы воплощали в себе национальные особенности. Мы видели разложенные бухарские и кашгарские ковры и коврики ценой в 4 и 2 фунта соответственно. Я видел очень красивый узбекский чодир (шатер), сделанный из местного шелка, который прекрасно бы смотрелся на английской лужайке. Он стоил всего 12 фунтов. Но я хотел купить вещи, которые не занимали бы много места. Мое внимание привлекли «чалвар» – пара кожаных штанов цвета шоколада, покрытых вышивкой всех цветов радуги. Я с радостью купил несколько кошельков местного фасона, носовые платки и мотки местного шелка. Здесь же продавались тюбетейки, которые мусульмане носят постоянно, не снимая их даже в помещении. Некоторые тюбетейки из Шахрисабза и Бухары были сделаны с большим вкусом и мастерством.[7].

Житель Нью-Йорка Юджин Скайлер известен как дипломат, писатель, путешественник, переводчик и ученый. В 1873 году он посетил Ташкент и передал собранные во время путешествия материалы Национальному географическому обществу. А в 1876 году Шайлер Ойген написал книгу “Schuyler Eugen «Turkestan: Notes of a Journey in Turkestan, Khokand, Bukhara and Kuldja” (“Туркестан: заметки о путешествии в Туркестан, Коканд, Бухару и Кульджу”.) В своей работе он дает важную информацию о городских рынках, активной жизни местных жителей, молитве в мечети каждую пятницу, 32 видах занятий ремесленников, планировках рыночных прилавков.

Работа Ю. Скайлера, в которой полностью отражено это восьмимесячное путешествие, написана в стиле путевых воспоминаний и носит историко-географический характер. В первом томе содержались разделы о Даште, Сырдарье, Ташкенте, мусульманском образе жизни в Ташкенте, рынках и торговле, Самарканде, Зарафшанской долине, Ходженте и Кураме. В виде приложения к этому вложены исторические кадры последнего периода Кокандского ханства, рецензия профессора В.Григорьева к работе Вамбери “История Бухары”, а также включены сведения о средневековых туристах, побывавших в Средней Азии.

Второй том книги состоит из впечатлений от Коканда, Бухары, Иссык-Куля и Семиречья, Кульджи, внешней политики Российской администрации в Азии, частей похода на Хиву и ее завоевания, а также заключения.

Принимая во внимание, что многие туристы записывают свои путевые заметки в основном на примере своих визитов в страны, переживающие определенный период устойчивого социально-политического и экономического развития, период путешествия, выбранный Ю. Скайлером, совпал с периодом истории края, а также с периодом крайне сложных и противоречивых отношений среднеазиатских ханств с Российской империей.

Обобўая все вышеуказанное, стоит отметить, что путешественники, профессионалы и торговцы, посещавшие Среднюю Азию в разное время, оставили свои воспоминания об этой стране, основанные на их воображении и интересах. Содержащаяся в нем информация сегодня способна составить историческое представление о политических процессах, обычаях, культуре, мировоззрении, занятий коренного населения очень ценна как важный ресурс.

Список использованной литературы:

1. Лунин.Б.В. История Узбекистана в источниках. Т. 1988. 4 б
2. Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. М. Соцэкгиз. 1937
3. Б.В.Лунин. История Узбекистана в источниках. Т. 1988 г. 29 б
4. Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке.Дженкинсон. Путешествие в Среднюю Азию. 1558-1560 гг.” М., 1937 г. 183 -185 б
5. В.Л.Геншке, Т.Е.Ваганова. Тошкентнинг XIX асрдаги қиёфаси. https://malumot.ru/oblik-tashkenta.
6. Lansdell H. Russian Central Asia including Kulja. Bokhara, Khiva and Merv. V. 1, 2. London, 1885 7. Там же.

САДОҚАТ ВА МАТОНАТ ТИМСОЛИ - ЎЗБЕК АЁЛИ

Рахматова Дилнавоз Журакобиловна,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
ҚарДУ тузилмасидаги “Қатағон қурбонлари хотираси” музейи директори

Аннотация. Мақолада Совет ҳокимияти томонидан амалга оширилган “Пахта иши” деб номланган қатағон сиёсатининг оҳирги босқичи, унинг ижтимоий ҳаётга таъсири, қатағон исканжасида ноҳақ айбланиб, жабр кўрган инсонлар ва уларнинг оила аъзолари бошидан кечган оғир қисмат ҳусусида сўз боради.

Калит сўзлар: “Пахта иши”, “Ўзбеклар иши”, ижтимоий ҳаёт, Олий суд, Олий Совет, давлат, қатағон қурбонлари.

Abstract. In the article, the last stage of the repression policy called "Cotton Work" carried out by the Soviet authorities, its impact on social life, the hard fate of the people and their family members who were unjustly accused and suffered during the torture torture. will be discussed.

Key words: "Cotton case", "Uzbeks case", social life, Supreme Court, Supreme Soviet, state, victims of repression.

Совет ҳокимиятининг узоқ йиллар давомида босқичма-босқич амалга оширган қатағонлик сиёсати қанчадан-қанча ватандошларимизнинг инсонийлик қадрини поймол этди. 1980 йиллар ўрталаридан бошланган қатағонликнинг оҳирги босқичи “Пахта иши” деб номланиб, ушбу давр қатағон машинаси кўплаб оилалар устидан босиб ўтиб, қатағон қурбони

ва унинг оила аъзолари ҳаётларида аянчли излар қолдирди. Ўзбегимнинг матонатли аёллари бу қора кунларни шундай хотирлашади:

“Пахта иши” билан айбланган Ҳамид Усмоновнинг акаси Толиб ака автоҳалокат туфайли вафот этиб, 3 боласи етим қолганди. Бу уч болани ҳамда ўзининг 5 фарзандини Маҳбуба Расулова ёлғиз боши билан боқадиган бўлиб турганда уни ҳам ишдан бўшатишди. Ўшанда М.Расулова хўжаликдаги “Лола” болалар боғчаси мудираси эди. 1 йил давомида ишсиз қолган онаизор 8 нафар фарзанди билан турмуш қийинчиликларини бошдан кечирди. Бир неча маротаба юқори ташкилотларга мурожаат қилди, бироқ фойдаси бўлмади[1;].

Маҳбуба Расулова ўз бошидан ўтказган оғир кунларни қуйидагича эслайди: *“Гулдай оилам турмуш ўртоғимнинг терговга тортилганлиги ҳақидаги даҳшатли хабардан сўнг тушуниксиз аҳволга тушиб қолдим. Кечагина уйимиз тўла меҳмон бўлган бўлса, бугун яқин қариндошлар ҳам бизни четлаб ўтишарди. Айниқса, айрим пасткаш нусхаларнинг фарзандларимнинг отаси ҳақидаги ёлғон бўҳтонлари қонимни қайнатар эди. Ўзим гувоҳман-ку, уйимизга заррача ҳаром луқмани киритмаган инсон қандай порахўр, жиноятчи бўлсин. Мен бир лаҳза бўлсин у инсоннинг жиноятчи эканлигига ишона олмасдим. Ҳар гал дуоларимда бу бир синов, албатта, эртага бўҳтонлар фош бўлиб, уйга очиқ юз билан кириб келади деб ишонардим.*

Борди-ю қандайдир тазйиқлар остида шундай ишни қилган бўлса ҳам, унинг жон жигарлари бўлган фарзандлари ёки мен ҳаётимни бағишлаган инсонимни қандай ёмон кўриб қолишим мумкин? Ҳеч қачон! У инсон биз учун ҳамиша азиз бўлган. Шундай кунларнинг бирида - туғилган кунида унинг ортида таянчи, оиласи турганини кўрсатиб, кўнглини кўтариш мақсадида у ётган қамоқхонага боришга қарор қилдим. Кечаси хамир қориб, нонимга у кишининг ва ўзимнинг номимни ёзиб, алоҳида меҳр билан тонгда пиширib олдим. Бир вақт лой кечиб қамоқхонага борсам, у ердагилар маҳбуснинг олдига киритишмасликларини айтдилар. Мен ҳар бир ўтганига бугун у кишининг туғилган кунлари эканлигини, узоқдан бўлса ҳам бир марта кўрсатишларини илтижо қилардим. Лекин инсон қиёфасини йўқотган бу кимсалар эшитишни ҳам истамасди. Мен қўлимдагини топширмасдан бу ердан жилмаслигимни айтиб туриб олдим. Неча соат ўтганини ҳам билмайман. Бир пайт кечга яқин бўлса керак бир рус миллатига мансуб милиция ходими келиб менга “эҳ, ўзбек аёллари” деди-да, кимгадир “нарсасини олиб кириб беринглар” деб буйруқ берди. Мен тугунчамни олишга келган бир ёш ходимга “болам, бу нон, илтимос уни бўлакламасдан киритинглар” деб ўтиндим. Ана шу гапим учунми билмайман, кейин эшитдимки у кишига нонимни майда-майда қилиб бўлакланган ҳолда киритиб беришган экан...[2;]”.

“Пахта иши” билан айбланган Тўра Шодиевнинг турмуш ўртоғи Зилфина Шодиева ҳам фарзандлари билан бирга “Пахта иши” сиёсатидан жабр кўрган, турмуш ўртоғи қаторида азият чеккан онахон[3;]. Онахон ҳамда Тўра Шодиевнинг фарзандлари изтиробли кунларини хотирлашди. Зулфина ая шундай дейди: “Бизнинг 11 нафар фарзандимиз бор. 9 нафар қиз, 2 нафар ўғил. 1985 йил эди. Бир ёш йигит Шодиевни даладан олиб кетишди деган хабар билан уйимизга келди. Мен шошиб қолдим. Қаерга олиб кетишади? Нимага олиб кетишади? деган саволларни бера бошладим. “Пахта иши”, преписка масаласида деди. Мен содда, пахта термабдими деб тушунибман.

Турмуш ўртоғим 30 йилдан бери далада ҳалол меҳнат қилиб келган. Кечаю кундуз уйга келмай ишлагани учун оёқларига пайпоқлари ёпишиб қоларди. Мен пайпоқларни оёқларидан шилиб олган пайтим кўп бўлган. Тонг саҳар чиқиб кетиб, ярим кечаси кириб келганидан болаларим оталарини бир неча кунлаб кўрмас эди. Ўзим оддий уй бекасиман.

Фарзанд тарбияси билан шуғулланиш билан бирга далада ишлардим, пахта терардим, пилла боқардим. Чунки ўша пайтлада раисларнинг оила аъзолари ҳам ишлаши керак эди.

Олиб кетишганини эртаси куни билдик, КПЗга қамаб қўйган экан. Кўриш илинжида КПЗнинг атрофини айланаверибман. Фойдаси бўлмади. Қаерга мурожаат қилишни билмай “обком”га бордим. Ҳокимият биносига яқинлашгач кўрдимки, у ерда менинг аҳволимга

тушган инсонлар жуда кўп экан. Мен ҳам улар қаторига қўшилдим. Йиғилганларни ҳайдаш мақсадида водовоз билан устимиздан сув сепишди, милтиқ олиб чиқиб “кетмасангиз отиб ташлаймиз”, дейишди. Бироқ биз қимирламадик. Чунки у ерда турганларнинг барчасида менга ўхшаб 10-15 тадан фарзанд бор. Атрофдан “Эрим бўлмаса болаларни қандай боқаман, отиб ташлайқол”, деган овозлар эшитиларди. Бироқ нажот бўлмади. Барчамиз 60 киши бўлиб, Тошкентга қараб йўл олдик. Энди республика ҳукумати биноси ёнида кўрпа-тўшак қилиб ётиб олдик. Орамизда фарзандларини қутқариш илинжида бўлган қариялар ҳам бор эди. Халқ ғазабда эди. Усмонхўжаев биз билан учрашолмай қочиб кетди. У ердан кетиб, Олий судга бордик. Бутурлинга ҳам кирдик. Фойдаси бўлмади.

Турмуш ўртоғимнинг ортидан югуравериб фарзандларимни ёлғизлатиб қўйдим. Турмуш ўртоғимнинг ота-отаси ёшлигида вафот этган. Шунинг учун болаларимга қарайдиган қайнона-қайнотам бўлмаган. Уч қизимни турмушга узатган эдик. Мен турмуш ўроғимни ортидан югурган пайтимда улар укаларига қарашди. Болаларим далага чиқиб пахта теришди, пилла боқишди.

Бир куни уйимизга Тошкентдан текширувчилар келиб тинтув ўтказишди. гўёки уйда олтинларимиз бор экан. Текширувчилар ҳар бир кўрпачанинг қатини, ҳар бир трубаларнинг орасини, хуллас ҳар бир тешикни текширишди. Уйимизда қийматга эга ҳеч нима топилмади. Бор-йўғи чойнак ичида 10 сўм пул чиқди. Албатта чиқмайдида, ахир турмуш ўртоғим давлатга шунча ишлаб, ҳатто тузукроқ уй ҳам қурмаган эди.

Мен турмуш ўртоғим йўқлигида томорқада помидор экиб сотдим, бозордан мато олиб келиб, кечаси билан болалар учун култача тикиб, сотдим, сандиғимдаги барча рўмолларни ҳам сотиб бўлдим. Кечаси билан тикиб чиққан култачаларимни сотиб, фарзандларимга едирмай, турмуш ўртоғим учун майда-чуйда олиб келиб, овқат қилиб борардим. Овқат ва егуликларимни ичкарига олиб кириб кетишарди. Қамоқдан қайтганларидан кейин сўрасам, бирор марта шу овқатларни беришмаган экан.

Мен турмуш ўртоғим ортидан югурдим, лекин пулим йўқ эди. Зўрға рўзғорни амаллаб турган эдим. Яхши адвокат учун эса пул керак эди. Биз учун ёшгина Эшонқулова деган адвокат ажратилди. Эшонқулова аввалига ўзига ишонмади. “Мен бу ишни олиб боролмайман, бошқа адвокат топинг”, деди. Менда ҳам пул йўқлиги сабаб Эшонқуловадан бошқа нажот йўқ эди. Мен унга бир сўм беролмасдим. Унинг тугунини кўтариб юришдан бошқа иш қилолмасдим. Лекин шу қиз ўз ишини уддалади. Турмуш ўртоғим озод этилди. Шодиевни вазифасига тиклашмоқчи бўлишди, бироқ улар истамади[4;]”.

“Пахта иши” қурбонларидан Қодир бобо Одиловнинг рафиқалари Турдигул Равшанова[5;]: “Турмуш ўртоғим билан 1973 йилдан буён яшаб келмоқдамиз, - дейди Турдигул Равшанова. – У киши аввалига Қарши тумани пахта заводида, 1976 йилдан 1984 йил ноябр ойига қадар Касби тумани пахта заводида, 1985 йилдан эса Нишон тумани пахта заводида ишлаганлар. Айни шу пайтга келиб “Пахта иши” балоси бизнинг бошимига ҳам балолар ёғдирди. Турмуш ўртоғим 1985 йилда 12 йилга қамалиб қолганларидан сўнг кунимиз қоронғуликда ўтди. Мен мактабда ўқитувчи бўлиб ишлаганман. 7 нафар фарзандим бор, 2 таси ҳатто мактабга ҳам бормаган эди. Энг ёмони, фарзандларимнинг қадди букилди. Уларнинг тарбиясида турмуш ўртоғимнинг отаоналари менга жуда катта ёрдам беришган, далда бўлишган. У пайтлар ҳаёт анча оғир эди. Пахта мавсуми бошланиши биланоқ ўқувчиларни олиб пахта даласига отланар эдик. Мен жуда яхши оилага турмушга чиққанман асли, қайнонам ва қайнотам жуда яхши инсонлар эди. Доим мени қўллаб-қувватлашган. Мактабдан чиқиб уйга, уйдан чиқиб турмуш ўртоғимнинг бегуноҳлигини исботлаш учун давлат органларига югурдим. Кечки пайт ишдан чиқиб поездга ўтирсам, эрталаб Тошкентга етиб бораман. Давлат раҳбарига кириш илинжида Тошкентга жудаям кўп қатнадим. 1989 йилда адвокатимиз Эшонқулова Замира Олий Советга хўжайнимни оқлаш учун ариза ташлаш кераклигини айтди. Қайиноғам билан бирга Тошкентга бордик. 28-30 декабрь кунлари кутиб, ниҳоят “Шикоят аризаси” ёздим. Аризани хатловдан (регистрация) ўтказгунимга қадар 31

декабрь бўлиб қолди. Кўчада қор тинмай ёғиб ётибди, жуда совуқ, қайтиш учун билетлар йўқ, ҳозиргидек такси қатнамайди, гостиницадан жой тополмадик. Қаерга боришни билмай қайноғам бир вагончадан жой топди, ўша ерда тонггача ўтириб чиқдик. Ўша кеча жуда қаттиқ совуқ ўтиб кетибди, оёғимни шамоллатдим. Ҳозиргача шунинг оғриғи билан яшадим. Мен ҳаётим давомида оиламда ҳам, ишхонамда ҳам фақат яхши инсонларга учраганман. Мен ишлаган мактаб директори Эргашев Пирмамат деган инсон бўларди, турмуш ўртоғимни яхши билганлари боис, "ҳали яхши кунлар келади, болаларга яхши қаранг, тушкунликка тушиб, ўзингизни олдириб қўйманг" деб, доим менга далда бериб турардилар. Мактабда барча топшириқларни ўз вақтида бажарганим учун мени намуна қилиб кўрсатган вақтлари кўп бўлган. Турмуш ўртоғим 5 йил ўтиб, 1991 йил 29 феврал куни Президент фармони билан оқланди. Бироқ, қора кунларнинг оғриғи, қамалган деган доғи ҳаётимизга, келажагимизга, руҳиятимизга ўз таъсирини кўрсатаверди.

Хулоса ўрнида айтиш лозимки, матонат ва садоқат, вафо ва сабр тимсоллари бўлган ана шундай ўзбек аёлларининг ҳаётий ҳикоялари тарихимизни борича етказиш билан бирга ёшларимиз учун тарбиявий аҳамият ҳам касб этади. Бугунги таҳликали дунёда маънавий таҳдидлар кучайиб бораётган бир замонда инсон маънавиятини эзгуликка, матонат ва садоқатга чорлайдиган ана шундай далилий, ҳаётий воқеалар тарихдан ибрат олиб, мустақиллик ва эркинлигимизни қадрашга ундайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ҚарДУ тузилмасидаги "Қатағон қурбонлари хотираси" музейи фонди. Илмий кўмакчи фонд: Видео тасма: Маҳбуба Расулова билан суҳбат, 2019 йил 25 январ. КК-6, ИНВ - 6
2. ҚарДУ тузилмасидаги "Қатағон қурбонлари хотираси" музейи фонди. Илмий кўмакчи фонд: Видео тасма: Маҳбуба Расулова билан суҳбат, 2019 йил 25 январ. КК-6, ИНВ - 6
3. Хўжамбердиев Ё. Ойнинг ёруғ кунлари. –Тошкент:"Маънавият", 2011, – Б.21-37.
4. ҚарДУ тузилмасидаги "Қатағон қурбонлари хотираси" музейи фонди. Илмий кўмакчи фонд: Видео тасма: Зулфина Шодиева билан бўлган суҳбат. 2023 йил, 30 март. КК-12, ИНВ-12.
5. ҚарДУ тузилмасидаги "Қатағон қурбонлари хотираси" музейи фонди. Илмий кўмакчи фонд: Турдигул Равшанова билан суҳбат. 2023 йил 24 март КК-9, ИНВ-9

ИЗ ИСТОРИИ АВТОНОМИЗАЦИИ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ В 1917-1918 ГГ.*

Ауанасова Алима Мусировна
д.и.н., профессор, руководитель Отдела истории социально-экономического развития Казахстана Института истории государства МНВО
e-mail: auanasova_a @mail.ru

*Статья подготовлена в рамках научного грантового проекта ИРН: AP19678348 «Крушение Российской империи и возрождение Казахской государственности: историкоправовой анализ».

Аннотация. В статье анализируется форма государственного устройства Туркестанского края после февральской революции. Автор на основе изучения политической истории Туркестанского края утверждает, что ход исторического процесса на бывшей территории Российской империи в 1917 г. привел к провозглашению Туркестанской

автономии. Краткая история автономии показала сложные внутренние противоречия и конфликты в туркестанском обществе, в конечном итоге, оказавшие существенное влияние на ее деятельность и судьбу.

Summary. The article analyzes the form of the state structure of the Turkestan region after the February revolution. Based on the study of the political history of the Turkestan region, the author argues that the course of the historical process in the former territory of the Russian Empire in 1917 led to the proclamation of Turkestan autonomy. The brief history of the autonomy has shown complex internal contradictions and conflicts in Turkestan society, which ultimately had a significant impact on its activities and fate.

Yakka dehqon xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligida asosiy ishchi kuchi bo‘lib, yetishtirilgan mahsulotlar, asosan ularning mehnati tufayli qo‘lga kiritilgan. Ular tufayli aholi eng zarur qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari bilan qiyin sharoitda ta’minlab turilgan. 1928 yili ular qishloq aholisining 98,8 foizini tashkil etib, yetishtirilgan paxtaning 98,7 foizi yakka dehqon xo‘jaliklari yordamida yaratildi.

Demak, viloyatda batraklar va kambag‘allar soni bo‘yicha Shahrisabz va Kitob rayonlari yetakchilik qilgan. Shahrisabzdagi 25 ta kolxozda 580 nafar batrak, 835 nafar kambag‘al, 309 nafar o‘rta hol dehqon faoliyat ko‘rsatgan. Umuman viloyatda kambag‘al dehqon xo‘jaliklari ko‘pchilikni tashkil etgan.

Viloyatda o‘rta hol dehqonlar soni bo‘yicha raqamlar tahlil etilganda, eng ko‘p o‘rta hol dehqonlar Kitob rayoni hisobiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Beshkent rayonida eng kam bo‘lib, 33 nafar o‘rta hol dehqon ro‘yxatga olingan. Bu davrda quloq xo‘jaliklari qisman bo‘lsada saqlanib qolgan. Masalan, 1930 yil aprelda Beshkent rayonida 56 ga., Yakkabog‘ rayonida 49 ga., Shahrisabz rayonida 72 ga. paxta maydonlari qo‘loq xo‘jaliklariga qarashli bo‘lgan[4].

1930 yil may-iyul oylarida Qashqadaryo viloyati kolxozlari a’zolari orasida “tozalash” o‘tkazilgan “Tozalashdan” so‘ng viloyat kolxozlarii a’zolarining ijtimoiy tarkibi quyidagicha edi: 50 foiz batraklar, 41,1 foiz kambag‘allar, 6,6 foiz o‘rta hol dehqonlar, 2,3 foiz xizmatchi va boshqalar. Shuningdek, kolxoz boshqaruvi tarkibida ayollar 6,6 foizni tashkil etgan.

VKP (b) MK 1930 yil 26 iyulda “Don tayorlash jarayoniga ommani safarbar etishni tashkil etishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilingan. Hujjatga muvofiq sovet organlarining barcha tizimi don tayyorlash jarayoniga jalb etish asosida quloqlarga qarshi kurash kuchaytirilgan.

Kimki, don narxini oshirsa, uni yo‘q qilishga bo‘lgan harakati qattiq jazolanishi xususida ham belgilangan. Sovet hukumati shu davrda har qanday jinoyatga nisbatan jazoni qattiq tayinlagan.

Qashqadaryoda 1930 yil don hosilini yitishtirish jarayonida kurash avjiga chiqqan. Shahrisabzda bu davrda o‘zbeklar bilan birga tojiklar, yaxudiylar yashab, ular o‘rtasida ham kichik to‘qnashuvlar sodir bo‘lgan.

Natijalar va muhokamalar: Mulkdorlar yetishtirgan hosilni sovet davlatining tortib olishi tufayli aholi moddiy turmushi yomonlashgan. Bu esa aholi orasida noroziliklarning kuchayishiga olib kelgan. Masalan, G‘uzor bozori daloli Majid – Diyor 100 pud g‘allani sovet davlatiga berishdan ko‘ra chuqurga ko‘mib tashlagan. Shuningdek, G‘uzorda mulla Ro‘zi 2000 pud, Abdujalil boy 3000 pud, Subhonqul Primqulov 1000 pud, Ma’ruf Og‘ayev 1000 pud, Murod Ma’sud boy 1000 pud, Sh.Xo‘jaqulov 1000 pud, Ubay Maxsum 1000 pud, Normurod Xasan boy 1000 pud g‘allani sovet davlatidan yashirib quygan[5]. Bunday misollarni har bir qishloqda uchratish mumkin edi.

Ayniqsa Qashqadaryo viloyatining lalmi yerlari hududlarida, chorvachilik bo‘yicha ixtisoslashgan xo‘jaliklarida sovet hukumatiga qarshi jiddiy qarshiliklar bo‘lgan. Shu bois, viloyatda jamoalashtirish jarayoni hudud aholisining xususiyatidan kelib chiqib, notekis rivojlangan edi. Agar suvli yerlardagi xo‘jaliklarning kolxozlarga kirish tez sur’atlarda ketgan bo‘lsa, lalmi yerlarda juda sust borgan.

Kolxozlar faoliyatida kamchiliklar juda ko‘p edi. Ko‘pchilik kolxozchilar savodsiz va rahbar kadrlar xo‘jalikni boshqarish bo‘yicha yetarli tajribaga ega emasdi. Kolxozlarda mehnat sharoiti to‘g‘ri tashkil etilmagan. Qashqadaryo viloyatida paxta ekiladigan 5 ta rayondagi 536 jamoa xo‘jaligini boshqarayotgan raislari 247 tasi mutlaqo savodsiz edi. Shuningdek, qishloq sovetlari raislari 112 ta bo‘lib, ulardan 14 tasi o‘qish-yozishni bilmagan. Rahbarlarning hisobkitob bo‘yicha bilimlari yetarli darajada bo‘lmaganligi tufayli kolxozlarda daromadlar to‘g‘ri taqsimlanmagan. Shu bois kolxozlarning o‘z maqsadlariga yarasha taqdirlanmaganligiga olib kelgan. Yig‘in-terim jarayonlari uzoq vaqtga cho‘zilgan. Qolaversa, bu anana mahalliy hokimiyat organlari qishloqlardagi jiddiy o‘zgarishlarga tayyor emas edi.

Sovet organlari faqat tezlikda ommani yoppasiga jamoa xo‘jaliklarga kiritishdan nariga o‘tmadi. Sovet davlati yakka dehqon xo‘jaliklarini turli yo‘llar bilan tugatish chora-tadbirlarini olib borgan. Yirik yer egalarini yerlarini tortib olish, o‘ziga to‘q xo‘jaliklarni “quloq” qilish, kichik dehqon xo‘jaliklariga jamoa xo‘jaligiga kirish sharti bilan yerlarini traktorlar yordamida haydab berish, turli kreditlar berish va soliq imtiyozlarini taqdim etish usullari bilan tugatgan.

O‘zbekistonda 1939 yildagi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, aholining 62 foizini kolxozchilar tashkil etgan bo‘lsa, 1,2 foizini yakka dehqon xo‘jaliklari tashkil etgan[6]. O‘zbekistonda XX asrning 20 - yillari o‘rtalarida boshlangan kollektivlashtirish 30 - yillarning oxiriga kelib deyarli tugatilgan.

Demak, sovet davlati kambag‘al batrak, o‘rta hol, boy, ruhoniy va savdogar kabi tabaqalar o‘rniga kolxozchi va ishchilar ko‘rinishida yangi ijtimoiy guruh shakllantirilgan. Turmush sharoiti va moddiy ahvolining yomonlashuvi tufayli ko‘plab din peshvolari va boshqa sohalar, birinchi navbatda, dehqonchilik bilan kun ko‘ra boshlagan.

Sovet hokimiyati ayollarning jamiyatdagi o‘rnini oshirish va ulardan targ‘ibot ishlarida foydalanish borasida ham muayyan ishlarni olib borgan. Sovetlarning III Umumo‘zbekiston quriltoyida Y. Oxunboboyev ma’ruzasida ayollar faoliyatini oshirish haqida gapirgan. Qashqadaryoda ham ming nafarlab ayollar “Xujum” harakatida “faol” ishtirok etish bo‘yicha targ‘ibotlar avj oldirigan. Natijada ayollar yakka dehqon xo‘jaliklarini kolxozlarga jalb etishda asosiy kuchlardan biriga aylangan.

1926 yil 1 sentabrda Qashqadaryo viloyatida ayollarning maishiy hayotini yaxshilash bo‘yicha markaziy komissiya (XUBT) tuzildi. Bu komissiya ayollarning huquqiy, tibbiy va maorif, ayollar maslahatxonasi, yasli va bolalar bog‘chasi kabi masalalar bilan shug‘ullangan. Komissiya yordamida 1927 yil martda 8 ta artel tashkil etildi. Artellar asosan tikuvchilik, tuquvchilik bilan shug‘ullandi. Artellarda viloyatdan 3500 nafardan ziyod ayollar ishlagan. 1927 yil 22-26 sentabrda

xotin-qizlarning viloyat quriltoyga chaqirilib, unda “Xalq ta’limi va ayollar”, “Sog‘liqni saqlash va ayollar” kabi masalalar muhokama etilgan[7]. Voha ayollarining jamiyatdagi o‘rni ortib, ular paranjilarini tashlab komsomol va partiya tashkilotlarila faoliyat ko‘rsata boshlagan. Masalan, 1928 yili G‘uzor rayonidan Ikroma Qayumova va Avazovalar birinchilardan bo‘lib paranji tashlagan. Mehriniso Jamilova 1925 yildayoq komsomol safiga kirib, 1929-1931 yillarda Qashqadaryo viloyati komsomol komiteti sekretari, 1936 yili “Xujum” arteli va Shahrisabzdagi “Xujum” fabrikasi direktori vazifasini bajargan.

1929 yili “Uzbekpaxtasoyuz” tashkiloti yo‘nalishida viloyatda 413 nafar xotin-qizlar faoliyat ko‘rsatgan. Shu yili mayda viloyatda ayollar bilan ishlash masalasiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tib, unda paranji tashlab, davlat tashkilotlariga ishga chiqqan ayollar turli ta’qiblarga uchrayotganligi tanqid qilingan. Masalan, Qarshi rayonidan 18 yoshli Roxatbibi Tursunova paranji tashlaganligi uchun o‘ldirilganligi qayd etilgan.

Qashqadaryo viloyati ayollari turli yig‘ilishlar va anjumanlarda ham faol ishtirok eta boshlagan. Masalan, 1935 yil oktabrda Toshkent shahrida O‘zbekiston ayollarning I-chi syezdi o‘tkazilib, unda G‘uzor rayonidan Umarova delegat sifatida ishtirok etib, u anjumanda ma’ruza qilgan. Yakkabog‘ rayoni Samoq qishlog‘idan Lola Boboyeva ham qator anjumanlarida delegat sifatida ishtirok etgan. Lola Boboyeva kolxoz raisligidan rayon partiya komiteti sekretarigacha ko‘tarilgan. Shuningdek, Beshkent rayonidan Navruzoy Arabova, Sadinova, Qarshi rayoni “III Internatsional” kolxozi raisi Bodomoy Vohidovalar partiya organlari lavozimlariga saylandi. O‘zbekiston bo‘yicha bu davrda 200 ming nafar ayollar rahbarlik lavozimlariga jalb etilgan[8].

Xullas, O‘zbekistonda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati qishloqlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Bu avvalo aholini ijtimoiy tabaqalaridagi o‘zgarishlarda ko‘zga tashlanadi. Azaldan o‘zbek qishloqlarida mavjud bo‘lib kelgan xususiy yer egalari-boylar, o‘rta hol dehqonlar, din peshvolari, savdogarlar, kambag‘al dehqonlar, chorakor kabi ijtimoiy guruhlar o‘rniga kolxozchi va ishchi tabaqasi shakllantirilgan. Bu davrda xotin-qizlar ijtimoiy tabaqasining mavqeini ko‘tarish va ulardan sovet hukumati manfaatlari yo‘lida foydalanish tadbirlari ko‘rilishi natijasida, mazkur tabaqa vakillari sovet va partiya tashkilotlari faoliyatida faollik ko‘rsatishgan. Ayollarning kolxozchi, deputat, o‘qituvchi sifatida jamiyatdagi o‘rni oshib borgan.

Foydalanilgan manbaa va adabiyotlar.

1. Бухара в государственном хозяйственном плане 1923-1924 гг. Старая Бухара, 1923. – С. 15-16.
2. Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. Qatag‘on. – Toshkent.: Sharq, 2011. B. – 108109.
3. Советский Узбекистан за 40 лет.Ст.сб.– Т.: Узбекистан, 1964.– С. 251.
4. QVDA, 83-fond, 1-ro‘yxat, 45-ish, 20-21-varaqlar.
5. O‘z MA, R-196-fond, 1-ro‘yxat, 148-ish, 188-varaq.
6. “Ғаллачи” (Гузарского РПК органи) 1930 йил. 22 август
7. Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 г. Узбекиской ССР.– Москва, 1962.– С. 43.
8. “Красная Бухара”, 26 ноября 1938 года.

ТУРКИСТОН ДАВРИЙ МАТБУОТИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ (XIX АСРНИНГ ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ)

Шадманова С.Б.
Тошкент давлат шарқшунослик университети
Т.ф.д., профессор

Аннотация: Мақолада XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон матбуотида хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни, уларга илм бериш масалаларига доир қарашлар таҳлил этилиб, ушбу масала юзасидан турлича фикрлар билдирилганлиги аниқланган. Жумладан, хотин-қизларга диний билим билан бирга дунёвий илм бериш орқали жамиятни маърифатли қилиш фикрларига алоҳида тўхталиб ўтилган. Шунингдек, мақолада хотин-қизларнинг жамият ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги иштироки, сайловларда қатнашишига доир масалалар ҳақида баҳс юритилган.

Калит сўзлар: Туркистон, хотин-қизлар, матбуот, газета, мунозара, жамият.

Abstract: This article is an attempt to analyze different points of view on issues related to the place of women in society and their education, about the presence of different opinions on this issue. In particular, special attention is paid to the opinion that through education it is necessary, along with religious knowledge, to transfer to women and scientific knowledge in order to make society itself more educated. In addition, the article discusses the issue of women's participation in the socio-political life of society, as well as women's participation in elections.

Keywords: Turkestan, women, periodicals, newspaper, discussion, society.

XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошида Туркистонда хотин-қизлар масаласи ижтимоий ҳаётнинг муҳим, аммо зиддиятли жабҳаларидан бири бўлиб, матбуотда бу масала юзасидан турли хил, бир-бирига қарама-қарши фикрлар илгари сурилган. Газеталарда ўз даврининг асосий тенденциялари ва долзарб масалалари акс этган. Туркистон матбуоти XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошида хотин-қизларнинг ижтимоий мавқеи, уларнинг иқтисодий ва сиёсий ҳуқуқлари, таълим олиш ва меҳнат фаолияти имкониятлари ҳақида турли материалларни ўзида мужассам этган. Шунингдек, матбуотда гендер роллар ва стереотиплар ҳамда ўрганилаётган даврда улардаги баъзи ўзгаришлар акс этган. Матбуот саҳифаларида турли хил характердаги маълумотлар билан бирга воқеа замондошларининг қарашлари ҳам мавжуд. Уларда мусулмон хотинқизларининг ҳуқуқлари шариат қоидалари асосида таҳлил этилган. Ушбу муаммоларнинг акс этишини XIX аср охирида «Туркестанские ведомости» газетаси бошлаб берди. Бундан ташқари, газетада хорижий матбуотдан мақолалар кўчириб босилган. Хусусан, хотинқизларнинг ҳуқуқлари ҳақида “Туркестанские ведомости” газетаси саҳифаларида чоп этилган мақолаларда билдирилган фикрлар ўзига хослиги билан ажралиб туради. 1875 йилда П. Маевнинг [1] мақоласида Ўрта Осиё аёллари бир қарашда ҳуқуқлари топталган, ҳеч ким улар билан ҳисоблашмайдиган бўлиб кўринса-да, чуқурроқ таҳлил қилинса аслида ундай эмаслиги, Қуръонда ҳам аёлларнинг ҳақ-ҳуқуқларига алоҳида эътибор берилганлиги, уларга қул сифатида қаралмаганлиги, уларнинг ажрашиш ҳуқуқи, меросдаги ҳуқуқлари чекланмаганлиги, ҳатто никоҳсиз туғилган болаларнинг ҳам меросий ҳуқуқлари чекланмаганлиги таъкидланган [2]. Худди шундай фикрни яна бир бошқа мақолада учратиш мумкин, “Туркестанские ведомости” газетасининг 1889 йилда Генри Д*Эстренинг 1888 йилда “Revue Scientifigue”да босилган “Le voile des musulmanes” мақоласи кўчириб босилади ва “мусулмон аёллари европалик аёлларга қараганда кўпроқ эркинликларга эга” деган фикр илгари сурилади [3].

Бироқ, “Туркистон вилоятининг газети”да хотин-қизлар масаласи хусусида жамиятнинг анъанавий қарашларини ўзида акс эттирган фикр-мулоҳазалар ҳам билдирилади.

Масалан, «Туркистон вилоятининг газети»да мазкур мавзу бўйича хотинқизларнинг ҳуқуқсизлиги мусулмон жамиятининг жаҳон тараққиётидан орқада қолиш сабабларидан бири эканлиги ҳақида фикр юритилади [4], хотин-қизларнинг жамият ҳаётидаги ўрни ҳақида турлича фикрлар, жумладан, анъанавий қарашлар ҳам ўз аксини топади. Чунончи, 1912 йилда аёлларнинг ҳуқуқларини эркаклар билан ҳар соҳада тенглаштиришга ҳаракат қилаётган, тараққийпарварлар фикри қаттиқ танқид остига олинади. Бу мақолада жадидлар Америка ва Европа аҳолисига таассуб қилиб, ёш турклар каби хотин-қизларнинг ҳуқуқларини эркаклар билан тенглаштириш масаласини кўтараётганлиги нотўғри эканлиги, Туркистон шароити учун мувофиқ эмаслиги таъкидланади. Мақола муаллифи аёлларнинг асосий вазифаси – бола туғмоқ ва уларни сут бериб тарбия қилмоқлигини таъкидлайди, гарчи аёлларга ҳам илм ва тарбия кераклигини инкор этмасада, уларга эркакларга муносиб ҳар хил ишлар ва ҳуқуқий билим бериш лойиқ ва муносиб эмас, деб ҳисоблайди. Аммо бундай фикрловчи кишилар ўлка аҳолисининг аксариятини ташкил этарди.

Лекин мусулмон аёллари орасида тенг ҳуқуқлик истаги аланга олган илғор фикрли кишилар ҳам йўқ эмас эди. Айниқса, татар аёллари бу борада фаол ҳаракат қилган эди. 1913 йилда “Туркистон вилоятининг газети”да татар аёлларининг мусулмон аёлларига эркаклар билан тенг ҳуқуқ бериш ва озодлик талаб этилиб ёзилган мактуби босиб чиқарилган. Унда “Сиз Шарқия халқларини эркаклари билингларки, бизлар жоҳилликдин чиқмагунча сизларга иттифоқлик йўқдур” [5], деб ёзилади. Мактубда Европа ва Америка давлатининг тараққий этганлигига, халқи яхши яшашига сабабчи “таълимлик оналар” эканлиги, мусулмон халқларининг “қора кунлари оналарнинг қоронғида қолганлиги” [5] билан изоҳланиши, аёлларни жаҳолатда тутиш жамиятга жуда қимматга тушиши таъкидланади. Мактубда муаммонинг ечими сифатида хотин-қизларга мактаблар очиб беришни, илм ўрганишни талаб қиладилар. Мақола муаллифлари “Ҳуқуқ ва озодликни талаб қиладурмиз. Тараққий ва олами дунёга кирмоқликни хоҳлаймиз. Бизларни ўқитиб, бизларга йўл беринглар” [5], дея бонг урадилар. Мактубда илм ва ҳунар ўрганиш фақат диний нуқтаи-назардан эмас, балки ҳаётий зарурат эканлиги, илм ва тараққийсиз қолган халқ нобуд бўлиши таъкидланади.

XX аср бошларида Туркистон матбуотида хотин-қизларга илм беришнинг аҳамиятига алоҳида урғу берилган. Жумладан, 1906 йилда “Туркистон вилоятининг газети” саҳифаларида таъкидланганидек, “Агар хотун киши тарбият топган, илмлик бўлса, фарзандини ҳам тарбият қилиб тараққийлик одами қиладур”. [6]

“Ойна” журналида ҳам оналар илмли бўлиши лозимлиги алоҳида таъкидланган бўлиб, унда “болага она биринчи омил ва мураббийдир. Онани таъсири болага, отани таъсиридан зиёдадир”, деб ёзилади ҳамда волидаларни тарбия ва илмли қилиш жаҳолатдан чиқиш йўлларидан бири эканлиги қайд этилади [7].

Жадид матбуотида ҳам хотин-қизларга илм бериш муаммосини ёритиб борилган. Хусусан, “Садои Туркистон” газетаси томонидан ўлкада қизларга кенг диний билим берадиган ва оз даражада бўлса-да, география, ҳисоб, тарих ва тил қоидаларини ўргатадиган биронта ибтидоий мактаб йўқлиги танқид остига олинади. Шунингдек, жадид матбуотида ўғил болаларга қараганда қизларга илм бериш муҳимроқ эканлиги таъкидланган. 1914 йилда “Садои Туркистон” газетаси “Ўғил болалардин кўра қиз болаларга илм, ҳунар лозим эканлигини хотирингиздан чиқармасдан тездин ибтидоий мактаблар очмакка, маъсума қизларингизни дунёда бахтли ва саодат ила яшатурға ошиғингиз” деб мурожаат қилган. [8] Тараққийпарварлар томонидан ўқиган аёллар фарзандларига яхши тарбия бера олиши эътироф этилган. [9]

Туркистон матбуотида аёлларга нафақат илм бериш, балки уларга ҳуқуқ берилиши эътироф этилган. Чунончи, 1914 йилда “Туркистон вилоятининг газети”да номаълум муаллиф томонидан ёзилган мақолада агар мусулмонлар умргузаронларини тараққий ва саодатда бўлмоқликни хоҳласалар, мусулмон хотин-қизларига Европа хотин-қизларининг ҳуқуқлари берилиши кераклиги таъкидланади. [4]

XX асрнинг бошларида Туркистон маданий ҳаётида ҳам татар аёллари фаол иштирок этганлар. Жумладан, улар турли театрлаштирилган саҳналар намойиш этганлар, жумладан, 1909 йилда Тошкентда татар қизлари ўқийдиган мактаблари фойдаси учун театр ўйинлари кўрсатишган. Шу муносабат билан 1909 йилда чоп этилган мақолада аёлларнинг паранжисиз юришлари қаттиқ танқид остига олинади. Мақолада ёзилишича, "агар мусулмонлар фойдаси учун театр қилиб, пул йиғмоқ бўлсалар, бундай мухолиф шаре қилмасдан тўғринча бошқа тариқа ила театрларин амалга келтирмоқлари лозим эди"
[10].

"Туркистон вилоятининг газети" саҳифаларида "Вақт" газетасининг муҳаррири Фотиҳ Каримовнинг Тошкентдан Оренбургга борган 16 ёшли Тойфа хонимнинг сафари тўғрисидаги маълумоти берилади. Муаллиф Тошкент шаҳар қизлар гимназиясида ўқиган Тойфа хонимни бошқа қизларга ибрат қилиб кўрсатган эди. Тойфа хоним европача кийимда Оренбургга сафар қилади, у ерда икки ҳафта истиқомат қилади, бир қанча мактаб ва мадрасаларни, масжидларни, мусулмонларнинг хайрия кутубхонасини, шунингдек "Вақт" газетасининг идорасини ҳам бир неча марта бориб кўради. Муаллиф инглиз ва немис халқларини мисол қилиб, улар ўз фарзандларини бир-бирининг юртига юбораётганлари, бундан муддао душманликка барҳам бериб, дўстликни мустаҳкамлаш эканлигини таъкидлаб, Россияда яшовчи мусулмонларни улардан ўрнак олишга, иттифоқ бўлишга чақириб ёзади: "Бизнинг Русия мусулмонлари шул замонгача бир-бирларининг аҳволидан воқиф бўлмай, бир қишлоқда ёки тўқайда тургандек эрдилар. Туркистон, Қрим, Кавказ, Ўрол, Қозон мусулмонлари бир ҳукуматда туриб, ватанлари бир бўлиб, забонлари бир бўлса ҳам, бир-бировларини танимай, бир-бирларини ҳаётидан Яман, Эронистоннинг бадавий мусулмонларидек бехабар эрдилар". [11] Мухбир Тойфа хонимнинг Оренбургга ташрифини саҳрода очилган биринчи гулга ўхшатиб, кейин саҳрода кўп гуллар очилиши – мусулмон ёшлари иттифоқ бўлиб, "қоронғида қолган миллатларни ёриққа чиқариб, уларни тараққий йўлига солишини, ўз Ватанларига манфаат етказишига сабаб бўлурлар эрди" [11], деб таъкидлайди.

"Вақт" газетасининг мақоласига жавобан "Туркистон вилоятининг газети" саҳифасида Тойфа хонимни ибрат қилиб кўрсатиш бошқа мусулмон қизларини йўлдан оздиришдир, деган мазмунда номаълум муаллифнинг мақоласи эълон қилинади ва Фотиҳ Каримовдан бундай тарғибот учун узр сўраш талаб қилинади. [12] Мақолада шариатга биноан, мусулмон хотин-қизлари маҳрам эркаксиз уч кундан ортиқ узоқ жойга сафар қилмоқлиги мумкин эмас, деган кўрсатмаси рўкач қилинади.

XX асрнинг бошига келиб, аёлларнинг жамият бошқарувидаги иштироки масалалари ҳам кўтарила бошлайди. Бу масала юзасидан ҳам жамиятда турлича ижтимоий қарашлар илгари сурилади. 1912 йилда "Туркистон вилоятининг газети"да тараққийпарвар кучларнинг мусулмон аёллари эркаклар билан тенг ҳуқуқли равишда қозилик мансабига тайинланиши фикри юзасидан мунозара олиб борилади. Мақола муаллифи тараққийпарварларнинг фикрига қарши чиқади ҳамда хотинлар қозилик мансабига тайин этилиши мумкин эмаслигини мажлисларда улар эркаклар билан муомала қила олмаслиги билан изоҳламоқчи бўлади. [13]

Лекин, ўша даврда Туркистонда жуда кам бўлса-да, аёлларнинг айрим ҳолларда масъул вазифаларни ўз зиммасига олишга қодир бўлганлиги ҳақида маълумотлар учрайди. Масалан, Наманган вилояти мироббошиси Хўжабекнинг маҳаллий суғориш системаси билан яхши таниш бўлган рафиқаси Холбиби эрининг ишларига яқиндан ёрдам бериб, унинг вафотидан кейин (ўша пайтда у 40 ёшларда бўлган) эркакча кийиниб, наманганликлар мироббошиси сифатида тан олишларига эришган ва вафотигача шу вазифани бажарган. Шунинг учун халқ уни Холмироб, яъни деҳқонларга ариқ сувини тақсимловчи деб атаган. [14]

Туркистон матбуотида аёлларнинг ўзлари ҳам иштирок этиб, халқнинг эътиборини ўз муаммоларига эътибор қаратишга ҳаракат қилган. Чунончи, "Садои Туркистон" газетасида "Хонимлар товуши" сарлавҳаси остида тошкентлик Пошшохоним Жалилованинг хотин-қизлар учун мактаб очиб, уларга илм беришга даъвати чоп этилган. Унда мусулмон аёллардан

ҳам муаллима, муҳаррир ҳамда ҳамшираларе етиштириш, уларнинг аҳволини газеталарда муҳокама ва мунозара қилиш масаласи кўтарилган.[15] Мазкур газетада Самара вилоятидан Сора Музаффариянинг аёллар аҳволини шундай аянчли аҳволда бўлишига уларнинг ўзи сабабчи эканлиги таъкидлаб ёзилган: “Бизда истеъдод ҳам бор, қобилият ҳам бор, онг ва фикр ҳам бор. Бир уй ичинигина эмас, баъзи эрлар ҳам ўрнига келтура олмаслик мамлакатлар идора қиладурган қувват ҳам бор”. [16] У аста-секин бўлса ҳам дунёда хотин-қизлар (албатта ислом олами бундан мустасно) жамият ишларида иштирок эта бошлаганлигини таъкидлаб, Туркистон мусулмон аёлларига татар хотин-қизларини намуна қилиб кўрсатади ва бу ҳақда қуйидагиларни ёзади: “Бу хусусида татар хотинларига ташаккур этмай ўта олмаймиз. Чунки улар ҳар хусусда ўзларининг эхтиёжларини кўра бошладилар. Мактаблар, жамиятлар, кутубхоналар ва қироатхоналар каби муассасалар очибгина қолмасдан, рус дорулфунунларига ҳатто Европа дорулилмларига бориб келмоққа жасорат қилғувчилар бўлди. Аммо, ислом оламидаги бошқа хонимларни қарасанг ҳеч қаноат қиладурган ҳаракат йўқ”. [17]

Сора Музаффария Туркистон хотин-қизларларининг аҳволига тўхталар экан, ўлкада 10 миллион мусулмон бўлса, шулардан 5 миллионини ташкил этган хотинқизларнинг аҳволи ачинарли эканлиги таъкидлайди. У Тошкентда нашр қилинадиган “Садои Туркистон” жаридаси миллионларча Туркистон хотин-қизлар ичидан чиқиб унинг қўлига келишини ёзар экан, бу газетани мамнуният билан ўқишини маълум қилган. Лекин бу жаридада хотин-қизлар тарафидан қаноат ҳосил қиладурган ҳеч бир нарса ёзилмаганлигидан ҳамда бир-икки нарса ёзганлар ҳам “мактаб керак” деган сўздан ўтмаганлигини афсус билан қайд этади.

XIX асрнинг охири – XX аср бошида Туркистон хотин-қизлари муаммоларидан бири қизларни эрта турмушга бериш масаласига ҳам алоҳида эътибор берила бошланди. Туркистонда босилиб чиққан расмий матбуот саҳифаларида ҳам шу масала юзасидан мақолалар чоп этилди. Чунончи, 1899 йилда «Туркестанские ведомости» газетасида [16] маҳаллий халқларда қизларни жуда эрта, яъни 12-14 ёшларида узатилаётгани танқид қилинди. Қизларни бундай эрта узатиш тиббий томондан ҳам, қонун томондан ҳам мақсадга мувофиқ эмаслиги таъкидланади.

Тошкентдаги аёллар ва болалар шифохонаси шифокорлари А.В. Пославская ва Е.Н. Мандельштам маҳаллий қизлар 15-16 ёшда балоғатга етишиши, баъзи ҳолларда бундан ҳам кечроқ етишиши, шунинг учун уларни эрта узатиш, уларнинг жисмоний ривожланишларига салбий таъсир қилиши ва жинсий аъзоларининг функцияси бузилишига олиб келишини таъкидлайдилар. [18]

Шуни таъкидлаб ўтиш керакки, XX аср Туркистон ва Бухоро жадидчилик ҳаракатининг улкан намояндаларидан бири Абдурауф Фитрат томонидан ҳам эрта оила қуриш нафақат қизларга, балки йигитларга ҳам тиббий томондан зарар етказишини шарҳлаган ҳолда ҳакимлар эркакларга 23 ва қизларга 18 ёшдан олдин турмуш қурмасликни маслаҳат бериши таъкидланади. [19]

XIX асрнинг охиригача маҳаллий аҳолида болалар туғилиши вақти қайд этилмаган, яъни ота-оналар фарзандларининг ёшини аниқ билишмагани Туркистонда қизларни ёш узатишга қарши чора кўришга тўсиқлардан бири эди. Матбуотда маҳаллий аҳоли орасида туғилганлик тўғрисидаги гувоҳномани жорий қилиш, уни мусулмон руҳонийлари қайд этмагани учун фуқаролик регистрациясини амалга ошириш лозимлиги таъкидланади. [20]

Матбуотда 10-12 яшар қизларни эрга бериш ва умуман қизларни ўз ихтиёрларига қарамасдан, мажбурлаб катта ёшли одамларга, баъзи ҳолларда ўз отасидан ҳам қариқ одамларга узатилаётгани қораланади. Бу зўравонликларга чидай олмаган қизлар бошқа йўл топа олмасдан ўз жонларига суиқасд қилишга мажбур бўлишаётгани афсусли ҳол эканлиги ёзилади. Бу мақолада хабар берилишича, Астрахан шаҳридан бўлган 16 яшарлик Фотима ота-онаси уни ихтиёрига қўймай бир мўйсафидга бермоқчи бўлгани сабабли бундай зўрликка тоқат қила олмай афюн еб ўз-ўзини ўлдирмоқчи бўлган, бошқа жойлардаги унинг диндошлари

ота-оналарининг жабр-зулмларига ночор сабр қилиб, “эркакларга ҳайвондек асир қилиб берилган”. [21]

Жадид матбуотида ҳам никоҳ масаласи юзасидан фикрлар билдирилган эди. Хусусан, 1914 йилда “Садои Туркистон” газетасида хотин-қизларнинг ўзи бу муаммо ҳақида қарашларини баён қилганлиги эътиборга моликдир. Мазкур мақолада шу вақтгача жамиятда ҳукм суриб келаётган никоҳ ҳақидаги ақидаларга қарши равишда янгича фикрмулоҳазалар билдирилган. Унда никоҳ қилинаётган ёшлар биринчи ўринда балоғат ёшига етиши, шунингдек уларнинг саломатлиги ҳақида қўлларида шифокор шаҳодатномаси бўлиши, уларнинг розилиги, бундан ташқари никоҳ вақтида уларнинг вазифалари она тилида аниқ тушунтириб берилиши лозимлиги қайд этиб ўтилган. [22]

Бу давр матбуотида дунёдаги тараққиётга эришаётган давлатларда никоҳдан олдин йигит-қиз бир-бирини кўриб, рози-ризолик билан оила қураётган бир пайтда мусулмон оламида, жумладан, Туркистонда ҳам қизларни мажбурлаб узатиш келажак авлод ҳаётига салбий таъсир этиши ҳақида фикрлар баён қилина бошланади. [21]

Бундай муаммоларнинг матбуот саҳифаларида кўтарилиши ўз даври учун катта аҳамиятга эга бўлиб, хотин-қизларга нисбатан анъанавий муносабатга маълум бир ўзгаришлар қилиш тарафдори бўлган тараққийпарвар кучлар хотин-қизларга илм бериш, уларнинг оиладаги мавқеини ошириш, ҳатто жамоат ишларига жалб қилиш масалаларини халққа тушунтиришга ҳаракат қилинди. Бу масалаларни матбуот орқали кўтариб чиқишда саноқли бўлса-да Туркистон хотин-қизларининг ўзи ҳам иштирок этганлиги алоҳида эътиборга лойиқ эди. Бу борада татар аёлларининг намуна кўрсатилиб, мусулмон хотинқизлари озодлиги ҳақида қайғурганлар, улар бу омил жамиятни турғунликдан чиқаришга катта ёрдам бериши уқтирганлар.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати.

1. Бу муаллиф газетада қисқартириб, П.М. деб берилган, газетада исмфамилияларнинг бош ҳарфи берилиши кенг тарқалган. Газетанинг редактори Н.А. Маевнинг укаси П.А. Маев маълум вақт муҳаррир ёрдамчиси бўлиб ишлаган.
2. Права среднеазиатской женщины // Туркестанские ведомости. - 1875. - №22.
3. Покрывала мусульманских женщин //ТВ. - 1889. - №11.
4. Мусулмон овози // ТВГ. – 1914. – №4.
5. Мусулмон хотин-қизларининг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати // Туркистон вилоятининг газети. - 1913. - №91.
6. А. С. Мусулмонлар ҳаёти // Туркистон вилоятининг газети. - 1906. - №29-30.
7. Азимий А. Таълим ва тарбия // Ойна. - 1915. - №15. Б.346-348.
8. Тошкандлик бир муаллима. На учун ибрат олмаймиз? // Садои Туркистон. - 1914. - №11.
9. Ёвушев Н. Хотин-қизларимизга бир назар // Садои Туркистон. - 1914. - №15.
10. Олимзода. Мусулмон хотунларининг юзларини бекитишлари хусусида // Туркистон вилоятининг газети. - 1909. - №91.
11. Мусулмон хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати // Туркистон вилоятининг газети. - 1913. - №92.
12. Мусулмон хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати //Туркистон вилоятининг газети. - 1913. - №93.
13. Хотинлар қози бўла оладими? //Туркистон вилоятининг газети. - 1912. - № 54.
14. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. - Казань: Типография императорского Университета, 1886. - С. 159.
15. Хонимлар товуши // Садои Туркистон. - 1914. - №26.
16. Музаффария С. Айб ўзимизда // Садои Туркистон. - 1914. - №36.

17. Ранние браки у туземцев // ТВ. - 1899. - № 8.
18. Пославская А., Мандельштам. Обзор десятилетней (1883-1894) деятельности амбулаторной лечебницы для женщин и детей в Ташкенте. - Т.: 1894. - С. 76.
19. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. - Т.: Маънавият, 2000. - 43-44-б.
20. Мусулмонлар орасида эрта никоҳлар // Туркистон вилоятининг газети. - 1913. - №52.
21. Мусулмон аёлининг аҳволи // Туркистон вилоятининг газети. - 1911 йил. - №58.
22. Ёқубова С., Мақсудова М. Никоҳ ҳақида // Садои Туркистон. - 1914. - №11.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛК СОВЕТ СУДЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ТАРИХИДАН

Комолов Дилшод Пулатович,
Қашқадарё вилоят педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази ўқув ва илмий ишлар бўйича директор ўринбосари тарих фанлари доктори, профессор
E-mail:dilshod.komolov.79@bk.ru
+998977203066

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон ССР ташкил топгандан сўнг республика ҳудудида ягона суд тизимининг барпо этилиши меёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда катта ҳажмдаги архив ҳужжатларини қиёсий таҳлил этиш асосида ёритиб берилган. Шунингдек, мақолада совет судларидаги кадрлар муаммоси, иш юритиш учун зарур воситалар билан таъминланмагани, суд ишларига ноқонуний аралашув жараёнлари очиб берилган.

Таянч сўзлар: Инқилобий қўмита, Адлия халқ комиссарлиги, Олий суд, вилоят суди, халқ суди, низом, жиноят ва фуқаролик ишлари, қозилар, судя, кассация ҳайъати, халқ терговчиси, халқ маслаҳатчилари, сайёр суд мажлислари, ижроия қўмитаси.

Annotation. In this article, the establishment of a unified judicial system in the territory of the republic after the establishment of the Uzbek SSR is highlighted based on a comparative analysis of regulatory and legal documents and a large volume of archival documents. Also, the article reveals the personnel problem in the Soviet courts, the lack of necessary tools for proceedings, and the processes of illegal interference in court cases.

Key words: Revolutionary Committee, People's Commissariat of Justice, Supreme Court, Regional Court, People's Court, Statute, Criminal and Civil Cases, Judges, Judge, Cassation Panel, People's Investigator, People's Counselors, Mobile Court Sessions, Executive committee.

1924 йил Ўрта Осиёда миллий давлат чегараланиши ўтказилиши муносабати билан ЎзССР ташкил топди. Файзулла Хўжаев раҳбарлигидаги ЎзССР инқилобий қўмитаси зиммасига собиқ ТАССР, БССР ва ХССРдан Ўзбекистон таркибига ўтган ҳудудларда бирбиридан фарқ қилувчи суд маҳкамаларини тугатиш ҳамда бутун республикада ягона суд тизимини ташкил этишдек ғоят масъулиятли вазифа турар эди. 1924 йил 26 ноябрда ЎзССР Инқилобий қўмитасининг йиғилишида Файзулла Хўжаев Адлия халқ комиссари Ғозиевга суд ҳақидаги меъёрий ҳужжатларни мувофиқлаштириш бўйича топшириқ берган эди[1].

ЎзССР Инқилобий қўмитасининг 2 декабрдаги ишчи ва деҳқонларга мурожаатномасида республикада суд органларини ташкил этиш, хусусан ўзбек тилида иш юритилишини таъминлаш ҳамда судларни кенг меҳнаткашлар оммасига яқинлаштириш режалари баён этилган эди[2].

ЎзССРда дастлабки даврда қуйидаги суд тизимини ташкил этишга киришилди: халқ суди, вилоят суди ва Олий суд. ЎзССРда янги низом ишлаб чиқилмагани боис, судлар 1922 йил 31 октябрда қабул қилинган “РСФСР суд тузилиши ҳақида”ги низомга асосан иш юритиши белгилаб қўйилган эди[3].

Совет суд тизимининг қуйи бўғини ва асосий негизини халқ судлари ташкил этар эди. Ўзбекистонда совет халқ судларини ташкил этиш билан боғлиқ жараёнларни 3 гуруҳга бўлиш мумкин.

Биринчи гуруҳга собиқ ТАССРдан ЎзССР таркибига ўтган ҳудудларда фаолият юритган халқ судлари киради. Ушбу судлар октябр тўнтаришидан кейинги 7 йиллик тарихий давр мобайнида совет қонунчилиги асосида иш юритиш амалиётини нисбатан яхши ўзлаштирган эди.

Иккинчи гуруҳга собиқ БССРдан ЎзССР таркибига ўтган ҳудудларда фаолият юритган халқ судлари киради. 1921 йил 19 декабрда БХСР МИҚ қабул қилган “БХСР совет халқ судлари ҳақида”ги низомга асосан совет судлари ташкил этилган эди. Кейинчалик ушбу низомга бир қатор ўзгаришлар киритилди. Совет судлари БХСРнинг ғарбий қисмидаги вилоят марказларида ва асосан европалик аҳоли вакиллари яшайдиган ҳудудларда иш юритган. Маҳаллий аҳоли эса ҳар доимгидек қози судларига мурожаат этишда давом этган. ЎзССР ташкил топгач Бухоро, Когон, Термиз шаҳарларида совет халқ судлари мавжуд эди.

Учинчи гуруҳга собиқ ХССРдан ЎзССР таркибига ўтган ҳудудлардаги халқ судлари кирган. Хоразмда совет тузуми ҳукм сурган 1920-1924 йилларда жиноят ва фуқаролик ишлари асосан қозилар томонидан кўриб чиқилган. Давлатга қарши сиёсий ва ҳарбий жиноятлар эса фавқулодда судлов идораси бўлган инқилобий, ҳарбий трибуналлар томонидан ҳал этилган. 1924 йил охирига келиб Хива шаҳрида судья ва котибдан иборат 1 та совет халқ суди иш юритар эди[4]. ЎзССР Адлия халқ комиссарлиги зиммасига Хоразм вилоятида совет халқ судларини ташкил этишдек жиддий масала турар эди.

Адлия халқ комиссарлигининг расмий нашри маълумотларига кўра 1925 йил ўрталарига келиб Ўзбекистонда 74 та халқ судлари мавжуд бўлиб, вилоятлар бўйича қуйидагича тақсимланган эди: Фарғонада 21 та, Тошкентда 23 та, Самарқандда 20 та, Зарафшонда 3 та, Қашқадарёда 3 та, Хоразмда 3 та ва Сурхондарёда 1 та[5, С.61].

Халқ судининг ҳар бир участкаси 54 мингдан ортиқ аҳолига хизмат кўрсатиши лозим эди[5, С.62]. Шу сабабли, ЎзССР ҳукумати ташкил топган дастлабки кунларданоқ қози судларини сиқиб чиқаришнинг муҳим воситаси бўлган халқ судлари тармоғини кенгайтиришга киришган эди.

1926 йилга келиб халқ судлари сони янада ошди. Жумладан, 1926 йил 1 август ҳолатида Фарғонада 34 та, Самарқандда 22 та, Тошкентда 21 та, Зарафшонда 11 та, Қашқадарёда 7 та, Хоразмда – 7 та, Сурхондарёда 6 та ва бутун республика бўйича жами 108 та халқ судлари фаолият юритган[6].

ЎзССРда илк бор 1925 йил 29 январда маъмурий-ҳудудий бўлиниш амалга оширилди ва Самарқанд, Фарғона, Тошкент, Зарафшон, Қашқадарё, Сурхондарё ҳамда Хоразм вилоятлари ташкил этилди.

Собиқ ТАССРнинг Самарқанд ва Фарғона вилоят судлари ЎзССР таркибида кейинчалик ҳам фаолиятини давом эттирди. ТАССРнинг собиқ Сирдарё вилоят суди Тошкент шаҳрида жойлашган эди. ЎзССР ташкил топгач, энди у Тошкент вилояти суди сифатида қайтадан ташкил этилди ва 1924 йил декабр ойидаёқ фаолиятини бошлаган эди[7].

Собиқ БССРнинг Зарафшон, Қашқадарё ва Сурхондарё округ судлари Ўзбекистон таркибида вилоят судлари сифатида қайтдан ташкил этилди. БССР Олий суди эса тугатилди. Унинг судловига оид тугалланмаган ишлар ҳамда архив ҳужжатлари Бухоро шаҳрида жойлашган Зарафшон вилоят судига топширилди.

1924 йилнинг охирида раис ва уч нафар судьядан иборат собиқ ХССР Олий суди тугатилди ва унинг ўрнида Хоразм вилоят суди ташкил этилди. Олдин ХССР Олий суди раиси

лавозимида ишлаган Жуманиёз Эшмуҳаммедов Хоразм вилоят судининг биринчи раиси этиб тайинланди[8].

1925 йилда ЎзССР таркибидаги вилоят суди судьяларининг жами сони 41 нафар бўлиб, Тошкент вилоят судида 9, Самарқандда 8, Фарғонада 6, Зарафшонда 5, Қашқадарёда 5, Сурхондарёда 5, Хоразмда 3 нафар судья фаолият юритган. Вилоят суди судьяларининг 29 нафари ўзбек ва 12 нафари европаликларга мансуб эди[5, С.61].

Тожикистон АССР Ўзбекистон таркибида автоном республика сифатида ташкил этилиши муносабати билан 1925 йил 23 мартда ЎзССР МИҚ Олий суднинг Тожикистон АССР бўлимини ташкил этиш ҳақида қарор қабул қилди[9,С.100]. Олий суднинг Тожикистон АССР бўлими раис, жиноят судлов ва жиноят кассация ҳайъатлари судьяларидан иборат эди. Ушбу суд таркибида фуқаролик судлов ва кассация ҳайъатлари мавжуд эмас эди. Тожикистон АССР округ судларининг фуқаролик ҳайъати қабул қилган қарорлар юзасидан келиб тушган шикоятлар кассация тартибида ЎзССР Олий судида кўриб чиқилар эди.

Ўзбекистон Инқилобий қўмитаси 1924 йил 13 декабрдаги 28 киши иштирок этган мажлисида ЎзССР Олий судини ташкил этиш ва унинг таркибини тасдиқлаш ҳақидаги масалани кўриб чиқди. Йиғилишда Адлия халқ комиссари Ғозиев Олий суднинг ваколатлари юзасидан маъруза қилади [10]. Инқилобий қўмита қарори билан РСФСР Олий судининг Тошкентдаги Туркистон бўлими тугатилиб, унинг иш юритиш ҳужжатлари, канцелярияси, архиви ЎзССР Олий судига ўтказилди.

Ўзбекистон Олий судининг биринчи таркибига жами 7 киши: раис - А.Ш.Шарафутдинов, судлов ҳайъати раиси вазифасини бажарувчи биринчи ўринбосар - И.М.Чудаев, кассация ҳайъати раиси вазифасини бажарувчи иккинчи ўринбосар Б.А.Шаропов, аъзолари этиб Саид Аҳматов, Упельник, Ряховский, Ҳожи Орал тайинланган[11,С.79]. 1925 йилнинг декабр ойига келиб Олий суднинг янги таркиби: раис – С.Қосимов, унинг ўринбосари – Чудаев, Олий суд аъзолари Саримсоқов, Трофимов, Пиневич, Хушмонов, Алиев ЎзССР МИҚ томонидан тайинланади.

1926 йил 29 сентябрда ЎзССР МИҚ V сессияси районлаштириш тўғрисида қарор қабул қилди ва илгари мавжуд бўлган 7 та вилоят ўрнида 10 та округ ташкил этиш тўғрисида қарор қабул қилди. Шу куни “ЎзССР суд тузилиши ҳақида”ги дастлабки низом қабул қилинди ва 1927 йил 15 февралдан кучга кирди[12,С.1-31]. Ушбу низом 17 боб, 137 та моддадан иборат эди. Низомга кўра Ўзбекистонда қуйидаги судлар ташкил этилди: халқ суди, округ суди ва Олий суд(Тожикистон АССРда Олий суднинг бўлими). Бундан ташқари, алоҳида турдаги ишларни кўриб чиқиш учун қуйидаги судлар ҳам фаолият юритган:

1) ҳарбий жиноятларни кўриш учун ҳарбий трибуналлар;

2) меҳнат низоларни кўриш учун халқ судининг меҳнат сессиялари; 3) вояга етмаганларнинг ишлари билан шуғулланувчи комиссиялар; 4) ер ва арбитраж комиссиялари.

Ушбу низомнинг II-III боблари халқ судьяси ва маслаҳатчиларининг сайлаш тартибига бағишланган эди[12,С.6-9]. Халқ судьяси икки нафар маслаҳатчиси билан қатъий белгиланган ҳудуд доирасида фаолият олиб борган. Халқ судьяси этиб сайланаётган шахс маҳаллий советларга сайлаш ва сайланиш ҳуқуқига эга бўлган, жамоат ёки партия ташкилотларида масъул лавозимларда камида икки йил ёки совет адлия идораларида халқ терговчисидан қуйи бўлмаган лавозимларда уч йиллик меҳнат тажрибасига эга бўлиши керак эди.

Халқ судьялари округ судининг тавсиясига биноан округ ижроия қўмитаси томонидан бир йил муддатга сайланган, сўнгра Адлия халқ комиссарлиги томонидан тасдиқланган. Адлия халқ комиссарлиги рухсатисиз халқ судьясини муддатидан олдин лавозимидан четлатиш ёки бошқа ҳудудга судьялик лавозимига ўтказилиши тақиқланган эди.

Халқ суди участкалари сони округ суди томонидан белгиланган ва округ ижроия қўмитаси ҳамда Адлия халқ комиссарлиги билан келишилган ҳолда тасдиқланган.

Халқ суди мажлисларида иштирок этиш учун аҳоли орасидан халқ маслаҳатчилари сайланган. Маҳаллий советларга сайлаш ва сайланиш ҳуқуқига эга бўлган, судланмаган фуқаролар маслаҳатчи этиб сайланиши мумкин эди.

Ҳар йили 1 декабргача бўлган муддатда ҳар бир халқ суди учун келгуси йил судда иштирок этадиган маслаҳатчиларнинг 200 нафардан иборат таркиби сайланган. Ҳар ҳафта рўйхат асосида улардан 3 нафари судга чақирилган. Маслаҳатчиларнинг 2 нафари суд мажлисларида бевосита иштирок этса, бир нафари заҳирада турган. Шу тартибда маслаҳатчилардан ҳар бири йил давомида 6 кундан суд мажлисларида иштирок этган.

Низомда халқ суди жойлашган участкадаги саноат корхоналари, деҳқон жамоалари ва ҳарбий қисмлардан сайланадиган маслаҳатчиларнинг ўзаро нисбати белгилаб қўйилган эди. Яъни, халқ маслаҳатчиларининг 50% ишчилар, 35% деҳқонлар ва 15% ҳарбий хизматчилар вакиллари бўлиши керак эди. Маслаҳатчилар судда иштирок этгани учун асосий иш жойида ойлик маошлари сақланиши ва йўл харажатлари қопланиши низомда кўрсатиб ўтилган эди.

Низомнинг IX-X боблари округ суди фаолиятига бағишланган эди[12, С.15-20]. Округ суди Олий суднинг сайёр суд мажлислари ва ҳарбий трибуналлардан ташқари бутун округдаги судлар устидан назоратни амалга оширган. Округ суди раиси ва ўринбосарлари этиб сайланаётган шахслар халқ судьяси ёки инқилобий трибунал аъзоси сифатида камида уч йил, округ суди судьялари эса камида икки йиллик меҳнат тажрибасига эга бўлиши керак эди.

Округ судининг таркиби округ ижроия қўмитаси томонидан бир йил муддатга сайланган, сўнгра Адлия халқ комиссарлиги томонидан тасдиқланган. Округ суди аъзоларини муддатидан олдин ижроия қўмитасининг бир томонлама қарори билан Адлия халқ комиссарлиги рухсатисиз чақириб олиш ёки алмаштириш таъқиқланган эди.

Округ суди мажлисларида иштирок этиш учун 200 нафардан иборат халқ маслаҳатчилари сайланган ва уларнинг таркибига округдаги мавжуд халқ судьяларининг камида ярми киритилиши керак эди.

Округ суди қуйидагиларга ваколатли эди:

А) округдаги марказий суд идораси сифтида халқ судлари фаолиятини назорат қилиш;

Б) халқ судларининг ҳукм ва қарорлар устидан тушган шикоят ва протестларни кассация инстанцияси сифатида кўриб чиқиш;

С)халқ судлари ваколатига кирмайдиган жиноят ва фуқаролик ишларини биринчи инстанция суди сифатида кўриб чиқиш.

Округ суди қонунда белгиланган ваколатларни амалга ошириш учун ўз аъзоларидан қуйидаги таркибий тузилмаларни ташкил этган: Раёсат, Пленум, жиноят ишлари бўйича ҳайъат, фуқаролик ишлари бўйича ҳайъат ва интизомий ҳайъат.

Округ суди раиси ва унинг икки нафар ўринбосари Раёсат таркибини ташкил этган. Раёсат қуйидаги ваколатларни амалга оширган:

а) округ суди аъзоларини ҳайъатлар бўйича тақсимлаш, у ёки бу ҳайъат таркибига кирмайдиган суд аъзолари орасидан алоҳида ишларни кўриб чиқиш учун махсус ҳайъатлар тузиш, шунингдек, округ суди аъзоларининг умумий сонини кўпайтириш тўғрисида Адлия халқ комиссарлигига таклифлар киритиш;

б) округ суди Пленумига киритилиши керак бўлган масалаларни муҳокама қилиш, халқ судялари, халқ терговчилари ва катта терговчилар, шунингдек, округ суди судьяларининг интизомий жавобгарлиги билан боғлиқ ҳужжатларни тайёрлаш.

Пленум мажлисларига округ судининг барча судьялари иштирок этган. Судьяларнинг камида ярми иштирок этганда Пленум мажлислари қонуний ҳисобланган. Пленум ваколатига қуйидагилар кирган:

- халқ суди участкалари сони ва уларнинг ҳудудий чегаралари билан боғлиқ барча масалаларни кўриб чиқиш, халқ судьяларини бошқа ерга кўчириш ва чақириб олиш тўғрисидаги илтимосномаларни Адлия халқ комиссарлигига тақдим этиш;

- халқ терговчилари ва катта терговчиларни участкалар бўйича тайинлаш, уларни лавозимидан четлаштириш ёки бошқа жойга кўчириш тўғрисидаги илтимосномаларни Адлия халқ комиссарлигига тақдим этиш;
- халқ судьялари ва терговчиларнинг ҳисоботларини эшитиш, уларнинг фаолияти юзасидан текширувлар тайинлаш;
- округ судининг интизомий ҳайъати таркибини сайлаш;
- халқ судялари ва терговчилари, шу жумладан округ суди аъзоларига нисбатан интизомий жавобгарлик қўзғатиш билан боғлиқ масалаларни кўриб чиқиш.

Округ судида жиноят ва фуқаролик ишлари бўйича ҳайъатларнинг ҳар бири судлов ва кассация бўлимларига бўлинган ҳолда фаолият юритган. Ҳайъат раислари ўз лавозими бўйича округ суди раисининг ўринбосари бўлган. Ҳайъатларнинг судлов бўлими раис ва икки нафар халқ маслаҳатчи, кассация бўлими эса уч нафар судьядан иборат таркибда иш юритган.

Округ судининг интизомий ҳайъати раис ва икки нафар судьядан иборат таркибда Пленум томонидан сайланган. Округ судининг раиси ёки унинг ўринбосарларидан бири интизомий ҳайъатга раислик қилган.

Низомнинг XIII-XV боблари Олий суд таркибини шакллантириш тартиби ва ваколатларига бағишланган эди[12, С.24-29]. ЎзССР Олий судига ҳарбий трибуналлардан ташқари республиканинг барча суд органлари, шунингдек, Олий суднинг Тожикистон бўлимини назорат қилиш, кассация тартибида вилоят судларининг ҳукмлари ва қарорларини, алоҳида тартибда давлат аҳамиятига эга бўлган фуқаролик ва жиноят ишларини биринчи инстанция сифатида кўриб чиқиш ваколати берилган эди.

ЎзССР Олий суди таркиби раис, унинг ўринбосари, жиноят ва фуқаролик ишлари бўйича ҳайъат раислари ҳамда олти нафар аъзодан иборат эди. Олий суд аъзолари, шунингдек жиноят ва фуқаролик ишлари бўйича ҳайъат раислари Адлия халқ комиссарининг тавсиясига биноан ЎзССР МИҚ томонидан лавозимига тасдиқланган. Олий суд раиси ва унинг ўринбосари эса тўғридан-тўғри МИҚ томонидан тайинланган.

Олий суднинг Тожикистон бўлими таркиби Тожикистон АССР МИҚ томонидан тайинланган. Ушбу суднинг раиси ва ўринбосари эса ЎзССР МИҚ томонидан тасдиқланган.

Олий суд таркиби қуйидаги тузилмалардан иборат эди: Раёсат, Пленум, жиноят ишлари бўйича ҳайъат, фуқаролик ишлари бўйича ҳайъат ҳамда интизомий ҳайъат.

Олий суд раиси, унинг ўринбосари, жиноят ва фуқаролик ишлар бўйича ҳайъат раислари Олий суд Раёсати таркибини ташкил этган. Раёсат қуйидаги вазифаларни амалга оширган:

1) Бошқарув соҳасида:

а) Олий суд аъзолари ўртасида вазифаларни тақсимлаш;

б) Олий суд аъзоларидан алоҳида ишлар бўйича суднинг махсус таркибини тузиш;

в) Олий суд ҳайъатлари ҳисоботларини кўриб чиқиш ва тасдиқлаш; 2) Суд назоратини амалга ошириш соҳасида:

а) округ судларининг ҳукм ва қарорларини кассация ҳамда назорат тартибида кўриб чиқиш учун Олий суд ҳайъатларига тақдим этиш;

б) округ судларининг шахсий таркибини ўзгартириш тўғрисида Адлия халқ комиссарлигига тақдимнома киритиш;

в) республика прокурорининг таклифига кўра ёки ўз ташаббуси доирасида округ судлари ва уларга тенглаштирилган судларда махсус текширувларни ўтказиш ва ушбу текширувлар натижаларини Адлия халқ комиссари ёки унинг ўринбосарининг мажбурий иштирокида эшитиш;

г) Олий суд судьялари, Олий суднинг Тожикистон бўлими судьялари, округ суди судьяларига нисбатан интизомий иш қўзғатиш;

д) Олий суднинг ялпи мажлисларини чақириш.

Пленум мажлисларида Олий суднинг барча судьялари иштирок этган. Судьяларнинг камида ярми ҳозир бўлганда Пленум мажлислари қонуний ҳисобланган.

Пленум қуйидагиларга ваколатли эди:

- суд амалиёти бўйича қонунларни шарҳлаш;
- Олий суд Раёсатининг республиканинг ҳар қандай суди судлов ва кассация ҳайъатлари ҳукм ва қарорларини бекор қилиш ёки ўзгартириш тўғрисидаги қарорларини кўриб чиқиш;
- Олий суднинг интизомий ҳайъати таркибини сайлаш;
- Олий суд Раёсатининг фармойишларини тасдиқлаш ва Пленумга киритилган бошқа масалаларни кўриб чиқиш.

Олий суднинг жиноят ва фуқаролик ишлари бўйича ҳайъатларининг ҳар бири судлов ва кассация бўлимларига бўлинган. Ҳайъатлардаги судлов бўлимлари мажлисларига Олий суд судьяларидан бири раислик қилган ва икки нафар халқ маслаҳатчиси иштирок этган. Халқ маслаҳатчиларининг жами сони 48 кишидан иборат бўлиб, ЎзССР МИҚ томонидан тасдиқланган ва рўйхат асосида суд мажлисларига чақирилган. Кассация бўлимлари уч нафар судьядан иборат таркибда иш юритган. Олий суд раиси жиноят ва фуқаролик ишлари бўйича ҳайъатларда кўриб чиқилаётган ҳар қандай ишда раислик қилишни ўз зиммасига олишга ҳақли эди.

Олий суд ҳузурида энг муҳим ишлар бўйича терговчилардан иборат тергов бўлими ташкил этилган эди.

Олий суднинг интизомий ҳайъати раис ва икки аъзодан иборат бўлиб, Олий суд Пленуми томонидан сайланган. Интизомий ҳайъат томонидан: а) танбеҳ, б) хайфсан, в) қуйи лавозимга ўтказиш, д) судьялик лавозимида ишлашни икки йилгача тақиқлаш билан хизмат вазифасидан четлатиш каби интизомий жазо чоралари қўлланиши мумкин эди[12,С.28].

“ЎзССР суд тузилиши ҳақида”ги низомда судьялар мустақиллигини чекланишига сабаб бўлган бир қатор меъёрлар мавжуд эди. Бунга халқ судьяси ва округ суди судьяларининг маҳаллий ижроия қўмиталар томонидан сайланиши ҳамда уларнинг ваколат муддатини бир йил этиб белгиланишини мисол сифатида кўрсатиш мумкин. Айнан мана шу ваколатдан фойдаланган ҳолда маҳаллий ҳокимият судларга босим ўтказган. Мустақил бўлишга уринган судьялар муддатидан олдин лавозимидан олиб ташланган ёки янги муддатга сайланмаган. Бу эса айни дамда кадрлар қўнимсизлиги ҳолатини ҳам вужудга келтирган.

Шунингдек, халқ судларидан Олий судгача бўлган тизимда халқ маслаҳатчиларининг иштирок этиши ҳам кутилган натижани бермади. Суд мажлисларида маслаҳатчилар расмиятчилик юзасидан қатнашган. Аксарият ҳолларда маслаҳатчилар суд жараёнларини тушунишмас, ҳатто баъзилари ўқиш ва ёзишни ҳам билмас эди.

Юқоридаги низом асосида 1927 йил ЎзССРда халқ судьяси лавозимига сайловлар бўлиб ўтди. Сайлов натижасида бутун республика бўйича 132 нафар халқ судьяси сайланди. Округлар бўйича тақсимлаганда Тошкентда 28, Қўқонда 20, Самарқандда 19, Андижонда 15, Бухорода 12, Қашқадарёда 9, Хоразмда 9, Зарафшонда 7, Сурхондарёда 7, Хўжандда 6 нафар халқ судьяси сайланди[13].

ЎзССРда халқ судлари бир қатор муаммолар гирдобида фаолият юритар эди. Мутахассисларнинг етишмаслиги, мавжудларининг эса малака савиясининг пастлиги, иш юритиш учун бино, зарур жиҳоз ва меъёрий ҳужжатлар билан таъминланмаганлиги, турли маъмурий, ҳарбий идоралар томонидан босим ўтказилиши халқ судларининг нормал фаолият юритишига тўсқинлик қилар эди.

Масалан, 1927 йилда Андижон округ прокурорининг ҳисоботида қуйидагилар қайд этилган эди: “Округдаги халқ судьяларининг малакаси жуда паст даражада. Буни бекор қилинган ҳукм ва қарорлардан ҳам билиб олиш мумкин. Округ суди томонидан баъзи халқ судьялари қабул қилган ҳукм ва қарорларнинг 60% бўлган қисми назорат тартиба қайтадан кўриб чиқилиб, бекор қилинмоқда”[14].

Тошкент округ суди раиси ўринбосари Долгановнинг халқ судлари фаолияти юзасидан тайёрлаган ҳисоботида шундай дейилган эди: “Халқ судлари нолойиқ кадрлар билан тўлиб-тошган. Халқ судлари таъминотининг туман бюджети томонидан ажратилиши муаммонинг яна бир сабабидир. Натижада туманлардаги раҳбар лавозимда ишлайдиган кўплаб амалдорлар судлар фаолиятига аралашиб, босим ўтказмоқда” [15].

ЎзССР Адлия халқ комиссарлигининг ҳисоботида халқ судьяларидан келиб тушаётган энг кўп шикоят суд ишларига ноқонуний аралашув юзасидан эканлиги баён этилган эди[16]. Ҳисоботда кўрсатилишича, туман раҳбарлари судьялардан айрим ҳолларда судланаётган шахсни асоссиз равишда жазога тортишни, айрим ҳолларда эса озодликка чиқаришни талаб этишган.

Ўзбекистоннинг Қашқадарё, Сурхондарё ва Хоразм округларида аҳвол янада ачинарли эди. Ҳатто мутахассислар етишмаслигидан совет халқ судьяси лавозимига ҳам қозилар тайинланган. Масалан, Адлия халқ комиссарлиги вакили Қурбонов Қашқадарё округидаги халқ судлари фаолияти юзасидан қуйидаги маълумотларни баён этган эди: “Қашқадарё округида 9 та халқ суди участкаси фаолият юритади. Округдаги қози судларининг сони эса 14 та. Совет халқ судлари учун мутахассислар етишмайди. Халқ судлари сонининг кўпайиши тугатилган қози судлари ҳисобига амалга ошмоқда. Собиқ қозилар халқ судьяларига айлантирилмоқда. Яъни, халқ судларининг кўпайиши кузатилмади, шунчаки қози судларининг номлари ўзгартирилди, фаолиятида эса жиддий ўзгаришлар бўлмади” [17].

Яна бир муаммо халқ судларининг бино, иш юритиш учун зарур жиҳозлар, меъёрий ҳужжатлар билан таъминланмагани оқибатида юз берган. Аксарият халқ судлари мослаштирилмаган, яроқсиз биноларда жойлашган эди. Архив ҳужжатларида Адлия халқ комиссарлиги томонидан ўтказилган тафтиш хулосалари сақланиб қолган. Масалан, Қашқадарё округидаги 2-участка халқ суди маҳаллий типда қурилган 2 хонали бинода жойлашган бўлиб, хоналарнинг деразалари йўқ эди. Судьянинг хонасида бор-йўғи 1 та стол ва 5 та стул мавжуд эди[18]. Пскент участка халқ суди бир хонали хароба бинода жойлашган эди. Олтиариқда эса халқ суди бино йўқлигидан эски мачит биносида жойлашган эди[19].

Ўзбекистондаги округ судлари ҳам тўлиқ таркибда фаолият юритмас эди. Масалан, Адлия халқ комиссарлигининг вакили Шмидт томонидан Самарқанд округ суди ўрганилганда суд ишлари тартибсиз юритилгани, суд маслаҳатчиларининг умумий рўйхати шакллантирилмагани аниқланган эди. Қашқадарё округ суди тажрибали мутахассислар йўқлиги, Андижон округ судининг таркиби яроқсиз шахслардан иборат эканлиги баён этилган эди[20].

Самарқанд, Тошкент, Фарғона, Зарафшон округ судларида жиноят ва фуқаролик ишлари бўйича ҳайъатлар фаолият юритган бўлса, Қашқадарё, Сурхондарё ва Хоразм округ судларида фақат жиноят ишлари бўйича ҳайъат мавжуд эди. Ушбу вилоятларда, шунингдек, Тожикистон АССРда фуқаролик ишлари қози судлари томонидан кўриб чиқилган. Маҳаллий аҳоли оила, никоҳ, мерос масалалар бўйича совет судларига мурожаат қилмаган, асосан бундай турдаги ишлар қози судлари томонидан кўриб чиқилган.

1928 йил 18 февралда ЎзССР МИҚ ва ХКСнинг қарори билан асрлар давомида фаолият юритиб келган қози судлари бутунлай тугатилди. Барча жиноят ва фуқаролик ишлари миллати, жинси ва динидан қатъий назар совет судларида кўриб чиқилиши қатъий белгилаб қўйилди.

“ЎзССР суд тизими тўғрисида”ги низомга кейинчалик суд-тергов органлари, прокуратура, ҳимоячилар ҳайъати, шунингдек, Адлия халқ комиссарлиги фаолиятини такомиллаштириш муносабати билан қўшимча ва ўзгаришлар киритиб борилди. Жумладан, 1928 йил 1 декабрда ЎзССР МИҚ “ЎзССР суд тизими тўғрисидаги низомга ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қарорни қабул қилди. Қарорга асосан давлат прокуратураси ташкил этилди ва тергов аппарати тўлиқ прокуратура тизимига ўтказилди. Бу эса тергов органларининг илгари мавжуд бўлган ўзига хос “икки томонлама бўйсуниш”

тартибини йўқ қилди. Бунга қадар округ судлари округ ҳудудидаги барча халқ терговчилари, катта терговчилар, ҳимоячилар коллегияси ва нотариуслар фаолиятини ҳам назорат этган эди. Юқоридаги қарорга асосан аҳолига ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш, шунингдек судларда ҳимоячи вазифаларини бажариш мақсадида ҳимоячилар ҳайъатлари ташкил этилди.

1927 йил охирига келиб Тожикистон АССР суд тузилмасида ҳам ўзгаришлар юз берди. Олий суднинг Тожикистон бўлими ўрнига Тожикистон АССР Бош суди ташкил қилинди[11,С.103-104]. 1929 йилда эса Тожикистон АССР Ўзбекистон таркибидан чиқиб, иттифоқдош республика сифатида СССР таркибига кириши муносабати билан Бош суд тугатилди ва Тожикистон ССР Олий суди ташкил этилди.

XX аср 20-йилларининг охирида Ўзбекистон суд-ҳуқуқ тизимида тозалашлар амалга оширилади. Жумладан, ЎзССР Олий Судининг раиси лавозимида ишлаган С.Қосимов ва унинг яқин маслакдошлари: Мусабоев, Шарипов, Сирожиддинов ва жами етти киши 1929 йилнинг иккинчи ярмида «босмачилик» ҳаракатига ён берганликда айбланиб қамоққа олинди. Улар республикадаги миллатчи ташкилотлар билан алоқа боғлаганликда айбланди. Бу гуруҳнинг тўртта аъзоси асоссиз айбланиб, отиб ташланди. Қолганлари эса кўп йиллик қамоқ жазосига ҳукм қилинди. «Қосимовчилик» 1929–1930 йилларда совет ҳукмрон режими томонидан миллий кадрларни қатағон қилиш, жазолаш мақсадида атайин уюштирилган навбатдаги уйдирма эди.

Мустабид совет ҳокимияти томонидан суд тизимида “тозалаш”нинг амалга оширилиши, ижроия қўмиталар томонидан судьяларнинг тез-тез алмаштирилиши оқибатида суд тизими фалаж ҳолатга келиб қолган эди. 1930 йилнинг 25 мартида Адлия халқ комиссарининг циркулярида қуйидаги маълумотлар баён этилган эди: “Янги тайинланган кадрлар ишга тезда кўникиб ва мослашиб кета олмаяптилар. Энг ўткир масала - кадрлар етишмовчилиги. Янги тайинланган судья ва терговчилар орасида нафақат идроки суст, тайёргарлиги паст, сиёсий саводсиз ёки синфий жиҳатдан ёт элементлар, балки жиноий ўтмишга эга бўлган шахслар хам бор” [21]. Буни қуйидаги маълумотлар ҳам тасдиқлайди. 1930 йилга келиб Ўзбекистондаги барча судьяларнинг 5% олий маълумотли, 17% ўрта маълумотли, 14 % тўлиқ бўлмаган ўрта ва 64% бошланғич маълумотга эга эди[22].

Хулоса қилиб айтганда, ЎзССРда совет суд тизимининг шаклланиши мураккаб тарихий шароитда юз берди. Бир-биридан фарқланувчи ТАССР, БССР ва ХССР судлари ўрнида ягона суд тизимини барпо этиш жараёнида миллий раҳбар ходимлар катта ташкилий ишларни амалга оширдилар. Бироқ, совет судларининг малакали мутахассислар билан таъминланмагани, сон жиҳатдан камлиги, қолаверса барча ҳудудларни қамраб олмагани оқибатида маҳаллий аҳолининг диний эътиқоди билан чамбарчас боғлиқ бўлган қози судларига мурожаат этишининг давом этишига сабаб бўлди.

Халқ суди ва округ судларининг маҳаллий ижроия қўмиталари томонидан сайлаш тартибининг жорий этилганлиги, судьялар мустақиллигининг чекланишига олиб келди. Ушбу ҳолат совет тузуми ҳукм сурган 70 йил давомида сақланиб қолди. Гарчи Ўзбекистонда судлар 1925-1930 йиллар оралиғида ягона бир тизимга айланишга улгурган бўлсада, ишлаш тартиби, ўз олдига қўйган мақсад ва вазифаларига қараб баҳолайдиган бўлсак, халқ манфаатларини эмас, балки мустамлакачи совет ҳокимиятининг манфаатларини ҳимоя қилиш учун йўналтирилган эди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1 Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-87- фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 9-варақ.

2 Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-86- фонд, 1-рўйхат, 21-иш, 401-варақ.

3 Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-87-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 17-18 варақлар.

4 Хоразм вилояти давлат архиви 601-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 9- варақ.

5 Уразаев А. Судебные органы УзССР □□ Вестник юстиции Узбекистана.–Ташкент, 1925. –№ 2-3. – С.53-63.

6 Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904-фонд, 9-рўйхат, 104-иш, 29 варақ.
7 Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-86- фонд, 1-рўйхат, 2129-иш, 151-варақ.
8 Хоразм вилояти давлат архиви 601-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 9- варақ.
9. Разыков Ш. К истории советского суда в Таджикистане. – Сталинабад: Изд. АН Тадж. ССР, 1960. – 114 с.
10. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-87-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 17-18 варақлар.
11. А.Шарафутдинов. Верховный суд УзССР. □□ Вестник юстиции Узбекистана. – Ташкент, 1925. –№ 1. – С.78-80.
12.Положение о судоустройстве УзССР.-Самарканд:Издательства СНК УзССР, 1927.-31 с.
13. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-837- фонд, 3-рўйхат, 138-иш, 11-варақ
14. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 8-рўйхат, 27-иш, 82-варақ
15. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 1-рўйхат, 234-иш, 21-варақ
16. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 9-рўйхат, 395-иш, 43-варақ
17. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 8-рўйхат, 10-иш, 47-варақ
18. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 8-рўйхат, 10-иш, 86-варақ
19. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 9-рўйхат, 395-иш, 97-варақ
20. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 8-рўйхат,10-иш, 20-21варақлар
21. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 1-рўйхат, 234-иш, 21варақ
22. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-904- фонд, 1-рўйхат, 155-иш, 18-варақ

ЮНУС ЛАТИФ
(1910-1942)

Хасанов Б.В.
Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги
Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи директори,
“Шаҳидлар хотираси” жамоат фонди раиси,
тарих фанлари доктори, профессор

Аннотация. Ушбу мақолада Юнус Латифнинг ҳаёти ва ижод йўли архив ҳужжатларини қиёсий таҳлил этиш асосида ёритиб берилган. Шунингдек, мақолада совет даврида таълим тизимидаги қатағон жараёнлари очиб берилган.
Калит сўзлар: Юнус Латиф, адабиёт, совет даври, таълим
Abstract. In this article, the life and creative path of Yunus Latif is covered based on the comparative analysis of archival documents. The article also reveals the processes of repression in the educational system during the Soviet era.
Key words: Yunus Latif, literature, Soviet era, education

Юнус Латиф 1910-йилда Тошкентда ўзига тўқ бойларидан бўлмиш Латифбекнинг ҳонадонида туғилган. Табиийки, Юнуснинг отаси Латифбой ўғлига яхши таълим-тарбия беришга ҳаракат қилди, бу йўлда у ҳеч қандай маблағни аямади. Шу билан бирга Юнус ёшлигиданоқ тараққийпарварларнинг адабий даврасида иштиорок этиб, бевосита уларнинг таъсири остида вояга етди. У вояга етган ва кейинчалик ҳам ўзаро ҳамкорлик қилиб борган адабий давра ичида Ғулом Зафарий, Ғозий Юнус, Чўлпон, Элбек, Ойбек, Ғафур Ғулом, Ғайратий, Санжар Сиддиқ, Собир Абдулла каби миллат зиёлилари бор эди. Юнус Латиф ёшлигиданоқ Алишер Навоийнинг асарлари билан бирга, Абдураҳмон Жомий, Фузулий,

Шайх Саъдий ва бошқа шулар каби кўплаб классик шоир ва ёзувчиларнинг асарларидан баҳраманд бўлган ҳолда вояга етди.

Алоҳида қайд этиш керакки, Юнус Латиф туғма истеъдод соҳиби эди. У ўзининг жуда қисқа умри давомида катта бир олим киши узоқ йиллар мобайнида қилиши керак бўлган тадқиқотларни қисқа ҳаёти давомида амалга ошира олди. Жумладан, у 1939-йилда ҳали 28 ёш эканлигида Алишер Навоийнинг "Маҳбуб ул-қулуб" (Кўнгилларнинг севгани) асарининг илмий-танқидий матнини нашрга тайёрлаб чоп эттирди. Эътироф этиш керакки, XX асрнинг 30-йилларида мумтоз адабиёт вакиллари асарларининг илмийтанқидий матнини тайёрлаш ҳали урф бўлмаган эди. Юнус Латиф гарчи жуда ёш бўлишига қарамасдан бу ишга киришди ҳамда уни муваффақиятли тарзда амалга ошира олди. Шу билан бирга Юнус Латиф "Ҳозирги замон ўзбек адабиёти дарслиги" хрестоматиясини нашрга тайёрлаш билан бирга "Ўт қиз" ва "Салом меҳрибон" номли шеърий тўпламларни ҳам чоп эттирди. Шунингдек, Юнус Латиф "Ёш ленинчи", "Қизил Ўзбекистон", "Ўқитувчилар", "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газеталари ҳамда "Гулистон", "Ёш куч", "Вожатий" (Етакчи) каби журналларда ўзбек адабиётшунослигига доир қатор мақолалари билан иштирок этди.

Жумладан, Юнус Латиф "Қизил Ўзбекистон" газетасининг 1941-йил 16-май сонда чоп этилган "Адабиёт дарсининг қўйилиши" номли мақоласида, бир пайтнинг ўзида ҳам кучли филолог олим, бошқа томондан эса етук педагог сифатида намоён бўлади. Олим ушбу мақоласида адабиёт ҳақида, унинг мактабларда ўқитилишидаги жараёнлар хусусида ўзининг ўта дақиқ мулоҳазаларини билдирган. Масалан, унинг адабиёт тўғрисидаги қуйидаги фикрларига назар солайлик: *"Адабиёт санъатнинг шундай бир қисмики, унинг равнақи барча санъат турларининг гуллашига, камол топишига йўл очади. Адабиёт тарихини кўздан кечирсак, бу фикрнинг ёрқин мисолларини кўриш мумкин. Прогрессив адабиётнинг роли бугина эмас, балки у кишилик ҳаётининг ойнасидир. Бу ойнада халқларнинг умид, орзулари, инсонларнинг ўзаро курашлари жилваланади. У бир томондан тарихни ўргатса, иккинчи томондан турли тарихий даврларда яшаган кишилик жамиятининг руҳий ҳолати, дунёга қарашини ифодалаб беради. У ҳаётни фақат акс эттирмайди, балки наслларни тарбиялайди, турмушни ўргатади, ёруғ келажакка йўллайди. Бир сўз билан айтганда адабиёт кишиликни ўргатадиган билимдир"*. Юнус Латиф ушбу мақоласида "Мактабларимизда адабиёт дарсининг қўйилиши бу талабларга жавоб берадими?" деган саволни ташлаб, бу борада ўзи изланишларни олиб борган. Масалан, у 1941-йилда Қўқон шаҳридаги 3-, ҳамда Марғилон шаҳридаги 13-мактабга бориб, у ердаги 10-синф ўқувчилари учун ташкилланган адабиёт дарсларини кузатган. Унинг бу тўғридаги мулоҳазалари бир томондан ўтган асрнинг 40йилларидаги мактабларда адабиёт дарсларининг ўтилишидаги жараёнлар тўғрисида муаайян тасаввур берса, иккинчи томондан Юнус Латифнинг педагог ва олим сифатидаги маҳоратини аниқроқ баҳолашга хизмат қилади.

Юнус Латиф дастлаб Қўқон шаҳридаги 3-мактабнинг адабиёт ўқитувчиси Ҳамза Аббосовнинг X синф ўқувчилари учун ташкилланган дарсида иштирок этган. Ўқитувчи ушбу дарсда ўқувчиларга Ғафур Ғуломнинг "Икки васиқа" асарини таҳлил қилиб беришни мақсад қилган. Бу тўғрида Юнус Латифнинг қуйидаги мулоҳазалари айниқса диққатга сазовор: *"Асар синфда ўқилди. Лекин ўқувчилар бадиий асарни ўқиш санъатидан хабарсизликларига кўра, уни бузиб ўқидилар. Ҳатто "Сой тоши" деган сўзни "шайтони", "айланарди"ни "ўйларди", "қадамжолари"ни "қадамчалари" деб ўқилса ҳам ўқитувчи буларни тузатмади. Шундай қилиб ўқувчилар бу адабий парчадан баҳра ололмадилар. Ўқиш сифатининг пастлиги орқасида асардаги кузатилган мақсад ўқувчиларга бориб етмади. Бадиий ўқишнинг паст савияси устига оқитувчининг таҳлили ҳам паст, масаланинг моҳиятини очиб бергудек бўлмади. Ўқитувчи асарнинг ғоявий томонини қуруқ, ширасиз ифодалар орқали баён қилишга ортиқча зеб берди. Яни ўқитувчи сотсиологияга берилиб кетиб, "Икки васиқа"да айтилмоқчи бўлган ғоянинг бадиий ифода йўлларини оғизга ҳам олмади. Ҳайдар Чўққининг образи, унинг ўтмиши ва ҳозири ҳақида болаларда ёрқин тасаввур қолмади. Ҳолбуки, бадиий асарнинг таҳлили ичида*

бадиий дид, нафосат ҳиссини тарбиялаши, ўстириши лозим. Чунки қаҳрамонларнинг ҳислатлари орқали ёшларни тарбиялаш муҳим ишдир. Лекин дарс бу талабларга жавоб бермади. Яни ўқитувчи асардаги асосий тугунни ечиб беролмади. Яни қаҳрамонларнинг характерлари, портрет деталлари, образлар кўланкада қолиб кетди. Бунинг орасида ўқувчиларга персонажларга лоқайд қарар, уларда онгли қизиқиш кўринмас эди. Персонажларнинг фикр қилишлари, хулқ-атворлари, интилиш, тақдирлари билан қизиқсинмаслик, дарснинг паст савиясини кўрсатиб туради". Юқорида келтирилган иқтибослардан яққол кўриниб турибдики, Юнус Латиф бир пайтнинг ўзида моҳир ва синчков педагог, шу билан бирга адабиётни теран тушуна оладиган олим ҳам эди.

Айниқса, муаллифнинг Марғилондаги 13-мактабнинг X синфидаги дарс жараёнлари тўғрисидаги мулоҳазалари диққатга сазовор. Юнус Латиф ушбу дарс жараёнлари тўғрисидаги қимматли фирклари орқали адабиётга бўлган юксак муҳаббатини яққол намоён этган. Юнус Латиф ушбу мактабда Қўзи Муҳаммадиев томонидан ўтилган адабиёт дарси тўғрисида фикр юритган. Жумладан муаллиф *"Ҳарактер ва унинг тасвири бадиий асарнинг жонидир. Бадиий асар характер яратиш санъатидир. У қаҳрамонларнинг ички олами, руҳий ҳолати, орзу, интилишлари, алами, изтироблари, умид, қувончлари, хулқ-атворларининг кўрсаткичидир. Адабиёт дарсида характер билан портретнинг фарқига бормаслик, бадиий асарнинг моҳиятини англамасликка олиб келади. Ўртоқ Муҳаммадиев характер ҳақида савол бериб, портрет тўғрисида жавоб олишга интилди. Демак, ўқитувчи адабиёт назариясининг бу муҳим қоидаларини англаб етмаган. Ўртоқ Муҳаммадиевнинг классик адабиёт бўйича бир дарсидан ҳам намуна келтирамиз: У, 8-синфда Л.Н. Толстой ижоди устида машғулот ўтказди. Биз дарснинг савиясини ўқитувчининг саволлари ва ўқувчиларнинг жавобларини айнан келтириш орқали кўрсатмоқчимиз. Масалан:*

Ўқитувчи: Толстой ижодининг биринчи даврини айтинг?

Ўқувчи: Помешчикларни қаҳрамон қилиб олади. Дворян патриархализмни ёзди.

Ўқитувчи: Толстой ижоди биринчи даврида қарама қаршилик борми?

Ўқувчи: Бор, иккинчи даврда йўқ, э, бор.

Ўқитувчи: Ҳожимурод образи нимани билдиради?

Ўқувчи: Ҳожимуроднинг мардлигини…

Ўқитвчи: "Базмдан кейин"да бош қаҳрамон ким?

Ўқувчи: Э, Иван Василевич.

Ўқитувчи: Базмдан кейин нима бўлди?

Ўқувчи: Жим.

Ўқитувчи: Ижодида иккинчи даврда ҳам қарама-қаршилик кўрамизми?

Ўқувчи: "Жабрга қарши чиқма" деган қарама-қаршиликни кўрамиз.

Савол-жавоблар буюк санъаткор ҳақида ўқувчи ва ўқитувчи тайёргарлигининг кам эканлиги, дарс сифатининг пастлигини равшан кўрсатиб турибди. Бу ерда диққатни тортадиган нарса ўқитувчи саволларининг ўйланмасдан, белгили бир муддаони кузатмасдан берилишидадир. Бу хил саволлар серияси натижасида Толстой ижоди ҳақида оз бўлса ҳам ёркин тасаввур ҳосил қилиш мушкул. Ўқитувчи юқоридаги ғариб саволларни бериб, унга берилган жавобнинг тўғри, нотўғрилиги билан қизиқсинмайди, болаларнинг хатосини тузатмайди. Шунинг натижаси ўлароқ, хато ва саёз фикрлар бошқа ўқувчиларнинг зеҳниятига ҳам сингиб боради. Ҳолбуки, ўқитувчи ҳар бир саволни ўйлаб, ҳар томонлама мўлжаллаб бериши ва мавзунинг маълум бир қисмини ёритиб олиши, ўқувчига энг муҳим нуқталарни англаб етишга ёрдам бериши зарур эди. Айниқса адабиёт дарсида бериладиган савол маълум бир асарнинг у ёки бу жиҳатини равшанлатиши керак" деб ёзди. Юнус Латиф ўқитувчи Қўзи Муҳаммадиевнинг Л.Н. Толстой тўғрисидаги ўқувчиларга берган тўмтоқ ҳамда пролетар мафкуравий руҳга эга бўлган саволларига ишора қилган ҳолда, адабиётни синфий кураш тасвирланадиган сохага айлантириш керак эмаслигини ўта нозик шаклда қайд этиб ўтди.

Алоҳида таъкидлаш керакки, Юнус Латиф Алишер Навоийнинг муҳиби, издоши, мутафаккир меросининг толмас тарғиботчиси бўлган. Буни биз у томонидан адиб ҳаёти ва ижодига бағишлаб ёзилган мақолаларнинг кўплигидан ҳам билишимиз мумкин. Юнус Латиф “Гулистон”, “Ёш куч”, “Вожатий” (Етакчи) журналлари ҳамда “Ўзбекистон адбиёти ва санъати”, “Ёш ленинчи” “Ўқитувчилар” газеталарида “Навоий афоризмлари”, “Гениал шоир, буюк гуманист”, “Навоий”, “Маҳбуб ул-қулуб” ҳақида”, “Алишер Навоийга бағишланган кўргазма”, “Навоий бадиий сўз устаси”, “Хамса”, “Садди Искандарий” достони”, “Достонда халқ ва шоҳ”, “Навоийда дин масаласи” номли мақолаларни эълон қилган.

Юнус Латифнинг *“Улуғ шоир, адиб, олим Алишер Навоийнинг беш юз йиллик юбилейи мамлакатимизда улуғ маданий ҳодисадир. Навоий асарларини ўрганишга, ўқишга ҳавас табора авжланмода, кенгайиб бормоқда. Чунки Навоийнинг ижоди бундан беш юз йил илгариги ўзбек халқининг фикр, интилиш, орузларини ўзида акс эттириб турады. Навоий ўлмас мерос қолдирди. Бу меросларда кишиликнинг асл фазилатлари: дўстлик, мардлик, халққа, ватанга муҳаббат, золим, фосиқ таловчиларга кескин нафрат жилваланиб турады. Навоий жуда кўп асарлар яратди. Турмушни, халқнинг кайфиятларини бадиий қилиб кўрсата олди. Унинг ижодий маҳоратидан биз кўпгина нарсалар ўрганамиз… Навоий жуда ҳақ равишда эр кишига зебу-зийнат – ҳикмат ва дониш, яни илм ўрганиш эканини айтади. Навоий асарлари халқимизнинг орзутилакларини, ҳаётини ўрганиш учун зўр хазинадир. Буюк шоиримиз Алишер ажойиб асарларида, инсонпарварлик ғояларини куйлади, дўстлик, мардликни севди. Навоий асарларининг мана бу хил фазилати шоирни бизга замондош, севикли ёзувчи қилди. Навоийнинг ижоди кишилик маданий хазинасининг дурдоналаридандир*” каби сўзлари улуғ мутафаккир ва шоир бўлмиш Алишер Навоийга нисбатан маънавий шогирднинг меҳрмуҳаббати нечоғлиқ баланд бўлганлигини яққол кўрсатиб турибди.

Юнус Латиф ижодида айниқса “Гулистон” журналининг 1938-йил 8-9-сонларида чоп этилган “Навоий афоризмлари” мақоласи муҳим аҳамият касб этади. Муаллиф дастлаб *“Афоризм – яни ҳикматли сўзлар турмушни, кишиларни синчиклаб текшириш, ўрганиш, бадиий тажрибалар асосида вужудга келади. Афоризм манодорлиги билан анорни эслатади. Қуюқ, зич маноларни жуда қисқа жумлалар, мисраларда беради. Унда сўз кам, фикр жўш урады. Афоризм умумлаштирилган аниқ ғоянинг ифодаси бўлиши, киши характерини кўрсатиши билан алоҳида ўрин тутади. Афоризм бадиий қуюқ, тасвирий бўлиши билан ўқувчининг миясига жипс жойлашади”* деб ёзган ҳолда афоризм сўзининг мано-мазмуни тўғрисида теран фикрлар билдиргач, Навоий томонидан асарларда ёзиб қолдирилган ҳикматли сўзларни таҳлилга тортади. Юнус Латиф *“Навоий афоризмларини севимли қилган, ранг-баранглаштирган, чуқур мазмунли чиқишига сабабчи бўлган нарсанинг бири шубҳасиз, халқ ижоди – фолклорга бўлган муҳаббат, уни асосли ўрганишдир. Мана шулар орқали ёзувчи ўзининг фикрларини, турмуш ҳақидаги кузатишларини афоризмларда қатъийлаштирады. Навоийнинг дунёга қарашини ҳал этишда, у ижод қилган афоризмлар муҳим ўринни ишғол қилади. Навоий ўз замонасинингилғор инсонпарвари эди. Ўзининг бир талай афоризмлари билан бу ғояни дадиллик билан ифодалади”* деб қайд этган ҳолда, ўз мақоласида Навоийдан келтирилган ҳикматли сўзлар адибнинг ижод денгизидан бир томчи эканлигини урғулаб, Навоийнинг асарларини ўрганиш, текшириш ишларини кенгайтириш, чуқурлаштириш шарафли иш эканлиги таъкидлади, ҳамда миллат ёшларини адибнинг ҳаёти ва ижодини ўрганишга даъват этди.

Минг афсуски, кўплаб ўзбек зиёлилари қатори Юнус Латифнинг бошига ҳам қатағоннинг қора булути соя сола бошлади. Охир-оқибат Юнус Латиф 1941-йилнинг 9август куни қамоққа олинди ва ўша куннинг ўзида уйида тинтув ўтказилиб унга тегишли бўлган барча китоблар, ҳужжатлар ҳамда қўлёзмалар олиб чиқиб кетилди. Тергов ҳужжатларига қараганда бу пайтда унинг отаси Латиф Райимов вафот этган бўлиб, ҳонадонда онаси, турмуш ўртоғи София Иброҳимова, акаси Содиқ, Юсуф, синглиси Башорат, ҳамда укалари Носир ва Айюблар истиқомат қилар эдилар. Юнус Латиф қаттиқ қийноқ ҳамда руҳий босимларга

қарамасдан мардонавор тарзда ҳеч кимнинг номига қора чапламади, туҳматдан иборат аризаларга қўл қўймади. Эътиборли жиҳати шундаки, туҳматдан иборат ёзилган аризалар Юнус Латиф номидан тайёрланган бўлиб, аслида бу қонхўр НКВД жаллодларининг “ижод наъмунаси” эди. Қаттол терговчилар Юнус Латифнинг жиноий иши баҳонасида у билан бирга “Гулистон”, “Ёш куч”, “Вожатий” каби журналларда бирга ишлаган ҳамкасбларини ҳам занжир шаклида қатағон ўпқонига тортишни мақсад қилган эдилар. Масалан, Юнус Латифнинг ҳамкасбларидан Комил Одилов, Тўхтасин Жалолов каби зиёлилар бевосита Абдулла Қодирий, Абдулҳамид Чўлпон, Ғозий Юнус каби зиёлиларнинг илмидан баҳраманд бўлган эди.



(Юнус Латиф қамоқхонада. 1941-йил)

Юнус Латифга нисбатан ЎзССР жиноят кодексининг 66-67-моддаларида назарда тутилган яни аксилинқилобий ташкилотнинг аъзоси, аксилинқилобий тарғибот олиб борганликда ноҳақ айбланиб 1942-йилнинг 12-августида отиб ташланган. Шу билан ўзбекнинг келажаги порлоқ бўлган яна бир ёш зиёлиси маҳв этилган. Бу дахшатли жиноят бизга шундай муҳим хулосани берадики, совет ҳукумати ҳатто II жаҳон уруши кетаётган бир пайтда ҳам ўзбек халқи ичидан бир миллатпарвар зиёли чиқишига тоқат қилолмаган.

Ушбу мақолани нашрга тайёрлаш жараёнида Юнус Латифнинг қуйида келтирадиганим тўрт қатор шеърий мисраси эътиборимни тортди. Гўё у устоз ва ҳаммаслаклари бўлмиш Абдулла Қодирий, Абдулҳамид Чўлпон, Ғозий Юнус, Элбек ва Санжар Сиддиқлар каби қаттол тузумнинг совуқ ўқи кўкрагини тешиб ўтишини олдиндан билгандек гўё:
Жон кўринмас йўлларда, Титрамас япроқлар ҳам. Бирозгина сабр этгин Сал ўтиб, оларсан дам.

Юнус Латиф 1956-йилда оқланган.

УДК 314.7

МИГРАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКСКОЙ ССР: ИСТОРИЯ И ФАКТЫ

Саипова *К.Д.*
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Доктор исторических наук, и.о.профессор,
зав.кафедра “Новейшая история Узбекистана”

Аннотация. Переселение народов как средство решения проблемы национальных меньшинств является характерным для тоталитарных государств. В течение Второй мировой войны стало очевидным, что идея массовых переселений нашла своих сторонников среди демократически ориентированных политиков многих стран. Несомненно, этому способствовало разочарование в системе охраны прав национальных меньшинств, которая потерпела крах в конце 30-х годов XX в., а также сам факт актуализации конфликтов между

столетиями соседствовавшими народами. Автор на основе широкого исследования раскрыла динамику национального состава населения УзССР в годы Второй мировой войны.

Ключевые слова: репрессия, переселение, трудовые поселения, советский режим, национальная политика.

Annotation. The resettlement of peoples as a means of solving the problem of national minorities is characteristic of totalitarian States. During the Second World War, it became obvious that the idea of mass resettlement found its supporters among democratically oriented politicians in many countries. Undoubtedly, this was facilitated by disillusionment with the system of protection of the rights of national minorities, which collapsed in the late 30s of the twentieth century, as well as the very fact of the actualization of conflicts between neighboring peoples for centuries. The author, based on a broad study, revealed the dynamics of the national composition of the USSR population during the Second World War.

Keywords: repression, resettlement, labor settlements, Soviet regime, national policy.

Введение. Как известно, накануне войны в СССР складывалась сложная ситуация. Жестокость применяемых мер к отдельным народам и нациям, выступавшим в скрытой или открытой форме против советского режима, усиливалась. И это обосновывалось сложившейся экстремальной обстановкой и началом самой войны, а также в большей мере персонифицированным характером государственной национальной политики.

Так, накануне и в период войны Центральная Азия стала местом ссылки так называемых «наказанных» народов. Репрессии были подвергнуты десять народов: корейцы, немцы, финны-ингерманландцы, карачаевцы, калмыки, чеченцы, ингуши, балкарцы, крымские татары и турки-месхетинцы. Из них немцы, карачаевцы, калмыки, ингуши, чеченцы, балкарцы и крымские татары лишились при этом и своих национальных автономий.

Обзор литературы по теме. В историографии советского периода были разработаны основы национально-территориального устройства, принципы регулирования межэтнических отношений, подняты теоретические аспекты проблемы национальных отношений, сформулированы базовые исследования, проанализированы проблемы социально-экономического и культурного развития национальных территорий и республик во взаимосвязи с преодолением экономического неравенства национальных меньшинств.

При этом многие аспекты проблемы национальных отношений решались в соответствии с отношением к ним компартии и отражают идеологический классовый подход. В ряде научных работ проблемы национальных меньшинств вообще не рассматривались, а научные выводы основывались на устаревших идеологических догмах, не соответствовавших действительности. Следует отметить, что теория была оторвана от практики и национальные отношения характеризовались как “не имеющие проблем”.

В работах Р.Муртазаевой, О.Ота-Мирзаева, В.Гентшке на основе широкого круга источников рассматриваются тенденции в изменении численности, национального и социального состава, занятости населения, рассмотрены вопросы межнациональных отношений в рамках XIX – начале XX веков. Изменения в общественно-политической и экономической жизни обусловили изучение вопросов регулирования государством сферы межнациональных отношений. В работах особое внимание уделялось разработке историографической концепции, предлагались новые подходы к интерпретации основных событий сферы национальных отношений.

Исследования, проведенные в годы независимости, позволили проанализировать многие ранее неизученные аспекты советской власти с современной теоретической и концептуальной точки зрения.

Специальные исследования проблем, касающихся отдельно взятых национальных меньшинств Узбекистана, провели Ш.Пиримкулов, П.Ким, Р.Алеев, Б.Хайназаров, Т.Дорошенко, Д.Иноятова, Р.Хомитов и др. В них проанализированы отдельные стороны

социально-экономических и политических аспектов на различных этапах истории поляков, корейцев, евреев, уйгур, немцев и прибалтийских народов.

За 2017-2020 годы специалистами по проблемам межнациональных отношений и толерантности в рамках фундаментального гранта “Роль принципов толерантности в социально-политическом и духовном развитии Узбекистана (с древних периодов до настоящего времени)” опубликованы ряд монографий. В исследовательских работах Р.Муртазаевой, Г.Бегалиновой, К.Долгатова, К.Саиповой проведён тщательный анализ современного состояния межнациональных отношений и толерантности не только Узбекистана, но и Дагестана и Казахстана, а также указаны имеющиеся проблемы с предложениями их решения. Авторы раскрывают исторические корни толерантности народов, уходящих в глубь веков и сохранившихся в менталитете народов до настоящего времени, вызовы глобализации указывают на необходимость воспитания толерантности у молодого поколения.

Методология исследования. Исследование проводилось на основе исторических, последовательных принципов, статистического, сравнительного и проблемнохронологического анализа, систематического и объективного подходов.

Анализ и основные результаты. Переплетение политических и экономических целей вызвало депортацию народов в Сибирь, Среднюю Азию и Казахстан – регионы, территориально обширные, имеющие громадный потенциал экономического развития. В Узбекистане это были степные и полупустынные массивы, освоение которых, прежде всего, связывалось с хлопководством [1. С. 26]

Главным фактором изменений общей демографической ситуации в республике стали миграционные процессы, начавшая в 30-е годы XX в., получила свое дальнейшее развитие.

Следует отметить, что накануне войны начался процесс депортации отдельных народов с целью «устранения внутренней угрозы советскому государству». Таким образом, идея И.В. Сталина «если есть проблема с человеком, то мы его уничтожим, тогда и проблема исчезнет», в какой-то мере служила основой решения «проблем». Депортация стала одним из таких методов. Накануне и во время войны жестокие репрессивные меры со стороны правительства применялись ко многим нациям и народностям.

В годы войны в Казахстан занимал первое место по размещению депортированных. Так, к примеру кроме 536 тыс. чел. эвакуированного из западных регионов страны населения в Казахстан были депортированы целые народы, автономные образования которых предварительно ликвидировались. 27 августа 1941 г. по линии НКВД был распространен приказ «О мероприятиях по проведению операции по переселению немцев из республики немцев Поволжья, Саратовской и Сталинградской областей» [2. С. 53].

Узбекистан занимал второе место после Казахстана по размещению депортированных в страну народов. Первыми в Узбекистан и Казахстан были депортированы корейцы. 21 августа 1937 г. было принято постановление СНК СССР и ЦК ВКП(б) № 1428-326сс «О выселении корейцев из пограничных районов
Дальневосточного края» [3. С. 12], на территории Узбекистана за октябрь – ноябрь было размещено свыше 74,5 тыс. корейцев, к началу 1945 г. – более 76 тыс. корейцев [4. Л. 139]. В общей сложности, в обе республики были депортированы более 200 тыс. корейцев [5. С.
3]. – повтор. См. далее. Корейцев в основном расселили на неосвоенных землях – тугаях (камышовых зарослях) Ташкентской области, а также в Самаркандской и Хорезмской областях [6. С. 1].

Была составлена и разослана соответствующая «Инструкция по проведению переселения», а 28 августа 1941 г. был обнародован Указ 55 Президиума Верховного Совета СССР №21-160 «О переселении немцев, проживающих в районах Поволжья». Большинство из них должно было разместиться в Казахстане. К 25 октября 1941 г. в республике планировалось принять 467 тыс. немцев Поволжья. [7] Кроме немцев высылке со своих

территорий во время войны подверглись в 1943-1944 гг. народы Северного Кавказа и Калмыкии: всего в восточные районы СССР были выселены 650 тыс. чеченцев, ингушей, калмыков и карачаевцев. Кроме того, насильственной депортации подверглись и другие народы.

Во всех документах того периода репрессированные народы определялись понятием «спецпереселенцы», что означало, помимо жесткого надзора, целый ряд мер по ограничению их гражданских прав: депортированным народам создавались такие условия физического и морального существования, которые неизбежно и запланировано должны были привести к их полному исчезновению; они подвергались систематическому, постоянному остракизму; им запрещалось говорить на родном языке, а тем более писать письменность изымалась из обращения; петь, танцевать, иметь свою музыку, носить национальную одежду; получающим паспорта детям настоятельно, до угрозы и применения репрессивных мер рекомендовалось сменить национальность, выбрав себе любую, но «хорошую» [8. С. 32].

Была поставлена задача растворить эти народы в массе других народов, ликвидировать тем или иным образом, - и некоторые успехи были достигнуты. Чтобы выжить физически, чтобы получить гражданские права и жизненные перспективы, дети, поддержанные родителями, меняли национальность. Очередная перепись давала желаемые результаты: число ненужных народов уменьшалось на глазах. Так что численность репрессированных народов в официальной статистике не совпадает с реальной: она значительно занижена по различным «государственным и политическим соображениям» [8. С. 32].

Была создана комиссия по приему и размещению спецпересенцев. Ее возглавил председатель СНК республики Д.Курбанов [9. Л. 12]. (НА РУз., с.12). Однако фактическое оперативное руководство было возложено на органы НКВД Узбекистана. Все распоряжения уполномоченных были обязательными для всех наркоматов, ведомств и специально созданных областных комиссий по приему и размещению переселенцев [10] (Ким, интернет ресурс).

Двойственность политики советского государства в отношении этнических общностей продолжала осуществляться по отношению к корейской диаспоре и после депортации в Узбекистан и Казахстан. С одной стороны, участие корейцев в установлении советской власти, в советском государственном строительстве, развитие экономики в районах расселения. С другой – корейцы стали первыми жертвами репрессий, учинявшихся по политическим мотивам и национальным признакам.

Большинство репрессированных становились спецпереселенцами, лишались многих прав и обязаны были регулярно отмечаться в комендатурах, деньги на содержание которых вычитались из их зарплат. Однако существовали и категории административно высланных, к которым и относились корейцы, им не разрешалось выезжать за пределы Центральной Азии и служить в армии, но в остальном они сохраняли права советских граждан. Сам факт принудительных мер властей повлек за собой определенный статус «спецпереселенца без права свободного передвижения».

К этому времени корейцы компактными группами проживали в Ташкентской – 73 тыс., Сырдарьинской – 11 тыс., Самаркандской – 7 тыс., Ферганской областях – 6 тыс. чел. [12. С. 43]. В этих областях за прошедшие четыре десятилетия выросли хозяйства. Образованные колхозы являлись многонациональными. В среднем в одном колхозе проживали около 13 – 15 различных национальностей [11. С. 7].

Заметный ущерб был нанесен культуре корейцев. До переселения корейцев в Узбекистан в развитии просвещения были достигнуты серьезные успехи. В целом, была решена задача ликвидации неграмотности среди корейского населения. Корейцы пользовались правом получать образование на родном языке, действовали корейские школы всех звеньев, были созданы техникумы, педагогический институт, рабочие фабрики, отделения и курсы при других высших учебных заведениях, действовало 380 школ всех

ступеней, которые посещали 33 595 учеников, то есть свыше 85,5% от общей численности корейских детей школьного возраста [1. С. 33].

После переселения корейцев в Узбекистан, все корейские школы были ликвидированы. Большинство корейских школ и Краскинское педучилище были переселены в Узбекистан. В 1939 г. были ликвидированы корейский пединститут и драматический театр. Этим была подорвана база для подготовки учителей корейского языка, которая тяжело сказывается на развитии национальных форм корейской культуры
[13. С. 22].

Вместо 7 газет и 6 журналов, издававшиеся на корейском языке, оставили одну газету «Ленин кичи» («Ленинское знамя»), которое было предназначено для публикации официальных документов партии и правительства [14]. У корейцев были отняты паспорта, а тем, кому оставили, власти поставили штамп, ограничивающий конституционные права. Корейцы не имели права выдвигаться в партийные и советские органы, им было запрещено свободно передвигаться по Союзу, поступать в вузы.

Со 2 августа 1946 г. было решено выдать паспорта без ограничений. Но согласно директиве министра МВД С.Н. Круглова от 3 марта 1947 г., разрешалось выдавать корейцам новые паспорта, только с правом проживания в пределах Средней Азии, исключая, разумеется, приграничные районы. Им запрещалось проживание в Дальневосточных регионах. Они могли свободно передвигаться только в пределах Средней Азии, а с 1953 г. по всей стране [15].

Таким образом, советские корейцы за годы проживания в Узбекистане практические утратили свой национальный язык, культуру, религию, многие этнографические особенности быта.

В 1937 г. депортация коснулась и курдов. В июле началось переселение курдов с территории Армении и Азербайджана, их распределили по 14 областям и 110 районам Средней Азии и Казахстана. На каждый поселок приходилось 2025 семей. Началась частичная депортация курдов, которые проживали в Узбекистане.

В 1944 г. в Казахстан прибыло 1 268 семей или 4 501 чел. крымских татар, около 7 тыс. болгар и греков. [15] Согласно телеграмме Л.П. Берии от 7 мая 1944 г. «разрешалось» также выселить 330 чел. немцев, австрийцев, венгров, румын, итальянцев, проживающих в Крыму, на курортах и в городах Черноморского побережья. [15] В Казахстан было выселено также 6300 семей турок из Грузии, общей численностью 27 833 чел. [15] В результате этих мероприятий темпы роста абсолютной численности населения в первые годы войны были очень высоки. В среднем по республике в 1941 г. численность населения возросла по сравнению с 1940 г. на 5,3%, а в 1942 г., по сравнению с 1941 г. – на 11%.

Наиболее массовое расселение курдов в Узбекистан происходило в годы Второй мировой войны. Весной 1944 г. вместе с турками и хемшилами курдов начали переселять их из приграничных районов Турции. Речь тогда шла примерно о 77,5 тыс. чел., которых намеревались выселить в районы Восточной Грузии. Но 24 июня 1944 г. в письме И.В. Сталину Л.П. Берия предложил пересилить 16 700 хозяйств «турок, курдов и хемшилов» из приграничных районов Грузии в Узбекскую ССР, Казахскую и Киргизскую ССР. 31 июля решение о переселении 76021 турка (позднее к ним присоединилось ещё 3180 человек «отставших»), 8 694 курдов, 1 385 хемшилов – было принято. «Заменить» их должны были 7 тыс. крестьянских семей из малоземельных районов Грузии и 20 тыс. пограничников. В первые три дня в Узбекистан прибыло 53 133 человек из Грузии. В этот период смертность по неофициальным данным составляло до $^{1}/_{3}$, по официальным – 11,8% (на июнь 1948 г.). В течение мая – июня 1944 г. около 3,5 тыс. человек из числа нацменьшинств были направлены в Ферганскую область [8. С. 128].

В середине декабря 1944 г. в Узбекистан прибыло 29 эшелонов спецпереселенцев из Грузии. Все курды были распределены по 7 областям и 43 районам республики, в частности в Ташкентскую, Самаркандскую, Ферганскую и Бухарскую области [16].

В отличие от корейцев, среди курдского населения показатель уровня грамотности был очень низким. Курдское население исторически в меньшей степени было включено в систему начального, среднего и высшего образования. Курды избегали отдавать своих детей в школы. Это было обусловлено как этническими, так и экономическими мотивами.

Трудности получения образования считалось традиционным явлением в истории системы образования курдского народа. Грамотность курдов ограничивалось владением турецкого языка, поскольку курдский язык со времени создания Турецкой Республики (в 1924 г.) находился под запретом [17. С. 91].

Выводы и предложения. Таким образом, спецпереселенцы, и сама республика оказались заложниками безответственной политики Центра. Невозможность найти работу по специальности, продолжить образование, сам факт принудительного переселения ломали судьбы людей, которые не имели права выбора и были поставлены в зависимость от властей и от обстоятельств. Не случайно, дабы лишить спецпереселенцев всякой поддержки, специальным указом было запрещено допускать профессионалов с высшим образованием к педагогической работе и на ответственные должности. Подчиняясь обстоятельствам, они были вынуждены заново строить жизнь для себя и своих детей. Узбекистан после Казахстана является депортационной зоной по размещению спецпоселенцев в стране.

Список использованной литературы

1. Рахманкулова А.Х. Советская депортационная политика и ее последствия для судеб насильно переселенных народов // International journal of Central Asian studies. The International Association of Central Asian Studies Korea University of International studies. 2004. Volume 9. P. 26.
2. Козина В.В. Демографическая картина Казахстана. Караганда, 2007. С. 53.
3. Турсунов Х.Т. О национальном размежевании Средней Азии: Материалы объединенной научной сессии по истории народов Средней Азии и Казахстана в эпоху социализма. Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, 1957. С. 12
4. НА Уз. Ф. 837. Оп. 32. Д. 593. Л. 139.
5. Правда Востока. 1989. 20 авг. № 191 (22057).
6. Шин В.Н. Корейцы Узбекистана: вчера и сегодня // Центральная Азия. 2003. 8 апр.
7. Изменения в составе населения Казахстана 1940-1958 гг. // История Казахстана https://e-history.kz/
8. Полян П. Не по своей воле. История и география миграций в СССР. М.: ОГИМемориал, 2001.
9. НА РУз. Ф. 837. Оп. 1. Д. 587. Л.12
10. Ким Г. Расселение и обустройство депортированных корейцев в Казахстане и Узбекистане [Электронный ресурс]. URL: http://world.lib.ru/k/kim_o_i/d3rtf.shtml
11. Корейцы Узбекистана // Правда Востока, 1989. 20 авг. № 191 (22057).
12. Основные тенденции этнических процессов у корейцев Средней Азии и Казахстана / Ответ. ред. Джарылгасинова Р.Ш., Толстова Л.С. М.: Наука, 1980. С.43-44.
13. Ким П. Корейцы Республики Узбекистан: история и современность. Ташкент: Узбекистан, 1993. С. 22.
14. Рахманкулова А.Х. Документы ЦАГ РУз. по истории депортации народов в Узбекистан в 1930-е годы (на примере корейцев) [Электронный ресурс]. URL: http://world.lib.ru/k/kim_o_i/adlrtf.shml
15. Рахманкулова А. Политические процессы периода сталинизма и насильственное переселение народов в Среднюю Азию и Казахстан // Новые имена и факты в истории политических репрессий в Казахстане и Западной Сибири в 1920-1950-е гг. Астана, 2017. С. 112.

16. Народы Узбекистана: курды [Электронный ресурс]. URL: http://mg.uz/publish/doc/text55516_narody_uzbekistana_kurdy

17. Мосаки Н.З. Турецкая образовательная политика и ассимиляционные процессы у курдов // Этнографическое обозрение. 2012. № 5. С. 91.

ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ

Ибрагимов Солижон Эргашевич
ҚаршМИИ "Ижтимоий фанлар"
кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада жадидчилик харакати ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида жадидчилик харакати бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Жадидчилик, маърифат, уйғониш, ҳаракат.

Abstract: This article is about the Jadidist movement. Based on archival data, the author studied and analyzed the specific aspects of the Jadidism movement on the basis of available scientific literature.

Key words: Modernism, enlightenment, awakening, movement.XIX аср охири, XX аср бошларида Россия мустамлакаси ҳисобланган Ўрта Осиё, Кавказ, Ўрта Сибирь халқлари орасида бошланган миллий кўтарилиш маданий-маърифий ҳаракат – жадидчилик сифатида намоён бўлди.

Жадидчилик ҳаракати қолоқлик ва жаҳолат, ўлка аҳолисининг аянчли аҳволи, Туркистоннинг Европа ва жаҳон цивилизациясидан орқада қолиб кетиши, ислом ва шариатнинг оёқ ости қилиниши ва бундай оғир ҳаётдан қутулиш, эрк ва озодликка эришиш учун ўз замонасининг илғор зиёли қатламлари қарашларида вужудга келди.

Жадидчилик ҳаракатининг фаолияти мактабдан, маорифдан бошланган, сўнг матбуот, санъат ва сиёсатга ўтган. Россия ва унинг мустамлакаларида жадидчилик ҳаракатига Исмоилбек Гаспринский (1851-1914) асос солди. У Боқчасаройда дастлабки "усули жадид" (янги усул) мактабини 1884 йилда очади.

Гаспиринскийнинг ўлка зиёлиларига берган тасири хақида Тошкент жадидчиларининг отаси деб тан олинган Мунавварқори 1927 йил Тошкент округ маориф ходимлари қурултойида сўзлаган нутқида шундай деган эди: "Жадид мактаби ташкил қилғонлар ҳам эски мактаб, мадраса ва қорихоналарнинг етиштирган кишилари эди. Улар ёлғиз Боғчасаройда чиқадурғон Исмоил Гаспиринский газетасини ўқийдилар ва шу орқали мактабни яхши тушуниб, китоблар олдирар эдилар"[1]. Шундай қилиб ўлкада янги мактаблар очишга Исмоил Гаспиринский ва татар зиёлилари, муаллимларининг ибрати, ёрдами катта бўлди.

XIX аср охири, XX аср бошларида Россия мустамлакаси ҳисобланган Ўрта Осиё, Кавказ, Ўрта Сибирь халқлари орасида бошланган миллий кўтарилиш маданий-маърифий ҳаракат – жадидчилик сифатида намоён бўлди.

Жадидчилик ҳаракати қолоқлик ва жаҳолат, ўлка аҳолисининг аянчли аҳволи, Туркистоннинг Европа ва жаҳон цивилизациясидан орқада қолиб кетиши, ислом ва шариатнинг оёқ ости қилиниши ва бундай оғир ҳаётдан қутулиш, эрк ва озодликка эришиш учун ўз замонасининг илғор зиёли қатламлари қарашларида вужудга келди. Жаҳолат уйқусидан уйғониш, тарихий заруратга айланган эди. Бошқача қилиб айтганда, жадидчилик ҳаракати ижтимоий ривожлантиришнинг, тарихий тараққиётнинг талаб ва эҳтиёжларига жавоб сифатида майдонга келган улкан ижтимоий – сиёсий ҳаракат эди. Ўлкада миллатнинг дард-аламларини, бутун аянчли, мудҳиш, фожиали оғир қисматини ўз қалби ва вужудидан ўтказиб, ўзининг бутун борлиғини, ақл-заковатини, онгини, ҳаётини эрк, озодлик, тараққиёт

учун сафарбар этган зиёлиларнинг бутун бир янги авлоди шакллана бошлади. Жадидчиликнинг асосий ғоя ва мақсадлари (давр воқеаликларидан келиб чиқиб, баъзан ўзгариб турган бўлса-да)қуйидагилар эди: Туркистонни ўрта асрларга хос қолоқлик ва диний хурофотдан озод этиш, шариатни ислоҳ қилиш, халққа маърифат тарқатиш, Туркистонда мухторият ҳукуматини барпо этиш учун кураш, Бухоро ва Хивада конституцион монархия ва парламент, кейинчалик демократик республика тузумини ўрнатиш орқали озод ва фаровон жамият қуриш, барқарор миллий валютани жорий қилиш ва миллий қўшин тузиш.

Тошкент, Фарғона, Бухоро, Самарқанд ва Хивада ҳур фикрли ва тараққиётпарвар кишиларнинг айрим гуруҳлари томонидан очилган маданий-маърифий йўналишдаги жамият ва уюшмалардан жадидчилик ҳаракати шаклланди.

Ҳаракат фаолияти осонлик билан кечмади. Туркистон, Бухоро ва Хоразм мунавварларининг янгиликка интилиши, Россияда, хусусан Кавказ, Волгабуйида яшовчи туркий халқлар билан яқинлашишга, ҳамкорликка интилиш кучайди.

Панисломизм(исломчилик) ва пантуркизм(туркчилик) каби ғоялар пайдо бўлдики, Россия ички ишлар вазирлиги бунга жим қараб тура олмасди. Жадидларнинг мактаблар очиб, газеталар чиқариши ҳам панисломизмга хизмат қилаяпди деб тушунилди ва хокимият бу борадаги фаолиятларга қаршилик кўрсатишга харакат қила бошлади[2].

Жадидчилик умумиллий ҳаракат сифатида:

1. Жамиятнинг барча қатламларини жалб эта олди. Уйғониш мафкураси бўлиб хизмат қилди.
2. Маориф ва маданиятни, матбуотни ижтимоий-сиёсий мақсадларга мослаб чиқарди.
3. Мустақиллик учун кураш олиб борди. Унинг ғайрат ва ташаббуси билан дунё юзини кўрган “Туркистон мухторияти” бу йўлдаги амалий ҳаракатларнинг дастлабки натижаси эди.

Бухоро амирлиги ва Хива хонлигида жадидчилик ҳаракати Туркистондаги каби Х1Х аср охири ХХ аср бошларида шаклланган бўлса ҳам, бу худудлардаги тарихий шароит ундаги жадидчилик ҳаракатига хам ўзига хос хусусиятлар бахш этди. Бухоро ва Хива жадидлари ҳам маорифни ислоҳ этишни, амир ва хон хукмронлигини чеклаш, мавжуд тузум шароитида ислоҳотлар ўтказиб, жамият тараққиёти ва миллий мустақилликни қўлга киритишни мақсад қилиб қўйган эдилар.

Жадидларнинг халқ маърифати учун кураш дастури уч асосий йўналишда кўринади.1. Янги усул мактабларини очиш, кўпайтириш орқали. 2. Турли маърифий жамиятлар очиш орқали. 3. Умидли иқтидорли ёшларни чет элга ўқишга юбориш орқали.

Боғчасаройда дастлабки жадид мактабини очган Исмоил Гаспиринский Туркистон генерал-губернатори Н.О.Розенбахга ўлка мусулмон мактабларини ҳам ислоҳ қилишга доир лойиҳасини юборади. Рад жавобини олгач, 1893 йил Туркистонга ўзи келади, Бухоро, Самарқанд, Тошкентда бўлиб, тараққийпарвар зиёлилар билан учрашувлар ўтказади. Бухорода амир Абдулахадни жадид мактаби очишга кўндиради. Бу мактабга “Музаффария” номи берилади.

Шундай қилиб, жадидлар томонидан янги мактабларга очиш, мактаблар учун дарсликлар яратиш жараёни бошланди.. “Усули жадид” мактабларида диний фанлар ва араб тили билан бир қаторда тиббиёт, ҳикмат, кимё, табобат, нужум, ҳандаса фанлари, рус, форс тиллари - жами 17 тагача фан ўрганилиши шартлари илгари сурилди. 1999 йилда Андижонда Шамсуддин домла, 1901 йилда Қўқонда Салохиддин домла, Самарқандда Абдуқодир Шакурийлар биринчи бўлиб жадид мактабларини очадилар

Янги усул мактабларига асос солган, дарсликлар яратган Туркистон мунавварларидан баъзиларини кўриб ўтамиз.

Мунаввархори Абдурашидхонов (1878-1929) – Ўрта Осиё жадидчилик ҳаракатининг йўлбошчиси. ХХ аср ўзбек миллий матбуоти ва янги усулдаги мактаб асосчиси, миллий театр ташкилотчиларидан бири, адиб ва шоир эди. У Тошкентда 1901 йилда усули жадид мактабини

очган ва шу мактаблар учун махсус ўқув дастурлари тузган. Унинг “Адиби аввал” (1907), “Адиб ус-соний” (1907), “Усули ҳисоб”, “Тарихи қавм турк”, “Тажвид” (1911), “Ҳавойижи диния”, “Тарихи анбиё”, “Тарихи исломия” (1912), “Ер юзи” (1916-1917), тўрт қисмдан иборат “Ўзбекча тил сабоқлари” (Шорасул Зуннун ва Қаюм Рамазон билан бирга) дарсликлари шулар жумласидандир.

Жадидчилик ҳаракатнинг яна бир йирик вакили - Махмудхўжа Беҳбудий(1875-1919). Унинг ташаббуси билан Самарқанда янги усул мактаблари очилди. Адиб бу мактаблар учун 1904-1909 йилларда “Рисолаи асбоби савод”, “Рисолаи жуғрофияи умроний”, “Рисолаи жуғрофияи Русий”, “Китобат ул-атфол”, “Амалиёти ислом”, “Мухтасар тарихи ислом” каби дарслик ва ўқув қўлланмалар ёзади.

Абдулла Авлоний (1878-1934) ҳам жадидчилик ҳаракатининг фаол иштирокчиларидан бири бўлиб танилди. У ўзининг замондош жадидлари, издошлари каби янги усул мактаблари очиб, уларга ўзи мударрислик қилди ва дарсликлар ёзди. Унинг “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим”, “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”, “Мактаб гулистони” сингари дарслик, “Адабиёт ёхуд миллий шеърлар” тўпламлари, айниқса, юқори синф ўқувчиларига дарслик сифатида ёзилган «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» асари (1913 йил) машхўр бўлди.

Жадидчилик харакатининг Бухородаги йирик вакилларидан бири - Абдурауф Фитрат (1886-1938). У 1909 йилда Истамбулда нашр этилган “Мунозара” асарида Бухоро амирлиги идорасига маълум ислоҳот – ўзгариш киритиш ғояси ва “Усули жадид” деб номланган янги маориф тизимининг асосларини илгари сурди. Фитрат бутун вужуди, оташ ва жўшқин юраги билан, ижоди ва фаолияти билан мамлакат ёшларини ривожланган янги дунё томон сафарбар этади.

этилади. Бундай семинарлар нафақат муайян кафедранинг, балки факультет ва университетнинг ҳам шуҳрати -“юзи” дир.

Кафедра мажлиси унинг таркибида ўқитиладиган фанларни аниқлайди, белгиланган фанлардан талабага бериладиган дарс соатлари хажмини аниқлайди, улардан назарий аудитория соатлари, мавзу бўйича семинар машғулоти ва дала амалиёти билан боғлиқ фанлар бўлса, унга ажратилиши зарур бўлган соатларни белгилайди. Назарий билим дала амалиёти билан узвий боғлиқликда, уйғунликда олиб борилишини таъминлайди, талабага касбий фандан тўлақонли билим олишларини назорат қилади. Булар кафедраларнинг ўқув жараёнлари билан бевосита боғлиқ масалалардир.

Шу билан бирга, кафедралардан ўз навбатида ёш тадқиқотчилар учун илмий мактаб ролини ўйнашларини ҳам талаб этилади. Чунки, кафедралар фаолиятида фундаментал фан йўналишлари билан шуғулланиш ва инновацион тадқиқотлар олиб бориш масаласи ҳам борки, уларнинг натижаларига бағишланган илмий мақола, монография, диссертациялар албатта кафедралар қошида мунтазам фаолият олиб борувчи илмий семинарларда муҳокама қилиниши керак. Муҳокамалар ҳар бир семинар аъзосидан очиқ мулоқотда фаол иштироқ этишни талаб этади. Очиқ мулоқотда қизғин ва объектив олиб борилган илмий бахслар семинар иштироқчиларчиларнинг илмий дунёқарашларини шаклланишида, бўлажак фан номзодлари ва фан докторларини етишиб чиқишида илмий мактаб ролини ўйнайди. Семинар ўзининг иш фаолиятида қанчалар объективликка, ҳолислик ва илмийликка асосланса, унинг фан оламида нуфузи шунчалар юқори кўтарилади.

Бироқ, кафедраларда биз ўрганган ҳолатлар талаб даражасида эмаслиги, кўпчиллик кафедраларда вазирлик томонидан мажбур этилган оптималлаштириш сиёсати туфайли тажрибасиз, илмий салоҳияти ҳали заиф, раҳбариятга маъқул кишилар қўлида эканлиги маълум бўлди. Улар қўлидаги кафедралар илмий салоҳиятини Академия институтлари илмий мактаблари билан қиёслаб бўлмайди. Шунинг учун таъбир жоиз этса, кафедралар ихтиёридаги магистрларнинг диссертацияларига илмий раҳбарлик масъулиятини Фанлар академияси илмий-тадқиқот институтларига топшириш мақсадга мувофиқдир.

Мен ўз вақтида бу таҳлилий таклифларимни университет раҳбариятига, Олий таълим вазирлигига, Республика Вазирлар махкамаси хузуридаги олий таълим депортаментига юбордим. Афсуски, ҳечбир ерда бунга реакция бўлиб, мен билан суҳбатлашадиган мутасаддий раҳбар топилмади. Уларни амалга оширишда лоқайдлик хукм сурди, куйидан кўтарилган муаммолар илмий жамоат назоратига олинмади.

Мен кўтарган муаммолар ечимида ижобий натижаларга эришиш учун ҳақиқий илм ва таълим билан шуғулланаётган ҳар бир устоз-мураббий, биринчи навбатда, масъул мутасаддийлар ёшлардаги шижоат ва ташаббусни қоғозда эмас, амалда қўллабқувватлашлари, уларга тўғри илмий ва маърифий йўналиш беришлари, сабр-тоқат билан тинимсиз изланишлар олиб боришга ҳаётини тиккан ёшларни моддий ва маънавий жиҳатдан адолатли рағбатлантиришни унитмасликлари, ҳар бир ижодкордан эса, машоқатли илмий изланишларда собитқадамлик билан олдинга интилишлари талаб этилади. Шундагина Олий таълимда коррупцияга чек қўйиш жамиятнинг кундалик турмуш тарзига айлана боради. Ўз навбатида, Республика Президенти Ш.М.Мирзиёев янгиланиб бораётган мустақил Ўзбекистоннинг давлат қонунлари асосида олий ва ўрта таълимнинг барча жабҳазарида туб ўзгаришлар қилишга қўл уриб, илм-фансиз жамият тараққиётини тасаввур эта олмаслигини қайта-қайта таъқидламоқдалар. Ҳозирги кунда ҳар бир ўқитувчи- педагогнинг ойлиқ маошларини ўртача 5-6 миллион сўмга кўтарилиши бу ўзгаришлардан далолат беради. Таълим тизимидаги эндиги муаммо сифат учун курашдир. Бу борада кафедраларнинг роли беқиёс чексиздир.

Таъкидлаш жоизки, мактабларга тўлақонли, жаҳон стандартларига жавоб берувчи педагогик кадрлар тайёрлаш замон талабидир. Бу иш осон кечмайди. Шу боис мактабларга ўқитувчи ва мураббийлар тайёрловчи педагогика олий ўқув юртлари молиявий жиҳатдан

давлат хомийлигида бўлиши мақсадга мувофиқдир. Талабалар биринчи курсдан давлат грантлари асосида ўқимоқлари, агар талаба фан асосларини эгаллашда, педагогик маҳоратини оширишда яхши ва аъло баҳоларга ўзлаштирмаса, контрак асосида ўқишни давом эттиришларига изн берувчи давлат қонуни қабул қилиниши мақсадга мувофиқдир. 2 ва ундан ортиқ фанлардан ўзлаштира олмаган талабаларни курсдан курсга тказитш ман этилиши керак. Бу масалада "ўзбекчиликка" йўл қўйилса, юқоридан тапшириқлар беришни ман этувчи қонун қабул қилинмаса, таълимда сифат ўзгаришлар қилиш оғир кечади. Ректорга, ўқув ишлари бўйича проректорга, декан ва кафедра мудирларига, биринчи навбатда фан ўқитувчиларига кенг ҳуқуқ бериш таълим ҳақидаги ислохотларни амалга аширишда бош омил бўлади.

Кейинги йилларда мактабларда, олий ўқув юртларида тарих ўқитишга эътибор кескин камайган. Тарих дарслари қисқартирилиб, кўпгина нопедагогик олий ўқув юртларида Ўзбекистон тарихи предмет сифатида ўзбошимчаларча ўқув режаларидан чиқариб ташланган.

Ўзбекистонимизнинг мустақиллик даври тарихини ўзлаштириш тарих дарсларини бош вазифаси бўлмоги кераклиги такидланади. Тўғри мустақиллик даври тарихини, мамлакатда юз бераётган туб ўзгаришларни ёш авлод билиши керак. Аммо, шу туб ўзаришларга йўл очган шонли тарих, унинг ижодкорлари меҳнати қадрига етмай туриб, бугунни англаш оғир кечади. Амир Темур ва Султон Санжарлар, Имом Бухорий ва Имом Мотурийдилар, Абу Райхон Беруний ва Муҳаммад Хоразмийлар, Ахмад Фарғоний ва Абу Наср Форобийлар, Алишер Навоий ва Захириддин Муҳаммад Бобурлар, Имом Термизий ва Хаким Термизийлар, Нодира бнгим ва Бобо Раҳим Машраблар, Баҳоуддин Нақшбандий ва Яхмад Яссавийлар, Тумарис ва Спитаменлар, Фурқат ва Завкийлар, Фрада ва Широқлар, Бурхониддин Марғилоний ва Маҳмуд Замахшарийлар, Маҳмуд Қашкагарий ва Ибн Синолар, Пахлавон Маҳмуд ва Жалолиддин Мангубердиларсиз мустақиллик даври тарихини ўтмиш тарихимизнинг сабоқларисиз ўзлаштириш мумкин эмас. Агар ижтимоий тармоқларнинг ёшларни чалғутувчи хабарлари, назоратсиз интернет сайдлари, ҳар бир талабада қўл телефонларидан кенг кўламда фойдаланиш ҳуқуқини чеклаш бўлганида эди, кўзланган мақсадга эришиш анча осон кечар эди. Афсуски, бугунги глобацион жараёнлар жадал ривожланишдан юксак даражага кўтарилган вазиятда шароит буни тақозо этмайди. Шунинг учун ҳам мустақил Ўзбекистоннинг биринчи Президенти И.А.Каримов "Тарихий хотирасиз келажак йўқ" номли рисоласида "Тарихий хотираларсиз келажакни тасаввур этиш мумкин эмас", деган тўғри хулосага келган.

Таълим муассасаларида учраб турган камчилликлар, муаммолар ҳақида гапириш баробарида, университетимизда кейинги 1,5-2 йил давомида ижобий ўзгаришлар бўлаётганлиги ҳақида ҳам гапирмаслик адолатдан бўлмайди.

Кейинги 1,5-2 йил ичида Университет ҳаётида юз берган янгиликлардан бири ниҳоят Университетга (проф.А.К.Қирғизбоев) соҳа мутахассиси сифатида ректор этиб тайинланиши бўлди. Хурматли Абдугаппар Каримжановичнинг сай-ҳаракатлари билан Республика Президенти мухтарам Шавкат Миромонович Тошкент шаҳрининг Сергели тумани территориясидан тегишли жой ажратиб, янги ўқув корпуслари, ётоқхоналар, лабораториялар, тажриба участкалари бир жойда жамланган махсус студентлар шаҳарчаси барпо этишга ваъда қилганлар. Бу хабар университетимиз жамоасини чексиз қувантирди. Дарҳақиқат, университетимиз янги ректорининг тиним билмас сайҳаракатлари туфайли ўйламай йўқ қилинган "Ўзбек тили ва адабиёти" факультети тикланди. Тегишли шароитларсиз ачинарли ҳолга тушиб қолган Мусика маданияти факультети жонлантирилди. Ҳар иккала факультет учун қисқа муддатда бир бино капитал таъмирланиб, янги бинога кўчирилди. Талаба ва ўқитувчи педагогларни овқатланишлари учун 3 қаватли янги бино қурилиб, ишга туширилди. Ҳозирги кунда университет ихтиёрида 1,5 минг талабаларга ётоқхона мавжуд. Бу муаммо ечими устида ректоримиз А.К.Қирғизбоев мутасадий раҳбарларга тинчлик бермай, янги ўқув йилига, навруз байрамига қадар яна 2 минг талабаларга мўлжалланган ётоқхона қурдиришга

киришган. Университет жамоаси ректоримизга янада шижоат билан ишлашларига муваффаққиятлар тилаймиз.

Энг муҳими, университетда соғлом муҳит яратилди. Бундай мухитда ишлаш, ёшларга билим бериш биз устозларга роҳат бағишлайди, келажакга ишонч хистуйғуларимизни баралла янграшга ундайди. Тўғри, буларнинг барчаси нафақат ташаббусни, балки тегишли миқдорда молиялаштиришни хам талаб этади.

Биз олимлар, илм-фан фидоийлари, таълим тизимининг захматкашлари Республика Президенти муҳтарам Ш.М.Мирзиёевнинг Юрт боши бўлган кезлардан бошлаб мамлакатда ҳар жабҳада ижобий туб ўзгаришлар қилаётганлигини яхши биламиз ва у Олий хазрат томонидан бизга юклатилган вазифаларни ибрат даражасида бажариш кундалик турмуш тарзимизга айланган. Бу масалада ҳамма билиб қўйсинларки, вазифаларимизни аъло даражада бажаришга, олдинги сафларда бўлишга тайёрмиз. Аммо, вазифаларимизни бажаришда бюракратизм, мамлакатдаги коррупция имкониятимизни тўғри ишга солишга ҳар қадамда тўғоноқ бўлмоқда. Маҳаллий хокимият режаларимизни ўз вақтида бажаришга ёрдам бериш ўрнига “аравангни ўзинг торт” кайфиятида, айниқса “Ўзбектуризм” объектлари билан боғлиқ долзарб масалаларга панжара остидан қарамоқдалар.

Муҳтарам Шавкат Миромонович, айрим вилоят хокимлари ўзларини тўралардек тутадилар. Масалан, Наманган вилояти хокими жаноб Шавкат Абдураззаков.У киши гўёки вилоят Президенти, олий суди ва прокури, давлат қонунлари ижрочиси ва ҳавфсизлик хизмати райиси, ўзини вилоят худосидек хис этадилар. Мен у жанобга ўз шахсий манфаатим юзасидан ёрдам сўраб ҳеч қачон мурожат қилган эмасман. Фақат мустақил Ўзбекистонимга валюта киритишга хизмат этувчи археологик объектлар билан боғлиқ муаммалар юзасидан мурожат қиламан. Аммо, у киши билан учрашиш, мулоқатда бўлиш, Сиз билан учрашишдан ҳам оғир. У жаноб дабро бермаса давлат аҳамиятига молик ишлар ҳам амалга ошмайди. Мен шоғирдларим билан 83 ёшимда Наманган вилояти Норин туманида “Учтепа 2” археологик тепалигида давлат грантлари ғолиби бўлиб, қадимги шаҳарнинг бош мафкура маркази-зардуштийлик ибодатхонасини очишга муяссар бўлдим.

Тадқиқ этилаётган археологик ёдгорлик фавқулодда ноёб, жаҳон туристларининг диққат-эътиборини ўзига тортувчи Зардуштийлик ибодатхонаси бўлиб чиқди. Ибодатхона ҳаробаларини қазиш жараёнида жуда ноёб топилмалар топилди. Жумладан, топилмалар орасида 50дан ортиқ оловга сиғиниш алтар ўчоқлар, 20дан ортиқ тош алтарлар, 10дан ортиқ муқаддас тош пичоқлар, минглаб қулолчилик чархида профессионал даражада ясалган нафис ва хушбичим сопол идишлар, тошдан ясалган бир неча хил турдаги мабудалар ҳайкаллари, кўплаб оташпарастлик дини билан боғлиқ диний-культ ашёвий далиллар, муқаддас хаома ичимлигини тайёрлаш билан боғлиқ ашёвий далиллар, ибодатхона роҳибаларининг қабрлари очиб ўрганилди.

Уларни ўрганиш жараёнида сопол парчасида ва қатор тош мабудалар танасида миххат алифбоси шаклида битилган энг қадимги ёзув парчалари борлиги аниқландики, уларнинг илмий қиммати бениҳоятда чексиздир. Чунки, ўзбек халқининг аждодлари бундан роса 2 минг йил аввал арамей ёзувида битилган ёзувни билган, бадиий мусаввирлик санъати ривожланган. Бундай қадимги ноёб ёдгорлик нафақат Норин туманида, балки қадимги Фарғонанинг бирор вилояти ёки туманида аввал учратилмаган.

Бундан ҳабар топган Наманган вилоятининг Ш.Абдураззаковга қадар хокими вазифасида ишлаган Ҳ.Ҳ. Бозоров “Учтепа 2”зардуштийлик ибодатхонасини Ўзбектуризмининг “Мовий осмон“ остидаги музейга айлантириш таклифини қабул қилиб, бу масалада ёрдамини аямади. Афсуски, у киши объектда археологик қазишмалар якун топмай, Фарғона вилояти хокими бўлиб кетди. Археолог олимлар билан бирга бошланган иш тўхтаб қолди. Мана объектда қазишмалар олиб борилганига 5 йил тўлиб, олтинчи йил ҳам бошланганига қарамай, Учтепа 2 объектида очилган ноёб топилмалар давлатнинг катта

маблаги сарфланишига қарамай, жаҳон туристлари диққат эътиборини ўзига тортувчи илмий аҳамиятини йўқотиб бормоқда.

Объектга ижрочи масъул этиб тайинланган Маданий мерос агентлиги (раҳбари Г.Умерова) ушбу объект билан шуғулланиш ишини ўз холига ташлаб қўйган. Мен ўз вазифамни объект бўйича 2022 йилда бажариб бўлганман. Уни музейлаштириш ишига Вазирлар маҳкамаси райиси сай-ҳаракати билан тўлиқ молиялаштирилди. Объектни музейлаштиришни 2022 йил октябр ойида якунланиши керак эди. Маданият вазирлиги ва маданий мерос агентлиги раҳбарларининг лоқайдлиги туфайли унга ажратилган маблағ ўз вақтида ўзлаштирилмай қолиб кетди. Эндиликда эса ишни якунлаштиришга тегишли маблағ топиш муаммога айланган.

Таъкидлаш жоизки, мактабларга тўлақонли, жаҳон стандартларига жавоб берувчи педагогик кадрлар тайёрлаш замон талабидир. Бу иш осон кечмайди. Шу боис мактабларга ўқитувчи ва мураббийлар тайёрловчи педагогика олий ўқув юртлари молиявий жиҳатдан давлат хомийлигида бўлиши мақсадга мувофиқдир. Талабалар биринчи курсдан давлат грантлари асосида ўқимоқлари, агар талаба фан асосларини эгаллашда, педагогик маҳоратини оширишда яхши ва аъло баҳоларга ўзлаштирмаса, контрак асосида ўқишни давом эттиришларига изн берувчи давлат қонуни қабул қилиниши мақсадга мувофиқдир. 2 ва ундан ортиқ фанлардан ўзлаштира олмаган талабаларни курсдан курсга кўчириш ман этилиши керак. Бу масалада “ўзбекчиликка” йўл қўйилса, юқоридан тапшириқлар беришни ман этувчи қонун қабул қилинмаса, таълимда сифат ўзгаришлар қилиш оғир кечади. Ректорга, ўқув ишлари бўйича проректорга, декан ва кафедра мудирларига, биринчи навбатда фан ўқитувчиларига кенг ҳуқуқ бериш таълим ҳақидаги ислохотларни амалга аширишда бош омил бўлади.

ЖЕНСКАЯ ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ ИЗ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

Муртазаева Раҳбархон Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон хотин-қизлар
“Olima” уюшмаси раиси,
Ўзбекистон Миллий университети

Аннотация. В статье раскрывается исторический факт о едином прошлом, настоящем и будущем государств центральноазиатского региона. Быстрый рост населения региона, а также проблемы, связанные с трудоустройством, способствующие трудовой миграции, показаны на конкретных примерах. В статье подчеркивается усиление женской трудовой мирации, её особенности. В статье отмечается, что гендерная политика, участие женщин в руководстве государством, в парламенте, льготы для молодых девушек в образовании, науке, создание новых рабочих мест, способствуют уменьшению трудовой миграции женщин из региона.

Ключевые слова: феминизация миграции, центральноазиатский регион, новый этап, национальные традиции, стереотип гендерного разделения труда, трансферты, ксенофобия, избыток трудовых ресурсов.

Abstract. The article reveals the historical common past, present and future of the states of the Central Asian region. The rapid growth of the region's population, as well as employmentrelated problems that contribute to labor migration, are illustrated with specific examples.

The article emphasizes the strengthening of the female labor world and its features. The article notes that gender policy, the participation of women in government leadership, in parliament, benefits for young girls in education, science, and the creation of new jobs support to reduce the labor migration of women from the region.

Key words: feminization of migration, Central Asian region, new stage, national traditions, stereotype of gender division of labor, transfers, xenophobia, excess of labor resources.

С древнейших времен существует органическая связь народов, проживающих на территории центральноазиатского региона. Интеграционные процессы в Центральной Азии имеют глубокие исторические корни, в частности, Великий Шелковый путь связывал воедино торговые и культурные отношения исторических предшественников Узбекистана, Казахстана, Туркмении, Таджикистана и Кыргызстана. В качестве исторической эстафеты предков нам передана мысль о том, что наша сила и будущее – в единстве.

Следует отметить, что центральноазиатский регион это во многих отношениях очень сложное пространство. Находясь на границе трех крупных цивилизаций, обладая не простой историей и пестрым этнорелигиозным составом населения, регион часто воспринимается как потенциальная «пороховая бочка».[1] Сегодня Центральная Азия уже однозначно не является периферией мировой политики. Регион с каждым годом привлекает все большее внимание мировой общественности и ключевых акторов международных отношений. Этому способствует также растущая активность стран региона и их вовлеченность в обсуждение и решение важнейших вопросов региональной и глобальной политики.

С приходом к руководству Узбекистана Ш.Мирзиёева во внешней политике, в особенности в отношении центральноазиатских государств, произошли кардинальные изменения. Новая страница в отношениях центральноазиатских стран, во главу которых поставлен всеобъемлющий учет взаимных интересов, укрепление мира и безопасности, принцип открытости во внешней политике, дальнейшее развитие двухсторонних и многосторонних связей, появилась во многом благодаря предложениям Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева, сделанным в выступлениях на 72-й, 75-ой сессиях Генеральной Ассамблеи ООН, на международном форуме в г.Самарканде: «Центральная Азия: одно прошлое и общее будущее, сотрудничество ради устойчивого развития и взаимного процветания», а также выступлении на Консультативной встрече глав государств Центральной Азии в Душанбе 14 сентября 2023 года.[2] Государства Центральной Азии единогласны во мнении, что для региона альтернативы интеграции не существует.

Наряду с имеющимися проблемами в различных сферах жизнедеятельности государств и всего региона в целом, особо выделяется проблема женщин. Государственные и негосударственные организации ведут систематическую деятельность в области гендерной политики

Исходя из Национальных целей и задач в области устойчивого развития Республики Узбекистан решаются задачи обеспечения всестороннего и эффективного участия женщин и создаются равные для них возможности для лидерства на всех уровнях принятия решений в политической, экономической и общественной жизни; интегрируются принципы гендерного равенства в процессе принятия государственных программ на разных уровнях управления. Так, например, хотя раньше в законах Узбекистана имелась 30-процентная квота для женщин в парламентских выборах, она не применялась на практике. В 2023 году впервые в истории страны число женщин в национальном парламенте достигло до нынешнего показателя. 48 депутатов из 150, т.е. 33% избранных в Законодательную палату. А в Сенате этот показатель составил 25%, 31% депутатов местных кенгашей тоже составляют женщины. Благодаря этим результатам Парламент Узбекистана поднялся на 37-ступень среди 190 национальных парламентов по числу женщин – депутатов. Девиз «Новый Узбекистан – новые выборы» нашел свое практическое отражение. [3]

Специалисты Общенационального движения (ОНД) «Юксалиш» в Узбекистане совместно с экспертами Института социальных и экономических те инициатив, занимающиеся изучением и продвижением вопросов гендерного равенства, составили список топ-35 женщин в государственных структурах, учреждениях и крупных общественных организациях.

При разработке рейтинга учитывался уровень институционального влияния организаций, где они работают, на формирование политической повестки дня, развитие отраслей и реализацию социально-экономических преобразований.

Казахстан имеет один из самых низких показателей плотности населения в мире. Население составляет 18,2 млн. чел. (июнь 2018 г.).

В части гендерных показателей, согласно Докладу о глобальном индексе гендерного разрыва Всемирного экономического форума, Казахстан занимает 52 место из 144. [4]

С момента обретения независимости вопросы поддержки женщин на всех уровнях были на повестке государственной политики. Казахстан первым среди стран Центральной Азии учредил национальный орган, призванный обеспечить гендерное равенство во всех сферах жизнедеятельности общества – Национальную комиссию при Президенте Республики Казахстан по делам женщин и семейно-демографической политике.

XXI век глобализации целесообразно называть и веком миграции. Глобализация общемировых процессов вызвала не только движение сырья, капитала, финансовых и материальных ресурсов, но и рабочей силы, вследствие чего активизируется формирование мировых рынков труда, которые происходят посредством трудовой миграции населения. В современных условиях международная трудовая миграция становится неотъемлемой составной частью мировой экономики.

До недавних пор было принято считать, что перемещение населения всегда выступает как исторический спутник развития. Однако, на современном этапе миграционные процессы чаще несут в себе хаос, беспорядки, экономические и политические проблемы. Наглядным в этом плане являются миграции в Европу.

Миграции, являясь сложнейшим общественным процессом, затрагивают многие стороны социально-экономической, культурной жизни народов. Значительное влияние они оказывают на динамику роста населения, трансформацию этнического состава не только отдельных стран, но и всего мирового пространства.

Активные миграционные процессы, происходящие в условиях глобализации, способствовали участию независимой Республики Узбекистан в них как полноправного участника мирового сообщества.

Среднеазиатский регион в силу своего геополитического положения издревле являлся ареной массовых миграций, специфической особенностью которых была односторонность. Новым явлением в современных условиях является важность для узбекистанцев прямого выезда в ближнее и дальнее зарубежье в рамках существующих правовых норм. Распад СССР, создание независимых государств, политические изменения в мире создали условия для миграционного бума, в котором принимает участие Узбекистан.

За годы независимости в государствах региона создана и продолжает развиваться законодательная база, отражающая правовые нормы миграционных процессов.

Начиная с середины 2000-х годов в составе общего потока трудовой миграции в Россию увеличивается доля стран Центральной Азии. Ныне из Узбекистана, Таджикистана и Киргизии пребывает примерно 2/3 всех официально зарегистрированных трудовых мигрантов из стран постсоветского пространства. Эту же тенденцию, хотя и с меньшей интенсивностью, повторяет и женская миграция. Доля женщин в потоках из Центральной Азии, которая еще несколько лет назад была очень низкой, сегодня стабильно возрастает.

Несмотря на то, что в Центральной Азии, особенно в малых и отдаленных поселениях, как правило, сильнее выражены традиционные ценности и гендерные уклад, «закрепляющий»

активную экономическую роль за мужчиной, доля выезжающих оттуда на заработки женщин неуклонно растет. Большое влияние на этот процесс оказывает развитие миграционных сетей, что делает миграцию все более доступной для тех социальных групп, которые раньше не имели возможности в ней участвовать, например, женщин или жителей отдаленных районов Центральной Азии.

Размер трансферта определяется не только величиной заработной платы, но и фактической потребностью в нем получателей на родине. В 2021 году мигранты из Узбекистана отправили в Узбекистан 13,5 млрд. долларов. Этот показатель самый высокий среди стран Центральной Азии. Этот показатель имеет отношение и к женщинам – мигрантам. Размер зарплаты прямо пропорционально изменяется с ростом образовательного уровня мигрантов и варьирует по отраслям, самая высокая – у занятых по специальности, требующей высокой квалификации –в образовании и здравоохранении, а также у занятых в частных домохозяйствах – нянь, сиделок и т.п. Меньше всего зарабатывают женщины, занятые в ЖКХ, сельском хозяйстве, уборщицы.

Следует признать, что заработанные трудовыми мигрантами средства расходуются главным образом на текущее потребление семьи. В 2023 году в мире ожидается ухудшение положения для рабочих. А в Центральной Азии в 2023-2024 годах безработица возрастает в 7,8 процента.

Инвестиционный потенциал выездных заработков пока еще в достаточной мере не задействован. Опрос трудовых мигрантов показывает, что только 6-7% их намерены вложить заработные деньги в производство и открыть собственное дело.

Отрицательные последствия трудовой миграции: 1. нарушение привычного образа жизни; 2. ухудшение семейных отношений; 3. неэффективное использование трудового потенциала многих трудовых мигрантов; 4. отток за пределы республики наиболее мобильной и дееспособной рабочей силы; 5. риск утраты части трудового потенциала республики навсегда.

Таким образом, можно отметить, что миграция стала важным самостоятельным каналом приобретения нового опыта и качественного улучшения жизни для представителей всех социальных групп стран выхода. Также, следует отметить, что в миграции участвуют, в первую очередь, экономически и социально активные члены общества, в том числе и среди женщин. Несмотря на активную жизненную позицию, выразившуюся в самом факте трудовой миграции, а также в том, что многие женщины работают и являются основным кормильцем в семье, значительная часть мигранток придерживается традиционных взглядов на распределение гендерных ролей в семье, то есть, что зарабатывать деньги в семье должен мужчина, а женщина должна следить за домом и хозяйством. В России в последние годы чаще всего проявляются по отношению к мигрантам в целом и, в частности, женщинам, факты интолерантности, ксенофобии, агрессии. На наш взгляд, это объясняется тем, что в настоящее время этой проблемой никто на уровне государства не занимается.

Основными предпосылками трудовой миграции населения Узбекистана являются: высокий уровень трудообеспеченности; быстрый рост трудовых ресурсов; превышение предложения рабочей силы над спросом; неустойчивая занятость; относительно низкая стоимость рабочей силы; фактор предпринимательства (проблемы создания первоначального капитала); это желание овладеть рыночными навыками работы и предпринимательства. По прогнозам ООН к 2050 году население Центральной Азии достигнет 94,2 млн человек, что означает усиление миграционных процессов.

В мире 47,5% мигрантов – женщины. Наиболее существенная тенденция феминизации та, что женщины мигрируют как основные добытчики средств к существованию, а не как сопровождающие лица.

Сегодня в центральноазиатском регионе еще достаточно сильны стереотипы традиционного гендерного разделения ролей, когда господствуют традиционные взгляды на

роль женщин как среди «зависимых», так и среди «самостоятельных» мигранток. Иногда последние даже более традиционны: так около 60% «самостоятельных» мигранток (против 52% среди приехавших с мужем) считают, что «деньги зарабатывать должен муж, а жена должна следить за домом и хозяйством», причем, многие из этих женщин замужем, то есть их собственное поведение на практике расходится с идеальной, по их мнению, моделью.

Удивительно, что самостоятельные и социально активные женщины, участвующие в трудовой миграции, имеют столь традиционные установки. Почти три четверти опрошенных женщин придерживаются точки зрения, что замужняя женщина не должна уезжать из дома одна; и 86% считают, что если муж против отъезда замужней женщины, то она должна остаться дома.

В среднем 10% женщин согласны с тем, что «многие женщины уезжают из дома, чтобы заниматься проституцией».[5]

Среди женщин - мигранток самая высокая заработная плата у выходцев из Белоруссии, Украины и Киргизии. Последняя, видимо, попала в этот список по той причине, что многие мигранты из этой страны имеют гражданство России, которым пользуются при трудоустройстве, получая, таким образом, определенные преимущества, в том числе, связанные с оплатой труда. Самая низкая зарплата – у гражданок Армении, Таджикистана и Узбекистана. У внутренних мигранток - россиянок – зарплата существенно выше среднего уровня. Кроме того, они наименее подвержены дискриминации, менее сегрегированы.

Финансовая поддержка семьи – трансферты, являются составной целью приезда женщин в Россию. По данным опроса, деньги домой пересылали 67% женщин – мигрантов, временно работающих в России. Чаще всех осуществляли денежные трансферты гражданки Киргизии (76%), Узбекистана и Таджикистана (74%) – для женщин - выходцев из этих стран характерна миграция без детей - дети остаются на родине: только 20-22% опрошенных сказали, что все их дети находятся с ними в России. [6]

Важный показатель трансфертного поведения мигрантов – доля, которую составляют переводы от размера дохода мигранта. Гражданки Киргизии, Таджикистана и Узбекистана посылают большую часть своей зарплаты по сравнению с остальными, оставляя себе на проживание в России очень малые денежные средства, ограничивая себя во время поездки практически во всем. Такая модель трансфертного поведения, доминирующая у женщин, выходцев из Центральной Азии, наиболее «мобилизационная», когда женщины мобилизуются на поддержку семьи.

Возвращение большого числа трудовых мигрантов из России способно создать как социальные, так и политические проблемы в странах Центральной Азии. Возвращение трудовых мигрантов в большом количестве усиливает давление на внутренний рынок труда в Таджикистане и Узбекистане, которые не готовы к приему новых работников и усугубляет ситуацию с безработицей. Трудовая миграция обеспечивает отток наиболее активной части мужского населения, что значительно снижало протестный потенциал общества. Население Центральной Азии достаточно молодое, средний возраст – 26 лет. Так, трудоспособная часть жителей региона в возрасте от 15 до 64 лет в ближайшей перспективе, по оценкам, может составить 65-67%, что означает сохранение нагрузки на местные рынки труда. В условиях неспособности государств региона (в нынешней модели развития) обеспечить требуемое количество рабочих мест единственным решением остаётся увеличение экспорта человеческих ресурсов.

Масштабная миграция населения внутри Центральной Азии и за его пределы, урбанизация и индустриализация, новые процессы в религиозной сфере будут способствовать формированию новых общностей и идентичностей. Так, ожидается деформация устоявшихся в консервативных обществах традиционных социальных связей и ролей. Например, в ряде стран Центральной Азии уже вырастает поколение «безотцовщины» (в тех семьях, где отцы уехали на долгосрочные заработки за рубеж). Кроме того, по данным международных

организаций – значительно изменяется роль женщин в исконно восточных обществах. Сегодня в условиях активной миграции мужского населения женщины начинают играть все более активную социальную роль, осваивать мужские профессии, а через некоторое время это может привести к выходу на повестку гендерного вопроса.

Использоанная литература:

1. «Алга, Кыргызстан», или «Как устроить революцию за ночь». Реакция на события в Бишкеке. 6.10.2020./ https://rus.azattyq.org/a/kyrgyzstan-protest-kazakhstan-socialmedia-reaction/30877631.html
2. Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева на международной конференции «Центральная Азия: одно прошлое и общее будущее, сотрудничество ради устойчивого развития и взаимного процветания». – Самарканд, 10 ноября 2017 год. / uza.uz, www.spot.uz. Саммит Центральная Азия.
3. Нарбаева Т. Инновационная модель повышения эффективности системы социальной защиты женщин в Узбекистане. Автореф. дисс.социол.наук (DSc). – Ташкент, 2020. – С.49
4. Европа и Центральная Азия. Казахстан / https://eca.unwomen.org/ru/where-weare/kazakhstan
5. «Центральная Азия 2027: меняющийся стратегический ландшафт. Вероятные сценарии на 10 лет вперед». – Астана, 2017.
6. Женщины-мигранты из стран СНГ в России. Центр миграционных исследований и Фонд в поддержку гендерного равенства ООН – женщины. / под редакцией Е.В.Тюрюкановой. – М.: МАКС Пресс, 2011. – 119 с.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ МИЛЛИЙ ҒОЯСИ

Эркаев А.,
ҚарДУ профессори,
Олий Мажлис Сенати аъзоси.

Аннотация. Маърузада Ўзбекистоннинг миллий ғояси, унинг 2000 йилдаги концепцияси камчиликлари, ҳозирги миллий юксалиш жараёнида у Янги Ўзбекистонни барпо этиш ва Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш стратегик мақсадини ифодалаши тўғрисида фикр юритилади. Миллий ғоянинг иқтисодий, ижтимоий, ҳуқуқий, аҳлоқий ва бошқа маънавий асослари бўлиши, миллий ғояни амалга ошириш оралиқ босқичларга ажратилиши лозимлиги эътироф этилади.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистон, миллий ғоя, маънавият, маърифат, маданият.

Annotation. The report talks about the national idea of Uzbekistan, about the shortcomings of its concept, developed in 2000, that at the stage of the current national development it should express the idea of building a New Uzbekistan and creating the foundation of the Third Renaissance. It is argued that the national idea has its own economic, social, legal, moral and other spiritual foundations, that its implementation consists of intermediate stages.

Key words: New Uzbekistan, national idea, spirituality, enlightenment, culture.

Ўзбекистоннинг миллий ғояси чуқур тарихий-маънавий илдизларга эга. Қаҳрамонлик эпосларида юрт озодлиги, халқ ор-номуси ва шаъни учун кураш, эл-улусни бирлаштириш, айирмачиликни қоралаш ғоялари баланд авжларда куйланган. “Авесто”да эзгулик ва ёвузлик ўртасидаги курашда ҳар бир инсон онгли равишда эзгулик томонда туриб курашиши

лозимлиги қатъий ва аниқ ифодаланган. Ўрхун-Енисей тошбитикларида турк будун аҳилликка ва жипсликка, юрт ва эл эркинлиги, фаровонлиги йўлида фидойиликка, мардликка ва омилкорликка даъват этилган. Бу давр ёдгорликлари миллий ғоямиз маънавий илдизларининг дастлабки тарихий босқичидир.

Ислом эътиқодига халқимиз дунёқарашининг кўчиши IX-XII асрларда ва ундан кейин ҳам юксак тараққиётга эришишни таъминлади. Исломий тавдилия (адолатлилик) тамойили оддий инсон, унинг оилавий ҳаётидан то бутун жамият ҳаётининг барча йўналишлари ва соҳаларигача, одамлар ўртасидаги маиший-ижтимоий ва олди-берди (иқтисодий, савдо-сотиқ) муносабатларидан давлат сиёсатигача устуворлик касб этди. Инсон ва жамият ҳаётининг асосий мезонига айланди. IX – XII асрлар ислом Ренессанси даври ҳисобланади. Тавдилия XI аср охиригача тафаккур эркинлигини таъминлади, иждиҳот эшикларини очиб қўйди. Аждодларимиз орасидан тафаккур эркинлиги, илм-фан улуғланиши туфайли Фарғоний, Хоразмий, Форобий, Беруний, Ибн Сино, Замахшарий каби дунёвий илм даҳолари, ал-Бухорий, ат-Термизий, Мотурудий, Абул Муъин Насафий, Нажмиддин Насафий, Марғиноний каби мумтоз ислом таълимоти дарғалари, Абдухолиқ Ғиждувоний, Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд каби тасаввуф алломалари етишиб чиқди. Улар жаҳон ва ислом цивилизацияси ривожига беқиёс ҳисса қўшдилар.

Темур ва темурийлар даврида миллий ғоямиз маънавий негизлари чингизийлар давридаги бир ярим асрлик турғунликдан сўнг қайта уйғониб, юксак суръатларда ривожланди. Иккинчи Ренессанс бошланди. Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Камолиддин Беҳзод асарлари ҳар қайсиси ўз соҳасида бутун инсониятнинг ўлмас қадриятига айланди. Улар теварагида илмий, адабий, бадиий – тасвирий, мусиқий мактаблар шаклланди, атоқли алломалар, шоирлар, мусаввирлар, бастакору созандалар тарбия кўрди, оламга донг таратди. Биргина Самарқандда Улуғбек мадрасасида ва расадхонасида 200 дан ортиқ олимлар тадқиқот олиб борган ва талабаларга сабоқ берган. Улар орасида Ғиёсиддин Жамшид Коший, Жалолиддин Румий, Али Қушчи каби даҳолар номини эслашнинг ўзи кифоя.

Аммо XVI асрнинг иккинчи ярмидан анъанавий жамият узил-кесил қарор топди. Бунга XII асрдан бошлаб “ижтиҳод эшиклари” ёпиб қўйилгани оқибатида ислом ижтимоий тараққиёт талабларига мослаша олмай қолгани сабаб бўлди. Натижада ижтимоий қарашларда турғунлик, догматизм кучайди. Тасаввуф доирасида ҳам пир ва муридлар ўртасидаги муносабатлар салбий томонга – иқтисодий манфаатдорлик томонга ўзгарди. Назр-ниёз йиғиш устунлик қилди. Мумтоз ислом қўллаб-қувватлаган илғор илмий ва ижтимоий ғоялар, идеаллар ё унутилди, ё нотўғри талқин қилинди. Ижтимоий тараққиёт тўхтаб қолди. Маънавий деградация, одамлар савияси, маданият пасайиши бошланди. Оқибатда юртимизнинг катта қисмини XIX асрнинг 60 йилларида Чор Россияси босиб олди.

Совет даврида амалда Чор Россияси миллий сиёсати ташқи жиҳатдан кескин ўзгартирилган бўлсада, моҳиятан жуда зиддиятли кўринишда давом эттирилди. Имкон ва баҳона топилса, маданий ёдгорликлар йўқ қилинди. Фақат баъзи мадрасалар биносига турли давлат идоралари жойлаштирилди, айримлари омборхона, устахона ва ш.к. мақсадларда фойдаланилди. Масалан, Қарши шаҳридаги маъмурий марказ: беклик девони, маъмурият идораси биноси, элчихона, қозихона ва чет элликлар учун карвон сарой ва меҳмохона ва бошқа маъмурий бинолар ҳамда қатор мадрасалар тўлиқ бузиб ташланди.

Ўрнида кейинчалик стадион ва спорт иншоотлари қурилди. Сақланиб қолган 4-5 мадраса дастлаб шаҳар милицияси биноси, қамоққа олинганлар уйи (арестанский дом – тергов изолятори), маҳкумлар уйи (дом заключенных – тюрьма), диспансер ва ш.к. хизмат биноларига айлантирилди. Хизматда фойдаланилмаганлар йўқ қилинди. Совет тузуми халқ онгидан миллийлик туйғусини сиқиб чиқаришга уринди. Байналмилалчилик ғояси остида аслида руслаштириш сиёсатини олиб борди. Тўғри, халқ ёппасига саводхон бўлди. Минглаб мактаблар, кутубхоналар, маданият уйлари очилди. Олий ва ўрта махсус таълим ривожланди. Ўзбекистон Фанлар Академияси ташкил этилди. Илмий муассасалар, театрлар, газета ва

журналлар сони кескин ўсди. Лекин миллий зиёлиларимиз, илғор фикрловчи ижодкорлар ва халқ раҳбарлари, етакчилари қатоғон қилинди.

СССР парчаланиб истиқлол йўлига ўтдик. Мустақил ривожланаётган ҳар бир халқнинг адолат қарор топган жамиятда яшаш орзуси, мақсади, унга эришишига ундайдиган , бу йўлда ҳаммани бирлаштирадиган даъвати бўлади. Айнан ўша даъват миллий ғоя дейилади. **Миллий ғоя аслида халқнинг стратегик олий мақсадини, яъни қандай тузумда яшамоқчи, қандай жамият қурмоқчи, қандай инсонни тарбияламоқчи эканини қисқа, лўнда, мужассам ифодалайди.** Миллий ғоя фақат ва фақат бунёдкорлик, толерантлик, очиқлик мазмунига эга бўлиши лозим. Акс ҳолда у миллий маҳдудликка, миллатчиликка ва ҳатто тажовузкорликка мойил бўлади. Бундай ғоя миллатни боши берк кўчага киритиб қўяди.

Мустақилликнинг биринчи ўн йиллигида миллий ғоянинг ҳаммага тушунарли ва маъқул ифода шаклини топиш юзасидан изланишлар давом этди. Ва ниҳоят, “Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз” шакли топилди. Бу ифодада энди “давлат” эмас, ҳар бир инсон ва бутун миллат учун бирдек қадрли Ватанни яъни (жамият ва давлатни), унда эркин ва фаровон яшаши лозим бўлган инсон ҳаётини олий мақсадга айлантирган эди. Лекин мазкур ифодадаги миллий ғоя концепцияси ҳар томонлама ривожлантирилмади. Фақат унинг асосий тушунча ва тамойиллари аниқланиб, шарҳланди. У маърифий-тарғибий даражада қолиб кетди. Ислоҳотлар умумий назарияси ва ҳар бир соҳада амалга ошириладиган ислоҳотлар концепциялари ва аниқ вазифалар билан боғланмади. Оддий шиор даражасида қолиб кетди. Шиорлар эса, қоида тариқасида, долзарб чақириқ сифатида маълум вақт давомидагина одамларни жалб қилади. Кейин унга одамлар кўникиб қолади ва шиор таъсирини йўқотади. Шиор сиёсатнинг ёки одамлар ҳаётининг муҳим бир принципини ифодаласа, нисбатан узоқроқ, ўша принцип долзарблигини йўқотмагунча яшайди.

Мамлакатда юз бераётган ўзгаришлар, давлат ва жамият қурилиши, иқтисодиётни ривожлантириш, илм-фан, маданият, баркамол авлодни тарбиялаш ва бошқа вазифаларнинг ҳеч бири миллий ғоя билан боғланмасдан ўз ўзича ривожланди. Эълон қилинган миллий ғоя ҳам ўз ўзича ҳаракат қилди ва ҳаётдан ажралиб қолган мафкуравий қолипга, таълимнинг барча бўғинларида ўқитиладиган, бир бирини такрорлайдиган мавзулар йиғиндисига айланиб қолди. Миллий ғоя стратегик олий мақсадни ифодаласа-да, унинг концепцияси бу мақсадга босқичма – босқич борилишини, оралиқ босқич мақсадлари бўлиши лозимлигини аниқ ифодалаши керак. Масалан, шундай оралиқ босқич мақсади – Ўзбекистонни 2030 йилда жаҳоннинг 50 илғор мамлакати қаторига киришини таъминлаш ғоясидир. Бугунги “Янги Ўзбекистон тушунчасида мужассам бўлган халқ орзуси тарихий тараққиётнинг барча даврларида миллатнинг етук вакилларини уни руёбга чиқариш йўлида амалий ҳаракатларга ундаб келди”, - деб ёзади Ш.Мирзиёев “Янги Ўзбекистон стратегияси” китобида. Фикрини давом эттириб давлат раҳбари миллий ғоямиз чуқур тарихий маънавий илдизларга эгалигини эътироф этади. "Бу улуғ орзу, – фикрини давом эттиради давлат раҳбари, - асрлар давомида халқимизни эзгу амаллар сари йўллаб, унинг имон – эътиқодини ғайриинсоний ғоялардан, миллатни турли таҳдидлардан мухофаза қилиб, ўзига хос маънавий қалқонга айланди. Шу тариқа узоқ ўтмишдан ҳозирги давргача миллий тафаккуримиз негизида шаклланиб келган, турли ғоя ва амалий ҳаракатларда ўз ифодасини топган эл-юртимизнинг орзу-умидлари бугунги кунда Янги Ўзбекистон тушунчасида жамулжам бўлди. Иродаси, шахду шиддати буюк халқимизнинг бундай ёруғ ва теран орзуси жамиятимизнинг янги қиёфасини яратиш учун юксак марраларга интилаётган халқимизни Учинчи Ренессанс ғояси атрофида янада жипслаштирмоқда”. Янги Ўзбекистон ва Учинчи Ренессанснинг моддий-иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, аҳлоқий, касбий-табақавий, инсоний-эътиқодий, интеллектуал-технологик, эстетик, экологик ва бошқа маданий асослари мавжуд. Миллий ғоя концепцияси ҳар бир асос бўйича турли босқичларда амалга ошириладиган стратегик вазифаларни, тахминий мўлжалларни белгилаб, жамият ривожланиши тенденциялари билан боғлаб ижодий ва танқидий таҳлил этиб бориши лозим.

Совет даврида миллий ғоя тушунчаси ишлатилмас эди. Аммо Октябрь тўнтаришидан 5-6 йил ўтиб жаҳон революцияси содир бўлмаслиги аёнлашгач, И.Сталин уни кутиб ўтирмасдан СССРда социализм қуришни бошлаш ғоясини олға сурди. Амалда бу стратегик мақсад, чоризмдан қутилган халқнинг адолатли жамият қуриш орзусига мос келадиган ғоя эди. Шу боис халқда катта ташаббус уйғотди. Мамлакатда амалга ошириладиган барча яхши ва ёмон ишлар, давлат сиёсати шу ғояга буйсундирилди. Социализм қуриш учун мамлакатни индустрлаштириш, қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш, маданий инқилобни амалга ошириш вазифалари белгиланди. Минглаб завод ва фабрикалар қурилди, колхозлар ташкил этилди, ўн минглаб мактаблар, маданият муассасалари, уйлари, қироатхоналар, саводсизликни тугатиш курслари ташкил қилинди. Олий таълим ва илмий муассасалар тармоғи кенгайди. Социализм қуриш йўлида ҳеч нарсадан, зўравонлик ва жиноятдан ҳам тап тортилмади. Шафқатсиз равишда норозиликлар бостирилди, қатағонлар давлат сиёсатининг ҳаракатлантирувчи кучига айланди. Бу мисол совет сиёсатини мақташ ёки ёмонлаш учун келтирилаётгани йўқ. Бу мисол белгиланган мақсадга бутун саъй-ҳаракатлар буйсундирилсагина, амалий натижага эришиш мумкинлигини эслатиш учун келтирилмоқда.

Миллий ғоя этник ғоя эмас. У Ўзбекистонда яшовчи барча миллат ва элатларнинг манфаатларини бирдек акс эттиради. У жорий вазифаларни эмас, балки стратегик олий мақсадни ифодалайди. Шу маънода Учинчи Ренессанс ғояси истиқболга интилиш, Янги Ўзбекистонни, мафкуравий плюрализмни, маърифатли жамиятни барпо этиш мақсадига мос келади. У сиёсий партияларнинг, фуқаролик жамияти ташкилотларининг ҳар хил қарашларини инкор этмаган ҳолда уларга умумий мақсад, умумий ижтимоий – маънавий йўналиш бағишлайди. Унинг сафарбарлик кучи, мафкуравий салоҳияти жуда юқори. У авлодлар ўртасида ворисийликни мустаҳкамлаб, ўтмиш тарихимизнинг шонли саҳифалари, буюк аждодларимизнинг бунёдкорлик ва ижодий ютуқлари билан боғлайди, бизга аввалги икки Ренессансни яратган буюк аждодларнинг давомчилари эканимизни эслатиб туради.

Янги Ўзбекистоннинг асосий устуни билим, таълим ва тарбия бўлишини давлат раҳбари доимо таъкидлайди. Демак, таълим тарбия ва илм-фан соҳасидаги ислоҳотлар Янги Ўзбекистонни барпо этишнинг, Учинчи Ренессансни яратишнинг асосий омилларидан ҳисобланади. Шу боис мактабгача таълим ва мактаб таълими чуқур ислоҳ қилинмоқда. 2030 йилгача барча туман ва шаҳарларда “Истеъдод – интилиш – истиқбол” деб номланадиган мактаб-интернатлар ташкил этилиши кўзда тутилмоқда.

Ш.М.Мирзиёев Янги Ўзбекистонни барпо этишда иккита мустаҳкам устунга таяниш лозимлигига алоҳида урғу беради: “Биринчиси – бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиёт бўлса, иккинчиси – аждодларимизнинг бой мероси ва миллий қадриятларга асосланган кучли маънавиятидир”. Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш биринчи галда Янги Ўзбекистон иқтисодиётини ҳар томонлама ривожлантиришни, энг сўнгги замонавий технологияларни ўзлаштиришни, халқнинг турмуш фаровонлигини мутараққий халқлар турмуш кўрсаткичлари ва сифати даражасига олиб чиқишни талаб қилади. Бунинг учун аввало сифатли умумий ўрта, касб-ҳунар ва ўрта махсус ҳамда олий таълим орқали рақобатбардош кадрларни, мутахассисларни тайёрлаш, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, автоматлар ва роботларни кенг қўллаш, янги иш ўринлари яратиб камбағалликни бартараф этиш лозим. Янги Ўзбекистон иқтисодий жиҳатдан қудратли давлатга айлансагина, Учинчи Ренессанс пойдеворини ярата олади.

Халқимиз онги, жамиятимиз ҳаёти янгиликларга, илғор бунёдкор ғояларга доимо очиқ бўлмоғи лозим. Аммо ўзлигимизни, тилимизни, миллий-маданий меросни, хусусиятларимизни, идентлигимизни сақлаб қолишимиз шарт.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., 2023

2. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси, Тошкент – 2021
3. Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. “Ўзбекистон” – 2023 й.
4. Ш.Мирзиёев. Янгиланган Конституциямиз Учинчи Ренессансни барпо этиш йўлида мустаҳкам “ҳуқуқий пойдевор бўлиб хизмат қилади. “Халқ сўзи”, 2023 йил 9 май, № 94 (8437)

CONTRIBUTIONS OF SCIENTISTS OF UZBEKISTAN TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE

Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich
Karshi Institute of Irrigation and Agrotechnology of
“TIIAME” National Research University Teacher
valijon_007@inbox.ru

Annotation: Uzbekistan is a country with a rich history and cultural heritage. This article explores the contributions of scientists of Uzbekistan to the development of science and culture.
Key words: science and culture, writers and poets.

Introduction: Uzbekistan is a country with a rich history and cultural heritage. Over the centuries, the region has been home to many prominent scientists and scholars who have made significant contributions to the fields of science and culture. This article explores the contributions of scientists of Uzbekistan to the development of science and culture.

Methods: To research this topic, a thorough review of the literature on the history of Uzbekistan was conducted. Primary sources such as historical documents, reports, and personal accounts were also consulted to gain a deeper understanding of the contributions of scientists of Uzbekistan.

Results: Scientists of Uzbekistan have made significant contributions to the fields of science and culture. One of the most prominent scientists of Uzbekistan is Abu Rayhan alBiruni, a polymath who lived in the 10th and 11th centuries. Al-Biruni was a pioneer in the fields of astronomy, mathematics, geography, and anthropology. He is best known for his work on the determination of the radius of the earth, which he accomplished through a complex mathematical calculation.

Another notable scientist from Uzbekistan is Mirzo Ulugbek, who lived in the 15th century. Ulugbek was a mathematician and astronomer who made significant contributions to the field of trigonometry. He built an observatory in Samarkand, which was one of the most advanced astronomical observatories of its time. Ulugbek's astronomical tables, known as the Zij-i-Sultani, were used for centuries as a reference for astronomical calculations.

In the field of culture, Uzbekistan has produced many prominent writers and poets. One of the most famous writers of Uzbekistan is Abdulla Qodiriy, who lived in the early 20th century. Qodiriy was a prolific writer and journalist who wrote about social and political issues in Uzbekistan. He is best known for his novel "O'tkan Kunlar" (Days Gone By), which is considered a masterpiece of Uzbek literature. Another notable writer from Uzbekistan is Hamid Alimjan, who lived in the 20th century. Alimjan was a poet and writer who wrote about love, nature, and the beauty of life. His works have been translated into many languages and are still popular today.

In addition to the prominent scientists and scholars mentioned above, there are many other notable figures from Uzbekistan who have contributed to the fields of science and culture. For example, the mathematician and philosopher Al-Khorezmi, who lived in the 9th century, is considered the father of algebra and his book "Al-Jabr wa'l-Muqabalah" was a foundational text for the subject.

Another important figure in Uzbekistan's scientific and cultural history is Ahmad Yasavi, a Sufi mystic and poet who lived in the 12th century. Yasavi's mausoleum in Turkestan is an important pilgrimage site for Muslims, and his poetry continues to be read and appreciated today.

In the field of literature, Uzbekistan has produced many other notable writers and poets, including Chulpan, a poet known for her vivid and powerful imagery, and Fitrat, a writer and philosopher who wrote about social and political issues.

In the field of music, Uzbekistan has a rich tradition of classical and folk music. Prominent musicians from Uzbekistan include Usta Shirin Muradov, a master of the dutar (a two-stringed instrument), and Munadjat Yulchieva, a renowned singer of traditional Uzbek music.

Discussion: The contributions of scientists of Uzbekistan to the fields of science and culture are significant and enduring. These scientists and scholars have made important contributions to human knowledge and understanding, and their works continue to inspire and inform people today.

In the field of science, the contributions of scientists of Uzbekistan have been particularly noteworthy. Al-Biruni and Ulugbek were pioneers in their respective fields, and their discoveries and insights have had a lasting impact on the development of science and mathematics.

In the field of culture, the contributions of writers and poets from Uzbekistan have been equally significant. These writers and poets have helped to shape the literary and cultural traditions of Uzbekistan, and their works continue to be read and appreciated today.

Conclusion: In conclusion, the contributions of scientists of Uzbekistan to the development of science and culture are significant and enduring. These scientists and scholars have made important contributions to human knowledge and understanding, and their works continue to inspire and inform people today. The challenge for Uzbekistan today is to build on this rich cultural heritage and history while embracing modernization and economic development in a way that is sustainable and inclusive.

REFERENCES

1. "Al-Biruni: His Times, Life, and Works" by Hakim Mohammed Said, published in 1979.
2. "Ulugbek and His Times" by S. A. Pugachenkova and V. A. Shishkin, published in 1991.
3. "The Literature of Uzbekistan: The Eighteenth and Nineteenth Centuries" by T. B. Muminov, published in 1984.
4. "The Music of Central Asia" edited by Theodore Levin, published in 2016.
5. "Ahmad Yasavi: Life and Poems" by L. N. Krymsky, published in 1961.

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI FAOLIYATI

Boqiyev B.O‘.
QarMII o‘qituvchisi PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi eng nufuzli ijod uylaridan biri O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashkil topishi va uning faoliyati, rahbarlik qilgan iste’dodli yozuvchilar, shuningdek, mustaqillik yillaridagi faolyati hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining sohaga oid muhim qarorlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Uyushma, fond, “Qizil qalam”, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, milliy adabiyot, bozor iqtisodiyoti, globallashuv jarayonlari adabiyot va san’at, tarbiya, rivojlantirish.

Abstract: This article describes the establishment of the Writers' Union of Uzbekistan, one of the most influential creative houses in our country, and its activities, the talented writers who led it, as well as its activities in the years of independence, as well as important decisions of the President of the Republic of Uzbekistan and the Cabinet of Ministers regarding the field.

Key words: Association, fund, "Kyzil Kalam", Academy of Sciences of Uzbekistan, national literature, market economy, globalization processes, literature and art, education, development.

Ma’lumki, O‘zbekiston tarixi va adabiyotining bugungi taraqqiyotida qariyb 90 yillik tarixga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi nufuzli ijodiy tashkilotlardan biri hisoblangan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining munosib o‘rni bor. Mustabid tuzum davridagi turli mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan, ushbu ijodiy uyushma millatimizning ruhi bo‘lgan ona tilimiz, azaliy qadriyatlarimizni saqlab qolish va avlodlarga bezavol yetkazish, xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish, mustaqilligimizning ma’naviy asoslarini yaratish, so‘z san’atkorlarini birlashtirish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh iste’dod egalarining salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida katta ishlarni amalga oshirdi.

Uning tarixiga bir nazar soladigan bo‘lsak, 1934 yil 8-11 martda bo‘lgan O‘zbekiston yozuvchilarining 1 qurultoyida yozuvchilarning ko‘ngilli ijodiy jamoat tashkiloti sifatida tashkil etilgan.

Bungacha ular turli to‘garak va uyushmalar holida faoliyat ko‘rsatgan. Jumladan, 1919 yil “Chig‘atoy gurungi” nomli adabiy to‘garak atrofida uyushgan jadidlar o‘zbek milliy adabiyotining shakllanishiga hissa qo‘shgan. 1926 yilda Samarqandda “Qizil qalam” nomli adabiy tashkilot tuzilgan, bu tashkilotning Qo‘qon, Farg‘ona, Namanganda mahalliy shoxobchalari ish olib borgan.
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining birinchi raisligiga adabiyotshunos Rahmat Majidiy saylangan. Turli yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga H.Olimjon, Oybek, Sh.Rashidov, Uyg‘un, A.Qahhor, B.Rahmonov, S.Azimov, O‘.Umarbekov, O.Yoqubov va boshqalar rahbarlik qilgan.
Misol uchun Hamid Olimjon O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga 1939-1944-yillar raislik qilgan.

“Ko‘klam” nomli ilk she’riy to‘plami 1926-yilda bosilib chiqdi. Shundan so‘ng “Olov sochlar” (1931), “Poyga” (1932), “Daryo kechasi”, “O‘lka”, “Baxt” (1939) to‘plamlari, “Ikki qizning hikoyasi” (1935-1937), “Oygul bilan Baxtiyor” (1937), “Semurg’” (1939) “Zaynab va Omon” dostonlari chop etildi. Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida “Muqanna” she’riy dramasi, “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari” kabi balladalarini yaratdi.

Hamid Olimjon o‘zbek adabiyotining dolzarb masalalari bo‘yicha qator ilmiy-tanqidiy asarlar yaratdi, A.Pushkin, L.Tolstoy, M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, A.Serafimovich, T.Shevchenko, M.Lermontov, N.Ostrovskiy, A.Korneychuk asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining ajoyib durdonasi “Alpomish” dostoni 1938-yilda birinchi marta Hamid Olimjon tomonidan nashrga tayyorlanib chop etildi. 1943-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi etib saylandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar kabi milliy adabiyotimiz rivojini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2018 yil 5 apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori va 2018 yil 13 iyundagi 451-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori ayni damda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining asosiy faoliyat yo‘nalishlari, uning Nizomi va tarkibiy tuzilmasi davr talablariga to‘la javob beradigan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bozor iqtisodiyoti va globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq hozirgi murakkab sharoitda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zolarining hayotiy manfaatlarini ta’minlash, ularning jamiyat taraqqiyoti uchun beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan mashaqqatli ijodiy mehnatini munosib qadrlash, adabiyot va san’at sohasini har tomonlama rivojlantirish, badiiy ijod ahlining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirish, iste’dodli yosh ijodkorlarni tizimli asosda tarbiyalash va boshqa o‘ta muhim yo‘nalishlarda rivojlantirish uchun bu kabi hujjatlar muhim va alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.04.2018 yildagi PQ3652-son. Xalq so‘zi gazetasi, 6 aprel, 2018 yil №67 (7025).
2. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.06.2018 yildagi 451-son. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2018 y., 09/18/451/1358-son.

ҚОЗОҒСТОННИНГ ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИ БИЛАН ХАЛҚАРО ФЕСТИВАЛЛАРИ МАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ БОРИШИ ТЎҒРИСИДА

Турсунов Асрор Алланазарович
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Ушбу мақолада Қозоғстоннинг Ўзбекистон давлати билан халқаро фестиваллари маданий жараёнларининг бориши ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Қозоғстоннинг Ўзбекистон давлати билан халқаро фестиваллари маданий жараёнларининг бориши бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Қозоғстон, Ўзбекистон, халқаро фестиваль, маданий жараён.

Abstract: This article talks about the progress of international festivals of Kazakhstan and Uzbekistan. Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the cultural processes of the international festivals of Kazakhstan and Uzbekistan based on available scientific literature.

Key words: Kazakhstan, Uzbekistan, international festival, cultural process.

Қозоғистон ва Ўзбекистон ўзаро муносабатлари мустаҳкам шартномавий асосга эга бўлиб, турли йўналишлардаги 170 дан ортиқ икки томонлама ҳужжатлар имзоланган. Энг асосий ҳужжатлар бу – Ўзбекистон Республикаси билан Қозоғистон Республикаси ўртасидаги абадий дўстлик тўғрисидаги битим (1998 й.) ва Стратегик шериклик тўғрисидаги битим (2013 й.) лардир.

Маданият соҳасидаги халқаро ҳамкорликнинг асосий йўналишларини ижодий фаолиятни қўллаб-қувватлаш, маданият ходимларини тайёрлаш ва малакасини ошириш, маданий бойликларни биргаликда ишлаб чиқариш ва уларни алмашиш, ноёб тарихий ва маданий ёдгорликларни тиклаш, маданий фаолият учун янги технологиялар, техник воситалар, ускуналарни жорий этиш, тарихий ва маданий ёдгорликларни сақлаш бўйича тадбирларни ташкиллаштириш, нашр маҳсулотларини биргаликда ишлаб чиқариш, маданият ходимларининг ўзаро гастроль сафарларини йўлга қўйиш кабилар ташкил этади.

Икки томонлама ҳамкорликнинг сиёсий, савдо-иқтисодий, транспорткоммуникация, сув-энергетика, экологик, маданий-гуманитар, ҳарбий-техник ва бошқа соҳалардаги асосий тамойиллар устувор йўналишларни белгилаб беради. Қозоғистон Республикаси Маданият ва ахборот вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари вазирлиги томонидан маданият соҳасида 2013-2015 йилларга мўлжалланган ҳамкорлик дастури қабул қилинган эди.

2013 йил 14 июндан кучга кирган мазкур дастурга кўра, қатор тадбирлар режаси ишлаб чиқилган Бироқ ушбу ҳужжат 31 декабрь 2015 йилда ўз кучини йўқотган.

Халқаро маданий фестиваллар. Маълумки, давлатлараро маданий алоқалар энг кўп халқаро фестиваллар доирасида ёрқин намоён бўлади. Масалан, биргина Ўзбекистонда “Шарқ тароналари” мусиқий фестивали (1997 йилдан), Халқаро мақом санъати анжумани (2018 йилдан), Халқаро бахшичилик санъат фестивали (2019 йилдан), Халқаро ҳунармандчилик фестивали (2019 йилдан), “Буюк ипак йўли” халқаро фольклор мусиқа фестивали (2019 йилдан) Қозоғистонда эса “Осиё овози”, “Қўрқут ва Буюк дашт қўшиғи” фольклор-мусиқа санъати фестивали (2006 йилдан) каби қатор халқаро маданий фестивалларни ўтказиш анъанага айланиб қолди.

1997 йил 28-29 август кунлари Самарқанд шаҳрида “Шарқ тароналари” Халқаро мусиқа фестивали ҳамда “Шарқ халқлари мусиқа санъатининг муштараклиги” мавзусидаги Халқаро конференция бўлиб ўтди. Фестиваль илк бор 1997 йилда ўтказилиб, унда иштирок этиш учун 31 мамлакат ва 2 та халқаро ташкилотдан 267 та хонанда, созанда, фахрий меҳмонлар қатнашди.

Ўзбекистон эса мезбон сифатида ва алоҳида рўйхат бўйича қатнашди. 1999 йилги “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивали ҳақида Озарбайжон Республикаси маданият вазири Пўлат Булбул ўғли ва ЮНЕСКО тартибидаги халқаро кенгаш бош котиби Ги Доганинг фикрлари мазкур тадбир Шарқ ва бутун дунё халқларини биродарлашувида катта аҳамиятга эга бўлган маданий мулоқот эканидан далолат беради.

2003 йил “Шарқ тароналари” фестивали тадбирлари асосан уч йўналишда: 1. Энг яхши миллий қўшиқлар танлови: 2. Илмий-ижодий конференциялар: 3. Гала концерт шаклида ўтакзилди. Ғолибларга эсталик совғалари ва пул мукофотлари топширилди.

“Шарқ тароналари” фестивалида дастлаб, 33 та давлат иштирок этган бўлса, 2009 йилда 50 дан зиёд давлат фестивалда иштирок этиш истагини билдирди. 2011 йил “Шарқ тароналари” мусиқа фестивалига дунёнинг элликдан ортиқ мамлакатидан иштирокчилар ташриф буюрди. 2015 йил 28 августда Самарқанд шаҳрида “Шарқ тароналари” X халқаро мусиқа фестивалининг очилиши бўлиб ўтди. Фестивалда 66 та мамлакатдан делегациялар иштирок этди. Шунингдек, ЮНЕСКО Бош директорининг ўринбосари Эрик Фальт, Халқаро фальклор ижодиёти ташкилотининг Осиё минтақаси бўйича Бош котиби Мун Хюнг Сук, Японияниинг “Мин-он” мусиқа уюшмаси президенти Хироясу Кобаяши жаноблари ҳам қатнашди. Фестивалда 70 дан ошиқ давлатлардан вакиллар иштирок этишди. Фестивалларда ноёб маданият намуналарини асраб-авайлаш, тарғиб этиш ва ривожлантириш, халқлар ўртасидаги маданий-маърифий алоқаларни янада мустаҳкамлаш учун хизмат қилмоқда.

2017 йилда “Шарқ тароналари” фестивалига 56 мамлакатдан иштирокчилар ташриф буюришгани унинг нуфузи тобора ошиб бораётганини билдиради.

Фестиваль доирасида ҳар гал халқаро илмий-ижодий кўргазма ҳамда халқаро илмий-ижодий конференция ўтказилади. Маърузалар матни эса махсус журналда чоп этилади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 26 февралдаги “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалига тайёргарлик кўриш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди. “Шарқ тароналари” XII халқаро фестивали доирасида “Шарқ халқлари анъанавий мусиқа санъатини ривожлантириш истиқболлари” мавзуида халқаро илмий-амалий конференция ҳам бўлиб ўтди. Унда АҚШ, Буюк Британия, Хитой, Корея, Россия, Озарбайжон, Эрон, Афғонистон, давлатлари қаторида Қозоғистон давлати ҳам муносиб қатнашди. Жумладан, Қозоғистонлик Айгул Байбекнинг қозоқ анъанавий ижрочилиги ва миллий мусиқа асбоблари ҳақидаги маърузаси конференция қатнашчиларида катта қизиқиш уйғотди. Қолаверса, фестиваль доирасида “Моддий ва номоддий маданий меросни асраш: долзарб муаммолар ва уларни ҳал қилиш стратегияси” мавзуидаги халқаро конференция ҳам бўлиб ўтди. 47 давлатдан келган 260 дан ортиқ созанда ва хонандалар қатнашган 2009 йилда бўлиб ўтган VII халқаро мусиқа фестивалида туркманистонлик Л.Бегназарова “Шарқ тароналари” Гран-при соҳибаси бўлди.

Дарҳақиқат, мазкур халқаро мусиқа фестивали Шарқ мамлакатлари миллий мусиқа санъатининг энг яхши намуналарини кенг тарғиб этиш, Шарқ нафосати, миллий мусиқий анъаналарини асраб-авайлаш ва ривожлантириш, ёшларни санъатни севишга ўргатиш, халқаро миқёсда ижодий алоқалар доирасини кенгайтириш, ўзаро маданий-маънавий ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш, тинчлик, дўстлик ва тотувлик ғояларини эъзозлаш мақсадида ташкил этилди. Шунинг учун ҳам, мазкур фестиваль олий даражадаги ЮНЕСКОнинг халқаро маданий тадбирлари доирасига киритилган йирик тадбирдир.

Бу каби кенг кўламли тадбир ҳар қандай давлат учун шараф, шу билан бирга жаҳон ҳамжамияти зиммасига ҳам катта масъулиятни юклайди. Фестиваль ЮНЕСКОнинг халқаро маданий тадбирлари қаторига киритилгани унинг юксак сиёсий ва маънавий даражасини кўрсатади, албатта. Буни жаҳон ҳамжамияти ҳам кенг эътироф этмоқда. Масалан, франциялик мусиқашунос Оливье Дельсалнинг эътироф этишича, бундай оламшумул анжуман мамлакатнинг маданиятлараро мулоқотга очиқлиги ва уни янада мустаҳкамлаш тарафдори эканини намоён этади.

Қозоғистоннинг Қизил-Ўрда шаҳрида вилоят ҳокимияти ва “Турк Сўй” ташкилотининг қўллаб-қувватлаши билан туркий тилли мамлакатларнинг “Қўрқут ва Буюк дашт қўшиғи” V фольклор-мусиқа санъати фестивали бўлиб ўтди. Унда Туркия, Сербия, Татаристон, Бошқирдистон, Саха Республикаси, Грузия, Озарбайжон, Қирғизистон ва Ўзбекистондан санъат вакиллари қатнашишди. Мазкур фестиваль илк бор Қозоғистоннинг Президенти Н.Назарбоев ташаббуси билан 2006 йили ўтказилган эди. Мазкур фестивалнинг бош мақсади туркий халқларнинг бой фольклор меросини сақлаш, уни оммалаштириш, миллий мусиқа санъатини ривожлантириш ва маданий алоқаларни кенгайтиришга қаратилган эди. Ҳар уч йилда ўтказиладиган фестивалда Евросиённинг турли мамлакатларидан келган мусиқашунослар, фольклоршунослар ва ижрочилар қатнашишади. 2018 йили Қўрқут меросининг ЮНЕСКО маданий мероси Репрезентатив рўйхатига киритилиши турк дунёси халқлари учун катта аҳамиятга эга бўлди. Шу маънода ушбу фестиваль туркий халқларнинг фольклорини ўрганишга ҳамда умумий тарихий илдизларга эга бўлган қардош халқлар ўртасидаги дўстлик алоқларини мустаҳкамлашга ўзининг улкан ҳиссасини қўшиб келмоқда.

2019 йил 21-22 март кунлари Шаҳрисабз шаҳрида “II Халқаро Миллий либослар фестивали бўлиб ўтди. Тадбирда Ўзбекистон, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Италиядан моделььерлар ва дизайнерлар тўпламларини тақдим этди. Унда Россиянинг “Asian spirit”, Озарбайжоннинг “Gulnara Khalilova”, Туркманистоннинг “Ayna izbasar”, Қирғизистоннинг “Kate Zabolotnova”, Қозоғистоннинг “Aynura Maidanova”", Грузиянинг “Ketisasbvili Mari” ҳамда Ўзбекистоннинг “Ra’no collection”, “Sindor collection”, “Mohigul”, “Bukhara brilliant silk”, “Banoras”, “Guzal collection”, “storakhan”, “Nataly Kondra”, “Nodirabegim”, “Iroda Agzam Xoja”, “Dilorom collection”, “Azima”, “Kafa” каби брендларига оид миллий либослар коллекциялари намойиш этилди. Ўзбекистонлик Ирода Агзамхўжаева, қирғизистонлик Катя Заболотнова ва Алия Эдилова, туркманистонлик Айна Избасар томонидан тақдим этилган миллий либослар экспертлар томонидан юқори баҳоланди. Фестивалиёритиш мақсадида Қирғизистоннинг “ЫНтымак TV", Ўзбекистоннинг “My5”, “Zo‘r TV”, “Dunyo bo‘ylab”, “Madaniyat va maЪrifat”, “O‘zbekiston 24” телеканаллари томонидан 10 дан ошиқ кўрсатувлар тайёрланди ҳамда 20 дан ортиқ блогерлар, интернет сайтлари, газета ва журналлар, радио эшиттиришлари вакиллари томонидан 3 кунда 30 дан ошиқ мақола ва эшиттиришлар тайёрланди. Фестивалда 14 та хорижий 10 та маҳаллий, умумий 24 та машҳур дизайнерлар иштирок этишди. Фестиваль доирасида Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси ва Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси ўртасида “Таълим ва туризм алмашинуви “халқ дипломатиясини” ривожлантириш учун Ўзбекистонда ва ШҲТ мамлакатларида маданий ва ижодий тадбирларни мунтазаб ўтказиб бориш тўғрисидаги” меморандум имзоланди.

Шунингдек, 2019 йил 8-9 май кунлари Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарларида Абдулла Орипов хотирасига бағишланган I-Халқаро “Олтин сўз” адабиёт фестивали бўлиб ўтди. Фестивалда Туркиядаги "Kibatek" халқаро адабий ташкилоти президенти Сенгели Билги, ташкилот вице-президенти Лейла Ишик, Филиппиндаги "Pentasi B" халқаро адабий ташкилоти президенти Эпитасио Тонгоҳан, Ҳиндистон қитъалараро маданият ассоциацияси ходими, Норвегияда яшаб, ижод қилувчи ёзувчи Соломия Кароли, италиялик шоир, ёзувчи ва блоггерлар Катерина Давинио, Клаудио Презиоси, Тожикистондаги “Дўстлик” ва “Элчи” газеталари бош муҳаррири Тошмат Темиров, Носир Хусрав номидаги Қўрғонтепа давлат университети профессори Зебинисо Сатторова, Тожикистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси Ҳасан Ғойиб, “Жанубий Қозоғистон” газетаси мухбири Майсара Сапарова, Қозоғистондаги “Чимкент” ижодий уюшмаси раисаси Эркиной Султонова ва бошқалар фестивалга иштирок этишди.

Шундай қилиб, Қозоғистон давлати билан ҳамжиҳатлик ва барқарорлик йўлидаги ҳамкорликни янада ривожлантиришда маданий алоқаларни янада кенгайтириш, бу соҳадаги ислоҳотларни изчиллик билан давом эттириш зарур. Айниқса, давлатлараро икки томонлама ҳамкорлик шартномалари бандларида келтирилган тадбирларнинг доимий ўтказиб келишни анъанага айлантириш, умумминтақавий мусиқа, санъат ва кино халқаро фестивалларини ташкил этиш ва уларнинг нуфузини жаҳон миқёсида кўтариш лозим. Минтақа халқларининг муштарак тарихи ва маданиятини ҳисобга олганда бу каби тадбирларниг ташкиллаштириш барча давлатлар учун фойдалидир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Головина Г. В., Савина И. А. Международное культурное сотрудничество: аспекты социально-культурного и правового регулирования // Вестник АГУ. 2014. – Вып. 4 (148). – С. 164.
2. ЎзР ДА М-7 фонди, 1-рўйхат, 1366-йиғма жилд 1-варақ.
3. Эргашева Ю, Муртозова С. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон мусиқа маданияти. Т.: “Мусиқа” нашриёти. 2017. Б.92
4. ЎзР МА, М.7 - фонд, 1- рўйхат, 587- иш, 89–106- варақлар.
5. Гули Чеҳра. Қўшиқ айтиб дилларни чертиб // Туркистон, 1997. 20 сентябрь.
6. Турсунов А.А. Замонавий босқичда Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари билан маданий алоқалари.//Марказий Осиё давлатлари олима аёлларининг илм-фан соҳасига қўшган ҳиссаси.// Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2020 йил. 20 март 2-қисм. Б.272.
7. Шомуротова М. «Шарқ тароналари» - фестиваль мелодии Востока // Вестник науки и образования. – 2019 - № 8 (62). – С. 118.
8. Постановление Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёева, 26 февраля 2019 г.
9. “Ер юзининг сайқали”дан янграётган сеҳрли наволар // Халқ сўзи. 2019 йил, 29 август.
10. Хабарнома. Ўзбекистон Президенти девонининг нашри. – 2009. - №3. – Б. 69; Мирзаев Ғ.Р. Азалий қардошлик ришталари тараққиёт йўлида (ўзбек ва туркман халқлари ҳамкорлиги).-Т.: Наврўз, 2016.- Б. 83.
11. Положение о порядке проведения международного музыкального фестивалььья "Шарқ тароналари" в соответствии с постановлением Кабинета министров от 11 марта 1997 г. № 132.
12. Франциялик мусиқашунос “Шарқ тароналари” фестивалини сабрсизлик билан кутмоқда // Халқ сўзи. 2019 йил 22 август. – №172. – Б. 2.
13. Четвертый международный фестивальььь «Коркыт и мелодии Великой степи» // https:www.turksoy.org/ru/news/category: news

14. Мелодии Великой степи https://www.kp.kz/daily/27032/4097001/
15. Аллаёрова С. II Халқаро миллий либослар фестивали. https://qashqadaryo.uz/uz/
16. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳамда Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган қарор ва фармонлар ижроси юзасидан Қашқадарё вилоятининг туризм соҳасида эришилган натижалар тўғрисида маълумот // "Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси"нинг веб-сайти – www.lex.uz.

THE IMPORTANCE OF CREATIVE WORKS DURING THE TIME OF AMIR TEMUR (IN THE CASE OF THE SHAHRISABZ STATE MUSEUM RESERVE)

Khosiatov Khurshid Otakulovich
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,
Karshi Institute of Engineering and Economics (Uzbekistan)

Annotation. In this article, the author notes that Amir Timur's enormous contribution to thestate system, the development of science, education and culture. During the reign of the Temurids, there was a flourishing not only of art crafts, but also of books, calligraphy, art of miniature, several schools of miniaturists existed at once. There is evidence that there was a rich library, a collection of books from all the conquered countries.

Keywords. great figures, of the Temurid period, ribbed dome, architectural structures, archeological structures, museum expositions, miniature art, jewelry, astronomical instruments, rich library

Shahrisabz from antiquity to the present day. The ancient and sacred land of Shahrisabz is a holy place. On this earth lived the ancestors of such great figures as Khisrav Dekhlavi, Mirza Bedil, Mirza Golib. But this region was most of all glorified by the great commander Amir Temur. "During the reign of Amir Temur and the Temurid dynasty, the art of diplomacy was raised to a high level. This is confirmed by diplomatic relations and correspondence of Sahibkiran with the rulers of France, England, Spain, Byzantium, Egypt, China, India, the Ottoman Empire and many other states. It is well known from history that dozens of ambassadors from around the world, including European ones, arrived at the palace of Amir Temur.

The sources of that time noted that in the period 1389-1398, that is, for almost 10 years, ambassadors were sent to China on behalf of Amir Temur 9 times. The annals contain the names of ambassadors representing Amir Temur and the state of Temurids in Europe and Asia - Muhammad Keshi hailing from Shakhrisabz, as well as Mavlono Hafiz, Giesiddin Nakkosh, Abdurazzak Samarkandi. Unfortunately, their life and work are not fully understood and are waiting for their researchers, "said President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev. [1].

During his reign, such unique architectural structures were built as the Ak-Saray Palace, the Gur Emir Mausoleum, the Bibi-Khanym Mosque, the Khoja Ahmad Yasavi Mausoleum and another mausoleum in Shahe Zinda. The most grandiose palace is Aksaray, built 24 years, according to the plan of Timur, Shakhrisabz was to become the capital of the whole world. At the moment, only the input has been preservedthe portal of this palace, its height is 36 meters, in the original it was 70 meters in height.

During the reign of the Temurids, there was a flourishing of not only artistic craft, but also book business, calligraphy, and miniature art; several miniature schools existed at once. There is evidence that there was a rich library, a collection of books from all the conquered countries.

In Shakhrisabz, in connection with the 660th anniversary of Amir Temur, construction work began on the breakdown of the Amir Temur square in the city center, while archaeological research was conducted at the Ak-Saray and Dorussiadat complexes. [2].

Amir Temur, according to the order of the Department of Cultural Affairs of Kashkadarya region. In September 1997, with the support of the joint European project “Tarih” (“History”), Exeter University (England), Ren II University (France), Frederksberg Seminary (Denmark) and Mirzo Ulugbek NUUz in Shakhrisabz, a scientific and theoretical conference was held at topic "Central Asia and Europe in the era of Amir Temur and Temurids." Scientists from 14 countries of Europe and Central Asia took part in it. Particular attention was paid to archaeological materials testifying to the location and formation of the early city in the KitaboShakhrisabz oasis in the 8th-7th centuries. BC. [3].

The Museum of the History of Material Culture named after Amir Temur in ancient times, Shakhrisabz was called by historians and geographers as Nautaka, and in the Middle Ages the city of Kesh. In written sources there are such names as “Dilkash”, “Kubbatul ilm val adab”. During the years of independence of the Republic of Uzbekistan (1996) in honor of the 660th anniversary of the great commander Amir Temur, on the initiativerepresentatives of the local intelligentsia, a museum of the history of material culture was created, in the fund of which more than 21,000 works of attics are stored. The main goal of the museum is to study the history of the development of the city’s culture.

The museum provides mock-ups of these architectural structures, which testify to the power of the state of the Temurids. The main idea of the museum is to convey the greatness of Amir Temur and the spirit of the Temurids.

The museum building is a synthesis of the Temurid period and modern architectural style. The buildings of the Museum were created in the image of the palaces of that time and are a monument. The building has a round shape with a large ribbed dome, covered with aivan with columns in a circle. Amir Temur is the founder of a powerful centralized empire, which included 27 states.

The museum is decorated with copies of samples of Zafar-Name miniatures, manuscripts “Laying of Temur”, “Hams” by Alisher Navoi and “Nafta Avrang” by Abdurakhman Jami. You can also see minted coins from Bukhara, Samarkand, Teremez and Herat, which depict the coat of arms of Amir Temur. The exposition of the museum includes shirk items from ceramics and copper, bronze, armaments, jewelry and astronomical instruments of Ulugbek, gold sewing robes and many other items from the time of the Temurids dynasty.

The museum building is located in the complex of Chubin Madrasah, built in the XIVXVI centuries and included in the UNESCO list of “Universal values”. In written sources of the era of Amir Temur and Temurids, it is noted that in the city, at that time, there were more than 40 madrassas and mosques in which both religious and world sciences were taught. In this regard, the architectural structures of the madrasah are interesting to use as a museum. [4].

The exposition of the museum is located in a closed two-story building, built in the 19th century and part of the Chubin madrasah complex and on the terrace of the madrasah. The exposition on the ground floor is called "Shahrisabz - the same age as the Avesta." This exhibition covers the period of the appearance of the first city, the first intelligent person (Homo sapiens sapiens) in Central Asia and the period of development until the XIV century. There are exhibits such as world famous assuaries with the image of the prophet Zarathushtra, figurines depicting Anahita, figurines of idols, a set of pottery of the ancient period. On the 2nd floor, the city moved to a new place (starting from the 9th-11th centuries), the dynasty of Amir Temur and Temurids, the art of decorating architectural monuments erected during the Temurids, mosaics and majolica, the art of Islam and the books of the Koran, clay decorated dishes of the period Temurids and ethnography of Shakhrisabz, as well as the overall layout of the city, erected in the era of the Temurids. [5]. Aivan presents samples of grave stones of the Temurids era, processed as a work of high art, the work of stonecutters. Wood carving (14th century carved door made for the tomb of Shamsiddin Kulol) and large clay jugs.

List of references

2. Speech by President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev atmeeting on the activities of the Ministry of Foreign Affairs and the embassies of our country abroad. 2018 12 January. [1].
3. N. Razhabova. The history of the study of archaeological works of the Department of Archeology of the National University of Ukraine on the territory of Kashkadarya (90s of the 20th century - beginning of the 21st century) www.esa-conference.ru [2, p-1].
4. Shakhrisabz. The legacy of millennia. Album / Ed. E.V. Rtveladze, A.S. Sagdullaeva. - Tashkent: Shark. 2002. - [3, p-137].
5. Omelchenko A.V. About ceramics of the Hellenistic time of the fortress of Podayataktepa // . The role of Shahrisabz in the history of the world. Thes. doc. - T., 2002. - [4, S. 100-101]
6. Shakhrisabz. The legacy of millennia ...; “The role of the city of Shakhrisabz in world history”; Suleymanov R.Kh. Karshi - Nasaf - Nahshab in the system of world civilization // "The role of the city of Karshi in world civilization." Collection. thesis. Doc. conf. init. 2700th anniversary of the city of Karshi. - T .: 2006. - [5, S. 19-24]
7. Suleimanov R.Kh., Glantz M. The early stages of development of the capital center of Nakhshab // "The role of the city of Karshi in world civilization." Collection. thesis. doc. Int. conf. init. 2700th anniversary of the city of Karshi. - T .: 2006. - [5, P. 59-64]
8. Karshi: 2700 / Album. - T .: 2006; “The role of the city of Karshi in the history of world civilization” // Collection. thesis. doc. conf. init. 2700th anniversary of the city of Karshi. - T .: 2006. - 266 p.
9. https://www.advantourcom/rus/Uzbekistan/shakhrisabz/ak_saray.hm
10. https://www.uzbekistan.travel/p/muzey-materialnix-kultura temura
11. https://otzovik.com/teviyev_6295728.html
12. https://www.capone-online.ru/uzbekistan_goroda/shakhrisabz/ru.
13. https://wiki-turizm.ru/uzbekistan/254-shakhrisabz.
14. https://darakchi.uz/ru/56950.

O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TIBBIYOT YO‘NALISHIDAGI OLIY TA’LIM MUASSASALARI TARMOG‘INING KENGAYTIRILISHI

Toshpo‘latov Bekzod Shuxratovich
Qarshi davlat universiteti dotsenti v.b., t.f.f.d.(PhD)
Tel: +998912139494

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari tarmog‘ining kengaytirilishi haqida so‘z boradi. Muallif arxiv ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida O‘zbekistonda mustaqillik yillarida tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari tarmog‘ining kengaytirilishi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, mustaqillik yillari, tibbiyot yo‘nalishi, oliy ta’lim muassasalari.

Abstract: This article talks about the expansion of the network of higher education institutions in the field of medicine in the years of independence in Uzbekistan. Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the expansion of the network of higher education institutions in the field of medicine in Uzbekistan during the years of independence, based on the available scientific literature.

Key words: Uzbekistan, years of independence, medical field, higher education institutions.

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan jadal islohotlar o‘z o‘rnida tibbiy ta’lim tizimiga ilg‘or ta’lim standartlarini joriy etish, jahon tibbiyot fani ilmiy yangiliklaridan kelib chiqib yangi-yangi yo‘nalishlar bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tibbiy ta’lim tizimi tarmog‘i kengaytirilib borildi. Yangi davr talabidan kelib chiqib, ta’lim muassasalari faoliyati yangidan yo‘lga qo‘yilib, sohada tub islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar va sog‘liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya jarayonlari tibbiy kadrlar tayyorlash sohasida islohotlarni kun tartibiga dolzarb qilib quydi. “Ta’lim islohoti bizni demokratik o‘zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo‘lidan dadil yetaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo‘lmog‘i zarur”.

O‘zbekistonda jahon tajribasidan kelib chiqib, 1994 yildan oliy ta’lim muassasalariga abituriyentlarni test usulida tanlash joriy etildi. Qarorga muvofiq tibbiyot institutlarida ham bu usuldan foydalanildi. Ta’lim muassasalariga qabul jarayonida test usulidan foydalanish avvalo tizimda korrupsion holatlarga chek quyishga xizmat qildi. Qolaversa, oliy ta’lim muassasalariga eng bilimli yoshlarni saralab olish imkoni yaratildi. Mustaqillik arafasida tibbiyot institutlariga tanish-bilish, pora evaziga qabul qilingan talabalarning ko‘pchiligida tibbiyot sohasiga nisbatan qobiliyat yo‘qligi tufayli uquvsiz vrachlar soni ko‘payib, yosh vrachlar hatto oddiy elektrokardiogrammani ham tushunmaydi. Shu bois, tizimda test usuli imkoni qadar bu mavjud muammolarni bartaraf etishga xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatda davom etayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli yuqorida ta’kidlanganidek, qabul kvotalari va ta’lim muassasalarida professoro‘qituvchilar shtati qisqartirildi. Masalan, Andijon davlat tibbiyot institutida 1985-1994 yillari 6892 nafar talaba qabul qilingan bo‘lsa, keyingi o‘n yillik ya’ni, 1995-2004 yillarda bu ko‘rsatkich 3851 nafarni tashkil etdi. 1998 yildan boshlab ToshPTIda talabalar qabuli soni 410 tagacha tushirildi. 1995 yildan boshlab institutlarga talabalar qabul qilish shartnoma asosida ham olib borildi. Demak, raqamlar qiyosiy taqqoslanganda qisqarish yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Buxoro davlat tibbiyot institutida 1991 yili davolash, 1992 yili stomatologiya, 1999 yili oliy hamshiralik ishi, 2000 yili tibbiy-pedagogika yo‘nalishilari ochilishi tibbiy kadrlar tayyorlash sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tibbiyot institutlari filiallari ham ochildi. 1991 yil 1 sentabrdan Nukusda Toshkent pediatriya tibbiyot institutining filiali ochilib, 200 nafar talaba qabul qilindi. Nukus filiali 19951998 yillar davomida Qoraqalpoq davlat universiteti tarkibida bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 3 iyunida 239-sonli qaroriga muvofiq ToshPTIning Nukus filiali nomi bilan qayta tashkil etildi. Nukus filialida asosan 5 ta yo‘nalishda tibbiy mutaxassislar tayyorlandi.

O‘zbekistonda tibbiyot oliygohlari tarmog‘i kengaytirib borildi. Masalan, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining 1992 yil 28 may kunidagi 189 va 311sonli qo‘shma buyruqlari asosida Farg‘ona davlat universiteti qoshida «Tibbiyot Markazi» tashkil qilindi. Markaz O‘zbekiston Republikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 3 iyundagi 239-qarori bilan Toshkent davlat Ikkinchi tibbiyot institutining Farg‘ona filialiga aylantirildi.

Andijon davlat tibbiyot institutida ham talabalar qabul kvotasi va shifokor tayyorlash ko‘rsatkichi o‘sib, 1991-2016 yillar davomida institutda 5000 dan ziyod shifokor tayyorlab chiqarildi. 2016 yili institutning davolash fakultetida 1295 nafar, pediatriya fakultetida 1210 nafar, tibbiyot pedagogikasi fakultetida 46 nafar, oliy hamshiralik fakultetida 50 ta talaba o‘qidi.

Tibbiyot institutlarida o‘quv jarayonini tashkil etishda asosiy e’tibor o‘tilayotgan mashg‘ulotlar sifatini, laboratoriya darslari va malakaviy amaliyotlar samaradorligini oshirishi, o‘quv jarayonining o‘quv-uslubiy va moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-pedagogik saloxiyatni ko‘tarish, ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ta’limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasini, mehnat va ijro intizomini mustahkamlashga doir ishlarga qaratildi.

Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida shifokorlar etishmasligini hisobga olinib, Sog‘liqni saqlash vazirligi 2010 yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasiga taklif kiritdi.
O‘zbekiston tibbiyot oliy o‘quv yurtlariga ushbu hududlardan abituriyentlarni qo‘shimcha ravishda maqsadli qabul qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqildi. Taklif inobatga olinib, yuqorida nomlari qayd etilgan viloyatlar uchun 100 tadan qo‘shimcha joy ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tibbiyot ta’lim muassasalari bitiruvchilaridan samarali foydalanish maqsadida mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni doimiy ravishda o‘rganib, bo‘sh o‘rinlar bo‘yicha statistikani ishlab chiqishga e’tibor qaratdi. Klinik ordinator hamda ixtisoslashtirish va qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganlarni ish bilan ta’minlash va ishga joylashish monitoringi doimiy ravishda olib borish, maqsadli qabul hamda viloyatlar Sog‘liqni saqlash boshqarmalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida ta’lim olganlarni o‘z joylariga yuborish bo‘yicha ko‘rsatmalar berib borildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yildan yilga oliy tibbiy ta’lim tarmog‘i kengaytirilib, yangi tibbiyot institutlari ochildi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2014 yil 22 iyulda PQ-2215-sonli “Toshkent davlat stomatologiya institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Qarorga muvofiq davlat stomatologiya instituti Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya fakulteti negizida tashkil etildi. Shuningdek, Andijon, Buxoro va Samarqand davlat tibbiyot institutlarining stomatologiya fakultetlari, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filialining stomatologiya fakulteti negizida Toshkent davlat stomatologiya institutining respublika mintaqalaridagi filiallari tashkil etildi.

2014-2015 o‘quv yilida Toshkent tibbiyot akademiyasi stomatologiya fakulteti uchun 200 ta o‘rin (60 budjet, 140 kontrakt), Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filialining stomatologiya fakulteti uchun 35 ta o‘rin, Andijon davlat tibbiyot instituti stomatologiya fakulteti uchun 25 ta o‘rin, Buxoro davlat tibbiyot instituti stomatologiya fakulteti uchun 75 ta o‘rin, Samarqand davlat tibbiyot instituti stomatologiya fakulteti uchun 40 ta o‘rin ajratildi. Joriy yilda Respublika bo‘yicha stomatologiya yo‘nalishlariga jami 4 ming nafar abituriyent hujjat topshirgan bo‘lib, ularning 1786 nafari Toshkent tibbiyot akademiyasi, 327 nafari Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filiali, 736 kishi Andijon davlat tibbiyot instituti, 680 kishi Buxoro davlat tibbiyot instituti, va 471 nafari Samarqand davlat tibbiyot instituti stomatologiya yo‘nalishiga hujjat topshirdi.

Toshkent farmatsevtika institutida 2015-2016 o‘quv yilidan boshlab yangi “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. 2018-2019 o‘quv yilda fakultet negizida yangi “Dori vositalarini standartlashtirish va sifat menejmenti” mutaxassislik kafedrasi tashkil qilindi_. Institut Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Yevropa bo‘limi bilan Markaziy Osiyo davlatlari uchun farmatsevtika ta’limini isloh qilish bo‘yicha maxsus loyihada Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Xitoy, Pokiston, Hindiston oliy o‘quv yurtlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qildi.

2017 yil martda Buxoro viloyatiga safari davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev tibbiyot institutida bo‘lganida shunday degandi: “Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatning yanada yaxshilanishi yuqori darajada tayyorlanayotgan kadrlarga bog‘liq. Malakali kadrlar tayyorlash esa oliy o‘quv yurtlari, ularning moddiy-texnika bazasi va jahon standartlari darajasida jihozlangan binolariga ega bo‘lishini talab qiladi. Shu naqtai nazardan kelib chiqib, Buxoro tibbiyot institutining 900 talabasi va 200 o‘rinlik bemorlarga mo‘ljallagan, zamonaviy talablar asosida jihozlangan klinikasi qurilishi amalga oshirilmoqda”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 5 mayda “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta’limni yanada isloh qilishning tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini imzoladi. Qarorda tibbiy ta’lim tizimini bosqichma-bosqich qayta shakllantirish, o‘qish va amaliyotni yuqori pog‘onaga ko‘tarish, mutaxassislarni jahon standartlari darajasida tayyorlash vazifalari ko‘rsatildi. 20172018 o‘quv yilidan davolash va pediatriya ishi mutaxassislarni tayyorlash 6 yil, tibbiyprofilaktika ishi — 5 yil, tibbiy-biologiya ishi esa — 4 yil qilib belgilandi_. Shuningdek, klinik ordinaturada o‘qish 2 yil, magistratura

ta’limi mutaxassisligiga qarab 2-3 yil bo‘ldi. O‘quv dasturlarini IV-V kursdan boshlab o‘zgartirilishi va 6 yilga moslashtirilish ko‘zda tutildi.

2017 yil 12 dekabrda Prezident huzurida bo‘lib o‘tgan sog‘liqni saqlash xodimlarining kengashida ta’kidlanishicha, respublikadagi tibbiyot muassasalari faoliyatini ravon ta’minlash va sifatli xizmat ko‘rsatish uchun 11 ming malakali vrachlar yetishmaydi. Shu bois, 2017 yili tibbiyot institutlari bitiruvchilarining 79 foizi qishloqdagi vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalarga ishga yuborildi. Bundan tashqari tibbiy kadrlar yetishtirishni yaxshilash maqsadida mahalliy hokimiyatlar bilan kelishilgan holda bakalavriat yo‘nalishiga qabul 20, magistraturga 10 va klinik ordinaturaga 15 foiz ko‘paytirildi. Buxoro davlat tibbiyot institutida 2018-2019 o‘quv yili yana 2 ta fakultet, 3 ta kafedra va 2 ta yangi yo‘nalish; tibbiy biologiya va tibbiy profilaktika yo‘nalishlari ochildi.

2020 yil 9 yanvarda Toshkent shahrida “Oliy tibbiy ta’lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi “XAB”ga aylantirishga doir islohotlar” mavzusida xalqaro o‘quv-uslubiy konferensiya ochildi. Ilmiy anjumanda Toshkent davlat stomatologiya institutiga xalqaro ISO sertifikati topshirildi. 2019 yili institutda “Stomatologiya Yuga-2019” xalqaro olimpiadasi o‘tkazildi. Shuningdek, institut Xalqaro stomatologlar federatsiyasi, Yevropa kariyesologiya assotsiatsiyasi, Xalqaro tibbiyot talabalari uyushmalari federatsiyasi hamda Yaponiya jarrohlar uyushmasining a’zosi bo‘ldi. 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab Toshkent stomatalogiya institutining barcha kurslarida ayrim mutaxassislik fanlari ingliz tilida o‘qitildi. Institutda dastlab bolalar stamotalogiyasi, jarrohlik, terapiya stomatologiyasi yo‘nalishlari faoliyat ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 14 fevralda Orolbo‘yi mintaqasi uchun tibbiyot sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, hududda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, ta’lim va ilm-fanning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash maqsadida “Qoraqalpoq tibbiyot institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Bu tibbiyot instituti Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali negizida tashkil etildi. 1991-2019 yillar davomida Nukus filialida 1100 nafar pediatr, 350 nafar umumiy amaliyot shifokori, 40 nafar oliy ma’lumotli hamshira, 180 nafar klinik ordinatorlarni tayyorladi.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PQ-4911-sonli “Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg‘ona filiali negizida tashkil etildi.

Xullas, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan jadal islohotlar samarasida Samarqand, Andijon, Buxoro tibbiyot institutlari hamda Toshkent pediatriya tibbiyot va Toshkent farmatsevtika institutlari muhim rol o‘ynab keldi. ToshPTIda anesteziologreanematolog, oilaviy shifokor yo‘nalishlari bo‘yicha magistrlar tayyorlash yo‘lga quyildi. Andijon davlat tibbiyot instituti jamoasining xodim va talabalarni ijtimoiy himoyalash borasida olib borgan ishlari boshqa institutlarga namuna bo‘ldi. Xususan, institut yordamchi xo‘jaligi hisobidan olingan mahsulotlar talabalar va xodimlarga tarqatilib, bepul tushlik, yotoqxonadagi talabalarga yopilgan non bepul berildi va o‘qituvchilarning yo‘l kira xaqi, faol o‘qituvchilarga oylik ish haqiga qo‘shimcha pul mablag‘i berildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PQ-4911-sonli “Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori 2020 yil 3 dekabr, PQ-4911-son (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020 y., 07/20/4911/1594-son) https://lex.uz/ru/docs/5141130

2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 30-son, 367-modda; 3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: O‘zbekiston. 1999. – B.161.

4. O‘z MA, R-837-fond, 41-ro‘yxat, 7900-yig‘ma jild, 19-varaq.

5. O‘zR SSV JA, 372-fond, 1-ro‘yxat (davomi), 859-ish, 42-varaq.

6. Sarhisob (2018). Buxoro davlat tibbiyot institutida 2017-2018 o‘quv yilida amalga oshirilgan o‘quv, ilmiy, tashkiliy-uslubiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlar haqida sarhisobnoma. A.Inoyatovning umumiy tahriri ostida. - Buxoro: Durdona, 2018. – B.11.(70 b.)
7. Tyurikov V., Shagulyamov R. Nezavisimaya Respublika Uzbekistan: Pamyatniye sobitiya i dati (1991–1996). – T.: O‘zbekiston. 1997. –S.73.
8. Xalqning ishonchi yangi marralarga ruhlantiradi // www.uza.uz. 13.03.2017.
9. https://goldenpages.uz Nukusskiy filial Tashkenskogo pediatricheskogo meditsinskogo instituta.
10. https://daryo.uz/2014/07/23/toshkent-davlat-stomatologiya-instituti-tashkil-etiladi
11. https://pharmi.uz/institut
12. https://ttaff.uz/blog/71/institut-tarixi
13. https://xs.uz/uz/post/qoraqalpogistonda-tibbiyot-instituti-tashkil-etildi
14. https://xs.uz/uz/post/toshkent-davlat-stomatologiya-instituti-khalqaro-isosertifikatiga-ega-boldi
15. Institut binosining yangi qiyofasi // www.uza.uz. 30.08.2014.
16. Prezident tibbiy ta’limni isloh qilish haqidagi qarorni imzoladi // www.minzdrav.uz. 10.05.2017.
17. Obsujdeni aktualniye voprosi meditsinskoy sferi // www. minzdrav.uz. 3.12.2017.

OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF ETHNO TOURISM IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN

Eralov Azamat Jomurodovich
Institute of counter-engineering economics
Senior teacher of the "History of Uzbekistan" department, PhD

Abstract: This article talks about the possibilities of developing ethnotourism in the southern regions of Uzbekistan. Based on archival data, the author analyzed the problem on the basis of available scientific literature and studied the existing specific aspects of ethnotourism development opportunities in the southern regions of Uzbekistan.

Key words: Kashkadarya, Surkhandarya, ethnotourism, customs, traditions, tourists.

Introduction:

The fact that in a short period of time our country has become an actively developing, proactive member of the world community, an enviable country where peace and tolerance reign is a clear proof of this. The head of our state Sh. As Mirziyoyev noted, "Uzbekistan is always faithful to its traditions in the field of inter-ethnic harmony and religious tolerance, and will never deviate from this path. In our country, primary attention is paid to strengthening the atmosphere of mutual respect, friendship and harmony between representatives of different nationalities and religious confessions. It is our greatest wealth and it is our duty to protect it like the apple of our eye"[1].

National cultural centers serve to meet ethno-cultural needs, preserve and develop national values, and strengthen inter-ethnic harmony in the country. Along with the development of their national culture, they cooperate closely with each other and contribute to strengthening mutual respect and trust between representatives of different nationalities living in Uzbekistan. The first national cultural centers were established by Koreans, Kazakhs, Jews, and Armenians in the regions of the republic in 1989. The real development and prosperity of these centers began after Uzbekistan gained independence. During this period, ample opportunities were created for their effective activity. As a result, their number increased every year.

If in 1992 there were 10 national cultural centers, in 1995 their number reached 72, and in 2003 there were 135[2]. On the principles of preserving the past history, culture, spiritual and religious values, national traditions and customs of all nations and elates living in our republic today, 138 national cultural centers, 34 friendship societies operate.

Main part:

Many other nationalities and peoples live in Kashkadarya region side by side with Uzbeks. Russians, Tatars, Arabs, Tajiks and Turkmens make up the majority, and in some areas of the oasis, we can observe that they still live in a state where they have preserved their traditions.

Kashkadarya Regional Arab National Cultural Center was established in 1991 and registered as a non-governmental non-profit organization in 1992[3]. About 40,000 Arabs live in Kashkadarya region. 20,000 of them live in Zeynov town of Mirishkor district, 5,000 in Polati town of Koson district, 4,000 in Kahlak village of Karshi district, and about 6-7,000 in other regions of the region.

Arabs in the oasis have their own traditions and games that have been preserved from generation to generation since the distant past. Nowadays, the place where Arab traditions and their ethnic aspects are preserved is the town of Jeynov in Mirishkor district. As an example, we can cite the following:

Wearing natti. This tradition is found in Arab weddings, and it is a ceremony of wearing jewelry on the nose of girls at the time of marriage.

Yoblo. This custom is performed when the bride is taken to the groom's house. The bride is mounted on a horse, the relatives of the bride lead her, and torches are lit until she reaches the bride's house.

Circumcision wedding. Arab circumcision wedding lasts for 3 days, the 1st day is called a small meeting, and on this day the relatives of the circumcised boy gather and discuss the wedding, the 2nd day is called the sheep slaughter, and the wedding is held on this day A sheep is slaughtered in the household, one of the young and agile young men goes to invite people to the wedding.

Bujul (sokka, lover). It is a game mainly played among herdsmen, and is a national game of the Arabs, in which the knee bone of the front hoof of a sheep or ram is taken and shot at each other.

The Tajik National Cultural Center was established in Kashkadarya region on September 27, 2011. More than 130,000 Tajiks live in the oasis. Most of the Tajiks living in the region live in Kitab, Shahrisabz, and Guzor districts.

Tajik people's weddings and Tajik holidays, like other peoples of the oasis, have centuries-old national traditions, created by ancestors and preserved in a wonderful form from generation to generation.

The history of the formation of national customs and traditions of the Tajik people, like other nations, goes back thousands of years. In particular, the weddings and ceremonies of the Tajik people were created by their ancestors and are preserved in a wonderful form from generation to generation.

Also, the Tajik national dishes prepared by the people living in these areas are not found in other areas of the oasis with their excellent taste and unique style. For example, kurtob, oshi buride, yallama, atol, binkova, nakhudshorak, hadisa can be mentioned.

The Tajiks of the oasis have achieved the greatest perfection in the production of various silk, cotton, wool and fabrics from traditional folk crafts. Especially the women raised the ancient artistic embroidery to the level of art. Among women, the most common elements of traditional clothing are ankle-length, wide-cut dresses, wide scarves, shawls and scarves[4].

Wedding ceremonies of Tajiks living in these regions are similar to those of Uzbeks. Including **nonshikanon (blessing), idonabari (giving gifts), padartalban (father called), chodarkanon (opening the face), rohbandon (blocking the road), sarupobinon (displaying the clothes of the bride and groom), choygashtak (girls' meeting)** and other rituals.

Turkmen national cultural center of Kashkadarya region was established on November 8, 2007. About 70,000 Turkmens live in the oasis. Most of them live in Mirishkor, Nishan and Mubarak

districts. 18,000 people in Chandir village of Mirishkor district, 2,000 people in Shodlik village, 2,000 people in Avazchol village, 15,000 people in Pamiq village, 3,000 people in Naistan village, 2,000 in Turkman village of Mubarak district. people, 3000 people live in the village of Shaykh, 4000 people in the village of Sariq, 4000 people in the village of Kokhnashahar, 3000 people in the village of Niyozkhan. Since ancient times, they have maintained warm neighborly relations with Uzbeks, Tajiks, Arabs and representatives of other nationalities and peoples in the Karshi desert[5].

A group of artists under the artistic direction of Umrozok Quvvatov, winner of the "Shuhrat" medal, is working to modernize the ancient, unrepeatable melodies and songs of the Turkmens of the oasis. "Sarvinoz" folklore-ethnographic communities were established in Pamuq village, Mirishkor district, and "Alang" communities were established in Chandir village. The songs and dances prepared by them are loved and watched not only by Turkmens, but also by representatives of all nationalities in our oasis, and are shown on the central channels of the Republic TV.

Results and Discussions:

The Turkmens living in the region have their own national customs and traditions, as well as food, of which we can refer to the following examples:

Kusht depti. It is a national dance of the Turkmens, and the origin of this dance was when the men of the Turkmen people living on the shores of the Caspian Sea went fishing, and their women sang and danced around the campfire on the shore.

Yumurta gurak. It is considered the national dish of the Turkmens, and they cooked and ate the egg in a square shape like a dumpling.

Ishliki. This dish was prepared mostly by Turkmens who were herdsmen. They spread the dough in the form of bread, put mutton and rump on it, and cover its top with dough, leaving a hole for pouring water into it. They dug up the sand and threw coal into it and buried the work on top of it, and the top of the work was also buried with sand. After that, water was poured into the cooking pot through the hole.

Shavlot. This dish is also mainly prepared by Turkmens who are herdsmen. During the preparation of this dish, the belly of the sheep is separated, all the other organs are put into it and boiled in a pot[6].

In addition, musical instruments (flute, dombira, gijjak) and national clothes (hat, telpak, yaktak) of Turkmens differ from those of Uzbeks.

Do not exclude Kashkadarya from your gastronomic map when you are traveling through Uzbekistan. One of the most amazing dishes here is mutton cooked with cumin - tandir meat, prepared according to recipes that have come down to us from ancient times.

Another dish of local cuisine that will not leave you indifferent is somsa. Words cannot describe the magical smell of freshly cut somsa from the oven. Somsa is usually served with spicy tomato sauce.

Kashkadarya pilaf, dumplings and pea soup can be highlighted among the various dishes prepared here. Also, a unique yogurt drink, chalop, is made here. Another of the sweetest dishes is oasis yakhna. The sound of yakhna prepared in Chirakchi district and tandoori meat cooked in Guzor district has conquered the whole world. We would not be wrong if we say that tandoori meat prepared under the brands **"Chorsu tandiri" and "Poytakht tandiri"**, which are known on the national scale of these dishes, have captivated other countries of the world[7].

Any tourist who visits the oasis will be surprised by the variety and taste of food in this country. The cooking style of chefs and the service system in restaurants are completely different from those of other regions. Festivals for national dishes are held in the province during the "Navroz" holiday, which is a wonderful gift of the spring season. At this time, various wonderful dishes are prepared and served on the table prepared for the holiday, and the visiting guests enjoy these dishes.

Ethnotourism is based on tourists' interest in the real life of peoples, their traditions, rituals, their culture and creativity. If we look at history, the ethnic type of tourism appeared thousands of years ago, when people were exploring new lands. During the era of geographical discoveries, its role

became more and more powerful, sailors searched for new countries, communicated with local people, traded and adopted cultural values. However, the main purpose of such trips was economic benefit - land colonization, search for gold mines, enslavement, etc. Ethnic cuisine and tourism in the modern sense appeared relatively recently - around the time of the creation of open-air museums. Particular importance is given to gastronomic excursions, travelers want to try the dishes of other cuisines of the world, get to know their taste and adopt cooking recipes. This also applies to ethnographic trips.

In order to establish the necessary infrastructures in the territory of Surkhandarya region, to establish the activities of family guest houses and additional tourism services, and to widely involve the local population in entrepreneurship in the field of tourism, to create a new tourism route using the ethnotourism potential of the region, and to attract local and foreign tourists to the region. Wide-scale work has been started to provide interesting ethno- and agro-tourism opportunities.

The purpose of this is to increase the number of tourism destinations offered to tourists by creating a new tourism route, thereby creating new jobs and providing local residents with additional income. The increase of such tourism destinations creates an opportunity to extend the stay of tourists in the country and increase income through tourism.

According to the decree of the President of August 13, 2019 "On measures for the further development of the tourism industry in the Republic of Uzbekistan"[8], modern infrastructure will be developed and turned into a prosperous place in the areas granted the status of "Tourism Village". Wide, smooth roads will be built, and electricity, gas, water, and sewerage systems will be improved and their functioning will be ensured. The quality of mobile communication and the Internet network has improved, and the provision of modern services to residents and tourists has improved. This, in turn, will stimulate the development of ethnic and agro-tourism routes in the region.

Conclusion:

Based on the above-mentioned information, it can be concluded that the southern regions of Uzbekistan have all the opportunities to develop tourism in specific areas. It should be taken into account that Kashkadarya and Surkhandarya regions have higher development indicators than other regions. One of the main reasons for this is that it is located in a favorable geographical environment and has a long glorious history. Additional measures are being developed for the development of ecotourism in areas with beautiful and peaceful nature, and pilgrimage tourism in the destinations of historical sites. Therefore, separate programs for bringing the tourism potential to a new level are being implemented step by step in the region.

In Kashkadarya and Surkhandarya regions, many other nationalities and peoples have lived side by side with Uzbeks since ancient times. Russians, Tatars, Arabs, Tajiks and Turkmens make up the majority, and it is possible to observe that in some areas of the oasis they are still living with their traditions.

References:

1. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. "On the most important priorities for the development of our country in 2018". People's word, December 29, 2018.

2. Akmaljon Komilov, Muhammadjon Boltaboyev. Uzbekistan is our common home // CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2022

3. One-year report on the activities of the Arab National Cultural Center of Kashkadarya Region. January 2022.

4. Oral history materials. Interview with Imomnazar Tursunov, head of the Tajik National Cultural Center of Kashkadarya region. April 11, 2022.

5. Report on the activities of the Turkmen National Cultural Center of Kashkadarya Region in 2020. April 2022.

6. Oral history materials. Interview with Zulpikar Toymuradov, employee of the Turkmen National Cultural Center of Kashkadarya region. April 15, 2022.
7. Ergasheva Y., Eralov A., Samarov F. Tourism competence of Kashkadarya region. Monograph - Karshi, 2022. -B.214.
8. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 13, 2019 No. PF5781 "On measures to further develop the tourism sector in the Republic of Uzbekistan". // People's word, August 15, 2019.

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ АСОСЛАРИ

Самадов Искандар
Қашқадарё ИИВ лицейи ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада Қашқадарё вилоятининг иқтисодий асослари бўлган, деҳқончилик, пахтачилик, чорвачилик ва саноат соҳаларининг воҳа ва республикада тутган ўрни ҳақида гап кетади. Шунингдек, барча соҳаларда кейинги йилларда олиб борилган ислоҳотлар натижаси таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, Қашқадарё, республика, вилоят, Муборак. Ғузор, Китоб, Шаҳрисабз, Шўртан, иқтисодиёт, қишлоқ хўжалиги, саноат, пахта, ғалла, нефт, газ, деҳқончилик, чорвачилик.

Abstract. This article talks about the economic foundations of the Kashkadarya region, the role of agriculture, cotton growing, cattle breeding and industry in the oasis and the republic. The results of reforms carried out in subsequent years in all areas were also analyzed.

Key words: Uzbekistan, Kashkadarya, republic, region, Mubarek. Guzar, Kitab, Shakhrisabz, Shurtan, economy, agriculture, industry, cotton, grain, oil, gas, agriculture, livestock.

Мамлакат ишлаб чиқариш кучларини минтақавий жиҳатдан оқилона жойлаштириш минтақавий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Бинобарин, минтақалар табиий-иқтисодий салоҳиятидан самарали фойдаланиш мамлакат иқтисодиётининг барқарор ривожланишини таъминлаш, аҳоли турмуш даражасини оширишнинг муҳим шартларидан биридир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек “Иқтисодий мустақиликка эришмасдан туриб, сиёсий мустақилликни таъминлаб бўлмайди”. Шунинг учун ҳам республикамиз хукумати мустақилликнинг дастлабки даврлариданоқ ғалла ва ёқилғи энергетика мустақиллигига эришди.

Республика ҳудудлари илгари асосан ҳом ашё етказиб берган бўлса, энди рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариб, уни чет элга экспорт қилмоқдалар. Бу ишларнинг амалга ошишида Қашқадарё вилоятининг ҳам муносиб ҳиссаси бор.

Қашқадарё вилояти республика иқтисодий тараққиётида алоҳида аҳамиятга эга. Вилоят республикада қазиб олинадиган табиий газнинг 70%, нефтнинг қарийб 78%, газ конденсатининг 80%, олтингугуртнинг 100%, ош тузининг 91,3%, цемент хомашёсининг 11,1 %ни беради. Қашқадарё республикада энг кўп дон ва пахта етказиб берадиган вилоятдир. Ўзбекистонда тайёрланадиган ялпи қишлоқ хўжалик маҳсулотининг 10,2%, шу жумладан, пахтанинг 14%дан зиёд қисми, ғалланинг 13%дан ортиғи, қоракўл терининг 19% вилоят ҳиссасига тўғри келади.

Бу соҳаларни ривожлантириш учун вилоятда катта имкониятлар мавжуд. Жумладан, вилоят иқлим шароитини ҳисобга олсак, иссиқлик миқдорининг катталиги ва вегетация давринининг узоқ давом этиши ушбу ҳуддуда бошоқли экинлар (хусусан лалми ерларда), пахта ва боғдорчилик маҳсулотларини етиштириш имконини беради. Вилоятда ёқилғи минерал хом ашёси ресурсларига бойлиги бу ерда газ, нефт, кон-маъдан ва бинокорлик материаллари ишлаб чиқариш саноат тармоқларини ривожлантириш учун асос бўлади.

Қашқадарё вилояти катта ер ресурига эга. Қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ерлар 1990 йил вилоятда 2 млн 534 минг гектар, 1995 йилда 2 млн 522,7 минг гектар, 2000 йилда 2 млн 194 минг гектар, 2015 йилда эса 2 млн 856,8 минг гектар ташкил қилган бўлиб, қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ерлар жами майдонга нисбатан 76,8 % ни ташкил қилади. Қишлоқ хўжалиги экинлари экиладиган майдонлар 1990 йилда 616 минг гектар, 1995 йилда 643,1 минг гектарни, 200 йилда 698,3 минг гектар, 2015 йилда эса 679,2 минг гектарни ташкил қилган.

Вилоят иқтисодиётининг агросоҳаси асосан пахта, ғалла ва чорвачилик маҳсулотларини етиштиришга ихтисослашган. Худудий ихтисослашув жиҳатидан қаралганда, юқори зонада туманларида пахтачилик, боғдорчилик ва галлачилик, Қуйи зонада, яъни Қарши даштида пахтачилик ривожланган. Чорвачилик, хусусан, қўй ва эчкиларни боқиш чўл ва тоғолди ҳудудларда кўпроқ тарқалган. Вилоят маркази ҳамда Шаҳрисабз атрофида шаҳар атрофи қишлоқ хўжалиги, сабзавот ва картошка, кукатлар етиштириш билан шуғулланади.

Деҳқончиликнинг асосий тармоғи пахтачиликдир. Вилоятда 1990 йилда 220 минг га ерга пахта экилган бўлса, 2000 йилда 150 минг га, 2008 йилда 173 минг га, 2015 йилда 164,9 минг га, 2018 йилда эса 139,8 га ерга пахта экилган. Кўриниб турибдики, пахта экиладиган майдонлар йилдан йилга камайиб борган.

1990 йил 500 минг тонна пахта ҳосили етиштирилган бўлса, 1997 йилда 420 минг тонна, 2013 йилда 424 минг тонна пахта, 2020 йилда 400 минг тонна пахт ҳосили етиштирилган.

Кейинги йилларда пахтанинг ялпи маҳсулоти интенсив деҳқончилик хўжалиги асосида кўпаймоқда. Вилоятда пахта экиладиган майдонларни қисқартирилиши натижасида мева ва сабзавотчиликка ихтисослашган бригадалар ташкил қилинмоқда. Мисол тариқасида 2010-2015 йиллар оралиғида 3 минг 200 гектар пахта майдони қисқартирилиб картошка мева-сабзавот ва полиз экинлари етиштириш йўлга қўйилган.

Донли экинларга буғдой, шоли, маккажўхори, арпа, жўхори, тариқ, сули ва жавдар киради. Қашқадарё вилоятида донли экинлардан энг кўп буғдой арпа ва маккажўхори экилади. 1990 йилда 288,8 минг тонна ғалла, 1995 йил 500 минг тонна ғалла, 2002 йил 684 минг тонна ғалла, 2007 йилда 884 минг тонна ғалла, 2019 йилда 964,3 минг тонна ғалла етиштирилган. Шу ўринда таъкидлаш керакки, вилоятда йилдан-йилга ғалла ҳосилининг кўпайиб боришига биринчи навбатда пахта экиладиган майдонларнинг қисқартирилиши, ерларнинг мелиоратив ҳолатининг яхшиланиши ва янги ҳосилдор навларнинг экилиши сабаб бўлган. Бу билан Қашқадарё вилояти республикамиз ғалла мустақиллигининг қўлга киритлишида муносиб ҳиссасини қўшиб келган.

Чорвачилик, вилоят қишлоқ хўжалигининг деҳқончиликдан кейинги тармоғи бўлиб, аҳолини сут, гўшт, тухум, балиқ каби озиқ-овқат маҳсулотлари, саноатни эса жун, қора кўл тери, ипак ва бошқа хом ашё билан таъминлайди. Вилоятда чорвачиликни янада ривожлантириш қишлоқ хўжалиги олдида турган биринчи галдаги вазифалардан биридир. 2010 йилда вилоят Ўзбекистонда етиштириладиган гўштнинг 8,2%ини, сутни 8,6%ини, жуннинг 16%ини ва қоракўл терининг 19%ини етказиб бермоқда.

Ёки, 1999 йил вилоятда 97,2 минг тонна гўшт, 338,7 тонна сут, 3163 тонна жун, 95,1 минг дона қоракўл тери, 94,5 млн дона тухум етиштирилган, 2005 йилга келиб вилоятда 119,1 минг тонна гўшт, 444,7 минг тонна сут, 3962 тонна жун, 103,6 минг дона қоракўл тери, 124,5 млн дона тухум етиштирилган, 2010 йилда эса вилоят бўйича 178731 тонна гўшт, 657162 тонна сут, 192627 минг дона тухум етиштирилган, 2015 йилда вилоятда 248008 тонна гўшт, 952542 тонна сут, 7431 тонна жун, 193386 дона қоракўл тери, 366 млн 695 минг дона тухум етиштирилган бўлса, 2019 йилга келиб 294716 тонна гўшт, 1148068 тонна сут, 7551 тонна жун, 219436 минг дона қоракўл тери, 549760 дона тухум етиштирилган. Кўриниб турибдики, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш аҳоли сони кўпайган сари ошиб борган, яъни

аҳоли эҳтиёжидан келиб чиқиб, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштирши хажми кўпайиб борган.

Вилоят бўйича 1996 йили 572 минг бош йирик шохли қорамол бўлган бўлса, 2000 йилда бу рақам 22 минг 200 бошга кўпайгани, қўй-эчкилар сони 1 миллион 829 мингдан 1 миллион 961 мингга етган, 2006 йилга келиб 746,4 минг бош йирик шохли қорамол бўлган бўлса, қуй ва эчкилар сони 2311,8 мингга етган, 2010 йилда 972,1 минг бош йирик шохли қорамоллар, 2966 минг бош қўй ва эчкилар бўлган, 2017 йилда йирик шохли қорамолларнинг умумий бош сони 1479,3 минг бошни, қўй ва эчкилар 4412,6 минг бошни ташкил қи лган, 2020 йилда 1620,5 минг йирик шохли қорамол, қўй ва эчкилар 4726,9 минг бошни ташкил қилган.

Қашқадарёда чорвачиликни ривожлантириш учун улкан имкониятлар бор. Шуни эътиборга олиб, чорвачиликда ҳам фермерлик ҳаракатига кенг йўл очиб бериш, емхашак, озуқа базасини мустаҳкамлашга доир қарорларнинг ижросини таъминлаш зарур.

Қашқадарё вилояти саноатининг етакчи тармоқлари: табиий газ, ва нефт қазиб олиш, газни қайта ишлаш, пахта тозалаш, ёғ экстракцияси, қурилиши материаллари ишлаб чиқариш, тикувчилик озиқ-овқат ишлаб чиқариш ташкил қилади.

Мамлакатимиз бўйича қазиб олинаётган табиий газнинг 88 фоизи, нефтнинг 92 фоизи Қашқадарё вилояти ҳиссасига тўғри келади. Толлимаржон ГРЭСи, Муборакгаз, Шўртангаз, Кўкдумалоқ нефть кони ва бошқа иншоотлар Қашқадарё вилоятининг мамлакатимиз иқтисодий тараққиётига қўшаётган жуда катта ҳиссасини кўрсатиб турибди.

Саноатнинг ҳудудий ташкил этилишида Қарши, Шаҳрисабз тугунлари катта аҳамиятга эга. Шу билан бирга Муборак (ИЭМ, газ кимё мажмуаси), Косон (ёғ экстракт, пахта тозалаш, ғишт заводи), Шўртан (нефть-газ-кимё), Толлимаржон (ИЭС), Кўкдумалоқ (нефть), Чироқчи (консерва заводи) ва бошқа саноат пунктларининг аҳамияти ҳам ошиб бормоқда. Қарши ва Қамашида тўқимачилик корхоналари, Шаҳрисабзда ип-газлама (“Оқсарой - тўқимачи” ҚК, ипакчилик), аксарият туман марказларида пахта тозалаш заводлари мавжуд.

Саноатнинг етакчи тармоқларини модернизациялаш ва диверсификациялаш, хомашё ва ярим тайёр маҳсулотларни қайта ишлашнинг замонавий технологияларини жорий этиш, жаҳон бозорида юқори рақобатбардош бўлган ишлаб чиқаришларни манзилли қўллаб-қувватланиши, ишлаб чиқаришлар таркибида қайта ишлаш саноатининг улушини ошишига кўмаклашди.

1995 йилда саноат ишлаб чиқаришнинг ҳажми 1990 йилга нисбатан 1,5 мартага купайган, 2000 йилдан бошлаб (1990 йилга нисбатан) ўсиш 1,7 марта, 2005 йилда – 2,6 марта, 2010 йилда – 4,2 марта. ва 2016 йилда эса 5,1 мартага ошган.

2008 йилда ялпи ҳудудий маҳсулотнинг 33,0 фоизи саноат ишлаб чиқаришига тўғри келган бўлса, 2010 йил у 40,7 фоизга баробар бўлган (2013 йил – 37,4 %). Баъзи бошқа минтақаларга қараганда бу ерда қишлоқ хўжалигининг улуши пастроқ – 19,5 %, ваҳоланки, бу кўрсаткич Сурхондарё, Сирдарё, Жиззах ва Самарқанд вилоятларида бундан деярли 2 марта зиёд. Айни вақтда бу ерда машинасозлик суст ривожланган; кимё ва электр энергетика саноатига эса катта эътибор қаратилмоқда. Шўртангаз мажмуаси, Деҳқонобод калий заводи, биринчи навбатида ишга туширилган Толимаржон ИЭС фикримизга далил бўла олади. Шунингдек, вилоят энергетика базасида Муборак иссиқлик энергетика маркази ҳам муҳим ўрин тутади.

Қашқадарё вилояти ялпи ҳудудий маҳсулотининг ички таркиби ҳам унинг иқтисодиётини тобора индустриал - аграр йўналишга ўтиб боришини асослаб беради. Вилоятда газ конденсатини Муборак нефть-газ конлари, Муборак газни қайта ишлаш заводи, “Шўртан нефть-газ” шўъба корхонаси, Шўртангаз кимё мажмуаси ҳамда “Ҳисор нефть-газ” қўшма корхоналари ишлаб чиқаради. Айнан шу корхоналар нефть ва табиий газ конларидан фойдаланишади. Уларнинг орасида газ конденсати бўйича Муборак нефть-газ конлари бошқармаси ва Шўртан нефть-газ, нефть ва табиий газ қазиб олишда Муборак нефть-газ

конлари етакчилик қилади. Суюлтирилган газнинг ярмига яқинини Шўртангаз кимё мажмуаси етказиб беради, иккинчи ўринда Шўртан нефть-газ шўъба корхонаси туради.

Хулоса қилиб айтганда, Қашқадарё вилояти иқтисодиётининг асосий тармоқлари табиий газ, ва нефт қазиб олиш, газни қайта ишлаш, пахта тозалаш, ёғ экстракцияси, қурилиши материаллари ишлаб чиқариш ташкил қилиб, кейинги йилларда қайта ишлаш саноатининг улуши ҳам ортиб бормоқда. Мисол тариқасида 2010 йилда, саноат ишлаб чиқаришининг умумий ҳажмида қайта ишлаш саноатининг улуши 30,7% бўлган бўлса, 2016 йилга келиб эса 53,9%га ўсган. Қишлоқ хўжалигида ҳам пахта экин майдонлари камайиб, ғалла ва мева-сабзавот экинлари экиладиган ерлар йилдан йилга кўпайиб бормоқда. Мисол учун, юқори ҳудуд туманлари (Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ) да боғдорчилик ва сабзавотчиликка ихтисослаштирилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т. 2014. 294 б.
2. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоийиқтисодий ривожланиши. – Т.: «MUMTOZ SO’Z», 2010. 279 б.
3. www.qashstat.uz.
4. Қашқадарё вилоят статистика бошқармаси жорий архиви.
5. Каримов И.А. Ватан озодлиги, халқимнинг омонлиги, юртимнинг равнақи, ҳар бир оила фаровонлиги – мен учун олий саодат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 127– б.
6. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан ўшрамиз. Т. “Ўзбекистон”. 2017 й.316 б.
7. Қашқадарё ҳақиқати 2002 йил 27 июл.
8. Қашқадарё вилояти географияси. География ўқитувчилари учун қўлланма. Қарши. 1994 й.110 б.
9. Қашқадарё вилояти ижтимоий-иқтисодий инвестициявий паспорти. 2019 й.

DUNYODAGI GIDROELEKTR STANSIYALARNING QURILISH TARIXI

Tursunov Feruz Yuldoshevich
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: GES - suv oqimlarining energiyasini elektr energiyasiga aylantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan gidrotexnika inshootlari va maxsus jihozlarning murakkab majmuasi. Ushbu maqolada biz dunyodagi eng kuchli va eng yirik 10 ta gidroelektr stantsiyani haqidagi ma’lumotlar.

Kalit so’zlar: suv oqimi, elektr energiya, to’g’on, daryo.

Abstract: GES is a complex set of hydraulic structures and special equipment that can be used to convert the energy of water flows into electricity. In this article, we provide information on the 10 most powerful and largest hydropower plants in the world. **Keywords:** water flow, electricity, dam, river.

Gidroelektr stansiya (GES) -suv oqimining energiyasini gidravlik turbinalar yordamida elektr energiyasiga aylantirib beradigan gidrotexnika inshootlari va energetika jihozlari majmui. Gidrotexnika inshootlari to‘g‘on yonidagi, derivatsion va aralash turlarga bo‘linadi. To‘g‘on yonidagi GESlarda to‘g‘on yordamida suv sathi ko‘tarilib, kerakli bosim hosil qilinadi. GES binosi 3 xil

joylashtiriladi: 1) to‘g‘on yonida; 2) to‘g‘ondan chetrokda; 3) to‘g‘ondan pastda, daryo o‘zanida. To‘g‘on yonida va daryo o‘zanida quriladigan GES larda suv bosimini to‘g‘on hosil qiladi.

GES - suv oqimlarining energiyasini elektr energiyasiga aylantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan gidrotexnika inshootlari va maxsus jihozlarning murakkab majmuasi. Ushbu maqolada biz dunyodagi eng kuchli va eng yirik 10 ta gidroelektr stantsiyani ko'rib chiqamiz.

"Uch dara" GESi. Xitoy

Xitoy "qolganlardan oldinda" yurishga odatlangan. Afsonaviy Yangtze daryosida GES qurilishida esa barcha eng zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan. "Uch dara" - dunyodagi eng katta GES. Uning loyihasi 1919 yilda tug'ilgan. Xitoyning birinchi prezidenti Sun Yatsen shunday yirik loyihani qurishga qaror qildi. Chiang Kay-Shek hukumati asrning qurilishini 1932 yilda boshlagan. Ammo Yaponiya bilan urush tufayli ish to'xtatilishi kerak edi. Qurilish faqat Mao Szedun davrida yakunlandi.

GESning quvvati 22 ming MVt, yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish esa 100 milliard kVt/soatga yaqin. Stansiyaning uzunligi ikki kilometrdan oshiqroqqa cho‘zilgan, to‘g‘on balandligi esa 182 metrni tashkil qiladi. Ushbu GESni qurish uchun Xitoy hukumati 13 ta shaharni suv ostida qoldirishi va yaqin atrofdagi 1,3 million aholini ko‘chirishga majbur bo‘ldi.

Uch dara GESi nafaqat elektr energiyasi ishlab chiqaradi, balki Yantszi daryosining quyi oqimidagi yerlarni suv toshqinlaridan himoya qiladi. Haqiqatan ham, bunday ofat sodir bo'lgan taqdirda, 300 milliondan ortiq odam suv toshqini zonasida bo'lishi mumkin.

"Yitaipu" GESi. Braziliya va Paragvay chegarasi

Haqiqiy gigant Lotin Amerikasining ikki davlati o'rtasida yashiringan. Stansiyaning qurilishi 1978 yilda boshlangan va bir necha yil o'tgach, birinchi generatorlardan biri ishga tushirilgan. Qudratli Parana daryosi Lotin Amerikasi qit'asining uchdan bir qismi aholisini energiya bilan ta'minlaydi. Ytaipu ning o‘rnatilgan quvvati 14 ming MVt, o‘rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati esa 98,6 mlrd.

GES qurish uchun uzunligi bir yuz ellik metr bo‘lgan kanal qoyalarga teshib, Parana kanali quritilib, o‘zgartirildi. Itaipu to'g'oni dunyodagi eng uzun to'g'onlardan biri bo'lib, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi mashhur Guver to'g'onidan yigirma baravar uzunroqdir. Qurilish uchun maydonni tayyorlash bo'yicha katta ishlar qilindi. Qoyalardagi 150 metrlik kanalni urib yuborgan Parana daryosiga boshqa kanal bo'ylab borishga ruxsat berildi. 1982 yilda daryo yana o'z oqimiga qaytdi. Rekord vaqt – 14 kun ichida Ytaipu suv ombori to‘ldirilgan.

GES Paragvay va Braziliyaning bir qismini elektr energiyasi bilan ta'minlaydi, bu erda 24 million kishi stansiya tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasidan foydalanadi. "Ytaipu" nomi Paranadagi kichik oroldan keyin "tosh ovozi" degan ma'noni anglatadi. Stansiyadagi eng jiddiy avariya 2009 yilda sodir bo'lgan bo'lib, momaqaldiroq oqibatida elektr uzatish liniyalari shikastlangani sababli 50 million braziliyalik va butun Paragvay elektrsiz qolgan.

"Guri" GESi. Venesuela

Guri - Venesuelaning Bolivar shtatida joylashgan kuchli elektr stansiyasi. U Uch dara GESi va Ytaipudan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Stansiya qurilishi 1963 yilda boshlangan. Mamlakatdagi beqaror iqtisodiy vaziyat tufayli Guri qurilishi boshqa shunga o'xshash GESlarga qaraganda ancha uzoq davom etdi. Faqat 1986 yilda bu gigantning turbinalari ishga tushirildi. Ob'ektning kengligi deyarli bir yarim kilometr, balandligi esa 160 metrdan oshadi. GESning nominal quvvati qariyb 10 ming MVtni, o‘rtacha yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish esa 50 milliard kVt/soatdan ortiqni tashkil qiladi.

GESning uzunligi 1300 metrdan, balandligi esa 162 metrdan oshadi. GESning suv ombori umumiy uzunligi 175 kilometrni tashkil etadi. Elektr stansiyasining mashina xonalaridan birining devorlari Karlos Kruz-Diegoning rasmlari bilan bezatilgan. Haykaltarosh Alejandro Otero stantsiya yonida o'z o'qi bo'ylab silliq aylanadigan ulkan kinetik haykal yasadi. Guri GESi Venesuela elektr energiyasining 65 foizini ishlab chiqaradi, shuningdek, Braziliya va Kolumbiya kabi ba'zi Lotin

Amerikasi mamlakatlariga elektr energiyasi etkazib beriladi. Bir kunda Guri to'g'oni uch yuz ming barrel neft energiyasiga teng energiya ishlab chiqaradi.

"Dulles to'g'oni". AQSH

1960 yilda AQShning Oregon shtatida dunyodagi eng yiriklaridan biri hisoblangan gidroelektrostantsiya paydo bo'ldi. GES yaqinida uzunligi ikki kilometrdan ortiq bo‘lgan “Jon Day” nomli to‘g‘on qurilgan. Ushbu gigantning nominal quvvati 11 000 MVt dan ortiq bo'lib, unda ishlab chiqarilgan elektr quvvati nafaqat Oregondagi, balki qo'shni shtatlardagi 800 000 uy uchun etarli. Dalles to'g'oni Kolumbiya og'zidan atigi uch yuz kilometr uzoqlikda joylashgan.

GES qurilishi AQSh armiyasi muhandislar korpusi rahbarligida amalga oshirildi.

Sayano-Shushenskaya GESi. Rossiya

Sayano-Shushenskaya GESi haqli ravishda Rossiyadagi eng kuchli gidroelektrostantsiya hisoblanadi. U Yenisey qirg'og'ida, Xakasiya Respublikasi va Krasnoyarsk o'rtasida joylashgan. Stansiyaga eng yaqin shahar elektr stantsiyasi sharafiga Sayanogorsk deb ataladi. SayanoShushenskaya GES loyihasining birinchi ishlanmalari Ikkinchi Jahon urushidan keyin 50yillarning o'rtalarida Gidroproekt institutining Leningrad filiali tomonidan qabul qilingan. Asosiy ish 1963 yilda Xrushchev davrida boshlangan va 1985 yilgacha davom etgan.

GESning ark-gravitatsion to'g'oni hatto Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. Beton ravoqli to‘g‘on balandligi 242 metr, cho‘qqisi esa bir kilometrdan sal ko‘proqdir. To'g'on ark shaklida loyihalashtirilgan. GESning qo'shimchasi - Yenisey daryosining quyi oqimida joylashgan Mainskiy gidroelektr majmuasi. Uning vazifasi pastki to'siqni tartibga solish, ya'ni gidroelektrostantsiya energiya tizimlarida yuklarni o'tkazganda, Yeniseydagi suv sathining o'zgarishini o'z ichiga oladi.

2009 yilda katta fojia yuz berdi. Elektr energetikasi tarixida birinchi marta yetmish besh nafar gidroelektrotexnik xodimning o'limiga sabab bo'lgan avariya yuz berdi. Stantsiyani qayta tiklash faqat 2014 yildan keyin yakunlandi. Ayni paytda Sayano-Shushenskaya GESining umumiy o'rnatilgan quvvati 6400 MVtni tashkil etadi, o'rtacha yillik ishlab chiqarish 24 milliard kVt/soatni tashkil qiladi.

Nurek GESi. Tojikiston

Tojikistondagi Vaxsh daryosi to‘la va tez oqadi. Va uning aylanma qirg'og'ida dunyodagi eng yirik GESlardan biri qurilgan. Nurek elektr stansiyasining nominal quvvati 3000 MVt dan ortiq. Stansiya qurilishi 1960 yilda boshlangan. Shu bilan birga, stansiyani rivojlantirish va yaratish rejasi 1955 yilda tasdiqlangan. Birinchi ishchi turbinalar 1972 yilda ishga tushirilgan.

Nurek GESi deyarli butun Tojikistonni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Stansiyaning ulkan to'g'oni uch yuz metrdan ortiq balandlikka etadi. GESda diametri o'n metr bo'lgan uchta bosimli tunnel mavjud. Asosiy tunnel uzunligi 450 metrni tashkil qiladi. Gidroelektrik to'g'on 10 kub kilometrgacha suvni saqlashga qodir, to'g'onning sirt maydoni deyarli yuz kub kilometrni, suv kanalining uzunligi esa 70 kilometrni tashkil qiladi. Nurek GESi suvidan zavodga tutash yerlarni sug'orishda ham foydalaniladi.

Tukurui GESi. Braziliya

"Tukurui" deb nomlangan kuchli GES Braziliyada, Tokantins daryosi vodiysida joylashgan. Daryo to‘la oqimli, kema qatnovi mumkin, Amazonka deltasiga quyiladi. Aynan shu suv ombori vodiysida 70-yillarda GES qurish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Qurilish 1970 yilda boshlangan. Stansiyadagi birinchi turbinalar 1984 yilda ishga tushirilgan. GESning nominal quvvati 8000 MVt dan ortiq. "Tukurui" Braziliyaning deyarli yarmini va ba'zi qo'shni mamlakatlarni elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. 1984 yilda ish boshlagan GESning uzunligi 11 kilometr, balandligi 76 metr bo'lgan katta to'g'on bor.

Elektr stantsiyasida Janubiy Amerikada o'xshashi bo'lmagan suv to'kish tizimi mavjud. Rio-de-Janeyrolik olimlar soniyasiga 120 ming kub metrgacha suv o‘tkaza oladigan tizim yaratdilar. GES hatto ba'zi filmlar, masalan, 1985 yilda "Zumrad o'rmon" filmida ham edi. Stansiyaga mingga yaqin ishchi xizmat ko‘rsatadi. "Tukurui" dunyodagi eng ishonchli gidroelektrostansiyalardan biri hisoblanadi, uning butun faoliyati davomida faqat bitta kichik avariya sodir bo'lgan (1992 yilda).

"Cherchill sharsharasi" GESi. Kanada

Kanadaning Nyufaundlend shtatida, mahalliy Cherchill daryosi qirg'og'ida Cherchill sharsharasi deb nomlangan kuchli elektr stantsiyasi mavjud. Shu bilan birga, gidroelektr stantsiyasi hosiladir, ya'ni u bir vaqtlar balandligi etmish besh metrdan ortiq bo'lgan sobiq sharshara o'rnida qurilgan. Sharshara 1970 yildan beri mavjud emas (u sun'iy ravishda drenajlangan). Stansiya qurilishi 1967 yildan 1971 yilgacha amalga oshirilgan. "Cherchill sharsharasi" o'rtacha yillik ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Shimoliy Amerikada birinchi o'rinda turadi.

Cherchill sharsharasi GESi ikkinchi eng katta er osti zaliga ega. Stansiya qurilishida, aksariyat gidroelektrostantsiyalarda bo'lgani kabi, bitta to'g'ondan foydalanmaslik, balki umumiy maydoni 68 kvadrat kilometr bo'lgan maxsus aylanma to'g'on kaskadini yaratishga qaror qilindi. Natijada suv havzasi sezilarli darajada oshdi. Daryoning burilishi qurigan sharshara hududida amalga oshirildi. Va er osti zallari to'g'ridan-to'g'ri qoyalarda joylashgan. Nominal quvvati 7000 MVt dan ortiq bo'lgan GES Kanadaning deyarli uchdan bir qismini elektr energiyasi bilan ta'minlaydi.

"Grand Kuli" GESi. AQSH

Grand Coulee GESi xuddi shu nomdagi tumandagi Kolumbiya daryosi qirg'og'ida joylashgan. Kolumbiya daryosi Kanada chegarasidan oqib o‘tadi va Oregon va Vashingtondan oqib o‘tadi. Daryoning uzunligi bor-yo‘g‘i 2000 metrni tashkil etadi, lekin uning qirg‘og‘ida o‘n to‘rtdan ortiq zamonaviy elektr stansiyalari qurilgan. Ularning eng mashhuri va eng kattasi Grand Coulee elektr stantsiyasidir. Stansiya qurilishi 1943 yilda boshlangan. Stansiya yonida hajmi 11 kub kilometrdan ortiq bo'lgan katta va keng to'g'on yotqizildi. Suv ombori nafaqat stansiyaning ishlashi, balki suv va qishloq xo'jaligi erlari bilan ta'minlaydi. GESning nominal quvvati olti ming MVt dan ortiq. Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha Grand Coulee dunyodagi gidroelektr stansiyalar orasida to'qqizinchi o'rinni egallaydi.

Krasnoyarsk GESi. Rossiya

Krasnoyarsk GESi Rossiyadagi ikkinchi yirik GES hisoblanadi. U Yenisey qirg'og'ida, Krasnoyarsk viloyat markazidan unchalik uzoq bo'lmagan joyda joylashgan. Leningrad loyiha instituti 1956 yilda Yenisey daryosida gidroelektrostantsiyani qurish loyihasini taklif qildi. Krasnoyarsk GESining to'g'oni Sayano-Shushenskaya stansiyasidan kichikroq. GESning quvvati 6000 MVt dan sal ko'proqni tashkil etadi, bu printsipial jihatdan butun Krasnoyarsk o'lkasi va bir qator qo'shni viloyatlarni elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun etarli.

Krasnoyarsk GESining qurilishi mintaqaning iqlimi va ekologiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Maydoni 200 kilometr bo'lgan to'g'on iqlimni yumshoqroq qildi, havo namlashdi va hatto Yenisey muzlashni to'xtatdi. Qurilishning boshida juda ko'p bokira erlar suv ostida qoldi, bir necha o'n minglab aholi ko'chirildi. Ushbu gidroelektrostantsiyaning muhim ajralib turadigan xususiyati Rossiyadagi yagona kema liftidir.

Xulosa: Bugungi kunda GESlar jahon elektr energiyasining 16 foizini ta’minlaydi, shuning uchun ularning butun dunyo uchun ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin. Gidroenergetika bo‘yicha yetakchi davlatlar qatoriga Xitoy, Paragvay, Norvegiya, Braziliya, Kanada, Yangi Zelandiya, Avstriya, Shveytsariya, Venesuela kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Чен СХи, Сзилили А., Рахимов СХ..Х., Махмудов Э.Ж. Водные ресурсы и водоползование в Узбекистане. -Т.: «Плиограф Грооп». 2013.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gidroelektr_stansiya
3. https://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/36038/

ZAMONAVIY YURIDIK TA’LIM ISTIQBOLLARI

Amirov Elbek Egamberdi o’g’li.
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti.
Tel: +998 91 962 02 02

Annotatsiya: Mazkur maqolada O’zbekiston Respublikasida mustaqillik davrida zamonaviy yuridik ta’limning tashkil qilinishi va rivojlantirilishi haqida tahliliy mulohazalar aks ettirilgan.

Kalit so’zlar: yuridik ta’lim, yurisprudensiya, huquqshunoslar, qonun.

Abstract: This article presents analytical comments about the organization and development of modern legal education in the Republic of Uzbekistan during the period of independence.

Key words: legal education, jurisprudence, lawyers, law.

Bugungi kunda jahon miqyosida globalizatsiya va integratsiya jarayonlari ro‘y bermoqda. Bu esa, o‘z navbatida, barcha sohalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni har tomonlama rivojlantirishga imkon yaratadi. Xususan, yuridik ta’lim sohasini isloh qilish borasida 2020-yil 29-aprel kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon yuridik ta’lim sohasida anchadan beri o‘z yechimini kutayotgan masalalarni hal etishda tub burilish yasashga xizmat qilganligi shubhasizdir. Ayni vaqtda farmonda milliy yuridik ta’limning raqobatbardoshligini oshirish, yoshlarimizning yuridik ta’lim olishlaridagi imkoniyatlarini yanada kengaytirish, yuridik ta’lim sifatini xalqaro standartlarga javob beradigan darajaga olib chiqish, umuman olganda, davr bilan hamnafas sifatli yuridik ta’lim, zamon bilan hamnafas huquqshunoslar jamoasini shakllantirish kabi masalalarning qamrab olinganligi e’tiborga molikdir. Biz huquqiy-demoratik davlat barpo etish yo‘lidan dadil odimlayetgan ekanmiz, albatta, bunda yetuk huquqshunos kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borishi tabiiydir.

Shuni ta’kidlash kerakki, har bir demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlat yuksak taraqqiyotga erishmoqchi ekan, bunda, albatta, eng avvalo, xalqaro talablarga javob beradigan yetuk huquqshunoslar, adolatli va insonparvar qonunlarga ehtiyoj sezadi. Xo‘sh, endilikda yetuk huquqshunos kadrlar qanday shakllantirilmoqda, ular qanday nazariya va amaliyot bilan qurollantirilmoqda. Mazkur masalalar va uning yechimi farmonda aniq-ravshan kursatib berilganligi bilan ahamiyatlidir. Eng avvalo, ular halol, pok vijdonli, yuksak vatanparvar va millatparvar bo‘lishlari barobarida mustaqil O‘zbekistonimizning nomini, o‘zbek xalqining qanday millat, qanday xalq ekanligini butun dunyoga tarannum eta oladigan yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan huquqshunos kadrlar bulishi kerak. Shuning barobarida xalqimizning haqiqiy himoyachisi bo‘lib maydonga chiqishlari lozim. Ular xalqimizning ishonchi va tayanchiga aylanishi kerak. Ana shunda davlat va jamiyat taraqqiyoti yuksak bosqichlarga ko‘tariladi.

Umuman olganda, huquq posbonlarining adolat bilan ish yuritishlari, qonun doirasida xalqning manfaatini to‘la himoya qilishlari xalqning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Insonning haq-huquqlari toptalsa, uni qonun bilan hech kim himoya qilmasa, u jamiyatdagi islohotlarga befarq bo‘lib qoladi. Axir amalga oshirilayetgan islohotlarning tub mazmunmohiyati xalqimizning bugungi va kelajakdagi farovon hayoti uchun bo‘layotganligini unutmasligimiz kerak.

Farmonga ko‘ra, Samarqand, Namangan va Termiz davlat universitetlarida yuridik fakultetlarning ochilishi diqqatga sazovor ish buldi. Endilikda yeshlar uchun keng imkoniyatlar ochildi. Huquqshunoslik kasbini egallamoqchi bo‘lgan respublikamiz yoshlarining yuridik ta’lim olishlari uchun teng sharoitlar yaratildi. Yoshlarimiz nafaqat markazda, balki viloyatlarda ham huquqshunoslik mutaxassisligi buyicha ta’lim oladilar. Bu esa raqobatni vujudga keltiradi, raqobat esa yuridik ta’limning yuksalishiga olib keladi. Ayni paytda ko‘zlangan maqsad ham ana shunda.

Hozirgi kunda zamon talablaridan kelib chiqib qaraydigan bulsak, yuridik kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj nafaqat huquq-tartibot organlari tizimi, balki xalq xo‘jaligining turli jabhalari uchun tobora

ortib borayotganligining guvohi bulamiz. Aynan ana shunday hayetiy masalalarning yechimi mazkur farmon doirasida o‘z aksini topganligi ahamiyatga molikdir. Toshkent davlat yuridik universitetida Vasiylik kengashi faoliyati bilan bog‘liq masalalarga ham alohida e’tibor qaratilganligi buning yorqin tasdig‘idir. Vasiylik kengashi zimmasiga qonun hujjatlarida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarida yuridik kadrlarga bulgan joriy va istiqboldagi ehtiyojni chuqur tahlil qilish asosida yuridik kadrlarni taiyorlashga buyurtmani samarali shakllantirishni ta’minlash vazifasining yuklatilishi kengashga bulgan yuksak ishonch bildirilganligidan dalolatdir. Bu esa, uz navbatida, yuksak mas’uliyat demakdir. Endilikda joylarda yuridik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning aniq-ravshan, har tomonlama asosli mexanizmi yaratilmoqda. Qolaversa, mutasaddi tashkilotlar bilan Toshkent davlat yuridik universiteti o‘rtasida uzaro tizimli hamkorlik aloqalari mustahkamlanib boradi. Yuridik kadrlarning sifat darajasi yuqori bosqichga ko‘tarilib, ochiqlik, shaffoflik asosida yuqori malakali yuridik xizmat tizimi vujudga keladi.

Shuningdek, farmonga ko‘ra, TDYUUda Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi yuridik ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilganligidan dalolatdir. Endilikda O‘zbekistonda taiyorlanayotgan huquqshunoslar nafaqat mamlakatimiz doirasida, balki xalqaro miqyosda uz o‘rniga, nufuziga ega buladi. Xorijiy davlatlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar tizimini kengaytirish hamda yetakchi davlatlarning xalqaro huquq sohasidagi boy tajribalarining ilg‘or innovatsion g‘oyalarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi globallashuv davrida xalqaro huquq sohasida rivojlangan davlatlarning yutuqlari bilan hamkor bulish va uni amaliyotda qo‘llash davr talabidir. Bugungi shiddatli, tezkor kechayotgan globallashuv davrida xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlar huquqi va huquqiy tizimlarining qiyesiy tadqiqotlari natijalarini hisobga olgan holda, xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda uni hayotda qo‘llashning nazarda tutilganligi maqsadga muvofiqdir. Endilikda xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik buyicha yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini xalqaro tajribalar almashuvi asosida yaratish mexanizmi kengayadi. Ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning imkoniyatlari ham rivojlanadi. Bu esa xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik sohasida yangidan-yangi istiqbollarga erishishga olib keladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan yuridik ta’lim sohasidagi hamkorlik borasida keng yo‘llar ochildi. Endilikda Toshkent davlat yuridik universitetining xalqaro miqyosdagi nufuzi ortib, yuridik ta’limning sifati yuqori bosqichga kutarilib borishi shak-shubhasizdir. Bu esa, o‘z navbatida, Toshkent davlat yuridik universitetining xorijiy davlatlar nufuzli yuridik dargohlari bilan yaqin aloqalarining kengayib rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Mazkur farmonning yana bir muhim jihatiga e’tibor qaratadigan bulsak, Uzbekiston Respublikasi fuqarolarini TDYUU magistraturasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlari orqali qabul qilish, bazaviy oliy yuridik ma’lumotga ega bulgan shaxslar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy, sirtqi va kechki o‘qitish dasturlarini joriy etish, shuningdek, bazaviy oliy yuridik ma’lumot hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi markaziy organlarida yuridik yo‘nalish bo‘yicha kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan rahbar xodimlarni magistraturaga ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy, sirtqi va kechki o‘qitish dasturlari bo‘yicha o‘qish uchun qabulini tegishli davlat organining birinchi rahbari tavsiyasiga ko‘ra, kirish test sinovlarisiz, to‘lov-kontrakt asosida va qabul parametlaridan tashqari amalga oshirishning belgilanganligi ahamiyatga molikdir.

Endilikda yurisprudensiya buyicha bakalavr diplomiga ega bulgan fuqarolarimizning yuqorida qayd etilganidek ishdan ajralmagan holda magistratura yo‘nalishida ta’lim olishlariga imkoniyat yaratildi. Bundan ko‘zlangan maqsad ularning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishdir. Yana bir muhim jihati shundaki, ular masofaviy, sirtqi va kechki o‘qitish dasturlari bo‘yicha o‘qishni o‘zlarining xohish-istaklariga ko‘ra erkin tanlaydilar. Eng

muhimi, yuridik ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoj ta’minlanadi. Bu esa ular uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilganligidan dalolatdir.

Farmonda belgilanganidek, “Yurisprudensiya" yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriatni imtiyozli tugatgan bitiruvchilarni TDYUU magistraturasiga test sinovlarisiz, to‘lov-kontrakt asosida, o‘qish qiymatining 50 foizini to‘lab, qabul parametrlaridan tashqari, o‘qishni tugatgandan so‘ng TDYUU, yuridik fakultetlar, yuridik texnikumlar va TDYUU qoshidagi litseyda kamida uch yil uzluksiz ishlash majburiyatini yuklagan holda qabul qilish tartibi ham joriy etilganligi e’tiborga molikdir. Endilikda “Yurisprudensiya" yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriatni imtiyozli tugatgan bitiruvchilarning TDYUU magistraturasida uqishlarini davom ettirishlari uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratildi. Imtiyozli tugatganlarning obro‘-e’tibori o‘z urniga qo‘yildi. Ta’lim olayotgan talabalarning esa imtiyozli bitirish uchun bor kuch va bilimlarini safarbar etishlariga imkon tug‘ildi. Qolaversa, bundai rag‘bat muhiti sog‘lom raqobat, sog‘lom raqobat esa ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

Prezidentimizning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan 2020 iil 29 aprelda qabul qilingan “Uzbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmonining bajarilishi borasida bir qator normativhuquqiy hujjatlar qabul qilinib, yuridik ta’lim tizimiga keng tatbiq etib kelinmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 iil 26 avgustdagi “Toshkent davlat yuridik universiteti magistraturasiga o‘qishga qabul qilish tartibini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida"gi qarori va shu qaror asosida Toshkent davlat yuridik universitetida ta’limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi hamda Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida ta’limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish tartibi to‘g‘risida tasdiqlangan nizomlarni ta’kidlab o‘tishimiz mumkin.

2021 yil 10 iyunda Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini jorii etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori qabul qilingan. Shuni mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, mazkur qarorga ko‘ra, 2021-2022 uquv yilidan boshlab, Toshkent davlat yuridik universitetida ta’limning kredit-modul tizimi to‘liq jorii etildi. Darhaqiqat, mazkur qarordan kuzlangan asosiy maqsad yuridik ta’lim sohasiga yuridik ta’lim tizimining zamonaviy yutuqlarini keng tatbiq etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda yuridik ta’limda kator istikbollarga erishilmokda. Xususan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish bunga yorqin misol bo‘la oladi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi "O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5987son farmonida elektron hujjat almashinuviga o‘tish va o‘quv jarayonini raqamlashtirish, shu jumladan, mashg‘ulotlar jadvalini shakllantirish, imtihonlarni o‘tkazish, baholash, talabalar reytingini shakllantirishni nazarda tutuvchi "Elektron universitet” (E-Uiversity) loyihasini amalga oshirish belgilandi.Mazkur loyihaning universitetga to‘liq joriy qilinishi o‘quv va ilmiy jarayonni avtomatlashtirish imkonini beradi. Hozirgi kunda mazkur loyihani Toshkent davlat yuridik universitetida joriy etish bo‘yicha "Elektron universitet" (E-University) markazi tashkil tilib, tizimni ishga tushirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Yuqoridagi farmonga muvofiq, universitetda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv ta’lim uslublari (EMibar elektron platformasi), talabalarning mustaqil o‘quv va amaliy faoliyati (keys-stadi, kouching va boshqalar)ni rivojlantirish orqali amaliyot o‘tash, shuningdek, o‘qituvchi va talabaning o‘zaro masofaviy hamkorligini (vebinar texnologiyalar) ta’minlash, ularda innovatsion va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga mo‘ljallangan modulli, obyektga yo‘naltirilgan va dinamik ta’lim muhitini (Moodle) keng joriy qilish belgilanib, bu bo‘yicha oliygohda amaliy ishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyeyov raisligida 2021 yil 16 iyunda oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor o‘tkazildi va unda sohadagi quyidagi 4 ta ustuvor vazifalar belgilab berildi: birinchisi - oliy ta’lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish; ikkinchisi - o‘quv jarayonini bozor talablariga

moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta’minlash va talabaning o‘z ustida ishlashi uchun muhit yaratish; uchinchisi - oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish; to‘rtinchisi - professoro‘qituvchilar va talabalar uchun qog‘ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish uchun olii ta’lim muassasalariga akademik va tashkiliy boshqaruv buyicha mustaqil qarorlar qabul qilish vakolatining berilishi e’tiborga molikdir. Shuningdek, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyeyov tomonidan ushbu yig‘ilishda tegishli mutasaddilarga davlat ta’lim standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, barcha oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini kredit modul tizimiga utkazish buiicha topshiriqlar berildi. Mazkur islohotlarning mazmun-mohiyati zamonaviy ta’lim jarayonlarini hayotga jadallik bilan tatbiq etishdan iborat. Huquqiy demokratik davlatning tayanchi ham, suyanchi ham adolatli qonunlardir, qonun ustuvorligini ta’minlashga erishishdir. Shu ma’noda olib qaraganda, inson huquq va erkinliklarini to‘la ta’minlashda, hamma narsa inson uchun, uning manfaatlari uchun degan ulug‘vor g‘oyaning amalda ro‘yobga chiqishida qabul qilinayotgan insonparvar qonunlarga har jihatdan bog‘liq ekanligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, qayd etilgan islohotlar milliy yuridik ta’limga ilg‘or xorijiy tajribani joriy etgan holda, uni yanada rivojlantirish, o‘z navbatida, kelgusida zamonaviy fikr va bilimga ega bo‘lgan kadrlarni yetishtirish, yurisprudensiya sohasi va yuridik fanlarni takomillashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha choratadbirlar to’g’risida"gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4802181
2. Karimov I. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. -Toshkent: Ma’naviyat 1998. 47-91 betlar.
3. O‘zME.Birinchi jild.Toshkent, 2000. 126-129 betlar.
4. Yuridik fanlar axborotnomasi. 112-117 betlar.
5. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi.142-146 betlar.

THE ORIGIN AND CLASSIFICATION OF REALIA THEORY

Mahmadaminov Mirqosim
English teacher at
Karshi institute of irrigation and agrotechnologies
mirqosim.17171@gmail.com
Esonov Behruz
Student at Karshi institute of irrigation and agrotechnologies
besonov165@gmail.com

Abstract: This article explores the origin of realia and classification of it. In the study of the national-cultural content of a language, features of social organization, customs, art, science, literature, everyday life and epos many scientists attached much importance to the realia. The question of relations between culture in the broadest sense of the word and the information that is contained, stored and conveyed in the words represented as language elements, since olden times has attracted not only linguists, but also representatives of other sciences. All features of the life of the people such as natural conditions, geographical location, historical development, and social structure, the

tendency of social thought, science, and art are necessarily reflected in the language of the people is explained and learnt.

Key words: *realia, household realia, art and culture, realia of culture and art, language elements.*

Every language reflects the phenomena and processes taking place in the world, as well as specific objects and processes that exist in every nation on the territory of its residence. Although the vision of the world is equal among all the nations, however in the culture of every nation, there are concepts, phenomena, objects, that are inherent only to this certain nation and connected with its historical and geographical, socio-political, and other conditions of existence. In the study of the national-cultural content of a language, features of social organization, customs, art, science, literature, everyday life and epos many scientists attached much importance to the realia . The question of relations between culture in the broadest sense of the word and the information that is contained, stored and conveyed in the words represented as language elements, since olden times has attracted not only linguists, but also representatives of other sciences. All features of the life of the people such as natural conditions, geographical location, historical development, social structure, the tendency of social thought, science, and art are necessarily reflected in the language of the people. Therefore, we can say that the language is a reflection of the culture of any nation, it bears a national-cultural code of a particular nationality. In every language there are words meanings of which reflect the relationship of language and culture, which is called the cultural component of the semantics of language units. These words are primarily realia words.

The word “realia” comes from medieval Latin, in which it originally meant “the real things”, i.e. material things, as opposed to abstract ones. Currently, in the English language teaching, the word “realia” is usually used to denote objects or activities relating to the real life (MWOD). However, the notion of realia in translation theory means culturally marked words and expressions, which denote notions peculiar to one culture and non-existing in other cultures, therefore it is difficult, if possible at all to translate them into other languages. The term in this sense was first coined by Bulgarian translators S. Vlahov and S. Florin who defined realia as words (and expressions) representing nominations of objects, concepts, typical phenomena, a particular geographic place, social-historical peculiarities of some people, nation, country, tribe, that for this reason carry a national, local or historical coloring; these words do not have exact equivalents in other languages (Влахов, Флорин, 2006). Later, the term “realia” was used in the works by many famous linguists such as Barkhudarov L.S., Komissarov V.N., Fedorov A.V., According to the definition of O. S. Akhmanova, realia are “variety of factors, being studied by foreign linguistics, such as state structure, history and culture of the specific nation, linguistic communication between native speakers, and etc., in terms of their reflections in the language” [1, p. 482]. However, some scholars cosider realia to be a particular category of “non-equivalent vocabulary”. E. Vereschagin and V. Kostomarov (1980) define “non-equivalent vocabulary” as “words and word-combinations used to denote the notions of a nation which are unfamiliar to another one. They are associated with specific cultural elements existing within a particular culture but those that cannot be found in another” (Верещагин, Костомаров, 1980, p. 53). In any case, both terms “realia” and “non-equivalent vocabulary” denote words that are as bearers of the national and/or historical colouring, usually do not have equivalents in other languages, and therefore can not be translated “on the common ground”, requiring a special approach.

Classification of Realia

As the survey of the linguistic literature has shown, there are different approaches to realia/non-equivalent vocabulary classification.

The Bulgarian translators S.Vlahov and S.Florin classify the following categories of realia:

1. Geography

– Physical geography: fjord, mistral, steppe, tornado, tsunami.

– Geographic objects tied to man’s activity: polder.

– Endemic species: kiwi, koala, sequoia, Abominable Snowman.

2. Etnography

– Everyday life: paprika, spaghetti, empanada, cider, sauna, kimono, sari, sombrero, jeans, igloo, bungalow.

– Work: carabinieri, concierge, machete, bolas.

– Art and culture: kozachok, tarantella, banjo, gong, commedia dell'arte, harlequin, bard, geisha, Ramadan, easter, Santa Claus, werewolf, vampire, Mormon, quaker, dervish, pagoda, synagogue.

– Ethnic characterizations: cockney.

– Measures and money: mile, kilometer, hectare, gallon, perch, ruble, lira, peseta, agora, greenback.

3. Politics and society

– Administrative divisions: region, province, department, state, county, canton, principality, favela, bidonville, arrondissement, souk, promenade.

– Organs and functions: forum, Knesset, duma, senate, chancellor, tzar, shah, pharaoh, vizier, ayatollah, satrap.

– Political and social life: Ku Klux Klan, slavophile, lobbying, lord, Bolshevik, samurai, union jack, fleur-de-lis.

– Military realia: cohort, phalanx, arquebus, AK-47, cuirassier. [4, p. 52]. P. A. Newmark embraces the following areas:

- Ecology. Words in this category include geographical features specific to a particular culture: flora, fauna, land shaft, winds, islands, hills;
- Material culture: a) food; b) clothes; c) houses and towns; d) transport;
- Social culture: a) work; b) leisure;
- Organizations, customs, activities, procedures, concepts: a) political and administrative; b) religious; c) artistic;
- Gestures and habits (Newmark, 1988, p.95)

Another scholar V.V. Vinogradov suggests the following classification:

I. Household realia (house, clothes, food and drink, tools of labour, currency and units of measurement, musical instruments, national holidays and customs);

II. Ethnographic and mythological realia

III. Nature realia (flora, fauna, lad shaft, relief);

IV. Social and political realia (names of organizations, parties, classes, institutional and legislative power);

V. Onomastic realia (anthroponyms and toponyms);

VI. Associative realia – vegetative symbols, animalistic symbols, colour symbols, allusions.

Classification of Realia by D.U. ASHUROVA and M.R. GALIEVA

D.U. ASHUROVA and M.R. GALIEVA states that "culture-specific vocabulary/realia present national-cultural information concerning lifestyle, religion, mentality, ethnography, geography, administrative organization, social and political systems, values, manners, behavioral patterns of a particular nation. They are inseparable part of a national world picture of a certain linguoculture and demonstrate national-cultural specifics of a particular nation. It can be vividly illustrated by the analysis of English and Uzbek realia." They suggests the following categories of realia:

I. Ethnographic realia

Household realia:

a) food and drinks:

Engl.: muffin, pudding, English breakfast, cobbler, beef Wellington, crumble, faggots, kippers, crumpets, jellied eels, toffee, butter-scotch, toast, hot-dog, scone, maple syrup, the sherry,

cooked ham, Irish stew, brandy, Scotch whisky; Uzb.: sumalak, ayron, moshxo`rda, palov, norin, xasip, xalim, cho`poncha, jiz, go`ja, parvarda;

b) clothes, shoes, decorations, headdress:

Eng.: kilt, bowler hat, brogue shoes, garter, parka, jeans, sporran, moccasins, stockings with garter flashes, riding-cloak, jack-boots, leine (shirt), trews (trousers); tweed jacket; Uzb.:

jiyak, nimcha, chapon, rumcha, yaktak, lozim, kalish, paranji, qalpoq, mahsi, do`ppi;

c) types of residence, kitchen utensils, household items:

Eng.: fireplace, plug, knocker, thatched cottage, PayPoint key, Pyrex, three-pin plug, chalet, ranch, trailer, walk-in-kitchen, walk-in-closet, detached house; Uzb.: sandal, tokcha, tandir, xontaxta, ko`rpacha, joypush, lulabolish, taxmonpush, chimildiq;

d) realia, indicating local institutions/establishments

Eng.: pub, takeaway, drive-in, motel, boatel, drillroom, drugstore, Wool-worth's or cent stores; Uzb.: choyxona, mahalla;

e) realia, indicating the vehicles and those who govern them

Eng.: cab, double-decker, couch, stagecoach, roadster, pullman car, roomette, couchman, hackney-coach, brougham, hansom; Uzb.: aravakash, arava, samarchi;

f) forms of address:

Eng.: Lord, Mister, Miss, Missis, sheriff, duke, doctor, buddy; Uzb.: bekacha, qoqindiq, yanga, checha, o`rgilay, aylanay, bibi;

Realia denoting labour and tools of labour: a) working staff;

b) tools of labour;

Eng.: professional queuer, bed warmer, pet food taster, waterslide tester, the ravenmaster (in the Tower), pet psychologist, Befeater, golf ball driver, butler (chief male servant), bookmaker, carhop, hash house, cowboy, valet, busboy, groom, redcap, caddy, rain belter; foot guard, yeomen, sabbath-hours; Uzb.: qalam qoshi, degrezlik, maxsido`z, zarduslik, kuzgar, do`ppido`z, ketmon, tesha;

Realia of culture and art: a) music and dance

Eng.: blues, jazz, Limericks, ragtime, Auld Lang Sune, Maypole dance, Morris dance, hoodening, swing, rock-and-roll; Uzb.: karnay- sunray, baxshi, tanovar, shoshmaqom, omonyor, lapar, tarona, yor-yor, alla, andijon polkasi;

b) musical instruments

Eng.: bagpipe, banjo, harp, triple, warpipes, whistle, fiddle, pibgorn, crwth (Welsh);

Uzb.: doira, karnay, sunray, nay, rubob, sato, chanqovuz;

c) folklore

Eng.: Beowulf, Robin Hood, Browney, Little John, King Arthur, Camelot, Lady Godiva, Jack the Giant Killer, Jack O'Kent, the monster of Glamis, Paul Bunyan; Uzb.: Siyovush, Afrosiyob, Nasriddin afandi, Alpomish, Barchinoy, Yusuf va Zulayho;

d) theatre and theatrical performances

Eng.: The Globe, Broadway, London Coliseum, Piccadilly Theatre; Hamlet, Pigmallion, Twelfth Night, the School of Scandal; Uzb.: Chimildiq, Maysaraning ishi, Sohibqiron Temur, Iskandar, Tumaris, Dilorom;

e) art and artistic objects:

Eng.: toby jug (a beer mug in the form of a stout old man wearing a three-cornered hat); oak swill basket (made using cleft oak which has been boiled and split further by hand into thin strips before been woven around a hazel ring); Uzb.: suzana, atlas, ruidjo, belbog`, zarchapon, iroqi, beshkashta-gilam;

f) artists and singers:

Eng.: the Beatles, the Rolling stones, John Lennon, Amy Winehouse, Paul McCartney, Elton John; Uzb.: Tamara Xanum, Mukarram Turg`unboyeva, Abror Xidoyatov, Shukur Burxonov, Botir Zokirov, Yalla, Yunis Rajabiy;

g) customs, rituals

Eng.: Guy Fawkes Night, Twelfth Night and Epiphany, Ascot Ladies Day, Straw Bear, Lent, Pancake day, Notting Hill Carnival, Maundy Thursday, Easter bunny, Easter basket, Bonfire Night, Valentine's Day, Beggars Night, Ground-hog Day, Candlemas Day; Uzb.: beshik to`y, sabzi tug`rar, sunnat to`y, non sindirish, dam solish, mavlud;

h) holidays and games

Eng.: May Day, Boxing Day, the Queen's birthday, Christmas, Easter, Thanksgiving Day, Simon says (game), Limerick, Clementine, pop-goes-the-weasel, scavenger hunt (game);

Uzb.: Navruz, Hosil bayrami, ko'pkari, kurash, oq terakmi-ko`k terak;

i) mythology

Eng.: dwarfs, ogre, Fairy Queen, Bean Nighe, Elves, Gremlin, Lantern man, Church grim, Bogeyman, boggart, Dearg-Due, gwillgy; Uzb.: humo, semurg`, jin, pari, alvasti, Chilton, dev;

j) religious directions and their followers

Eng.: baptism, Presbyterian, puritan, Protestantism, Mormons, Young Men's Christian Association; Uzb.: Sufi, darvesh, tasavvuf, kubraviya, yassaviy, qodiriya, mudir, shayx, pir;

Measures and money: a) currency;

b) units of measurement;

Eng.: pound sterling, penny, pence, sixpence, shilling, dollar, a nickel, a dime, foot, inch, ounce, mile, gallon, guinea, yard, hand, pint, barrel, gallon, chain; Uzb.: so`m, tanga, tiyin, tanob, chaqrim, qarich; II. Geographical realia

a) geographical and meteorological objects;

Eng.: prairie, fjord, sierra, tidewater, cordillera, canyon, coulee, bald, mesa, tidelands, sun belt, tornado, cyclone, tsunami; Olympic mountains; Uzb.: taqir, tuqay, yulg`in, Chimyon,

Zomin;

b) endemic realia (flora and fauna peculiar only to a particular region)

Eng.: coyote, sequoia, buffalo, kangaroo, prairie chicken, grizzly, opossum, skunk, Carolina/mourning bird, buck, caribou, prairie dog, rainforest, Western hamlock, canoe birch, Douglas fir, bristlecone pine, Sitka spruce (types of trees),wiregrass, bush rat, bush sparrow, bush titmouse, coppice-wood, plane-tree; Uzb.: saksovul, marxur, jayron;

c) geographical objects connected with human activity

Eng.: cyclone cellar, levee, Stonehenge, Fullham road, bush field, federal range, Uzb.: ariq, jilg`a;

III. Realia that reflect social and political issues

Realia of administrative-territorial organization: a) administrative-territorial units:

Eng.: county, hitch-town, up-town, downtown, city hall, metropolitan county, subdistrict, municipality, plantation, borough (boro), shire, court-yard, promenade, hick town, cow town; Uzb.: tuman, viloyat, qishloq xo`jaligi, fermer xo`jaligi;

b) settlements, parts of settlements, architectural structures:

Eng.: Stonehedge, Big Ben, British National Museum, Westminster Abbey, London Coliseum; Tower Bridge, Windsor Castle, Cambridge University; Uzb.: Registon, Ark, Go`r-Amir, Bibi-xonim, Oq Saroy, Al-Buxoriy, Fayoztepa, qishloq, ovul;

c) authority and executive power:

Eng.: county board, mayor, city council, Scotland Yard; Uzb.: hokim, oqsoqol, mahallakom;

Social and political realia:

a) political organizations and executives

Eng.: House of Common, House of Lords, Tory, Democratic Party, Congress, the Senate, Member of Parliament, Congressman, House of Representatives, backbencher, ranking member, senior senator, lobbyist, White House Office; Uzb.: Oq uy, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis, hokimiyat, mahalla;

b) patriotic and social organizations

Eng.: Peace Corps, John Birgh Society, Young Men's Christian Association, Ku-Klux-Klan, Red Cross; Uzb.: Yoshlar Ittifoqi, Xotin-qizlar qo`mitasi;

c) social movements and their representatives

Eng.: Boy Scouts, Camp fire Girls, Pearly kings and queens, hippies, bikers, Rotarian;

Uzb.: jadidlar, yosh fidoiychilar otriyadi, hasharchilar;

d) titles, degrees, addresses

Eng.: sheriff, marshal, dutch, lord, peer, duke, Your Higness; Uzb.: janob oyiylari, amir, bek, xon;

f) signs and symbols that reflect social and political order

Eng.: Union Jack, the Great Seal of the United States, American eagle, Stars and Stripes, magnolia (symbol of Louisiana); sunflower (symbol of Kansas), redwood (California); Uzb.:

Humo, Semurg`, yarim oy, paxta ko`chati; **Onomastic realia, especially symbolic** a) Anthroponyms:

• Eng.: Robin Hood, Sherlock Holmes, Dorian Grey, Scarlett O'Hara, Tom Sawyer, Huckleberry Finn, Rockefeller, Santa Klaus, Margaret Thatcher, Robinson Crusoe, Charlie Chaplin, Florence Nightingale, Peter Pan; Uzb.: Farmon bibi, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Alpomish;

b) Toponyms:

Eng.: Downing Street, Scotland Yard, Baker Street, the City, the Hill (the place where American Congress is situated); White House, House of Parliament; Uzb.: Registon, Mustaqillik Maydoni, Oq uy, Oq Saroy, Qirq qiz.

CONCLUSION

This research paper investigates one of the basic themes in Linguaculturology, which is considered to be very essential in the process of linguistic communications. It is crucial to know the meaning of a word while speking in foreign language to express the idea complately and clearly. In this case, the significance of studying realia and doing futher research on this topic is one of the biggest issues on Linguaculturology. On the other hand, the investigation on this theme allows us to see the various aspects of realia and compare the different attitudes to the culture in the investagted language. According to S.Vlahov and S.Florin' approach for realia categories, three groups of realia are proposed to define non-equivanent words. Futhermore, another scholar V.V. Vinogradov suggests six big sections of realia. It should be stressed that despite different approaches to the classification of culture-specific vocabulary, they complement each other and embrace all spheres of life including political, social, historical, cultural, geographical, ecological, etc. isssues.

The second chapter of this paper is devoted to the practical analysis of national-cultural specifity of realia in the two stories respectively in English and Uzbek lanugages. These two stories helped to indicate the differences of the two cultures and showed the attitudes for the realia. In English language there is not so comman realia in Household items as many as in Uzbek culture. This might be because English is International language and has a huge resourse of words to express the same word with other ones. However, there are many realia related to political and administrative system in English whereas in Uzbek culture realia concerning with political life is not common and the limit of words may be difficult to donate a wide range of political expressions in Uzbek. The classification and examples of realia and analysis of them with the help of stories are well organized. This research paper has reached the aims and the analysis of realia in context will provide a great deal of illustrations for further investigations in Linguaculturology.

References:

1. D.U. ASHUROVA and M.R. GALIEVA "CULTURAL LINGUISTICS'' Toshkent 2019.
2. Yule, George. Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 1998.
3. Mucina Nadira Meyramovna ''Filologiya, lingvistika'' 2017
4. O'TKIR HOSHIMOV ''URUSHNING SO'NGGI QURBONI'' 1967

5. Searle, John R. Expression and meaning. Cambridge: Cambridge University Press, 1 979.
6. Tannen, Deborah. Gender and Discourse. New York: Oxford University Press, 1994.
7. Wardhaugh, Ronald. An Introduction to Sociolinguistics. Oxford: Blackwell, 1992.

2019 VA 2020-YILLARDA HUDUDLARNI IQTISODIY-IJTIMOIY RIVOJLANTIRISHDA MAHALIY DAVLAT HOKIMIYATINING O‘RNI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Yoqubov To‘ychi
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Qashqadaryo viloyati filiali rahbari o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2019 va 2020-yillarda hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda mahaliy davlat hokimiyatining o‘rni (Qashqadaryo viloyati misolida) haqida so‘z boradi. Muallif arxiv ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida 2019 va 2020yillarda hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda mahaliy davlat hokimiyatining o‘rni (Qashqadaryo viloyati misolida) bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: 2019 va 2020-yillar, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, mahaliy davlat hokimiyati, Qashqadaryo viloyati.

Abstract: This article talks about the role of local government in the economic and social development of regions in 2019 and 2020 (in the example of Kashkadarya region). Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the role of local government in the economic and social development of regions in 2019 and 2020 (in the example of Kashkadarya region) based on available scientific literature.

Keywords: 2019 and 2020, economic and social development, local government, Kashkadarya region.

Mustaqillik mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga rahbarlik sohasidagi faoliyati samaradorligi, uning mamlakat ijtimoiyiqtisodiy hayotidagi o‘rni va rolining oshib borishini taqozo qiladi.

Zero “Joylarda vakillik va ijro xokimiyati organlarini tuzishdagi asosiy maqsad, birinchidan, shu joylarda davlat organlarini tuzishda aholining ishtirokini ta’minlash, ikkinchidan, mahaliy ahamiyatga ega masalalarni bamaslahat, ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish, uchinchidan, ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan mahalliy miqyosda nazorat o‘rnatish“dir.

Muhim vazifa - hokimlaning ijro va vakillik hokimiyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida ajratib qo‘yish bilan bog‘liq. Hokimlarning ham mahaliy kengashlarga ham ijro hokimiyatiga rahbarlik qilishi rivojlanayotgan davlatlarga xos demokratik prinsiplarga mos keladi, deb bo‘lmaydi. Hammaga ma’lumki, hokimlar hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan mahaliy kengashlarga hisobotlar taqdim etadi. Kengashlar esa o‘z o‘rnida tegishli qarorlar qabul qiladi.

Bugungi kunda mahaliy hokimiyat organlari davlat siyosatining hududlardagi ijrosini ta’minlovchi eng muhim tuzilma sifatida maydonga chiqdi. Xususan, mahaliy hokimiyat organlari aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishga, hududning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda rivojlanishiga yo‘naltirilgan hududiy siyosatni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi organ bo‘lib qoldi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘grisida”gi qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘z hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda keng doiradagi masalalarni hal qilish vazifasi yuklangan.

Masalan, qonunning 24-moddasida xalq deputatlari Kengashlari hokimning taqdimiga muvofiq hududni rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlaydi, deb belgilangan bo‘lsa, qonunning 25-moddasida viloyat, tuman va shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini xalq deputatlari Kengashi tasdig‘iga hokim tomonidan taqdim qilinadi, deb ko‘rsatilgan.

Bulardan ma’lum bo‘layaptiki, mahalliy davlat hokimiyati ijroiya hamda vakillik organlarining u yoki bu hududni rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarini qabul qilishi va ijro etilishini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy hamda nazorat faoliyati, ularning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rahbarlikni ta’minlovchi asosiy omillaridan, deb hisoblash kerak.

Shu nuqtai nazardan Qashqadaryo viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda mahaliy davlat hokimiyatining roli muhim ahamiyatga ega. Viloyatning iqtisodiy o‘sish sur’atlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yilda Qashqadaryoda sanoat ishlab chiqarishning hajmi oldingi yilga nisbatan 94,4 fozini tashkil qilgan, ya’ni viloyatda bu muhim tarmoqda 2018 yil bilan taqqoslaganda 5,6 fozilik pasayish kuzatilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shunday tabiiy resurslarga boy hudud uchun mazkur salbiy tendensiya boshqaruvni to‘g‘ri va samarali tashkil etishga ham dahldor ekanligi, nafaqat xomashyo, nafaqat resurs balki inson omili, boshqaruv uslubiyati bilan ham chambarchas bog‘liqligidan dalolat beradi.

2018 yil yakuni bo‘yicha vohada mazkur sohada ishlab chiqarish hajmi 20,5 trln so‘mga yetganligini inobatga olsak, bunday ortga chekinish viloyat va butun Respublika iqtisodiyotiga qancha tushganligini anglash qiyin emas.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlarga qaraganda 2019 yil yakuni bo‘yicha O‘zbekistonning barcha hududlarida sanoat ishlab chiqarishning xajmi 100 foizdan yuqori bo‘lgan, ya’ni iqtisodiyotning mazkur tarmog‘ida o‘sish kuzatilgan. Masalan, Andijon viloyatida ushbu ko‘rsatkich 114,7 fozi, Namangan va Xorzam vioyatlarda mos ravishda 114 va 111,7 fozi, Toshkent shahrida esa 11,1 foizga yetgan.

Sanoatdagi o‘sish sur’ati bo‘yicha yetakchilar safidan joy ololmay ortda qolgan hududlar ro‘yxatiga kirgan Navoiy viloyatida 104,5 foizlik, Sirdaryo viloyatida esa 102,4 fozilik ko‘rsatkich qayd etgan.

Qashqadaryo sanoat sohasida 2019 yilda pasayish kuzatilgan. Xususan viloyatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan paxta tolasi hajmi 118,4 ming tonnadan 46,9 tonnagacha, o‘simlik yog‘i 23,2 ming tonnadan 9,3 ming tonnagacha, plastmassa quvurlari ishlab chiqarish hajmi 4739 tonnadan 4495 tonnagacha, alkogol ichimliklar 2,9 million lirtdan 2,6 million litrgacha kamaygan.

1991 yilda yurtimizda tayyorlangan paxta tolasining atigi 7 foizi o‘zimizda qayta ishlangan bo‘lsa, 2016 yilda bu ko‘rsatkich 40 fozidan oshiqni tashkil etgan. 2020 yilda esa bu ko‘rsatkichni 100 foziga yetkazish talabi qo‘yilgan bir vaqtda Qashqadaryoda bu ko‘rsatkich maqtagulik bo‘lmagan.

2010 yilda O‘zbekiston 1,5 milliard dollarlik paxta tolasi eksport qilgan bo‘lsa, 2015 yilda bu raqam 736 million dollar, 2018 yilda esa 222 million dollarni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va boshqa qator huquqiy hujjatlar asosan, bu borada tegishli dasturlar, yo‘l xaritalari tasdiqlanib, yuzlab tolani qayta ishlash quvvatlari barpo etildi, texnologik eskirgan korxonalarda modernizatsiya ishlari bajarildi.

Respublika miqyosida mahalliy hokimliklar boshqaruv tuzilmasining yanada takomillashtirilishi, iqtisodiyot va agrar sohaga mas’ul hokim o‘rinbosarlari vazifa va vakolatlari qayta ko‘rib chiqilishi, lavozim majburiyatlari va javobgarligi aniq belgilab qo‘yilishi oqibatida Qashqadaryoda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda bir qator ijobiy natijalar qayd etildi.

Xususan, birgina Shahrisabz tumanidagi “Oqsaroy tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, modernizatsiya ishlari, yangi loyihalarning yo‘lga qo‘yilishi natijasida korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati ham, salmog‘i va turi ham ko‘payib bordi.

2019 yilda Germaniyadan 5 million 310 ming yevroga ip kalava ishlab chiqarish jarayonini avtomatik nazorat qiladigan hamda mahsulot sifatini yanada yaxshilash imkonini beradigan texnologiyalarni xarid qilingan. Natijada, ish unumdorligi ortib, yana 40 ta yangi ish o‘rini yaratilgan.

Shuningdek, korxonaning tikuvchilik sexi uchun Germaniyaning “Maiyer” kompaniyasidan 1 million 750 ming yevro evaziga yangi uskunalar olib kelingan. Natijada sex faoliyati kengayib, bu yerda yana 50 nafar kishi uchun ish o‘rni yaratildi. Shu bilan bir qatorda, bu kabi loyihalarning yo‘lga qo‘yilishi natijasida korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortib, iqtisodiy imkoniyatlari yanada kengayib bordi.

Ta’kidlab o‘tish joyizki, bugungi kunda mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy qilish maqsadida sohada faoliyat olib borayotgan korxonalar oldiga ishni klaster usulida tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Xususan, 2018 yilda yurtimizda 15 ta, 2019 yilda 74 ta tekstil korxonasi 88 taga yetkazildi. Bunda 3 million tonnadan ortiq paxta hosilining barchasi klasterlar tomonidan yetishtirish rejalashtirilgan.

Ayni paytda “Oqsaroy tekstil” korxonasi ham Qamashi, Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlari hududidan 22 ming gektar yerda xomashyo yetishtirishni boshlagan. Korxona tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini yanada rivojlantirish, xomashyo yetishtirish ko‘lamini yanada oshirish maqsadida 20 dan ortiq haydov va chopiq traktorlari xarid qilindi.

Shuningdek, 2019 yil davomida korxona tomonidan faqat xorijiy mamlakatlarga 5,5 million AQSH dollari miqdorida mahsulot eksport qilingan bo‘lsa, ichki bozorga ham qariyib 76 mld. so‘mlik mahsulot yetkazib berilgan.

Qashqadaryo viloyatidagi tumanlarni joylashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib ma’lum turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish orqali 4045 gektar intensiv bog‘lar, 8377 gektar uzumzor va 2 ming gektar yong‘oqzorlar barpo etildi. Shuningdek, 2607 gektar eksportbop sabzavot va poliz ekinlari ekildi. Bu raqam 2020 yilda 141 million dollarni tashkil etdi.

Mahalliy hokimliklar faoliyati, xususan investitsiya jalb etishdagi muammolar vakillik organlarida tanqidiy ko‘rib chiqilib, mas’ullarga tegishi tavsiya va ko‘rsatmalar berilishi, keskin choralar ko‘rilganligi natijasida xorijiy investitsiyalarni viloyatga jalb qilish darajasi bir qadar jonlandi.

Masalan Qamashi tumanidagi "Matanat" qo‘shma korxonasida Ozarbayjon davlati bilan hamkorlikda 20 mln.yevrolik investitsiya o‘zlashtirish evaziga gips xomashyosidan gipsokarton ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Qarshi tumanidagi “Senchuri” qo‘shma korxonasida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda 2 mln dollar investitsiya o‘zlashtirish evaziga zamonaviy chiller uskunalarini ishlab chiqarish, Qarshi tumanidagi “Tat cola” xorijiy korxonasida Afg‘oniston davlati bilan hamkorlikda 3,5 mln dollar investitsiya o‘zlashtirish evaziga alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish va G‘uzor tumanidagi “POOYA POLIMBER TEHRAN” xorijiy korxonasida Eron davlati bilan hamkorlikda 2 million dollar investitsiya o‘zlashtrish evaziga zamonaviy tomchilatib sug‘orish tizimlarini ishlab chiqarish loyihalarini ishga tushirish ko‘zda tutilgan.

“Mahalliy davlat hokimiyati” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 25moddasida “Hokim rejalashtirish, budjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo‘jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo‘l xo‘jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonunchilikda o‘z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi.” deb belgilangan

Aholining turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida 2020 yilda Qashqadaryoda 1097 kilometr uzunlikdagi elektr tarmoqlari va 305 dona tranformator punktlarida yangi qurish va rekonstruksiya ishlari bajarildi. Aholi xonadonlariga 94 ming 800 tonna suyultirilgan gaz yetkazib berildi. 18 ta aholi punktida 92,5 milliard so‘m mablag‘ evaziga 161,8 km ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari qurilib, rekonstruksiya qilindi. Bu borada eng muhim loyiha “Oqsuv-Dehqonobod” loyihasi bo‘lib, qiymati 100,5 milliard so‘mni tashkil etadi va uning natijasida 117 ta qishloq suv bilan ta’minlandi.

2020 yil aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 1700 ta uy-joy qurildi. Investitsiya dasturi doirasida 23 ta umumta’lim maktabi (6902 o‘quvchi o‘rini), 16 ta sog‘liqni salqash obyektlari, 4 ta bolalar sport inshootlari, 36 ta maktabgacha ta’lim muassasalari (5520 o‘rinli) yangidan quriladi hamda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 10 mlrd so‘m mablag‘ evaziga rekonstruksiya qilindi.

2020 yilda 273 ta nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasi qurildi (10 ming 330 nafar qo‘shimcha quvvat), 36 ta davlat maktabgacha ta’lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va kapital ta’mirlandi. Natijada bog‘cha yoshidagi bolalar qamrovi 37,8 foizdan 47,6 foizga ko‘tarildi.

Qishloq xo‘jaligining barcha sohalari bo‘yicha qiymati 1 trillion 117 milliard so‘mlik 367 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida go‘sht yetishtirish 28 ming, sut ishlab chiqarish 9 ming 415 tonnaga, tuxum yetishtirish 17 million donaga oshishi ta’minlandi.

9 ta paxta klasterlariga 138,1 ming gektar yer maydoni paxta ekish uchun ajratilib, ular tomonidan yetishtirlgan paxta hosilining 86,4 foizi qayta ishlandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, hokimlik istituti joriy etilgandan buyon viloyat, tuman va shahar darajasida mahalliy hokimlik tizimida u yoki bu sababalarga ko‘ra rahbarlar almashinuvi kuzatib kelinmoqda. Rahbar yoki xodimlar almashinuvi hududlarni iqtisodiyijtimoiy rivojlantirishda mahaliy davlat hokimiyati organlari oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishga jiddiy ta’sir ko‘rsatmasligi (shaxsga bog‘liq bo‘lib qolmasligi) muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizda mahalliy davlat hokimiyatining alohida institut sifatidagi 1992-2020 yillardagi faoliyati natijalarini ilmiy o‘rganib, izlanishlarimizda tizim faoliyatining shaxsga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan jihatlarini ham ochib berishga haraqat qilyapmiz.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 251moddasida hokimning viloyat, tuman, shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisoboti xalq deputatlari tegishli Kengashlari tomonidan eshitib borilishi belgilangan.

Bir-birini tiyib turuvchi bu ikki institut takomillashuvi, birining ikkinchisiga bog‘liqlik jihatlari kamaytiriilishi pirovard natijada mahalliy ijroiya va hududiy boshqaruv organlari samarali faoliyati, shu bilan bir qatorda hudud rivoji uchun o‘ta muhim ekanligi ilmiy izlanishlarimizdagi dastlabki xulosalarimizda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Foydalangan manba va adabiyotlar ro‘yhati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent; O‘zbekiston, 2021 – B.96.
2. Karimov I.A. Isloxot - avvalo odamlar ongidagi o‘zgarishdir. Xalk deputatlari Jizzax viloyat Kengashining sessiyasida suzlangan nutq // Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T. 5 Toshkent O‘zbekiston, 1997. - B. 198.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmokda. - Toshkent; O‘zbekiston, 2000 – B.45.
4. “Mahaliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni O‘zbekiston Respublikasining yangi qonunlar to‘plami. – Toshkent: Adolat. 1995. -B.13-14.
5. Qashqadaryo gazetrasi, 2020 yil 24 –yanvar.
6. “Yangi loyihalar iqtisodiy o‘sishga zamin bo’lmoqda” // Qashqadaryo gazetasi, 2020yil 4-fevral.
7. Qashqadaryo gazetasi, 2020-yil 7-yanvar.

ҚИШЛОҚЛАРДА ТИББИЙ ПРОФИЛЬАКТИКА ВА САНИТАРИЯЭПИДЕМИОЛОГИК ОСОЙИШТАЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МУАММОЛАРИ

Бўронов Олим Муродуллаевич
Қарши давлат университетининг таянч докторанти

Аннотация: Ушбу мақолада қишлоқларда тиббий профилактика ва санитарияэпидемиологик осойишталигини таъминлаш муаммолари ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида қишлоқларда тиббий профилактика ва санитария-эпидемиологик осойишталигини таъминлаш муаммолари бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: қишлоқ, тиббий профилактика, санитария-эпидемиологик осойишталик.

Abstract: This article talks about the problems of medical prevention and ensuring sanitary-epidemiological peace in the villages. Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the problems of medical prevention and ensuring sanitaryepidemiological peace in villages based on available scientific literature.

Key words: village, medical prevention, sanitary-epidemiological stability.

Соғлиқни сақлаш соҳаси ислоҳотларнинг яна бир муҳим жиҳатларидан бири, бу ҳудудларда санитария-эпидемиологик барқарорликни таъминлашдан иборат бўлди. Бунда тиббий профилактика ва эпидемияларга қарши кураш муҳим аҳамиятга эга. Бирламчи тиббий профилактика тиббий кўрикларни амалга ошириш, эмлаш, мақсадли скрининг ва шахсий гигиена қоидаларига риоя қилиш, соғлом ва тўғри овқатланиш, ортиқча вазн ва семизликни бартараф этиш, зарарли одатларга қарши курашиш, инсон саломатлигини яхшилаш бўйича чоралар кўриш, аҳолининг тиббий маданиятини ошириш йўналишларида амалга оширилди.

Ўзбекистонда аҳолини юкумли касалликларга қарши режали ва эпидемик кўрсатма асосида эмлаш сиёсати, “Фуқаролар саломатлигини муҳофаза қилиш” ва “Давлат санитария назорати назорати тўғрисидаги” қонунларида кафолатланган ва бепул миллий эмлаш жадвали асосида олиб борилди. Мамлакатимизда сил, полиомиелит, дифтерия, вирусли гепатит В, кукйўтал, қоқшол, қизамиқ-паротит-қизилчага ва ХИБга қарши режали эмлаш мажбурийлиги белгилаб қўйилди.

Республикада 1995- 1999 йилларда дифтерияга, 1995 йилдан 2004 ва 2010-2011 йилларда полиомиелитга, 2006–2007 ва 2010-2011 йилларда қизамиқ ва қизилчага қарши миллий эмлаш кунлари ўтказилиб, бунда аҳолининг 99 фоизи эмланди.

Аҳолини эмлаш билан қамраш 95 фоиздан ортиғи билан бажарилди. Мунтазам режали ва оммавий эмлашнинг ўтказилиши натижасида Ўзбекистонда 1995 йилдан полиомиелит касаллиги рўйхатга олинмади, 2002 йилда эса Ўзбекистон полиомиелитдан озод бўлган ҳудуд сертификатини олди. 2002 йилдан буён дифтерия касаллиги рўйхатга олинмади.

Республикада 2001 йилда гепатит вга, 2007 йил қизамик-паротитан, қизилгача, 2009 йилдан бошлаб эмлаш жадвалига пентавалент вакцинаси (дифтерия, кукйутал, қоқшол - +гепатит В+ ХИБ) киритилди.Таъкидлаш жоизки, Соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан, юкумли қасалликларни олдини олишда босқичма-босқич ЖССТнинг тавсияларига амал қилган ҳолда янги вакциналарни тиббиёт амалиётига тадбиқ этилди.

Касаллик кўрсаткичлари 90 йилларга нисбатан 30-35 маротаба камайди, юқумли ичак хасталикларидан ёш болаларнинг ўлим ҳолатлари камайди.Жумладан, карантин ва ўта хавфли юқумли, бундан ташқари, полиомиелит, дифтерия, қоқшол касалликлари қатор йиллар мобайнида қайд этилмади.2005 йилга нисбатан 2006 йилда юқумли касалликлар камайди.

Жумладан, ичбуруғ 5 тага, вирусли гепатит 34 тага, ОРВИ 587 тага, сил касаллиги эса 5 тага камайди,

2011 йили Республикада полиомиелитга қарши оммавий эмлаш кунлари ўтказилди. Эмлаш ишлари “совуқлик занжири” қоидаларига риоя қилинган ҳолда амалга оширилди. Четдан кириб келадиган хавфли юқумли касалликларнинг олдини олиш мақсадида қўшни давлатлар билан чегарадош ҳудудларда кўчма божхона постлари, халқаро аэропортларда санитария-назорат пункти ташкил этилди. Бу албатта, ҳар қандай мавжуд хавф-хатарнинг олди эрта олинишига муҳим омил бўлиб хизмат қилди.

2007-2009 йилларда бирламчи касалланиш кўрсаткичи 100000 аҳолига нисбатан 672,31 гача камайган бўлсада, Жиззахда 8,0 фоиз, Фарғона вилоятида эса 4,4 фоиз га ўсди. Қолган вилоятларда бу кўрсаткич деярли бир маромда ёки бир оз камайганлиги кузатилади. Умумий касалланиш кўрсаткичи (ҳар 100 минг аҳолига нисбатан) охирги 2007-2009 йиллар давомида 90200,66 дан 84911,09 га қадар камайгани ҳолда Қорақалпоғистон Республикаси, Хоразм, Навоий, Бухоро вилоятлари ва Тошкент шаҳрида республика кўрсаткичидан юқори бўлди. Умумий касалликларнинг таркиби бўйича эса биринчи ўринда, қон ва қон босими касалликлари- 24,1фоиз, иккинчи ўринда нафас олиш аъзоари касалликлари- 18,2фоиз, учинчи ўринда овқат ҳазм қилиш аъзолари касалликлари-1 1,6фоиз ташкил этди.

2008 йилнинг эпидемиологик мавсум бопшаниши билан вилоятнинг Хатирчи, Қизилтепа ва Нурота туманларида тиббий диагностика билан шуғулланувчи қўшимча лабораториялар ташкил этилди. Вилоятда 2008 йил ёзги мавсумда ташкил қилинган вабони ташҳиси билан шуғулланувчи 4 та лабораториялар ёрдамида вабо касаллигига 3899 та намуна текширилди. Диарея касаллнклари билан оғриган беморлардан 2779 таси текширишдан ўтказилди. Сув намуналаридан 5 та вабо, 228 та вабосимон диарея беморларидан 15 та вабосимон вибрионлари аниқланган.Эпидемологик мавсумда вабо ва бошқа ўткир диарея касалликлари бўйича вазиатни мувофиқлаштириб бориш мақсадида вилоят ССБ қошида эпидемияга қарши кураш штаби ташкил қилинди.

2010 йилда қушни Тожикистон республикасида полиомиелит касаллиги буйича нохуш вазият вужудга келганини эътиборга олиб, рахбарияти ЖССТ, ЮНИСЕФ ташкилотлари билан ҳамкорликда 5 ёшгача бўлган болаларни полиомиелит вакцинаси билан 4 та раунд ва 2011 йил апрель ва май ойларида бешинчи ҳамда олтинчи раундда миллий эмлаш кунлари ўтказилди. Ҳаммаси бўлиб 6 та раунда Республика бўйича 9,3млн. бола полиомиелитга қарши эмланди. МЭ кунларида эмлаш билан қамраш олиш кўрсаткичи 98-99 фоизни ташкил этди.

2010-2011 йиллар давомида Республикада қизамиқ касаллиги билан касалланиш буйича эпидемик вазият мураккаблашди. Касалланганларнинг ёши буйича тахлилидан 1-6 ёшдагилар-41 %ни, 1 ёшгача болалар 29,5 фоизни ташкил этди. Касалланганларнинг 57,3 фоизи қизамиққа қарши эмланмаган, 19,2% эмлангани тўғрисидаги маьлумотлар йўқ, 23,5 фоизи қизамиққа қарши бир марта эмланган. Қизамиққа қарши иммунитет таранглигини лаборатория текширувдан серонегатив 1-5 ёшли болаларда 24%, 6 ёшда 13,6%, 7-14ёшда7,8%, 15 ёшдан катталарда 5,6 фоизни ташкил этди.Қизамиққа қарши эмланмаган аҳоли ва қизамаққа қарши иммунитети йўқ шахсларнинг йилдан-йилга ортиб бориши натижасида қизамиқ касаллиги рўйхатга олина бошлади.

Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан барча маьмурий ҳудудларида қизамиқ касаллигининг тарқалишини олдини олиш мақсадида 2011 йилнинг 12-18 сентябрь кунларида қизамик-қизилчага қарши миллий эмлаш кунлари ташкил қилинди. Республикага Ҳиндистоннинг Серум Институтида ишлаб чиқилган 9,8 млн доза қизамиқ - қизилча вакцинаси олиб келинди ва МЭкулларида 1 ёшдан 15 ёшгача бўлган 8 млн 443 минг аҳоли қизамиқ – қизилчага қарши эмлаш билан қамраб олинди.

2012 йилда 12 маротаба туғиш ёшидаги аёллар, ўсмир қиз ва болаларни соғломлаштириш ҳафталиклари ташкил қилинди. Етакчи клиникаларнинг 800 дан зиёд

профессор ва юқори малакали мутахассислари томонидан 2680 та ҚВП қошида 311 мингдан зиёд аёл, 210 мингдан зиёд ўсмир қиз ва болалар чуқурлаштирилган тиббий кўрикдан ўтказилди.

Аҳолининг санитар-эпидемиологик хотиржамлигини таъминлаш, улар ўртасида юқумли касалликлар тарқалишига йўл қўймаслик ва ДСЭНМ моддий-техник базасини мустаҳкамлаш мақсадида муайян ишлар амалга оширилди. Масалан, Қорақалпоғистон Республикасида жами 17 та ДСЭНМ мавжуд бўлиб, улардан 14 таси туман назорат марказлари эди. Қорақалпоғистон Республикаси Давлат санитария-эпидемиология назорати маркази томонидан атроф-муҳитнинг зарарли кимевий, физикавий, биологик ва бошқа омиллари, шунингдек, сифатсиз озиқ-овқат маҳсулотлари, халқ истеъмол моллари ва бошқа саноат буюмлари таъсирида одамларга зарар етказилиши ҳолатларининг олдини олиш бўйича қишлоқ аҳоли яшаш жойларида атроф-муҳит (сув, атмосфера ҳавоси, тупроқ) ифлосланиш даражаси устидан доимий лаборатория назорати ўрнатилди. 1996 йилдан полиомиелит, ўта хавфли юқумли касалликлар, 2007 йилга нисбатан қорин тифи, эпидемик паротит, дифтерия, кўк йўтал, қизамиқ, қизилча касалликлари ҳисобга олинмади.

2012 йили Республикада 9 марта “Фертил ёшдаги аёллар, болалар ва ўсмирқизларни соғломлаштириш ҳафталиги” ўтказилиб, бирламчи бўғин тиббий ходимларига амалий ёрдам бериш мақсадида Республиканинг етук клиникалари, марказлари, тиббий олий ўқув юртлари юқори малакали 653 нафар мутахассислари ҳудудларга сафарбар килинди ва улар томонидан 238 минг 688 нафар туғиш ёшидаги аёллар ва 165 минг 619 нафар ўсмирлар тиббий кўрикдан ўтказилди.

2012 йили жойларда вилоят тиббиёт марказлари ва даволаш-профилактика муассасалари мутахассислари томонидан 8338098 нафар туғиш ёшидаги аёллар ва 8012773, нафар болалар тиббий кўрикдан ўтказилди. Жорий йил июл ойидан бошлаб қайта тиббий кўрикдан 2138631 нафар туғиш ёшидаги аёллар ва 1638686 нафар болалар тиббий кўрикдан ўтказилди, аёлларнинг 937015 нафарида (43.8%) ва болаларнинг 741041 нафарида (45,2%) соғломлаштириш ишлари олиб борилди.Полиомиелит, кизамиқ, қизилча, АКДС, БЦЖ ва пентавалент вакциналарга 2012 йил учун эмлаш учун керак бўлган вакциналар миқдори ЮНИСЕФ ташкилотига топширилди ва келишилган маблағ ҳисоб ракамига ўтказилди. 2012 йилнинг 9 ой давомида барча вакциналар республикага олиб келинди ва милий эмлаш дастури бўйича болаларни эмлаш даражаси 95,6 дан 99,7%гача ташкил этди.2012 йил 9 ойи давомида карантин ва ўта хавфли юқумли касалликлар бўйича эпидемиологик барқарорлик таминлаб борилди. Ўзбекистон Республикасининг Афғонистон давлати билан чегара худудларида кемирувчиларга қарши профилактик чора тадбирлар (дератизация) ўтказилиб турилди.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги тизимидаги даволаш профилактика муассасаларида касалхона ичида инфекцияларга қарши кураш профилактикаси мақсадларида Глобал Фонд жамғармаси лойиҳаси ҳисобидан 2.359.000 доллар миқдорида бир марта ишлатиладиган тиббиёт воситалари сотиб олинди.

Болалар орасида гельминтозларга қарши кураш буйича 2012- 2015 йилларга мўлжалланган Стратегик Дастур ишлаб чиқилди. 2012 йилнинг 9 ойи давомида ушбу стратегик йўналишга асосан вилоятлардаги мактаб болалари (14 ёшгача бўлган болалар) дегельминтизациядан ўтказилди.

2017 йилнинг ноябрь ойида ЖССТнинг "Ўзбекистон Республикаси қизамиқ ва қизилча касалликларидан ҳоли худуд" эканлиги тўғрисидаги ҳалқаро сертификати қўлга киритилди.

2018 йил 11 июнда Соғлиқни сақлаш вазирининг "Ўзбекистон Республикасида аёллар, болалар ва ўсмирларга самарали акушер-гинекологик хизматини ташкиллаштириш ҳамда кўрсатилаётган тиббий ёрдам сифатини янада ошириш тўғрисида"ги 386-сонли буйруғига мувофиқ ҳудудларда хотин-қизлар “Соғлом аёл ойлиги" доирасида тиббий курикдан ўтказилди. Тошкент вилояти нинг Паркент туман тиббиёт бирлашмаси кўп тармоқли

марказий поликлиникаси ҳамда унга қарашли бўлган "Заркент" 47- ва "Сўқоқ" 46-сонли қишлоқ оилавий поликлиникаларида бу тадбирлар бўлиб ўтди. Бундай тадбирлар натижасида85201 нафар туғиш ёшидаги аёллар тиббий кўрикдан ўтказилиб уларнинг 64,9 фоизида экстрагенитал касалликлар аниқланиб соғломлаштирилди.

Хуллас, аҳоли орасида турли юқумли касаллакларнинг олдини олиш, санитария хизматини тўғри ташкил этиш тиббиётни ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бирига айланди. Бунда санитария-эпидемиолигия марказлари фаолиятига асосий эътибор қаратилди. Кейинги йилларда олиб борилган тадбирлар натижасида тиббий профилактика ва санитария-эпидемиологик барқарорликни таъминлашга эришилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. ЎЗ ИТТҲ МА, М-372 -фонд, 1-рўйхат, 934-иш, 35-варақ.
2. ЎРИТТҲ МДА, М-372-фонд, 1-рўйхат, 934-иш, 43-варақ.
3. ЎРИТТҲ МДА, М-372-фонд, 1-рўйхат, 934-иш, 44-варақ.
4. ЎЗ ИТТҲ МА, М-372 -фонд, 1-рўйхат, 857-иш, 58-варақ.
5. ЎРИТТҲ МДА, М-372-фонд, 1-рўйхат, 819-иш, 80-варақ.
6. ЎЗ ИТТҲ МА, М-372 -фонд, 1-рўйхат, 929-иш, 86-варақ.
7. ЎРИТТҲ МДА, М-372-фонд, 1-рўйхат, 929-иш, 87-варақ.
8. ЎЗ ИТТҲ МА, М-372 -фонд, 1-рўйхат, 929-иш, 88-варақ.
9. ЎЗ ИТТҲ МА, М-372 -фонд, 1-рўйхат, 929-иш, 89-варақ.
10. Соатова И, Жамият тараққиёти йўлидаги муҳим мақсадлар // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш,2012 йил 16 март
11. Имконият ва муваффақиятлар даври // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш, 2011 йил 19 август
12. Соатова И, Ҳалқ манфаатининг устувор имкониятлари // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш, 2007 йил 18 сентябрь
13. Соатова И, Якуний натижалар ва келгуси режалар // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш,2013 йил 8 февраль
14. Шомуротов Ш, Ислоҳотлар самараси ва инсон саломатлиги // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш, 2011 йил 12 август
15. Нафақат шифокор, ҳар бир фуқаро олдидаги доимий масъулият // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш,2018 йил 21 сентябрь
16. Алламуродов А, Ҳар бир инсонэътиборда // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш,2018 йил 30 ноябрь

АЛКОГОЛИЗМЛИКНИНГ ЖИНОЯТЧИЛИК БИЛАН АЛОҚАДОРЛИГИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Исломов Ф.У.
“ТИҚХММИ”МТУнинг
Қарши ирригация ва агротехнологиялар
институти мустақил изланувчи.

Аннотация: Ушбу мақолада алкоголизмликнинг жиноятчилик билан алоқадорлиги ва олдини олишни такомиллаштириш ҳақида сўз боради. Муаллиф архив маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида алкоголизмликнинг жиноятчилик билан алоқадорлиги ва олдини олишни такомиллаштириш бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: алкоголизм, жиноятчилик, алоқадорлик, олдини олиш.

Abstract: This article discusses the relationship between alcoholism and crime and how to improve prevention. Based on archival data, the author studied and analyzed specific aspects of the connection of alcoholism with crime and improvement of prevention based on available scientific literature.

Key words: alcoholism, crime, relationship, prevention.

Ҳозирги кунда дунёда трансмиллий жиноий ташкилотларнинг фаоллашуви натижасида алкоголизм билан алокадор жиноятчиликнинг кўлами тобора кенгайиб бормоқда. Мустақиллик йилларида мамлакатимизда алкоголизм билан алоқадор жиноятчиликка қарши курашнинг ўзига хос миллий тизими ва норматив-ҳуқуқий асослари яратилди. Жумладан, миллий қонун нормалари такомиллаштирилиб, Республика маънавият ва маърифат кенгаши, Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази «Оила» илмий-амалий маркази, Маънавият тарғиботи маркази. Одам савдосига қарши кураш бўйича республика идоралараро комиссияси Одам савдоси жабрдийдаларига ёрдам бериш ва уларни ҳимоя қилиш бўйича республика реабилитация маркази ташкил этилди. Бунинг натижасида фуқароларда мафкуравий имунитет шакллантирилди, алкоголизм билан алоқадор жиноятларнинг камайишига эришилди.

Жаҳонда алкоголизм билан алоқадор жиноятчиликка қарши курашнинг маъмурийҳуқуқий жиноят-ҳуқуқий ва криминологик тизимини такомиллаштириш маъмурий ва жиноий ҳуқуқбузарлик учун жавобгарлик белгиланган қонунларнинг тўғри қўлланилишини таъминлаш жавобгарликни дифференциация қилиш жазони индивидуаллаштириш патологик маслик ҳолатида жиноят содир этганларни жавобгарликдан озод қилиш, маст ҳолда транспорт воситасини бошқарганлик учун жавобгарликни кучайтириш фоҳишалик билан шуғулланишга жалб қилганлик ёки мажбурлаганлик прекурсорларнинг қонунга хилоф муомаласи, болалар порнографияси учун жавобгарлик белгилаш, жиноятлар профилактикасининг самарадорлигини ошириш миллий қонун ҳужжатлари ва ҳуқуқни қўллаш амалиёти билан боғлиқ муаммоларнинг илмий ечимини топиш долзарб аҳамият касб этмоқда

Ўзбекистон Республикасининг «Алкоголь ва тамаки маҳсулотларининг тарқатилиши ҳамда истеъмол қилинишини чеклаш тўғрисида»ги (2011),
«Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги (2014), «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги (2016) қонунлари ва мавзуга оид бошқа қонун ҳужжатларида белгиланган вазифаларни амалга оширишга ушбу диссертация тадқиқоти муайян даражада хизмат қилади.

Ичкиликбозлик – бу тез-тез ва кўп миқдорда спиртли ичимликлар истеъмол қилиш туфайли пайдо бўладиган, унга кучли иштиёқ билан кечадиган, сурункали хасталик ҳисобланади. Бу ҳолат “бош оғриққа” эҳтиёж, шахснинг ўзига хос ўзгариши, соматик(ички) ва ижтимоий оқибатларга олиб келади. Машҳур файласуф Аристотель “ичкилик ичиш-ўз ихтиёри билан жинни бўлишдир”-деб бежиз айтмаган. Бу зарарли иллатга олиб келувчи омил алкоголдир. Лекин касалликнинг пайдо бўлиши учун фақат алкоголнинг ўзи етарли бўлмай, ичкиликбозликнинг ривожланишида ижтимоий, психологик ва биологик омиллар қатнашади.

Шахс маълумоти, оилавий аҳволи, моддий таъминоти, жамиятдаги ўрни, ичкиликбозликка муносабати ва бошқалар ижтимоий омиллар гуруҳига киритилади. Ичкиликбозлик ривожланишидаги психологик омилларни кишининг алкогол берадиган хушкайфият, қувноқлик ҳолати, енгил тортиш, “ҳаётдаги қийинчиликлардан қочиш” интилишлари ташкил этади. Биологик омиллар деганда ирсий мойиллик, модда алмашинувининг бузилишлари, хусусан В ва С витаминлар баланси, қонда хлор ва натрийнинг ўзаро нисбати бузилиши, адреналин билан адренохром ўртасидаги мувозанат бузилиши тушунилади. Мастлик (алкоголь билан ўткир заҳарланиш) – спиртли ичимликларнинг психотроп таъсири туфайли вужудга келган руҳий, вегетатив ва неврологик бузилишлар мажмуидир[1].

Ичкиликбозлик билан алкоголизм ўртасида фарқ борми, деган савол туғилади. Улар ўртасида кескин фарқ бўлмаса ҳам, лекин ичкилик ичиш нуқсон ҳисобланади. Алкоголизм эса инсоннинг ўз хоҳиши билан юзага келтирадиган ичкилик ичиш нуқсонининг оқибатидир[2].

Сурункали ичкиликбозлик соматик касалликларни келтириб чиқариши натижасида, кўплаб инсонларнинг ўлимига сабаб бўлиб келмоқда. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг берган маълумотига кўра, ичкиликбозлик натижасида вужудга келган касалликларнинг ўлим кўрсаткичи бўйича, юрак қон-томир касаллиги ва ўсма касалликларидан кейинги ўринда турар экан.

АҚШ нинг статистик кўрсаткичлари бўйича, сурункали ичувчиларнинг спиртли ичимлик ичмайдиганларга нисбатан ўртача ўлим кўрсаткичлари икки баробарга юқори экан. Бу эса инсон умрини 17-18 йилга қисқартиради.

Ичкиликбозликнинг миллат генофондига таъсири юқори. Чунки, туғиладиган чақалоқлар, руҳий ва жисмоний заиф бўлиб дунёга келади. Ушбу зарарли иллат натижасида инсон соғлигидан айрилади ва иш фаолияти пасаяди. Шунингдек, оилада ўзаро келишмовчиликлар ва оила бузилиши вужудга келади. Шахснинг инсоний фазилатлари йўқолиб, бу кимса меҳнат қилмай ҳаёт кечириш тарзига ўтади. Бу йўлга кирганларнинг даволаш ва реабилитация қилиш қанчадан-қанча маблағни талаб этади.

Мунтазам тарзда спиртли ичимликни истеъмол қилиш оилага ва жамиятга катта салбий таъсир қилади. Шунинг учун ҳам алкоголга қарши тадбирларда, беморларни даволаш ва ижтимоий даражада тиклаш билан бирга, ичкиликбозлик касаллигининг оқибатларини, унинг олдини олишни, яъни спиртли ичимлик ичиш ва истеъмол қилишга олиб келувчи омил ва сабабларни йўқотишдан иборатдир.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 58-моддасида “Хотин-қизлар ва эркаклар тенг ҳуқуқли”[3]лиги, шунингдек, ота-оналар ва уларнинг ўрнини босувчи шахслар ўз фарзандларини вояга етгунига қадар боқиши, уларнинг тарбияси, таълим олиши, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топиши хусусида ғамхўрлик қилишга мажбур[4]лиги алоҳида қайд этилган. шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 79-моддаси[5] Ота-оналик ҳуқуқидан махрум қилиш деб номланган бўлиб, мазкур моддада оталик ёки оналик ҳуқуқидан махрум қилиш мумкин бўлган холатлар кўрсатиб бўлиб, унда муттасил ичкиликбозлик ёки гиёвандликка мубтало бўлган ҳолатлар ҳам қайд этиб ўтилади.

Аёл зиммасига соғлом болани дунёга келтириш ва тарбиялаш каби масъулиятли вазифалар юкланган. Агар она ичкилик ичса, фарзандига зарарли моддалар ўтади ва унинг соғлом ўсишига ўз таъсирини ўтказади.

“Ривоятларга қараганда, бир кун донолар йиғилишида заҳарларнинг заҳари-заҳари маликни аниқлашмоқчи бўлишибди. Маргумуш, кучала, қорамуқ, дармана ва яна бир қатор заҳарларни бирма-бир текширишибди. Аммо барчалари бир оғиздан майни “заҳари малик” деб топишибди. Чунки, у биринчидан, дўст бўлиб кўринади. Ўзига ўргатади, киши унга хумори бўлади, иккинчидан, бугунги ичкиликнинг миқдори эртасига камлик қилади, борган сари киши кўпроқ ичгиси келади, учинчидан, ичкилик наслни бузади, авлодни жисмонан ҳам, руҳан ҳам ногирон қилади, тўртинчидан, ичкилик одамни овсар, ҳам аҳмоқ қилади. Шунинг учун ҳам, турли-туман разил ва фожиали ҳодисалар ичкилик оқибатида юз беради[6]”

Тарихдан маълумки, Грецияда Спартак замонида тўй куни келин-куёвга спиртли ичимлик ичиш ман қилинган. Юнон файласуфи Диоген эси паст болалардан бирин кўриб, онаси ҳомиладор бўлганида отаси ичкиликка ружу қуйган, дейди.

Француз шифокори Деммэ 28 йил давомида 10 та оилани кузатиб, мазкур оилаларда ота ва она ичкиликбозликка муккасидан кетганлиги, натижада 57 нафар болалардан 10 тасигина нормал ҳолатда ўсган[7]лигини қайд этади.

Ризоиддин ибн Фахриддиннинг айтишича, аёл киши одам боласида бўлган хулқларни гўзаллаштиришга сабаб бўлувчи ва қаттиқ кўнгилларни юмшатувчи зўр қувватдир.

Она шундай улуғ зотки, унинг улуғлигини, муқаддас номини фахр билан тилга олмаган, она сўзини дилига жо қилмаган инсон ҳаётда топилмаса керак. Оналар аввало ҳаётимизни гўзаллаштириувчи, бунёдкор инсонни дунёга келтирувчи ва тарбияловчи, бахт яратувчиларидир.

Оналар ҳар томонлама баркамол авлодни шакллантиришда масъул бўлишлари ва фарзанд соғлиги ҳамда тарбия илмидан олган маълумотларини орттиришлари лозим, зеро булар бола тарбияси учун зарурдир. Илм-маърифатга ошно бўлган отаа-оналарнинг фарзандлари серғайрат, тўғри фикрлайдиган ва хайрли ишлар қиладиган бўладилар[8]. Агар бунинг акси бўлса-чи, унда оилада вояга етаётган бола турли хил ярамас ишларга берилган ва жамият учун фойдасиз бўлиб қоладилар.

Дунё қадим-қадимдан Шарқ аёлларининг одоб-ахлоқи, урф-одатларига ҳавас қилиб келган. Айниқса, бугун мамлакатимизда хотин-қизлар учун яратилаётган шароитлар, уларнинг саломатлигини асраш, ижтимоий фаоллигини кучайтириш каби масалалар давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Бироқ, гуруч курмаксиз бўлмайди, деганларидек, шундай хотин-қизлар ҳам борки, гоҳида уларнинг ножўя қадами кўнгилга тегади, кишида нафрат уйғотади. Турмуш зарбаларига чидаб, йўл топиб яшаётганларни кўриб, яшашга рағбатингиз ошса, умр йўлининг синовларига енгилиб, ўз масъуллигини унутаётганларга қараб, афсус билан бош чайқайсиз. Бугун техника жадал суръатларда ривожланаётган, “оммавий маданият” ўз таъсирини ўтказишнинг турфа усулларидан фойдаланаётган замонда салгина эътиборсизлик, эҳтиётсизлик туфайли айрим аёллар, қизлар пок шаънларига доғ тушириб қўймоқда[9]. Айниқса, аёлларнинг спиртли ичкиликка ружу қўйиши, ҳозирги кунда жиддий муаммолардан бирига айланиб бормоқда. Уларнинг ичкиликбозлик касалига чалиниши эркаклардан фарқли ўлароқ спиртли ичимликка мойиллиги тезроқ содир бўлади. Яъни, эркакларда касаллик ривожланиши 7-10 йилни ўз ичига олса аёлларда эса 5 йил кифоя. Ичкиликнинг организмга ножўя таъсири аёлларда эркакларга нисбатан анча эртароқ кечади. Асосан спиртли ичимлик жигар ва меъдаости безини зарарлайди. Ичкиликка ружу қўйган аёлларнинг хулқи, ҳаёт тарзи ёмон тарафга ўзгаради. Натижада турли жинсий касалликлар келиб чиқади.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ичкиликбозликка чалинган аёлларнинг фақат 10 фоизида жинсий безларнинг нормал фаолияти сақланади. Спиртли ичимликни истемол қилиш натижасида, руҳий бузилишлар авж олади. Уларнинг характери ўзгариб, яъни жаҳлдор, асабий, фақат ўзини ўйлайдиган бўлиб қоладилар. Эркакларга нисбатан уларда шахс ўзгариши ва ақл пасайиши тезроқ авж олади. Патологик ўзгаришлар аёлларнинг шу касалликни тарк этишни англаб етишларида тўсқинлик қилади. Шунинг учун ҳам касалликнинг қанчалик даражада жиддийлигини англамай, ичкилик ичишни тўхтатишга ҳаракат ҳам қилмайдилар. Аёлларда хумор синдроми эркакларга нисбатан, юмшоқроқ ўтади. Шунинг учун ҳам улар узоқ муддат шифокорга мурожаат қилмайдилар. Ичкиликбозликка чалинган аёлларнинг эркакларга нисбатан аввалги ҳаёт тарзларига қайтариш анча мушкул ва у кўп вақтни ўз ичига олади. Аёлларга бу касалликни тарк этишда шифокорлар ва яқинларидан жуда катта эътибор ва чидам талаб қилинади.

Шуни айтиш лозимки, ичкиликбозлик аёлларнинг кўпига узқ умр кўриш, кексалик даврини суриш насиб этмайди. Ёши катта бўлиб қолганда ҳам ичкиликбозлик қиладиган аёллардан яқинлари безиб қолади, ҳатто фарзандлар ҳам ўз оналаридан юз ўгиришади.

Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг соғлигини сақлаш, мустаҳкамлаш, соғлом турмуш тарзини тўғри ташкил эгиш масалалари юзасидан кўплаб чора ва тадбирлар амалга оширилмоқда. Айниқса, мамлакатимиз асоси бўлган ёшларни баркамол авлод қилиб тарбиялаш энг асосий вазифалариан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. https://soglom.uz/archives/2136.

2. Бабаев Т. Ичкиликбозлик-саломатлик кушандаси. –Т.: Фан, 1986, 25-бет.
3. https://lex.uz/docs/6445145
4. https://lex.uz/docs/104720
5. Исроилов Ш. Ичкиликбозлик кулфат келтиради.-Т.: Ўзбекистон, 1975 йил, 7бет.
6. Мирзаалимова Г.А. Ичкиликбозлик қурбонлари.-2-нашри.-Т.: Медицина, 1985, 5-б.
7. https://ziyouz.uz/oila-va-jamiyat/bashorat-otajonova-sarxush-zaifalar/

O‘ZBEKISTONNING GIYOHVANDLIK MODDALARI NOQONUNIY AYLANISHIGA QARSHI KURASHDAGI HAMKORLIGI

Maxmatqulov Jasur Isroil o’g’li
Qashqadaryo VIIB TQX TQKB xodimi,
t.f.f.d.(PhD) Tel: +998972290404

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning giyohvandlik moddalari noqonuniy aylanishiga qarshi kurashdagi hamkorligi haqida so‘z boradi. Muallif arxiv ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida O‘zbekistonning giyohvandlik moddalari noqonuniy aylanishiga qarshi kurashdagi hamkorligi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, giyohvandlik moddalari, noqonuniy aylanish, hamkorlik.

Abstract: This article talks about the cooperation of Uzbekistan in the fight against the illegal circulation of narcotics. Based on archival data, the author studied and analyzed the specific aspects of Uzbekistan's cooperation in the fight against the illegal circulation of narcotic substances on the basis of available scientific literature.

Key words: Uzbekistan, drugs, illegal circulation, cooperation.

Jahon hamjamiyatida giyohvandlik jinoyatiga qarshi kurashning xalqaro tadbirlari ishlab chiqildi. Chunki mazkur jinoyat turi xalqaro ahamiyat kasb etib, giyohvandlik jinoyatining transnatsional bo‘lishiga olib keldi. Giyohvandlikka karshi kurashning murakkabligi shundaki, giyohvandlik vositalari turli ekstremistik, terroristik guruhlarning iqtisodiy ta’minlanish manbai bo‘lib qoldi. Bundan tashqari, giyohvand vositalar bilan muomala qilish bir davlat hududidan chiqib, xalqaro tus oldi va jahonning barcha mamlakatlarida jiddiy muammoga aylandi.

Giyohvandlik moddalarini yetishtirish va kontrabanda haqli ravishda “XX asr vabosi” deya e’tirof etilgan. Narkobiznes, narkotik va psixotrop moddalar kontrabandasi bilan shug‘ullanayotganlar bugungi kunda jahon aholisining 3 foizini tashkil etadi. Mamlakatlar, mintaqalar iqtisodiyotiga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuning uchun jahon jamoatchiligi bu masalaga alohida e’tibor qaratishga majbur bo‘ldi. “Giyohvandlikka qarshi” shiori ostida dunyoning turli nuqtalarida xalqaro forumlar, seminarlar o‘tkazildi.

Milliy davlatchilikda va xalqaro miqyosda giyohvandlik jinoyatiga qarshi kurashda samaradorlikka erishish uchun quyidagi talablarni amalga oshirish zarurligi e’tirof etilgan:

birinchidan, xalqaro huquqiy meyorlarning nufuzini tan olish;

ikkinchidan, bu jinoyatni yo‘qotish uchun xalqaro huquq meyorlarini milliy qonunchilikka muvofiqlashtirib, umumiylikka erishish; uchinchidan, har bir davlat tomonidan uning huquqni muhofaza qiluvchi organlarining nufuzini yanada mustahkamlash.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, AQSH, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlar O‘zbekistonni Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida narkotik moddalarga qarshi kurashda ishonchli hamkor sifatida tan oldi. Shu bois, millat tanlamaydigan, chegara bilmaydigan narkobiznesga qarshi

kurashda O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qator dasturlar amalga oshirdi.

Markaziy Osiyo mintaqasi jahonda narkobiznesning asosiy markazlaridan biri hisoblangan Afg‘oniston bilan chegaradoshligi giyohvandlikka qarshi kurash tadbirlariga jiddiy e’tiborni talab qilib keldi. Markaziy Osiyo miqyosidagi giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatchilik ahvoliga Afg‘onistonda ko‘p miqdorda narkotik moddalar ishlab chiqilib, narkobiznes bilan shug‘ullanuvchi jinoiy guruhlar ularni Rossiya Federatsiyasi va Yevropa mamlakatlariga olib o‘tish harakatlari katta ta’sirini ko‘rsatdi. Afg‘onistonda yetishtirilgan giyohvandlik vositalari asosan 4 ta yo‘nalishda Rossiya Federatsiyasi va Yevropa mamlakatlariga olib o‘tildi:

1. Afg‘oniston – Termiz – Qozog‘iston – Rossiya Federatsiyasi – Yevropa.
2. Afg‘oniston – Turkmaniston – Qozog‘iston – Rossiya Federatsiyasi.
3. Afg‘oniston – Tojikiston – Surxondaryo viloyati – Qirg‘iziston – Rossiya Federatsiyasi.
4. Afg‘oniston – Turkmaniston – Kavkaz mamlakatlari.

Afg‘onistondan giyohvand moddalarni g‘arb, sharq va ayrim janubiy yo‘llar orqali tashish giyohvand modda tashuvchilar uchun juda xavfli bo‘ldi. Masalan, Xitoy va Singapurda 1 kg opiy yoki 50 gramm geroinni sotganlik yoki o‘tkazganlik uchun o‘lim jazosi belgilangan. Afg‘on narkotik moddalarini tashishning janubiy yo‘nalishi – Pokiston (Karachi porti) va Hindiston orqali o‘tadi, lekin ko‘p to‘xtash lozim bo‘ladi. Dengiz orqali Istambul (Turkiyadan keyin G‘arb mamlakatlariga o‘tish yo‘li ham mavjud, ammo, bu yo‘nalishdagi Misr, Isroil va Turkiya kabi davlatlar giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatchilikka karshi faol kurashganligi sababli narkobandalar bu yo‘ldan kamdan kam foydalandi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, narkokorchalonlar giyohvand moddalarni Afg‘onistondan G‘arb davlatlariga o‘tkazishning qulay yo‘li Markaziy Osiyo davlatlari deb hisoblaydi.

Buning sababi ikkita: birinchisi, Markaziy Osiyo davlatlari (chunonchi, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston)da narkotrafik giyohvandlik vositalarini olib o‘tishga qarshi kurashning samarali va izchil ravishda olib borilmaganligi bo‘lsa, ikkinchisi, bu davlatlarning o‘zlarida ham tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud bo‘lgan ekinlarni yetishtirishi mumkinligi.

O‘zbekistonda narkotrafikka qarshi kurash kuchaytirilganidan so‘ng bu “janubiy yo‘l” o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib, BMTning ma’lumotiga ko‘ra, Kushka (Turkmaniston) va Xorok – O‘sh (Tojikiston-Qirg‘iziston) orqali o‘tdi. Bundan tashqari, Sochi shahrida bo‘lib o‘tgan MDH davlatlarining sammiti, Toshkentdagi qo‘shni davlatlar prezidentlarining uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov narkotrafikka qarshi birgalikdagi faoliyatni faollashtirish, bu kurashni tashkiliy va moddiy jihatdan ta’minlash maqsadida Markaz ta’sis etish to‘g‘risidagi taklifni o‘rtaga qo‘ydi.

Davlatlararo bunday faoliyatning yo‘lga qo‘yilishi natijasida o‘z o‘rnida O‘zbekistonning huquqni muhofaza etuvchi organlari oldiga qator murakkab vazifalar ko‘ndalang qo‘yildi. Bu avvalo, huquqni muhofaza etuvchi organlarning birgalikdagi va doimiy nazoratini talab etadi. Narkotrafik masalasi bo‘yicha muvofiqlashtiruv kengash majlisini o‘tkazish zaruriyati kelib chiqdi. Bunda birinchidan, narkotrafikning aniq yo‘nalishining ko‘rsatib berilishi; ikkinchidan, ushbu muammo bo‘yicha idoralararo ishchi guruhlari tuzilib, ularning tashkiliy va amaliy faoliyatining har jihatdan ta’minlab berilishi zarur bo‘ldi_. Shuningdek, narkotrafikka qarshi kurash samaradorligini oshirishning yana bir usuli - bu chegaradosh davlatlar huquqni muhofaza etish organlari o‘rtasida doimiy hamkorlik bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov jahon minbarlaridan turib, Afg‘oniston jahon bozoriga asosan giyohvand moddalar yetishtirib beruvchi mamlakatlardan biriga aylanganligini, Afg‘onistonda yiliga ikki yarim ming tonnadan ziyod giyohvand moddalar yetishtirib, turli yo‘llar bilan dunyoning ko‘plab mintaqa va mamlakatlariga tarqatishini asoslashga harakat qildi. Qolaversa, bu mamlakatning Markaziy Osiyo mintaqasiga solayotgan xavf-xatariga kuchli ahamiyat qaratdi_. I.A.Karimov Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istambul sammitida so‘zga chiqib, Afg‘oniston narkotik moddalar yetishtirish va sotishdan olingan daromad hisobiga kun

ko‘radigan mamlakatga aylanib qolganligini, mamlakatda yetishtirilgan giyohvandlik moddalarining 90 foizi bevosita Yevropa davlatlariga tarqatilganligini ta’kidlaydi.

Afg‘oniston bilan Tojikistonda cho‘zilib ketgan mintaqaviy mojarolar qonunga xilof ravishda narkotik moddalar olib o‘tilishi, xalqaro terrorizm va qurol-yarog‘ kontrabandasiga ham keng yo‘l ochdi. Ayni paytda Afg‘onistondagi mojaroda qatnashgan guruhlar uchun narkotik moddalarni ishlab chiqarish va sotish qurol-yarog‘ xarid qilish va boylik orttirish uchun pul topishning eng qulay vositasiga aylandi.

O‘zbekistonning huquqni muhofaza qilish organlari Afg‘onistondan Yevropaga olib o‘tilgan ko‘plab katta miqdordagi giyohvandlik vositalarini to‘xtatib qolishga muvaffaq bo‘lgan. Bu kabi katta tadbirlar boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Masalan, 1992-yil 8-oktabrda Termiz shahriga 30 tonnaga yaqin yuk Afg‘onistondan tranzit kirib keladi. Yuk nazoratdan o‘tkazilganda, unda mayiz joylashtirilgan qutilar bo‘lganligi aniqlanib, bu qutilar. MDH davlatlari, Belgiya, AQSH, Kanadaga yetib borishi rejalashtirilgan. Bojxona xodimlari yukni tekshiruvidan o‘tkazganda, mayiz qutilari orasida g‘isht shaklida joylashtirilgan narkotik vosita – gashish topilib, jami 1305 qutida bir kilogrammli 13 tonna 50 kilogramm gashish aniqlangan. Jinoyat kodeksining 69moddasi (kontrabanda) asosida jinoyat ish ochilib, tergov uchun DXXga yuborilgan. Ishni Erkin Abdullayev qabul qiladi va u tezkor-qidiruv tadbirlari va voqea guvohlari bilan suhbatlar o‘tkazadi.

Demak, bu kabi voqealar O‘zbekistonning xalqaro narkobiznesga qarshi kurashda xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan kengroq hamkorligini talab etdi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida giyohvandlik va narkobiznesga qarshi kurash uchun BMT bilan birga boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan yaqindan hamkorlik qilib keldi. O‘zbekiston mustaqillikning ilk davridan boshlab, ya’ni, 1992-yildan Yevropa hamjamiyatiga a’zo davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati:

1. Ashurov Y. “Illatga qarshi kurash” // Mahalla, 2010-yil 25-fevral.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O‘zbekiston, 2000.– B.80.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B.44-45.
4. O‘z MA, M-76-fond, 1-ro‘yxat, 1484-ish, 56-varaq
5. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Konunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish markazi direktori Erkin ABZALOV bilan suhbatdan // Inson va qonun, 2002-yil 19-fevral.

ЭЪТИҚОД ВА ДОСТОН

Норбўтаев Парда Панжиевич
Қарши ирригаци ва агротехгнологиялар институти,
Гуманитар фанлар кафедраси профессори, т.ф.д

Аннотация: Ушбу мақолада эътиқод ва достон ҳақида сўз боради. Муаллиф тарихий маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида эътиқод ва достон бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: эътиқод, достон, тасаввур, урф-одат.

Abstract: This article is about faith and epic. Based on historical data, the author studied and analyzed the specific aspects of faith and epic based on available scientific literature.

Key words: belief, epic, imagination, tradition.

Дастлабки диний тасаввурлар ва эътиқодлар Ўрта Осиё ҳудудида яшаган аждодларимизнинг муайян тарихий шароит ва табиат ҳодисаларининг моҳиятини англашга интилиши, табиат ва жамият ҳодисаларига ибтидоий ёндашиши натижасида вужудга келган деган этнологик нуқтаи назар ҳам мавжуд. Унинг илдизи қадимги тош даври мифологияси билан боғлиқ. Кейинги тарихий тараққиёт жараёнида эса халқ инончлари турли шакллар намоён бўлган [1, 28].

Қашқадарё воҳасининг Деҳқонобод тумани Хўжамаҳмуд қишлоғилик Қодир бахши Раҳимовни «Ёзи билан Зебо» достонидаги хастага фол очириш ва чироқ ёқиб халослаш маросимлари ҳам ана шундай халқ инончларига боғланади. Масалан, Зебони ҳасталик боисини аниқ билмаган онаси жўги (лўли) фолчига фол очиради:

Тўда жинга дуч келибсан,
Юра-юра кўп толибсан,
Бир инсонга кўнгил бериб, Изига зор бўб қолибсан.
Шу фолда жин кўринди, болам...[2, 32].

Чироқ ёқиш ва чироқ билан боғлиқ бошқа турли ирим-сиримлар ҳам ўзбек халқ этнографиясида муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, Самарқанд вилоятининг Ургут туманида чироқ келин-куёв ҳамда чимилдиқ атрофидан айлантирилади. Хоразм вилояти туманларида, шунингдек, Бухоро вилояти Қоракўл туманида келиннинг уйида ёқилиб, келин-куёв атрофидан айлантирилган чироқни янгалар ўчирмасдан куёвнинг уйига олиб борадилар. Келин куёвнинг хонадонига кираётганида ана шу чироқ билан бирга кирса, унинг ҳаёт йўли ёруғ бўлади дейдилар [3, 14].

Элшунос олим В.Н.Басилов исломий эътиқодлар билан боғланиб келаётган урфодатларнинг баъзилари аслида шомонликка тааллуқли эканлиги, унинг илдизлари жуда қадимга бориб тақалишини таъкидлайди [4, 7].

Туркий халқларда шомонлар фол очиш, қайтарма қилиш ва ёвуз руҳлар юборган деб қаралувчи касалликларни даволаш қудратига эга бўлишган. Бу анъана қолдиқлари ҳозиргача сақланиб қолган. Бахшиларга келсак, улар ҳам пари, жин, девга чалинган касалларни даволашда катта роль ўйнаган [5, 10].

Достонда эса, бу каби этнофольклор ирим-сиримларнинг бажарилиш тартибининг кўрсатиб ўтилиши, воҳа аҳолиси турмуш тарзи билан боғлиқ диний маросимларнинг ўтказилиш тартиби бўйича қисқача бўлса-да, тасаввурга эга бўлиш учун ёрдам беради.

Эътибор берилса, достонда ифодаланган Қашқадарё воҳаси аҳолиси турмуш тарзида урф бўлган чироқ ёқиш билан боғлиқ диний ирим-сиримларнинг бошқа воҳаларда ўтказиладиган худди шу одатдан тафовутлари кўзга ташланади. Жумладан, достонда беморнинг соғайиши учун аввал қурбонлик қилинган ва сўйилган ҳайвоннинг қонидан олиб беморга эмас, балки ҳар бир чироққа суртилган. Фарғона водийсининг баъзи бир ҳудудларида эса, қурбонлик қилинаётган жониворнинг қонидан бир пиёлага олиниб, бемор танасининг айрим жойларига суртилган, холос.

Достонда қушноч ва кинначиларнинг жинлар, ажиналар, ёвуз кучларга дўқ-пўписа қилиши, уларни бемор танасидан ҳайдашда қўрқитиш, эзгу руҳларнинг мададига таяниши, Жўги момонинг доира жўрлигида ижро этилган айтимларида ҳам кўринади:

Ушлаб гўрга тиқаман,
Суқни сенга тиқаман,
Агар шундан чиқмасанг, Дабим билан боқаман.
Э эгама, ё жаббора, ё пирима… [6, 33].

Достондан олинган бу парчада воҳа аҳолиси диний маросимларининг кейинги кўриниши бўлган «қоқиш» усули қўлланганлиги маълум. Дала ёзувларида қайд этилишича, қушноч беморни хонанинг ўртасига ўтирғизиб, унинг юзини юпқа мато билан бекитиб, ҳамма қариндош аёллар иштирокида бу маросимни ўтказган[7, 9]. Бахши, қушночлар дев чалган

касалларни даволашда доира, дўмбира, қўбиз, қамчи, ойна, арғамчи кабилардан фойдаланишган ва буларнинг ичида чолғу асбоблари муҳим ўрин тутган. Бахшилар ўзларига ҳомий руҳларни чақириб, мулоқотда бўлиш учун бирор чолғу асбобини қўлига олиб, махсус чорловчи «чақирув» матнларини ижро этишган[8, 34].

Достонда эса, қушноч ёки бахши касалнинг атрофида айланиб, ёвуз руҳларни ҳайдаган. Бу одат, албатта, доира жўрлигида амалга оширилган. Қушноч беморни хивчин (асосан, тол новчасидан ясалган) билан 3-4 марта ўрган ва шундай қилиб, қушноч бемор танасидан ёвуз руҳларни бутунлай ҳайдаб чиқарган[9, 36].

Достонда келтириб ўтилишича, воҳада яшовчи қушноч лўли-жўги момолар «қоқиш» усули жараёнида доирадан фойдаланишган. Доира товушлари остида руҳларни чақирар, доиранинг мусиқий оҳанги маросим руҳига кўтаринки кайфият бағишлар, гўёки у сеҳрли хислатга эга деб қаралган. Ўзбек халқи шомон маросимларида доира чалиб, руҳларни чақириш одати жуда қадимий эканлигига амин бўлдик.

Маросимда бахши доира чалиб, ҳомий руҳларни чақиради. Доира воситасида руҳларни чақириш ҳам жуда қадимий одат бўлиб, бу ҳақдаги афсонага кўра, Эрликхон теридан бир довул ясаб, шомонлик маросимини ўтказган экан. Шомонлар турли мусиқа ва ҳайқириқлар остида руҳ ҳайдаш, чақириш амалларини бажарар экан, қийқириб довул чалади. Афсонага кўра, довул чалиш тангрини мададга чорлашдир[10, 35].

Демак, Қашқадарё воҳаси халқ бахшилари достонларида акс этган фол очиш, чироқ ёқтириш, халослаш, қон чиқариш каби диний расм-русумлар шомонлик эътиқоди билан боғлиқ қарашлар ҳисобланади. Модомики, достонлардаги энг қадимий эътиқодлар хусусида сўз кетар экан, ҳозирги туркий халқларнинг аждодлари ҳисобланган қадимги уруғ ва қабилаларнинг тасаввури билан қиёсий таҳлил этиш лозим [11, 27].

Ана шу эътиқод туфайли қабила аъзолари ўз тотемларига қараб уруғ-аймоқларга бўлинганлар. Шунга мувофиқ қабила ва уруғ номлари тотем сифатида қабул қилинган ҳайвон номи билан атала бошланган. Масалан, қозоқ, бошқирд, мўғул халқларида тотемистик тасаввурлар билан боғлиқ бўлган «бўри», «бўринайман» каби уруғлар учрайди [12, 12]. Шунингдек, Ашина ва усун каби қабилалар ҳам бўрига тотем сифатида топинувчи уруғ вакиллари ҳисобланади. Масалан, туркий қавмларининг уруғ-қабила номлари шажараси орасида оқ ва қора қўй билан боғлиқ атамалар ҳам мавжуд [13, 30].

Масалан, «Оқ қўйунли» ва «Қора қўйунли» деб номланган туркий уруғлар XIV-XV асрларда жуда машҳур бўлишган. XII асрда Амударёдан ўтиб, Эроннинг шимолий ҳудудларида ўрнашган туркман этносларининг байроғида қўй калласининг тасвири туширилганлигини этнограф Г.П.Карпов қайд этиб ўтган эди. Шунингдек, оқ қўйуйли, қора қўйли уруғлари қозоқларда ҳам мавжуд бўлган. Туркий қавмлар таркибидаги қора қўйли ва оқ қуйли уруғларнинг номи «Ўғузнома» достонида ҳам тасвирланган оқ ва қора қуйларни ҳоқон тахти ёнидаги ёғочларга боғлаш мотивига боғланади [14, 13]. Демак, айтиш мумкинки, бу каби атамалар моҳиятида тотем ва унга эътиқод тушунчалари мужассамлашган.

«Алпомиш» достони вариантларида ҳам тотемистик тасаввурлар билан боғлиқ этнографик маълумотлар учрайди. Масалан, Китоб тумани Қайнарбулоқ қишлоғилик Абдулла шоирнинг «Алпомиш» достони[15, 31] даги воқеалар қўнғирот уруғи доирасида юз беради. Достонда акс этган «қўнғирот» атамаси мўғулча сўз бўлмай, балки маҳаллий халқнинг ижтимоий ҳаёти жараёнида шаклланган луғавий бирликдир.

Демак, Абдулла шоирнинг «Алпомиш» (достоннинг Фозил Йўлдош, Пўлкан шоир ва Мардонақул Авлиёқул ўғли вариантлари билан қиёсий ўрганилганда) достони аҳоли чорвачилик билан шуғулланганлиги учун, от ва туя культига, нарса буюмларга сиғиниш ҳолати тотемизм, фетишизм каби диний тасаввурларнинг бири сифатида ўрин эгалласа, Бойбўри бўри ҳақидаги қадимги турк-хунн тотемистик жараёнларининг асосида шаклланган этник атамадир. Бу ҳолатлар халқ достонларида қадимий тотемистик диний тасаввурларнинг мавжудлиги тўғрисидаги фикрларни исботлашга ёрдам беради.

Халқ достонларида қаҳрамонга исм қўйиш билан боғлиқ диний мотивларни ҳам учратишимиз мумкин [16, 8]. «Алпомиш» достонида қаҳрамонга исм қўйиш, дуо қилиш ҳамда унинг баҳодирона йўлини олдиндан айтиш жараёнлари диний мотив сифатида муҳим роль ўйнайди. Эътиборли томони шундаки, Қашқадарёлик Абдулла шоирнинг «Алпомиш» достонида (достонининг бошқа вариантлар сингари) ҳам бу ҳолат ислом дини таълимоти доирасида сақланган бўлиб, болалар дунёга келгач амалга оширилган. Бекмурод Жўрабой ўғли вариантида қаҳрамон туғилмасдан унинг отасининг тушида Хизир қандай исм қўйиш кераклигини айтса, Фозил Йўлдош ўғли, Берди бахши, Эгамберди бахши, вариантларида болалар туғилгач, Али ёки Хизир қаландар-девона қиёфасида келиб уларга исм қўяди [17, 19].

О.Мадаевнинг таъкидлашича, Шоҳимардон пири Бойбўри ва Бойсарининг фарзанд тилаб қилган илтижоларини Оллоҳга етказади. Кейинчалик Ҳакимбек, Қалдирғоч, Барчинойнинг исмларини ҳам у қўяди. Бу лавҳаларни ҳисобга олган ҳолда ҳеч иккиланмай «Алпомиш» достонининг туркий халқлар орасида пайдо бўлган дастлабки нусҳасидаги Дадам Қўрқут ўзбек достонида Шоҳимардон пири билан алмаштирилган [18, 18].

Аслида, этнологик тадқиқотларда таъкидланишича, кишиларга исм қўйиш тарихи жуда қадимги даврлар эътиқодлари, тотемизм, шомонлик, афсунгарлик аждодлар эътиқоди каби қадимий диний эътиқод ва топонимлар билан боғлиқ. Қадим замонлардан боланинг соғ бўлиши, яшаб кетиши, келгусида бахтли яшаши унга қўйиладиган исм билан боғлиқ бўлади, деб ҳисоблашган. Мазкур тасаввурлар натижасида замонлар ўтиши билан чақалоққа берилувчи исм одамни ўзаро фарқлаш, аташгина эмас, балки уни турли балоқазолардан асрайдиган, муҳофаза қиладиган воситага айлана борган [19, 6].

Бу одатнинг Ўрта Осиё ва Сибирда яшовчи туркий тилли халқларда амал қилганлиги тўғрисида ҳам маълумотлар мавжуд. В.В.Радловнинг фикрича, тоғли олтойликларда бола туғилгандан кейин оила бошлиғи унга исм қўйган [20, 25].

Қозоқларнинг қадимги одати бўйича, бола туғилганидан сўнг уч кун ўтгач чақалоқ тантанали равишда бешикка беланаётган пайтда исм қўйилган. Бунда ўша ерда яшаган овулдаги одамлар йиғилиб, қўй сўйилган, одатда мулла намоз ўқиган. Исмни энг ҳурматга эга бўлган мулла (қадимда шомонлар) қўйган [21, 23] Масалан, Қаҳҳор бахши Қодировнинг «Бева Барчин» достонида болага исмни оиладаги эркак киши қўйиш одати тилга олинади: «Чақалоқнинг бешик тўйини ўтказиш, болага исм қўйиш келгуси душанба кунига қолдирилади. Шунда онаси Хуморой Барчинойга қараб: «Болам, чақалоққа ном қўйиш заифанинг иши эмас, эркаги бор уйда болага ном қўйиш мардларнинг ишидир. Менимча, болангга исмни қайнотанг Бойбўришох қўйгани маъқул», - деди... [22, 22].

Болага исм қўйиш ва хатна қилишда «хўжа» (мулла ёки бошқа «ҳурматли» киши) муҳим ўрин тутиб, улар болага бахт олиб келади деб тушунишган [23, 11]. Қадимги Хивада ҳам бу одат ўтказилган, яъни вазирнинг ўғлига хоннинг ўзи, мулланинг ўғлига қози, муфти, оддий аҳоли вакиллари фарзандларига ўша жой оқсоқоллари исм қўйишган [24, 26]. Бу ҳолнинг достонда кенг ўрин эгаллаши, туркий ва мўғул халқларининг турмуш тарзида, мусулмон дини таъсирида сиқиб чиқарилган, шомонлик динининг қадимги магик маросимлари поэтик даражада акс этишидадир.

Абулғозининг «Шажараи тарокима» (1660 йил) асарида ярим афсонавий ҳолатда Туманхонга исм қўйиш тўғрисида маълумотлар учрайди. Асарда Ўғуз қабиласининг оқсоқоли, шомон ва бахшиси Қўрқут ота йиғилган одамларнинг илтимосига кўра, болага бахт келтириш маъносида – «Туман» деб исм қўяди. Қўрқут одамларга бу исмнинг маъносини тушунтириб, «Туман» болага бахтли келажак ато этади, яъни у балоғатга етганда ўз отасининг тахтига ўтиради, [25, 1]-деб таъкидлайди.

Бу қадимги афсонанинг тарихи Рашидиддиннинг «Ўғуз тарихи ва туркларнинг дунё устидан ҳукмронлиги» (XIV асрнинг бошлари) деб номланган асарида ҳам келтирилган [26, 24]. Достонда эса, Алпомишга исм қўйилиши ва унинг баҳодирлик йўли белгиланиши мусулмон авлиёлари номи билан боғлиқ ҳолда тасвирланган бўлиб, бу ҳолат ҳукмрон ғоя

таъсирида қадимий мотивларнинг кейинчалик ўзгара борганлигини кўрсатади. Бу фикрни «Алпомиш» достони материалларининг ўзи ҳам тасдиқлайди. Мурод Отабой ўғли, Умир шоир, Саидмурод Паноҳ ўғли вариантларида исм қўйишда Алининг аралашуви тилга олинмайди [27, 20]. Демак, энг аввал исмни эркак киши ёки уруғ бошлиғи, кўпни кўрган оқсоқол қўйган.

Оқсоқол-ҳомийлар мавзусининг тарихий илдизлари ибтидоий жамоа тузумига бориб тақалади. Эпос юзага келган қадимги даврдаёқ оқсоқол образи талқинига алоҳида аҳамият берганлар [28, 37]. Буни «Алпомиш» достонида қаҳрамон номининг кейинчалик ўзгартирилишидан ҳам билса бўлади. Лекин қаҳрамонга исм қўйиш ва унинг қаҳрамонона йўлини олдиндан белгиловчи сеҳрли фотиҳанинг диний тус олиши уруғ ва қаҳрамон ҳимоячи ҳақидаги қадимий тасаввурларнинг унутилишига сабаб бўлган. Аммо бу қадимий тасаввурларнинг илдизлари у ёки бу даражада достонда сақланиб қолган. Бундай фикрни достонда, жумладан, Фозил Йўлдош ўғли вариантида Алининг қаландар қиёфасида келиши тасвири тасдиқлайди. Гарчи достончи уни «Али» ёки «мусулмон авлиёларидан бири» деса-да, тасвирга яхшироқ диққат қилинса, унинг фольклордаги архаик фигура-шаман (қаландар), уруғ ёки қаҳрамон ҳимоясидан бошқа киши эмаслиги аён бўлади.

«Алпомиш» достонида қаҳрамоннинг туғилиши, бефарзандлик ҳамда ғайриоддий ҳомиладорлик каби мотивлар достоннинг қадимий элементларидан бўлиб, барча халқларнинг эпик асарларида учрайди [29, 2].

Ибтидоий одам тасаввурида ҳомиладорлик аёл танасига тотем (муқаддас саналган нарса) нинг киришидан деб ҳисобланади [30, 17]. Демак, ғайриоддий ҳомиладорлик ва унинг пайдо бўлиши икки хил ибтидоий тушунча-бири магик афсун, иккинчиси эса диний эътиқод билан изоҳланган. Агар аёл узоқ муддат бола туғмаса, «одатда бирор руҳнинг таъсиридан» [31, 3] баъзан эса «мулла ёки сеҳргарнинг магик афсунидан» деб билганлар [32, 4].

В.М.Жирмунскийнинг кўрсатишича, бу мотивнинг ўзининг нисбатан архаик шакли оналик уруғ даврига бориб тақаладиган «партеногенез» ҳақидаги ибтидоий тушунча билан боғланади [33, 15]. Бунга кўра, қаҳрамоннинг онаси сеҳрли олмани егандан ёки илоҳий сувдан ичганидан кейингина туғилади. Гул ҳиди, қуёш нури, ёмғир, шамол ҳам шундай вазифани ўташи мумкин. Достоннинг Бўрибой Аҳмедов вариантида Бойбўри ва Бойсарининг хотинлари қаландар берган сеҳрли олмани еганларидан кейин ҳомиладор бўлганликлари кўрсатиб ўтилади. Айтиш керакки, сирли қаландар образининг илдизи мифологик ритуалга кириб борадиган «қирқ чилтон»лар билан алоқадордир [34, 29]. Қадимий тушунга кўра, «чилтонлар ғайритабиий кучга эга оддий одам, баъзан эса қаландар қиёфасида келадилар. Шунинг учун ҳам улардан шубҳаланмайдилар» [35, 5].

Сеҳрли олма берган қаландар афсонавий чилтонлардан бирининг шакли ўзгарган поэтик намунасидир. Бу билан эса, «Алпомиш» достонида қаҳрамоннинг ажойиб ҳолатда туғилиши мотиви диний эътиқод асосида кўриниш беради. Бу Фозил Йўлдош ўғли, Эгамберди бахши, Абдулла шоир вариантларида қаҳрамонларнинг ота-оналари Шоҳимардон равзасига бориб сиғинишлари тарзида ифодаланиши диний эътиқоднинг кучли таъсири натижасида достонда кейинроқ кириб қолган [36, 21]. Бу фикрни достонда ислом дини тарқалмасдан илгариги қадимий тушунчаларни ифодаловчи элементларнинг мавжудлиги ҳам тасдиқлайди.

«Алпомиш» достонидан ташқари қаҳрамоннинг ажойиб ҳолатда туғилишини Ўрта Осиёнинг бошқа халқлари достонларида ҳам учратиш мумкин. Жумладан, қирғизларнинг «Манас», қозоқларнинг «Қоплон ботир», «Шора ботир», «Саин ботир» каби достонларида ҳам айни мотив мавжуд [37, 16].

Ўрта Осиё халқлари фольклор ва этнологиясига оид асарларда қаҳрамоннинг мўъжизавий туғилиши мотиви Олтой ва мўғул халқларида ҳам мавжуд бўлганлиги кўрсатиб ўтилади. Ушбу эса мазкур мотив талқинини қиёсий ўрганиш имконини беради. Бизнинг фикримизча, Ўрта Осиё халқларида ислом динининг ҳукмронлиги ва аҳоли турмуш тарзида бепуштликни магик ирим-сиримлар воситасида даволаш анъанаси мавжудлиги достонда

мазкур мотивни келтириб чиқарилган. Қаҳрамоннинг отаоналарининг Али-Шоҳимардон («Алпомиш»), Бобо Тўқлос («Шора ботир»), Бобо Умар («Саин ботир»), Олов хўжа («Ширин ва Шакар») каби мусулмон оламида машҳур бўлган «мўъжиза яратувчи» ларнинг қабрини зиёрат қилиб, уларнинг мозорида тунашган. Уларнинг тушида хоҳишларини бажо келтирувчи оқсоқол намоён бўлган. Қаҳрамоннинг ғайриодатий туғилиши мотивининг исломий моҳияти шундаки, қаҳрамоннинг туғилиши ва бахтли келажаги учун «ҳар бир уруғдан ҳўкиз» («Алеуко ботир» достонида) айғир, ҳўкиз, қўчқор ва серка («Дудар қиз» достонида) айғир, нор туя («Мерган Дарши» достонида) каби жониворлар муқаддас қадамжолар ёки пирларга қурбонлик келтирилади. Фарзандсиз ота-онанинг муқаддаслаштирилган тарихий шахсларнинг қабр ва мозорларида тунаб қолиши ва уларнинг тушида «ҳомий»ларнинг намоён бўлиши аждодлар культига алоқадор анимистик қарашлар маҳсулидир.

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, биз тадқиқ этган «Ёзи билан Зебо» достонида ифодаланган фол очиш, чироқ ёқтириш, халлослаш, қон чиқариш, ёвуз руҳларни ҳайдаш каби шомонистик ҳамда анимистик эътиқодлар билан боғлиқ этнографик материаллар халқ қарашлари ҳисобланади. «Алпомиш» достонида эса, от ва туя культига сиғиниш, фарзандга исм қўйиш ва қаҳрамоннинг ғайриоддий туғилиши каби одатлар тотемистик, шомонлик ва магик тасаввурлар ҳисобланиб, Ўрта Осиёда яшовчи туркий халқлар ичида мусулмончиликни қарор топиши натижасида исломий қарашлар ҳам воҳа халқ достонларида ўз ифодасини топган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абу-л-Гази. Родословная туркмен, - С. 58.
2. Ананьев Г. Караногайские народные предания // «Сборник материалов для описания местностей и племен Кавказа». Вып. XXVII, 1900. отд. III, - С. 34-38; Самойлович А. К вопросу о наречении имени у тюркских народов // «Живая старина», 1911. вып. II, - С. 299.
3. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. – Сталинобод, 1953. – С. 45.
4. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. – Сталинобод, 1953. – С. 45.
5. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. – Сталинобод, 1953. – С. 48.
6. Аширов А. Фарғона водийси аҳолисини турмуш тарзида диний эътиқодлар. Тарих. фанлари номзоди дисс.: - Т.: 2000. – Б. 93.
7. Басилов В.Н. Пережитки шаманства у туркмен-гокленов // Древние обряды, верования и культуры народов Средней Азии. - М., 1986. – С. 99.
8. Веселовский Ф.Н. Историческая поэтика. – М., 1940; Потанин Г. Казак – киргизские и алтайские предания. - С. 47-48;
9. Дала ёзувлари. Ғузор тумани, 2014 йил.
10. Диваев А.А. О происхождении алвасти, жина и дива. Народные легенды. Этнографические материалы // Известия общества Археологии истории и этнографии при Казанского университета. – Казан. 1894. Вып 2, Т. 4. - С. 11.
11. Диваев А. К вопросу о наречении имени у киргизов // «Туркестанские ведомости», 1916, № 206.
12. Жўраев М. Кўк бўри авлодлари // Фан ва турмуш. - Т.: 1983, № 3. – Б. 12.
13. Жўраев М. Сеҳрли рақамлар сири. – Т.: «Ўзбекистон», 1991. – Б. 53.
14. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. Тошкент: А Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б. 108.
15. Жирмунский В.М. Сказание об Алпамыше богатырская сказка. - М.: «Восточ. литературы», 1960. - С. 163.
16. Жирмунский В.М. Сказание об Алпамыше и богатырская сказка. - М., Издат. восточ. 1960. – С. 169.

17. Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Т.; 1960. – С. 159.
18. Мадаев О. «Алпомиш» билан суҳбат. – Т.: «Маънавият», 1999. – Б. 16.
19. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. – Т.: «Фан», 1968. – Б. 32-61.
20. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. – Т.: «Фан», 1968. – Б. 32-61.
21. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. – Т.: «Фан», 1968. – Б. 32-61.
22. Муродов М., Эргашев А. «Алпомишнома» Т. II.- Т.: «Меҳнат», 2000. – Б. 114.
23. «Обычаи киргиз семипалатинской области…» («Русский вестник», Т. 137, 1878, - С. 58-59.)
24. Orhan Saik Go'kuau, Dede Korkut, S/ XIX,
25. Radloff W. Aus sibirien, Bd I, Leipzig, 1884, S. 314; Вербицкий В.И. Алтайские инородцы, - С. 85.
26. Самойлович А.К. К вопросу о наречении имени у тюркских народов // «Живая старина», 1911. II. - С. 299.
27. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси. – Т., 1981. – Б. 111.
28. Токарев С.А. Исследование и материалы по вопросам первобытных религиозных верований. - М.: СССР, 1959.
29. Толстов С.П. Древний Хорезм. - М., 1948. – С. 312.
30. Турсунов Е.Д. Генезис казахский бытовой сказки. – Алма-Ата: «Наука», 1973. – С. 20.
31. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. № 1217.
32. Эргашев А., Халилова Д. «Ёзи билан Зебо» достони. – Қарши: «Насаф», 2000. – Б. 56.
33. Эргашев А. Халилова Д. «Ёзи билан Зебо» достони. – Қарши: «Насаф», 2000. – Б. 57.
34. Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши. «Насаф», 1999. – Б. 27.
35. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши. «Насаф», 1999. – Б. 34.
36. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. - Т.: «Фан», 1974. - С. 329.
37. Қидирбаева Р. Туркий халқлар эпоси генетик бирлигининг асослари // «Алпомиш» достони ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзуидаги халқаро конференция материаллари. – Т.: «Фан», 1999. – Б. 19.

ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ВА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБА ВА МИЛЛИЙ АМАЛИЁТ

Ишқуватов Валикул
Тошкент шаҳридаги А.И Герцен номидаги
Россия давлат педагогика университетининг
филиали профессори, т.ф.д
+99899 876-19-69 valikul.ishkuvatov.69@mail.ru

Аннотация: Мақолада дунёнинг ривожланган давлатларда жамоатчилик жамоатчилик назоратини амалга оширувчи маҳаллий бошқарув тузилмалари, сиёсий институтлар ва кенгашлар фаолияти, жамоатчилик ташаббуси билан норматив-ҳуқуқий асосда ташкил этилган жамоатчилик уюшмалари фаолияти ёритилган. Унда давлат томонидан уларга

берилган ваколатлар, уларнинг давлат ҳамда жамият бошқарувидаги фаол иштироки, бундай уюшмаларнинг давлатдан ва ҳукумат органларидан мустақил равишда иш олиб бориши билан бирга, кам таъминланганлар, кўп болали оилалар ва ногиронларнинг ҳуқуқларини таъминлашга доир ваколатларни амалга оширишда давлатдан ва белгиланган тартибда халқаро ташкилотлардан ҳуқуқий, услубий, ташкилий ҳамда молиявий ёрдам олиши ҳамда ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишдаги фаолияти хусусида сўз юритилган. Бу борада Ўзбекистонда жамоатчилик назоратини амалга оширишда хорижий мамлакатлар тажрибаси, ўзаро ҳамкорлик ва тажриба алмашинувнинг аҳамияти баён қилинган.

Калит сўзлар: ўзини ўзи бошқариш, хориж, жамоатчилик назорати, ғарб, халқаро тажриба, ваколат, ногиронлар, ҳамкорлик, Европа, ижтимоий ҳимоя.

Annotation: The article describes the activities of local governments, political institutions and councils, which exercise public control in the developed countries of the world, as well as the activities of public associations established on a regulatory basis on public initiative. It includes the powers vested in them by the state, their active participation in government and public administration, the independence of such associations from the state and government agencies, as well as the rights of low-income families, large families and the disabled. , methodological, organizational and financial assistance, as well as their work in solving problems related to the social protection of persons with disabilities. In this regard, the importance of the experience of foreign countries, mutual cooperation and exchange of experience in the implementation of public control in our country is described.

Keywords: self-government, foreign, public control, western, international experience, authority, disability, cooperation, Europe, social protection.

КИРИШ

Бугунги кунда халқаро тажрибага мувофиқ хорижда жамоатчилик асосидаги ўзини ўзи бошқариш тузилмалари ва бошқа ижтимоий институтлар фаолиятини ўрганиш ва улар фолиятини тадбиқ этиш муҳим рол ўйнайди. Агар хориж тажрибасига мурожаат қилинса, хорижда ҳам жамоатчилик назоратини амалга оширишда ўзини ўзи бошқариш тузилмалари муҳим ўрин тутади. Улар аслида давлатдан ва ҳукумат органларидан мустақил равишда иш олиб бориши билан бирга, ногиронларнинг ҳуқуқларини таъминлашга доир ваколатларни амалга оширишда давлатдан ва белгиланган тартибда халқаро ташкилотлардан ҳуқуқий, услубий, ташкилий ҳамда молиявий ёрдам олиши ҳамда ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишда, шунингдек тегишли тадбирларни молиялаштиришда иштирок этадилар. Бундан шуни англаш мумкинки, хорижий тажрибага кўра, бизда ҳам ўзини ўзи бошқариш органларини, яъни маҳаллаларни давлат ва ҳукуматдан мустақил фаолият юритишини муқобил вариантларга ўтказиш мақсадга мувофиқ. Булардан бири, бизнингча уларнинг иқтисодий, молиявий ва тадбиркорлик фаолиятига ваколат бериш ва уларни тўғри ташкил этиш муҳим рол ўйнайди.

АСОСИЙ ҚИСМ

Жамоатчилик назоратининг умумэътироф этилган нормаларига мувофиқ, агар ушбу тузилмалар фаолиятини таққослаш учун, бошқарувнинг хориж мамлакатларидаги тизимига эътиборни қаратсак, ғарб олимлари ўз шарт-шароитларига мувофиқ ўзини ўзи бошқариш тузилмаларига маълум тавсифлар берганлар. Жумладан, рус олимлари В.И Фадеев ва Л.Е Лаптевалар фуқароларнинг ўзини ўзи бошқарувининг моҳияти қуйи даражада ижтимоий ҳокимият манбаи бўлиши, кундалик ҳаётдаги масалалар бўйича мустақил қарор қабул қилиши ва унинг оқибати учун жавобгар бўлиши каби фуқаролик ҳуқуқларини тан олиш демакдир, дея қайд этадилар [1. –С 17-21. 12-15, 124-125]. Л.А Велиховнинг таъкидлашича, ўзини ўзи бошқариш ўз табиатига кўра, марказий ҳокимиятдан мустақил ва эркин бўлиш ҳуқуқига эга. Зеро, давлат уни вужудга келтирмайди, балки фақатгина эътироф этади [2. –Б 236].

Яъни, ғарб мамлакатларида жамоатчилик асосидаги ўзини ўзи бошқарув тизими ўзига хос тарзда шакллантирилган. Масалан, германиялик давлат ва жамият назарияси билан шуғилланган Г.Еллинек маҳаллий ўзини ўзи бошқариш деганда, "...давлатнинг профессионал мансабдор лавозимига эга бўлмаган шахслар орқали бошқарилишини, бунда бошқарувдан манфаатдор шахслар воситасида давлатнинг бюрократик бошқарув тизимига қарама–қарши бўлган бошқарув" ни тушунади [3. Б 466]. Унда муаллиф бошқарувнинг тўла демократик асосдаги фуқаролик жамиятига асосланган, қонунларга тўла бўйсунувчи, ҳар қандай мафкурадан холи ўзига хос бошқаруви эканига урғу беради.

Англиялик И. Редлих эса маҳаллий ўзини ўзи бошқариш деганда, "Маҳаллий ҳокимият ёки унинг сайланган вакиларига Қонунчилик ҳокимияти томонидан тақдим этилган, ёхуд умумий ҳуқуқлар доирасида уларга тегишли бўлган вазифа ва ваколатларни амалга оширилиши" ни тушунади. Айрим Ғарбий Европа давлатларида, одатда шаҳар муниципал бошқармалари ва қишлоқ коммуналари маҳаллий ўзини ўзи бошқаришнинг бошланғич ячейкаси ҳисобланиб, улар турлича номланади. Шунингдек, аҳоли сони ва ҳудуд ўлчами жиҳатидан бир–биридан фарқ қилади. Муниципалитетларни ташкил этиш ва бошқариш ана шундай тузилмалардан биридир. Бундай тузилмалар Буюк Британия, Германия, Франция ва Скандинавия давлатларида амал қилади. Ғарбий Европа давлатларидаги маҳаллий бошқарувни ўзаро алоқадор уч турга бўлиш мумкин:

а) *тузилмавий;*

б) функционал;

в) *ташкилий.*

Кундан–кунга ошиб бораётган турли ижтимоий муаммоларни жойларда бартараф этиш зарурати муниципалитетларни катта шаҳарлар билан бирга, марказдан узоқ аҳоли пунктлари, яъни қишлоқларда ҳам тузишни талаб этмоқда [5. Б. 302 14-15. 39]. Бу маҳаллий бошқарувдаги тузилмавий ислоҳотларнинг типик кўринишидир.

Айни пайтда, функционал ислоҳотлар ҳуқуқ ва мажбуриятлар унитар давлатларда ёки федерация субъектида маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари эга бўладиган эркинлик даражасини ўз ичига олади. Ташкилий ислоҳотлар эса, асосан Европанинг Ғарбий қисмидаги айрим давлатларга хосдир. Масалан, Британияда муниципал бошқарувнинг англо–саксон модели яратилган. Бу модель маҳаллий жамоалар, қавмлар, шунингдек шаҳарлар негизида юзага келади, уларни бошқариш тизими аста–секин мамлакатни бошқаришнинг давлат вертикалига киритиб борилади. [6. 462-463].

Юқорида қайд этилган фикрлардан шуни англаш мумкинки, шарқда мусулмон қоидаларига мос бошқарув тизими, ғарбда эса ўзини ўзи бошқариш тизими сифатида асосан, шаҳар муниципал бошқармалари ва уларнинг жойлардаги бўлимлари фаолияти назарда тутилган. Бундай уюшмалар маҳаллий бошқарув тизими сифатида эътироф этилади. Яъни айрим вазифаларни бажаришда ҳукумат уларга ўз таъсирини ўтказа олмайди.

Юқориги параграфларда жамоатчилик назоратини ташкил этишда кекса нуронийлар, пиру-бадавлат отахону-онахонларнинг ўрни муҳим эканлиги таъкидланди. Бу борада хорижий ҳамкорлик ва хорижий тажрибаларни ўрганиш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Бу борада айрим ривожланган давлатлар тажрибаси ўрганилганда, улардан самарали фойдаланиш муҳим аҳамиятга эгаэканлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Агар хориж, мамлактлари тарихий тажрибасига эътибор қаратилса, Германия, Франция, Белгия, Австрия, Швейцария, АҚШ, Япония ва бошқа давлатларда кексалар фаолиятини махсус тадқиқ этувчи "Геронтология" марказлари фаолият олиб боради. [7. Б 271]. Мазкур марказларда кексалар фаолиятига доир Қонунчилик, пенсия таъминоти ва ижтимоий ҳимоя, соғлиқни сақлаш ҳамда кекса авлод вакилларини соғломлаштириш тадбирларини янада такомиллаштириш, уларга давлат хизматлари кўрсатиш тизимини шакллантириш ва бошқа шу каби бир қанча ислоҳотлар олиб боришни такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Шу боисдан балки бизда ҳам ғарб давлатларидаги марказларга ўхшаш, кексалар ва ногрионларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлашга йўналтирилган Республика “Хайрия–эҳсон” жамоат фондини тузиш мақсадга мувофиқдир. Бундай ҳайрия фондларининг ташкил этилишида хусусий тадбиркорлар, бизнес вакиллари, турли жамоат ва диний ташкилотлар ҳамда фуқароларнинг ўз–ўзини бошқариш органлари фаолиятидан самарали фойдаланиш зарур бўлади.

Бундан ташқари, давлатнинг турли солиқ, кредит имтиёзлари тизимини яратиш орқали фуқароларнинг, жамоат ташкилотларининг хўжалик субъектларининг ҳомийлик, ҳайрия ишларига маблағлар ажратишларини рағбатлантириш чора-тадбирларини кучайтириш ҳам ижобий самара беради. Олиб борилган кучли ижтимоий сиёсатга мувофиқ республикамизда бугунги кунда 225 минг нафар 80 ёшдан, 44 минг нафар 90 ёшдан, 8 минг 700 нафар 100 ёшдан ошган инсонлар яшайди. 10 мингга яқин уруш ва фронт ортида хизмат қилган шахслардир, 12 мингга яқин эҳтиёжманд ногиронлар истиқомат қилади [8. Б. 151-155].

З. Рўзиевнинг ёзишича, жамоатчилик назорати борасида хориж тажрибасига мувофиқ, «Save the children» халқаро ташкилотининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси директори Сон Чон Бей, «Ўзбекистоннинг жамоатчилик назорати борасидаги тажрибаси ғоят қизиқарли. Зеро, қонун лойиҳасини ишлаб чиқишда нафақат Ўзбекистоннинг ўзига хос хусусиятлари, балки хорижий мамлакатлар тажрибаси ҳам эътиборга олинган. Ушбу меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатнинг ишлаб чиқилиши ва қабул қилиниши фуқаролик жамиятининг янада ривожланиши ва ижтимоий ислоҳотларни амалга оширишга, муайян соҳаларда фуқаролар манфаатларининг янада тўлароқ ҳимояланишига хизмат қилади», дея фикр билдириганини ёзади.

Муаллифнинг қайд этишича, масалан Европа Кенгашининг Вазирлар Қўмитаси томонидан 2003 йил 16 апрелда қабул қилинган Европада ноҳукумат ташкилотлар мақоминининг асосий принциплари ва уларга доир Тушунтириш хати муҳим ўрин тутади. Мазкур минтақавий халқаро ҳужжат Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги Конвенциянинг «ҳар ким тинч йиғинлар ва бошқалар билан уюшиш эркинлиги ҳуқуқига эга» эканлиги хусусидаги 11-моддасини, ноҳукумат ташкилотлари демократик жамиятнинг яшовчанлигини, хусусан уни жамиятнинг билимдонлиги оширилиши ва фуқароларнинг жамият ҳаётида фаол иштирок этиши орқали ривожлантириш, рўёбга чиқариш ҳамда сақлаб туришга катта ҳисса қўшиши ва худди шунингдек жамиятнинг маданий ҳаётини ривожлантиришга ҳамда ижтимоий фаровонликка кўмаклашиши, шунингдек, уларнинг ҳиссаси жамиятнинг турли қисмлари ва давлат ҳокимияти органлари ўртасидаги боғловчи ахборот бўғини ролини бажариш, қонун ҳужжатларидаги ва давлат сиёсатидаги ўзгаришларни жадаллаштириш ҳамда муҳтожларга ёрдам кўрсатишдан то техник ва профессионал стандартларни ишлаб чиқиш, миллий ва халқаро қонун ҳужжатлари бўйича олинган мажбуриятларнинг бажарилишини текшириш, ўзини намоён этиш учун имкониятлар бериш, шунингдек умумий манфаатларни кўзлаш, олға суриш ва ҳимоя қилишгача бўлган ғоят хилма-хил фаолият турлари орқали амалга оширилишини ҳисоблаган ҳолда қабул қилинган.

Мазкур халқаро ҳужжатнинг «Амал қилиш соҳаси» деб номланган бўлимига аҳамият берадиган бўлсак, унда ноҳукумат ташкилотлар – бу, аслида, кўнгилли ўзини ўзи бошқарувчи ташкилотлар бўлганлиги сабабли давлат ҳокимияти органларига бўйсуниши мумкин эмаслиги, уларни тавсифлаш учун миллий қонун ҳужжатларида қўлланиладиган атамалар турлича бўлиши мумкинлиги, булар уюшмалар, ҳайрия жамиятлари, фондлар, жамоат, нотижорат ташкилотлари, жамиятлар ва трастлар шаклда бўлиши мумкинлигини кўриш мумкин. [9.Б. 170].

Жамоатчилик асосида муаммоларни ҳал этишда халқаро тажрибага кўра, муаммолар ва уларни ҳал этиш борасидаги мурожаатлар инстанциясига мувофиқ, дунёнинг айрим ривожланган мамлакатлари мисолида қайд этадиган бўлсак, ушбу мамлакатларда ҳам фуқаролар муҳим иқтисодий, ижтимоий ва бошқа муаммоларни ҳал этишда маҳаллий муниципал бошқармалар фаолиятига таянадилар.

Ўрганишлар шуни кўрсатдики, ривожланган 22 та мамлакатда иш билан банд бўлмаган аҳолининг ўртача 4,9 фоизи бевосита ишсизликни бартараф этиш масаласида мазкур ташкилотга мурожаат этар эканлар. Бу кўрсаткич Нидерландияда 12,4, Ирландияда 11,5, Бельгияда 10,5, Исроилда 9,2, Австралияда 7,2, Буюк Британияда 6,2 фоизга тенгдир [10. Б. 10.22-23].

Халқаро ҳамкорлик алоқаларига мувофиқ, жамоатчилик назоратини янада кучайтириш мақсадида республика "Ижтимоий фикр жамоатчилик маркази" ҳамкорлигида Германиянинг "Фридрих Эберт жамоатчилик фонди" ҳамкорлигида давра суҳбатлари ташкил этиб борилади. Давра суҳбатларда жамиятнинг муҳим ижтимоий муаммоларидан бири сифатида гендер инсон ҳуқуқи-аёл ҳуқуқи, инсон муаммоси-аёл муаммоси эканлиги эътироф этилиб, нафақат аёлларнинг, балки эркакларнинг, жамиятнинг ҳам муаммоси эканлигини ўрганишга урғу берилмоқда. Ваҳоланки, Ўзбекистон 1991 йил 30 сентябрда "Инсон ҳуқуқлари ва озодлиги ҳақидаги декларацияни ратификация қилган бўлиб, унда аёллар ва эркаклар гендер тенглигини таъминлашга қаратилган дастлабки нормалар белгилаб берилган. Албатта мустақиллик йилларида аёллар ҳуқуқлари ва гендер тенглиги муаммолари билан бирга, уларни иш билан таъминлаш, иш шароитларини яхшилаш, қулай бўлган меҳнат турларига жалб қилиш, айниқса олиавий тадбиркорлик, касаначиликни ривожлантириш борасида маълум даражада тажриба тўпланди.

Зеро, хорижий тажрибага кўра, ўзини ўзи бошқариш органларини, яъни маҳаллаларни давлат ва ҳукуматдан мустақил фаолият юритишини муқобил вариантларга ўтказиш мақсадга мувофиқ. Булардан бири, бизнингча уларнинг иқтисодий, молиявий ва тадбиркорлик фаолиятига ваколат бериш ва уларни тўғри ташкил этишдир. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузурида Жамоатчилик палатаси ташкил этилган бўлиб, унинг ҳудудий жамоатчилик палаталари доимий фаолият юритувчи маслаҳат кенгаши органи ҳисобланади.

Фармон билан палатага бир қатор ваколатлар берилди. Унга кўра янги тузилма шахс – жамият – давлатнинг мамлакатни янада жадал ва ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган саъй-ҳаракатларини бирлаштирувчи энг мақбул мулоқотини йўлга қўяди, фуқароларнинг давлат ва жамият ишларидаги иштирокини фаоллаштириш, давлат-хусусий шерикликнинг замонавий механизмларини жорий этишга кўмаклашади, аҳоли фикрини тизимли ўрганиш орқали тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш бўйича таклифларни киритиб боради.

Давлат органлари ҳузуридаги жамоатчилик кенгашлари фаолиятини кучайтиришга хизмат қилади, муҳим норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасидан ўтказади, норма ижодкорлиги сифатини тубдан яхшилашга кўмаклашади, фуқаролар, нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари вакиллари ва блогерларнинг сўз эркинлиги, фуқароларнинг ахборот олиш ва тарқатиш ҳуқуқини амалга оширишга ёрдам беради, ислоҳотлар ва давлат дастурларининг жойларда ва соҳаларда амалга оширилиши устидан жамоатчилик мониторингини ташкиллаштириш, уларни сифатли бажариш учун қўшимча чоралар кўриш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш, эришилган кўрсаткичлар, ижобий ўзгаришлар ва мавжуд муаммолар тўғрисидаги ахборотни Ўзбекистон Республикаси Президенти, Олий Мажлис палаталари ва Ҳукуматга мунтазам киритиб боради. [11. ttps://uza.uz/uz/posts/zhamiyat-islo-otlar-tashabbuskori-22-042020].

Бунда албатта, фуқаролик жамиятида маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларини бошқараётган маҳалла раисларининг ташаббускорлиги, жамиятдаги ўзгаришларга дахлдорлик ҳисси, қолаверса салоҳияти муҳим роль ўйнашини қайд этиш ўринли.

Бугунги фуқаролик жамияти қуриш шароитида маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларининг ўзаро ҳамкорлик алоқалари ошиб, мустаҳкамланиб боргани сари фуқаролик жамияти институтларининг давлат ва ҳокимият тузилмалари фаолияти устидан таъсирчан жамоатчилик назоратини амалга оширишдаги роли, фуқаролик назорати институти сифатида

жамиятнинг давлат билан ўзаро самарали алоқасини таъминлаш, одамларнинг кайфиятини, мамлакатда кечаётган ўзгаришларга муносабатини аниқлашнинг муҳим воситаларидан бирига айланиб бормоқда.

Ўзини ўзи бошқариш тизимида муҳим рол ўйнайдиган яна бир жиҳат бу, жамоатчилик асосида коррупцияга қарши курашишдир. Агар ривожланган давлатлар тажрибасига эътибор қаратилса, коррупцияга қарши курашиш борасида тавсияларни ишлаб чиқиш бўйича етакчи халқаро тузилма – Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг тадқиқотига кўра, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ваколатларига коррупцияга қарши курашиш бўйича кўп мақсадли идораларнинг модели комплекс ёндашувнинг энг ёрқин намунасидир. Ушбу тургa тегишли бўлган чора тадбирларга кўра жамоатчилик асосида коррупцияга қарши курашиш соҳасида ўзига хос сиёсатни ишлаб чиқиш, таҳлилий фаолият, жиноятларнинг олдини олишда кўмаклашиш, фуқаролик жамияти билан ҳамкорлик қилиш, маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш, коррупцияга қарши курашиш дастурининг бажарилишини мониторинг қилиб бориш каби вазифаларни бажаради.

Бундай моделни Гонконгнинг коррупцияга қарши курашиш Мустақил комиссияси ва Сингапурнинг коррупция фаолияти бўйича тергов Бюроси билан тенглаштириш мумкин. Сингапур Бюроси ўз ичига – тергов, маълумот ва ахборот, кўмаклашиш бўлимларини олади. Бўлимлар ичида энг каттаси Тергов бўлиб, у Бюро томонидан амалга ошириладиган операциялар учун масъул саналади. Сингапур тажрибаси бир қатор мамлакатларда жорий этилди. Жумладан, 2005 йилнинг декабрь ойида Польша полиция (жиноятни фош қилиш) ҳамда ахборот-таҳлилий функцияларни бажарувчи Коррупцияга қарши курашиш марказий бюросини ташкил этиш тўғрисидаги қонунни қабул қилди. Бюро фаолияти Польша махсус органлари ишлари бўйича Сейма комиссияси томонидан назорат қилинади. Бу ҳақда маълумот махфий характерга эга.

Эътироф этиш керакки, шунга ўхшаш тажриба Латвия, Литва ва Украина каби собиқ иттифоқ мамлакатларида ҳам қўлланилган. Хусусан, Латвияда коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича Бюро мавжуд. Бунда қонун чиқарувчилар томонидан коррупцияга қарши курашишда қонунчиликка қатъий риоя қилиш ҳамда Бюро фаолияти устидан парламент назоратининг ғоятда самарали механизми назарда тутилган. Шунингдек, бунда депутатлик сўровларининг умумэътироф этилган амалиёти, юқорида қайд этилган ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари раҳбарларини махсус парламент қўмиталарига таклиф қилиш, махсус ad hoc комиссияларини тузиш ва бошқалар қўлланилиб келинмоқда.

Бизнингча, Ўзбекистонда ҳам жамоатчилик назорати асосида фуқаоларнинг ўзини ўзи бошқариш тузилмаларига коррупцияга қарши курашишда уларнинг ролини ошириш борасида ғарб жамиятидан фарқли равишда, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш институти–маҳалла фаолиятининг ташкилий асосларини янада такомиллаштириш, унинг вазифалари кўламини кенгайтириш, бу борада давлат ҳокимияти ва бошқарув органлари билан ўзаро яқин алоқаларини таъминлаш зарур.

Маҳаллаларда фуқароларнинг қонуний ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш борасидаги ўзарол ҳамкорликларга кўра, масалан Омбудсман ва Республика ва “Ижтимоий фикр” жамоатчилик фикрини ўрганиш маркази мутахассислари Республика маҳаллаларида социологик сўровномалар ўтказилган. Натижаларга кўра, респондентларнинг 56,8 фоизи маҳаллаларда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ва уларга моддий ёрдамлар кўрсатишда коррупция борлигини таъкидлаганлар. Уларнинг 76,3 фоизининг фикрича, мазкур иллат ҳамма жойда эмас, балки айрим маҳаллаларда бор. Масалан, сўровда иштирок этганларнинг 37,6 фоизи томонидан маҳаллаларда маҳалла раисларининг айрим ташкилот ва корхоналар билан ноқонуний ижтимоий шерикчилик қилишлари, кам таъминланган оилаларга ижтимоий таъминотларни белгилаш, коммунал хизматни ташкил қилиш, одамларни оммавий тадбир ва мажбурий ишларга жалб қилиш каби фаолиятлар жараёнида коррупция учраши билдирилган [12. Б. 118].

Хусусан, 2015 йилда Инсон ҳуқуқлари бўйича вакил Омбудсман номига маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларидан 12 мингдан ортиқ мурожаатлар келиб тушган. Мурожаатларни ўрганиш натижалари бўйича 6 мингдан ортиқ аризачига уларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини келгусида амалга ошириш бўйича оғзаки ва ёзма тавсиялар тарқатилган. Яна 6 мингта мурожаат белгиланган тартибда давлат бошқаруви органлари билан ҳамкорликда ўрганиб чиқилган. [13. Б. 14].

Шу боис хориж тажрибаси аасосида янги Ўзбекистонда бошқарув соҳасини марказлаштиришни чеклаш, бу борадаги вазифаларнинг бир қисмини республика даражасидан вилоят, туман ва шаҳар миқёсидан фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига ўтказиш, уларнинг ваколат доираларини кенгайтириш масаласига катта аҳамият қаратилмоқда.

Бу борада 2021 йил иккинчи ярмидан бошлаб, республикмиз барча маҳаллаларида тажриба тариқасида “Ҳоким ёрдамчиси” лавозими жорий этилди. Бу ўз навбатида жамоатчилик назоратига ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Мазкур лавозимга олий маълумотли, иқтисодиёт соҳасида камида 2 йил меҳнат стажига эга, маҳалладаги мавжуд имконият ва муаммолардан яхши хабардор бўлган фуқаролар тайинланади. Улардан тадбиркорликни ривожлантириш, фуқароларнинг бизнес лойиҳа ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тажрибасига эга бўлиш талаб этилмоқда.

“Ҳоким ёрдамчиси” бевосита маҳалланинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, ҳудуднинг “ўсиш нуқталари”дан келиб чиққан ҳолда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш чораларини кўришда бош-қош бўлади. Бундан ташқари, ишсиз аҳолини касб-ҳунарга ўқитиш, ишлаш истагидаги ишсиз фуқаролар бандлигини таъминлаш ҳамда аҳолининг ўзини ўзи банд қилишига кўмаклашиш каби тадбирларни ташкил этиш ҳам унинг зиммасига юклатилади. Шунингдек, “Ҳоким ёрдамчиси” тадбиркорлик қилиш истагидаги фуқаролар, жумладан, аёллар ва ёшларга кредит ҳамда субсидиялар ажратилишига доир дастурлар ижросини назорат қилиб бориши белгиланди. Бу Ўзбекистон Республикасининг Тараққиёт стратегиясида ҳам ўз ифодасини топди [14. 1. 01. 2022.]. Тадбиркорлик фаолиятини кенгайтириш, ҳудудий ва инвестиция тизимига таклифлар ишлаб чиқиш чораларини кўриш ҳам мазкур янги лавозим ваколатига киритилди.

МЕТОДОЛОГИЯ

Мақола ижтимоий-гуманитарда қабул қилинган объективлик, изчиллик, ижтимоий воқеа ва ҳодисаларни хронологик асосда ўрганиш, манба ва даллиларга таяниш ва уларнинг ҳаққонийлига асосланиш тамойиллари негизида ёритилди. Мақолада айрим манбаларни контент-таҳлили, ижтимоий- фалсафий таҳлили ва манбалар билан ишлаш методлари асосида ёритилган. Ҳар қанда илмий тадқиқот ўз методологик жиҳатдан ўрганилганлиги билан ижтимоий-гуманитар фанларда ажралиб туради. Ушбу мақола ижтимоий фалсафа, тарих, маданиятшунослик, диншунослик фанлари тизими доирасида олиб борилган фалсафий ва тарихий манбалар таҳлили тадқиқотларига асосланган ҳолда ёритилган. Бундай ёндашув асосидаги тадқиқотлар натижалари бугунги кунда инсонлар турмуш тарзини ижобий томонга ўзгаришига, уларнинг маънавий-ахлоқий хусусиятларини шакллантиришга, аҳоли онгида анъанавий ўзбек маҳалларига ижтимоиймаънавий қадриятларнинг муҳим субъекти сифатидаги ўрнини ошишига хизмат қилади. Ҳар қанда илмий тадқиқот назарий-методологик жиҳатдан ўрганилганлиги билан барча фанларда алоҳида ўринга эга. Шу боисдан ушбу мақола фалсафа, тарих, маданиятшунослик ва социология фанлари аососида олиб борилган тарихий-этнографик манбаларни ўрганиш, таҳлил қилиш ва эксперт таҳлил методларига асосланган ҳолда ёритилди.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Юқоридаги фикр мулоҳазалардан келиб чиқиб, айрим ғарб давлатларидаги “геронтолгия” марказларига ўхшаш, кексалар ва ногрионларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлашга йўналтирилган Республика “Хайрия–эҳсон” жамоат фонди ёки марказини тузиш

мақсадга мувофиқдир. Бундай ҳайрия фондларининг ташкил этилишида хусусий тадбиркорлар, бизнес вакиллари, турли жамоат ва диний ташкилотлар ҳамда фуқароларнинг ўз–ўзини бошқариш органлари фаолиятидан самарали фойдаланиш зарур бўлади. Бундан ташқари, давлатнинг турли солиқ, кредит имтиёзлари тизимини яратиш орқали фуқароларнинг, жамоат ташкилотларининг хўжалик субъектларининг ҳомийлик, ҳайрия ишларига маблағлар ажратишларини рағбатлантириш чора-тадбирларини кучайтириш ҳам ижобий самара беради. Қайд этилган мулоҳазаларимиздан келиб чиқиб жамоатчилик назоратида ҳамкорлик ва халқаро тажрибадан келиб чиқиб, қуйидаги хулосларга келинди ва айрим таклифлар илгари сурилди:

- хорижий тажрибага кўра, Ўзбекистонда ҳам ўзини ўзи бошқариш органларини, яъни маҳаллаларни давлат ва ҳукуматдан мустақил фаолият юритишини муқобил вариантларга ўтказиш мақсадга мувофиқ. Булардан бири, бизнингча уларнинг иқтисодий, молиявий ва тадбиркорлик фаолиятига ваколат бериш ва уларни тўғри ташкил этишдир;
- ҳамон аксарият маҳаллаларда маҳалла раисларининг ижтимоий, маънавий, сиёсий билим даражалари етарли эмас. Уларнинг фаолиятини талаб даражасида, деб бўлмайди. Шу боисдан, маҳалла раислигига ўз номзодини илгари сурган шахслар ёки сайланган раисларнинг маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ва унинг ҳудудлардаги бошқармалари, бўлимлари ҳузурида махсус комиссия тузиб, шу асосда аттестациядан ўтказиш тизимини жорий этиш лозим;

-маҳаллаларда зиёрат туризмини ривожлантириш учун унинг стратегик дастурий мақсад-вазифаларидан келиб чиқиб, мамлакатимизда ички ва халқаро зиёрат туризмини ривожлантириш бўйича барча маҳаллаларда ушбу йўналишда иш олиб бораётган илғор маҳаллалар тажрибасини кенг тарғиб қилиш ва махсус режани ўз ичига олган ахборотмаълумотлар базасини яратиш;

-аксарият маҳалла идоралари мослаштирилган биноларда ёки маҳалладаги эски биноларда жойлашган. Шу боис 2022-2025 йилларда Ўзбекистоннинг барча ҳудудларида жойлашган маҳалла идоралари учун босқичма-босқич ягона лойиҳа ва кўринишга эга бўлган янги маҳалла идоралари қуриш мақсадга мувофиқ. Республикадаги барча маҳалла идораларини марказлашган бошқарув тарзида онлайн алоқа орқали “Республика Маҳалла хайрия жамоат фонди” нинг ягона электрон тармоғига улаш;

- амалдаги қонунчиликка биноан янги келин-куёвлар турмуш қуриш учун махсус рўйхатдан ўтаётган вақтда маълум миқдордаги давлат божи тўлашлари белгиланган. Мазкур давлат божининг 50 фоиздан юқори бўлмаган миқдорини куёв яшаб турган маҳалладаги фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг ҳисоб рақамига ўтказиш мақсадга мувофиқдир. Бу маҳалланинг молиявий имкониятларини ва жамоатчилик назорати таъсирчанлигини оширади.

Иқтибослар/ сноски/ references

1. Фадеев В.И Муниципальное право России.-М.. 1994. –С 17-21. Яна ўша муаллиф: Гарантии прав местного управления.-Москва.. 1994. –С 12-15, Лаптева Л.Е Об истории земских учреждений в России.// Государство и право. –Москва., 1993. -№8 - С 124-125.
2. Велихов Л.А. Основы гордского хозяйства. –Обнинск. 1995. –С. 236.
3. Еллинек Г. Общее учение о государстве. –СПБ., 1908. – С466.
4. Недлих И. Английское местное самоуправление. СПБ., 1908 -С 462.
5. Летовска Е. Как начиналась работа уполномоченного п ограждански правам. Том 1 –Москва., 1997. –С. 302 ; Carlos Perese Fernandos. History of the origin from Civil protector before protector of fol- EstrategiaGlobal. 2003 №11.-p.14-15;
6. Редлих И. Английское местное самоуправление. СПБ., 1908 -С 462-463.
7. Альперович В.Д. Геронтология: Старость. Социокультурный портрет. - Москва.: 1998. –С. 271

8. Холиқов Э, Бердиев Х.Кексалар: билганларимиз ва билмаганларимиз.- Тошкент., 2019.-Б. 151-155.

9. Рўзиев З. Р. Фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг ваколатлари (конституциявий-ҳуқуқий таҳлил). Юридик фан.докт. диссертация автореферати. Т., 2016. –Б 170.

10. Анхайер Хельмут. Гражданское общество и «третий сектор». «Deutschland» журнали, 2000, N5, Б 22-23.

11. https://uza.uz/uz/posts/zhamiyat-islo-otlar-tashabbuskori-22-04-2020

12. Ишқуватов В. Т. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг ривожланиш тарихи. (1991-2020 йй). Тарих фанлари доктори (dsc)илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т., 2020. 118-бет. .

13. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) 2015 йилда. // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2016 йил. № 2, -Б.14.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги нинг Фармони// Янги Ўзбекистон. 1 февраль. 2022 йил.

ЎЗБЕКИСТОНДА МЕВА-САБЗАВОД МАҲСУЛОТЛАРИ КООПЕРАЦИЯСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ

Эргашев Р.Х.
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори

Аннотация. Ушбу мақолада мамлакат мева-сабзавот маҳсулотларини кооперациясини ташкил этиш ва шу асосида барқарор ривожлантириш ҳамда иқтисодий самарадорлигини оширишга доир таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: мева-сабзавот, кооператив, кооперация, агросаноатмажмуаси, самарадорлик, бозор, инновации, иқтисодий самарадорлик, рақаботбардошлик, маркетинг.

Abstract. In this article, suggestions and recommendations are given on the organization of the cooperation of fruit and vegetable products of the country and on this basis, sustainable development and increase of economic efficiency.

Key words: fruit and vegetable, cooperative, cooperation, agro-industrial complex, efficiency, market, innovation, economic efficiency, competitiveness, marketing.

Кириш. Ўзбекистон иқтисодиётининг, жумладан мева-сабзавот тармоғининг истиқболдаги ривожланиши бевосита глобаллашув ва жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув жараёнлари билан боғлиқ бўлиб, ушбу интеграллашув халқаро рақобат муаммосини келтириб чиқармоқда. Мамлакат ички талабини кескинлашуви эса мевасабзавот маҳсулотлариниг етиштирувчи субъектларларни янада мураккаб ҳолатга тушиб қолишига олиб келмоқда. Бунинг натижасида маҳсулот етказувчилар хорижий рақобатчи корхоналар билан икки йўналиш бўйича, яъни, ички бозорда ўз мавқеини сақлаш, ҳамда янги ташқи бозорга кириб бориш мақсадида рақобат жангига киришмоқдалар.

Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавот маҳсулотлари асосан хусусий тармоқда етиштирилаётган бўлиб, унинг 75-85 фоизи деҳқон ва фермер хўжаликлари зиммасига тўғри келган бўлса, бугунги кунда боғдорчилик соҳасидаги йирик тадбиркорлик субъектларининг сони ортиши мева-сабзавот етиштирувчи хусусий тармоқ ўртасида рақобатнинг кучайишига олиб келмоқда. Бундай тизимда мавсумий пишиб етиладиган ва транспортда ташишга кўп ҳолларда ноқулай бўлган сабзавот маҳсулотлари жуда кўп сонли, жойлашуви жиҳатидан

тарқоқ ҳамда ҳажми кичик деҳқон ва фермер хўжаликларининг рақобат курашида иштирок қилишлари учун уларнинг кооперацияга бирлашишлари муҳим аҳамият касб қилади.

Ўзбекистон Республика Президентининг 2021 йил 23 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2022-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5853- сонли фармони [1], шунингдек, 2021 йилнинг 14 мартдаги "Мева-сабзавотчилик соҳасида қишлоқ хўжалиги кооперациясини ривожлантириш чора- тадбирлари тўғриси-да"ги ПҚ-4239-сонли қарори [2] билан мева-сабзавотчилик ривожланган ҳудудларида фаолият юритаётган фермер ва деҳқон хўжаликлари негизида ихтисослашган кооперативлар ташкил қилиш ва унинг самарадорлигини ошириш назарда тутилган. Шунингдек, 2021 йил 11 декабрдаги "Мева- сабзавотчилик ва узумчилик тармоғини янада ривожлантириш, соҳада қўшилган қиймат занжирини яратишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4549-сонли[3] ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 7 июлдаги "Аграр соҳада илм-фан, таълим ва ишлаб чиқаришни интеграция қилиш орқали сифат ва самарадорликни оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-216сонли қарорлари [4] мевасабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқариш ,сақлаш, қайта ишлаш ва сотиш соҳасидаги илғор технологияларни жорий этиш ҳамда ушбу маҳсулотларни ишлаб чиқарувчиларнинг кооперациясини ривожлантиришни рағбатлантириш ҳамда самарадорлигини ошириш зарурати мавжудлиги. Шу сабабдан мазкур фаолиятига тегишли бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини мустаҳкамлаш, озиқ –овқат маҳсулотлари сифатини яхшилаш, маҳсулотлар билан савдо қилиш тизимини такомиллаштириш учун шарт-шароитлар яратишда қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва маҳсулот ишлаб чиқаришни кооперация тамойили асосида ташкил этиш дунёда тобора кенгаймоқда.

Шу билан бирга республикада маҳсулотларни сақлаш технологияси замон талабларига жавоб бермаслиги туфайли ҳар йили картошка, томат, карам, лавлаги, сабзи ҳамда бошқа сабзавот ва меваларнинг кўп қисми истеъмолчиларга етиб бормасдан исроф бўлмоқда. Жумладан, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Озиқ-Овқат ва Қишлоқ Хўжалиги Ташкилоти (FAO) маълумотларига кўра, дунё бўйича бир йилда инсон истеъмоли учун етиштирилган маҳсулотнинг 1/3 қисми, яъни 1,3 млрд тоннаси нобуд бўлади. Баъзи баҳолашларга кўра, фермер даласидан йиғиб олинган мева- сабзавотнинг 30–40 фоизга яқини нобуд бўлади ёки истеъмолга яроқсиз ҳолатга келганлиги сабабли ташлаб юборилади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш соҳасини ривожлантириш иқтисодий муаммолари ва қишлоқ хўжалигида кооперация ва интеграция жараёнини ривожлантириш масалаларида хорижлик агроиқтисодчи олимлардан А.В.Чаянов кооперациянинг иқтисодий моҳиятини мустақил равишда ўз фаолиятини бирлаштирувчи турли хўжалик юритувчи субъектларнинг иқтисодий манфаатлари муштараклигини таъмин этувчи муносабат сифатида таърифлайди. Муаллиф бу ерда асосий эътиборни мол-мулк эмас, балки кооперация муносабатларига киришган мустақил субъектлар манфаатларига хизмат қилишга қаратиш лозимлигини алоҳида уқтиради.

Бу концепция эса И.Н.Буздалов томонидан «Кооперация турли хўжалик юритувчи субъектларнинг биргаликдаги фаолияти бўлиб, у ўзида шах-сий, жамоа ва ижтимоий манфаатларни бирлаштиради, алоҳида инсонлар-нинг ижодий меҳнатини рағбатлантиради. Айни пайтда инсоннинг ижтимоий кафолати билан бирга, социал ҳимоясини таъмин этади» деб фикр юритади[5].

Кооперациянинг иқтисодий моҳиятига А.И.Аллахвердиев томонидан берилган тариф бизнинг фикримизча масалани тўлиқроқ ёритади. Жумладан, муаллиф, «Қишлоқ хўжалиги кооперацияси меҳнатнинг ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро боғлиқ бир ёки бир қанча жараёнларидаги, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларнинг биргаликдаги хўжалик фаолияти шакли бўлиб, алоҳида ҳолда эришиш қийин бўлган натижалар ва иқтисодий манфаатларга эришиш имконини беради» деб тариф беради [6].

Қолаверса, етук иқтисодчи олимлардан М.И.Туган-Барановский асосий эътиборини кооперация шакллари ва кооперация жараёнининг ижтимоий жиҳатларига қаратиб, уни ижтимоий ҳаракат сифатида талқин қилган бўлса, бизнинг фикримизга кўра “қишлоқ хўжалиги кооперативи– бу хўжалиги юритишнинг ташкилий-ҳуқуқий шаклларидан биридир. У ўзида қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан кооператив аъзоларининг моддий ва бошқа талабларини қондириш мақсадида пай бадалларини бирлаштиришга асосланган ҳамкорликдаги ишлаб чиқариш ва бошқача хўжалиги фаолият юритиш ташкилотларини билдиради” деган фикрни олдинга сўрган [7].

Агроиқтисодчи олим Р.Ҳ.Ҳусанов ўз ишларида кооперациянинг иқтисодий жиҳатларини тадқиқ этади. Бунда асосий эътибор майда товар ишлаб чиқарувчиларга қаратилган бўлиб, кооперациянинг иқтисодий ва ижтимоий табиати ўша давр нуқтаиназаридан талқин этилади [8]. Майда якка деҳқон хўжаликларининг моддий-техник базаси жуда заифлиги, товарлилик даражаси пастлиги хўжаликларнинг иқтисодий эмас балки кўпроқ ижтимоий субъект сифатида фаолият юритишига олиб келган ва кооперация жараёнига тўсиқ бўлганлиги кўрсатиб ўтилади.

Бизнинг фикримизга кўра, қишлоқ хўжалиги кооперацияси– бу қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан ўзларининг иқтисодий ва бошқа талабларини қондириш мақсадларида ташкил этилган қишлоқ хўжалиги кооперативлари ва уларнинг ҳамкорлари тизими.

"Қишлоқ хўжалиги кооперативи– бу хўжалиги юритишнинг ташкилий-ҳуқуқий шаклларидан биридир. У ўзида қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан кооператив аъзоларининг моддий ва бошқа талабларини қондириш мақсадида пай бадалларини бирлаштиришга асосланган ҳамкорликдаги ишлаб чиқариш ва бошқача хўжалиги фаолият юритиш ташкилотларини билдиради” [9] деган тариф бизнинг фикримизча масалани тўлиқроқ ёритади.

Қишлоқ хўжалиги кооперативлари бошқа кооперативлардан қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан тузилиши билан фарқланади.

“Қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиси” тушунчаси кооперативни қишлоқ хўжалиги мақомига нисбатан асос солувчи етакчисидир. У ўзи ишлаб чиқарадиган маҳсулотҳажмининг 50% дан ортиғини қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ташкил этиши керак.

Аммо, шу билан бирга юқоридаги муаллифлар ишлари турли даврда, умумий ҳолда бажарилган бўлиб маҳсулотни сотиш тизимини алоҳида муаммо сифатида танлаган ҳолда чуқур ёндашилмаган. Айни пайтда мева-сабзавотчилик соҳасида агрофирмалар фаолиятини ташкил этиш борасида олиб борилаётган ишлар ҳам масалага жиддий ёндашган ҳолда илмий тадқиқотлар олиб боришни тақозо этмоқда.

Тадқиқот методологияси. Мева-сабзаводчилик маҳсулотлари кооперациясининг самарадорлигини ошириш, мева-сабзаводчилик маҳсулотлари кооперациясининг хос бўлган асосий хусусиятларини асослаб бериш, даладан дастурхонга қадар занжирини ташкил этишда математик моделлаштириш усули орқали асослаш мева-сабзаводчилик маҳсулотлари кооперацияси муҳитида ривожлантириш стратегияларини шакллантириш асосида унинг иқтисодий самарадорлигини ошириш билан изоҳланади.

Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавот маҳсулотлари кооперациясини ривожлантириш ва унинг самарадорлигини ошириш доир таҳлилида индукция ва дедукция, тизимли таҳлил, қиёсий таҳлил этиш, жадвал ва графиклар усулларидан фойдланилди ва таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан саналади.

Таҳлил ва натижалар. Мева-сабзавот маҳсулотлари кооперативлари бошқа кооперативлардан қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан тузилиши билан фарқланади.

Мева-сабзавот маҳсулотлари кооперативлари қуйидаги тамойиллар асосида ташкил этилади ва шаклланади, (1-расм).

Кооператив аъзолари асосий ва уюшма шаклига бўлинади. Кооперативнинг асосий аъзоси-кооператив устав (низом)ида белгиланган ўлчамда ва кооперативга овоз бериш ҳуқуқи билан пай бадали киритган жисмоний ва юридик шахслар. Кооперативнингуюшма шаклидаги аъзоси-дивиденд олиш учун пай бадаллари киритадиган, лекин қонунда кўзда тутилган ҳолатлардан ташқари овоз бериш ҳуқуқига эга бўлмаган жисмоний ва юридик шахс.

Кооперативнинг асосий аъзолари ёши бўйича ёки саломатлиги туфайли пенсияга чиқиши, кооперативдан ташқарида сайланадиган лавозимга ўтганда ҳарбий хизматда бўлиши ва бошқа кооператив низомида кўзда тутилган ҳолатларга кўра, ўз аъзоликларини уюшма асосига қайта расмийлаштириши мумкин. Пай бадалларининг учта тури мавжуд: кооперативнинг асосий аъзолари учун мажбурий ва қўшимча ҳамда кооперациянинг уюшма аъзолари учун пай бадаллари. Мажбурий пай бадали кооператив аъзолар томонидан мажбурий тўланади.

Мамлакатимизда мева –сабзавотчилик соҳасини такомиллаштириш, шу жумладан мева-сабзавот маҳсулотлари экиладиган майдонларни, сақлаш ва қайта ишлаш қувватларини сезиларли ошириш, мазкур тармоқни ривожлантириш учун халқаро молиявий институтларнинг маблағларини фаол жалб этишга йўналтирилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Таҳлиллар кўрсатишича, республикада сабзавот етиштириш ҳажмлари 2005-2022 йилларда барча тоифадаги хўжаликлар бўйича ўсган (1.1-жадвал). Сабзавот маҳсулотлари экин майдонлари 2005 йилдаги 137,7 минг гектар ўрнига 2022 йилга келиб 220,5 минг гектарни ташкил қилган ва ушбу йиллар давомидаги ўсиш 155,1 фоизга тенг бўлган. Ўртача ҳосилдорлик эса мос равишда 215,8 центнердан 301,6 центнерга ортиб, умумий ўсиш 140,6 фоизни ташкил қилган. Натижада етиштирилган ялпи ҳосил миқдори 2005 йилдаги 2971,6 минг тонна ўрнига 2022 йилда 6650,3 минг тоннани ташкил қилган ва ялпи ўсиш 2,2 мартадан ортиқни ташкил қилган.

Республикада сабзавот етиштириш борасида юз бераётган ялпи ўсиш тенденцияси мутаносиб равишда Қашқадарё вилоятида ҳам кузатилади. Жумладан, 2005 йилда вилоятда жами сабзавот экин майдонлари миқдори 28,1 минг гектарни ташкил қилган ҳолда, 2022 йилган келиб 38,1 минг гектарга ёки 128,8 фоизга ортган бир пайтда ялпи маҳсулот етиштириш миқдори мос равишда 549,3 минг тоннадан 810,3 минг тоннага ёки 142,0 фоизга ортган. Ялпи маҳсулот ҳажмидаги ўсиш суръати юқорилиги экинлар ҳосилдорлигининг экин майдонлари ўсишига қараганда тезроқ ўсиши ҳисобига юз берган. Сабзавот экинлари ҳосилдорлиги вилоятда республика кўрсаткичига нисбатан ўрганилаётган йиллар турлича нисбатларда бўлиб, асосан 2005 йилдан кейин 29,5 га пасайиб борган.

Сабзавотлар аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашдаги зарур маҳсулотлардан ҳисобланади. Аҳоли сони ортиб боришини ҳисобга оладиган бўлсак, сабзавот маҳсулотлари ишлаб чиқариш хажмларининг доимий равишда ўсиб боришини таъминлаш зарурат ҳисобланади. Сабзавот маҳсулотлари билан аҳолини тиббий меъёрлар талаби даражасида таъминлаш ва бунда маҳсулот сифати сақланиши муҳим аҳамиятга эга.

Мева-сабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмлари ўзгариши энг аввало маҳсулотларни сотиш соҳасидаги деҳқон учун қулайликлар ва бозорда талаб даражасининг доимийлигига боғлиқ бўлади. Бугунги кунда ушбу икки омил асосий ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлмоқда. Чунки асосий маҳсулот деҳқон хўжаликларида етиштирилиши, унча катта бўлмаган инвестиция ҳисобига ҳам маҳсулот ҳажми ошишини таъминлаши мумкин. Лекин, айни пайтда маҳсулотларни сотиш соҳасидаги муаммолар маҳсулот ҳажмининг кескин камайишига олиб келувчи кучли омил ҳисобланади.

Республикамиз сифатли жаҳон бозори талабларига жавоб берувчи мева етиштириш борасида ҳам катта имкониятларга эга (1.2-жадвал).

Таҳлиллар кўрсатишича, республикамизда сўнгги ўн йил давомида боғлар майдони ҳам ўсиб бормоқда. Хусусан, 2005 йилда барча тоифадаги хўжаликлар ихтиёрида жами 208,2 минг

гектар боғлар мавжуд бўлган бўлса, 2022 йилга келиб боғлар майдони 299,6 минг гектарни ташкил қилиб, 143,9 фоизга ортган. Шу даврда боғлар ҳосилдорлиги 62,3 центнердан 133,4 центнерга ёки 2,1 мартага ошган бўлсада, ҳосилдорлик борасида эришилган натижалар жуда катта кўрсаткич эмас. Чунки республикамизда боғдорчилик ҳудудларининг тупроқ унумдорлигини, боғдорчилик соҳасидаги кўп асрлик бой тажрибаларимизни, соҳада шаклланган мутахассислар ва илмий салоҳиятимизни ҳисобга оладиган бўлсак, кўп миқдордаги инвестициялар сарф қилмасдан туриб ҳам 140-150 центнердан ҳосил олишни таъминлаши мумкин. Шу билан биргаликда интенсиф типдаги боғларда 400-500 центнердан ҳосил кўтариш мукинлигини амалиёт исбот қилмоқда.

Агарда Қашқадарё вилоятидаги боғлар ҳосилдорлигига эътибор берадиган бўлсак, натижалар янада паст. Жумладан, вилоят бўйича барча тоифадаги хўжаликларда 2005 йилда 75,6 центнердан ҳосил олинган бўлса, кейинги йилларда ошиб борган бўлсада 2022 йилга келиб 98,6 центнердан ўртача ҳосил олишга эришилган. Бу кўрсаткич ўртача республика кўрсаткичидан ҳам (26-32 фоизга) анча паст.

Қашқадарё вилояти боғдорчилигидаги республика кўрсаткичларига нисбатан пастроқ ҳосилдорликнинг асосий сабаблари таҳлилларимиз кўрсатишича асосан қуйидагилардан иборат:

- боғдорчилик соҳасидаги фермер ва деҳқон хўжаликлари аксарият ҳолларда маданий деҳқончилик ҳудуларидан узоқда, тоғли ва тоғ олди ҳудудларида ташкил этилганлиги вақт сарфи, транспорт муаммосини пайдо қилиши боғдорчилик соҳасига инвестиция жалб қилишни сусайтиради;

- боғдорчилик соҳасини ривожлантириш сўнгги 3-4 йил давомида жиддий эътибор қаратишлиши, боғ барпо этиш ва эски боғларни тиклаш жараёнига жалб қилинган инвестициялар фақат маълум муддат ўтгандан сўнггина қайтим бера бошлаши туфайли яқин йилларда вилоятда кескин сифат ўсиши кутилади;

- вилоятда боғдорчилик соҳаси аксарият ҳолларда тоғ олди ва тоғли ҳудудларда, лалми деҳқончилик қилинадиган массивларда жойлашганлиги сувдан фойдаланиш масаласини мураккаблаштиради. Бундай ерларда сув танқислиги масаласи мавжудлигини кузатиш мумкин;

- вилоятдаги мавжуд боғларнинг кўпчилик қисми сув етишмаслиги ҳисобига нобуд бўлмоқда. Чунки, аксарият боғдорчилик ҳудудларидаги боғларга сув етказиб беришда насослардан фойдаланилади. Шу боисдан сув танқислиги билан бирга, насослардан фойдаланиш билан боғлиқ сарф ҳаражатлар (ёқилғи-мойлаш материаллари, электр энергияси) юқорилиги ҳам сув таъминотига ўзининг салбий таъсирини кўрсатмоқда.

Умуман олганда сабзавотчилик ва боғдорчилик соҳасида миқдор жиҳатидан амалга ошаётган ижобий силжишларнинг гувоҳи бўлиш мумкин. Масалан, вилоятда 2000-2020 йиллар давомида сабзавот экин майдонлари ва шунингдек жами экин майдонлари таркибида сабзавот экинлари майдонлари салмоғи ўсиб борганлиги бунинг исботи ҳисобланади (2.3-жавдал).

Жумладан сабзавот экинлари майдони салмоғи 2000 йилда жами экин майдонлари такрибида 4,5 фоизни ташкил қилган бўлса, 2020 йилга келиб 7,3 фоизни ташкил қилган. Бу вилоятнинг сабзавотчилик соҳасини ривожлантириш борасидаги имкониятларидан кенгроқ фойдаланиш имконияти яратиб беради. Шу билан биргаликда боғлар таркибида ҳосилга кирган боғлар салмоғи ҳам ошиб бориши боғдорчилик тармоғига киритилган инвестициялар қайтимини тезлаштирувчи муҳим омил ҳисобланади.

Мева-сабзвотчиликда ҳосилдорликни ошириш иқтисодий самарадорликни таъминлашдаги асосий йўналишлардан бири бўлиб, мамлакат миқёсида ва хўжалик юритувчи субъект миқёсида бажариладиган қатор муҳим тадбирларнинг натижаси сифатида намаён бўлади. Бундай тадбирларнинг энг муҳимлари қаторига селекция ишларини рағбатлантириш,

хўжалик юритувчи субъектларнинг моддий-техник таъминотини йўлга қўйиш, агротехник тадбирларини ўз вақтида сифатли амалга ошириш, тупроқ шароити ва иқлим хусусиятларига экинларни жойлаштириш кабиларни киритиш мумкин.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон экспорт салоҳиятида қишлоқ хўжалигининг, айниқса, мева-сабзавот ва узум маҳсулотларининг аҳамияти жуда юқори. Охирги пайтларда бу маҳсулотларни етиштириш, қайта ишлаш ва экспорт қилиш бўйича бир қанча имтиёзлар мавжуд.

Мамлакатимизнинг экспорт салоҳиятидан янада тўлиқ ва самаралифойдаланиш учун қуйидагиларни таҳлил қилиш лозим:

- мева-сабзавот ва узум маҳсулотларни етиштириш, қайта ишлаш ва экспорт қилиш бўйича Ҳукумат томонидан чиқарилган бир қанча қарорлар ўрганиш;
- Ўзбекистонда мева-сабзавот ва узумни қайта ишлаш бўйича янги корхоналар қуриш ва мавжудларини реконструция қилиш ҳамда қайта ишлаш имкониятига эга бўлган қувватлар таҳлил қилиш;
- янги ва қайта ишланган мева ва сабзавот маҳсулотларини экспорт қилишнинг зарурлигини асослаш ва уларнинг молиявий ҳолатини мустаҳкамлашда ташқи савдо компанияларини таҳлил қилиш лозим.

Хулоса ва таклифлар. Қайта ишланган қишлоқ хўжалиги маҳсулот-ларининг экспорт ҳажми ҳамда географиясини кенгайтириш, маҳаллий ишлаб чиқарувчиларга ўз маҳсулотлари экспортида янада қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида жамғарма Ташқи иқтисодий фаолият миллий банки ҳамда фермер хўжаликлари билан ҳамкорликда республиканинг боғдорчилик ва мева-сабзавотчиликка ихтисослашган барча туманларида янги агрофирмалар ташкил этмоқда. Мазкур агрофирмалар импортчилар ва йирик хорижий савдо мажмуаларининг талабидан келиб чиқиб, мева-сабзавот маҳсулотларини йил давомида узлуксиз ташқи бозорларга етказиб бериш ҳисобига мақбул нархларда экспорт шартномалари тузиш ҳамда экспорт салоҳиятини қўшимча даромад олиш ҳисобига ошириш имкониятига эга бўлди. Ушбу агрофирмалар ишини самарали ташкил этиш мақсадида бугунги кунда жамғарма ходимлари жойларда фермер, деҳқон ҳамда томорқа хўжаликлари ўртасида тушунтириш ва тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бормоқда.

Кооперация доирасида иқтисодий муносабатлар мажмуи - маҳсулотни тайёрлаш, сақлаш, ташиш ва истеъмолчига етказиб бериш билан боғлиқ шартнома муносабатлари; коопертив фаолиятини бошқариш ва моддий- техник таъминотни йўлга қўйиш билан боғлиқ иқтисодий муносабатлар; коопертив доирасидаги нарх-наво сиёсатини йўлга қўйиш; коопертив фаолиятини бозор талаби асосида бизнес-режалаштириш, соф фойда тақсимоти тизимини йўлга қўйиш; кооперативни ривожлантириш, замонавий илм-фан ютуқларидан, инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш тизимини ташкил этиш; маҳсулотни сотиш каналларини аниқлаш, ички ва ташқи бозорда ўрнашиш каби масалларини қамраб олади.

Қишлоқ хўжалиги кооперативлари фаолиятини тартига солиш билан боғлиқ ҳуқуқий асосларни такомиллаштириш талаб этилади. Бунда ҳуқуқий асослар республикада кооперация жараёни ривожланиши учун маъмурий назорат билан боғлиқ ҳатарларни бартараф этишни кўзда тутиши лозим.

Республикада ҳар қандай кооператив тамойиллари асосида ташкил этилган тузилма кейинчалик ўз моҳиятини ўзгартириб маҳаллий бошқарув идоралари қўлидаги маъмурий дастакка айланиб қолиши ҳавфи мавжуд.

Хулоса қилиб айтганда аграр тармоқда умумий кооперациянинг бир тармоғи экспорт фаолияти билан шуғулланувчи корхоналар ҳисобланади. Бу жараён янгива қайта ишланган мева ва сабзавот маҳсулотларини экспорт қилиш бўйича ихтисослаштирилган компанияларнинг таркибидаги ташқи савдо компаниялари ҳамда мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш ва экспортини ривожлантириш жараёнидаги

ташкилийиқтисодий муносабатларни ўз ичига олади. Шу сабабли мева ва сабзавотчилик соҳасида кооперацияни ташкил қилишда экспорт имкониятларини ҳисобга олиш зарур.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республика Президентининг 2021 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2022-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853- сонли фармони
2. Ўзбекистон Республика Президентининг 2021 йилнинг 14 мартдаги “Мевасабзавотчилик соҳасида қишлоқ хўжалиги кооперациясини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриси-да”ги ПҚ-4239-сонли қарори
3. Ўзбекистон Республика Президентининг 2021 йил 11 декабрдаги “Мева-сабзавотчилик ва узумчилик тармоғини янада ривожлантириш, соҳада қўшилган қиймат занжирини яратишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4549-сонли қарори
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 7 июлдаги “Аграр соҳада илм-фан, таълим ва ишлаб чиқаришни интеграция қилиш орқали сифат ва самарадорликни оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-216сонли қарорлари
5. Буздалов И.Н. Возрождение кооперации. – Москва: Экономика. – 1990. –81 с.
6. Аллахвердиев А.И. Развитие форм кооперации в аграрном секторе АПК. – Москва: - Экономика. –2003. –10-72 с.
7. Туган-Барановский М.И. Кооперация в сельском хозяйстве. – Москва: МСХА РФ, –1999. – 29 с.
8. Ҳусанов Р.Ҳ. Деҳқон хўжалигини юритишнинг илмий ва амалий асослари. – Тошкент: Чўлпон, –2000. –103 б.;
9. Эргашев Р.Х. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти,Дарслик, Т.: “Молия-Иқтисод”, 2020, 404 б
10. Эргашев Р.Х., Равшанов А.Д. Мева-сабзавот ва узум етиштиришнинг устувор йўналишлари. Сервис илмий-амалий журнали. -Самарқанд, 2022. №1-Б. 46-50
11. Пардаев О.М. Маҳсулотларни сақлаш ва сотиш хизматлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. Самарқанд. 2019. 88 б.
12. Khidirovich E. R. Application of digital technologies in agriculture. – 2021.
13. Эргашев Р. Х. Применение цифровых технологий в сельском хозяйстве //development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – с. 911-914.
14. https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/issue/view/ 2021,9, 504510

КАШКАДАРЁ ВИЛОЯТ СУДЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР

Эшимов Шахридин Хужаёрович
ЖИБ Қарши шаҳар судининг судьяси

Аннотация: Ушбу мақолада Қашқадарё вилоят судлари фаолияти тарихидан лавҳалар ҳақида сўз боради. Муаллиф тарихий маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Қашқадарё вилоят судлари фаолияти тарихидан лавҳалар бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Қашқадарё, вилоят судлари, фаолият тарихи.

Annotation: This article talks about scenes from the history of Kashkadarya regional courts. Based on the historical data, the author studied and analyzed the specific aspects of the records from the history of the Kashkadarya regional courts based on the available scientific literature.

Key words: Kashkadarya, regional courts, history of activity.

Ўзбекистонда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш, фуқароларда суд уларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатлари ҳимоясида турган орган эканлиги ҳақидаги тасаввурни шакллантириш, суд юрисдикцияси қамровини кенгайтириш, қонунчилик ва ижтимоий адолатни таъминлашда суднинг ролини ошириш ҳозирги кунда энг муҳим масалалардан бирига айланмоқда.

2000 йил 14 августдан судлар ихтисослашуви тамойилининг жорий этилиши, яъни умумий юрисдикция судларининг фуқаролик ва жиноят ишларини алоҳида- алохида кўриб чиқадиган судларга ажратилиши суд тизимини ислоҳ қилишда жиддий қадам бўлди. Бу фармонга биноан умумий юрисдикция судлари негизида куйидагилар ташкил этилди: Коракалпогистон Республикаси фуқаролик ишлари бўйича Олий суди, фуқаролик ишлари буйича вилоятлар, Тошкент шаҳар ва туманлараро судлари; Коракалпогистон Республикаси жиноят ишлари буйича Олий суди, вилоятлар, жиноят ишлари бўйича Тошкент шаҳар ва туман (шаҳар) судлари.

Қабул қилинган ушбу фармон катта амалий аҳамият касб этади. Сабаби, у суддаги ишларнинг адолатли ва ўз вақтида кўриб чиқилишини таъминлаш, фуқароларнинг қонун билан қўриқланадиган ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини янада кучайтиради Бу чора-тадбирлар фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларининг ҳимоясини кафолатланишига, судларда ишларнинг сифатли ва ўз вақтида кўриб чиқилишини таъминлаш учун замин яратди

Жаҳоннинг айрим ривожланган мамлакатларида, жумладан, АҚШ, Англия, Франция, Италия, Германия давлатларида узок йиллар давомида одил судловнинг ихтисослаштан судлар томонидан амалга оширилиши тамойили ўз самарасини кўрсатмокда. Бу давлатларнинг айримларида судларнинг ихтисослашуви шу даражада йулга кўйилганки, ҳатто оила, меҳнат, уй-жойга оид ишларни курадиган судлар ҳам мавжуд. Фикримизга аник далил сифатида Германия суд тизимидаги ихтисослаштирилган судлар тугрисида айрим маълумотларни келтириш мумкин. Жумладан, Германия суд тизимида меҳнат низоларини ҳал этиш ихтисослаштирилган судлар зиммасига юклатилган. Бундай махсус судлар уч инстанциядан иборат тизимда ташкил этилган бўлиб, улар нафақат якка ҳолдаги меҳнат низоларини, балки жамоа ўртасидаги меҳнат низоларини ҳам кўриб чиқадилар.

2001 йил 1 январдан бошлаб Ўзбекистон Республикасида фукаролик ишлари ва жиноят ишлари бўйича судлар ҳар бири алоҳида тартибда ўз фаолиятини амалга ошира бошлади.

Фуқаролик ишлари бўйича Қарши туманлараро судининг 2001 йилдан 2002 йил сентябр ойига қадар бўлган иш фаолиятини ялпи текшириш натижаларини муҳокама этиб, Фуқаролик ишлари бўйича Қарши туманлараро суди томонидан одил судловни амалга оширишда, суд ишини ташкил этишда, фуқаролар онгида суд идораларига ҳимоя истаб кириш мумкинлиги ҳақидаги тафаккур уйғотишга каратишга оид маълум ишларни амалга оширилганини таъкидлайди.

Суд 2001 йил 1 январида ўз иш фаолиятини бошлаган бўлиб, турли вақтинчалик биноларда, минимал шароитларда ўз ишфаолиятини бошлаб, 2002 йил 1 сентябрдан бошлаб ўзининг стационар, суд фаолияти учун мослашган таъмирдан чиқарилиб кайта курилган биносига эга бўлиб фаолият бошлаган.

Фуқаролик ишлари бўйича Қашқадарё вилоят суди таркибида 5 та туманлараро суди мавжуд бўлиб, улар Қарши туманлараро суди, Ғузор туманлараро суди, Шахрисабз туманлараро суди, Чироқчи туманлараро суди ва Косон туманлараро судларини ташкил қилади.

Ушбу туманлараро судларида 2003 йил бошидан 2003 йилнинг апрел ойига қадар 10 нафар туманлараро суди судьялари фаолият кўрсатган бўлса, 2003 йилнинг апрел ойидан 2003 йилнинг 31 декабр ҳолатига 8 нафар судья фаолият кўрсатган.

Фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судларига 2003 ҳисобот йилида, 2002 йилдан 394 та фуқаролик иши қолдиқ бўлиб ўтган ва ҳисобот йили даврида 6389 та даъво қўзғатилиб, жами иш юритувга олинган фуқаролик ишлари сони 6783 тани аризалар бўйича фуқаролик ишлари ташкил қилади. Бу кўрсаткич 2002 йилга нисбатан 920 тага ёки 16 фоизга ошган.

Туманлараро судларга келиб Тушган апелляция ва кассация судьялар шикоятларни судлар томонидан талаб даражасида 2003 йил 40 та иш қайта расмийлаштирилмаганлиги оқибатида расмийлаштириш учун қайтарилган. Қайта расмийлаштиришга қайтарилган ишларнинг 7 таси Қарши туманлараро суди судьяси Ш.Холиқовга, 5 таси Ғузор туманлараро суди раиси О.Тангматовга тегишли бўлган.

Суд ходимлари ўртасида Ўзбекистон Республикаси Олий суди Раёсатининг 2003 йил 15 июл кунидаги «Фуқаролик ишлари бўйича туманлараро, туман (шаҳар) судларида иш юритиш тартиби тўғрисида»ги Йўриқномани ўрганиш юзасидан ҳар ойда масъул ходимнинг маърузаси эшитилиб, Йўриқнома талабларини қунт билан ўрганиш йўлга қўйилди.

Фуқаролик ишлари бўйича туманларро судлари судьяси лавозимларига захирага олиш ва судьялик захирасини шакллантириш мақсадида тегишли таргибот ташкивот ишлари олиб борилмокда. Малака ҳайъати раиси ва малака ҳайъати аъзоларининг судьяликка номзодлар захирасига олишни сўраб берган аризаларни кабул килиш кунлари тасдиқланиб, ҳар бир малака ҳайъати аъзоси белгиланган куни қабул қилиб келмокда. Захирани шакллантириш мақсадида вилоятдаги ҳуқуқни мухофаза килувчи идораларга хатлар юборилган, улардан ушбу хатларга жавоблар олинмокда.

2006 йил 15 июнда Фуқаролик ишлари бўйича Кашкадарё вилоят суди судьялари ва ходимларининг тезкор йиғилиши бўлиб ўтди, унда Ўзбекистон Республикаси Харбий суди ва харбий судьяларнинг ҳукукий макоми ҳамда уларга берилган имтиёзлар ҳақида Жанубий-ғарбий махсус ҳарбий округ ҳарбий суди судьяси адлия капитани А.И.Алимбаев маъруза килиб, харбий суди судьялиги лавозимида фаолият кўрсатишни хохлаган ходимларга бу борада Жанубий-ғарбий махсус округ харбий судига мурожаат қилишларини тушунтирди.

Фуқаролик ишлари бўйича Қашқадарё вилоят назорат инстанциясига 2009 йилга 2008 йилдан 15 та ариза қолдиқ бўлиб ўтган, 2009 йилда 307 та назорат тартибида аризалар келиб тушиб, жами аризалар сони 322 тани (2008 йилда 325 та) ташкил этган. Шулардан 1 таси бошқа органларга ҳал қилиш учун юборилган, 242 таси бўйича иш чақирилмасдан аризалар ҳал қилинган, 62 таси бўйича иш талаб қилиниб олиниб, ўрганилган, 17 таси ҳисобот даври охирига қолдик бўлиб қолган.

Фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судларига 2010 йилининг 1-чорагига, 2009 йилдан 566 та фуқаролик иши қолдиқ бўлиб ўтган ва ҳисобот даврида 1537 та даъво аризалар бўйича фуқаролик ишлари қўзғатилиб, жами иш юритувга олинган фуқаролик ишлари сони 2103 тани ташкил қилади. Бу кўрсаткич 2009 йилнинг 1-чорагига нисбатан 2365 тага ёки 47,1 фоизга камайган. 2010 йилнинг 1-чорагида туманлараро судлари иш юритувига олинган ишлар хар бир судьяга бир ойда ўртача 116,8 (2009 йилнинг 1чорагида 248,2 та) тадан тўгри келади. Ушбу иш юритувга олинган фуқаролик ишларининг 139 таси ёки 6,6 фоизи бошка ишга бирлаштирилган, 1185 (2009 йилнинг 1чорагида 3738 та) таси ёки 56,4 фоизи мазмунан кўрилиб, 189 таси ёки 8,9 фоизи бошқа судга ўтказилган, 590 таси ёки 28,1 фоизи кейинги ҳисобот йилга қолдиқ бўлиб ўтган.

Фуқаролик ишлари бўйича Қашқадарё вилоят суди раиси ўринбосари Т.Каримов, вилоят суди судьяси Б.Исламов, вилоят суди бош мутахассиси С.Рашидов, вилоят суди архив мудири К.Холиёровлар томонидан Фуқаролик ишлари бўйича Қашқадарё вилоят судининг 2011 йилга мўлжалланган иш режасига биноан Фуқаролик ишлари бўйича Ғузор туманлараро судининг раиси Ш.Хамдамов, судьяси Н.Раджапова, девонхона мудири Ч.Эшонкулов Ва

архивариус Т.Жабборовлар иштирокида Фуқаролик ишлари бўйича Ғузор туманлараро судининг 2010 йил ҳамда 2011 йилнинг 1-чораги мобайнида одил судловни амалга ошириш борасида олиб борган фаолияти юзасидан ўтказилган ялпи текширув ўтказилганда.

Жумладан, 2010 йилга 2009 йилдан 92 та фуқаролик иши қолдиқ бўлиб ўтган ва шу йил мобайнида судга 1449 та Фуқаролик ишлари келиб тушган бўлиб, жами иш юритувга олинган фуқаролик ишлари сони 1541 тани ташкил килади. Ушбу иш юритувга олинган фуқаролик ишларининг 42 таси бошқа ишга бирлаштирилган, 1242 таси мазмунан кўрилиб тамомланган, 157 таси бошка судга ўтказилган, 100 таси кейинги йилга қолдиқ бўлиб ўтган.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, республикада судларнинг ихтисослаштирилиши судлар томонидан илгари йўл қўйиб келинган хатолар, фуқаролар ҳуқуқ ва қонуний манфаатлари бузилишининг объектив сабабларини бартараф қилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Суд-ҳуқуқ тизими ислоҳотлари: янгича ечим ва ёндашувлар “Akademiya” нашриёти Тошкент. 2005, 5-бет
2. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 140-иш, 96 -варақ 3. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 214-иш, 15 -варақ 4. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 214-иш, 17 -варақ
5. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 214-иш, 43 -варақ
6. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 279-иш, 5 -варақ
7. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 383-иш, 12 -варақ 8. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 383-иш, 31 -варақ
9. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 399-иш, 59 -варақ
10. Қашқадарё вилоят архиви, 611-фонд, 1-рўйхат, 399-иш, 60 –варақ

O‘ZBEKISTONDA FAN MUZEYLARI TENDENSIYASI

Ismailov Alisher Fayziyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Ilmiy kotibi,
Tarix fanlari doktori (DSc),katta ilmiy xodim.
alisher.ismailov.1981@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Fan muzeylarining ilm-fanni rivojlantirishiga alohida ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Unda fan muzeylarining ahamiyati, mohiyati, imkoniyatlari hamda O‘zbekistonda uning shakllanish jarayonlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Fanlar akademiyalari, Kunstkamera, «fan muzeyi» yoki «fan referentlari muzeyi», «bum», «qo‘llaringiz bilan teging!», «Mo‘jizalar olamida», «Qo‘g‘irchoq teatri», «Geologiya muzeyi», «Interaktiv amaliyot» va «Next».

Abstract: This article examines the special importance of science museums for the development of science. It contains information about the importance, essence, possibilities of science museums and the processes of their formation in Uzbekistan.

Keywords: Science Academies, Kunstkamera, "science museum" or "science reference museum", "boom", "touch with your hands!", "Wonderland", "Puppet Theater", "Geology Museum", "Interactive practice" and "Next".

KIRISH

Ma’lumki, muzeylar jamiyat madaniy hayotining yeng muhim qismidir. Ular tarixiy xotirani va avlodlar o‘rtasidagi uzluksizlikni saqlashda, ma’naviy va madaniy merosni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Muzeylar fan, madaniyat va jamoat makonining ma’lum bir hodisasini ifodalaydi, ularning rivojlanish darajasini aks ettiradi. Muzey ishi tarixining turli jihatlarini o‘rganish ma’lum bir davrning o‘ziga xos moyilligi va sevimli mashg‘ulotlarini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, turli davr yodgorliklarini yig‘ish va saqlash orqali muzeylarning o‘zi ma’lum ma’noda ular yaratilgan davr yodgorliklaridir[13, 216].

Vatanimiz tarixida Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davriga asos solgan buyuk ajdodlarimiz, ulug‘ bobolarimiz qoldirgan ilmiy merosdan nafaqat biz, balki butun dunyo ahli mamnun. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri – Uchinchi Uyg‘onish davri poydevori yaratilayotganini alohida ta’kidladi[12, 967-977]. Bu ulkan jarayonda fan muzeylari alohida ahamiyatga egadir.

MATERIAL VA METODLAR

Jahonda Fan muzeylarini tashkil etish asosan Fanlar akademiyalari tashabbus ko‘rsatishgan. Jumladan, Rossiya Fanlar akademiyasi fan muzeylariga katta ahamiyat bergan. Rus sharqshunosi S.F.Oldenburg 1923-yilda «Muzeylar faqat qiziqishlar maskani bo‘lgan paytdan beri muzey ishi Akademiya uchun doimo muhim bo‘lib kelgan: Akademiya har doim qanday muzeylar fan va umuman ta'lim uchun muhim vosita ekanligini biladi» - deb yozgan edi.

Fanlar akademiyasida paydo bo‘lgan birinchi muzey Kunstkamera edi. Kunstkamera to‘plamlari va kutubxonasi akademiklar tomonidan amaliy maqsadlarda, anatomiya, botanika, zoologiya, mineralogiya va fiziologiya sohasidagi tadqiqotlar uchun ishlatilgan. Ushbu tadbirlarga Kunstkameraning birinchi qavatida anatomik teatr joylashganligi yordam berdi. Kunstkammer (nem. Kunstkammer — san’at xonasi) — o‘tmishda turli tarixiy, badiiy, tabiiyilmiy va boshqa noyob kolleksiyalarning nomi va ularni saqlash joyi. XVI-XVII asrlarda nodir buyumlar kabinetlari ko‘plab knyazlik va qirollik saroylariga tegishli bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishining sababi mamlakatda sodir bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarishlar emas, balki XIX asr oxiri - XX asr boshlarida fanning institutsionalizatsiyasi edi. Butun dunyoda yangi muzeylar paydo bo‘la boshladi, shuning uchun Myunxenda 1906-yilda Germaniya texnologiya va Tabiatshunoslik klassik asarlari muzeyi tashkil etildi. Rossiyada XIX asrda jamoatchilik uchun ochiq bo‘lgan akademik muzeyning yangi konsepsiyasi muhokama qilindi[1,14-16.].

NATIJALAR

Ilm-fan infratuzilmasining eng muhim tugunlaridan biri bu shartli ravishda «fan muzeyi» yoki «fan referentlari muzeyi»deb atash mumkin. «Muzey» atamasi allaqachon muayyan vazifalarga ishora qiladi - madaniy namunalarni moddiy shaklda saqlash va har qanday muzey mehmoni uchun ularning mavjudligini (ko‘rinishini) ta’minlash. Fan muzeyi «kolleksiyasining» asosiy mazmuni ilmiy bilimlarning referentlaridan, fanni o‘rganish obyektini tadqiqot uchun mos shaklda namoyish etish namunalaridan iborat[2]. Universitet muzeylari ilmiy muassasalar sifatida aniq, tabiiy va gumanitar fanlar sohasida tadqiqotlar o‘tkazish uchun laboratoriya sifatida yaratilgan va xizmat qilgan, natijada yirik ilmiy kashfiyotlar bo‘lgan. Ularning ta’lim funksiyasi ham muhim emas edi, chunki muzeylarni yaratish universitetlarning ustavlari bilan tartibga solinadigan o‘quv jarayoniga bevosita bo‘ysungan. O‘quv muzeylari va o‘quv xonalari 1896yilda tashkil yetilgan Tomsk Politexnika universiteti tarixida muhim rol o‘ynagan. Shunday qilib, imperator Nikolay II ning Tomsk texnologik institutining birinchi muzeylari (zamonaviy Tomsk Politexnika universiteti) ular deyarli universitetning ochilishi bilan birga — 1900-yilda paydo bo‘lgan. Ularni yaratish tashabbuskorlaridan biri Tomsk texnologik institutining birinchi direktori Yefim Lukyanovich Zubashev yedi. U birinchi professorlar singari zamonaviy laboratoriyalar, ustaxonalar, o‘quv

muzeylari, o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun o‘quv xonalarini tashkil yetish zarurligini tushundi[3,82-85].

Fan muzeyida referentlarga asosiy talab shundaki, muzeyda referentlar faqat vakildan ajratilgan shaklda mavjud bo‘lishi mumkin.Axir, vakil-bu referent bilan muayyan faoliyat harakatining tavsifi. Shunga ko‘ra, referent va vakil birgalikda ilmiy bilimlarning tuzilishini belgilaydi. Muzey faqat doimiy qiymatga ega bo‘lgan narsani olishi mumkin, fanni o‘rganish obyektlarini tadqiqot uchun taqdim etish namunalari, ilmiy bilimlarning referentlari ega[4].

Ikkinchi jahon urushidan keyin sodir bo‘lgan demokratiklashuv «bum»i, shuningdek, YuNESKOga a’zo mamlakatlarda ilm-fan va texnologiyaning ommaviy kommunikatsiyasi va fan ta’limining takomillashuvi haqida xavotir uyg‘otdi. Tashkilotning dastlabki dasturi urushdan vayron bo‘lgan mamlakatlarning ta’lim va madaniy xizmatlarini tiklashdan iborat edi, ammo bu g‘oya tez orada umumiy maqsadni egalladi. Urushning oxiriga kelib, turli mamlakatlardagi ko‘plab maktablar vayron bo‘ldi, bu ularning ilmiy laboratoriyalarini rekonstruksiya qilishni va ilmiy tajribalar o‘tkazish uchun yangi jihozlarni talab qildi.

Shu maqsadda YuNESKO 1948-yilda «Vayronaga uchragan mamlakatlardagi fan o‘qituvchilari uchun tavsiyalar» kitobini nashr etdi, bu nafaqat urushdan vayron bo‘lgan hududlarda, balki bunday laboratoriyalardan mahrum bo‘lgan boshqa mamlakatlarda ham muvaffaqiyat qozondi va muzeylarni ajralmas qismi sifatida o‘z ichiga olgan.

Norasmiy ta’lim sohasida ham doimiy sa’y-harakatlar amalga oshirildi va YuNESKO hisobotida ko‘rsatilganidek, maqsad «keng jamoatchilikka ilm-fannin zamonaviy hayotga amaliy qo‘llanilishini tushunishgaimkon berish» edi[5]. Masalan, Fan muzeylariga talabalarning tashrifdan keying ta’lim va bilimlarini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlardan quyidagi natijalarni olishgan[6]. Unda talabalarning fanni o‘rganishini yengillashtirish uchun bir qator tamoyillarni yaratish belgilangan. Talabalarning ilmiy tushunchalarini shakllantirish: fan muzeyiga tashrif buyurishdan oldin; so‘ng va tashrifdan keyingi faoliyati bo‘yicha tavsiflangan.

MUHOKAMA

O‘zbekistonda ham muzey faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasida Muzeylar fondini saqlash va muzeylarni rivojlantirish sohasida madaniyat siyosatini shakllantirishning fundamental tamoyillari, g‘oyalari va yondashuvlarini belgilashga qaratilgan. O‘zbekiston muzeylari o‘zining uzoq tarixi davomida noyob muzey fondini shakllantirib, milliy madaniy va tabiiy merosni asrab-avaylash va targ‘ib etishda bebaho tajribaga ega bo‘ldi[7].

Shu o‘rinda yuqorida keltirilgan fan muzeylarining ahamiyati yuzasidan O‘zbekistonda ham ular faoliyatining ayrim jihatlari bo‘yicha faoliyat olib borayotgan muassalar shakllanib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Ular an’anaviy muzeylardan farqli ravishda, muzeyga oid ashyolarga «qo‘llaringiz bilan teging!» deya ta’kidlay olish xususiyatiga ega.

O‘zbekistonda ilk bora O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi qoshida 2011-yil 19avgustda «Mo‘jizalar olamida» bolalar muzeyi tashkil etildi[8]. «Mo‘jizalar olamida» muzeyining asosiy vazifasi - yosh avlodda insoniyat tarixiga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish va bilimlarini boyitish, kichik yoshdan boshlab dunyoqarashini shakllantirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Muzeyning asosiy maqsadlaridan biri - bolalarga Vatanimiz tarixi sahifalaridan saboq berish, milliy amaliy san’at namunalarini yaratish jarayonlari bilan tanishtirgan holda, ularni ushbu jarayonlarga jalb qilishdan iboratdir. Bolalar muzeyi dasturlari bolalarning tasavvurini, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur bolalar muzeyi 4 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan barcha bolalarga moljallangan.

Bolalar muzeyi bolalarda tarixga oid bilimlarni rivojlantirib, o‘sha davrga tushib qolishlariga zamin yaratadi. Muhimi bolalar muzeyga kirganda nafaqat uni tomosha qilish, balki turli mashg‘ulotlarni bajarish, qiziqqan eksponatlarni qo‘llari bilan ushlab yoki yasab korishlari mumkin. «Arxeologiya» bo‘limi orqali, Kampirtepa yodgorligida mavjud bo‘lgan qazilmalar bilan tanishishlari, turli topilmalarni ko‘rishlari mumkin. «Numizmatika» bo‘limida esa tangalarni zabt

qilish tarixi bilan tanishgan holda, turli tarixiy davrlarga oid tangalarning ahamiyatli jihatlarini o‘rganadilar. «Kulolchilik» bo‘limida milliy sopol buyumlarni yasash, ularning yaratish tarixi bilan tanishishlari mumkin. «Kashtachilik» bo‘limida kashtachilik va do‘ppido‘zlik mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishlariga imkon yaratilgan. «Qo‘g‘irchoq teatri» bo‘limida bolalar milliy qo‘g‘irchoqlar kolleksiyasi bilan tanishishlari va bevosita o‘zlari sevgan qahramonlari asosida ertaklarni sahnalashtirishlari uchun barcha sharoitlar mavjud. «Tasviriy san’at to‘garagi» ham tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda bolalar tabiatga nisbatan bo‘lgan munosabatlarini o‘z suratlarida aks ettirishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi «Geologiya muzeyi»[9]ham geologik bilimlarning o‘ziga xos xususiyati yosh avlodni aniq fanlarning turli yo‘nalishlari bo‘yicha keng dunyoqarashga ega bo‘lishini talab qilishi asosida Olimpiada tashkil etib boriladi. Bu orqali geografiya, paleogeografiya, paleobotanika, paleozoologiya, paleontologiya, kartografiya, umumiy geologiya, mineralogiya, petrografiya, strukturaviy geologiya va foydali qazilmalar geologiyasi fanlaridan nazariy bilim olish bilan bir qatorda, ekstremal tabiiy sharoitlarda o‘zlarini tuta bilish, dala ekspeditsiyalarini tashkil etish, turli favqulodda holatlarda qanday xarakat qilishga qaratilgan bilimlarini oshiradi. Bularning barchasi barkamol avlodning rivojlanishiga yordam beradi.

Fan va texnika olamiga qiziqarli sayohat qilish, matematika, fizika, astronomiyaga oid bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi Interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etilgan Toshkent politexnika muzeyini[10] ham keltirib o‘tishimiz mumkin. Uning «Interaktiv amaliyot» bo‘limi odatdagidan boshqacha bo‘lib, muzeydagi har bir eksponat o‘zida fizikaning u yoki bu qonunini namoyish etuvchi qurilmani mujassam etadi. Bu yerda muzeylardagi kabi eksponatlarni ko‘rishi, balki ularni ushlab, qimirlatib, yig‘ib ko‘rishi ham mumkin. Uning «Interaktiv darslar» asosini quyidagilar tashkil etadi.

Robototexnika darslari - Texnikaga qiziquvchi bolalar uchun robototexnika kurslariga ro‘yxatdan o‘tib mexatronika asoslari bilan tanishishi mumkin.

Kinder Club darslari - Bu yerda u chizish, lepka , qo‘shish va ayrishni o‘rganadi.

Avia va Raketa modellashtirish - Bolalar aviatsiya va raketayasash bo‘yicha to‘garaklarda samolyot va raketalarni turli materiallardan yasashni o‘rganishadi.

«Next» savdo markazidagi interaktiv fan muzeyi ham bolalar bilan doimo gavjum muassasalardan hisoblanadi[11].

U yerdagi Bolalar ilmiy muzeyi bolalar uchun sohalaridagi asosiy bilimlarning katta qismi «mos keladi». Ko‘rgazmalar yosh tashrif buyuruvchilarga chaqmoq qayerdan kelgani, hayvonlar, qushlar va hasharotlar uni qanday ko‘rishi yoki oddiy tutqich yordamida bir tonna og‘irlikni qanday ko‘tarish mumkinligini aytib beradi. Bu erda bolalar nafaqat tinglashlari, balki o‘zlari aytilgan narsani qilishlari mumkin. Natija hayratlanarli - bolalar muzeyni tark etishni xohlamaydilar, ular ota-onalaridan bu erga qayta-qayta kelishlarini so‘rashadi. Muzeyga tashrif buyurish paytida bolalar fizika bo‘yicha bilimlarining katta qismini oladilar. Sensorli musiqa asboblari - arfa va nog‘oralar yordamida bolalar ma'lum bir tovushni qanday chiqarishni o‘rganishadi. Bolalarning sevimli eksponatlaridan biri bu plazma to‘pi bo‘lib, uning dizayni 19asrda Nikola Tesla tomonidan tasvirlangan. Ichida elektrod bo‘lgan shisha shar neon gaz bilan to‘ldirilgan. Chiroq o‘chiriladi, yosh muzey mehmonlari to‘pga tegadi va teginishga reaksiyaga kirishadigan kichik chaqmoqlar markazdan shisha to‘pning devorlariga shoshilishadi.

Muzeyning burchaklaridan biri haqiqiy kimyo laboratoriyasi bilan jihozlangan. Kimyogar-texnolog bolalarga eng oddiy xavfsiz reaktsiyalarni ko‘rsatadi. Mazkur ta’kidlab o‘tilgan muassasalar jahondagi Fan muzeylarining ayrim xususiyatlarini o‘zida aks ettirganligi bilan izohlanadi.

XULOSA

Fan muzeylar fan va texnika uchun tarixning muhim manbalari hisoblanadi. Muhim tarixiy obyektlar ilmiy yo‘nalishlarni namoyish qilish uchun to‘planadi va saqlanadi. Ularning faoliyati fanni o‘qitish va ommalashtirish uchun eksponatlar, ko‘rgazmali jihozlar va o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqish, tayyorlash va o‘rnatishni o‘z ichiga oladi.

Muzey tajribalari bilan bog‘liq bo‘lgan tashrifdan keyingi tadbirlar natijasida talabalar fan muzeyi eksponatlarida namoyish etilgan fan tushunchalari va tamoyillari haqidagi o‘z bilimlarini maktabda, uyda va norasmiy jamoa sharoitida shakllantirib borishi aniqlangan.

Tadqiqotlar fan muzeylari va shunga o‘xshash markaz uchun nafaqat ilmiy konsepsiyalarni ishlab chiqishni qo‘llab - quvvatlash, balki ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan muqobil konsepsiyalarni aniqlash va ularga javob berish uchun tashrifdan oldin va keyingi tadbirlarni rejalashtirishning muhimligini ta’kidlaydi.

Fanni o‘rganish - bu hayot davomida shakllanadigan boy, murakkab, doimiy jarayon. Fanni o‘rganish imkoniyatlari kun va-yil davomida, turli xil sharoitlarda va turli xil tajribalar orqali yuzaga keladi.

References:

1. Колчинский Э.И. Академическая наука в Санкт-Петербурге и мировая культура // Вопросы истории естествознания и техники. 1999. № 1. С. 14 - 46.
2. Философия музея. / Под ред. М.Б. Пиотровского. М.: ИНФРА-М, 2013.
3. Григорьева С.Е. рисовальный музей томского технологического института. Вопросы музеологии. 2 (14) / 2016. -С.82-85.
4. Степин В.С. История и философия науки. М.: Академический проект, 2011.
5. Jessica Norberto Rocha and Martha Marandino. Mobile science museums and centres and their history in the public communication of science. Journal of Science Communication 16(03)(2017). -P.2-18.
6. David Anderson, B.App.Sc., Grad.Dip.Ed., M.Ed. The Development of Science Concepts Emergent from Science Museum and Post-Visit Activity Experiences: Students` Construction of Knowledge (A thesis submitted in fulfilment of the requirements of the degree of Doctor of Philosophy in the Centre for Mathematics and Science Education of the Queensland University of Technology). September, 1999. -424 p.
7. Хасанов Б.В. Концепция музейного дела в Узбекистане на примере музея «памяти жертв репрессий» АН РУЗ. «Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар» (Республика илмий-амалий анжумани). Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи. – Т.: «LESSON PRESS», нашриёти, 2017. 412 б. 300-308.
8. Ж.Исмаилова. Музей педагогикаси.Moziydan sado. 4-(52)2011. -Б.2-3.
9. http://muzeygeologii.uz/uz/index.html.murojaat_sanasi.10.10.2022
10. http://politomuseum.uz/murojaatsanasi.22.11.2022.
11. https://myday.uz/muzei/interaktivniy-nauchniy-muzey-v-trc-next. murojaat sanasi 01.12.2022
12. Ismailov A. Organizational activity of the department of physics, mathematics and technical sciences of the Uzbekistan academy of sciences. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ)ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10, Issue 11, Nov. (2022). –P.967-977.
13. Ismailov A.F. O‘zbekistonning intellektual rivoji tarixi va fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi misolida). Tar. fan. dok. (DSc) diss. Toshkent, 2023. -331 b.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING RIVOJLANISH TARIXI VA UNDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI O‘RNI VA ROLI

Imamov Bobir Xujanazarovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi dotsenti v.b.,
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)
Tel: +998912138804. Email: *imomov.bobur88@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiy davlatlar tashkilotini tashkil etilishi tarixi va rivojlanib borish jarayonlari hamda a’zo davlatlarni ushbu tashkilot doirasida o’zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari yoritib berilgan. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotdagi iqtisodiy manfaatlari, va istiqbolli loyihalarni amalga oshirishdagi o’rni va roli haqidagi fikr – mulohazalar o’rin olgan.

Kalit so‘zlar: tashqi siyosat, tashkilot, kengash, hamkorlik, munosabat, integratsiya.

Annotation. This article covers the history and development processes of the Organization of Turkic states and the mutual political, economic and cultural relations of member states within the framework of this organization. Also included are feedback on the economic interests of the Republic of Uzbekistan in this organization, and its role and role in the implementation of promising projects.

Keywords: foreign policy, organization, council, cooperation, attitude, integration.

XX asrning 90 yillarga kelib, xalqaro munosabatlar maydonida SSSR deb atalgan imperiyaning parchalanishi dunyoning siyosiy tizimi va dunyo xaritasini tubdan o‘zgarishiga, hamda xalqaro maydonda mustaqil huquqiy sub’ekt sifatida aholisini aksarini turkiy tilli xalqlar tashkil etadigan respublikalar paydo bo‘ldi. Mazkur holatda yuzaga kelgan siyosiy voqelikni ilmiy tahlil etish, geosiyosiy jarayonlarda O‘zbekiston va Turkiy davlatlarning o‘rni va roliga baho berish alohida ahamiyatga egadir.

Yevroosiyoning kuchli davlatlaridan biri bo‘lgan Turkiyada mafkuraviy qaramaqarshiliklar barham topib, Sovet davlati tarkibidagi sotsialistik mamlakatlar bilan hamkorlik qilish borasidagi taqiqlar olib tashlanganidan foydalanib, yangi sharoitda o‘z geosiyosatini yana qayta ko‘rib chiqa boshladi. O‘tgan davr mobaynida Turkiyaning geosiyosiy faoliyatida va hokimiyat tepasiga kelgan siyosiy kuchlar hamda ilmiy-ijtimoiy fikr vakillari qarashlarida mamlakatning kelgusidagi tashqi siyosatidagi yondashuvlari ancha rang-barang ekanini ko‘rsatdi. Ularning ba’zilari Turkiyaning G‘arb dunyosi bilan munosabatlarini yaxshilash va Yevropaga qo‘shilish yo‘lini talab qilgan bo‘lsalar, Turkiya jamiyatidagi millatchi kuchlar “Turkiyaning Adriatika dengizidan Xitoyga qadar bo‘lgan barcha turkiy-musulmon xalqlarni o‘z atrofida birlashtirish g‘oyasini ilgari surib kelmoqdalar**[1].**

1991 yilda Turkiya Prezidenti Turg‘ut O‘zal (1989-1993)ning SSSRga diplomatik tashrifi nafaqat Rossiyani, balki Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa ittifoq mamlakatlarini ham qamrab oldi**[2]**. Ushbu tashriflar sobiq Sovet Ittifoqi janubida yangi paydo bo‘lgan davlatlarga nisbatan Turkiyani qiziqishi ortib borayotganligini ko‘rsatdi va yangi tashkil topgan MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) mustaqil mamlakatlarini tan olgan birinchi davlat bo‘ldi**[3].** Bu esa o‘z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarini Turkiya orqali Yevropa mamlakatlari bilan aloqalar o‘rnatishi uchun imkoniyatlar eshigini ochdi.

Darhaqiqat, Turkiya Markaziy Osiyo geosiyosiy jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Turkiya Markaziy Osiyoda bir vaqtning o‘zida beshta mustaqil respublika paydo bo‘lishi hodisasiga befarq qarashi mumkin emas edi. Qolaversa, bu respublikalarning to‘rttasi turkiy tilli xalqlardan tashkil topgan bo‘lib, tarixan til, din va madaniy jihatdan qardoshlik munosabatlariga ega edi. Ushbu yangi respublikalarning dunyo hamjamiyatining teng huquqli a’zolariga aylanishi Turkiyaga yangi-yangi imkoniyatlar eshigini ochardi. S.Hantington yozganidek, G‘arb Markaziy Osiyo masalasida

Turkiyani to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Turkiy til davlatlarini birlashtirish siyosati sabab, G‘arb davlatlari Turkiyaga nisbatan o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqa boshladi. Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga “vasiylik” qilishi, NATO ittifoqchilari nazarida uning geostrategik jozibadorligini oshiradi. G‘arb Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni o‘rnatishda Turkiyani ishonchli vositachi sifatida ko‘ra boshladi**[4].**

XX asr 90 yillar boshida Turkiya mustaqil Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida turkiy tilli davlatlar alyansini tuzishida namoyon bo‘ldi. Hisob kitoblarga ko‘ra, 2025 yilga borib dunyodagi turkiy xalqlar nufuzi 227.2 milliondan oshishi tahmin qilinmoqda **[5].** Ularni bog‘lab turuvchi yagona unsur bu – *turkiy til* hisoblanadi. Ana shu omil Turkiya prezidenti Turg‘ut O‘zalning (*1989-1993 yillarda Turkiya Prezidenti*) tashqi siyosatda ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida turkiy tilli davlatlar alyansini tuzishiga namoyon bo‘ldi.

Turkiy tilli davlat rahbarlari sammiti ilk yig‘ilishi 1992 yil 30-31 oktabr oyida Anqarada bo‘lib o‘tdi. Unda Turkiya Prezidenti Turg‘ut O‘zal, Ozarbayjon Prezidenti Abulfaz Elchibey, Qozog‘iston Prezidenti Nursultan Nazarbayev, Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akayev, Turkmaniston Prezidenti Saparmurod Niyazov va O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovlar ishtirok etishgan edi**[6].** Anqara sammiti madaniy aloqalar yuzasidan bir necha kelishuvlarni imzolanishi bilan cheklandi xolos. Boku shahrida tashkillashtirilgan ikkinchi sammit MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) sammiti kunlariga to‘g‘ri kelib qoldi. Shu sababli ikkinchi sammit ishi MDH sammiti ishlariga zid va ayricha tashkil etilmaganligi va biron bir davlatga qarshi qaratilmaganligi bilan izohlash mumkin.

1995 yilgi Kengash yig‘ilishi Bishkek shahrida “Manas eposining 1000 yilligi”ga to‘g‘ri keldi. Keyingi kengash yig‘ilishi 1996 yil Toshkent shahrida “Amir Temurning 660 yilligi”ga atalgan tantanalari bilan bir qatorda davlat rahbarlari to‘plandilar. Oxirgi ikki Kengash yig‘ilishlari turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi rejalarini orqa planga surdi degan fikrlar ham tahlilchilar va matbuot tomonidan bildirildi. Toshkentdagi sammitdan so‘ng, kengash rasmiy xujjatlari rus va turk tillarida aks ettiriladigan bo‘ldi.

1998 yilgi TTDHK (Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi)ning sammitida O‘zbekiston va Turkmaniston davlat rahbarlarining oxirgi ishtiroki bilan tarixda qoldi. 2000 yilgi Bokudagi Kengashda O‘zbekiston va Turkmanistondan bosh vazirlar davlat rahbari nomidan ishtirok etishdi. 2001 yildagi 7 – sammit doirasida ham O‘zbekiston hukumati nomidan bosh vazir ishtirok etdi. 2006 yilda Kengash sammitiga O‘zbekistondan biron bir rasmiy vakilini yubormadi**[7]**, Turkmaniston esa Antalya sammitida Turkiyadagi elchisi vakil sifatida ishtirok etgan bo‘lsa, (Turkmaniston xalqaro darajada neytral pozitsiyani egallaganligini bildirdi va xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda ishtirokini kamaytirdi). 2009 yildagi Naxechevan sammitidan keyin Qozog‘iston sobiq Prezidenti N.Nazarbaev tashabbusi bilan sammit Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga aylantirildi. Keyinchalik Vengriya va Rossiya Federatsiyasi kuzatuvchi maqomida ishtirok etish istagini bildirdi. 2012 yil 25 avgust Bishkek sammitida kengash bayrog‘i qabul qilindi.

TTDHK sammitlari asosiy mavzusi turkiy davlatlar orasidagi savdo iqtisodiy hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, energetika va yoqilg‘i masalalari, xalqlararo do‘stlik rishtalarini mustahkamlash, mintaqadagi hududiy muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish, TTDHKga ahzo davlatlarning dunyo siyosiy arenasida mavqeyini oshirish va jahon geosiyosiy jarayonlariga xalqaro miqyosda Kengashning ta’sirini oshirish kabi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Yuqoridagi masalalardan kelib chiqib, qo‘shni respublikalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish, hususan TTDHKning asos tamal toshini qo‘yilishida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning istiqlolga erishganimizdan so‘ng, sa’yi-harakatlari bilan mintaqada tinchlik va iqtisodiy farovonlik hukm surishligi uchun amaliy harakatlar boshlab yuborildi. O‘zbekiston turkiy tilli davlatlar qatorida qo‘shni Tojikistonda yuz bergan fuqarolar urushi barham berilishida katta rol o‘ynadi. O‘zbekiston Turkiyaning turkiy tilli xalqlarni yaqinlashtirish borasidagi harakatlarini qo‘llab quvvatladi. Bundan tashqari Turkiya va O‘zbekiston BMT, ShHT, MDH, Islom hamkorlik tashkiloti

kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar bo‘yicha tomonlarning pozitsiyalari bir-biriga o‘xshash yoki yaqin.

1995 yilda Toshkentda Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan “Turkiston – umumiy uyimiz” shiori ostida Markaziy Osiyoning besh respublikalari ishtirokida katta anjuman o‘tkazilgan edi. Bu shior keyin “O‘zbekiston – umumiy uyimiz”, deb o‘zgartirildi. O‘zbekiston albatta har qanday tashkilot yoki birlashma tarkibida bo‘ladimi, o‘zaro hurmat va tenglik asnosidagi siyosatni tan oladi. O‘zbekistonning TTDHKda ishtiroki a’zo davlatlar bilan hali yechimini topmagan muammolar mavjud edi. Shu sababli, XXI asr boshlarida O‘zbekistonning TTDHK tarkibidan chiqib ketishiga ma’lum ob’yektiv va sub’yektiv sabablar borligiga shubha yo‘q. Bu muammo O‘zbekiston va Turkiya kabi turkiy davlat o‘rtasidagi savdo aloqalariga ta’sir ko‘rsatdi.

Yuqoridagi omillar qay darajada bo‘lishligidan qat’iy nazar, O‘zbekistonni TTDHKda o‘rni muhim ekanligini barcha a’zo davlatlar doim takror ta’kidlab kelishgan. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda O‘zbekistonning konstruktiv hamkorligi TTDHK a’zo davlatlari uchun muhim hisoblanadi.

2016 yilda O‘zbekiston Prezidenti bo‘lgan Shavkat Mirziyoev davlat boshqaruvining ilk kunlaridanoq, mintaqadagi davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash alohida e’tibor qaratgani hamda olib borayotgan tashqi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e’tirof bilan qabul qilindi. Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘on 2018 yilning 29-30 aprel – 1 may kunlari O‘zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi davomida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga a’zo bo‘lish va navbatdagi sammitda ishtirok etishni taklif qilgan edi. 2018 yilning 3 sentabr kuni Qirg‘izistonning Cho‘lponota shahrida bo‘lib o‘tgan sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev birinchi marta O‘zbekiston nomidan faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi**[8].** O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur kengash anjumanida birinchi marotaba qatnashdi va sammitdagi o‘z nutqida 2018 yil iyun oyida BMT Bosh Assambliyasi tomonidan Markaziy Osiyo bo‘yicha qabul qilingan rezolyutsiya mintaqa xalqlari orasida muhim qadam bo‘ldi. O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a’zo mamlakatlar bilan o‘zaro savdo hajmi oxirgi bir yilda 40% dan oshgani, savdo va investitsiyaviy hamkorlikni keng qamrovda kengaytirish, transport yo‘nalishlarining o‘zaro integratsiyalashgan tarmoqlarini yaratish, ayniqsa turizmni turli yo‘nalashlarini rivojlantirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan to‘la foydalanish, madaniyat, san’at sohalaridagi aloqalarni har tomonlama mustahkamlash kabi masalalar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi**[9].**

Keyingi yillarda Yevropa Ittifoqiga a’zolik masalasida Turkiya oldinga siljishlar bo‘lmaganidan so‘ng, mintaqaviy energiya tizimi va umumiy bozorga ega turk dunyosini shakllantirishga harakat qilmoqda. 2009 yil qayta shakllantirilgan Turk Kengashi (Turkiy tilli davlatlar xamkorlik kengashi) ham ana shu maqsadlarda xizmat qilishi nazarda tutilgan edi. Turkiy tilli davlatlarda orasida Turkiyaning integratsion jarayonlari keyinchalik bu tuzilma katta bir siyosiy-iqtisodiy birlashmaga aylanishi kutilgan holat edi.

2019 yil 15 oktabrdagi Bishkek yig‘ilishida O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitida ilk bor to‘la huquqli a’zo sifatida ishtirok etdi hamda sammitda O‘zbekiston tomoni amaliy va konstruktiv muloqotga tayyorligini, har qanday masalani muhokama qilishga ochiqligini namoyish etdi**[10].** Kuzatuvchi mamlakat sifatida Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, shuningdek, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o‘rinbosari Purli Agamurodov anjumanda qatnashdi. Turkiy kengashga a’zo davlatlar rahbarlarining O‘zbekistonning to‘la huquqli a’zo sifatida tashkilotga qo‘shilishi to‘g‘risida Qo‘shma bayonoti sammitning muhim voqeasi bo‘ldi.

O‘zbekistonning mazkur tashkilot faoliyatida qatnashishi ushbu tuzilmani xalqaro maydonda turk dunyosi manfaatlarini ilgari suradigan to‘laqonli tashkilotga aylantiradi. Ikkinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoevning ochiq va vazmin tashqi siyosati nafaqat O‘zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi manfaatlariga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a’zo mamlakatlar bilan o‘zaro savdo hajmi oxirgi bir yilda 40% dan ziyod oshgani, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni

yanada kengaytirish, transport yo‘nalishlarining o‘zaro integratsiyalashgan tarmoqlarini yaratish, turizmni rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlardan to‘la foydalanish, madaniy-gumanitar sohadagi aloqalarni har tomonlama mustahkamlash kabi masalalar bo‘yicha fikr-mulohazalarini bildirib o‘tdi.

Xususan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 12-noyabr kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining sakkizinchi sammitida ishtirok etdi[11]. Ushbu kengash sammiti o’zaro turkiy davlatlar o’rtasida savdo-iqtisodiy, davlatlarga investitsiyalarni keng jalb qilish bilan birga bugungi dunyo hamjamiyati tomonidan asosiy e’tibor qaratilayotgan yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, transport va kommunikatsiyalar sohalaridagi amalga oshirilayotgan hamkorlik loyihalariga asosiy kun mavzusi sifatida qaralgani ham bejiz emas. Shuningdek, mamlakatimiz rahbari o’z nutqida Turkiy Kengash nomini «Turkiy davlatlar tashkiloti» deb o‘zgartirish hamda Turkmaniston Respublikasini ushbu tashkilotda kuzatuvchi maqomini berish to‘g‘risidagi yakdil qarorlarni qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlab o’tdi.

2022 yilning 10-11-noyabr kunlari Samarqandda Turkiy davlatlar tashkilotining birinchi sammiti o’tkazildi. Sammitga a’zo davlatlar Turkiya, Ozarbayjon, Qirg’iziston va Qozog’iston prezidentlar darajasida, kuzatuvchi davlat maqomiga ega bo’lgan Vengriya esa bosh vazir darajasida ishtirok etdi. TDTning oliy darajadagi platformasi bo’lgan Davlat rahbarlari sammitida yetakchilar a’zo va kuzatuvchi davlatlar o’rtasidagi turli sohalardagi hamkorlikning asosiy masalalarini muhokama qildilar, mintaqa va undan tashqaridagi siyosiy va iqtisodiy o’zgarishlar yuzasidan fikr almashdilar. Sammit dasturi yakunida yetakchilar bir qator qarorlar bilan Samarqand deklaratsiyasini imzolaydilar, jumladan TDT Kotibiyatiga rahbarlar tayinlandi.[**12]**

Oxirgi yillarni oladigan bo’lsak, O‘zbekistonning turkiy davlatlar bilan o’zaro tovar ayirboshlash hajmi sezilarli darajada oshganini ko’rishimiz mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2020 yilda Kengashga a’zo davlatlarning jami importi 420 milliard dollarga teng bo‘lgan, ular o‘rtasidagi o‘zaro mahsulot yetkazib berish hajmi esa 21 milliard dollarni tashkil etgan**[13].** Shuningdek, O‘zbekiston amaliy va konstruktiv muloqotga tayyorligini, har qanday masalani muhokama qilishga ochiqligini namoyish etdi. Mamlakatimizning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi faoliyatida ishtirok etishi buning yaqqol tasdig‘idir. O‘zbekistonning mazkur tashkilot faoliyatida qatnashishi ushbu tuzilmani xalqaro maydonda turk dunyosi manfaatlarini ilgari suradigan to‘laqonli tashkilotga aylantiradi. Ikkinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ochiq va vazmin tashqi siyosati nafaqat O‘zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi manfaatlariga xizmat qiladi. Rasmiy Anqara Markaziy Osiyoda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda O‘zbekistonning rolini teran anglaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixan mushtarak bo‘lgan turkiy tilli xalqlar bilan, xususan, O‘zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishiga ahamiyat qaratishi hamda mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olishi bu davlatlar hamkorligida yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Bu esa o‘z navbatida, turkiy tilli davlatlarni Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlarda ishtirokini ta’minlashga hamda siyosiy nufuzini ortishiga xizmat qildi. Ayniqsa, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar bo‘yicha ikki davlatning pozitsiyalari bir-biriga o‘xshashligi tufayli Turkiya va O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Kelgusida Turkiy davlatlar tashkiloti turk dunyosi mamlakatlari muloqoti va hamkorligini rivojlantirish uchun tashkil etilgan xalqaro platforma sifatida xalqaro hukumatlararo tashkilot bo‘lib, faoliyatining asosi turkiy tilli mamlakatlar o‘rtasida do‘stlik va qo‘shnichilikni mustahkamlash, hududda va jahonda tinchlikni saqlash, xavfsizlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Хасанов А. Геосиёсат. Тошкент: “Tamaddun”, 2016. – Б. 213.
2. Muhittin A. “Leadership Change: Ozal Leadership and Restructuring in Turkish Foreign Policy”, *Alternatives Journal,* Vol. 1, No. 1 (Spring 2002): – P. 134.

3. Bülent A. “Turkey’s Policy in the Former Soviet South: Assets and Options”, *Turkish Studies*, Vol. 1, No. 1, (Spring 2000): – P. 45.

4. Икромов Ш. Ривожланишнинг турк модели ёхуд Марказий Осиёда Туркия, Эрон ва Исроил рақобати. https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/8071/ 26.08.2020.

5. Imamov B.X. Turkiy tilli davlatlar kengashida O‘zbekiston va Turkiya Respublikalarining o‘rni va roli. “O‘zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyoti: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi - Toshkent, 2021 yil, 146 bet.

6. Икромов Ш. Ривожланишнинг турк модели ёхуд Марказий Осиёда Туркия, Эрон ва Исроил рақобати. https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/8071/ 26.08.2020.

7. Imamov B.X. O‘zbekiston va Turkiya Respublikalari o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991–2018 yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: 2022. – 23 bet.

8. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi o‘zaro ishonchga bir qadam. https://uza.uz/uz/posts/turkiy-tilli-davlatlar-amkorlik-kengashi-zaro-ishonchga-yana-17-09-2019.

9. Ўзбекистонни Туркий кенгашга аъзо бўлиши – табиий ва тарихий жараён. http://uza.uz/oz/politics/ zbekistonning-turkiy-kengashga-azo-b-lishi-tabiiy-va-tarikhi-15-102019.

10. O‘zbekistonning Turkiy kengashga a’zo bo‘lishi-tabiiy va tarixiy jarayon https://uza.uz/uz/posts/zbekistonning-turkiy-kengashga-azo-b-lishi-tabiiy-va-tarikhi-15-10-2019.

11. O‘zbekiston Prezidenti turkiy tilli davlatlarning ko‘p qirrali hamkorligini kengaytirish bo‘yicha muhim takliflar bildirdi https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-prezidentiturkiy-tilli 12.11.2021.

12. Samarqandda Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari sammiti bo‘lib o‘tadi https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2022/11/09/01234567890-131-1904195 09.11.2022.

13. Imamov B.X. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi faoliyat-davlat imidjining yetakchi omili sifatida. "Turkiy tilli davlatlarning falsafasi, madaniyati: tarix, bugun va kelajak"- III Xalqaro ilmiy konferensiya. Toshkent, 2022 yil, 73 bet.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА КАДРЛАР БИЛАН ИШЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Очилов Ф.Э.
Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги
Қашқадарё вилояти филиали етакчи инспектори,
Тарих фанлари номзоди, доцент

Аннотация: Ушбу мақолада Янги Ўзбекистонда кадрлар билан ишлашнинг долзарб масалалари ҳақида сўз боради. Муаллиф тарихий маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Янги Ўзбекистонда кадрлар билан ишлашнинг долзарб масалалари бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Abstract: This article talks about current issues of working with personnel in New Uzbekistan. Based on historical data, the author studied and analyzed specific aspects of current issues of working with personnel in New Uzbekistan on the basis of available scientific literature.

Калит сўзлар: давлат фуқаролик хизмати, давлат фуқаролик хизматчиси, касбий компетенцияси, давлат фуқаролик хизматчиларининг одоб-ахлоқ қоидалари, инсон ресурсларини ривожлантириш, энг муҳим самарадорлик кўрсаткичлари KPI, миллий кадрлар захираси, ротация, вакант лавозимлар.

Glossary: Public service, public servant, occupational competency, code of ethics of public servants, development of human resources, Key Performance Indicators (KPI), national base of employees, rotation (of the public servants), vacancies.

Тараққиётнинг ҳозирги босқичида Янги Ўзбекистонни барпо этиш йўлида амалга ошириб келинаётган кенг кўламли ислоҳотлар барча соҳаларда ижобий ўзгаришларни таъминлашга хизмат қилмоқда.

Юртимизда ривожланишнинг ҳамда тараққиёт йўлини белгилашнинг энг устувор омиллари сифатида инсон қадрини улуғлаш, унинг манфаатларини ҳимоя қилиш, аҳоли фаровонлигини таъминлашга қаратилганлиги муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар, янгиланишлардан кўзланган энг асосий мақсад халқимиз фаровонлигини ошириш, аҳоли турмуш тарзини яхшилаш, фуқароларни бугунги ислоҳотлардан, шунингдек раҳбарлардан рози бўлиб яшашларини таъминлашдир.

Ислоҳотларнинг натижадорлигини таъминлаш бугунги раҳбарлардан катта масъулият, билим, тажриба ҳамда малака талаб қилади. Бугунги кунда халқни ичига кириб бориш, аҳолининг муаммоларини ўрганиш, уларни дардини ва ташвишларини англаш, мавжуд муаммоларини бартараф этишда фаол ва ташаббускор бўлиш талаб этилади.

Янги Ўзбекистонни бунёд этиш йўлида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг мазмуни ва моҳиятини чуқур англаган, ўзгаришлар билан ҳамнафас бўлган ва аҳоли муаммолари билан ишлаш кўникма ва тажрибаларига эга бўлган замонавий кадрларни тайёрлашда янги қабул қилинган қонун муҳим аҳамият касб этади.

Жамиятнинг равнақи, унинг тараққиёти кўп жиҳатдан мамалкатда малакали, билимли ва салоҳиятли кадрларни давлат фуқаролик хизмати тизимида фаолият олиб бориши, уларга зарур меҳнат шароитларини яратиб бериш, самарали фаолият юритишлари учун кадрларни мунтазам равишда малака ошириш ва касбий ривожланишини таъминлаш билан боғлиқдир. Жорий йилнинг 8-августида қабул қилинган “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги 788-сонли Ўзбекистон Республикасининг Қонуни бу борада ташланган энг катта қадам бўлди.

Ушбу қабул қилинган янги Қонун Ўзбекистон Республикаси тарихида янги ҳужжат ҳисобланиб, унинг қабул қилинишини биз бугунги кунда давлат бошқаруви тизимини модернизация қилинаётганлиги, давлат бошқаруви органларини давлат ижтимоий-сиёсий ҳаётида профессионал тарзда фаолият юритишида муҳим аҳамият касб этишини таъкидлаб ўтишимиз ўринлидир.

Қонунда акс этган қоидаларга назар ташлар эканмиз ундаги маъно-мазмундан бугунги куннинг давлат фуқаролик хизматчиси ҳар томонлама етук, ватанпарвар, ўз касбига содиқ, фидойи каби фазилатларга эга бўлиши лозим эканлиги акс эттирилган.

Қонунда кадрлар сиёсати масаласи устувор аҳамиятга эга эканлиги акс этиб, бугунги кун давлатимиз сиёсати мазмуни рақобатбардош кадрлар шакллантирилишига аҳамият берилаётганлиги бежиз эмас албатта. Бу давлатимизнинг сиёсати мазмунини – давлат фуқаролик хизматига қабул қилинадиган номзодларни саралаш асосида лавозимга тайинланиши ёркин бир мисолдир.

Қонунда давлат фуқаролик хизматчисининг ҳуқуқлари, бурчлари, мажбуриятлари белгилаб берилди. Қонуннинг устувор жиҳатларидан бири давлат фуқаролик хизматчиларини манфаатларини, қонуний ҳуқуқларини таъминлашга, уларни шахсий ва касбий ривожлантириб боришга, мунтазам равишда малакасини ошириш, қайта тайёрлаш ва мустақил таълим олиб боришларини ташкил этиш, малакали кадр сифатида лавозим поғоналарида ўсиб боришини, уларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш каби кўплаб зарур жиҳатларини мустаҳкамлаб қўйилди.

Ушбу ҳужжатнинг 9-моддасида давлат фуқаролик хизматчиларини қайта тайёрлашни, уларнинг малакаси оширилишини ва таълим олишини мунтазам равишда ташкил этиш давлат

органларининг давлат фуқаролик хизмати соҳасидаги ваколатларига кириши белгиланиб, бу орқали ҳар бир давлат органи ўз ходимларини доимий асосида ривожлантириб бориши белгилаб қўйилди.

Шунингдек, қонуннинг 12-моддасида давлат фуқаролик хизматчисининг мажбуриятлари қаторида ўзининг касбий компетенциясини мунтазам равишда ошириб бориши шарт эканлиги белгилаб қўйилганлиги, ходимлар ҳам ўз хизмат фаолияти давомида ўз устида ишлаши, тинимсиз изланиши, янги билимларни эгаллаши, малака ошириш ва қайта тайёрлаш курсларида иштирок этиши, сертификатларга эга бўлиши каби сифатларини намоён этиб бориши лозим бўлади.

Қонуннинг 25-моддасида миллий кадрлар захирасини шакллантириш тартиби белгиланган бўлиб, Миллий кадрлар захираси давлат фуқаролик хизматчиларининг раҳбарлик лавозимларини малакали кадрлар билан тўлдириш мақсадида давлат фуқаролик хизматчиларини марказлаштирилган ҳолда саралаб олиш, тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва узлуксиз малакасини ошириш тизимидир.

Миллий кадрлар захираси давлат фуқаролик хизматининг раҳбар кадрлар таркибини барқарор таъминлаш ва унинг сифатини яхшилаш, давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини ошириш ҳамда хизматда лавозим бўйича кўтариш мақсадида шакллантирилади.

Миллий кадрлар захирасини шакллантириш ва юритиш Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан белгиланадиган тартибда махсус ваколатли давлат органи томонидан амалга оширилиши белгилаб қўйилган. Махсус ваколатли давлат органи сифатида Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан бугунги кунда минглаб давлат фуқаролик хизматчилари орасидан муносиб номзодлар саралаб олиниб Миллий кадрлар захираси шакллантириш ҳамда сараланган номзодлар эса Давлат бошқаруви Академиясида малака ошириш курсларида қисқа курсларда ўқитилиб, раҳбарликка тайёрлаш ишлари олиб борилмоқда.

Қонунинг 29-моддаси билан давлат фуқаролик хизмати лавозимини эгаллашда ва давлат фуқаролик хизматига ишга кириш танлов асосида амалга оширилиши, давлат фуқаролик хизматининг бўш турган (вакант) лавозимини эгаллаш махсус ваколатли давлат органининг ахборот тизими орқали ўтказиладиган ички ва ташқи танловлар асосида амалга оширилиши белгилаб қўйилди. Бу эса ўз навбатида, барча фуқароларга тенг имкониятлар яратиб бериш ва соҳадаги вакант лавозимларга энг муносибларни саралаб олиш, шаффофликни таъминлаш ва коррупциянинг олдини олишда жуда муҳим аҳамият касб этади.

Давлат фуқаролик хизматига танлов орқали ишга тайинланган фуқаролар билан тузиладиган меҳнат шартномаларининг қонун билан тартибга солинадиган яна бир жиҳати шундаки, уларнинг меҳнат фаолиятининг самарадорлиги баҳоланиб борилишидир. Бу ўз навбатида давлат фуқаролик хизматчиларининг иш самарадорлигини оширибгина қолмасдан, ўз устларида доимий равишда ишлашлари, шахсий компетенцияларини ошириб боришлари, ўзлари фаолият кўрсатаётган соҳани ривожи йўлида катта туртки бўлади.

Қонуннинг 42-моддасида давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда ошириб бориши белгилаб қўйилган бўлиб, унда қуйидаги жиҳатларга алоҳида эътибор бериб ўтилган.

Давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компененциясини узлуксиз равишда оширишдан мақсад унинг самарали фаолият юритиши учун зарур бўлган билимлар, кўникмалар ва малакаларни эгаллаши учун шарт-шароитлар яратишдан иборатдир деб белгилаб қўйилди.

Мустақилликнинг ўтган кўп йиллик фаолияти давомида давлат хизматчиларининг фаолияти давомида малакасини ошириш борасида аниқ тизимли ишларнинг мавжуд эмаслиги натижасида айрим давлат хизматчилари ўн йиллар давомида малака оширмасдан, касбий

компитенцияларини ривожлантирмасдан, шахсий ривожланишга эришмасдан фаолият юритиб келганлиги барчамизга маълум.

Қонун билан давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенцияси даражаси унинг билимлари, кўникмалари ва малакалари даражасини аниқлаш имконини берувчи ахборот тизимлари орқали давлат органи томонидан мунтазам равишда баҳолаб борилади.

Давлат фуқаролик хизматчиларининг касбий компитенциясини, унинг билими, кўникмаси ва малакасини ахборот технологиялари воситасида аниқлаш орқали ходимлар доимий равишда касбий ва шахсий ривожланиб бориши таъминланади.

Қонун билан қайта тайёрлаш, малака ошириш ва мустақил таълим олиш давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда оширишнинг асосий шакллар сифатида белгилаб қўйилди.

Давлат хизматчиларининг ўз соҳасига оид замонавий билимларни эгаллаши, мунтазам равишда малакасини ошириб бориши унинг эгаллаб турган лавозимида янада самарали фаолият олиб бориши таъминланади, шунингдек орттирилган билимлар натижасида давлат фуқаролик хизматчиларининг малака даражаларида юқорилаб боришида ҳамда лавом поғоналарида кўтарилишида муҳим аҳамият касб этади.

Қонунининг 43-моддасига кўра давлат фуқаролик хизматчисининг меҳнатига ҳақ тўлаш тартиби белгилаб қўйилди. Базавий лавозим маоши, кўп йиллик хизмат учун қўшимча тўлов, малака даражаси учун қўшимча тўлов, давлат фуқаролик хизматчиси фаолиятининг энг муҳим самарадорлик кўрсаткичларига эришганлик учун қўшимча устама, ҳисобот даври якунлари бўйича рағбатлантириш тўловлари.

Давлат фуқаролик хизматчиларига белгиланган ойлик маошлари уларнинг нафақат касбий фаолиятини ривожлантиришда ва юқори натижадорликка эришишга хизмат қилиб қолмасдан, ходимнинг оиласи фаровонлигини таъминлашда, фарзандлар тарбиясини яхшилашда ва жамиятда ижтимоий-сиёсий ҳаётида фаол иштирокини оширишга хизмат қилади.

Қонуннинг 44-моддасида давлат фуқаролик хизматчисини рағбатлантириш тартиби белгилаб берилган бўлиб, унга кўра лавозим маошига қўшимча устамалар, пул мукофоти, навбатдан ташқари малака даражасини бериш, миннатдорчилик эълон қилиш, қимматбаҳо совға, эсдалик ёки кўкрак нишони ёхуд ёрлиқ билан мукофотлаш кўзда тутилган.

Қоуннинг 45-моддасида давлат фуқаролик хизматчисига нисбатан рағбатлантириш чораларининг қўллаш давлат органининг раҳбари томонидан ёки унинг тавсиясига кўра амалга оширилиб, давлат фуқаролик хизматчиларига ой, чорак, ярим йил, йил якунлари бўйича фаолиятнинг энг муҳим самарадорлик кўрсаткичларини бажарганлик ва ошириб бажарганлик, ўта муҳим вазифаларни бажарганлик, зиммасига юклатилган вазифанинг мураккаблиги ва муҳимлиги, шунингдек унинг фаолиятида эришилган юқори натижалар, байрам кунлари, юбилейлар, нишонланадиган саналар ва пенсияга чиқишида берилиши назарда тутилган.

Қонунда давлат фуқаролик хизматчиларини рағбатлантириш тартиби белгиланганлиги бу ҳар бир ходимга қўшимча мотивация бериб, ходимларни ўз устида ишлашига, янги билимларни эгаллашга, соҳада янгиликларни олиб киришга ва фаолияти самарадрлигини оширишга хизмат қилади.

Қонун билан давлат фуқаролик хизматчисини ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилиш орқали қуйидагилар таъминланиши белгилаб қўйилди:

меҳнат таътили ва ижтимоий таътиллар бериш; ҳаёти ва соғлиғини мажбурий суғурта қилиш; ҳаётига, соғлиғига ва мол-мулкига етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш; давлат пенсия таъминоти билан таъминлаш.

Давлат фуқаролик хизматчисига қуйидаги ижтимоий ҳимоя чоралари кафолатланаб қўйилди:

тиббий хизмат кўрсатиш;

ротация тартибида бошқа давлат фуқаролик хизмати лавозимига ўтказилиши билан боғлиқ харажатларнинг, шу жумладан яшаш ва транспорт харажатларининг ўрнини қоплаш; турар жой майдони, хизмат транспорти билан ёки уй-жой ва транспорт харажатлари учун пулли компенсация билан қонунчиликда белгиланган ҳолларда ҳамда тартибда таъминлаш белгилаб ўтилган.

2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида ҳам энг устувор масала сифатида инсон қадрини улуғлашга алоҳида этибор қаратилганлиги ва инсон-жамият-давлат тамойили асосида ислоҳотларни амалга оширилиши белгилаб қўйилган айни ҳақиқатдир.

Мазкур Қонуннинг қабул қилиниши мамлакатимизда давлат фуқаролик хизмати соҳасидаги ижтимоий муносабатларнинг механизмларини белгилаб берди ва келажакда соҳанинг ривожланишига мустаҳкам асос бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида” Қонуни ЎРҚ-788, 08.08.2022 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони ПФ60-сон, 28.01.2022 й.
3. “Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қонун ЎРҚ-798, 28.10.2022 й.

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ УМУМТАЪЛИМ АКТАБЛАРИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР

Пардаев Асрор
ҚарДУ доценти

Аннотация. Ўшбу мақолада мусиақиллик йилларида Қашқадарё вилоятидаги умумтаълим мактабларида амлага оширилган ислоҳотлар, замонавий мактабларнинг қурилиши, мактабларни техник воситалар билан таъминланиши ҳақида гап кетади. Шунингдек, соҳадаги мавжуд муаммолар кадрлар танқислиги, мактабларда ўқувчилар сиғимининг номувофиқлиги ва бошқа муаммолар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, Республика, Қашқадарё, Қарши, Шаҳрисабз, Китоб, Чироқчи, Деҳқонобод, Қамаши, Таълим тўғрисидаги қонун, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, виллоят, туман, шаҳар, мактаб, ўқитувчи, ўқувчи.

Abstract. This article talks about the reforms implemented in secondary schools of the Kashkadarya region during the Musiyakil years, the construction of modern schools, and equipping schools with technical equipment. The existing problems in the field, shortage of personnel, discrepancy in the student potential of schools and other problems were also analyzed.

Key words: Uzbekistan, Republic, Kashkadarya, Karshi, Shakhrisabz, Kitab, Chiraki, Dehkanabad, Kamashi, Law on Education, National Personnel Training Program, region, district, city, school, teacher, student.

Ўзбекистон Республикасида мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ таълим соҳасига алоҳида эътибор қаратилди. Жумладан, умумий ўрта таълим мактаблар сони ҳам йилдан-йилга ортиб борди. Бунга асосан аҳолининг табиий кўпайиши натижасида мактабгача

таълим муассасаси ва мактабларга аҳолининг эҳтиёжи орти бориши натижасида амлага оширилди.

Жумладан, вилоятда умумий ўрта таълим мактаблар сони 1994 йилда 1000 тани ташкил қилган бўлса, 1995 йилда 1021 тани ташкил этган. Шундан, ўмумтаълим мактабларда ўқувчилар сони 1994 йилда 472,2 мингтани ташкил қилган бўлса, 1995 йилда 488,5 мингтани ташкил этган.

Ўзбекистон Республикасида мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ таълим соҳасига алоҳида эътибор қаратилди. Республикада "Таълим тўғрисида"ги Қонун ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" қабул қилинди. Бунга асосан соҳада туб ислоҳотлар амалга оширилиб борилди.

Йиллар давомида вилоятда янги мактаблар қурилиб, уларнинг сони кўпайиб борди. Масалан, вилоятда 1990-1994 йилларда 75 минг ўринли мактаблар қурилиб, фойдаланишга топширилган. Агар вилоятда 1991 йилда мактаблар сони 720 тани ташкил этган бўлса, 1999 йилда 1077 та мактаб, 6 та мактаб интернат (шундан махсус мктаблар 3та, меҳрибонлик уйлари 3 та, лицейлар 27 та, гимназиялар 4 та), 2010 йилда 1115 та, 2016 йилда эса 1125 та бўлди. Чироқчи шаҳрида ҳам янги мактаблар қурилиб фойдаланишга топширилди. 1997 йилда шаҳарда 422 ўринли, 1998 йилда 834 ўринли мактаб қурилди.

2001 йил Қашқадарё вилояти туманларида жами 38 та авария ҳолатидаги мактаблар бўлиб, шундан, 15 таси Деҳқонобод туманида, 12 таси Чироқчи туманида эди. Вилоятдаги 1078 та умумий ўртатаълим мактабларидан 146 таси капитал таъмирга муҳтож эди. Айниқса, Касби, Китоб, Чироқчи, Шаҳрисабз, Яккабоғ туманларида бундай мактаблар кўпчиликни ташкил этди.

Жумладан, Қамаши туманида 2000-2001-2002 йилларда рўй берган зилзила туфайли жиддий зарар кўрган мактаблар, мактаблар филиаллари ва болалар боғчаларини қайта қуриш, таъмирлаш ҳақида 2000 йил 27 июнда ва 2001 йил 15 мартда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари хамда 2002 йил 13 майда вилоят ҳокимининг фармойиши қабул қилинди. Мазкур ҳужжатларда тумандаги 8 та мактаб, 6 та мактаб филиали ва 7 та болалар боғчасини қайта қуриш ва реконструкция қилиш чора-тадбирлари белгиланган.

Зилзила оқибатларини тугатиш бўйича ҳукумат қарорлари қабул қилиниб, 11 та мактаб янгидан қурилган. 33 та мактабда кучайтирилган таъмирлаш ишлари олиб борилди. Лекин 28 та мактабнинг биттадан ўқув блоклари қурилиб, қолган ишлар маблағ йўқлиги сабабли тўхтатиб қўйилган.

Жумладан, тумандаги Қорабоғ қишлоғида жойлашган 3 ва 76-мактабларда, шаҳар марказидаги Абдулла Қодирий ва Қори Ниёзий номли 69-мактаб мактабларда қурилиш охирига етказилмаган. Фақатгина 2005 йилга келиб ишлар тўлиқ бажарилган.

2002 йилда вилоят бўйича мактаблар сони 1083 тани ташкил қилиб, шундан мактаб интернатлар 32 та, махсус мктаблар 4 та, меҳрибонлик уйлари 3 та, лицейлар 31 та гимназиялар 3 тани ташкил этган

2004 йилда Қашқадарё вилоятида умумтаълим мактабларининг сони 1098 тани ташкил этиб, шундан бошланғич мактаблар 9 тани, тўлиқсиз ўрта мактаблар 287 тани, ўрта мактаблар 755 тани, гимназиялар 4 тани, лицей ва ихтисослашган мактаблар 39 тани(шундан интернат типидаги 33 тани , махсус мактаблар 4 тани) ташкил этиб, улардаги ўқувчилар сони 620,1 минг кишини, ўқитувчилар сони эса 53873 кишини такил қилган. 2006 йилда эса умумтаълим мактабларининг сони 1103 тани ташкил этиб, шундан бошланғич мактаблар 8 тани, тўлиқсиз ўрта мактаблар 480 тани, ўрта мактаблар 569 тани, гимназиялар 4 тани, лицей ва ихтисослашган мактаблар 37 тани (шундан интернат типидаги 32 тани , махсус мактаблар 4 тани) ташкил этиб, улардаги ўқувчилар сони 587,2 минг кишини, ўқитувчилар сони эса 53852 кишини такил қилган.

Шунингдек, 2006 йилдан Ўзбекистон Республикаси "Маҳаллий давлат хокимияти тўғрисида" ги қонунининг 6 моддасига асосланиб баъзи 9 йиллик мактаблар негизида

коллежларнинг ўзоқ масофадалигини инобатга олиб 10-синфлар ташкил этилди. Масалан, Китоб туман хокимлигининг 2006 йил 3 февралдаги 14-ф сонли фармойишига кўра 20052006 ўқув йилидан тумандаги 1,2,3,6, 11,12, 23,25, 35, 45, 47, 48, 49, 51, 70- шунингдек, 16мактабнинг филиали сифатида 10-умумтаълим мактабларида 10 синф очилган.

Ёки, Китоб туман хокимлигининг 2008 йил 2 сентябрдаги 104-ф сонли фармойишига кўра, 2008-2009 уқув йилидан тумандаги 12, 16, 17, 18,19, 25, 27, 28, 30, 37, 41, 54, 56, 57, 58, 61, 62, 76, 68, 69, 72, 78, 79,80, 82, 86 умумий ўрта таълим мактаблари касб-хунар коллежларидан анча узоқлигини ва ўқувчиларнинг таълимга тортилмай қолишини ҳисобга олиб ушбу мактабларда 10-синф очилган.

Қашқадарё вилоятида 2015-2016 ўқув йилида умумтаълим муассасаларида ўқувчиларнинг ёши таркиби, жами 492,2 киши, 6 ёш 3,5 минг киши, 7 ёш 61,8 минг киши, 8 ёш 62,2 минг киши, 9 ёш 57,6 минг киши, 10 ёш 54,8 минг киши. Қашқадарё вилоятида таълим 2020 – йилда, умумтаълим муассасалари сони 1155 ундаги ўқувчилар сони 639,6 нафарни ташкил қилган.

2020 йилда вилоят халқ таълими бошқармаси тизимида 1157 та мактаб, 16 та “Баркамол авлод” болалар мактаби, 2 та Мехрибонлик уйи ва халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ҳудудий маркази фаолият кўрсатмокда.

Тизимда жами 75 минг 65 нафар (шундан 55 минг 449 нафари ўқитувчи) педагогходим фаолият юритиб, бу вилоятдаги жами банд аҳолининг 7 фоизини ташкил этади. Агар 638 минг 119 нафар ўқувчини қўшиб ҳисобласак, вилоят аҳолисининг 22 фоизиумумий ўрта таьлим соҳасига қамраб олинганини кўриш мумкин.

2020 йилда вилоятимиздаги 47 минг 681 нафар битирувчидан 6 минг 25 нафари ёки 12,6 фоизи талабалик бахтига муяссар бўлишган.

Хусусан, Чироқчи туманидаги 2-мактабнинг 82 фоиз битирувчиси, 111-мактабнинг 72 фоиз битирувчиси талаба бўлган. Косон туманидаги 88, Шаҳрисабз туманидаги 4, Китоб туманидаги 50, Яккабоғ туманидаги 88, Касби туманидаги 5, Ғузор туманидаги 9, Қарши туманидаги 59- ҳамда Қамаши туманидаги 61-мактаб битирувчилари пешқадам сифатида эътироф этилди.

Яна бир факт шуки, Қарши туманидаги 62, Косон туманидаги 56, Деҳқонобод туманидаги 65, Ғузор туманидаги 39, Қамаши туманидаги 85, Китоб туманидаги 77, Шаҳрисабз туманидаги 80, Яккабоғ туманидаги 63, Чироқчи туманидаги 12 ҳамда Миришкор туманидаги 26-мактаб бирорта ҳам ўқувчиси олий таълим муассасасига киролмаган мактаб сифатида ўнликка кирган.

Умумий ҳисобда Қашқадарёдаги мавжуд 1157 та мактабдан 75 тасининг битирувчилари олий таълим муассасаларига ўқишга киролмаган.

Вилоят умумтаълим мактабларида амлага оширилаётган ишлар ижобий кўринсада лекин соҳада етарилча мумммолар мавжуд эди. Масалан, 2010 йил Қашқадарё вилоятидаги 662 та мактабда спорт заллари мавжуд бўлмай, 640 та мактабда тельефон алоқаси етиб бормади.

Шунингдек, вилоят туманлари умумтаълим мактабларида педагоглар танқислиги доимий сезилиб турди. 2000 йил Қашқадарё вилояти таълим муассасаларига математика, физика, чет тили, бошланғич таълим фанлари бўйича 13479 нафар педагог етишмади. Бу кўрсаткич айниқса Нишон, Шаҳрисабз, Деҳқонобод ҳамда Чироқчи тумани мактабларида яққол номоён бўлди.

Бундан ташқари, 2001-2002 ўқув йилида Қашқадарё вилояти умумтаълим муассасаларида фаолият кўрсатган ўқитувчиларнинг фақат 68,8 фоизи олий маълумотли эди. Яна бир муаммо мактабларда эркак ўқитувчиларнинг камайиб кетганлиги эди. Бунга асосий сабаб ўқитувчилар ойлик маошларининг етарли эмаслиги эди. Натижада 12 минг 871 нафар эркак ўқитувчилар мактабга қайтди. Ўқитувчилар меҳнатини рағбатлантириш бўйича қатъий чоралар кўрилди. 2017-2019 йилларда ўқитувчиларнинг иш ҳақи ўртача 2,5 баробар ўсди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар руйхати

1. Ўзбекистан в цифрах 1995. Краткиий статистический сборник. Ташкент – 1996. 49 – стр.
2. ҚВҲА 829-фонд, 1-рўйхат, 88-иш, 24-варақ.
3. Таълим – тарбия истиқлол кўзгусида. Ma'rifat // 2010 yil 7 avgust.
4. Қашқадарё вилоят паспорти. Қарши-2017 йил. 25-бет.
5. ҚВҲА 853-фонд, 5-рўйхат, 1-иш, 7-варақ.
6. ҚВҲА, 829-фонд,12-иш, 35-иш, 1-18-варақлар.
7. Қашқадарё ҳақиқати. 2005 йил 5 январь.
8. Қашқадарё вилояти ижтимоий-иқтисодий паспорти. 2004 йил. 21б.
9. Қашқадарё вилояти ижтимоий-иқтисодий паспорти. 2007 йил. 22б.
10. ҚВҲА, 860-фонд, 17-руйхат, 32-иш, 35-варақ.
11. ҚВҲА, 860-фонд, 18-руйхат, 52-иш, 74-варақ.
12. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Йиллик статистик тўплам. Тошкент – 2017 72 б
13. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистик қўмитаси. Ўзбекистон ҳудудларининг йиллик статистик тўплами. Тошкент – 2021. 225 б
14. Қашқадарё ҳақиқати. 2020 йил. 9 октябрь.
15. Эргашева Ю. Қашқадарёда истиқлол йилларида таълим, илм-фан, адабиёт ва санъат // Насаф ва Кеш тарихи манбаларда мавзусидаги конференция материаллари. – Қарши, 2010 йил – Б. 155-156.
16. ҚВҲА, 846-фонд, 10-рўйхат, 98-иш, 14-варақ.

PSYCHOLOGY AND SPIRITUAL SENSES IN THE WORKS OF AZAM UKTAM AND SEAMUS HEANEY

Allayarov Asror,
Master's student of the Jumabek Tashenov University in Kazakhstan.

Abstract: This article talks about the interpretation of the human psychology and spiritual senses in the works of modern Uzbek poet Azam Uktam and Nobel laureate Seamus Heaney.

Keywords: Modern poetry, human psyche, psychological views, poetry, human character.

However, poets still play an important role in society by giving us a unique perspective on the human experience. Through their words, they help us see the world in new and innovative ways and appreciate the beauty of everyday moments. In today's society, the role of the poet is as important as ever. By giving voice to our shared experiences, poets remind us of our common humanity and inspire us to strive for a better future.

Uzbek poet and translator Azam Uktam and Irish poet Seamus Heaney are the creative heroes of almost the same era. Although they lived thousands of kilometers away from each other and had different cultural views, the most important thing for the artists was that they skillfully revealed the human spirit and psychology in their milestone creative works.

The most remarkable aspect of their work is that every artist composes the village where they were born and grew up, the daily thoughts, views, culture, traditions and dreams of the villagers and reflected in their works.

Both artists are not only poets, but also authors of prose works and the most important and necessary translations of their time. For example, Azam Uktam translated the series of poems of Indian poet and writer Rabindranath Tagore and Russian poet Nikolai Rubtsov into Uzbek. Seamus Heaney's translation of Beowulf (1999) was hailed as a masterpiece, alerting readers to his extraordinary ability to tune into other poets and languages and render their work fresh and alive in his own voice. In fact, as this volume attests, from the very beginning translation informed over fifty years of Heaney's critical and creative output, to which the posthumous publication of his translation of Virgil's Aeneid Book VI (2016) – also widely acclaimed – made a fitting epilogue.

It should be noted that Azam Uktam, one of the brightest representatives of modern Uzbek literature, and Seamus Heaney, a leading representative of modern Irish literature, skillfully depict the image of the human psyche. The image of a person's inner spiritual world, worldview, hopes and character give them a grandeur that is equal to the ages. Writers with their poems not only give spiritual support to budding young poets, but also have a great influence on the formation of their philosophical and secular views. An example of this is the poet's short, but perfect in terms of content. Two creative poets are simple. preferring to follow his sincere path, he bequeaths to his students beautiful allusions, similes and philosophical views that will not be forgotten for a lifetime. There is no doubt that these feelings, moving from the depths of the soul, will live for centuries, like pearls found in the sea of the heart.

Present days, the poems of both famous poets are translated into various languages of the world and published in countries with advanced science, literature and cultural environment. Presented to readers of different nationalities in their native languages. Among them are the Arab Republic of Egypt, the United States of America, India, Germany, Azerbaijan, and others.

Emotions have a stronger and stronger effect on the human psyche than anything else. Azam Uktam's poem "Clouds did their job" convincingly describes the inner world of the creator, his passion for beauty and elegance, his joys and worries, his sufferings: *"A group of young men and women drinking, jumping, Aside from me, I burn again.*

It's a winter that touches my soul, I know,

Spring never hurt my stomach."

The poet sincerely feels that music is an important tool for people to trust and treat each other sincerely, love life, homeland, future, respect each other, understand and preserve national values, and wants young people to understand these feelings. We see the inner life of the artist:

"Call out to the trainer, suddenly shouting, My voice will be the sound of guitars, Tired of the silence:

Shall I play the driving song? - Smiles."

Seamus Heaney, in full **Seamus Justin Heaney**, (born April 13, 1939, near Castledàwson, County Londonderry, Northern Ireland—died August 30, 2013, Dublin, Ireland), Irish poet whose work is notable for its evocation of Irish rural life and events in Irish history as well as for its allusions to Irish myth. He received the Nobel Prize for Literature in 1995.

After graduating from Queen's University, Belfast (B.A., 1961), Heaney taught secondary school for a year and then lectured in colleges and universities in Belfast and Dublin. He became a member of the Field Day Theatre Company in 1980, soon after its founding by playwright Brian Friel and actor Stephen Rea. In 1982 he joined the faculty of Harvard University as visiting professor and, in 1985, became full professor—a post he retained while teaching at the University of Oxford (1989–94).

Most of Heaney's poems tell stories that took place in Ireland. The poems take the reader to Northern Ireland and the Irish Republic. His poetry takes the reader to the farm where Heaney spent his younger years. It also takes the reader to war and conflict in The two Irelands. "The poetry of Heaney is based on actual, local facts, often in Derry's memories or observation of his adopted home in the Republic of Ireland." (Poetry Archive, 2007)

When Heaney was awarded the Nobel Prize in 1995 his acceptance speech contained much of his poem "Exposure". This poem expressed Heaney's self-doubt and fear of failing and explained his "vocation to be one of his own people, to articulate the losses and longings of the tribe to which he belongs."

In his poem "Digging with a Pen" Heaney expresses his admiration of both his father and grandfather who are farmers. Heaney's desire to be like them is great. He realizes that he won't be farming like they do with a spade but promises he will farm, in a sense, with his pen and mind:

"But I've no spade to follow men like them. Between my finger and my thumb The squat pen rests.

I'll dig with it."

(Kirsch, 2006)

"Heaney is always aware of being 'a Catholic native of Northern Ireland … born into one of the word's most intransigent ethnic and religious conflicts? That heritage makes his rural Ulster "not a beautiful idyll, but the theater of shattering moral dramas." "Casualty," in one of Heaney's most intimate renditions of sectarian violence, From Field Work (1979), he expresses his disappointment as a bystander when, according to Kirsch, the troubles say a man he had fished with, a drunkard, "who was killed by his fellow man Catholics when he violated an IRA curfew to go out to a bar"."(Kirsch, 2006) Heaney's biggest problem expressed in this work was the knowledge of what was going to happen to this man and his inability to think of a way to help this man. The future, in this case, will be the death of this friend:

"How culpable was he
That last night when he broke Our tribe's complicity?
"Now you're supposed to be An educated man,
I hear him say. "Puzzle me
The right answer to that one."

(Kirsch, 2006)

In the works of Uzbek poet Azam Uktam and Irish poet Seamus Heaney, the interpretation of the human spirit is the main idea of the poetry of these two artists. Through their composed poems, poets left a deep mark on the hearts of their readers and created an indelible impression. This can be seen from analytical articles published on their life and activities, opinions expressed through various sources and social networks.

We have analyzed the work of both poets above, the emotions that exist in the human heart and sometimes wave like sea waves, human character, dreams, life views and experiences, childhood moments, innocent feelings, human experiences in the heart, the concept of people and mankind, the image of God, faith and higher concepts, the category of people with good and bad character, all of this turns into an immortal treasure that poets that would live for centuries.

References:

1. Mary Oliver – A Poetry Handbook.
2. A. Uktam. The heart cries in the morning..: Poems. –T: ", 2014. -304.
3. A. Uktam. Taraddud: Poems. -Tashkent: "Cholpon" 1993. -80 p.
4. A. Uktam. Interview with Tumaris: Poems. –Tashkent: "Muharrir", 2019. -92 p.
5. Books And Writers**.** (2007). Seamus (Justin) Heaney 1939-. Retrieved 2007-04-26 from https://www.kirjasto.sci.fi/heaney.htm.
6. Frangsmyr, Tore. (1995). *Les Prix Nobel.* 1996. Retrieved 2007-04-25 From www.NobelPrize.org
7. Footnotes. (2007). *New York Times,* Retrieved Thursday, April 26, 2007 from the MasterFILE Premier database.

8. Guardian Unlimited © Guardian News and Media Limited 2007. Retrieved 2007-04-26 From https://books.guardian.co.uk/departments/poetry/story/0,6000,895621,00.html
9. Heaney, Seamus. *The Cure at Troy*. London: Faber, 1990.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA ISLOM DINI TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXI

Niyazov Zafar.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida yurtimizdagi islomiy diniy tashkilotlarning ahvoli, O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy tashkilotlar masjid va madrasalar faoliyati umiy konteksda tahlil etilgan. Respublikada musulmon tashkilotlarining huquqiy bazasining yaratilishi, mavjud islomiy ta’lim muassasalari faoliyatiga doir ma’lumotlar umumlashtirilgan.

Kalit so‘z va iboralar: masjid, madrasa, Islomiy ta’lim muassasalari, mudarris, talaba, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Musulmonlari Idorasi

Annotation: The article analyzes the situation of Islamic religious organizations in our country during the years of independence of the Republic of Uzbekistan, the activities of religious organizations, mosques and madrasas, which are under the jurisdiction of the Muslim Board of Uzbekistan. The information about the creation of the legal base of Muslim organizations in the republic, the activities of existing Islamic educational institutions is summarized.

Key words and phrases mosque: madrasa, Islamic educational institutions, teachers, students, Law "On Freedom of Conscience and Religious Organizations", Office of Muslims of Uzbekistan

Istiqlolning dastlabki yillarida mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ygan respublika hukumati oldida hal etilishi lozim bo‘lgan ko‘pgina dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan birga, davlatning dinga bo‘lgan munosabatini belgilash va tartibga solishdek muhim masala turardi. Bu masala shu qadar nozik ediki, 1990-1991 yillarda jamiyatda diniy e’tiqod uyg‘onish jarayoni boshlangan, aholining diniy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, mavjud diniy tashkilotlarni faoliyatini tartibga solish bilan birga malakali kadrlar bilan ta’minlash ehtiyoji va zarurati paydo bo‘lgan edi. Shunday ekan, tadqiq etilayotgan mazkur masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari kun tartibidagi dolzarb masala sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligini ko‘rish mumkin: “Biz ko‘p joylarda jaholatga qarshi ma’rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib, boshqa ko‘chalarga kirib ketayotgan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. YA’ni, islom faqat nurli hayotga, ilmma’rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi” [1].

Shunday ekan respublikada istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab din va davlat munosabatlarining asosiy subyektlaridan masjid va madrasalarning qurilishiga, madrasalarning faoliyatining yo‘lga qo‘yilishiga imkoniyatlar eshigi ochilgan edi. Yana bir muhim masala ushbu masjid va madrasalarning umumiy holati xalqning ehtiyoji inobatga olinmagan holda ko‘payib ketayotgani ortidan boshqacha bir manzara ko‘zga tashlandi. Buni mustaqil O‘zbekistonning birinchi muftiysi Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shunday izohlagan edi. YA’ni, “Tolibi ilm bor ustoz yetishmaydi, o‘quvchi bor kitob yetishmaydi, masjid bor imom yetishmaydi. Bu esa o‘z navbatida ustozlik saviyasida bo‘lmaganlarning ustozlik qilishiga, darslik tariqasida yozilmagan

kitobdan darslik sifatida foydalanishga, imomlik layoqati yo‘qlarning imomlik qilishiga olib keldi” [2: 16].

Natijada respublikada o‘ziga xos og‘ir ijtimoiy vaziyat xukm surdi. Mamlakat mustaqilligi bilan birgalikda aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil etgan yurtimizda sovetlar hukmronligi yillarida unutilgan islom dini an’analariga qaytish, islom dinini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj erkinligiga yo‘l ochilganligi bois, mamlakatda asosan katta yoshdagi aholi vakillari o‘rtasida islom dinini o‘rganishga intilish jarayoni avj oldi. Ayni paytda, ushbu intilish aholida islom dinini ko‘rko‘rona o‘zicha o‘rganish, qishloq va mahallalarda islom ilmidan to‘liq savodi bo‘lmagan ayrim kishilar (chalamullalar) ni o‘ziga ustoz qilib olish yoki tengdoshlari orasida dinni boshqalardan ko‘ra yaxshiroq anglaydigan insonlarga diniy ustoz sifatida ehtirom ko‘rsatish odatiy holga aylangan edi. Bu yillarda yana bir jarayon kuzatildiki, bu mamlakat mustaqilligi yo‘lidagi siyosiy vaziyatga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Ayrim reaksion kuchlar o‘zining atrofiga yosh, g‘o‘r, diniy savodi bo‘lmagan va islomni o‘rganishga qiziqib turgan, o‘z-o‘zidan fanatik bo‘lgan yoshlar orasida islomni turli yo‘llar bilan targ‘ib qilish orqali niyatiga erishmoqchi bo‘lgan, muqaddas islom dinini o‘zining ekstremistik yo‘nalishi (oqim) ta’siri ostiga olishga targ‘ib qilishga urinish holatlari yuz berdi.

Endigina mustaqillikni qo‘lga kiritib turgan respublikamizda turli diniy oqimlarning paydo bo‘lishi va ayrim nopok kimsalarning mazkur jarayondan o‘z siyosiy maqsadlariga erishishda ustalik bilan foydanib qolish manzarasi yaqqol ko‘zga tashlangan edi.

Ana shunday jarayonlarni tartibga solish, din va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning zamonaviy shakli va usullarini tatbiq etish, uning huquqiy asoslarini ishlab chiqish zarurati yetilib qolgan ediki, pirovardida 1991 yil 14 iyunda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi [2]. Shuningdek, 1992 yil 7 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-359-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzurida Din ishlari bo‘yicha komitet tashkil qilish to‘g‘risida” gi farmoni asosida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 2 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini tashkil etish masalalari” 159-sonli qarori qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha Qo‘mita faoliyati tashkil etildi [3]. Mazkur Qo‘mita maslahatchilik, ekspertlik, nazoratchilik va ma’lumot berish vazifalarini bajarish asnosida respublikamizda o‘sha davrda mavjud bo‘lgan islomiy ta’lim muassasalarini adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish, faoliyatini konstitutsion nazorat qilish, norasmiy ravishda ochilgan diniy ta’lim muassasalarining holati hamda shartsharoitlariga baho berish va boshqa vakolatlar bilan shug‘ullanuvchi davlat organi sifatida o‘z faoliyatini boshlagan.

1994 yilgi ma’lumotga ko‘ra respublikamizda 10 ta rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan madrasa faoliyat ko‘rsatgan. Ularda 2500 dan ortiq o‘g‘il-qizlar ta’lim olgan. Shunindek, rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan lekin faoliyat ko‘rsatayotgan 18 ta madrasada 2000 ga yaqin o‘g‘il-qizlarga bilim berilgan. Mazkur madrasalarda ta’lim berayotgan 266 mudarrisdan 74 nafari ya’ni 27% foizigina maxsus diniy bilimga ega mutaxassislar bo‘lgan. Bundan tashqari shu yillarda yana 50 ga yaqin norasmiy madrasa, shuningdek 350 dan ortiq masjidlar qoshida tashkil etilgan diniy ta’lim beruvchi guruhlarda o‘n mingdan ortiq turli yoshdagi fuqarolar din asoslaridan boshlang‘ich ma’lumot olgan [4]. Respublikada bundan o‘rta-maxsus islomiy ta’lim muassasalaridan (madrasalar) tashqari 1 ta oliy ma’lumotli diniy mutaxassislar tayyorlaydigan Toshkent islom instituti ham faoliyatini bugunga qadar ham davom ettirib kelmoqda.

Yana bir muammo masjidlar tizimida edi. O‘zbekistonda 1994 yil I chorak ma’lumotiga ko‘ra 5200 (besh ming)dan ortiq [5: 35] bo‘lsa, bu yerda xizmatda bo‘lib turgan imom-xatiblar masalasida muammolar bo‘lgan. Imomxatiblarning bilimi, tajribasi, boshqa oqimlarga nisbatan munosabati, O‘zbekiston Musulmonlari Idorasi (O‘MI) atrofidagi umumiy yakdilikning yo‘qligi diniy tashkilot (islom) xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazishni talab etgan. Shu maqsadda qator tadbirlar ishlab chiqilib, Qo‘mita O‘MI va uning joylardagi vakilliklari bilan hamkorlikda attestatsiyadan o‘tkazish ishlari boshlab yuborilgan.

1998 yil 5 maygacha respublikada o‘rganilgan masjidlarning umumiy soni 4030 ta bo‘lgani holda mazkur masjidlarda xizmatda turgan imomlar soni 3892 nafarni tashkil etgan. Ushbu imomlarning aksariyati diniy sohada ma’lum bir savodi bo‘lsa-da, afsuski, ularni diniy ilm olganligi to‘g‘risida hujjati bo‘lmagan. Zero, imomlarni fuqarolarga diniy ma’rifat yo‘lida xizmat qilishi inobatga olinib, ularning aholiga din aqidalarini yetkazishida yuksak mas’uliyat talab qilinar edi.

Ta’kidlash lozimki, dastlabki yillarda respublikadagi bunday muassasalar soni yildanyilga ortib borgan. Biroq o‘tkazilgan attestatsiya natijalari va boshqa omillar sabab, 1998-1999 yillarda respublikada ro‘yxatdan o‘tgan masjidlar soni dastlab 1949 tani tashkil etgan bo‘lsa, 1999 yil aprel oyigacha 1355 ta masjidni to‘liq ro‘yxati shakllantirilib, ushbu 1355 masjid imomlari o‘z lavozimiga loyiq deb topilgan. Ulardan diniy sohada oliy ma’lumotlilar soni 230 tani tashkil etgan. Diniy o‘rtamaxsuslari esa 485 tani, qolgan 640 tasi esa diniy sohadagi faoliyati va tajribasiga qarab musulmonlar idorasi guvohnomasiga ega bo‘lgan. Yosh jihatdan esa 60 yoshgacha imomlar 1147 tani, 60-70 yoshdagilar 152 tani, 70 yoshdan oshganlar esa 56 tani tashkil etgan [6: 39].

Shuningdek, 1991-1997 yillarda mamlakatda oliy diniy ma’lumotga ega bo‘lgan imomlar 4000 ta masjid hisobi bilan 1.6 foizni tashkil etib, o‘rta maxsus diniy ma’lumotga ega imomlar esa 2.7 foiz bo‘lgan. Yosh jihatdan 60 yoshdan oshgan imomlar 47.5 foizdan iborat edi.

Asosiy e’tibor xodimlarning bilim darajasini oshirishga qaratilgan. Buning natijasida, 1997-2000 yillar ichida Toshkent islom universiteti (TIU) da imomlar uchun tashkil etilgan doimiy o‘quv-malaka oshirish kurslari, o‘tkazilgan attestatsiya va rotatsiya natijalariga ko‘ra oliy diniy ma’lumotga ega bo‘lgan imomlar 22.5 foizga, o‘rta maxsus ta’limga ega imomlar nisbati 47.5 foizga yetkazilgan, yoshi 60 dan yuqori imomlar miqdori 10 foizga keltirilgan [7: 44]. Uch yil ichida bunday miqdorga kelganligini asosiy sabablaridan biri masjidlarni qisqarishi ham bo‘lgan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni tahlil etish asosida mustaqil O‘zbekiston tarixida islomiy ta’lim muassasalari faoliyati tarixini 3 davrga bo‘lish mumkin. Birinchi davr – 19911998 yillarni o‘z ichiga oladi; Ikkinchi davr – 1999-2016 yillar; Uchinchi davr – 2017-2021 yillardir. Mazkur davrlashtirishni 3 bosqichli qilib o‘rganishning asosiy sababi, respublikamizda din va davlat munosabatlari bilan bog‘liq vaziyatda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi qonuning, ushbu davrlar oralig‘ida, 3 marotaba yangi tahrirda qabul qilinishi bilan izohlanadi. Har bir davr mobaynida, uning xususiyatidan kelib mukammallashib, davlat va din o‘rtasidagi, davlat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning diniy e’tiqodi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish mustahkamlanib borganligini, shuningdek halqaro huquqiy norma va standartlarga mos tarzda qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin.

Islomiy diniy tashkilotlar faoliyatining birinchi davri xususida xulosa qiladigan bo‘lsak, diniy ta’limda tahsil oluvchilarning qamrovi ko‘pchilikni tashkil qilishiga qaramasdan, ularning faoliyatida namozgohi, o‘quv binolari, xujralari, tahoratxona, yotoqxona, kutubxona faoliyati, talabalarning ijtimoiy turmush sharoitlari, shuningdek, mudarrislarining ma’lumot darajasi islomiy ta’lim muassasalari talablariga javob bermagan. Islomiy ta’lim muassasalari muassisi hisoblangan O‘zbekiston Musulmonlari Idorasi tomonidan muassasalarni mablag‘ bilan ta’minlash masalasida kamchiliklar mavjud bo‘lgan, ya’ni, ular mablag‘ bilan yetarlicha ta’minlanmagan. Mudarrislarning maoshlari yetarli bo‘lmagan. Mudarrislarning va imomlarning malakasini oshirish yo‘lga qo‘yilmagan. Talabalarni adabiyotlar bilan ta’minlash, ayniqsa, diniy adabiyotlar masalasida (qur’on, aqoid, fiqh, hadisga oid kitoblar) muammolar bo‘lgan, mavjud adabiyotlar talabalar ehtiyoji uchun yetarli adadda bo‘lmagan. Chet eldan keltirilgan kitoblarni qayta ekspertizadan o‘tkazish zarur bo‘lgan. Madrasalar o‘quv faoliyatida guruh jurnallari, talabalarning reyting daftarchalarini yuritish yo‘lga qo‘yilmagan yoki yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, to‘g‘ri va tartibli bo‘lmagan. Islomiy ta’lim muassasalariga talabalar qabuli bo‘yicha standartlar ishlab chiqilgan bo‘lsada, bu tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan. O‘quv reja bo‘yicha diniy va dunyoviy fanlarning nisbatida diniy fanlarning ulushi ko‘p bo‘lgan. Shu munosabat bilan norasmiy ravishda tartibsiz faoliyat ko‘rsatib kelayotgan madrasalarni tartibga solish, bularni davlat attestatsiyasidan o‘tkazish, maxsus o‘rta diniy va

dunyoviy o‘quv yurti sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish, ularga litsenziya berish, mazkur faoliyatni mutasaddi vazirlik va qo‘mitalarning nazorati ostida amalga oshirish masalalari kun tartibiga chiqqan.

Shuning uchun ikkinchi bosqichda masjid va madrasalar islom dini tashkilotlarining adadiga qarab, ya’ni ehtiyojga qarab qisqartirish masalasi, ularni yangi nizom, dasturlar, zamonaviy bino va yaxshi shartsharoitlar bilan ta’minlanishi hamda ta’lim-tarbiya olishlari tizimi joriy qilingan. Diniy ta’limga qiziqish ortib borgan biroq madrasalarning asosiy vazifasi diniy mutaxassis kadrlar tayyorlash bo‘lganligi uchun ko‘plab fuqarolarning diniy ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmagan. Imomlarning malakasini oshirishga e’tibor qaratila boshlangan. Ikkinchi bosqich davrida masjidlar qurilishiga joylardan ko‘plab arizalar kelib tushsada, diniy tashkilot ochishga ruhsat olish murakkabligicha qolgan.

3 bosqichda nafaqat din va davlat munosabatlari sohasida, balki islom dini rivoji, diniy kadrlarni tayyorlashda Yangi O‘zbekistonda yangi ma’rifiy tizim shakllandi. Davlatning diniy sohada olib borayotgan ishlari yangi strategiya va isloxotlarning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirildi. Uchinchi renessans poydevorini yaratishda diniy soha kadrlariga e’tibor kuchaytirildi. Davlat idoralarining diniy idoralariga ulamolar faoliyatiga, soha kadrlarlariga nisbatan e’tibor yangi bosqichga ko‘tarildi. Madrasalardagi qabul kvotalari oshirilib, ehtiyoj yuqoriligi uchun oz sonli kadrlarning yuqori tanlov asosida qabul qilish parametrlari tartibga solinib, asosan sifatli kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qaratildi. Zamonaviy masjidlar qurildi, ko‘plab masjidlar qayta rekonstruksiya qilindi. Diniy tashkilot ochishda yengilliklar yaratilib, uning huquqiy bazasi takomillashdi. Imom xatiblarni malakasini oshirish tizimi takomillashtirilib, turli islom ilmi markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Diniy ta’limga ehtiyojni qondirish maqsadida joylarda

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi https://president.uz/uz/lists/view/649
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ixtiloflar:sabablar, yechimlar. – T.: “Xilol-nashr”, 2019
3. O‘zbekiston Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 yil №8. 186modda.
4. https://lex.uz/docs/771104 Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 apreldagi 196-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi (bundan keyin - O‘zRPAA) 975-jamg‘arma, 20-ro‘yxat, 81-yig‘ma jild
6. O‘zRPAA 975-jamg‘arma, 26-ro‘yxat, 539-yig‘ma jild
7. O‘zbekiston Milliy arxivi 37-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 8030-yig‘ma jild.

YANGI O’ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA KASABA UYUSHMALARNING TUTGAN O‘RNI

Tilovatov F.U.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
xodimlari va talabalari kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi

Mamlakatimiz mustaqilligining qo‘lga kiritilishi, mamlakatimiz xalqining misli ko‘rilmagan eng katta yutug‘i bo‘ldi. Tariximzda chuqur iz qoldirgan ana shu buyuk sana xalqimiz turmush darajasida katta o‘zgarishlarni olib keldi. Shu kundan e’tiboran mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga

asoslangan mustaqil demokratik davlat qurish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va malakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik tamoyili ta’minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirishning mustahkam poydevori yaratildi. Mustaqil O‘zbekiston muhtarram Prezidentimiz rahnamoligida va u kishining ta’birlari bilan aytganda “O‘zbekistonimizga mos tarixiy, milliy, an’anaviy va iqtisodiy vaziyat va xususiyatlarni inobatga olib, “bozor iqtisodiyotining shiddatli girdobiga o‘zingni tashlasang, uning o‘zi ko‘zlangan manziliga olib chiqadi” degan xomxayollardan butunlay voz kechib, bugungi kunda butun dunyo tan olgan “Yangi O‘zbekiston” deb nom olgan jamiyatimizni tubdan isloh etish, erkinlashtirish, demokratik yangi davlat qurish, uni modernizatsiya qilish bo‘yicha puxta o‘ylangan taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi”.

“Yangi O‘zbekiston” deb nom olgan taraqqiyot yo‘li butun dunyo davlatlarining e’tiborini tortdi, o‘zining ishonchliligi hamda puxta o‘ylanganligi bilan mamlaktimizni taraqqiyot yo‘liga olib chiqdi. “Yangi O‘zbekiston”ning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu- ijtimoiy himoya masalasi. Ijtimoiy himoya mustaqillikning dastlabki kunidan boshlab, davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu esa tabiiyki kasaba uyushma tashkilotlari oldiga muayyan vazifalarni yukladi. Mamlakatimiz xalqining turmush darajasini oshirish, mehnatkashlarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy himoyalash O‘zbekiston kasaba uyushmalari tashkilotlarining kundalik vazifasi etib belgilandi.

Jonajon respublikamiz tarixan qisqa muddatda misli ko‘rilmagan yutuqlarga, asrlarga totugulik ulkan ijobiy o‘zgarishlarga ega bo‘ldi. Prezidentimiz olib borayotgan dono, xalqchil siyosat xalq farovonligini ta’minlab, rivojlangan dunyo davlatlari yuz yillab erishgan taraqqiyot yo‘lini oz mudatga egallashga erishdi. Turmushning barcha jabxalarida olib borilayotgan izchil isloxatlar zamirida iqtisodiy rivojlanish, ma’naviy yuksalish, dunyo mamlakatlari ichida davlatimiz obro‘sini yanada oshishiga olib keldi. O‘z navbatida mamlakatimizdagi ulkan o‘zgarishlar xalqining turmush darajasini oshirib, xuquqiy ongi, madaniyatini ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston respublikasi xuquqiy demokratik davlat, fuqorolik jamiyati qurish sari davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish xamda mamlakatni modernizatsiyalash yo‘lidan dadil borilayotgan ekan, bu jarayonda mexnatkashlar manfaatlarini va ularning ijtimoiy xayotdagi xuquqlarini ximoya qilish kabi masalalarga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati hamda inson huquq va manfaatlarini ta’minlash yo‘nalishlaridagi tizimli sa’y-harakatlarga hamohang ravishda O‘zbekiston kasaba uyushmalari tomonidan ustuvor yo‘nalishlarda o‘tgan davrda tizimli ishlar amalga oshirilganligi alohida qayd etish mumkin.

Kasaba uyushmalari faoliatini birlashtirish, boshlang‘ich kasaba uyushma tashkilotlari faoligini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Xodimlar manfaatlari himoyasini ta’minlash maqsadida ijtimoiy-mehnat sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va amaldagilarini takomillashtirishda ishtirok etildi. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining tegishli qo‘mitalari qoshidagi Jamoatchilik ekspert kengashlari tarkibiga kasaba uyushmalari vakillari tavsiya etilib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish hamda qabul qilinish jarayonida ular ishtiroki ta’minlanmoqda. Hamkorlikdagi ishlar natijasida 2016-2020 yillar davomida O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiya tomonidan ijtimoiy-mehnat sohasiga doir 2000 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat loyihalari ko‘rib chiqilib, asoslangan takliflar kiritildi. Bundan tashkari, davlat tibbiyot va farmatsevtika, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimlari joriy etilishiga samarali hissa qo‘shildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh tashabbuskor deputatlari bilan hamkorlikda yangi tahrirdagi “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqildi. Barcha davlat va nodavlat organlari, Korxonalar vakillari hamda kasaba uyushmalari faollari ishtirokida keng muhokama qilingan mazkur Qonun loyihasi 2019 yil 6 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi.

Mehnat sohasida ijtimoiy sheriklik tizimini rivojlantirish, kasaba uyushmalari, ish beruvchilar hamda Hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ikki taraflama hamkorlik tamoyillarini amalga oshirishda kasaba uyushmalarining faolligi oshirildi. Xususan,

Kasaba uyushmalari tashabbusi bilan mamlakatimizda Hukumat, Kasaba uyushmalari Federatsiya va ish beruvchilar konfederatsiyasi o‘rtasida har yilda bir marta Bosh kelishuvning imzolanishi mamlakatimiz tarixida birinchi marta O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining aholi mehnat huquqlari va ijtimoiy himoyasini ta’minlashda Hukumatning teng huquqli sherigi sifatida maydonga chiqishiga zamin yaratdi .

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Kasaba uyushmalari Federatsiya Kengashi, Savdo-Sanoat palatasi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo‘yicha 2017-2019 yillar uchun imzolangan Bosh kelishuv ijtimoiy sheriklik asosida bir qator masalalarning yechimini topishda ken imkoniyat yaratdi. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining “Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi 87-Konvensii, “Xalqaro mehnat meyorlarini qo‘llashga ko‘maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to‘g‘risida”gi 144-Konvensiyasi, “Sanoat va savdoda mehnat inspeksiyasi to‘g‘risida”gi 81Konvensiyasi, “Qishloq xo‘jaligida mehnat inspeksiyasi to‘g‘risida”gi 129-Konvensiyasi, “Majburiy mehnat to‘g‘risida”gi 29-Konvensiyasiga 2014 yilgi qo‘shimcha protokoli ratifikatsii qilish to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilinishiga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston kasaba yushmalari Federatsiya Kengashi, O‘zbekiston ish beruvchilari Konfederatsiyasi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo‘yicha 2020-2022 yillar uchun imzolangan Bosh kelishuvga iqtisodiyotni, mahalliy ishlab chiqarishni hamda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha kelishilgan chora-tadbirlarni qabul qilish, mehnatkashlarning ish haqi va daromadlarini oshishi, yalpi ichki mahsulot tarkibida mehnat haqi ulushini 30 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda saqlab turish, iste’mol sektorida inflyatsiya 10 foizdan pastga tushirish yuzasidan birgalikda choralar ko‘rib borish, mehnat xavfsizligi va xududlarda gigiyena tizimini joriy etish, ish o‘rinlarida mehnat sharoitlarining holati, ayniqsa, zararli va xavfli holatlardan chiqarish omillari yuzasidan nazoratni amalga oshirish vazifalari kiritildi. Ikki tomonlama ijtimoiy muloqotni yanada rivojlantirish maqsadida Kasaba uyushmalari Federatsiyasining tashabbusi bilan hududiy miqyosda davlat organlari, ish beruvchilar birlashmalari va kasaba uyushmalari vakillarining Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha uch tomonlama komissiyalari tuzildi.

Prezidentimiz tomonidan barcha sohalarda birdek olib borilayotgan tizimli islohotlar natijasida mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi, shu jumladan xotin-qizlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, hayoti farovonligini oshirish masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Natijada bugungi kunda kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan, taqdir taqazosi bilan qiyin ahvolga tushib qolgan ayollar muammolarini hal etish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida keng-ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan Kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi mutasaddiligida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamda tegishli mas’ul tashkilotlar rahbarlari tarkibida Ayollar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, “Ayollar daftari”ni shakllantirish ishlari amalga oshirildi. Ayni kunda respublikamizning barcha hududlarida mazkur daftarga kiritilgan ijtimoiy, huquqiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor ishsiz xotin-qizlar muammolarini hal etish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, “Ayollar daftari”ga 30 yoshdan oshgan 9 toifadagi, ya’ni ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan ishsiz, boquvchisini yo‘qotgan ehtiyojmand, ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, uy-joyini ta’mirlashga muhtoj I guruh nogironligi bo‘lgan, noturar joylarda istiqomat qilayotgan, qaramog‘ida bir va undan ortiq I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan farzandlari mavjud yolg‘iz ayollar, shuningdek, tibbiy himoya, huquqiy yordam va psixologik maslahatga muhtoj ehtiyojmand ayollar aniqlanib, ularga joyida amaliy yordam ko‘rsatilmoqda. Respublika

darajasida hal etiladigan muammolar bo‘yicha esa “Yo‘l xaritalari” tuzilib ko‘plab masalalarga yechim topildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugun yuksaklarga bo‘y cho‘zib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” ning bosh g‘oyasi jamiyatda inson qadrini oshirishga qaratilgan. Ana shu say’i harakatda O‘zbekiston kasaba uyushmalari ham o‘zining munosib ulushini qo‘shib bormoqda.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 6dekabr.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., 2023.

BUGUNGI KUNDA TARIX FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Maxmanazarov Q.A.
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda tarix fanini o’qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish haqida so‘z boradi. Muallif tarixiy ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida bugungi kunda tarix fanini o’qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: bugungi kun, tarix fani, o’qitish, zamonaviy metodlar.

Abstract: This article talks about the use of modern methods in teaching history today. Based on historical data, the author studied and analyzed the specific aspects of the use of modern methods in the teaching of history today based on the available scientific literature. **Key words:** today, history, teaching, modern methods.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini xolisona o'rganish, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish ustuvor vazifaga aylandi. O'zbek xalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o'zlik va ma'naviy yuksalish asosi bo'lgan tarix fani ham o'ziga xos rivojlandi. O'zbekiston tarixini xolisona yoritishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida aytilganidek, "... jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz" [1, 27]. Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan tarix fani so'ngi yillarda ilk bor o'zining qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishga kirishdi. "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi" "Science and Education" Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Special Issue www.openscience.uz 6 [2,145]. Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik, haqqoniylik, adolatli yondashuv muhim hisoblanadi[3,121]. Tarix fanini samarali tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin “samarali ta’lim” tushunchasini mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil etgan holda o’rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo’ladi. Samarali o'qitish - bu o'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali talabalarda mustaqil o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayoni hisoblanadi[4,108] . Shuningdek, samarali o'qitish bu o'z o'lchovlari bilan baholanishi kerak bo'lgan keng tushunchadir. Shuning uchun samarali o'qitish, ta'lim sifatini oshirish uchun tashkil

etilgan turli xil murakkab jarayonlar majmuasi hisoblanadi[5,401] . Samarali o'qitishning ikkita asosiy xususiyati mavjud. Bular: • Talabalarni turli xil faktlar, ko'nikmalar, qadriyatlar va tushunchalarni o'rganishlarini osonlashtirish; • Sinfda yagona kursni emas, balki turli xil o'qitish strategiyalari, usullar va texnalogiyalarni yakka yoki kombinatsiyalangan holda ishlatish qobiliyatini o'qituvchilarda shakllantirish; Yana bir qarashga ko'ra, samarali ta'limni talabalarning muvaffaqiyat darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy o'qituvchilik malakasi sifatida tavsiflash mumkin. Bu fikrlar qurshovida aytish mumkinki, samarali ta'lim beruvchi o'qituvchi o'z kasbi va sohasini bilgan va sevgan, bilimli, g'ayratli, fidoyi, tartibli va kirishuvchan, tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga sohib, adolatli va shu bilan birga talabalarga bilimni targ'ib qilaoluvchi va ularning tinchligi va kelajagiga qiziqadigan shaxs sifatida belgilanadi[6,14].

"Ta'lim" keng ma'noda oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon, tor ma'noda esa, ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiy quyi tuzilmalaridan biridir. "Sifat" esa falsafiy termin sifatida ob'ekt yoki predmetning barcha muhim xususiyatlari yig'indisidir. "Ta'lim" va "sifat" tushunchalarining mohiyatini uyg'unlashtiradigan bo'lsak, ta'lim sifati, bu uning xususiyatlari yaxlitligi, ta'lim oluvchi o'qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat jarayondir[7,5]. Ta'lim sifati - bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu ta'lim muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitining o'zgarishi bilan izohlanadi[8,181]. Ayni vaqtda zamonaviy "Science and Education" Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Special Issue www.openscience.uz 7 ta'lim sifati innovatsion rivojlanish natijalaridan biri emas, balki uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shartlardan biridir[9, 4]. Ushbu tadqiqot sohasi bo'lgan tarix tushunchasi ilmiy soha va fan sifatida vaqt o'tishi bilan odamlar tomonidan qilingan harakatlar va faoliyatlarni o'rganish jarayoni hisoblanadi. Biroq, tarixiy jarayonda sodir bo'lgan barcha narsalarni o'rganish va ochib berish imkonsizdir. Chunki, tarixning pozitiv nuqtai nazarida aytilganidek, tarixiy ma'lumot sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday da'vo dalillarga, ayniqsa yozma dalillarga asoslanishi kerak. Shuning uchun tarixni o'tmish voqealari va dalillari haqida yozilgan axborot deb ta'riflash mumkin. J. Slater bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: "……mohiyatan tarix o'tmishni o'rganish va bizning bilimlarimiz va fikrlarimizni bir vaqtning o'zida tasdiqlash usulidir" [10, 8]. Tarix tushunchasining g'arbdagi muqobili bo'lgan "history" qadimgi yunon tiliga tegishli bo'lib, "izlanish" yoki haqiqatni tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Bir fan sifatida tarix insoniyat tarixini o'zining noyob metodologiyasi orqali o'rganadi.

Tarixiy metodologiya, tadqiqot sohasini, muammoni yoki mavzuni aniqlash, ushbu mavzu yoki muammoga tegishli gipotezalarni ishlab chiqish, olingan dalillar va manbalardan ma'lumot to'plash, ushbu ma'lumotlarni tahlil va tanqid qilish, mavzu bo'yicha boshqa izlanishlarni ko'rib chiqish va mavzuni tushunish, shuningdek mantiqiy asosda izohlangan tadqiqotni ochib berishdan iboratdir. Shunga asoslanib, tarixchining roli sifatida o'zining mustaqil ilmiy rivojlanishi jarayonida o'tmishni o'rganish, mavzuni aniq, real va to'liq tushunchalarini yoki tasvirlarini yaratish va barcha bu bosqichlar haqida fikrlash kabilar belgilanadi. An'anaviy tarix darslarini tashkil etishda talabalarga ma'lumot uzatish jarayoni odatda darslik yoki boshqa ikkilamchi tayyor manbalarini o'qish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon talim oluvchiga tayyor ma'lumotlarni eslab qolish va axborot sifatida qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladi xolos. Noan'anaviy interfaol, samarali tarix darslarida esa o'tmish haqida ishonchli ta'riflar va tushuntirishlarga erishish uchun yuqorida aytib o'tilgan ko'nikmalar va tarix o'qitish metodikasidan foydalanishga urg'u beriladi. Chunki tarix darslarida va tarixni tadqiq qilishda qo'llaniladigan pedagogik va tarixiy tadqiqot usullari o'quvchilarga o'tmishni tushunishda turli xil foydali qulayliklar berishi mumkin. Manbalarni o'rganish va yozma dalillarni aniqlash, manbani yoki berilgan dalillarni tayyorlagan shaxs(lar)ning shaxsiy fikrlarini aniqlash va yozma yoki boshqa manbalarda keltirilgan fikrlarning asl ma'nosini o'rganish jarayoni tarix o'qitishning yana bir jihatlaridir. Bu tarixiy haqiqatni qanday o'rganish mumkinligini o'rgatish

demakdir. Samarali tarix o’qitish o’quvchilarga tayyor tarixiy xulosa qilingan ma’lumotlar bilan birga manba va dalilarni taqdim etishni talab etadi.

O’quvchi ma’lum tarixiy manbalarni (xoh yozma, xoh og’zaki bo’lsin) tahlil etgan holda tarixiy bilim va tasavvur hosil qilishi pedagogik nuqtai nazarda g’oyat samaralidir. Zotan, tarix "Science and Education" Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Special Issue www.openscience.uz 8 darslarida ta’lim oluvchining xotirasini rag’batlantiruvchi usullardan ko’ra, uning mustaqil fikrlashini ta’minlaydigan usullardan foydalanish foydali hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni tushunish va o'tmishni anglash uchun dalillarni o’rganish va ko’zdan kechirish talab etiladi. Ammo tarixni tashkil etuvchi elementlar nafaqat ular haqida balki, o'tmish voqealari, bugungi kunda ma'lum bo'lgan tajrabilar majmuasi hamdir. Ba'zi tadqiqotchilar tarixiy tafakkur jarayonlaridan foydalangan holda tarixni o'qitish amaliyotlari ko'plab tarixiy muammolar va mavzularni tushunishda muhim hissa qo'shishini ta'kidlaydilar. Bugunig zamonaviy ta'lim holati ta'lim tushunchasini qayta ko'rib chiqish va aniqlashtirishni, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning toifalari va tamoyillarini tahlil qilish jarayoniga kirishni talab qiladi. Pedagogik ongning yangi modeli asta-sekin o'qituvchining ta’lim oluvchiga bevosita ta'sir etish amaliyotidan voz kechadi va ta’lim oluvchining o'z rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun barcha pedagogik makonning tuzilishini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Shunday qilib, har bir o'qituvchi o'z darslarini qiziqarli va mazmunli bo'lishga intiladi, bu esa ta’lim oluvchininglarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Xususan, tarix darslarida faktlarni assimilyatsiya qilish emas, balki turli davrlarning qadriyatlarini rivojlantirish, o'tmish odamining o'rniga o'zini qo'yish, uning fikrlarini, harakatlarini tushunish qobiliyati orqali shaxsni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bularning barchasi tarixiy empatiya yordamida amalga oshirilishi mumkin. Empatiya yunoncha - "ehtiros", "azob", "tuyg'u",boshqa odamning hozirgi hissiy holati bilan ongli hamdardlik ma’nosini bildiradi. Tarixiy empatiya esa tarixiy hodisalar va tarixiy shaxslar hayotini o’zida his etish demakdir. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Rus tadqiqotchilari asarlarida hikoya usulidan darslarida samarali foydalanish haqida so'z boradi. Ular orasida P.V.Goran, A.A.Vagin, P.S.Leibengrublar alohida qayd etiladi. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun A.A.Vagin tomonidan aytilganidrek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy hodisalarni jonlantirish orqali tarixiy mavzu yanada ishonchli bo'lishiga erishiladi va o'rganilayotgan tarixiy hodisalarning o'ziga xosligini yaxshiroq ochib berishga imkon beradi [11,431]. Tarix darslarida badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish ham tarixiy haqiqatni aniqlashtirishga, o'tmishning yorqin tasvirlarini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni hikoya qilishda turli xil namoyishlarni qo'llash samrali hisoblanadi. Misol uchun, moddiy madaniyat obektlarining tasviriy ko'rinishlari, o'qitishning texnik(audiovizual) vositalari shular jumlasidandir. Bularning barchasi o'quvchilarga tarixiy davrning muhitini tasavvur qilish, o’zini o’tmishda tarixiy hodisalar ichida his qilish tuyg'usini boshdan kechirish imkonini beradi. "Science and Education" Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Special Issue www.openscience.uz 9 Tarixiy empatiya shakllanishining yana bir usuli, bu shaxsiyatdir. Ta’lim oluvchining qalbida taqdirlar, harakatlar, hayot sharoitlari, tarixiy shaxsning faoliyati haqida tasavvur taixiy shaxsning holati va faoliyatini ijtimoiy hayotdagi odatiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi [12, 240]. Tarixiy empatiya shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: ▪Xayoliy sayohat. Tarix darsi jarayonida o'tmish kishisini ko'rishimiz mumkin bo'lgan narsani tasvirlash talab etiladi. Misol uchun: "Men XVIII asrdagi Qo’qon xonligiga boraman va...", "….keling, feodal qal'asiga kiraylik..." singari kirish so’zlari yordamida ta’lim oluvchilarni o’rganilayotgan tarixiy davrga boshlab borish va tarixiy sayohat uyushtirish tarixiy empatiya shakllantirish usullaridan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarning ijobiy tomoni shundaki, ta’lim oluvchilar tarixiy tafsilotlarga e'tibor berishadi . ▪Xayoliy intervyu. Bir talaba tarixiy shaxsga aylanadi, qolgan ta’lim oluvchilar unga savollar beradi. Beriladigan savollar tarixiy qahramon hayoti va faoliyatiga oid bo’lishi talab etiladi. Ushbu turdagi topshiriq oldingi vazifani bajarishga qodir bo'lgan dars ishtirokchilarini yaxshi tayyorgarligini talab qiladi. ▪Tugallanmagan jumla usuli – Tarixiy shaxsdan, masalan, Sohibqiron

Amir Temurga tegishli bo'lgan iborani davom ettirish so'raladi.("Biz kim mulki Turon..."). Shunday qilib har qanday tarixiy voqeyalarning tugashini taxmin qilish tajribasini amalga oshirish taklif qilinadi. ▪Tarixiy tanlov - "…siz qanday qilardingiz ", " ….kimni yoqlardingiz ?", "Siz qaysi toifa tarafidasiz?", va b.». Mazkur savollar asosida ta'lim oluvchi tarixiy hodisalarni o'zida his qilgan holda tarixiy shaxslar o'rnida qaror qabul qilish va tarafni belgilashi mumkin bo'ladi. Chet ellik metodistlar dars jarayonida quyidagi vazifalardan foydalanishni taklif qilishadi: "Agar siz 15 yoshli Shoh Richard III bo'lsangiz, dehqonlarning qo'zg'olonlarida isyonchilar bilan kurashayotganda nimani his qilasiz? Ularning talablariga rozi bo'larmidingiz?" Ushbu vazifani bajarayotganda talabalar nafaqat tarixiy materiallarni bilishlarini, balki mavjud bilimlarni tahlil qilish orqali ham muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini taqdim etishlari kerak bo'ladi. ▪Qayta tiklangan rasm - tarixiy rasmlarning monologlari yoki suhbatlari bilan tanishish. Ushbu turdagi topshiriqni bajarayotganda talabalar tarixiy bilimlarni namoyish qilishlari kerakligini aniq tasavvur qilishlari talab etiladi, shuning uchun bu vazifa nafaqat darslik asosida, balki qo'shimcha adabiyotlarni jalb qilish bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Birinchi shaxsdan olingan kompozitsiya - turli janrlardan foydalangan holda bitiklar, xotiralar, kundalik yozuvlariga asosan guvoh yoki ishtirokchi nomidan o'tmish voqealari haqida hikoya qilinadi.

Tarix o'qitish va tarixiy tadqiqot jarayonida ta'lim ishtirokchilari va tadqiqotchilar oldida tarixiy atamalar va tushunchalarni tushunish, izohlash va "Science and Education" Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Special Issue www.openscience.uz 10 ulardan foydalanish kabi til bilan bog'liq muhim vazifa turadi. Ingliz tadqiqotchisi Graham Swift in Husbands fikriga ko'ra o'tmish haqida turli yo'llar bilan tushunchalarga ega bo'lish, tarixiy shaxslarninig qarashlari, e'tiqod va faoliyatlarini izohlash va tarixchilar tomonidan tarixiy jarayonlarni ifodalashlari uchun qo'llaniladigan, tarixiy ifoda va tushunchalarni o'zida jamlagan maxsus til "tarixiy til" deb nomanadi [13,16] . Tarix o'qituvchisining o'ziga xos vazifasi tarixiy tushunchalarni o'rgatish bilan birga uni kelajakga yetkzishni ta'minlashdir. Tarixni o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun, tarix o'qituvchisidan ma'lum bilim darajasi va ba'zi o'qituvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tarixiy voqealarni, faktlarni, odamlarni, jarayonlarni va o'ziga xoslikni tushunish va tushuntirish uchun transformatsiya, sharhlash, baholash, tahlil va sintez qobiliyatlari va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Tarix o'qitish jarayonida boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib materiallar tayyorlash, masalan geografiya, fuqarolik bilimlari, diniy madaniyat va axloqshunoslik fanlaridagi ma'lumotlardan foydalanish talabalarga nafaqat mavzularni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi, balki umuman ijtimoiy voqeliklarni idrok etish va real hayotni tushunish imkoniyatini beradi. Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.27.

2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент:. Шарқ, 1998. – Б. 31

3. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127).

4. E. Perrot, Effective Teaching. New York: Longman. (1982); B. Laar, R. Blatchford,D.Winkley,G. Badman, R. Howards, Effective Teaching. Oxford: National Primary 5. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1229-1232..

6. Жабборова О. М. (2020). Психологические функции, формирующие художественное сознание студентов. Педагогические науки, 1(46), 144-145.

7. Abdullayev, F. T., & Abdullayeva, B. P. (2020). Organization of Swimming Lessons in Preschool Institutions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(07), 322-330.

CHALLENGING PROBLEMS OF TRAINING MILITARY PERSONNEL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Davronov Abdulloh
Doctoral student of QarDU

Abstract: This article talks about the actual problems of training military personnel in the Republic of Uzbekistan. Based on archival data, the author analyzed the problem based on available scientific literature and studied the specific aspects of current problems of training military personnel in the Republic of Uzbekistan.

Key words: Uzbekistan, military personnel, current problems, education.

Introduction. From the first years of the formation of our Armed Forces, great attention was paid to the issue of training professional military personnel and improving the knowledge and skills of military personnel. This priority issue has not lost its relevance even today.

In order to form the professional competence of military servicemen in the educational process, it

is desirable to retrain the faculty of higher military educational institutions, who will have the ability to apply their basic competence in real life and professional practice, and to make extensive use of the opportunities to improve their qualifications. A competent approach to the training process is aimed at the formation of professional and other personal qualities of military personnel, which allows to increase their intellectual potential and combat abilities.

The goal of the competent approach is to ensure the quality of education. The analysis of published documents on the problems of improving the educational system shows that competence and competency are considered as the main units in updating the content of education.

Main part. The concepts of "competence" and "competence" were used for the first time in the USA and are interpreted as "a personal and intellectual experience based on a person's knowledge, defined in the activities of his social and professional life" [3].

The concepts of "competence", "competence", "competent" are presented in literature and dictionaries. For example, the "English-Uzbek dictionary" gives the following definition: "competence" "competent" (lat. competence - ability, awareness, one who understands, knows a certain field; competent - knowledgeable; to his legal right having, solving or doing something [4].

Concepts of competence and competence I.V.Petrova, Ye.V.Sadon, O.Ye. It is mentioned in the scientific works of scientists such as Gavrilova, A. V. Tarasova. Also, the modern interpretation of the concept of competence and its practical importance are highlighted in the UNESCO concept "The competent teacher 2010-2020".

Results and Discussions. From this point of view, if we take into account the fact that in our country there is no special scientific research on the development of professional competence of military personnel during the training process, the existing problems of military education in the Armed Forces system, that is, issues such as the formation of professional competence of military personnel, are scientifically requires clarification.

For this purpose, the shortcomings and problems arising in the process of developing the professional competence of military personnel during the training of professors and teachers of higher military educational institutions can be expressed as follows [5]:

- to develop the level of ability of students and trainees to effectively use modern pedagogical technologies in teaching their subject;
- to activate the educational process and achieve a high level of assimilation of educational materials, to teach listeners and trainees to think independently and express their opinion freely;
- timely organization and efficiency of consultations with personnel and the work of members of the military-scientific society;
- to take measures to further improve the quality of the educational process, to strictly control the independent preparation classes of trainees and trainees;
- to develop the skills of independent thinking and free expression of the listeners and cadets during training;
- it is necessary to pay special attention to the development of the level of ability to connect and improve the professional knowledge, abilities and skills of military servicemen based on the competition set in the training process.

From the point of view of the military sector, taking into account the level of development of science and technology, the characteristics of modern wars, the formation of professional competence of military personnel in the educational process and the thoroughness and depth of their knowledge, skills and qualifications based on modern educational technologies. requires. The more thorough and solid the professional training of military personnel, their theoretical and practical knowledge, skills and qualifications in the field, the more conscious, deep and thorough they learn new educational materials.

In the development of professional competence of a military serviceman in the educational process, it is important to use modern pedagogical technologies of education. The task of pedagogues of higher military educational institutions is to form and develop the self-improvement ability of military personnel who are studying.

For this reason, it is necessary to expand the possibilities of conducting training in an interesting way with the effective use of modern pedtechnologies in order to bring the content of training in the military education system to a deep and targeted goal. In an era of advanced science and technology in military educational institutions, the correct use of the system of professional skills and qualifications in the delivery of specialized information, as well as continuous delivery of new information to listeners and cadets, forming the professional competence of listeners and cadets at a high level the teacher of military education should have all-round knowledge and skills in education. Also, in order to become a master of his field, a skilled educator, passionate and selfless, every military education teacher should constantly search for himself, approach his work creatively, and be able to make students interested in science. . In order to achieve this, teachers of special subjects and vocational teachers should be able to properly plan the content of their work, correctly apply teaching technologies to the educational process, know information technologies and should be able to effectively use modern pedtechnologies during training [6].

Teachers think about how to present new material using various interactive methods and methods when preparing for a lesson. Therefore, it is appropriate to familiarize the modern teacher with modern pedagogical technologies that meet the modern requirements of training military personnel, as well as with the technologies of their implementation. Higher military educational institutions, based on a new approach to the training process of military personnel, use graphic organizers such as "Charkhpalak", "Blis-sorov", "Cluster", "Decision tree", "Resume", "BBB" and " Brainstorming", "Delphi", "Boomerang", "Zinama-zina", "FSMU", "Consider all factors!", "Interview", "6x6x6", "3x4" and other such modern interactive pedagogical technologies. development of their competence through implementation is of urgent importance.

It is known that production is developing very rapidly in the conditions of the current globalization. Military combat equipment and weapons, technological processes are constantly being improved. This should be reflected in military education to some extent. Therefore, it is necessary for pedagogues-teachers to continuously monitor the progress in the field of science and technology, to keep the students informed about them in an understandable form, and to conduct continuous research on their skills.

For this purpose, the following proposals and opinions are made for the officer-pedagogues of higher military educational institutions to fulfill their responsible and urgent tasks, to develop new views on the educational process, and to form the qualities of professional competence of military personnel. we want to bring Including:

- striving to acquire new knowledge that encourages effective organization of one's professional activity;
- education of high moral-spiritual and fighting qualities in military personnel;
- to achieve the educational goals of training in one's subject, to strive for innovation, new results, to increase the importance of one's activity, to develop the general culture of listeners and trainees;
- increasing the responsibility and role of unit commanders in strengthening the training process.

Conclusion. In short, the rapid development and renewal of our modern society is distinguished by the rapidly changing military and political situation, and the ever-increasing risks and threats in the field of security. Therefore, training of professional military personnel plays an important role as a priority criterion for the development of their intellectual potential, professional competence, the creation of a national system of training of highly qualified professional military personnel that meets high moral and ethical requirements at the level of developed democracies in the world community.

References.

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Education". Higher education. A set of regulatory documents. - T.: "Sharq", 2013.
2. Mirziyoev Sh.M. Holiday greetings to the defenders of the Motherland on the occasion of the 25th anniversary of the establishment of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan. // "Postda" newspaper, issue 3 of 2017.
3. Raimov, A. Y. (2022). COMPETITION BETWEEN ENGLAND AND RUSSIA IN CENTRAL ASIAN KHANATES. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 14-19.
4. Yuzboy ogli, R. A. (2022, April). DETAILS OF THE VISIT OF THE BRITISH AMBASSADOR ALEXANDER BYRNES TO BUKHARA. In E Conference Zone (pp. 176-177).
5. Yuzboy R. A. (2022). ANTHONY JENKINSON'S VISIT TO THE KHANATE OF BUKHARA AND THE LEADING ROLE OF THE KHANATE OF BUKHARA IN TRADE RELATIONS BETWEEN INDIA AND RUSSIA. Journal of PEDAGOGS, 19(1), 174-177.
6. Murodullayeva, N. O. (2022). IMPROVING METHODS OF TREATMENT OF OPTIC NERVE ATROPHY IN CHILDREN. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(9), 673-678.
7. Oripovna, M. N. (2022). IMPROVING METHODS OF TREATMENT OF OPTIC NERVE ATROPHY IN CHILDREN.
8. Odilova, G. R., & Murodullaeva, N. O. (2019). Evaluation of the effectiveness of the application of teardrop contact lenses. Biology and integrative medicine, (3 (31)), 67-75.
9. Yunusova, H. R., & Ahmedova, M. A. (2022). THE CASE OF MULTIPLE AUXILIARY VERBS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. International Academic Research Journal Impact Factor 7.4, 1(5), 5-8.

10. Akbarova, R. A. (2019). TEACHING ENGLISH THROUGH STORY TELLING IN ELEMENTARY CLASSES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 297304.
11. Abdulkhaeva, F. A. (2022). NACHALNYY ETAP OBUCHENIYA GRAMMATIKE ANGLIYSKOGO YAZYKA DLYa MLADShIX KLASSOV. PEDAGOG, 1(2), 407-411.
12. Kakharova, S. (2022). Speech as a Tool of Pedagogical Activity of Teachers. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(11), 61-64.Ruzieva, K., & Abdurakhmonov, V. (2022). IN THE ENGLISH LINGUOCULTURE THE CONCEPT OF" CHILD" AND THEIR MEANS.

XX АСРНИНГ БУЮК ЎЗБЕК БОКСЧИСИ – РУФАТ РИСҚИЕВ СПОРТ ФАОЛИЯТИНИ ТАДҚИҚ ЕТИЛИШИ

Нағашбоев Қ.Б.
ФА Тарих институти
Стажёр-тадқиқотчи,

Annotation.*Ушбу маколада Ўзкек спортида катта из қолдирган Руфат Рисқиевнинг фаолияти ҳақида ёритилади.*
Key words. *Руфат Рисқийев, Саидакром Рисқиев, бокс, Сухуми шаҳри*
Annotation. *This article covers the activities of Rufat Risqiev, who left a big mark on Uzbek sports.*
Key words. *Rufat Risqiyev, Saidakrom Risqiyev, boxing, Sukhumi city*

Мана етти йилдирки, спорт соҳасида кўплаб ислоҳотлар амалга оширилиб келинмоқда. Жумладан, 2022 йил 21 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларини амалга ошириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПФ-269-сон Фармони[1] қабул қилинди, унга асосан “Ўзбекистон Республикаси Спортни ривожлантириш вазирлиги” негизида “Ўзбекистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги” ташкил етилди[1;8]. Ёшлар сиёсати соҳаси ва спорт соҳасининг ягона вазирлик остида бирлаштирилиши бежиз емас. Чунки, спортчиларнинг катта қисмини

30 ёшдан ошмаган ёшлар ташкил етади. Ёшлар сиёсати ва спорт соҳасини ривожлантиришга қаратилган юқоридаги Фармондан ташқари, “Ўзбекистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги” фаолиятини самарали олиб бориш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 январ куни “Республика ижро етувчи ҳокимият органлари фаолиятини самарали йўлга қўйишга доир биринчи навбатдаги ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ - 14-сон Фармони[2] қабул қилинди. Унга кўра, Ёшлар ишлари агентлиги, ўз фаолиятини ендиликда “Ўзбекистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги” ҳузурида[2;6,9] олиб бориши белгиланди. Шунингдек, мазкур Фармонда “Ўзбекистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги” ва унинг ҳузуридаги “Ёшлар ишлари агентлиги”нинг жами бошқарув штат бирликлари сони ҳам белгилаб берилди[2;6]. Мазкур ПФ-14-сон Фармон ижросини таъминлаш мақсадида, 2023 йил 7 апрел куни “Маъмурий ислоҳотлар доирасида ёшлар сиёсати ва спорт соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги[3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори тасдиқланди. Унга биноан, Ўзбекистон Республикаси Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги фаолиятининг устувор йўналишлари[3;4], вазирлик тизимидаги муассасаларни қайта ташкил қилиш дастури[3;46], вазирликнинг[3;6-7] ва унинг ҳузуридаги “Ёшлар ишлари агентлиги”нинг ташкилий тузилмаси[3;7] шакллантирилди.

Ўзбекистон спортчи ёшлари ичида, боксчимиз Баҳодир Жалоловни ажратиб кўрсатсак бўлади. 2020 йил Токиода бўлиб ўтган олимпиадада ғолиб бўлган Баҳодир ўзининг бир

интервюсида, еришган натижалари замирида фахрий боксчи Руфат Рисқиевнинг берган дуоси алоҳида ўрин тутишини айтиб ўтган. Бу каби фахрий спортчиларга иззат-икром кўрсатиш, уларни еъзозлаш барча ёш спортчиларга ўрнак бўлиши лозим.

Ўзкек спортида катта из қолдирган Руфат Рисқиевнинг фаолияти муҳим аҳамиятга ега. Руфат Рисқийев – 1949 йил 2 октабр куни Тошкент шаҳрининг Кўкча мавзесида туғилган, миллати ўзбек. Отаси - Асадбек Рисқиев 1919 йил Тошкент шаҳрида туғилган.

Онаси – Тўрахон Қудратова 1925 йилда таваллуд топган. Асадбек ака ва Тўрахон аялар 3 нафар фарзандни тарбиялаб вояга етказган. Ушбу оиланинг катта фарзанди Алишер Рисқиев 1946 йил 22 сентабр куни Қашқадарё вилоятининг Яккабоғ туманида туғилган. Оиланинг яккаю ягона қиз фарзанди Ноиба Рисқиева 1948 йил 5 май куни Қашқадарё вилоятининг Яккабоғ туманида таваллуд топган бўлиб, ҳозирда Тошкент шаҳрида истиқомат қилиб келмоқда.

Руфат Рисқийев оилали, 2 ўғил ва 1 қизи бор. Аёли – Маъмура Рисқиева 1955 йилда Тошкент шаҳрида туғилган. Катта ўғли – Қудрат Рисқиев 1978 йил 1 ноябрда, кичик ўғли – Саидакром Рисқиев 1983 йил 4 июлда, қизи – Гулихон Рисқиева 1984 йил 25 августда Тошкент шаҳрида туғилган. Бундан ташқари, Р.Рисқиев ўз тоғаси вафотидан сўнг, унинг 2 та қизини ўз қарамоғига олган. Бундан боксчининг нечоғлик меҳрибон инсон еканлигини билиб олиш мумкин. Еътибор қаратиш жоизки, бир емас икки нафар фарзандни ўз қарамоғига олиш кўпчиликнинг ҳам қўлидан келавермайди, бу боксчининг жасур ва довюрак еканлигидан далолатдир. Шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, Руфат ака ўз жиянларидан ёш жиҳатдан у даражада ҳам катта бўлмаган. Уларнинг каттаси Тамара опа бўлиб, 1958 йил таваллуд топган. Кичиги Клара опа еса 1962 йилда туғилган. Руфат Рисқийевнинг оиласи ҳозирда Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, Уйғур-Марс берк кўчасида истиқомат қилиб келмоқда.

Руфат Рисқийевнинг спортдаги фаолиятини тўлиқроқ билиш мақсадида, муаллиф у киши билан 2023 йил 16 март куни махсус суҳбат уюштирди[4]. Суҳбат бошида, Руфат ака ўзининг боксга кириб келиши тўғрисида шундай деди: “Ман Навоий кўчасида катта бўлганман, уйимиз Марказий Телеграфга яқин жойда бўлган, ўша ерда катта бўлганман. Маҳаллада болалар боксга боришган. Ман ҳам борганман. Бир ойдан кейин улар бу спортни ҳам ташлаб кетишган, ман еса яна қолиб, спортни давом еттирганман. Шу билан қолиб кетганман, боксда. Биринчи мураббийим – Сидней Львович Жаксон бўлган, аммо, афсуски у бир неча йилдан сўнг оламдан ўтган. Шундан сўнг, Алексей Андреевич Баранов қўл остида шуғулланганман. Алексей Андреевич манга бокс мактабини, техникасини ўргатган. 1966 йилгача манга техникани ўргатган. Кейин Тошкентда ўша йили содир бўлган зилзиладан кейин, бу мураббийим ўз юртига кетган. Алексей Андреевич юртига қайтиб кетгач, Борис Андреевич Гранаткин манга фаолиятимни сўнггига қадар мураббийлик қилган”.

Суҳбат давомида Руфат Рисқиевга: “Кўпчиликнинг хабари бор, сиз 1974 йилда Кубада ҳаваскор боксчилар ўртасида илк бор ўтказилган жаҳон чемпионатида олтин медални, 1976 йилги Олимпиадада кумуш медални қўлга киритгансиз. Булардан бошқа биз билмаган ютуқларга ҳам еришганмисиз?”, - деган савол билан юзландик.

Боксчи ушбу саволга берган жавобида, жами 42 та олтин медали борлигини, кўп бора чет елга борганлигини ва у ердаги мусобақаларда, СССР терма жамоаси номидан қатнашганлигини билдириб ўтди. Шунингдек, олтин медаллардан ташқари 1 та кумуш, 1 та бронза медали ҳам мавжудлигини, бу медалларнинг ҳаммаси халқаро турнирларда қўлга киритилганлигини маълум қилди.

Р.Рисқиевнинг мазкур жавобидан сўнг, спортчидан 1974 йилда Кубада илк бор ҳаваскорлар ўртасида ўтказилган мусобақадаги иштироки ва бу каби халқаро мусобақаларга йўлланма олиш учун ўтказилган саралаш турнирлари ҳақида қисқача маълумот беришлари сўралганда, Руфат ака ҳаваскор сифатида иштирок етган бўлса ҳам, бокс тушганига стипендия кўринишида пул олганлигини, бундан ташқари бошқа ишда ҳам ишлаганлигини айтиб ўтди.

Жавоби давомида 1966 йил 26 апрелда Тошкентда кучли зилзила бўлганлигини, айнан шу куни бокс бўйича Тошкент биринчилиги ҳам бошланганлигини, мусобақа бир ҳафта давом етиб, бир ҳафтани ичида 4 марта рингга чиққанлиги ва тўрттала боксчини ютиб, биринчи ўринни қўлга киритганлигини билдириб ўтди. Боксчи ушбу Тошкент биринчилиги бўйича қўшимча қилиб, унда 150 та боксчи турли вазн тоифаси бўйича беллашганлигин, ўзи еса 67 кг вазн бўйича рингга чиқганлигини айтди. Боксчининг қайд етиб ўтишича, боксда мусобақа босқичлари енг биринчи Тошкент биринчилигидан бошланади, унда ғолиб бўлганлар Ўзбекистон ССР биринчилигига чиқади, унда ҳам ютганлар еса СССР босқичида иштирок этиш ҳуқуқини қўлга киритади ва ушбу СССР таркибидаги 15 та республика ва Москва ҳамда Ленинград, жами 17 та ҳудуд ўртасида қуръа асосида мусобақада беллашади.

Саволга бафуржа ва тўлиқ берилган жавобдан сўнг, боксчидан 1976 йилги Олимпиададаги иштироки ва кумуш медални қўлга киритиш машаққатлари ҳақида маълумот беришларини сўраб мурожаат қилдик. Р.Рисқиев бунга жавобан ушбу олимпиаданинг финалига чиқгунга қадар 4 марта рингга чиқиб ва барча рақибларини енгганлигини, аммо финалда унга рақиблик қилган боксчи атиги 2 марта жанг ўтказиб финалга чиқганлигини айтди.

Бир боксчи 4 марта, иккинчиси еса атиги 2 мартагина рингга чиқиб финалда учрашиши, бу яққол адолатсизлик ифодасидир. Руфат Рисқиевнинг финалдаги мағлубияти шу билан боғлиқ бўлса керак, деганимда боксчи қуйидаги фикрлари билан асл сабаб бошқа еканлигини маълум қилди.

Руфат ака ўз жавоби давомида, ютиш имконияти ҳам мавуд бўлганлигини, бироқ терма жамоа мураббийи Юрий Михайлович Радоняк, Руфат ака тушган бешта жангда ҳам унга тескари кўрсатма берганлигини, ўзбек боксчиси еса унга ишонганлигини, дастлабки 4 та жангда амаллаб ютганлиги, аммо сўнгги финалдаги жангда америкалик боксчи Майкл Спинксга мағлубиятга учраганлиги хусусида афсус билан гапирди.

Мазкур жавобдан сўнг, боксчидан, у ва унинг мураббийи Юрий Михайлович ўртасида қандай зиддият юзага келганлиги ҳақида савол берганимизда, Руфат ака 1972 йил Олимпиадага саралаш босқичида Юрий Михайловичнинг шогирди - Вячеслав Лемишевни ютганлигини, лекин шундай бўлишига қарамай, Радоняк ўз шогирди Вячеславни Олимпиадага олиб кетганлигини, уни бўлса қолдириб кетганлигини, 1973 йил ва 1975 йилларда ўтказилган Европа чемпионатларига саралашларда ҳам худди шундай ҳолат такрорланганлигини билдириб ўтди.

Бу каби адолатсизликларга қарши курашишга кўпчилик инсонлар ўзида куч топа олмайди ва осонгина таслим бўлиб қўя қолади. Лекин, Руфат Рисқиев емас. Боксчининг маълум қилишича, ушбу адолатсизликка қарши курашиш мақсадида 1974 йил Тошкентдаги Коммунистик партиянинг Марказий Комитетига қатъий равишда мурожаат қилади, мазкур мурожаат ижросини таъминлаш мақсадида Тошкентдаги Комитет раҳбарияти Москвадаги Марказий Партия раҳбариятига: “Нега Руфат ютаётган бўлса-да, уни халқаро мусобақаларга олиб чиқмаяпсиз? Қайта уриштирайлик.”,-деган жумлалар акс етган хат жўнатади. Бунинг натижасида Москвадаги Партия раҳбарияти бокс бўйича СССР ички саралаш учрашувларини қайта ташкил етиш юзасидан махсус комиссия тузади. Комиссия тузилган вақтда СССР терма жамоасининг барча боксчилари Грузиянинг Сухуми шаҳрида йиғин машғулотларини олиб бораётган бўлган, чунки ўша йиллари, бокс бўйича терма жамоа йиғини Грузиянинг Сухуми шаҳрида ўтказилар еди.

Боксчининг бунга қўшимча қилиб айтишича, тузилган комиссия мазкур шаҳарда бокс бўйича СССР ички саралаш жангларини қайта ташкил етган бўлиб, Руфат ака комиссия кўз ўнгида асосий рақиби Лемишевни, 3 раунд дўппослаб уради, бу жанг якунига етгач, Каратаев билан Анфимов ўртасида жанг ташкил етилади, унда Каратаев Анфимовнинг қорин қисмига, яъни аниқроқ айтганда жигарига кучли зарба беради, бу зарба натижасида Николай Анфимов қаттиқ оғриқ ҳис қилади, унинг ортиқ жангни давом еттира олмаслигини кўриб турган ҳакам

жангни тўхтатади. Боксчи бундан ташқари ўша саралаш давомида баъзи кимсаларнинг қинғир ишлар қилишга уринганлигини ҳам айтиб ўтди. Жумладан, асосий рақиби бўлган Лемишевнинг устози Радоняк ҳақида гапириб, Анфимовнинг Каратаевга осон мағлуб бўлганига гувоҳ бўлган мураббий, шогирди Лемишевни қандай бўлмасин “ғолиб” қилиш учун, бир найранг қилганлигини, яъни, Каратаевга мағлуб бўлган Анфимовни “кучсиз”, деб баҳолаб, Лемишев уни осонгина енга олади деб ҳисоблаган ҳолда, ертаси куни Николай Анфимов ва Вячеслав Лемишев ўртасида атайин жанг уюштирганлигини, лекин “афсуски”, Лемишев 1 рауднинг ўзидаёқ нокаутга учраганлигини маълум қилди.

Юқоридаги қилинган қинғир ишларга қарамай, Руфат аканинг саралаш ғолибига айланиши, бу боксчининг, Тошкентдаги Партияга мурожаат қилиши ва ноҳақликларга қарши мардонавор курашиб, ўз мақсадини амалга оширишда собитқадам бўлганлиги натижасидир.

“Енгилган курашга тўймас” деганларидек, юқорида қайд етилган Анфимовга қарши жангда Лемишев нокаутга учраганда Радоняк, қуйидаги жумлани бир емас уч-тўрт маротаба такрорлайди: “Лемишев нокаутга учрамади, балки фақатгина сирпаниб йиқилди”. Лекин Лемишевнинг Анфимовдан қабул қилиб олинган зарба натижасида нокаутга учраганлигини яққол кўриб турган ҳакам ва комиссия аъзолари, Вячеслав Лемишев ҳақиқатан ҳам нокаутга учраганлигини маълум қилади. Руфат Рисқиевнинг айтишича, Вячеслав Лемишевнинг нокаутга учрашига асосий сабаб, ҳеч қандай унинг сирпаниб тушиши билан боғлиқ бўлмай, балки Анфимовнинг аслида кучли боксчи бўлганлигида еди. Бундан ташқари Анфимовнинг Каратаевга ютқазиши, унинг Вячеслав билан бўладиган жангни янада катта мотивация билан ўтказишига сабаб бўлади. Ушбу саралашда ўзбек боксчиси ғолиб бўлганлиги учун Кубадаги жаҳон чемпионатига йўл олган ҳамда чемпион бўлган.

Енди боксчининг СССР ички мусобақаларидаги иштироки ҳақида гапирадиган бўлсак, боксчининг ўзи бу тўғрисида, 1968 ва 1969 йилларда ёшлар ўртасида ўтказилган СССР биринчиликларида ғолиб бўлган, бундан ташқари, 1973 йилда СССР биринчилигида финалга чиққанлиги, афсуски Анатолий Климановга ютқазиб 2 ўринни қўлга киритганлигини маълум қилди.

Шундан сўнг, боксчининг мактаб ва институтда ўқиб юрган даврлари ҳақида ҳам қисқача тўхталиб ўтишларини сўраганимизда, ўзбек боксчиси ўша даврда мактаб 10 йиллик бўлиб, уни битириб Жисмоний тарбия институтига кирганлигини, сиртқи таълимда ўқиганлигини айтиб ўтди. Институт беш йиллик бўлса-да, лекин у 6 йил ўқиганлиги ва 1976 йилда битирганлигини, бунинг сабаби, боксчининг 1976 йил ўтказиладиган Олимпиадада иштирок етишидан хабар топган институт декани – Рўза Абдуллайевна Рафикова, Руфат акани Жисмоний тарбия институти талабаси сифатида Олимпиядада иштирок етишини хоҳлаганлигини, буни амалга ошириш учун яна бир йил институтда олиб қолганлигини билдириб ўтди.

Шундан сўнг Руфат Рисқиевнинг турмуш ўртоғини ҳам суҳбатга чорладик ва қуйидаги савол билан мурожаат қилдик: “Руфат акани йўқлаб, уйга Ўзбекистоннинг ёш боксчилари келиб турадими?” Маъмура Рисқийева бунга қуйидагича жавоб берди: “Хўжайинимни олдиларига Баходир Жалоловни отаси, ўғлини 3 ёшлигида олиб келган ва яхши боксчи бўлиб етишишини сўраб, Руфат акамдан дуо олган. Буни Баходир Жалоловни ўзи кўп таъкидлаган. Баходир Жалоловнинг ҳозирги пайтда еришаётган ютуқларида, Руфат акамни берган дуосининг таъсири ҳам бор деб ҳисоблайман.”

Шундан сўнг Маъмура Рисқиевадан, боксчи Ўзбекистондан ташқари чет елда ҳам машҳур бўлган – бўлмаганлиги ва Руфат акани кўриш учун чет елдан ҳам спортчилар келиб туриши ёки келмаслиги бўйича қисқача маълумот беришини сўраганимизда, Маъмура ая Россия давлатидан кўплаб бокс мутахассислари ҳалигача Руфат акани сўраб, қўнғироқ қилишини, бундан ташқари, яқинда Куба давлатидан спорт делегацияси келиб, уйига ташриф буюрганлигини, шунингдек кубаликларнинг айтишига қараганда, Кубада ёш боксчилар орасида кимда-ким кучли зарбаси билан кўзга кўриниб, яққол ажралиб чиқса, унга Руфат

Рисқиевга ўхшаб бокс тушяпсан дея фикр билдириш ҳолатлари кўп учраб туришини таъкидлади.

Суҳбат жараёнида, боксчидан Кубадаги чемпионлик тафсилотлари, унга еришиш йўлидаги машаққатлар ва Куба давлати раҳбари Фидел Кастро билан бўлган учрашув тафсилотлари ҳақида савол берганимизда, Руфат ака 1972 йил Олимпиадага саралашда,

1973 йил Европа чемпионатига саралашда ғолиб чиқишига қарамай, терма жамоа мураббийлари саралаш финалида ўзбек боксчисига ютқазган - Лемишевни олиб кетишганлигини, фақатгина 1973 йил Кубада ташкил етилган "Сордоба Сардин" очиқ чемпионатига уни юборишганлигини айтиб ўтди. Руфат ака юқоридаги фикрга қўшимча қилиб айтишича, мазкур турнир Куба ички чемпионати бўлса-да, унда иштирок етиш учун дунёнинг жуда кўп давлатидан боксчилар келган, мазкур ўтказилган жаҳон чемпионатида 3 бора рингга чиқиб, барчасида ғолиб чиқиб, чемпион бўлган. Бу ғалаба билан ўша пайтдаги Куба президенти Фидел Кастро шахсан табриклаган, 1974 йил Кубада навбатдаги "Сордоба Сардин" очиқ чемпионати ўтказилган бўлиб, СССР мураббийлар жамоаси яна уни юборган, лекин улар аслида Руфат Рисқиевнинг "мағлубиятга учраши"ни хоҳлаган. Чунки агар у ютқазса, яна ўша Куба давлатида 3 ойдан кейин бўлиб ўтадиган жаҳон чемпионатига, Лемишевни юборишига "имконият" пайдо бўларди. Ўзбек боксчиси еса бориб, яна ғолиб бўлиб қайтади. Боксчининг фикр билдиришича, Кубадан қайтган вақтда, Москвадаги СССР бокс раҳбариятидаги ходимлар "нима бўлди?",-деб сўраган вақтида Руфат ака ютганлигини айтади. Бироқ, уларнинг хеч бири бу жавобни ешитгач, табрик ҳам билдирмаган.

Бундан Руфат аканинг чемпионликка еришишидан Москвадаги СССР бокс раҳбарияти хурсанд бўлмаганлигини ва унинг чемпион бўлишини хатто кутмаганлигини яққол пайқаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. https://lex.uz/uz/docs/-6324756
2. https://lex.uz/uz/docs/-6369997
3. https://lex.uz/uz/docs/-6426456
4. Оғзаки тарих материаллари. Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, Уйғур-Марс берк кўчаси, Руфат Рисқиевнинг хонадонида муаллиф томонидан ёзиб олинган суҳбат. 16 март 2023 йил.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIDA MADANIY VA MA'NAVIY HAYOTNING YUKSALISHI

Tursunov Anvar Saypullayevich,
Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi
dotsenti vazifasini bajaruvchi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, madaniy va ilmiy markazlar jahon andozalariga mos holda tashkil etilib, umumta'lim maktablari jahon ta'lim tizimi asosida qayta tashkil etilib, mavjud maktablar zamonaviy ta'mirlanib, qayta jihozlandi, milliy, ma'naviy, millatlararo do'stlik an'analariga asoslangan ta'lim tizimi shakllandi, maktablar ta'minoti zamonaviy o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda ancha hayrli ishlar olib bordi.

Kalit so’zlar: Surxondaryo viloyati, umumta’lim maktablari, madaniy va ma’naviy hayot, “Shalola» ashula va raqs xalq ansambli”, Arxeologiya muzeyi, «Alpomish» sport majmuasi, sport maydonlari, teatr.

Аннотатсия: В результате реформ, проведенных в Сурхандарьинской области в первые годы независимости, были созданы культурные и научные центры в соответствии с мировыми стандартами, общеобразовательные школы реорганизованы на основе мировой системы образования, модернизированы действующие школы. и переоснащенная, natsіональная, ма Сформировалась система образования, основанная на традициях духовной и межnatsіональной дружбы, школы были оснащены современными учебно-методическими, духовно-воспитательными направлениями.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, общеобразовательные школы, культурно-духовная жизнь, народный ансамбль песни и танца «Шалола», Археологический музей, спортивный комплекс «Алпомиш», спортивные площадки, театр.

Abstract: As a result of the reforms carried out in the Surkhandarya region in the early ears of independence, cultural and scientific centers were established in accordance with world standards, secondary schools were reorganized on the basis of the world education system, existing schools were modernized and re-equipped, national, ma An educational system based on the traditions of spiritual and inter-ethnic friendship was formed, schools were equipped with modern educational-methodical, spiritual-educational lines.

Keywords: Surkhondarya region, secondary schools, cultural and spiritual life, "Shalola" folk ensemble of song and dance, Archaeological Museum, "Alpomish" sports complex, sports fields, theater.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq madaniy–ma’rifiy sohaga alohida e’tibor berib, xalqning or-nomusi va qadr- qimmatini himoya qilish, xalqning boy tarixi va madaniyatini, ko‘p asrlik an’analari,urf-odatlari hamda ma’naviy qadriyatlarini tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Jamiyat rivoji, shahar madaniyatining ravnaqi, shubhasiz, bevosita malakali mutaxassislar va ularning amalga oshiradigan ishlari bilan bog‘liqdir. Malakali mutaxassislarni tayyorlashda esa ta’lim tizimining o‘rni va ahamiyati kattadir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, istiqlolni mustahkamlovchi kuchli va qat’iyatli mutaxassislar tayyorlash masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Yoshlarga hozirgi zamon jahon andozalari asosida ilg‘or bilimlarini berish, ularni davr talabiga mos mutaxassis qilib tarbiyalashda izchil ishlar olib borildi. Natijada madaniy hayotning asosini tashkil etuvchi xalq ta’limiga jiddiy e’tibor berildi, zarur moddiy mablag‘lar safarbar qilindi, maktablarni moddiy-texnik jihozlash hamda mutaxassislar tayyorlash uchun muhim islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillikka erishilgach, ta’lim-tarbiya sohasiga alohida e’tibor berildi, ta’lim islohoti va uning istiqbolli tamoyillari belgilab olindi. Ta’lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi ta’minlandi. Ta’limda, umuminsoniy va milliy madaniy-ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi yuzaga keldi, millati, e’tiqodi, dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun ta’lim olish imkoniyatlari yaratildi.

Shu bois shaharlarda ta’lim-tarbiya maskanlarining salohiyati oshib, ularning moddiytexnik bazasi mustahkamlandi. Buning uchun yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish sohasi tubdan yangi yondashuvlar jalb qilindi, maktabgacha tarbiyada keskin burilishga erishish zarurligi, iste’dodli bolalar uchun maktab-internatlar tashkil qilish, bolalar bog‘chalari, bolalar poliklinikalarini ko‘paytirish, sport maydonlar va boshqa xalq ta’limi bilan bog‘liq ob’ektlarni ko‘paytirish va zamonaviy holga keltirish, o‘quv-tarbiya jarayonlarni yaxshilash zudlik bilan amalga oshirish dolzarb masala darajasiga ko‘tarildi. Chunki, sovet davriga xos muammolardan biri maktablarda sinf xonalar va o‘quv darsliklar hamda zarur o‘quv jihozlarining etishmasligi tufayli, ta’lim muassasalarini ikki-uch smenada o‘qish holatlari mavjud edi. Masalan, 1991-yil Qumqo‘rg‘on shahrida 1102, Sherobod shaharida 750, Sho‘rchi shaharida 390 o‘quvchi 2 smenada o‘qimoqda edi[14.41]. 1991 o‘quv-yilida

Termiz, Denov, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi shaharlarida 12 ta umumiy ta’lim maktabi va 6 ta maktabgacha tarbiya muassasalari kapital ta’mirlashga muhtoj edi[15.33].

Shaharlarda maktabgacha tarbiya muassasalarini zamonaviy uslubda jihozlash, yangi o‘quv-uslubiy jihozlar bilan ta’minlash, pedagog-mutaxassislarning bilim saviyasini oshirish, ularni o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlash borasida, 1995-yilda muhim ishlar amalga oshirildi. Natijada, shaharlarda maktabgacha tarbiya muassasalariga e’tibor kuchaytirildi. 1995-yil Boysunda 8 ta muassasada 1032 nafar, Jarqo‘rg‘onda 10 ta muassasada 1154 nafar, Qumqo‘rg‘onda 8 ta muassasada 776 nafar, Sherobodda 12 ta muasasada 2718 nafar, Sho‘rchida 13 muassasada 3302 nafar, Termizda 13 ta muassasada 6818 nafar, Denovda 11 ta muassasada
2710 nafar bola tarbiyalandi[20.18]. 1993-yildan 1996-yilga qadar shahar miqyosida mavjud 11300 o‘rinli 13 ta maktab qayta ta’minlanib, maktablar qoshida esa 450 o‘rinli qo‘shimcha sinfxonalar qurildi[2.20].

Termiz, Denov, Boysun, Sherobod, Sho‘rchi, Sharg‘un, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Kakaydi shaharlaridagi maktabgacha ta’lim muassasalarida 2000-yilda 2548 nafar, 2010-yilda 2985 nafar pedagog-xodimlar mudira, uslubchi, tarbiyachi, musiqa rahbarlari va psixologlar ishladi, 2010-yilda Termiz davlat universitetini 50 nafar, Denov, Termiz kasb-hunar kollejlarini 235 nafar talaba bitirib, shaharlardagi maktabgacha ta’lim muassasalariga ishga kelishdi[21.12]. Termiz, Denov, Sherobod shaharlaridagi maktabgacha ta’lim muassasalarini o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, texnik vositalar bilan ta’minlash borasida ham ma’lum ishlar amalga oshirildi. Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Boysun, Sharg‘un shaharlaridagi 7 ta maktabgacha ta’lim muassasasi kompyuter bilan ta’minlandi. 2005-2010-yillarda Termiz, Jarqo‘rg‘on, Sherobod shaharlardagi 30 ta maktabgacha ta’lim muasasasida «Bolalarni rivojlantirish va maktabgacha tayyorlash tayanch dasturi» tajriba sinovdan o‘tkazildi.

Respublika xalq ta’limi vazirligi tashabbusi asosida maktablarni kompyuter bilan ta’minlash borasida ham ancha ishlar bajarildi. Shahar maktablarini kompyuter bilan ta’minlash maqsadida 2000-2001 o‘quv-yili boshlangunga qadar har bir shahar hokimliklari tomonidan homiylar hisobidan bittadan maktabga kompyuter olib berildi. Maktablarda o‘quvchilar bilimini sinashda an’anaviy usullar bilan birga test sinovlaridan o‘tkazish tamoyili kengroq qo‘llanildi. Mintaqaviy va Respublika miqyosida maktab olimpiadalari muntazam o‘tkazib berildi. Termiz shahrida 1996-yilda faoliyat ko‘rsatgan 14 ta umumta’lim maktabida 11200 nafar o‘quvchi ta’lim olgan bo‘lsa, 2000-2001 o‘quv-yilida 16 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar soni 14300 nafarga etdi[16.11].

2000-2001-yillarda Termiz, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Boysun shahar ta’lim muassasalaridagi ta’mirga muhtoj kompyuterlarni sozlash bo‘yicha amaliyishlar olib borildi. Shuningdek, shahar o‘quvchilarining to‘laqonli bilim olishlari uchun 557 ta fan o‘quv xonalari, 35 ta lingafon xonasi qayta jihozlandi. 2008-2010-yillarda Sherobod, Qumqo‘rg‘on, Sharg‘un, Boysun shahar ta’lim muassasalariga 2 million 250 ming so‘mlik sport anjomlari, 210 ta parta, 580 ta yumshoq jihozlar olib berildi[18.15].

Mustaqillik yillarida shaharlarda ekologik muhitni yaxshilash borasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masalarini hal etish yuzasidan xalq ta’limi sohasida ma’lum ijobiy ishlar qilinib, o‘qituvchi va o‘quvchilarga ekologik tarbiyani singdirish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqa bu borada Denov, Sho‘rchi, Sariosiyo, Sharg‘un, Qumqo‘rg‘on shaharlardagi maktablarda 1993-2010-yillarda ibratli ishlar amalga oshirildi. Shahar maktablarida ekologik tarbiya, tabiat va uning boyliklari, Yyevropa mamlakatlari va Yaponda tabiatni muhofaza qilish madaniyati, Alyumin zavodidan chiqayotgan zaharli ftor gazi, uning oqibatlari, ichimlik suvi, Orol dengizi fojiasi, o‘simliklar hamda hayvonot dunyosini saqlash kabi turli mavzularda suhbatlar, uchrashuvlar tashkil etildi. 2000-2005-yillarda Denovda 455 ta, Sho‘rchida 358 ta, Sharg‘unda 365 ta, Sariosiyoda 465 ta turli mavzularda ekologik tadbirlar o‘tkazildi[5.2]. Mustaqillikning dastlabki yillarida ta’limning barcha o‘quv fanlaridagi milliy mafkuraga zid bo‘lgan g‘oyalar o‘quv dasturi va darsliklaridan chiqarib tashlandi. Ta’lim mazmuniga mamlakatning milliy g‘oyalari singdirildi, o‘quv reja va dasturlariga o‘zgartirishlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27 dekabrdagi «Termiz shahrining 2500-yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi 545- sonli qarori ko‘hna shahar va uning aholisining xizmatlari e’tirof etilganining namunasi bo‘ldi[6.2]. Surxondaryoning iste’dodli ustalari, musiqachilari, shoirlari, qo‘shiqchilari, raqqosalarining madaniyati, yuksak ma’naviyati, ijodiyoti ana shu davrda yashagan ajdodlarning tarixiy-madaniy merosiga borib taqaladi.

Mustaqillik yillarida Termiz shahri turli tadbirlar o‘tkaziladigan markazga aylanib bordi. Bu erda-yilida ikki bor Markaziy Osiyo baxshi-shoirlar hamda oqimlarining xalqaro festivali o‘tkazildi. Termiz shahri teatri va madaniyat markazida O‘zbekiston xalq rassomi Ro‘zi Choriyev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi M. Ravshanov, O‘zbekiston xalq baxshilari Sh. Boltayev va A. Poyonov,O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi A. Ibrohimov, O‘zbekistonda xizmat qo‘rsatgan artistlar G.Ravshanova, R.Mamataliyev, H.Oripov, M.Maxmudova, A.Narzullayev, Y.Mirqurbonov, S.Qosimova, N.Allanazarovlar voyaga etganlar. Boysun shahrida «Boysun bahori» xalqaro folklor-etnografik festivali o‘tkazilib borildi. 1999-yil Termiz shahrida «Alpomish» dostonining 1000-yilligi, 2002-yilda Termiz shahrining 2500-yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi[7].

2010-yilda Termiz shahridagi viloyat musiqali drama teatrida 106 nafar san’atkor va ishchi-xodim samarali mehnat qildi, ularning xizmatlari xalqimiz va hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Jamoa a’zolaridan 2 nafari «O‘zbekiston xalq artisti», 1 nafari «O‘zbekiston san’at arbobi», 8 nafari «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist», 1 nafari «O‘zbekistonga xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi» faxriy unvonlari bilan mukofotlandi. Jamoaning faol a’zolaridan katta guruhi O‘zbekiston orden va medallari bilan taqdirlandi. Jamoa ezgulik yo‘lida fidokorona kamtarona mehnat bilan band bo‘lib, xalqimiz hurmatini qozonib kelmoqda[8].

1997-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Surxondaryo viloyatda madaniyoqartuv muassasalari faoliyatini takomillashtirish va yanada yaxshilash bo‘yicha 358-sonli qaror qabul qildi. Qarordan kelib chiqib, viloyatda madaniyat sohasida katta ijobiy ishlar qilindi. Masalan, Boysun shahrida 14 ta ommaviy va bolalar kutubxonasi, 12 ta klub muasasalari, 1 ta madaniyat uyi, 400 o‘rinli kinoteatr «Alpomish» sport majmuasi, zamonaviy asosda qurilgan tennis korti, san’at muzeyi[9], «Shalola» ashula va raqs xalq ansambli, «Boysun» folkloretnografik bolalar ansambli, «Shirushakar» folklor-etnografik ansambli, «Alpomish» dostoni yaratilganligini ming yilligi munosabati bilan sport inshootlari va yigirma besh gektar maydonda «Alpomish bog‘i» barpo etildi, «Boysun bahori» folklor festivali har-yil may oyida muvaffaqiyatli o‘tkaziladi[10].

Termiz shahrining 2500-yillik yubileyi munosabati bilan 2001-2010-yillarda Termiz, Denov, Sherobod shaharilardagi bir qancha tarixiy obidalar va arxeologik yodgorliklarda ta’mirlash ishlari olib borildi. Surxondaryo viloyatidagi yodgorliklar o‘zining qadimiyligi bilan mashhur.Termiz shahrida Termiz hayvonot bog‘i, yoshlar majmui, xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar viloyat uslubiyat markazi bor. Shuningdek, 4 ta xalq drama teatri, 2 ta qo‘g‘irchoq xalq teatri, 10 ta ashula va raqs dastasi, 6 ta folklor-etnografik xalq dastasi, milliy dorbozlar guruhi va boshqa madaniy muassasalar ishlab turibdi. Jumladan, Boysun shahridagi «Shalola», Sho‘rchi shahridagi «Kumush tola» ashula va raqs xalq dastalari Buyuk Britaniya, Turkiya, Afg‘oniston va Hindistonda bo‘lib o‘tgan xalqaro festivallarda ishtirok etishgan[11]. Termiz shahrining 2500-yilligi munosabati bilan 2002-yil apereldan faoliyat ko‘rsata boshlagan Arxeologiya muzeyi O‘rta Osiyodagi eng yirik ma’naviy maskanlardan biri bo‘lib, uning 9 ta asosiy zallarida 72 ming Surxondaryo viloyati yodgorliklari va san’at namunalarini yuksak did bilan jihozlangan[1.5]. Shuningdek, Surxondaryo o‘lkashunoslik muzeyi 2000-yil qayta jihozlangan binoga ko‘chirib joylashtirildi, ushbumuzey 1933-yilda tashkil etilgan muzeyda 12252 dona arxeologiyaga, 612 dona madaniy merosga, 70 dona tabiatga oid nodir manbalar saqlanmoqda[12].

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholi sog‘ligini saqlash masalasida yangi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar amalga oshrildi. Ijtimoiy masalalar orasida aholi salomatligini saqlash, tibbiy muassasalar tizimini qayta o‘zgartirish, shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishni

kuchaytirish, zamonaviy bilimga ega bo‘lgan tibbiy xodimlarni tayorlash alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. SSSR davrida Surxon vohasi tibbiyot xizmatiga kam mablag‘lar ajratib, zamonaviy tibbiyot qurilishiga umuman e’tibor berilgan emas edi. 2012-yilda Davlat dasturiga asosan viloyatda 140 o‘rinli davlat shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Termiz bo‘limi tashkil etildi, hamda zaruriy tibbiy va texnik jihozlar bilan ta’minlandi. Termiz shahar sog‘liqni saqlash bo‘limi o‘z faoliyatida AQShning Projekt Xoup, Karelift Interneyshnl, Kauntepart Interneyshnl tashkilotlari bilan uzviy aloqalar bog‘lagan[13]. O‘rganilayotgan davrda shaharlar aholisi sog‘lig‘ini saqlash borasida ham katta ishlar qilinib, yangi kasalxonalar qurib ishga tushirildi. Ularni zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalari bilan ta’minlash yaxshilandi. Chet ellardan zamonaviy tibbiyot uskunalari olib kelib o‘rnatildi. Shaharlarda mavjud kasalxonalar qayta ta’mirlanib, shifoxonalardagi o‘rinlar soni 3495 taga etdi. Jumladan, 1991-yilda Boysun shahrida 2 ta, Jarqo‘rg‘on shahrida 3 ta, Qumqo‘rg‘on shahrida 3 ta, Sherobod shahrida 2 ta, Sho‘rchi shahrida 4 ta kasalxona faoliyat ko‘rsatdi.[22.69] Shuningdek, Denov shahrida 630 ta, Sho‘rchi shahrida 420 ta, Sherobod shahrida 520 ta, Qumqo‘rg‘on shahrida 530 ta, Jarqo‘rg‘on shahrida 570 ta, Boysun shahrida 320 ta davolash o‘rinlari mavjud edi[23.285].

Shaharlar aholisini sog‘liqni saqlash zamonaviy davolash maskanlarini qurish, qayta ta’mirlash, davolash o‘rinlarini yangilash, xonalarni zamon talabi asosida jihozlash sohasida katta amaliy ishlar qilindi. Ayniqsa, 2010-yilga kelib, yangi tibbiyot asbob-uskunalarini chet ellardan olib kelib, o‘rnatib xalqqa tibbiyot sohasida yangi usullari bilan xizmat ko‘rsatish yaxshilandi. Shaharlardagi davolash muassasalari va o‘rinlari soni 2010-yilda Denov shahrida 4 ta kasalxonada 470 o‘rin, Sho‘rchi shahrida 2 ta kasalxonada 470 o‘rin, Sho‘rchi shahrida 2ta kasalxonada 510 o‘rin, Sherobodda 2 ta kasalxonada 500 o‘rin, Qumqo‘rg‘onda 3 ta kasalxonada 520 o‘rin, Jarqo‘rg‘on shahrida 3 ta kasalxonada 545 o‘rinlar bor edi[22.69]. 2010-yilda viloyat aholisiga 91 ta kasalxona (shu jumladan, 85 tasi byudjet, 6 tasi byudjetdan tashqari bo‘lib) shundan 5 tasi aholiga tibbiyot sohasida xususiy xizmat ko‘rsatdi. Surxondaryo viloyatida zamonaviy tez tibbiy yordam hamda Ona va bola skrining markazi qurib foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari viloyat aholisiga 345 ta quvvati bir smenada 19,4 ming qatnovga mo‘ljallangan vrachlik ambulatoriya-poliklinalari (shundan 51 tasi xususiy, quvvati bir smenada 1,7 qatnovga mo‘ljallagan) tibbiy xizmat ko‘rsatildi. Barcha toifadagi tibbiy muassasalarda 4,5 ming nafar vrach, 16,1 ming nafar o‘rta tibbiy xodimlar aholiga xizmat ko‘rsatdi[19.28].

Mustaqillik yillarida respublikada sportning turli xillarini rivojlantirishga ham erishildi, buning samaralari jahon miqyosida o‘tkaziladigan tennis, kurash va shaxmat musoboqalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbekiston sportchilari ma’naviy va jismoniy barkamollikning yuqori natijalariga erishib, qadimiy sport udumlari, urf-odatlarini qayta tikladilar. Sportni yanada rivojlantirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash yuzasidan qonun va qarorlar ishlab chiqildi. 1992-yil 14 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi[24.69]. Vazirlar Mahkamasi esa O‘zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatan futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida, 1993-yil 17-yanvarda O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va tamoyillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida maxsus qaror qabul qilindi[3.487]. 1992-yil Termiz va Shahrisabz shaharlarida o‘tkazilgan xalqaro kurash musobaqalarida milliy kurash sohasi, at-Termiziy xotirasi va allomaning nomi bilan bu sport turi sifatida tiklandi. Natijada o‘zbek xalqining milliy kurashi xalqaro sport turiga aylandi. Bu milliy kurash turi bo‘yicha musobaqalar har 2-yilda bir marta o‘tkazilmoqda.

1999-yilda esa Termiz shahrida jahonning xalqaro tennis talablariga javob beradigan yopiq Tennis saroyi va Milliy kurash zallari qurib ishga tushirildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27 mayidagi «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 271-sonli Qarori hamda «Sog‘lom avlodyili» kompleks rejasi asosida shaharlar xalq ta’limi bo‘limlarida qator tadbirlar o‘tkazildi[17.35].

Shu davrda shahar maktablarida 2010-yil 234, sport to‘garaklarida 12500 o‘quvchi-yoshlar sport bilan shug‘ullandi. Masalan, Termiz shahrida 2 ta stadion, 8 ta futbol maydonchasi, 3 ta suzish havzasi, 2 ta tennis korti, 14 ta ochiq tennis, 19 ta voleybol, 14 ta basketbol maydonchalari hamda qo‘l to‘pi bo‘yicha 10 ta maydoncha, boshqa sport inshootlari mavjud. Shaharda 17 tur bo‘yicha 8 ta sport maktabi ish olib bordi. Ularning seksiyalariga 5925 nafardan ziyod o‘quvchi muntazam qatnashdi[25.18]. Shaharda 27 mingdan ziyod kishi jismoniy madaniyat va sport bilan shug‘ullanib, 5 mingdan ziyod shahar aholisi sport seksiyalariga qatnashdi. Bu ishda 200 professional mutaxassislar boshchilik qildi.Kurashning milliy turi bo‘yicha al - Hakim at-Termiziy xotirasiga bag‘ishlangan musobaqa hamda O‘zbekiston Prezidentining sovrini uchun sportning shu turi bo‘yicha xalqaro musobaqalar ilk bor Termizda o‘tkazilgani quvonarli holdir. 1999-yilda Termizda o‘tkazilgan xalqaro turnirga Osiyo nomi berildi[4.72].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy tahlil etish jarayonida shaharlarning madaniy va ma’naviy qiyofasi mustaqillik imkoniyatlari tufayli tubdan o‘zgarganligi amalga oshirilgan islohotlar natijasi ekanligi asoslab berildi. Chunki sovet hokimiyati davrida, butun respublikada bo‘lgani kabi, Surxondaryo viloyatida ham maorif, madaniyat yo‘nalishi mustabid tuzum nazoratida bo‘lib, ushbu sohada erishilgan natijalar faqat Markazning ko‘rsatmasi asosida amalga oshirilar edi. Sovet hokimiyati davrida shaharlar madaniyatining hamma sohalaridagi tadbirlar yagona “partiyaviylik” qolipi asosida tashkil etilar, mahalliy aholining milliy diniy qadriyatlari nihoyat darajada kamsitilgan edi. Natijada O‘zbekistonda jumladan, Surxondaryo viloyatida “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat” shiori asosida sovetlarning madaniy siyosati niqoblanib, milliy madaniyatni evropalashtirish g‘oyasi asos qilib olingan edi. Shaharlardagi maktab o‘qituvchilarining ma’naviy qiyofasi, bilim darajasi hamda tajribalari jahon ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etildi. Ushbu davrda oliy ta’lim tizimi, ilmiy markazlar, madaniy muassasalar faoliyati shaharlarda to‘liq mustaqillik tufayli zamonaviy asosda tashkil etildi. Shahar aholisining turmush tarzi eng muhimi, sog‘liqni saqlash, aholi yashashi uchun sog‘lom muhitni yaratish borasida amalga oshirilgan o‘z natijalarini bera boshladi.Ushbu sohaning to‘liq va har tomonlama jahon andozalari asosida ta’minlanganligi, zamonaviy davolash muassasalari, tibbiyot asbobuskunalari, tashxis markazlari bilan jihozlanganligi qator muammolarning echimini topishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatining zamonaviy me’morchiligi shakllandi, ular juda chiroyli, shinam, ozoda tus oldi, aholi istiqomati uchun barcha qulayliklarga ega bo‘ldi. Shaharlarda o‘nlab san’at saroylari, istirohat bog‘lari, sport inshootlari, bolalar maydonchalari, faoliyat ko‘rsatayotganligini, bu faoliyat samarali kechayotganligi, shaharlarning zamonaviy qiyofaga kirganligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Botirov.T., Annayev.T. Surxondaryo viloyati arxeologiya muzeyi (qisqacha yo‘llanma).– Toshkent: Sharq, 2002.–B.5.
2. Kenjaboyev S. Maktab va kelajak. – Termiz, 2000.– B. 20.
3. Mustaqil O‘zbekiston tarixi, uchinchi kitob. –Toshkent: Sharq, 2000. –B.487.
4. Termiz buyuk yo’llar chorrahasidagi ko‘hna va yangi shahar. –Toshkent: Sharq, 2001.– B.72.
5. Surxon tongi. Ekologik tarbiya – inson salomatligi. 2006-yil. 23-fevral. №7. B.2.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi. 7-fond, 1-ro‘yxat, 3-hujjat, -B.2.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi 7-fond, 1-ro‘yxat, 232-ish, 3-21-23-24varaqlar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi 7-fond, 1-ro‘yxat, 232-hujjat, 7-varaq.
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi 7-fond, 1-ro‘yxat, 232-ish, 8-9-10-varaqlar.
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi 7-fond, 1-ro‘yxat, 232-ish, 19-20-21-23varaqlar.

11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi I. 7-fond, 1- ro‘yxat, 232-ish, 24-25-26varaqlar.
12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi I. 7-fond,1-ro‘yxat, 1205-ish, 1-2-3varaqlar.
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Davlat arxivi I. 7-fond, 1- ro‘yxat, 1160-ish, 25-varaq.
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1-fond, 18-ro‘yxat, 1-ish, 41-varaq.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 313-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 33-varaq.
16. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond. 2-ro‘yxat. 28-ish, 11-varaq.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 80-fond, 1- ro‘yxat, 57-ish, 35-varaq
18. Surxondaryo viloyat hokimiyatining joriy arxivi 2011-yil yanvar 1-bayonnoma. –B.15.
19. Surxondaryo raqamlarda. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi.–Termiz, 2010. – B.28.
20. Surxondaryo viloyati hokimligi va statistika bosh boshqarmasi. №-1 kitob, 1991-2002 y. – Termiz, 2004. – B. 18.
21. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi. №-1 kitob, 2000-2010 y. – Termiz, 2011. – B. 12.
22. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi 2011-yil. .№-1 kitob, 1991-2011. – Termiz,-B. 69.
23. Surxondaryo viloyati hokimligi va statistika bosh boshqarmasi. 1991-2002 y. –Termiz, 2004.–B.285.
24. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi 1993-yil. 12.02. 69 b.
25. Termiz shahar hokimiyati joriy arxivi 2011-yil. 3-bayonnoma. –B.18.

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMIDA MAHALLANING O‘RNI

Tursunov O‘ktam Saypullayevich,
Termiz davlat universiteti tarix ta’lim yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy hayotida mahallaning o‘rni va ahamiyati benihoya katta. Mahalla o‘zbek xalqi xarakteri, turmush tarzi, faoliyat mazmunini o‘zida aks ettirib, odatda millatni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, yo‘naltiruvchi va jamoatchilik asosida faoliyat yuritishga undovchi ijtimoiy institut hisoblangan. Maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoyalash tizimida mahallaning o‘rni haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: “Mahalla” xayriya Jamg‘armasi, ijtimoiy himoya, mahallalar fuqarolar yig‘ini, Surxondaryo viloyati, ijtimoiy siyosat.

Аннотация: Роль и значение соседства в общественно-политической, экономической, духовно-идеологической жизни Узбекистана огромны. Махалля считается социальным институтом, отражающим личность, образ жизни и деятельность узбекского народа и призывающим нацию работать организатором, пассажиром и личностью в одной жизни. В статье говорится о месте микрорайона в системе социальной защиты населения в первые годы независимости.

Ключевые слова: Благотворительный фонд «Махалля», социальная защита, сходы граждан микрорайонов, Сурхандарьинская область, социальная политика.

Abstract: The role and importance of the neighborhood in the social-political, economic, spiritual-ideological life of Uzbekistan is huge. Mahalla is considered a social institution that reflects the personality, lifestyle, and activities of the Uzbek people and urges the nation to work as an

organizer, passenger, and individual in one life. The article talks about the place of the neighborhood in the system of social protection of the population in the first years of independence.

Key words: Charitable Foundation "Mahalla", social protection, citizens' assembly of neighborhoods, Surkhandarya region, social policy.

Mustaqillikning ilk davridanoq mahallaning nufuzi ortib borishi e'tiborga olinib, O'zbekiston hukumati unga alohida diqqat qarata boshladi. 1992 yil 12 sentyabrda O'zbekiston Prezidentining "Respublika "Mahalla" xayriya Jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" gi, 1992 yilning 8 oktyabrida esa "Respublika "Mahalla" xayriya Jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risida" gi Farmonlari e'lon qilindi.

Shu yilning 17 oktyabrida respublika Vazirlar Mahkamasining "Respublika "Mahalla" xayriya Jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida" gi qarori e'lon qilindi. Qarorda jamg'arma faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

- tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'analarini ommalashtirish, respublika aholisi o'rtasida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish;
- insonparvarlik va mehr-shafqat, kishilar o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish va yaxshi qo'shnichilik g'oyalarini tushuntirish bo'yicha faol tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish; - har bir aniq hududda yashovchi kamxarj oilalar, nogironlar, keksalar va bolalar huquqlarini har tomonlama ijtimoiy himoya qilish;
- har xil an'anaviy marosimlar o'tkazish;
- juda muhtoj oilalar va alohida shaxslarga tekin moddiy yordam ko'rsatish;
- mahallalar hududini obodonlashtirish;
- respublika mahalliy mahalla Qo'mitalari faoliyatini yaxshilashga doir ishlarni muvofiqlashtirib boorish[6;-B.36]

O'rganilgan davrda Surxondaryo viloyatida mahallalar o'rni va rolini oshirish, ularning aholini ijtimoiy himoyalashdagi ahamiyatini yanada ko'tarishda jiddiy, ibratli ishlar amalga oshirildi. Ta'kidlash lozimki, o'tgan asrning 90-yillari boshida O'zbekistondagi murakkab iqtisodiy holat, mavjud iqtisodiy mexanizmlarning buzilishi, ishdan chiqishi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismidagi muayyan qiyinchiliklar O'zbekiston hukumatidan bu borada jiddiy ishlarni amalga oshirishni talab qilardi.

Jumladan, 1997 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Narxlarning liberallashuvi munosabati bilan aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoniga muvofiq minimal mehnat nafaqalari miqdori birdaniga 5 martaga oshirildi va uning hajmi 70 so'mdan 350 so'mga yetkazildi[7].

Ayniqsa, bu davrda yolg'iz qariyalarni qo'llab-quvvatlash juda muhim edi. Respublika bo'yicha ularning soni 30573 nafar bo'lib, shulardan 1717 nafari Qashqadaryo, 1861 nafari esa Surxondaryo viloyatidan edilar[8]. Mahalla jamg'armalari faoliyatida yolg'iz qariyalarni, umuman, yolg'iz fuqarolarni, balog'atga yetmagan bolalari bor ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash masalalariga ustuvor ahamiyat berildi. 1994 yil 23 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarining davlat vazifalarini bajarishda ishtirok etishini boshlab berdi[15].

Farmonga ko'ra qo'rg'onlar, qishloqlar, ovullar va mahallalarning fuqarolarini o'zini - o'zi boshqaruv organlarida kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish maxsus jamg'armalari tashkil etildi, ularning asosiy manbalarini esa respublika va mahalliy byudjetlarning mablag'lari, byudjetdan tashqari manbalar-jamoat va xayriya jamg'armalari, korxonalar, xo'jaliklarning mablag'lari va fuqarolarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari tashkil etdi. Shuningdek, 1994 yil 10 oktyabrdan boshlab kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamning ana shu jamg'armalar mablag'laridan har oyda oylik to'lovlar to'lashlari topshirildi.

Kam ta’minlangan oilalar mahalla qo‘mitasining tavsiyasi va bildirilgan fikriga asosan belgilanadigan bo‘ldi. Ya’ni, kam ta’minlanadigan oilalar sirasiga ob’ektiv sabablarga ko‘ra oilaning birinchi navbatdagi ehtiyojlarini ta’minlay olmaydigan kam daromadli oilalar va yolg‘iz fuqarolar (balog‘atga yetmagan bolalari bo‘lgan ko‘p bolali oilalar, boquvchisi nogiron yoki mehnat qobiliyatini qisman yo‘qotgan surunkali kasal oilalar, ishsizlarning oilalari, yolg‘iz pensionerlar va boshqa o‘ta muhtoj oilalar) kiritildi va har oyda moddiy yordam ko‘rsatilishi belgilandi.

Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam qo‘rg‘on, qishloq, ovul, shaharlardagi mahallalar fuqarolar yig‘ini, yig‘inni chaqirish imkoni bo‘lmaganda esa qo‘rg‘onlar, qishloqlar, ovullar ko‘chalari, turar joylari, mahallalarning fuqarolari vakillari yig‘ilishining qaroriga ko‘ra tayinlanishi, moddiy yordam puli har oyda oilaning moddiy va mulkiy ahvoliga qarab, unga amaldagi eng kam ish haqining 1,5 dan uch baravarigacha miqdorda to‘lanishi, o‘zini - o‘zi boshqaruv organlariga ajratilgan va foydalanilmagan byudjet mablag‘lari fuqarolar yig‘inining qaroriga binoan, aholi turar joylarini obodonlashtirish, gazlashtirish va suv bilan ta’minlashga, shuningdek, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etishga sarflanishi lozimligi belgilandi[5;-B.150].

Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish masalasi o‘ta og‘ir, murakkab masalalardan biri edi, zero bunda muammoni faqat adolat nuqtai nazaridan, xolisona ravishda hal etish lozim edi. Ta’bir joiz bo‘lsa ta’kidlash lozimki, bu-demokratiyaning ko‘rinishi, uning amalda hal etilishi edi.

Ammo bunday o‘ta mas’uliyatli ishga qator hududlarda mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lish hollari uchradi. Ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to‘g‘risida”gi 1994 yil 23 avgustdagi Farmonini bajarishda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi[9].

Mazkur Farmonning joylardagi ijrosi respublika Bosh prokuraturasi tomonidan tekshirildi va qator kamchiliklar aniqlandi. Jumladan, 1997 yilda respublika hududidagi o‘zo‘zini boshqarish organlarining joriy hisob raqamlaridagi mablag‘larning 86,2 foizigina fuqarolarga moddiy yordam tariqasida to‘langan xolos. 374,2mln.so‘m tarqatilmay qoldirildi. Surxondaryo viloyatida ishlatilmay qolgan mablag‘larning hajmi 17,4 foizni tashkil etdi[10].

O‘zbek xalqining ko‘p bolali millat ekanligi va uning aholini ijtimoiy himoya qilishdagi muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishdagi o‘rnini e’tiborga olib mamlakat hukumati bolali oilalarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalasiga katta e’tibor berdi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 10 dekabrdagi “Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida” gi Farmonini alohida ta’kidlash lozim. Unga binoan, 1997 yilning 1 yanvaridan boshlab bolali oilalarga nafaqalar fuqarolarning o‘zini – o‘zi boshqarish organlari- shaharchalar, qishloqlar, ovullar, mahallalar fuqarolarning yig‘inlari tomonidan tayinlanadi hamda oilalarning shunday nafaqaga muhtojligi hisobga olinishi boshlandi. Yuqoridagilarga muvofiq 1 nafar bolali oilalarga eng kam ish haqining - 100 foizi, 3 nafar bolali oilalarga - 140 foizi, 4 nafar va undan ortiq bolali oilalarga 175 foizi miqdorida to‘lanadigan bo‘ldi[12]. Farmonda bolali oilalarga nafaqa berish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish chog‘ida ijtimoiy adolat tamoyillariga og‘ishmay rioya etish, keng oshkoralik va ochiqlikni ta’minlash, ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishga erishish majburiy ekanligi ta’kidlandi.

O‘tgan asrning 90-yillari ikkinchi yarmiga kelib O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy institut va mustaqil sub’ekt sifatida mahallaning shakllanishi yuzaga keldi. Ular insondagi muammolarni adolatli hal etuvchi, oilalarning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy manfaatlarini muhofaza qiluvchi, kam ta’minlangan oilalar, qarovsiz qariyalar, urush va mehnat nogironlari, yetim-yesirlar, tabiiy ofatdan zarar ko‘rganlarni ijtimoiy himoyalash, mahallalarni obodonlashtirish va ularga har tomonlama yordam ko‘rsatuvchi organ sifatida jamiyatda ta’sirchan nufuzga ega bo‘ldi.

Bunday ijobiy ishlar bilan birga o‘rganilgan davrda Surxondaryo viloyatida mahalla roli, ijtimoiy nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham ko‘p uchradi. Ular ko‘proq sub’ektiv sabablar tufayli sodir bo‘ldi. Masalan, O‘zbekiston hukumatining kam ta’minlangan va bolali oilalarni ijtimoiy

muhofaza qilishga oid qarorlari, ko‘rsatmalarini bajarishda mahallaning ayrim hollarda e’tiborsizligi, tanish-bilishchilikka yo‘l qo‘yish holatlari yuzaga keldi.

Masalan, Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi «Ko‘ktepa” qishloq fuqarolar yig‘inida yashovchi 639 ta ko‘p bolali oilalarning ijtimoiy yordamga bo‘lgan huquqlari poymol qilinganligi holatlari prokuraturaning aralashuvi bilan bartaraf etildi.

Mahalla qo‘mitalari kam ta’minlangan va bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llabquvvatlash uchun ajratilgan byudjet mablag‘laridan foydalanish ahvoli ham yuksak talablar darajasida bo‘lmadi. Masalan, Ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag‘larning 26 foizi Surxondaryo viloyati bo‘yicha foydalanilmasdan qoldi. Bolali oilalarga nafaqa tayinlash uchun respublika bo‘yicha 17,7 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilishi belgilangani holda amalda Ushbu mablag‘ning 83,2 foizi moliyalashtirilgan xolos.

Ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarning parvarishi uchun 1998 yilda Surxondaryo viloyatida ajratilgan 477,0 mln. so‘mlik pul mablag‘larining 99,1 mln. so‘mi bank muassasalarida naqd pul bo‘lmaganligi sababli o‘z vaqtida to‘lanmasdan qoldi.

Ayrim hollarda ajratilgan pul mablag‘larining maqsadsiz foydalanish holatlari ham keng tarqaldi, ijtimoiy ta’minotga muhtoj aholi uchun Qonun bilan qo‘riqlanadigan huquqlari qo‘pol ravishda buzilishlariga yo‘l qo‘yilgan. Masalan, Respublika Xalq bankining Surxondaryo viloyati Sariosiyo tuman bo‘limi boshqaruvchisi B.Do‘sanov o‘z xizmat mansabini suiste’mol qilib, 1998 yil sentyabr-oktyabr oylarida bolali oilalarga tarqatilishi lozim bo‘lgan katta hajmdagi pul mablag‘larini savdo tashkilotlarining hisob-raqamlariga o‘tkazib berish yo‘li bilan nafaqa tayinlangan oilalarga naqd pul o‘rniga un, paxta yog‘i kabi mahsulotlar tarqatilishiga va ularning manfaatlariga ziyon yetkazilishiga yo‘l qo‘ygan[13].

Bunday kamchiliklarga qaramasdan, o‘rganilgan davrda o‘zini-o‘zi boshqarish organi sifatida mahallalarning aholini ijtimoiy himoyalashdagi roli asta-sekin ortib bordi. Aholining mahallaga ishonchi kuchayib bordi. Milliy xarakterga xos ravishda aholining jamoaviylik asosida yashashga bo‘lgan intilishi tufayli kishilar o‘zlarining quvonchu-xursandchiligi, g‘amutashvishini mahalla bilan bog‘ladilar.Respublika miqyosidagi barcha tadbirlar mahallaning yo‘naltiruvchanlik funksiyasi asosida olib borildi.

Ta’kidlash lozimki, mahallaning vazifasi faqatgina aholining moddiy-iqtisodiy muammolarini hal etishdangina iborat bo‘lmadi. Mahalla kishilar ijtimoiy-siyosiy, ma’naviymafkuraviy hayotining ham markaziga aylana bordi. Aholining ijtimoiy faolligini oshirish, huquqiy madaniyati, siyosiy saviyasini ko‘tarish kabi masalalarga e’tibor kuchaytirildi.

Mahalla o‘z tuzilmasiga ega, shakllangan ijtimoiy institut, o‘zini-o‘zi boshqarishning quyi organiga aylanib bo‘lgan edi. Masalan, Surxondaryo viloyatida mahalla fuqarolar yig‘ini tizimi 27 bo‘limdan iborat edi. Bular ichida diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya bo‘yicha maslahatchi, ma’naviyat targ‘ibot komissiyasi, sport ishlarini tashkil etish komissiyasi, jamoat xavfsizligini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jazoni o‘tab chiqqan shaxslar bilan ishlash komissiyasi, kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash komissiyasi kabi ko‘plab komissiya, bo‘limlar faoliyat ko‘rsatdi[14].

Ushbu bo‘linmalar ishi mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashi tomonidan muvofiqlashtirib turildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, respublika hukumati tomonidan e’lon qilingan hujjatlar, farmon, qarorlarni o‘rganish, o‘z faoliyatiga joriy qilish, aholi o‘rtasida ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish masalalari hal etila bordi. Shuningdek, mazkur ishlar tufayli mahalla qo‘mitalarining eng quyi o‘zini-o‘zi boshqarish organi sifatidagi tajribasi ortib bordi.

Shuningdek, mahalla qo‘mitalari mazkur hududda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi, g‘oyaviy-mafkuraviy birlikni ta’minlovchi, aholi yashash sharoitlarini tartibga keltiruvchi ta’sirchan kuchga ega bo‘ldi. Eng muhimi, aholining mahalla qo‘mitasi, faollariga bo‘lgan ishonchi kuchayib bordi. Aholi o‘z manfaatlari qondirilishini mahalladan qidira boshladilar. Mahallalarda ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish kuchaya bordi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Tursunov S.N. “O‘zbek mahallari - ma’naviyatimiz iftixori-g‘ururiga aylansin”. Toshkent., “Yangi nashr”. 2018. 272-bet.
2. Tursunov S.N. “Mahalla - mustaqil yurt tayanchi”. Toshkent., “Muxarrir”, 2012.
3. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.–605 b.
3. Jalilov Sh. Mahalla yangilanish davrida. -Toshkent: Mehnat, 1995.-72 b.
4. Rahimov B.S. O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yillar). Tarix fan. nom. diss.-Toshkent: O‘zMU, 2008.-B. 189.
5. Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy siyosat va adolat,- Toshkent: O‘zbekiston, 2008.-B.150.
6. Jamiyatni isloh qilish yo‘lida.- Toshkent: O‘zbekiston,1998.-B.36.
7. O‘zR MDA.M-15fond,1-ro‘yxat,92-ish, 75-varaq.
8. O‘zR MDA.M-15fond,1-ro‘yxat,91-ish, 120-varaq.
9. O‘zR MDA.M-15fond,1-ro‘yxat, 903-ish, 150-varaq.
10. O‘zR MDA.M-15fond,1-ro‘yxat, 903-ish, 151-varaq.
11. O‘zR MDA.M-15fond,1-ro‘yxat,903-ish, 155 - varaq.
12. O‘zR MDA.M-15fond, 1-ro‘yxat, 1045-ish, 150-varaq.
13. O‘zR MDA. M-15-fond, 1-ro‘yxat, 1045-ish, 349-varaq.
14. Surxondaryo viloyati “Mahalla” jamg‘armasi joriy arxivi. 2002 yil hisobotlari.-B.21.
15. O‘zbekiston ovozi. 1994 yil 25 avgust.
16. www.mahalla.intal.uz

ROSSIYANING SHARQIY BUXORODAGI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

Tursunov Sayfulla Narzullaevich
Termiz davlat universiteti“Jahon tarixi” kafedrasi mudiri,
tarix fanlari doktori, professor.
tursunovsafullo12@mail.ru

Annotatsiya: XIX asrning oxiridan boshlab, Buxoro amirligiga Rossiyaning turli monopolistik sanoat karxonalari, firma va bank filiallari, o‘rtoqchilik jamiyatlarining kirib kelishi tezlashdi. Rossiya bank bo‘limlari, firma va savdo uylari asosan savdo sotiq ishlari bilan shug‘ullandi. Amudaryo flotiliyasi Rossiya imperiyasining harbiy va siyosiy maqsadlari uchun xizmat qildi. Flotiliya va temir yo‘l tarmoqlarining Buxoroga kirib kelishi amirligining xorij mamlakatlari bilan olib boradigan savdo aloqalarida ham o‘z samarasini bergan. Rossiya imperiyasi amirlikda temir yo‘l qurishda birinchi o‘rinda harbiy – strategik va siyosiy maqsadni ko‘zlab amalga oshirgan bo‘lsa, ikkinchidan mahalliy boyliklarini o‘zlashtirib katta foyda ko‘rish, Buxoro bozorlarini egallab o‘z ta’sir doirasi va mustamlaka siyosatini kuchaytirish hamda o‘z chegara hududlarini mustahkamlashga qaratilgan. Maqolada Rossiyaning Sharqiy Buxorodagi mustamlakachilik siyosati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Buxoro-Afg‘oniston chegarasi, Buxoro amirligi, Sharqiy Buxoro hududi, Amudaryo flotiyasi, temiryo’l, mustamlaka, sanoat, Rossiya bank bo‘limlari.

Аннотация: с конца XIX века ускорилось вхождение в состав Бухарского эмирата различных русских монополистических промышленных предприятий, фирменных и банковских отделений, товарищеских обществ. Филиалы российских банков, фирмы и торговые дома в основном занимаются торговлей. Амударьинская флотилия служила военным и политическим целям Российской империи. Введение флотилии и железнодорожной сети в Бухару также сказалось на торговых отношениях эмирата с зарубежными странами. Российская империя строила железную дорогу в эмирате прежде всего в военно-

стратегических и политических целях, а во-вторых, для получения большой прибыли за счет эксплуатации местных ресурсов, оккупации рынков Бухары и расширения сферы своего влияния и направленной на усиление колониальной политики. и укрепление приграничных территорий. В статье говорится о колониальной политике России в Восточной Бухаре.

Ключевые слова: Бухаро-Афганская граница, Бухарский эмират, Восточная Бухарская область, Амударьинский флот, железная дорога, колония, промышленность, российские банковские учреждения.

Abstract: since the end of the 19th century, the entry of various Russian monopolistic industrial enterprises, firm and bank branches, and partnership societies into the Bukhara Emirate has accelerated. Russian bank branches, firms and trading houses mainly engaged in trade. The Amudarya flotilla served the military and political purposes of the Russian Empire. The introduction of the flotilla and railway networks to Bukhara has also had an effect on the trade relations of the emirate with foreign countries. The Russian Empire built a railway in the emirate primarily for military-strategic and political purposes, and secondly, to make a big profit by exploiting its local resources, occupying the markets of Bukhara and expanding its sphere of influence and aimed at strengthening the colonial policy and strengthening its border areas. The article talks about Russia's colonial policy in Eastern Bukhara.

Key words: Bukhara-Afghanistan border, Bukhara Emirate, East Bukhara region, Amudarya fleet, railway, colony, industry, Russian bank branches.

XIX asr o‘rtalarida Yevropa siyosiy doiralarini ta’kidlashicha, Osiyoda Turkiyadan keyin Musurmon dunyosida alohida mavqega ega bo‘lgan Buxoro katta iqtisodiy siyosiy nufuzga ega edi. Turkiston va Buxoroning Rossiya tomonidan istilo qilinishi natijasida Rossiya hukumatini iqtisodiy-siyosiy nufuzi o‘sib sanoat uchun boy xomashyo manbasiga ega bo‘ldi. Rossiya Buxoro xonligiga qarashli musulmonlar yashaydigan katta hududlarni o‘z mustamlakasiga aylantirib, uning iqtisodiy imkoniyatlarini Rossiya manfaatlariga xizmat qildirdi, xomashyo manbasini tolon-taroj qilishga jiddiy kirishdi. Milliy kamsitish siyosati asosida mahalliy xalqlarning huquqlarini cheklab, milliy til va madaniyat rivojiga to‘siq bo‘lib, milliy g‘oyalar ta’qib ostiga olindi. O‘z navbatida Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan rus va rus tilida so‘zlashuvchi aholiga xuddi Rossiya markazidagiday imkoniyatlar yaratilib, kelgindi milliy guruhlarga huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi.[1,B.35] Rossiya va Afg‘oniston o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida tashkil etilgan chegaralardagi Termiz va Kerki harbiy qal’alarga tayanib, rus harbiy qismlarini joylashtirish, Harbiy-strategik rejalarni qabul qilish asosida kelgusida mukammal ishlarni bajarish bosh maqsad qilib olingan edi. Rossiya hukumati Buxoro xonligini Janubiy Sharqiy hududlaridagi bepoyon hosildor yerlarni to‘liq o‘z nazoratiga olish, o‘zlashtirish, sun’iy sug‘orish uchun xizmat qiluvchi irrigatsiya-sug‘orish tizimini vujudga keltirish asosida Hukumatni xomashyoga bo‘lgan talabini qondirishni asosiy maqsad qilib olgan edi. Eng muhimi yangi o‘zlashtirilgan yerlar hisobiga paxta ekishni yana ko‘paytirib, o‘sib borayotgan harbiy ehtiyojlarni qondirishga moslashtirgan yangi fabrika sanoatni paxta xomashyo bilan ta’minlash Turkiston o‘lkasi zimmasiga yuklatilgan edi. [2,B.91] Nihoyatda qulay iqlim sharoitiga va hosildor bo‘z tuproqqa ega bo‘lgan Sharqiy Buxoro hududi kam mehnat sarflab ko‘proq hosil olishdek imkoniyatni Rossiyaga taqdim etishi yaqqol sezilgan edi. Sharqiy Buxoro hududida mahalliy aholi siyrak joylashib, Rossiyaga qarshilik ko‘rsatuvchi muhim harbiy strategik qal’alar, aholi markazlari yoki mustahkam siyosiy-ma’muriy boshqaruv tizimi yo‘q edi. Yangi Buxorodan Termizgacha bo‘lgan hududlardagi bepoyon cheksiz cho‘l hududlari nazoratsiz va qarovsiz holda bo‘lib, bu hududlardan Buxoro amirligi o‘zining iqtisodiy manfaatlari uchun foydalana olmagan hamda sun’iy sug‘orish tizimi shaxobchalarini rivojlantirishga qiziqmagan edi[5,B.54-55].

XIX asrning 60-yillar oxiri 70-yillar boshlarida Buxoro amirligi o‘ziga qarashli mulkni asta-sekin o‘z qo‘lidan berib, siyosiy jihatdan zaiflashib, musulmon davlatlar orasida siyosiy mavqeini yo‘qotib Rossiyaga qaram davlatga aylanib qoldi. Rossiya bilan 1868 yil tuzilgan tinchlik shartnomasiga muvofiq Buxoro Rossiyaga:

1) 125 ming tilla-tanga ya’ni 500 ming rubl harbiy kontributsiya to‘lashi;
2) ruslar amirlik hududida erkin savdo qilish huquqini amirlik Himoyasida amalga oshirishi;
3) amirlik hududida savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi idoralarni tashkil etish;
4) rus tovarlaridan olinadigan boj ta’rifini 1/40 qilib belgilash;
5) rus savdogorlariga savdo-sotiq qilish uchun amirlik chegara Hududlaridan qo‘shni davlatlarga o‘tish uchun erkin imkoniyatlar yaratib berish kabi majburiyatlar yuklatilgan edi.

1873 yilgi yangi shartnomaga muvofiq Buxoro amirligi bir qator imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Bitimga muvofiq Buxoro amirligi ichki ishlariga ruslar aralashmaydigan bo‘lib, rus hukmdorlarining manfaatlari chegaralanib, huquqlari cheklandi[8]. Shuningdek Rossiyadan aholini ko‘chirib kelishi ta’qiqlanib, Rus aholisini Buxoro hududlariga kirib kelishi ta’qiqlandi. Ushbu bitimdan narozi bo‘lgan Rus hukmdorlari Buxoro hududiga to‘la qonuniy hukmron bo‘lish huquqini qo‘lga kiritishga harakat qildilar. Natijada 1888 yilgi yangi kelishuv bitimiga muvofiq Yangi Buxoro, Chorjuy, Kerki, 1892 yildan Termiz va 1905 yildan e’tiboran Saroy qishloqlarida Ruslar o‘troq joylashishi va yerga egalik qilish huquqlarini qo‘lga kiritdilar. Buxoro amirligini Sharqiy chegara hududlar bo‘yicha Afg‘oniston bilan aniq kelishuv shartnomasi tuzilgan emas edi. Natijada, Pomir, Voxon, Shugan hududlar masalasida nizojanjallar mavjud bo‘lib, keyingi 25 yil davomida Buxoro-Afg‘oniston chegarasi ochiq bo‘lib, savdo-bojxona shartnomalari mavjud emas edi[11]. 1894 yil tuzilgan Rossiya-Buxoro kelishuv shartnomasiga muvofiq Buxoro-Afg‘oniston chegara hududlari bo‘lgan savdo markazlarida, Amudaryoni kechib o‘tish qirg‘oqlarida bojxona maskanlari o‘rnatildi. Bojxona maskanlari, daryo qirg‘oqlari rus chegara harbiy qismlari ixtiyoriga topshirilib, Afg‘onistondan keladigan tovarlarga qat’iy narx qo‘yildi. 1895 yil Pomir-Termiz oralig‘idagi chegara hududlari aniqlanib, Afg‘onistonni bu hududlarga bo‘lgan bosqinchilik, talonchilik urushlariga chek qo‘yildi. 1894 yildan boshlab Buxoro amirligi ingliz-hind tovarlarini erkin kirib kelishi cheklanib, bu tovarlar faqatgina Kerki, Kelif, Cho‘chqa Guzar, Patta-Kesar Ayvanj, Saroy, Chubek, Bog‘arakdagi rus bojxonalari ruxsati bilan katta boj to‘lash orqali Buxoro hududiga kirib keladigan bo‘ldi[3,B.101-102].

1894 yilda Amudaryo harbiy floti tashkil etishi bilan birga Termiz-Samarqand trakti bo‘ylab Rossiya manfaatlarini himoya qiluvchi 14 ta mudofaa tayanch inshoatlari qurildi. Rossiyaning kelgusi manfaatlarini himoya qilish maqsadida Buxoro amirligi hisobidan 15 verst temir yo‘l qurildi. Rossiya savdo firmalari Yangi Buxoro, Chorjuy, Kerki va Termizda savdo do‘konlarini ochib Rossiyada ishlab chiqilgan tovarlarni Buxoro bozorlariga ta’minlash hamda mahalliy xalq tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni arzon-garovga sotib olib Rossiyaga jo‘natish bilan shug‘ullandi. Rossiya mustamlakachilik siyosatining bosh maqsadi rus sanoatini xom-ashyo bilan ta’minlash, arzon mahsulot va tekin savdo bozoriga ega bo‘lishga yo‘naltirilgan edi. Siyosiy huquqdan mahrum etilgan Buxoro amirligini ichki-tashqi siyosatini o‘z nazoratiga olgan Rossiya Buxoro amirligining Sharqiy bekliklari bo‘lgan Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Boysun, Sherobod Hisor, Kulob, Bolijuvon,Qorategin, Darvoz kabi hududlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishga harakat qildi. Biroq mahalliy aholini noroziligi va beklarni faol harakati tufayli ushbu siyosiy bosqinchilik harakatlariga chek qo‘yildi. Bu masalada o‘z maqsadiga erisha olmagan Rossiya hukumati butun kuchni Pomir-Panj-Yuqori Amudaryo oqimiga qaratib Hisor, Qabadiyon, Shahrituz hududlarini to‘liq o‘z mustamlakasiga aylantirish, bu hududda kuchli siyosiy-ma’muriy boshqaruv hamda harbiy istehkomni vujudga keltirishga jiddiy kirishdi[12].

Rossiya Buxoro amirligini deyarli hamma chegara hududlarini o‘z nazoratiga olib, erkin chet elga chiqish imkoniyatidan mahrum qildi. Rossiya Afg‘oniston bilan mavjud chegarani hal qilish bilan Afg‘onistonni istilo qilish rejasini ham ishlab chiqdi[7,B.103]. Biroq Afg‘oniston masalasida Angliya bilan bo‘lgan siyosiy tortishuv tufayli Rossiyaning bu urinishi amalga oshmadi. 1892 yilda Buxoro-Afg‘oniston-Rossiya o‘rtasida Angliya aralashuvi bilan Panjdaryo oqimi va Amudaryo qirg‘oqlari bo‘ylab aniq chegara chizig‘i belgilab olindi[13]. Buxoro amirligi ma’muriy boshqaruvda bilimli, yetuk, siyosiy bilimga ega bo‘lgan elchilarning yo‘qligi, sharqiy hududlarni geografik joylashuvini bilmasligi, davlatni iqtisodiy-siyosiy holatini chuqur tushunadigan rahbarlarning

yo‘qligi tufayli Buxoro Pomir hudularini boshqarish huquqidan deyarli mahrum bo‘lib Panj bo‘yidagi Darboz, Andxoy, Maymana hududlari Rossiya ixtiyoriga to‘liq o‘tdi. Rossiya mustamlaka hududlarini harbiy jihatdan mustahkamlash uchun maxsus choralarni ko‘rib 1887 yil 13 noyabrda Kerki Termiz yo‘nalishi bo‘yicha Amudaryo harbiy flotini tuzdi. Bundan asosiy maqsad chegara hududlarni kuzatish va qo‘riqlash bilan birga yo‘lovchilar yuklarni tashish, Termiz-Kerki-Petro-Aleksandovskiy yo‘nalishidagi yo‘llarni birbiri bilan bog‘lash, temir yo‘l orqali Kaspiy dengizga yuklarni yetkazishni o‘z zimmasiga olgan edi. Dastlab 1888 yilda Amudaryo flotiga «Sar» va «Saritsa», 1895 yilda «Saritsarevich» poroxodlari keltirilgan bo‘lsa, 1887 yilda «Velikiy Knyaz», 1899 yilda «Velikaya Knyajna Olga», 1901 yilda «Imperator’ Nikolay II» paroxodlari suv qatnoviga qo‘yildi. 1910 yilga kelib Chorjuyda maxsus kema ta’mirlash ustaxonasi qurilib, 6 ta paroxod, 2 ta bug‘ kateri, 13 ta temir barja, 2 ta neft saqlovchi va boshqa kemalar bo‘lib, ularning umumiy qiymati 1 million 500 ming rublni tashkil qilgan edi[14]. Rossiya o‘z harbiy qudratini Markaziy Osiyoda namoyish etish maqsadida harbiy flotni yangi zamonaviy qurollar bilan jihozlash bilan birga Amudaryo qirg‘oqlarida yashovchi mahalliy aholi istiqomat qiluvchi qishloqlar yaqinida harbiy mashqlar o‘tkazish, mahalliy xalqning ko‘zini qo‘rqitishga harakat qildi. Chunki Buxoro amirligi o‘zini himoya qilishga qurbi yetmas, armiya nihoyatda qoloq, qurollanish jihatdan zaif, nayza va qilich eng asosiy qurol hisoblanar edi.

Amir o‘z hokimiyatini saqlash va himoya qilishda Mang‘it urug‘iga tayanib ish yuritib, armiyaning asosiy qismi mang‘itlardan tuzilgan harbiylar-sarbozlardan iborat bo‘lib, ular Amirni shaxsiy qo‘riqchilari hamda shahar himoyasi bilan shug‘ullangan edi. Amirlikka qarashli Bekliklarda qisman oz miqdorda harbiylar bo‘lib, ular shahar va qal’alarni himoya qilish bilan shug‘ullanib, armiya doimiy hamda lashkarga bo‘lingan edi. Xalq lashkari yomon qurollangan, zamonaviy urush olib borish tajribasiga ega emas edi. Rossiya armiyasi esa yangi urush olib borish imkoniyatiga ega bo‘lib, qurollanish hamda jang olib borish tajribasi jihatdan Buxoro armiyasidan ancha ustun edi. Buxoro amirligini Sharqiy hududi Rossiya manfaatlarini qiziqtirgan edi. Chunki bu o‘lkalar Rossiya iqtisodini ko‘tarishda bitmas-tuganmas boyliklarga ega bo‘lib, sanoat, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik mahsulotlarini yetkazib beruvchi serunum voha edi. Rossiya Amudaryo yo‘nalishi bo‘ylab 1907 yil Chorju-Saroy oralig‘idan 2 million pud yukni tashib, uni asosan jun, gilam va boshqa turli xil xom-ashyo manbalar tashkil etgan[2,B.4850]. Masalan 11,697 pud zig‘ir yog‘i 12,000 pud pista, 19440 pud kunjut, 10312 pud grek yong‘og‘i, 200 ming pud arpa, 250 ming pud bug‘doy, 10 ming pud boshqa mahsulotlar, jami 500 ming pud mahsulotlar Ayvanjdan, Termiz orqali Afg‘onistondan gilam, pista va boshqa mahsulotlar, Qunduz shahridan 41,000 pud zig‘ir yog‘i, 3000 pud kunjut, 2000 pud quritilgan meva, 3000 pud kunjut, 200 pud xom-ashyo, 1000 pud guruch, Jiliko‘l, Qo‘rg‘on-Tepa, Vaxshdan 100 ming pud bug‘doy, 75 ming pud arpa, jami bo‘lib 250 ming pud mahsulotlar Rossiyaga jo‘natilagan. 1907 yil Chorjuy (Amu-daryo) stansiyasidan 1,556,842 pud yuklar jo‘natilib 1,822,543 pud yuklar qabul qilinib, jami 3.379,385 pud yuklar qabul qilingan. Ushbu yuklarning asosiy qismi tijorat yuklarini tashkil etgan. Bundan tashqari 300,000 pud yuklar Termizdan jo‘natilgan[9]. Termiz, Kerki va Chorjuydan jo‘natilgan yuklarni hamda shahardagi harbiy va rus aholisi manfaatlari uchun qoldirilgan yuklarni umumiy hisoblaganda 3 million 700 ming pudni tashkil etgan. Rossiya Buxoro amirligini Sharqiy hududlariga mustahkam joylashib olib, kelajakda hind okeaniga chiqish uchun muhim harbiy strategik bazani vujudga keltirishga jiddiy kirishdi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Buxoro amirligi hududda Pochta-telegraf va yo‘l aloqalarini o‘rnatish, dastlabki qayta ishlovchi sanoat-fabrikalarni ishga tushirish, Amudaryo-Panj suv paroxod qatnovini yana mustaHkamlash, Buxoro-Shahrisabz, Qarshi, Termiz, hisob va Kulob Temir yo‘llarni qurish va ishga tushirishga kirishdi. Rossiya o‘z mustamlakachiligi davrida Sharqiy Buxoro Hududida milliy kamsituvchi siyosatni olib borib, o‘zini zo‘ravonlik, talonchilik va bosqinchilik siyosatini yaqqol namoyon etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov S.N., Saidov B. Termiz yilnomasi. –Toshkent: Sharq, 2001. – B. 124.

2. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. –Toshkent: Sharq, 2004. – B. 608.

3. Tursunov S.N. Sherobodliklar. –Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – B. 385.

4. Tursunov S.N. Jarqo‘rg‘on. –Toshkent: Fan. 2008. –B. 303.

5. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009. – B. 501.

6. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. –Toshkent: Akademhashr. 2011. – B. 551.

7. Tursunov S., Qobulov E., Murtazoyev B., Pardayev T., Umarov I. Termiz tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. –B. 288.

8. 45-fond, Surxondaryo viloyati mehnatkashlar deputatlari Sovetlarining ijroiya komiteti (oblispolkom).

9. 76-fond, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi.

10. 6.316-fond, Markaziy statistika boshqarmasi. Surxondaryo oblast statistika boshqarmasi.

11. 474-fond, MDTOSI (Mehnatkashlar deputatlari Surxondaryo oblast) komiteti aholini ishga joylashtirish va ishchilarni tashkiliy tanlab olish.

MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO’L-TRANSPORT INFRATUZILMASINING SHAKLLANISHI

Sadirov Aziz Sirojiddinovich
Qarshi davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik arafasida Qashqadaryo viloyatida yo‘l-transport infratuzilmasining shakllanish jarayonlari, uning hududiy rivojlanishdagi o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, mavjud yo‘l tarmoqlarining holati, transport xizmatlarini tashkil etish jarayonlari hamda infratuzilma rivojlanishidagi muammolar tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik arafasida shakllangan yo‘l-transport tizimi keyingi davrda viloyat iqtisodiy taraqqiyoti, hududlararo aloqalar va aholining ijtimoiy faolligini ta’minlashda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, mustaqillik arafasi, yo‘l-transport infratuzilmasi, avtomobil yo‘llari, transport tizimi, hududiy rivojlanish, iqtisodiy aloqalar, qishloq xo‘jaligi, sanoat, tarixiy jarayonlar.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы формирования дорожно-транспортной инфраструктуры Кашкадарьинской области накануне независимости, её роль в региональном развитии и социально-экономическое значение. Кроме того, с исторической точки зрения анализируются состояние дорожной сети, организация транспортного обслуживания населения и существовавшие проблемы в развитии инфраструктуры. Результаты исследования показывают, что дорожно-транспортная система, сформировавшаяся в преддверии независимости, стала одним из важных факторов дальнейшего экономического развития региона, укрепления межрайонных связей и повышения социальной активности населения.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, период накануне независимости, дорожно-транспортная инфраструктура, автомобильные дороги, транспортная система, региональное развитие, экономические связи, сельское хозяйство, промышленность, исторические процессы.

Abstract: This article analyzes the formation processes of road and transport infrastructure in the Kashkadarya region on the eve of independence, its role in regional development, and its socio-economic significance. The condition of existing roads, organization of transport services, and challenges related to infrastructure development are analyzed from a historical perspective. The

are both themselves technical means, and the words denoting them. In the XIX century, there is a large number of lexemes that are formedby thematic groups. Historical dictionaries recorded the appearance 47 lexemes.The appearance of the compound lexeme photographic camera (camera,camera} - 1839, which undergoes the following changes over time its form: photo camera (camera, camera} - 1839, camera (camera, camera} - 1840, the formation of a thematic group "instruments and devices used in everyday life". Formation of the thematic group "refrigeration" begins with such lexemes as refrigerator (refrigerator} - 1824, subsequently abbreviated form fridge (1935), ice-cream freezer (ice cream maker} - 1854, ice cream freezer (ice-cream machine} - 1855, freezer (freezer, freezer) - 1874, ice box (refrigerator, ho camera} - 1885 Appearance of devices designated by the specified lexemes, significantly changed human life: facilitated the storage of perishable products for medical use.

In the 19th century, thematic groups “kitchen products and devices” and “linen processing devices”; continues replenishment of the thematic group "instruments and devices used in everyday life". Such lexemes appear as coffee-grinder (coffee grinder) - 1837, percolator (filter machine, strainer, coffee maker} - 1842, squeezer (juicer} - 1843, sewing-machine (sewing machine} - 1847, slicer (slicer} - 1850, stove (plate} - 1853, knittingmachine (knitting machine} - 1858, dishwashing machine (dishwasher} - 1867, dishwasher (dishwasher) - 1867, mincing machine (chopper) - 1875, meat mincing machine (minced meat machine, meat grinder – 1875 , mixer (mixer} - 1876, roaster (brazier} - 1884, cooker (stove} - 1884, gas cooker (gas stove} - 1884, waffle-iron (waffle iron) - 1888, knitter (knitting machine} - 1890, coffee machine (coffee maker} - 1894, range (stove} – 1895 The appearance of the named lexemes by its number indicates the rapid pace of development of the household industry, designed to make life easier for a person. The plural form of the lexeme appliance is fixed (appliances) - 1876, which acquires the meaning of "household appliances". It is noted that many of the listed lexemes were borrowed from common vocabulary (squeezer - juicer, slicer -slicer, range - plate, etc.), and, therefore, they can be attributed to consubstantial words. The second half of the 19th century is characterized by the emergence of new instruments and devices associated with the technical progress of scientific thought. In this period, you can observe the appearance of such lexemes as ozonizer (ozonator) -1873, portable (portable device) - 1883, computer (computer) – 1897 It is noted that behind each lexeme there is a real historical fact. Thus, the 19th century was marked by the discovery by the American scientist Alexander Graham ohm Bell of the "telephone" device. Since 1830, this device and its name used by scientists for the concept associated with a certain amount special items that transform the noise from a musical instrument to the sound of a siren. Later, the following lexemes appear: telephone', “new kind of telegraphy” (literally: “a new type of telegraph communication”), “speaking telegraph” (literally: “speaking telegraph”), “electrical speaking telephone” (literally: "electric talking phone"). 5

In its modern design, the word telephone (telephone) recorded by lexicographic dictionaries in 1866. Short form phone has been in use since 1884.The advent of the telephone has significantly changed people's lives: expanded opportunities for communication, the transmission of information has accelerated, the loss of life time.

Bibliography

1. Averbukh K.Ya. terminological variation. Theoretical and applied aspects// Questions of linguistics. - 1986, Issue 6. - P.40-45.
2. Averbukh K.Ya. General theory of the term. - Ivanovo, 2004. - 252 p.
3. Aksyutenkova L.G. On the problem of systematization and structuring terminological system "market economy". // Scientific and technical terminology. -M., 2001, Issue. 2. - S. 8-10.
4. Alexandrovskaya L.V. The semantics of the term as a member of the general literary vocabulary (on the m-le of English maritime terminology): Abstract of the thesis. dis. ... cand. philol. Sciences. -M., 1973. - 24 p.

5. Alekseev D.I. History of linguistic doctrines. - Samara: Samara University, 1998. - 114 p.

EFFECTIVE STRATEGIES FOR TEACHING ENGLISH IN MULTI-LEVEL CLASSES

Saydalieva Aziza Ergashevna
The teacher of Karshi Irrigation and Agrotechnologies Institute

Annotation: Teaching English in multi-level classes poses challenges for educators due to the diverse proficiency levels of students. This article presents evidence-based strategies and techniques to create an inclusive and effective learning environment.

Key words: teaching, multi-level classes, strategies, techniques, tips.

Teaching English in multi-level classes requires educators to address the varying proficiency levels of students. To ensure an inclusive and effective learning experience, it is crucial to employ evidence-based strategies and techniques. One important aspect of teaching in multi-level classes is assessing students' proficiency levels. It is crucial to have a clear understanding of each student's language proficiency level to tailor instruction accordingly. Research suggests that using a combination of formal and informal assessments, such as standardized tests, interviews, and observations, can help determine students' abilities (Liu, 2009).

Once students' proficiency levels are assessed, grouping students strategically can be an effective approach. Dividing students into groups based on their proficiency levels allows teachers to provide targeted instruction to each group. This ensures that all students are appropriately challenged and engaged in the learning process (Liu, 2009).

Differentiated instruction is another key strategy for teaching in multi-level classes. This approach involves tailoring teaching methods and materials to meet the diverse needs of students in the class. Research shows that providing a variety of activities and resources that cater to different proficiency levels, learning styles, and interests can enhance student engagement and learning outcomes (Tomlinson, 2001).

Cooperative learning is also beneficial in multi-level classes. Encouraging students to work together in pairs or small groups promotes collaboration and peer support. Stronger students can mentor and assist their peers who may be at lower proficiency levels, fostering a sense of community and mutual learning (Johnson & Johnson, 1999).

Providing individualized support is essential for students who require additional assistance. Allocating time during class for one-on-one or small group instruction allows teachers to provide extra explanations, practice opportunities, and personalized feedback to students who need it (Liu, 2009).

Incorporating technology and multimedia resources can also enhance the learning experience in multi-level classes. Online language learning platforms, interactive games, videos, and audio materials can be used to supplement classroom instruction and provide individualized practice opportunities (Liu, 2009).

Adapting materials and tasks is another important strategy. Modifying worksheets, reading passages, or other materials to make them more accessible or challenging based on students' proficiency levels ensures that all students can participate and benefit from the activities (Tomlinson, 2001).

Emphasizing communication skills, particularly speaking and listening, is crucial in multi-level classes. These skills are often the most challenging for language learners. Encouraging students to communicate with each other using the target language and providing opportunities for authentic conversations and discussions can enhance their language proficiency (Tomlinson, 2001).

Setting individual goals and regularly reviewing and updating them can help track students' progress and motivate them to improve. Research suggests that goal setting enhances student motivation, engagement, and achievement (Locke & Latham, 2006).

Finally, creating a supportive classroom environment is essential. Establishing a positive and inclusive classroom culture where students feel comfortable taking risks and making mistakes fosters mutual respect, collaboration, and empathy among students (Johnson & Johnson, 1999).

Engaging and activating students in multi-level English classes can be challenging, but with the right strategies, educators can create a dynamic and interactive learning environment. Here are some effective techniques:

1. **Use real-life and relevant materials:** Incorporate authentic materials, such as news articles, videos, and podcasts, that are interesting and relatable to students' lives. This helps them connect with the content and motivates them to participate actively.
2. **Incorporate hands-on activities:** Engage students in interactive activities that require them to use English in practical ways. For example, role-plays, debates, group discussions, and problem-solving tasks encourage active participation and promote language practice.
3. **Provide choice and autonomy**: Offer students options for assignments or projects that align with their interests and proficiency levels. Allowing them to choose topics, presentation formats, or assessment methods gives them a sense of ownership and increases their engagement.
4. **Use technology creatively**: Utilize digital tools and platforms to make learning more interactive and engaging. For example, online quizzes, interactive websites, language learning apps, and virtual reality experiences can enhance student motivation and participation.
5. **Incorporate games and competitions**: Integrate educational games, puzzles, or language-based competitions into the lessons. These activities add an element of fun and friendly competition, making the learning experience more enjoyable and engaging for students.
6. **Encourage peer teaching**: Assign students to work in pairs or small groups where they can take turns teaching each other. This promotes collaboration, builds confidence, and allows students to learn from their peers who may be at different proficiency levels.
7. **Provide regular feedback**: Offer timely and constructive feedback to students on their language use and progress. This helps them understand their strengths and areas for improvement, motivating them to actively participate and strive for better performance.

Teaching multi-level English classes can present a unique set of challenges for educators. Here are some common problems that may arise and strategies to address them:

1. **Different proficiency levels**: In a multi-level class, students may have varying levels of English proficiency. This can make it difficult to cater to the needs of all students. To address this, educators can implement differentiated instruction techniques, such as providing individualized assignments or grouping students based on their proficiency levels. Additionally, providing additional resources or support for students who may be struggling can help bridge the gap between different proficiency levels.
2. **Limited class time**: Multi-level classes often have limited class time, which can make it challenging to cover all necessary content and provide individualized attention. To overcome this, educators can prioritize key language skills and focus on essential vocabulary and grammar points. They can also incorporate flipped learning techniques, where students review content outside of class, allowing for more interactive and hands-on activities during class time.
3. **Classroom management**: With students at different proficiency levels, classroom management can be more challenging. Educators should establish clear expectations and rules from the beginning and ensure that all students understand them. They can also use classroom management strategies, such as assigning roles or responsibilities to students, implementing a buddy system, or using visual cues to facilitate smooth transitions and minimize disruptions.
4. **Limited resources**: In multi-level classes, resources may be limited, especially when it comes to materials that cater to different proficiency levels. Educators can overcome this challenge

by adapting and modifying existing resources to meet the needs of their students. They can also utilize technology and online resources to access a wide range of materials suitable for different proficiency levels.

Teaching English in multi-level classes requires educators to employ evidence-based strategies that address the diverse needs of students. By assessing students' proficiency levels, strategically grouping students, differentiating instruction, promoting cooperative learning, providing individualized support, integrating technology, adapting tasks, emphasizing communication skills, setting goals, and fostering a supportive classroom environment, educators can create an engaging and effective learning experience for all students.

Reference:

1. Bell J. Teaching multi-level classes in ESL. 1991. San Diego, CA: Dominie Press.
2. Brown H. Douglas. 2001. Teaching by Principles: an Interactive Approach to Language Pedagogy. New York: Pearson Education Company.
3. Jeremy H. How to teach English. 2007. Pearson
4. Natalie H. Teaching large multi-level classes. 2001. Cambridge University Press.

ЎЗБЕКИСТОНДА МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ФАРМАЦЕВТИКА КАДРЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИНИ

Якубова Шахноза Абдурахмоновна,
“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университетининг
Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти

Аннотация: Мақола мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикасининг фармацевтика фанидаги ўзгаришларни тақдим этади. Дастлаб фармацевтика фанидаги муаммолар, уларнинг эчимлари ва ушбу соҳадаги ютуқлар ушбу мақолада келтирилган. Бундан ташқари, мақолада фармацевтика соҳасини ривожлантиришда фармацевт кадрларнинг аҳамияти ёритилган.

Калит сўзлар: Фармацевтика, фармация, агробиотехнология, провизор, Биотехнология, Агроэкология, “Ўзхимфарм”, Ўз ФА Ботаника боғи, фармацевт кадрлар, Тошкент фармацевтика институти, стандартлаш, фармакогнозия.

Annotation: The article presents changes in the pharmaceutical science of the Republic of Uzbekistan during the years of independence. Initially, problems in pharmaceutical science, their solutions and achievements in this field are presented in this article. In addition, the article highlights the importance of pharmacists in the development of the pharmaceutical industry.

Key words: Pharmaceutics, pharmacy, agrobiotechnology, pharmacist, Biotechnology, Agroecology, "Uzhimpharm", Botanic garden of Uz FA, pharmacist staff, Tashkent pharmaceutical institute, standardization, pharmacognosy.

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида соғлиқни сақлаш тизимидаги ислоҳотлар ва модернизация жараёнлари ўз ўрнида тиббий, хусусан, фармацевтика соҳаси кадлар тайёрлаш ишини такомиллаштиришни кун тартибига долзарб қилиб қўйди. Шу ўринда Тошкент фармацевтика институтида амалга оширилган ишлар диққатга сазовордир. 19911992 ўқув йилида институтда 3 та яъни, фармация, агробиотехнология, провизорларни малакасини ошириш факультетлари, 25 та кафедра, 3 та курс ва Марказий илмий текшириш лабораторияси фаолият кўрсатди. Кафедраларда 246 нафар профессорўқитувчи фаолият кўрсатиб, улардан 24

нафари фан доктори, 118 нафари фан номзоди, 104 нафари ассистент ўқитувчи эди. Шунингдек, 40 ёшгача бўлган фан докторлари 3 кишини ташкил этди.

Тошкент фармацевтика институтига 1991-1992 ўқув йилида 1232 нафар абитуриент ариза топшириб, улардан 1191 нафари имтиҳонда иштирок этди. 91 нафар абитуриент мактабни олтин медал билан тамомлаганликлари туфайли суҳбат асосида ўқишга қабул қилинди.

Тошкент фармацевтика институтида 1992-1993 ўқув йилидан бошлаб иккита янги "Биотехнология" ва "Агроэкология" йўналишлар очилиб, ўқув ишларини янада такомиллаштириш мақсадида доривор ўсимликлар ва Биотехнология курслари ташкил этилди. Шу ўқув йилида институтнинг "Фармация" мутахассислиги бўйича кундузги ва сиртқи бўлимларда 1939 талаба, биотехнология мутахассислигида 73 талаба, агроэкология мутахассислигида 87 талаба таҳсил олди. Шунингдек, шу ўқув йилидан бошлаб хорижий талабалар шартнома асосида қабул қилинди.

1993 йил сентябрда институтда "Агроэкология" мутахассислиги очилиши муносабати билан ва доривор ўсимликларнинг ресурсшунослиги фанини ўқитиш савиясини ошириш, ўқув-услубий ишларни яхшилаш мақсадида доривор ўсимликлар ресуршунослиги курси ботаника кафедрасидан ажратилиб, мустақил "Доривор ўсимликларнинг ресуршунослик ва стандартлаш" кафедраси ташкил этилди.

Бу даврда институт моддий-техника базасини мустаҳкамлашга ҳам муайян даражада эътибор қаратилди. Институтнинг ўқув биносини умумий майдони 11160 м^2 бўлиб, ҳар бир талабага 3,7 м^2 га тўғри келди. 1993-1994 ўқув йилида институтда 594 ўринли 2 та ётоқхона, шу жумладан ижарага олинган 250 ўринли 1-ётоқхона фаолият кўрсатди. Ҳар бир кафедрада 3-4 ўқув хонаси, лаборантлар хонаси, ассистентлар хонаси ва кафедра мудирининг хонаси мавжуд эди. Кафедраларнинг лабораториялари ўқув режаси ва дастури талабларига мос ҳолда жиҳозланди. Шунингдек, институт кутубхонаси 470 м^2 майдонга жойлашган бўлиб, унинг фондида 345936 нусха китоб бор эди.

Институтнинг Чимёнда спорт-соғломлаштириш лагери, жисмоний тарбия кафедрасининг иккита волейбол майдони, сакраш сектори, кураш, оғир атлетика, стол тенниси машғулотлари учун 40 м^2 майдонга жойлашган иккита мослаштирилган хонаси ҳам фаолият кўрсатди. 1994 йилдан эса талабалар учун 500 ўринли 2 та ётоқхона қурилиши бошланди.

Барча иқтисодий муаммоларга қарамай, 1994-1995 ўқув йилида ўзаро келишув натижасида Москва тиббиёт академиясида институтнинг мутахассислик кафедралари ўқитувчиларини малакасини ошириш ташкил этилди. Москва тиббиёт Академиясида институтдан Р.А.Муҳамедова ва И.А. Харламов, Д.Назарова малака оширишда бўлди. Шунингдек, Тошкент Давлат университети қошидаги олий Педагогика институтида Г.Абдуазимов, Х.Мамаешов, Н.Ш.Полянц, Э.Т. Тўйчиев, Тошкент Давлат тиббиёт институтида Т.Т. Раҳимов, В.В. Урафьская, Г.Маликова, М.А. Умарова малака ошириш курсларини ўтади.

Тошкент фармацевтика институти талабаларининг давомати ва ўзлаштириш кўрсаткичи доимий таҳлил этиб борилди. Масалан, 1993-1994 ўқув йили ёзги имтиҳон сессиясида ўзлаштириш институтнинг агроэкология мутахассислигида 74,3 фоизни, биотехнология мутахассислигида 83,6 фоизни, факультет миқёсида эса 78,5 фоизни ташкил этди. Биотехнология мутахассислигининг 3 курсида эса ўзлаштириш 1993-1994 ўқув йилги ёзги имтиҳон сессиясида 75 фоизни ташкил этди. Давомат агроэкология мутахассислигида 1993-1994 ўқув йилида 93,5 фоизни ташкил этган бўлса, 1994-1995 ўқув йилида 94,4 фоизни, биотехнология мутахассислигида 1993-1994 ўқув йилида 90,8 фоизни ташкил этди.

1995-1996 ўқув йили фармацевтика институтига талабаларнинг 20 фоизи шартнома асосида ўқишга қабул қилинди. Шу билан биргаликда мақсадли ўқиш йўли билан режадан ташқари 10 нафар талаба қабул қилинди. Институтга кириб ўқиш истагини билдириб ариза берган абитуриентларни сони 531 тани ташкил қилди. Бу 1994-1995 йилдагидан 272 тага кам

эди. Абитуриентларнинг 32,5 фоизи Қашқадарё вилояти, 24,5 фоизи Тошкент вилояти ҳисобига тўғри келди.

Амалиётлар ўқув жараёнининг ажралмас бир бўлаги бўлиб, Тошкент фармацевтика институтида ҳам талабалар амалиётини ташкил этиш юзасидан муайян тадбирлар олиб борилди. 1994-1995 ўқув йилида фармация ишини ташкил қилиш ва иқтисодиёт фанидан 325 талаба ишлаб чиқариш амалиётини ўташга юборилди. Амалиёт Тошкент шаҳрининг 36 та дорихонасида, уч маддатда ўтказилиб, талабалар биринчи марта ишлаб чиқариш амалиётини ўтказди. Аъло баҳолар сони 8,3 фоизга, яхши баҳоли 5,12 фоизга ва қониқарли баҳолар 3,78 фоизга камайди. Амалиётлар асосан назорат-таҳлил лабораторияларда ва дорихоналарнинг таҳлил хоналарида, "Ўзхимфарм" ишлаб чиқариш бирлашмасида, Ўз ФА Ботаника боғида ташкил этилди.

Институтда доимий маънавий-маърифий тадбирлар ташкил этилиб турилди. 1994 йил январда институтда "Саломатлик университети" ташкил этилиб, унга раҳбарлик қилиш проф. И.В.Раҳимовага топширилди. Шу йилнинг 6 ой мобайнида "Саломатлик университети" томонидан институт талабаларига қизиқарли мавзуларда суҳбат ва маърузалар ўтказилди. Бундан ташқари институтда ҳуқуқий тартиб бузарларни олдини олиш кенгаши тузилди. Шу кенгашга доц. Р.З.Зилев раҳбарлик қилди. 1994 йил 15 мартда институт талабалари ва ходимларининг Миробод тумани прокуратура ходимлари билан учрашуви бўлиб ўтди. Институт кутубхонаси ходимлари 1994 йили "Экология, мустақиллик ва саломатлик" номли китобкўргазмаси, Мирзо Улуғбек тавваллудини 600 йиллигига бағишланган "1994 йил – Улуғбек йили" мавзуида китоб кўргазмаси ташкил этилди.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда фармацевтика кадрларини тайёрлаш ишининг сифати ва кўлами кенгайиб борди. Марказий Осиё фармацевтика соҳасини кадрлар билан таъминлашда Тошкент фармацевтика институти минтақада етакчилик қилди. Институтда фармацевтика соҳасининг агробиотехнология, биотехнология, агроэкология, фармация менежменти ва иқтисодиёт, фармацевтик таҳлил ва фармакогнозия, дори турлари технологияси, клиник фармация каби йўналишлари бўйича мутахассисларнинг тайёрланиши соҳа кадрлари таъминотини яхшилашга хизмат қилди. Тиббий таълим тизимидаги ислоҳотлар Тошкент фармацевтика институтида ҳам амалга оширилди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Ўз ИТТҲ МА, 1-фонд, 2-рўйхат, 54-иш, 2-варақ.
2. Ўз ИТТҲ МА, М-380-фонда, 1-рўйхат, 20-иш, 198-варақ.
3. Ўз ИТТҲ МА, 1-фонд, 2-рўйхат, 54-иш, 4-варақ.
4. Ўз ИТТҲ МА, 1-фонд, 2-рўйхат, 54-иш, 5-варақ.
5. Ўз ИТТҲ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 36-иш, 10-варақ.
6. Ўз ИТТҲ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 36-иш, 16-варақ.

"THE IMPORTANCE OF VOCABULARY IN TEACHING ENGLISH"

Suvonova Damira Kurbanovna
English teacher at Karshi Institute of Irrigation and agrotechnology at the National Research University "TIIAME" damirasuvonova@gmail.com

Annotation: Vocabulary plays a crucial role in the process of teaching English. It is the foundation upon which language skills are built and expanded. In order to effectively communicate and comprehend, learners must develop a rich and varied vocabulary. This article will delve into the

significance of vocabulary in English language teaching, exploring its impact on both linguistic proficiency and overall language acquisition.

Annotatsiya: Ingliz tilini o'rgatish jarayonida lug'at hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu til ko'nikmalarini qurish va kengaytirish uchun asosdir. Samarali muloqot qilish va tushunish uchun o'quvchilar boy va rang-barang so'z boyligini rivojlantirishlari kerak. Ushbu maqola ingliz tilini o'rgatishda lug'atning ahamiyatini o'rganadi, uning tilni bilish va umumiy tilni o'zlashtirishga ta'sirini ko`rsatadi.

Аннотация: Словарный запас играет важнейшую роль в процессе обучения английскому языку. Это фундамент, на котором строятся и расширяются языковые навыки. Для того чтобы эффективно общаться и понимать, учащиеся должны развивать богатый и разнообразный словарный запас. В этой статье мы углубимся в значение словарного запаса в преподавании английского языка, исследуя его влияние как на лингвистическое мастерство, так и на общее овладение языком.

Keywords: comprehend, a solid vocabulary, context, a limited vocabulary.

As a teacher, we come across some troubles teaching vocabulary that we would like to share in our paper, and also, we would like to share some ideas for developing students' vocabulary strategies. All languages consist of words. Languages emerge first as words, both historically, and in terms of the way each of us learned our first and any subsequent languages. Moreover, vocabulary is still widening. Nothing can be done without the vocabulary. It is the basis for communication.

One cannot underestimate the power of words when it comes to mastering a language. Vocabulary forms the core of language proficiency, allowing learners to express their thoughts, feelings, and ideas with precision and clarity. Expanding their vocabulary gives students access to a wider range of linguistic resources, enabling them to communicate effectively in various contexts.

Enabling Comprehension and Expression

A robust vocabulary equips learners with the tools needed to comprehend and express themselves in English. When students encounter unfamiliar words, a solid vocabulary foundation allows them to infer the meaning through context, creating a more seamless reading experience. On the other hand, a limited vocabulary can impede comprehension, hindering overall language development.

Building Language Fluency

Vocabulary acquisition is closely linked to language fluency. As learners expand their vocabulary, they gain the ability to use words and phrases effortlessly, creating a more natural flow in their speech. A wide-ranging vocabulary allows learners to articulate their thoughts with precision, reducing the need for constant searching for the right words and enhancing overall fluency.

Enhancing Communication Skills

Effective communication requires not only a grasp of grammar and sentence structure but also a diverse vocabulary. A broad vocabulary enables learners to choose the most appropriate words and phrases to convey their intended meaning. This not only enhances clarity but also adds depth and nuance to their communication, fostering better understanding and engagement.

Increasing Language Confidence

Having a strong vocabulary boosts learners' confidence in using the English language. As they gain familiarity with a wide array of words, learners feel more comfortable engaging in conversations, expressing their thoughts, and participating in various language activities. This increased confidence paves the way for further language exploration and development.

Expanding Cultural Understanding

Vocabulary acquisition goes beyond mere language proficiency; it also provides insights into the culture and society associated with the English language. Through exposure to diverse vocabulary, learners gain a deeper understanding of cultural nuances, idiomatic expressions, and

social contexts. This cultural understanding enhances their ability to connect with native speakers and navigate real-life situations effectively.

In conclusion, vocabulary is an indispensable component of teaching English. It forms the basis for language proficiency and is vital in enabling comprehension, enhancing fluency, and fostering effective communication. By prioritizing vocabulary acquisition, learners can unlock a world of linguistic possibilities, facilitating their journey towards becoming proficient English speakers.

Word-teaching strategies allow students to familiarize themselves with words and phrases. Instead of having partial knowledge, they'll learn the meaning of the word and any related words. Students can develop word consciousness with the help of quality reading materials and practical teaching methods. It also helps to develop students' language skills. With these fun activities, vocabulary isn't just another spelling quiz — it's a core part of our instruction that supports everything else we teach.

REFERENCES

1. Anderson, R. C., & Nagy, W. E. (1991). Word meanings. In R. Barr, M. L. Kamil, P. B. Mosenthal, & P. D. Pearson (Eds.), Handbook of reading research (Vol. 2, pp. 690-724). New York, NY: Longman.
2. Baumann, J. F., & Kame'ennui, E. (2004). Vocabulary instruction: Research to practice. New York, NY: Guilford.
3. Coyne, M., McCoach, D. B., & Kapp, S. (2007). Vocabulary intervention for kindergarten students: Comparing extended instruction to embedded instruction and incidental exposure. Learning Disabilities Quarterly, 30(2), 74-88.
4. Dale, E. (1965). Vocabulary measurement: Techniques and major findings. Elementary English, 42, 895-901, 948.
5. Ebbers, S. A., & Denton, C. A. (2008). A root awakening: Vocabulary instruction for older students with reading difficulties. Learning Disabilities Research & Practice, 23(2), 90-102
6. S.S. Abdurashidova – "Affixoidation as a productive way of word formation in modern English and uzbek" Golden Brain, 1,2, 222-227
7. G'afurova , N. S. (2023). USE OF PUNCTUATION IN ENGLISH TEXTS ON SOCIAL NETWORKS. GOLDEN BRAIN, 1(16), 216–220.
8. Mustafayeva Maftuna Bahodirovna. (2023). MODAL SEMANTIKA TIPOLOGIYASI. GOLDEN BRAIN, 1(2), 338–342.

QISHLOQNING SHAKLLANISH TARIXI VA TARIXIY EVOLYUTSIYASI

Temirova Ch.
"TIQXMMI"MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
t.f.d., dotsent.

Аннотация. В данной статье недостаточно сформированы подходы, раскрывающие сущность социальной и культурной жизни села в отечественной практике. Разумеется, в будущем произойдет формирование нового многокритериального научного направления, в котором будут усилены вопросы, служащие основой формирования социальной и культурной жизни села, отказавшись от взгляда на деревню. как территорию, специализирующуюся на аграрном секторе, сохраняющую свои национальные ценности, формирующую и

развивающую человеческий фактор, подчеркивается, что ее следует рассматривать как место создания подходящих современных условий для проживания населения.

Ключевые слова: Село, орошаемое земледелие, «место, поселение, местность, население которой занимается преимущественно сельскохозяйственными работами», Пойканд, «земледелец», «сельский голова»

Annotation. In this article, approaches that reveal the nature of social and cultural life of villages in national practice are not sufficiently formed. Of course, in the future, the formation of a new multi-criteria scientific direction, in which it will be strengthened with the issues that serve as the basis for the formation of the social and cultural life of villages, abandoning the view of the village as an area specialized in the agricultural sector, preserving its national values, forming and developing the human factor, it is emphasized that it should be considered as a place to create suitable modern conditions for the population to live.

Key words. Village, irrigated agriculture, "a place, settlement, area whose population is mainly engaged in agricultural work", Poykand, "farmer", "village mayor"

Qishloq – jamiyat rivojida muhim o‘rin tutgan, aholining o‘ziga xos tabiiy, mehnatni tashkil etishdagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlar, an’ana, turmush va tafakkur tarzi, madaniymaishiy xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi darajasi va xususiyatlari bilan farqlanadigan muayyan ijtimoiy makon, “aholisining ko‘pchiligi dehqonchilik, chorvachilik yoki qishloq xo‘jaligining boshqa turi bilan mashg‘ul bo‘lgan aholi manzilgohi hisoblanadi”[1]. Ma’muriy-hududiy tuzilishning eng quyi bo‘g‘ini sifatida mamlakat obodligi, xalqning farovon yashashi qishloqlarning taqdiri va kelajagi bilan bevosita bog‘liq. O‘zbek xalqining kelib chiqishi ham bevosita qishloq zaminiga borib taqaladi.

Qishloq shahardan tashqaridagi hudud hisoblanib, ularda qishloq xo‘jaligida doimiy foydalanadigan yerlar va aholi manzilgohlari bo‘lishi, chunki qishloq aholi punktlari jamiyatning ijtimoiy-hududiy birligini tashkil etgan.

Qishloqlar shaharlarga qaraganda aholi yashash joyining qadimiyroq shakli hisoblangan. To‘g‘ri, qadimda dastlabki aholi manzilgohlari shahar yoki qishloq deb atalmagan. Qishloqlarning vujudga kelishi ijtimoiy mehnat taqsimotida sug‘orma dehqonchilik madaniyati rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Sug‘orma dehqonchilik avvallari tabiiy suv oqimidan foydalangan holda olib borilgan, keyinchalik sug‘orish inshootlari (to‘g‘on, kanal va b.) va vositalari (chig‘iriq) asosida rivojlangan. Albatta, bunday inshootlar yoki hozirgi zamon tili bilan aytganda, irrigatsiya infratuzilmalarini yaratish, qo‘riqlash va ulardan foydalanish keng jamoatchilik mehnatini, aholini bir joyda va birgalikda yashashini taqozo etgan. Shunday qilib, jamoa (sotsium), kishilarning hududiy birligi, turg‘un aholi manzilgohlari paydo bo‘lgan.

Dehqonchilik o‘z mohiyatiga ko‘ra yakka tartibda bajariladigan mehnat bo‘lib, bu mehnatda dehqon o‘z tajribasiga va tafakkur tarziga tayanadi. Dehqon – katta yer egasi, zamindor, qishloq hokimi. Qishloq deganda “aholisi asosan qishloq xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi joy, maskan, hudud[2]” tushuniladi.

Narshaxiyning yozishicha, Poykandda o‘z vaqtida (VI–VIII asr) yirik yer egasi “dehqon” deyilgan[3]. Akademik A.Muhammadjonovning izohlashicha, “dehqon” so‘zi ilk o‘rta asrlarda “qishloq hokimi” nomi bilan shuhrat topgan. Filolog olim X.Jabborov “dehqon so‘zining forstojik tili asosida yuzaga kelganini ta’kidlab, aslida “dehygon” (dehy – qishloqli va gon – ko‘plik qo‘shimchasi, ya’ni qishloqliklar) shaklida ishlatilgan bo‘lishi mumkinligini” ham aytib o‘tadi[4]. Hozirgi kunda ushbu so‘z ma’nosi kengayib, turli xil qishloq xo‘jaligi ekinlarni ekuvchi, yerga ishlov beruvchi shaxs sifatida qo‘llaniladi.

Sug‘orma dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi, shu asosda hunarmandchilik va savdoning rivojlanib borishi natijasida ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining navbatdagi muhim bosqichi boshlangan. Jamiyat hayotidagi bunday o‘zgarishlar qishloqlardan shaharlarning ajralib chiqishiga va rivojlanib borishiga sabab bo‘lgan. Aynan shu davrdan boshlab ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etilishining ikki shakli, ya’ni qishloqlar va shaharlar vujudga kelgan[5]. Qishloq

tarixini tadqiq qilishda markaziy o‘rinni, albatta o‘tmish bilan bog‘lash o‘rinlidir. Chunki qishloq so‘zining kelib chiqishining ibtidoiy mazmunidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, ushbu so‘zni ibtidoiy ovchilar, termachilar, chorvadorlar yaratishgan. Ular dastlabki yashash tarzini yayloq (hozir yaylov) deb atashgan. Bahor, yoz, ilk kuzda yayloqda, kech kuz, qish va ilk bahorda qishloqda yashashgan. O‘zbekiston tarixida o‘troqlashish ilk tosh davrining so‘nggi bosqichida boshlangan. Bu voqelik mil. avv. 500–150 ming yillarda sodir bo‘lgan. Tabiatning injiq, ekologik holati o‘troq, turg‘un, bir joyda muqim yashashni, issiq uy, hovlida hayot kechirishni talab qilgan. Mil. avv. avvalgi 4–2-ming yillikda ovchilikdan chorvachilikka, termachilikdan dehqonchilikka o‘tishgan[6].

Dastlabki shaharlarning kelib chiqishi ham bevosita qishloqlar bilan bog‘liq. Shuning uchun, yer yuzining eng qadimiy shaharlari ham aynan Yaqin Sharq, hozirgi Isroil, Iordaniya, Suriya mamlakatlari hududida shakllangan.

Qishloqlarning bunday evolyutsion tarzda paydo bo‘lishi va rivojlanishi L.I.Mechnikovning daryo (sug‘orma dehqonchilik) sivilizatsiyasi yoki madaniyati konsepsiyasiga muvofiq yuz bergan. Shu nuqtai nazardan Sharq tarixi, madaniyatini qishloq va shaharlarning ajralmas birligi deb ta’riflashgan. Boshqa hududlarda esa, qishloqlarning vujudga kelishi makon va zamon jihatidan farq qilib, o‘zgacha amalga oshgan.

Bizning sharoitimizda qishloqlar “qishlov[7]” ma’nosini anglatadi. Chunki, yaqin o‘tmishda ham mahalliy xalq yozgi va kuzgi dala ishlarini (bog‘dorchilik, chorvachilik, dehqonchilikni) tugatgach, qishni yig‘ilgan don, meva, o‘tin va boshqa zaruriy mahsulotlar bilan o‘tkazish uchun qishloqlarga qaytishgan (Rossiyaning dasht mintaqalarida dehqonchilik rivojlangan hududlarida ham qishloqlar “selo”, “stan”, “stanitsa”, ya’ni turg‘un aholi punktlari ma’nosini bildiradi).

Qishloq tushunchasining paydo bo‘lishi o‘zining tabiiy, hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy sabablarga ega. U insonlarning mehnat faoliyati, turmush va tafakkur tarzi, tarixan rivojlanish bosqichlari, ishlab chiqarish xususiyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib kelgan. Muayyan davlatlar tizimida uning ulushi har xil. Masalan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda ularning soni kamroq, rivojlanmagan mamlakatlarda esa ko‘proq bo‘ladi. So‘nggi holatda qishloq xo‘jaligining ulushi baland bo‘lib, qishloq aholisining miqdori asosiy o‘rinni egallaydi[8].

O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston hududlarida ilk o‘rta asrlardan boshlab ko‘chmanchi xalqlarning turmush tarzida muhim rol o‘ynab, qish paytida yashaydigan makon sifatida qaralgan. Bu holat XVI–XVII asrgacha davom etgan. Shuning uchun ham ko‘chib yuruvchi xalqlarda beshik emas, balki halinchak, belanchak, alvonch (Buxoroda arg‘umchoq) ishlatilgan. Ilk o‘rta asr (VI–VIII asrlar) davri savdo-sotiq shahri sifatida gullab-yashnagan Poykand shahri va uning atrofidagi qishloqlarning har birining Poykandda o‘z raboti bo‘lganini, qish paytida aholi qishlash uchun o‘z rabotiga kelgan. Zotan bu yerda ham qishloq, ham shahar haqida fikr yuritiladi. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Poykandda mingtagacha rabot bo‘lganligi qayd etilgan.

Qishloq – jamiyat rivojida muhim o‘rin tutgan, aholining o‘ziga xos tabiiy, mehnatni tashkil etishdagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlar, an’ana, turmush va tafakkur tarzi, madaniymaishiy xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi darajasi va xususiyatlari bilan farqlanadigan muayyan ijtimoiy makon sanalib, hamma jihatdan davlatning ichki va tashqi siyosati bilan bog‘langan, mustaqillikni mustahkamlashda, respublikani jahon hamjamiyatiga chiqishida muhim o‘rinni egallaydi.

Qishloqlar tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va boshqa bir qator vazifalarni ham bajaradi. O‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi yoki uning iqtisodiyoti ham turlicha. Odatda, qishloq xo‘jaligini qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi tarmoq sifatida qaraladi. Lekin u ham ancha murakkab tizim bo‘lib, bevosita “tor” ma’nodagi qishloq xo‘jaligidan tashqari qator sohalarni ham qamrab oladi[9]. Shu nuqtai nazardan qishloq xo‘jaligini jahon xo‘jaligi, xalq (milliy) xo‘jaligi, shahar xo‘jaligi kabi umuman xo‘jalikning (iqtisodiyotning) hududiy tashkil etilishini alohida taksonomik birligi yoki bo‘g‘ini sifatida, keng ma’noda talqin qilish kerak.

Rossiyalik olim A.V.Petrikovning fikriga ko‘ra, “qishloq jamiyatning ijtimoiy-hududiy tizim osti tizimi bo‘lib, u o‘zida qishloq aholisi, qishloq hayot faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar yig‘indisini qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy, tabiiy va tarixiymadaniy

majmuani, shu bilan birga, hududni undagi moddiy obyektlarni aks ettiradi”[10]. Shunday qilib, qishloq hududini ko‘pgina olimlar shahardan tashqarida mavjud bo‘lgan qishloq aholi punktlari joylashgan hudud yoki hududlararo hudud sifatida tushunadilar[11]. Aytish mumkinki, qishloq hududlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ko‘pgina qulayliklar uchun manba bo‘lib hisoblanishidadir.

Qishloqlar tarixini o‘rganishda ularga o‘ziga xos hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizim ko‘rinishida metodologik yondashuv maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqqan holda, qishloqlarni o‘rganishda majmuaviy va tizimli yondashuv, hududiylik va tarixiylik, davriylik va ketma-ketlik tamoyillari ham qo‘llaniladi. Ular hisob-kitob, tarixiy, taqqoslash va boshqa metodlar asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy amaliyotda qishloqlarni ijtimoiy-madaniy hayotining mohiyatini ochib beruvchi yondashuvlar yetarlicha shakllantirilmagan. Albatta, kelgusida yangi ko‘p mezonli ilmiy yo‘nalishni shakllantirish, unda qishloqlarning ijtimoiy va madaniy hayotini shakllantirishga asos sifatida xizmat qiluvchi masalalar bilan mustahkamlanishi, qishloqqa agrar sohaga ixtisoslashgan hudud sifatida qarashdan voz kechish, milliy qadriyatlarini saqlab qoladigan, inson omili shakllanadigan va rivojlanadigan, aholi yashashi uchun munosib zamonaviy sharoitlarini yaratish maskani sifatida qarash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek sovet ensiklopediyasi 14-jild. –Toshkent, 1980. – B. 108.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent, “ O‘zbekiston miiliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 315.
3. Narshaxiy M. Buxoro tarixi. – Toshkent, Fan, 1966. – B. 16.
4. Dehqon” so‘zining ma’nosini bilasizmi? // “Qashqadaryo” gazetasi. 2016-yil 20oktabr.
5. Soliyev A., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari (Qishloq joylari geografiyasi). – Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2009. – B. 7.
6. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent, Muharrir, 2009. – B. 5.
7. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent, Muharrir, 2009. – B. 9.
8. Ergashev I. Qishloq siyosiy-ijtimoiy jarayonlar tizimida. – Toshkent, 1998. – B. 7.
9. Soliyev A., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2009. – B. 9.
10. Петриков А. В. О проекте концепции устойчивого развития сельских территорий РФ на период до 2020 года // “Муниципальная Россия”. – Москва, 2010. № 1 (7).– С. 15–23.
11. Nazarova F.U. Qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari. Iqtisod va moliya // “Экономика и финансы”. – Toshkent, 2020, №3(135). – B. 137-143.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИ ВА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Васиева Дилором Ибрагимовна
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти
Тарих фанлари номзоди, доцент

Аннотация: Ушбу мақолада мустақиллик йилларида таълим соҳасида олиб борилган ислоҳотлар, ёшларимизнинг жаҳон андозаларига мос шароитларда замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллашлари, жисмоний ва маънавий жиҳатдан етук инсонлар бўлиб камолга етишларини таъминлаш, борасида самарали ишлар амалга оширилиши, давр талаби бўлган

замонавий глобаллашув шароитида олий таълим муассасаларида таълим тизимининг шаклланиши ва ривожланиши, янги инновацион шароитларга ва иқтисодиёт талабларига мувофиқлигини таъминлашга барча таълим муассасалари амалда ҳаракат қилинаётганлиги, бугунги кунда олий ўқув юртлари кўп босқичли инновацион фаолиятни амалга ошираётганлиги, ислоҳотларнинг ҳар бир босқичида таълим тизимига инновацион технологиялар жорий этилаётганлиги, кадрлар тайёрлаш масаласининг давлат сиёсати даражасига кўтарилиши, таълим, шу жумладан университет таълими тузилишини ўзгартириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Истиқлол, таълим, университет, кадрлар, ислоҳот, “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”, илмий тадқиқот, ғоя, жамият, модернизация, тарбия, ўқитиш услуби, концепция, малака ошириш, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқлари, мутахассис, муассаса, олий таълим, миллий қадрият, миллий модель, инновациялар, фан, таълим ва ишлаб чиқариш, жамият, салоҳият, юқори малакали мутахассислар, умумтаълим дастурлари, касбий масалалар, педагог-ходимлар, талаба.

Аннотация: в данной статье рассматриваются проводимые в годы независимости реформы в сфере образования, обеспечение того, чтобы наша молодежь приобретала современные знания и профессии в условиях, соответствующих мировым стандартам, становилась физически и духовно зрелыми людьми, осуществлялась плодотворная работа по формированию и развитию системы образования в высших учебных заведениях в условиях современной глобализации, что является требованием времени, создание новых инновационных условий. и что практически все образовательные учреждения прилагают усилия для обеспечения соответствия требованиям экономики, освещены вопросы, связанные с тем, что сегодня высшие учебные заведения осуществляют многоуровневую инновационную деятельность, на каждом этапе реформ в систему образования внедряются инновационные технологии, поднимается вопрос подготовки кадров до уровня государственной политики, изменения структуры образования, в том числе университетского.

Аннотация: в данной статье рассматриваются проводимые в годы независимости реформы в сфере образования, обеспечение того, чтобы наша молодежь приобретала современные знания и профессии в условиях, соответствующих мировым стандартам, становилась физически и духовно зрелыми людьми, осуществлялась плодотворная работа по формированию и развитию системы образования в высших учебных заведениях в условиях современной глобализации, что является требованием времени, создание новых инновационных условий. и что практически все образовательные учреждения прилагают усилия для обеспечения соответствия требованиям экономики, освещены вопросы, связанные с тем, что сегодня высшие учебные заведения осуществляют многоуровневую инновационную деятельность, на каждом этапе реформ в систему образования внедряются инновационные технологии, поднимается вопрос подготовки кадров до уровня государственной политики, изменения структуры образования, в том числе университетского.

Annotation: In this article, the reforms carried out in the field of education in the years of independence, effective work on ensuring that our young people acquire modern knowledge and skills in conditions corresponding to world standards, and mature into physically and spiritually mature people, in the conditions of modern globalization, which is the demand of the time, the formation and development of the educational system in higher educational institutions, the fact that all educational institutions are practically trying to ensure compliance with new innovative conditions and the requirements of the economy, today there are many higher educational institutions the implementation of step-by-step innovative activities, the introduction of innovative technologies into the education system at each stage of the reforms, the raising of the issue of personnel training to the level of state policy, the issues of changing the structure of education, including university education, are covered.

Key words: Independence, education, university, personnel, reform, "Strategy of actions on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021", scientific research, idea, society, modernization, education, teaching method, concept, professional development, social sphere and economic sectors, specialist, institution, higher education, national value, national model, innovation, science, education and production, society, potential, highly qualified specialists, general education programs, professional issues, teaching staff, student.

Мамлакатимизда истиқлолнинг дастлабки йилларидан бошлаб таълим тизимини ривожлантириш давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, ёшларимизнинг жаҳон андозаларига мос шароитларда замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллашлари, жисмоний ва маънавий жиҳатдан етук инсонлар бўлиб камолга етишларини таъминлаш, уларнинг қобилият ва истеъдоди, интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқариш, уларнинг қалбида она-юртимизга садоқат ва фидойилик туйғуларини камол топтириш борасида самарали ишлар амалга оширилмоқда.

Маълумки, “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”, 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2017 йил 26 сентябрдаги “Олий таълим муассасаларига кириш учун номзодларни мақсадли тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли фармони ҳамда 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-2752-сонли ҳамда 2019 йил 11 июлдаги “Олий ва ўрта махсус таълим тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4391-сонли қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 3 декабрдаги “Олий таълим муассасаларини босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштиришга ўтказиш тўғрисида”ги 967-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 февралдаги 133-ф-сонли фармойиши бугунги олий таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишга асос бўлиб хизмат қилади.

Дарҳақиқат, таълим жамият ривожланишида муҳим роль ўйнайди. Қандай соҳада бўлмасин, юқори билимга эга мутахассислар илмий тадқиқот ишланмалари билан шуғулланиш, янги маҳсулот турларини, инновацияларни яратиш ва технологияларни ривожлантириш имкониятига эга бўладилар. Жаҳондаги глобаллашув жараёнлари ва компаниялар ўртасидаги мавжуд чуқур рақобат муҳити мутахассисларни ҳам фавқулодда шунга тайёр бўлишларини талаб этади. Улар нафақат ўз ғояларини ривожлантириш ва яратилган назарий моделларини амалда жорий этиш учун қулай шароитларни таъминлайдилар, шу билан бирга, иқтисодиётнинг инновацион ривожланиши учун ҳам муҳим интеллектуал омил ҳисобланадилар.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда муносиб ҳисса қўшувчи, замонавий билим ва педагогик технологияларни қўллаш кўникмаларига эга, юқори малакали мутахассислар тайёрлаш ҳамда соҳага илғор таълим технологияларини жорий қилиш орқали таълим соҳасини янада такомиллаштириш борасида тизимли тадбирлар белгилаб берилган. Шундан келиб чиқиб, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқлари учун юқори малакали кадрлар етказиб бериш борасида ўтказилган таҳлил натижалари, аввало, таълим соҳаси учун кадрлар тайёрлаш сифатига эътиборни кучайтириш, соҳада илғор хорижий тажрибани кенг жорий этиш, педагогик таълим инфратузилмасини яхшилаш зарурлигини кўрсатмоқда.

Бугунги кунда жаҳонда юқори технологиялар ва ахборотлаштириш жараёнларининг ривожланиши даврида юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш учун компаниялар ўртасида рақобат кураши бирмунча ошди. Бу нафақат тижорат ташкилотларига, балки илмий тадқиқот марказлари, таълим муассасаларига ҳам тегишлидир. Дарҳақиқат, замонавий таълим сифати тўғрисидаги масала биринчи навбатда ҳал қилиниши керак бўлган муаммолардан бири ҳисобланади. Зеро, мамлакатимизда мавжуд олий таълим муассасалари келгусида мутахассисларнинг аниқ касбий соҳадаги билимларини шакллантиради.

Олий таълим муассасалари мамлакатнинг ҳар жиҳатдан ривожланишига хизмат қилади. Интеллектуал ресурсларнинг юксак даражасига асосланувчи замонавий технологияларнинг тараққий этиш даражаси ва ушбу ресурсларга эгалик қилишни истаган давлатларнинг рақобати бугунги кунда нафақат иқтисодий томондан, балки ижтимоий ва сиёсий юксалишнинг асосий омили бўлиб хизмат қилмоқда. Таълим борасида етакчи ҳисобланадиган давлатлар АҚШ, Европа ва Осиё мамлакатларидаги энг юқори рейтингга эга бўлган олий таълим муассасаларини қараб чиқадиган бўлсак, уларнинг барчаси ривожланган давлатлар ҳудудида жойлашган ва таъкидлаш лозимки, улар ўз мамлакатларининг дунё ҳамжамиятидаги ўрнини янада мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

Давр талаби бўлган замонавий глобаллашув шароитида олий таълим муассасаларида таълим тизимининг шаклланиши ва ривожланиши янги инновацион шароитларга ва иқтисодиёт талабларига мувофиқлигини таъминлашга барча таълим муассасалари амалда ҳаракат қилмоқдалар. Олий таълим муассасаларига таъсир этадиган омиллар: биринчидан, ташкилот ва корхоналар, давлат муассасалари томонидан битирувчи мутахассисларга бўлган талаб шаклланса, иккинчи томондан, абитуриентларнинг олий таълим муассасаларига кириши учун шарт-шароитлар шаклланади. Шунга кўра, ўз навбатида, таълим муассасалари касбий соҳада зарур таёргарликка эга битирувчиларни иш билан таъминлаш бўйича меҳнат бозорига ва истеъмолчиларга таъсир кўрсатади ва бунга боғлиқ равишда рақобатбардош мутахассисларга ҳам талаб доимо ўсиб боради. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш қуйидаги мақсадларга эришишни назарда тутади:

- олий таълим муассасаларида мутахассисларни тайёрлашда уларнинг сифати ва самарадорлигини ошириш;
- фан, таълим ва ишлаб чиқариш ўртасида алоқаларни мустаҳкамлаш;
- инновацион фаолиятни амалга ошириш билан боғлиқ бўлган инфратузилмани яратиш;
- олий маълумотли юқори малакали мутахассисларни тайёрлашнинг замонавий усулларини жорий этиш асосида инновацион ғояларни ишлаб чиқиш;
- олий таълимда фаолият юритаётган профессор - ўқитувчиларнинг ўз устида доимий ишлаши ва малакасини ошириб бориш;
- олий таълим муассасаларида инновацион фаолиятни молиялаштириш механизмини самарали ташкил этиш;
- инновациялардан фойдаланиш асосида таълим жараёнини узлуксиз такомиллаштириб бориш;
- талабаларни танлаган касбини чуқур эгаллаб, касбий масалаларни ечишга ижодий ёндашадиган ва масъулиятли қилиб тарбиялаш шулар жумласидандир.

Дарҳақиқат, шуни қайд этиш лозимки, мамлакамизда олий таълим ислоҳотлари давлат сиёсати даражасига кўтарилди, чунки олий таълим даражаси унинг бўлғуси ривожланишини белгилашини тушунамиз. Шу сиёсатга мувофиқ, талабаларнинг контингенти ва олий таълим муассасалари сонини кўпайтириш, билимлар сифати, олий таълимнинг янги функциялари, ахборот миқдорининг ўсиши, инновацияларининг кенг тарқалиши билан боғлиқ масалалар ҳал қилинди. Жамиятнинг ҳозирги ривожланиш даражаси таълим олувчиларда келажакни режалаштириш қобилияти, келажак учун жавобгарлик ҳисси, ўзига ва ўз касбий қобилиятларига ишончни шакллантиришга қодир бўлган янги таълим тизими – “инновацион таълим”ни талаб қилаяпти.

Олий таълим тизимининг инновацион салоҳиятини ошириш мақсадида, аввалambор, олий ўқув юртларига бўлган ижтимоий муносабатни ўзгартиришдан бошлаш керак, уларни

фақатгина ўқув маскани эмас, балки илмий ғояларни тўплаб янги маҳсулотлар, технологиялар ва номоддий активлар барпо этувчи муассасалар сифатида қабул қилиниши, республикада илм-фан ва олимларнинг обрўсини, уларнинг меҳнат натижаларини кенг оммага намоён этиш механизмларини яратиш лозим. Ўз ўрнида педагог-ходимлар талабаларга биргина билим бериш билан чекланиб қолмасдан, улар ичида энг иқтидорли ёшлар ҳаракатини долзарб илмий-техника муаммоларни ечишга жалб этишлари лозим. Ундан ташқари, олимларга, кашфиётчиларга, инновацион фаолият иштирокчиларига рағбатлантириш усулларини қайта кўриб чиқиш керак бўлади. Яратилган инновациялар, интеллектуал мулк объектларидан фойда олиш ва мулк муносабатларини олий таълим муассасалари ва яратган педагог-ходимлар ўртасида тақсимлаш масаласи ҳам қонунчиликда аниқ белгиланмаган. Илмий-тадқиқот фаолиятни молиялаштириш жараёнларида иштирок этаётган хусусий сектор субъектларига ҳам имтиёзлар тизими белгиланиши ушбу соҳага инвестицияларни жалб этишга замин яратади. Кенг кўламли ислоҳотлар заминида олий ўқув юртларини миллий ва худудий ривожланиш дастурларини ишлаб чиқишда кенг жалб этиш уларнинг инновацион салоҳиятини оширишдаги янги босқични белгилаб берган бўлар эди. Мамлакатимизнинг иқтисодий ривожининг юқори суръатларини сақлаб қолиш, миқдор кўрсаткичлар билан бир қаторда тараққиётнинг сифат кўрсаткичларига эришиш мақсадида турли жалб этилмаган омиллар ва захираларни излаб топиш ва жорий этишимиз, шу жумладан олий таълим тизимининг кенг имкониятлари ва инновацион салоҳиятидан самарали фойдаланиш, давр талаби бўлиб қолмоқда.

Шундай қилиб, бугунги кунда олий ўқув юртлари кўп босқичли инновацион фаолиятни амалга оширмоқдалар, ислоҳотларнинг ҳар бир босқичида таълим тизимига инновацион технологиялар жорий этилмоқда, ўқув ва таълим технологияларининг илмий асослари ишлаб чиқилган, педагогик инновацияларнинг катта тажрибаси ўрганилмоқда. Мамлакатимизнинг иқтисодий ривожининг юқори суръатларини сақлаб қолиш, миқдор кўрсаткичлар билан бир қаторда тараққиётнинг сифат кўрсаткичларига эришиш мақсадида турли жалб этилмаган омиллар ва захираларни излаб топиш ва жорий этишимиз, шу жумладан олий таълим тизимининг кенг имкониятлари ва инновацион салоҳиятидан самарали фойдаланиш, давр талаби бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Узбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Узбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутк. - http://uza.uz/oz/politics/erkin-va-farovon-demokratik-zbekiston-davlatini-mard-vaolizh-14-12-2016 (Электрон ресурс. 2020 йил 12 мартда мурожаат этилган).
2. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т.- “Ўзбекистон”, 2017.
3. Мирзиёев Ш. 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 28 декабр.
4. Мирзиёев Ш. 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 28 декабр.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш” концепцияси 2019 йил 8 октябрдаги ПФ5847-сон Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси фанлар академиясининг академиклари фаолиятини янада ривожлантириш ва рағбатлантириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПФ – 4907 сонли Фармони

8. Ўзбекистонда ижтимоий ривожланиш ва турмуш даражаси. Статистик туплам. Тошкент 2019 йил.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 февралдаги “Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада ривожлантириш тўғрисида”ги ПФ – 4958 сонли Фармони

10. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” Олий таълим меъёрий хужжатлари тўплами. 1-т. Т.: “Шарқ”, 2001.

11. “Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялашмамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шарти” мавзусидаги халқаро конференциянинг якуний хужжати-резолюцияси.// “Халқ сўзи” газетаси, 2012 йил 22 февраль.

СУВ ТЕЖАМКОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

Шохужаева Зебо Сафоевна
Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази катта илмий ходими, и.ф.н., профессор,
+998 90 721 60 71 shoxujaeva@mail.ru
Сейтимбетова Зибахон Абдиганиевна
Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази Илмий котиби, т.ф.ф.д PhD,
+998 94611 55 10

Аннотация: Мақолада сув тежовчи технологиялардан фойдаланишда инвестициялар самарадорлигини аниқлаш услубиёти ишлаб чиқилган. Ушбу услубиётга кўра биз томонимиздан киритилаётган ҳар 100 сўмлик инвестиция ҳисобига қўшимча таъмирлаш тиклаш ишлари амалга оширилиши мумкинлиги ва сув тежамкор технологияларни қўллаш майдонлари кенгайиш самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаш формулалари таклиф этилган.

Калит сўзлар: модернизация, диверсификация, хорижий инвестиция, тижорат банклари кредити, давлат-хусусий шерикчилиги, инвестициялар самарадорлиги, сув хўжалиги тизими, инвестициялар, инвестиция сиёсати

Annotation: The article developed a methodology for determining the effectiveness of investments in the use of water-saving technologies. According to this methodology, formulas are proposed to determine the performance indicators of the possibility of carrying out additional repair and restoration work for every 100 soums of our investments and expanding the scope of water-saving technologies.

Key words: modernization, diversification, foreign investment, credit from commercial banks, public-private partnership, investment efficiency, water management system, investments, investment policy

Кириш. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясига асосан кейинги йиллардаги давлат дастурида таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш, миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига унинг

рақобатбардошлигини ошириш йўналишида корхоналарнинг маблағлари, ЎзТТЖ, тижорат банклари кредити, хорижий инвестиция ва кредитлар ҳисобига 2017–2021 йилларда умумий қиймати 40 миллиард АҚШ доллари миқдоридаги 649 та инвестиция лойиҳасини назарда тутувчи тармоқ дастурлари амалга оширилди.

Жумладан, «2018 йилда 18та давлатлараро расмий ташрифлар амалга оширилди ва 52 миллиард долларлик 1минг 80та лойиҳа бўйича келишувларга эришилди. Жаҳон банки, Европа тикланиш ва тараққиёт банки, Ислом ва Осиё тараққиёт банклари, бошқа халқаро молия институтлари билан ҳамкорликдаги инвестициялар ҳажми 8,5 миллиард долларни ташкил этди.

Бугунги кунда юртимизда, чет эл инвестициялари ҳисобидан қиймати 23 миллиард долларлик 456 та лойиҳа амалга оширилмоқда».

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, қайси давлатда фаол инвестиция сиёсати амалга оширилар экан, бу ўз мамлакати иқтисодиётининг барқарор ўсишига замин яратилади.

Дарҳақиқат, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида 2023 йил учун мўлжалланган вазифаларининг *тўртинчи йўналишда* экология, айниқса, сув масалалари глобал муаммога айланиб бораётганлиги билан боғлиқ масалаларга алоҳида эътибор қаратди. Яъни Президентимиз ўз маърузасида: “Биз нафақат бугунги, балки келажак авлодларни ҳам ўйлашимиз шарт. Шу боис, Конституциямизда табиий ресурслар, жумладан, сув ҳавзалари ва ер ости захираларини муҳофаза қилиш бўйича талабларни кучайтиришимиз зарур. Биламизки, мамлакатимиз сўнгги 3 йилда қурғоқчиликни бошдан кечирди. Бунинг таъсири, айниқса, Амударёнинг қуйи ҳавзасидаги ҳудудларимизда яққол сезилди. Шу ўринда Амударё ўзанида янги канал қурилиши бўйича қўшни Афғонистоннинг муваққат ҳукумати ҳамда жаҳон ҳамжамияти билан бирга халқаро меъёрлар асосида ва минтақанинг барча давлатлари манфаатларини инобатга олиш юзасидан амалий мулоқотлар олиб бориш лозим, деб ҳисоблаймиз.

Шунингдек, сувнинг ҳисобини очиқ-ошкора юритиш тизими жорий этилади ва келгуси уч йилда 13 мингга яқин сув хўжалиги объекти рақамлаштирилади. Шу билан бирга, 16 та йирик насос станцияси давлат-хусусий шерикчилик асосида модернизация қилинади ва муқобил энергияга ўтказилади. Буларга қўшимча равишда сув солиғи бўйича тушумларнинг бир қисми туманларда суғориш хизматларини ривожлантириш, ариқ, зовур ва каналларни бетонлашга йўналтирилади”, каби бугунги кундаги ўта долзарб бўлган масалаларга алоҳида эътибор қаратди.

Маълумки, сўнгги 15 йил ичида ёғингарчилик 25 фоизга қисқарди. Ёзда ўта иссиқ кунларнинг давомийлиги ортгани деҳқонларимиз олдида катта синовлар борлигидан далолатдир. Лекин ҳозирги вақтда экин майдонларига сув етказиб беришда сезиларли йўқотишлар ҳали ҳам давом этмоқда. Шу боис, сув хўжалиги тизими ислоҳ қилиш ва соҳага инвестицияларни жалб қилиш зарурияти келтириб чиқармоқда.

Методлар. Мавзуни ёритишда таққослама таҳлил, мантиқий фикрлаш ҳамда сувтежамкор технологиялардан фойдаланишда инвестициялар самарадорлигини аниқлаш услубиёти ишлаб чиқилган.

Натижалар. Мамлакатимизда иқтисодиётни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилаш бўйича кенг кўламли ислоҳотларни амалга оширишда биринчи навбатда ички имкониятлардан самарали фойдаланишга ҳаракат қилинмоқда. Хусусан сув хўжалиги тизими корхоналарини реконструкциялаш, ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш каби инвестицион лойиҳаларни молиялаштиришда давлат бюджетининг ҳам аҳамияти юқори бўлмоқда. Лекин, иқтисодиётнинг етакчи тармоқларида таркибий ислоҳотларни чуқурлаштириш, вилоятларнинг сув хўжалиги тизимида инвестицион фаолиятини янада жонлантириш, инвестицияларни кенг жалб қилиш орқали улардан самарали фойдаланиш, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик қайта қуроллантириш, янги иш

ўринларини шакллантириш ва шу асосда қишлоқ хўжалиги иқтисодиётини барқарор ва жадал ривожлантиришни таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир.

Таъкидлаш керакки, инвестицияларни иқтисодиёт соҳалари бўйича мутаносиб жалб этишнинг комплекс дастури ишлаб чиқилиб, тармоқларни уч гуруҳга, яъни ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва ижтимоий соҳаларга ажратиб, инвестицияларни устувор даражада реал секторга йўналтириш, ундан кейин қолган соҳаларни ривожлантиришга ва хизмат кўрсатиш ҳамда ижтимоий соҳаларга ҳам жалб этиш мақсадга мувофиқдир.

Сув хўжалиги тизимининг ўзига хос бўлган жиҳатларидан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, тармоққа йўналтирилаётган инвестициялар ўз мазмуни ва моҳияти жиҳатидан биринчи ва иккинчи гуруҳ йўналишларига тўғри келади.

Мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ичида сув хўжалиги соҳаси ўзига хос мавқега эга. Шу сабабли тармоқда хизматлар таннархини камайтириш, меҳнат унумдорлигини ошириш, гидротехника иншоотларини доимий равишда янгилаб бориш, илмий-тадқиқот ишларини ривожлантириш орқали инновацион ишланмаларни жорий этиш ишларига алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

Маълумки, бугунги кунда сув хўжалигида бир қанча муаммолар учрайдики, уларни бартараф этиш учун ҳам тармоқда инвестицион фаолликни оширишни зарурият қилиб қўяди, жумладан:

– тизим корхоналарининг асосий фондлари ва зарурий технологик воситаларнинг маънан ва жисмонан эскирганлиги ва таъминланиш даражасининг пастлиги;

– амортизация фондидан фойдаланишнинг кескин қисқариши;

– сув хўжалигида фан ютуқларидан, жумладан янги технологиялардан фойдаланиш даражасининг жуда пастлиги ва бошқалар.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, сўнгги йилларда республикамизда табиий ва моддий ресурслардан оқилона фойдаланишнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш ва тармоқ ишлаб чиқаришини модернизациялаш учун зарур бўлган инвестицион фаолликни ошириш юзасидан қатор чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда. Чунки, сув хўжалиги инфратузилмасини тиклаш эҳтиёжлари учун инвестицион фаолликка зарурият туғилмоқда.

Фермер хўжаликлари фаолиятига инвестицияларни сарфлашдан мақсад–қўшимча даромад, фойда олиш ва уларнинг яшаш шароитини яхшилашдир. Инвестициялар самарадорлик даражасини лойиҳалар тузишда ҳамда бу лойиҳаларни амалга ошириш орқали аниқлаш мумкин бўлади. Бунинг учун инвестициялар (капитал қўйилмалар)нинг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари аниқланади. Иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари харажатлар билан фойда суммалари таққосланиши натижасида аниқланади. Қуйидаги 1-жадвалда инвестициялардан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари ҳамда муаллиф томонидан сув хўжалиги тизимига киритилаётган инвстицияларнинг самарадорлик кўрсаткичлари таклиф этилган.

Иқтисодиётда амалга оширилаётган ҳар қандай инвестициялар қандай қўшимча қиймат, иқтисодий самара келтиришидан қатъий назар, уларнинг барчаси ижтимоий манфаатлар учун хизмат қилади. Зеро, инвестицияларни амалга оширувчи ҳам, унинг натижасига манфаатини боғловчи ҳам инсон ҳисобланади. Шундай экан, мамлакатда амалга оширилаётган фаол инвестиция сиёсати, ўз навбатида, ижтимоий самара ва фаровонликни оширишга олиб келади. Шу сабабдан фаол инвестиция сиёсатини изчил давом эттириш Ўзбекистоннинг дунё миқёсидаги аҳоли фаровонлиги кўрсаткичи ва инсон тараққиёти индексининг ҳам яхшиланишида муҳим аҳамият касб этади.

Муҳокама. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сон 2017-2021 йилларда “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги, 2007 йил 29 октябрдаги ПФ-3932-сон “Ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари

тўғрисида”ги Фармони, 2013 йил 19 апрелдаги ПҚ-1958-сон “2013-2017 йиллар давомида суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини янада яхшилаш ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори ҳамда қарор ижросини таминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг “Томчилатиб суғориш тизимини ва сувни тежайдиган бошқа суғориш технологияларини жорий этиш ва молиялаштиришни самарали ташкил этиш чора-тадбирлари” тўғрисида 176-сон қарори сув ва ундан самарали фойдаланиш масаласи долзарблашиб бораётганлиги, мамлакатимиз шароитида сув муаммосини бартараф этишнинг замонавий, интенсив усулларини жорий этиш давр талаби эканлиги қайт этилиб, Қашқадарё вилояти давлат дастури доирасида кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.

Қашқадарё вилоятининг сув хўжалигини ривожлантиришнинг келгуси 10 йилга мўлжалланган концепцияси ишлаб чиқилди. 2021-2023 йилларда сув хўжалиги объектларида “SMATT WATET” (“Ақлли сув”) ва шу каби рақамли технологияларни 1 503 тага жорий қилиш режалаштирилди ва амалда қўлланиб келинмоқда. Бундан ташқари, йирик аҳамият касб этадиган сув хўжалиги объекти Яккабоғ туманидаги “Яккабоғ” гидроузелини автоматлаштириш ва рақамли бошқариш ишлари амалга оширила бошланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 февралда «Ўзбекистон Республикасида сув ресурсларини бошқариш ва ирригация секторини ривожлантиришнинг 2021-2023 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» ПҚ-5005-сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида республика ва вилоятларда республика ва маҳаллий бюджетдан ҳамда корхоналарнинг ўз маблағлари ҳисобига коллектор-дренаж тармоқларини таъмирлаш-тиклаш ишлари амалга оширилди (2-жадвал).

2.16-жадвал маълумотларидан кўринадики, Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалигидаги 3900 км мавжуд коллектор-дренаж тармоқларини таъмирлаш-тиклаш учун 1368,0 млн.сўм республика ва маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан амалга оширилган бўлса, 2532,0 млн.сўм маблағ қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари томонидан амалга оширилган.

Маълумки, сувни тежайдиган суғориш технологияларининг ускуналари ва бутловчи қисмлари асосан чет давлатлардан келтирилади. Айнан, импортни қисқартириш, ички талабни қондириш мақсадида маҳаллий ишлаб чиқарувчи корхоналар сонини оширишга ҳам эътибор берила бошланди ва 2021 йилнинг 1 июль ҳолати бўйича сувни тежайдиган суғориш технологияларининг ускуналари ва бутловчи қисмларини ишлаб чиқарувчи маҳаллий корхоналар сони 38 тага етди. 2021 йил якунига кўра яна ўнтадан ортиқ янги корхоналар ишга туширилди ва натижада 2021 йилда сув тежовчи технологиялар жорий қилинадиган 230 минг гектар майдоннинг 50 фоизини маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан маҳсулот билан таъминлаш имконияти яратилиб, маҳаллийлаштириш даражаси 70 фоизга етказилди. Натижада маҳсулотни бошқа давлатдан ташиш харажатларини тежаш ҳисобига таннархни 15–20 фоизгача пасайтириш ёки гектарига 5 млн. сўмга арзонлаштириш имкони туғилди.

Маълумки, 2022 йилнинг 6 ойи давомида республика бўйича суғориш ишларига жами 17 млрд. 837 млн. м3 сув етказиб берилди. Сув ресурсларини самарали бошқариш, сувни тежайдиган ва рақамли технологияларни жорий қилиш, ирригация тадбирларини амалга ошириш, ерларни лазерли текислаш, агротехник тадбирларни ўз вақтида ўтказиш ҳисобидан 5,0 млрд. $м^3$ сув тежалишига эришилди.

Хулоса. Хулоса қиладиган бўлсак, сув хўжалигида инвестиция маблағларидан фойдаланишда унинг барча тармоқларини бир-бирига боғлаган ҳолда уйғун ривожлантириш, ҳар хил йўналиш ва турдаги инвестиция сарфларининг иқтисодий самарасини ошириш кўзда тутилади.

Сув хўжалиги инвестицияга зарурати юқори бўлган соҳа ҳисобланиб, соҳани ривожланиши даражаси унга киритилаётган инвестицияга тўғри пропорционалдир, яъни: *биринчидан,* инвестициялар қишлоқ хўжалиги корхоналарида ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, улар унумдорлигини ошириш имконини беради; *иккинчидан,* инвестициялар –

қишлоқ жойлардаги меҳнат ресурслари бандлигини ва улар даромадларини ортишининг асоси ҳисобланади;

учинчидан, инвестициялар сув хўжалиги ташкилотларининг турли фондларини шакллантиради, гидротехника иншоотларининг фойдали иш коэффициентини оширишга ёрдам беради.

Олиб борилган илмий тадқиқотлар натижасида республикамизнинг қишлоқ хўжалиги соҳасида сув тежамкор технологияларни қўллаш ва улардан фойдаланишда инвестициялар самарадорлигини аниқлашнинг бир нечта усуллари ўрганилди ва биз томонимиздан киритилаётган ҳар 100 сўмлик инвестиция ҳисобига қўшимча таъмирлаш тиклаш ишлари амалга оширилиши мумкинлиги ва сув тежамкор технологияларни қўллаш майдонлари кенгайиш самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаш формулалари таклиф этилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. https://kun.uz/99444746.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022 й. https://president.uz/uz/lists/view/5774 3. А.Абдуғаниев, А.А.Абдуғаниев. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Дарслик. Т.: 2004 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маълумотлари
5. www.lex.uz
6. www.water.gov.uz
7. Z.S. Shokhujaeva, A.S. Eshev, N.O'. Murodova, F.S. Temirova. Changes, problems and solutions in the water system in the connections of innovative economy. AIP Conference Proceedings. 2023/3/15. Стр. 050031.
8. N.S. Xushmatov, Z.S. Shoxo'Jaeva. Suv resurslarining agrar tarmoqni barqaror rivojlantirish bilan o'zaro bog'liqligini baholash. Ж.: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. №3, стр.1121-1129.
9. Z.S. Shoxo'jaeva. Suv tejamkor texnologiyalardan foydalanishda xorijiy tajribalar va uni mamlakatimiz qishloq xo'jaligiga tatqiq etish natijalari. Ж.: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. №2, стр.803-810.
10. З.С. Шохўжаева, Ш.Я. Акбарова. Эффективность инвестиций в экономику Кашкадаринской области. 2020. Стр.203-208.

УЧАСТИЕ РОССИЙСКИХ УЧЕНЫХ В СТАНОВЛЕНИИ И РАЗВИТИИ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ.

Иноятова Диларам Маниглиевна,
кафедра «Новейшая история Узбекистана»
исторического факультета Национального
университета Узбекистана им. М. Улугбека,
доктор исторических наук, профессор
indima59@mail.ru +998901787159

Аннотация. Статья посвящена деятельности российских учёных, внесших неоценимый вклад в развитие востоковедения в центральноазиатском регионе. Ими было написано немало фундаментальных научных трудов, которые и столетие спустя не потеряли своей актуальности и научной ценности.

Ключевые слова: российские учёные, востоковедение, исламоведение, арабистика, библиотековедение.

Annotation. The article is devoted to the activities of outstanding Russian scientists who have made an invaluable contribution to the development of Oriental studies in the Central Asian region. They wrote many fundamental scientific works, which even a century later have not lost their relevance and scientific value.

Key words: Russian scientists, Oriental studies, Islamic studies, Arabic studies, library science.

С конца 60-х годов XIX в., с образованием «новой» части г. Ташкента были созданы условия для организации научных обществ в Ташкенте, где сосредотачивались и обрабатывались важнейшие открытия и результаты научных исследований Туркестана. Из Петербурга и Москвы стали прибывать многие известные русские ученые по общественным и естественным наукам. Особое место среди научных обществ Туркестана занимало Ташкентское общество востоковедения (1901-1913). Активными деятелями общества были В. В. Бартольд, Н. П. Остроумов, С. М. Граменицкий, Н. Г. Малицкий, И. И. Краузе и др. Многие активные члены общества были тесно связаны с Ташкентской офицерской школой восточных языков, в которой изучались персидский, сартовский, английский, афганский, китайский; велись курсы: мусульманского права, истории и военной статистики Средней Азии и сопредельных стран. Курсы преследовали, прежде всего, практическую цель – пополнение войска округа «офицерами-востоковедами», что было связано с политическими интересами царизма на Ближнем и Среднем Востоке. Неудивительно, что работы писались не только учеными, но и офицерами и чиновниками того времени. Видимо, вызваны они были как требованиями административного порядка, так и интересами самих авторов, которым пришлось иметь дело с местным населением в повседневной их служебной деятельности.

Большая роль в становлении востоковедения принадлежит всемирно известному российскому историку, востоковеду, академику Петербургской Академии наук В.В. Бартольду (1869–1930). Как отмечал академик Т. Н. Кары-Ниязов, «прекрасное знание восточных языков позволило В. В. Бартольду тщательно изучить огромное количество первоисточников по истории… всего так называемого “мусульманского Востока”». Кроме того, с самого начала и до конца его научная деятельность несла отпечаток европейской, прежде всего германской, научной школы. Ещё учась в Санкт-Петербургском университете, став учеником выдающегося археолога В. Р. Розена, Бартольд начал «проходить» эту школу. Фактически Бартольд заложил основу всей последующей работе по изучению древней и средневековой истории Туркестана. Благодаря его усилиям, Ташкент стал своеобразной опорной базой российской ориенталистики. Начиная уже с 1893 г. в течение ряда лет на страницах туркестанской печати публикуется множество его статей. Совместная работа В. В. Бартольда и местных краеведов привела к созданию в Туркестане первой научно-краеведческой организации востоковедческого историкоархеологического направления. Он стал одним из учредителей нового научного «Общества любителей естествознания, антропология и этнографии» (31 октября 1895 г.). Бартольд призывал к вовлечению в ряды научных обществ Туркестана представителей коренного населения края (Кронгардт, 1997, с. 53-54). Членами общества были: Мирза Абдулла Исамухамедов, Сейид Карим Сейид Азимбаев, Сейид Гани Сейид Азимбаев. В 1902 г. на годичном собрании Ташкентского общества востоковедов в составе его правления были включены Сейид Азим Сейид Азимбаев, Мирза Абдулла Иса Магометов, Мир Агзам Мир Аюпов, Максуд ходжа Ата Ходжаев (Исмаилова, 2018, с. 20). Представители коренных народов были учредителями и участниками и в других научных обществах. К примеру, учредителями Среднеазиатского общества значились Сейид Азимбай Мухаммадбоев, Ходжи Юнусов и Мирза Хаким-Датха (Исмаилова, 2018).

Одну из наиболее ярких страниц в истории исследования края, его населения вписал российский востоковед, языковед-тюрколог, этнограф, археолог, российский академик Василий Васильевич (Фридрих Вильгельм) Радлов. Он родился 5 января 1837 г. в Берлине, умер 12 мая 1918 г. в Петрограде**.** Труды В. В. Радлова получили признание в научных кругах и среди широкой общественности. Трудами же В. В. Радлова тюркология в целом – во всех её основных разделах – поднялась на новую ступень, приобрела новое качество. Как справедливо отмечает Л. Я. Штернберг, сорокалетие исследования В. В. Радлова позволили ему возвести «здание новой науки и создать целую систему тюркологии не только в России, но и в Западной Европе» (Кронгардт, 1997, с.33).

Среди известных учёных того времени нельзя не упомянуть востоковеда Петра Ивановича Лерха, одного из основателей всемирно известной узбекской археологии, руководителя первых раскопок в Самарканд и Афрасиаб. Он изучал пехлевийский, зендский и согдийский языки и дешифровал надписи на бухарских монетах, чеканенных в VII и VIII вв. Наряду с В. В. Григорьевым он был одним из первых археологов, изучавших древности Средней Азии. Во многом благодаря его трудам в конце прошлого века ЮНЕСКО торжественно отмечало 2500-летие Самарканда.

Ещё один известный востоковед А. Л. Кун, назначенный К.П. Кауфманом для этнографических и статистических исследований, побывав в 1875 г. в Кокандском ханстве, он опубликовал “Очерк Кокандское ханство”, где привел подробные сведения об оседлом и кочевом населении ханства. Кун сообщает: «В моих путешествиях по Средней Азии я видел много богато одаренных природою уголков, но все они не имеют сравнения с тем богатством природы, роскошью растительности, каковым является Кокандское ханство. Это отличительное свойство страны, давшее долине в древности название «Ферганы» в переводе означает - «Голубая долина», закрепило за нею известность во всей Средней Азии (Кун, 1876, с. 59). А. Л. Кун принимал участие в составлении 3 частей «Туркестанского альбома» (археологической, этнографической и промысловой).

В дальнейшем развитии востоковедения одно из самых активных участий принял А. Э. Шмидт - крупный ученый-востоковед, исламовед, арабист, напечатавши ряд ценных научных работ, в том числе по своей основной специальности: «Как слагалось житие Мухаммеда» (1922); «Идеал мусульманского правителя-наместника IX в. Послание Тахир ибн ал-Хуссейна к сыну своему Абдаллах ибн Тахиру» (1925); «Мухаммед Абду и его роль в истории прогрессивных течений современного ислама» (1926); «Шариат и право водопользования в Средней Азии» (1926); «Из истории суннитско-шиитских отношений» (1927); «Рукопись третьего тома всемирной истории Ибн-Мискавейха» (1935) и др. (Лунин, 1974, с. 380). В июле 1923 г. по поручению туркестанского руководства Шмидт участвовал в доставке из Уфы в Ташкент священный для мусульман - рукописный Коран Османа (Флыгин).

Таким образом, анализируя деятельности российских ученых, отметим, что ими было написано немало фундаментальных научных трудов, которые и столетие спустя не потеряли своей актуальности и научной ценности. Многие из их трудов явились дальнейшим толчком для привлечения внимания новых поколений исследователей к богатой истории и своеобразной культуре Туркестанского края.

Список использованной литературы.

1. Кронгардт Г.К. (1997) Немцы в Кыргызстане. 1880-1990 гг. – Бишкек: Илим.
2. Исмаилова Ж. Х. (2018). Наука и научные общества Ташкента в конце XIX – нач. XX в. // Россия и Узбекистан: исторический опыт модернизации в процессе взаимодействия и диалога цивилизации (Материалы международной научной конференции). – Ташкент: Paradigma.
3. Кун А. Л. (1876). Очерк Кокандского ханства // Известия Русск. геогр. о-ва, т. XII.

4. Лунин Б. В. (1974). Историография общественных наук в Узбекистане. Биобиблиографические очерки. – Ташкент.

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА БОЛАЛАРДА ТУҒМА ВА ИРСИЙ КАСАЛЛИКЛАРНИ БАРВАҚТ АНИҚЛАШ ВА УЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ТЎҒРИСИДА

Набиева Ш.Г.
Тиббиёт ва фармацевтика ходимларининг малаксини баҳолаш маркази Қашқадарё вилоят худудий бўлими бошлиғи

Аннотация. This article analyzes basic statistical data on prenatal medical examinations among pregnant women in Kashkadarya region aimed at prevention and early detection of congenital and hereditary diseases in the fetus and neonatal screening examinations among babies.

Ключевые слова: Скрининг матери и ребенка, фенилкетонурия, УТТ, врожденные дефекты

Annotation В статье проанализированы основные статистические данные по дородовым медицинским осмотрам беременных женщин Кашкадарьинской области с целью профилактики и раннего выявления врожденных и наследственных заболеваний у плода и неонатальным скрининговым обследованиям новорожденных.

Key words. Maternal and child screening, Phenylketonuria, UTT, birth defects

Долзарблиги. Мамлакатимизда аҳолининг репродуктив саломатлигини мустаҳкамлаш ҳамда оналик ва болаликни муҳофаза қилиш бўйича қатор мақсадли миллий дастурлар амалга ошириб келинмоқда. Болаларнинг ирсий ва туғма касалликлар билан туғилишининг олдини олиш мақсадида ташкил этилган республика ва ҳудудий скрининг марказлари, шунингдек, туғруққа ёрдам берувчи ва педиатрия муассасаларининг моддий-техник базаси мустаҳкамланмоқда. Туғма ва ирсий касалликларга чалинган болалар туғилишининг олдини олиш масалаларида кўпчилик аҳолининг эътиборидан четда қолаётганлиги, оила қуришда ҳисобга олинмаётган ва оқибатда оилага, жамиятга ҳам маънавий, ҳам моддий зиён етказаётган қариндошлик никоҳлари долзарб муаммолигича қолмоқда. Яқин қариндошлардан туғилган фарзандларда салбий сифатларнинг наслдан-наслга ўтиш хавфи икки, уч баробар ортиқ бўлади. Давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бири жисмонан, руҳан соғлом авлодни дунёга келтириш бўлиб, бунинг ижросини таъминлашда ҳар бир ота-оналар кўпроқ масъулдир. Ўзбекистон Республикасининг “Оила” кодексида яқин қариндошлар никоҳининг тақиқланиши кўрсатиб берилган, дарҳақиқат, оналар ва болалар соғлиғини ҳар томонлама мустаҳкамлаш, соғлом авлод туғилиши ва уни тарбиялаш учун зарур шарт-шароитларни шакллантириш, ҳомиладор аёллар ва чақалоқларда туғма нуқсонларни барвақт аниқлаш, давлат тизимини янада ривожлантириш, болаларда ногиронликни камайтириш ҳамда мустаҳкам оилани барпо этиш мақсадида, 1998йилда вилоят она ва бола скрининг маркази ташкил этилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 25декабрьда ПҚ3440-сонли “2018-2022 йиллар даврида болаларда туғма ва ирсий касалликларни барвақт аниқлаш” Давлат дастури тўғрисида, хамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 сентябр ПҚ-4440-сонли «Кам учрайдиган (орфан) ва бошқа ирсий-генетик касалликларга чалинган болаларга тиббий ва ижтимоий ёрдам кўрсатишни янада яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида» Қарорлари қабул қилинди. Мақсад оилада соғлом муҳитни яратиш орқали насл баркамоллигига эришишдир.

Ишнинг мақсади: Қашқадарё вилоятида хомиладор аёллар ўртасида пренатал (туғруқгача) тиббий текширувлар ҳомилада туғма ва ирсий касалликларни олдини олиш ҳамда

барвақт аниқлашга йўналтирилган текширувлари ва чақалоқлар ўртасида неонатал скрининг текширувлари бўйича асосий статистик маълумотларни таҳлил қилиш**.**

Текширув материаллари ва услублари: Қашқадарё вилоят Она ва бола скрининг марказининг 2018 йилдан 2022йилга қадар бўлган маълумотлари асосида вилоятда пренатал ва неонатал скрининг текширувларининг статистик усулда таҳлил қилиш.

Олдинги натижалар ва уларни таҳлили: Қашқадарё вилояти Она ва бола скрининг марказининг 2018 йилдан 2022йилга қадар бўлган маълумотларига кўра вилоятда перенатал ва неонатал скрининг текширувлари жарёнида аниқланган туғма нуқсонлар билан чақалоқлар сони қуйидагича:

Натижа: Қашқадарё вилояти Она ва бола скрининг марказининг мутахассислари томонидан 2018 йилдан 2022 йилга қадар жами 426 833 нафар хомиладор аёлларни 14–20 ҳафтасида ультратовуш текширувидан (УТТ) ва 25928 нафар хомиладор аёлларни қон зардобидан АФП/ХГ текширувлари ўтказилди. УТТдан 2018 йилдан 2022 йилга қадар жами 1377нафар туғма нуқсонли хомила аниқланди шулардан туғма нуқсонлар билан 1164 нафар, акушерлик патологияси билан 213 нафарни ташкил этган ва аниқланган 1377 нафар ривожланишида туғма нуқсонлари бўлган хомилани сунъий тўхтатилиб, хомиладорлик даврида ривожланишида туғма нуқсонлари бўлган бола туғилишининг олдини олиш имконини берди. Янги туғилган чақалоқларни 2018 йилдан 2022йилга қадар жами 170441 нафари туғма ва ирсий касалликлар юзасидан неонатал скрининг ва Фенилкетонурия текширувларидан ўтказилди. Туғма гипотиреоз касаллиги билан 2018 йилдан 2022йилга қадар жами янги туғилган чақалоқларни 49 нафари, Фенилкетонурия касаллиги билан янги туғилган чақалоқларни 23 нафари аниқланди, хамда уларни диспансер назоратига олинди. Шунингдек уларга , ривожланишнинг туғма нуқсонларини бартараф этиш юзасидан малакали тиббий ёрдам кўрсатилди. Вилоят бўйича фаолият кўрсатаётган перинатал маркази ва туғруққомплекслари томонидан 2018 йилдан 2022йилларга қадар 610 нафар чақалоқларни туғма нуқсон билан, шундан қариндошлик никоҳларидан 161нафар чақалоқларни туғма нусонлар билан туғилганлиги ҳақида хабарномалари вилоят она ва бола скрининг марказига юборилган.

Таҳлиллар натижасида: 2018 йилга нисбатан 2022 йилга келиб УТТдан ўтказилган хомиладор аёлларда 22 нафарга, яъни 5,8фоизга кам туғма нуқсонли хомила аниқланди ва бу ривожланишида туғма нуқсонлар бўлган бола туғилишининг олдини олиш имконини берди. 2018 йилга нисбатан 2022 йилга келиб туғма ва ирсий касалликлар юзасидан ўтказилган неонатал скрининг ва Фенилкетонурия касаллигига текширувларидан 28375 нафарга яъни 52,4 фоизга кўп янги туғилган чақалоқларда ўтказилди. Текширувлвр натижасида янги туғилган чақалоқларда туғма гипотиреоз касаллиги билан 2018 йилга нисбатан 2022 йилга келиб 3 нафарга ва 2021йилга нисбатан 2022йилга келиб 5 нафарга кўпайганлиги аниқланди ва Фенилкетонурия касаллиги билан 2 нафарга ва 2021йилга нисбатан 2022йилга келиб 1 нафарга камайганлиги аниқланди ва улар соғломлаштириш учун диспансер назоратига олинди. Вилоят бўйича фаолият кўрсатаётган перинатал маркази ва туғруққомплекслари томонидан

2018 йилдан 2022йилларга қадар 610 нафар чақалоқларни туғма нуқсон билан, шундан қариндошлик никоҳлари билан 161нафар чақалоқларни туғма нусонлар билан туғилганлиги ҳақида хабарномалар вилоят она ва бола скрининг марказига юборилганлиги аниқланди, бу эса 2018 йилга нисбатан 2022 йилга келиб жами туғма нуқсонлар билан туғилган чақалоқлар 1 нафарга +0,8фоизга кўпайганлиги ва қариндошлик никоҳларидан чақалоқларни туғма нусонлар билан туғилганлиги 9 нафарга+34,6фоизга кўпайганлиги аниқланди. Янги туғилган чақалоқларда аниқланган туғма нуқсонлар ва қариндошлик никоҳларидан аниқланган туғма нуқсонлар Қашқадарё вилоятининг барча шахар ва туманларида яъни Қарши ва Шахрисабз шахарларида, Китоб, Касби, Ғузор, Нишон, Чироқчи, Косон, Яккабоғ, Муборак , Шахрисабз, Қарши, Қамаши, Дехқонобод, Миришкор, Чироқчи туманларида аниқланган.

Туғма нуқсонлар билан аниқланган касалликлар структурасида: жами 2018 йилдан 2022 йилга қадар 1-ўринда танглай ва лабнинг тиртиқлиги нуқсони билан жами 142 нафарда, 23,2 фоизни; 2-ўринда редукцион нуқсонлар билан(қўл ва оёқ аномалиялари)- жами 96 нафар, 15,7 фоизни; 3-ўринда Даун касаллиги билан 63 нафарда, 10,3 фоизни; 4-ўринда бирқанча туғма нуқсонлар билан 44 нафарда 7,2 фоизни 5- ўринда Спинабифида билан 42 нафарда 6,8 фоизни; 6-ўринда туғма юрак нуқсони билан 22нафарда 3,6 фоизни; 7-ўринда микротия билан 21нафарда 3,4 фоизни, 8-ўринда полидактилия билан 17 нафарда 2,7 фоизни; 9- ўринда гипоспадия билан 9 нафарда 1,5 фоизни; 10-ўринда анус атрезияси 8 нафарда 1,3 фоизни ва 11-ўринда гидроцефалия 6 нафарда 0,9 фоизни; 12-ўринда гастрошизис билан 5 нафарда ва анэнцефалия билан 5 нафарида 0,8 фоизни; 13- ўринда қизилўнгач атрезияси билан 4 нафарда 0,6 фоизни; 14- ўринда киндик чурраси билан 3 нафарда ва диафрагмал грижаси билан 3 нафарида 0,5 фоизни; ва бошқа нуқсонлар билан 120 нафарда 19,6 фоизни, ташкил этди.

Шундан қариндошлик никоҳларидан туғма нуқсонлар билан туғилганларни касалликлар структурасида: 1-ўринда Лабнинг тиртиқлиги ва танглайни тиртиқлиги билан 32-нафарда 19,8 фоизни, 2- ўринда Редукцион нуқсонлар билан(қўл ва оёқ аномалиялари) жами 20-нафарда 12,4 фоизни; 3-ўринда Даун касаллиги билан 15 нафарда 9,3 фоизни; 4-ўринда бирқанча туғма нуқсонлар билан 10 нафарда 6,2 фоизни; 5- ўринда Спинабифида билан 7-нафарда 4,3 фоизни; 6-ўринда Микротия билан 5 нафарда 3,1 фоизни; 7-ўринда Гипоспадия 4 нафарда, Гидроцефалия 4 нафарда ва Қизилўнгач атрезияси билан 4-нафарда 2,5 фоизни; 8-ўринда туғма юрак нуқсони 2-нафарда, Гастрошизис 2 нафарда, Анус атрезияси 2-нафарда ва Киндик чурраси билан 2 нафарда 1,2 фоизни; 9-ўринда Анэнцефалия 1 нафарда ва Энцефалоцелли билан 1-нафарда 0,6 фоизни; ҳамда бошқа нуқсонлар билан 50 нафарда 31,0 фоизни, ташкил этди.

Хулоса: Қашқадарё вилоятида оилада соғлом муҳитни яратиш орқали насл баркамоллигига эришиш учун, ҳомиладор аёллар ва чақалоқларда туғма нуқсонлар билан, шунингдек қариндошлик никоҳларидан аниқланадиган туғма нуқсонларни барвақт аниқлаш хамда уларни олдини олиш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга тадбиқ этиш лозим:

Қариндошлик никоҳларини олдини олиш;

Пренатал диагностика самарасини ошириш ҳамда ҳаётга ҳавф солувчи ва саломатликка зид бўлган туғма нуқсонли болалар туғилишини олдини олиш мақсадида ҳомиладор аёллар қуйидаги тартибда тиббий текширувлардан ўтказилади.

Биринчи даражада - барча ҳомиладор аёллар оммавий ультратовуш текширувдан ўтказилиб, ҳомила ривожланишида нуқсон аниқланган аёллар ҳавф гуруҳига киритилади.Ушбу даражадаги тадбирлар марказий кўп тармоқли туман ва шаҳар поликлиникаларининг пренатал ташхис хонаси ультратовуш шифокори томонидан амалга оширилади.

Биринчи даражадаги текширувлар уч босқичли мажбурий оммавий пренатал ультратовуш диагностикасини ўз ичига олади:

Биринчи босқич ҳомиладорликнинг 10–14 ҳафтасида, ҳомиланинг туғма нуқсонлар аниқланади;

Иккинчи босқичга қуйидаги ҳомиладор аёллар юборилади:

-анамнезида туғма ривожланиш нуқсонлари, хромосом ёки ирсий касалликлар билан туғилган болалар мавжудлиги;

-аёлнинг ёши 18 дан кичик ва 35 дан катта бўлганда;

- оилада хромосом аномалия ёки ген мутацияси мавжудлиги аниқланганда аниқланган хавф гурухга мансуб хомиладорларни вилоят Она ва бола скрининг марказига хомиладорликнинг 16-20хафталигида юбориш хамда ультратовуш текширувлари ўтказилиб, хомилада ривожланиш туғма нуқсонларини ва хромосом касалликларнинг эхографик белгилари аниқлаш мақсадида амалга оширилади;

Учинчи босқич ҳомиладорликнинг28–32 ҳафтасида, ультратовуш текширувлари кеч намоён бўладиган ривожланишнинг туғма нуқсонларини аниқлаш ва ҳомиланинг функционал ҳолатини баҳолаш учун ўтказилади.

Ҳавф гуруҳига мансуб ҳомиладор аёллардан **ҳ**омиладорликнинг 10-13 ҳафтасида ҳомиладорлик билан боғлиқ плазма оқсили-А (ҲББПО-А) ва одам хорионик гонадотропиннинг эркин бета суббирлиги (ОХГ эр.бета) ҳамда16 – 20 ҳафтасида альфа фетопротеин/одам хорионик гонадотропин (АФП/ОХГ), боғланмаган эстриол (БЭ) миқдорини аниқлаш учун қон олинади.

Иккинчи даражада – пренатал текширувлар натижасида аёлнинг ҳомиласида ривожланишнинг туғма нуқсонлари ва ёки хромосом синдромлар аниқланганда тиббийгенетик кўрсатмаларга мувофиқ ҳомиладорликни тўхтатиш бўйича хулоса бериш. Бу текширувлар республика ва ҳудудий скрининг марказларида ўтказилади. Скрининг марказларда ҳомиладор аёллар биринчи даражаги тиббиёт муассасалари йўлланмаси билан текширилади.

2.Туғма ва ирсий касалликларнинг бирламчи профилактикаси бўйича туғма ва ирсий касалликларнинг олдини олиш мақсадида, “Қариндошлик никоҳларини, туғма ва ирсий касалликларнинг олдини олиш”, “Соғлом оилани шакллантириш” мавзуларига доир тарғибот ишларини мақсадли гуруҳларда, касб-хунар мактаблари, техникумлари хамда Олий ўқув юртларида талабалар ва уларни ота-оналари, махалла аҳолиси иштирокида давра сухбатларини ўтказиш;

3.Оммавий-ахборот воситалари орқали тиббиёт ходимлари ва ҳамкор ташкилотлари билан аҳоли орасида туғма ва ирсий касалликларга чалинган болалар туғилишининг олдини олиш, қариндошлар ўртасидаги никоҳларнинг олдини олиш зарурлиги тўғрисида кенг тушунтириш ишларини олиб бориш;

4. Қашқадарё вилоятида туғма ва ирсий касалликларни эрта аниқлаш мақсадида фаолият олиб бораётган Скрининг марказида генетик лабораторияни ташкил этиш мақсадга мувофиқ бўлади.

ҚАРШИ ВОҲАСИ АРАБЛАРИНИНГ ГЎДАК ТУҒИЛИШИ ВА ТАРБИЯСИ БИЛАН БОҒЛИҚ РАСМ РУСУМЛАРИ

Очилова Холида
Қарши Абу Али ибн Сино
техникуми ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада Қарши воҳаси арабларининг гўдак туғилиши ва тарбияси билан боғлиқ расм- русумлари тарих -этнография маълумотлари асосида ёритилган.

Калит сўзлар: Қашқадарё, Жейнов, Қамаши, Косон, Пўлати, Раҳимсўфи, Қарши Арабхона, маҳаллари, араблар.

Abstract: In this article, on the basis of historical and ethnographic materials, rituals related to the birth and upbringing of a child of the Arabs of the Karshi oasis are highlighted.

Keywords: Kashkadarya, Genov, Mirishkor, Kasan, Pulati, Rahimsyfi, Karshi, mahalla Arabhana.

XXI аср бошларида Қашқадарё воҳаси Қарши воҳаси маҳаллий араблари ижтимоий иқтисодий, сиёсий, маданий ва маърифий ҳолатларининг ривожланишига катта эътибор берилмоқда. Мучал ёши, бешик тўйи, биринчи қадам тўйи, суннат тўйи, никоҳ тўйи каби анъанавий маросимларни ўрганиш муҳим саналади.

Мучал ёш тўйи – бу ҳам оилавий муносабатлар билан боғлиқ бўлган удум бўлиб, фарзанднинг кўпинча 1, 12, 24 ва кейинги мучал ёшларини тантана сифатида нишонлашдир. Бунда фарзандга янги либослар тикиб кийдирганлар, уларнинг тенгқурлари таклиф этилиб, ўйин-кулги ўтказилган.

Қўшни меҳмонлар, яқин қариндошлар тўй эгасига, болага ҳам кийим кечаклар, сарполар қилиб келган. Тўй эгаси ҳам уларга сарпо бериб кузатган. Кейинги йилларда эса бу каби маросимлар чегара билмай кундан-кунга оммалашиб, кенгайиб бормоқда. Бешик тўйларда қилинадиган бош-оёқ сарпонинг (чақалоққа ва унинг ота-онасига) бутун оғирлиги келин томонга тушмоқда. Тўйда сарфланадиган барча харажатлар: озиқовқатдан тортиб дастурхондаги барча нозу неъматларгача уларнинг зиммасида бўлади. Ахборотчиларнинг маълумотларига кўра, ўзига тўқ келин томон тайёрлаб келган сарпо, кийим-кечаклар ёш оиланинг кийим-кечакка бўлган бир неча йиллик эҳтиёжини қондиради.

Ҳозирги кунгача давом этаётган кўп фарзандли бўлишга йўналтирилганлиги, араблар ҳаётида болаларнинг ҳаётида катта аҳамиятга эга эканлигидан далолат беради. Бола туғилган пайтдан бошлаб чақалоқнинг соғлиғини сақлаш ва уни турли хавфхатарлардан ҳимоя қилишга қаратилган муайян маросим Тожикистон арабларида ҳам муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Этнографик сўровнома таҳлили шуни кўрсатдики, 40 фоиз респондент янгича тўйларни ўзгариш ижобий эканлигини эътироф этишади. Арабларда тўй маросимларида ўзига хос этномаданий ўзгаришлар юз бермоқда. Исломий анъаналарга хос хусусиятлардан бири янги туғилган боланинг ўнг қулоғига 11 марта азон, чап қулоғига 12 марта такбирни айтиб, ундан кейин чақалоққа исм қўйиш одатидир. Чунки азон эшитган бола мусулмон фарзанд бўлиб вояга етади.

Бешик тўйи маросими боланинг 6 ой ёки 1 ёшга тўлгунича ўтказилади. Бешик билан барча бешик анжоми ва совғалар олиб келинади. Нозу неъмат, қўй-қўчқорлар ва сарполар қилинади. Кўп ерларда бешикни бобоси олиб келиб куёвнинг ўнг елкасига қўяди. Айтимлар айтиб боланинг соғлигига тиловат қилишади. Респондентларга «Арабларда бола туғилиши билан боғлиқ маросимларда қандай ўзгаришлар юз берди?» деб берилган саволга уларнинг 12 фоизи «янгича анъаналар кириб келди», 20 фоизи «ўзгаришлар юз бермади», 68 фоизи «миллий анъаналаримиз ўзбекча анъаналар билан уйғунлашди» деб жавоб қайтардилар.

Воҳадаги арабларнинг катта қисми ўзбеклашиб, бола туғилиши ва тарбиясидаги анъанавий маросимларда унчалик катта фарқ кузатилмайди. Бу арабларнинг маҳаллий халқлар билан уйғунлашиб кетганлигидан далолат беради.

Воҳада яшаб келаётган араблар чилла маросимини бир неча асрлардан бери анъанавий маросим сифатида ўтказиб келишган. Чилла маросимида чақалоқ туғилган уйга маълум вақт бегоналар киритилмайди. Шунингдек, жўги (лўли) кириб келса, шу уйдан уларга ҳеч нарса берилмайди. Агар лўлига нимадир бериладиган бўлса, болага чилла тушади, деб ҳисоблашади. Аммо айрим арабларда яна бир одат бор, у ҳам бўлса, бола дунёга келгандан сўнг фарзанд кўрмаган аёлнинг олдига йўргаклаб беришган. Бу билан фарзанд кўрмаган аёл келажакда фарзанд кўришини тилашган. Бироқ, айрим халқ ва ҳудудларда, аксинча, фарзанд кўрмаган аёлларнинг чақалоқ бор жойга кириши тақиқланган.

Воҳа арабларининг аксариятида чақалоқ туғилган уйда 3–4 кунгача мол сўйилмайди. Ахборотчиларнинг таъкидлашича, хом гўшт оилага олиб кирилса, мол сўйилса, чақалоққа чилла тушади. Бу маросим баъзи оилаларда ҳозирги кунгача сақланиб қолган .

Оила ҳаётига дахлдор бирорта тадбир ёки маросим аёллар жамоасининг бошлиғисиз (кайвонисиз) ўтмаган. У аёл доимо тўп (маҳалла) оқсоқоли билан маслаҳатлашиб иш тутган. Бола ҳаётидаги барча маросимлар: чилла, бешик тўйи, ақиқа, оёқ тўйи ва бошқа тадбирларни у аёлларнинг рўзғор юмушларидан бўш вақтига қараб, оқсоқол билан ўзаро келишиб белгиланган. Агар маълум сабабга кўра, уруғ ёки жамоа кайвониси тадбирда иштирок эта олмаса, жамоани қушноч, доя аёллар, биби халфа, хўжаларда отинойи ёки бувотин бошқарган.

Айрим қишлоқларда аёлларнинг каттароқ йиғинларида кайвони ва дастурхончи аёлларга ёш қизлар орасидан ёрдамчилар ҳам тайинланган. Чақалоқнинг киндиги тушгандан сўнг бешикка боғлайдилар. Бунинг учун бир-икки нафар момоларни иштирок этишга чақириб, бешикнинг ичига ризқи бутун бўлсин, деб кулча қўйилади. Инсу жинслар озор бермасин, деб пичоқ, исириқ қўйилади. Воҳа арабларининг ёш фарзанд билан боғлиқ расм-русумларига «бешик тўйи», «суннат тўйи», «мучал тўйи» каби ўзига хос маросимларни киритиш мумкин.

Воҳа арабларининг гўдак туғилиши билан боғлиқ маросимларидан яна бири – **«Биби Мушкул»** ошидир. Бу маросимнинг бошқа маросимлардан фарқли жиҳати ахборотчиларнинг таъкидлашича, бу каби маросимларнинг ўтказилишидан асосий мақсад болани зиён-заҳматсиз улғайтиришдир. Биби мушкул маросими ўзбек, тожик ва бошқа халқлар турмуш тарзида ўз аксини топган.

Элшунос олим Ш. Искандаровнинг ёзишича, Бухоро вилояти Вобкент туманидаги Арабхона қишлоғи арабларида бола туғилса, қариндош аёллар тўпланиб чақалоққа исм қўйишади. Чунки ахборотчиларнинг таъкидлашларига кўра, араб қавмида исм қўйиш аёллар иши, унга эркаклар аралашмайди. Бу уларда этник ўзига хосликни сақлаб қолиш омили бўлса керак, шу сабабдан ҳам этномаданий идентиклик анъаналари сақланиб қолган. Арабон маҳалла гуруҳлари бошида араб оқсоқоллари туради. Улар маҳалладаги тўй, суннат тўйи ва таъзия маросимларини ўтказиш, сарф-харажатларни белгилаш, тарбия масалалари билан шуғулланади.

Суннат тўйи – бу маросим ислом кириб келгандан сўнг Ўзбекистон ҳудудида ҳам кенг тарқалган. Аслида бу маросим нафақат мусулмонларда балки яҳудийларда ҳам кенг тарқалган. Суннат маросими мусулмон мамлакатларнинг асосий маросимларидан биридир. Суннат тўйи ўғил болаларга, соч тўйи, асосан, қиз болаларга қилинган. Соч тўйида қиз болаларнинг сочига қайчи урилиб, сочининг 3–4 бўлаги қайчи билан кесилади. Суннат тўйини ўтказишдан мақсад ислом дини пайғамбари Муҳаммад с.а.в. суннатини бажаришдир.

Ўзбеклар каби араб болаларнинг ҳам тоқ ёшида суннат тўйи қилинади. Ахборотчиларнинг таъкидлашича, суннат қилишда тоқ ёшда қилиш деган шарт йўқ. Бироқ, айрим ахборотчилар бола 9 ёшга киргунича шу маросимни ўтказиш шарт деб таъкидлайди.

Миришкор туманидаги Жейнов қишлоғида суннат қилинган бола бошидаги – ёстиқ тагига «туз ва пичоқ» қўйилган. Эшикка бирор нишона – гулли, оқ ёки яшил баргли рўмолча илиб қўйилган. Бу араблар тасаввурида суннатли бола билан тулпор тил топишади, бир-бирига мадад беради, деган маънони англатган.

Арабларда суннат тўйи маросимини ўтказишда ўзига хос хусусиятлардан бири фарзанд ўғил бўлса, кейинги ўғил фарзанд дунёга келгунига қадар кутиб турилган. Суннат тўйи маросимининг ўзига хос яна бир жиҳати – уста томонидан боланинг суннат қилинишига унинг вояга етганлигини билдирувчи омил деб қарашган. Аслини олганда, суннат маросимини ўтказишнинг моҳияти шундан иборатки, янги туғилган ўғил болани ҳалол қилиб олиш ҳисобланади. Бунда ўзбекларга ўхшаш бир ҳолатни кўриш мумкин. Яъни болани суннат қилган устага оила аъзолари совға-саломлар беришади: пул, нон, гўшт ва бошқа нарсалар.

Баъзи ҳудудларда суннат (чукран) қилиб олинган аъзосидан кесиб олинган тери отиб юборилган ёки дарё сувига ташланган. Бу бола келажакда яхши инсон, сердавлат, оиласи баракали бўлсин, деган мақсадда қилинган. Суннат чукрани мевали дарахт тагига кўмиб ёки чўпга илиб қўйилади. Жуда кўп жойларда 4 кундан сўнг мевали дарахтнинг остига, яъни узум, хурмо каби мевали дарахтнинг тагига кўмишади. Бу бола яхши бўлсин, серфарзанд бўлиши унга мусулмончилик қутлуқ бўлсин, деган маънода қилинади. Суннат қиладиган пайтда уста бир сўзга, яъни «хуйида-хуйида» сўзига урғу беради. Сўнг боланинг оғзига бир дона нон тишлатилади. Бунинг сабаби бола чупрон қилинаётганлигини кўрмаслиги лозим деб ҳисоблашган.

Қашқадарё араблари ҳам бола тарбиясига катта эътибор қаратишган. Араб ёшлари бошқа халқ ёшлари сингари ижтимоий соҳада таълим-тарбия муассасалари ва меҳнат жамоаларида муҳим ўрин тутади.

Воҳадаги арабларининг фарзанд тарбиясидаги ўрни ва мавқеи бугунги кунда қайси даражада эканлигини аниқлаш мақсадида этносоциологик сўровнома ўтказилди. Сўровнома Қашқадарё вилояти Миришкор туманига қарашли Жейнов қишлоғида олиб борилди. Изланишлар жараёнида респондентларга «Сизнингча, фарзанд тарбияси оиланинг моддий ва ижтимоий аҳволига боғлиқми?» деб савол берилди. Уларнинг фикрича, фарзанд тарбиясига оиланинг моддий аҳволи таъсир этиши мумкин. Бироқ, фарзандни тарбия қилиш моддий аҳволга боғлиқ эмас, деб ҳисобловчилар ҳам бор. Демак, уларнинг 16 фоизи «йўқ» ва 77 фоизи бола тарбиясида моддий аҳвол бирламчи деб ҳисоблайди, 7 фоизи эса аниқ фикрга эга эмас. Респондентларнинг 77 фоизи бола тарбиясида моддий аҳвол бирламчи эканлигини эътироф этади. Бу ҳам бугунги кундаги замонавий трансформация жараёнлари ҳосиласидир.

Респондентлардан «Агар сизнинг фарзандларингиз арабча урф-одатларга амал қилмаса, бунга қандай қарайсиз?» деб берилган саволга респондентларимизнинг 20 фоизи «ижобий», 28 фоизи «салбий», 22 фоизи «бефарқман», 30 фоизи «жавоб беришга қийналаман», деб жавоб беришди. Умуман олганда араблар турмуш тарзида фарзанд тарбиясига бугунги кундан катта эътибор қаратишади. Воҳа арабларининг маълум маънода ўз миллий урф-одат ва анъанавий маросимларга катта эътибор қаратиши ҳам бежиз эмас. Ўзбекистонда олиб борилган дала тадқиқотлари натижасида араблар томонидан тавсифий кўринишда бўлса-да, кўпгина маълумотлар ёзиб олинди.

Қарши воҳаси араблари бир ёшдаги ўғил болаларни маҳалла ва уруғлар жамланиб суннат қилишган, араб қизлари улғайгандан сўнг шу ерда махсус вакил унинг кўйлагини йиртиб ва шундан сўнг бегона кўздан асранмоғи лозим эканлини таъкидлашади.

Хуллас Қарши воҳаси арабларининг фарзанд туғилиши ва тарбияси расм- русумлари мавжуд бўлиб, ҳозирда баъзилари унутилмоқда. Мазкур расм- русумларни тиклаш ва ҳалқимизга етказиш этнология фанининг устувор муаммоларидан бири саналади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Бу ҳақда батафсил қаранг; Кармишева Б.Х. Средний Азиатские Арабы.- Народы Средний Азиий Казахстана Ч,2 1963; 554-558 б.
2. Янес М.А. Материалъ музейнъх, библиотечнъх и архивнъх собраний СанктПетурбурга как источник по истории и этнографии арабов бассейна Кашкадарьи (Узбекистан) Автореферат.,2010-23с;
3. Ш. Искандаров. Марказий Осиё арабларининг бола туғилиши билан боғлиқ маросимлари. – Буюк мутафаккир Абу Райҳон Беруний илмий – маданий меросининг аҳамияти ва фан тараққиётидаги ўрни. – Т.: ТТА, 2022; Б 251-261
4. Мадамиджанова, З.М. Арабы Южного Таджикистана. Автореферат М., 1994.
5. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Қашқадарё вилояти Миришкор тумани Жейнов қишлоғи, 2021 йил.
6. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Косон шаҳри Арабхона маҳалласи, 2021 йил; Бўриев О. ва бошқ. Ўзбек маҳалласи. – Т.: “Тафаккур”, 2016. – Б. 89.
7. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Касби тумани Қамаши қишлоғи, 2021 йил.
8. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Миришкор тумани Жейнов қишлоғи 2022 йил.
9. Ражабов Р. Ўзбекистон араблари // Мозийдан садо. – Т., 2004. – № 2 (22). – Б. 39.
10. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Косон тумани Пўлати қишлоғи, 2021йил.
11. Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблари тарихи ва этнографияси... – Б. 304.
12. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Қарши шаҳри Арабхона маҳалласи, 2021 йил.
13. Дала ёзувлари. Қашқадарё вилояти Касби тумани Қамаши қишлоғи, 2022 йил.

ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШДА МЕҲНАТ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Анварова Л.Ш.
Қарши ДУ докторанти

Аннотация. Мақолада муаллиф меҳнат самарадорлигини иқтисодий тараққиётни таъминлайдиган асосий омиллардан бири сифатида изоҳлайди. Меҳнат самарадорлиги даражасини ва уни ошириш усулларини аниқлаш учун "ҳақиқий меҳнат самарадорлиги", "мавжуд меҳнат самарадорлиги", "потенциал меҳнат самарадорлиги"тушунчаларининг мазмунига мурожаат қилиш кераклиги кўрсатилган. Ҳақиқий меҳнат унумдорлиги ва мавжуд маҳсулдорлик кўрсаткичлари ўртасидаги тафовутнинг қисқариши бир қатор омилларга боғлиқлиги таъкидланган.

Калит сўзлар: меҳнат самарадорлиги, ҳақиқий меҳнат самарадорлиги, мавжуд меҳнат самарадорлиги, потенциал меҳнат самарадорлиги, ислоҳотларнинг меҳнат самарадорлигига таъсири, меҳнат самарадорлигини пасайтирувчи омиллар, меҳнат самарадорлигини ошириш имкониятлари.

Annotation. In the article, the author will explain the truda effect as one of the main factors linking economic development. To determine the prevalence of truda production and its path, it is indicated what is necessary to maintain "real returns", "existing trude projection","potential trude projection". It is excluded that the contractility of differences between actual performance and existing performance indicators depends on factors.

Keywords: labor efficiency, actual labor efficiency, existing labor efficiency, potential labor efficiency, impact of reforms on labor efficiency, factors reducing labor efficiency, opportunities to increase labor efficiency.

Маълумки, ҳар қандай услуб маълум назария асосида яратилади ва тадқиқотнинг зарурий шарти сифатида намоён бўлади. Ҳар бир услубнинг самарадорлиги унинг чуқур мазмун ва моҳиятга эгалиги, назариянинг фундаменталлиги билан асосланади. Ўз навбатида, метод мазмуни кенгайиб боради, яъни билимнинг чуқурлашиши ва кенгайиши, тажрибага татбиқ этилиши билан методнинг кўлами ҳам ўзгаради. Бозор муносабатлари шароитида маҳсулот ривожланиш ва сифати ва самарадорлигини яхшилашнинг мулкий плюрализм муҳим қонуниятларидан бири рақобатли муҳитни яратиш, кишиларда хўжайинлик ҳиссини шакллантириш, меҳнат маҳсулига эгалик қилиш, шахсий манфаатдорлик ва уни давлат манфаатлари билан боғлаш муҳим тамойил сифатида жорий этила бошланди. Меҳнатни ташкил этиш жараёнида кишиларнинг касбий ма\орати, билими, тажрибаси, кўникма ва малакаси, меҳнат маданияти, меҳнатни ташкил этишга ижодий ёндашиш кишиларнинг меҳнат ва мулкка бўлган муносабатини кўрсатувчи мезонга айланди[1].

Иқтисодчи олимлар меҳнат самарадорлиги даражаси, уни ошириш йўллари тўғрисида фикр юритаётганда, “амалдаги меҳнат самарадорлиги”, “нақд меҳнат самарадорлиги”, “потенциал меҳнат самарадорлиги” ту-шунчаларини қўллайдилар. Бу бежиз эмас. Чунки, масалан, “амалдаги меҳнат самарадорлиги” тушунчаси корхона ёки тармоқдаги (умумжамият миқёсида ҳам) меҳнатнинг унумини ифодалаш имконини беради. Мавзуга бағишланган манбаларда амалдаги меҳнат самарадорлигини қуйидаги формула асосида аниқлаш таклиф этилади: Мс= Мҳ/Мх, бунда: Мс – меҳнат самарадорлиги; Мҳ – маҳсулот ҳажми; Мх – меҳнат харажатлари[2].

Лекин асл мақсад муайян вақт бирлиги давомида ишлаб чиқарилган маҳсулот миқдорини шунчаки ҳисоблаб чиқишдан иборат эмас. Меҳнат уну-мини ўлчашдан мурод уни юксалтириш йўлларини, реализация қилинмаган имкониятларни топиш билан боғлиқ.

Бунинг учун эса иш вақтидан ва меҳнат ресурсларидан унумсиз фойдаланиш ҳолларига чек қўйилса, мавжуд шарт-шароитларда қанча маҳсулот ишлаб чиқариш мумкинлигини аввалдан ҳи-соблаб чиқиш керак бўлади. Айнан ана шу ҳисоб-китоб натижаси “нақд меҳнат самарадорлиги” тушунчаси ёрдамида ифодаланади. Бошқача айтганда, нақд меҳнат самарадорлиги – барча имкониятлар ишга солинганда мавжуд шароитларда ишлаб чиқариш мумкин бўлган маҳсулот ҳажмини кўрсатувчи бирликдир. Инглиз кибернетики, иқтисодий кибернетика асосчиларидан би-ри Энтони Стаффорд Бир ўзининг “Кибернетика ва менежмент” номли аса-рида нақд меҳнат самарадорлигини қуйидаги формула асосида аниқлаш мум-кинлигини эътироф этади: НМс=Ммак/МХмин, бунда НМс – нақд меҳнат самарадорлиги; Ммак — мавжуд шарт-шароитлар-да ишлаб чиқарилиши мумкин бўлган маҳсулотнинг максимал ҳажми; МХмин – мавжуд шароитларда зарур бўлган меҳнат харажатларининг мини-мал миқдори[3].

“Потенциал меҳнат самарадорлиги” тушунчасига келадиган бўлсак, у иқтисодий кибернетикада ижтимоий тараққиётнинг бугунги даврида мавжуд шарт-шароитларга таянган ҳолда назарий жиҳатдан қанча маҳсулот ишлаб чиқариш мумкинлигини ифодалашда қўлланилади. Потенциал меҳнат сама-радорлиги кўрсаткичи меҳнат унумини қай ҳажмда оширишдан умид қилиш мумкинлигини аниқлаб беради.

Илмий манбаларда амалдаги меҳнат самарадорлиги кўрсаткичи билан нақд меҳнат самарадорлиги кўрсаткичи ўртасидаги тафовутни камайтириш қатор омилларга боғлиқлиги таъкидланади. Бу омиллар қуйдагилардан иборат:

-мавжуд моддий-техника базаси ва ишлаб чиқариш имкониятларидан оқилона ва унумли фойдаланиш, ишлаб чиқаришни муттасил диверсифика-ция қилиш – бунинг натижасида нафақат маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми ва сифати ошади, балки унинг турлари ҳам кўпая боради;

- инновацияларни ишлаб чиқаришга татбиқ этиш – бунинг натижасида янги илмий ишланмаларнинг ишлаб чиқаришга кириб келиши жадаллашади, объектнинг моддийтехник имкониятлари муттасил такомиллаша боради, замонавий ишлаб чиқариш технологиялари ўзлаштирилади, бу омиллар пировардида меҳнат самарадорлиги юксалишига хизмат қилади;

-ишлаб чиқариш жараёнини илмий асосда, фойдали ташкил қилиш – бунинг натижасида минимал меҳнат харажатлари билан кўпроқ ва фойдалирок маҳсулот тайёрлаш, меҳнат самарасини оширишга замин ҳозирлайдиган янги потенциал имкониятларни аниқлаш мумкин бўлади;

-иш вақтидаги йўқотишларни камайтириш – бунинг натижасида ор-тиқча ва зарурияти йўқ, корхона тили билан айтганда остатка товаров ортиб колиши, меҳнат операцияларини ижро этиш, меҳнат жараёнига даҳли бўлмаган юмушларни бажариш, меҳнат интизомига зид амаллар учун кетган вақт тежалади, бу вақтни меҳнат унумини оширишга йўнал-тириш мумкин бўлади;

-ходимларнинг маълумоти ва малакасини ошира бориш бунинг на-тижасида ходимлар квалификацияси билан муттасил кенгайиб бораётган касбий билимлар ҳажми ўртасида муайян мутаносибликка эришилади, малакали ходимларнинг кўпайиши эса пировардида меҳнат сифатига жиддий таъсир кўрсатади;

-меҳнат шароитларини такомиллаштириш – бунинг натижасида, бир томондан, меҳнат функцияларини сифатли адо этиш имкониятлари кенгаяди, иккинчи томондан эса, ходим ўз меҳнатидан қониқиш ҳосил қила бошлайди, ҳар иккала ҳолат меҳнат унумида ўз ифодасини топади;

- меҳнат ва хордиқнинг оқилона режимини жорий этиш – бунинг на-тижасида ходимлар саломатлигини асраш, уларнинг меҳнат қобилиятларини тўлароқ рўёбга чиқариш имкониятлари кенгаяди, мустаҳкам соғлиққа эга бўлган ҳамда ўз қобилиятларини ёркин намоён этадиган ходим эса меҳнат самарадорлигини юксалтириш омилига айланади;

-меҳнатга адолатли ҳақ тўлаш тизимини татбиқ этиш – бунинг натижасида ходимнинг ўз меҳнати маҳсулидан манфаатдорлиги ортади, у ўз вазифаларини сифатли адо этишга, уни муттасил такомиллаштириб боришга мойил бўла боради;

-меҳнат жамоасидаги руҳий муҳитни соғломлаштириш – бунинг нати-жасида жамоа аъзолари ўртасида соғлом муносабатлар шаклланади, мазкур муносабатлар ўзаро ҳамжиҳатлик ва хайриҳоҳликни мустаҳкамлайди, бундай шароитда ходим ўз меҳнат функцияларини муфассал ва сифатли бажара олади;

Меҳнат жараёни мазкур омилларни инобатга олган ҳолда уюштирилган жамиятда корхона ва ташкилотлардаги меҳнат самарадорлиги аста-секинлик билан оша боради. Ушбу омилларга эътиборсизлик, улар ўрнига репрессив ёки волюнтаристик услубларнинг қўлланилиши аянчли оқибатларга олиб ке-лади. Буни ўтган аср сўнгида ўтмишга юз тутган совет тажрибаси мисолида кўриш мумкин. Совет ҳокимияти йилларида узоқ давр мобайнида меҳнат самарадорлиги қўрқув, тазйиқ, мажбурий меҳнат эвазига таъминлаб келинди. Жумладан, Беломорканалнинг барпо этилиши, Байкал-Амур магистралининг қурилиши, қўриқ ерларнинг ўзлаштирилиши - жамият миқёсида амалга оши-рилган меҳнат фаолияти самарадорлигининг тимсоли, беш йиллик режаларни тўрт ва ҳатто уч йилда адо этилиши эса – корхонадаги меҳнат унуми наму-наси тарзида тақдим этилди. Аслида эса уларнинг барчаси мажбурийлик та-мойили асосида ташкил этилган меҳнат маҳсуллари эди. Тўғри, Совет ҳуку-мати аввалида мазкур тадбирларни ихтиёрийлик тамойилига монанд равишда уюштиришга интилди. Масалан, 1932 йилнинг 13 апрелида ҳукуматнинг “Байкал-Амур темир йўли қурилиши тўғрисидаги” Қарори қабул қилинди ва уни ижро этишга киришилди. Қарорда мамлакат фуқароларини иқтисодий ва молиявий рағбатлар эвазига қурилишга жалб этиш назарда тутилганди. Бироқ тайгадаги меҳнат шароитларининг оғирлиги, озиқ-овқат маҳсулотлари танқислиги, меҳнат қуролларининг етишмаслиги ишчи кучининг бошқа мин-тақаларга оқиб кетишига сабаб бўлди. Маълумотларга қараганда, оғир шаро-итлар оқибати ўлароқ БАМга 12 минг ер қазувчи керак бўлган бир вазиятда атиги 504 киши, 2389 бурғуловчи ўрнига 50 киши, 5101 дурадгор ўрнига 498 киши меҳнат қилган[4]. Шундан сўнг ҳукумат БАМ қурилишида мажбурийлик тамойилини қўллашга қарор қилди ҳамда уни ОГПУга (давлат хавфсизлигини муҳофаза қилиш бўйича давлат бошқармасига) топширди. Бошқарма эса дарҳол Байкал-Амур лагерини ташкил этди ва қисқа муддатда магистрал қурилишига 32411 маҳбусни жалб қилди[5]. Шу тариқа БАМ қурилишида “меҳнат унумдорлиги таъминланди”.

Маъмурий-буйруқбозликка асосланган иқтисодиёт корхоналарга моддий-техника базасини мустақил мустаҳкамлаш, ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш, инновацияларни ишлаб чиқариш-га татбиқ этиш имконини бермас эди. Уларнинг асосий вазифаси юқоридан белгилаб берилган режаларни тўлақонли адо этиш билан чекланган эди. Иш-лаб чиқариш жараёни ҳам турли минтақаларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олмаган ҳолда ташкил этилган эди. Бунинг натижасида иш вақти-нинг беҳуда сарфланиши авж олиб борди. Меҳнатга адолатли ҳақ тўлаш тизимининг татбиқ этилмагани, турли жамоа аъзолари ижодий фаоллигининг рағбатлантирилмаганлиги вазиятни янада чигаллаштирди. Оқибатда барча корхона ва ташкилотларда меҳнат самарадорлиги даражаси тушиб кетди.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда амалга оширилган иқтисодий ислоҳотлар жамиятдаги меҳнат самарадорлигини ошириш имкониятларини вужудга келтирди. Жумладан, мустақилликнинг илк йилларида “қуйидагилар иқтисодиётни ислоҳ қилиш соҳасида стратегик мақсадлар қилиб белгиланди:

1. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини босқичма-босқич шакллантириш, қудратли ва тинимсиз ривожланиб борадиган, миллий бой-ликнинг ортишини, кишилар ҳаёти ва фаолияти учун зарур шарт-шароит-ларни таъминлайдиган иқтисодий тизимни барпо этиш.
2. Кўп укладли иқтисодиётни яратиш, инсоннинг мулкдан маҳрум бўлишига барҳам бериш,ташаббускорлик ва уддабуронликни бутун чоралар билан ривожлантириш негизи бўлган хусусий мулкнинг давлат томонидан ҳимоя қилинишини таъминлаш.

3. Корхоналар ва фуқароларга кенг иқтисодий эркинликлар бериш, уларнинг хўжалик фаолиятига давлатнинг бевосита аралашувидан воз кечиш, иқтисодиётни бошқаришнинг маъмурий-буйруқбозлик усулларини бартараф этиш, иқтисодий омиллар ва рағбатлантириш воситаларидан кенг фойдала-ниш.

4. Иқтисодиётда моддий, табиий ва меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишни таъминлайдиган чуқур структуравий ўзгаришлар қилиш, рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқариш, жаҳон иқтисодий тизимига қўшилиб бориш.

5. Кишиларда янгича иқтисодий фикрларни шакллантириш, уларнинг дунёқарашини ўзгартириш, ҳар бир кишига ўз меҳнатини сарфлаш соҳаси ва шаклларини мустақил белгилаш имконини бериш."[6]

Мазкур чоралар корхона ва ташкилотлардаги меҳнат самарадорлиги даражасига салмоқли таъсир кўрсатди. Айнан шу сабабга кўра мамлакатда ялпи ички маҳсулот ўса бошлади, халқ хўжалиги ва саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмлари кенгайди. Кейинги йилларда Ҳаракатлар стратеги-яси ва Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси доирасида амалга оширилган ислоҳотлар эса мазкур омиллар ривожига тенденциявий тус берди. Масалан, сўнгги беш йил мобайнида иқтисодиёт таркибидаги нодавлат секторни кен-гайтириш, корхона ва ташкилотлар фаолиятига давлатнинг бевосита арала-шувини камайтириш масалаларига алоҳида эътибор берила бошланди. Бу-нинг натижасида субъектларнинг иқтисодий эркинлиги меъёри сезиларли равишда ошди. Иқтисодий эркинлик, бир томондан, тадбиркорлик ва кичик бизнес субъектлари сонининг кескин ошишига замин яратди. Хусусан, 2016 йилда мамлакатда 207 минг 104 та тадбиркорлик субъектлари фаолият кўр-сатган бўлса[7], 2022 йилга келиб уларнинг сони 517 минг 501 тага етди[8]. Иккинчи томондан, иқтисодий эркинлик шарофати билан корхона ва ташкилотлардаги меҳнат самарадорлиги оша бошлади. Меҳнат унуми юксалгани боис, айтайлик, 2005 йилда тадбиркорлик субъектларининг мамлакатимиз ял-пи ички маҳсулотидаги улуши 38,2 фоизни ташкил қилган бўлса, 2022 йилга келиб бу кўрсаткич 51,8 фоизни ташкил этди[9].

Хулоса қилиб айтганда, меҳнат самарадорлигини оширишда катор ишлар амалга оширилмокда ва иқтисодий тараққиётимизни таъминлашга қодир бўлган қудратли омил хисобланади. Ўзбекистонда амалга оширилган кенг кўламли ислоҳотлар уни юксалтириш учун реал имкониятларни вужудга келтирди. Асосий вазифа мазкур имкониятлардан оқилона фойдаланиш ва меҳнат самарасини оширишга ҳалал бериб турган омилларни бартараф этиш чораларини кўришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида.// Ватан саждагоҳ каби муқад-дасдир. Том 3.- Т.:Ўзбекистон, 1996.- Б.183-184.
2. Фалсафа асослари //Тошкент//Узбекистон нашриёти//.- С.355 (формула ифодалари ўзбек тилида келтирилди).
3. Стаффорд Бир Э. Кибернетика и менежмент.- М.:ДомКнига, 2010 (формула ифодалари ўзбек тили-да келтирилди).
4. Меленберг А. Дорогу строили из человеческого материала.// Новая газета, 2011, 8 июля.
5. Кичик тадбиркорлик субъектлари сони 207,1 мингдан ошди.// uzdaily.uz, 2016, 20 январь.
6. Ўзбекистондаги тадбиркорлик субъектлари сони 517,5 мингтани ташкил этди.// xabardor.uz, 2022, 1 июнь.
7. Заҳирова Г.М., Қодиров С.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини бошқаришда маҳаллий ҳокимият органларининг роли.// Мамлакатни модернизациялаш шароитида Ўзбекистон икти-содиётини бошқаришнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.- Т.:ЎзМУ, 2016.- Б.21.

8. Кичик тадбиркорлик субъектларининг ЯИМдаги улуши маълум қилинди.// aniq.uz, 2023, 17 март.

TA’LIM VA MADANIYAT – INSON KAPITALINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

Pulatova Sevara Akmalovna
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi
O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz bo‘lim mudiri,
Alfraganus universiteti professori.

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy rivojlanish inson kapitali sifatiga bog‘liqligi, inson kapitaliga investitsiya turlari, O‘zbekistonning inson kapitalining rivojlanish indeksi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni qo‘lga kiritishiga imkon beruvchi omillar ko‘rib chiqilgan. Davlatning eng muhim strategik manbai sifatida madaniyatni o‘rni ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, investitsiya.

Annotation. In the article, the author explains labor efficiency as one of the main factors that ensure economic development. In order to determine the level of labor efficiency and ways to increase it, it is indicated that it is necessary to refer to the content of the concepts "real labor efficiency", "existing labor efficiency", "potential labor efficiency". It is noted that the reduction of the gap between the actual labor productivity and the existing productivity indicators depends on a number of factors.

Key words. human capital, culture, education, healthcare, investment.

Iqtisodiy o‘sishning zamonaviy nazariyalari inson kapitali mamlakat iqtisodiy gullabyashnashining hal qiluvchi omillaridan biri ekanligini va mamlakatning farovonligi ko‘p jihatdan unga bog‘liqligini asoslab beradi. Darhaqiqat, inson kapitalini rivojlantirish – innovatsion iqtisodiyotni barpo etishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu postulat barqaror rivojlanishga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan davlat avvalo inson kapitali sifatini yaxshilashga alohida e’tibor qaratishi lozimligini ko‘rsatadi. Chunki, yangi axborot sivilizatsiyasi ostonasida aynan inson shaxsining rivojlanish darajasi davlatning rivojlanish pog‘onasida qaysi darajani egallab turganini belgilaydi. Shunday ekan, faqat o‘z oldiga inson kapitalini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan davlatlargina yangi axborot jamiyatida munosib hayot kechirishlari ta’minlanadi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida inson kapitalini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu haqda "Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilmma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi" – degan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi davrda jahonda turli soha olimlari tomonidan inson kapitali va uni rivojlantirish omillari keng o‘rganilib, ushbu muammoga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijalari e’lon qilingan. Jumladan, rus olimi Y. Korchaginning ta'rifiga ko'ra, "milliy inson kapitali, bu innovatsion (kreativ) mehnat resurslarining tarkibiy qismi bo‘lib, jamlangan raqobatdosh va yuqori samarali bilim, innovatsion tizim, intellektual kapital va hayotning barcha sohalaridagi innovatsion texnologiyalar,

shuningdek globallashuv sharoitida hayot sifatini ta’minlovchi mamlakat iqtisodiyoti va davlatning jahon bozoridagi umumiy raqobatbardoshligidir”. Amerikalik olimlar K.R.Makkonel, S.L.Bryu tomonidan AQSh kollejlari va universitet talabalari uchun darsligi butun dunyoda, shuningdek, O‘zbekistonda ham tan olingan bo‘lib, unda olimlar inson kapitaliga investitsiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadilar: ta’lim xarajatlari; sog‘liqni saqlash xarajatlari; mobillik, ishchilarning nisbatan unumdorligi past bo'lgan joylardan nisbatan unumdorligi yuqori bo'lgan joylarga ko‘chishi bilan bog‘liq xarajatlari.

O‘zbekiston olimlari ham milliy iqtisodiyotni innovatsion asosda rivojlantirishda inson kapitalining ahamiyatiga katta e’tibor qaratmoqdalar. Bu Q.X.Abdurahmanov, B.Islamov, B.X.Umurzakov, N.K.Zokirova, N.X.Rahimova, Z.Y. Xudayberdiev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ushbu mavzuda amalga oshirilgan eng so‘nggi tadqiqotlar orasida A.Y.Mag‘rupovning ilmiy ishini alohida ko‘rsatish lozim.

NATIJALAR

Shunday qilib, inson kapitaliga asosiy investitsiyalarning turlarini ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlari tashkil qiladi. Bu mantiqan, albatta, to‘g‘ri, chunki ta’lim tizimining samaradorligini oshirish davlat uchun muhim bo‘lib, uning kelgusida iqtisodiy o‘sishini ta’minlab beradi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Sog‘liqni saqlash esa, o‘z navbatida, odamlar hayotining sifat darajasini belgilaydi va mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ammo, shunga qaramay, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, agar davlat inson shaxsini rivojlantirishga intilmasa, katta moliyaviy sarf-xarajatlar bilan ham ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalaridagi va demografik muammolarni hal qilib bo‘lmaydi. Xo‘sh, muammoning yechimi qayerda?

Ta’kidlash kerakki, fan, axborot xizmatlari, madaniyat va san’at inson kapitali to‘planishining muhim manbalari hisoblanadi. Shunga qaramay, uzoq vaqt davomida madaniyat qoldiq tamoyili asosida moliyalashtirildi va hozirga qadar investitsiyalar kiritishda ishlab chiqarish ustuvor hisoblanadi. Ammo bilimli, tashabbuskor va o‘z ishiga ijodiy yondoshuvchi ishchilarsiz zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil qilish mumkin emas. Madaniyatga sarmoya kiritish – bu inson kapitali sifatini oshirishning samarali usulidir. Buni inqiroz davrida madaniyatga sarmoyani sezilarli darajada ko‘paytirgan va undan barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga qaraganda tezroq chiqib ketgan ba’zi xorijiy mamlakatlar, xususan Fransiya tajribasi tasdiqlaydi. Shunday qilib, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi bevosita ma’naviy madaniyat va aholining turmush sifat darajasini oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarga bog‘liqdir. Iqtisodiy va siyosiy omillar turmush tarzi va darajasini belgilaydi, ammo bu jamiyatning o‘z kelajagini idrok etishini shakllantiradigan va uni qurish uchun vositalarni, shu jumladan iqtisodiy va siyosiy xulq-atvor modelini tanlashini aynan madaniy omillar belgilaydi. Madaniyatning ahamiyati rivojlanish strategiyasi ijtimoiy rivojlanishni iqtisodiy va siyosiy strategiyalardan aslo kam emas. Olimlarning ta’kidlashicha, o‘z oldiga jamiyatni tashkiliy jihatdan rivojlantirish, ya’ni, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, jamiyat taraqqiyotining barcha ko‘rsatkichlarini oshirish kabi vazifalarni qo‘ygan davlat o‘zining ichki taraqqiyot ko‘rsatkichlariga ko‘ra madaniyatni rivojlantirishni qat’iy rag‘batlantirishi kerak. Davlat madaniyat rivojlanishining barcha, ya’ni, madaniy qadriyatlarni ishlab chiqarish, ularni saqlash, tarqatish va iste’mol qilish kabi bosqichlarida uni tartibga solishga qodir: agar madaniyat bunday boshqaruv ta’siridan xalos qilingan bo‘lsa, u, ya’ni madaniyat nisbatan yopiq tizim sifatida rivojlana boshlaydi, avtorkiyaga, ya’ni aynish va yo‘q bo‘lish yo‘liga o‘tadi. Bu barcha yopiq yoki nisbatan yopiq tizimlarning o‘ziga xos xususiyatidir .

Shunday qilib, madaniyat – davlatning eng muhim strategik manbaidir. Madaniy boyliklarning keng omma uchun ochiqligi zamonaviy jamiyat hayotining muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylanmoqda. Jamiyatni madaniy hayotda ishtirok etishga undab, davlat o‘z fuqarolarining madaniy saviyasini ko‘taribgina qolmay, balki, umuman olganda, jamiyatda insoniylik salohiyatini oshirishga ham e’tibor qaratmoqda .

MUHOKAMA

Ma’lumki, inson kapitaliga kiritiladigan asosiy investitsiyalarga ta’lim (malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar), sog‘liqni saqlash, tibbiy xizmatlar, mobillik, bolalar tarbiyasi, ish va narxlar, daromadlar, ish haqi haqidagi axborotni izlashga ketadigan xarajatlar kiradi. Inson kapitali haqidagi ta’limot asoschilarining tadqiqotlarida xalq xo‘jaligi darajasida ham, korxonaning alohida xodimi darajasida ham ta’lim, o‘qish, sog‘liqni saqlash va rivojlanishning boshqa shakllariga yo‘naltirilgan qo‘yilmalar asosiy kapitalga qo‘yilmalarga qaraganda ancha ko‘p daromad keltirishi isbotlangan. Inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalardan olinadigan eng yuqori daromad texnikaga kiritilgan investitsiyadan olingan daromadga nisbatan qariyb uch barobar ko‘p bo‘lishi hisob-kitob qilingan. Shulardan kelib chiqib, O‘zbekistonda inson kapitaliga investitsiyalar kiritilishi muttasil ortib bormoqda. Chunonchi, 2019 yilda budjet xarajatlari nafaqat sog‘liqni saqlashga, balki boshqa ijtimoiy sohalarga ham 58012,1 milliard so‘mga yoki 65,6 foizga oshirish belgilab berilgandi. Xarajatlarning asosiy bandlari mablag‘larni sog‘liqni saqlashga – 26,3 foizga, ta’limga – 45,6 foizga, madaniyat va sportga – 45 foizga, ilmfanga – 5,8 foizgacha oshirishga qaratildi.

Ta’kidlash kerakki, keyingi yillarda milliy ta’lim tizimi rivojiga jiddiy e’tibor qaratildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirishning yagona va uzluksiz tizimi amal qilishi natijasida Respublika aholisining ta’lim salohiyati ko‘tarildi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda inson kapitalining sifatini oshishiga keng yo‘l ochdi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston bu borada 105-o‘rinni egallab, rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kirdi.

Biroq milliy ta’lim sohasidagi jiddiy muammolar ham mavjud: maktabgacha ta’lim qamrovining past darajada ekanligi, shuningdek, oliy ta’lim sohasida ham shunday manzaraning yuzaga kelgani ham tashvish uygotmoqda. Chunonchi, bu yo‘nalishda qamrov 2019 yilda atigi 20,0 foizni tashkil etdi.

O‘zbekiston inson kapitalining rivojlanish indeksi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni qo‘lga kiritishida yetarli imkoniyatlarga ega bo‘lishi uchun bolalar va yoshlar yetarli miqdorda va yuksak sifatli ta’lim va kasb-hunar tayyorgarligini egallashlari zarur.

Respublikada amalga oshirilayotgan Maktabgacha ta’limni isloh etish dasturi keng ko‘lamli bo‘lib, unga ko‘ra, 2020 yilda 33 foiz bolalar bog‘chaga borsa, 2031 yilgacha 85 foiz bolalar shaxsni tarbiyalashga qaratilgan tamoyillar bo‘yicha maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya olishlari lozim. Asosiy maqsadi iqtidorli bolalarni ta’limi jarayonida ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish va tarbiyalash, iste’dodli yoshlarni rag‘batlantirish, shuningdek ularni kelgusida qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lgan ixtisoslashgan Prezident maktablari va "Barkamol avlod" maktablari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusda (yoshlarning san’at va adabiyotga qiziqishini kuchaytirish, ularni sport bilan qamrab olish, ma’naviyatini oshirish, AKTdan samarali foydalanish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash) inson kapitalini ro‘yobga chiqarishga, texnologiyalar, iqtisodiy natijalar va butun jamiyat hayotini doimiy ravishda yaxshilab borish uchun bilim va odamlarning mahoratini yuqori darajada samarali qo‘llashga tayanadigan innovatsion taraqqiyot strategiyasi – xomashyo asosida rivojlanadigan mamlakat iqtisodiyotining modeliga muqobil bo‘lishi ta’kidlanadi.

Ta'lim, madaniyat va san’at sohasida bir qator muhim loyihalarni amalga oshirilishi milliy madaniyatning tiklanishi va rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ushbu tadbirlarni o‘tkazish, mavjudlarini kapital ta’mirlash va xalqaro standartlarga javob beradigan yangi ko‘rgazma zallarini qurish uchun yo‘naltirilgan davlat investitsiyalari tufayli erishildi. Ushbu tadbirlarga qaramay, madaniyat sohasi tub o‘zgarishlarga muhtoj bo‘lib, bu oxir-oqibat inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan sohaga oid jiddiy e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 noyabrdagi 4038-sonli "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi qator tizimli kamchiliklar mavjudligi ta’kidlangan, xususan: birinchidan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish,

madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratilmagan; ikkinchidan, yosh ijodkorlarga ta’lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining o‘sib borayotgan madaniy ehtiyojlarini qondirish va madaniy xizmatlar sifatini keskin oshirish imkonini bermayapti; uchinchidan, aksariyat madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablari va xalqaro standartlarga mos kelmaydi, bu esa ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun imkon bermayapti; to‘rtinchidan, zamonaviy media makonda milliy madaniyatimiz munosib o‘rin egallamagani, sohaga axborot-kommunikasiya texnologiyalari to‘liq joriy etilmagani sohani keng tadqiq va targ‘ib etish, xalqaro madaniy jarayonlarga talab darajasida integratsiya qilishga yo‘l bermayapti; beshinchidan, madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro festival va tanlovlarda ijodkorlarimizning ishtirokini izchil ta'minlash va ularning sara asarlarini namoyish etish, milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilishning samarali tizimi yaratilmagani, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani ham soha rivojiga to‘sqinlik qilmoqda. O‘tgan vaqt davomida yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali amalga oshiriladigan ishlar ma’lum vaqt va jiddiy sarmoyalar kiritilishini talab qiladi.

Shunday qilib, ta’lim va madaniyatga sarmoya kiritish va madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun tizimli chora-tadbirlar jamiyatni taraqqiyotga olib boradigan asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Inson kapitalining rivojlanish indeksi bo‘yicha O‘zbekistonning yuqori ko‘rsatkichlarga erishishi uchun avvalo bolalar va yoshlar yetarli miqdorda va yuksak sifatli ta’lim va kasb -hunar tayyorgarligini egallashlari zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh tashabbusning ta’lim tizimida joriy etilishi yoshlarda keng dunyoqarashni shakllantirishga, hayoti va ish faoliyati davomida yuzaga keladigan masalalarga kreativ yondoshib, muammolarni ijodiy hal qilishga yo‘naltiradi, chuqur bilim va yuksak madaniyatli, jismonan sog‘lom, raqobatbardosh shaxslar bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

Ta’lim va madaniyat rivoji milliy manfaatlarni shaxsiy manfaatlar bilan muvofiqlashuviga xizmat qiluvchi, pirovard natijada, jahon miqyosida mamlakat iqtisodining raqobatbardoshligini va uning innovatsion taraqqiyotini belgilovchi muhim sohalaridir.

ADABIYOTLAR:

1. Korchagin Y.A. Chelovecheskiy kapital – intensivnыy sotsialno-ekonomicheskiy faktor razvitiya lichnosti, ekonomiki, obщestva i gosudarstvennosti // sIRE: sentr issledovaniy regionalnoy ekonomiki / http: www/lerc.ru./?part=articles&art=3&page=35.
2. Makkonel K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: prinsipы, problemы i politika. – M.: INFRAM. 2003.
3. Filippova G. Ob entropiynыx tendensiyax sovremennoy kulturы / https://cyberleninka.ru/article/n//ob-entropiynihtendentsiyah-sovremennoe-kultury.
4. Mamedov F. Chelovecheskiy kapital: vozmojnosti kulturologicheskogo podxoda k analizu i otsenke // Kulturologicheskiy jurnal. № 1 (7), 2012. http://www.crjournal.ru/rus/journals/111.html&j_id=9.
5. Postanovlenie PP – №4038 ot 28.11.18 RUz "Ob utverjdenii konsepsii dalneyshego razvitiya natsionalnoy kulturы v respublike Uzbekistan».
6. Magrupov A.Yu.Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy olimllari. -T., 2020.
7. Sh.M.Mirziyoev. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020.24.01. https ://president.uz/ru/lists/view/3 3 24

ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ ДОСТОНЧИЛИК АНЪАНАЛАРИ ШАКЛЛАНГАН ҲУДУДЛАР АҲОЛИСИ ЭТНОГРАФИК ҚИЁФАСИГА ДОИР ЧИЗГИЛАР

Раҳматова Дилдора Нурматовна –
Қашқадарё вилояти педагогик маркази ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада Қашқадарё воҳаси достончилик анъаналари шаклланган ҳудудлар аҳолиси этнографик қиёфасига доир чизгилар ҳақида сўз боради. Муаллиф тарихий маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида Қашқадарё воҳаси достончилик анъаналари шаклланган ҳудудлар аҳолиси этнографик қиёфасига доир чизгилар бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Қашқадарё воҳаси, достончилик, анъаналар, ҳудудлар аҳолиси, этнографик қиёфаси.

Abstract: This article talks about the features of the ethnographic image of the inhabitants of the regions where the epic traditions of the Kashkadarya oasis were formed. Relying on historical data, based on available scientific literature, the author studied and analyzed the specific aspects of the ethnographic image of the inhabitants of the regions where the epic traditions of the Kashkadarya oasis were formed.

Key words: Kashkadarya oasis, epic, traditions, inhabitants of the region, ethnographic image.

Қашқадарё воҳа достончилик анъаналари тарихини этнография фани йўналишида ўрганиш муҳим ҳисобланади. Жанубий Ўзбекистонда 1929 йил ўтказилган фольклорэтнографик экспедиция аъзолари қашқадарёлик Хидир, Бойсари, Ражаб шоир ва уларнинг шогирди Абдулла шоир Нурали ўғли каби халқ бахшиларини аниқлаб, улардан айрим халқ достонларини ёзиб олишган. Шу тарзда Жанубий Ўзбекистон достончилигини ўрганиш, тадқиқ қилиш ишларига киришилган бўлса-да, халқ бахшиларининг достонларини ёзиб олиш ва таҳлил этиш, асосан, XX асрнинг 40-йиллари ўрталаридан бошланган эди.

Жанубий Ўзбекистонда достончилик анъаналари, асосан қир-адир ва яйловларда чорвачилик ҳамда деҳқончилик билан машғул бўлган Косон, Миришкор, Касби, Чироқчи, Қамаши, Ғузор, Деҳқонобод, Шеробод, Бойсун, Ангор ва Жарқўрғон туманлари ҳудудларидаги аҳоли орасида кўпроқ сақланиб қолган. Хусусан, Қашқадарё воҳасининг Чироқчи ва Қамаши туманларида Чироқчи ва Қамай номли достончилик мактаблари шаклланган эди. Мазкур достончилик мактаблари ривожида воҳанинг Ғузор тумани ҳудудларида яшаган халқ бахшилари ҳам асосий ўринни эгаллаганлигини алоҳида эътироф этмоқ керак.

Чироқчи достончилик анъаналарини Қамаши туманининг Тўқбой қишлоғидан бўлган Искандар шоир (XIX асрнинг 70-йилларида вафот этган) нинг шогирди Ражаб бахши (1846-1897) ва Тўра шоирлар бошлаб берганлар.

Қашқадарё воҳаси аҳолисининг (Чироқчи, Қамаши, Деҳқонобод туманлари ҳудудлари) аксарият кўпчилиги XV–XVII асрларда чорвадорлар бўлиб, ярим ўтроқ ҳаёт кечиришган. Чорвадор аҳоли асосан, ўтовларда, капаларда кун кечирган, уларнинг доимий яшайдиган уйлари ва қишлоқлари ҳам бўлмаган. Шунинг учун ҳам араб географлари ва сайёҳлари бу турдаги аҳолини ҳисобга олмасдан, эътиборларини турғун яшовчи аҳолига қаратганлар ва уларнинг қишлоқ ва шаҳарларини қайд қилганлар, холос. Биз мазкур ҳолатдан келиб чиқиб, воҳада чорвадор аҳоли яшаётган (маълумки, достончилик анъаналари асосан, чорвадор аҳоли яшаётган ҳудудларида вужудга келган) ҳудудлар аҳолисининг хўжалик юритиш анъаналари масалаларига эътибор берамиз.

Қашқадарё воҳаси XVIII-XIX асрларда Бухоро хонлиги (амирлиги)нинг муҳим стратегик марказларидан бўлиб, воҳада асосан чорвачилик учун қулай бўлган чўл ва яйлов

ҳудудлар жуда катта ўрин эгаллаган. Воҳада жойлашган чўл-яйлов ҳудудлари маъмурий амалдор-элбеги бошқаруви остида бўлиб, элбеги уруғ-қабилалар ўртасида келишмовчиликлар келиб чиқмасликлари учун улар эгаллаган яйловлар ҳудудларини назорат қилишган, чорвадор аҳолидан мол (закот) йиғиш ва яйловдан фойдаланганликлари учун солиқ (хас-пули)лар олиш тартибларини белгилаш вазифасини бажарган. Элбегининг ўзи эса ўша ҳудуд беклигига бўйсунган. Масалан, Косон тумани Пўлати қишлоғининг элбегиси Қарши беги тасарруфида бўлган.

Қашқадарё воҳаси аҳолиси (ўзбеклар, туркманлар, араблар) учун чорвачилик асосий сердаромад тармоқ ҳисобланган. Масалан, қўйчиликнинг ривожланиши орқали озиқ-овқат маҳсулотлари: гўшт, сут, харидоргир хом-ашёлар-жун ва чарм олинган. Қўйлардан олинадиган энг қимматли муҳим маҳсулот қоракўл териси бўлиб, жаҳон бозорларида талаб ниҳоятда катта эди. Қўй жунидан кигиз, гилам, хуржун, чакмон, қоп каби турли уй-рўзғор анжомлари ва кийим-кечаклар тайёрланган.

Қадимги даврлардан, яъни жониворларни қўлга ўргатиш ва хонакилаштириш жараёни бошлангандан эътиборан чорвачилик билан маросимлар ва урф-одатларда аҳолисининг ҳайвонот оламига бўлган муносабати акс этган. Элшунос олим О.Бўриевнинг ёзишича, воҳа қўйчивонлари баҳорги яйловга сурувни ҳайдаш олдидан маълум иримсирим ва удумларни бажаришган. Қўйларни турли офатлардан сақлаш учун чўпон қўлида машъала билан қўтон ичига кириб айланган. Қўйлар қўтондан чиқиши олдидан исириқ ҳам тутатилган ва олов ёқилган. Отар эгаси баҳорги яйловга кўчиш олдидан қишлоғдаги обрўли кишиларни ва кекса чўпонларни чақириб, қўй сўйиб зиёфат берган. Баҳорги ва ёзги яйловлардан қишки қўтонга қайтишда ҳам қўйларни турли бало-қазолардан асрасин, деб қўтон олдига олов ёқилган, исириқ тутатилган ва яна қўй сўйиб зиёфат берилган ва Чўпон-ота ҳақига дуолар қилинган.

Хуллас, XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошларида Қашқадарё воҳаси достончилик шаклланган ҳудудларда чорвачилик (асосан, қўйчилик) алоҳида ўринда турган. Деҳқончилик, ҳунармандчилик ва савдо-сотиқ эса қўшимча даромад манбаи ҳисобланган.

Адабиётлар:

1. Зарифов Ҳ.Т. Ўзбек фольклори. Педагогика институтлари учун хрестоматия. II. – Т., 1941;
2. Зарифов Х.Т. К изучения узбекского народного эпоса. Вопросы изучения эпоса народов СССР. - М., 1958;
3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. - М., 1947;
4. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. - Т.: «Фан», 1979;
5. Муродов М., Эргашев А. «Алпомишнома». - Т.: «Меҳнат», 2000.
6. Қаҳҳоров А. Янги достонлар. (Қашқадарё ва Сурхондарё халқ бахшилари репертуарлари асосида). – Т.: «Фан», 1985. – Б. 5.
7. Ўтмишда элбеги кўчманчи ва ярим кўчманчи чорвадор қабилалар оқсоқоллари ўртасида ўтказилган сайлов асосида тайинланган. Ўзбекларнинг айрим уруғ-қабила гуруҳларида (масалан, Қарши чўли атрофларида яшовчи ўз, найман, ёбу, месит, олчин) гуруҳларида элбеги лавозими ва у шу лавозимга сайлаш XX асрларнинг бошларигача сақланиб қолган эди. Айрим катта қабила ва уруғ-қабила гуруҳларида бу ҳолат XVIII асрнинг охири-XX асрнинг бошларида тугатилган эди. Элбеги лавозими наслдан-наслга ўтган. Вақт ўтиши билан элбеги лавозимида ҳам бир қанча ўзгаришлар бўла бошлайди ва энди элбеги алоҳида қабилаларни эмас балки бир нечта қабилаларни бирлаштирувчи ҳудудий бирлашмаларни бошқарган. Шундай қилиб, кўрсатиб ўтилган вақтда элбегилар Бухоро хонлиги маъмуриятининг чўл-яйлов ҳудудларида яшовчи уруғ қабила бошқарувчи раисга айланган. (Қаранг: Шаниязов К. Основные отрасли животноводства в дореволюционном Узбекистане. – Хозяйственно - культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. - М.: «Наука», 1975. – С. 193.

СЕМИРЕЧЕНСКОЕ ПОПЕЧИТЕЛЬСТВО ДЕТСКИХ ПРИЮТОВ НА РУБЕЖЕ XIX-XX В.

Брежнева Светлана Николаевна
Доктор исторических наук, профессор,
Ленинградский государственный университет

Аннотация. Статья посвящена деятельности Семиреченского попечительства - одного из первых на территории Туркестанского генерал-губернаторства во второй половине XIX - начале XX в. Рассматриваются причины и история становления детского приюта в городе Верном. На архивном материале, впервые вводимом в научный оборот, разбираются проблемы, возникающие в приюте и попечительстве, касающиеся всех аспектов жизни детей в приютах.

Ключевые слова: Российская империя, Туркестанское генерал-губернаторство, Семиреченское попечительство, г. Верный, детский приют.

Annotation. The article is devoted to the activities of the Semirechensk Guardianship - one of the first in the territory of the Turkestan Governor-General in the second half of the XIX - early XX century. The reasons and history of the formation of the orphanage in the city of Verny are considered. On the basis of archival material, which is being introduced into scientific circulation for the first time, the problems arising in the shelter and guardianship concerning all aspects of the life of children in shelters are analyzed.

Keywords: Russian Empire, Turkestan Governor-General, Semirechensk guardianship, Verniy, orphanage.

Благотворительность в Российской империи являлась одним из приоритетных направлений имперской политики. Формированием, управлением и расширением сети благотворительных учреждений занималась «Собственная ее императорского величества канцелярия по учреждениям Императрицы Марии», включавшая ряд учреждений. Свое название канцелярия получила по имени супруги Павла I и матери Николая I Марии Федоровны, активно занимающейся благотворительной деятельностью. После ее смерти в 1828 году дело благотворительности продолжила супруга Николая I Александра Федоровна, которой и принадлежала идея создания детских приютов, ставших составной частью канцелярии. В 1838 г. был учрежден Комитет главного попечительства детских приютов, которому должны были быть подчинены все учреждаемые в других городах империи детские приюты. Следующим шагом в этом направлении явилось Положение о детских приютах, разработанное сановниками комитета и «Высочайше» утвержденное Николаем I 27 декабря 1839 г. [1].

Главный акцент в Положении придавался религиозно-нравственному воспитанию детей и усеченной учебной программе. Основной целью приюта являлось предоставление детям временного убежища и начального образования, при сохранении связи с семьей. Детей от 3 до 10 лет приводили в приюты в дневное время, нередко возрастной ценз допускал возможность нахождения в приютах детей до 14 лет. Ребенка принимали в приют бесплатно или же за счет благотворителя. Пол, возраст, социальное положение не имели значения. При приеме ребенок обязательно проходил медицинский осмотр, родителям для посещения приюта выдавался входной билет. Дети обеспечивались одеждой и питанием.

Не все статьи Положения обеспечивались разными приютами в полном объеме, т.к. это зависело от их материальной обеспеченности, которая была различной, т.к. основными доходами были пожертвования. Высший надзор за детскими приютами в Санкт-Петербурге осуществлялся Комитетом главного попечительства детских приютов, в губерниях и уездах эти функции выполняли соответствующие попечительства.

В Туркестанском генерал-губернаторстве, созданном в 1867 году, в силу отдаленности от центра империи, детские приюты стали создаваться намного позже

центральных губерний Российской империи. Первый генерал-губернатор Туркестанского края К. П. фон Кауфман большое внимание уделял нищенствующим сиротам, которых особенно много было среди оседлого населения в силу того, что кочевники пользовались призрением родовых сообществ. В Ташкенте был создан приют, носивший имя «начальника края» [2]. По примеру Ташкента стали создаваться приюты в областях генерал-губернаторства, для руководства которыми возникали областные попечительства, которые формально возглавляли военные губернаторы.

Одним из первых созданном на азиатской окраине России, стало Семиреченское попечительство. В феврале 1879 года Кауфманом было утверждено особое Положение о Туркестанских детских приютах с учреждением Туркестанского попечительского Совета, которое им лично было передано Военному губернатору Семиреченской области Г. А. Колпаковскому с просьбой поддержать начинание [3]. В ответ Военный губернатор в марте этого года организовал в г. Верном Комитет общественных детских приютов. Отныне все вопросы, касающиеся приема детей в приют, вопросы штата и ремонта, вознаграждения работников, благотворительности меценатов решались только на заседаниях Верненского Комитета общественных детских приютов, преобразованного в 1888 г. в Семиреченское областное попечительство. Просуществовало оно вплоть до октябрьских событий 1917 года.

28 октября 1879 года был открыт первый детский сиротский приют в г. Верном. Первым Попечителем приюта был избран генерал-лейтенант Г. А. Колпаковский, первой попечительницей стала его супруга Мелания Фоминишна, ее помощницей назначена Л.А. Эйлер - жена генерал-майора, которая после перевода Колпаковских в Степное генерал-губернаторство в 1882 году, возглавила Попечительство. Верненский сиротский приют располагался в здании Киргизского общественного дома, переданного для него Городской думой. Помещение было рассчитано на 20 человек и имело два отдельных крыла – для мальчиков и девочек. Здесь располагались столовая, спальня, классы для занятий, кухня, умывальная, приемная, квартира для начальницы. Оплата труда воспитателей, учителей и всей деятельности детского приюта производилась за счет добровольных пожертвований горожан и сельских жителей Верненского уезда.

В октябре 1879 года в приют были приняты первые 10 воспитанников, в числе которых были дети нижних воинских чинов, а также дети крестьян и казаков от 3 до 16 лет [3]. Число воспитанников приюта быстро росло: в 1884 году в приюте был 31 воспитанник, в 1887 году - 35, в 1890 году - 37, а на 1 января 1896 года уже 54 человека (18 мальчиков и 36 девочек) [4, л. 1 об.].

В ежегодных отчетах Семиреченского попечительства детских приютов отмечается, что в течение года число детей то увеличивается, то уменьшается. Часто указывалось, что дети возвращались к родителям, «поправившим свое материальное положение».

Все дети 7-14 лет Верненского сиротского приюта обязательно обучались. Штат учителей состоял из законоучителя (Александр Филимонович Скальский) и учителя общеобразовательных предметов (Людмила Павловна Вахнина) [4, л. 28 об.]. Классы делились по отделениям:

1 отделение - здесь детей учили азбуке, чтению, письму, счету до 100; 2 отделение - дети учились писать диктант, изучали правописание, счет до 1000, четыре действия арифметики, умножение в пределах до 100 и 1000, знакомились с элементарными правилами грамматики, упражнялись в списывании, чтении, заучивании стихов; 3 отделение - дети упражнялись в свободном чтении, осваивали русскую историю, географию, учили стихи и басни, части речи, решали более сложные задачи. Кроме того, учащиеся 2 и 3 отделений раз в неделю занимались чистописанием и рисованием. Дети школьного возраста по окончании обучения сдавали экзамен, а затем продолжали обучение в городских училищах.

Кроме того, дети в обязательном порядке изучали Закон Божий, должны были знать молитвы. Согласно отчетам, дети в основном были православного вероисповедания. Уроки по Закону Божьему проходили по пятницам и субботам. Дети начинали и заканчивали хоровым пением положенной молитвы. По четвергам в 8 часов утра в приютской домовой

церкви служился молебен с акафистом и водоосвящением, причем произносилось общепонятное поучение или собеседование, на котором прислуживали дети из приюта. В алтаре прислуживали всегда три мальчика [4, л. 2 об]**.** При церкви была сооружена приходская библиотека из книг духовно-нравственного содержания. «Символ веры» дети пели совместно со всем народом, находящимся в храме. В день Рождества Христова для детей приюта устраивалась елка. В отчетах неизменно подчеркивалось примерное поведение детей в церкви и в классе. Уроки закона Божия много дет подряд вплоть до своего перевода в Омскую епархию в 1896 году преподавал священник отец Климент (Александр Филимонович Скальский), за что получал 120 руб. За его подписью предоставлялись отчеты приходской церкви. Его сменил священник приютской церкви Н. М. Кошевич. В 1900 году А. Ф. Скальский вернулся и еще долгое время выполнял свои обязанности.

Кроме обучения в приюте грамоте, арифметике и Закону Божьему, дети обучались ведению домашнего хозяйства, мальчики - сапожному ремеслу, девочки - шитью, вязанию и т. д. В каждом отчете приводятся данные, сколько сшито мальчиками пар сапог, ботинок и починено обуви. Кроме того, три раза в неделю мальчики занимались в переплетной мастерской, обучаясь переплетению и сброшюровыванию учебных книг. За такую работу воспитанники получали заработную плату. В 1897 году заведующая Верненским казенным садом В. П. Самарина предложила устроить при приюте на свободной и почти пустующей земле сад и огород, и безвозмездно осуществлять руководство работами. Попечительство приюта с радостью приняло это предложение с надеждой, что земледельческие работы отвлекут детей от шалостей, будут содействовать физическому развитию мальчиков и приучать их к физическому труду [4, л. 35].

Воспитанницы приюта, за исключением маленьких девочек, дежурили в комнатах, накрывали на стол для обеда и чая, мыли посуду и помогали на кухне. Старшие девочки стирали белье, чинили его и мыли полы. Воспитанницы прекрасно вышивали гладью, крестом, вязали чулки, умели кроить. Рукоделие долгое время преподавала Ольга Осиповна Ядрович. В отчетах расписываются успехи учениц в вышивке по полотну. Их изделия даже отправляли на Нижегородскую выставку [4, л. 3 об.], и в 1896 году работы воспитанниц были удостоены Диплома IV степени [4, л. 30]. Девочками же изготавливались изделия для лотереи Аллегри (в 1896 году 92 разные вещи, в 1897 г. - 86) [4, л. 30, 35]. В качестве поощрения девочкам и преподавательнице выдавалась заработная плата. По инициативе Попечительницы Е. А. Порошиной было организовано обучение девочек стирке белья, что должно было обеспечить воспитанницам стабильный заработок по выходе их из приюта. Кроме того, со временем воспитанницы стали принимать заказы на пошив белья и дамских нарядов.

Санитарно-медицинское состояние Верненского приюта контролировали безвозмездно городские врачи города. Отчеты сохранили некоторые имена: на протяжении многих лет медицинский осмотр воспитанников приюта осуществлялся Почетным членом докторов медицины Л. Н. Фидлер, «несущим безвозмездно обязанности врача при приюте с 27 июня 1889 г.» [4, л. 4]; а также уездным врачом И. И. Соболевским. Правда, уберечь воспитанников приюта от эпидемий (рожа, дифтерит, корь и т.п.) было довольно трудно, и иногда они умирали. Так, в отчете за 1895 год говорится, что всего больных детей было 40 человек, из них корью болели 38 человек, и две девочки – скарлатиной, одна из них (Анна Когокова 4,5 лет) [4, л. 1] скончалась, а другая выздоровела. В 1896 году от крупа в лазарете умер мальчик Григорий Попов [4, л. 28].

Однако неустанная борьба врачей и смотрителей приюта с эпидемическими заболеваниями дала свои плоды. В отчете за 1897 год с гордостью отмечалось, что за год в приюте не было ни одного смертельного случая [4, л. 35 об.]. С этих пор в отчетных документах случаи смерти детей не были отмечены, за исключением 1901 года, когда один мальчик 7 лет умер от припадков уремии, и в 1912 г. одна девочка скончалась в городской больнице от тифа [5, л. 5 об.]. В отчете за 1899 год эмоционально расписывается заботливое отношение к детям приюта со стороны Смотрительницы Елизаветы Андреевны Ядрович,

дочери причетника, окончившей курс в Омской гимназии. [4, л. 101 об.]. 13 человек, заболевших корью, были помещены в ее комнату и находились под ее неусыпным контролем днем и ночью. Безусловно, уход за больными потребовал большого напряжения сил в течение дня и много бессонных ночей [4, л. 99].

Согласно отчету за 1895 год, содержание каждого ребенка обходится в 88 рублей [4, л. 5 об. - 6], в дальнейшем эта цифра то уменьшалась, то возрастала. В конце каждого отчета прикладывалась пространная ведомость о движении сумм Семиреченского областного попечительства детских приютов за истекший год, а также ведомость пожертвования приюту от разных лиц. К основному отчету прикладывался отчет по св. Александро-Мариинской церкви при Верненском детском приюте. Благодаря существованию церкви при приюте пожертвования граждан в пользу сирот возрастало.

По достижению 17-летнего возраста дети определялись на рабочие места или увольнялись к родственникам. Мальчики определялись учениками в Верненскую почтово-телеграфную контору [4, л. 34 об.], в Омскую центральную фельдшерскую школу, в Верненское училище садоводов [4, л. 47], чайный магазин, лесную школу [5, л. 5], оружейную мастерскую Семиреченского казачьего войска [6, л. 3 об.]. Девочки часто выходили замуж, приданое получали из средств Попечительства на сумму 50 рублей. Так, согласно отчету за 1896 год, из 8 совершеннолетних девочек две были выданы замуж, две поступили на рабочие места и 4 уволены к родителям [4, л. 28]. Позже, в начале XX века воспитанницы Семиреченского приюта (например, Агафья Летусова) пополняли ряды сестер милосердия Ташкентской общины [5, л. 5 об.]. Случалось, что детей исключали за «дурное поведение». Так, в отчете за 1897 год содержатся сведения об исключении двух девочек, одна из которых передана родственникам, другая отдана в услужение нянькой [4, л. 34 об.].

Отчет за 1897 год был гораздо лучше структурирован и отпечатан в виде брошюры. С тех пор отчеты предоставлялись в таком более совершенном виде. В отчете выражалось опасение за существование действующего приюта, т.к. он не вполне обеспечен материальными средствами, а увеличение числа приютов и «открытие других благотворительных заведений для детей является задачей довольно далекого будущего» [4, л. 33 об.]. К началу 1898 года приют был переполнен (62 человека при норме 60), что объяснялось тем, что в приют обратились несколько человек, положение которых было безвыходным, и поэтому Попечительство сочло своим долгом прийти на помощь этим людям.

По социальному положению большинство воспитанников составляли дети казаков – 17 человек, меньшинство – дети чиновников (7 человек). Круглых сирот было всего 6 человек (5 девочек, 1 мальчик), что подтверждает предположение, что в приют дети попадали в основном из-за трудного материального положения семьи [4, л. 34].

В ознаменование 10-летнего юбилея нахождения в должности Попечителя Верненского приюта Военного губернатора генерал- лейтенанта Г. И. Иванова среди членов попечительства была устроена подписка на учреждение стипендии им. генерала Иванова в 1500 рублей, проценты с которой предполагалось употреблять на дальнейшее обучение одного из детей «выдающихся умственных способностей» [4, л. 35]. В счет 1500 рублей к 1 января 1898 г. поступило 106 руб. 60 коп., на которые наросло процентов 1 руб. 15 коп.

К началу XX в. число воспитанников увеличилось до 70 человек [4, л. 95] и встал вопрос о создании уездных попечительств. 4 октября 1900 года император Николай II по Всеподданнейшему докладу Главноуправляющего СЕИВК «Высочайше соизволил на открытие уездных попечительств детских приютов в уездах Семиреченской области» [4, л. 100]. 22 декабря 1901 года было открыто Копальское уездное попечительство, 14 декабря 1902 года открыты Верненское, Джанкертское, Лепсинское и Пишпекское уездные попечительства, а 13 января 1908 года – Пржевальское уездное попечительство. Отныне все они вели самостоятельную деятельность, о чем предоставляли ежегодные отчеты.

После Февральской революции по распоряжению Комиссаров Временного правительства от 7 марта 1917 года за № 669, Верненский детский приют был передан в ведение Министерства народного просвещения с назначением для временного управления.

Библиографический список:

1. Полное собрание законов Российской империи. 1839. СПб., 1839. Ст. № 13031.
2. Волков И.В. Об учреждениях общественного призрения в Туркестанском крае: историко-правовой аспект // Власть. 2017. № 12 (25). С. 137-142.
3. Аликеева Г.М., Шахиева А.М., Саятова А.С. История попечительства и социальной защиты детей-сирот в г. Верном (1879-1917) // Вестник Казахского национального медицинского университета. 2017. № 3. С. 405-408.
4. Российский государственный исторический архив (РГИА). Ф. 763. Оп. 3. Д. 56.
5. РГИА. Ф. 763. Оп. 3. Д. 745.
6. РГИА. Ф. 763. Оп. 3. Д. 866.

ФИЗИК ТУШУНЧАЛАРНИНГ ИЛМИЙ МАЗМУНИ ВА ШАКЛЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Узоқова Гулноза Сайдуллаевна
Қарши давлат университети доценти
Тел: 90.609-18-00

Annotation. This article discusses consepts of physics,its scientific meaning and importance and formation of physical cognition.

The importance of physical concepts in the study of natural phenomena, the role of students in the development of the scientific worldview, the issues of their formation in the educational process in a logical sequence, in accordance with the purpose.

Keywords: physical concept, scientific worldview, matter, substance, interaction and force, physical picture of the World.

Аннотация. Мақолада физик тушунчалар, уларнинг илмий мазмуни, физик билимларни шаклланишидаги аҳамияти, шаклланиш босқичлари ҳақида фикр юритилган.

Физик тушунчаларнинг табиат ҳодисаларини ўрганишдаги аҳамияти, таълим олувчилар илмий дунёқарашини ривожлантиришдаги роли,таълим жараёнида уларни мантиқий кетма-кетликда, мақсадга мувофиқ шакллантириш масалалари баён этилган.

Калит сўзлар: Физик тушунча, илмий дунёқараш, материя, модда,Ўзаро таъсир ва куч, Оламнинг физик манзараси.

Инсоният пайдо бўлгандан бери ўзини ўраб турган жамики нарсаларнинг тузилиши, хоссаларини, шунингдек, табиатда рўй берадиган ходисаларнинг юз бериш сабабларини билишга иложи борича ундан ҳимояланишга ва фойдаланишга интилиб келган. Оламдаги ана шундай моддий нарсаларни ва ходисаларни ўрганиш жараёнида билимлар мажмуи фан сифатида шакллана бошлаган.

Шу фанлар ичида физика оламнинг тузилиши ва унинг ўзгариш қонуниятларини билишда катта асос ва имкониятларга эга.

Моддий оламдаги барча ҳодисалар, жараёнлар физика фанидаги тушунчалар, ғоялар, принциплар, қонун ва назарияларда табиатни назарий ва амалий ўрганишнинг якуни шаклида ўз аксини топади. Шунинг учун хам табиатнинг ва ундаги ходисаларнинг асл моҳиятини

очишда (бошқа табиий фанлар қатори) физик тушунчаларнинг мазмунини очиш ёшларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришда катта аҳамиятга эга.

Моддий оламни назарий ва амалий ўрганиш физик тушунчалар, ғоялар, қонунлар ҳамда назариялар асосида амалга оширилади. Бизни ўраб олган табиатни ва ундаги ходисаларни ўрганишда физик тушунчаларнинг моҳиятини очиш беқиёс катта аҳамиятга эга ва таълим олувчиларда илмий дунёқарашни шакллантиришда мухим ўрин тутади. Тушунчаларда моддий нарса, ҳодисаларнинг томонлари ва хоссалари ҳақидаги билим ва улар орасидаги ўзаро боғланишлар ўз ифодасини топган бўлади.

Тушунча – билишнинг олий шаклини характерловчи, ихтиёрий илмий система, назарияларнинг мантиқий асосини ташкил этувчи билиш шакли бошқача айтганда, тушунча – миямизнинг олий махсулидир.

Амалда синаб кўрилган билиш жараёни ўсиб, ривожланиб боради ва билишнинг якуни асосида тушунча юзага келади, тажриба асосида тушунчанинг моҳияти очилади.

Физика курсида ўрганиладиган физик тушунчалар классик физик ва ҳозирги замон назариялари –квант механикаси, нисбийлик назарияси, электродинамика, ядро физикасининг муҳим тушунчаларидан иборатдир.

Физикани ўрганиш дастлаб физик тушунчалардан бошланади. Физик тушунча ҳақида аниқ маълумотга эга бўлмасдан туриб табиий ҳодисалар ҳақида бирон нарса дейиш мумкин эмаслиги аён.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Физикани ўқитишда ўқувчиларда илмий билимлар-тушунчалар мажмуини мантиқий кетма-кетликда мақсадга мувофиқ шакллантириш энг мухим вазифалардан бири ҳисобланади. Ўқув методик адабиётларда тушунчаларни шакллантириш, унинг ривожланиш динамикаси етарлича ёритилмай, фақат мисоллар келтирилган холос.

Иш ва энергия тушунчаларини Ю. И. Соколовский, ёруғликнинг корпускуляртўлқин хоссалари тушунчасини Ю. Е. Дурасеевич ва Л. И. Резниковлар оламнинг физик манзараси, физик майдон, материянинг иссиқлиги ва уни билиш хам бениҳоялиги, нисбийлик назарияси каби қатор тушунчалар В. Ф. Ефименко томонидан ёритилган.

Шу кунгача мавжуд бўлган методик адабиётларни таҳлил қил-ганимизда физик тушунчаларнинг моҳияти яхши очилмаганини ва етарли даражада методик таҳлил қилинмаганлигини ҳамда кўпчилик бундай ишланмаларга (айниқса ёш мутаҳассислар) муҳтожлигининг гувоҳи бўламиз.

Тадқиқот методологияси. Физик тушунчалар ўқитиш жараёнида таълим олувчиларнинг ақлий фикрлаш фаолиятининг ўсишида таҳлил ва яхлитлаш, тизимлаштириш ва умумлаштириш каби диалектик фикрлашнинг бошқа шакллари билан узвий боғланган бўлиши лозим.

Физик тушунчаларни босқичма-босқич, маъноси ва моҳияти мантиқан тўғри ўргатиб борилса, уларнинг мазмуни методологик жиҳатдан илмий таҳлил килингандагина физик ҳодисаларни яхшироқ ўрганиш, оаён қилиш имкони яратилади. Физик тушунчалар ёрдамида табиатдаги сирли ҳодисаларнинг моҳияти очила боради ҳамда бу ҳодисаларнинг юз беришини ифодалайдиган қонунлар, ғоялар ҳам ривожланиб, ўзгариб, янги-янги маънолар касб этиб, кенгайиб бориши билан билиш жараёнининг диалектик ривожи кўрсатилади.

Баъзан физик тушунчаларни киритиш догматик характерда бўлади. Материя, модда, физик майдон, ўзаро таъсир, оламнинг физик манзараси, элементар зарралар, нисбийлик, фазо, вақт, материя тузилишининг кўп хиллиги каби тушунчалар баъзи ҳолларда тўлиқ ва тушунарли бўлмайди. Айрим ҳолларда физик катталиклар математик боғланишлар билан чекланади (масалан, иш тушунчаси, термодинамика қонунлари, электромагнит тўлқинлар, масса билан энергия орасидаги боғланиш қонуни кабилар).

Физик тушунчаларни илмий-методик таҳлил қилишда қуйи-дагиларга эътибор бериш керак бўлади:

1. Тушунчанинг таркиби, мазмуни ва илмий талқини (аниқланиши), (Тушунчани ифодалайдиган моддий объектнинг шахсан қандай хос-саси,тушунчадаги материянинг мавжудлик шакли, ҳодисани характер-лайдиган қандай ўзаро таъсир ва ўзаро боғланишлар мавжудлиги);

2. Ўрганилаётган физик назарияга тегишли тушунчанинг аҳамияти ва роли.

3. Оламнинг физик манзарасининг ривожи нуқтаи- назаридан ўрганилаётган физик тушунчанинг ривожи ва ўзгариши.

4. Тушунчанинг қўлланилиш чегараси.

5. Мазкур тушунчани ўрганишда учрайдиган хатолик ва ыийинчиликларни таҳлил қилиш ва тузатиш.

Юқоридаги фикрларимизнинг далили сифати-да баъзи тушунчаларнинг шаклланиш босқичларини кўриб ўтамиз:

Таҳлил ва натижалар.

Модда ва майдон тушунчаси. Оламнинг ҳозирги замон физик манзарасини тасаввур қилишда унинг асосий элементларидаи бири материянинг икки кўриниши — модда ва майдон тушунчаси ҳисобланади, чунки физик майдон тушунчаси барча физик назарияларда муҳим роль ўйнайди. А. Эйнштейн "Физик ҳодисалар орасидаги боғланишни фазода на заряд, на зарра тавсифлай олади, заряд билан зарра орасидаги боғланишни хам фазода майдонгина тўғри тавсифлаш имконини беради" деган эди.[9]

Материя тузилиши ҳақидаги таълимот баъзи ўқув ва илмий адабиётларда ҳозиргача мукаммал, тўлиғича ёритилмаган, Майдон ҳа-қидаги тушунча кейинги йилларда ўқув адабиётларига киритилган бўлса ҳам материянинг тури ва шакли етарлича таҳлил қилинмаган. Материяни қандайдир муайян моддага ўхшатиш методологик нуқтаи назардан мақсадга мувофиқ эмаслигини кўплаб методист олимлар қайд қилдилар.

Материянинг модда кўриниши физика курсининг барча босқичларида етарли даражада яхши ёритилган.VII синфдан бошлаб материя-модда кўринишида ўрганилиб, тузилиши, хоссаси ва ҳолатлари кенг миқёсда (макроскопик ва космик жисмлар, кўзга кўринмайдиган микрожисмлар, модда агрегат ҳолати, модданинг атом-молекуляр тузилиши, элементар зарралар, моддаларнинг турли-туман ўзаро таъсири кабилар) ўрганилади. Аммо бундай ўрганишда методологик жиҳатдан ўзига хос камчиликлар мавжудки, буни таъкидлаб ўтиш керак:

Биринчидан - модда тузилиши, хоссалари ҳақидаги маълумотлар ва далиллар қатъий тартиблашмаган ҳолда берилган;

Иккинчидан - модда тушунчаси ва унинг асосий белгилари, хосса-ларига аниқ бир таъриф - тавсиф берилмаслиги сабабли таълим олувчилар, баъзи ўқитувчилар ҳам модда тушунчасига аниқ бир таъриф бера олмайдилар;

Учинчидан - модда тушунчасининг шаклланиши материя тушун-часи билан етарли даражада мувофиқлашмаган, модда билан физик майдон орасидаги ўзаро боғланиш методик жиҳатдан асосланмаган;

Кўрсатилган бу камчиликларни бартараф этиш физика ўқитиш методикасини такомиллаштиришнинг муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда.

Мактаб физика курсида таълим олувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда босқичма-босқич модда ва майдон тушунчалари ойдинлашиб бориши ва улар қуйидагиларни билиб олишлари керак:

1.Модда материянинг асосий туридан бири бўлиб, у атом-молекуляр ёки плазма тузилишига эгадир.

2.Модда тинчликда массага эга бўлган элементар зарралардан тузилган.

3. Модда кўринмайдиган физик жисмлар (атомлар, молекулалар ва ҳ.к.) макрообъектлар ва макрожисмлар, шунингдек космик жисмлар деб аталувчи сайёра, юлдузлар, юлдузлар тўплами ва бошқалар бўлади.

4.Модда материянинг бошқа тури бўлган физик майдон билан ўзаро боғланган (Моддий жисмлар майдон воситасидагина ўзининг зарралари билан турли системаларни ташкил этади). Модда ва майдон ўзаро бир-бирига айлана оладилар. Улар кўплаб умумий хоссаларга эга.

5.Моддада рўй берувчи барча ҳодисалар, физик жараёнларда масса, энергия, импульс, импульс моменти ва электр зарядининг сақланиш қонунларига амал қилади. Шу билан материя ва унинг ҳаракати йўқолмаслигини ва пайдо бўлмаслигини акс эттиради.
[2]

Физика ўқитиш жараёнида материянинг икки тури орасидаги ўзаро таъсир натижасида содир бўлиб кишиларга сирли туюлувчи қатор ҳодисаларни изоҳлашда, унинг табиатини, қонуниятини очишда майдон тушунчаси кам ишлатилади. Масалан, фотоэффект, люминесценция, интерференция, қутб ёғдуси, дисперсия каби ҳодисаларнинг содир бўлишидаги майдоннинг материя тури сифатида модда билан (майдон орасидаги) ўзаро таъсирга эътибор берилмайди.

Умуман олганда майдон - материянинг тури (яшаш шакли эмас) сифатида тушунтирилиши билан бирга моддадан макроскопик жараён-ларда фарқ қилишига, майдон ўзаро таъсирлашувда моддий ташувчи, моддий системаларнинг зарраларини бирлаштирувчи хоссасига эга бўлган материянинг тури дейиш маъқулроқ бўлади.

Масса тушунчаси чуқур фалсафий тушунча бўлиб, материя тушунчаси билан боғлиқ ҳолда фазо, вақт ва ҳаракат тушунчаларига бориб тақалади.

Масса тушунчаси -материянинг баъзи асосий хоссаларини акс этти-ради. Буни биз у ёки бу физик тадқиқотларда намоён бўлишида кўрамиз:

- Жисм инертлик ўлчови (инерт масса) сифатида Ньютон қонунларида намоён бўлади;
- Жисмлар орасидаги тортишиш ўлчови (гравитацион масса) эканлиги Бутун олам тортишиш қонунида кўринади;
- Ҳаракатдаги жисм энергиясининг ўлчови бўлиши билан бирга масса билан энергия орасидаги боғланиш: $E = \Delta mc^2$ да массанинг ҳаракат тезлигига боғлиқ ҳолда ўзгариши ҳақида фикр юритилади;
- Электромагнит жараёнларнинг тавсифи электромагнит масса сифатида;
- Элементар зарралар структурали боғланишининг харак-теристикаси (массалар дефекти-тинчликдаги массанинг материя тузилиши билан боғлиқлигини тавсифлашда);
- Жисмдаги (модда) зарралар сони (миқдори)нинг ўлчови сифати-да классик атомизм, химияда, халқ хўжалигида моддий ноз-неъматлар ишлаб чиқаришда;

Юқоридагиларга асосланиб, физика таълимида масса тушунчасини қандай шакллантириш, тушунтириш масаласига тўхта-ламиз:

1.Масса тушунчасини аниқлаш.

2.Масса тушунчасининг бошқа. тушунчалар билан боғлиқ-лигини (материя, ҳаракат, ўзаро таъсир, фазо, вақт, энергия, иш ва ҳ.к.) аниқлаш.

3.Масса тушунчасининг Оламнинг физик манзараси тараққиёти нуқтаи назаридан таҳлил қилиш.

4.Масса тушунчасини методологик жиҳатдан тушунтириш ёки эътиборга олиш.

Шу кунгача мавжуд бўлган методик ва илмий адабиётларда масса тушунчасини тушунтиришда бирмунча қийинчиликлар мавжудлигини кўрамиз ("масса - материя миқдори" ёки "модда миқдори")

Масса-тушунча бўлиб, модда (материя)нинг инертлик, тортишиш каби хоссаларини акс эттиришини кўрамиз. Материянинг энг муҳим хос-саларидан бири инертлик ва тортишиш бўлиб фақат ўзаро таъсирлашувда намоён бўлади. Бунда масса материянинг инертлик, тортишиш хосса-ларининг сифатий ва миқдорий характеристикасининг ўлчови бўлиб хизмат

қилади. Масса ва энергиянинг боғланиш қонун-ларидан кўрина-дики, масса жисмдаги тўлиқ энергиянинг ўлчови бўлади. [2]

Элементар зарраларнинг ўзаро таъсирлашувида рўй берадиган ҳодисаларни изоҳлашда ёруғлик кванти энергияси билан масса орасидаги боғланишни тушунтиришда ҳисобга олиш зарур. Демак, бу ерда масса тушунчасининг ҳам миқдорий, ҳам сифат ўзгаришини кўрамиз.

Материя бир ҳолатдан бошқа ҳолатга ўтганида унинг массаси ва энергияси ҳам миқдорий, ҳам сифат ўзгаришида намоён бўлиши ҳақида диалектик хулоса чиқариш керак.

Ўзаро таъсир ва куч тушунчаси. Ўзаро таъсир тушунчаси физика курсининг асосий тушунчаларидан бири бўлиб, барча ўрганиладиган ҳодиса, жараёнларнинг замирида ётади. Ўзаро таъсирни яхши тушунмас-лик – табиатда содир бўлувчи ходисаларнинг рўй беришини билмаслик, ундан ғайриқонуний хулосалар чиқаришга олиб келиши мумкин.Баъзи методик адабиётларда ўзаро таъсир тушунчаси ҳодисаларни таҳлил қилишда тўғри ёритилмайди. Кўп ҳолларда табиатда ўзаро таъсир тушун-часи ўрнига куч билан алмаштирилиб юборилади, яъни ўзаро таъсирларнинг моҳияти физик майдонга боғлиқлиги очилмай қолади. Тортишиш, ядровий, электр жараёнлардаги мавжуд майдоннинг роли, майдон орқали ўзаро таъсир рўй бериши очилмасдан қолади.

Ўзаро таъсир тушунчасини тўғри шакллантириш бутун физика курсини илмий асосда ўрганишга имкон яратади. Чунки барча физик ҳодиса ва ўзгаришларнинг асосида ўзаро таъсир ётади. Физик ҳодисалар табиатда турли-туман кўринишда учрашини илмий нуқтаи назардан тушунтириш учун ўзаро таъсир тушунчасини яхши билиш керак бўлади.

Узаро таъсир тушунчасини шакллантиришда қуйидагиларга эътибор бериш керак бўлади:

1.Ўзаро таъсир ҳар қандай исталган моддий жисм (материя)да мавжуд эмас.

2.Жисмлар орасидаги ўзаро таъсир барча тур ҳаракатларнинг манбаидир. Табиатдаги барча табиий ҳодисалар, жараёнларнинг асосида материя турларининг ўзаро таъсири ётади.

3.Турли-туман ўзаро таъсирлар асосан ҳозирги замон физикасида аниқ бўлган тўртта асосий турга бўлинади (ядровий, гравитацион, электромагнит ва кучсиз ўзаро таъсирлар) ва ҳар бирининг физик майдо-ни бўлади.

4.Ўзаро таъсир тушунчаси табиатдаги ҳодисаларнинг ўзаро боғланганлик, ўзаро шартлилик, сабаб ва натижа билан боғланган.

Ўзаро таъсирни билмасдан туриб,табиат қонунларини билиб бўлмаслиги ҳақидаги фикрнинг моҳияти очилиши керак.Ўзаро таъсир жисмлар ва ҳодисалараро умумий боғланиш шакли бўлиб, уларнинг ўзаро ўзгаришини юзага келтиради. Шунинг учун ҳам ўзаро таъсир бутун физика курсида ўрганиладиган ҳодисаларни ўрганишда асос бўлмоғи керак.

Куч тушунчасини ўзаро таъсир тушунчаси билан алмаштирмаслик керак. Куч жисмлар ўзаро таъсирининг миқдорий ўлчови бўлиб, жисмлар ўзаро таъсирлашувида намоён бўладиган катталикдир.

Куч механикада жисмларнинг ўзаро механик таъсирининг ўлчови шаклида жисм олган тезланиши билан намоён бўлади. Бошқача айтганда "куч - механик ҳаракат кўчишининг ўлчови бўлиб, ўзаро таъсир жараёнида бир жисмдан иккинчисига кўчадиган ҳаракат миқдоридан вақт бўйича олинган d(mυ)/dt ҳосила билан аниқланади. Шундай қилиб, куч - "ўзаро таъсир тушунчасининг умумий характеристикаларидан бири" ҳисобланади.

Куч тушунчасини таълим олувчиларда шакллантиришда методологик нуқтаи назардан қуйидагиларга эътибор бериш керак бўлади:

1. Куч- моддий объектларнинг ўзаро таъсирини сифат ва миқдорий жиҳатдан характерловчи ўлчови бўлади,

2. Куч - вектор физик катталик бўлиб,ҳаракатни биржисмдан иккин-чисига кўчишининг ҳам йўналиши, ҳам сон қийматини характерлайди.

3. Куч тушунчаси нафақат ўзаро таъсир тушунчаси билан боғлан-ган, бошқа кўпгина тушунчалар (куч моменти, импульс, импулъс мо-менти, майдон кучланганлиги, иш ва қувват

ҳ.к.) билан узвий боғлан-ган бўлиб, бу тушунчаларнинг шаклланишида муҳим аҳамият касб этади.

4. Куч тушунчаси - моддий жисмлар ўзаро таъсирининг ҳам миқ-дорий, ҳам сифат характеристикаси бўлиши билан бирга ҳодисаларнинг юз бериш сабаби билан ҳам жипс боғлангандир (яъни сабабсиз оқибат бўлмаслиги).

Кучни ўзаро таъсир билан алмаштирмаслик керак. Куч-бу ўзаро таъсир эмас, балки ўзаро таъсирнинг ўлчовидир. Бирор жисм ҳаракати ўз-гаришининг сабабчиси куч эмас, балки бошқа бир ҳаракатдаги жисм билан ("тинч" турган ёки бошқа ҳаракатдаги жисм билан) ўзаро таъсирдир. [7]

Хулоса ва таклифлар. Физик тушунчалар ёрдамида табиатдаги сирли ҳодисаларнинг моҳияти очиб берилади. Ушбу ҳодисаларнинг юз беришини ифодалайдиган қонунлар, ғоялар ҳам ривожлантирилиб, ўзгариб, янги-янги маънолар касб этиб, кенгайиб бориши билан таълим жараёнининг ривожланиб бориши кўрсатилади.

Физик тушунчалар таълим жараёнида таълим олувчиларнинг ақлий фикрлаш фаолиятининг ўсишида, таҳлил ва яхлитлаш, системалаштириш ва умумлаштириш каби дидактик тамойиллар билан узвий боғланган бўлиши лозим.

Физик тушунчаларни босқичма-босқич, маъноси ва моҳияти мантиқан тўғри ўргатиб борилса, уларнинг мазмуни методологик жиҳатдан илмий таҳлил қилингандагина физик ҳодисалар ва қонуниятларни яхшироқ ўрганиш, баён қилиш имкони яратилади. Физик тушунчаларни босқичма-босқич шакллантиришга ўқитувчиларимиз деярли эътибор бермайдилар. Физик тушунчаларнинг таълим олувчилар илмий дунёқарашини ривожлантиришдаги ролига эътибор берилмаслиги сабабли унинг моҳияти очилмай қолади ёки нотўғри талқин қилиниши физик ҳодисанинг метафизик, догматик фикрлашга олиб келади, бу эса илмий дунёқарашга зиддир. Шунинг учун ҳам физик тушунчаларни методологик нуқтаи назардан тўғри таҳлил қилиш ва тушунтириш, уни шакллантириш физик қонун, ғояларни тўғри тушунишга олиб келади. Бунинг учун ҳар бир ўқитувчи шу соҳада етарли даражада методик адабиётлар билан таъминланган бўлмоғи, ўқитувчининт ўзи методологик жиҳатдан етарли даражада билимга эга бўлмоғи, ҳар бир физик ҳодисани тушунтиришда фалсафий саводхонлиги жиҳатдан тайёрланган бўлмоғи керак.

Оламдаги барча ҳодисалар, жараёнлар, физика фанидаги ғоялар, принциплар, қонун ва назариялар, табиатни назарий ва амалий ўрганиш - физик тушунчаларни тўғри ва тўлиқ шаклланишининг якуни шаклида ўз аксини топади. Шунинг учун ҳам табиат ва ундаги ҳодисаларни ўрганишда физик тушунчаларнинг моҳиятини очиш беқиёс катта аҳамиятга эга ва таълим олувчиларда илмий дунёқарашни шакллантиришда муҳим ўрин тутади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Афанасьев В.Е Общество: Системность, познание и управление. - М., Политиздат, 1991. - 432 б.
2. Бердиев Ч. Физикани ўқитишда илмий дунёқарашни шакллантириш. Т., Ўқитувчи, 1995 -136б.
3. Владимиров С.В. Методы научного познание в физики. –М: Наука, 1985. 325 с
4. Ефименко В.М.Методологические вопросы школьного курса физики. –М:, Педагогика.1996 -297 с
5. Пономарев А.Б.,Пикулева Э.А. “Методы научного познание в физики”. М: Наука, 2005. 325 с.
6. Турсунов Қ.Ш., Узоқова Г.С. Физика таълимида системали таълим-лар. // “Халқ таълими”. -72-74.б.- № 6.-2011
7. «Турли муҳитларда электр токи» бўлимига доир физик тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-методик асослари. Монография. Тошкент: “Фан”,2015 йил 234б

8. Узоқова Г.С.,Турсунов Қ.Ш., Қурбонов М. Физика ўқитишнинг назарий асослари. Ўқув қўлланма. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2008 200 б.
9. А. Эйнштейн. Физика и реальность. М., "Наука", 1965.

МЕВА-САБЗАВОТ КООПЕРАЦИЯСИНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти
“Инновацион иқтисодиёт” кафедраси доценти

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва соҳа самарадорлигини оширишда мева-сабзавот кооперациясини ташкил этиш лозимлиги келтирилган. Мева-сабзавот кооперациясини ташкил этиш ва уни барқарор ривожлантириш чора-тадбирлари келтирилган.

Калит сўзлар: мева-сабзавот, кооперция, қишлоқ хўжалиги, озиқ-овқат, самарадорлик, экспорт, ҳосилдорлик, кластер, экологик тоза.

Annotation: this article presents the need to organize fruit and vegetable cooperations in the development of Agriculture and increasing the efficiency of the sphere in Uzbekistan. Measures for the organization and sustainable development of fruit and vegetable cooperation are presented.

Keywords: fruits and vegetables, fruit and vegetable cooperation, agriculture, food, efficiency, export, productivity, cluster, environmental friendliness.

Мамлакат аҳолисининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжларини узлуксиз ва кафолатли қондириш, ички истеъмол бозорини Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар билан таъминлаш эвазига, импорт ҳажмини қисқартириш натижасида экспорт миқдорини ошириш қишлоқ хўжалиги салоҳиятини юксалтиришда устувор вазифалардан бири ҳисобланади. Чунки, бу тармоқ аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари, саноат корхоналарининг эса хом ашё ресурсларига бўлган талабини узлуксиз қондириш имкониятини беради. Қолаверса, Ўзбекистон мева-сабзавотчилик маҳсулотларини етиштириш учун юксак потенциал ва ишлаб чиқариш салоҳиятига эга давлатдир.

Бизга маълумки, экологик тоза ва хавфсиз бўлган қишлоқ хўжалик маҳсулотларига талаб дунё бозорларида тобора ортиб бормоқда. Мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш, сақлаш, қайта ишлаш ва экспорт қилиш бўйича ривожланган давлатлар тажрибаларининг таҳлиллари ушбу маҳсулотларни ишлаб чиқарувчиларнинг кооперацияси ва кластерларини ривожлантириш зарурати борлигини кўрсатмоқда. Президентимиз таъкидлаганидек: “Келгусида қишлоқ хўжалиги вазирлиги соҳа корхоналарига кўрсатма бериш, ресурсларни тақсимлаш, режа белгилаш каби эски иш усулларидан мутлақо воз кечиши зарур. Бунинг ўрнига, вазирлик сервис ташкилотига айланиши, хусусий агросаноат ташкилотларига ер ҳолатини аниқлаш, экин турлари ва уруғни тўғри танлаш, зараркунандаларга қарши курашиш, молиявий кўмаклашиш, маҳсулот бозорини топиш бўйича хизмат кўрсатиши керак”[1]. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги тармоқлари олдида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг таннархи паст бўлишини таъминлаш, маҳсулотлар миқдорини кўпайтириш ва ассортиментини яхшилаш, мамлакат қишлоқ хўжалигида меҳнат умумдорлигини ошириш каби асосий вазифалар турибди.

Ривожланган мамлакатларда меҳнат ресурсларининг 2-5 фоизи, кам тараққий этган аксарият мамлакатларда эса 90 фоизгача қишлоқ хўжалиги тармоғида меҳнат қилади. Ривожланаётган мамлакатларда қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши ривожланган мамлакатлардагига нисбатан анча катта рол ўйнайди. Ялпи ички маҳсулотда қишлоқ

хўжалигининг салмоғи ривожланаётган мамлакатларда ўртача 22 фоизни, ривожланган мамлакатларда 4 фоизни ташкил этади. Ривожланаётган мамлакатларда ривожланган мамлакатларда етиштирилаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ярмидан кўпроғи етиштирилмоқда. БМТ экспертлари фикрларича, ҳар йили озиқ-овқат муаммосини ечиш учун унинг ҳажми 6 фоиз ошириб борилиши талаб этилади[2].

Таҳлилларга қараганда, юртимизда боғ ва токзорларда ҳосилдорлик жуда паст. Масалан, қишлоқ хўжалиги ривожланган АҚШ, Хитой, Италия, Франция каби давлатларда бир гектар интенсив боғдан 80-120 тонна, айрим мевалардан 140 тоннагача ҳосил олинса, юртимизда бир гектардан 10-30 тонна, анъанавий боғ-токзорлардан эса 4-5 тонна маҳсулот олинади[3]. Бу албатта қишлоқ хўжалигида иқтисодий жиҳатдан самарасиз ҳолатдир.

АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ. Мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш соҳасини ривожлантириш борасидаги иқтисодий муаммолар ва қишлоқ хўжалигида кооперация ва интеграция жараёнини ривожлантириш масалалари хорижлик Т.Бузина, Н.Кузнетсова, И.Минаков, В.Володин, Л.Антоненко [4] каби ва бошқа аграр соҳа иқтисодчи олимлари ишларида ўз аксини топган. Республикамиз қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши шароитида кооперация муносабатларини ривожлантиришга қаратилган илмий ечимлар.

Р.Хусанов, С.Усмонов, Қ.Чориев, Ў.Умурзаков, Т.Фармонов, Н.Хушматов, О.Жумаев, Х.Хушвақтова [5] каби қатор аграр иқтисодчи олимларнинг илмий ишланмалари қаторидан ўрин олган. Лекин юқорида келтирилган ишларнинг турли даврларда бажарилганлиги, ҳозирги пайтда соҳада агрофирмалар ва кооперативлар фаолиятини ташкил этиш борасидаги ислоҳотларнинг чуқурлашуви мева-сабзавот маҳсулотларини сотиш соҳасида тадқиқотлар олиб боришда комплекс ёндашувни тақозо этмоқда.

А.Чаянов “Кооперацияни, бир томондан, умуман ҳеч қандай ижтимоий вазифаларни вазифаларни ўз олдига қўймайдиган ташкилий хўжалик формуласи бўлмиш кооперативга ва иккинчи томондан, кенг ижтимоий ҳаракат ёки аниқроқ айтганда ўзига хос мафкурага эга бўлган ва узининг аниқ мужассамлашув қуролларидан бири бўлмиш кооператив шаклларидан фойдаланиладиган ҳаракат”, деб талқин этади. Мана шу сўнгги ҳаракат ўз олдига онгли равишда ижтимоий мақсадларни қўядилар ва шу мақсадларсиз уларни тасаввур этиб бўлмайди” дейди. Унинг фикрича бир хил турдаги маҳсулот ишлаб чиқарувчи улар бирлашиб кооперацияни ташкил этади. Кооперативлар кўпроқ даромад олиш мақсадида кооперацияни ташкил этадилар. Натижада 5 - 6 та деҳқонлар бирлашиб, кооперация низоми асосида фаолият кўрсатади. Кооперация жараёнини ташкил қилишдан ҳар бир кооператив а’зоси моддий манфаатдор бўлмаса, кооперация жараёни ўз моҳиятини юқотади. Чунки моддий манфаатдорлик кооперациянинг ролини белгиловчи энг муҳим омил ҳисобланади. Кооперация хусусий, коллектив ва жамоа манфаатлари уйғунлашувининг шундай бир шаклики, бунда ҳар бир шахс ундан моддий манфаатдор бўлиши керак[6].

М.И.Туган-Барановский, кооперация назариячиси бўлиб, унинг “Кооперациянинг социал асослари” (1916 йил) китобида кооператив ҳаракатлар, кооперация тушунчасининг моҳияти тўлиқ очиб берилган. Унда “Кооперативнинг асосий аниқловчи белгиси ва унинг капиталистик корхонадан фарқи - капиталнинг фойдага йўналтирилмаганлиги. Кооператив корхона қўйилган капиталдан фойда олиш учун тузилмайди, балки хўжалик аъзоларини жамоа бўлиб фаолият кўрсатиши, уларнинг меҳнат даромадлари ёки истеъмол эҳтиёжларига сарфини камайишига кўра юксалишини билдиради”[7].

АСОСИЙ ҚИСМ. Ҳозирги вақтда дунёдаги ривожланган мамлакатларда замонавий занжирли озиқ-овқат дўконлари орқали мева-сабзавот савдоси тез суръатлар билан ўсиб бормоқда, бу асосан анъанавий чакана бозорлар ҳисобига яратилмоқда. Айтиш керакки, мева-сабзавотнинг 65 фоизи, гўшт ва сут маҳсулотларининг 93-95 фоизи деҳқон хўжаликлари ва аҳоли томорқаларида етиштирилмоқда. Бироқ, шу маҳсулотларни қайта ишловчи корхоналар 50-60 фоиз қувватда фаолият юритмоқда. Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари ҳажмларининг йилдан-йилга ошиб бориши сақлаш ва қайта ишлаш тармоғидаги бир қатор муаммо ва

камчиликларни бартараф этиш, соҳани ислоҳ қилишда замонавий инновацион, ресурс тежайдиган рақамли технологиялардан кенг фойдаланган ҳолда туб бурилишни амалга оширишни талаб этмоқда. Хусусан:

- республикада умумий ишлаб чиқариш ҳажмларига нисбатан меванинг 18,9 фоизи, сабзавот ва полиз маҳсулотларининг 5,6 фоизи, узумнинг 9,5 фоизи саноат корхоналарида қайта ишланмоқда;
- етиштирилган мева-сабзавот маҳсулотларини ҳудудларда сақлаш учун совутгичлар билан таъминланганлик даражаси 3,7 фоизни (совутиш омборхоналари йил давомида борйўғи 20-22% га маҳсулот билан таъминланган) ташкил этмоқда;
- мавжуд совутгичларнинг аксарияти маънан эскирган, технологик жиҳатдан янгиланмаган, замонавий технология ва рақамли инновацион ишланмалар лозим даражада татбиқ этилмаган;
- соҳа учун малакали кадрлар тайёрлаш масаласига инновацион ёндашувни тақозо этмоқда. Илғор тажрибали замонавий ускуналар билан ишлаш қобилиятига эга, қайта ишлаш, сақлаш йўналиши бўйича мутахассислар тайёрлашга етарлича эътибор берилмаяпти;
- сақлаш ва қайта ишлаш корхоналарининг замонавий-технологик талаблари ва ҳажмларидаги маҳсулотлар билан етарли даражада таъминлаш масалаларига тизимли ёндошилмаяпти;
- транспорт ва логистика соҳаси замон талабидан ортда қолмоқда;
- сўнгги йилларда мева-сабзавотчиликни юритиш интенсив технология асосида олиб борилмоқда. Натижада қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ресурслар, жумладан, ёнилғи мойлаш материаллари, кимёвий воситалар (мева-сабзавот етиштириш учун 255 минг тонна фосфорли, 290 минг тонна азотли ўғит етишмайди) ва уруғлик нархларининг ортиб кетиши, қишлоқ аҳолиси даромадларининг пастлиги, шунингдек, минерал ўғитлар, кимёвий воситаларнинг қўлланилиши, оғир техникадан фойдаланиш, ер ресурслари сифатининг ёмонлашуви, экологик мувозанатнинг бузилишига олиб келмоқда[6].

Ҳудудларда етиштирилаётган маҳсулотлар ҳақида харидорларга зарур бўлган маълумотларни берувчи ахборот-маслаҳат марказлари ва рақамли технологиялар фаолияти йўлга қўйилмаганлигидадир.

Бундан ташқари республикада транспорт-логистика борасидаги мавжуд муаммоларни ҳозиргача ҳал этилмаганлиги маҳсулотларни саралаш, қайта ишлаш, қадоқлаш ва харидорларга юбориш муаммолигича қолмоқда.

Шу боис қишлоқ хўжалигини жадал ривожлантириш, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш учун қишлоқ хўжалиги соҳасида мега лойиҳалар ишлаб чиқиш ва амалга ошириш зарурати туғилади. Мева-сабзавотчилик маҳсулотларини ташқи бозорларда сотиш ҳисобига мамлакат валюта тушумининг сезиларли қисми шаклланаётганлиги ҳам соҳани тубдан ислоҳ қилиш ва жадал ривожлантиришнинг устуворлигидан далолат беради.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. Ҳозирги кунда мева-сабзавот маҳсулотларини узлуксиз ишлаб чиқариш, кооперативларга бирлаштириш ҳамда экспорт салоҳиятини ошириш учун қулай шарт-шароитлар яратишда мавжуд бўлган қуйидаги жиддий тўсиқларни бартараф этиш талаб этилади:

- кичик ишлаб чиқарувчилар (деҳқон хўжаликлари) ўртасидаги ҳуқуқий-иқтисодий ҳамкорликни рағбатлантирадиган тартибга солиш муҳити яратилиши лозим. Бунинг натижасида маҳсулот етиштирувчилар томонидан талаб этиладиган катта ҳажмдаги маҳсулотларни доимий равишда етказиб бериш имконияти пайдо бўлади.
- ички истеъмол бозорини қиш-баҳор мавсумида ҳам мева-сабзавот маҳсулотлари билан барқарор таъминлаш мақсадида уларни заҳирага ғамлаш, шунингдек, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи маҳаллий корхоналар эҳтиёжини таъминлаш бўйича шартнома асосида давлат буюртмаси тизимини жорий этиш лозим.

- қиш-баҳор мавсумида аҳолининг арзон маҳсулотларга бўлган эҳтиёжини имтиёз ва преференциялар бериш орқали таъминлаш тизими яратилиши муҳимдир.
- ички бозорни ҳимоялаш мақсадида протекционистик, компенсацион ва демпингга қарши чоралар қўллаш тизими жорий этилиши зарур.
- мева-сабзавотчилик маҳсулотларини қайта ишлаш, логистика ва экспортни қўллабқувватлаш мақсадида соҳага тўғридан-тўғри инвестицияларни жалб қилиш, шунингдек, озиқ-овқат хавфсизлиги, сифатни бошқариш тизимлари, илмий тадқиқотлар ва хорижда маҳсулотларимизнинг рекламасига эътибор қаратилиши керак.
- дунёда электрон тижоратнинг жадал ривожланишини ҳисобга олиб, янги бозорларга чиқиш имкониятларини ошириш мақсадида, қишлоқ хўжалигида рақамли технологияларни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш борасида янада самарали фаол чоралар кўрилиши зарур. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчилар, кластер ва кооперациялар, агрологистик марказлар, қайта ишлаб чиқарувчилар, савдо тармоқларини ўз ичига олган электрон агросаноат савдо порталини жорий этиш мақсадга мувофиқ.

-тармоққа инновацион, ресурс тежамкор технологияларни жорий этиш, “Ақлли қишлоқ хўжалиги” ва рақамлаштирилган агротехнологиялар комплекс тизими жорий этилиши керак[7].

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР. Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб айтишимиз мумкинки, мева ва сабзавотчилик маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш, экспорт қилиш ҳамда тайёр маҳсулот ҳолига келтириш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

- ҳудудлар кесимида мева–сабзавотчилик маҳсулотларини етиштириш, сақлаш, қайта ишлаш ва экспорт бўйича замонавий агрокластерларни ташкил этиш. Бунда асосан мавжуд ерлардан фойдаланиш яхши самара беради;
- инновасион нано технологияларни қўллаш ҳамда илмий-текшириш институтлари ходимларининг салоҳиятини босқичма-босқич ошириб бориш;

-мева-сабзавот маҳсулотлари асосан тайёр ҳолда экспортга йўналтирилаётгани туфайли иқтисодий самара етарли бўлмаяпти. Соҳага янги инновасиялар ва илмий ишланмалар жалб қилинса янада юқори самарадорликка эришиш мумкин;

- ҳўл мева-сабзавот ва тайёр маҳсулот экспорт қиладиган хўжалик субъектларининг ишида юзага келадиган ташкилий муаммоларни бартараф этиш ҳамда имтиёзлар тизимини ишлаб чиқиш. Бунда давлат хусусий шерикликни ривожлантириш ижобий таъсир кўрсатади;
- мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш ва бир вақтнинг ўзида қайта ишлаш билан шуғулланувчи ишлаб чиқариш мажмуалари, холдинглар ва илмий ишлаб чиқариш бирлашмалари фаолиятини кенгайтириш. Ушбу тармоқнинг ривожланиши натижасида янги иш ўринлари яратилади.

Бизнинг фикримизча юқоридаги таклиф ва тавсиялар мева-сабзавот маҳсулотларини сақлаш ҳамда қайта ишлаш тизимига жорий этилиши соҳаларнинг иқтисодий самарадорлиги ошишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.

2.Бузина Т.С. Оптимизация взаимодействия участников в региональных агропромышленных кластерах/ Т.С. - Иркутск: Издательство Иркутский ГАУ, 2015.

3.Ҳусанов Р. Деҳқон хўжалигини юритишнинг илмий ва амалий асослари. – Т.: Чўлпон, 2000 й.

4.Алехандер Чаянов. Основные идеи и формы организации сельскохозяйственной кооперации.-1926

5.М. И. Туган - Барановский. «Социальная основа сотрудничества» 1916 г.

6.Ў.Умурзаков “Мева-сабзавотчилик қиймат занжирида вертикал ва горизонтал интеграциянинг аҳамияти” Тошкент, 2017 й.
7.Қ.С.Ҳамдамов “Қишлоқ хўжалиги корхоналари фаолиятини бошқариш”, Т:- 2004 й.
8.http://www.agro
9.https://countrymeters.info/ru/World

TADQIQOTLI O‘QITISHGA ASOSLANGAN TA’LIMNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

Xo‘jamberdiyeva Jamila Norqobilovna.
QarshiDU.

Annotation. The article discusses the idea of research training, the possibility of using research training in the formation of scientific knowledge in physics in a logical sequence, expediency, the use of various models of educational research in the study of natural sciences. The issues of the formation of physical concepts in a logical sequence, expediency in the educational process, the introduction of a graduated (stepwise) model in the organization of educational research are scientifically and methodically substantiated.

Keywords: research training, educational research, educational problem, analytical thinking, query-based learning.

Annotatsiya. Maqolada tadqiqotli o‘qitish g‘oyasi, fizikadan ilmiy bilimlar majmuini mantiqiy ketma-ketlikda, maqsadga muvofiq shakllantirishda tadqiqotli o‘qitish-dan foydalanish imkoniyatlari, tabiiy fanlarni o‘rganishda o‘quv tadqiqotning turli modellaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Ta’lim jarayonida fizik tushunchalarni mantiqiy ketma-ketlikda, maqsadga muvofiq shakllantirish masalalari o’quv tadqiqotlarini tashkil etishda darajali (zinali) modelining joriy etilishi ilmiy –metodik jihatdan asoslangan.

Kalit so’zlar: tadqiqotli o‘qitish, o’quv tadqiqotlari, o‘quv muammosi, tahliliy fikrlash, so‘rovga asoslangan ta’lim.

Kirish.

Tadqiqotli o‘qitish g‘oyasi pedagogikada juda unchalik katta yangilik emas. Shaxs o‘z kashfiyotlari asosida yangi bilimlar egallay borishiga asoslangan ta’limning ildizlari “Suqrotona suhbatlar” kengaygan antik davrga taqaladi. Aynan Suqrot bilimni tayyor holda bermaslik va bilish faoliyatini hosil qilgan jarayonlarda yangi bilimlar olishga erishish lozimligini birinchi bo‘lib taklif etgan. Keyingi davrlarda bu ma’lum darajadagi evristik metodni Aflotun va Arastu ham qo‘lladilar. Tadqiqotlar orqali yangi bilimlar o‘zlashtirish g‘oyasining antik davrdan boshlangan taraqqiyot yo‘li Uyg‘onish davrida ham davom etdi, bu jarayon bizning davrimizda ham to‘xtagani yo‘q.

Tadqiqotli o‘qitish g‘oyasining ravnaq topishida keyinroq “muammoli o‘qitish” deb nom olgan yangi yo‘nalishning ishlab chiqilishi muhim bosqich bo‘ldi (o‘tgan asrning 60-80-yillari). Bu yo‘nalishda “o‘quv muammosi” tushunchasi negiziy ahamiyat kasb etadi. Ushbu o‘rinda mazkur tushunchaning asl mohiyatiga to‘xtalib o‘tish zarur deb hisoblaymiz. “O‘quv muammosi” o‘qituvchi dars mashg‘ulotlari davomida ongli ravishda yuzaga keltiradigan vaziyat bo‘lib, unda o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va mahoratlari bilan yangi mavzuni o‘rganmay turib mohiyati oydinlashmaydigan faktlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar aniqlab olinadi. O‘quv muammosini yuzaga keltirishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda yangi bilimlar o‘zlashtirish, mavjud faktlar solishtirish va tahliliy fikrlashga motivatsiya uyg‘otishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Fizikani o‘qitishda o‘quvchilarda ilmiy bilimlartushunchalar majmuini mantiqiy ketma-ketlikda maqsadga muvofiq shakllantirish eng muxim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘quv metodik adabiyotlarda tadqiqotli o‘qitish asosida tushunchalarni shakllantirish, uning rivojlanish dinamikasi yetarlicha yoritilmay, faqat misollar keltirilgan xolos.

Ilmiy-tabiiy fanlarni o‘rganishda o‘quv tadqiqotning turli modellaridan foydalanish I.Y.Lerner, M.V.Skatkinlar tomonidan, O‘quv tadqiqotlarini tashkil etishda darajali (zinali) modelning joriy etilishi bilan bog‘liq muammolar P.M Sadler, G. Sonner, Coyle ilmiy tadqiqotlarida o’rganilgan. V.G. Razumovskiy ilmiy tadqiqotning “fakt – umumlashtirish – faraz – tekshirib ko‘riladigan yangi faktlar” deb nomlanadigan va yaxlit sikl hosil qiladigan to‘rtta davrini shaxsning ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim omil deb hisoblaydi.

Shu kungacha mavjud bo‘lgan metodik adabiyotlarni tahlil qil-ganimizda so‘rovga asoslangan ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada metodik tahlil qilinmaganligini hamda ko‘pchilik bunday ishlanmalarga (ayniqsa yosh mutahassislar) muhtojligining guvohi bo‘lamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotli o‘qitishning (yoki tadqiqotli ta’limning) zamonaviy holatining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ilmiy-tabiiy fanlarni o‘rganishda o‘quv tadqiqotning turli modellaridan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bizning tadqiqotlarimiz mavzusi doirasida o‘tgan asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan va G‘arb pedagogik amaliyotida keng ommalashgan Inquiry based lear (IBL) - So‘rovga asoslangan ta’limning yo‘nalishi samaraliroq hisoblanadi. AQShdagi federal ilmiy-tabiiy ta’limning 1996 yilda qabul qilingan va 2012 yilda yangilangan standartlari Inquiry-based ssiense (IBS) yo‘nalishiga asoslanadi. Mazkur standartlarda asosiy urg‘u bilish metodlarining o‘zlashtirilishiga qaratiladi: ya’ni “standartlar ta’lim oluvchilarda biz qanday bilishimiz, nimani bilishimiz va anglab olganimizni qanday dalil bilan isbotlashimiz lozimligi haqidagi tushunchalarni shakllantirishni nazarda tutadi”. Inquiry based lear ning yo‘nalishi o‘quv jarayonlari asnosida ilmiy bilish metodlarini o‘zlashtirishni (o‘qituvchi tashkil etgan qizg‘in bilish faoliyati davomida yangi bilimlarga ega bo‘lishni) maqsad darajasiga ko‘taradi. Xalqaro monitoring tadqiqotlari (PISA va TIMSS) natijalariga ko‘ra, keyingi yillarda Singapur davlati o‘quvchilari eng yuksak natijalar ko‘rsatmoqda. Buning bosh omili esa mazkur davlat ta’lim tizimida ilmiy-tabiiy ta’limning Inquiry based lear (IBL) - So‘rovga asoslangan ta’limga tayanilganligidir (1-rasm).

Sikl tamoyilining asl mohiyati shundan iboratki, masalan, natijalarni muhokama qilish bosqichida asosiy masala hali etilmaganligi ma’lum bo‘lib qolishi mumkin: bu holda sikl yana bir boshdan takrorlanadi. Bordi-yu maqsadga erishilganligi qayd etilsa va ayni vaqtda qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazilishini talab qilguvchi natijalar kuzatilsa, bu holda yangi sikl ishga tushiriladi. Bundan tashqari tadqiqotning alohida olingan bosqichlariga siklning bir davri sifatida urg‘u qaratilgan ishlar ham mavjud.

Inquiry based lear (IBL) - So‘rovga asoslangan ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotlarda tadqiqotli ta’limning zinali (darajali) modeli nazarda tutiladi. Ta’lim o‘qituvchining tanloviga ko‘ra, to‘rtta zina (daraja)ning istalgan bittasida amalga oshirilishi lozim (2-rasm).

Misol uchun, har ikki modelda o‘quvchilarning mustaqillik darajasi birinchi zinadan to‘rtinchi zinaga qarab ijobiy tomonga o‘zgarib boradi (dastlabki zinada o‘quvchi mustaqilligi sezilarsiz bo‘lgani holda, o‘qituvchining rahbarlik roli maksimum darajasida bo‘ladi va to‘rtinchi zinada o‘quvchining mustaqilligi maksimal darajaga chiqqani barobarida o‘qituvchining rahbarlik roli minimumga tushadi). Biroq bizning tadqiqotlar doirasida ajratib ko‘rsatilgan zinalar bilan Banchi-Bel taklif etgan model o‘rtasida muayyan tafovutlar ham mavjud: biz, dars mashg‘ulotlari sharoitida umumlashmalar hosil qilish va yakuniy xulosalarni shakllantirish har doim o‘qituvchi bilan hamkorlikda yoki uning rahbarligi ostida amalga oshiriladi, deb hisoblaymiz. Shuningdek, biz Inquiry based lear (IBL) - So‘rovga asoslangan ta’lim mualliflari bilan yana bir masalada hamfikrmiz: ya’ni o‘quvchi mustaqilligining eng yuqori darajasi (sof tadqiqot) faqat “ta’lim oluvchilar ichki

manfaat tufayli motivatsiyaga va mustaqil tadqiqotlar olib borish uchun yetarli darajadagi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan” taqdirdagina namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar.

O‘quv tadqiqotlarini tashkil etishda darajali (zinali) modelning joriy etilishi bilan bog‘liq muammolar yana ko‘plab ishlarda tadqiq etiladi. Masalan, tadqiqotli ta’limning darajalari (zinalari) o‘quv tadqiqot faoliyatining mos bosqichi (xususan, tadqiqot doirasidagi tajriba-sinovlari, qamrovli ishlar) bilan uyg‘unlashuvi mumkin. Taklif etilgan model Rossiya federal ta’limi didaktikasida I.Y.Lerner, M.V.Skatkinlar tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim mundarijasining amaliy ko‘nikmalardan to nazariy umumlashmalar hamda xulosalarga bo‘lgan darajalarni qamram oluvchi zinalariga to‘liq mos keladi.

Taklif etilgan modelning alohida o‘rinlarini aniqlashtirish uchun biz fizika kursida Atom tuzilishi va uning tarkibiini o‘zlashtirishga oid tadqiqotni namuna sifati keltiramiz. O‘quv tadqiqotga mos tushuvchi mashg‘ulotning birinchi zinasida (kashfiyotlar ostonasida) o‘quvchi o‘qituvchi yordamida atom qanday tuzilishiga ega ekanligi haqida ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi: o‘qituvchining izchil savollariga javob berish asnosida asosiy tushunchalarning (atom o‘lchami, massasi, elektron harakati, atom yadrosi kabi) mohiyatini anglab oladi. Interfaol taqdimotlar darajasida esa dars mashg‘uloti o‘tkazilgan (o‘tkazilayotgan) tajriba asosida olib boriladigan evristik suhbatlar tariqasida tashkil etiladi. Dars mashg‘ulotining “tadqiqot-dars” darajasi (zinasi)da qo‘llanmada taqdimot tajribalariga asoslangan holda o‘tkaziladigan evristik suhbatlar Atom tuzilishini tushuntiruvchi modellardan kelib chiqadigan xulosalarni anglab borish ko‘zda tutiladi. To‘rtinchi zinada kichik guruhlar miqyosida o‘tkaziladigan laboratoriya tadqiqotlari orqali atom ichki tuzilishi murakkab ekanligi mustaqil holda o‘rganilishiga erishiladi.

Amaliyotli ilovalar zinasida nafaqat Atom tuzilishi, balki atom ichki holatlarining elektronlar bilan to‘ldirilishi, Mendeliyeyev davriy sistemasidagi elementlarning atom tuzilishlariga ko‘ra farqini o‘rganishda foydalaniladi. O‘quvchilarga atom tuzilishini tahlil qilish va uning har bir alohida zarralarining fundamental xususiyatlarini o‘rganish topshiriq sifatida beriladi. Shuningdek, o‘quvchilarga bir oy davomida o‘zlari foydalanadigan jihozlarning atomlari tarkibini va ularning fizik xossalarini turli kuzatishlar natijasida o‘rganib kelishlari vazifasi topshiriladi.

Hulosa va takliflar.

Bizning fikrimizcha, tadqiqotli o‘qitishning eng yuqori – faraz ilgari surish bosqichida o‘quvchi davriy sistemadagi barcha elementlarning atomlari ichki holatlari bir xil to‘ldirilishini lekin tashqi qobiqlaridagi juftlashmagan elektronlari tufayli ularning fizikkimyoviy xossalari bir-biridan tubdan farqlanishi sababini tushuntirib berishlari lozim. Tadqiqotli ta’lim doirasidagi ishlarida o‘quvchilar Atom elektroneytral tizim bo‘lganligi hamda o‘zoq vaqt yashashini hisobga olib energiyaning saqlanish qonuni va elektr zaryadining saqlanish qonunidan ham foydalanadilar. Farazlarni tadqiq etishning amaliyotli zinasida o‘quvchilarga Atomning Tomson va Rezerford tomonidan taklif etilgan modellarni tahlil qilish boshqotirma sifatida taklif etiladi. Bu o‘rinda o‘qituvchi Atom tarkibini murakkabligini o‘quvchilarning o‘zlari “kashf etishlari” va amalda qo‘llashlari uchun sharoit yaratadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan misollarda muqobil variantlilik ko‘zga tashlanadi: o‘qituvchi dars davomida yuzaga kelgan vaziyatlarni baholashi va o‘quvchi uddalay oladigan variantlarni topshiriq sifatida taqdim (yoki taklif) etadi. Inquiry based lear (IBL) - So‘rovga asoslangan ta’lim asosida o‘quvchilarning fizika fanini yaxshi o‘zlashtirishlari ya’ni ta’lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalanish yaxshi natijalarni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Inquiry and the National Science Education Standards. A Guide for Teaching and Learning. - National Academy Press. - Washington. - 2000.

2. Kind V. Pedagogical content knowledge in science education: perspectives and potential for progress // Studies in Science Education. - 2009. Vol. 45, Issue 2. - pp. 169-204.

3. Sadler P.M. The Influence of Teachers' Knowledge on Student Learning in Middle School Physical Science Classrooms .

4. P. M. Sadler, G. Sonnert, H. P. Coyle, N. Cook-Smith, J. L. Miller // American Educational Research Journal. - 2013. - Vol. 50: № 5. - pp. 1020-1049.

ЛИНГВИСТИКА В СРЕДСТВЕ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

Бобаева Шахноза Яркуловна
ассистент Каршинского института
ирригации и агротехнологий национального
исследовательского университета «ТИИИМСХ»

Аннотация: эта статья посвящена лингвистике в средствах массовой информации. Опираясь на лингвистические данные, Автор исследовал и анализировал специфические аспекты лингвистики в средствах массовой информации на основе доступной научной литературы.

Ключевые слова: СМИ, Лингвистика, наука, Лингвистика.

Annotation: this article will talk about linguistics in the media. The author, relying on linguistic data, studied and analyzed specific aspects of linguistics in the media on the basis of existing scientific literature.

Keywords: Media, Linguistics, science, linguistics.

Логичность, как коммуникативное качество речи, свойственна каждому функциональному стилю, так как она опирается на связь речь - мышление, законы же мышления одинаковы для всех сфер и ситуаций общения. Типичные речевые ошибки, снижающие логичность речи, связаны с нарушением важнейших законов формальной логики.

Однако в каждой из них эти законы действуют по-разному. Наиболее жестко законам логики подчинено научное изложение: подчеркнутая логичность - это одна из основных специфических черт, обусловливающих отбор и организацию языковых средств в научном стиле. Назначение науки - получать новые знания о реальной действительности, систематизировать их и доказывать истинность, вскрывать закономерности явления. Научная деятельность человека включает в себя две неразрывно связанные между собой задачи: процесс научного поиска, открытия и оформление результатов научного познания. Результаты научного поиска оформляются в виде речевого сообщения, содержание которого должно быть ёмким и в то же время ясным, недвусмысленным, адекватно передающим логическую мысль и однозначно воспринимаемым всеми адресатами**.** В научной речи недопустимы разночтения, двоякое понимание смысла, иносказательность, намёк. Научная речь, как подчеркивает А. Н. Васильева, принципиально бесподтекстна - подтекст противоречит ее сущности. В художественной речи мысль, будучи выраженной в образной форме, многозначна и может быть понята по-разному. Критики, читатели вносят элемент своего понимания содержания и идеи произведения, художественных образов. В художественном произведении за прямым, непосредственным содержанием скрыт второй план - подтекст. Причём в понимании замысла автора он может быть более существенным, чем прямой смысл. Так, художественные образы сказок М. Е. Салтыкова-Щедрина «Премудрый пескарь», «Медведь на воеводстве» и других или басен И. А. Крылова, например «Волк и Ягненок», «Волк на псарне», являясь конкретно соотнесенными, имеют и переносный смысл, более значимый в плане раскрытия идеи произведения. Основные законы логики, которым подчиняется человеческое мышление в целом, соблюдаются и в литературнохудожественном стиле. Для него, как и для других

книжных стилей, характерны последовательность, непротиворечивость изложения, аргументированность, четко выраженные связи между словами, предложениями и их частями. Однако требования логики в художественном произведении подчиняются необходимости раскрыть его содержание, авторский замысел, создать образ с целью эстетического воздействия на читателя. Поэтому в художественной литературе вполне допустимо нарушение требований логичности для того, чтобы показать особенности мышления и сознания отдельных персонажей. Алогизмы используются как стилистический прием намеренного нарушения логических связей в целях создания комизма, иронии и т. д. (например, как отмечалось выше, соединение в форме перечисления неоднородных понятий). Кроме того, в художественной речи немало так называемых «внешних» алогизмов, передающих сложность жизненных обстоятельств, внутреннего состояния человека, субъективных ощущений и т. д.: звонкая тишина; сладкая скорбь; черной молнии подобный (М. Горький), безлюбая любовь (А. Н. Толстой). Такие словосочетания, на первый взгляд, противоречат логическим соотношениям понятий, но за внешней алогичностью обычно скрывается своя, особая логика. «Внешние» алогизмы характерны также для публицистической и разговорной речи; они связаны с логикой подтекстного общения (например: - Куда он пошел? - Сейчас придет; - Куда ты бежишь? - Опаздываю) или отражают противоречивую сущность явлений (умный дурак, горькая радость), противоречивость субъективных трактовок (безмозглые мудрецы), стремление к образности, эмоциональности, экспрессии (выйти сухим из воды, из кожи вон лезть) и т.
д. Скрытая логика, характерная для разговорного, художественного и публицистического стилей, недопустима в научной речи. Логические нарушения, несущественные в бытовом общении, в научной речи могут привести к серьезным искажениям истины.

Средства массовой информации подразделяются на визуальные (периодическая печать), аудиальные (радио), аудиовизуальные (телевидение, документальное кино). Несмотря на все различия между ними, СМИ объединяются в единую систему массовой коммуникации благодаря общности функций и особой структуре коммуникативного процесса.

Среди функций СМИ обычно выделяют следующие:

- информационную (сообщение о положении дел, разного рода фактах и событиях);
- комментарийно-оценочную (часто изложение фактов сопровождается комментарием к ним, их анализом и оценкой);
- познавательно-просветительную (передавая многообразную культурную, историческую, научную информацию, СМИ способствуют пополнению фонда знаний своих читателей, слушателей, зрителей);
- функцию воздействия (СМИ не случайно называют четвертой властью: их влияние на взгляды и поведение людей достаточно очевидно, особенно в периоды так называемых инверсионных изменений общества или во время проведения массовых социально-политических акций, например в ходе всеобщих выборов главы государства);
- гедонистическую (речь здесь идет не просто о развлекательной информации, но и о том, что любая информация воспринимается с большим положительным эффектом, когда сам способ ее передачи вызывает чувство удовольствия, отвечает эстетическим потребностям адресата).

Кроме того, в некоторых работах, посвященных массовой коммуникации, вводится понятие так называемой генеральной функции, «которая представляет собой процесс создания и сохранения «единства некоторой человеческой общности, связанной определенным видом деятельности». Средства массовой информации объединяются и как особый тип коммуникации (дискурса), который можно охарактеризовать как дистантный, ретиальный (передача сообщения неизвестному и не определенному количественно получателю информации), с индивидуально-коллективным субъектом (под этим подразумевается не

только соавторство, но и, например, общая позиция газеты, теле или радиоканала) и массовым рассредоточенным адресатом. Необходимо отметить и такую особенность коммуникации в СМИ, как ее обусловленность социокультурной ситуацией, с одной стороны, и способность (в определенных пределах) вызывать изменение этой ситуации - с другой. Различия между средствами массовой информации основаны прежде всего на различии используемых в них кодов, знаковых комплексов. В периодической печати представлена двоичная знаковая система: естественный язык в его письменной (печатной) форме и играющие подсобную роль иконические знаки (фотографии, рисунки, карикатуры), а также разного рода шрифтовые выделения, способ верстки и т. д. Применительно к радио можно говорить о триаде: устная речь и естественные звуки (шумы), музыка.

В аудиовизуальных СМИ (телевидение, документальное кино) триада преобразуется в тетраду в результате появления такого важного для этих средств массовой информации способа передачи информации и воздействия на аудиторию, как «живое» изображение. Именно благодаря использованию слова в сочетании с изображением возрастает роль телевидения как средства массовой информации: «Слово и изображение - две главные знаковые системы, история которых восходит к древнейшему человеку. У каждой системы есть свои преимущества и свои недостатки, которые определяют их роль и место в человеческом общении. Достоинство изобразительных знаков в их большой доступности, ибо они сохраняют в себе сходство с обозначенным объектом. Достоинство слова - в способности абстрагироваться от конкретного. На протяжении многих лет неоднократно вспыхивает дискуссия о том, что важнее на телевидении: слово или изображение? Конечно, слово имеет исключительно важное значение в телепередачах, ибо оно несет основную, понятийную информацию. Но не следует забывать при этом, что телевизионные передачи все же прежде всего - зрелище, и не случайно тот, кто воспринимает телепрограмму, называется телевизионным зрителем, а не телевизионным слушателем. Естественно, в одних случаях большую роль в передаче информации несет слово, в других - изображение. Вероятно, только синтез устного слова и изображения как основных языков может обеспечить телевидению наилучшие коммуникативные возможности. Важно только, чтобы изображение «не молчало», как это часто бывает, и чтобы использовались все знаковые системы: и слово, и изображение, и музыка». Периодическая печать, наиболее традиционная разновидность mass media, лишенная многих преимуществ телевидения (иллюзия «живого» общения, наличие «картинки», использование паралингвистических средств, широкие возможности для формирования «журналистского имиджа» - вплоть до манеры держаться и внешнего вида), остается тем не менее и сегодня важнейшим средством массовой информации, обладающим значительным потенциалом воздействия не только на читателя, но и на разные стороны жизни социума.

Литература

1. Культура русской речи / Под ред. Л.К. Граудиной и Е.Н. Ширяева - М., 1999
2. Т.П. Плещенко, Н.В. Федотова, Р.Г. Чечет. Стилистика и культура речи - Мн., 2001г.
3. www.textologia.ru

ҚАШҚАДАРЁ МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ

Эргашева Насиба Раҳматуллаевна
ҚарМИИ "Бухгалтерия ҳисоби ва аудит"
кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш механизмининг таркибий қисмлари, шу жумладан аутсорсинг хизматларнинг мақсад ва вазифалари, мижоз томонидан аутсорсинг хизматлар бозорини танлаш, аутсорсинг шартномасини тузиш ва бошқариш жараёнлари бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: аутсорсинг, аутсорсинг хизмат, сифат, баҳолаш, бозор иқтисодиёти, аутсорсинг механизми, бошқариш жараёни, аутсорсинг хизматлар бозори

Abstract. This article presents the components of the quality assessment mechanism of the use of outsourcing services in preschool educational organizations, including the goals and objectives of outsourcing services, the selection of the outsourcing services market by the customer, and scientifically based proposals and recommendations on the processes of concluding and managing the outsourcing contract.

Key words: outsourcing, outsourcing service, quality, assessment, market economy, outsourcing mechanism, management process, outsourcing services market

Кириш. Мактабгача таълим ташкилотлари - мамлакатимиздаги узлуксиз таълим тизимининг бошланғич бўғинидир. Бу мактабгача таълим ташкилотларига болалар то 7 (етти) ёшгача қабул қилинади. Мактабгача таълим ташкилотларининг асосий вазифаси беғубор, мурғак қалбли ѐш болаларни соғлом ўстириш, умуминсоний қадриятлар асосида тарбиялаш, ёшига мос равишда замонавий билим ва тарбия бериш ҳамда маънавий юксалтиришдан иборатдир. Кейинги йилларда мактабгача таълим ташкилотларига мамлакат Президенти ва Ҳукумати томонидан катта эътибор берилмоқда, ҳудудларда замонавий талабларга жавоб берадиган яхши жиҳозланган болалар боғчалари қурилмоқда. Бу соҳага хусусий сектор жалб қилиниб, қўшма ёки хусусий, оилавий боғчалар кўпаймоқда. Натижада ёш болаларни мактабгача таълим ташкилотларига қамраб олиш даражаси кўтарилди. Болалар боғчаларидаги мутахассис педагоглар болаларнинг қобилияти имкониятларини аниқлаб қизиқишларини ўрганиб, ота-оналарга болалар тарбияси бўйича зарур тавсиялар бериши лозим. Шунинг учун ҳам ота-оналар мактабгача таълим ташкилотлари билан мунтазам алоқада бўлишлари керак.

Мактабгача таълим ташкилотларидаги шароитлар (мактабгача ёшдаги боланинг ўзига хос қийматига йўналтирилган таълим муҳити; жамоада ижобий микроиқлим; юқори сифатли меҳнатни рағбатлантириш тизими, мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини ижодий йўналтириш ва унинг раҳбари; оиланинг таълим эҳтиёжлари ва сўровларига йўналтириш; ўқув жараёнининг ҳолатини мунтазам равишда жамоавий муҳокама қилиш ва ваколатли бошқарув қарорларини қабул қилиш ва бошқалар) улар кўрсатаётган аутсорсинг хизматлари сифатига ўз таъсирини кўрсатади.

Бундай мураккаб ҳолатда мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматидан фойдаланиш яхши натижа беради. "Аутсорсинг" сўзи инглиз тилидан олинган бўлиб, шартнома асосида ташқи манбалардан ёки ресурслардан, корхона ва ташкилот фаолияти хизмат кўрсатиш функциясининг бир қисмини бошқа бажарувчи корхона ёки компанияга бериш, яъни аутсорсинг хизматини кўрсатувчи корхона ва компаниялар хизматидан фойдаланиш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади.

Аутсорсинг - бу харажатларни минималлаштириш, сифатни таъминлаш (яхшилаш) ва белгиланган муддатларга риоя қилиш мақсадида юқори ихтисослашган компаниялар ёки алоҳида мутахассисларни жалб қилиш орқали мижознинг асосий бўлмаган функцияларини бажаришни ўз ичига олган хизмат туридир.

Мактабгача таълим ташкилотларининг бухгалтерия ҳисобида ҳар қандай пухта ўйланмаган ҳаракат, ишга малакасиз ёндашув, ҳисоб-китоблар ноаниқлиги, ҳатто кичик хато ва камчиликлар ҳам катта жарималарга олиб келиши мумкин. Шунинг учун юқори малакали ва ўз соҳасининг устаси бўлган тажрибали бухгалтерларга талаб кун сайин ошиб бормоқда.

Мактабгача таълим ташкилотларининг бюджетга тўланадиган солиқларни ҳисоблашда аутсорсинг хизматидан самарали ва сифатли фойдаланиш аҳамияти юқоридир.

Ўзбекистон иқтисодиётида аутсорсинг хизматлари яқин йилларда пайдо бўлди. Бу аутсорсинг шартномаларини фаол равишда тузишни бошлаган маҳаллий ташкилот ва компаниялар учун янги хизмат кўрсатиш соҳаси. Фикримизча, бундай хизматларнинг маҳаллий амалиётда тарқалишини чекловчи омиллардан бири – улардан фойдаланишнинг ишлаб чиқилган тўғри механизмнинг йўқлиги ҳисобланади.

Шу муносабат билан биз ушбу соҳани ўрганишни, ташкилот ва компаниялар раҳбарларининг хато ва камчиликларга йўл қўймасликлари учун аутсорсинг хизматларидан сифатли фойдаланишни баҳолашнинг энг муҳим нуқталарини аниқлашни зарур деб ҳисоблаймиз. Бунда Мактабгача таълим ташкилотларига ушбу хизмат туридан амалда фойдаланиш имконини берувчи мантиқий ўзига хос ҳаракатлар тизими сифатида кўриб чиқишни таклиф қилмоқчимиз.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш муаммоси ва уларни амалиётга жорий этишга бағишланган ишланмалар таҳлили, шунингдек, аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш механизми муаммосини ўрганиш хорижий ва маҳалий иқтисодчи олимлар томонидан тадқиқ этилган. Мактабгача таълим ташкилотлари тизимини такомиллаштириш бўйича кўплаб тадқиқотлар олиб борилмоқда. Хусусан М.Б.Кубаева, Ш.А.Буранова, А.В.Шин, Г.А.Оманова ва бошқалар мактабгача таълим тизимини ривожлантиришнинг ташкилийиқтисодий ҳамда илмий-методик масалалари бўйича илмий-амалий тадқиқотлар олиб борган. Мактабгача таълим ташкилотлари сони ва улардаги жойлар сонининг кўпайиб, болаларни қамраб олиш даражасининг ошишида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги ―2017-2021 йилларга мактабгача таълим ташкилотлари тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида‖ги Қарори муҳим аҳамиятга эга бўлди. Бу Қарор асосида мактабгача таълим тизимини ривожлантириш Дастури қабул қилиниб, унга асосан давлат, давлат-шерикчилик, хусусий, оилавий билан таъминлаш белгиланган эди.

Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматидан фойдаланиш бўйича кўпгина иқтисодчи олимлар томонидан тадқиқ қилиниб келмоқда. Ушбу олимлар Гильмиярова М.Р. [1], Федорова Е.А., Ермолов А.В. [2], Корнейчик М., Лясуская Н. [3], Васильев А.С., Миргородская Т.В. [4], Еськова Л.Ф., Дрозд А.М., Маневич А.В. [5], Пардаев М. Қ. [6], Уразов Б.К. [7] ва бошқалар. Ушбу тадқиқот йўналишининг ўзига хос хусусияти шундаки, мавжуд хорижий ва маҳаллий илмий ишларнинг аксарияти фақат аутсорсинг хизматлари бозорининг айрим сегментларига қаратилган. Бу асосан аутсорсингнинг маълум бир туридан фойдаланиш ва у билан боғлиқ муаммоларга тегишли тадқиқотлардир.

Аутсорсинг соҳасида олиб борилаётган назарий тадқиқотлар ва Ўзбекистон Республикаси ташкилотлари томонидан тўпланган жуда кам амалий тажрибага қарамай, аутсорсинг хизматларидан сифатли фойдаланиш механизми ривожланиш йўлида бормоқда. Ушбу масала бўйича илмий ишларнинг жуда камлиги мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш фаолиятини ишлаб чиқадиган чуқур ва тизимли тадқиқотлар олиб боришни тақозо этмоқда.

Тадқиқот услуби. Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш ўзига хос бўлган асосий хусусиятларини асослаб бериш, аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш усулини ишлаб чиқиш ва амалиётга қўллашнинг услубий таъминотини яхшилашга қаратилган масалалар, монографик кузатув ва тизимли таҳлил билан изоҳланади.

Тадқиқот натижалари ва таҳлили. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида ҳамда мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш тизимидан келиб чиқиб, аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш механизми ҳақидаги қарашларни тақдим этамиз. Аутсорсингнинг мақсади ва вазифаларини

ишлаб чиқиш билан бирга мижознинг мантиқий ҳаракатлари тизими, бошқарув тамойиллари, функциялари ва усулларини аниқлаш, аутсорсинг компаниясини танлаш, шартнома тузиш ва унинг барча босқичларида минимал рисклар билан бажарилишини назорат қилиш, махсус ташкилий тузилма – ваколатлар маркази (ВМ) ёрдамида кўрсатиладиган хизматларнинг юқори самарадорлиги ва сифатига аҳамият бериш лозим.

Ушбу аутсорсинг жараёнларидан фойдаланишни мақсад қилган ташкилот олдида турган асосий вазифалардан бири бу жараёндан қониқиш ва сифатини баҳолаш даражасини аниқлашдан иборат. Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш тизимидан келиб чиқиб, сифатли аутсорсинг хизматларни кўришимиз мумкин.

Аутсорсинг хизматларининг сифатини уларни баҳолаш имконияти нуқтаи назаридан кўриб чиқинг. Бизнинг фикримизча, аутсорсинг хизматлари сифатининг барча таркибий қисмларини иккита кўрсаткич гуруҳига бўлиш мумкин: миқдорий (ўлчаш учун), объектив баҳолашни талаб қилувчи ва сифат (тавсифий), субъектив баҳолашни талаб қилади (2-расм).

Буюртмачи ва аутсорсинг хизматларининг пудратчиси ўртасидаги музокаралар жараёнида аутсорсингчи томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг сифати бўйича низолар пайдо бўлиши мумкин. Бизнинг фикримизча, бу жараён хизмат сифати бўйича шартномада белгиланиши керак ва бу шартномада акс эттирилиши керак. Ушбу ҳужжат мижоз учун кутилган натижаларни белгилайдиган аутсорсинг хизматлари учун сифат назорати кўрсаткичларининг тартибланган тизимидир. Сифат мижоз ва аутсорсер ўртасидаги биринчи алоқа пайтидан бошлаб шартноманинг тугашигача бўлган барча алоқаларнинг охиригача талаби бўлиши керак.

Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш юқоридаги элементлари бўйича баъзи фикрларни билдирамиз. Ушбу ҳодисани акс эттирувчи кўрсаткичлар тизимини ва уларни ўлчаш усулларини танлаш керак. Бундай ҳолда, эксперт баҳолашлари энг мақбул бўлади, чунки хизматларга нисбатан бошқа усуллардан фойдаланиш қийин.

Шу билан бирга, мактабгача таълим ташкилотларида муайян турдаги ишларни аутсорсинг қилиш ёки ихтисослаштирилган мониторингни қўллашда мунтазам календарь ёрдамида сифатни кузатиш мумкин. Биз кўрсаткичлар тизимини аутсорсинг хизматларини амалга ошириш босқичлари бўйича тақсимлашни таклиф қиламиз: уни тақдим этишдан олдин ушбу турдаги хизматлар учун хавф зоналарини аниқлаш учун моддий ва инсоний омилларнинг сифатини дастлабки баҳолаш ўтказилиши керак. Хизматларни бажариш фактининг якуний ўлчови шартнома муддати охирида ташкил этилади. Хизматнинг характеристикалари амалий жиҳатдан қуйидаги ҳолларда муҳим аҳамиятга эга: кўрсатилаётган хизматларнинг қониқарсиз сифати учун жавобгарлик ва жарималар қўллаш, мижоз ва аутсорсинг компанияси ўртасидаги ҳамкорликни тиклаш масаласини ҳал қилиш.

Мактабгача таълим ташкилотларида хизматни қониқарсиз бажарган тақдирда сифат тўғрисидаги қоидаларни амалга оширишнинг якуний босқичи жарима шаклида жавобгарлик бўлади. Бу эрда асосий нуқта аутсорсер учун сифатли хизматларни тақдим этиш учун фойдали бўладиган шундай келишувга эришишдир.

Тақдим этилаётган хизматлар сифати кўп жиҳатдан хизматларни бошқариш тизимини жорий этиш ва унинг самарадорлигини ўлчашга боғлиқ бўлади. Хизмат кўрсатиш соҳасида сифат менежменти жараёни хизматлар кўрсатиш бўйича барча фаолиятнинг ажралмас қисми сифатида қаралади.

Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматининг мазмунидан келиб чиқиб, биз хўжалик юритувчи субъектларни бошқариш самарадорлигини ошириш мақсадида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш механизмининг таркибий элементларини шакллантирдик (1-расм).

Бизнинг фикримизча, бозор иқтисодиёти шароитида корхонанинг умумий мақсадини шакллантириш орқали харажатларни минималлаштириш ва корхонанинг молиявий барқарорлигини оширишга эришиш мумкин. Шу билан бирга маҳсулот, ишлар ва хизматлар сифатининг зарур даражасини сақлаб қолишга эришилади.

Аутсорсинг хизматлари бозорини тадқиқ қилиш жараёнида, табиийки, компаниянинг асосий бўлмаган функцияларини кимга топшириш ва ўтказиш масаласи туғилади. Аутсорсер компанияни танлаш муаммоси принципиал жиҳатдан муҳим нуқта сифатида қаралиши керак. Уни ҳал қилиш учун ижрочини танлашнинг мезонлари аниқланади. Улар расмий бўлиши мумкин: фаолиятни амалга ошириш учун лицензиянинг мавжудлиги, фуқаролик жавобгарлигини суғурталаш шартномаси бўйича суғурта полиси, аккредитацияланган профессионал уюшмага аъзолик, молиявий ресурслар, жиҳозлар ва бошқа моддий имкониятлар, шунингдек, профессионал ва шахсий: касбий билим ва юқори малакага эга бўлиш; бозорда ижобий обрў- мажбуриятларни бажариш учун меҳнат ресурслари билан тўлиқ таъминлаш - шартнома бўйича (шаклланган жамоа); бозор тажрибаси каби расмий мезонларни санаш мумкин. Расмий мезонлар мавжудлиги профессионал ва шахсий хусусиятларни максимал даражада амалга ошириш билан бирлаштирган аутсорсер хизматига устунлик бериш кўпгина муаммоларни ҳал этиш демакдир.

Хулоса. Бизнинг фикримизча, юқоридаги мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолашда, замонавий шароитда энг муаммоли уч нуқтани асос қилиб олишимиз зарур:

- аутсорсингдаги рисклар ва уларни баҳолаш;
- аутсорсинг хизматлари самарадорлигини;
- аутсорсинг сифатини ўлчаш ёндашувларини.

Ўзбекистон иқтисодиётида мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш механизми аутсорсинг компанияларини танлаш, шартномаларни ишлаб чиқиш, уларни амалга ошириш ва манфаатдор шериклар ўртасидаги муносабатларни тиклаш учун мантиқий ҳаракатлар тизими сифатида қурилган. Таклиф этилаётган аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш механизми 7 та бочқичининг ҳар биридан аутсорсинг хизматларида тўлиқ фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш механизмида рискларни баҳолаш усулларини танқидий таҳлил қилган ҳолда тизимлаштириш амалга оширилди. Аутсорсинг лойиҳаларини қўллашда хавфларни ўлчаш усуллари бўйича асосли хулосалар чиқарилиб «Хавфни баҳолаш» тушунчаси сифат ёндашувини (хавфларнинг манбалари, сабаблари, турлари) ва миқдорий ёндашувни (муайян операциядаги унинг аҳамиятини ва ундан келиб чиқиши мумкин бўлган зарарни баҳолаш) ҳисобга олиш зарурати очиб берилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гильмиярова М.Р. Проблемы и перспективы развития бухгалтерского аутсорсинга // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 2017. - № 2. - С. 76-80.
2. Федорова Е.А., Ермолов А.В. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решения. - 2016 . - № 27 - С. 4-14.
3. Корнейчик М., Лягуская Н. Развитие бухгалтерского аутсорсинга в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - Режим доступа: httD://soDhus.at.ua/publ/2016 03 31 Iviv/sekciia section 8 2016 03 31/razvitie bukhaaiterskoao autsorsinaa v respublike belarus/1221-0-1848. - Дата доступа: 02.05.2018.
4. Васильев А.С., Миргородская Т.В. Проблемы и перспективы аутсорсинга бухгалтерского учета в России // Международный научно-исследовательский журнал, 2015. - Выпуск № 1. Часть 2. - С. 19-21.
5. Еськова Л.Ф., Дрозд А.М., Маневич А.В. Аутсорсинг в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - Режим доступа:

http://eiib.bsu.by/bitstream/123456789/89793/1/drozd_manevich_ sbornik11Jom1.pdf. - Дата доступа: 12.03.2017.

6. Пардаев М.Қ. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.–Т.: «Иқтисод–молия». 2008. – 260 б.

7. Урозов Б.К. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг долзарб масалалари. – Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2011. – 260 б.

UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIKLARIDA SERVIS SIFATINI OSHIRISHDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Yuldosheva Sh.A.
QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi assistenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada uy-joy kommunal xo‘jaliklarining faoliyati, servis xizmatlarining o‘rni, xizmat turlari, kommunal xo‘jaliklarida samaradorlikni oshirish, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ularning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: uy-joy, kommunal xo‘jaliklar, xizmat ko‘rsatish, samaradorlik, islohotlar, ijtimoiy xizmat, servis xizmatlari, xizmatlarni shakllantirish, mexanizmlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar

Аннотация: В данной статье описаны деятельность жилищно-коммунальных предприятий, роль служб, виды услуг, повышение эффективности в коммунальных предприятиях, экономические показатели, их основные направления.

Ключевые слова: жилищно-коммунальное хозяйство, оказание услуг, эффективность, реформы, социальная служба, сервисные услуги, формирование услуг, механизмы, экономические показатели

Abstract: This article describes the activities of housing and communal enterprises, the role of services, types of services, improving efficiency in public utilities, economic indicators, their main directions.

Key words: housing and communal services, provision of services, efficiency, reforms, social service, services, formation of services, mechanisms, economic indicators

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotni jadal suratlar bilan rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bizga ma’lumki, iqtisodiyotni rivoji uchun hamma sohalar kabi “uy-joy kommunal xo‘jaligi” tizimini shakllantirish va rivojlantirishning o‘rni katta hisoblanadi. “Uy-joy kommunal xo‘jaligi” insonlarni nomoddiy ehtiyojlarini qondirish bilan birgalikda ishlab chiqaruvchilarga ham xizmatlar ko‘rsatadi, shuningdek, o‘zi ham iste’molchisi hisoblanadi. Sanoat rivoji, aholining farovon hayoti uchun kommunal xizmatlarni o‘rni beqiyosdir. Ularga eng kerakli bo‘lgan resurslarni yetkazib berish orqali ishlab chiqarish davomiyligiga o‘zini munosib hissasini qo‘shadi. Shu sababli “uy-joy kommunal xo‘jalik” tizimini rivojlantirish asosiy va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Uy-joy kommunal servis xizmati sohasi rivojlanishining ilmiymetodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, Y.A.Shumpeter, M.Yu.Porter, B.S.Santo, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, A.P.Chelenkov, V.V.Kulibanova, V.K.Romanovich, S.N.Korobkova, V.I.Kravchenko, S.V.Orlov, I.P.Pavlova, F.Kotler, R.Nureyev, V.Shiray va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu muammolarni o‘rganishga respublikamiz olimlaridan Q.J.Mirzayev, M.M.Muhammedov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, J.R.Zaynalov, N.To‘xliyev, I.Ivatov, K.B.Urazov, E.S.Fayziyev, R.X.Ergashev, B.Sh.Safarov, S.B.Boboqulov, Sh.O.Quvondiqov, I.Ochilov, Sh.X.Muxitdinov,

J.Qurbonov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari uy-joy kommunal xo‘jaliklarida xizmat ko‘rsatishning turli masalalariga bag‘ishlangan.

Metodologiya. Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, kompleks yondashuv, so‘rovnoma, statistik kuzatish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis sifatini oshirishda resurslardan samarali foydalanish va uni raqamli iqtisodiyoti sharoitida oshirish obyektiv zarurdir. Demak, uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis sifatini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan yana bir muhim omil - bu yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atining o‘zgarishidir. Agar yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atiga ega bo‘lsa, u aholi daromadlarining ko‘payishi va demak, uning xizmatlarni sotib olishga imkoniyatlarining ortishiga va shunga mos tarzda uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatishi korxonasining rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatishi sifatini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillardan yana biri – investitsiyadir. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanishiga olib keladi. Muayyan tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar shu tarmoq korxonalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish orqali rivojlantiradi.

Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning miqdori yildanyilga oshib borib, ular tarkibida uy-joy kommunal sohasiga kiritilgan investitsiyalarning ulushi ancha yuqori hisoblanadi. Jumladan, 2021 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 53,8 foizi uy-joy kommunal sohasini, 46,7 foizi esa ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishga sarflangan. Investitsiyalarning uy-joy kommunal sohasi tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi tahlil qilinganda, 2021 yilda 2017 yilga qaraganda savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy–texnika ta’minoti, tayyorlov tarmoqlariga sarflangan investitsiyalarning ulushi ortib borganligini kuzatish mumkin. Jumladan, 2021 yilda ushbu tarmoqqa 3568,3 mlrd so‘mlik investitsiya sarflangan bo‘lib, u jami sarflangan investitsiyaning 5,1 foizini tashkil etadi. Bu esa 2017 yilda sarflangan investitsiyalardan 0,45 punktga ko‘pligini bildiradi. Aholi daromadlari ham uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish sifatining taraqqiyotiga ta’sir etadigan muhim tashqi omillardan biri hisoblanadi. Aholi daromadlari makroiqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, mamlakat fuqarolarining turmush darajasini va farovonligini belgilaydi. Aholi daromadlari oshishi iste’mol imkoniyatlarini kengaytiradi. Mamlakatda yaratilayotgan moddiy va ma’naviy ne’matlarga hamda xizmatlarga bo‘lgan talabni shakllantiradi. Aholi talabini qondirish moddiy ne’matlarni yaratish, uy-joy kommunal sohasini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli ham aholi daromadlari uy-joy kommunal sohasi taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qashqadaryo viloyatida 2017-2021 yillarda aholi daromadlari tarkibi quyidagicha bo‘lgan.

O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2021 yilda 41,2 foizni tashkil etgan. Rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 70-80 foiz atrofida. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida aholi daromadlari tarkibida mehnatga haq to‘lash 66,9 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda ham ushbu ko‘rsatkichni oshirib borish nazarda tutilgan. Aholi pul daromadlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib transfert tushumlari hisoblanadi, ular O‘zbekistonda 2021 yilda umumiy daromadning 22,8 foizini tashkil etgan va 2010 yilga nisbatan 4,4 punktga oshgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatda iqtisodiy nochor kishilarni ijtimoiy himoyalashni doirasining kengayotganligini ko‘rsatadi.

Aholi daromadlari tarkibidagi mol-mulkdan, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi qariyb 60 foizni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich 2000 yilda 58 foizni tashkil etgan. Bozor iqtisodiyoti mulkdorlar sinfini ko‘paytirish imkonini yaratadi, har bir kishini qo‘shimcha daromad olishga, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga undaydi. Bu esa aholi daromadlarining oshishi, turmush darajasining ko‘tarilishi va uning natijasida xizmatlarga bo‘lgan talabning oshishiga olib keladi. Shu sababli O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati keng qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Tadqiqotlar keyingi yillarda O‘zbekistonda YaIM hajmi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori tez sur’atlar bilan o‘sib borayotganligini ko‘rsatdi (1-jadval).

1- jadval ma’lumotlari Qashqadaryo viloyatida 2010-2021 yillarda YaIM o‘sish sur’atlari mamlakat aholisi sonining o‘sish sur’atlaridan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. YaIM hajmining aholi soniga qaraganda tezroq sur’atlar bilan o‘sib borishi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM miqdorining ko‘payishiga sabab bo‘lgan, ushbu jarayon aholining turmush darajasining yaxshilanib borishiga, daromadlarining oshishiga va nihoyat aholi iste’mol xarajatlari tarkibining o‘zgarishiga olib keladi.

Aholining pul xarajatlari ham uy-joy kommunal sohasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Aholi pul daromadlarining oshib borishi, aholining iste’mol xarajatlari tarkibini o‘zgartiradi, ma’naviy ehtiyojlarni qondirish, turli xizmatlardan bahramand bo‘lishga bo‘lgan intilish kuchayadi. Mamlakatda aholi daromadlari oshib borishi natijasida aholi iste’mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi yildan-yilga kamayib bordi. Agarda 2017 yilda aholi iste’mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlariga qilingan xarajatlar 70,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda u 47,3 foizga tushdi (2-jadval).

Lekin aholining nooziq-ovqat mahsulotlariga va xizmatlarga bo‘lgan xarajatlari o‘sib bordi. Aholining pul daromadlari o‘sishi oqibatida xizmatlarning aholi iste’mol xarajatlar tarkibidagi ulushi 2017 yilda 10,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib 20,4 foizga yetdi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 50-60 foizni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, bizning mamlakatimizda ham ushbu sohani jadal rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Aholi jamg‘armalari uy-joy kommunal sohasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan yana bir tashqi omildir. Aholi jamg‘armalarining oshib borishi kelgusida tovar va xizmatlarning xarid qilinishini anglatadi hamda istiqbolda ushbu sohaning rivojlanishiga yordam beradi. Iste’mol hajmining oshib borishi joriy davrdagi jamg‘armaga ham bog‘liq bo‘ladi.

Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish sifatini rivojlanishiga ta’sir etadigan ichki omillarga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasi (mehnat resurslari); moddiy-texnika bazasi (ishlab chiqarish resurslari); moliyaviy holati (moliya resurslari); mehnat unumdorligi (ishchi kuchi samaradorligi).

Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish sifatini rivojlanishiga ta’sir etadigan asosiy ichki omillardan biri – xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasidir. Jadal iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish, mehnat resurslaridan unumli foydalanish to‘g‘risidagi zamonaviy nazariyalarni hisobga olgan holda ish bilan bandlik sifati va darajasini oshirishni eng muhim vazifa qilib kun tartibiga qo‘ymoqda. Chunki, hozirgi davrda mehnat bozorining asosiy sub’ekti – oddiy ishchi kuchi emas, balki intellekti va ongi bilan ilmiy-texnikaviy taraqqiyot orqali iqtisodiyotda foyda hosil qilish funksiyasini bajarayotgan xodimdir.

Ekspertlarning hisoblashlaricha, samarali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash uchun mamlakat aholisi katta yoshdagilarining 40-60 foizi oliy ma’lumotli, ular tarkibida 2,5-5,0 foizi ilmiy xodimlar bo‘lishini talab etiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida har 1000 nafar xodim hisobiga 5 ta olim to‘g‘ri keladi. Mazkur ko‘rsatkich AQSh 8 ta olim, Yaponiyada esa 9 ta olim to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda aholining savodxonlik darajasi jahonda eng yuqorilaridan bo‘lib, 99,3 foizni tashkil etadi. Lekin O‘zbekistonda iqtisodiyotda band bo‘lganlarning tarkibida oliy ma’lumotli mutaxassislarning ulushi hali ancha past. 2016 yil ma’lumotlariga ko‘ra, iqtisodiyotda band bo‘lgan ishchi-xizmatchilarning tarkibida oliy ma’lumotli mutaxassislarning ulushi 34,3 foizni, o‘rta maxsus ma’lumotlilar 44,7 foizni, to‘liqsiz o‘rta ma’lumotlilar 21,0 foizni tashkil etadi.

Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish sifatining rivojlanishiga ta’sir qiladigan navbatdagi ichki omil - sohaning moliyaviy holati hisoblanadi. Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish sifatining asosiy moliyaviy holatini ifoda etadigan ko‘rsatkichlarga aylanma mablag‘lari va moddiy boylik zaxiralari kiradi. Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish sohasining aylanma mablag‘lari iqtisodiyotdagi jami aylanma mablag‘larining 51,3 foizini tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich moddiy sohaga nisbatan 1,4 punktga kam.

Xulosa va takliflar. Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi eng muhim asosiy ko‘rsatkichlar tarkibiga quyidagilar kiritilishi maqsadga muvofiq deb topildi: uy-joy kommunal sohasida band aholining iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushi; yalpi ichki mahsulot tarkibida uy-joy kommunal sohasining ulushi; aholi iste’mol xarajatlari tarkibida uy-joy kommunal sohasining ulushi; eksport tovarlari tarkibida xizmatlarning ulushi; uy-joy kommunal sohasiga sarflangan investitsiyalarning yalpi investitsiyalardagi ulushi; uy-joy kommunal sohasi yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’ati; uy-joy kommunal sohasida band bo‘lgan bir xodimga to‘g‘ri keladigan aholi soni; uy-joy kommunal korxonalarida kadrlar qo‘nimsizlik darajasi.

Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis sohasining rivojlanishiga YaIM, aholining pul daromadlari, sohadagi band aholi, unga kiritilayotgan investitsiyalar, uning aylanma mablag‘lari va moddiy boylik zaxiralari kabi omillar ta’siri aniqlandi.

Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish sifat va samaradorligini oshirish uchun, asosiy e’tibor uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmat ko‘rsatish korxonalari zamonaviy boshqaruvining samaradorligini oshirishda raqamlashtirish hamda servis sohasida aholi bandligini oshirish maqsadida unga ta’sir etuvchi omillar tizimini ishlab chiqish va ularning ta’sirini aniqlash orqali bandlikni oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF-60 Farmoni
2. “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 24 maydagi PF5052-sonli Farmoni.
3. Muxammedov M. va boshqalar “Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari”- S.: Zarafshon 2017. – B. 299.
4. Пастухов А.Л. Ускорение развития сферы услуг как необходимое условие модернизации экономики. //Экономика и экономические науки. 2012 г., №20. –С.80-85.
5. Юлдошева Ш.А. Жилищно-коммунальная система и ее роль в повышении жизненных стандартов “Экономика и социум” jurnali, №12 (79) 2020 www.iupr.ru
6. Yuldosheva Sh.A. “Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmatlarining o‘rni va ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari” “Biznes-ekspert” jurnalining 2021 yil №2 son, 66-70-betlar.
7. Yuldosheva Sh.A. O‘zbekistonning uy-joy kommunal xo‘jaligini isloh qilish tamoyillari. “Innovatsion texnologiyalar” jurnali. Maxsus son 2021 yil 103-109-betlar.

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XOTIN-QIZLAR UCHUN TA’SIS ETILGAN “ZULFIYA” NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTINING AHAMIYATI VA NATIJALARI (JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA)

Raxmonqulova Oksana Aliqulovna,
Tarix fanidan falsafa fanlar doktori (PhD).
Qarshi davlat universiteti, a.ahmedov80@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ta’limga berilgan e’tibor va undagi muammolarini hal qilishning yangicha tamoyillarini ishlab chiqishni kun tartibiga dolzarb qilib qo‘yilganligi izoxlangan. Ilm-fan rivojida xotin-qizlar o‘rni ko‘rsatilgan. Bunga turtki beruvchi

O‘zbekistonda ta’sis etilgan “Zulfiya” nomli Davlat mukofotining ahamiyati izoxlangan. Maqolada Qashqadaryo va Surxondaryo misolida mukofatlangan sovrindorlar tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, janubiy viloyatlar, xotin-qizlar, mukofot, sovrindor,ta’lim, ilm-fan, taraqiyot.

Abstract: This article explains that the attention paid to education in Uzbekistan and the development of new principles for solving its problems are on the agenda. The role of women in the development of science is shown. The significance of the Zulfiya State Prize established in Uzbekistan, which is the impetus for this, is explained. The article analyzes the prize winners on the example of Kashkadarya and Surkhandarya regions.

Index Terms: Uzbekistan, southern regions, women, prize, laureate, education, science, development.

1. Dolzarbligi: Dunyo mamlakatlarida sohalarning rivojlanishing asosiy omilllaridan biri ilm-fanga bo‘lgan e’tiborning mavjudligidan dalolat beradi. Ilm-fan, madaniyat rivoji dunyo tamaddunini harakatga keltiruvchi bosh omildir. Sivilizatsiyaning lokomotivi bo‘lgan ana shu faktor ga bog‘liq bo‘lgan ayrim dolzarb masalalar mavjud.

O‘zbekistonda ilm-fan rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ilmiy va innovatsion faoliyatning hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, barcha sohalar, jumladan aniq, tabiiy, ijtimoiy, texnik sohalarga xizmat qiluvchi fanlarni hozirgi zamon talablariga mos moddiy-texnik resurslar bilan ta’minlash, mutaxassis kadrlar tayyorlash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu jarayonda xotin-qizlar ham faol ishtirok etib, olib borilayotgan islohotlarda o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdi.

2. Metodlar: Maqola umum qabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari: Hayotiy tajriba ilmli, o‘qimishli bo‘lishdan nafaqat insonning o‘zi, balki butun jamiyat va davlat manfaatdor ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, hayotiy naqllarga tayanib aytadigan bo‘lsak, ayol bilimli bo‘lsa – millat ilmli bo‘ladi. Ilm-fanning taraqqiyotida olimalarimizning munosib ulushi borligi bilan birga jamiyatda xotin-qizlarning yuksak ma’naviyatli, ilmli bo‘lishi kelajak avlodning ta’lim-tarbiyasida o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ilm-fan rivojida munosib hissasini qo‘shib kelayotgan qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning noyob qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida 1999 yil 10 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-2326-sonli Farmoni qabul qilindi **[10]**. Mazkur farmonga ko‘ra, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Ushbu mukofot asosan beshta yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazilib, unda a’lo xulqi, olijanob insoniy fazilatlari, zukkoligi, bilimdonligi va alohida iste’dodini namoyon etishi uchun adabiyot, san’at, fan, ta’lim, madaniyat yo‘nalishlarida tanlov asosida qizlar aniqlab olinishi belgilandi. Zero, ushbu sayharakatlarning zamirida xotin-qizlarning boshqaruv tizimidagi faolligini oshirish, rahbar ayollar uchun kadrlar zahirasi yaratishdek muhim vazifa turdi.

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan qizlarga berilishi belgilandi. Jumladan, oliy ta’limning bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talaba qizlar ushbu mukofot bilan taqdirlansa, ularga magistratura bosqichiga imtihonlarsiz davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinish tartibi joriy etildi **[11]**.

Qashqadaryo va Surxondaryodagi “Qashqadaryo”, “Nafosat”, “Dehqonobod ovozi”, “Ayol va zamon”, “Surxon tongi”, Angor tumanining “Ilg‘or”, Jarqo‘rg‘on tumanining “Jarqo‘rg‘on haqiqati”, Oltinsoy tumanining “Oltinsoy tongi”, SHo‘rchi tumanining “Sho‘rchi hayoti”, Uzun tumanining “Bobotog‘ tongi” kabi qator gazetalarida mukofotni targ‘ib va tashviq etish uchun alohida ruknlar tashkil etildi **[7].**

Shu kunga qadar Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan qizlarning ko‘pchiligini fan va ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ishtirok etganlar tashkil etdi **[9]**. Masalan,

Qashqadaryoda 2000–2019 yillarda “Zulfiya” mukofoti bilan mukofotlanganlar 24 nafarni tashkil etdi. Shahnoza Rahmonova, Gulruh Ochilova , Xurshida Xoliqova, Nilufarxon Abbosxonova, Aziza Almanova, Malika G‘ulomova, Maftuna Nodirova, Yulduz Ne’matova, E’zoza Alisherova, Mohigul Shukurova shular jumlasidandir **[2]**. Qashqadaryoda 2020 yilda ushbu mukofotga Begoyim Olimjonova sazovor bo‘lgan bo‘lsa, Surxondaryoda esa Ruxshona Abdurazoqova, Sabina Qayimova**[1]** lar fan va ta’lim bo‘yicha mukofotni qo‘lga kiritdi.

Shuningdek, 2000–2019 yillarda Zulfiya mukofoti sovrindorlarini Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida tahlil etganda, eng ko‘p mukofotni Qarshi shahrida istiqomat qilgan qizlar olgan bo‘lsa, viloyatda 19 yil ichida Mirishkor, Qamashi, Nishon tumanlaridan mukofotga sovrindorlar chiqmaganligi kuzatildi. Buni quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin.

Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lganlar soni

Qashqadaryo viloyati xotin-qizlar qo‘mitasi raisining vazifalari yuzasidan viloyat hokimining o‘rinbosari, xotin-qizlar qo‘mitasining 2018 yilgi hisobot-saylov konferensiyasida ta’kidlab o‘tgan muammolaridan biri Zulfiya sovrindorlaridan Xurshida Xoliqova, Maftuna Nodirova, Zarnigor Ahmedova kabi qizlar ilmiy-ijodiy ishlarini davom ettirib, viloyat hayotining turli sohalarida faol ishtirok etib kelayotgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari uy-ro‘zg‘or tashvishlari bilan band bo‘lib qolganligi, qolgan aksariyat holda mukofotlangan qizlarning 90 foizi Toshkent shahrida o‘qib, yashab kelayotgani bildirilgan. Shuningdek, ayrim tumanlarning ta’lim muassasalari hamda O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi hududiy bo‘limlari bilan hamkorlik yetarli emasligi sababli, bu hududlarda respublika tanloviga nomzodligi ko‘rsatilgan qizlar soni past darajada ekanligi bu ko‘rsatkichlar Koson, Mirishkor, Nishon tumanlariga to‘g‘ri keldi**[5]**.

Surxondaryo viloyatida Zulfiya mukofotini qo‘lga kiritgan Shohista Mahmaraimova (2000), Zebiniso Xolmurodova (2001), Manzura Xolmirzayeva (2002), Aziza Shoymardonova (2003), Feruza Qurbonova (2004), Shahnoza Tursunova (2005), E’tiqod Otaqulovalar (2006) mukofot imtiyozlaridan foydalangan holda mamlakatimizning oliy o‘quv yurtlarida tahsil oldi**[8]**.

O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta’minlash bilan birga ularni rag‘batlantirish maqsadida “Zulfiya” mukofoti **[12]** ta’sis etilgan bo‘lib 2021 yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari 26 nafarni tashkil etdi . Mukofotlangan 26 nafar sovrindorlardan 1 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1 nafari Mudofaa vazirligida, 2 nafari jurnalist, 6 nafari ta’lim, 3 nafari o‘rta ta’lim maktablarida, 5 nafari turli sohalarda, 8 nafari turli oliy o‘quv yurtlarida tahsil oldi**[6]**.

4. Xulosalar:

Qizlarga berilgan bu imkoniyat eshigi O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi islohotlarda yosh olimalarimizning o‘z o‘lkan hissalarini qo‘shish imkonini berdi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari xotin-qizlarining ilm-fan va ta’limni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi oxirgi besh yil ichida ikki barobarga o‘sganligi, xotin-qizlarga e’tiborning kuchayishi, ularni qo‘llab-quvvatlovchi “Olima ayollar” uyushmalarining faoliyati jonlanishi kabi omillar ta’sir ko‘rsatganligi va hududlarning ilmiy salohiyatini ko‘tarishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarida xotin-qizlarning muhim ahamiyat kasb etganligi aniqlangan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1..https://uza.uz/uz/posts/zulfiya-nom 2020

2.Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2000–2019 yillarda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan sovrindorlar haqida ma’lumot.

3.Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2000–2019 yillarda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan sovrindorlar haqida ma’lumot.

4.Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, Qashqadaryo viloyati 2019 yilda xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi holati yuzasidan ko‘rsatkichlar.

5.Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, Xotin-qizlar qo‘mitasining vazifalari yuzasidan viloyat hokimining o‘rinbosari, xotin-qizlar qo‘mitasi raisi M.Mustafayevaning 2018 yilgi hisobot-saylov konferensiyasi hisoboti.

6.Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2021yilgi hisob papkasi ma’lumotlaridan.

7.Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ruyxat, 1473-ish, 76-varaq.

8.Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro‘yxat, 2656-ish, 127-varaq.

9.Voprosnik po vipolneniyu Konvensii o likvidatsii vsex form diskriminatsii v otnoshenii jenshin dlya Komiteta jenshin// Respublika xotin-qizlar qo‘mitasi, 2010 yil joriy arxiv materiallari.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 10 iyundagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-2326sonli Farmoni // https://lex.uz/docs/213812

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 2018 yil 8 mart.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.06.1999 yildagi PF-2326-sonli https://lex.uz/docs/.

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA RANG LEKSEMASINING TURLI MA’NOLARIGA IZOH BERILISHI MASALALARI

Axmedova Go‘zal Yusufovna
Qarshi davlat universiteti
“Lingvistika” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada olamning tabiiy tasvirining muhim qismini tildagi rang nomlari tashkil qilishi, rang ko‘rish vositasida o‘zlashtiriladigan ma’lumotlarning eng muhim tarkibiy qismi ekanligi, biz yashab turgan olamda barcha ranglarning umumiyligi tilda olamning rangin tasviri sifatida ifodalangan rang maydonini aks ettirishi, lingvistik nuqtai nazardan rang mental lingvomadaniy fenomen ekanligi, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da rang leksemasining turli ma’nolariga izoh berilishi masalalari tadqiq etiladi.

Tayanch so‘zlar: “olam manzarasi”, rang maydoni, *nurlanish spektri,* emotsionalekspressiv, mantiqiy-semantik, ramziy, estetik, milliy-madaniy axborot, mental lingvomadaniy fenomen, mental kategoriya.

Annotation. In the article we research that the color names in the language form an important part of the natural image of the world, color is the most important component of the information that can be learned by means of vision, the commonality of all colors in the world we live in reflects the color space expressed in the language as the image of the color of the world, from a linguistic point of view the fact that color is a mental linguistic and cultural phenomenon, the issues of explaining the different meanings of the color lexeme in the "Annotated Dictionary of the Uzbek Language".

Key words: "landscape of the world", color field, radiation spectrum, emotionalexpressive, logical-semantic, symbolic, aesthetic, national-cultural information, mental linguistic and cultural phenomenon, mental category.

Inson til orqali olamni bilish, anglash jarayonida uni tartibga solish, obyektiv borliq hodisalarini nomlashga intiladi. U o‘zini qurshab turgan olam uzvlarini sezgi organlari yordamida his qiladi, boshqalarga solishtiradi, farqli va o‘xshash belgilarini aniqlaydi, so‘ngra muayyan xulosaga keladi [1; 448]. Shu tariqa olam haqida til egalarining bilimlari to‘planadi, insonni o‘rab turgan olamning tasviri, qiyofasi yaratiladi. Bunda turli fan sohalari bo‘yicha yetuk mutaxassislar, olimlar tinimsiz izlanishlar olib boradilar, tajriba-sinovlar o‘tkazadilar va shu asosda voqelikning umumiy

xususiyatlari hamda qonuniyatlari haqida o‘zlarining yaxlit g‘oyalar tizimini yaratadilar. So‘nggi yillarda ushbu tizimga nisbatan “olam manzarasi” degan termin qo‘llana boshladi. Mazkur tushuncha qisqa muddatda turli sohalar − falsafa, gnoseologiya, kognitologiya, psixologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa sohalarning terminiga aylanib, turli aspektlarda son-sanoqsiz tadqiqotlar bajarildi.

Zotan, olamning ilmiy manzarasi hissiy idrok va subyektiv baholashga emas, balki obyektiv ma’lumotlar va tadqiqot natijalariga asoslangan fundamental ilmiy tushunchalar va tamoyillarni umumlashtirish va sintez qilish natijasida quriladi. Ya’ni har bir fan insonlarning olamni kuzatishi, bilishi jarayonida, uning natijasida paydo bo‘ladi [2; 82-88]. Til insonni o‘rab turgan olamning turli xil – tabiiy, ilmiy, e’tiqodiy (diniy), estetik kabi manzaralarini ifodalaydi. Olamning tabiiy tasvirining muhim qismini tildagi rang nomlari tashkil qiladi. Rang ko‘rish vositasida o‘zlashtiriladigan ma’lumotlarning eng muhim tarkibiy qismidir. Biz yashab turgan olamda barcha ranglarning umumiyligi tilda olamning rangin tasviri sifatida ifodalangan rang maydonini aks ettiradi [3; 82-87].

Rang (ingl. *colour*, rus. *цвет*, frans. *couleur*, nem. *farbe* va hk) *tor ma’noda* fizik hodisa – moddiy jismlar tarqatgan yoki qaytargan nurlanish spektriga mos ravishda yorug‘likning muayyan ko‘rish tuyg‘usini hosil qilish xossasi, *keng ma’noda* o‘zida emotsional-ekspressiv, mantiqiy-semantik, ramziy, estetik, milliy-madaniy axborotlarni saqlaydigan, insonning histuyg‘ulariga keskin ta’sir eta oladigan tushunchani anglatadi. U insonning tashqi va ichki olamini jonlantiradigan, to‘ldiradigan, ruhlantiradigan, boyitadigan keng qirrali hodisadir. Lingvistik nuqtai nazardan rang mental lingvomadaniy fenomen hisoblanadi.

Ma’lumki, bizni o‘rab turgan olam turfa ranglardan tashkil topadi. Ma’lumotlarga ko‘ra inson 2 millionga yaqin rang turlarini ajratish layoqatiga ega bo‘lib [6; 216], umri davomida atrofidagi olam bilan bog‘liq o‘zlashtiradigan axborotlarning qariyb 80 foizini ranglar vositasida anglaydi [7; 35-40]. Biroq shunga qaramay, dunyo tillarining birortasida faol ishlatiladigan rang nomlari ikki yuzga ham yaqinlashmas ekan. Manbalarda keltirilishicha, zamonaviy rus tilida 130 atrofida, ingliz tilida 154, nemis tilida 120 atrofida rang nomi mavjud [8;1-14]. O‘zbek tilida faol qo‘llanadigan rang nomlari 50taga ham yetmaydi. Vaholangki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 130ga yaqin rang nomi keltirilgan bo‘lib, ularning aksariyati bugungi avlodga deyarli tushunarli emas.

Har bir millat, har bir inson olamni o‘zicha, o‘z imkoniyatidan kelib chiqib anglaydi. Shu bois muayyan rangning ham turli millat vakillarida, turli sohalarda, hatto bir millatga mansub turli kishilarda tushunilishi, anglanishi, tanilishi va ta’siri turlicha bo‘ladi. Ya’ni muayyan rang kimgadir yoqimli bo‘lsa, kimgadir yoqimsiz, noxush; kim uchundir tinchlantiruvchi, kayfiyatni ko‘taruvchi bo‘lsa, kim uchundir diqqatni tortuvchi, asabga teguvchi bo‘lishi mumkin [9; 18]. Hatto insonlar orasida rang turlarini farqlashda ham o‘ziga xos sezgi organlariga ega bo‘lganlar (daltoniklar) uchraydi. Shuningdek, turli sohalarda ranglarning tushunilishi ham o‘ziga xos. Masalan, *yashil rang* – **psixologiyada** eng tinchlantiruvchi, sokin rang (stress holatidagi yoki ruhiy zo‘riqqan odamga yashil tabiat qo‘ynida bo‘lish tavsiya etiladi); **tibbiyotda** tanani dam oldiradigan, tetiklashtiradigan, hayotbaxsh rang (tayanch-harakat sistemasi faolligini oshirish, qon bosimini tartibga solish, qon tomirlarini kengaytirish, bo‘g‘im va bosh og‘rig‘ini qoldirish xususiyatiga ega); **marketologiyada** omad keltiradigan, jiddiy odamlarning diqqatini tortadigan sokin rang; **islom ta’limotida** eng muborak ranglardan hisoblanib, jannatdagi bog‘lar, jannat ahli libosi rangini bildiradi. U “Qur’oni karim”da eng ko‘p uchragan rang nomi bo‘lib, o‘z ma’nosida yomg‘irdan keyingi daraxt, ekinzor va yerning rangi, ilohiy ma’noda jannatda mangu qoluvchilar, jumladan, yosh bolalar libosining rangi, jannat ahliga beriladigan yostiq jildi rangi, umuman, jannatdagi bog‘u rog‘lar rangi sifatida talqin etiladi [10; 193; 195; 201].

Xullas, rang o‘zida hissiy, semantik, ramziy, estetik, madaniy axborotni saqlaydigan fenomen bo‘lib, turli fan sohalari − fizika, estetika, dizayn, psixologiya, fiziologiya, marketologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, madaniyatshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarning tadqiq obyekti hisoblanadi. Shuning o‘ziyoq rang tushunchasining naqadar murakkabligi, ko‘p qirraligidan dalolat beradi.

Har bir soha rangga turlicha izoh beradi. Masalan, **fizika** rang talqinida optik diapazondagi elektromagnit nurlanishning fiziologik ko‘rish sezgisi asosida fizik, fiziologik va psixologik omillarga bog‘liq holda hosil bo‘lgan subyektiv baho nazarda tutilsa, **lingvokulturologiya** rangga *moddiy olamdagi mavjudliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydigan, ko‘rish vositasida idrok etiladigan va muayyan nomlar orqali tilda ifodalanadigan universal mental kategoriya* [11; 24] deb qaraydi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da rang leksemasining 7ta ma’nosiga izoh beriladi. Lug‘at maqolada rang vokabulasi bosh ma’nosi talqinida “bo‘yash uchun ishlatiladigan modda, bo‘yoq” semasi yetakchilik qiladi:

RANG [*f.* - tus, rang, bo‘yoq] **1** Bo‘yash uchun ishlatiladigan modda; bo‘yoq. Quruq rang. Ipak bo‘yaydigan rang. Rang bermoq. *Stadion remont qilina boshlagan, panjaralar qizil, sariq rangga bo‘yalgan*. «Yoshlik».

San’atga oid termin ekaniga ishora qiluvchi *snt*. pometasi bilan berilgan 2-ma’no talqinida “rangtasvir vositasi” semasiga tayaniladi:

2 *snt*. Rangtasvirning asosiy ifoda va tasvir vositasi. 3-, 4-ma’nolarda *narsa, buyumning o‘ziga xos bo‘yog‘i, rangi* nazarda tutiladi:

3 Narsalarga surtilgan yoki singdirilgan bo‘yoq, sir. *Shipi sharqcha naqshdor uy, naqshlari eskirib, rangi xiralangan, lekin hali diqqatni tortarlik holda*. Oybek, Tanlangan asarlar.

4 Biror narsaning o‘ziga xos bo‘yog‘i; tus. Rangi sariq ro‘mol. Hayvonlarning muhitga moslashadigan rangi. Olmaga rang kirib qoldi. *G‘o‘zalarning rangini ko‘rgan sari, ichginam tuzday achiydi.* N.Safarov, Jasoratning davomi. *Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go‘jaga qatiq ham rang kirgizolmadi.* A.Qahhor, Anor.

5-ma’no talqinida esa bevosita inson tana a’zolari, xususan, yuzining rangi orqali uning jismoniy holati (*rangida qoni yo‘q, rangi ketib qolmoq*), turmush tarzi (*rangi siniqmoq*), ruhiyati (*rangi bo‘zday oqardi, rangi oqarib, bo‘zarib ketmoq*) bilan bog‘liq axborot uzatilishini kuzatish mumkin:

5 Kishining yuzidagi qizillik darajasi. *Uning rangida qoni yo‘q. Uning rangi qip-qizil. Rang ko‘r, xol so‘r.* Maqol. *Tursunoy bilan Sharofashning rangi bo‘zday oqardi*. Oybek, Tanlangan asarlar.

Rangi ketib qolmoq Yuzida dard, og‘riq, uyqusizlik azobi namoyon bo‘lmoq; ozib, to‘zib ketmoq. − *Ranging ketib qolibdi, − dedi u Dilfuzaning ko‘zlariga tikilib.* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. **Rangi siniqmoq** *Yodgor uning rangi siniqib, ko‘zlari kirtayib qolganini sezar, iztirob chekib yurganini bilar, yugurib borib, qo‘lidan tutgisi, «men seni sog‘inib ketdim axir», degisi kelar, ammo jur’ati yetmas, bunday qilishga o‘zini haqsiz deb bilar edi*. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. **Rangi o‘chib ketmoq** 1) rangi oqarib, bo‘zarib ketmoq. *Haqorat qildi! − dedi Iskandarov anchadan keyin tilga kirib. U rangi o‘chib, o‘rnidan turib ketdi: − Nega meni haqorat qilding, iflos*! O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol; 2) ko‘chma ozayib qolmoq, barakasi uchib ketmoq. Ikki-uch olishdayoq laganning rangi o‘chib ketdi. G‘.G‘ulom, Shum bola.

Lug‘atda 6- va 7-raqamli izohlar *ko‘chma* pometasi bilan berilib, metafora asosida hosil bo‘lgan kontekstual ma’nolar talqiniga bag‘ishlanadi:

6 *ko‘chma* Gap, nutq, ohang va sh.k. dagi nozik bo‘yoq, tus; ko‘rinish, jilva. *Bir zumdan keyin yana ayni tovush parvoz qildi. Ammo o‘zga maqomda.. ko‘ngilni yana qattiqroq sehrlovchi.. ranglar bilan*. Oybek, Tanlangan asarlar. *Bir-ikki kun miyonasidagi kechinmalar turli rang bilan uning uyquli dimog‘ida akslana boshladilar*. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Eng yaqin kishilaridan ham yashirib yurgan, allaqachon o‘tmish daftarlarida rangi xiralashib ketgan xotiralar birdan tug‘yon urdi.* O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Rangi ham, tusi ham namoyon dunyo, Qirqmi ellik bu, umr o‘rtasi*. A.Oripov, Yillar armoni.

7 ko‘chma Jonlilik, fayz. *Toshkentlik mashhur bir boyning xasisligi haqida eng keyingi, hali hech kimning qulog‘iga chatilmagan latifalar suhbatga “rang” berib turar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar [11; 688].

Izohli lug‘atda *rang* leksemasi talqini o‘ta umumiy bo‘lib, asosan, uning bo‘yash uchun ishlatiladigan modda, rangtasvir vositasi, shuningdek, narsa, predmet, inson tanasi rangiga nisbatan ishlatilishiga diqqat qaratilgan. Xuddi shuningdek, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ham rang leksemasi ikkita alohida tushuncha, alohida leksema sifatida keltirilib, birinchisida uning fizik xususiyati “moddalar chiqargan yoki qaytargan nurlanish spektriga mos ravishda yorug‘likning muayyan ko‘rish tuyg‘usini hosil qilish xossasi”, ikkinchisida tasviriy san’atda tushunilishi − “rang-tasvirning asosiy ifoda va tasvir vositasi. Rang orqali rassom mavjud borliqni o‘ziga xos xususiyatlari bilan haqqoniy aks ettiradi” [12; 62] nazarda tutiladi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilidagi har ikki me’yoriy lug‘atda ham rang tushunchasi talqinida uning tilshunoslikda tor tushunilishiga oid ma’lumotlar ifodasini topgan. Rang nomlarining emotsional-ekspressiv, mantiqiy-semantik, ramziy-metaforik, estetik ta’sir etish, milliy-madaniy axborotlarni tashish bilan aloqador funksional-semantik xususiyatlari haqida qaydlar deyarli uchramaydi. Zero, rang tushunchasi ham, uning nomi ham milliy-madaniy, etnik xususiyatga ega bo‘lib, tilshunoslarni uning fizik hossasi, ranglar spektridagi o‘rni emas, balki rang semantik maydonidagi o‘rni, taksonomiyasi (sistematikasi), leksik-semantik munosabatlari (sinonim, antonim, graduonim va hk), rang semali atov birliklarining struktur-grammatik tuzilishi, derivatsiyasi, yasalish qoliplari, qarindosh va boshqa genetik asosli tillardagi muqobillari hamda ularning izohli, tarjima lug‘atlarda leksikografik talqin qilish masalalari qiziqtiradi.

Jahon tilshunosligidada rang nomlarichalik tadqiqotchilarning diqqatini ko‘p jalb qilgan soha bo‘lmasa kerak. Hozirgi qadar rang nomlari, ularning tasnifi, semantikasi, nomlanish prinsiplari, rang komponentli terminlar, nomenlar lingvosemiotik, lingvomadaniy, psixolingvistik, lingvopoetik, lingvokognitiv, konseptologik va boshqa nuqtayi nazarlardan turli aspektlarda atroflicha o‘rganilgan [13; 210]. Rang nomlarini o‘rganishning o‘ziga xos an’anasi, metodologiyasi va tarixi yuzaga kelgan bo‘lib, bu tilshunoslikda rang lingvistikasi degan yo‘nalishning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan [16; 197-207]. Rang lingvistikasining markaziy tushunchasi rang leksik guruhlarining ajratilishi hisoblanadi. Har bir leksik guruh o‘ziga xos tuzilish va semantik ko‘lamining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Rang semali atov birliklarini o‘rganish asosida atrofimizdagi olamning milliy lisoniy manzarasida ranglarning o‘rni, uning ontologik, kognitiv, sotsiolingvistik, psixolingvistik, etnolingvistik, lingvomadaniy jihatdan kompleks yondashish yotadi [17; 47]. Шу сабабли айни пайтда жаҳон тилшунослигида рангларни ўрганишнинг қуйидаги аспект − йўналишлари юзага келган:

qiyosiy yo‘nalish – ranglar semantikasining turli madaniyatlarda turlicha ekanligidan kelib chiqib tarjima jarayonlarida kelib chiqadigan muammolar tadqiqi bilan shug‘ullanadi; **tadrijiy yo‘nalish** − rang nomlarining tarixiy, etimologik taraqqiyot bosqichlari, inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda antik davrlardan to hozirgi kunga qadar ranglar semantikasining o‘zgarib borishi jarayonlarini tekshiradi; **psixolingvistik yo‘nalish** − rangni lingvistik o‘rganishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, rangni idrok etishning hududiy, kasbiy, yosh va boshqa omillarga bog‘liqligi, rangning inson hissiyotlarini ifodalash xususiyati, rang etaloni haqidagi g‘oyalarning assotsiativ tabiati, ranglar yuzasidan psixolingvistik tajribalar o‘tkazishga asoslanadi; **kognitiv yo‘nalish** – rangga asoslangan terminlarni talqin qilish muammolari bilan shug‘ullanadi. Rang konsepti doirasida rang nomlari talqini, aniq va mavhum rang nomlari, ularni ifodalash vositalari, olamning lingvo-rangli tasvirini shakllantiruvchi vositalar, olamning lisoniy manzarasini yaratishda rangga asoslangan terminlarning o‘rni, rang asosli terminlarning bilish jarayonlaridagi roli, ularning o‘rindoshlari, rang genezislari mohiyatining lingvistik universaliyalarda namoyon bo‘lishi kabi masalalarga diqqat qaratadi.

lingvomadaniy yo‘nalish – ranglarning milliy-madaniy merosning tarkibiy qismi sifatida xalqning etnolingvistik madaniyatida konsept sifatida mavjud ekani, kommunikatsiya talablaridan kelib chiqib muayyan tilda olamning rangli tasviri yuzasidan o‘ziga xos jihatlarning yuzaga chiqishi, idiolektlarda rang nomlarining ishlashi, shoir, ijodkorlar uslubida ranglarning individual tasviri kabi masalalarga diqqat qaratadi; **etnolingvistik yo‘nalish** – rang asosli leksemalar semantikasida etnik

muhitning ta’siri, etnoustuvorlik tushunchasi va etnorelevant rang nomlari, ularni aniqlash mezonlari, etnolingvistik rang tasvir va belgilar, muayyan rang bilan bog‘liq konnotatsiyalarning etnolingvistik xarakteri va aksiologik belgilari, ranglar talqinidagi etnolingvistik tafovutlarni aniqlashda qiyosiy tahlilning o‘rni, turli tillardagi ranglarni qiyosiy o‘rganish asosida muayyan etnik qatlamlarning madaniy jihatdan xoslangan belgilarini yoritish va boshqlar xususida bahs yuritadi; **lingvosemiotik yo‘nalish** – ranglarning semiotik xususiyati, til belgilar tizimida tutgan
o‘rni yuzasidan izlanishlar olib boradi; **institutsional yo'nalish** – rang asosli leksemalarni mustaqil fan sifatida maxsus o‘rganish, ilmiy sohaning barcha zarur talablari – tadqiq obekti, predmeti, aniq maqsad va vazifalari, tadqiq metodlari, o‘ziga xos terminologik tizimi, ilmiy ta’minoti va boshqalarga ega bo'lgan rang lingvistikasi sifatida tadqiq qiladi; **terminologik yo‘nalish** − rang asosli barcha har qanday turdagi terminlarini tahlil qilish, ularning til xususiyatlari va sohaviy tabiati, boshqa terminotizimlar tarkibidagi rang asosli terminlar bilan munosabati va boshqalar o‘rganadi; **ontologik yo'nalish** − rangni ekstralingvistik omillar, tabiiy − fizik hodisa sifatida o'rganish, ularning ontologik jihatdan tasnifi, rang nomlari va ularning turli darajalariga ko‘ra nomlari nomenklaturasi, ranglarning och yoki to‘qligi, yorqin, to‘qligiga ko‘ra o‘lchovlari, rangga oid axborotlarni saqlash vositasi ekanligi kabilar bilan shug‘ullanadi [17; 32].

Umuman, ranglar semantikasi antik davrlardan olimlarning diqqatini tortgan va dunyonning aksariyat tillarida rang nomlari talqiniga bag‘ishlangan son-sanoqsiz lug‘atlar ham tuzilgan. Masalan, N.S.Feldingning “Ranglar haqida lug‘at” (“A dictionary of colour”), A.Meerz va M.R.Paullarning 1930-yilda Amerikada chop etilgan “Ranglar lug‘ati” (“A Dictionary of Colour”), I.A.Petersonning 2003-yilda Londonda chop etilgan “Ranglar haqida lug‘at”i (“A Dictionary of Colour: A Lexicon of the Language of Colour”, V.K.Xarchenkoning 2009-yilda Moskvada chop etilgan “Ranglar lug‘ati” (“Словарь цвета: реальное, потенциальное, авторское”) va boshqalarni sanab o‘tish mumkin.

Modomiki, inson borliqdagi sanoqsiz ranglarni ajratish imkoniga ega ekan, ularni o‘z nomi bilan atashga ham ehtiyoj sezadi. Ushbu ehtiyoj boshqa tillardan bo‘lsa-da, ko‘plab rang nomlarining o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa mavjud lug‘atlar, xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” hamda izohli lug‘atda qayd qilinmagan, shevalarda uchraydigan mentallingvomadaniy fenomen hisoblangan rang nomlarini aniqlash, qarindosh va boshqa genetik asosli tillardagi muqobillari bilan qiyoslash hamda ularni maxsus izohli, tarjima lug‘atlarda zamonaviy leksikografik tamoyillar asosida talqin qilish vazifasini oldimizga qo‘ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. − Тошкент: Akademnashr, 2012. - 448 б. – Б. 13.
2. Козлова Н.Н. Цветовая картина мира в языке / Н.Н. Козлова // Ученые записки Забайкальского государственного университета. Серия: Филология, история, востоковедение. - 2010. - №3. - С. 82-88.
3. Гатауллина Л.Р. Лингвоцветовая картина мира: аспекты изучения //. Семантические категории в разных лингвистических парадигмах: Сб. науч. ст. Уфа, 2005.
4. Козлова Н.Н. Цветовая картина мир в языке / Н.Н. Козлова // Учёные записки ЗабГУ. Серия：Филология, история, востоковедение. – 2010. – Вып.3. – С. 82–87.
5. Хохлачкина Е.Ю. Цветовая картина мира английского языка // Гуманитарные научные исследования. 2017. № 6 [Электронный ресурс]. URL: https://human.snauka.ru/2017/06/24195;
6. Василевич А.П. и др. Цвет и названия цвета в русском языке. – Москва: URSS, 2005. – 216 с. – С.4.
7. Tropina T.N. Color meanings in the teaching of color science // THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF FINE. № 1, 2018. – С.35-40

8. Воробьев Г.Г. Информатика цвета // НТИ. Серия 2: Информatsионные процессы и системы. – 1998. – № 12. – С. 1–14.

9. Алымова Е. Н. Цвет как лингвокогнитивная категория в русской языковой картине мира: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – СПб., 2007. – 18 с

10. Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur'an al-karim. – Karachi: Maktabai Umar faruq, 2010. – B. 193; 195; 201.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2006.-688 б. Б.-348

12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Р ҳарфи – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2004. – Б. 62. // www.ziyouz.com кутубхонаси

13. Berlin B. Basic Color Terms: Their Universality and Evolution. Berkeley: University of. California Press, 1969. 210 p.

14. Kay P., McDaniel, Ch. K. The linguistic significance of the meanings of basic color terms / P. Kay, Ch. K. McDaniel // Language, 1978. Vol.54. №3. P. 610 – 646.

15. Кульпина В.Г. Программа спецкурса "Актуальные проблемы лингвистики цвета как научного направления сопоставительного языкознания". Методология лингвистики цвета // Вестник МГУ. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникatsiя. 2008. № 2 – С.197-207.

16. Жаркынбекова Ш.К. Языковая концептуализatsiя цвета в культуре и языках: автореф. дисс. докт. филол. наук. Алма-аты, 2004. – 47 с.

17. Кульпина В.Г. Теоретические аспекты лингвистики цвета как научного направления сопоставительного языкознания: автореф. дис. …докт. филол. наук / В.Г. Кульпина. М., 2002. 32 с.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОҲОТЛАР

Шаропова Н.А.
Иқтисодиёт ва педагогика университети
"Тарих ва ижтимоий фанлар" кафедраси доценти

Аннотация. Мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистонда таълим соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар ва уларнинг натижалари таҳлил этилган. Хусусан, Ўзбекистонда кейинги беш йилда таълим тизимидаги муаммоларни ҳал этиш, ўқитувчиларнинг жамиятдаги мавқеини кўтариш бўйича қатор чора-тадбирлар олиб борилди, таълим тизимининг ҳуқуқий асослари яратилди.

Калит сўз: Халқ таълими, мактаб, ўқитувчи, мустақиллик, "Таълим тўғрисида"ги Қонун, Давлат таълим стандартлари, ЮНЕСКО, таълим соҳасидаги ислоҳотлар, таълимтарбия тизими, фан олимпиадалари.

Abstract. This article focuses on the reforms implemented in the field of education in Uzbekistan during the years of independence and their results. In particular, over the past five years, Uzbekistan has taken a number of measures to address the problems in the education system, to raise the status of teachers in society, to create a legal framework for the education system.

Keywords: Public education, school, teacher, independence, the Law "On Education", State Education Standards, UNESCO, education reform, education system, science Olympiads.

Жаҳон давлатлари ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожланишини белгилашнинг асосий шартларидан бири умумтаълим тизимининг йўлга қўйилиши билан чамбарчас боғлиқдир. Бугунги кунда ривожланган давлатларда таълим соҳасида ўзига хос стратегия ишлаб чиқилиб, тизимда доимий равишда янгиланишлар ва ўзгаришлар юз бермоқда. Бу

борада ЮНЕСКО халқаро ташкилоти томонидан таълим сифатини ошириш юзасидан изчил тадбирлар олиб борилмоқда. Таълим ислоҳотлари, соҳага ахборот коммуникация технологияларини жорий этиш, ўқитувчилар малакасини ошириш шулар жумласидандир. Ўзбекистонда ҳам таълим соҳасини ривожлантириш бўйича ЮНЕСКОнинг турли лойиҳалари доирасида кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистонда сўнгги йилларда таълим тизимида жиддий ислоҳотлар олиб борилиб муайян ютуқлар қўлга киритилмоқда. Шунингдек кенг жамоатчиликнинг истаклари инобатга олиниб, 11 йиллик мактаб таълими тизими қайта тикланди. 2018 йил 20 июнда Ўзбекистон Республикаси **Вазирлар Маҳкамасида халқ таълими тизимини тубдан ўзгартириш, уни замон талабларига мувофиқ такомиллаштириш борасида қўйилган вазифалар ижросига бағишланган видеоселектор йиғилишида Ш.М.Мирзиёев** ўқитувчиларнинг ҳозирги аҳволидан умуман қониқмаётганлиги, жамиятдаги энг обрўли касб эгаси бўлишига қарамасдан турли хил тозалаш, ободончилик, дала ишларига жалб қилиниши натижасида уларнинг иш сифатига салбий таъсир кўрсатиб келганлигини таъкидлайди. “Ўқитувчини ҳурмат қилмаганни мен ҳам ҳурмат қилмайман” дея қайд этади Президент[1]. Ушбу жараёнларни бугунги кунда тарих фанининг янги назарий методологияси нуқтаи-назаридан тадқиқ этиш ва улардан сабоқ чиқариш долзарб масалалардан биридир.

2. Методлар ва ўрганилганлик даражаси:

Ўзбекистонда мустақиллик даврида таълим тизими тубдан ислоҳ қилиниб, миллий педагогика тафаккури таъсирида таълим жараёнини соғломлаштириш бошланди. Кўп йиллар мобайнида ташқи дунёдан узиб қўйилган, бошқа мамлакатлар тарихий тажрибасидан ҳам, миллий маърифий педагогик меросдан ҳам баҳраманд бўлмаган миллий педагогика жаҳон майдонига чиқди. Хусусан, Ўзбекистонда таълим тизимининг ҳуқуқий асослари яратилди. Аввало Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 41моддасида фуқароларнинг таълим олиш ҳуқуқи қуйидагича кафолатланди: “Ҳар ким билим олиш ҳуқуқига эга”[2].

Собиқ совет тузуми даврида миллий давлатчилигимиз тарихи, халқимизнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий аҳволи нотўғри талқин этилиб, воқеалар сохталаштирилди. Бу жараёнлар албатта дунёқараши ва маънавияти эндигина шаклланаётган мактаб ёшлари ҳаётига ҳам таъсир кўрсатди. Марказлашган маъмурий буйруқбозлик тизими таълим-тарбия жараёнида ўз аксини топди. Совет давлати ва ягона ҳукмрон партия рус маданияти, тарихи ва адабиётини чуқурроқ ўқитиш асосида руслаштириш сиёсатини умумтаълим мактаблари орқали сингдиришга ҳаракат қилди. Бу эса ёшларда “атеистик тарбия”нинг кучайишига олиб келди. Коммунистик мафкуранинг кучли таъсири, маъмурий буйруқбозликнинг авж олиши, қоғозбозлик ва расмиятчилик каби ҳолатлар умумтаълим мактабларидаги ислоҳотларга ҳам таъсир қилди. Бундан ташқари, ўша даврнинг асосий сиёсати ҳисобланган пахта яккаҳукмронлиги, ўқувчи ва ўқитувчиларни 3-4 ойлаб пахта йиғим-терими ва бошқа дала ишларига жалб этилиши билим ва малаканинг пасайишига, билим олиш сифатига салбий таъсир кўрсатди.

3. Тадқиқот натижалари:

Ўзбекистонда мустақилликнинг дастлабки кунлариданоқ таълимга мамлакат ижтимоий-иқтисодий, маданий ҳаётнинг муҳим соҳаси сифатида катта эътибор қаратилиб, унинг ҳуқуқий асосларини шакллантириш мақсадида 1992 йил 2 июлда Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашида “Таълим тўғрисида” ги қонун қабул қилинди. Қонун ҳужжатида таълим соҳасида давлат сиёсатнинг асосий тамойиллари, таълим тизими ва бошқарув тартиби, таълим ходимларининг ҳақ-ҳуқуқлари, вазифалари, масъулиятлари, мақсадлари белгилаб берилди. Гарчи бу ҳужжат ўтиш даври учун таълим соҳасининг йўлга қўйилишида муҳим роль ўйнаган бўлса-да, тизимда йиғилиб қолган муаммоларни еча олмади. Бизнинг назаримизда ушбу ҳолатнинг келиб чиқишига қуйидаги омиллар сабаб бўлди:

биринчидан, мустақилликнинг дастлабки йилларида мамлакатдаги иқтисодий қийинчиликлар умумтаълим соҳаси моддий-техника базасини мустаҳкамлашга тўсқинлик қилди;

иккинчидан, таълим соҳасида ривожланган давлатларнинг илғор тажрибасидан фойдаланилмади; учинчидан, таълимда талаб ва таклиф ўртасидаги номутаносиблик ўз ўрнида мактаб ишига ҳам салбий таъсир кўрсатди.

Мустақиллик йилларида таълим тизимида амалга оширилган муҳим тадбирлардан бири, бу умумтаълим мактаблари моддий-техника базасининг мустаҳкамланиши билан боғлиқ бўлди. Умумтаълим мактабларини замонавий техник воситалар, янги дастурлар, қўлланмалар, дарсликлар, кўргазмали ўқув қўлланмалар ва бошқа ўқув-услубий адабиётлар билан таъминлашга ҳаракат қилинди. Умумтаълим мактаблари кутубхона жамғармаси бойитилиб, янги ўқув адабиётлари, вақтли матбуот журналлари билан тўлдириб борилди.

XXI аср интелектуал қадриятлар устуворлик қиладиган аср бўлиб, иқтидорли, истеъдодли ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва уларни илм-фанни ривожлантиришга сафарбар қилишнинг роли тобора ортиб борди[3]. Мустақилликнинг илк давридан бошлаб, ёшларнинг ўқиши, эркин ижод қилиши учун шарт-шароит яратишга эътибор берилди. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 1993 йил 5 февралда «Ўзбекистонда ўқувчи ёшларни рағбатлантириш чоралари тўғрисида»ги фармони эълон қилинди[4]. Ҳужжатга мувофиқ ўқувчи ёшлар ўртасида турли кўрик танловлар ва фан олимпиадалари ўтказилиб, ғолиблар тақдирлаб борилди.

Мустақилликни мустаҳкамлаш вазифалари таълимда изчиллик ва узвийликни таъминлашни, дунё таълим тизимининг илғор жиҳатларига асосланиб, янги бир қонунни қабул қилинишини ва таълимни давлат сиёсатининг устувор йўналишига айлантириб, уни жамиятимиз ҳаётининг ажралмас бир бўғини деб қарашни талаб қилмоқда эди. 1997 йил март ойида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг фармойишига мувофиқ таълим тизимига, кадрлар тайёрлаш жараёнига замон талабларига жавоб бера оладиган даражада туб ислоҳотларни олиб кириш, шу соҳа бўйича мукаммал давлат дастурини ишлаб чиқиш мақсадида махсус ҳукумат комиссияси тузилди[5]. Мазкур комиссия томонидан янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонун ва “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури” лойиҳаси ишлаб чиқилиб, 1997 йил 29 августда Олий Мажлиснинг IX сессиясида тасдиқланди. Бу иккала ҳужжат Ўзбекистонда таълим тизими муваффақияти учун хизмат қилиб, таълимни XXI аср талабларига мос равишда ташкил этилишини таъминлаши кўзда тутилди. Янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилиниши мамлакатда таълим-тарбия соҳасида янги босқичга ўтилганини ва бу борадаги ислоҳотларнинг чуқурлашуви бошланганлигини кўрсатди. Қонун ҳужжатларига мувофиқ соҳадаги меъёрий ҳужжатлар янгидан ишлаб чиқилиб амалиётга тадбиқ этилди. Янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонун ўз мазмун моҳияти жиҳатидан аввалгисининг давоми бўлди. Қонуннинг 1-моддасида “Ушбу қонун фуқароларга таълим, тарбия бериш, касб-ҳунар ўргатишнинг ҳуқуқий асосларини белгилайди ҳамда ҳар кимнинг билим олишдан иборат конституциявий ҳуқуқини таъминлашга қаратилган”, деб ёзиб қўйилди[6].

Ўзбекистонда таълим тизими ислоҳотларининг ижобий натижаси кўп жиҳатдан соҳа моддий-техника базасининг мустаҳкамланишига боғлиқ. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури тўғрисида”ги ва янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонунлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1997 йил 6 октябрдаги “Таълим-тарбия ва кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан ислоҳ қилиш, баркамол авлодни вояга етказиш тўғрисида”ги фармонининг эълон қилиниши таълим муассасалари моддий-техника базасини мустаҳкамлашда муҳим аҳамиятга эга бўлди. Таълим тизимида ахборот-коммуникация технологияларини ўқув жараёнига жорий этиш ҳам жадал суръатларда амалга оширилди. Бунда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 йил 30 майдаги “Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборотком муникация технологияларини

жорий этиш тўғрисида”ги фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 6 июндаги “Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чоратадбирлари тўғрисида”ги қарори муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2004 йил 21 майда қабул қилинган “2004-2009 йилларда Мактаб таълимини ривожлантириш давлат умуммиллий дастури” тўғрисидаги Фармони мактаблар моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва уларда замон талабларига жавоб бера оладиган баркамол авлодни тарбиялашда асос бўлиб хизмат қилди[7]. Мана шу ҳужжат айнан 2004-2017 йилларда умум таълимни йўлга қўйиш ва ривожлантириш учун дастури амал бўлиб хизмат қилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2008 йил 13 октябрда “Ўзбекистон иқтидорли ёшларини тақдирлаш ва моддий- рағбатлантириш тўғрисида”ги қарори, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўрта махсус касб-ҳунар маркази, Халқ таълими вазирлиги, Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест марказининг 2009 йил 1 майдаги қўшма қарорлари билан тасдиқланган “Академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари ва умумтаълим мактаблари ўқувчиларининг умумтаълим фанлари бўйича Республика олимпиадаларини ўтказиш ва халқаро фан олимпиадалари иштирокчиларини танлаш тўғрисида”ги низоми ўқувчилар ўртасида бўлиб ўтадиган фан олимпиадалари ишини ташкил этишда муҳим ҳуқуқий ҳужжат бўлди[8]. Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг 2012 йил 10 декабрда “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори эълон қилинди. Ҳужжатга мувофиқ, 2013-2014 ўқув йилидан бошлаб Республиканинг барча мактабларида чет тиллари биринчи синфдан бошлаб ўргатилди.

Таъкидлаш ўринлики, 1997 йил 29 августда қабул қилинган янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурига асосан мамлакатимизда таълим соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар, яъни, 11 йиллик умумтаълим мактабини 9 йиллик умумтаълим мактабига айлантириш, 9 йиллик умумтаълим мактабидан кейин таълимнинг кейинги босқичида ташкил этилган 3 йиллик касб-ҳунар таълими ва академик лицейлар кутилган натижани бермади. Шунинг учун 2017 йил-Янги Ўзбекистон даврига келиб таълим тизимида таълим ислоҳоти зарурияти юзага келди. 11 йиллик мактаблар қайта тикланди. Ўрта махсус ва профессионал таълимнинг янги тизимига ўтилди. Кейинги йилларда таълим тизими ходимларининг иш ҳақи миқдорлари бир неча марта оширилди. Ўқитувчиларга алоҳида устама ҳақлар жорий этилиб, педагогларнинг иш юкламалари мақбуллаштирилди. Натижада кўплаб тажрибали педагоглар ўзининг жонажон касбига қайтди, улар сафига мутахассислар келиб қўшилди. Бугун ўқитувчилик ёшларимиз учун шарафли ва орзу қиладиган севимли касбга айланиб бормоқда.

“Моддий ва маънавий ҳаётни уйғун ривожлантиришимиз керак. Мактаб бу борада асосий бўғин бўлиши лозим. Мактаб таълимини ривожлантириш биз учун буюк умуммиллий мақсадга, умумхалқ ҳаракатига айланиши зарур”, деб таъкидлайди Президент Ш.М.Мирзиёев[9]. 2019 йил 26 ноябрда Ўзбекистон Президентининг «Замонавий мактаб»ларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори қабул қилинди. Қарорга мувофиқ, 2021 йилгача мактабларнинг камида уч фоизи, 2025 йилгача 20 фоизи, 2030 йилга қадар эса 50 фоизини «Замонавий мактаб»ларга айлантиришнинг асосий параметрлари белгиланди.

4. Хулосалар:

Мустақиллик йилларида таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш давр талабига айланди. Умумтаълим тизини йўлга қўйиш бўйича ҳуқуқий база шакллантириб борилди. Бу даврда “Таълим тўғрисида”ги қонун бир неча марта қабул қилиниб, унинг ҳар бири муайян даврда соҳадаги қайсидир муаммолар ечимига хизмат қилди. Мазкур қонунлар асосида бошқа ҳуқуқий норматив ҳужжатлар қабул қилиниб, амалиётга жорий этиб борилди. Соҳа ҳуқуқий

базасига таяниб, тизимда ислоҳотлар амалга оширилди ва натижада умумтаълим тизими бутунлай янги андозалар асосида шакллантирилди.

Иқтибослар:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчини ҳурмат қилмаганни мен ҳам ҳурмат қилмайман // Халқ сўзи, 2018 йил 21 июнь.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 2019. - Б. 16.
3. Эргашев О. Баркамол авлодни тарбиялаш омиллари // Насаф ва Кеш тарихи манбаларда мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. - Қарши, 2010 йил - Б. 157 - 159.
4. Тюриков В., Шагулямов Р. Независимая Республика Узбекистан. – Ташкент, 1997 йил – С.73.
5. Йўлдошев Ж.Ғ. Ўзбекистон Республикаси таълим тараққиёти йўлида. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994 йил - Б. 12.
6. Каримов И.А. Баркамол авлод -Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил - Б. 20.
7. Кенжаева Д. Келажак учун энг самарали сармоя // Qashqadaryo, 2005 йил 30 август. - №70-71.
8. Қосимова М. Ўқитувчи меҳнати ўқувчи эришган ютуқлар билан ўлчанади // Qashqadaryo, 2012 йил 24 апрель. -№033.
9. Мирзиёев Ш.М. Мактаб таълимини ривожлантириш умумхалқ ҳаракатига айланиши зарур. 23 август 2019 йил Халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини ошириш, ёш авлод маънавиятини юксалтириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил 24 август. - №174.

ИСЛОМ – ҲАҚИҚАТНИ АНГЛАШ ДЕМАКДИР.

Сафарова Зилола Сафаровна,
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти
Ўзбекистон тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

Аннотация. Мақолада Иккинчи Жаҳон уруши йилларида совет ҳукуматининг динга муносабати, хусусан, Эшон Бобохонов ва оиласи ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Иккинчи жаҳон уруши, дин, тинчлик, қатағон, мадраса, хаж сафари, муфтий, эътиқод, маънавий покланиш, эзгулик, бағрикенглик.

Annotation. This article highlights the attitude of the Soviet government to religion during the Second World War, and also provides information about Eshan Bobohan and his family.

Key words. World War II, religion, peace, repression, madrassa, pilgrimage, mufti, faith, spiritual purification, goodness, tolerance.

Дунё шиддат билан ўзгариб, барқарорлик ва халқларнинг мустаҳкам ривожланишига рахна соладиган турли янги таҳдид ва хавфлар пайдо бўлаётган бугунги кунда маънавият ва маърифатга, ахлоқий тарбия, ёшларнинг билим олиш ва камолга етишга интилишига эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир. Айнан таълим ва маърифат башарият фаровонлигининг асосий омилларидан ҳисобланади, инсонларни эзгуликка даъват этади, саховатли, сабр-қаноатли бўлишга ундайди. Муқаддас ислом динимиз бизга айнан шуни

ўргатади. Бундай ёндашув – давр талабидир [1]. Азалий қадриятларимиз ва ахлоқий фазилатларни ўзида мужассам этган муқаддас динимизни асраш ва қадрлаш ҳар биримизнинг шарафли бурчимиздир. Ислом – ҳақиқатни англаш демакдир, у одамзотни эзгу амалларни бажаришга ундайди, ҳар биримизни яхшилик ва тинчликка чорлайди, ҳақиқий инсон бўлишни ўргатади[2].

Тинчлик ва хотиржамлик.Уларнинг қанчалар буюк неъмат эканини ҳис қилиш учун ушбу неъматларни бой бериб қўйган халқларнинг аҳволига ибрат кўзи билан биргина қараб қўйишнинг ўзи кифоя. Муқаддас динимиз ана шундай улуғ неъмат бўлмиш тинчлик ва хотиржамликка тарғиб қилиш баробарида зулм қилиш, озор бериш, бировнинг ҳаққини ейиш, жосуслик, ғийбат, ёлғончилик, ёлғон гувоҳлик бериш, чақимчилик, иғвофитна чиқариш, беҳуда қон тўкиш каби ёмон иллатларни қоралайди.

Тинчлик инсонга Оллох томонидан берилган Олий неъматдир. Шундай бўлишига қарамасдан инсоният ўз тарихи давомида, асрлар мобайнида сон саноқсиз урушларни бошдан кечирган. Инсоният тарихида энг оғир фожиавийиз қолдирган уруш - Иккинчи жаҳон уруши саналади. Иккинчи Жаҳон урушибутун дунё халқлари онгида энг дахшатли, энг қирғинбарот уруш сифатида сақланиб қолган. Урушда 61 та давлат қатнашиб, ушбу ҳудудда ер юзининг 80 фоиз аҳолиси яшаган. Ҳозирда жаҳондаги давлатлар ўртасида тинчликни асраш, алоқаларни мустаҳкамлаш марказий ўринда турган халқаро долзарб масалалардан бўлиб келмоқда. Шу ўринда, фашизм устидан қозонилган ғалабага Ўзбекистон халқининг қўшган ҳиссаси муносиб бўлиб, бу даврда республикага кўчирилган аҳолига халқимиз томонидан кўрсатилган меҳр-муррувват бутун дунёга ҳақиқий инсонпарварлик, бағрикенглик фазилатларини намойиш этди.

Давлатимиз раҳбари Ш.М. Мирзиёев «Буюк Ғалабага ҳисса қўшган ватандошларимиз ҳаёти, жасорат ва матонатини янада чуқурроқ ўрганишимиз, бу ҳақда янги илмий тадқиқотлар, бадиий асарлар, кинофильм ва спектакллар яратишимиз керак. Ёшларимиз кимларнинг жасорати туфайли қарийб 75 йил мобайнида уруш балосини кўрмасдан, тинч ва бахтли замонда яшаётганимизни билиши ва бунинг қадрига етиши зарур» [3] дея таъкидлайди.

Уруши йилларида Ўзбекистон халқи турли қийинчилик ва машаққатларга қарамасдан, жамият ҳаётининг турли соҳаларида муайян ишларни амалга ошириб, ижтимоий-иқтисодий ва маданий соҳаларда эътиборга лойиқ ютуқларни қўлга киритди. Урушнинг дастлабки кунлариданоқ республикамиз аҳолиси душманнинг тўсатдан бостириб кирганини, шаҳар ва қишлоқларни беаёв яксон қилаётганини, тинч аҳоли, болалар, аёллар, қариялар ҳам қурбон бўлаётганини қоралади, бор кучини ғалаба учун курашга сафарбар этди. Бутун хатти-ҳаракат, ўй, фикр, қобилият душман устидан тезроқ ғалаба қозонишга, тинч, эркин ҳаётга тезроқ қайтишга қаратилди [7:72].

Уруш йилларида аҳолини сиёсий ва маданий жиҳатдан тарбиялашда маданиймаърифий муассасалар асосий марказлардан бири бўлди. Маданий-маърифий муассасаларга халқ орасида ташвиқот-тарғибот ишларини олиб бориш вазифаси юклатилиб, маданий тадбирларда мамлакат тақдири хавф остида эканлигини уқтириш, барча имкониятларни душманни тор-мор этишга сафарбар этиш лозимлигини тушунтириш белгилаб берилди [8: 105].

Инсон онгигига, қалбига энг тез ва аниқ кириб борадиган ташвиқот-тарғибот муассасаларидан бири бу диний муассасалар эди.

1920-1930 йилларда, шўролар даврида “маданий инқилобчилар” томонидан диний муассасалар фаолияти кескин чекланди, масжит мадрасаларнинг кўпчилиги бузиб ташланди. Омон қолган айрим мактаб ва мадрасалар бирин-кетин ёпила бошлади. Вақф мулклари мадрасалар тасарруфидан олиниб, уларнинг фаолиятига нуқта қўйилди [4].

Совет даврида ислом илмини сақлаб қолинишига беқиёс ҳисса қўшган шахсларга нисбатан хукумат томондан қатағонлик сиёсати қўлланилди. Улардан бири Эшон Бобохонов эди. 1928 йилда Эшон Бобохоннинг ер- сув, мол-мулклари, шаҳар ҳовлилари мусодара қилинди. У билан бирга унинг ўғли Зайнуддинхонҳам кўп вақт яшириниб юришга мажбур бўлди. 1929-1930 йиллари орган ходимлари уларни олиб кетиб кечгача сўроққа тутар, ярим

тунда қўйиб юборар эди. У кишига “Диний уламолар раҳбари” деган айб қўймоқчи бўлишди. Диндорларга ҳужум бошланган кезларда 1937 йил 14 август кечаси соат учларда Эшон Бобохон ибн Абдулмажидхон ва Зайнуддинхон қамоққа олинишди. Терговчи полковник Мусин буйруғи билан уларнинг уйида иккита юк машинасида нодир қўлёзма китоблар олиб кетилди. Ота-ўғилни дастлаб НКВД ертўласида, кейинчалик эса Олой бозорига яқин жойдаги қамоқхонада сақлашди. Эшон Бобохон терговчи Мусиндан “Далоили хойрот” деган китобларининг келтирилишига рухсат сўраганларида, у бир оз ўйланиб, “қамоқдан қутилиб чиқмоқчимисиз, бобо” деган экан. Аслида Мусин уфалик домланинг ўғли бўлиб, Ислом тўғрисида тушунчаси бор экан [9].

Тахминан, олти ойлардан кейин Эшон Бобохон қамоқдан озод этилди. Зайнуддинхон эса бир гуруҳ диндорлар қатори олис Сибирга бадарға қилинди. 1938 йил ноябр ойида Зайнуддинхоннинг вафоти тўғрисида хабар етиб келди.“Диндорнинг фарзандлари” деб Эшон Бобохон фарзанлари - Бадриддинхон,Софияхон, Насриддинхон ва Саидахонларни мактабдан ҳайдашди, ўқишни давом эттиришга йўл қўйишмади.

1941 йил кузида Эшон Бобохон яна бир бор қамоққа олиниб, НКВД ертўласида ўтирди. Орадан бир ой ўтганидан кейин Зиёвуддинхон ҳам қамоқда эканини турма қоровули махфий равишда Эшон Бобохонга етказган: “Бобо, дуо қилиб ўтиринг, ўғлингизни ҳам олиб келишди”. Тақвоси кучли, имони мустаҳкам, эътиқодига содиқ Эшон Бобохон ҳазратлари бу гал ҳам ўғиллари Зиёвуддинхон билан қамоқдан омон чиқишди.

Иккинчи Жаҳон уруши авжга чиққан 1943 йили СССРнинг урушдаги иттифоқчилари АҚШ билан Англия иккинчи фронт очиш масаласи кўрилганида Совет Иттифоқи раҳбарияти олдига қўйган талаб ва шартларидан бири диндорларга диний расмрусмларни ўтказишларга рухсат бериш эди.

1943 йилнинг куз ойларида Ўзбекистон ҳукумати раҳбари Абдужаббор Абдураҳмонов Эшон Бобохон ҳазратлари билан суҳбатда бундай дейди: “Эшон ота, Тошкентда диний ташкилот ва масжид очишга Москвадан рухсат бўлди. Масжидларни очиб, Гитлернинг тезроқ енгилишини Аллоҳдан сўранглар. Лекин диний идора учун бино ажрата олмаймиз. Уни қаерда очиш ўзингизга ҳавола”. Шунда Эшон Бобохон “Диний идора эски шаҳардаги Ҳазрати Имом даҳасида бўлиши керак, шунинг учун 1928 йилда мусодара қилинган уйимни қайтариб берсанглар бас” дейдилар. Уч кун ичида уй эгасига қайтариб берилди. Шу йили уни таъмирлашди ва ўн икки йил давомида Диний назорат идораси ва кутубхонаси бўлиб хизмат қилди. Кейин бу ҳовли Диний назоратнинг меҳмонхонасига айлантирилди [11: 266].

Тошкентда Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назоратини очишга қарор қилинган эди. Бунга тайёргарлик ишлари бошланиб кетди. Эшон Бобохон раисликларида ташкилий қўмита тузилган, Зиёвуддинхон хам масъул котиб вазифасини бажарарди.Ўрта Осиё ва Қозоғистон республикаларига вакиллар юборилди. Улар орқали Тошкентда очилган Диний идоранинг фаолияти ҳақида хабар берилди. Кўзга кўринган уламолар ва диндорларни топишга ҳаракат қилинди. Шўро даврида руҳонийларга ўтказилган тазйиқ ва адолатсизликларни кўраверіб юрак олдириб қўйган уламоларни йиғиш осон кечмади.

1954 йили муфтий Эшон Бобохон ҳазратлари Бароқхон мадрасасини ва Тилла шайх масжидини идора ихтиёрига бериш масаласини Ўзбекистон ҳукумати олдига қўйилди.Эшон Бобохон ва Зиёвуддинхон раҳбарликларида мадраса ва масжид ҳашар йўли билан тўрт-беш ой ичида таъмирланди. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари Диний идораси мадраса биносига кўчиб ўтди. Ҳозирги кунда ҳам Ўзбекистон мусулмонлари идораси шу ерда фаолият кўрсатиб келмоқда. Масжид ҳам бугунгача мусулмонлар хизматида.

Эшон Бобохон ҳазратлари собиқ СССР мусулмонлари гуруҳига раҳбар сифатида 1945 йили ҳаж сафарига бориб, Маккада Саудия Арабистони подшоси Абдулазиз ибн Сауд қабулида бўлганлар. Ўша йили Ислом давлатлари билан ташқи алоқалар ўрнатилишига ва собиқ СССР мусулмонларининг ҳар йили ҳаж сафарига боришига асос солинди.

1943 йилдан то 1989 йилгача салкам ярим аср давомида Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назоратининг раҳбарлари сифатида ота-ўғил-набира Бобохоновлар Ислом ва мусулмонлар манфаати йўлида хизмат қилиб келишди. Улар раҳбарлигида Диний бошқарма ташқи Ислом олами билан алоқа қилиш, ҳаж сафарини жорий этиш, мадраса ва масжидлар очиш, Қуръон ва ҳадис таълимотлари асосида масжидларда ваъзу иршод ишларини тартибга солиш каби қатор – қатор хайрли ишларни амалга ошириб келди.Диний назорат тузилган дастлабки пайтданоқ Эшон Бобохон ва Зиёвуддинхон дин марказини жиҳозлаш мақсадида асрлар мобайнида ота-боболари томонидан ва ўзлари тўплаган нодир китобларни тортиқ этиб, кутубхона очишган [12: 259].

Зиёвуддинхон муфтийлик маошининг тенг ярмини муттасил равишда шу кутубхонага китоб олиш учун ўтказишга қарор қилганлар. Бу иш йигирма беш йилдан ортиқ давр мобайнида - Зиёвуддинхоннинг вафотигача узлуксиз давом этган. Шу тариқа йигирма минг китоб сақланаётган кутубхона Тошкентдаги бой илм хазиналаридан бирига айланган. Унда Қуръони Каримнинг ҳар хил ҳажмдаги қўлёзма ва босма нусхалари, тафсирга оид китоблар, ҳадис, фиқҳ, араб сарф – наҳви, мантиқ, тарих, тиб, шеърий тўпламлар, жуғрофия, фалсафа, илоҳиёт, риёзиёт, фалакиёт ва бошқа фанлар бўйича ёзилган асарларнинг шарҳлари билан танишиш мумкин.Ўн тўрт аср илгари халифа Ҳазрати Усмон ибн Аффон розияллоҳу анҳу бошчиликларида жамланиб, илк бор китоб шаклига келтирилган мусҳафлардан бири кутубхонада энг нодир ёдгорлик сифатида сақланмоқда. Муфтий Эшон Бобохон ибн Абдулмажидхон саксон йилдан ортиқ, ўғиллари ва набиралари жами етмиш йилдан ортиқ Ислом дини йўлида фаолият кўрсатишди. Ўтган давр ичида муфтий Бобохоновлар масжидлар бўйича Жаҳон Олий кенгаши, Жаҳон Олий Ислом кенгаши, Ислом Олами конгресси, Иордания қироллик академияси, Жаҳон тинчлик кенгаши ҳамда собиқ Совет Иттифоқи ва Ўзбекистон миқёсидаги ўндан зиёд халқаро жамоат ташкилотлари ишида самарали фаолият кўрсатиб келишди. Ислом дини тарғиботи ва халқлар дўстлиги йўлидаги улкан хизматлари учун ота-ўғил-набира Бобохоновлар Иордания, Ливан, Марокаш ва собиқ СССРнинг давлат мукофотлари билан тақдирланишган [10].

Муфтий Эшон Бобохоновнинг Совет даврида ислом илмини сақлаб қолинишига қўшган ҳиссаси беқиёс. У икки бора қамалиб, икки ўғли Сибирга сургун этилганига қарамай дин йўлида жасорат кўрсатишдан қўрқмаган. Баъзи маълумотларга кўра, Муфтий Эшон Бобохон Сталин билан учрашгани ҳам айтилади. Орадаги тақиқлардан сўнг Бухорода Мир Араб мадрасасини тиклаган, у ерда яна ислом илми чироғи ёқилишига сабабчи бўлган шахс ҳам Муфтий Эшон Бобохонов эди. 1945 йил 10 октябрда Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси қошида диний мадраса очилишига рухсат берилди. Юқоридаги буйруқ асосида 1945 йил 29 ноябрда Диний бошқарма ихтиёрига иккита диний муассаса очилишига рухсат берилганлиги тўғрисида қарор қабул қилиниб, Тошкент шаҳридаги Бароқхон ва Бухоро шаҳридаги собиқ Мир Араб мадрасаси фаолиятига рухсат берилди [5]. Шайх Зиёуддинхон ибн Эшон Бобохон Ислом равнақи ва мусулмонлар бирдамлиги йўлидаги катта хизматлари учун икки марта биринчи даражали “Иордания юлдузи” ордени, кўкрак нишони, биринчи даражали “Ливан қарағайи” ва “Ливан юлдузи” орденлари, Марокашнинг “Буюк мутафаккир” олий ордени, собиқ Иттифоқнинг “Ҳурмат белгиси” ва “Халқлар дўстлиги” орденлари билан тақдирланган эди. У киши ҳақида “Замонамиз уламолари”, “Сўнмас зиё”, “Эътиқодга бағишланган умр”, “Шайх Зиёуддинхон ибн Эшон Бобохон” каби хотира китоблари ёзилган [6].

Муқаддас динимиз халқимизни бирлаштириб, миллати ва тилидан қатъи назар, маънавий покланиш, одамларни тинчлик, эзгулик, бағрикенглик, ўзаро ҳурмат ва тотувликка ундайдиган, ўрнини ҳеч нарса боса олмайдиган восита бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир. Хулоса қилиб айтганда, Ислом динининг ҳар бир жамиятга ва ҳар бир замонга муносиб келишининг асосий сабабларидан бири – у инсон табиатини тўла қамраб олганидадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш. БМТ минбарида сўзлаган нутқи. Ислом хакикатни англаш демакдир. 4370 07:42 20.09.2017.
2. Мирзиёев Ш. "Ислом дини ҳақида гапириш менга ёқади". 10964 09:52 24.09.2017.
3. Мирзиёев Ш. 2019 йил 9 май Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. 2019 йил 10 май, 96 (7295)-сон.
4. Асророва Л. Ўзбекистон халқаро ислом академияси. Манбалар хазинаси катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).
5. Асророва Л. Ўзбекистон халқаро ислом академияси. Манбалар хазинаси катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).
6. Аҳмад Маҳаммад. Шайх Зиёуддинхон ибн Эшон Бобохон.
7. Сафарова З.С. Иккинчи Жаҳон уруши йилларида Узбекистон маданияти: холати ва муаммолари. Тошкент, 2013. – 150 б.
8. Сафарова З.С. Иккинчи Жаҳон уруши йилларида Узбекистон маданияти: холати ва муаммолари. Тошкент, 2013. – 150 б.
9. Софияхон Эшон Бобохон қизи “HIDOYAT” журнали, 2006 йил. 10. Софияхон Эшон Бобохон қизи “HIDOYAT” журнали, 2006 йил.
11. Усманходжаев А. Глава 2. Эшон Бабахан // Жизнь муфтиев Бабахановых: служение возрождению Ислама в Советском Союзе. — М. – Нижний Новгород: ИД «Медина», 2008. — 600 с. — ISBN 978-5-9756-0046-2.
12. Усманходжаев А. Глава 2. Эшон Бабахан // Жизнь муфтиев Бабахановых: служение возрождению Ислама в Советском Союзе. — М. – Нижний Новгород: ИД «Медина», 2008. — 600 с. — ISBN 978-5-9756-0046-2.

ТЕЗ ЎСУВЧИ ИСТИҚБОЛЛИ ТЕРАКЛАР

Жўрабаева. М.Б., Эшанкулов Б.И., Галаева З.Ш.
Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти,
Тошкент давлат аграр университети

Аннотация. Мамлакатимизда аҳоли томонидан теракка бўлган талаб жуда юқори ҳисобланади. Теракларнинг тез ўсувчи, танаси силлиқ ва сифатли ёғоч берувчи, касаллик ва зараркунандаларга чидамли, тупроқ шароитига тез мослашувчи тур, нав, гибрид ва шаклларига доимо қизиқиш катта бўлган. Ушбу мақолада хориждан интродукция қилинган тукли терак ва маҳаллий яратилган терак Стремительный ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: ёғочсозлик, тез ўсувчи, терак, маҳаллий, хорижий, иқлимлаштирилган, чўл, шароит, таксация, оналик дарахт.

Annotation. The demand for poplar by the population in our country is very high. There has always been great interest in species, varieties, hybrids and forms of poplars that grow quickly, have a smooth body and give quality wood, are resistant to diseases and pests, and quickly adapt to soil conditions. This article provides information on the imported feathery poplar and the domestically created Stremitelnyy poplar.

Key words. timber, fast growing, poplar, native, foreign, acclimatized, desert, conditions, taxa, mother tree.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 19 феврал № 84 сонли “Ёғочсозлик саноати хомашё базасини мустаҳкамлаш ва соҳани янада ривожлантириш чора-

тадбирлари тўғрисида” қарори мамлакатмизда ёғочбоп тез ўсар ва қимматбаҳо ёғочга эга бўлган дарахтларни ўстириш каби муҳим вазифаларни қўяди [1].

Ўзбекистонда тез ўсувчи дарахтлардан тераклар алоҳида ўринга эга. Шаҳар ва қишлоқларимизда, ҳовли ва далаларимизнинг чекасида бу туркум вакилларига албатта экиш учун жой топилган. Баҳор фаслининг бошланиши ёки фарзанд туғилиши муносабати билан терак экиш удуми ҳозиргача сақланиб қолганлигини кўришимиз мумкин. Аҳолимиз теракларнинг барги ва танасининг кўринишига қараб оқ терак, кўк терак, қора терак каби номлар билан аташади. Ўзбекистон ҳудудида теракнинг асосан маҳаллий 4 тури кенг тарқалган. Булар кўк терак ёки чинни терак, ок терак ёки бақа терак, мирза терак ва қора тераклар. Бу терак турларидан Ўзбекистоннинг чўл шароитидаги шўрланган ва шўрланишга мойил бўлган ерларда асосан кўк терак, ундан кейин оқ терак тури кенг тарқалган. Мирза терак бундай шароитларда яхши ўсмайди. У, асосан, Фарғона водийси вилоятларида ва Тошкент вилоятининг суғориладиган ерларида кўп тарқалган. Қора терак нами кам кучсиз ерларда ҳам ўсади, айниқса, дарё бўйларидаги унумдор ерларда яхши ривожланади.

Кейинги йилларда Ўзбекистонда иқлимлаштирилган терак турларидан кенг баргли терак кўплаб экилди. Бу терак сернам ерларда яхши ўсади, тупроғи енгил ва қуруқ бўлган ерларда яхши ривожланади, аммо шўр, нами кам ерларда яхши ўсмайди.

Умуман, теракзорлар барпо қилиш учун аввало ҳар бир жойда маҳаллий тез ўсувчи, шароитга мослашган шу ердаги тераклардан ўстириб, кўпайтириш керак. Улар бошқа навларга нисбатан анча чидамли бўлади. Бу эса терак плантациялари ташкил қилишда жуда мухим омиллардан бири ҳисобланади.

Охирги йилларда аҳолимиз томонидан Калифорния тераги номи билан машҳур теракни экиш ҳам оммалашди. Теракзорлар барпо этишда хориждан интродукция қилинган, қисқа муддатда кўп ёғоч заҳирасини йиғувчи терак турларидан бири тукли терак истиқболли эканлинини кўришимиз мумкин.

Тукли терак- *Populus tomentosa* (Тополь войлочный) – бўйи 40 м га боради, ҳам ўзининг тез ўсиши, касаллик ва зараркунандаларга чидамли эканлиги билан диққатга сазовор. Танаси тик, тана диаметри йўғон, баҳайбат ва мазарали бу дарахт қисқа муддатда баланд бўйга эга бўлади. Барглари 16х16 см, яшил, кигизрангли-ялтироқ, юраксимон шаклга эга, чети тишчали, барг банди 5-6 см. Ёш новдалари туклар билан қоплпнган

Стремительный тераги (Оқ терак нави). Первенец Узбекистана тераги уруғчи дарахтларидан келиб чиққан ва морфологик белгилари жиҳатидан ўша теракка жуда ўхшаб кетади, лекин унинг танаси бутунлай цилиндр шаклида, кам шохланган, чангчи дарахти танасининг деярли 18 м дан ошиқ қисми шохламаган ва тик ўсган бўлади. У тез ўсиши, маҳсулдорлиги, цитоспориоз ва теракнинг бўртма қалқондорига қарши чидамлилиги билан бошқа тераклардан фарқ қилади. шўрга нисбатан чидамлилиги анча юқори ва суғориш тартибга солиб турилса, ҳавонинг нисбий намлиги кам бўлишига ҳам бардош беради.

Бу теракнинг уруғчи дарахтлари 30 ёшлигида сизот сувлари - 3 м чуқурликда жойлашган, шўрланмаган ўтлоқи-бўз тупроқларда бўйи 40 м га ва танасининг йўғонлиги 50 см га етади. Мазкур теракнинг 5 ёшлигида бўйи 15,6 м ни танасининг йўғонлиги 10,3 см ни ва ёғоч миқдори гектарига 64,4 м3 ни, 20 ёшлигида тана йўғонлиги 29,9 см ва ёғоч миқдори 950 м3 ни ташкил этади. Ёғочи зич, эгилувчан, ҳидсиз ва оқ рангда бўлади. Таркибидаги целюлоза миқдори эса 45% га боради. Поясидаги новдалардан тайёрланган қаламчалар орқали жуда яхши кўпаяди. Бу терак вакиллари касаллик ва зараркунандаларга чидамли ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 19 феврал № 84 сонли “Ёғочсозлик саноати хомашё базасини мустаҳкамлаш ва соҳани янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори.

2. Филимонова В.Д. Культура тополей за границей. Москва: Гослесбумиздат.1962. - 25 С.

3. Хоназаров А.А. Ўзбекистонда ўрмонзорлар барпо қилиш асослари. –Тошкент, 2002. – 94-101 б.

4. Eckenwalder J. E.[en]. Systematics and evolution of Populus // Biology of Populus and its implications for management and conservation / R. F. Stettler et al.:. — NRC Research Press, 1996. — P. 7—32.

ХАНДОН ПИСТАНИНГ ХОРИЖИЙ НАВЛАРИ УРУҒ АВЛОДИ ДАРАХТЛАРИНИНГ ҲОЛАТИ

Худойназарова Н.Х., докторант (PhD),
Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти,
Буранова Ш.У., докторант (PhD),
Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
Ёқубов Н.Н., бош мутахассис,
Ўзбекистон Экологик Партияси Тошкент шаҳар партия ташкилоти
Холова Ш.А., доцент,
Тошкент давлат аграр университети

Аннотация. Ҳозирда бозорларимизни тўлдириб турган Эрондан импорт қилинган пистанинг йирик ёнғоқмевасига бўлган қизиқиш катта ҳисобланади. Натижада писта ўсадиган хорижий давлатга борган юртдошларимиз ўша жойдан пистанинг йирик ёнғоқмевасини келтириб боғ барпо қилишга ҳаракат қилишмоқда. Ҳосил бўлган боғларда улар кутган серҳосил ва йирик мевали писта дарахтлари чиқмаганини кўриб бу дарахт тўғрисида ижобий фикрдан салбий фикрга ўзгаришига сабаб бўлмоқда.

Калит сўзлар: писта, яшил олтин, маҳсулот, хориж, маданий нав, серҳосил, йирик, ёнғоқмева, уруғчи, чангчи.

Annotation. There is great interest in the large pistachio nuts imported from Iran, which are currently flooding our markets. As a result, our compatriots who have gone to a foreign country where pistachios grow, are trying to build a garden by bringing large nuts of pistachios from that place. Seeing that the fruitful and large-fruited pistachio trees that they expected did not appear in the cultivated orchards, it is the reason for the change of opinion about this tree from positive to negative.

Key words. pistachio, green gold, product, foreign, cultivar, prolific, large, nut, seed, pollinator.

Мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёев томонидан барча соҳаларда бўлгани каби ўрмон хўжалиги соҳасида ҳам кенг ислоҳотлар олиб борилиб, ер ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланиш бўйича бир неча қарорлар қабул қилинган. Жумладан, Навоий, Жиззах, Қашқадарё, Сурхондарё ва Андижон вилоятларига ташрифи чоғида 20 минг гектардан ортиқ майдонда хандон писта плантацияларини барпо этиш бўйича топшириқлар берилган [1].

Ўзбекистоннинг тоғ ва тоғ олди ҳудудларида хандон писта (*Pistacia vera* L.) қурғоқчиликка энг чидамли ёнғоқмевали тур ҳисобланади [3, 4].

Хандон писта ёки “яшил олтин” Эроннинг энг асосий қишлоқ хўжалик маҳсулотларидан биридир. Керман провинциясидаги хандон пистанинг генетик биохилмахиллиги таққосланганда бошқа ҳудудлардаги биохилмахилликлардан анча юқори ҳисобланади. Керман провинциясида ўзининг алоҳида белгисига эга бўлган хандон пистанинг 70 дан ортиқ маданий навлари ўстирилади. Аҳолимиз ўртасида ҳозирда бозорларимизни

тўлдириб турган Эрондан импорт қилинган пистанинг йирик ёнғоқмевасига бўлган қизиқиш катта ҳисобланади. Шу сабабли хорижга саёҳат қилган ёки бирор иш билан борилганда писта ўсувчи мамлакатлардан ўша жойдан пистанинг йирик ёнғоқмевасини келтириб боғ барпо қилишга ҳаракат қилинмоқда. Экилган пистадан улар кутган серҳосил ва йирик мевали писта дарахтлари чиқмаганини кўриб бу дарахтнинг бу дарахт тўғрисида ижобий фикрдан салбий фикрга ўзгаришига сабаб бўлмоқда. Бундан ташқари чангчи дарахтларни ҳосил бермаслигини кўриб бу дарахтлар жуда кеч ҳосил берар экан деган нотўғри фикрга ҳам келинмоқда.

Тадқиқот услуби. Ўзбекистон турли минтақаларида ўстирилаётган хандон пистанинг хорижий навлари - Ахмади, Акбари, Фандугиларни плантациялари, дарахтзорлари, боғларда ва аҳоли томорқаларида ўстирилаётган дарахтлари аниқланади. Дарахтларда таксацион таҳлил ўтказилади ва баҳоланашда. Пистанинг танланган шаклларини баҳолаш ишлари Г.М.Чернова ва Г.С.Олехнович (1998 йил) томонидан ишлаб чиқилган “Пистанинг нав ва истиқболли шаклларини хўжалик-биологик белгилари бўйича комплекс баҳолаш методикаси” бўйича ўтказилди [2].

Тадқиқот натижалари. Хандон пистанинг йирик мевали хорижий навларини кўпайтиришга аҳолимиз томонидан юқори қизиқиш билдирилади ва бугунги кунда кўплаб писта боғлари барпо этилган. Хориждан келтирилган хандон пистанинг нав уруғларидан барпо этилган ушбу боғларда турли шакллари юзага келган, уларнинг кўпчилиги чангчи дарахтлар бўлса, айримлари майда мевали дарахтлардир. Бунда пистанинг полиморфизм хусусиятини ҳисобга олиш керак бўлади. Барча хориждан келтирилган писта уруғларидан пистазорлар барпо қилишда қуйидаги умумий хатоликлар кўзга ташланади:

-экилган йирик уруғдан албатта йирикмева берувчи писта дарахти бўлади деб ишониш;

-ёш писта дарахти ёки кўчатини кўчириб ўтказишга уриниш натижасида нобуд бўлиши;

-чангчи ва уруғчи дарахтни фарқлай олмаслик;

-дарахтлар биологиясини билмаслик сабабли чангчи дарахтларни кесиб ташлаш;

-пайванд қилиш муддатлари ва усулини билмаслик натижасида майдонда дарахтлар нисбатининг нотўғри тақсимланиши;

- уруғчи дарахтлар ҳосилдорлиги ва сифати паст бўлишини бартараф этиш усулларини билмаслик.

Юқоридаги камчиликларни бартараф этиш мақсадида бир неча вилоятларда хорижий писта нав уруғ авлоди пистазорлар умумий ҳолати, вегетацияси ўрганиб чиқилди, таксацион баҳоланди. Бунинг учун Фарғона вилояти Марғилон тумани, Тошкент вилояти Тошкент ва Қибрай туманлари, Бухоро вилояти Ғиждувон тумани, Қашқадарё вилояти Каспи тумани, Сурхондарё вилояти Денов ва Бойсун туманларидаги хорижий писта навларининг уруғ авлодидан барпо этилган пистазорлар ва дарахтлар ўрганилди.

Ўзбекистоннинг турли географик иқлим-тупроқ шароитларида хорижий писта уруғларидан плантация барпо қилишга ҳаракат қилинган. Фарғона вилояти Олтиариқ тумани бўйича ўстирилган писта плантацияси ҳолатини таҳлил қилсак: уруғ Эрондан келтирилган Ахмади ва фандуги уруғлари экилган, дарахтлар ҳосил беришга киришни энди бошлаган. Шундай бўлсада айрим дарахтларни чангчи ва уруғчи дарахтининг гуллашнинг йўқлиги сабабли аниқлаш имкони бўлмади. Умуман олганда ҳозирча уруғчи дарахтлар-60%, чангчи дарахтлар - 40%ни ташкил қилади. Уруғчи дарахтларнинг ёнғоқмеваси ҳажми бўйича ҳам йирик, ўртача ва кичик эканлиги кузатилди. Ушбу пистазор эгаси томонидан ҳам писта дарахтларида пайвандлаш ҳаракати амалга оширишга уриниш бўлган, аммо пайвандлаш ишлари хато бажарилганлиги сабабли, бу тадбир ижобий натижа бермаган. Майдондаги 90% дарахтлар танасига ишлов бериш натижасида кўп танали ҳолда ўсган. Бунинг натижасида чангчи дарахтлар сонини камайтириш ва ёнғоқмеваси майда бўлган дарахтларни йирик мевали дарахтларга айлантириш ишларида маълум қийинчиликлар туғдиради.

Сурхондарё вилояти Сариосиё туманида Эрондан келтирилган хандон писта Ахмади нави уруғ авлоди нисбатан йирик ва тўлиқ ҳосилга кирган дарахтлар эканлигини кўришимиз мумкин. Дарахтлар денгиз сатҳидан 800 м баландликда, суғорилмасдан ўстирилади. Йирик мевали дарахтларни қайд этдик ва бу дарахтларда ўртача ҳосил 16 кг эканлигини аниқладик. Уруғчи дарахтлар-40%, чангчи дарахтлар - 60% ни ташкил қилади. Дарахтлар пайванд қилинмаган.

Сурхондарё вилояти Сариосиё туманида Эрондан келтирилган хандон писта Акбари нави уруғ авлоди дарахтларининг таксацион кўрсаткичларини аниқладик. Ушбу хонадонда 3 та йирик дарахт бўлиб бунда иккита чангчи ва битта уруғчи дарахт мавжуд. Эътиборли томон 2021 йилда ушбу уруғчи дарахт 30 кг писта ёнғоқмеваси (тозаланган, қуритилган) ҳосилини берган. Бу дарахтлар суғориладиган майдонда ўсади. Пайвандланмаган.

Бухоро вилояти Ғиждувон туманида Эрондан келтирилган хандон писта Ахмади нави уруғ авлоди ёш дарахтларининг максимал бўйи 3 м (2 йиллик) дан ошган. Писта ўсиб турган майдон доимий суғориш тизимига эга, тупроғи ўртача шўрланган. Июн ойида баъзи дарахтларда пайванд қилинган новдаларида қуриш кузатилди. Шундай бўлсада дарахтларнинг умуммий ҳолати яхши бўлиб бундай тупроқли шароитларда писталарнинг ўсиши ижобий ҳолат ҳисобланади ва пистачиликда янги имкониятларни очишга сабаб бўлиши мумкин.

Тошкент вилояти Қибрай туманида Эрондан келтирилган хандон писта Ахмади нави уруғ авлоди йирик дарахтлар бўлсада зич экилиши ҳисобига шох-шаббаси қатор оралари томонга қараб ўсганлигини, дарахтлар анча йирик бўлсада, ҳосилдорлик даражаси пастлигини кўришимиз мумкин. Йирик мевали дарахтлар мавжуд.

Қашқадарё вилояти Янгинишон шаҳарчасида Эрондан келтирилган хандон писта Ахмади нави уруғ авлоди дарахтлари ҳолати яхши, касаллик ва зараркунандалар билан зарарланиш ҳолати қайд этилмади. Дарахтлар ҳосилга кириш арафасида. Ҳозирча битта дарахтда йирик мева бериши кузатилди.

Ўтказилган илмий-тадқиқот натижаларидан хорижий писта навлари уруғ авлодидан ҳосил бўлган дарахтларда умумий майдондаги дарахт сонига нибатан чангчи ва уруғчи дарахтлар тенг тақсимланади. Уруғчи дарахтлар ҳам жуда кам миқдорда серҳосил ва йирик мевали дарахтлардан иборат бўлади. Суғориладиган майдонда ўсаётган хорижий писта навлари уруғ авлоди дарахтлари 7-8 йилдан ҳосилга кира бошлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60сонли фармони.

2. Булыгин Н.Е “Дендрология” Ленинград “Агропромиздать” 1991 с.269

3. Чернова Г.М., Олехнович Г.С. Методика комплексной оценки сортов и перспективных форм фисташки по хозяйственно-биологическим признаком // Биоэкология орехоплодовых лесов и геодинамика в Южном Кыргызстане. ЮОНАН Кырг. Респ. - Джалал-Абад, 1998. - С. 53-61.

4. Қайимов А. К. Бердиев Э.Т “Дендрология” Тошкент “Фан ва технология” 2012 бет 132-134.

МАҲАЛЛИЙ ПИСТА НАВЛАРИ -“БОБОТОҒ” ВА “ҒАЛЛАОРОЛ”

Хасанова М.Г., лаборант,
Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти,
Рустамов Ж.Т., лаборант,
Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти,
Хомидова Н.И., ассистент,
Тошкент давлат аграр университети,
Очилов Т.О., ассистент,
Тошкент давлат аграр университети,

Аннотация. Циста ёнғоқмеваси етиштирувчи кўп мамлакатларнининг ўз хандон циста навлари мавжуд. Эронда-Ахмади, АҚШ – Керман, Туркия – Султони каби навларни мисол қилишимиз мумкин. Мақолада Ўзбекистонда яратилган серҳосил ва йирикмевали хандон пистанинг маҳаллий навлари ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: туркум, тур, флора, кичик дарахт, хандон циста, ёввойи, маданий, уруғ, ёнғоқмева.

Annotation. Many pistachio nut producing countries have their own unique pistachio varieties. We can give examples of such varieties as Iran-Ahmadi, USA-Kerman, TurkeySultani. The article provides information about local varieties of high-yielding and large-fruited pistachios created in Uzbekistan.

Key words. genus, species, flora, small tree, pistachio, wild, cultivated, seed, nut.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60сонли фармонида ўрмонларни кўпайтириш бўйича мақсадлар белгилаб берилган [1].

Циста (*Pistacia* L.) туркуми 20 та тур бўлиб, улар Ўрта Ер денгизи мамлакатларида, Хитойда ва Мексикада тарқалган. МДҲ флорасида 2 тури учрайди. Хандон циста кичик дарахт бўлиб, барглари уч бўлак, тоқ патсимон, баргчалари навбат билан жойлашади. Гуллари бир жинсли, икки уйли, меваси данакча, пўсти юпқа, данагининг қобиғи жуда қаттиқ.

Марказий Осиёда туркумнинг битта хандон циста (*Pistacia vera* L.) тури ўсади. Унинг новдалари яшил кулранг, шохлари кулранг, жигарранг майда ясмиқчалари бор. Унинг барглари уч бўлакли, пўсти қалин, ҳар иккала томони тиниқ яшил, ялтироқ, бўйи 20 см гача, баргчалари тухумсимон, учи тўмтоқ, туби нотекис, бандсиз бўлиб, навбат билан жойлашади. Меваси жуда мазали, истеъмол қилинади ва озиқ овқат саноатида фойдаланилади. Мағзи таркибида 60-70% мой бор. Танасидан смола олинади. Танаси, барги ва меваларида хушбўй эфир мойи бўлади. Баргида таннид моддаси бор.

Циста Марказий Осиёдаги тоғ қияликларида ёввойи ҳолда ўсади. У Ўрта Осиёда, Закавказьеда ва Қримда кўп экилади. Қурғоқчиликка ва иссиққа жуда чидамли. Кўп суғорилса ёки ерда нам ҳаддан ташқари кўп бўлса, қуриб қолади. Циста асосан уруғдан кўпайтирилади. Кавказда ва Қримда денгиз сатҳидан 2100-2500 м баландликдаги тоғ қияликларида пистанинг иккинчи тури - тўмтоқ баргли хандон циста (*Pistacia mutica* L.) учрайди. У дарахт шаклдаги, мураккаб тоқ патсимон барги, мевасининг майда бўлиши билан хандон пистадан фарқ қилади. Уруғдан яхши кўпаяди. Унинг мойидан совун ишлаб чиқаришда ва ёқилғи сифатида фойдаланилади. Ёғочи қаттиқ ва оғир бўлади. Ўрмон мелиорация ишларида тоғ қияликларини ёмғир суви ювиб кетишдан сақлаш учун экиш тавсия қилинади. Бошқа хусусиятлари хандон пистаникига ўхшайди. Улар апрел ойида гуллайди, меваси октябр ойида етилади. Табиий пистазорлар Боботоғ тоғларида тарқалган. Хандон пистанинг йирик мевали шаклларини

ўрганишда профессорлар С.М.Аблаев, Г.М.Черноваларнинг хизматлари катта ҳисобланади [2, 3].

Эрон Ислом Республикасида хандон пистанинг жуда кўплаб навлари мавжуд бўлиб, қуйида баъзи турлари билан танишиб чиқамиз:

Думалоқ Фандуги (*Round Pistachio Fandoghi*) – унча катта бўлмаган, думалоқ хандон писта ёнғоқ меваси бўлиб, дунёда энг таниқли Эрон нави ҳисобланади.

Узунчоқ Акбари (*Super Long Pistachios Akbari*) – жуда хуштаъм бўлиб, бошқа навларга нисбатан нархи қимматроқ. Асосан, Шарқий Осиё, Европа, айниқса, Германия ва Россияга катта ҳажмда экспорт қилинади.

Узунчоқ Ахмад-Агаи (*Long Pistachio Ahmad Aghaee*) – бу писта нави мағзи оқ ва юпқа пўстга эга. Марказий Осиё мамлакатларига экспорт қилинади.

Бодоми (*Long Pistachio Badami*) – бу хандон писта нави ёнғоқмеваси мағзи бодом ёнғоқмеваси мағзига ўхшаганлиги сабабли ушбу номни олган. Асосан, Европа мамлакатларига экспорт қилинади.

Йирик Коле Гучи (*Jumbo Pistachio Kalleh Gouchi*) – бу хандон пистанинг нави ёнғоқмевасининг очилганлик даражаси ҳам ўта юқори бўлиб, 97% ни ташкил қилади [4].

Ўзбекистонда ҳам хандон писта бўйича селекция ишлари кенг миқёсда олиб борилмоқда. Ўрмон хўжалиги илмий тадқиқот институти олимлари томонидан хандон пистанинг 13 та нави яратилди. Қуйида шу пистаа навларидан айримларини кўриб чиқамиз:

Хандон пистанинг “Боботоғ” нави, уруғчи дарахт - тез ўсувчи ва тик, кенг ва зич шох-шаббага эга. Дарахтнинг ўртача бўйи - 4 м, тана диаметри - 35 см, шох-шаббасининг диаметри - 4 м гача етади.

Барглари яшил рангда, думалоқ шаклда бўлиб, учки қисми қисқарган ва учга эга. Бошқа нав ва шаклларга нисбатан баргини жуда кеч ёзади.

Уруғчи гуллари элептик шаклда бўлиб, оч жигар рангда. Бошқа нав ва шаклларга нисбатан жуда кеч гуллайди.

Мева эти ўткир учига эга, етилганда эти данагидан ажралмайди, бир хил тақсимланмаган қизил рангда.

Меванинг етилиши жуда кечки ҳисобланади ва иқлим шароитидан келиб чиқиб сентябрь ойининг учинчи ўн кунлигига тўғри келади.

100 дона уруғ оғирлиги 115,9 г, ҳажми 21,6x11,9x12,2 мм, эллипс шаклда бўлиб учи ўткир тумшуқчага эга.

Данакнинг очиқлик даражаси ўртача бўлиб, иқлим шароитларига қараб 85% гача кўтарилади. Очиқлилик данакнинг икки томонидан асосигача боради, аммо бир томондан очилган данаклари хам учрайди. Пўчоғининг ранги бир хил, қаймоқ рангда бўлади.

Мағзи бир хил тақсимланмаган арғувон-писта рангида, ўртача вазни 0,7 г, данак умумий вазнининг 60% ини ташкил қилади.

Пайванд қилингандан сўнг 4-5 йили ҳосилга киради. Ҳосил бериши барқарор, иқлим шароитидан (йиллик ёғин миқдори асосий аҳамиятга эга) келиб чиқиб ҳар йили ҳосил беради. 8x8 м схемада экилганда 1 га да ҳосилдорлик 12 ц ни ташкил қилади.

Замбуруғли касалликлар ва мева зарарланишига, қурғоқчилик ва ёзда ҳарратнингнинг ўта кескин кўтарилиб кетишига чидамли ҳисобланади.

Намлик билан ўрта таъминланган (йиллик ёғин миқдори 300 мм дан кам бўлмаган) лалми ерларда экиш тавсия қилинади.

Хандон пистанинг “Ғаллаорол” нави, уруғчи дарахт - тез ўсувчи ва тик, кенг ва ўртача қалинликдаги шох-шаббага эга. Дарахтнинг ўртача бўйи - 4 м, тана диаметри - 35 см, шох-шаббасининг диаметри – 4,5 м гача етади.

Барглари яшил рангда, думалоқ шаклда. Бошқа нав ва шаклларга нисбатан баргини ўрта муддатда ёзади.

Уруғчи гуллари думалоқ шаклда бўлиб, жигар рангда. Бошқа нав ва шаклларга нисбатан ўрта муддатда гуллайди.

Мева эти ўткир учига эга, етилганда эти данагидан ажралмайди, тўқ сариқ-қизил рангда.

Меванинг етилиши кечки ҳисобланади ва иқлим шароитидан келиб чиқиб, август ойининг учинчи сентябрь ойининг биринчи ўн кунлигига тўғри келади.

100 дона уруғ оғирлиги 96,2 г, ҳажми 19,3х9,7х11,0 мм, ингичка эллипс шаклда бўлиб учи ўткир тумшуқчага эга.

Данакнинг очиқлик даражаси ўртача бўлиб, иқлим шароитларига қараб 90% гача кўтарилади. Очиқлилик данакнинг икки томонидан асосигача боради. Пўчоғининг ранги бир хил тақсимланмаган, тўқ қаймоқ рангда бўлади.

Мағзи арғувон-циста рангида, ўртача вазни 0,5 г, данак умумий вазнининг 52% ини ташкил қилади.

Пайванд қилингандан сўнг 4-5 йили ҳосилга киради. Ҳосил бериши барқарор, иқлим шароитидан (йиллик ёғин миқдори асосий аҳамиятга эга) келиб чиқиб ҳар йили ҳосил беради. 8х8 м схемада экилганда 1 га да ҳосилдорлик 12-14 ц ни ташкил қилади.

Замбуруғли касалликлар ва мева зарарланишига, қурғоқчилик ва ёзда ҳарратнингнинг ўта кескин кўтарилиб кетишига чидамли ҳисобланади.

Намлик билан ўрта таъминланган (йиллик ёғин миқдори 300 мм дан кам бўлмаган) лалми ерларда экиш тавсия қилинади [5, 6].

Хандон пистани плантациялар, боғлар ёки хонадонларга экаётганимизда уларни келажакда доимий жойидан кўчирмаслик, яъни экилдими шу ерда ўсишини таъминлашимиз керак бўлади. Бунга асосий сабаб циста кўчириб ўтқазишни ёқтирмайди. Шунингдек доимий жойига экилган писталаримизни 2-3 йилида юқорида кўрсатилган навдор писталарга пайванд қилсак келажакда юқори ҳосил гарови бўлиб хизмат қилади. Унутмаслик керак хандон циста икки уйли ўсимлик шу сабабли майдрндаги уруғчи писталар 80, чангчи писталар эса 20% нисбатда бўлиши керак. Бошқа дарахтлар сингари циста дарахтларига ҳам сифатли агротехник парваришлаш ишлари олиб борилса дарахтларимиздан кутилган натижаларга эришишимиз мумкин бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60сонли фармони.
2. Булыгин Н.Е “Дендрология” Ленинград “Агропромиздать” 1991 с.269
3. Қайимов А. К. Бердиев Э.Т “Дендрология” Тошкент “Фан ва технология” 2012 бет 132-134.
4. Чернова Г.М., Хамзаев А.Х., Эшанкулов Б.И., Шайматов О.А. Ғарбий ТяньШаннинг тоғ олди лалмикор ерларида хандон пистани саноат плантацияларида ўстириш технологиясини такомиллаштириш. – Ташкент, 2019. – С. 5-6.
5. Ўсимлик навига патент NAP 00300
6. Ўсимлик навига патент NAP 00301

ЎЗБЕКИСТОНДА ЎСАДИГАН ЁҒОЧБОП ДАРАХТ ТУРЛАРИ

Янгибаева И.З. - докторант (PhD),
Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти
Мўминова Ш.Х. - кутубхона мудири,
Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти
Эшанкулов Б.И. - катта илмий ходим,
Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти

Аннотация. Шимолий ярим шарда кенг тарқалган эман туркуми вакиллари ўзининг йирик бўйи, манзарали кўриниши, сифатли ёғоч бериши, мелиорация ишларида кенг фойдаланиш имконияти билан ўрмончилар томонидан юқори қадрланади. Найниқса мебель саноатида бу туркум вакилларининг алоҳида ўрни бор. Эман туркумида 600 тур бўлсада Ўзбекистонда битта тур оддий эман ўтган асрдан келтириб экилган ва муваффақиятли ўсмоқда. Яна саноқлигина эман турлари кам сонларда ўсмоқда. Мақолада ушбу турларнинг дендролгик тавсифи келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: ёғочсозлик, қимматбаҳо, тур, эман, дарахт, бўй, тана диаметри, интродукция, Fastigiata, шакл, илдиз.

Annotation. Representatives of the oak family, widespread in the Northern Hemisphere, are highly valued by foresters for their large size, scenic appearance, high-quality wood, and the possibility of wide use in reclamation work. Representatives of this category have a special place, especially in the furniture industry. Although there are 600 species in the oak family, one species of ordinary oak has been planted since the last century and is growing successfully in Uzbekistan. Fewer oak species are growing. The dendrological description of these species is given in the article**.**

Key words. woodworking, valuable, species, oak, tree, height, body diameter, introduction, Fastigiata, shape, root.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 19 феврал № 84 сонли “Ёғочсозлик саноати хомашё базасини мустаҳкамлаш ва соҳани янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори мамлакатмизда ёғочбоп тез ўсар ва қимматбаҳо ёғочга эга бўлган дарахтларни ўстириш каби муҳим вазифаларни қўяди [1].

Ўзининг қимматбаҳо ёғочига эман туркуми вакиллари ҳам Ўзбекистонда бемалол ўсиб кетиши мумкин. 600 турдан иборат эман туркумидан фақатгина оддий эман бизнинг шароитга интродукция қилинган. Кам сонларда оддий эманнинг найзасимон шакли, каштанбаргли ва австрия эмани учрайди.

Оддий эман (*Quercus robur* L.) - бўйи 35-40 м, диаметри 1-1,5 м га етадиган дарахт. Танаси тўғри ўсади, шох-шаббаси қалин. Очиқ ерда ўсганда шохлари ён томонга ўсиб, кенг шох-шабба ҳосил қилади. Унинг пирамидамисон, шарсимон, шох-шаббали, мажнунтол сингари ҳиллари бор. Пўстлоғи бўйига ёрилган, тўқ кул рангда бўлади. Ёш шохлари ва новдалари ҳам қўнғир-қизғиш рангда, киррали. Куртаклари овал шаклда, йирик бўлиб, новданинг учида доира бўлиб жойлашади. Юқоридаги куртаклари ўткир учли, ёнидагиси йирикроқ. Барглари оддий тузилган, спирал шаклда, кузда тўкилиб кетади. Барг пластинкаси тескари тухумсимон, патсимон бўлакли, бўлаклари юмалоқ, учи тўмтоқ. Дастлаб барглари тукли бўлади, сўнг тук фақат уларнинг орқа томонидаги томирларда сақланиб қолади. Томирлари патсимон, пластинкаси бўлаклари ва четларининг кесиги ҳар хил бўлади. Эманнинг барча турлари бир уйли айрим жинсли ўсимликлардир. Улар 8-10 ёшида гулга кириб, ҳар йили гуллайди. Эркак гулли кулчалар ёш новдаларнинг тубида ривожланади. Эман яхши ҳосилга кирганда бир гектар майдондан 1,5 тонна ёнғоқ олиш мумкин. Ёнғоқлари узун бандли бўлиб, сентябр ойидан бошлаб, айниқса, кузги совуқдан кейин тўкила бошлайди. Улар хар-хил шаклда йирик майда бўлиши мумкин. Оддий эманнинг илдизи бақувват ўқ илдиз бўлиб, ерга 10-12 м га яқин кириб боради. Шамолга чидамли, 500-600 йил яшайди. Совуққа

ҳам чидамли дарахт, ёруғсевар ва ҳар хил тупроқда ўса олади, лекин нам тупроқ унинг ўсиши учун энг қулай шароитдир. Ёғочи тўқ жигар рангда, ўзакли, энли ва энсиз ҳақалари бор. Ўзак нурлари яхши билиниб туради. Унинг физикавий ва механикавий хоссалари юқори бўлади. Ёғочи бошқа дарахтларникига нисбатан пишиқ. У дурадгорликда, мебел ясашда, фанер ишлашда ҳамда вагонсозлик ва кемасозликда ишлатилади. Ундан эшик, паркет, ойна ромлари ясалади. Ёғочи сувда ва нам ерда чиримайди. Оддий эман МДҲ нинг Европа қисмида, Кавказда ва Қримда кўп учрайди. Ўрмон зонасида ҳам ўсади. Оддий эман жуда қимматли доривор ва техник ўсимлик ҳисобланади. Оддий эманнинг қобиғи ва пўстлоғи доривор мақсадлар учун йиғилади. Эманнинг бу хусусиятлари узоқ вақтдан бери маълум бўлган.

Оддий эманнинг жуда манзарали найзасимон (*Quercus robur* “Fastigiata”) шакли бўлиб, тана пўстлоғининг ранги, барг ва ҳакалагининг шакли оддий эман билан бирхил бўлади, аммо шох-шаббасининг шакли бўйича найзасимон ёки ингичка пирамидасимон шаклда бўлади. Бизнинг шароитда мирзатеракнинг шаклига ўхшаб кетади.

Каштанбаргли эман (*Quercus castaneifolia*) - бўйи 25-40 (45) м гача бўлган, ёш новдаси, куртаклари чизиқли, ёш баргларининг орқа томони қалин, сариқ ёки тукли, кейинчалик туки йўқолади. Шохларининг пўстлоғи силлиқ, кул рангда. Барглари чўзиқ, овал шаклда бўлиб, 10-12 жуфт йирик, ўткир тишчали, улар каштаннинг баргига ўхшайди. Урғочи гуллари ва ёнғоқлари бандсиз ёки калта бандли. Уруғдан кўпаяди. Бу эман Каспий денгизининг жанубида ва Шимолий Эронда тарқалган. Тоғли ҳудудларда денгиз сатҳидан 1800 м гача баландликда таркалган. Украинанинг ва Шимолий Кавказнинг дашт ва ўрмондашт зоналарида экилмоқда. Совуққа чидамли дарахт. У ниҳоятда чиройли дарахт бўлганлигидан жойларни кўкаламзорлаштириш учун тавсия этилади.

Австрия эмани (*Quercus cerris*) - йирик шох-шаббали дарахт. Табиий равишда Жанубий ва Марказий Европада тарқалган, унинг диапазони жанубий Франция, Италия, Швейцария, Австрия, Венгриядан Болқон ярим ороли мамлакатлари орқали Кичик Осиёнинг шимоли-шарқига, Сурия ва Ливангача боради. Ўрта ер денгизи ҳавзасида эманнинг доминант тури тақалган. Россия ҳудудида бу тур биринчи марта 1821 йилда Никита боғида аниқланган. Сочида, Шимолий Кавказда, Краснодарда, Пятигорск яқинида ўсади. Баландлиги 40 метргача ва поя диаметри 1,5-2 метргача бўлади, 120-150 йил яшайди. Илдиз тизими кенг ёйилган яхши ривожланган дарахтдир. Барглари чўзинчоқовал шаклда. Барг пластинкалари зич, терисимон, тўқ яшил рангда, кузда жигарранг тусга киради. Узунлиги 12 см гача, кенглиги 6 см гача етади. Гуллаш майдан июлгача давом етади, меваси кейинги йилнинг октябр ойида пишиб етилади. Мевасининг узунлиги 2,5-3 см. Бу эман тури асосан кўкаламзорлаштиришда манзарали дарахт сифатида ишлатилади. Тез ўсиши билан ажралиб туради, касалликлар ва зараркунандаларга чидамли. Ҳаво ҳароратининг -29°С гача бўлган совуққа бардош бера олади. Жуда манзарали, шу сабабли шаҳарларни кўкаламзорлаштиришда кўплаб экиш тавсия қилинади.

Юқорида келтириб ўтилган эман турларининг барчаси манзарали хусусиятга ҳам эга бўлиб уларни барча аҳоли яшаш пунктлари, ишлаб чиқариш объектларини кўкаламзорлаштиришда фойдаланиш мумкин. Ушбу турларни Ўзбекистон шароитида кўчатларини етиштириш, ўрмонларинии барпо этиш, ўрмон мелиорацияси ва кўкаламзорлаштиришда фойдаланиш илмий-тадқиқотлар кўламини енгайтириш мамлакатимизнинг қимматбаҳо ёғочга бўлган талабини қондиришга ва экологиямизни яхшиланинишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 19 феврал № 84 сонли “Ёғочсозлик саноати хомашё базасини мустаҳкамлаш ва соҳани янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори.

2. Хоназаров А.А. Ўзбекистонда ўрмонзорлар барпо қилиш асослари. –Тошкент, 2002. – 94-101 б. 3.

БИОМЕЛИОРАЦИЯ ОБЪЕКТИ: ДАРАХТ ВА БУТАЛАР

Усмонова Ш.Х.
”ТИҚХММИ” МТУнинг Қарши ирригация ва агротенологиялар институти, доцент
Эшанкулов Б.И.
Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти катта илмий ходим

Аннотация. Мамлакатимизда дарахт ва буталардан турли мақсадларда фойдаланилади. Дарахтлар асосий қурилиш манбаи ҳисоблансада, бизнинг мамлакатда табиий ўрмонлар ҳимоя вазифасини бажарганлиги сабабли улардан ёғоч олиш мақсадида кесиш таъқиқланади. Табиийки дарахт-буталар экологик мувозанатни жиловлашда асосий вазифани бажарувчи восита ҳисобланади. Биомелиорацияда дарахтлар биоэкологиясини ва ўсиш қонуниятларини билиш билан улардан самарали фойдаланиш мумкин.

Калит сўзлар: дарахт, йил, ёғочлашган тана, тип, оила, туркум, тур, бута, чала бута.

Annotation. In our country, trees and shrubs are used for various purposes. Although trees are considered the main source of construction, in our country, natural forests perform a protective function, so cutting them for timber is prohibited. Naturally, trees and shrubs are a tool that performs the main task in curbing the ecological balance. Knowing the bioecology and growth patterns of trees can be used effectively in bioreclamation.

Key words: tree, year, lignified body, type, family, genus, species, shrub, shrub.

Дарахт – бундан 400 млн йил аввал пайдо бўлган уруғли ўсимликларнинг эволюцион энг қадимий ҳаётий шакллари типидир. Улар доимо мустаҳкам бақувват шаклланган ва ёғочлашган танага эга бўлишган ва бир неча ўн йиллардан минг йилларгача яшашган. Дарахтларнинг баландлиги 4 – 5 метрдан 155 метргача бўлиши мумкин, улар эволюцион ривожланиш жараёнида турли ҳаётий шаклларни юзага келтирганлар.

Дарахт ва буталар эволюцион ривожланиш даврида ҳамда турли табиий шароитларда ўсиши натижасида уларнинг хилма-хил ҳаётий формалари вужудга келган. Дарахт ўсимликлари турли систематик гуруҳларга мансуб бўлиб, асосан барча очиқ уруғлилар дарахт ўсимликлари ҳисобланади. Лекин ёпиқ уруғлиларга мансуб баъзи оилалар (қорақайиндошлар, толдошлар, раъногулдошлар, дуккакдошлар) таркиби ҳам асосан дарахтлардан иборат. Ўтган геологик даврларда ер шарида папоротниксимонларга мансуб дарахтсимон ўсимликлар кенг тарқалган, бўлиб ҳозирда улар қирилиб кетгандир.

Асрлар давомида давом этган табиий танланиш жараёнида дарахтсимон ўсимликларнинг турли шакллари пайдо бўлган. Ушбу белгиларига кўра улар бир неча типларга ажратилади. Асосий типга дарахтлар, яъни якка, яхши ривожланган танага эга бўлган дарахтлар бўлиб, тана баландлиги 40-50 м, диаметри 0,5-1,5 м гача етади. Дарахт ўсимликларни қуйидаги категорияларга ажратиш қабул қилинган

-биринчи катталикдаги дарахтлар – 25 метрдан баланд дарахтлар (қарағай, тилоғоч, қора қарағай);

-иккинчи катталикдаги дарахтлар – баландлиги 15-25 метр бўлган дарахтлар (оқ қарағай, терак, чинор, қайрағоч);

-учинчи катталикдаги дарахтлар – баландлиги 7-15 метр бўлган дарахтлар (заранг, эман, қайин, оқ акация);

-паст дарахтлар – баландлиги 5-7 метр бўлган дарахтлар (писта, тол, шумтол, жийда);

-баланд бўйли буталар – 2,5-5 метр баландликда (чаканда, маржондарахт);

-ўрта бўйли буталар – 2,5 метр баландликда (наъматак, зирк, ирғай, шилви);

-паст бўйли буталар 0.5-1 метр

-бутачалар 0,5 метр баландликкача ўсиб ривожланади.

Дарахт ўсимликларининг морфологик турлича шакллари ҳам ирсий белгиларни кейинги авлодга ўтказади. Ушбу ирсий хусусиятлар муайян тупроқ-иқлим шароитлари таъсирида, унинг ривожланиш жараёни ва маданийлаштириш даврида юзага келган. Масалан оддий қорақарағай (Picea excelsa) икки хил шаклда: қизил ва яшил қуббаларга эга бўлиб, кўп ҳолларда ёнма-ён ўсади. Лекин яшил қуббали оддий қорақарағай дренажли тупроқларда кўпроқ учрайди, тез ўсувчанлиги ва ёғочининг сифатига кўра алоҳида ажралиб туради.

Морфологик белгиларга кўра шаклларнинг турли-туманлиги жуда юқори бўлиши ҳам мумкин. Ўзбекистонда ўсувчи маҳаллий арча турлари ҳам табиатда нинабаргларини ранги, узунлиги, шох-шаббасини шакли тик ўсувчи, шарсимон, конуссимон ва стлантик шаклларни юзага келтирган. Дарахтларнинг кўп тарқалган ва асосий типи бир танали дарахтлардир. Улар яққол кўзга ташланувчи ва яхши ривожланган ягона танага эга бўлиб, муайян баландликда шохланади ва шох-шабба ҳосил қилади. Баланд танали дарахтларнинг хусусиятларидан бири – уларнинг асосий танаси узоқ давр яшаши (бир неча юз йиллардан минг йилларгача) ҳамда яхшигина йиллик ўсиш кўрсаткичларига эга бўлишидир. Бир танали дарахтлар кўп танали дарахтларга нисбатан кам шохланади, шу сабабли ҳам асосий танасини тез ўсишини ва юқорига кўтарилишини таъминлайди.

Дарахт ўсимликларининг иккинчи кенг тарқалган типи кўп танали дарахтлар бўлиб, уларнинг бўйи 10-20 метр, диаметрлари 0.3-0.6 метргача етади. Ушбу дарахтларни бир танали дарахтлардан фарқи шундаки, уларнинг асосий танаси бир неча ўн йиллардан сўнг ўсишдан тўхтайди ва баланд ва йирик дарахт танаси шаклланмайди. Уларда тиним ҳолатидаги куртаклар уйғониб ўса бошлайди ва ёш новдаларни ҳосил қилади, бу ўсиш охир-оқибатда асосий танага ёнма-ён 2-3 та қўшимча таналар пайдо қилади. Озиқ моддалар барча таналар бўйлаб тенг тақсимланганлиги сабали улар асосий тана баландлигига етиб олади ва шу тариқа кўп танали дарахт юзага келади. Дарахтларнинг ушбу ҳаётий шакли танасининг минимал ўлчамлари ва қисқа ҳаётий шакли билан бир танали дарахтлардан фарқланади. Улар кўп танали бўлгани ҳолда паст бўйли бўлиб ўсади.

Бир танали ва кўп танали дарахт шакллари ирсий белгилар сифатида авлодданавлодга ўтади, лекин баъзи ҳолларда ташқи шароит таъсирида ўзгариши ҳам мумкин. Масалан кўпгина дарахтларнинг (қарағай, терак, эман) ўрмонда ва очиқ майдонларда ўсувчи нусхалари бир-биридан фарқ қилади: очиқ майдонларда ўсувчи дарахтлар танаси йирик, ён атрофга кучли шохланган бўлиб, бўйи унчалик баланд бўлмайди, аксинча ўрмонда ўсувчи дарахтлар яшаш учун ички конкуренция оқибатида кучли ўсиб, баланд бўйли ва текис ривожланган танага эга бўлади.

Тундра ва баланд тоғлардаги оғир иқлим омиллари таъсирида дарахтлар ер бағирлаб ўсувчи шаклларни юзага келтиради (арча, қарағай, қайин). Улар стлантик ўсимликлар деб аталади. Ушбу ўсимликлар шароити яхши жойларда ўстирилса шохшаббасини ер юзидан кўтариб ўсиши мумкин. Демак ушбу ҳолларда дарахтларнинг ташқи кўринишининг қисман ўзгаришини уларнинг ташқи муҳитга жавоб реакцияси сифатида қабул қилиш мумкин.

Бир танали ва кўп танали дарахтларнинг муҳим биологик хусусиятларидан бири улар танасини шох-шаббаларига нисбатан ҳаётчан бўлиши ва узоқ яшашидир, шу сабабли улар ҳосил қилган ҳаётий шакллар бутун ҳаёти давомида сақланади.

Учинчи типга буталар киради, улар 1 метрдан 4-5 метргача баландликка ўсиб, вегетатив кўпайишга мойил бўлади. Бутанинг ўсиб чиққан асосий новдаси 5-7 йилдан сўнг қурийди. Унинг асосидаги тиним ҳолатидаги куртаклардан ёш новдалар ривожланади, улар кучли озиқ моддалар билан таъминланганлиги туфайли тез ўсади ва икки йилда ҳосилга киради. Ушбу новдалар ҳам узоқ яшамайди ва улар доимо янги новдалар билан алмашиниб туради. Шу сабабли буталарда асосий танани ажратиш қийин. Бутанинг бу каби доимо янги новдалар билан янгиланиб туриши унинг доимий ҳосилдорлигини ва бутанинг ёш ўсимлик сифатида узоқ йиллар ўсишини таъминлайди. Кўпгина буталарнинг (наъматак, зирк, чаканда,

маймунжон, малина) ер ости ёнлама илдизларидаги тиним куртаклардан ёш новдалар пайдо бўлади, ушбу новдалар маълум вақтдан сўнг ўзининг мустақил илдиз системасини шакллантиради ва она ўсимликдан 1-2 метр масофада янги ёш ўсимлик ривожлана бошлайди. Буталарнинг бу каби вегетатив кўпайиши тоғ мелиорациясида қадрланади, муайян вақт ўтиши оқибатида она ўсимлик атрофида кўп сонли буталар мажмуаси вужудга келади.

Тўртинчи тип – бу бутачалардир. Уларнинг бўйи 20-50 см атрофида бўлиб, секин ўсиши ва қисқа ҳаётий цикли билан фарқ қилади. Уларнинг ҳам новдалари қисқа вақт ичида қуриб, доимо асосидан ривожланувчи янги новдалар билан алмашиниб туради.

Баъзи бутачаларда новдаларини тўлиқ ёғочлашуви кузатилмайди, шу сабабли кўп новдалари қишки қаттиқ совуқларда зарарланади ва нобуд бўлади. Бундай ўсимлик типлари чала бута ва чала бутачалар деб аталади. Уларнинг илдиз системаси ҳар йили вегетация бошида янги новдалар ҳосил қилади ва янги ўсимликни вужудга келтираверади. Бу тип ўсимликлар кўп йиллик ўт ўсимликларга ўтувчи тип ўсимликлар сифатида қабул этилган.

Юқорида кўрсатиб ўтилган дарахт ўсимликлари типларидан ташқари лианалар ва ер бағирлаб ўсувчи ўсимликлар типлари мавжуддир. Лианалар ўз танасини мустақил кўтариб туриш қобилиятига эга эмасдир, шу сабабли улар чирмовуқлар ёрдамида дарахт ва буталарнинг шох-шаббаларига ўралиб, дарахт шохларидан тирговуч сифатида фойдаланиб, 30-40 метр узунликкача ўсади. Лианалар асосан тропик ўрмонларда кенг тарқалган, бизда тўқай ўрмонларида ҳам лианалар учрайди. Ток, актинидия, клематис, пулария, ломонос, маймунжон ўсимликлари лианалар тоифасига мисол бўлади.

Умуман олганда, юқорида кўриб ўтилган дарахт ўсимликларнинг типлари орасида принципиал фарқлар йўқдир, бир турдаги дарахт ўсимлиги ташқи тупроқ-иқлим шароитларига боғлиқ ҳолда дарахт, паст дарахт, ер бағирлаб ўсувчи шаклларни юзага келтириши мумкин[1].

Аралаш дарахтзорлар вужудга келтириш учун дарахт турларини танлаш ва уларнинг бир-бирига таъсирини аниқлаш жуда катта аҳамиятга эга. Асосий ва унга йўлдош дарахт турлари бир бирига яхши таъсир кўрсатиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кайимов А. К. Бердиев Э.Т “Дендрология” Тошкент “Фан ва технология” 2012 й. 15-18 б.
2. Хоназаров А.А. “Ўрмоншунослик” Тошкент 2001 й.

ҲИКОЯ ЖАНРИДА МАКОН - ЗАМОН ВА БАДИИЙ СИНТЕЗ

Имомова Гулчеҳра
ҚаршиДУ профессор в/б филология фанлари доктори

Аннотация. Мазкур мақолада ўтмиш ва янги замон синтези кўпқиррали ҳодиса бўлиб, уларнинг барчасини ижодкор имкони борича бир асар доирасида қамраб олиши ҳикоя жанри мисолида таҳлил қилиб берилган.

Калит сўзлар: хронотоп, синтез, образ, монолог, метод, идеал, пафос, характер, реалистик, модернизм, жанр, тип, сюжет.

Annotation. In this article, the synthesis of past and new times is a multifaceted phenomenon, and the ability of the creator to cover all of them in one work is analyzed on the example of the narrative genre

Keywords: chronotope, synthesis, image, monologue, method, ideal, pathos, character, realistic, modernism, genre, type, plot.

Кириш. Узоқ ўтмиш билан янги давр синтезига келсак, шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, бадиий синтезнинг бу тури ўта мураккаб бўлиб, у ижодкордан улкан маҳорат ва катта тарихий билим талаб қилади. Чунки ижодкор ўзи қаламга олаётган воқелик моҳиятини чуқур билиши, образлар руҳияти ҳамда хатти-ҳаракати воситасида уни ҳаққоний акс эттириши лозим. Бундан ташқари, ўтмиш ва янги замон синтези кўпқиррали ҳодиса бўлиб, уларнинг барчасини ижодкор имкони борича бир асар доирасида қамраб олиши зарур. Муҳими шуки, ижодкор узоқ ўтмишга алоқадор ҳужжатларни пухта билиши, уларнинг замон билан уйғун нуқталарини боғлай олиши керак, шундагина бадиий синтезнинг бу тури муваффақиятли амалга ошади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили: “Бадиий асарда макон ва замон муаммоси, гарчи унга қадар маълум даражада ўрганилган бўлса ҳам, бевосита “хронотоп” термини рус олими М.Бахтин томонидан ўтган асрнинг 30-йилларида адабиётшуносликка тадбиқ этилган. “Адабиётда бадиий идрок этилган замон ва маконлараро уйғунликни х р о н о т о п (сўзма-сўз таржимада макон-замон деган маънони билдиради), деб атаймиз”.

Ижодкорлар Г.Маркес, Ч.Айтматов, Кобо Абэ, А.Камю сингари XX аср жаҳон адабиётининг йирик ва бетакрор намояндалари ижодидан, уларнинг воқеликни, замондошимиз шуурини қамраб олган чигал муаммоларни бутун мураккаблиги билан акс эттириш тамойилларидан ижодий баҳра олиш йўлидан бордилар. Улар нафақат Шарқ, балки Ғарб адабиётига хос тасвир усулларини, образ яратиш восита ва имкониятларини ўзаро муайян уйғунликда синтез қилиш йўлидан бориб, мураккаб ҳамда кўп маъноли рамзий образлар кашф этишда улкан муваффақиятларга эришдилар.

XIX аср реалистик романчилигининг улкан намояндалари Стендаль, Л.Толстойлар ижодида, шунингдек, XX асрнинг Т.Манн, Р.Роллан, У.Фолькнер, Э.Хемингуэй, Г.Грин каби йирик адибларининг асарларида инсоннинг ички дунёси руҳияти орқали унинг ўзлигини очиб бериш усулларидан бири онг оқими эканлигига мурожаат этади. Одатда онг оқими қаҳрамон кечинмаларини “ички монолог” воситасида ёритишнинг кенг тарқалган усулларидан бири.

XX аср бошларидаги Ғарб модернистик адабиётининг М.Пруст, Ж.Жойс, Ф.Кафка ва Г.Стейн каби вакиллари онг оқимини ўзларининг етакчи ижодий методлари даражасига кўтаришга интилдилар. Лекин улар бунда эпик баённинг мантиқ ва хронологик изчиллигига аҳамият бермадилар. Натижада, реал воқеликнинг бадиий асардаги яхлит тасвири ўз ўрнини субъектнинг хотираси ёки руҳий ҳолати билан боғлиқ ҳолдаги майда, алоҳида кечинмалар баёнига бўшатиб берди.

Энди ана шу нуқтада Хуршид Дўстмуҳаммаднинг “Жажман” ҳикоясига диққатимизни жалб қиламиз.

Тадқиқот методологияси. Адабий-бадиий синтезнинг ушбу турида ҳикоя воқеалари бўлиб ўтадиган макон шартли характерга эга. Бозор рамзий маънода дунёни англатса, тор маънода реал воқеликдаги бозорни билдиради. Аниқроқ қилиб айтилса, бозор ва унда ҳаракат қилувчи кишилар биргаликда олиб қаралса, бу эпик макон мамлакатимиздаги бозорлардан бирини, персонажлар эса халқимиз вакилларини ташкил этади.

Kino san’atining ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va his-tuyg‘ulari, umuman, ma’naviy dunyosining shakllanishida g‘oyaviy-badiiy ta’siri kuchlidir. Kino san’atining qaror topishida amerika kinorejissyori D. Griffitnit xizmatlari katta. Birinchi bo‘lib, u yirik plan, parallel montaj, kengaytirilgan panorama kabi ifodali vositalarni qo‘llagan. Shuningdek, S. Eyzenshteyn, Ch. Chaplin, E. Shtrogeym, K.Dreyer, K. Vidor, R. Kler qabilar ham jahon kinosi rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

Asosiy qism (Main part):

Kino san’ati asarlari yozuvchi-dramaturg, rejisyor, aktyor, operator, rassom, kompozitor kabi ijodiy xodimlardan iborat jamoa mahsulidir. Kinoda rejisyor yetakchi rol o‘ynaydi. Film yaratish 2 tomonni — ijod va ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Kino ishlab chiqarishning markazi — kinostudiya. Tayyor filmlar kinoprokat orqali tarqatiladi va ular kinoteatr, televideniyeda ko‘rsatiladi[2]. Ekran san’atining o‘ziga xos ifoda vositalari bor: umumiy, o‘rta va yirik planda suratga olish, turli rakurslarda kameralar harakati, epizod va kadrlar montajining turli shakllari va

boshqa kino san’atining 4 asosiy turi mavjud: badiiy film, ilmiy-ommaviy kino, hujjatli kino va multiplikatsion kino. Kino san’atining komediya, tarixiy, dramatik va sarguzasht filmlar kabi janrlari mavjud.

O‘zbekistonda birinchi film 1897-yil "Eski jo‘va" maydonida ko‘rsatilgan. 1908-yildan Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va boshqa shaharlarda chet el filmlari namoyish etilgan. O‘rta Osiyoda ko‘rsatilgan kinolentalar, asosan, Amerika, Fransiyaning Sharq ekzotikasi tasvirlangan filmlaridan iborat bo‘lgan. O‘zbek milliy kino san’ati 20-asrning 20-yillarida vujudga keldi. Birinchi o‘zbek kinooperatori Xudoybergan Devonov o‘zining ilk hujjatli-xronikal filmlarida o‘zbek xalqining hayotini, urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan.

1924-yil rus-buxoro shirkati "Buxkino", 1925-yil Toshkentda "Sharq yuldo‘zi" (1936yildan "O‘zbekfilm") kinofabrikasining tashkil bo‘lishi o‘zbek kino san’ati rivojini boshlab berdi. Lekin milliy kadrlarning yetishmasligi natijasida studiyani tashkil etishga urinish va "Buxkino" shirkati qoshida muntazam suratga olishni tashkillashtirish muvaffaqiyatsiz bo‘ldi. Toshkent studiyasiga hali kino sohasida yaxshi tanilmagan rus kino arboblarining kelishi, ularning kasbiy saviyasining pastligi haqiqiy milliy mazmundagi kinolar yaratishga yo‘l qo‘ymasdi. Ular yaratgan filmlar faqat ekzotik va tashviqiy harakterda bo‘lib, o‘zbeklar hayoti bo‘zib ko‘rsatilardi, o‘zbek ayollari rolini rus aktrisalari o‘ynashi natijasida qahramonning ichki dunyosi, uning psixologik kechinmalari ochib berilmasdi (masalan, "O‘lim minorasi" (rejisyor V.Viskovskiy), "Musulmon qiz" (D.Bassaligo), "Ikkinchi xotin" (M.Doronin) va boshqa). Kino ishlashda milliy proza va dramaturgiyadan foydalanishdan bosh tortish, o‘zbek hayotini bilmaydigan rus mutaxassislarning o‘zlari yozgan ssenariylari asosida film yaratishi milliy kino uchun juda katta yo‘qotish bo‘ldi, o‘zoq yillargacha o‘z shakl-shamoyiliga ega bo‘lolmadi, uning "o‘zbek milliy kinosi" sifatida shakllanishiga o‘tib bo‘lmas to‘siq bo‘ldi[3].

Ovozsiz filmlarda berilgan mazmun tomoshabinga ko‘proq Yevropa mutaxassislari nuqtai nazarini ifodaladi, chunki milliy an’analarni bilishdan yiroq mualliflarning asarlari shu ruxda yaratilgan edi. 20-yillar yaratilgan "Soyabon arava" (O.Frelix), "Ravot qashqirlari" (K.Gertel), "Makrli changal" (V.Kozlov), "Chodira" (M.Averbax) kabi filmlar shular jumlasidan.

Ovozli kinoning yuzaga kelishi o‘zbek Kino san’atining ham badiiy qiymatini oshirdi. Birinchi o‘zbek ovozli filmi "Qasam" (1937, rejisyor A.Usolsev-Graf)da milliy aktyorlik madaniyati, o‘zbek hayoti va psixologiyasi mufassal aks etdi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan dramaturgiya namoyon bo‘ldi. Chunki barcha bosh rollarni o‘zbek aktyorlari o‘ynagan edi. Lekin baribir asar ovozsiz kino davridagi eski kino madaniyati qoldig‘utridan xoli bo‘lolmagani sababli o‘tmish va bugungi kun o‘rtasida arosatda bo‘lib qoldi. Shu sababli, o‘sha davrda yaratilgan Gruziya, Ozarbayjon filmlari kabi eng yaxshi filmlar darajasiga ko‘tarila olmadi.

O‘zbek kinosining muboshiri bo‘lgan "Nasriddin Buxoroda" (1943, rejisyor Y.Protazanov) filmi xalq mavzusining haqiqiy imkoniyatlarini ochib berdi, tasviriy vositalar qatorini qanday chiroyli va ifodali qurish mumkinligini ko‘rsatdi, yuqori darajadagi ijro uslubini o‘rgatdi. "Tohir va Zuhra" (1945, rejisyor N.G‘aniyev) filmi xalq ertaklari asosida yaratiladigan filmlar chegarasini "buzib" o‘tgan holda tarixiy filmlar yaratishga asos soldi, milliy ruhdagi ifodali o‘yin imkoniyatlarining naqadar kengligini his etishga imkon berdi[4].

Keyinroq yaratilgan "Alisher Navoiy" (1947, rejisyor K.Yormatov) filmining yaratilishiga "Tohir va Zuxra" kinosi muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, "Boy ila xizmatchi", "Qutlug‘ qon" (1953, 1957, rejisyor L.Fayziyev), "Shohi so‘zana" (1954, A.Beknazarov) kabi badiiy asarlar ekranlashtirildi.

O‘zbek kinosida yoshlarda zamon talablariga yangicha qarash shakllandi, eski qolip va taxminlardan o‘zoqlashdilar, dunyoga shoirona nazar tashlash imkoniyatlari namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga hayot faqat sevish, xursandchilik qilish, qahvaxonalarda raqsga tushish, chiroyli kiyinishdan iborat deb bilgan shaharlik yigit va qizlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan filmlar ham o‘zbek ekran san’atiga yangi bir sahifa bo‘lib kirib keldi. Bu, ayniqsa, rejisyor E.Eshmuhamedov ijodida ("Nafosat" (1966), "Sevishganlar" (1969) va boshqa) yaqqol ko‘zga tashlandi. "Maftuningman" (1958, Y.A’zamov), "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan",

"Qalbingda quyosh", "Toshkent — non shahri" (1960, 1962, 1966, 1967, rejisyor Sh.Abbosov), "Sinchalak", "Ulug‘bek yulduzi", "Natashaxonim" (1961, 1965, 1966, rejisyor L.Fayziyev), "O‘tgan kunlar" (1969, rejisyor Y.A’zamov)va boshqa filmlar shular jumlasidan.

Milliy kino ijodkorlarining tashkiliy va ijodiy ishlar, to‘plangan tajribalarni yangicha ko‘z bilan ko‘rib chiqishi, ekran san’atiga talabchanlikni oshirishi natijasi o‘laroq tarixiyinqilobiy filmlar ("Qora konsulning halokati", rejisyor K.Yormatov; "Yettinchi o‘q", A.Hamroyev va boshqalar) bilan bir qatorda zamonaviy mavzuda ham bir qancha filmlar ishlandi: "Shiddat" (rejisyor U.Nazarov), "Yoz yomg‘iri" (A.Qobulov), "Falokat oyoq ostida" (3. Sobitov), "Sevgi fojiasi" (Sh.Abbosov), "Alangali so‘qmoqlar" (Y.A’zamov), "Seni kutamiz, yigit" (R.Botirov),"Achchiq danak", "O‘zganing baxti" (Q.Kamolova), "Inson qushlar ortidan boradi" (A.Hamroyev, Dehli xalqaro kinofestivalida "Kumush tovus" mukofotini olgan, 1976), "Chinor ostidagi duel" (M.Abzalov) va boshqalar. Shuningdek, buyuk allomalar hayoti haqida so‘zlovchi "Nodirabegim" (rejisyor K.Yormatov), "Abu Rayhon Beruniy", "Olovli yo‘llar" (Sh.Abbosov) hamda "Zulmatni tark etib..." (Y.A’zamov), "Shum bola" (D.Salimov) va boshqalar.

O‘zbek kinosi izlanishlarni kengaytirishga, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqur va yorqin ifodalovchi kinolentalar yaratishga intildi. Ekran son va sifat jihatdan yana bir pog‘ona ko‘tarildi, janrlar esa shakl va mazmun jihatdan kuchaydi, ularning xilma-xilligi oshdi, qolipga tushib qolgan odatiy mazmunlardan qochish sezildi[5].

"Alibobo va qirq qaroqchi" (rejisyor L.Fayziyev, U.Mehra), "Mana o‘sha yigit qaytib keldi" (R.Botirov), "Oltin junli qo‘y terisi", "Uygonish" (L.Fayziyev), "Bo‘ysunmas" (A.Qobulov), "Qiyomat qarz" (U.Nazarov), "Dahoning yoshligi", "Karaxtlik"

(E.Eshmuhamedov), "Parol "Regina" mehmonxonasi" (Y.A’zamov), "Armon", "Suyunchi", "Kelinlar qo‘zg‘oloni", "Maysaraning ishi" (M.Abzalov), "Orzular og‘ushida" (F.Zaynutdinov) va boshqa filmlar estetik sifatini ustunligi va yangi-yangi shakllari bilan ajralib turadi.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions):

Keyingi 10 yillikda milliy Kino san’ati rivojida keskin burilish davri bo‘ldi. Qiziqarli filmlar yaratgan M.Abzalov, Z.Musoqov, Y.Sobitov kabi rejisyorlarning filmlari zamon muammolari, yoshlar hayotining eng og‘riq jabhalariga qaratildi, uslublar xilma-xilligi ta’minlandi.

"Tongga qadar" (Y.Azimov), "Ajdodlar ovozi" (F.Shermuhamedov), "Ketma" (J.Ishoqov, R.Sa’dullayev), "Sevgi qurbonlari" (A.Ismoilov) kabi filmlar e’tiborga molikdir. 1996-yil milliy kino uchun yangi muhim sana nuqtasi bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 12-iyul 247qaroriga asosan, "O‘zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasi tashkil bo‘ldi. Farmon o‘zbek kinosini yangi izlanishlar, zamon bilan hamnafas bo‘lish vazifalariga undadi, tomoshabinni jalb qila bilish yo‘llarini topishga, o‘z-o‘zini pul bilan ta’minlash, yangi texnik jihozlar bilan qurollanishga majbur etdi. Farmon natijasi o‘laroq, "Kenja qiz" (R.Kubayeva), "Atrof oppoq qor bilan qoplangan" (Q.Kamolova), "Yuldo‘zimni ber osmon" (F.Davletshin), "Buyuk sohibqiron" (I.Ergashev, B.Sodiqov), "Otamdan qolgan dalalar" (Sh.Abbosov), "Marg‘iyona" (H.Fayziyev), "O‘tgan kunlar" (M.Abzalov, H.Fayziyev), "Piyoda" (R.Malikov), "Yaratganga shukur" (Z.Musoqov), "Sevgi" (I.Ergashev), "Yolg‘iz yodgorim" (S.Nazarmuhamedov), "Tilsimoy — g‘aroyib qizaloq" (M.Boymuhamedov) kabi yangicha talqindagi filmlar yuzaga keldi[6].

Hozirgi kunda kinoning ijtimoiy nufuzi oshdi, mavzu doirasi kengaydi, mahalliy yozuvchilar asarlarining ko‘payishi ko‘zga tashlanadi. Folklor, tarixiy, zamonaviy va falsafiy mavzular qayta ishlab chiqildi. "Ayollar saltanati" (Y.Roziqov), "Chayongul" (S.Nazarmuhamedov), "Parimomo" (M.Rajabov), "Oyijon" (Z.Musoqov) va boshqa keyingi yillarning eng yaxshi filmlaridir.

Badiiy kinoni jaxonga tanitgan, o‘zbek kinosining asoschisi Nabi G’aniyev, xalq artisti Komil Yormatovlar ijodi o‘zbek kinosi tarixining yorqin sahifalari bo‘lib qoladi. Shuningdek, Y.A’zamov, Sh.Abbosov, L.Fayziyev, Z.Sobitov, R.Botirov, A.Hamroyev, A.Qobulov, Q.Kamolova, Z.Musoqov, I.Ergashev, H.Fayziyev kabi rejisyorlar va H.Fayziyev, A.Pann, M.Krasnyanskiy, A.Mukarramov, M.Penson, D.Fatxullin, A.Ismoilov, L.Travitskiy, D.Abdullayev singari

operatorlarning milliy kinoning kamol topishida va jahon kino san’ati katoridan o‘rin olishida xizmatlari beqiyosdir.

O‘.Alixo‘jayev, Sh.Ergashev, R.Sa’dullayev, M.Rajabov, T.Shokirova, R.Adashev, D.Qambarova, B.Zokirov, D.Egamberdiyeva va boshqa eng yaxshi kino aktyorlardir. O‘zbekistonda "O‘zbekfilm"dan tashqari "Vatan", "Imon", "Inson", "Yog‘du", "Dostonfilm", "Samarqandfilm", "Shod", "Yulduz" singari kinostudiyalar ishlab turibdi(2002).

O‘zbek hujjatli kinosi, asosan, 30-yillardan boshlangan. F.Nazarov, N.Gasilov, V.Timkovskiy, K.Alikayev, M.Kovnat, N.G‘aniyev, Y.A’zamov kabilar hujjatli kinoning dastlabki yillarida ko‘tarinki ruh bilan ishladilar va ma’lum muvaffaqiyatlarga erishdilar. "Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya" (rejisyor Y.A’zamov), "Ajoyib ish" (N.G‘aniyev), M.Qayumov suratga olgan "O‘zbek paxtakorlarining g‘alabasi", "O‘zbek xalqining bayrami" (Sh.Zohidov, O.Tursunov bilan hamkorlikda), "Katta Farg‘ona kanali", "Kuchli oqim" filmlari yuqori baholandi. Ayniqsa, "Toshkent to‘qimachilar kombinata" (1938) filmi Nyu-Yorkda o‘tkazilgan jahon ko‘rgazmasida Oltin medalga sazovor bo‘ldi[7].

Urush yillari "Frontdagi do‘stlarga" (rejisyor K.Yormatov), "Frontga sovg‘a" (S.Muhamedov, Y.A’zamov), "5 respublika konserti" (A.Speshnev, Z.Sobitov) kabi badiiyhujjatli filmlar ishlandi.

Urushdan keyin hujjatli kino ijodkorlari g‘ayrat va shijoat bilan oldinga yangi qadam tashlash bilan ijodini boshladi. "To‘rt darvozali shahar", "O‘zbekistonimizga keling", "Insoniyatning besh qo‘li", "Farhod chiroqlari" (hammasining rejisyori M.Qayumov), "Sovet O‘zbekistoni" (K.Yormatov) singari kinoyilnomalarning yorqin va hayotiy kinotasmalari yaratildi.

Keyinchalik yaratilgan hujjatli filmlarda O‘zbekistonda qurilayotgan zavod va fabrikalar, GESlar, qo‘riq yerlarning o‘zlashtirilishi, fan va san’at fidoyilari hayoti va ijodi, sanoat yutuqlari, yirik xalqaro musobaqalar o‘z aksini topdi: "Bahordan bahorgacha", "13 qaldirg‘och", "Zilzila" (M.Qayumov), "O‘qituvchi" (N.Ataullayeva), "O‘zbekiston gazi va kimyosi" (N.Rahimboyev), "Moviy olov kishilari" (R.Grigoryev), "Yo‘lda va ona yurtda", "Ashurov voqeasi", "Ochiq aytganda", "Izlanish davom etmoqda" (hammasining rejisyori T. Nodirov) va boshqa shular jumlasidan.

M.Qayumovning ko‘p yillik ijodi o‘zbek hujjatli kinosi tarixida alohida bir sahifa bo‘lib qoladi. U bilan yonma-yon ijod qilgan Sh.Zohirov, T.Nodirov, A.Saidov, O.Tursunov, N.Ataullayeva, P.Rasulov, M.Arabov, A.Yoqubov, N.Rahimboyevlarning ham hujjatli kino ravnaqida xizmatlari katta.

So‘nggi yillarda o‘zbek hujjatli kinosi o‘zini ancha o‘nglab oldi, mavzular doirasi kengaydi, hayot bilan hamnafas filmlar yaratildi. Katta avlod o‘rnini yangi yosh rej., operator, ssenariychi va boshqa mutaxassislar egalladi[8]. "Sharof Rashidov", "Abdulla Qodiriy", "Og‘riq" (Davron Salimov), "Islom Karimov. 21-asr bo‘sag‘asida" (Sh.Qurbonboyev), "O‘zbekiston bahori" (Sh.Qurbonboyev, E.Xachaturov), "O‘zbekiston oltini" (N.Mahmudov), "Non" (G‘.Shermuhamedov), "Jahonga yo‘l" (Sh.Maxmudov), "O‘zbekiston qurolli kuchlari", "Fitrat" (G‘.Shodmonov) va boshqa keyingi yillardagi eng yaxshi filmlardir. Zamonaviy hujjatli kino rivojida Davron Salimov, B.Muzaffarov, Sh.Mahmudov, Sh.Qurbonboyev qabilarning o‘rni alohida.

Respublikada birinchi qo‘g‘irchoq film ijodkori Y.Petrov bo‘ldi. "6x6 kvadratida" nomli birinchi filmni (Damir Salimov bilan hamkorlikda) yaratdi. Keyinchalik yaratilgan "Sehrli sandiq" (Damir Salimov), "Rahim va qo‘ng‘iz" (Q.Kamolova), "Qishki ertak" (Z.Royzman), "Shahar qurbaqalari" (A.Akbarxo‘jayev), "Sehrli samovar" (M.Maxmudov), "Olma haqida ertak" (N.To‘laxo‘jayev) kabi multfilmlarda turli mavzular yoritildi[9].

Keyingi o‘n yillikda turli janrlarda yaratilgan multiplikatsion filmlar keyingi davr rivojini ta’minladi. "Bahrom va Dilerom", "Qoziq" (rejisyor M.Mahmudov), "Yangi ko‘hna ertak" (S.Murodxo‘jayeva), "Daladagi chechaklar" (N.To‘laxo‘jayev), "Yanchar quyon" (D.Vlasov), "Yangi shoxcha va bahor yomg‘iri haqida" (S.Silka) va boshqa shular jumlasidan.

Xulosa (Conclusion):

"O‘zbekfilm"da ko‘p yillardan buyon jahonning eng yaxshi filmlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, o‘zbek tomoshabiniga yetkazuvchi dublyaj guruhi xizmat qilib kelmoqda. Bu sohaning

asoschilari va faol ishtirokchilaridan Q.Mirmuhamedov, M.G‘aniyev, S.Saidov, B.Haydarov, S.Iskandarov, J.Obidov, V.Kutyukov, A.Sharapovlarni ko‘rsatish mumkin.

Kino san’ati masalalari bilan San’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti shug‘ullanadi. Kino ijodkorlari N.G‘aniyev nomidagi kinotexnikum va Toshkent San’at intida tayyorlanadi. O‘zbekiston kino arboblari birlashmasi (1962—96-yillarda O‘zbekiston kinematografchilar uyushmasi), 1966-yildan Kinochilar uyi, 1972-yildan Kino san’ati muzeyi ishlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Mirziyoyev Sh. M “Tadqidiy tahlil qatiy – tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak” “O’zbekiston” MNIU Toshkent, 2017.
2. Akbarov H. “Kino san’ati tarixi” Toshkent. “TIU”, 2005.
3. Abduqosimova H. “Kino san’ati asoslari” Toshkent. “O’zMI”, 2009
4. Ubaydullaev A. “Oynai jahon istiqbollari”, T. “Fan”, 1993
5. Hasanov B., O‘zbek hujjatli kinosi, T., 1972;
6. Абулкасимова Х., Рождение узбекского кино, Т., 1965;
7. Тешабаев Дж., Пути и поиски, Т., 1972;
8. Тешабаев Дж., Узбекское кино: традиции, новаторство, Т., 1979;
9. Абулкасимова Х.Тешабаев Дж., Мирзамуҳамедова М., Кино Узбекистана, Т., 1985.

ОРОЛ ДЕНГИЗИ ВА УНИНГ АТРОФИДА ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТНИНГ КЕСКИНЛАШУВИ

Юнусова Хуршида Эркиновна
ЎзМУ тарих фанлари доктори, профессор..

Аннотация: Мазкур мақолада Марказий Осиёда юзага келган экологик тангликнинг энг оғири Орол денгизининг қуриб бориши, натижада унинг атрофидаги ҳудудларда оғир ижтимоий, иқтисодий вазиятнинг юзага келиши каби масалалар баён этилади.

Калит сўзлар: Орол, денгиз, табиий ресурс, фойдаланиш, экологик вазият, ҳудуд, ижтимоий-иқтисодий, сув сатҳи, заҳира.

Abstract: This article examines problems such as the drying up of the Aral Sea, the severe environmental crisis in Central Asia, and the emergence of a difficult socio-economic situation in the adjacent territories.

Key words: island, sea, natural resource, use, ecological situation, territory, socioeconomic level, water level, reserve.

Совет давлати ҳукмронлиги йилларида Ўзбекистон ССР Иттифоқдош республикалар орасида экологик вазият оғир бўлган республикалар қаторига кирган. Табиий хомашё ресурсларидан ўйламай фойдаланиш, пахта якка ҳокимлигининг изчиллик билан давом эттирилиши табиий мувозанатни издан чиқарганди[1]. Совет давлатида иқтисодиётни экстенсив ривожланиш омилларига эътибор катта бўлган бу жамиятда “мамлакат ихтиёридаги беқиёс бойликларга авайлаб муносабатда бўлиш ғояси бутунлай ёт эди”[2]. Шу сабабли Ўзбекистонда экологик вазиятнинг оғирлашиши сабабларига анча чуқурроқ ёндошиш тақозо этилади.

Ўрта Осиёда юзага келган экологик тангликнинг энг оғири Орол денги-зи қуриб бориши, унинг атрофидаги ҳудудларда оғир ижтимоий, иқтисодий вазият юзага келиши эди. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, Орол денгизи ҳавзасида Марказий Осиёнинг 5 та республикаси жойлашган бўлиб, ҳудуди 1550 минг км^{2}ни ташкил этгани ҳолда, суғориладиган майдонлар 7,95 млн гектарга тенг. Минтақада тикланадиган сув ресурслари ҳажми йилига

ўртача 118-120 км^{3}ни ташкил этади. Уларнинг асосий таркиби Амударё, Сирдарё сувлари ҳамда ер ости сувлари захиралари (14,7 км^3)дан иборат. Сув омборлари ҳажми – 60 км^{3}га тенгбўлган[3]. Денгиз ҳавзасида Орол денгизига қуйиладиган умумий сув ресурсларининг 55,4 фоизи – Тожикистон ҳудудида, 25,3 фоизи – Қирғизистонда, 7,6 фоизи – Ўзбекистонда, 3,9 фоизи – Қозоғистонда, 2,4 фоизи – Туркманистонда, қолган 5,4 фоизи – Афғонистон ҳамда қисман Хитой ва Покистон давлатларида шаклланган[4].

Амударёнинг узунлиги 2540 км га тенг бўлиб, ҳавзасининг ҳудуди 309 минг км^2 ни ташкил қилган. Ҳавза бўйича дарё оқими ўртача кўп йиллик сув ресурслари йилига 78 км^{3}дан ортиқни ташкил қилиб, шундан 62,9 км^3 (80%дан ортиғи) Тожикистонда шаклланган, Ўзбекистон улушига 4,7 км^3 эса (6%) тўғри келган[5]. Панж ва Вахш дарёлари қўшилишидан бошлаб Амударё деб аталиб, унинг ўрта оқимида ўнг тарафдан Кофирнигон, Сурхондарё ва Шеробод ҳамда чап тарафдан Қундуз сувлари қўшилади. Дарё Тожикистон ва қисман Афғонистон шимолида шаклланган, Афғонистон ва Ўзбекистон чегарасидан оқиб ўтиб, Туркманистон ҳудудига киради ва яна Ўзбекистон ҳудудига қайтади. Дарёга кейинги 1257 км масофада бошқа оқимлар келиб қўшилмаган[6].

Сирдарёнинг узунлиги 3019 км га тенг бўлиб, ҳавзасининг ҳудуди 219 минг км^2 ни ташкил қилган. Ҳавза бўйича дарё оқими ўртача кўп йиллик ресурслари йилига тахминан 37,21 км^3 ни ташкил қилган[7]. Бу сувнинг 74 фоиздан кўпроғи Қирғизистонда, 14 фоизи Ўзбекистонда, 9 фоизга яқини Қозоғистонда, 3 фоизга яқини Тожикистонда шаклланган[8]. Дарё Норин ва Қорадарё қўшилишидан шаклланиб, Қирғизистон, Ўзбекистон, Тожикистон ҳудудларидан ўтиб, Қозоғистон ҳудуди орқали Орол денгизига қуйилган. Дарёнинг ўрта оқимида Оҳангарон, Чирчиқ ва Келес дарёлари келиб қўшилиб, дарёга тушадиган охирги оқим Арис сувлари ҳисобланган[9].

Совет давлати ҳукмронлиги йилларида Ўзбекистонда қўриқ ерларни ўзлаштириш, уларни суғориш, қишлоқ хўжалигининг етакчи тармоғи бўлиб, ирригация ва мелиорация ишлари билан ҳам боғлиқ бўлган пахтачиликда ҳосилдорликни ошириш йўлидаги ҳаракатлар ўз навбатида Орол денгизининг қуриб боришига ҳам таъсир этди. Орол денгизи ер куррасининг чўл минтақасида жойлашган энг йирик, суви шўр ва оқмайдиган кўллардан ҳисобланиб, катталиги жиҳатидан дунёда тўртинчи, совет давлати ҳудудларида Каспий денгизидан кейин иккинчи ўринда турган денгиз бўлган. Шунингдек, Орол денгизи сувни асосан Амударё, Сирдарёдан олган. Оролнинг суви пасаймаган вақтларда денгиз сатҳига ҳар йили 7 миллиард тонна шартли ёқилғи қувватига тенг қуёш нури тушган. Бу эса мамлакатда қазиб олинадиган жами ёқилғилар қувватига баробар эди. Қуёш нурининг тахминан 40 фоизини денгиз суви ютиб, катта радиусда қишлоқ хўжалиги учун қулай илиқ иқлимни юзага келтирган. 1960 йилларда Оролнинг чуқурлиги 53 метр бўлиб, унинг умумий майдони 66,1 кв. км. ни ташкил этган. 1987 йилга келиб, унинг акваторияси 20.000 кв.км.га камайиб кетди. Сувнинг умумий ҳажми икки марта, қирғоқ 30 км дан 80 км гача қисқариб, бу майдоннинг учдан икки қисми шўр, тузли, қум ва шўр ерларга айланган. Денгиз атрофларида атмосфера ифлосланиши меъёридан 5 марта ошган.

Бу денгизнинг қуриб бориши бутун жаҳонни ташвишга солиб турган вақтда, қуриган Оролнинг тубида яхши экинзорлар яратамиз деган ғайри илмий тасаввурларга берилиб, янги ерларни ўзлаштириш, ирригация шаҳобчаларини қуриш масаласи ҳам илгари мурилгналигини таъкидлаб ўтиш лозим. Орол денгизи бутун Марказий Осиё минтақаси иқлимини мўътадиллаштириб, шимолдан келадиган совуқ оқимлардан сақлаб турувчи тўсиқ бўлган. Лекин, совет олимлари Орол қуриса ҳеч қандай зарарли оқибатларга олиб келмаслиги ҳақидаги фикрларни мунтазам таъкидлаб турганлар. География фанлари доктори, профессор С.Ю. Геллер “Биз Орол денгизининг қуриган ерларидан шамол учириб келадиган тузлар Ўрта Осиё ва Қозоғистондаги суғориладиган экин майдонларига зарар келтиради, деб айтишга асосимиз йўқ”[10], деб, ҳатто, Орол денгизининг суви қуриб қолган ерларида деҳқончиликни ривожлантириш мумкин деган фикрларни илгари сурган. Бундай фикрларни Туркманистон

ФА Саҳрочилик институти директори, академик А.Г. Бобоев ҳам олдинга сурган. “Мен, - деган эди у, – Оролни сақлаб қолишдан кўра, уни қуритиш фойдалироқ деган, олимлар қаторига кираман. Биринчидан, Орол қуригач, унинг ерларида жуда катта серҳосил ерлар юзага келади. Тахминий ҳисоб – китобларга қараганда, бу ерлардан ҳар йили ўрта ҳисобда 1,5 млн. тонна пахта олиш мумкин. Бу Оролда балиқчилик ва бошқа соҳаларни ривожлантиришдан келадиган даромаддан кўра кўпроқдир. Иккинчидан, кўплаб олимлар, жумладан, мен ҳам, Оролнинг қуриши атрофидаги иқлим шароитларига таъсир этмайди деб ҳисоблайман”[11].

Орол денгизининг қуришини ўзига бир қатор сабаблари бор. Ўзбекистон совет Иттифоқига пахта етказиб берувчи аграр давлатга айланганлиги боис, пахтачиликни ривожлантириш учун мунтазам қўриқ ерлар ўзлаштириб борилди. 1988 йилга келиб Ўзбекистоннинг суғориладиган пахта майдонлари ва экин ерлари 4 миллион 100 минг гектарга етди[12]. Пахта экиш учун кўплаб майдонларнинг ўзлаштириб очилиши билан сув экин майдонларига сингиб борди. Аста-секин ҳудудларда эклологик вазият бузилиб, аҳоли саломатлиги ачинарли ҳолатга туша бошлади[13]. Пахтачи-ликни ривожлантириш мақсадида сув омборлари ҳам нотўғри жойларга қурилди. Ўрта Осиё ҳудудида 50 дан зиёд сув омборлари бўлиб, сув омбор-ларидан пахтачилик учунг сувнинг ҳудуднинг турли минтақаларига тарқати-лиши Орол денгизи учун аҳамияти катта бўлган Сирдарё ва Амударё сувларини Орол денгизига етиб боришига тўсиқ бўлди. Ўзбекистонда энг йирик сув омборлари Сирдарё оқимидаги Андижон вилояти ҳудудларига жойлаштирилди.

Хоразм вилоятида шўрланмаган ерлар 1970 йилда умумий ўзлаштирилган ерларнинг 86 фоизни ташкил этган, 1989 йилга келиб бу майдонлар 68 фоизни ташкил этди, Қорақалпоғистон АССРда эса шўр босган ерлар умумий экин майдонларининг 54 фоизини ташкил этди[15]. Ҳар гектар ерни суғориш учун сарфланган сув ўртача 36.000 куб. Метрни ташкил этиб, бу илмий асосланган суғорув нормативдан 4 март кўп бўлган, шўр ювилган сувлар эса қумликларга оқизилган. Натижада қумликларга, чўлларга оқизиб юборилган сувлардан ҳосил бўлган Арнасой, Айдаркўл каби кўллар ҳам Оролга ҳар йили оқиб бориши лозим бўлган 5-8 куб. км сувни ушлаб қолган.

Орол денгизига сув етиб бормаслигининг яна бир сабаби 1959-1967 йилларда қурилган Туркманистондаги Қорақум канали ўзанида ҳам қурилган катта учта сув омборлари Амударёдан секундига 300 метр^3 сув олган. Натижада, Орол денгизи йилдан - йилга пасайиб, денгизнинг қуриб бориши олдини олиб бўлмайдиган жараёнга айланиб, минтақаси аҳолисининг турмуш тарзига, ривожланишига ҳам салбий таъсир эта бошлади. Қозоғистоннинг Қизилўрда, Туркманистоннинг Тошҳовуз, Ўзбекистоннинг Қорақалпоғистон Республикаси, Хоразм, Навоий, Бухоро вилоятларидаги деҳқончилик ва чорвачиликка жиддий таъсир эта бошлади[15]. Денгиз сатҳида очилиб қолган тузли барханлар, Туркманистоннинг мевазор боғларига таъсир этди ва улардаги дарахтларнинг қуриши, нобуд бўлишига олиб келди.

Аввало денгизга Сирдарё ва Амударёдан оқиб келиб қуйилган сувлар Орол денгизидаги табиий, биологик ҳолатини бузиб юборганлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Пахта экин майдонларидан оқиб келган зах ва саноат корхоналарининг чиқинди сувлари ариқ ва ирмоқлар орқали Сирдарёга келиб қўшилиши дарё сувнинг ифлосланишини ортириб юборган. Ҳар иккала дарё суви таркибида заҳарли кимёвий моддаларнинг ортиб бориши унинг атрофидаги ўсимлик, ҳайвонлар ва аҳолининг касалланишига сабаб бўлди. Масалан, Сирдарё ва Амударё атрофлари Марказий Осиё минтақасидаги асосий индустриал - аграр ҳудуддардан бири ҳисобланиб, Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги учун Сирдарё сувидан 100 фоиз, Амударё сувидан 80 фоиз миқдорида фойдаланган[16]. Айниқса Сирдарё атрофларида турли корхоналар, 47,9 миллион гектар ер мавжуд бўлиб, бу ерларнинг 1,5 млн. гектари Наманган, Фарғона, Андижон, Сирдарё, Тошкент ва Жиззах вилоятларига тўғри келган. Бу ердаги корхоналардан ва экин экиладиган майдонлардан чиққан 400 миллион куб.м. ифлос сувлар Сирдарёга қуйилган. Республиканинг саноат марказлари Тошкент, Бекобод, Янгийўл,

Оҳангарон, Олмалиқ, Чирчиқ каби шаҳарларида тўпланган ифлос сувлар ҳам асосан шу дарёга қуйилган. Умумий тарзда Сирдарё сувлари нефть маҳсулотларидан 30 - 60 марта, фенолам билан 6 марта, цинк билан 13 марта, ртут билан 1,2 марта кўп зарарланди. Амударё ва Сирдарёнинг чиқинди сувлардан ифлосланиб, Оролга бориб қуйилиши билан денгизнинг ифлосланиши 4 бараварга ортиб кетган[17]. Амударё, Сирдарё сувларининг ифлосланиши, Орол денгизининг ифлосланиб қуриб бориши Қорақалпоғистон АССР, Хоразм виялоти Қизил Ўрда, Тошовуз туманларида иқлим шароитларини кескин ўзгартириб, экологик - гигиена ва санитария - эпидемиологик аҳволни оғирлаштирди.

Орол денгизининг қуриши натижасида, денгизнинг қуриган тубидан иборат 5.5 миллион гектар майдонда “Оролқум” деб номланувчи янги қум-тузли чўли пайдо бўлган[18]. Майдонда жойлашган қумли тузнинг ҳар йили 75 миллион тоннадан кўп чанг ва тузлар атмосферага кўтарилди. Атмосфератуз ва қум зарраларидан ифлосланиб, қўшни давлатларга ҳам ўтди. Орол бўйи аҳолиси ичимлик сувлари тузлардан ифлосланиб, аҳоли орасида онкологик, гинекологик, ойқозон-ичак ва жигар касалликлари кўпайиб, фақат Қорақалпоғистон АССРда ошқозон - ичак касалликлари иттифоқ даражасидан қарийиб 30 мартта юқори бўлди. Агар 1950 йилларда Орол денгизидан йилига ўртача 25-27 мингтонна қимматли балиқ турлари овланган бўлса, 1979 йилга келиб Орол денгизида аҳолини доимий тирикчилик манбаи бўлиб келган кемачилик фаолияти тўхтаб қолди.

Оролбўйи ҳудудида истиқомат қилиб келган аҳолиси орасида ўт ҳалтада тош пайдо бўлиши, сурункали гастрит, буйрак касалликлари ва кизилўнгач раки каби касалликлар кўпая бошлади. Аёллар ва болалар орасида айниқса, ўпка, камқонлик ва кальций етишмаслиги касалликлари кескин ортиб борди. Энг ачинарлиси, болалар орасида ногирон туғилишлар ва ўлимлар сони кескин ошди. Маҳаллий аҳоли уй шароитида боғдорчилик ва полиз экинларини эка олмай қолди[19]. Уй ҳайвонларни боқишда емҳашакларнинг етишмаслиги каби муаммолар кўпайиб борди.

Умуман, совет давлатидаги “социалистик хўжасизлик” мустабид ту-зумнинг сўнгги ўн йиллигида жиддий қийинчиликларни келтириб чиқарди. Бу зиддиятлар мавжуд тузум учун тасодифий бўлмасдан, узоқ вақт мобай-нида тўпланиб қолган сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий бўхронларнинг юзага чиқиши оқибати эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида... – Б. 563.
2. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. – Ташкент: Ўзбекистон, 1998. Т. 6.– Б. 106.
3. Мирзиёев Ш. Бирлашган Миллиатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72сессиясидаги нутқини ўрганиш бўйича. Илмий-оммабоп рисола. –Тошкент: Маънавият, 2017. –Б. 100.
4. Рахимов Ш.Х., Хамраев Ш.Р. Водные ресурсы в бассейне Арала // Экология и статистика. Сб. статей. (wwww.ireco.ru).
5. Водные ресурсы бассейна Аральского моря. 06.06.2009. http://ecifas.org/index.php/ru/2010-05-17
6. ДЭҚЖА. Ўзбекистон Республикасида атроф-муҳит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисида Миллий маъруза-2008... - Б. 39.
7. Водные ресурсы бассейна Аральского моря (http://ec-ifas.org/index.php/ru/2010-05-17).
8. Конвенция о биологическом разнообразии. Третий национальный доклад. Узбекистан. Ташкент, 2006. -С. 7.

9. Ибатуллин С.Р., Ясинский В.А., Мироненков А.П. Влияние изменения климата на водные ресурсы в Центральной Азии. Отраслевой обзор. Евразийский Банк развития, 2009. – С.9.

10. Водные ресурсы бассейна Аральского моря (http://ec-ifas.org/index.php/ru/2010-05-17).

11. Судьба Арала. – Ташкент: Мехнат, 1988. – С.161.

12. Султонов С.П, Ахмедов Б.П. Экология ва атроф–муҳитни муҳофаза қилиш асослари. -Тошкент:ЎАЖБНТ, 2004. –Б. 117.

13. Бахромов С. Здоровоохранения Узбекистана: проблемы и перспективы // Коммунист Узбекистана. 1988 год № 7 июль. –С. 28.

14. Эргашев А ва бошқалар. Сувнинг инсон ҳаётидаги ўрни. –Тошкент: Фан,2009 –Б. 114

15. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. 16-китоб. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008. –Б. 283.

16. Эгамбердиев Р., Раззоқов А. Ўзбекистонда қўриқ ерларни суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи. (Мирзачўл мисолида). – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 267.

17. Муҳамедов А. В поисках орасительной воды // Коммунист Узбекистана. 1990 год №1 январь. –С. 53.

18. Гайдарова Р. Линия судьбы // Правда Востока. 1989 год 14 май.

19. Bregel , “Central Asia-In the Islamic Period up to the Mongols”, in E. Yarshater (ed), EncyclopaediaIranica, vol. 5, (Costa Mesa CA: Mazda Publishers, 1992): 199-205; Zaharchenk, B. T., Voda v turmenskoizhizni, (Ashgabat, 1990); Gleason, G., The struggle for control over water in central Asia: republican sovereignty and collective action, RFE/RL Report on the USSR, (June 21, 1991); Micklin, P. P. & W. D. Williams, The Aral Sea Basin, NATO ASI Series 2: Environment, 11, Springer Verlag (1996).

O’ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI TARIXI VA SOHADA KADRLAR MASALASI

Rustamova Zamira Boboqulova,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti tadqiqodchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekistonda ichki ishlar organlari tarixi va sohada kadrlar masalasi haqida so‘z boradi. Muallif tarixiy ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida O’zbekistonda ichki ishlar organlari tarixi va sohada kadrlar masalasi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar organlari, xavfsizlik, qonuniy-me’yoriy hujjatlar.

Annotation. This article talks about the history of internal affairs bodies in Uzbekistan and the issue of personnel in the field. Based on historical data, the author studied and analyzed specific aspects of the history of internal affairs bodies in Uzbekistan and the issue of personnel in the field based on available scientific literature.

Key words: Internal affairs bodies, security, legal and regulatory documents.

Kirish qism (Introduction):

Tarixga nazar tashlasak, turli davrlardagi siyosiy sharoit taqozosiga ko'ra, bu tuzilmalarning nomi, vazifalari va ish uslublari o'zgarib borganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, XIX asr oxirida Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangan Turkistonda joriy etilgan politsiya-mirshablik tizimi asosan mustamlakachi imperiya manfaatlariga xizmat qilib, aholining tinchligini ta'minlash, jamoat

xavfsizligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan birga, mahalliy aholining harakatini nazorat qilish, xalq ozodlik harakatlari vujudga kelishining oldini olish va unga qarshi kurashishda harbiy bo'linmalarga ko'maklashish vazifalarini bajarish faoliyati bilan shug'ullangan.

Asosiy qism (Main part):

Xuddi shunday sobiq Sovet Ittifoqi davrida ham ichki ishlar organlari (dastlab “ishchidehqon militsiyasi” deb yuritilgan)ning faoliyati jamoat xavfsizligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bir qatorda, hududda sovet tuzumini o'rnatish va uning g'oyalarini yanada mustahkamlashga qartilgan. Markazdan kelgan bu boradagi topshiriqlarni o'z vaqtida va bekamu-ko'st bajarishga intilgan.

Xususan, istiqlol sharofati bilan ichki ishlar organlari xalqimizning himoyachisi va ko'makchisiga, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ushbu tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodimi tomonidan «Xalq manfaatlariga xizmat qilish»ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga imkon bermoqda.Ichki ishlar vazirligi akademiyasi mamlakatimiz huquqni muhofaza qiluvchi organlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlab berayotgan zamonaviy bilim maskanlaridan biri sanaladi.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonlari yangicha talablar asosida yo‘lga qo‘yilganiga qaramay, jahonda yuzaga kelayotgan xatarlar, kiberjinoyatchilik, terrorizm, odam savdosi kabi tahdidlar soha uchun kadrlar tayyorlash samaradorligini yanada oshirishni davr talabiga aylantirgan edi.

Davlatimiz rahbarining yaqinda imzolangan “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ayni maqsad yo‘lidagi faoliyatimizni tubdan takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, mazkur qaror asosida amaliyotga mutlaqo yangi tizim tatbiq etilmoqda.

Jumladan, 2021-2022 o‘quv yili-dan boshlab Ichki ishlar vazirligi akademiyasida jahon standartlariga to‘la javob beradigan bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi joriy etiladi.

Endilikda akademiyadagi ta’lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratilib, kunduzgi ta’lim shakliga qabul qilingan kursantlarda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlar, jangovar hamda jismoniy chiniqish ko‘nikmalari shakllantirib boriladi.

Kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarini qamrab oluvchi bakalavriat dasturi asosida ta’lim jarayoni tashkil etilib, huquqshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.

Muhim jihatlaridan biri shundaki, akademiyada magistratura dasturi bo‘yicha o‘qitish ichki ishlar organlarining rahbar kadrlarini tayyorlashga yo‘naltiriladi.

Ya’ni bunda kadrlarni o‘qitish ikkinchi darajadagi “tashkiliy-taktik boshqaruv” va birinchi darajadagi “tashkiliy-strategik boshqaruv” yo‘nalishlarida amalga oshiriladi.

Magistraturaga qabul jarayoni ichki ishlar organlari xodimlari orasidan nomzodlarni ochiq va adolatli tanlab olish orqali tashkil etilib, unda o‘qish muddati bir yil etib belgilandi.

Qarorda nazarda tutilgan yana bir yangilik — bu Ichki ishlar va-zirligi akademiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Nukus filiali faoliyati yo‘lga qo‘yilgani.

Filialda o‘qish uchun nomzodlar dastlabki bosqichda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan, keyinchalik respublikamizning boshqa hududlaridan o‘qish istagini bildirgan yoshlar hisobidan amalga oshirilishi belgilandi.

Bu ham ta’lim sifati va samaradorligini oshirish barobarida, hududlarning o‘ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda yetuk malakali kadrlar tayyorlash, o‘quv jarayoni bilan bog‘liq xarajatlarni iqtisod qilish imkonini beradi.

Bu jarayonda kursant va tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, ularni kasbga yo‘naltirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Dars mashg‘ulotlariga ichki ishlar vaziri o‘rinbosarlari, sohaviy xizmatlar rahbarlari keng jalb qilinib, ular tomonidan mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions):

Hududiy ichki ishlar organlarida sayyor mashg‘ulotlar tashkil qilinib, amaliyotdagi real vaziyat ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtiriladi.

Bundan tashqari, birinchi darajadagi magistraturada ta’lim oluvchilar Ichki ishlar vazirligi departament boshliqpari, hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining bevosita murabbiyligida amaliyot o‘tab, xorijiy huquq-tartibot idoralari ta’lim muassasalarining boshqaruv malakasini oshirishga qaratilgan kurslarida tahsil oladi.

Soha uchun kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida “uzluksiz o‘quv-karyera” jarayoni yo‘lga qo‘yilmoqda.

Yangi tartibga ko‘ra, endilikda xodimlar ichki ishlar organlari rahbarlar tarkibining tegishli lavozimlariga tayinlanish uchun akademiya magistraturasida o‘qishi shartligi belgilab qo‘yilmoqda.

Shu bilan birga, akademiyaning tinglovchi-kursantlari hamda professor-o‘qituvchilari xorijiy huquq-tartibot idoralarining yetakchi ta’lim muassasalarida tahsil olib, muntazam ravishda malaka oshirib boradi.

Prezidentimiz qarori bilan akademiyada ta’lim olayotgan kursantlarda vatanparvarlik tuyg‘usini yanada yuksaltirishning samarali tizimi joriy etilmoqda.

Bu borada yoshlarning o‘qishdagi, ma’naviy-ma’rifiy va sport sohalaridagi intilishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Ichki ishlar vazirligining Jaloliddin Manguberdi nomidagi idoraviy stipendiyasi ta’sis etiladi.

Ta’kidlash joizki, hozirda ta’lim muassasasining o‘quv jarayoniga ilg‘or yondashuvlar, innovatsion texnologiya va metodlar keng tatbiq etilmoqda.

Mutaxassislik kafedralari qoshida professor-o‘qituvchilar va kursantlardan iborat tezkortergov guruhlari tashkil etilib, Toshkent shahrida sodir etilgan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha bevosita hodisa ro‘y bergan joyning o‘zida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘lga qo‘yiladi.

Kafedralar qoshidagi ilmiy to‘garaklar faoliyati takomillashtirilib, kursantlarning malakaviy diplom ishlari va ilmiy tadqiqotlari hududlarning kriminogen xususiyatidan kelib chiqqan holda sohadagi muammolar tahlili hamda, ularning yechimlariga yo‘naltiriladi.

Xorij tajribasini o‘rganish yo‘nalishi bo‘yicha istiqbolli rejada Fransiya, Germaniya, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Isroil va boshqa davlatlar turdosh oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumlarini imzolash, professoro‘qituvchilar hamda tinglovchi-kursantlar uchun malaka oshirish kurslari, mahorat darslarini tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi.

Albatta, davlatimiz rahbarining mazkur qarorida belgilab berilgan vazifalarning ijrosi ichki ishlar organlari uchun intellektual salohiyati va professional bilim darajasi yuqori, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlash, Vatan takdiriga daxldor fidoyi yoshlarni kamol toptirishda muhim poydevor bo‘ladi.

Xulosa (Conclusion):

Xulosa qilib aytganda, O’zbekistondagi ichki ishlar organlarining faoliyati to’liq o’rganilmagan. Xususan, sovet davrida yaratilgan asarlarda muammoga kommunistik mafkuraning g’oyaviy ta’siri ostida yondashuv bo'lganligi uchun bu masalalar o'zining xolis talqinini topmagan. O'zbekistonda mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda ham ichki ishlar organlarining tarixi yetarli darajada o`rganilmagan, tadqiqotlar davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T., 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturi. - T., 1997.

3. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2011 yil 4 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb madaniyati haqida qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida»gi 96sonli buyrug‘i.

4. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni. / –T.: – “Adolat” 2017.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: – “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 488 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j. – T.: – “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

7. Islom Karimov. Milliy armiyamiz - mustaqilligimizning tinch va osoyishta qayotimizning mustahkam kafolatidir. T., 2003 yil.

8. Islom Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O‘zbekiston”. 2015.

9. Yermetov A. Turkistonda nazorat organlari faoliyati (Ishchi-dehqon militsiyasi va Ishchi-dehqon inspeksiyasi 1917 – 1924 yillarda). – Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2007.

10. Ишанходжаева З. Р. Репрессивная политика Советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.). – Тошкент: Тафаккур, 2011.

CHET EL INVESTITSIYALARINI JALB QILISHNING AFZALLIKLARINING NAZARIY ASOSLARI(JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)

Boltayeva Mohichexra Jamshid qizi
Milliy universitetning jizzax filiali dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.. Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ko'p qirrali afzalliklari o'rganildi, mamlakatlar xorijiy kapital va tajribani mamnuniyat bilan qabul qilganda paydo bo'ladigan iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy imtiyozlarga oydinlik kiritildi. Unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga, texnologiyalar transferiga va global raqobatbardoshlikni oshirishga qanday hissa qo‘shishining turli usullarini o‘rganadi. Bundan tashqari, investitsiya bilan bog'liq xavflarni yumshatishda ushbu afzalliklardan samarali foydalanish uchun potentsial qiyinchiliklar va strategiyalari muhokama qilindi.

Kalit so‘zlar; investitsiya, xorijiy tajriba, barqarorlik, globallashuv

Abstract. Foreign direct investment (FDI) has become a vital component of economic development for both developed and developing nations. This article explores the multifaceted advantages of attracting foreign investment, shedding light on the economic, technological, and social benefits that arise when countries welcome foreign capital and expertise. It examines the various ways in which FDI contributes to economic growth, job creation, technology transfer, and increased global competitiveness. Additionally, it discusses potential challenges and strategies for effectively harnessing these advantages while mitigating associated risks.

Keywords; investment, foreign experience, stability, globalization

Kirish. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bugungi globallashgan dunyoda iqtisodiy rivojlanishning muhim omilidir. Butun dunyo mamlakatlari o‘z iqtisodlarini mustahkamlash uchun xorijiy kapital va tajribani jalb qilish uchun faol kurash olib bormoqda. Ushbu maqola xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning ko'p qirrali afzalliklarini o'rganadi, mamlakatlar xalqaro investorlar

uchun eshiklarini ochganda yuzaga keladigan iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy imtiyozlarga oydinlik kiritadi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'plab davlatlar uchun strategik ustuvor vazifaga aylandi va uning afzalliklarini tushunish siyosatchilar, tadbirkorlar va keng jamoatchilik uchun juda muhimdir. Ushbu tadqiqot to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlari yaratishga, texnologiyalar transferiga va global raqobatbardoshlikni oshirishga qanday hissa qo'shishini, natijada qabul qiluvchi mamlakatlarda farovonlik va taraqqiyotga yordam berishini ko'rsatadi.

Xorijiy sarmoyalarni, xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mavzusi iqtisodchilar, siyosatshunoslar va turli soha tadqiqotchilari tomonidan keng o‘rganilgan. Mutaxassislarning fikricha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarga ko'p foyda keltirishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlardan ba'zi asosiy topilmalar va nuqtai nazarlarga to‘xtalib o‘tsak:

Iqtisodiy o'sish: Ko'pgina tadqiqotlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi kuchli ijobiy bog'liqlikni tasdiqladi. Yevropa olimlari Mihir A. Desai, C. Fritz Foley va Jr. Jeyms R. Xayns kabi iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi qabul qiluvchi mamlakatning yalpi ichki mahsuloti o'sishiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Bu o'sish ko'pincha xorijiy kapital, texnologiya va boshqaruv tajribasining kirib kelishi bilan bog'liq.

Ish o'rinlarini yaratish: Iqtisodchilar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarda ish o'rinlari yaratilishiga olib kelishi mumkinligini aniqladilar. AQSH olimlari Teodor X. Moran va Lindsi Oldenski tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy sarmoyadorlar ko'pincha mahalliy ishchilarni ish bilan ta'minlaydi, bu esa ishsizlik darajasini pasaytiradi va inson kapitali rivojlanishini kuchaytiradi.

Texnologiyalar transferi: Olimlar texnologiya transferini osonlashtirishda to'g'ridanto'g'ri investitsiyalar muhimligini ta'kidlaydilar. Xorijiy sarmoyadorlar ko'pincha ilg'or texnologiyalar va boshqaruv tizimini olib kelishadi, bu esa mahalliy sanoatga foyda keltirishi mumkin. Hind iqtisodchilari Ajit Singx va Bryus Vaysse tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologiyaning tarqalishi mezbon mamlakatlarda sezilarli texnologik yangilanishlarga olib kelishi mumkin.

Global raqobatbardoshlik: Jon Dunning kabi tadqiqotchilar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishi mumkinligini ta'kidladilar. Global bozorlarga kirish va bilimlarning tarqalishi ta'siri orqali mahalliy firmalar xalqaro miqyosda raqobatbardoshlik darajasini oshira oladi.

Qiyinchiliklar va xavflar: To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qiyinchiliklar va potentsial xavflardan xoli emasligi keng e'tirof etilgan. Tadqiqotchilar milliy suverenitet, atrof-muhit ta'siri, daromadlar tengsizligi va siyosiy barqarorlik bilan bog'liq xavotirlarni ta'kidladilar. Masalan, Karl P. Sauvant va Liza E. Saksning ishi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va uning barqaror rivojlanishga ta'siri bilan bog'liq murakkab masalalarni ko'rib chiqadi.

Siyosat oqibatlari: Tadqiqotchilar, shuningdek, davlat siyosati va qoidalarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardan maksimal foyda olish va uning mumkin bo'lgan salbiy tomonlarini yumshatishdagi rolini o'rgandilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferentsiyasi (UNCTAD) kabi tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni samarali jalb qilish va boshqarish bo'yicha siyosat tavsiyalari haqida tushuncha beradi.

Iqtisodiy afzalliklar

Xorijiy investitsiyalarni, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy afzalliklari sezilarli va ko'p qirrali. Ushbu afzalliklarni har tomonlama o'rganib chiqib va bir nechta asosiy fikrlarni ta'kidlash mumkin:

Iqtisodiy o'sish: to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ko'pincha qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning yuqori darajasi bilan bog'liq. Xorijiy sarmoyadorlar mahalliy korxonalarga

kapital kiritadilar, bu esa ishlab chiqarish quvvatlarining oshishiga, bozorlarning kengayishiga va iqtisodiy mahsulotning ko'payishiga olib keladi.

Eksportning ko'payishi: Xorijiy investorlar ko'pincha mahalliy ishlab chiqarishni global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashadi, bu esa qabul qiluvchi mamlakatlardan eksportning oshishiga olib keladi. Bu savdo balansini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga yordam beradi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mahalliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishi, ularni eksportga yo'naltirilganligini oshirishi mumkin.

Infratuzilmani rivojlantirish: Ko'pgina xorijiy investorlar yo'llar, portlar va energetika ob'ektlarini qurish kabi infratuzilmani rivojlantirish loyihalarida ishtirok etadilar. Ushbu investitsiyalar nafaqat qabul qiluvchi mamlakat infratuzilmasini yaxshilaydi, balki boshqa potentsial investorlar uchun uning jozibadorligini oshiradi.

Soliq daromadlari: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlar tomonidan to'lanadigan soliqlar va royaltilar orqali davlat daromadlariga hissa qo'shishi mumkin. Ushbu qo'shimcha daromad davlat xizmatlari va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilishi va qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga yanada foyda keltirishi mumkin.

Kapital va moliyaga kirish: to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar xorijiy kapital bozorlariga va moliyalashtirish manbalariga kirishni osonlashtirishi mumkin. Bu, ayniqsa, o'z korxonalarini kengaytirish va sarmoya kiritmoqchi bo'lgan mezbon mamlakatlardagi biznes va tadbirkorlar uchun muhim bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish: Turli sohalarda turli xil xorijiy investorlarni jalb qilish orqali mezbon davlatlar o'z iqtisodiyotlarini diversifikatsiya qilishlari mumkin. Ushbu diversifikatsiya iqtisodiyotni tashqi ta'sirlarga nisbatan chidamliroq va yagona sanoatga kamroq bog'liq bo'lishi mumkin.

Kengaytirilgan Iqtisodiy Barqarorlik: Xorijiy investorlarning mavjudligi iqtisodiy barqarorlikni oshirishga yordam beradi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hatto ichki iqtisodiy noaniqlik davrida ham barqaror investitsiyalar manbai bo'lishi mumkin, bu esa iqtisodiyotni zarbalardan himoya qilishga yordam beradi.

Xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning iqtisodiy va texnologik afzalliklari tez-tez ta'kidlangan bo'lsa-da, xorijiy investorlarni qabul qiluvchi mamlakatga qabul qilish natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan sezilarli ijtimoiy va madaniy imtiyozlar ham mavjud. Bu afzalliklar iqtisodiy o'sish va texnologik transferdan tashqariga chiqib, yanada xilma-xil, inklyuziv va madaniy jihatdan boyitilgan jamiyatga hissa qo'shadi.

Xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mezbon mamlakatlarning global raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Global raqobatbardoshlik deganda mamlakatning jahon bozorida samarali raqobatlasha olishi va investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati tushuniladi va bu raqobatbardoshlikka katta hissa qo‘shadi.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq sezilarli iqtisodiy vaziyatlarni boshdan kechirgan mamlakatlarga misollar keltiradigan bo‘lsak, ular duch kelgan afzalliklari va qiyinchiliklarini ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Xitoy (qulay vaziyat): Xitoy o'z iqtisodiyotini o'zgartirish uchun xorijiy sarmoyani jalb qilgan mamlakatning yorqin namunasidir. So'nggi bir necha o'n yilliklar ichida Xitoy sezilarli darajada to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qildi va dunyodagi eng yirik oluvchilardan biriga aylandi. Xorijiy kapitalning bu oqimi jadal iqtisodiy o'sishni, infratuzilmani rivojlantirish va texnologik taraqqiyotni ta'minladi. Xitoyning “ochiq eshiklar” siyosati unga texnologiyalar transferi, ish o‘rinlari yaratish va eksportga yo‘naltirilgan o‘sishdan foyda ko‘rish imkonini berdi va bu uni global iqtisodiy kuchga aylantirdi.

Hindiston (qulay vaziyat): Hindiston, xususan, texnologiya va xizmatlar sohasiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda ham muvaffaqiyat qozondi. Mamlakat iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va bandlik imkoniyatlarini yaratish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni qabul qildi. Chet el texnologiya gigantlari va transmilliy kompaniyalarning

mavjudligi Hindistonning global autsorsing va IT markazi sifatida paydo bo'lishiga yordam berdi va uning iqtisodiyotini sezilarli darajada oshirdi.

Braziliya (Aralash vaziyat): Qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar kabi sohalarga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyat qozongan bo'lsa-da, daromadlar tengsizligi va atrof-muhit muammolari kabi muammolarga duch keldi. Xorijiy kapitalning kirib kelishi iqtisodiy o'sishga turtki bo'ldi, lekin ayni paytda muvozanatli rivojlanish va barqaror amaliyot zarurligini ta'kidladi.

Gana (qulay vaziyat): G'arbiy Afrikadagi Gana o'zining iqtisodiy rivojlanishini kuchaytirish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni faol ravishda qidirmoqda. Tog‘-kon sanoati, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish kabi sohalarga xorijiy investorlarni jalb qildi. Xorijiy kompaniyalarning mavjudligi ish o‘rinlari yaratilishiga, texnologiyalar transferi va eksport imkoniyatlarining oshishiga olib keldi va Gana iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shdi.

Singapur (qulay vaziyat): Singapur global moliyaviy va texnologiya markaziga aylanish uchun strategik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qildi. Hukumatning tadbirkorlikka daxldor siyosati va infratuzilmani rivojlantirish tashabbuslari uni xorijiy investorlar uchun jozibador manzilga aylantirdi. Ko'plab transmilliy korporatsiyalarning mavjudligi Singapurning iqtisodiy farovonligiga va global raqobatbardoshligiga hissa qo'shdi.

Qo'shma Shtatlar (qulay vaziyat): Qo'shma Shtatlar o'zining yirik iste'mol bozori, barqaror iqtisodiyot va innovatsion ekotizim tufayli doimiy ravishda katta miqdorda to'g'ridanto'g'ri investitsiyalarni jalb qiladi. Xorijiy investorlar turli sohalarda, jumladan, texnologiya, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Ushbu to'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalar ish o'rinlari yaratilishiga, innovatsiyalarga va iqtisodiy o'sishga olib keldi va bu mamlakatning jahon iqtisodiy yetakchisi maqomini mustahkamladi.

Ushbu misollar xorijiy investitsiyalarni boshqarish bo'yicha mamlakatlarning turli tajribalarini ko'rsatadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'plab afzalliklarni taqdim etishi mumkin bo'lsa-da, har bir mamlakatning holati o'ziga xosdir va muvaffaqiyat hukumat siyosati, infratuzilma, me'yoriy-huquqiy baza va tegishli muammolarni samarali hal qilish qobiliyati kabi omillarga bog'liq.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va global raqobatbardoshlik afzalliklarini o'z ichiga olgan afzalliklari salmoqli va ko'p qirrali. Bu afzalliklar dunyoning turli mamlakatlaridagi tajribalar orqali isbotlangan. To‘g‘ridanto‘g‘ri xorijiy investitsiyalar samarali qo‘llanilsa, iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish, texnologik taraqqiyot va global raqobatbardoshlikni oshirish katalizatori bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar YaIM o'sishini rag'batlantirish, ishsizlikni kamaytirish, eksportni rag'batlantirish va infratuzilmani yaxshilash qudratiga ega. Bu mezbon mamlakatlarning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga, turmush darajasini oshirishga va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Ijtimoiy va madaniy jihatdan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar madaniy almashinuv, xilma-xillik, ta'lim va jamoatchilik ishtirokini rag'batlantiradi. U bag'rikenglik, madaniyatlararo tushunish va inklyuzivlikni targ'ib qiladi, qabul qiluvchi mamlakatlardagi jamiyatlar tuzilishini boyitadi.

Global raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar global bozorlarga, miqyosdagi iqtisodlarga va malakali ishchi kuchiga kirishni ta'minlaydi. Bu samaradorlikni oshirish, eksportni rag‘batlantirish va raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

Shu bilan birga, chet el investitsiyalarini jalb qilish, jumladan, suverenitet, atrof-muhitga ta'sir qilish, daromadlar tengsizligi va siyosiy barqarorlik bilan bog'liq muammolar va xavflarni ham keltirib chiqarishini tan olish juda muhimdir. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning afzalliklarini muvozanatlash va potentsial salbiy tomonlarni yumshatish uchun samarali siyosat ishlab chiqish va tartibga solish asoslari muhim ahamiyatga ega.

Global miqyosda o‘zaro bog‘langan dunyoda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalana oladigan davlatlar raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lib, iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantiradi va o‘z fuqarolari farovonligini oshiradi. Shunday qilib, chet el investitsiyalarini jalb etishning afzalliklari, agar ular oqilona va uzoq muddatli istiqbolni hisobga olgan holda boshqarilsa, inkor etib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. "Foreign Direct Investment: Theory, Evidence and Practice" by Imad A. Moosa
2. "Foreign Direct Investment and Development: Launching a Second Generation of Policy Research" edited by Theodore H. Moran, Edward M. Graham, and Magnus Blomström
3. "Foreign Direct Investment, Governance, and the Environment in China: Regional Dimensions" by K.C. Fung, Alicia Garcia-Herrero, and Hitomi Iizaka
4. "Foreign Direct Investment in Developing Countries: Leveraging the Role of Multinationals" by Jörn Kleinert and Farid Toubal
5. "Multinational Enterprises and the Global Economy" by John H. Dunning
6. "Foreign Direct Investment, Democracy, and Development: Assessing Contours, Correlates, and Concomitants of Globalization" by Stephen J. Kobrin.

O`ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGIDA FERMERLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISHI.

Qanoatova F.
ShDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi dosenti
fkanoatova@yandex.ru

Annotatsiya. Maqolada tadbirkorlikning uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanlgi, mamlakatimizda uning rivojlanishi uchun huquqiy asoslar yaratilgani, ayniqsa xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun ob’ektiv sharoitlar mavjudligi, jumladan, xotinqizlar rahbarligidagi fermer xo`jaliklarining faoliyati haqida fikr boradi

**Kalit so`zlar:** biznes, tadbirkorlik, huquq, qonun, xotin-qizlar rahbarligi, fermer xo`jaliklari, mehnat shartnomasi, huquqiy-iqtisodiy bilimlar, kichik va o`rta biznes.

Annotation. The article examines the long historical roots of entrepreneurship, the creation of the legal foundations for its development in our country, the existence of objective conditions for women to engage in entrepreneurial activities, including the activities of womenled farms.

Key words: business, entrepreneurship, law, women's leadership, farms, labor contract, legal and economic knowledge, small and medium business.

Kirish. Jahon agrar tarixi ko`rsatadiki, qishloqda individual - oilaviy xo`jalik yuritish asosida qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarish chuqur ildizlarga ega. Miloddan avvalgi VIII ming yillikda «neolitik revolyusiya» davrida odamlar birinchi marta erni o`zlashtirish, chorvachilikni vujudga keltirish bilan o`zlashtiruvchi xo`jalik yuritish tizimidan ishlab chiqarish faoliyatiga o`tish bilan sivilizasiyaning shakllanishiga moddiy asos yaratganlar[1;188].

Ma`lumki, dyehqon xo`jaligining faoliyati xo`jalik a`zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo`jaligidagi boshqa shaxslar muayyan ishni bajarishgagina mehnat shartnomasi asosida vaqtincha jalb etilishi mumkin.

Fermer xo`jaliklarida ham asosan fermer va uning oila a`zolari ishlaydilar. mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan xo`jalik a`zolari yordamchi, ikkinchi darajali rol o`ynaydi hamda ishlab chiqarishning maxsus oilaviy xarakterga egaligiga putur etkazmaydi. SHuning uchun bu xo`jaliklarda ham mehnat motivasiyasi xo`jalik yuritishning boshqa shakllariga qaraganda nihoyatda

kuchli va oilaning har bir a`zosi unga yuklatilgan ishni sifatli, sidqidildan vaqtida bajarishga harakat qiladi va mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan shaxslardan ham buni talab qiladi. Ana shunday motivivasiya tufayli agrar sektorda individual oilaviy xo`jalikning shakllari sifatida shaxsiy tomorqa xo`jaligi, dehqon xo`jaligi, fermer xo`jaliklari faoliyat olib boradilar.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda mustaqillikning birinchi kunlaridanoq qishloq xo`jaligini rivojlantirish bo`yicha qabul qilingan me`yoriy hujjatlar amalga oshirib kelingan islohotlar natijadorligini ta`minlashga va fermer xo`jaliklarini har tomonlama qo`llabquvvatlashga xizmat qildi[2]. 2012 yil 24 sentyabrda «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to`g`risida»gi qonun, 2012 yil 22 oktyabrda «O`zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PF 4478-sonli, 2015 yil 15 mayda «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta`minlash, ularni jadal rivojlantirish yo`lidagi to`siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PF-4725 farmonlari qabul qilindi. 2016 yil 5 oktyabrda esa O`zbekiston Ryespublikasi prezidyentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta`minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan **1**yaxshilashga doir qo`shimcha choratadbirlar to`g`risida»gi PF-4848-sonli farmoni e`lon qilindi. So`zsiz ular respublikamiz iqtisodiyotida xususiy mulkning o`rni va rolini tubdan oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo`lidagi to`siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan chet el kapitali ulushini oshirish borasidagi mulk huquqini himoya qilishda va qo`yilgan muhim vazifalarni amalga oshirishni ta`minlashda xizmat qiladi.

2012 yil 22 oktyabrdagi “O`zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Prezidyent Farmoni asosida O`zbekistonda fermer xo`jaliklari uyushmasi o`rniga fermerlar kengashi tashkil etilgan bo`lib, 2017 yildan O`zbekiston fermer, dehqon xo`jaliklari va tomorqa er egalari kengashi [2] sifatida o`z faoliyatini kengaytirdi.

Agar 1994 yil boshida qishloq xo`jaligi tizimida 14825 ta dyehqon (fermer) xo`jaligi faoliyat ko`rsatgan bo`lsa, 2008 yilga kelib, ularning soni 215 mingdan ortgan bo`lib ketdi, ulardan 5 mingdan fermer ayollar tashkil etgan[3;110]. 2009 yilda respublikada mavjud fermer xo`jaliklarining (1500 nafar) 2%ga yaqini ayollar tomonidan boshqarildi[4]. Bu esa iqtisodiy tadbirkorlik jarayonlarida ayollar omili muhim ekanligini ko`rsatadi. O`rganilayotgan davr mobaynida fermer xo`jaliklarining 2000dan ziyodini ayollar boshqarib kelgan bo`lsa, ular orasida X.Mirzayeva, P.Ergashyeva, S.Abdullayeva va L.Murotova kabilarning “O`zbekiston qahramoni” unvoniga sazovor bo`lganligi muhim o`rin tutadi[5].

Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan paxta xom ashyosi va g`allaning 100 %i fermerlar ulushiga to`g`ri kyelishi va bunda fermer ayollarning ham munosib hissasi borligi alohida e`tiborga loyiqdir. Xususan, Qiziltepa tumanidagi “Valiobod” fermer xo`jaligi rahbari R.Valiyeva, CHust tumanidagi “Gulshan” fermer xo`jaligi rahbari G.SHokarimova, Qarshi tumanidagi “Xumor” fermer xo`jaligi rahbari X.Bekmurodova kabi fermer ayollar faoliyati bunga misol bo`la oladi. SHuningdek, Qashqadaryo viloyati SHahrisabz tumanida 1994 yili o`z ishini boshlagan Ulug`bek nomli shirkat xo`jaligi bosh pudratchisi N.Xudoyqulovaning xo`jaligida 41 nafar xotin-qiz ish bilan ta`minlangan. 2004 yili mazkur shirkatga qarashli bo`lgan 100 gektar erdan 15 mln. so`m miqdorda sof daromad olinganligi aniqlangan[6].

Fermer ayollarning huquqiy - iqtisodiy bilimlarini mustahkamlash, ular faoliyatini rivojlantirish hamda mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda O`zbekiston Ryespublikasi fermer xo`jaliklari uyushmasi qoshidagi “Tashabbuskor ayol” markazi faoliyati alohida o`ringa egadir. 2008 yilda “Tashabbuskor ayol” markazi 2000 fermer ayolni birlashtirgan bo`lsa, 2018 yilga kyelib 4500 dan ortiq fermer xo`jaliklarini xotin-qizlar boshqardi [7].

“Tashabbuskor ayol” markazi fermerlarni huquqiy himoya qilish, mikro va makrokreditlar, lizingga texnika vositalari olish va investisiyalarni jalb qilishga ko`maklashish, fermer xo`jaliklari tomonidan etishtirilgan mahsulotlarning sotilishiga, eksport qilinishiga yordamlashish, ayol

fermerlarning faoliyatini matbuotda yoritish boshqa usullar orqali ularning ilg`or tajribalarini ommalashtirish, xo`jalik ishlarining biznes rejasini ishlab chiqishlariga yordamlashish kabi xizmatlarni ko`rsatib keldi[6].

2008 yilda Surxondaryo viloyatida chorva sohasini rivojlantirishga hissa qo`shishga istagi bo`lgan 45 nafar ayolga 49,5 million so`mlik kredit berildi. SHuningdyek, respublika miqyosida uyda chorva bilan band bo`lgan 32 mingdan ortiq bo`lgan ayollarga rasman mehnat daftarchalari berilgan[7].

Namangan viloyatidagi asalarichilik, bog`dorchilik, parrandachilik, pillachilik, qoramolchilikka ixtisoslashgan “Koroskon Durdona” ko`ptarmoqli fermer xo`jaligi rahbari N.Mamatova 2010 yildan beri fermer sifatida faoliyat yuritib kelgan bo`lib, 88 nafar yangi ishchi o`rinlari yaratgan. Xo`jalik ishchilari tarkibida bitiruvchi yoshlarning qamrab olinganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, etishtirilayotgan pillani qayta ishlab, kashtachilikni rivojlantirish orqali mahalla qizlarining ham bandligini ta`minlash rejalashtirilgan[6].

2015 yilgi ma`lumotlarga ko`ra, Qibray tumani YAngiobod qishlog`ida D.Mirzarayimova tomonidan 2008 yilda 10 gektar erda tashkil etilgan “Mirzajalil jahon bog`i” fermer xo`jaligi bog`dorchilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan bo`lib, xo`jalik 2014 yilgi daromadi hisobidan 100 bosh qoramolga mo`ljallab molxona barpo etdi. Tijorat bankining 320 million so`mlik krediti evaziga Avstriyadan 30 bosh qizil-ola naslli mol keltirib, boquvga qo`ygan[6].

Farg`ona viloyati Oltiariq tumanidagi “Nurli obod” fermer xo`jaligi rahbari, “O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan qishloq xo`jalik xodimi”, Xalq deputatlari Farg`ona viloyat Kengashi dyeputati, O`zbekiston qahramoni L.Murotova 2018 yilda 350 gektar erdan rejadagi 870 tonna o`rniga 1100 tonna, ya`ni qo`shimcha 250 tonna g`alla yig`ishtirib oldi. U paxtachilikdan 650 million so`mdan ortiq, g`alladan 350 million so`mga yaqin sof foyda olib, jami 1 milliard so`mlik daromadga ega bo`lgan[7].

Toshkent viloyati CHinoz tumanidagi Eshonobod qishlog`ida faoliyat yuritadigan fermer - ayol A.Xudoyberganova 10 yildan beri o`ziga qarashli “Seytaydar” fermer xo`jaligida 41,6 ga erga paxta, bug`doy hamda sabzavotlarni etishtirib kelgan. Tumandagi “Sutbuloq” mahalla fuqarolar yig`iniga qarashli “Umid” fermer xo`jaligi rahbari B.Jo`ltayeva esa o`z fermer xo`jaligini 90-yillar o`rtalaridan beri boshqarib keladi. U 12 nafar ishchisi bilan 60 ga erda paxta, bug`doy va boshqa ekanlarni yetishtirib kelgan. Uning mehnati “O`zbekistonning 15, 20, 25 yilligi” ko`krak nishonlari bilan taqdirlangan.

Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi “Temur Malik” fermer xo`jaligi hududiy uyushmasi pillachilik brigadasi boshlig`i O.Rahmatova, Andijon viloyati Qo`rg`ontepa tumanidagi “Kozimjon Ahmedov” fermer xo`jaligi pillachisi D.Mamajonova “O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan pillachi” unvoniga sazovor bo`lgan. Toshkent viloyati CHinoz tumanidagi “Yo`l tushgan” fermer xo`jaligi uyushmasi pillachisi G.Dadayeva, Andijon viloyati Izboskan tumanidagi “Gulzor pari” fermer xo`jaligi boshlig`i O.O`rinova, Navoiy viloyati Karmana tumanidagi “Sevinch - eruz” pillachilikka ixtisoslashgan fermer xo`jaligi boshlig`i X.Hasanova “SHuhrat” medali bilan mukofotlanganlar [8]. 2016 yilda Sirdaryo viloyatida 6 ming 118 ta fermer xo`jaliklari mavjud bo`lib, ulardan 1 ming 441 tasini ko`p tarmoqli fermer xo`jaliklari tashkil etgan. mazkur fermer xo`jaliklarining 280 tasida xotin-qizlar rahbarlik qilgan[17] fermer ayollarning ko`p tarmoqli faoliyati iqtisodiy salohiyatni yuksaltirish va islohotlar samarasini ta`minladi.

Shuningdek, qishloq xotin - qizlarining mehnat huquqlari to`liq ta`minlanishining asosiy ko`rsatkichlaridan biri, ularning ish bilan bandligi ekan, mavjud imkoniyatlarni ishga solish, mahsulotlarni qayta ishlash korxonalarini ochish, xizmat va serviz shahobchalari faoliyatini yanada kengaytirish, qishloq hududlarida va kam ta`minlangan ayollarga bozor va texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish bo`yicha konsultativ - o`quv tadbirlarini tashkil etish taqozo etiladi.

Tadqiqotlar tahlili natijasida fermerlik harakatini rivojlantirish borasida ayollar o`rtasida uchrayotgan turli muammolar aniqlandi. Ya`ni, kreditlash tizimidagi talablar, mablag`ni tasarruf etishdagi qiyinchiliklar, ayrim yuqori darajadagi majburiy to`lovlar shular jumlasidandir.

Ma`lumotlarga ko`ra, tadbirkor ayollarning aksariyati xizmat majburiyatlari uchun kuniga 9-10 soatgacha, haftasiga 50-65 soatgacha vaqt sarflaydi. Bundan tashqari, har beshinchi ayol ish joylarida bir kunda 10 soatdan ortiq, har uchinchi ayol esa haftasiga 65 soatdan ortiq mehnat bilan band bo`ladi. Bunga yana ayolning uy bekasi sifatidagi yumushlari ham qo`shilsa, umumiy ish hajmi yanada ortadi[11].

Xulosa va takliflar. Ryespublikada ayollarning ijtimoiy - iqtisodiy sohalardagi faol ishtirokini ta`minlash uchun katta imkoniyat va salohiyat mavjud bo`lib, xotin-qizlar o`rtasida kichik va o`rta biznes, fermerlik, xizmat ko`rsatish sohalarini qo`llab - quvvatlash hamda rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e`tibor qaratib kelindi. Natijada ayollarning xususiy sektor sohasidagi faolligiga erishilib, tadbirkorlik, fermerlik, avloddan-avlodga o`tib kyelayotgan milliy hunarmandchilik va kasanachilik orqali faoliyat olib borayotgan tadbirkor va hunarmand ayollarning mahsulotlari sifati va miqdorida o`z ifodasini topdi.

Xotin-qizlar o`rtasida fermerlik ko`nikmalarini shakllantirishda va ishbilarmonlik muhitini yanada kengaytirish uchun xotin - qizlar fermerlik faoliyatini tashkil qilish yo`llarini soddalashtirishga,qishloq xo`jaligi - soha bilimlarini o`zlashtirishlari uchun shart-sharoit yaratish, fermer ayollarni qo`llab-quvvatlash va ularga xorijda tajriba almashishlariga e`tibor bermoq lozim.

Adabiyotlar:

1. Матюшин Г.Н. Это древняя цивилизация. - М.: «Просвещение», 1992. -С. 186-188..
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 29 noyabrdagi “Dehqon (fermer) xo’jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, respublikada ishbilarmonlik faoliyatini davlat yo’li bilan qo’llab-quvvatlash to’g’risida”; 1996 yil 3 apreldagi “Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini davlat yo’li bilan qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”; 2017 yil 9 oktyabrdagi “Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa er egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo’jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”; 2018 yil 14 yanvardagi “Fermer xo’jaliklarining er uchastkalaridan yanada samarali foydalanish va qo’shimcha daromad olishni tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonlari // lex.uz.
3. www.uzfk.uz.
4. Mamajonov S. Fermer xo’jaliklarining dastlabki qadamlari, Jamiyat va boshqaruv, №3. 2008, B. 110.
5. O’zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo’mitasi “Ayollarning siyosiy faolligi, jamiyatdagi o’rni va mavqyeini oshirish” bo’limi joriy arxivi. 2009 yil ma’lumotlari.
6. O’zbekiston xotin-qizlar qo’mitasi joriy arxivi. 2008-2016 yillar ma’lumotlari.
7. Ismoilova Z. Fermer ayollar qishloq xo’jaligiga ilg’or ishlanmalarni tatbiq etadi. // Xalq so’zi, 2018. 3 mart.
8. O`zbekiston Respublikasi Milliy arxivi maneriallari. MF – 137/ 28 jild.
9. wcu.uz. http: // library. tuit. uz/
10. https://www.pv.uz/uz/news/
11. Baumgartner V. O’zbek biznesida “ayollar qiyofasi” //Ijtimoiy fikr. 1998. –№ 1.– B. 112

ИСТОРИЯ БОРЬБЫ С ЭПИДЕМИЯМИ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР, БНСР И ХНСР.

Г.Муминова.
Заведующий кафедрой «Всемирной истории»
Каршинского государственного университета,
д.и.н., профессор.

Аннотация: В данной статье рассказывается о процессах, связанных со становлением системы здравоохранения в Туркестанской АССР, БНСР и ХНСР.

Ключевые слова: Туркестанской АССР, БНСР, ХНСР, медицина, эпидемия.

Abstract: This article describes the processes associated with the formation of the healthcare system in the Turkestan ASSR, BNSR and KHNSR.

Keywords: Turkestan ASSR, BNSR, KHNSR, medicine, epidemic.

В настоящее время, когда во всем мире эпидемиологическая ситуация ухудшилась, одними из акутальных задач являются усиление мер по охране здоровья человека, борьба с эпидемиями, исследование исторического опыта человечества в этой сфере. В Узбекистане в различные исторические периоды различным образом решались проблемы охраны здоровья человека. В частности, период существования Туркестанской АССР БНСР и ХНСР в истории Узбекистана характеризуется внедрением в крае современных европейских методов лечения, формированием со стороны государства впервые централизованной системы здравоохранения, достижением определенных положительных результатов в борьбе против эпидемий. Поэтому одной из актуальных задач является изучение опыта данного периода в области медицины. В этом смысле недостаточно изучены меры, принятые в Туркестанской АССР, БНСР и ХНСР в 1920-1924 годах, по налаживанию здравоохранения, борьбе с распространением различных эпидемий и их ликвидацией, налаживанию охраны материнства и детства, решению проблемы формирования медицинских кадров в республике и формированию современной медицины.

Туркестанская АССР существует в крайне тяжелых условиях, то есть усилении политических противоречий, крайнем обострении социальных проблем, превращени края в очаг различных эпидемий. В период Российской империи управление в Туркестане в административном отношении было полностью подчинено военному министерству, этот порядок сохранялся и в первые годы советской власти, и начальниками отделений управления здравоохранением, областными врачами в большинстве случаев назначались военные врачи из старого состава. Их формальный, бюрократическийподход к простому населению, пренебрежительное отношение к нему препятствовало налаживанию дела оказания медицинской помощи отношение.

В структуре Народного Комиссариата Туркестана осуществляли деятельность отделы мобилизации, медицинского обеспечения, санитарная станция, научнопрактический, госпитального обеспечения, санитарно-технический, правовой, санитарного просвещения, санитарно-эпидемический, курортный, ветеринарной службы. Наряду с этим в структуре Народного Комиссариата Здравоохранения Туркестана была создана санитарная инспекция жилищ населения, которая контролировала санитарное состояние жилых домов. 16 сентября 1918 года НКЗ Туркестанской Республики все медицинские учреждения в крае (военно-санитарные, городские, земские, железнодорожные, Красного креста и другие) были переведены в распоряжение Народного Комиссариата Здравоохранения.В частности, к ним относились Ташкентская городская больница, 3 амбулатории, расположенные в старой части города, амбулатории при аптеке "Махрам". Подобные меры служили систематизации сферы здравоохранения в республике.

В городах и районах Туркестана расширялась сеть здравоохранения. Например, в Джизакском уезде в этот период существовали 3 больницы на 35 мест, население обслуживало 3 врача, 9 медицинских работников со средним специальным образованием. К ним можно отнести таких опытных врачей, как И.Н.Самецкий, Н.В.Самойлов Таким образом на местах также организовывались пункты медицинского обслуживания, население обслуживали опытные, образованные врачи.

В Туркестане также предпринимались меры по налаживанию санаторо-курортной сферы. Например,при Пролетарской больнице в городе Самарканде под руководством бывшего пленного Гельфгота была открыта лечебница, специализировавшаяся на лечении элекричеством и водой. В 1920 году в доме отдыха Чимён восстановило здоровье 150 человек, Джалалабаде - 100 человек, Янгикургане - 50 человек.Следовательно, в Узбекистане налаживание курортной деятельности началось уже в 20-х годах XX века.

В Туркестане стремились ограничить частное оказание медицинских услуг.В мае 1919 года врач Дерновский просит у отдела здравоохранения Самаркандской области разрешить ему осуществлять частную врачебную практику. Однако его действия были расценены как “спекуляция”, в просьбе ему было отказано. Только в период Новой экономической политики (НЭП) некоторым частным лечебным учреждениям было разрешено осуществлять деятельность. Население могло лечиться за свой счет или застраховавшись в отделах социального обеспечения. Больницы также были двух видов, то есть больницы для застрахованный лиц и больницы для лиц, не имеющих страховки. Больницы для застрахованных лиц в какой-то степени отвечали требованиям.Однако в связи с тем, что больные из местного населения не имели денег для лечения, эти больницы опустели.

Были предприняты некоторые меры по выделению средств для системы здравоохранения. В государственном бюджете на 1923-1924 годы на здравоохранение было выделено средств в размере 5 процентов из общего бюджета и 10,5 процентов из местного бюджета. На эти средства нельзя было не только открыть новые медицинские и санитарные учреждения, но даже сохранить существующие.При распределении этих средств на душу населения получалось 13,4 копейки на человека.

В Туркестане было достаточно сложно оказывать медицинскую помощь кочевому и полукочевому населению.В решении проблемы было уделено внимание созданию подвижных медицинских отрядов. Этот опыт был использован сначала в качестве эксперимента, поскольку это был совершенно новый подход в медицине. В населенные пункты кочевого населения впервые пришло систематическое медицинское обслуживание. Для создания медицинских отрядов было выделено 20 тысяч рублей, в их состав входили такие медицинские работники, как П.Ф.Гамсанов, Л.В.Ошанин, И.А.Равитский, Н.К.Киселев, Г.И. Уманский, П.А. Каплан, А.И. Славнин,
С.А.Павловский, Э.А.Букина.В 14 уездах отряды приняли 27523 пациентов.

Полижительные результаты здравоохранения зависели, прежде всего, от обеспечения лекарственными средствами. Частные аптеки были национализированы и были переименованы в “Городские народные аптеки”. Весной 1919 года группу представителей направили в города Москву, Петроград и в Ирандля того, чтобы привезти лекарственные средства. В Черняевке был построен закрытый завод по производству лекарства сантонин. Туркестан обеспечивал почти всю страну сантонином. В 1919 годуна складах находилось 1200 пудов готового сантонина.В Ташкенте делались попытки наладить переработку корня солодки.

В деятельности отделов здравоохранения центральное место занимала борьба против эпидемий.В таких крупных городах, как Андижан, Фергана, Ташкент, Самарканд, были широко распространены такие опасные инфекционные заболевания, какбрюшной тиф, сыпной тиф. На границах Туркестана существовал постоянный риск распространения таких чрезвычайно опасных заболеваний, как холера, малярия. Весной 1918 года эпидемия тифа

распространилась почти по всей территории Средней Азии. В результате в Туркестанском крае с 1 июля 1918 года по 1 января 1919 года было зарегистрировано 2771 человек с брюшным тифом, 910 человек, зараженных холерой. В целях борьбы с эпидемиями в обязательном порядке были привлечены все врачи, вышедшие в отставку в качестве военнослужащих. Вернулись на службу такие опытные врачи, как В.О. ВойноЯсснетский, Я.Б. Магнетштейн, Матвеев, Журавлев, А.А. Блум, Никифоров. Опытные врачи самоотверженно вели борьбу с эпидемией для ее ликвидации среди населения.

Правительство Туркестана в мероприятиях по борьбе с эпидемиями уделяли серьезное внимание санитарному состоянию пунктов бытового обслуживания.В частности, В старой части Ташкента были проведены мероприятия “Неделя эпидемии”. 26 февраля 1922 года началась "Неделя эпидемии". Бани были оснащены дезинфицирующими аппаратами “Гелиос” (стиральные машины). Одежда посетителей бань дезинфицировалась бесплатно. Проведение “Недель эпидемии” в городах оказало положительное влияние на укрепление здоровья населения, улучшению санитарногигиенической работы.

В 1922 году в городах отделами санитарного надзора был наложен ряд денежных штрафов различным лицам. Например, в том году в городе Самарканде были наложены штрафы в размере 10000 рублей за хранение товаров в торговых лавках в антисанитарном состоянии, 7500 рублей за продажу непригодной продукции.В Туркестане было запланировано расширение санитарной просветительской работы идаже осуществлена деятельность по созданию санитарной милиции. Это был совершенно новый подход в деятельности здравоохранения. Поскольку понятие санитарной милиции почти не встречается в источниках.

Эпидемия холеры в Туркестане распространяется под влиянием различных факторов. Например, в мае 1921 года в Туркестан из России различными путями прибыло 320 тысяч человек. Среди беженцев были больные холерой, которые стали причиной возникновения новой волны эпидемии.Это заболевание было зарегистрировано в Туркестане на территории Самарканда, Джизака, Уратюбе. Была организована комиссия по борьбе с эпидемией, председателем ее был назначен Э.Б. Бродов, членами были М. Миразимов, А.Л. Лепехин.В 29 населенных пунктах Средней Азии распространилась эпидемия холеры, было зарегистрировано 3315 человек с этим заболеванием, из них 1179 человек или 35,6 процентов скончались.Следовательно, среди заволевших холерой представителей местного населения было очень мало.

Таким образом, после установления советской власти в Туркестане система здравоохранения налаживалась государством цетрализованно. Население страдало от эпидемий, распространенных в крае. В этот период в сфере здравоохранения были сформированы новые традиции и структуры, эти мероприятия способствовали небольшому снижению заболеваемости среди населения.

Несмотря на кратковременное существование Туркестанской АССР, БНСР и ХНСР, они занимают определенное место в истории Узбекистана. После установления советской власти в Туркестане существовавшие лечебные учреждения и аптеки были национализированы и переведены в распоряжение Народного Комиссариата Здравоохранения. В некоторых городах было открыто несколько больниц, но их материальное состояние было тяжелым. В связи с тем, что управление в Туркестане было полностью основано на военных принципах, управление и контроль здравоохранения вначале также было возложено на военно-санитарное управление. Формальное, бюрократическое отношение военных медицинских работников к населению привело к затягиванию процесса принятия населением современной медицины, а преобладание военных в управлении привело к увеличению числа ряда лечебных учреждений, относившихся непосредственно к военным округам.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Национальный архив Узбекистана (НА Уз), фонд Р-13, опись 1, дело 24, лист 56.
2. НА Уз, фонд Р-25, опись 1, дело 333, листы 8-12.
3. НА Уз, фонд Р-40, опись 1, дело 317, листы 111-112.
4. НА Уз, фондР-25, опись 1, дело 333, листы 5-15.
5. НА Уз, фондР-25, опись 1, дело 1821, лист 71.
6. НА Уз, фондР-40, опись 1, дело 347, листы 10-16.
7. НА Уз, фондР-40, опись 1, дело 138, лист 66.
8. Глазунов П.А., Слоним М.И. Врачебно-санитарный обзор за 1918 г. –Ташкент.: Туркгосиздат, 1920.–С. 40.
9. Государственный архив Самаркандской области,фонд 1685, опись 1, дело 300, лист 49.
10. К статистике холеры в Туркестанской республикев эпидемию 1921 года П.А. Глазунов (Статистический п/отдел Тур. НКЗ) // Туркестанский медицинский журнал. 1922 г. - №4. - С.337-342.
11. Княжинский Б.П. Очерки по истории медико-санитарного дела в Самарканде и Самаркандской области).–С. 107.
12. Мобилизация врачей // Наша газета. - 1918, №117, 12 июня.
13. Ниязов Д.М. Охрана здоровья детей в Туркистанской республике в 19171924гг. // Советское здравоохранение.– 1962.–№ 12.– С. 47-48.
14. Подвижные обследовательские-лечебные отрядыи их значение в организации медицинской помощисельскому населению в Средней Азии(По данным работы отряда в Туркестане в 1924 г.)составил Г.И. Дембо. Под редакцией и с предисловием С.Д. Асфендиарова. Издание Н. К. З. Узбекской и Киргизской Республик.–Ташкент, 1925 г.–С. 3-15.
15. Ҳайдаров Ҳ. Жиззах вилояти тарихи.– Тошкент: Меҳнат, 1996.–Б. 223.

“МАҚОМ” ФЕСТИВАЛИ – ХАЛҚАРО МАДАНИЙ ҲАМКОРЛИКНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ

Муртазова Саҳодат Бўриевна,
Иқтисодиёт ва педагогика НТМ
“Тарих ва ижтимоий фанлар” кафедраси мудири, доцент.
+998907204895; sahodat@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада халқаро миқёсда ўтказилган биринчи халқаро “Мақом” фестивали, ўзбек миллий мусиқий мероси ва соҳа ривожи учун қабул қилинган ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларга оид маълумотлар умумлаштирилган.

Шунингдек, юртимизнинг турли ҳудудларида асрлар давомида шаклланган мақом анъаналари ва мақом намояндалари фаолияти ҳақидаги материаллар таҳлил этилган.

Калитли сўзлар: мақом, халқаро “Мақом” фестивали, мусиқа, маданият, санъат, маънавий мерос, Шашмақом, анъана, ҳофиз, созанда, Катта ашула, конференция, музей.

Resume: The article summarizes information about the first international festival "Makom", about the Uzbek national musical heritage, as well as about the regulatory documents adopted for the development of the industry.

They also analyzed materials about the traditions of status and the activities of status representatives that have formed over the centuries in different regions of the country.

Key words: maqom, international maqom festival, music, culture, art, spiritual heritage, shashmaqom, tradition, hafiz, musician, big song, conference, museum.

Ўзбекистон ўз тараққиёт ва барқарор ривожланиш йўлидан борар экан ҳар бир соҳада бўлгани каби миллий мусиқий меросни асраб-авайлаш, уни ўзига хослиги, бетакрорлигини сақлаб қолиш ва авлоддан-авлодга безавол етказиш борасида кенг кўлами амалий, фундаментал ишлар қилинаётганлиги сир эмас.

Кейинги йилларда Ўзбекистонда мусиқа маданиятини янада ривожлантириш борасидаги ишлар юқори поғонага кўтарилди. Мусиқа маданиятининг турли йўналишлари бўйича ёш истеъдодларни излаб топиш, уларнинг ижодий фаолиятини юксалтириш юзасидан ғамхўрлик қилиш муҳим аҳамиятга молик вазифалардан бирига айланди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 августдаги "Ўзбекистон композиторлари ва бастакорлари уюшмаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги ПҚ3212-сонли қарорида "...халқимизнинг маънавий савиясини ошириш, ёш авлодни юксак инсоний ғоялар, она Ватанга меҳр ва садоқат руҳида тарбиялаш, миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида камол топтиришда мусиқа санъатининг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир"дея таъкидланади.

Ўзбек миллий мусиқий мероси ҳақида гапирганда, аввало мақом санъати алоҳида аҳамиятга эга бўлган бебаҳо маънавий мерос эканлигини таъкидлаш лозим. Мақом санъатига мамлакатимизда кейинги йилларда алоҳида эътибор қаратилаётганлиги бу борада амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотларнинг ёрқин ифодасидир.

Дарҳақиқат, ўзбек миллий мусиқий мероси бой ва ранг-барангдир. Шу жумладан, мақом санъати ҳам халқимизнинг асрлар давомида барҳаёт бўлиб келаётган дурдоналаридан саналади. Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш, бу борада шаклланган ижро ва ижодий мактаблар анъаналари, буюк бастакорлар, ҳофиз ҳамда созандалар меросини чуқур илмий асосда ўрганиш ва қайта тиклаш, тарғиб қилиш, халқимизни мусиқий меросимизнинг энг гўзал анъаналаридан баҳраманд этиш, ёш авлодни мақом санъати билан кенг таништириш орқали уларда миллий ўзликни англаш туйғусини камол топтириш каби қатор вазифалар мужассамдир.

Мақомлар Шарқ халқларининг жуда қадим замонлардан мавжуд бўлган бетакрор мусиқий жанрларидан бири сифатида ўзбек миллий мусиқий меросида жуда муҳим ўрин эгаллайди. Шу боис мақомлар мусиқа маданиятида жуда катта тарихий, илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Мақомлар- ўз тарихий тараққиёти давомида жуда узоқ йўлни босиб ўтиб, ҳар бир тарихий даврда янги хусусиятлар билан бойиб борди. Ўзбек мусиқа меросида мақомнинг учта асосий тури мавжуд бўлиб, Шашмақом (ёки Бухоро мақомлари, Бухоро Шашмақоми), Хоразм мақомлари, Тошкент-Фарғона мақомлари (ёки мақом йўллари) дан иборатдир[4; – Б.7.].

Бугунги кунда турли даврларда фаолият олиб борган мақом намояндаларининг маънавий меросини асраб-авайлаш, ижро намуналарини сақлаш, ўрганиш, тадқиқ этиш орқали ёшларимизни бетакрор мумтоз мусиқий санъатимиздан баҳраманд бўлиш, уни ўрганиш ва асраш каби хайрли ишлар кўзда тутилган.

Жумладан, ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос услуби, ижро анъаналари ва намояндалари фаолият юритган. Яъни, Бухоро мусиқа ижрочилик анъаналарини ривожлантиришда Бухоро хонандалик мактаби намояндалари Ота Жалол, Ота Ғиёс, Уста Шоди Азизов, Домла Халим Ибодов, Левича Ҳофиз, Уста Шароф, Шоназар Соҳибов, Борух Зикриев, Михаил Толмасов, Хожа Абдулазиз Расулов кабилар машҳур бўлди [9; – Б.64.].

Хоразм воҳаси эса XIX аср охири- XX аср бошларида ўзбек мусиқа санъатининг ижрочилик ва хонандалик анъаналари билан машҳур бўлди. Воҳада мақом ижрочилиги достон йўллари, халқ оммавий қўшиқлари ўз йўналишлари доирасида ривожланди. Бу даврда Хоразмда Комил Хоразмий, Мирзо, Муҳаммад Раҳимхон II-Феруз, Ниёзжон Хўжа каби машҳур бастакорлари ижод қилди. Хоразм мусиқа санъатини ривожлантиришда Матёқуб Харратов, Худойберган ота, Полвонниёз ота, Қурбонниёз, Авазмат ўғли, Мадраҳим Ёқубов, Бобожон Ҳофиз, Матёқуб Отажонов кабиларнинг ўрни катта бўлди.

Ўзбек мусиқа санъатининг Тошкент-Фарғона йўналиши ҳам бетакрорлиги ва ўзига хослиги билан ажралиб туради. Хусусан, Ашурали Ҳофиз (1850-1913), Мирза Қосим Ҳофиз (1850-1917), Мўминжон Ҳофиз (1860-1910), Мўйдин Ҳожи (1885-1958), Беркинбой Файзиев (1885-1945), Жамолхон Ҳофиз (1850-1916), Абдулла Тароқ (1870-1952), Мадумар Ҳофиз (1884-1935), Зебо Пари (1826-1910), Маматбува Сатторов (1885-1967), Эрка Қори Каримов (1880-1954), Маҳкам Ҳофиз (1865-1915), Ҳамроқул қори Тўрақулов (1872-1943), Мулла Тўйчи Тошмуҳаммедов (1868-1943), Шораҳим Шоумаров ва бошқалар сермаҳсул ижод қилиб, халқ орасида "ҳофиз" сифатида ном қозонди. Шунингдек, XX аср бошларида катта ашула ижрочилигида Ғанижон Мирзаев, Жўрахон Султонов, Маъмуржон Узоқов, Турғун Каримовлар халқ орасида ўз санъати билан танилди [11; 12-в.].

Шунингдек, ўз даврида довруғ қозонган етук мақом дарғаларининг ижролари, мусиқийшунос олимларимизнинг қолдирган илмий, маънавий меросини янгича қарашлар, замонавий усул ва воситалар орқали ўрганиш, асраш бугунги илм-фан олдидаги вазифалардан саналади.

Хусусан, 2017 йил 17 ноябрдаги "Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3391-сонли Президент қарори Шарқ халқлари мумтоз мусиқа санъатининг етакчи жанри – мақомларни кенг тарғиб қилиш, мақом анъаналарини замонга мос эъзозлаб сақлаш, ўрганиш, ўзлаштириш, ривожлантириш ва мақом санъатининг моҳир ижрочиларини рағбатлантириш, ёш авлод қалбида мақом санъатига эътибор ва меҳрни ошириш, мусиқий мероснинг бой, бадиий ва эстетик имкониятларини тараннум этиш, халқлар ўртасидаги дўстлик ришталарини янада мустаҳкамлаш каби хайрли ишларни кўзда тутади.

Шарқ халқларининг бетакрор санъати бўлган мақомларни ўрганиш, азалий анъаналарни тиклаш, замон руҳи билан суғорилган ижроларни шакллантириш ва жаҳонда кенг тарғиб этиш, халқлар ўртасида ижодий ҳамкорлик ва маданий мулоқотни мустаҳкамлаш халқаро мақом санъати анжуманининг асосий мақсади ҳисобланади.

Анжуман 2018 йилдан бошлаб, ҳар икки йилда бир марта Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз шаҳрида ўтказилиши, анжуман доирасида "Мақом мусиқа санъати унинг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни" мавзусида илмий-амалий конференция ташкил этилиши, Жаҳон ва Ўзбекистон мақомот санъати усталарининг якка концертлари, мақом ансамбллари, хонанда ва созандаларнинг кўрик-танлови, сайиллар, мамлакатимизнинг дунёга машхур шахслари хаёти ва ижодий фаолияти хақида замонавий ва креатив усулда саҳналаштирилган дастур намойишлари, мақом санъати тарихига оид кўргазма, ўзбек, форс, араб, инглиз ва рус тилларида нашр этилган илмий-тақдимот асарлари ҳамда илмиймаърифий адабиётлар намойиши каби хайрли ишларни мунтазам равишда амалга оширилиши белгиланган бўлиб, бу ўз навбатида бебаҳо маънавий меросимизнинг авлоддан-авлодга безавол етказишга замин яратади [12].

2018 йил 6 сентябрь куни Шаҳрисабз шаҳрининг Оқсарой майдонида Биринчи Халқаро мақом санъати анжуманининг очилиш маросимида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев қуйидагиларни таъкидлади: "Бугун бағрикенг, меҳмондўст, санъатсевар ўзбек диёрида катта байрам, катта шодиёна. Жонажон Ватанимизнинг гўзал ва бетакрор масканларидан бири Шаҳрисабз заминида, буюк Амир Темур бобомиз бунёд этган муаззам Оқсарой майдонида Халқаро мақом санъати анжумани тантанали равишда очилмоқда. Шу муносабат билан сиз азизларни, ўз ҳаётини ноёб мусиқа дурдонаси бўлмиш мақом санъатига бағишлаган фидоий инсонларни чин қалбимдан муборакбод этаман" [13].

Ўзбекистонда илк маротаба ўтказилган ушбу санъат байрамида дунёнинг 73 давлатидан келган 300 га яқин иштирокчилар ва меҳмонлар қатнашди. Уларнинг орасида нафақат ўз юртида, балки жаҳон миқёсида ҳам машҳур хонанда ва созандалар, маданият ва санъат арбоблари, мусиқашунос олимлар борлиги алоҳида таъкидланди [12].

Ушбу халқаро анжуманда ЮНЕСКО, Осиё фольклор ижодиёти ташкилоти каби нуфузли халқаро тузилмалар вакиллари, жумладан, Россия Федерацияси Президентининг маслаҳатчиси В.И.Толстой, Қирғизистон Республикаси Президентининг маслаҳатчиси С.Райев, Қозоғистон Республикаси Маданият ва спорт вазири А. Муҳаммед ўғли, Тожикистон Республикаси Маданият вазири Ш.Ўрумбекзода, Озарбайжон Республикаси Маданият вазири А.Гараев, Туркия Республикаси Маданият ва туризм вазирининг биринчи ўринбосари А.Х.Дурсун ва бошқаларни иштирок этиши – ушбу мусиқий меросимизга жаҳон ҳамжамиятининг ғоят катта қизиқиш билан қараётганлигидан далолатдир [13].

Бугунги кунда дунё халқлари ўз миллий мусиқа маданиятини ўрганиш, тарғиб қилиш, миллий мусиқа анъаналарини асраб-авайлаш ва ривожлантириш, ижодий ҳамкорликни ривожлантириш, халқаро мусиқа фестивалларини ташкил этиш борасида жиддий ҳаракатлар олиб бормоқда.

Жумладан, халқимизнинг асрлар давомида авлоддан-авлодга ўтиб келаётган миллий қадриятларидан ҳисобланган Шашмақом, Катта ашула, Лазги, Бахшичилик каби санъат турлари ЮНЕСКО эътиборига тушиб, ташкилотнинг “Инсониятнинг оғзаки ва номоддий мероси дурдоналари” сифатида махсус рўйхатга киритилган. Зеро, ўтмишдаги мусиқий ижрочилик анъаналарини тиклаш ва замонавий шароитларда сақлаб қолиш, ўзбек миллий мусиқий асарлари ва созларини хорижий мамлакатларда намойиш этиш, мусиқа таълимида янги анъаналарни таркиб топтириш, халқ маънавий меросини асраб-авайлаш ва келгуси авлодларга етказиш, жамият ҳаётида мусиқа маданиятининг тутган ўрнини таҳлил этиш долзарб вазифа ҳисобланади.

Зеро, Ибн Сино бобомизнинг “Жисмимиз саломатлиги учун озуқа қанчалик муҳим бўлганидек, руҳимиз поклиги учун санъат шунчалик зарурдир”, деган пурҳикмат сўзлари, келажагимиз бўлган ёшларимизнинг руҳий баркамоллиги ҳақида қайғуришга ундайди.

Халқаро “Мақом” фестивали доирасида амалга оширилган хайрли ишлардан яна бири – бу 2018 йил 7 сентябрь куни дунёда ягона бўлган “Мақом” музейининг очилишидир. Ушбу музей ўзига хос миллийлик ва замонавийлик уйғунлиги асосида жиҳозланган. Музейда ватанимизнинг ҳар бир ҳудудига хос бўлган мақом санъати, мақом намояндалари ва улар томонидан яратилган бетакрор ижро намуналари, созлари, мактаблари ҳақидаги маълумотлар акс этган.

Ушбу фестивал муносабати билан ташкил этилган “Мақом санъати ва унинг жаҳон тамаддунида тутган ўрни” мавзуидаги илмий-амалий конференцияда асосан мақомот санъати бўйича дунёнинг турли давлатларида тадқиқот олиб бораётган таниқли олимлар ўзларининг илмий тадқиқотлари натижаси юзасидан тақдимот ва маърузаларини баён этдилар.

Конференция ишида Темурийлар даврида мақом ва мусиқа илмига оид рисолалар, Зайниллобиддин Ҳусайнийнинг “Қонуний илмий-амалий мусиқий” китоби, Нажмиддин Кавкабий, Абдураҳмон Жомий, Абдулқодир Марағийларнинг мусиқий рисолаларининг аҳамияти ҳақида қимматли фикрлар билдирилди. Илмий-амалий конференцияда ана шу асарларнинг мақомот дунёсидаги аҳамияти, қайси тилларга таржима этилгани, мақом ривожи учун улар қай даражада хизмат қилиши каби масалалар муҳокама этилди.

Конференцияда Ўзбекистон, АҚШ, Франция, Италия, Германия, Венгрия, Жанубий Корея, Туркия, Озарбайжон, Эрон, Ҳиндистон, Покистон, Тожикистон, Миср, Ироқ, Тунис, Афғонистон, Бангладеш каби давлатларнинг етакчи мусиқашунос олимлари ўзларининг илмий қарашлари, таҳлилий мулоҳазалари билан иштирок этиши давлатлар ўртасида илмий-маданий алоқаларнинг янада кенгайишига асос бўлади.

Илмий анжуман доирасида Отаназар Матёқувнинг “Бухоро шашмақоми”, “Хоразм дутор мақомлари ва олти ярим мақоми”, Равшан Юнусовнинг “Ўзбек мақомлари” китобларининг тақдимоти ва юртимиз мақом санъати усталарининг “устоз-шогирд” анъаналари асосидаги маҳорат дарслари ўтказилди.

Анжуман якунида турли номинациялар бўйича ғолибларни тақдирлаш маросими бўлиб ўтди. Халқаро ҳакамлар ҳайъати иштирокчиларни “Энг яхши мақом ансамбли”, “Энг яхши яккахон чолғу ижрочиси” ва “Энг яхши яккахон хонанда” номинациялари бўйича баҳолашди.

Жумладан, Тунисниng “Al Gharbi Twins”, Япониянинг “SPCP Japan” жамоалари ва Туркманистон вакили Сухонберди Оразбердиев учинчи ўринга лойиқ, деб топилди. Эроннинг “Настар” ансамбли ва ҳиндистонлик Устад Иқбол Аҳмат Хон иккинчи ўринга лойиқ деб топилди[14].

Озарбайжоннинг “Ҳайрати” жамоаси солисти Нигор Шабанова ва Ўзбекистоннинг “Сақил” ансамбли биринчи ўринга сазовор бўлди.

Ҳакамлар ҳайъатининг хулосасига кўра, Халқаро мақом санъати анжумани бош совриниг – Гран-при Тожикистон мақом академиясига берилди.

Ғолиб ва совриндорларга пул мукофотлари, шунингдек, анжуманнинг махсус дипломи ва эсдалик совғалари тақдим этилди. Бундан ташқари, анжуманда иштирок этган барча хорижий меҳмонларга сувенир ва махсус сертификатлар топширилди[14].

Третьей причиной могла борьба в указанное время , т.е.в период Великих географических открытий за обладание торговыми путями международного характера, точнее овладение русскими и английскими купцами северного торгового пути ВолгаКаспий, видимо вызвали интерес Османской империи к нашему региону. Некоторые города Азербайджана, в том числе город Баку, играл важную роль в транзитной торговле между Европой и Восточными странами.Вполне вероятно, что шах Тахмасиб I из-за привлечения капиталов и для того чтобы получить прибыль без каких либо производства, издал этот указ.

Итак, небольшой статистический анализ по количеству надписей из Джаме города Баку разрешает нам высказать такое мнение:

В соборной мечети этого небольшого города надписи в основном носили социально-экономический характер, нежели религиозный коранические. А это доказываеть еще раз факта о том, что крупные мечти в центральных частях городов в перид средневековья до новейшего времени в мусульманских странах были также центром просвещения, пропоганды государственных дел среди населения, а значит эти архитектурные сооружения играли роль как общественных, так и культурнополитических центров, оставляля за собой центральном местом исламского повиновения.

В конце резюмируя указанных данных, можно констатировать, что эпиграфичекие памятники имеют кроме исторического значения, также значения источника для изучения различных вопросов экономики.

Литература.

1. Али-заде А.А.. Социально-экономическая история Азербайджана. XIII-XIV вв. Б., 1956.
2. Березин И.Н. Путешествие по Востоку. Прибавление к I тому. Казань, 1852, т.II.
3. Исмизаде О.Ш., Джидди Г., Мамедзаде К. О памятнике близ Девичьей башни, «Наука и жизнь», 1964, №12.
4. Nemətova Məşədixanım. Epiqrafik abidələr və onların Azərbaycanın sosial-iqtisadi tarixinin öyrənilməsində əhəmiyyəti (XIV-XIX əsrlər). Dokt. diss. B., 1968, AMEA TİEA, inv. №6639 (2).
5. Nemətova Məşədixanım. Əsrlərin daş yaddaşı. B., 1987.
6. Нейматова М.С. Два указа шаха Аббаса I. ЭВ, т.XVIII, 1967.
7. Неймат М.С. Корпус эпиграфических памятников Азербайджана. Т.I, Б., 1991.
8. Неймат М.С. КЭПА, т.II, Б., 2001.
9. Неймат М.С. КЭПА, т.III, Б., 2001.
10. Неймат М.С. КЭПА, т.IV, Б., 2008.
11. Нейматова М.С. Мемориальные памятники Азербайджана (XII-XIX вв.). Б., 1981.
12. Neymat M.S. İslamization of İlhanids and their role for silk route exertion. Conqres of Restoriation plan of Rabi-I Rashidi And Iranian culture and civilization in Ilkhanid period. May 18-19, 2005, Tabriz.
13. Эфендиев О. Образование азербайджанского государства Сефевидов в начале XVI в. Б., 1961.

МУЛЬТИСЕРВИС ТАРМОҚЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИ

Шербобоева Г.Б.
ТАТУ Қарши филиали доценти

Аннотация. Ушбу мақолада мультисервис тармоқларини бошқариш жараёнларининг самарадорлигини баҳолаш муаммолари ва уларнинг ечими сифатида таклиф этилаётган моделлар келтирилган. Мультисервис тармоқларини бошқариш жараёнларининг самарадорлигини баҳолаш учун нейро-норавшан моделларни қўллаш таклиф этилган.

Summary. This article presents the problems of assessing the effectiveness of multiservice network management processes and the models proposed as their solution. It is proposed to use neuro-fuzzy models to assess the effectiveness of multiservice network management processes.

Калит сўзлар. Мультисервис тармоқлари, адаптив модел, нейрон тармоқлар, норавшан тўплам, нимтўплам.

Key words. Multiservice networks, adaptive model, neural networks, fuzzy networks.

Мультисервис тармоқларини бошқариш самарадорлигини баҳолашни тадқиқ қилиш масаласининг асосий ва долзарб муаммоси кўрсатиладиган хизматларнинг кафолатланган сифатини таъминлайдиган терминал қурилмаларнинг ишлаш сифатини баҳолаш ҳисобланади.

Замонавий ягона ташкилий ва технологик принциплар асосида турли алоқа тармоқларини NGN (Next Generation Network) концепцияси асосида бирлаштириш мультисервис тармоқларини қуриш босқичларидан бири ҳисобланади.

Мультисервис тармоқларини самарадорлигини баҳолаш усулларини шартли равишда учта гуруҳлар – техник, иқтисодий ва техник-иқтисодий гуруҳларга бўлиш мумкин. Ҳисоблаш тармоғининг ишлаш самарадорлиги техник характеристикалари сифатида тармоқнинг унумдорлиги ва ишончлилиги турли кўрсаткичлари қўлланади. Иқтисодий характеристикалар сифатида тармоқни лойиҳалаш, ўрнатиш ва хизмат кўрсатиш ҳаражатларини баҳолаш ишлатилади. Техник-иқтисодий кўрсаткичлар лойиҳани мажмуа сифатида баҳолаш учун қўлланилади, техник ва иқтисодий характеристикаларнинг турли комбинацияларини ўз ичига олади.

Тармоқнинг унумдорлиги қуйидаги бир неча асосий кўрсаткичлар ёрдамида баҳоланади [1,2,3]:

- реакция вақти;
- ўтказиш қобилияти;
- кечикишнинг ўртача қиймати ва дисперсияси.

Реакция вақти тармоқ абоненти учун энг муҳим унумдорлик интеграл характеристикаси ҳисобланади. Умумий ҳолда реакция вақти қандайдир хизматда абонентнинг сўровини вужудга келиши ва бу сўровга жавобни олиниши орасидаги интервал сифатида аниқланади. Тизимнинг реакция вақти умумий ҳолда қуйидаги формула бўйича ҳисобланади [3]:

$$\Delta_{рв} = \Delta_{ст.ув} + \Delta_{сув} + \Delta_{сшбв} + \Delta_{жов} + \Delta_{ибв}, \qquad (1.1)$$

бу ерда $\Delta_{ст.ув}$ - абонент орқали тармоққа сўровни тайёрлаш ва узатиш вақти; $\Delta_{сув}$ - транспорт тармоғининг абонентдан сўровни тармоқ серверига узатишга сарфлайдиган вақти; $\Delta_{сшбв}$- сервернинг сўровга ишлов бериши вақти; $\Delta_{жов}$ - транспорт тармоғининг сервердан жавобни абонентга узатишга сарфлайдиган вақти; $\Delta_{ибв}$ - абонентнинг жавобни қабул қилиши ва ишлов бериш вақти.

Бундан кўриниб турибдики, бу кўрсаткичнинг қиймати тармоқнинг жорий юкланганлиги ҳолатига сўровга ишлов берадиган тармоқ хизматининг турига, серверниг юкланганлигига боғлиқ.

Тармоқнинг ўтказиш қобилияти деганда, қаралаётган вақт оралиғида тармоқ узатган маълумотлар оқимининг ҳажми тушунилади. Бу мезон тармоқнинг асосий функцияси – тармоқ орқали хабарлар ташишни бажарилиши сифатини тўғридан-тўғри характерлайди, шунинг учун тармоқ реакцияси вақтига қараганда тармоқнинг унумдорлигини таҳлил қилишда кўпроқ ишлатилади. Оний ўтказиш қобилияти, максимал ўтказиш қобилияти ва ўртача ўтказиш қобилиятига ажратилади [3,4].

Ҳозирда мультисервисли алоқа тармоқларини бошқариш жараёнининг самарадорлигини баҳолаш муаммосини ечишнинг энг истиқболли йўналишларидан бири ночизиқли кўп ўлчовли функцияларнинг кенг синфидаги нейро-норавшан тармоқларнинг адаптив моделлари ва норавшан мантиқий хулосаларнинг адаптив моделлари ҳисобланади.

Иккала турдаги адаптив моделларнинг параметрлари уларни ўқитиш намуналаридан олинган маълумотлари асосида шакллантирилган маълум бир мезон асосида оптималлаштириш орқали созланади.

Оптималлаштириш масаласини ҳал қилиш бир қатор сабабларга кўра мураккаб вазифадир. Биринчидан бу норавшан модел параметрлари векторнинг катта ўлчамидир. Иккинчидан қидирув майдонининг катта ўлчамлари объектив функциянинг кўп қиррали муаммоси билан чамбарчас боғлиқ. Бундан ташқари, функциянинг характери бутунлай ҳар бир янги моделлаштирилган жараён ёки объект билан ўзгарадиган ўқитиш натижаларига боғлиқ.

Ҳозирги вақтда оптималлаштириш масалаларини ечиш учун бир неча хил усуллар мавжуд, аммо янги, янада самарали усулларни излаш давом этмоқда. Оптималлаш масалаларини ечишнинг стандарт ва яхши ўрганилган усуллардан бири бу градиентли усуллар ҳисобланади. Бу усуллар гуруҳи функциянинг градиенти қиймати экстремимумини топишда қўлланилади. Ушбу усулларнинг камчилиги бу функциянинг градиентини ҳисоблаш зарурияти, дастлабки яқинлашишга боғлиқлигидир.

Классик гинетик алгоритмлар ва уларнинг турлари мультимодал оптималлаш масалаларини ечишда ҳар доим ҳам самарали эмас, турли хил автоматлаштирилган бошқарув тизимларида ишлатиладиган анъанавий норавшан-мантиқий алгоритмларни қўллаш натижасида ҳосил бўлган қийматнинг чиқиш вақтини қисқартиришда бир қатор камчиликлар мавжуд.

Юқоридагилар, биринчи навбатда бўш ечимларнинг мавжудлиги, уларнинг сони билимлар базасини ташкил этадиган норавшан қоидалар сонининг кўпайиши билан боғлиқ. Бўш ечимлар моделлаштиришнинг ўзига хос қоидаларига боғлиқ равишда кириш ўзгарувчиси атамаларини санаш жараёнида норавшан мантиқий хулосалар ҳосил бўлади, аммо улар кейинги математик ҳисоб-китобларда қатнашмайдилар, аммо норавшан мантиқий хулосалар тезлигини сезиларли даражада камайтиради.

Иккинчидан, норавшан мантиқий хулосалар алгоритмларни дастурий таъминотини амалга ошириш пайтида пайдо бўладиган кириш ва чиқиш норавшан ўзгарувчиларни тавсифлайдиган нол бўлимларнинг мавжудлигидир. Шундай қилиб бўш ечимлар ва нол участкаларни бартараф этиш долзарб вазифалардан биридир.

Мультисервис тармоқларини бошқариш жараёнининг самарадорлиги тармоқнинг қатор параметрлари орқали характерланади, уларга қуйидагилар киради:

- тармоқ топологиясини характерлайдиган параметрлар;
- тармоқ тугунларининг характеристикалари ҳисобланадиган параметрлар;
- тармоқ алоқа каналларининг характеристикалари ва ишлатиладиган коммутаторлар моделларининг техник характеристикалари ҳисобланадиган параметрлар.

Шунинг учун МСТнинг ишлаш динамикаси ва унинг бошқариш тизими самарадорлигини шакллантириш учун уларни қандайдир математик аппарат кўринишида тавсифлаш зарурати вужудга келади. Шунга кўра, МСТ бошқариш тизими ва умуман тизимни норавшан-тўпламли матрицали берилиши имкониятларини кўриб чиқамиз. Бундан табиийки, МСТ функционал элементларининг алоқа функциялари ҳисобга олинади.

У ҳолда тармоқ топологиясида $A \cup V$ тармоқ абонентлар тугунлари (АТ) нимтўпламини ва $K \cup V$ тармоқ коммутацион тугунлари (КТ) нимтўпламини ажратиш зарур. Ўз навбатида, A тармоқ абонентлар тугунлари нимтўпламида коммутацион тугунлар ва алоқа каналлари (АК) орқали шакллантирилган $A_1, A_2, \ldots, A_m$ абонентлар тугунлари нимтўпламини ажратиш мумкин, улар кейинчалик локал абонентлар нимтўплами ёки G^{A_i} гуруҳлар дейилади.

Адабиётлар:

1. Марахимов А.Р. Системное проектирование информационно-вычислительных сетей в условиях нечеткой исходной информации. - Монография.: Ташкент, 2006.-246с.
2. Siddikov I.X., Sherboboyeva G.B. Hybrid model management of information messages in multiservise networks// The advanced science journal, USA, 2014, Vol.2 pp.38-41.
3. Сиддиков И.Х., Шербобоева Г.Б. Синтез структуры мультисервисной сети на базе генетических алгоритмов// Международный научный журнал «Молодой учёный» №10(57)/2013, с.193-197, ISSN 2072-0297.
4. Zarubin Yu., Sherboboyeva G.B., Marakhimov A.A Multi-criteria Evaluation Approach in the Automated Information System Design Problems // The 4th International Conference on BIG DATA APPLICATIONS AND SERVICES (BIGDAS2017). ISSN 2466-135X Vol.4. №.1 Hosted by National University of Uzbekistan Korea Big Data Service Society August 15-18. 2017 Tashkent. pp. 9-16.
5. Шербобоева Г.Б., Кенжаева С. Математическая модель механизма управления качества обслуживания мультисервисные сети связи // «Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях» I Международной научно-практической конференции ФЕРПИ.2019. С.340-343.

IJTIMOIY TA’MINOTDA PUL VA NATURA KO‘RINISHIDAGI TRANSFERLARDAN FOYDALANISHNING JAHON TAJRIBASI

Samiyeva Gulnoza Toxirovna
QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi turmush daradasini oshirishda muhim o‘rinni egallovchi ijtimoiy ta’minotning xorij tajribasi haqida fikrlar berilgan. Maqolada ijtimoiy himoyaning jahon modellari va ularning sharhi keltirilgan. Jumladan, maqolada **kontinental,** anglosakson hamda Skandinaviya modellari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ta’minot, transferlar, ishsizlik nafaqasi, ijtimoiy himoya, nafaqa to‘lovlari, **kontinental model,** anglosakson modeli, Skandinaviya modeli

Аннотация. В данной статье приведены мнения о зарубежном опыте социального обеспечения, играющего важную роль в повышении уровня жизни населения. В статье представлены мировые модели социальной защиты и их обзор. В частности, в статье описываются континентальная, англосаксонская и скандинавская модели.

Ключевые слова: социальное обеспечение, трансферты, пособие по безработице, социальная защита, выплаты пособий, континентальная модель, англо-саксонская модель, скандинавская модель.

Annotation. This article presents opinions on the foreign experience of social security, which plays an important role in improving the standard of living of the population. The article presents the world models of social protection and their review. In particular, the article describes the continental, Anglo-Saxon and Scandinavian models.

Keywords: social security, transfers, unemployment benefit, social protection, benefit payments, continental model, Anglo-Saxon model, Scandinavian model

KIRISH. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yil 10 dekabrda tasdiqlangan Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasining 25-moddasida ta’kidlanishicha, har bir inson o‘zi va oilasining sihat-salomatligi va farovonligini asrash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga, shu jumladan, oziq-ovqat, kiyim-bosh, uy-joy, tibbiyot, parvarish va zarur ijtimoiy xizmat huquqiga hamda ishsiz qolganda, betobligida, nogironligida, beva bo‘lib qolganida, qariganida yoki o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘i bo‘lmay qolganida ta’minlanish huquqiga ega.

ADABIYOTLAR SHARHI. Ijtimoiy ta’minot masalalari butun dunyoda aholi turmush darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy soha iqtisodiyotida ushbu komponentlarni o‘rgangan olimlar V.M. Rutgayzer, S.P.Shpilko, A.V.Simbalist, K.N.Pupynin, M.Rutkowski, V.M.Jerebin, A.N.Romanov, M.V.Perova, YE.V.Perov,

V.S.Kukushina, P.Z.Xashimov, B.X.Umurzakovlar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur muammolar tadqiqotning bir qator usullaridan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalar, monografik tahlillar natijalari monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilib, ijtimoiy ta’minot masalalari tahlili keltirilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo‘nalishlarining mazmun va mohiyatini hamda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev asarlariga, Prezident farmon va qarorlariga asoslanadi.

TAHLIL VA ASOSIY NATIJALAR. Hozirgi davrda Shvesiya - dunyoda ijtimoiy ta’minotga ajratilgan mablag‘lari davlat xarajatlarini YAIM dagi ulushi 42 % dan yuqori bo‘lgan mamlakatdir. Shvesiyada ishsizlik darajasi 1,8-2,2 %ni tashkil qiladi, ko‘pchilik mamlakatlar uchun bu ko‘rsatkich to‘liq bandlik hisoblanadi. Davlat nafaqat ishsizlarni ishga joylashtirish bilan shug‘ullanadi, balki ularni moddiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ishsizlik bo‘yicha nafaqa to‘lovi ish joyini yo‘qotgandan keyin besh kunichida beriladi. Moddiy yordam ko‘rsatishning maksimal muddati 55 yoshdan kichik shaxslar uchun 300 kunni va katta yoshdagi shaxslar uchun 450 kunni tashkil etadi. Ishsizlikdan sug‘urtalash yollanib ishlayotgan aholining 90,0 %ini qamrab oladi va ishini yo‘qotgan vaziyatda ish haqidan 80,0% lik qoplamani ko‘zda tutadi.

Kanadada Federal pul o'tkazmalari odatda federal hukumatdan viloyatlar budjetlariga o‘tkaziladi. Aniq taqsimlash orqali Kanadaning "fiskal federalizmi" ning bir qismi sifatida olimlar tomonidan tan olingan. Ushbu transfertlar moliyaviy imkoniyatlari kam bo'lgan viloyatlarga, shu jumladan sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishda yordam berish uchun mo‘ljallangan.

Kanadaning transfer to'lovlari Britaniya va Shimoliy Amerika Qonunlari asosida viloyatlarga subsidiyalar sifatida uzatiladi. 1957 yilgi kelishuvga ko'ra, kambag'al viloyatlarga yillik to'lovlar berila boshlandi: shahzoda Eduard oroliga 2,5 million dollar va uchta provinsiya - Nyufaundlend, Yangi Shotlandiya va Nyu-Brunsvikga har biriga 7,5 million dollar berildi. Ushbu to'lovlar 1967 yilda tugatildi va "har bir viloyatga boshqa viloyatlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori soliq

stavkalariga murojaat qilmasdan yetarli darajada davlat xizmatlarini ko'rsatishga imkon berish" uchun tenglashtirish dasturiga kiritildi.

Kanada har bir viloyatning o'rtacha moliya imkoniyatlarini o'lchaydi, bu juda farq qiladi. Alberta - bu kishi boshiga eng yuqori ko'rsatkich - 12 577 dollar, PEI esa eng past ko'rsatkich - kishi boshiga 6013 dollar. 2016 yilda Alberta federal daromad solig'i PEIda 3000 dollardan kam bo'lganiga nisbatan 8000 dollardan oshdi. Ammo barcha viloyatlar bir xil federal soliq stavkalarini to'laydilar. Iqtisodchi Trevor Tombening yozishicha, 2018 yilga kelib, transfert to'lovlari dastlabki subsidiyalardan ancha kattaroq va "teng ravishda taqsimlangan" "murakkab kelishuvlarga" aylandi. 2018 yilga kelib viloyatlararo qayta taqsimlash Kanada YaiMning 2 foizga kamaydi, bu 60 yil ichidagi eng past ko'rsatkichdir.

Xitoyda 2011 yil iyul oyidan boshlab amaldagi mintaqaviy va mahalliy ijtimoiy ta'minot sxemalari, shu jumladan birlashish tartibi, mamlakatning birinchi ijtimoiy transfer to'lovlari to'g'risidagi milliy qonuni asosida bosqichma-bosqich birlashtirilmoqda. Hukumat 2020 yilga qadar shahar va qishloq aholisini qamrab oladigan keng qamrovli, teng huquqli va yagona pensiya tizimini yaratishni maqsad qilgan. 2016 yilda hukumat qishloq va ish haqi bo'lmagan shahar aholisi uchun yagona tibbiy sug'urta tizimini tashkil etishga qaror qildi. Hukumat tibbiy sug'urta va onalikni sug'urtalash dasturlari birlashtirilishini ham e'lon qildi.

Hindistonda ijtimoiy transfert to'lovlarining to'rt turi mavjud:

- keksalik va nogironlik bo'yicha nafaqalar;
- kasallik va tug'ruq uchun nafaqalar; - mehnat jarohati uchun transfertlar; - ishsizlik nafaqalari.

To'lov manbalarining aksariyati ish beruvchilar orqali ishonchli mablag'lar va hukumat moliyasidan iboratdir.

AQSH hali ham ijtimoiy sug'urta ma'muriyatida qog'oz o'tkazmalaridan foydalanadi, chunki ko'plab oluvchilar, xususan, kam daromadli toifadagi shaxslar bankda emaslar, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri depozitlarni osonlashtiradigan bank hisob-varag'iga ega emaslar. Biroq, AQSH oziq-ovqat markalari va ta'limga yordam dasturlarida elektron transfer tizimlarini amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi.

Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya asosiy 3 ta model xususiyatlariga moslab qurilgan: Bismark (kontinental, konservativ), Beveridj (anglosakson, liberal) modeli va xususiykorporativ (aralash, skandinaviya) modeli.

Kontinental model. Bismark modeli ijtimoiy sug‘urta mexanizmiga asoslangan bo‘lib, u mehnat qobiliyati yo‘qolishi bilan sug‘urtalanuvchilarga to‘liq yoki qisman kompensasiya beriladi. Ijtimoiy ta’minot budjet badallari, ishchi va ish beruvchining sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi mamlakatlar ushbu model asosida ish olib borishadi. Ijtimoiy sug‘urtaning Bismark modelining afzalligi ish stajiga va daromad miqdoriga qarab ijtimoiy nafaqalarning o‘sishi va bu orqali fuqarolarning mehnat faoliyati rag‘batlantiriladi.

Bo‘sh mablag‘larni qo‘shimcha ravishda ijtimoiy sug‘urta fondlariga jalb qilish orqali, ijtimoiy to‘lovlar miqdorini ko‘paytirish mumkin. Ushbu modeldan foydalanishda ijtimoiy xarajatlarni davlat tomonidan moliyalashtirishning qoldiq tamoyiliga amal qilinadi. Bismark modelining kamchiligi ishchilar soni va ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari miqdoriga bog‘liqligidadir. Ishchilar sonining kamayishi bilan ijtimoiy to‘lovlar darajasi pasayadi yoki ijtimoiy ajratmalar miqdori oshadi.

Kontinental model quyidagi uch asosiy xususiyatdan iborat:

1. Ushbu model insonning kasbiy faoliyati davomiyligi va ijtimoiy ta’minot darajasi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni tavsiflaydi.
2. Asosiy tamoyil sifatida bozor va davlat nazorati ostida ijtimoiy sug‘urta tamoyiliga e’tibor qaratiladi.
3. Jamoat tashkilotlari va xayriya fondlari fuqarolarning ijtimoiy ta’minotida juda faol hisoblanadi.

Germaniya kontinental modelning barcha tamoyillarini amaliyotga to‘liq joriy eta olgani bilan ajralib turadi. Bu davlatda sug‘urta qonunchiligining asoschilaridan bo‘lib, mamlakat hayotida muhim siyosiy rol o‘ynagan kansler Otto fon Bismark hisoblanadi. U birinchi bo‘lib mamlakat aholisiga ma’lum ijtimoiy kafolatlar beradigan bir qator qonunlarni qabul qildi. Ulardan asosiylari “Sanoat xodimlarining kasalligini sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonun (1884), “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonun (1885) hamda “Nogironlik va qarilikni sug‘urtalash to‘g‘risida”gi Qonun (1891). Ushbu qonunlar orqali shaxsning o‘z mustaqilligi, jamoatchilikning qo‘llab-quvvatlanishi va hukumatning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi uch tomon o‘rtasida o‘zaro manfaatli kelishuvlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Hozirgi kunda Germaniyada ijtimoiy sug‘urtaning 4 ta turi amal qiladi: pensiya sug‘urtasi, majburiy tibbiy sug‘urta, ishsizlik sug‘urtasi, baxtsiz hodisalardan sug‘urta. Ijtimoiy ta’minot tizimi shuningdek, bolalarga nafaqa (bola tug‘ilganda bir martalik to‘lovlar, kam ta’minlangan oilalarga va ko‘p bolali oilalarga dotasiyalar), qochqinlarga yordam, ta’lim uchun nafaqalar, davolanish uchun nafaqalar, pensiya subsidiyalari, urush qurbonlariga, nogironlarga yordam, kam ta’minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam shaklida ajratilgan davlat mablag‘larini qamrab oladi. Germaniya sug‘urta tizimida birinchi o‘rinda mehnatga layoqatli aholi uchun yaxshi va mos iqtisodiy sharoitlar yaratishga urg‘u beradi. Ijtimoiy siyosatning ushbu shakli muvaffaqiyatli bo‘ldi. Lekin undagi muhim bir kamchilik – davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy himoyaga sarflanadi. Ushbu xarajatlarni qoplash uchun ishlayotganlardan olinadigan soliqlarni doimiy ravishda oshirishga to‘g‘ri kelmoqda. Soliqlarning ko‘pligi tufayli odamlar ishlash uchun rag‘batni yo‘qotadilar. Chunki odamlarning soliqlardan ajratib qolgan mablag‘i ishga yaroqsiz odam oladigan ijtimoiy himoya mablag‘iga teng bo‘lib qoladi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun hozirgi vaqtda siyosiy jihatdan ham bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, ulardan asosiysi sifatida ijtimoiy yordam oluvchilarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishni tashkil etilayotganini aytib o‘tish mumkin.

Anglosakson modeli. Davlatning ijtimoiy ta’minlashning anglosakson (liberal) modeli yuqorida tavsiflangan kontinental modeldan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu model asoschisi 1941-1942 yillarda Buyuk Britaniyada ijtimoiy sug‘urta islohotlari bo‘yicha ishchi guruhni boshqargan ingliz iqtisodchisi Uilyam Beveridj hisoblanadi. Beveridj ijtimoiy sug‘urta tizimiga badallarning yagona miqdorini va ijtimoiy ta’minotning har xil turlari uchun to‘lovlarning bir xil miqdorini belgilashni taklif qildi. Olingan badallar va to‘lovlar miqdori oluvchining ijtimoiy sug‘urta tizimidagi ishtiroki va u tomonidan o‘tkazilgan badallar miqdoridan qat’i nazar, ma’lum bir guruhga mansubligi asosida belgilandi. Yashash minimumi belgilash taklif qilindi. Agar fuqaro o‘zini yashash minimum bilan ta’minlay olmaydigan bo‘lsa, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. O‘sha davrdagi aksariyat mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Beveridj modeli urushdan keyin iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni tiklashga, mehnat unumdorligini va umuman iqtisodiyotni tiklash uchun sharoit yaratishga imkon berdi. Bundan tashqari, obektiv sabablarga ko‘ra (homiladorlik, nogironlik va hokazo) sug‘urta badallarini to‘lay olmaganlar uchun ijtimoiy ta’minot olish imkoniyatini saqlab qolishga imkon berdi. Beveridj modeli dolzarbligi sababli mamlakat tashqarisida ham faol qo‘llab-quvvatlandi. Bu modelning muvaffaqiyatli tarzdagi amaliyotga tatbiqini AQSH, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya kabi mamlakatlarida ko‘rish mumkin.

Anglosakson modelining ba’zi bir asosiy xususiyatlari quyidagilar:

– ijtimoiy xizmatlar “umumiylik” tamoyiliga asoslanadi va bir xil miqdordagi nafaqalar beriladi (hamma sug‘urta badali to‘laganlarga teng miqdordagi nafaqa beriladi);

– hukumat faqat aholi daromadlarining minimal miqdorini saqlash va zaif qatlamlar farovonligi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi, shu orqali ijtimoiy sohada minimal ishtirok etadi;

– ushbu model aniq sug‘urta dasturlari uchun alohida sug‘urta mukofotlarini hisobga olmaydi. Yagona ijtimoiy to‘lovlar yordamida daromadlar yig‘iladi va ma’lum ijtimoiy ta’minot sohasining zarur ehtiyojlariga taqsimlanadi;

– ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishning moliyaviy asosi bo‘lib birinchi navbatda davlat budjeti emas, balki xususiy sug‘urta badallari hisoblanadi.

Boquvchisini yo‘qotganligi bo‘yicha ijtimoiy sug‘urta. Boquvchisini yo‘qotish bilan bog‘liq sug‘urta hodisasi yuz berganda, agar vafot etgan shaxs sug‘urta qilingan bo‘lib, uning asosiy ish faoliyatidan kelayotgan daromadi orqali oilasi ta’minlanayotgan bo‘lsa, oila asosiy daromad manbaini yo‘qotgan hisoblanadi va qo‘shimcha moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan taqdirda marhuming oila a’zolariga (odatda turmush o‘rtog‘i) nafaqa to‘lanadi.

Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha ijtimoiy sug‘urta. Bunda ishlayotgan xodimning bajarayotgan mehnatiga bog‘liq bo‘lmagan ravishda vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotishi natijasida sug‘urta hodisasi yuz beradi. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasini olish uchun xodimning besh yillik ish staji va ish beruvchi tomonidan belgilangan sug‘urta badallarining to‘lovi talab qilinadi.

Ishsizlik nafaqasi bo‘yicha sug‘urta. Bunda sug‘urta badallari yillik daromadning 6,2 foizini tashkil qiladi, lekin bu raqamni korrektirovka qilishda shtatlar tomonidan o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Umumiy qoida bo‘yicha, ular ish beruvchilar tomonidan to‘lanadi. Ushbu badallarni to‘lash sug‘urtalangan shaxslarga ishsizlik holatida, tegishli nafaqalarni to‘lashda kafolat berishga imkon beradi.

Skandinaviya modeli. Shvesiya, Daniya, Norvegiya singari shimoliy mamlakatlarda davlat ijtimoiy siyosatining skandinaviya modelidan foydalaniladi. Bugungi kunda aynan zamonaviy, yetuk va rivojlangan ijtimoiy tizimga ega davlat sifatida aynan skandinaviya modelidan foydalangan mamlakatlar misol qilib ko‘rsatiladi. Bu model o‘zida Bismark va Beveridj modellarining elementlarini jamlaydi.

Ushbu model quyidagi xususiyatlarga ega:

– ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlarni amalga oshirishda yetakchi rol mamlakat hukumatiga tegishli bo‘lib, barcha ijtimoiy dasturlar davlat budjetidan moliyalashtiriladi;

– hukumat ishsizlikka qarshi faol kurash olib boradi, uning oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko‘rmoqda;

– skandinaviya modeli aholining turli qatlamlari o‘rtasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun sharoitlarning tengligi bilan tavsiflanadi;

– mamlakat aholisi uchun turli xil hayotiy vaziyatlarda turli xil ijtimoiy kafolatlar beriladi.

Ijtimoiy siyosatni tartibga solishning eng yorqin, skandinaviya modeliga misol – Shvesiya. Bugungi kunda u ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri hisoblanadi. Shvesiya aholisining ijtimoiy ta’minoti butun mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishda davlat kafolati asosida amalga oshiriladi. U soliq va transfert siyosati orqali amalga oshiriladigan aholining barcha qatlamlari daromadlarini qayta taqsimlashga qaratilgan.

XULOSA. Shved modelining asosiy xususiyatlari inson hayotining barcha sohalarida doimiy ijtimoiy himoya va 100 foiz bandlikka erishish, kambag‘allar o‘rtasidagi qaramaqarshiliklarning yo‘qligi, yuqori siyosiy va ijtimoiy barqarorlikdir. O‘tgan asrning 80-90 yillarida og‘ir iqtisodiy vaziyatga qaramasdan skandinaviya modelidan foydalanayotgan hech bir davlat o‘z tanlagan yo‘lidan voz kechmadi. Biroq, umumiy farovonlikka erishish va yuqori darajada ta’minlangan ijtimoiy kafolatlar mavjudligi davlat budjetidan katta xarajatlarni talab qiladi.

Demak, barcha ijtimoiy sug‘urta modellarida va yuqorida ko‘rgan barcha davlatlarimizda ijtimoiy nafaqalarning to‘lanishi asosiy qismi daromadini yo‘qotgan fuqarolarning ijtimoiy ta’minlashga yo‘naltirilganligini ko‘rish mumkin. Lekin bunda hamma tizimlar o‘z xarakterli xususiyatlariga ega. Ijtimoiy sug‘urta tizimini tashkil qilayotganda mamlakatdagi mavjud iqtisodiy vaziyatni, xalqning iqtisodiy mentalitetini inobatga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Morina, Donjeta & Gashi, Prespp. (2016). The Role of SMEs on the Economic Development: Kosova's Case. SSRN Electronic Journal. 10.2139/ssrn.2820980.

2. Beck, T. Asli Demirguc, K. & Levine, R. (2005). SMEs Growth, and Poverty: CrossCountry Evidence. World Bank.

3. Idemobi, E.I. 2012. The problem of sustaining the growth of Small Medium Enterprises in a typical sub-Saharan African context. African Journal of Social Sciences, 2(1): 15-24.

4. Fatoki, O. 2014. The causes of the failure of new Small and Medium Enterprises in South Africa. Mediterranean Journal of Social Sciences, 5(20): 922-927.

5. Mbatha, Nonhlanhla & Ngibe, Musawenkosi. (2017). Factors affecting financial stability of small and medium enterprises: A case study of emerging markets. Risk Governance and Control: Financial Markets & Institutions. 7. 10.22495/rgcv7i1art1.

6. Virglerova, Z., Dobes, K., Kramolis, J., Kotaskova, A. (2017). The Influence of SME Owners‘s Education on Their Perception of Business Environment in Czech Republic. Economics and Sociology, 10(3), 321-332. doi:10.14254/2071-789X.2017/10-3/22

7. Rutkowski M. Returning Hope: pension system reforms in countries with transition economies, p. 9 “Flagship course on pension reform”.

8. Жеребин В.М., Романов А.Н. Уровень жизни населения: основные категории, характеристики и методы оценки. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009

9. Pupynin K.N. (2011) Application of foreign experience of functioning of sovereign investment funds for the Reserve Fund and the National Welfare Fund of the Russian Federation. Abstract of thesis. Dissertation economic sciences. Moscow, 24 p.

10. Хашимов П.З. Экономика социальной сферы. -Т.: «Университет», 2002. - С. 26

11. Цимбалист А.В. Социальная защита населения региона в условиях демографического кризиса. – М.: Палеотип, 2005.

12. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. – Т.: Фан, 2005

BUSINESS ACTIVITY THE PATH OF DEVELOPMENT OF THE AGRICULTURAL SECTOR OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tinicheva Marjona, Raupova Lobar
2nd year students of the direction
"Agrologistics" of the Faculty of Economics

Abstract: In the given scientific article it is spoken about how in Uzbekistan pays attention to the development of agrarian sector as carrying out reforms within independence. And also, in article appreciable structural and indicative shifts in sphere of agricultural productions by the help farmer and agriculturalist facilities. Pays attention to special economic parameters which carry out agriculture facilities.

Keywords: agrarian sector, an agriculture, market reforms, reforming of agrarian sector, realization of production, economic parameters of manufacture of agricultural production.

Аннотация. В данной научной статье говорится о том, как в Узбекистане уделяют внимание развитию аграрного сектора, проведению реформ в годы независимости. А также, в статье заметны структурно-показательные сдвиги в сфере сельскохозяйственных производств при помощи фермерского и аграрного хозяйства. Обращает внимание на специальные экономические показатели, которые выполняют хозяйства сельского хозяйства.

Ключевые слова: аграрный сектор, сельское хозяйство, рыночные реформы, реформирование аграрного сектора, реализация продукции, экономические показатели производства сельскохозяйственной продукции.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, islohotlarni amalga oshirishga qanday e’tibor qaratilayotgani haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada dehqonchilik va qishloq xo'jaligi yordamida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi

sohasidagi tarkibiy va indikativ o'zgarishlar ko'rsatilgan. Qishloq xo'jaliklari bajaradigan maxsus iqtisodiy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: agrar sektor, qishloq xo'jaligi, bozor islohotlari, agrar sektorni isloh qilish, mahsulot sotish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy ko'rsatkichlari

INTRODUCTION. The agrarian sector remains the major part of economy of the Republic of Uzbekistan. It is enough to tell, that about 50 % of the population lives in a countryside. Therefore, development of an agriculture is one of priorities.

Uzbekistan - as widely known, young country with agrarian activity, for today of even more attention gives an agriculture. For the years of independence in this branch of a national economy there were appreciable structural and indicative shifts. At the initial stage of independence, i.e. in 1990-1996 have been created bases of transition to market attitudes. During this period market reforms which have opened a way to development of various farm patterns were formed [1, p.28].

To the first stages of reforms (1990-1995) concerned creation of legal bases of reforming of agrarian and economic attitudes on villages. Laws have been accepted for reforming an agriculture. These laws «About the ground» (1990), «About cooperation» (1991), «About rent» (1991), «About agriculture facilities» (1992) have created conditions for formation of multistructure economy, and certainly, have served for the development agriculture and farms. To the second stage of market reforms (1996-2016) concerned reforming of agrarian sector on several directions. During this period for the deepening of market transformations have been created legal bases, accepted laws, codes and standard-legal documents. At this stage new laws have been accepted «About a farm» and «About agriculture facilities» (1998). Under the law of the ground the farms were given on a rent basis within 10 years, and to agriculture facilities on lifelong use (Since in 2004 the ground has been given to the agriculturalists within 50 years).

From 2017 till now has been started the third stage of reforms and features of this stage consist that extended economic rights and freedom of commodity producers of an agriculture. And also, were created modern and respond able requirements agricultural and farm service infrastructures; re-structuring the low profitable and unprofitable agricultural enterprises, and on their basis were created agriculture and farms.

MATERIALS AND METHODS. The purpose of this article is systemization of international farmers and agricultural business and defining on this its theoretical context and importance in the socio-economic development.

In this investigation we used scientific methods of comparative and logical analysis, synthesis, grouping and scientific abstraction. Researches of Uzbekistan, and foreign experts in the field of agriculture, farmers and households, the Law of Uzbekistan «On Farmers» from 1998.

The research is conducted of the empirical and theoretical, induction and deduction, mental modeling methods.

To the study of problems of farmers and households have dedicated following economists: K.Makkonnel, S.Bru, M.Treysi, E.Xedi, D.Dillon, U.S.Balandin, A.Shaposhnikov, S.A.Belozerov, I.Kapanev, G.Chubkov, B.Berkinov, A.Olmasov, M.Sharifxojaev, S.Usmonov, P.Alimov, A.V.Chayanov, R.Husanov, M.C.Qosimov, N.Chelinsev and foreign economic almanac.

RESULTS. «Due to these reforms there were essential structural shifts in an agriculture. As a result of structural transformations, has reached steady growth of an agricultural production. Uzbekistan, first of the countries CIS managed to suspend recession and to provide high rates of growth of production of an agriculture. These high rates are provided and for the account agricultural facilities» [1, p. 28]. Under the law «About on agricultural facilities», the agricultural facilities is the family small-scale facilities which is carrying out manufacture and realization of production on the basis of personal work of members of family on at take seat the ground area, given to the head of the family in for lifelong inherited possession [2]. This law defines all rules from formation before liquidation agricultural facilities. Agriculture facilities in the beginning of formation operated

together with farms and workers collective farm, available an additional source of the income of allotments in the size in 0,25-0,35 hectare manor allocated to each rural family. From the beginning of independence, the general area of agricultural facilities has reached 750 thousand hectare. The manor is usually placed on the grounds collective farm and focused basically on an agricultural production, according to the law, construction of houses on these grounds is forbidden. Since 2000, the state calls owners of manor to be registered as agricultural facilities, on the basis of long-term rent (50 years) becoming legal persons. Registration allows farmers to receive credits, however, during the time strengthens the state control over incomes through taxes, therefore farmers participate in this program reluctantly. This type of manufacture can be considered as only private type because agricultural production makes the independent decision on manufacture and marketing. Limiting factors are the size of an arrangement of a facilities and irrigation.

Also, under the law «About agricultural facilities» is stipulated to apply the taxation, according to the given law agricultural facilities with the status and without the status of the legal person pay the ground tax, the tax for use of water resources and the tax for property [2].

Agriculture facilities have special value in steady development of an agricultural production. If to compare them to farms of agricultural facilities, are the basic manufacturers of agricultural products. In the structure of production of an agriculture the share agricultural facilities in 2022 has made 70 %. More effective agricultural facilities appeared in the Andijan, Fergana, Kashka-Darya, Samarkand, Surkhan-Darya, Namangan and Bukhara areas of the Republic of Uzbekistan. Most vivid examples of their efficiency can be seen on economic parameters of production of animal industries and fruit and vegetable production. For example, a share of vegetables made in our republic - 92,1 %, fruits - 92,3 %, a potato - 90,2 %, milk of 92,1 %, meat of 91,1 %, - 98 % - show eggs and in the lead agricultural facilities [3].

For some years of independence due to the successful realization of the agrarian policy directed on introduction of the advanced systems of agriculture, agrotechnology and deducing of new grades of plants and new breeds, to improvement of old methods has been provided stable manufacture of the basic kinds of production of an agriculture. Agriculture facilities provide inhabitants of republic agricultural products more and more and more qualitatively, they also have increased manufacture of a potato in 1,5 times, vegetables - in 1,6 times, fruits and berries - in 1,1 times, meat - in 1,4 time, milk - 1,4 times, eggs - in 1,5 time, caracul - in 1,1 times, etc [3]. High efficiency of the certain prospects family (agricultural) facilities is defined that they for the further development should include conditions of maintenance of competitiveness: the rational sizes, a level and conditions of material-technic support, creation new qualitative agricultural products [4].

But, despite of the important place agricultural facilities in steady development of an agriculture and growth of incomes of the population, to its functioning insufficient attention, in essence there is no their purposeful support and stimulation. In the long term for the development of agricultural facilities, it is necessary to adjust processing of local raw material and its finishing up to ready goods that will allow them to expand export of this production in the international markets and to take the worthy place among world manufacturers [5, p. 3].

To the development of agrarian sector on the part of the state there is an influential help which creates new stimulus for outstripping development farmer and agricultural facilities. These stimulus play a role that agriculturalist felt like the owner of the ground.

However, despite of measures on reforming an agriculture as President Sh.M.Mirziyoyev has noted on sessions of the government (January, 2020), "…this branch still remains and will remain with us at a high level of attention and will be the most conservative sphere of a national economy" [6].

Since the first days of independence, one of priority tasks there was a deepening of economic reforms in an agriculture. The primary goals of a spent agrarian policy in of republic were: transfer of the ground to the owner, creation of a class of proprietors, perfection of their rent and other

attitudes, development of objects of the infrastructure rendering services rural commodity producers on the basis of rational and an effective utilization of water ground resources [7, p. 72].

In the development of personal subsidiary and agricultural facilities also there were essential positive shifts. In the republic operate more than 4716 thousand agricultural facilities. On their share 12,9 % from total amount of an area under crops or 467,7 thousand hectare, 63,5

% of total amount of made production of an agriculture, 42,9 % of production plant growing and 92,1 % of production of animal industries.

As a whole in the republic the general area of areas under crops was reduced (from 3647,5 thousand hectare in 2005 up to 3636,0 thousand hectares in 2022). Due to the reduction of areas under crops under a cotton and grain crops, areas under crops under a potato and a vegetable has increased according to 222,7 thousand hectare up to 316,4 thousand hectare and their share from 5,9 % in 2005 up to 9,2 % in 2022.

Structure of areas under crops of agricultural crops (in %) [3] For 2022 it has been made by 1890,5 thousand tons of meat in alive weight (thus rate of growth in comparison with 2011 has made 117,0 %), milk of 8210,9 thousand tons (118,1 %), eggs 4956,1 million pieces (112,6 %), a wool of 31230 tons (108,3 %) and 1340,9 thousand pieces caracul wool (109,3 %).

Despite of favorable tendencies of development of an agriculture developed in last year's there is a line of the problems constraining its further growth to which it is possible to relate the following:

- Though the areas under wheat (38,7 %) and a cotton (36,1 %) occupy about 74,8 % from the general area under crops, there is a problem of input of the scientifically-grounded crop rotations necessary for achievement of high productivity;
- The meliorative condition of the irrigated grounds continues to worsen. From all volume of the irrigated grounds about 49 % are salted in a various degree, thus about 18 % is strongly and mid salted grounds, over 23 % concern to a category of the grounds with a low point - bonitet (for 2022);
- A low level of allocation of soft loans during carrying out agro technological actions for manufacture of a clap and grain crops for the state needs (60 %) that does not allow to carry out them in due time and qualitatively;
- Insufficient volume of manufacture of forages for intensive development of animal industries because of a low share in the general area under crops of forage crops (8,6 %). As investigation, volumes of production of animal industries (despite of steady rate of growth of branch) are insufficient for satisfaction of needs of the population according to rational norms of consumption;
- Insufficient volumes of the investments involved in an agriculture. Their share in total volume of investments makes all about 4,1 %.

DISCUSSION AND CONCLUSIONS. For development agro industrial sectors of the country it is necessary to have the certain potential and a reserve water-ground, financial and manpower. To them concern:

- Introduction of modern soil-protective technologies, and also use of innovative agro technology manufactures of agricultural crops will allow to increase by 2022 a point bonitet ground with 55 up to 56, that will lead to growth of productivity of agriculture on 10 %;
- Rational and economical use of water resources on the basis of optimization of irrigating norms, introductions water friendly technologies and reconstruction of existing irrigating

systems will allow to reduce volume of water resources used in an agriculture by 2022 to 20-30 %;

- Creation of intensive gardens (dwarfish and semi dwarfish) which today in republic give about 15 tons of production with one hectare (usual high gardens – 10 ton/hectare) whereas in such countries as Turkey, Poland and Holland this parameter reaches up to 50 ton.
- Increase of productivity in an agriculture not less, than in 2 times (labor productivity in Uzbekistan makes only 2941,9 dollars. The USA, against 27255,9 dollars. The USA countries highly

advanced in the agrarian attitude) will enable achievements of mid-annual rates of growth of gross output of an agriculture (at mid-annual rates of 6,5 % last years) about 8-10 %.

- Perfection of the mechanism of the financial - legal stimulation, directed on protection of interests and increase of a material interest of the farmer as a result of the activity;
- Creation of conditions for formation and developments of forms of farmer cooperation on purchase, storage of agricultural production, expansion of volumes of its deep processing on the basis of modern mini-technologies.

For realization of these directions it is provided:

- Continuation of realization of measures on perfection of structure of areas under crops due to increase in the areas of crops under more highly remunerative and food cultures, and also stage-by-stage reduction of crops of a cotton by the low yielding grounds which are not providing its profitability;
- Increase in the areas under crops of vegetables, fruit, berries and fruits around of large and average cities where the population possesses high consumer ability; - Stimulation of the development and introduction of new selection grades of plants and breeds of animals, agro technology and cultures of cultivation with a view of increase of productivity of agricultural crops and increases of efficiency of animal industries;
- A transfer of high technologies of cultivation of large and small horned livestock, birds;
- Development of a forage reserve on the basis of increase in areas under crops;
- Perfection of a system of attitudes between the state and farmers in questions of the state order for a clap and a grain, on the basis of norms and principles of the market economy, providing profitability and independence of farms in use of financial assets, compensation of all expenses due to own incomes received from realization of agricultural production;
- Formation of economic mechanisms, stimulations of the organization and development of cooperation between farmers, agricultural productions, the marketing and other infrastructural organizations, rendering services to an agriculture in questions of preparation, processing and transportation fruit and vegetable and meat-and-milk production;
- Perfection of mechanisms of maintenance by material-technic and credit resources of agricultural manufacturers; - Development and acceptance of the special target program of support personal subsidiary and the agricultural facilities, directed on creation of equal conditions for agricultural facilities. And also, maintenance with resources and services, including credit resources, and also creation of cooperative societies agricultural facilities, creation of conditions for increase in sites of the grounds allocated to agricultural facilities, due to the unused grounds, a part of the grounds of gone bankrupt farms and development of the new grounds;
- Stage-by-stage optimization of the sizes of agrarian manufacture on the basis of formation of rational specialization and concentration of productive forces of agrarian sector in the natural zones of most favored treatment;
- Development of a rural industrial and social infrastructure.

The most important problems of the current stage of rural development in Uzbekistan, is the problem of balancing the rural labor market. The trend of reducing unemployment in rural areas that has developed in recent years continues. The offer of a vacancy in the agro sphere, which is the main meat application of labor in rural areas, is extremely insufficient to meet the demand for jobs. In our opinion, for the practical implementation of these areas of development of the rural labor market, the following:

- Provides for state programs for the development of agricultural products markets, for raw materials and food and targeted programs for sustainable development of rural areas, regional levels for the preservation and development of jobs, in the first – case in the industry, in the second – in the agricultural sphere produced in conjunction with regional balances of labor terrain;

- Develop and approve, at the government level, regulations for the opening agro holdings and other integrated business structures leading non-agricultural workplaces for employment of workers released on the basis of techno-technological modernization;
- Create the most favored nation treatment for the development of alternative activities in the countryside, including self-employment and small business in this area.

REFERENCES

1. Makhmudov E., Zaynutdinov Sh. «Economy and business: a new vector development». T.: «Economy». - 2003. p. 28.
2. The law «About agriculture facilities». T.: «Uzbekistan», 1998.
3. Bulletin the State committee statistics of Republic of Uzbekistan. (2010-2022 yy.)
4. Samiyeva G.T. «Prospect of development agricultural facilities». The Monography. - Tashkent, 2015.
5. Belezyarov S.A. «Finance of housekeeping: essence, structure, management». The author's abstract doctor's dissertations. – S.Petersburg, 2006
6. Mirziyoyev Sh.M. Address of the Prezident of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis. // Newspaper «The National word». 2019 of 29 January.
7. Husanov R. «The agrarian reform: the theory, practice, problems». - T.: «Uzbekistan», 1994. – p. 72.
8. Tukhtabaev, J. S., Samiyeva, G. T., Kushbakov, A. N., Goziyeva, A. A., Razakova, B. S., & Aktamov, O. A. U. (2023, April). Econometric Assessment of the Dynamics of Development of the Export Potential of Small Businesses and Private Entrepreneurship Subjects in the Conditions of the Digital Economy. In *Internet of Things, Smart Spaces, and Next Generation Networks and Systems: 22nd International Conference, NEW2AN 2022, Tashkent, Uzbekistan, December 15–16, 2022, Proceedings* (pp. 440-451). Cham: Springer Nature Switzerland.
9. Sayyora G., Nasimovna N., Tokhirovna A. Prospects of Innovative Development of the Agricultural Sector. – 2023.
10. Tukhtabaev J. S. et al. Econometric Assessment of the Dynamics of Development of the Export Potential of Small Businesses and Private Entrepreneurship Subjects in the Conditions of the Digital Economy //Internet of Things, Smart Spaces, and Next Generation Networks and Systems: 22nd International Conference, NEW2AN 2022, Tashkent, Uzbekistan, December 15–16, 2022, Proceedings. – Cham: Springer Nature Switzerland, 2023. – С. 440-451.
11. Nurimbetov Timur BASES OF ECONOMIC EFFICIENCY OF AGRICULTURAL PRODUCTION // Бюллетень науки и практики. 2023. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/bases-of-economic-efficiency-of-agricultural-production (дата обращения: 16.07.2023).
12. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna. "Reform in the Field of Family Entrepreneurs in Reducing Poverty in Uzbekistan." *Academic Journal of Digital Economics and Stability* 7 (2021): 96-100.
13. Toxirovna, Samieva Gulnoza. "Farmers-Food Sustainability Services." *Academic Journal of Digital Economics and Stability* (2021): 899-904.

ТРАГИКОМЕДИЯ ТИПИДАГИ ИЗЛАНИШЛАРДА ШАХС ВА ЖАМИЯТ ПСИХОЛОГИЯСИНИНГ АКС ЭТИШИ

Равшанова Гулрухбегим Қаҳрамон қизи
ҚаршиДУ, доцент
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
+998972296927

Аннотация: Ушбу мақолада янги ўзбек шеъриятидаги ҳажвий асарларни тадқиқ қилиш анъанаси, ижодкорларнинг ҳажвнавислик маҳорати, ҳажвиётидаги ўткир кулгининг шакллари, ҳажвий асарларида инсон маънавияти ва ахлоқ муаммолари тадқиқ этилган. Шу жиҳатдан Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов ва Анвар Обиджон ҳажвлари таҳлили шуни кўрсатадики, уларда кўпинча сатирик кулги ва унинг шакллари учрашини кўрамиз.

Ижодкорлар ҳажвларида кулги ниқоблари бир-бирига уйғунлашадиган киноя, заҳарханда, сарказм, пичинг, фош қилувчи кулги асосий ўринни эгаллаши кўрсатиб берилади ва ҳажвий асарнинг қимматини оширувчи қуроли бўлмиш кулгини ҳосил қилувчи воситалар ўрганилган.

Калит сўзлар. Ҳажвия, санъат, маънавият, ахлоқ муаммолари, кулги, юмор, муболаға, сарказм, драма, анъана, сатирик кулги, масхара қилувчи кулги, физиологик кулги.

Abstract: In this article, the tradition of researching comic works in new Uzbek poetry, the comic skills of creators, forms of sharp laughter in comics, human spirituality and moral problems in comic works are researched. In this regard, the analysis of the comics of Abdulla Oripov, Erkin Vahidov and Anvar Obidjon shows that satirical laughter and its forms often meet in them. It is shown that sarcasm, poison, sarcasm, sarcasm, sarcasm, and exposing laughter occupy the main place in comics of creators, and the means of creating laughter, which is a weapon that increases the value of a comic work, are studied.

Key words. humor, art, spirituality, moral issues, laughter, humor, exaggeration, sarcasm, drama, tradition, satirical laughter, mocking laughter, physiological laughter.

Эркин Воҳидов ижодида кулги замиридаги йиғининг ўрни шундаки, шоир ким ва нима ҳақида сўз юритмасин, воқеликни ўз бошидан ўтказган, юрагидан кечираётган кечинмалар янглиғ қоғозга туширишга ҳаракат қилади. Мавжуд тузум оғринишларидан шоир қалби изтироб чекади. Ура-урачилик, бўлсин ёки бўлмасин “кун кўриш”га одатланиб яшаган одамлардан кўнгли зада бўлади.

Дунёни ўзининг қатор ҳазил-мутойибалари билан лол қолдирган, кино санъатида шуҳрат қозонган Чарли Чаплинни нега бугун ҳам севиб томоша қиламиз? Эркин Воҳидовнинг ичида ҳам трагикомедия қаҳрамони “Матмуса”нинг яшаши ўз-ўзидан содир бўлган эмас. Мавжуд тузум ақидалари шоирни ана шундай ноёб қаҳрамонни кашф қилишга етаклади. Чарли Чаплин ўзининг ноёб хатти ҳаракатлари эвазига шуҳрат қозонган бўлса, ва, бугун ҳам турли ирқи, дини ва миллатидан қатъий назар севиб томоша қилинадиган қатор картиналарни яратган бўлса – Аллоҳ томонидан берилган юксак маҳоратнинг нашидаси ўлароқ қаблу қилиш лозим. Эркин Воҳидов ана шундай Чаплинона бир образни яратдики, унинг хатти-ҳаракталари кулги орқасида яшириниб турган шахс фожеасини ёдимизга солади. Бу фожелик негизида миллат руҳи акс этганлигини англаш қийин эмас. Яъни ўзининг табиий бир яшашидан мосуво қилинган сохта метод ичкарисида қайта кашф қилинган инсон матлаби охир-оқибатдан таназзулга маҳкум эканлигининг ёрқин исботидир.

Академик Б.Назаров шундай ёзади: “Донишқишлоқ талифалари” туркумидаги марказий қаҳрамони Матмуса бўлган ҳажвий-юмористик шеърларни ҳаммамиз севиб ўқиймиз, мириқиб, қаҳ-қаҳ уриб куламиз. Бу шеърларнинг биринчи қатламида, юзида кўриниб турган матннинг ўзидаги ҳазил-мутойибаларда – латифанамо ҳангомалардаёқ инсон табиатида учраши мумкин бўлган кемтикликни, лутфни ниҳоятда жозиба, маҳорат билан ёритиш товланиб туради. Аммо синчиклаб ўқисангиз, уларнинг иккинчи бир қатлами,

тагмазмуни, яширин мақсади, юзада кўриниб тургандан ҳам кўра аслроқ ғояси мавжудки, асар биринчи қатламдан ҳам кўра, аслида, мана шу иккинчи, кўринмас қатламдаги мақсадни айтиш учун ёзилган бўлади. Биринчи қатлам мана шу иккинчи қатламдаги мақсадни юзага чиқариш учун бир восита, баҳона вазифасини ўташга бўйсундирилади[1]. Бинобарин, Эркин Воҳидов ана шундай чуқур фалсафий-психологик трагикомедияларни яратган ижодкорлардан биридир. Бу анъана XX аср тонготарида Чўлпон, Ҳамза, Авлоний, Қодирий сингари жадидлар ижодида бошланган бўлса-да, уни янги бир босқичга олиб чиқиш, санъат асари сифатида идроклаш тамойили Эркин Воҳидовда бошқача тарзда намоён бўлди.

У қаерда ва қандай пайдо бўлган? Шоир яхши бир сюжет линияларини топадики, у Матмуса тақдирида трагикомедияни келтириб чиқаради. Шахснинг кулиб туриб ўлиши, ўзлигини англамай дунё билан хайрлашиши энг чуқур изтиробдир, аслида!

Эркин Воҳидов “Донишқишлоқ латифалари” туркумидаги шеърларини ёзганидан кейин Матмуса образини драмада ҳам синаб ўришга аҳд қилди. Биз бу образнинг поэтологик конструкция сифатида танланишига эътибор қартамиз. Шоирнинг ижодий концепциясида Матмуса образи алоҳида бир ўринни эгаллайди. Ана шу майл шоирнинг бошқа-да шеърларида ҳавий сезимларни барқарорлаштириб, ривожлантириб, такомиллашиб боришига замин ҳозирлайди:

“Содда деманг уларни, Улар содда бўлмайди. Кулдирса ҳам сизларни, Ўзлари ҳеч кулмайди.

У машҳур Алдаркўса, Калкўсанинг қишлоғи.

Ўзимизнинг қаҳрамон, Матмусанинг қишлоғи.

Китоб бўлар таърифи, Ёзса минг бир саҳифа.

Донишқишлоқ аҳлидан

Тингланг уч-тўрт латифа...”[2]

“Донишқишлоқ латифалари” ҳажвий шеърлар манзумасининг илк шеърида Донишқишлоқ ва Матмусага шундай таъриф берадики, халқ оғзаки ижодидаги Афанди, Алдаркўса каби ўлмас образларни ёдимизга солади. Шоирнинг фольклор анъаналарини ўзида акс эттирган, асардаги макон ва замоннинг сир тутилиши, образларнинг хилмахиллиги, воқеликни ҳикоя қилишда водийликларга хос аскиябозлик, қизиқчилик сингари ментал хусусиятлар ҳам моҳирлик билан намоён бўлган. Ҳажв қилинаётган воқелик бевосита китобхонни нафақат ўйлашга, ундаги Матмусага ачиниш ҳиссини туйишга ҳам бошлайди. Экскурс тарзидаги қишлоқ ва у ердаги одамлар ҳаёти содда ва ишонувчан ўзбек халқининг бағрикенглигини, меҳмондоўстлигини, чапани ва меҳнаткашлигининг ёрқин намунасидир. “Мақсад ҳам уларнинг устидан шунчаки кулиш, танқид қилиб қўя қолиш эмас. Гап бу ерда ниҳоятда муҳим ижтимоий муаммо устида, инсоният бошига оғир кўргиликлар келтирган тузум, унинг даҳшатли мафкураси, шу мафкура ва тузумнинг раҳнамолари ҳамда уларнинг чизган чизиғидан ташқарига чиқолмасликка мажбурланган, мустақил фикрлашдан мосуво бўлиб, салкам тўтига айланган, ўзлигини, шахсини, эркини йўқотиб, ягона бир совет халқига айлантирилаётганлар ҳақида бораётгани йўқмикин деган андиша, аста-секин ич-этимизни тирнаётганини сезмай қоламиз. Бу фикрларни идрок қилабошлаганингиздан сўнг асарнинг бояги биринчи қатламидан олганингиз завқ, кулги ўрнини, қандайдир бир даҳшатли жиддийлик, ҳатто таъбир жоиз бўлса, трагик ҳолат эгалламайдими? Буни санъат тилида, эстетика атамасида трагикомедия дейилади”[3]. Трагикомедияда миллат фожеаси оддий донишманд қишлоқ аҳлининг тўпори қиёфаси, характери акс эттганлигининг шоҳиди бўламиз. Эркин Воҳидов мазкур туркумдаги шеърларида ўзининг бутун бошли ҳажвиётга мойиллигини, макон ва замонда рўй бераётган воқеликнинг ўзига хос талқинини юзага чиқаришда санъатнинг бениҳоя имконияти кенг эканлигини исботлай олганини эътироф этиш лозим.

“Донишқишлоқ латифалари” туркумидаги ҳажвий шеърлар 1976-1991 йиллар, яъни қарийб 15 йил давомида ёзилган адабий гулдастадир. Бу туркумда 16 шеър жамланган бўлиб,

Матмуса образини турли характер қирралари акс эттирилган. Рақамларга эътибор берайлик. Поэтологик конструкция дастлаб қачон шоирни бу жанр типида, яъни ҳажв қилишга рағбат туғдирди. 1970 йил “Иккинчи тумор” номли уч пардали трагикомедия ёзади. Мазкур драмада шоир илк бор Матмуса образини келтиради. 20-22 ёш йигитнинг директор бўлиб тайинланиши, яъни ўзгалар томонидан бошқарилишини жиддий кулги билан талқин қилади. Айниқса, трагикомедияда ҳам, “Донишқишлоқ латифалари”да ҳам Матмуса бир хил қиёфада – содда, ишонувчан, илму билими ҳаминқадар образ сифатида тасвирланади:

“Маҳмудий – Бугун илмий советда нутқ сўзлашингиз керак. Бир йиллик меҳнатимизнинг ҳисоботини беришимиз керак, ёдингизда борми?

Матмуса – Ёдимда бор, устоз.

Маҳмудий – Йиғилишга шаҳарнинг ҳамма йирик олимлари таклиф қилинган. Институтнинг катта зали тўла одам бўлади. Ҳеч бир ҳаяжонланмасдан, ўзни йўқотмасдан ўша иккаламиз тайёрлаган ёзув асосида қирқ минут нутқ сўзлайсиз. Саволлар бўлиши мумкин. Хотиржам жавоб бераверасиз. Билмаганингизни уялмай билмайман, деб айтаверинг.

Матмуса – Хўп бўлади, устоз.

Маҳмудий – Менга савол бўлмаса, институтга кетдик. Ихтиёримизда бир соат вақт қолди.

Матмуса – Битта савол бор (Ўрнидан туриб, Мақмудийнинг олдига келади. Оёқларини кериб, қўлини чўнтагига солиб туради.) Маҳмудий — Хўш?

Матмуса – Сиз мени шаҳарнинг ҳамма олимларига кўрсатиб, мана мен кўчада юрган саводсиз, маданиятсиз одамдан тайёрланган директор, дейсиз. Мен минбарга чиқиб сайраб бераман. Ҳамма сизга қарсак чалади. Шундан кейин мен яна корхонага қайтиб бориб ўз курсимга ўтираманми? Яна директорлик қилавераманми? Бу ҳақда сиз қандай фикрдасиз, устоз?

Маҳмудий – Ҳеч ким онасининг қорнидан олим ёки раҳбар бўлиб туғилмайди. Ҳамма файласуфлар, ҳамма мутафаккирлар юксак минбарлардан ваъз айтгунча бола бўлиб шаталоқ отиб югурадилар, талабалар билан гурпаклашиб имтиҳонларга тайёрланадилар, икки олиб йиғлаб юрадилар. Ҳеч ким уларга кеча сен бола эдинг, тупроқ ўйнаб юрар эдинг деб таъна қилмайди. Сиз ҳам таъна эшитмайсиз. Улардан сизнинг фарқингиз шу бўладики, улар мана шу сифат ўзгаришни ўн-ўн беш йилда босиб ўтсалар, сиз бир йилда ўтдингиз. Сиз машҳур одам бўласиз, янги илмий дунёқараш мужассам бўлган шахс бўласиз.

Матмуса – Сизнинг фикрингиз шундайми, устоз?

Маҳмудий – Ҳа, шундай.

Матмуса – Энди менинг фикримни эшитинг. Мен янги илмий дунёқараш мужассам бўлган машҳур шахс бўлишни истамайман. Мен фақат оддий камтарин директор бўлишни хоҳлайман. Бизга ўхшаган фақирларга шу ҳам бўлаверади[4].

Мазкур лавҳа “Иккинчи тумор” деб номланган драматик асаридан олдинди. Матмуса образига эътибор берадиган бўлсак, бу асарда ҳам содда ва ҳар нарсага ишонувчан, оддий бир инсон қиёфаси кўз ўнгимизга келади. Демак, асарнинг яратилиши, шоир қалбини узоқ йиллардан бунё безовта қилиб юрган катта муммо, дард ҳам аслида миллий фожеалигимизни кўрсатиб бериш бўлган бўлса, не ажаб? Ахир, 70 йил давомида миллат сифатида шаклланиш фақат сохта тузум асосига бўйсундирилди. Асл фожелик ҳам шоирни шундай асар ёзишга ундагани бежизга эмас. Ҳаётини фақат оғир меҳнат, яшашни еб-ичишдан иборат деб, билган оломон қиёфасидаги одамларни тақдири ижодкорга ҳеч ҳам тинчлик бермаган. Бундай миллий фожеликнинг келиб чиқиши, қадриятларимизнинг оёқ ости бўлиши, эътиқоди ва эътимодидан мосуво қилиниши, ўзлик тушунчасининг тамомила йўолиб бориши шулар жумласидандир. “Иккинчи тумор” собиқ иттифоқ даврида ёзилгани билан у 30 йил ўтиб, яъни 2001 йил “Жаҳон адабиёти” журналида дунё юзини кўрди. Бу асар қаҳрамони Маҳмудий руҳшунос олим. Инсон тафаккурини, дунёқарашини ўзгартиришга бўлган уринишлари, фикрлаши паст ва ҳеч қандай билим ва кўникмага эга бўлмаган одамни доно ва ишбилармон

шахсга айлантириш мқасади таргикомедияга эврилади. Юқоридаги лавҳада ҳам шу хилдаги мулоқот – Маҳмудий ва Матмуса характерини очиқ-ойдин ҳис қилиш мумкин. Шоир ўша даврда даврнинг муҳим ижтимоий муаммолари, масалаларини жиддий танқидий ҳажв остига олгани сир эмас. Замонавий манқурт образи кейинчалик Ч.Айтматовнинг “Кассандра тамғаси” айрим бадиий ниятларнинг юзага чиқишида Э.Воҳидов олдиндан сезиб қалам тебратгани аёнлашади. ХХ аср одамзод бошига хилма-хил саволларни, тизгинсиз муаммоларни қўйди. Шоир ана шу муаммолар гирдобида савияси ва уқуви йўқ одамларнинг ***сув бошига келиб қолишини*** ёрқин бўёқларда акс эттира олганлиги маълум бўлади.

Проф. Н.Шукуров эътироф этишича: “Эркин Воҳидов дастлабки тўпламларида кўринган куртак – тенденциялардан алоҳида поэтик дарахтлар пайдо бўлиб, ўса бошлади. Ҳаёт лавҳаларини лахча чўғ сифатида шеърга олиб кириш тенденцияси типик характерларни типик шароитларда гавдалантирувчи сюжетли шеърлар, лирик достонлар учун, “Азгануш”, “Фузулий ҳайкали ёнида” каби тазминлар ва аруз вазнидаги шеърлар ғазалсаролик учун, айрим шеърлардаги юмористик унсурлар ҳажвий лирика тараққиёти учун асос бўлди”[5]. Мана шу иқтибосдан кўринадики, Эркин Воҳидов хилма-хил шеърий жанрларда баракали ижод қилганлиги, ҳам аруз, ҳам бармоқ, ҳам сарбаст шаклларида маҳоратини намоён қилиб, поэтик изланишларида ёрқин кўзга ташланади. Айниқса, “Иккинчи тумор” трагикомедиядан ўсиб чиққан “Донишқишлоқ латифалари” шеърий туркумида Матмусани типик характерини бўрттириб, сайқаллаб тасвирлагани билан даврнинг ижтимоий масалаларига теран нигоҳ ташлай олганининг шоҳиди бўламиз: “Қалпоқ олди Матмуса, Қалпоқ деса – қалпоқдай. Уни кийиб Матмуса, Йигит бўлди чақмоқдай.

Ўнта қўйга арзийди, Ярашиқли бир жаҳон. Бир қарасанг сувсардек, Бир қарасанг олмахон.

Қалпоқ эмас – эртак у, Қалпоқ эмас – тилла тож. Қўйинг-чи, ресторанда

Ювмаса ҳеч йўқ илож”[6].

Кучли комик вазият Матмуса характерини янада жозибасини англашга имкон бермоқда. Битта қалпоқ, яъни бош кийим сотиб олиб, уни “ювиш”, “нишонлаш” учун бор будидиан айрилган содда одамлар характерини индивидуаллаштиради. Шоир қалпоқ баҳонасида жамиятдаги баъзи иллатларни кескин ҳажв йўли билан танқид қилади. Хилмахил ташбеҳлар билан қалпоқни ҳам уни кийган Матмусани ҳам таҳлил қиларкан, жамиятда илдиз отиб бораётган исрофгарчиликка ўқувчининг диққатини қаратади. Борбудидан айрилиб тўй берадиган, қиз чиқариб қирқ йил қозонни сувга ташлаб қўядиган халқимизнинг воз кечиши лозим бўлган ирим-сиримларидан, удумларидан қаттиқ қайғуга чўмади. Ҳажв қилинаётган қалпоқ ва Матмуса воситасида миллий фожеамизни ҳам далолатлайди. Айнан шу қалпоқ тимсолида ҳам жамиятга, ҳам оломончилик кайфиятига, ҳам миллий ўзлигимизнинг емрилиб бораётганидан огоҳлик туйишни бош мақсад деб билади.

Шу ўринда шоирнинг замондоши, Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов ижодида ҳам шунга ўхшаш сюжетли шеър борлигини, уни қиёслаш орқали ҳар икки шоир ўзига хос услубга эга эканлигини намоён этиш имкони туғилди. В.Г.Белинский икки ёзувчи ижодини қиёсий ўрганиш ҳақида шундай дейди: “Нарсаларнинг қадри қиёс қилинганда яхши билинади. Агар икки ёзувчи бир турда ижод қилиб, бир-бирига қандайдир ўхшашлиги бор экан. Бинобарин, уларни параллел жойларга қўйиб. Бир-бирига қиёсий баҳолашдан бошқа илож йўқ, энг одил тарози шу”[7]. Шу жиҳатдан бу икки буюк шоир ижодининг айни шу қиррасини қиёлаганда, иккаласида ҳам ҳажв муҳим ўрин тутишини кўрамиз. Эркин Воҳидовнинг “Сиёсий сабоқ ёки Бек Бековнинг ғаройиб саргузашти” номли шеърида шундай тасвир мавжуд: Катта ишхонанинг бошлиғи Бек Бекович бир куни уйга хизмат машинасида эмас, пиёда қайтади. Йўлда турли “ғаройиб саргузаштлар”га дуч келади. Маҳалладагилар турли гумон ва миш-мишлар тарқатадилар. Биров ишдан кетган деса, бошқа бирови “чакув бўлган, ёки бошқа кўргулик “шўр” бошига тушган” дейди. Чойхонаси эса унга бўлар-бўлмас сўзлар айтиб, “насиҳат” қилади. Аслида бошлиқ камтар, содда, ҳалол одам. Мажлис, сайлов,

маърузалардан холи қолиб ўзи учун бир кун ҳам яшамаган фидойи одам. Аммо одамларнинг гап-сўзлари унга хатосини англаб олишга ёрдам беради, халқдан узоқлашганини сезиб қолади. Буни шоир киноялы, кулги уйғотувчи сўзлар билан ифодалайди:

Пишмаган калла! Тобутингни кўтарар Ахир маҳалла!

Бу шеърда шоир майда гап, ғийбатчи инсонлар устидан ҳам кулади. Абдулла Ориповда эса бошқача бир манзарани кўрамиз. "Ранжком"да раҳбарлар киноя остига олинади. Абдулла Орипов кўпинча раҳбарлардаги салбий иллатларни кучли сатирик кулги остига олади.

Биз "Ранжком"миз, биз ҳаммани ранжитамиз, бас

Шу – асосий вазифамиз чиқарманг ёддан.

Беманфаат дўзахда ҳам ёнмаймиз аммо,

Қайси мушук офтобда ётар экан текин[8].

Абдулла Ориповнинг раиси учун "номуссизлик – бизга номус, орсизликдир ор", ота-она, дўсту ёрон деган гаплар, манфаатга ярамаса, пуч гапдир". Ёмонликни касб қилиб олган бошлиқ образи ва уларнинг гумашталари сатирик кулги тиғига дучор қилинади. Шоирнинг маҳорати шундаки, асарнинг таъсирчанлигини ошириш учун Раис тилидан акаука етимчалар ҳақидаги ривоятни келтириб, уларнинг характерли хусусиятларини бўрттиришга эришади. Ҳатто ёш гўдакларни йўлдан уриш масаласида ҳам маслаҳат берар экан, унинг нутқида кулгили ҳолатни ("гап сўнгида бақрайингу, болага шартта: сенинг отанг тамом бошқа одам, деб айтинг" дея разилона, туҳматдан иборат гапларни ўргатади.

Умуман, лирик жанр табиатида поэтологик конструкция кеча-бугун-эртага тарзида яхлит бириувни тақозолайди. Ҳиссий идрок ва ақлий тафаккур уйғунлиги шеърий манзуманинг типик шароитда ҳосил бўлиш тарзини тартиблаштиради. Бадиийлик модуси услубий йиғиндиси ижтимоий дард залворини оширади. Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Анвар Обиджон, Омон Матчон талқинларида 60– йилларнинг адабий-сиёсий қиёфаси ғоят нозик дид билан ёритилган. Одамларни меҳнатсеварлик руҳида тарбиялашга одатлантирган тузум қиёфаси ҳажвий ракурсда бўй кўрсатиши синалган ҳодисадир. Қарийб 70– йиллик адабий тушов санъат аҳлини бир хиллашувига олиб келди. Натижада ҳажвий идрок тамойилларига эътибор кучайди.

Шуни қайд этиш жозки, ўзбек ҳажвиёти ижтимоий жамият кишисига хос бўлмаган сифатларни ўзида мужассамлаштирган шахсларни тарбиялаш вазифаси турибди. Бундай инсонларни тарбиялашда ундаги қусур ва иллатларни фош этишда сатира ва юмордан кенг фойдаланилади ва шу орқали ундаги салбий хислатларни йўқотишга ҳаракат қилинади. Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Омон Матчон, Анвар Обиджон поэзиясида замонамиз кишиси характеридаги лаганбардорлик, порахўрлик, иғвогарлик, манманлик сингари иллатларни йўқотишга қаратилган кураш тамойиллари устунлик қилганлиги яққол намоён бўлади. Натижада ҳар бир шоир поэтологик конструкцияни халқ оғзаки ижодидан иҳомланиб шакллантирганлиги, мавжуд тузум сабоқларидан зукко китобхонни хулоса чиқариб яшашга даъват қилганлигини ҳам эътибордан соқит қилиб бўлмайди, албатта!

Адабиётлар:

1. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. –Т., "Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти". 2019. –Б.31.
2. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури очерки. –Т., "ФАН". 2008. -Б.55.
3. Назар Эшонқул. Мендан "мен"гача. –Т., "Akademnashr". 2014. –Б.185.
4. Обиджон А. Гулмат Шошийнинг ёввойи девони. –Т., "Шарқ". 2003. -Б.12.
5. Қуронов Д. ва бош. Адабиётшунослик луғати–.Т., "Akademnashr". 2010. –Б. 139-140.

6. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б.308.
7. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. Т., “Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”. 2018. –Б.258.
8. Воҳидов Э. Шеър дунёси. Танланган асарлар, 2-жилд. –Т., “Шарқ”. 2001. –Б.180.
9. Шукуров Н. Жоним – шеъриятим. Ўзбек адабий танқиди. Антология. –Т., “Turon-Iqbol”. –Б.104.
10. Воҳидов Э. Умрим дарёси. Танланган асарлар, 2-жилд. –Т., “Шарқ”. 2001. –Б.103.

ПСИХОЛОГИЯДА ИЖОДКОРЛИК ФЕНОМЕНИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ АНЪАНАЛАРИ

Бекназарова Л. Б.
ҚаршиДУ Психология кафедраси доценти

Аннотация: Мазкур мақола психологияда ижодкорлик феноменини ўрганишнинг илмий анъаналари мавзуисга бағишланган. Шунингдек, мақолада ижодкорлик тушунчасининг илмий таърифлари, уни ёритишнинг илмий ёндашувлари, узоқ хориж тадқиқотчиларининг фикр-мулоҳазалари, классик қарашлар ва тамойиллар, ижодкор шахсга хос характерологик сифатларнинг таснифи, илғор психологик назариялар, замонавий психологик тадқиқотларда ижодкорлик феномени каби масалалар ҳам батафсил ёритилган.

Калит сўзлар: Ижод, ижодкорлик, шахс, психологик ёндашув, ижодий фикрлаш, ностандар фикрлаш, продуктивлик, идрок, қобилият, интеллектуал, ижодий даража, механизм, муаммо, вазият, тез англаш.

Аннотация: Данная статья посвящена теме научных традиций изучения феномена творчества в психологии. Также в статье рассматриваются такие вопросы, как научные определения понятия творчества, научные подходы к его освещению, мнения зарубежных исследователей, классические взгляды и принципы, классификация характерных качеств творческой личности, передовые психологические теории, феномен творчества в современных психологических исследованиях.

Ключевые слова: Творчество, креативность, личность, психологический подход, творческое мышление, нестандартное мышление, продуктивность, восприятие, способность, интеллектуальный, творческий уровень, механизм, проблема, ситуация, быстрота восприятия.

Annotation: This article is devoted to the topic of scientific traditions of studying the phenomenon of creativity in psychology. Also, in the article, issues such as scientific definitions of the concept of creativity, scientific approaches to its illumination, opinions of foreign researchers, classic views and principles, classification of characteristic qualities of a creative person, advanced psychological theories, and the phenomenon of creativity in modern psychological research are covered in detail.

Key words: Creativity, creativity, personality, psychological approach, creative thinking, non-standard thinking, productivity, perception, ability, intellectual, creative level, mechanism, problem, situation, quick perception.

Ҳозирги кунда дунё миқёсида таълим сифатига мамлакат иқтисодий тараққиёти, хавфсизлиги, жамият барқарор ривожланишининг кафолати сифатида қаралмоқда. Мамлакатимизда амалга оширилаётган янгича таълим сиёсати, ушбу тизимини тубдан янгилашга қаратилган бўлиб, ундан кўзланган асосий мақсад бўлажак соҳа эгаларини ҳар томонлама баркамол инсон сифатида тарбиялаш шунингдек, уларда яратувчанлик, янгиликларга интилувчанлик, ижодкорлик, креативлик, инноваторлик каби сифатларни қарор топтириш ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисидаги” Фармони мазмунида, профессионал таълим тизимини ривожлантириш, меҳнат бозори ва иш берувчиларнинг талабларига мос бўлган кадрларини тайёрлаш кабилар ўз аксини топган [1]. Шунингдек, таълим стандарти коммуникатив кўникмаларни, замонавий ахборот ва технологияларини бошқаришни, глобал илмий муаммоларни ҳал қилишни шакллантирадиган билимларни эгаллашга қаратилганлиги билан муҳим аҳамият касб этади. Шу муносабат билан инсоннинг ўзгарувчан ҳаётий вазиятларга тез мослашишига имкон берувчи ижодкорлик муаммоси ва инновацион қобилияти мазмунини тадқиқ этиш, замонавий психология фанининг асосий вазифаларидан бирига айланиб бормоқда.

Ижодкорлик – инглиз тилидан таржима қилинганда, янги объектларни, қадриятларни яратиш, ишлаб чиқиш деган маънони англатади. Кенг маънода, ижодкорлик деганда, шахснинг янги ғояларни ўйлаб топиши, ўзига хос қарорлар қабул қилиши ва анъанавий фикрлаш тизимидан четга чиқиши, бир сўз билан айтганда, ақлий, ноёб фикрлаш фаолияти ҳисобланади. Ижодкорликни ўрганиш билан боғлиқ, қатор назарий ва амалий нуқтаи-назарларга қарамасдан, ҳозиргача унинг мукаммал табиатини очиб берувчи аниқ таъриф берилмаган.

И.П.Калошинанинг ёзишича, К.Тейлор ўтган асрнинг 60-йилларда ижодкорликни тушунтирувчи 60 та илмий ёндошувларни аниқлади ва уларни соф психологик мазмундаги олтита турга ажратишга муваффақ бўлган: гештальт ёндашув, инновацион ёндашув, эстетик ёки экспрессив ёндашув, психоаналитик ва динамик ёндашув. Қайд этилган мазкур ёндашувлар ижодкор шахсга тегишли кўплаб психологик хусусиятларни очиб беради[2,64].

Рус олимаси М.А. Холодная эса, “ижодкорлик” феноменини кенг ва тор маънода кўриб таъкидлаб ўтади. Тор маънода ижодкорлик бир хил муаммо билан боғлиқ бўлган, бир нечта тўғри ғояларни тақдим этишга қаратилган фикрлаш жараёнидан. Кенг маънода эса, ижодкорлик – бу интеллектуал янги ғояларни киритиш, янги муаммоларни қўйиш ва ҳал қилиш, бўшлиқлар ва қарама-қаршиликларни тез тушуниш, фаразларни таклиф қилиш, шунингдек, стереотипли фикрлашдан воз кечиш қобилиятидир[3,71].

Айтиш жоизки, хорижлик психологлар ижодкорлик масаласини тўрт жиҳат: ижодий жараён, ижодий маҳсулот, ижодкор шахс ва ижодий муҳит нуқтаи-назаридан кўриб чиқдилар. Ижодий муҳит деганда, ижодий маҳсулотларга талабларни шакллантирувчи тузилма, ижтимоий ҳолатлар, вазиятлар тушунилади. Қатор илғор психологик адабиётлар таҳлили асосида, олимлар муаммонинг умумий мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб, “ижодкорлик” тушунчасига ўзига хос тарзда ёндашганликларини кузатиш мумкин. Жумладан, шахс - мотивация масаласидаги муаллифлар (А. Адлер, Т. Амбаил, Р.Ассаджиоли, В.Дружинин, А. Маслоу, Г. Оллпорт, К. Роджерс, Н. Хазратова, К. Юнг кабилар, ижодкорликни шахс-мотивацияон тузилмаси мазмунида кўриб чиқишган. Яъни шахс тушунчаси, шахсий ривожланиш мотивацияси, ўзўзини фаоллаштириш, ўз устида ишлаш қобилияти кабилар ижодкорликни таъминловчи психологик механизмлар сифатида эътироф этилган.

Бошқа бир олимлар гуруҳи Д.Богоявленская, Е.Уорд, В.Давидов, А.Матюшкин, Й.Пономаревлар эса, ижодкорликни, унинг босқичлари, интуиция, нотсандарт қарор қабул қилиш, ижтимоий-маданий жиҳатдан етуклик каби компонентлар орқали тушунтиришга ҳаракат қилишган. Шулар қаторида, Д.Воллас, Х.Груббер, Ж.Накамура, Д.Лаверт, С.Медник, Р.Стернберглар, ижодкорликнинг асл илдизи ва унинг намоён бўлишини ижтимоий муносабатларнинг ривожланганлиги, маданий муҳит натижаси ҳамда генетик асосга эгалиги, кабилар орқали тушунтиришга уринганлар.

Тадқиқочилардан Б.А. Оспанова университет таълим тизимида бўлажак мутахассисларнинг ижодкорлигини шакллантиришнинг педагогик-психологик асосларини ўрганган[4,24]. М.А.Холодная ўзининг “Концептуал фикрлаш психологияси”

монографиясида, қатор хориж тадқиқотчилари томонидан “ижодкорлик”ка берилган таъриф ва тушунчаларни таҳлил қилиб, уларни умумлаштириб, шундай дейди: “Ижод - бу янги усулда амалга оширилган идрок оқими (Маккеллар), янги алоқаларни топиш қобилияти (Куби), янги муносабатларнинг пайдо бўлиши (Роджерс), янги асарлар яратиш (Мюррей), уларни кашф қилиш ва ўрганиш (Лассуэл), янги қарорларга олиб келадиган ақлий фаолият (Жерард), тажрибани янги концепцияга ўтказиш (Тейлор), янги юлдуз туркумлари иллюзияси (Гиселин)” [5,82].

Аммо кўплаб тадқиқотчилар ижодкорликни таърифлашда инсоннинг ўзига хос хусусияти ёки сифатига эътибор беришади. Дж. Гильфорднинг фикрича, ижодкорлик ва ижодий потенциал муваффақиятли ижодий фикрлашга ҳисса қўшадиган қобилиятлар ва бошқа хусусиятлар тўпламидир.

Ҳозирга қадар, ижодкорликни янги маҳсулот ёки ижодий фикрлаш натижаси деб таърифлайдиган олимлар гуруҳи учраб турмоқда. Мисол учун, Т.И.Курасованинг айтишича, “Ижод – билим, ҳаракат ва истакнинг тўлиқ очиб берилишидир” [6,69]. Замонавий психологик тадқиқотларда ҳам, “ижодкорлик” тушунчаси шахснинг интеллектуал ва мустақил муаммоларни ҳал этиш, ўзига хос ғояларни ифодалаш ва уларни бошқача тарзда ҳал этиш хусусиятлари тўплами сифатида эътироф этилмоқда. Демак, илгари олиб борилган тадқиқотлар ва ҳозирги тадқиқотларда “ижодкорлик” муҳим ва алоҳида ҳодиса - яъни шахснинг интеллектуал ва шахсий хусусиятлари сифатида эътиборга олинмаганлигини кўриш мумкин. Аксарият тадқиқотларда, асосий эътибор ижодийликнинг психологик механизмлари ва ижодий салоҳиятнинг миқдорий ва сифат хусусиятларига қаратилган.

Тадқиқотчилардан Т.А.Барышева ҳамда Ю.А.Жигаловларнинг хулосаларига кўра, “ижодкорлик” бу – кўп босқичли, кўп ўлчовли ақлий тузилма бўлиб, у интеллектуал салоҳият, мотивация, эстетик ривожланиш даражаси, экзистенциал эҳтиёжлар, коммуникатив компетенция каби муҳим хусусиятлар билан узвий боғлиқ жараёндир [7,99]. В.Г.Каменская ва И.Е. Мелниковалар ижодкорликни – янги моддий ва идеал маҳсулотлар ишлаб чиқаришда, қатор ижодий қобилиятларга эга бўлган, шахснинг ўзига хос хусуситялари сифатида тушунадилар [8,113]. Бошқа бир тадқиқотчилар С.И.Макшанов ва Н.Ю.Хряшчевалар “ижодкорлик”ни конструктив, ностандарт фикрлаш ва хулқ-атвор, шунингдек, ўз тажрибасини тушуниш ва ривожлантириш қобилияти деб таърифлаган. Шунингдек, ижодкорлик – фантазияга бойлик ва ҳазилни тушуна олиш, юксак эстетик қадриятларга содиқлик кабиларда намоён бўлишини алоҳида таъкидлашадилар [9,63].

Юқорида келтирилган маълумотлардан шуни англаш мумкинки, ижодкорликка таъриф беришда муаллифлар унга бир қанча фарқларни қўшиб, янгича сифат беришга уринганлар. Тадқиқотчилардан А.И.Серанов ижодкор шахсга берилган кўплаб сифатларни таҳлил қилиб, уларни қуйидаги тартибда тизимлаштиришга ҳаракат қилади [10,58]:

1. Интуицияга бойлик;
2. Когнитив фаоллик;
3. Продуктив фикрлаш;
4. Ассоциацияга бойлик;
5. Ностандарт фикрлаш қобилияти;
6. Ахборотни махсус кодлай олиш;
7. Маънавий интеллектнинг юқори даражаси
8. Кузатувчанлик;
9. Мавжуд билимлар доирасидан ташқарига чиқа олиш;
10. Муаммони, вазиятларни, номаълумликни тезда ҳал қилиш қобилияти.

Таъкидлаш жоизки, агар ижодкорлик тавсифланган сифатлардан фақат биттаси билан изоҳланса, муаммо фақат бир томонлама бўлиб қолиши табиийдир. Шахснинг ижодкорлиги билимларнинг тўлиқлиги билан эмас, балки идрок этиш, муаммоларга сезгирлик, янги ғояларни қабул қилиш ва янгиларини яратиш учун ўрнатилган стереотипларни ўзгартириш,

ҳаётий муаммоларнинг кутилмаган ва тасодифий ечимларини топиш билан ҳам характерланади. Умуман олганда, юқорида таҳлил этилган адабиётларнинг таҳлили, ижодкорликни икки йўналишда кўриб чиқиш мумкинлигини кўрсатди: психик жараёнлар негизида ва ҳаётга ижодий ёндашиш. Агарда, ижодкорликни ахборотларни конструктив қайта қуриш ва субъектив ва объектив муҳим инновацион натижаларни яратиш, жараёни сифатида кўриб чиқсак, унда “ижодкорлик” яратувчанликнинг субъектив белгиловчиси, тизимли ақлий тузилма сифатида таърифлашимиз мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, “ижодкорлик”, “яратувчанлик” сифатлари инсон психик ҳаётининг барча соҳаларида (идрок, фикрлаш, мулоқот, касбий фаолият, ўз-ўзини такомиллаштириш) ва даражаларида намоён бўлади. Яъни, бу ҳолатни шахс - жараён – натижа сифатида тасаввур этиш мумкин. Шу билан бирга, “ижодкорлик” жараёнини икки хил йўналиш – яратиш ва бузиш ҳолатида ҳисобга олсак, унда инсоннинг ижодий хулқатворини “ижодий ҳалокат” деб ҳисоблаш мумкин. Шу боисдан алоҳида таъкидлаш жоизки, ижодий фаолият жараёнида ҳар шахснинг мақсадга интилувчи ўзига хос индивидуал психологик хусусиятлари мавжуд бўлиб, масалани ечимига ҳаётий- психологик ва тизимли инновацион ёндошув орқали ҳаракат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида” ПФ-27-сон Фармони. 28.02.2023. https://lex.uz/docs/6396146
2. Калошина И.П. Большая теорема Ферма и психология творчества: Монография. / И.П. Калошина. - М.: Юнити, 2014. – 319 с.
3. Психология интеллекта: парадоксы исследования / М.А. Холодная - СПб., 2002. – 273 с.
4. Оспанова Б.А. Педагогические основы формирования креативности будущего специалиста в системе унивеситетского образования: автореф... док. пед. наук: 13.00.08. – Туркестан, 2006. – 43 с
5. Холодная М.А. Психология понятийного мышления: От концептуальных структур к понятийным способностям. – М.: Институт психологии РАН, – 2012. – 288 с.
6. Курасова Т. И. Проблема творчества в контексте научного знания [Текст] / Т. И. Курасова // Вестник МГУКИ. – 2012. – № 1. – С. 69-73.
7. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. М.: Детство-Пресс, 2006. – 205 с.
8. Каменская В.Г., Мельникова И.Е. Психология развития: общие и специальности. СПб: – 2008. –368
9. Макшанов С.И., Хрящева, Н.Ю. Психогимнастика в тренинге. Часть 2. Тренинг сензитивности /С.И. Макшанов, Н.Ю. Хрящева. - М.: 2003. – 110 с.
10. Серанов А. И., Шаронова П. А. Проблемы исследования творчества. Психология XXI века: Материалы Международной межвузовской научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. СПб., 2005. – С.58 – 59.

К ВОПРОСУ ОБ ИДЕОЛОГИЗАЦИИ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1920-1930- ГГ.

Ишанходжаева З.Р.
Национальный Университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека
Д..и.н., проф.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос идеологии сферы культуры в Узбекистане в 1920-1930-е годы. Опираясь на исторические данные, автор на основе имеющейся научной литературы исследовал и проанализировал специфические аспекты проблемы идеологии сферы культуры в Узбекистане в 1920-1930-е годы.

Ключевые слова: 1920-1930-е годы, Узбекистан, сфера культуры, идеология.

Abstract: This article talks about the issue of ideologizing the sphere of culture in Uzbekistan in the 1920s and 1930s. Based on historical data, the author studied and analyzed specific aspects of the issue of ideologizing the sphere of culture in Uzbekistan in the 1920s and 1930s on the basis of existing scientific literature.

Key words: 1920s-1930s, Uzbekistan, cultural sphere, ideologization.

Культурная политика большевиков в 1920-х 1930-х годах в Узбекистане был направлена на создание новой советской культуры и привнесение революционных идей в узбекское общество. Одной из главных целей политики было разрушение традиционной узбекской культуры и замещение ее советской идеологией. С установлением советской власти в Узбекистане началась системная эскалация большевиками своей идеологии. В реализии этих планов принципиальное значение отводилось большевистским руководством налаживанию массовой культурно-просветительской и политиковоспитательной работы. Культурно-просветительские учреждения, по словам Ленина, должны были стать ведущими государственными органами пропаганды коммунизма, опорными пунктами в марксистского просвещения и коммунистического воспитания масс. Он разработал теоретические основы и программу практической деятельности культурно-просветительских учреждений по насаждению «пролетарской» моноидеологии[1].

Между тем, к моменту Октябрьского переворота в Туркестане действовала разветвленная сеть разнообразных очагов культуры и просветительских учреждений. Особенно широкий размах их организация приобрела после победы февральской демократической революции. В частности, вдохновленные идеей «культурнонациональной автономии», джадиды создали национальную организацию «ШуроиИсламия», филиалы которой действовали по всему краю. Кроме того, повсеместно создавались небольшие национальные группы и общества либерально-демократического толка. Так, в первые месяцы революции в одном только Ташкенте было образовано около 20 таких организаций и кружков[2].

5 марта в старом городе Ташкента по инициативе национальной интеллигенции был создан «Комитет туземцев», 8 марта – общество учителей, врачей, приказчиков, служащих. В Андижане образовались такие общества, как «Озод халк» («Свободный народ»), «Хуррият» («Свобода»), «Марифат» («Знание»), «Муфтахаль-маориф» («Ключ к просвещению»), «Маорифат ва шариат джамияти» («Общество свободы, просвещения и шариата»), «Илятия» («Кочевник»), в Намангане – «Джамият исламия» («Общество исламистов»), в Каттакургане – «Равнакуль-ислам» («Развитие ислама»), «Иттихад ва тараки» («Единение и прогресс»), в Ходженте «Муилат-талибин» («Организация студентов»), в Самарканде –»Мураввадж-уль-ислам» («Развитие ислама»).

Эти общества ставили своей целью просвещение народа, открытие новых школ, устройство библиотек и читален, издание газет на национальном языке, ознакомление населения с политическими событиями и т.д.

Многие мусульманские организации и общества начали издавать свои периодические печатные органы. В Ташкенте, например, выходили газеты: «Туран», «Турк-эли» («Родина тюрков»), «Наджат» («Освобождение»), позже преобразованная в «Кенгаш» («Совет»), «Шурои-ислам» («Совет Ислама»), «Улуг Туркестон» («Великий Туркестан»), в Самарканде – «Хуррият» («Свобода»), в Бухаре – «Бухоро-и-Шариф» («Священная Бухара»), в Коканде – «Садои Фаргона» («Голос Ферганы»), «Тирик суз» («Живое слово»), журнал «Хуррият», в Фергане – «Фаргона нидоси» («Призыв Ферганы»)[3]. Все эти газеты и журналы на своих страницах пропагандировали идеи национального единства, свободы, социальной справедливости.

Иными словами, при всех противоречиях «февральского обновления» наблюдались реальные демократические процессы, способствующие росту национального самосознания, развертыванию национально-освободительного движения.

Но с установлением советской власти все национальные организации были обвинены в «буржуазном национализме», «панисламизме» и «пантюркизме» и запрещены. А многие видные представители национальной интеллигенции подверглись политическим гонениям[4].

Решительное преследование религиозных и «буржуазно-националистических» культурно-просветительских учреждений переплеталось с акциями «социалистического обобществления» ранее существовавших «очагов культуры», их переориентации на службу упрочения «диктатуры пролетариата». Так, уже в 1918–1919 гг. были национализированы все театры, публичные, общественные, городские и наиболее крупные частные библиотеки, которые после соответствующей идеологической ревизии были объявлены «народными». Их книжный фонд комплектовался исключительно из литературы, отвечающей критериям советского режима.

Параллельно проводилась масштабная работа по созданию специфических советских культурпросветучреждений: клубов, народных и рабоче-дехканских домов, избчитален, красных чайхан, красных юрт. В целом к середине 20-х гг. в Туркестане насчитывалось 177 библиотек, 97 клубов, 76 красных чайхан, 172 избы-читальни и пр[5].

Широкое распространение получила такая форма культурно-идеологической работы, как громкие читки большевизированных газет, журналов, брошюр, которые проводились в чайханах, на базарах и других общественных местах. Для проведения культпросветработы партийные организации и Советы создавали специализированные культпросветотряды; в их организации деятельное участие принимали также профсоюзные и комсомольские организации, политотделы Красной армии.

Пристальное внимание центральное правительство уделяло подготовке в крае соответствующих идеологических и партийно-советских кадров, работников «культурного фронта». Кадровая политика советской власти исходила из ленинских требований глубокой марксистской идейности, высокой партийности, непримиримости к «буржуазной» идеологии. Для решения этих целевых задач в Туркестане стали создаваться совпартшколы и коммунистические университеты.

После национально-территориального размежевания Средней Азии и образования Узбекской ССР стратегическая линия на активное использование культурнопросветительных учреждений в деле насаждения идеалов социализма и идеологии марксизма в широкие народные массы не только сохранилась, но и пополнилась новыми формами. Одновременно усилились процессы их тотализации, сопровождаемые масштабным идеологическим наступлением, принудительным внедрением в общественное сознание канонов коммунистического учения.

Отличительной особенностью второй половины 20-х гг. в деятельности культурнопросветительских учреждений стало их активное использование в так называемом «идейном разоблачении национализма, как важного условия борьбы за чистоту марксистско-ленинской теории».

Причем в среднеазиатских республиках «борьба за чистоту марксистско-ленинской теории» в первую очередь увязывалась «с преодолением идеологии национализма». Как, к примеру, указывалось на I съезде Компартии Узбекистана (февраль 1925 г.), «…после национально-территориального размежевания возник ряд моментов в общественнополитической и экономической жизни республики, которые создали условия для оживления местного национализма». Они виделись в том, что вызванный после образования Узбекской ССР «подъем национально-государственного самосознания трудящихся Узбекистана может быть использован враждебными… слоями для развития панисламизма, пантюркизма, национал-шовинизма и пр., т.е. в конечном счете для борьбы с властью советов»[6].

Как и система народного образования, культурно-просветительские учреждения советского типа изначально были призваны стать важнейшими составными тоталитарной идеологической машины, нацеленной на отформовку преданных коммунистическому строю «верных бойцов партии», на подрыв национального самосознания и искоренения любых форм инакомыслия.

Решение этой задачи осуществлялось методом «социалистической перековки». Они включали, с одной стороны, повсеместную ликвидацию «дореволюционных» образовательных и культурно-просветительских структур, силовое насаждение новых образований, полностью подконтрольных правящей союзной политической элите. С другой – физическое уничтожение мыслящей части общества, в том числе работников культурно-просветительских организаций, народного образования и просвещения, проявлявших свободолюбивые устремления.

Тотализация духовной сферы трагически сказалась на деятельности высшей и средней школы, культурно-просветительных учреждений. Они во многом утратили свои исконные функции гуманистического просвещения народа. Тем не менее, даже находясь в условиях тотального контроля, многие представители учительского корпуса, работники культурно-просветительских учреждений стремились отстоять национальные интересы, донести до широких масс исконные национально-духовные ценности, содействуя тем самым духовному прогрессу народа. Особенно зримо это проявилось в начале 1920-х годов и в период Второй мировой войны, когда сталинский режим вынужден был пойти на отдельные идеологические послабления. К этому вопросу автор намерен вернуться в последующих работах.

Проводимая большевиками культурная политика большевиков также вызывала определенное сопротивление у узбекского населения. Многие представители населения придерживались традиционных ценностей и не желали отказываться от своей культуры в пользу советской. Большевики сталкивались с недоверием со стороны узбекского населения, что иногда приводило к беспорядкам и конфликтам.Таким образом, культурная политика большевиков в 1920-х годах в Узбекистане была направлена на внедрение советской культуры и идеологии, но встречала сопротивление и не всегда была успешной в своих целях.

Материалы данной статьи свидетельствуют о том, что, несмотря на все трудности, которые стояли перед народом, мечта о свободной жизни никогда не оставляла национальных патриотов. Она рождала у них энергию движения к независимости.

Литература:

1. К народностям советского Востока. Обращение (ЦИК Союза СССР) к народностям, населяющим национальные республики области Советского Востока // Коммунистка. – 1925.- №3. – 3-5.
2. Кенгаш. 1917. 19 июля.
3. ЦГА РУз, ф.и.–22, оп.1, д.1343, л. 39, 90.

4. Характерны документы этой эпохи, определявшие политические репрессии. См, например, РГАНИ.

5. Ф.107. Оп. 1. Д. 48. Л. 42-90. Документ №13 Протокол № 11 заседания Комиссии Политбюро ЦК КПСС по дополнительному изучению материалов, связанных с репрессиями, имевшими место в период 30-40-х и начала 50-х гг., с приложениями 29.05.1990 РГАНИ. Ф. 107. Оп. 1. Д. 48. Л. 42-90. Подлинник. Машинопись. Опубликовано в сокращенном и отредактированном варианте: Известия ЦК КПСС. 1991. -№ 3. С. 75–85.

6. 2001–2010 Архив Александра Яковлева. - http://www.alexanderyakovlev.org/personal-archive т. См. также

7. Мустафо Базаров.Советская религиозная политика в Средней Азии. 1918–1930 гг. Роль России в подавлении Джадидского движения (по материалам архива СНБ Узбекистана). Шерали Турдиев, старший научный сотрудник Института литературы им.Алишера Навои АН Узбекистана. (Переписала из архива КГБ

8. Узбекистана дочь Саида Ахрари – переводчик, член Союза писателей СССР Халида Ахрари, 18.XI.91 г.). Роль России в подавлении Джадидского движения (по материалам архива СНБ Узбекистана)

9. Тилеукулов С., Голованов А.А., Оразымбетов Ш., Косанбаев С. Туркестан на историческом повороте 1917–1920 гг. –Ташкент: Абдулла Кадыри "Халк мероси", 2002. – С. 158

10. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях… Т.1.– Ташкент, 1987. – С.18

ЯНГИ МАЪНАВИЙ МАКОННИ ЯРАТИШДА МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ИЖТИМОИЙ ВАЗИФАЛАРИНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ

Бобожонова Дилором
тарих фанлари доктори, профессор
(Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети)
90/185-58-54 *d.babajanova@uzswlu.uz*

Аннотация: В данной статье речь пойдет о трансформации социальных задач культуры и искусства в создании нового духовного пространства. Автор исследовал и анализировал специфические аспекты трансформации социальных задач культуры и искусства при создании нового духовного пространства на основе имеющейся научной литературы, опираясь на исторические данные.

Ключевые слова: новое духовное пространство, культура, искусство, социальные задачи, трансформация.

Abstract: This article talks about the transformation of the social tasks of culture and art in the creation of a new spiritual space. Based on historical data, the author studied and analyzed specific aspects of the transformation of the social tasks of culture and art in creating a new spiritual space based on existing scientific literature.

Key words: new spiritual space, culture, art, social tasks, transformation.

Янги Ўзбекистон тараққиётнинг янги босқичига қадам қўяётган, шиддат билан ўзгариб бораётган, Учинчи Ренессанс пойдевори яратилаётган ҳозирги даврда буюк алломалар бой меросини чуқур ўрганиш ва уни кенг жамоатчиликка етказиш масалалари устувор вазифалардан бирига айланган. Кўп йиллар давомида ўзбек халқининг миллий-маданий тарихий мероси, замонавий цивилизация ривожланишининг халқаро, миллий, маданий, тарихий, цивилизацион, табиий-илмий, ижтимоий гуманитар, маънавий, лисоний, фалсафий муаммолари борасидаги ижтимоий вазифалар қўйилаётган бир жараёнда янги маънавий

маконни яратиш билан боғлиқ масалалар тобора долзарблик касб этмоқда ва бу масала келгусида ҳам долзарб бўлиб қолаверади.

Янги маънавий маконни яратишда, мамлакатнинг барқарор ривожланиши ва тараққий этишида маданият ва санъат соҳасининг трансформация жараёнлари катта ўрин тутади. Келажак сари ташланаётган дадил қадамлар бардавом бўлишини таъминлашда дунёда ўзига яраша юксак салоҳияти, беназир нуфузига мос равишда ўрин эгаллаётган мустақил Ўзбекистон аталмиш давлат бор экан, бу юртда ана шу номга муносиб миллат яшаётгани, бу юртда унинг ота-боболари, авлод-аждодлари, буюк зотлари яшаб ўтган. Айни пайтда, бу борада тўпланган тажриба, ана шу буюк зотларнинг бебаҳо мероси ҳамиша миллат бошини баланд, қаддини тик қилади, бағрикенг ўзбек халқини олға етаклайди. Миллатнинг руҳияти, кайфиятига қанот беришга арзирли ноёб асарлар нафақат жамиятнинг гуллаб-яшнаши, балки келгуси вазифаларнинг ҳам самарали бўлишига ижобий таъсир кўрсатади. Чунончи, “...халқлар тарихида ўзига хос туб янгиланиш даврлари борки, бундай замонларда муайян миллат даҳоси, унинг ўз салоҳиятини намоён этишга интилиши, яратувчанлик фаолияти энг юксак чўққиларга кўтарилади”[1]. Бинобарин, неча-неча аждодларимиз орзу қилиб ўтган мана шундай буюк ишларни амалга ошириш, бундай бахт ва шарафга мушарраф бўлиш бугунги авлодга насиб этди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “...биз жонажон Ватанимизга бўлган чексиз меҳримиз ва садоқатимизни муқаддас байроқ қилиб, бор билим ва тажрибамиз, ақл-заковатимизни ишга солиб, ягона халқ, ягона миллат бўлиб, кўзлаган эзгу мақсадларимизга албатта етамиз. Янги Ўзбекистон жаҳон майдонида кучли салоҳият, муносиб обрў-эътиборга эга бўлган, ҳар томонлама обод ва фаровон мамлакатга айланади”[2]. Зеро, 2017 йил 3 августда Президент Ш.Мирзиёевнинг бир гуруҳ ижодкор зиёлилар билан бўлган учрашувида нуфузли олий ўқув юртларига кириш имтиҳонларини ижодий суҳбат шаклида ташкиллаштирилгани, болалар мусиқа ва санъат мактабларига таниқли маданият ва санъат арбобларини раҳбар этиб тайинлангани, республика даражасидаги маданият ва санъат муассасаларининг молиявий мустаҳкам идоралар жамоалари билан “Дўстлик клублари” шаклида фаолият кўрсатишларига имкон яратилгани, Фарғона водийсида Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтининг Фарғона филиалининг ташкил этилгани, ҳозирги кунда эса Фарғонада худди Тошкент шаҳридаги Адиблар хиёбони сингари санъаткорлар хиёбони барпо этилгани янги маънавий макон яратишда маданият ва санъат ижтимоий вазифаларининг амалга оширилиши ана шу эзгу ва хайрли ишлар жумласига киради.

Президент Ш.Мирзиёев “Янги Ўзбекистон стратегияси” номли китобида янги маънавий макон тушунчасига таъриф бериб, шундай таъкидлайди, “...биз орзу қилаётган Янги Ўзбекистоннинг маънавий қиёфаси яққол акс этадиган, халқимиз интилаётган ва эл-юртимиз бахтиёр яшайдиган маърифатли жамиятдир”[3]. Зеро, энг юксак инсоний фазилатлар ва илму ирфон, маърифат ва истеъдод асосида янги маънавий маконни яратиш борасидаги ушбу даъват айнан буюк аждодларимиз колдирган маънавий-аҳлоқий таълимотлар уйғунлигидир.

Ўзбек халқи маданий меросининг ажралмас қисми бўлган миллий мақом санъати ўзининг қадимий тарихи, теран фалсафий илдизлари, бетакрор бадиий услуби ва бой ижодий анъаналари билан маънавий ҳаётимизда алоҳида муҳим ўрин эгаллайди.

Айни пайтда миллий ўзликни англаш, маданиятимизни ҳар томонлама ривожлантириш, халқимиз, аввало, ёш авлодни юксак инсоний туйғулар руҳида тарбиялаш, унинг эстетик диди ва тафаккурини шакллантиришда мақом санъатининг кенг имкониятларидан етарлича фойдаланилмаётгани, мазкур йўналишда зикр этилган камчилик ва муаммоларни бартараф этиш, ўзбек мақом санъатини чуқур ўрганиб, ўзига хос ижро мактаблари ва анъаналарни янги босқичда равнақ топтириш, унинг “олтин фонди”ни яратиш ва бойитиш, халқаро нуфузини ошириш ва кенг тарғиб қилиш, шунингдек, ўн икки асрдан бери мумтоз куй-қўшиқларни ардоқлаб келаётган, миллийликнинг юксак намунаси ҳисобланган мақомни келгуси авлодга безавол етказиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3391-сон қарор[4] миллий мусиқа санъати,

мақом санъати саҳифаларига олтин ҳарфлар билан ёзилди. Қарорга биноан, 2018 йилдан бошлаб соҳада фаол ижод қилаётган санъаткорларни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш мақсадида “Энг яхши мақом хонандаси”, “Энг яхши мақом созандаси”, “Энг яхши мақом устози”, “Энг яхши мақом тарғиботчиси”, “Энг яхши ёш мақомчи” каби номинациялар бўйича мукофотлар таъсис этилди. Жумладан, Шаҳрисабздаги Халқаро мақом санъати анжумани эса ушбу нодир санъат байрамини дунё эътирофига ҳавола этди. Анжуманда кўрсатилган барча номинациялар бўйича ғолиблар аниқланди.

Асрлар давомида улуғ шоир ва олимлар, моҳир бастакорлар, ҳофиз ва созандаларнинг машаққатли меҳнати ва фидоийлиги, ижодий тафаккури билан сайқал топиб келаётган ушбу ноёб санъат нафақат юртимиз ва шарқ мамлакатларида, балки дунё миқёсида катта шуҳрат ва эътибор қозонган. Мақом санъатининг гултожи бўлган “Шашмақом” ЮНЕСКО томонидан инсониятнинг номоддий маданий мероси сифатда эътироф этилгани катта тарихий воқелик бўлди. Мамлакатимизда мақом санъатини ўрганиш ва ривожлантириш борасида муайян ишлар амалга оширилди. Айниқса, ўзбек “Шашмақоми” нота матнларининг нашр этилиши ва уларга мувофиқ равишда мақом куй-қўшиқларининг магнит ленталарга ёзиб олиниши улкан илмий-маданий аҳамиятга эга воқеа бўлди. “Шашмақом”ни Европа мамлакатларида мусиқа мутахассислари, ихлосмандлари ҳам турли концерт ва фестивалларда тинглаб, баҳолаб келади. Уни Германия, Франция мусиқа мутахассислари тадқиқ қилиб, ҳатто чанг созида иштиёқ билан ижро этиб бермоқдалар.

Юнус Ражабий номидаги Мақом ансамбли, ҳудудларда мақом жамоалари, Ўзбекистон давлат консерваториясида шу йўналишда махсус кафедра фаолият кўрсатаётгани, соҳага оид илмий изланишлар олиб борилаётгани, ҳудудларда ихтисослаштирилган мақом мактаблари очилгани ўзбек мақоми ривожига ҳали катта самаралар келтиради, дея фахрланиб эътироф этади Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, таниқли дирижёр Камолиддин Ўринбоев. Шунингдек, Ўзбекистон Қаҳрамони Муножот Йўлчиеванинг Франциядаги бетакрор концертлари ўзбек санъатини, мақомини хорижий мамлакатларда катта олқишлар билан кутиб олинаётганини таъкидлаш жоиз.

Маълумотларга кўра, юртимизда 8 мингдан зиёд маданий мерос объекти мавжуд бўлиб, шундан ЮНЕСКОнинг Инсоният номоддий маданий мероси рўйхатига 10 та мерос–“Бойсун тумани маданий макони”, “Шашмақом” мумтоз мусиқаси, “Катта Ашула”, “Аския санъати”, “Наврўз”, “Палов маданияти ва анъаналари, Марғилон ҳунармандчиликни ривожлантириш маркази: (атлас – адрас), Хоразм рақси “Лазги”, “Миниатюра санъати” ва “Бахшичилик санъати” номзодлари киритилди.

Буюк сиймоларимиз номлари дунё илм-фани ривожига беқиёс ҳисса қўшганликлари боис, мангуликка дахлдордир. Уларнинг илму маърифат ўрганиш орқали оламни эзгуликка, тараққиётга етаклаш мақсадида авлодларга қолдирган буюк мероси инсоният учун бебаҳо хазинадир. Ана шу буюклар аждодларимизнинг бугунги авлодларга қолдирган илмий ва маънавий мероси беқиёс бўлиб, уларнинг интеллектуал салоҳиятини юксалтиришда муҳим омилдир.

Бугунга келиб дунёда ўзига яраша юксак салоҳияти, беназир нуфузига мос равишда ўрин эгаллаётган мустақил Ўзбекистон аталмиш давлат бор экан, бу юртда ана шу номга муносиб миллат яшамоқда. Бу юртда унинг ота-боболари, авлод-аждодлари, буюк зотлари яшаб ўтган. Дунёда миллатлар кўп, улар ичида буюк ва бой ўтмишга эга бўлган ўзбек миллати ҳам бор. Жаҳон аҳли Ўзбекистонга қараб, бизнинг миллат сифатидаги қиёфамизни, муқаддас динимиз, маданиятимиз ва миллий-тарихий қадриятларимизга хос бўлган бағрикенглигимизни кўради. Ҳозирги кунда Янги Ўзбекистон аталмиш юртимизга бутун дунёнинг нигоҳи қадалган, қадимий Янги Ўзбекистонда аждодларимиз, маданиятимиз ва маънавий қадриятларимизни жаҳон аҳли тан олаётган бир даврда тарихимиз, энг аввало ўтган буюк сиймолар халқ орасидан чиққан шу омма тақдири билан ҳамнафас аждодларимиз қолдирган бой миллий қадриятларимизни авайлаб-асраш ва ривожлантиришга, маърифатпарвар боболаримиз меросини чуқур ўрганиш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу боисдан ҳам, “аждодларимиз армонлари ўша даврда буюк зотларимиз:

“Имом Бухорий, Имом Термизий, Муҳаммад Хоразмий, Абу Наср Форобий, Аҳмад Фарғоний, Абу Мансур Мотуридий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино каби мутафаккир боболаримиз ҳаёти, фаолияти, асарларида ўз талқинини топган адолат ва адолатпарварлик ғояларида мужассам бўлди”[5], деб айта оламиз. Улар қолдирган улкан маънавий меросдан ўрнак ва ибрат олиб, бу ғояни ёшлар онгига тезроқ етказиш ҳамда уларнинг илмга, тарихимизга бўлган ҳурмат-эҳтиромини янада ошириш, уларда миллий ғурур шаклланишига имкон яратиш, шу билан бирга, ёшлар маънавиятини юксалтиришда маданият ва санъатнинг ҳам ролини ошириш нечоғлик қимматли эканлигини кўриш мумкин.

Янги Ўзбекистонда халқимиз, айниқса, ёш авлод онги ва дунёқарашини ислоҳотлар жараёнида илгари сурилаётган замонавий ғоялар асосида шакллантириш ҳамда янги маънавий маконни яратишда маданият ва санъат намояндаларининг ўрни ва таъсири беқиёсдир. Ҳар бир халқнинг санъати шу халқни дунёга танитади, жаҳон саҳналарида шу халқ номидан сўз айтишга, маданиятини янада бойитишга шароит яратади. Зеро, бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонининг 76-мақсадида “Маданият ва санъат соҳаларини янада ривожлантириш, маданият муассасалари ва объектларининг моддий-техника базасини яхшилаш. Театр санъатини ривожлантириш ва унинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш. Миллий маданиятни халқаро даражада оммалаштиришга қаратилган тадбирларни ҳудудларда ўтказишни жорий этиш. Ўзбек халқи маданияти ва санъатини ривожлантиришга муносиб ҳисса қўшган атоқли ижодкор зиёлилар юбилейларини муносиб нишонлаш, ҳаёти ва фаолиятини кенг тарғиб қилиш, хотирасини абадийлаштириш”[6] дан иборат масалалар қўйилгани ҳам бежиз эмас. Мамлакат пойтахти Тошкент шаҳрининг қоқ марказида ҳазрат Алишер Навоий ҳайкали пойида қатағон қурбонлари бўлган адибларимиз ва бошқа ёзувчи-шоирларга атаб “Адиблар хиёбони” бунёд этилди. Жумладан, фармонда кўрсатилган вазифаларга биноан Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Исҳоқхон Ибрат, Абдулла Қодирий, Чўлпон, Абдурауф Фитрат, Усмон Носир ва яна ўнлаб миллат фидоийлари ҳаётидан ҳикоя қилувчи бадиий ва ҳужжатли фильмлар яратилди. Адиблар хиёбонида ҳайкаллари ўрнатилган сўз салафлари Ғафур Ғулом, Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек, Ҳамид Олимжон, Зулфия, Саид Аҳмад ва Саида Зуннунова, Озод Шарафиддинов, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Муҳаммад Юсуфнинг қаторидан Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Муҳаммадризо Огаҳий, Бердимурод Қарғабой ўғли Бердақ, Муҳаммад Аминхўжа ўғли Муқимий, Зокиржон Холмуҳаммад ўғли Фурқат, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Абдулҳамид Сулаймон ўғли Чўлпон, Абдулла Қодирий, Тўлепберген Қайипбергенов, Иброҳим Юсупов каби адибларнинг ҳам ҳайкаллари жой олди.

Бугунги куннинг қарама-қаршилик ва зиддиятларини ҳал этиш йўллари ҳаққоний очиб берилган, замондошларимизнинг маънавий-руҳий қиёфаси таъсирчан акс эттирилган илмий ва бадиий асарлар, мусиқий, тасвирий санъат асарлари, замонавий инновацион ғоялар, педагогик технологияларни ҳаётга жорий этиш бўйича илмий, амалий ва услубий ишланмалар яратилиши замон талаби бўлиб турибди. Медиамаконда маданиятсизлик, ахлоқсизлик кўринишлари билиб-билмай тарғиб этилаётган бир пайтда уларга қарши курашиш, бундай маънавий таҳдидлар ортида қандай ғаразли мақсадлар яширингани, улар қандай оғир оқибатларга олиб келиши мумкинлигини англаган ҳолда, бу борадаги тушунтириш ишларини жадаллаштириш ҳам талаб этилади. Шу мақсадда, эскирган, зерикарли ва самарасиз усуллардан воз кечиб, ёшлар билан учрашув ва мулоқотни таъсирчан, янгича ноанъанавий усуллар асосида ўтказиш, халқимиз минг йиллар давомида шаклланиб келган қадриятларимизни кўз қорачиғидек асраб-авайлашимиз зарур. Ўтказилаётган ҳар бир ташвиқот-тарғибот ишларимиз халқимиз, аввало, ёшларимизда юксак ватанпарварлик, тотувлик ва ҳамжиҳатлик, миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини уйғотишга хизмат қилиши зарур.

Аждодларимиз ҳамиша шукроналик билан тинчлик, илму маърифат, меҳр-оқибат, бағрикенглик ва ҳамжиҳатликни, умуман олганда, юксак инсоний фазилатларни буюк неъмат сифатида қадрлаб келганлар. Улуғ алломалар, маърифатпарварлар инсоний фазилатлар

асосида ҳамиша пок ва ҳалол, виждонли, қадр-қимматини улуғлайдиган кишиларни, маданият ва санъат соҳибларини тарбиялайдиган маънавий маконни яратишга интилиб келганлар. Ҳозирги кунда тобора янгиланаётган Ўзбекистонга қараб, унинг куч-қудрати манбаи халқимизнинг умуминсоний қадриятларга содиқ эканлигини англаш қийин эмас. Мамлакатимизда ёшлар маънавиятини юксалтириш, ўтган буюк аждодлар хотирасини ёдда сақлаган ҳолда, эъзозлаб, юксак ҳурмат ва эҳтиром кўрсатиш, уларни ҳуқуқий, иқтисодий ва ижтимоий ҳимоялаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Бинобарин, янги Ўзбекистоннинг буюк неъмати бўлган эрки ва озодлиги халқимизнинг саъй-ҳаракати, баракали меҳнати ва ижодий фаолиятидан келиб чиқиш билан бирга, Турон заминда вояга етган ҳамда жаҳон цивилизациясига муносиб ҳисса қўшиб, ўз ғоялари, тафаккури билан ўзбек миллий ғоясига асос солган аждодларимизнинг бой мероси ва сермазмун тарихимизга, миллий қадриятларимизга ҳам таянади. Ҳар бир миллатнинг ўзига хос жиҳатларини, хусусан, маънавиятини юксалтиришда энг аввало, беқиёс таъсир кучига эга бўлган миллий-тарихий қадриятининг ўрни катта. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий, диний ва тарихий қадриятларнинг қайта тикланиши, буюк зотлар, хусусан, буюк алломаларнинг тарбияга оид таълимотларининг ўрни ва аҳамияти катта.

Республика Вазирлар Маҳкамасининг ЮНЕСКО ташкилоти тадбирлари доирасида 1996 йил 3 январда қабул қилинган “Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллик юбилейига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги қарори, Президентнинг 1997 йил 11 ноябрида эълон қилган “Хоразм Маъмун Академиясини кайтадан ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони, Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 23 сентябрдаги “Огаҳий таваллудининг 190 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги, 24 сентябрдаги “Жалолиддин Мангуберди таваллудининг 800 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарорлари асосида ўтказилган юбилейлар ана шулардир[7].

Президент Ш.Мирзиёевнинг 2018 йил 8-9 октябрь кунлари Францияга қилган расмий ташрифи Ўзбекистоннинг ЮНЕСКО билан ҳамкорлик алоқаларини янада кенгайтиришда муҳим аҳамият касб этди. Давлат раҳбари 8 октябрь куни Париж шаҳридаги ЮНЕСКО бош қароргоҳида ушбу ташкилот Бош директори Одри Азуле билан учрашди. Учрашувда ҳар иккала давлат раҳбарлари Ўзбекистон билан ЮНЕСКО алоқаларини ривожлантиришга қаратилган 2021 йилгача ҳамкорлик дастурини имзолашди[8]. Президент Ш.Мирзиёев ўшанда Ўзбекистон ва Франция маданий ҳамкорлигининг энг ёрқин ва самарали кўриниши сифатида кўргазма ташкил этиш, халқларимиз ўртасидаги илмий ва маданий алоқаларни кенгайтириш зарурлигини уқтирган эди. Натижада, Ўзбекистон маданият ва санъатини ривожлантириш жамғармаси билан бирга ўзаро маданий ҳамкорлик қилиш тўғрисида меморандум имзоланди. Ўтган қисқа даврда бу борада катта ташкилий ишлар қилинди. Ўзбекистон ва Франция маданият, фан ва санъат намояндаларининг сафарлари, ўзаро тажриба алмашиш ва ҳамкорлик асосида илмий изланишлар олиб борилди[9].

Манбаларга кўра, дунёда 100 минг атрофида музейлар бор. Юртимизда ҳозирги даврда 127 та музей мавжуд. Янги Ўзбекистон тарихини яратиш асносида, Қозоғистон, Россия, Германия, Италия, Саудия Арабистони, Франция каби давлатлар музейлари билан алоқалар тобора ривожланмоқда.

Ўзбекистондаги энг қадимги масканлардан бири – Хоразм воҳаси бўлиб, бу ер қадимий маданият марказларидан бири ҳисобланади, бу ўлканинг ёдгорликларга бой эканлиги олиб борилган археологик тадқиқотлар натижасида ўз исботини топган. Хоразм вилоятининг географик жойлашуви унинг қулай имкониятларга эга эканлигини англатади. Айниқса, Хива шаҳри ўзининг қадимий ёдгорликлари билан жаҳонга машҳур. Истиқлол йилларида вилоятдаги мавжуд тарихий, маданий обидаларни сақлаш, уларни таъмирлаш ва реставрация қилиш борасида кенг қамровли ишлар амалга оширилди. Вилоятда фаолият кўрсатаётган музейлардаги экспонатларни сақлаш ва улар устидан замонавий назорат тизимини ўрнатиш, музей ходимлари ва гидэкскурсаводлар малакасини ошириш борасида изчил равишда фаолият олиб борилмоқда.

Хоразм вилояти барча даврлардаги каби мустақиллик арафасида ҳам, мамлакатда энг кўп сайёҳ ташриф буюрадиган вилоят сифатида ўз ўрнига эга бўлган. Президент Ш.Мирзиёев таъбири айтганда, “Хоразм ноёб маданий ва тарихий обидалари, инфратузилма тармоқлари билан Ўзбекистоннинг юксак сайёҳлик салоҳиятига эга бўлган ҳудудларидан ҳисобланади”[10].

Хива шаҳрининг 2500 йиллигининг нишонланиши катта тарихий воқелик бўлди. Тарихий маданий обидалари ва зиёратгоҳларидан Ичан қалъа, Паҳлавон Маҳмуд мақбараси ва шу кабилар шаҳар кўркига кўрк бағишлайди. Шунингдек, Жалолиддин Мангубердининг 800 йиллиги, “Авесто” китобининг 2700 йиллиги, Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллиги билан боғлиқ юбилей тадбирлари халқаро миқёсда кенг нишонланиб, уларда хориждан ҳам кўплаб меҳмонлар иштирок этдилар[11].

Янги Ўзбекистонда тарихимиз, энг аввало ўтган буюк сиймолар халқ орасидан чиққан, шу омма тақдири билан ҳамнафас аждодларимиз, маърифатпарвар боболаримиз меросини чуқур ўрганиш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 августда “Буюк олим Абу Райҳон Беруний таваллудининг 1050 йиллигини халқаро миқёсда кенг нишонлаш тўғрисида”ги ПҚ-361-сонли қарори қабул қилинди[12]. ва унга кўра, буюк аждодимиз юбилей тантаналарини нишонлашга жиддий тайёргарлик кўрилиши ва муносиб нишонлашга доир вазифаларнинг белгиланиши айни муддао бўлди. Жумладан, 2022-2023 йилларда буюк мутафаккир, қомусий олим, табиатшунослик асосчиларидан бири Абу Райҳон Беруний мажмуаси қурилди, боғ барпо этилди, 8 жилдлик асарлари тўплами чоп этилди ва шу каби эзгу ишларбаробарида шу йилнинг 4 сентябрь куни аллома туғилган Беруний шаҳрида илмий конференция ўтказилди. Аллома ҳайкали ва рамзий қабри пойига гуллар қўйилди. Бу каби тадбирлар дунёнинг кўплаб мамлакатлари, жумладан Франция, Россия, Ҳиндистон давлатларда кенг нишонланди. Ўзбекистонда асосий халқаро миқёсдаги анжуман 2023 йил 25-27 сентябрь кунлари ўтказилди.

Дунё илм-фани ривожига ўзининг беқиёс ҳиссасини қўшган улуғ аллома Абу Райҳон Берунийнинг номи мангуликка дахлдор. Унинг илму маърифат ўрганиш орқали оламни эзгуликка, тараққиётга етаклаш мақсадида авлодларга қолдирган буюк мероси инсоният учун бебаҳо хазина, шу билан бирга, биз авлодларга қолдирган илмий ва маънавий мероси беқиёсдир.

Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг самарадорлиги, аввало, халқ маънавиятининг тикланиши, бой тарихий меросининг кенг ўрганилиши, ёшлар қалби ва онгига миллий ғоянинг чуқур сингдирилаётганлиги билан узвий боғлиқдир. Ўзбекистоннинг бугунги ёшлари шароит ва янги имкониятлардан унумли фойдаланган ҳолда, ўтмишда яшаб ўтган буюк алломалар ва устозлардан ибрат олиб иш юритсалар, жаҳон илм-фани ютуқларини тўлиқ эгаллайдилар, янги маънавий маконни яратишда маданият ва санъат ижтимоий вазифаларининг трансформациялашувига эришадилар, мамлакат тараққиёти ва юксалиши учун етук ва малакали кадрлар бўлиб етишадилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.–Тошкент:Ўзбекистон, 2021.–Б.5.
2. Янги Ўзбекистон–янгича дунёқараш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси асосида. Рисола. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2021. – Б.65.
3. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.–Тошкент:Ўзбекистон, 2021.–Б.276.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3391-сон қарори //https://lex.uz/docs/3581613.
5. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.–Тошкент:Ўзбекистон, 2021.–Б. 16.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони / https://lex.uz/pdfs/5841063.

7. Матниёзов М., Сотлиқов А. Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм. – Урганч: Хоразм, 1999. –98-б.
8. Шамсутдинов Р., Мўминов Ҳ. Ўзбекистон тарихи.–Тошкент:Фан” нашриёти. 2020.–Б. 433.
9. Оқил Салимов. Янги Ўзбекистон давлати.–Тошкент:Маънавият, 2023.–Б.218.
10. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз.–Тошкент:Ўзбекистон, 2017.–Б.255.
11. Сайёҳлик янада ривожланади. // Хоразм ҳақиқати, 2008 йил 13 декабрь, № 100 (18510) –Б. 1.
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Буюк олим Абу Райҳон Беруний таваллудининг 1050 йиллигини халқаро миқёсда кенг нишонлаш тўғрисида”ги ПҚ-361 сонли қарор www.xabar.uz › jamiyat › abu-rayhon-beruniy.

O'ZBEKISTONDA ROSSIYA FEDERATSIYASI BILAN TUZILGAN QO'SHMA KORXONALAR FAOLIYATI.

Davronova Mohigul Norpo’latovna
QarshiDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistondagi o‘zbek qo‘shma rus-o‘zbek qo‘shma korxonalarining yillar davomidagi tarixi haqida so‘z boradi. Muallif tarixiy ma’lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida O‘zbekistondagi o‘zbek qo‘shma rus-o‘zbek qo‘shma korxonalarining yillar davomidagi tarixi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: O’zbekiston, Rossiya, qo’shma korxonalari, investitsiya, hamkorlik.

Kirish (Introduction)

O’zbekiston Respublikasi barcha horijiy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish tarafdori bo‘lib, asosiy tashqi siyosiy harakatlarini qator ustuvor vazifalarni amalga oshirishga, jumladan davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’ekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O’zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, O’zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazishga qaratadi. O’zbekistonning ushbu tashqi siyosiy usuvor vazifalari barqaror, adolatli, demokratik davlat barpo etish, mamlakatimizning tashqi ochiqligini ta’minlash, mintaqaviy va ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

O’zbekiston tashqi siyosatining muhim usuvor yo‘nalishi bu - yetakchi xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik aloqalari muvozanatli strategik sheriklik tizimini shakllantirishdir. Bunday yondashuv iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, barqarorlik va xavfsizlikni saqlash, Markaziy Osiyoda hamkorlik qilish uchun qulay shart sharoitlar yaratish masalalarini samarali hal etishni ta’minlashga qaratilgan.

Asosiy qism (Main part):

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, keyingi yillarda O’zbekiston va Rossiya munosabatlarimizda chinakam ulkan yutuqlarga erishildi. Bosh vazirlar darajasidagi qo‘shma komissiya hamda Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya yig‘ilishlari muntazam o‘tkazilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar taraqqiyot cho'qqisida. Bu haqda Rossiya jurnalistlariga bergan intervyusida O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi rahbari Abdulaziz Kamilov ma'lum qildi. Biroq, uning gapiga ko'ra, mamlakatlar hali ishga solmagan imkoniyat va salohiyatlar talaygina. "30 yil davomida biz bunday keng ko'lamli va ikki tomonlama hamkorlikning bunday keng qamrovli dasturiga ega emas edik. Biroq, ayni paytda, ishga solinmagan

yana ham katta salohiyat qolmoqda. Zaxiralar. Shunday qilib, harakat qilish imkoniyati hali ham mavjud, biz munosabatlarimizni mustahkamlaymiz. Bu yaxshi", dedi vazir.

2017-yilda “Gumbuloq” va “Odamtosh” konlarida asosiy ishlab chiqarish va texnologik ob’ektlar hamda “Odamtosh” gazni tozalash majmuasi (GTM) ishga tushirildi va 1,8 milliard kub metr quvvatiga ega “Odamtosh” kuchaytirgich kompressor stansiyasi (KKS) qurilishi yakunlandi. 2018 yilda gaz qazib olishning loyihaviy quvvati yiliga 5 milliard kubga yetkazildi.

Buxoro viloyatidagi Qandim gazni qayta ishlash zavodi mamlakatimizda ilk bor jalb etilgan investitsiya loyihasi asosida qurilgan yirik korxona hisoblanadi. 2018-yilning 19-aprel kuni ushbu zavodning rasmiy ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etgan edi. Umumiy qiymati 3,5 milliard dollar bo‘lgan zavod qurilishi O‘zbekiston Respublikasidagi eng yirik “LUKOYL” neft korxonasi loyihasidir.

Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi ushbu yirik inshoot yiliga 8,1 milliard metr kub gaz ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ellik gektardan ziyod maydonda bunyod etilgan, zamonaviy muhandislik va yuqori texnologik infratuzilmaga ega noyob majmua hisoblanib, quvvati 4,05 milliard metr kub bo‘lgan 2 ta texnologik liniya mavjud. Mazkur majmuada gaz, barqaror gaz kondensati va oltingugurt ishlab chiqarilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Rossiya davlatlari neft-gaz va energetika sohalarida o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlamoqda. Joriy yilning 3 iyun kuni Sankt-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi doirasida O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri Alisher Sultonov rossiyalik hamkasbi Nikolay Shulginov bilan energetika sohasidagi hamkorlik masalalarini muhokama qilgani fikrimiz dalilidir.

Mazkur uchrashuvda tomonlar o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, Rossiya korxonalarining O‘zbekistondagi energetik loyihalarda joriy ishtiroki va istiqbollarini tahlil qildi. Rossiya energetika vaziri Nikolay Shulginov mazkur uchrashuvda ta’kidlaganidek, O‘zbekiston tom ma’noda Rossiyaning energetika sohasidagi uzoq muddatli hamkoridir. Mamlakatlar o‘rtasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama yaqin va barqaror aloqalar rivojlangan.

Energetika vazirligi matbuot xizmatining ma’lum qilishicha, Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida o‘tkazilgan xalqaro iqtisodiy forum doirasida “O‘ztransgaz” AJ va "Gazprombank" o‘rtasida 300 million dollarlik qisqa muddatli bridj-moliyalashtirish yuzasidan kelishuv imzolangan.

O‘tgan yili O‘zbekistonda yangi 2 922 ta chet el korxonalari o‘z faoliyatini boshlagan. Bu ko‘rsatkich so‘nggi uch yil uchun eng yaxshisi bo‘ldi. Mamlakatda faqatgina 2019-yilda 3,3 mingdan oshiq yangi xorijiy korxonalar tashkil qilingan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi va Rossiyaning “IKS Xolding” ko‘p tarmoqli AT-guruhi hamkorligi bilan energetika sanoatini raqamlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi ham ko‘zda tutilmoqda.

– O‘zbekistonni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bu mamlakat iqtisodiy barqarorligi bo‘lib, bu ko‘p jihatdan energetika sohasining rivojlanishiga bog‘liq, – dedi Energetika vaziri o‘rinbosari Sherzod Xo‘jayev.

– Rossiyaning “IKS Xolding” korxonasi ko‘magi bilan energetika sanoatini raqamlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar sanoatni raqamli o‘zgartirish jarayonining boshlanishi hisoblanadi. Bu iqtisodiyot va aholini energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalarni jadallashtiradi.

Muxtasar aytganda, mamlakatimiz neft-gaz va energetika sohalarini rivojlantirishda O‘zbekiston va Rossiya davlatlari o‘rtasidagi strategik sheriklik va hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi tizimni zamon talabi darajasida takomillashtirish bilan bir qatorda, o‘zbek xalqining turmush tarzini yaxshilash va farovon hayotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Joriy yilning 22 iyun kuni Moskva shahrida O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Hukumatlari rahbarlari darajasidagi Qo‘shma komissiyaning ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin raisligida o‘tgan ushbu yig‘ilishda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari aniq amaliy mazmun bilan boyitilgani ta’kidlandi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar yakunida erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi izchil ta’minlanayotgani qayd etildi. Vazirlik va idoralar o‘rtasida faol muloqot olib borilmoqda, o‘zaro tashriflar tashkil etilib, hamkorlikning yangi istiqbolli yo‘nalishlari aniqlanmoqda.

Ushbu munosabatlar faolligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiya Federatsiyasiga kutilayotgan davlat tashrifi kun tartibining amaliy mazmuniga ham hissa qo‘shishi alohida ta’kidlandi.

Hukumatlar rahbarlarining fikricha, O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik barqaror rivojlanib kelmoqda.

Pandemiyaga qaramay, yil boshidan buyon o‘zaro savdo o‘sishi ta’minlandi. Joriy yilning o‘tgan davrida savdo aylanmasi 2020-yilning shu davriga nisbatan 15 foizga oshdi.

2018-2021-yillarda O’zbekistonda Rossiya sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni ikki barobar ko‘payib, qariyb 3 mingtani tashkil etmoqda. Bugun yurtimiz iqtisodiyotida Rossiyadan jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10 milliard dollardan oshdi va jadal o‘sishda davom etmoqda.

2021-yilda O‘zbekistonda turk kapitali ishtirokida 407 yangi korxona tashkil qilindi va mamlakat bu borad birinchi o‘rinni egalladi. Ikkinchi o‘rinda Rossiya (356 korxona), uchinchi o‘rinda Xitoy (266) qayd etilgan.

Turkiya iqtisodiyoti so‘nggi yillarda iqtisodiy inqiroz tufayli qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Turkiyalik tadbirkorlari xalqaro bozorlarga chiqish orqali buni qoplashga harakat qilmoqda.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions):

O‘zbekistonda Rossiya sarmoyasi ishtirokida uch mingga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda. So’nggi yillarda ularning soni ikki baravar ko’paydi. «Kommersant» Rossiya Federatsiyasi tadbirkorlarini mamlakatimizga nima jalb qilishini aniqladi.

Magnit savdo tarmog’ining strategiya va investitsiyalar bo’yicha direktori Andrey Bodrov O’zbekistonda katta potensial mijozlar bazasi mavjudligini ta’kidladi.

«Mamlakat aholisi deyarli 40 million kishini tashkil etadi, u MDHdagi eng yirik (…) bozorlardan biridir. Bundan tashqari, yarmidan ko‘pi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir», — dedi Bodrov. Uning qo‘shimcha qilishicha, O‘zbekistonda aholi punktlari zich joylashgani, bu ham biznes uchun jozibador omil sanaladi.

LWM konsalting korxonasining boshqaruvchi hamkori Lenar Raxmanov nashrga rossiyalik tadbirkorlarni O‘zbekistonda ularga bo‘lgan munosabat maftun etishini aytdi.

«Ular (O‘zbekiston – Tahr.) maxsus iqtisodiy zona tashkil etib, unda ko‘plab korxonalarni, xususan, Tataristondan ham boshpana topishgan. Bu yerda korxonalar o‘z ofislari va ishlab chiqarish maydonchalarini ochishdi va bosh vazir o‘rinbosari darajasida katta lobbi pulini yig‘ishdi», deb tushuntirdi Rahmonov.

So‘rovda ishtirok etgan tadbirkorlar soliq imtiyozlari mavjudligi, omborlar va ishlab chiqarish maydonlarining yetarlichaligi, ijara haqining pastligi, arzon ishchi kuchi, umumiy standartlar va rus tilining keng qo‘llanilishini ham ta’kidlashdi.

«Asosiy afzalliklardan biri shundaki, pul hali ham oqib turibdi. Ya’ni, Rossiyada sanksiyaga uchragan banklar ro‘yxati mavjud bo‘lib, ulardan tranzaksiyalarni amalga oshirishning iloji yo‘q, biroq boshqa muqobil kredit tashkilotlarida hisob ochish va korxonangizning O‘zbekistondagi hisob raqamiga mablag‘ jo‘natish imkoniyati mavjud», — hamkor menejeri. «Relokod»da Kommersant Ilya Kurasov.

Qayd etilgan qiyinchiliklar orasida: Rossiyadagidan past daromad darajasi va aholining an’anaviy savdo shakllariga, masalan, bozorlarga sodiqligi.

2022-yil davomida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2018-yil bilan solishtirilganda 1,2 barobarga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko‘p chet el korxonalari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyatini boshlagan — 1 112 ta.

Davlatlar kesimida O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan Rossiya korxonalari qolganlarga qaraganda katta farq bilan yetakchilik qilmoqda — 3 156 ta. Xitoy (2 204) ikkinchi, Turkiya (2 141) esa uchinchi o‘rinda bormoqda.

Birgina 2022-yilning o‘zida 957 ta Rossiya korxonalari tashkil qilingan. Bu borada ikkinchi o‘rinda 369 ta korxona bilan Turkiya bormoqda. Uchinchi o‘rinda borayotgan Xitoyda mazkur ko‘rsatkich 275 tani tashkil qiladi.

O‘zbekistonda Rossiya korxonalarining keskin ko‘payishi ushbu mamlakat va Ukraina o‘rtasida bo‘lib o‘tayotgan urush oqibatlari bilan izohlanadi.

Urush boshlangandan keyin G‘arb davlatlari Rossiyaga nisbatan keskin sanksiyalarni qo‘llay boshladi. Bu esa mamlakat korxonalari uchun o‘z biznesini qo‘shni davlatlarga, xususan Markaziy Osiyoga ko‘chirish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Turkiyadagi iqtisodiy vaziyat ham O‘zbekistondagi yangi korxonalar sonini keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda.

2022-yilda O‘zbekistonda Rossiya kapitali ishtirokida 1 mingga yaqin korxona ochildi. Nashrning ta’kidlashicha, Rossiya Federatsiyasidan mamlakatimizga biznesning qiziqishi ortib bormoqda, ammo O‘zbekistonda tadbirkorlar hali boshqa davlatlar – Gruziya, Armaniston va Qozog‘istondagi kabi faol emas.

O‘zbekiston va Rossiya davlatlari o‘rtasida neft-gaz va energetika sohasidagi o‘zaro hamkorlik mustahkamlanib bormoqda. Ayniqsa, “LUKOYL”, “IKS Xolding”, “Zarubejneft”, “FORUS” AJ, “Tatneft” va boshqa Rossiyaning nufuzli korxonalari bunday manfaatli munosabatlarda faol qatnashmoqda.

Bugungi kunda ushbu yo‘nalishda oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash maqsadida I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, “MMFI” Milliy tadqiqot yadro universiteti” Federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi va “MEI” milliy tadqiqot universiteti” federal davlat byudjeti oliy ta’lim muassasasining Toshkent shahar filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ikki mamlakat prezidentlari hukumatlar rahbarlariga yaqin kelajakda savdo aylanmasini 10 milliard dollarga yetkazish vazifasini qo‘yganligi qayd etildi. Bunday natijaga faqat o‘zaro savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish hamda Rossiya va O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining ikki mamlakat bozorlariga chiqishiga ko‘maklashish bo‘yicha izchil amaliy choralarni ko‘rish orqali erishish mumkin.

Rossiya korxonalari va banklarining investitsiyalari O‘zbekistonning eng istiqbolli tarmoqlari - neft-gaz sohasi, tog‘-kon, energetika, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik va boshqa sohalarga yo‘naltiriladi.

Ayni paytda O‘zbekistonda Rossiya kapitaliga ega 2 mingdan ortiq korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xulosa (Conclusion):

Oliy darajadagi aloqalari samarasida, O’zbekiston Rossiya bilan munosabatlarni mutlaqo yangi darajaga olib chiqdi. Rossiya Federatsiyasi bilan ko‘p qirrali strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil rivojlanmoqda. Bundan avval imzolangan strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomalar hamda Rossiya Federatsiyasi va O’zbekiston o‘rtasidagi strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi deklaratsiya yangicha mazmun bilan to‘ldirilib, amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Mirziyoev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" - T.: O'zbekiston, 2017. - bet 381.
2. M.Xayrullayev. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan.-Toshkent-2003
3. Mavlonov O‘. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. – Toshkent.: Akademiya, 2008.
4. Jo‘rayev S. Xalqaro munosabatlar va xalqaro tashkilotlar.-Toshkent-2008.
5. R.Farmonov. O‘zbekiston geosiyosati. Toshkent – 2013.
6. Mavlanov U. O‘rta Osiyoning aloqa va cavdo yo‘llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent., 2009.
7. Azimov, H. Y. (2019). THE PROBLEM OF MORO MUSLIMS. Theoretical & Applied Science, (6), 519-521.

8. Azimov, H. Y. (2022). Main Directions of Modern International Security Approaches. International Journal of Social Science Research and Review, 5(2), 151-157. https://doi.org/10.47814/ijssrr.v5i2.217

QASHQADARYO VILOYATI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDAGI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING RIVOJLANISHI (2016-2022-YILLAR MISOLIDA)

Norbo‘tayeva Go‘zal Abdigafirovna
QarMII tadqiqotchisi, Qarshi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim muassasalaridagi kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi haqida so‘z boradi. Muallif ilmiy ma‘lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim muassasalaridagi kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, maktabgacha ta’lim, muassasa, kadrlar, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье говорится о развитии системы подготовки кадров в школьных образовательных учреждениях Кашкадарьинской области. На основе научных данных автором на основе доступной литературы изучены и проанализированы конкретные аспекты развития системы подготовки кадров в образовательных учреждениях Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Кашкадарья, дошкольное образование, учреждение, кадры, развитие.

Abstract: This article talks about the development of personnel training system in school-based educational institutions of Kashkadarya region. Based on scientific data, the author studied and analyzed the specific aspects of the development of personnel training system in the educational institutions of the Kashkadarya region based on the available literature.

Key words: Kashkadarya, preschool education, institution, personnel, development.

Kirish (Introduction). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3261-sonli qarorida belgilab berilgan zamonaviy talablar asosida tarbiyachilarning vazifalari mazmuni hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus loyihasi doirasida mazkur ishlarni amalga oshirishda ta’lim-tarbiyaning samarali tashkiliy va pedagogik usullari, o‘qitishning zamonaviy ilg‘or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv tarbiya jarayoniga joriy etish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama mukammal bo‘lishiga erishilgan deyish mumkin[1].

2018-yilda MTT (Maktabgacha ta’lim muassasalari) soni 326 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu raqam 1954 taga yetgan. Bu, o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tizimidagi muassasalar sonining 6 baravarga oshganligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism (Main part). Jami pedagoglar soni ham sezilarli darajada oshgan. 2018-yilda 3056 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda 7631 nafarga yetgan. Bu esa pedagoglar sonining ikki baravardan ko‘proq oshganligini ko‘rsatadi.

2018-yilda 551 nafar oliy ma’lumotli pedagoglar bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 2438 nafarga yetgan. Oliy ma’lumotli pedagoglar sonining 4,4 baravarga oshganligi pedagoglarning ta’lim darajasini yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasi ekanligini ko‘rsatadi.

2018-yilda 2505 nafar o‘rta ma’lumotli pedagoglar bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 5153 nafarga yetgan. Bu esa o‘rta ma’lumotli pedagoglar sonining ikki baravardan ko‘proq oshganligini ko‘rsatadi.

2018-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrda maktabgacha ta’lim muassasalari soni va ularda ishlovchi pedagoglar soni juda katta sur’atda oshgan. Bu maktabgacha ta’lim sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar va rivojlanishlarning yaqqol dalilidir. Shuningdek, oliy va o‘rta ma’lumotli pedagoglar sonining oshishi ta’lim sifati va pedagoglarning malakasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy rivojlanish amalga oshirilgan islohotlarning ko‘lami va kerakliligi bilan chambarchas bog‘liq. Faqat puxta o‘ylab amalga oshirilgan islohotlar ijtimoiy muammolarni bartaraf etishi, qiyinchiliklarni yengillashtirishi, yaxshi hayotni ta’minlashi mumkin. Islohotlar nafaqat mavjud muammolarni hal qilishi, balki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni ham yechish yo‘llarini ko‘zda tutishi kerak.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi islohotlar esa asosan demografik o‘zgarishlarni, urbanizatsiya darajasini, mafkuraviy evrilishlarni, ijtimoiy madaniy ong va jamoat manfaatlarini chuqur o‘rgangan holda amalga oshira boshladi. Mamlakat mustaqillika erishganiga 30 yildan ortiqroq vaqt o‘tib bunday islohotlarning ijobiy natijalarini ko‘rish fursati yetganligi ayon bo‘ldi. Tarixiy jihatdan qisqa bo‘lishiga qaramay, o‘ttiz yil jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu davrda erishilgan yutuqlar va kamchiliklar haqida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim sohasining to‘laqonli rivojlanib ketishi uchun oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimining ahamiyati katta hisoblanadi. Ta’lim tizimidagi, xususan, oliy ta’lim sohasidagi islohotlar chuqur ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy ahamiyatga ega. Ushbu islohotlar nafaqat mamlakatdagi ijobiy o‘zgarishlarni quvvatlaydi, balki xalqaro miqyosda ham mamlakat obro‘sini oshiradi. Prezident Mirziyoyev ta’lim sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etar ekan, pedagogik taraqqiyot, texnologik integratsiya va o‘qituvchi-murabbiylarning imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta’kidlab, bu borada katta sa’y-harakatlar olib bormoqda[2].

Viloyatda pedagog kadrlar tayyorlash bo‘yicha Qarshi davlat universitetining o‘rni katta hisoblanadi. Qarshi davlat universitetida 2021/2022 o‘quv yilida jami 24 431 nafar (o‘g‘il bolalar – 9 451 nafar, xotin-qizlar 14 980 nafar) talabalar tahsil olgan. Shundan kunduzgi ta’lim – 13 113 nafar (o‘g‘il bolalar – 4 698 nafar, xotin-qizlar 8 415 nafar); sirtqi ta’lim – 8 722 nafar (o‘g‘il bolalar – 3 692 nafar, xotin-qizlar 5 030 nafar); magistratura – 678 nafar (o‘g‘il bolalar – 255 nafar, xotin-qizlar 423 nafar); ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim (sirtqi) – 1 711 nafar (o‘g‘il bolalar – 733 nafar, xotin-qizlar 978 nafar); ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim (kechki) – 207 nafar (o‘g‘il bolalar – 73 nafar, xotin-qizlar 134 nafar)ni tashkil etgan. 2021-yilda Qarshi davlat universitetida 14 ta fakultet, 42 kafedra faoliyat ko‘rsatgan. Ularning barchasida o‘quv jarayoni bilan bir vaqtda ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyatni olib borish reja asosida yo‘lga qo‘yilgan. Kafedralarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari respublikaning ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish dasturi va ustuvor yo‘nalishlariga mos tarzda shakllantirilgan bo‘lib, ularda 86 ta ustuvor mavzu bo‘yicha ilmiy ishlar bajarilgan. Shular jumlasiga maktabgacha ta’lim pedagogikasi va tarixi yo‘nalishi ham kiradi. Universitetda 652 nafar asosiy shtatda professor-o‘qituvchilar faoliyat olib borgan. Universitetda jami 225 nafar ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatib, shundan 31 nafari fan doktori professorlar, 116 nafari fan nomzodi va dotsentlar va 78 nafari falsafa doktori (PhD). Ilmiy salohiyat 34,5 % ni tashkil qilgan[3].

Ushbu universitetning Pedagogika institutini tashkil etish ishlari 2019-yilda boshlangan bo‘lib, u Shahrisabz shahrida joylashishi belgilab qo‘yilgan. Hudud uchun ilk oliy ta’lim muassasasi hisoblangan mazkur institutni tashkil etish uchun asosiy qadam O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yilning 13-14- dekabrida Qashqadaryo viloyatga tashrifidan so‘ng qo‘yilgan[4].

Qarshi davlat universiteti Pedagogika institutida maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan. 2019-yil 4-sentyabrdan maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish, xorijiy tillar (ingliz tili) va ona tili adabiyoti rus tili adabiyoti o‘zga tilli guruhlarda yo‘nalishlarida filial o‘z faoliyatini boshlagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qarori bilan Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti negizida Shahrisabz davlat pedagogika instituti tashkil etilgan[5].

Bugungi kunda Shahrisabz davlat pedagogika institutida 3 ta fakultet, 11 ta kafedra faoliyat yuritib kelmoqda. Institutda umumiy 8856 nafar talabar tahsil olib, ularga 248 ta yuqori malakali professor-o‘qituvchilar ta’lim berib kelmoqda (6 ta fan doktori, 30 ta PhD darajasida). So‘nggi yillarda professor-o‘qituvchilar tomonidan 325 ta darslik va o‘quv qo‘llanmalar va 36 tamonografiyalar nashr ettirilgan. Ta’lim yo‘nalishlarining soni bakalavr kunduzgi 16 ta, sirtqi 11 ta, ikkinchi oliy 11 ta va magistratura bosqichida 12 ta yo‘nalish faoliyat olib bormoqda[6].

Keyingi yillarda oliy ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, sohaga xususiy investorlarning kirib kelishida faollik kuzatila boshlandi. Bu nafaqat oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshiradi balki sog‘lom raqobat tufayli yuqori o‘sishni ham ta’minlaydi

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions). Birinchi Prezident davrida tanqidiy qaralgan ustoz-shogird tizimi hozirda yangicha ko‘rinishda qaytadan yo‘lga qo‘yildi. O‘z davrida tanish-bilishchilik, korrupsiya va boshqa salbiy holatlarga olib kelgan bu tizimning, agar undan oqilona foydalanilsa yaxshi samara berishi mumkinligi isbotlangan. Shu boisdan bu tizim maktabgacha tarbiya sohasiga g‘am tatbiq etila boshlangan. Viloyatda ham “Ustoz-shogird maktabi” ishlarini tashkil etish bo‘yicha “Tayanch MTTlar” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va bosqichma-bosqich ijro qilib borilgan. Mazkur an’anani qaytadan joriy etish pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirishga, ilg‘or ish tajribalarni o‘rganishga va ommalashtirishga, ta’lim sifatini yaxshilashga va tarixdan saboq chiqarishga qaratilgan. “Ustoz-shogird maktabi” tizimi mas’ul idoralar nazoratida har bir MTT rahbari, metodisti, tarbiyachisi, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, musiqa rahbari va boshqalarning ta’lim tarbiyaviy va jamoatchilik ishlarini muvofiqlashtirib borilgan. Bu tizim nafaqat tajribaviy bilim, balki uslubiy ko‘nikmalar berishga ham ixtisoslashgan. Jumladan, Ilk qadam Davlat dasturi asosida viloyatda MTTlarda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya berish ishlarining zamonaviy usullarini amaliyotga tatbiq etishda pedagoglarga metodik yordam berilgan, pedagoglarning kasbiy mahorati, ijodiy tajriba almashishi hamda pedagoglarda o‘zaro hamkorlik ishlari rivojlantirib borilgan. Viloyatdagi MTTlarning ta’lim jarayoniga tadbiq etish uchun barcha yo‘nalishlar bo‘yicha tashkilotlarning pedagog xodimlari tomonidan seminarlar, ma’ruzalar, konsultatsiyalar uyushtirilgan. Viloyat Maktabgacha tarbiya boshqarmasi tomonidan mazkur ishlarini yanada yaxshilash maqsadida metod uyushmalarning har ikki oyda bir marta, zarur hollarda navbatdan tashqari yig‘ilishlari ham o‘tkazilgan[7].

Kadrlar malakasi oshirish hozirgi axborotlashgan jamiyatda raqamli texnologiyalarsiz bo‘lishi mumkin emas. Tizimda faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning tashkilotlarning o‘zida uzluksiz malakasini oshirish maqsadida masofaviy malaka oshirishni tashkil etilib, Maktabgacha ta’lim boshqarmasining “Ta’lim sifatini ta’minlash-2022” telegramm guruhi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. U orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlarining direktorlari, tarbiyachilari, psixologlari, metodistlari, til o‘qituvchilari, musiqa rahbarlari va boshqalarning tegishli mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha malakalari oshirib kelingan. Ushbu telegram guruhlarda tizimga oid yangiliklar va tajriba almashinish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Telegram guruhlarida viloyatdagi pedagoglarni masofadan uzluksiz metodik xizmatini ko‘rsatish malakaviy o‘qitish tizimli tashkil etilgan. Ushbu telegram guruhlari pedagoglar uchun o‘quv material va videoroliklar shaklida ta’lim resurslari bazasini shakllantirishni nazarda tutgan holda faoliyat olib borgan.

Kadrlarning malakasini oshirib borishda seminar-treninglarning ham o‘rni katta bo‘lgan. Bu usuldan foydalanib kaskad usulida yanada ko‘proq mutaxassislarning salohiyatini oshirish imkoni yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2019-yil 30-avgustdagi 155-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat darajasidagi seminar-trening Qarshi shahridagi 18-DMTTda bo‘lib o‘tgan. Seminarda barcha tuman (shahar) MTB ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha sho‘ba rahbarlari hamda tayanch DMTTlar direktorlari, trener tarbiyachilar ishtirok etgan va kaskad usuli qo‘llanilgan. Bu kabi seminarlar turli masalalar doirasida har yili o‘nlab o‘tkazib kelingan[7].

2019-yilda boshlangan va 2020-yildda O‘zbekistonga ham kirib kelgan Kovid-2019 pandemiyasi masofaviy o‘qitishning afzalliklarini ko‘rsatib berdi. Bunday usulda ta’lim berish mablag‘ va vaqtni tejashi, bir vaqtda katta miqdordagi tinglovchilarni jalb qila olishi va boshqa afzalliklari bilan hayotga kengroq kirib keldi. Maktabgacha ta’lim sohasi ham uning imkoniyatlarini o‘zida to‘liq joriy eta boshlagan. Jumladan, ZOOM dasturi orqali ko‘plab seminar-treninglar tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2019-yil 30-avgustdagi “Davlat maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarining ish hujjatlari to‘g‘risida”gi 155-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2022-yil 14-15-yanvar kunlari MTT rahbarlari va barcha yo‘nalish bo‘yicha davlat va nodavlat, DXSH va xonadon MTTlar pedagog xodimlari uchun semiran-treniglar o‘tkazilgan.

2022-yilga kelib Qashqadaryo viloyatida maktabgacha ta’lim muassasalarida 8 ming nafardan ziyod pedagoglar faoliyat olib borgan. Oldingi boblarda qayd etilganidek, nafaqat Qashqadaryo viloyati, balki butun respublika bo‘yicha maktabgacha ta’lim muassasalari soni 2016-2017-yillarga qadar keskin kamayib borgan. Shunga parallel ravishda ularda mehnat qiladigan pedagoglar soni ham kamayib ketgan. Xususan, 2010-2016-yillarda viloyat bo‘yicha ularning soni 3 ming nafar atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yildan boshlab ularning sonida o‘sish kuzatilgan. Shunday qilib, 2022-yilga kelib sohada mehnat qilayotgan pedagoglar soni 2 barobarga ortgan.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2020-yil 8-yanvardagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim tarbiya samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish ishlari jadallashtirilgan. DMTT direktorlari uchun 2022-yil 12-fevral kuni seminar-trening uyushtirilgan. Kadrlar masalasiga oid bu kabi tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarori, MTVning 2018-yil 6-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining Kuzatuv kengashlari faoliyatini tashkil qilish haqida”gi 2-mx-son buyrug‘ining ilovasi asosida tasdiqlangan” MTTning kuzatuv kengashi haqidagi” nizom va me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ham tashkil etilgan[7].

Xulosa (Conclusion). Kaskad usulidagi seminar-trening 2022-yil aprel oyida ham tashkil etilgan. Viloyatda maktabgacha ta’limga oid o‘quv me’yoriy hujjatlar, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining ish hujjatlarini yuritish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni rivojlanishini kuzatish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonida innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash, maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy kompetentligi, pedagogning kreativligi, pedagogning kasbiy faoliyatida-pedagogik qobiliyatining roli, pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish, maktabgacha ta’limda (STEAM va TRIZ texnologiyalari)ni qo‘llash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda treninglarni tashkil etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglarni onlayn platformadan foydalanishga o‘rgatish mavzularida seminarlar bo‘lib o‘tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2017 yildagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-3261-son Qarori. https://lex.uz/docs/3334234
2. Oliy ta’lim islohotlari: muammolar, yechimlar, yutuqlar. https://yuz.uz/news/oliy-talim-islohotlari-muammolar-echimlar-yutuqlar
3. Qarshi davlat universitetining 2022 yil 15 maydagi 658-son ma’lumotnomasi
4. Shahrisabz davlat pedagogika institutining joriy arxivi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarori. https://lex.uz/docs/6079561?ONDATE=04.07.2023

6. Shahrisabz davlat pedagogika institutining 2024 yil 16 apreldagi 38-sonli ma’lumotnomasi
7. Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi joriy arxivi.

QASHQADARYO VILOYATIDA BADIIY KASHTACHILIK VA GILAMCHILIK SAN’ATINING RIVOJLANISH JARAYONLARI

Suyarova Feruza Sobir qizi
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida badiiy kashtachilik va gilamchilik san’atining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ushbu hunarmandchilik yo‘nalishlarining hududiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda xalq amaliy san’atining qadimiy an’analarini saqlab qolish, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan kasbiy tajriba va badiiy uslublarning rivojlanish jarayonlari o‘rganilgan. Qashqadaryo vohasida shakllangan kashtachilik va gilamchilik maktablarining o‘ziga xosligi, naqsh kompozitsiyalari, rang tanlash usullari, mahalliy xomashyodan foydalanish an’analari hamda hunarmandlarning ijodiy faoliyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, badiiy kashtachilik, gilamchilik, xalq amaliy san’ati, hunarmandchilik, milliy naqshlar, bezak san’ati, an’anaviy madaniyat, ustoz-shogird an’anasi, madaniy meros.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ процессов формирования, этапов развития и региональных особенностей художественной вышивки и ковроткачества в Кашкадарьинской области. В исследовании рассматриваются вопросы сохранения традиций народного прикладного искусства, передачи профессионального опыта от поколения к поколению, а также развития художественных методов и приемов мастерства. Особое внимание уделено своеобразию кашкадарьинской школы вышивки и ковроткачества, особенностям орнаментальных композиций, цветовых решений, использованию местного сырья и творческой деятельности народных мастеров.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, художественная вышивка, ковроткачество, народное прикладное искусство, ремесленничество, национальные орнаменты, декоративное искусство, традиционная культура, школа мастеров, культурное наследие.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the formation, development stages, and regional characteristics of artistic embroidery and carpet weaving in Kashkadarya region. The study examines the preservation of traditional folk art, the transmission of craftsmanship from generation to generation, and the evolution of artistic styles and techniques. Particular attention is paid to the uniqueness of Kashkadarya embroidery and carpet-making traditions, including ornamental compositions, color combinations, the use of local materials, and the creative activities of artisans.

Keywords: Kashkadarya, artistic embroidery, carpet weaving, folk applied arts, handicrafts, national ornaments, decorative art, traditional culture, master-apprentice tradition, cultural heritage.

Qashqadaryo viloyatida mustaqillik yillarida xalq amaliy san’ati va hunarmandchilikning qayta tiklanishi, avvalo, vohada qadimdan shakllangan uy hunarmandchiligi, xotin-qizlar qo‘l mehnati, oilaviy kasb an’analari va “ustoz-shogird” maktablarining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashuvi bilan bog‘liq bo‘ldi. Kashtachilik, quroqchilik, matochilik va gilamchilik bu jarayonda alohida o‘rin egalladi. Chunki mazkur yo‘nalishlar bir tomondan, voha aholisining turmush madaniyati, oilaviy marosimlari, sep tayyorlash an’analari, milliy kiyim va xonadon bezagi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bozor munosabatlari sharoitida uy mehnati, kasanachilik, xotin-qizlar bandligi, turizm va mahalliy mahsulotlar bozorini kengaytirishning muhim manbaiga aylandi.

Qashqadaryo kashtachiligi tarixan Shahrisabz va Kitob maktablari bilan tanilgan. Bu maktablarda iroqi, bosma, yo‘rma, ilma va boshqa choklardan foydalanish, mato ustiga doka qo‘yib

naqshni sanab tikish, geometrik va islimiy bezaklarni uyg‘unlashtirish kabi uslubiy xususiyatlar saqlanib kelgan. Manbalarda Shahrisabz va Kitob kashtachiligi “iroqi” uslubi bilan mashhurligi, ayniqsa mato ustidagi dokaga naqshlarni sanab tikish usuli boshqa hududlarda kam uchrashi qayd etiladi[1]. Kashtachilikda qo‘llaniladigan palak, so‘zana, zardevor, belbog‘, dastro‘mol, to‘rvacha, do‘ppi, milliy libos bezaklari nafaqat maishiy buyum, balki ramziy ma’no, estetik did va avlodlar xotirasini ifoda etuvchi madaniy matn vazifasini bajargan.

Mustaqillikdan keyingi davrda Qashqadaryo kashtachiligida uchta asosiy tendensiya kuzatildi. Birinchisi — an’anaviy buyumlarni qayta tiklash va ularni mahalliy bozorda faollashtirish; ikkinchisi — kashtachilikni xotin-qizlar bandligini ta’minlovchi kasb sifatida rivojlantirish; uchinchisi — kashtachilik mahsulotlarini turizm, ko‘rgazma-yarmarka va festivallar orqali tashqi muhitga olib chiqishdan iborat bo‘ldi. Bu yo‘nalishlar bir-birini to‘ldirgan holda sohaning qayta jonlanishiga xizmat qildi.

Kashtachilikning qayta tiklanishida Shahrisabz shahri va Kitob tumani hunarmandlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi. Qashqadaryo kashtachilik maktabining zamonaviy rivojida Shahrisabzlik hunarmand Saodat Kenjayevna Nizamova faoliyati alohida ahamiyatga ega. Joriy arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, u 1968 yilda tug‘ilgan, “Hunarmand” uyushmasi a’zosi sifatida Shahrisabz shahrida kashtachilik yo‘nalishida faoliyat olib borgan. 2018 yilda “Tashabbus” ko‘rik-tanlovining shahar bosqichida “Eng yaxshi tadbirkor ayol” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan. U 2017 yilda Toshkent shahridagi “Xalqaro savdo-turizm yarmarkasi”da, 2018 yilda Toshkentdagi “Navro‘z” bayrami ko‘rgazmasida, Shahrisabz shahrida o‘tkazilgan Xalqaro maqom festivalida hamda Qo‘qon festivalida ishtirok etgan. Shuningdek, Xitoy, Turkiya, Italiya, Fransiya va MDH mamlakatlaridagi ko‘rgazmalarda Qashqadaryo kashtachilik an’analarini namoyish etgan. U har yili 33 turdagi turli o‘lchamli milliy andozadagi kashta va bezak mahsulotlarini tayyorlab, ularni xorijiy sayyohlar va respublika bozorlariga yetkazib bergani, mahsulotlari bir necha sayyohlik firmalari yo‘nalishlariga kiritilgani qayd etiladi[2]. Saodat Nizamova faoliyati Qashqadaryo kashtachiligining mahalliy bozordan respublika va xalqaro maydonga chiqish jarayonini ko‘rsatadi.

Ushbu misol kashtachilik sohasidagi rivojlanishning muhim jihatini ochib beradi: Qashqadaryoda kashtachilik endilikda faqat xonadon ehtiyoji yoki marosimiy buyum tayyorlash bilan cheklanmay, turistik mahsulot, ko‘rgazma obyekti, milliy brend va xotin-qizlar tadbirkorligi shakliga aylandi. Saodat Nizamova ustaxonasiga sayyohlarning tashrifi, ularga kashta tikish jarayoni va tayyor mahsulotlarning namoyish etilishi hunarmandchilikning “ishlab chiqarish”dan “madaniy tajriba” darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi[3]. . Bu holat Qashqadaryo kashtachiligida “ustaxona — ko‘rgazma — savdo — turizm” zanjiri shakllana boshlaganini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash joizki, Qashqadaryoda kashtachilikni rivojlantirish faqat madaniy merosni tiklash emas, balki mahalliy mehnat resurslarini samarali yo‘naltirish, ayniqsa xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish vazifasini ham bajardi.

Tadqiqot davrida Qashqadaryo viloyatida milliy hunarmandchilikning eng qadimiy va an’anaviy tarmoqlaridan biri bo‘lgan kashtachilik (xususan, Shahrisabz iroqi kashtachiligi va Kitob-Qarshi so‘zanachilik maktablari) tiklanib, xotin-qizlar bandligini ta’minlovchi yirik iqtisodiy sohaga aylandi.

Viloyatning Yakkabog‘, Kitob, Qamashi va Shahrisabz tumanlarida kashtachilikka ixtisoslashgan markazlar va oilaviy klasterlar tashkil etildi. Natijada ishlab chiqarish jarayoni fabrika-sex tizimiga yaqinlashdi, ammo mahsulotning qo‘l mehnati xususiyati saqlab qolindi. 2019 yilda Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan Xalqaro hunarmandchilik festivali va Samarqanddagi Sharq taronalari doirasida Qashqadaryo kashtado‘zlari yirik xalqaro shartnomalarni imzolashga muvaffaq bo‘lishdi.

2022 yil yakunlariga ko‘ra, viloyatda «Hunarmand» uyushmasi a’zosi bo‘lgan rasmiy kashtado‘zlar va ularning shogirdlari soni 4 200 nafardan oshdi. 2017–2022 yillar oralig‘ida kashtachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmi qiymat jihatidan 4,2 barobarga o‘sdi[4]. Mahsulotlarning 20 foizdan ortig‘i AQSH, Fransiya, Italiya va Yaponiya kabi davlatlarning brend do‘konlari va ko‘rgazmalariga eksport qilindi[5].

1991–2022 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida kashtachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur soha faqatgina madaniy meros obyekti bo‘lishdan

chiqib, viloyatning xotin-qizlar bandligini ta’minlovchi eng samarali drayverlaridan biriga aylandi. Hunarmandlar sonining mustaqillikning ilk yillariga nisbatan qariyb 28 barobarga ko‘payishi davlat tomonidan berilgan institutsional imtiyozlar, xomashyo bazasining mahalliylashtirilishi va turizm industriyasining rivojlanishi bilan to‘g‘riproporsional ravishda kechganligi isbotlanadi.

Gilamchilik Qashqadaryoda qadimiy chorvadorlik, yarim ko‘chmanchi turmush tarzi, jun xom ashyosi, xonadon ehtiyoji va ayollar mehnati bilan bog‘liq holda shakllangan. Gilam to‘qish san’ati O‘zbekistonda qadimdan keng tarqalgan badiiy hunar, u ayniqsa ayollar orasida qadrlangan, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi muhitida keng tarqalgan. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida milliy qadriyatlar nisbatan yaxshi saqlangan etnohududlar sifatida gilamdo‘zlikning yangi an’analar bilan boyishiga zamin yaratdi[6].

Mustaqillik yillarida gilamchilikda ham sifat o‘zgarishlari kuzatildi. Birinchidan, gilam faqat maishiy buyum sifatida emas, balki badiiy mahsulot, sovg‘a, suvenir va turistik tovar sifatida baholana boshladi. Ikkinchidan, gilam to‘qish xotin-qizlar bandligini ta’minlash va uy sharoitida daromad topish vositasiga aylandi. Uchinchidan, gilamchilikni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash choralari kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 iyundagi PQ–4759-son qarorida qo‘lda to‘qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro sifat standartlarini joriy etish va gilamchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarishga ko‘maklashish vazifalari belgilangan edi[7]. Bu hujjat Qashqadaryo kabi chorvachilik va ayollar qo‘l mehnati an’analari kuchli hududlarda gilamchilikni yangi iqtisodiy sharoitga moslashtirish uchun muhim huquqiy asos bo‘ldi.

1997 yildan viloyatning chekka tumanlarida tarqoq holda faoliyat yuritgan ustalar ro‘yxatga olina boshlandi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1991–1995 yillarda viloyatda tijoriy maqsadda barqaror gilam to‘qish bilan shug‘ullanuvchilar soni taxminan 200–250 nafar atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2000 yilga kelib "ustoz-shogird" tizimi va imtiyozlar tufayli bu ko‘rsatkich 520 nafarga yetdi[8]. Ishlab chiqarish hajmining yillik o‘sish dinamikasi mazkur davrda 3-5 foizdan oshmagan.

Davlat tomonidan soha vakillariga berilgan soliq imtiyozlari hamda mikrokreditlash tizimining yo‘lga qo‘yilishi natijasida Koson va Chiroqchi tumanlarida o‘nlab yirik oilaviy gilamchilik sexlari shakllandi. 2010–2015 yillarda viloyatda gilamchilik yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar soni (uy mehnatidagi shogirdlar va oila a’zolari bilan birgalikda) 1 800 nafardan ziyodni tashkil etdi. Mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi esa mazkur o‘n yillikda yillik o‘rtacha 6,5–8,2 foizlik barqaror o‘sish sur’atini namoyish etdi[9].

2017 yildan e’tiboran O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik va ipakchilikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan tub islohotlar Qashqadaryo gilamchilik sanoatida yangi davrni boshlab berdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-sonli Farmoni bilan hunarmandlarning daromad solig‘idan to‘liq ozod etilishi va "Har bir oila — tadbirkor" dasturi doirasida ajratilgan maqsadli mablag‘lar hududlarda yirik gilamchilik klasterlari va markazlari tashkil etilishiga zamin yaratdi[10].

Ayniqsa, Koson va Chiroqchi tumanlarining chekka qishloqlarida xotin-qizlarni kasanachilik asosida ish bilan ta’minlash orqali qo‘lda to‘qiladigan jun va ipak gilamlar ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi. Shahrisabzda tashkil etilgan badiiy ipak gilamchilik korxonalari esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy turistlar buyurtmalari asosida ishlay boshladi.

2022 yil yakunlariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida «Hunarmand» uyushmasiga a’zo bo‘lgan va bevosita gilam to‘qish, jun va ipakni qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi rasmiy ustalar hamda ularning shogirdlari soni 3 500 nafardan oshib ketdi. 2017–2022 yillar oralig‘ida viloyatda qo‘lda to‘qiladigan milliy gilam mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qiymat jihatidan qariyb 3,5 barobarga o‘sdi[11]. Shuningdek, ushbu yillarda Qashqadaryo gilamlari Yevropa (Germaniya, Buyuk Britaniya), Yaqin Sharq (Turkiya, BAA) va AQSH bozorlariga rasmiy ravishda eksport qilina boshlandi[12].

1991–2022 yillar chegarasida Qashqadaryo viloyatida gilamchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning tarixiy-iqtisodiy dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, soha lokal uy hunarmandichiligidan xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lgan yirik tarmoqqacha rivojlandi. Hunarmandlar sonining mustaqillikning ilk davriga nisbatan qariyb 14 barobarga (250 nafardan 3500

nafarga) ko‘payishi davlat tomonidan joriy etilgan institutsional imtiyozlar, xomashyo zanjirining mahalliylashtirilgani hamda kasanachilik asosida xotin-qizlar bandligini ta’minlash strategiyasining samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Umuman olganda Qashqadaryoda kashtachilik va gilamchilikni rivojlantirishda uchta asosiy tendensiyani ajratish mumkin. Qashqadaryo viloyatida kashtachilik va gilamchilik mustaqillik yillarida an’anaviy hunar maktablarini saqlash bilan birga, yangi iqtisodiy mazmun kasb etdi. Bu yo‘nalishlarda faoliyat yuritgan hunarmandlar mahalliy madaniy merosni qayta tiklash, ishsiz xotin-qizlarni kasbga o‘rgatish, yoshlarni shogirdlikka jalb etish, turistik mahsulotlar yaratish va milliy bozorni mahalliy mahsulotlar bilan boyitishda muhim rol o‘ynadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Тўхтаев А.Қ. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон жанубий вилоятларида миллий ҳунармандчиликнинг тикланиши ва ривожланиши тарихи (1991-2000 йй.): Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 16-18.
2. Qashqadaryo viloyati “Hunarmand” uyushmasi joriy arxivi, 85-b.
3. Qashqadaryo viloyati “Hunarmand” uyushmasi joriy arxivi, 85-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi: Tahliliy ma’lumotnoma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2023. – B. 279.
5. Qashqadaryo viloyatining tashqi iqtisodiy faoliyati va eksport salohiyati: Yillik hisobot. – Toshkent: Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi, 2022. – B. 61.
6. Раҳмонқулова О.А. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда миллий амалий санъатнинг тикланиши ва ривожланиши (Жанубий вилоятлар мисолида) – Қарши, 2016: 70-б.
7. Qashqadaryo viloyati “Hunarmand” uyushmasi joriy arxivi, 94-b.
8. O‘zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi markaziy arxivi. Joriy hisobotlar fondi, 2001 yil, 24-hujjat. – B. 56.
9. Qashqadaryo viloyatining yillik statistik to‘plami: Statistik majmua. – Qarshi: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi, 2016. – B. 142.
10. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017 йил. – № 46. – Б. 31.
11. O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi: Tahliliy ma’lumotnoma. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2023. – B. 284.
12. Qashqadaryo viloyatining tashqi iqtisodiy faoliyati va eksport salohiyati: Yillik hisobot. – Toshkent: Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi, 2022. – B. 67.

M U N D A R I J A

№	MUALLIFLARNING FAMILIYASI, ISMI, SHARIFI	MAQOLA MAVZUSI	BET
KIRISH SO‘ZI:			
1.	***Bazarov O.Sh***	***Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari***	***3***
I – SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI TIZIMIDA QADIMGI VA O’RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI TARIXI			
2.	***Сулейманов Р.Х.***	***Археологические следы диалога цивилизации в древнем Нахшабе***	***5***
3.	***Сагдуллаев А.С. Абдуллаев Ў.И. Тоғаев Ж.Э.***	***Марказий Осиёда энеолит ва бронза даври миграциялари***	***14***
4.	***Кобзева О.П.***	***Женщины в ранней дипломатии народов Узбекистана***	***25***
5.	***Раимқулов А.А.***	***Коштепа - христианский храм-монастырь в древнем Нахшабе***	***30***
6.	***Мавланов У.***	***Служба обеспечения безопастности в среднеазиатских трассах великого шелкового пути.***	***37***
7.	***Yakhshiyeva Z.R.***	***The personality of temur in historical novels***	***41***
8.	***Манзаров Ю.Х.***	***Марказий Осиё цивилизациясида “Жанубий Сўғд”нинг ўрни***	***44***
9.	***Вохидов Ш., Темиров Ш.***	***Амирзода Мухаммад Сиддик Хашмат Ибн Амир Музаффар (1864-1932) – штрихи к автобиографии и наследии***	***47***
10.	***Хўжаёров А.***	***Насаф воҳаси алломаларининг тафсир илмидаги фаолияти***	***54***
11.	***Юлдашев Ғ., Дўстматов Н.***	***Амир Темур даврида бунёдкорлик ишларининг аҳамияти***	***58***
12.	***Jalolitdinova I.J.***	***Temur tuzuklari va hozirgi zamon***	***61***
13.	***Отахўжаев А.М.***	***Суғд мулклари – Кеш ва Насафнинг илк ўрта асрлардаги тарихий ўрни***	***64***
14.	***Давлатова С.Т.***	***Марказий Осиё цивилизацияси тизимида ўрта асрлар давлатчилиги тарихи: хунармандчиликнинг ривожланиши***	***68***
15.	***Қосимова Ф.Ш.***	***Соҳибқироннинг яратувчилик салоҳияти***	***74***
16.	***Хасанов А.***	***Насаф воҳаси алломалари мероси***	***77***
17.	***Jo’raboyev N.***	***Sohibqiron Temurning uch abubakr ismli zurriyodi tarixi***	***81***
18.	***Маматқобулов Т.Э.***	***Аштархонийлар сулолсининг Қозоқ хонлиги билан муносабатларига назар***	***85***

19.	***Омонов А.М.***	***Селунгур ғор маконидан топилган палеоантропологик топилмаларнинг таҳлилига доир***	***90***
20.	***Ҳазратов Н.***	***Қадимги Кеш вилоятининг тарихий географиясини ўрганишда тоғ тизмаларининг ўрни ва роли.***	***94***
21.	***Qorayev Sh.***	***Buxoro hukmdori Abdullaxon adabiy kechalari tarixi***	***97***
22.	***Абдуллаев Р.И.***	***Қўқон хони Муҳаммад Алихон кўрсатмаси билан китобат қилинган қўлёзмалар хусусида***	***100***
II – SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI TIZIMIDA ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI TARIXIGA OID MASALALAR			
23.	***Axmedov S.T.***	***Ilm-fan sohasini rivojlantirishda O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi. (XX asrning 6080 yillar misolida)***	***103***
24.	***Mamatqulov B.***	***O‘zbekiston sanoatida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalari (1925 – 1941 yy)***	***106***
25.	***Jomurodov L.I.***	***O‘zbekistonda ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ijtimoiy ahvol va sil kasalligiga qarshi kurashish tadbirlari***	***109***
26.	***Ортиқов У.М.***	***Россиядан ахолини Туркистон ўлкасининг еттисувга кўчириш муносабати билан солиқ тизимида содир бўлган ўзгаришлар***	***112***
27.	***Salomov I.***	***Scientists and students during the second world war in uzbekistan: the growth of scientific and literacy level***	***115***
28.	***Самаров Ф.***	***Қарши шаҳридаги тарихий-меъморий ёдгорликларни қайта тикланиши ва таъмирланиши тарихидан***	***118***
29.	***Sattorov U.A.***	***Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda o'zbekistonda neft-gaz sanoati holati***	***122***
30.	***Джумабоев И.Б.***	***XX аср бошларида фарғона областида қўриқлаш бўлими фаолияти тарихидан***	***125***
31.	***Агзамова Г.А.***	***Бухоро хонлиги: қишлоқ хўжалигига оид айрим маълумотлар (XVIII - XIX асрнинг ўрталари)***	***128***
32.	***Акмаматов О.Ё.,*** ***Акмаматова М.Ё.***	***Қашқадарё округида жамоалаштириш сиёсатининг бориши ва уни аҳоли ижтимоий ҳаётига таъсири***	***133***
33.	***Алимова Д.***	***Ўзбекистонда халқ таълимининг советча тизими: тарих сабоқлари***	***136***
34.	***Омонова С.***	***XX аср 50-80 йилларида хотин-қизларнинг халқаро ва олимпиада ўйинларидаги иштироки***	***143***
35.	***Alimov .O.S.***	***Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston aholisini xalq xo’jalik mollari va oziq-ovqat bilan ta’minlash muammolari***	***146***

36.	***Темирова Ш.В.***	***Россия империяси ҳукуматининг кўчириш сиёсати қонунчилиги: шаклланиши, тарихий босқичлари***	***149***
37.	***Рахимов А.Э.***	***Совет ҳокимиятининг қарши чўлини ўзлаштиришидаги дастлабки лойиҳалари***	***155***
38.	***Мустафаева Н.А.***	***XX аср бошларида Туркистон миллий матбуотининг ўлка маданияти тараққиётидаги ўрни***	***158***
39.	***To‘raeva M.X.***	***BXSR yillarida O‘zbekiston janubiy hududlari ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar***	***161***
40.	***Дорошенко Т.И.***	***Миграция поляков в Узбекистан в годы второй мировой войны.***	***164***
41.	***Гаффаров Ш.С.***	***Переселенческая политика Российской империи в Туркестане (вторая половина XIX столетия и начала XX столетия)***	***169***
42.	***Якубжанов Н.К.***	***Стратегия Российской империи и цели переселенческой политики царизма в Туркестане***	***175***
43.	***Xoliqova R.E.***	***Yangi O‘zbekiston yoshlari- kelajagimiz egalari***	***180***
44.	***Шайдуров В.Н.***	***Особенности модернизационных процессов в Центральноазиатской экономике в начале XX в.***	***184***
45.	***Панжиев А.Ў.***	***Усмон Юсуповнинг Ўзбекистон ССР раҳбарлигида тутган ўрни***	***188***
46.	***Мейлиев Х.***	***Ўзбекистонда юридик хизматнинг ривожланиш тарихи. (1917-1991 йиллар мисолида)***	***192***
47.	***Xaitov Sh.A. Ahmadov A.A.,***	***D.N. Logofet Turkistondagi mahalliy qayiqchilik va rus floti haqida (XIX asr oxiri-XX asr boshlari)***	***196***
48.	***Исмаилова Ж.Х.***	***Средняя Азия в исследовании путешественников***	***199***
49.	***Рахматова Д.Ж.***	***Садоқат ва матонат тимсоли - ўзбек аёли***	***202***
50.	***Ауанасова А.М.***	***Из истории автономизации Туркестанского края в 1917-1918 гг***	***205***
51.	***Агзамходжаев С.С.***	***Движение прогрессистов за создание автономной демократической республики в Туркестане***	***211***
52.	***Akmamatov O.Y.***	***XX asrning boshlarida O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi tizimida ro’y bergan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar (Qashqadaryo misolida)***	***217***
53.	***Шадманова С.Б.***	***Туркистон даврий матбуотида хотин-қизлар масалаларининг ёритилиши (XIX асрнинг охири – XX аср бошлари)***	***222***
54.	***Комолов Д.П.***	***Ўзбекистонда илк совет судларининг ташкил топиши тарихидан***	***227***
55.	***Хасанов Б.В.***	***Юнус Латиф***	***235***
56.	***Саипова К.Д.***	***Миграционная политика Узбекской***	***239***

		CCP: история и факты	
57.	***Ибрагимов С.***	***Жадидчилик харакати***	***245***
58.	***Jabbarova I.X.***	***Sovet davlatining Qashqadaryo vohasida olib borgan agrar siyosati doirasida suv omborlarining qurilishi tarixi***	***249***
59.	***Tojiyev B.M.***	***History of activity of internal affairs bodies of Kashkadarya region (1925-2020)***	***253***
III – SHO‘BA. MUSTAQILLIK DAVRI O’ZBEKISTON IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY, JARAYONLARINI TADQIQ ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.			
60.	***Асқаров А.***	***Илм-фан ва таълим тизимида муаммолар ва уларнинг ечими ҳақида фикр-мулоҳазалар***	***256***
61.	***Муртазаева Р.Х.***	***Женская трудовая миграция из стран центральной азии и ее особенности***	***264***
62.	***Эркаев А.***	***Янги Ўзбекистоннинг миллий ғояси***	***269***
63.	***Lutfullayev A.A.***	***Contributions of scientists of Uzbekistan to the development of science and culture***	***273***
64.	***Boqiyev B.O‘.***	***O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi faoliyati***	***274***
65.	***Турсунов А.А.***	***Қозоғстоннинг Ўзбекистон давлати билан халқаро фестиваллари маданий жараёнларининг бориши тўғрисида***	***276***
66.	***Khosiatov Kh. O.***	***The importance of creative works during the time of Amir Temur (in the case of the shahrisabz state museum reserve)***	***280***
67.	***Toshpo‘latov B.Sh.***	***O‘zbekistonda mustaqillik yillarida tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari tarmog‘ining kengaytirilishi***	***282***
68.	***Eralov A.J.***	***Opportunities for the development of ethno tourism in the southern regions of Uzbekistan***	***286***
69.	***Самадов И.***	***Қашқадарё вилояти иқтисодиётининг асослари***	***290***
70.	***Tursunov F.Y.***	***Dunyodagi gidroelektr stansiyalarning qurilish tarixi***	***293***
71.	***Amirov E.E.***	***Zamonaviy yuridik ta’lim istiqbollari***	***297***
72.	***Mahmadaminov M.***	***The origin and classification of realia theory***	***300***
73.	***Yoqubov T.***	***2019 va 2020 yillarda hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda mahaliy davlat hokimiyatining o‘rni (Qashqadaryo viloyati misolida)***	***306***
74.	***Бўронов О.М.***	***Қишлоқларда тиббий профильактика ва санитария-эпидемиологик осойишталигини таъминлаш муаммолари***	***310***
75.	***Исломов Ф.У.***	***Алкоголизмликнинг жиноятчилик билан алоқадорлиги ва олдини олишни такомиллаштириш***	***313***

76.	***Maxmatqulov J.I.***	***O‘zbekistonning giyohvandlik moddalari noqonuniy aylanishiga qarshi kurashdagi hamkorligi***	***317***
77.	***Норбўтаев П.П.***	***Эътиқод ва достон***	***319***
78.	***Ишқуватов В.***	***Ўзини ўзи бошқариш ва жамоатчилик назоратини амалга оширишда халқаро тажриба ва миллий амалиёт***	***325***
79.	***Эргашев Р.Х.***	***Ўзбекистонда мева-сабзавод маҳсулотлари кооперациясини ташкил этиш йўллари***	***333***
80.	***Эшимов Ш.Х.***	***Кашкадарё вилоят судлари фаолияти тарихидан лавҳалар***	***339***
81.	***Ismailov A.F.***	***O‘zbekistonda fan muzeylari tendensiyasi***	***342***
82.	***Imamov B.X.***	***Turkiy davlatlar tashkilotining rivojlanish tarixi va unda O‘zbekiston respublikasini o‘rni va roli***	***347***
83.	***Очилов Ф.Э.***	***Янги Ўзбекистонда кадрлар билан ишлашнинг долзарб масалалари***	***351***
84.	***Пардаев А.***	***Мустақиллик йилларида Қашқадарё вилояти умумтаълим актабларидаги ислоҳотлар***	***355***
85.	***Allayarov A.***	***Psychology and spiritual senses in the works of Azam Uktam and seamus Heaney***	***358***
86.	***Niyazov Z.***	***Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda islom dini tashkilotlari faoliyati tarixi***	***361***
87.	***Tilovatov F.U.***	***Yangi O’zbekistondagi islohotlarni amalga oshirishda kasaba uyushmalarning tutgan o‘rni***	***364***
88.	***Maxmanazarov Q.A.***	***Bugungi kunda tarix fanini o’qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish***	***367***
89.	***Davronov A.***	***Challenging problems of training military personnel in the republic of Uzbekistan***	***371***
90.	***Нағашбоев Қ.Б.***	***XX асрнинг буюк ўзбек боксчиси – Руфат Рисқиев спорт фаолиятини тадқиқ етилиши***	***374***
91.	***Tursunov A.S.***	***Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida madaniy va ma’naviy hayotning yuksalishi***	***378***
92.	***Tursunov O‘.S.***	***Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoyalash tizimida mahallaning o‘rni***	***384***
93.	***Tursunov S. N.***	***Rossiyaning sharqiy Buxorodagi mustamlakachilik siyosati***	***388***
94.	***Sadirov A. S.***	***Mustaqillik arafasida Qashqadaryo viloyatida yo’l-transport infratuzilmasining shakllanishi***	***392***
IV – SHO‘BA. O‘ZBEKISTON OLIMALARINING ILM-FAN, MADANIYAT RAVNAQIGA QO‘SHGAN HISSALARI. (OLIMALARNING ILMIY-TADQIQOT YO‘NALISHLARI ASOSIDA)			
95.	***Эргашева Ю.А.***	***Из истории арабов кашкадарьинского оазиса Узбекистана***	***395***

96.	***Бегалинова К.К., Ашилова М.С., Бегалинов А.С.***	***Тюркский Каганат как предтеча Государственности Казахов***	***400***
97.	***Khamraeva S.N.***	***Features of the development of electronic commerce and electronic trade in Uzbekistan***	***403***
98.	***Саматова Ш.Й.***	***Экономическая оценка эффективности предложенных мероприятий по совершенствованию теплоснабжения***	***407***
99.	***Abdurashidova S.S.***	***Approach to word formation in terms of derivation***	***410***
100.	***Gafurova N.S.***	***The phenomen text in the internet linguistics***	***412***
101.	***Ismoilova F.I.***	***O‘zbekistonlik xotin-qizlarining mudofaani tashkil etishga yordami***	***414***
102.	***Karimova M.Sh.***	***Formation of the terminological group "household appliances" in english language***	***418***
103.	***Saydalieva A.E.***	***Effective strategies for teaching english in multi-level classes***	***420***
104.	***Якубова Ш.А.***	***Ўзбекистонда мустақиллик йилларида фармацевтика кадрларини тайёрлаш жараёнини***	***422***
105.	***Suvonova D.K.***	***“The importance of vocabulary in teaching english”***	***424***
106.	***Temirova Ch.***	***Qishloqning shakllanish tarixi va tarixiy evolyutsiyasi***	***426***
107.	***Васиева Д.И.***	***Олий таълим муассасаларида таълим сифати ва рақобатбардошлигини ошириш истиқболлари***	***429***
108.	***Шохужаева З.С.***	***Сув тежамкор технологиялардан фойдаланишда инвестициялар самарадорлигини аниқлашнинг услубий асослари***	***434***
109.	***Иноятова Д.М.***	***Участие Российских ученых в становлении и развитии востоковедения в Туркестане.***	***438***
110.	***Набиева Ш.Г.***	***Қашқадарё вилоятида болаларда туғма ва ирсий касалликларни барвақт аниқлаш ва уларни олдини олиш тўғрисида***	***441***
111.	***Очилова Х.***	***Қарши воҳаси арабларининг гўдак туғилиши ва тарбияси билан боғлиқ расм русумлари***	***444***
112.	***Анварова Л.Ш.***	***Иқтисодий тараққиётни таъминлашда меҳнат самарадорлигини ошириш масалалари***	***448***
113.	***Pulatova S.A.***	***Ta’lim va madaniyat – inson kapitalini oshirish vositasi sifatida***	***452***
114.	***Раҳматова Д.Н.***	***Қашқадарё воҳаси достончилик анъаналари шаклланган ҳудудлар аҳолиси этнографик қиёфасига доир чизгилар***	***456***
115.	***Брежнева С.Н.***	***Семиреченское попечительство детских приютов на рубеже XIX-XX в.***	***458***

116.	***Узоқова Г.С.***	***Физик тушунчаларнинг илмий мазмуни ва шакллантириш методикаси***	***462***
117.	***Файзиева Ш.Ш.***	***Мева-сабзавот кооперациясининг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари***	***468***
118.	***Xo'jamberdiyeva J.N.***	***Tadqiqotli o'qitishga asoslangan ta'limning pedagogik asoslari***	***472***
119.	***Бобаева Ш.Я.***	***Лингвистика в средстве массовой информации***	***475***
120.	***Эргашева Н.Р.***	***Қашқадарё мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш сифатини баҳолаш***	***477***
121.	***Yuldosheva Sh.A.***	***Uy-joy kommunal xo'jaliklarida servis sifatini oshirishda resurslardan samarali foydalanish yo'llari***	***482***
122.	***Раҳмонқулова О.А.***	***Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида адабиёт ва санъат соҳасининг ривожида хотинқизларнинг ўрни***	***485***
123.	***Axmedova G.Y.***	***O'zbek tilining izohli lug'atlarida rang leksemasining turli ma'nolariga izoh berilishi masalalari***	***488***
124.	***Шаропова Н.А.***	***Таълим тизимида амалга оширилган ислоҳотлар***	***493***
125.	***Сафарова З.С.***	***Ислом – ҳақиқатни англаш демакдир***	***497***
126.	***Жўрабаева. М.Б., Эшанкулов Б.И., Галаева З.Ш.***	***Тез ўсувчи истиқболли тераклар***	***501***
127.	***Худойназарова Н.Х., Буранова Ш.У., Ёқубов Н.Н., Холова Ш.А.***	***Хандон пистанинг хорижий навлари уруғ авлоди дарахтларининг ҳолати***	***503***
128.	***Хасанова М.Г., Рустамов М.Г., Хомидова Н.И., Очилов Т.О.***	***Маҳаллий писта навлари -"боботоғ" ва "ғаллаорол"***	***506***
129.	***Янгибаева И.З., Мўминова Ш.Х, Эшанкулов Б.И.***	***Ўзбекистонда ўсадиган ёғочбоп дарахт турлари***	***509***
130.	***Усмонова Ш.Х., Эшанкулов Б.И.***	***Биомелиорация объекти: дарахт ва буталар***	***511***
131.	***Имомова Г.***	***Ҳикоя жанрида макон - замон ва бадиий синтез***	***513***
132.	***Fayziyeva M.X.***	***Psixologik himoya mexanizmining o'zbek xalq psixologiyasida ifodalanishi***	***521***
133.	***Бегматова Н.Х.***	***Таълимий компьютерли дидактик ўйинлар ва улардан фойдаланиш имкониятлари***	***524***
134.	***Ochilova K.I.***	***O'zbekistonda kino san'atining vujudga kelish tarixi***	***528***
135.	***Юнусова Х.Э.***	***Орол денгизи ва унинг атрофида экологик вазиятнинг кескинлашуви***	***532***

136.	***Rustamova Z.B.***	***O'zbekistonda ichki ishlar organlari tarixi va sohada kadrlar masalasi***	***536***
137.	***Boltayeva M.J.***	***Chet el investitsiyalarini jalb qilishning afzalliklarining nazariy asoslari(jahon tajribasi misolida)***	***539***
138.	***Qanoatova F.***	***O`zbekistonda ayollar tadbirkorligida fermerlik faoliyatining rivojlanishi***	***543***
139.	***Г.Муминова***	***История борьбы с эпидемиями в Туркестанской АССР, БНСР и ХНСР***	***547***
140.	***Муртазова С.Б.***	***"Мақом" фестивали – халқаро маданий ҳамкорликнинг янги босқичи***	***550***
141.	***Xushmatova S.***	***Qashqadaryo viloyati arxivlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi***	***555***
142.	***Эркаева Г.***	***Марказий Осиё цивилизациясида «Жанубий сўғд»нинг ўрни***	***558***
143.	***Пиргулиева Г.***	***О некоторых эпиграфических материалов Азербайджана периода средневековья с данными экономических вопросов***	***561***
144.	***Шербобоева Г.Б.***	***Мультисервис тармоқлар самарадорлигини баҳолаш тизими***	***568***
145.	***Samiyeva G.T.***	***Ijtimoiy ta'minotda pul va natura ko'rinishidagi transferlardan foydalanishning jahon tajribasi***	***570***
146.	***Tinicheva M. Raupova L.***	***Business activity the path of development of the agricultural sector of the Republic of Uzbekistan***	***575***
147.	***Равшанова Г. Қ.***	***Трагикомедия типидаги изланишларда шахс ва жамият психологиясининг акс этиши***	***581***
148.	***Бекназарова Л. Б.***	***Психологияда ижодкорлик феноменини ўрганишнинг илмий анъаналари***	***586***
149.	***Ишанходжаева З.Р.***	***К вопросу об идеологизации сферы культуры в Узбекистане в 1920-1930-е гг***	***590***
150.	***Бобожонова Д.***	***Янги маънавий маконни яратишда маданият ва санъат ижтимоий вазифаларининг трансформацияси***	***593***
151.	***Davronova M.N.***	***O'zbekistonda Rossiya federatsiyasi bilan tuzilgan qo'shma korxonalar faoliyati.***	***599***
152.	***Norbo'tayeva G.A.***	***Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim muassasalaridagi kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi***	***603***
153	***Suyarova F.S.***	***Qashqadaryo viloyatida badiiy kashtachilik va gilamchilik san'atining rivojlanish jarayonlari***	***607***

MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI TIZIMIDA O‘ZBEKISTON TARIXI VA MADANIYATI

mavzusida II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi
22-23-sentyabr, 2023-yil

Muharrir: **B. Musayev**

Texnik muharrir: **M. Tog‘ayev**

Bosishga ruxsat etildi: 19.09.2023 y.

Ofset qog‘oz. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16.

“Cambria” gar. Ofset bosma.

Hisob nashriyot t.: 37,48. Shartli b. t.: 37,41.

Adadi: 20 nusxa. Buyurtma №60

QarMII kichik bosmaxonasida chop etildi.

180100. Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225 – uy.

Telefon 91-466-80-32.